Ushbu maqolada “Vodorod” mavzusini muammoli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi bayon etilgan. Bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish qo‘llaniladigan bir yangicha tizimidir. Unda vodorodning fizikaviy va kimyoviy xossalari, uning yerda va koinotda oz miqdorda tarqalishi, laboratoriya va sanoatda ishlab chiqarish usullari ko‘rib chiqiladi. Vodorod iqtisodiyoti kelajakdagi energiya tizimlarida katta rol o‘ynashi, vodorod ishlab chiqarishning bir qancha termal va katalitik usullari taqdim etilgan. Muamoli vaziyatlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *vodorod, energiya, element, atom, suv, muammoli vaziyat, texnologiya.*

Аннотация

В данной статье изложена методика преподавания темы “Водород” на основе технологии проблемного обучения. Это новая система, которая применяется для логического мышления, анализа, поиска, обобщения, решения проблемных ситуаций. В нем рассматриваются физические и химические свойства водорода, его распределение на земле и во Вселенной в небольших количествах, а также методы лабораторного и промышленного производства. Учитывая, что водородная экономика будет играть большую роль в будущих энергетических системах, было представлено несколько термических и каталитических методов производства водорода. Даны рекомендации по применению проблемных ситуаций на практике.

Ключевые слова: *водород, энергия, элемент, атом, вода, проблемная ситуация, технология.*

Annotation

This article describes the methodology of teaching the topic “Hydrogen” based on the technology of problem-based learning. This is a new system that is used for logical thinking, analysis, search, generalization, and problem solving. It examines the physical and chemical properties of hydrogen, its distribution on Earth and in the universe in small quantities, as well as laboratory and industrial production methods. Considering that the hydrogen economy will play a important role in future energy systems, several thermal and catalytic methods of hydrogen production have been presented. Recommendations on the application of problematic situations in practice are given.

Keywords: *hydrogen, energy, element, atom, water, problem situation, technology.*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilarga bog‘liq ekanligi e’tirof etilmoqda [2].

Vodorod iqtisodiyoti kelajakdagi energiya tizimlarida asosiy rol o‘ynaydi. Vodorod — kimyoviy element Vodorodning eng keng tarqalgan izotopi protiy bo‘lib, unda neytronlar yo‘q. Vodorod ikkinchi izotopi – deyteriy D atomida 1 ta proton va 1 ta neytron bor, uchinchi izotopi tritiy – T. U bitta proton va ikkita neytrondan iborat. Vodorod ikki atomdan iborat molekuladir. Bunday ikki atomli molekulalardan hosil bo‘lgan molekulyar vodorod yonayotgan gugurt ko‘tarilganda ham portlaydi. Vodorod molekulasi portlaganda atomlarga ajralib, geliy yadrosiga aylanadi. Quyosh va yulduzlarda shunday reaksiyalar sodir bo‘ladi. Vodorod molekulasining doimiy parchalanishi tufayli yulduzlar yonadi va isitadi [3, 67].

Metanning termal parchalanishi (MTP) va metanning termokatalitik parchalanishi (MTK) deb nomlanuvchi bu jarayonlar vodorod ishlab chiqarish uchun eng katta imkoniyatlarga ega. Xususan, asosiy e’tibor parchalanish jarayonlarida hosil bo‘ladigan uglerodlarning har xil turlari va xususiyatlariga qaratiladi.

Kislotalar va metallarning o‘zaro ta’sirida yonuvchi gazning ajralib chiqishi XVI–XVII asrlarda kimyo fan sifatida shakllangan davrda kuzatilgan. M.V.Lomonosov vodorodni ajratib olish mumkinligiga ishora qilgan va bu flogiston emasligini aniq anglagan. Ingliz fizigi va kimyogari G. Kavendish 1766-yilda bu gazni o‘rgandi. U yonganda “yonuvchi havo” suv hosil qilgan, ammo Kavendishning flogiston nazariyasiga sodiqligi to‘g‘ri xulosa chiqarishga to‘sqinlik qilgan. Fransuz kimyogari A.Lavuazye muhandis J.Menye bilan birgalikda maxsus gazometrlardan foydalangan holda 1783-yilda suvni sintez qildi, so‘ngra suv bug‘ini qizdirilgan temir bilan parchalab tahlil qildi. Shunday qilib, u “yonuvchi havo” suvning bir qismi ekanini va undan olinishi mumkinligini aniqladi [3, 69]. N.N.Azizxo‘jayevaning Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat o‘quv qo‘llanmasida muammoli o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha izoh va ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Muammoli o‘qitish texnologiyasining shartlari va talablari Saydaxmetova Sh.R. Kimyo o‘qitish metodikasi nomli o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan va misollar bilan tushuntirilgan. I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboyev, K.G‘. G‘opirovlar mualliffigidagi 7-sinf Kimyo darsligida vodorod haqida III bobi Vodorodga bag‘ishlangan bo‘lib undagi 22-26-§ larda vodorod haqida tushunchalar, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari, ishlatilishi haqida ma’lumotlar va test savollari keltirilgan. Bunda vodorod haqidagi boshlang‘ich kimyoviy tushunchalarni oson ammo chuqur egallash mumkin. N.L.Solodova, R.R.Minigulov, Y.A.Yemelyanicheva “Водород как перспективный энергоноситель. современные методы получения водорода” nomli maqolasida vodorod istiqbolli energiya tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lib, vodorod ishlab chiqarishning zamonaviy usullari haqida aytib o‘tilgan. T.Ch. Aliboyevning Pedagog Jurnali Muammoli o‘qitish texnologiyasi nomli maqolasida dars mashg‘ulotlarini muammoli o‘qitishning vazifasi, talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlarining usullarini samarali o‘zlashtirishga hamkorlik qilish haqida so‘z yuritiladi. Sh.Sh.Odilova, N.E.Odilovlarning Muqobil yonilg‘ilardan motor yonilg‘isi sifatida foydalanish istiqbollari nomli maqolasida muqobil yonilg‘ilarni motor yonilg‘isi sifatida qo‘llashning afzalliklari yoritilgan hamda tabiiy gaz yonilg‘isining ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan. Sh.R.Saydaxmetovaning “Improvement of methodology of experiments in organic chemistry” nomli maqolasida kimyo o‘qitishda tajribalar bajarish va takomillashgan metodlar haqida so‘z boradi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llanilganda o‘qitishning hozirgi jarayoni tahlil qilinadi, psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo‘lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rsatadi. O‘qitish sharoitida insonning o‘sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o‘ziga xos turtki vazifasini bajaradi [7, 688].

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur [8, 29]. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki “fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq” bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi [5, 96].

O‘quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

• yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma’lumning qo‘yilishi;

• o‘quvchilarda noma’lumni topish yo‘lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muayyan bilim zaxirasining bo‘lishi.

O‘quv muammosini yechish jarayonida o‘quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o‘ylab topish yoki gipoteza qo‘yish hamda gipotezani asoslashdir. O‘quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Muammoning tarkibiy qismlari, ma’lum va noma’lumning o‘zaro munosabati xarakteri bilimga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo‘lgan izlanishga undaydi. Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat — o‘quv muammosi — o‘quv muammosini yechish uchun izlanish — muammoning yechilishi.

Muammoli vaziyatlarni amaliyotda qo‘llash uchun quyidagilarni bilish kerak:

1. Vaziyatga qarab eng dolzarb muammolar tanlash.

2. O‘quv mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim xususiyatlarini aniqlash.

3. Muammoli ta’limning eng samarali tizimini yaratish.

4. O‘qituvchining talabalar tadqiqot ishini tashkil etishdagi mahorati.

5. Muammolarni hal etishdan kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, bilim olishga oid ahamiyati.

Mashg‘ulotlarni muammoli tariqa olib borish talabalar faolligini oshiradi va ularni darsga ongli ishtirok etishga undaydi. Muammoli dars talaba tomonidan muammoli vaziyat o‘tkazish, laboratoriya ishlarini bajarish, masalalar yechish orqali amalga oshiriladi va talabalar ishtirokida muammo oydinlashtiriladi [6, 70].

Yangi dars o‘tilgandan so‘ng uni mustahkamlash maqsadida muammoli vaziyat va uning yechimi metodini qo‘llandi. Bunda o‘quvchilarga muammoli vaziyat yaratildi [4, 134].

Vodorod koinotdagi eng keng tarqalgan elementdir. U barcha atomlarning taxminan 92% ni tashkil qiladi (8% geliy atomlari, barcha boshqa elementlarning birgalikdagi ulushi 0,1% dan kam). Shunday qilib, vodorod yulduzlar va yulduzlararo gazning asosiy tarkibiy qismidir. Yerda bog‘langan va erkin holatda mavjud bo‘lgan kisloroddan farqli o‘laroq, deyarli barcha vodorod birikmalar shaklida bo‘ladi; atmosferada oddiy modda holidagi juda oz miqdordagi vodorod (hajm bo‘yicha 0,00005%) uchraydi [3, 68].

Laboratoriyada vodorodning olinishi:

Reaksiya odatda Kipp apparatida, oz miqdorda vodorod olish uchun esa Kiryushkin apparatida olib boriladi. Suvni siqib chiqarish usulida yig‘iladi. Laboratoriyada vodorod olish uchun metallarga xlorid kislota yoki suyultirilgan sulfat kislota ta’sir ettiriladi.

$$Zn + 2HCl \rightarrow ZnCl_2 + H_2\uparrow$$

Suv bug‘lari bilan cho‘g‘langan temir ta’sirlashganda ham vodorod hosil bo‘ladi:

$$3Fe + 4H_2O \rightarrow Fe_3O_4 + 4H_2\uparrow$$



Sanoatda vodorodning olinishi:

Vodorodni olishning sanoat usullari laboratoriya usullaridan farq qiladi.

1. Suv bug‘lari bilan tabiiy gazni konversiya qilib olinadi:

$$CH_4 + H_2O \rightarrow CO + 3H_2\uparrow$$

2. Suv bug‘lari bilan cho‘g‘langan ko‘mir konver siya qilib olinadi:

$$C + H_2O \rightarrow CO + H_2\uparrow$$

3. Suvni elektr toki yordamida parchalab olinadi.

$$2H_2O \rightarrow 2H_2\uparrow + O_2\uparrow$$

4. Metanni parchalab olinadi:

$$CH_4 \rightarrow C + 2H_2$$

Hozirgi kunda dunyo olimlari vodorodni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan yordamida olish ustida tadqiqotlar o‘tkazmoqda[3, 70]. Bu usulda vodorod olish “yashil” vodorod olish deb nomlanadi. Bu usul uchun elektrolizyor, suv, elektrenergiya zarur. Suv bug‘lari bilan tabiiy gazni konversiya qilib olinadi.

Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular ne-

gizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil — muammolilikka tayanadi.

Vodorod qimmatli kimyoviy reagent bo‘lib, uning ishlab chiqarilishi va konsentratsiyasini yoqilg‘idan, qoldiq, chiqindi gazlardan imkon beradi iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish ishlab chiqarish. Vodorod deyarli topilmaydi tabiatda uning sof shaklida, lekin bu gazning iste’moli butun dunyoda barqaror o‘sib bormoqda [7, 689].

Qo‘llanilgan muammoli vaziyatlardan namunalar keltiramiz:

Sinf o‘quvchilarini 2 guruhga bo‘lib, savollarni beramiz va ikkala guruh o‘quvchilaridan vakillarni javoblarini eshitib javoblarni umumlashtiramiz.

Savol: Vodorod iqtisodiyotining rivojlanishi neft va gaz ko‘rinishidagi an’anaviy energiya manbalari yetkazib beruvchilarga zarba beradi. Lekin ularni “yashil texnologiyalarni” joriy qilishga jalb qilish mumkin. Germaniyaning SWP va EWI ilmiy markazlarida bu borada takliflar mavjud. Nima sababdan so‘nggi paytlarda Germaniya va Yevropa Ittifoqida vodorod va vodorod iqtisodiyoti haqidagi gap-so‘zlar ko‘paymoqda?

1-guruh o‘quvchilar javobi: Chunki hozirgi kunda global rivojlanish davridamiz. Yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi va takomillashishi sababli vodorod iqtisodiyotini kuchaytirish va rivojlanish yo‘llari ko‘paymoqda. Hamda vodoroddan yoqilg‘i vositasi sifatida foydalanish havo ifloslanishini oldini olishga ko‘mak beradi.

2-guruh o‘quvchilar javobi: Haqiqatdan hozirgi davr texnologiyalarining keng va ommabop rivojlanishi va takomillashishi natijasida havo tozaligini saqlash va ifloslanish darajasini kamaytirishimiz muhim rol o‘ynab kelmoqda. Shu sababli biz vodoroddan yoqilg‘i va energiya manbai sifatida foydalanishimiz har tomonlama to‘g‘ri va yechim bo‘la oladi.

O‘qituvchi javobi: Chunki bir tarafdan Yevropada, shuningdek, Osiyoda — Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoyda uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar natijasida H_2 ni qo‘llash borasida xilma-xil texnologiyalar yetilib pishmoqda. Boshqa tarafdan, ushbu texnologiyalarning aksariyati o‘z mohiyatiga ko‘ra ekologik toza bo‘lgani uchun, global iqlim isishiga qarshi kurash muhitida ularga bo‘lgan talab kuchaymoqda. Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij kelishuvlari doirasida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari atmosferaga issiqxona gazi bo‘lmish CO_2 ni chiqarishni sezilarli kamaytirish borasida majburiyatlar olgan va bu borada vodorod texnologiyalarining keng joriy qilinishi, qo‘yilgan maqsadlarga eltuvchi magistral yo‘llardan biri sifatida qaralmoqda.

Savol: Siz cho‘g‘lanib turgan ko‘mirga suv sepilganda charsillab yonishini kuzatganmisiz? Bunda qanday moddalar hosil bo‘ladi.

1-guruh o‘quvchilarining javobi: CO_2 va H_2

2-guruh o‘quvchilarining javobi: CO va H_2

O‘qituvchining javobi: Har ikkala guruhning ham javobini to‘g‘ri deyolamiz. Chunki havosiz O_2 kam bo‘lgan muhitda CO hosil bo‘ladi havo ya’ni O_2 yaxshi berilgan sharoitda CO_2 va H_2 hosil bo‘ladi. Bundan tashqari vodorodni olishning sanoat usullari laboratoriya usullaridan farq qiladi:

1. Suv bug‘lari bilan tabiiy gazni konversiya qilib olinadi:

$$CH_4 + H_2O \rightarrow CO + 3H_2$$

2. Suv bug‘lari bilan cho‘g‘langan ko‘mir konversiya qilib olinadi:

$$C + H_2O \rightarrow CO + H_2$$

Savol: Qizib turgan temirni suvga tushirganda suv bug‘lanib ketganini ko‘ramiz. Bunda qaysi reaksiya sodir bo‘ladi?

1-guruh o‘quvchilarining javobi: FeO va H_2O

2-guruh o‘quvchilarining javobi: Fe_3O_4 va H_2

O‘qituvchining javobi: Suv bug‘lari bilan cho‘g‘langan temir ta’sirlashganda ham vodorod hosil bo‘ladi:

$$3Fe + 4H_2O \rightarrow Fe_3O_4 + 4H_2$$

Vodorodning yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi sababli gyrokompaslarning sharlarini va LED filament shisha lampalarini to‘ldirish uchun ishlatiladi. Asosiy muammolardan biri - vodorod ishlab chiqarishning yuqori narxi, ayniqsa, tabiiy gazni bug‘ islohoti kabi an’anaviy usullardan foydalanish. Ushbu muammoni hal qilish vodorod ishlab chiqarishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda suv elektrolizi. Vodorod yonilg‘i quyish infratuzilmasini kengaytirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Vodoroddan foydalanish bilan bog‘liq muammolarni yangi texnologiyalar va infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, vodorod ishlab chiqarish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali hal qilish mumkin.

Xulosa shuki, talabalarni kasbiy tayyorgarligini oshirishda kimyo fanidan har bir mavzuni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, fanga doir kompetensiyani shakllanishiga olib keluvchi metodlardan unumli foydalanishga o‘rgatiladi. 7- sinf Kimyo fanidan Vodorod mavzusini o‘qitishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, savollarga aniq dalillarga asoslangan holda, izchil javob berish qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchi hech qachon o‘quvchiga muammoning tayyor yechimni berishi kerak emas, balki ularni fikrlashiga, aqliy rivojlanishiga, bilim olishlariga turtki bo‘lishi, ularning barcha faoliyatlarida zarur bo‘lgan axborot, voqea va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim. Ushbu ta’lim texnologiyasidan, muammoli vaziyatlardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarori [Electron resurs]. – URL.: http://lex.uz/docs-5085887 .
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son qarori. [Electron resurs]. – URL.: http://lex.uz/docs/-6079561.
3. Asqarov I.R., To‘xtaboyev N.X., G‘opirov K.G‘. /Kimyo. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2017. – 160 b.
4. Azizxo‘jayeva N.N. / Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-yil. – 160 b.
5. Saydaxmetova Sh.R. Kimyo o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. №356/7-021. – T.: TDPU Adad plus, 2021. – 156 b.
6. Aliboyev T.Ch. Muammoli o‘qitish texnologiyasi. “Pedagog” jurnali, 2023. 40 (1), – 64–67 b. https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/6355
7. Odilova Sh.Sh, Odilov N.E. Muqobil yonilg‘ilardan motor yonilg‘isi sifatida foydalanish istiqbollari. Academic research in educational sciences, 2021. 2 (1), 687-697 B. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00089 10.24411/2181
8. Saydakhmetova Shakhnoza Ravshanbekovna //“Improvement of methodology of experiments in organic chemistry”. *European Journal of Agricultural and Rural Education*, 2021. *2*(9), 29-30 p. Retrieved from https://scholarzest.com/index.php/ ejare/article/view/1256.
9. Солодова Н.Л., Минигулов Р.Р., Емельянычева Е.А. Водород как перспективный энергоноситель. Современные методы получения водорода. Вестник Казанского технологического университета, 2015. 18 (3), С. – 137-140. doi: 10.24412/Fg4yW5JCGyE.

TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA FIZIKA FANINI O‘QITISHNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Sharapat Baymuratov,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nukus filiali assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda multimedia texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etishning afzalliklari keltirilgan. Multimedia texnologiyasi materiallarini taqdim etishda yuqori darajadagi aniqliq, vizualizatsiya, ratsionallik va moslashuvchanlikka erishiladi. Demak, texnik oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, balki bo‘lajak mutaxassislarni o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlaydi. Bunday yondashuvlarning ishlab chiqilishi va ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi zamonaviy texnologik dunyo talablariga tayyor yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: *multimedia texnologiyasi, animatsiya, 3D model, interaktiv simulyatsiya, videoma’ruza, elektron darslik.*

Аннотация

В данной статье представлены преимущества использования мультимедийных технологий при преподавании физики в технических вузах. При подаче материалов мультимедийной техники достигается высокий уровень точности, наглядности, рациональности и гибкости. Поэтому использование мультимедийных технологий при преподавании физики в технических вузах не только помогает эффективно усваивать учебный материал, но и готовит будущих специалистов к использованию современных технологий в своей профессиональной деятельности. Разработка таких подходов и их применение в образовательном процессе служат формированию высококвалифицированных специалистов, готовых к требованиям современного технологического мира.

Ключевые слова: *мультимедийные технологии, анимация, 3D модел, интерактивное моделирование, видеолекция, электронный учебник.*

Annotation

This article presents the advantages of using multimedia technology in the teaching of physics in technical higher education institutions. A high level of accuracy, visualization, rationality and flexibility is achieved in the presentation of multimedia technology materials. Therefore, the use of multimedia technologies in the teaching of physics in technical higher education institutions not only helps to effectively master the educational material, but also prepares future specialists to use modern technologies in their professional activities. The development of such approaches and their application to the educational process serve to form highly qualified specialists who are ready for the requirements of the modern technological world.

Keywords: *multimedia technologies, animation, 3D model, interactive modeling, video lecture, electronic textbook.*

Ma’lumotlarni uzatish va qayta ishlash tezligi asosiy o‘rin tutadigan zamonaviy axborot texnologiyalari dunyosida o‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish texnik oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, texnik ta’lim uchun fundamental fanlardan biri bo‘lgan fizika fani uchun bu usul katta ahamiyatga ega.

Fizika kursining ahamiyati bo‘lajak texnik mutaxassislarda bilimdonlik va “jismoniy” fikrlash uslubini rivojlantirishdagi o‘rni ahamiyatli ekanligi shubhasizdir. Shuning uchun ham texnik oliy o‘quv yurtlari mutaxassislarining kasbiy sifatlarini shakllantirishda fizika fanining o‘rni juda katta bo‘lishi kerak. Boshqa tomondan, fizika ko‘pgina umumiy texnik va muhandislik fanlarining nazariy asosi hisoblanadi, shu sababli fizikani o‘qitishda zamonaviy o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish bilimlarni sezilarli darajada chuqurlashtirish va dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning ushbu sohadagi vakolatlarini rivojlantirishi mumkin.

Zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari orasida multimedia texnologiyalari eng samarali hisoblanadi va fizikani o‘qitishda multimedia texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri bu ikki o‘lchovli va uch o‘lchovli tasvirlar, tovushlar, musiqa, animatsiya, video, matn va raqamli ma’lumotlar va boshqalarni birlashtirish mumkin bo‘lgan murakkab fizik jarayonlarni vizualizatsiya qilish imkonini yaratib, barcha turdagi axborotlarning bir butunligini tashkil qiladi [1, 103].

Animatsiyalar, 3D modellar va interaktiv simulyatsiyalardan foydalanish talabalarga elektromagnit to‘lqinlar yoki kvant mexanikasi kabi mavhum tushunchalarni tasavvur qilish imkonini beradi. Bu materialni tushunish va o‘zlashtirishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Multimedia texnologiyalari ma’lumotni shunday taqdim etishni ta’minlaydiki, bunda odam odatiy ta’limda bo‘lgani kabi ketma-ket emas, balki uni bir vaqtning o‘zida parallel ravishda qabul qiladi. Talabaga ko‘rish va eshitish orqali birgalikda ta’sir qilish va uning faol harakatlarda ishtirok etishi bilan o‘quv materialining ulushi 75% ni tashkil qilishi mumkin [2, 79].

Hozirgi kunda Respublikamizda bo‘layotgan yangi o‘zgarishlar ta’lim sohasini tubdan yangilashini taqozo etmoqda. Darhaqiqat, teran bilimli, keng dunyoqarashli komil insonni tarbiyalash masalasi pedagoglardan yangidan yangi izlanish tamoyillarini amalga oshirishda katta mas’uliyat yuklaydi. Shu jumladan, Mamlakatimiz Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032 sonli (19.03.2021) qarorida “Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish, iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olish, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanish, innovatsiyalarni rivojlantirish va amaliy samaradorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilib, yechimini topgan bir qator muammolar fizika sohasida ta’lim sifati va ilmiy izlanish samaradorligini oshirishga asoslangan tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi”.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, hozirgi kundagi jamiyatning yangi texnologik tuzilmalarga o‘tish davrida juda dolzarbdir. Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish, ta’lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan ta’minlash, global va mahalliy ta’lim axborot tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlari jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda.

Texnologiya va axborotni mohirona va samarali o‘zlashtirgan shaxs yangicha fikrlash uslubiga ega bo‘ladi, yuzaga kelgan muammoni baholashga, o‘z faoliyatini tubdan boshqacha tashkil etishga yondashadi.

Hozirgi kunda aniq fanlarni sifatli darajada o‘qitish pedagoglarning oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi. Aniq fanlarni o‘rganishda o‘quvchilar ko‘plab muammoli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning bilan bilimlarni sifatli darajada yetkazib berishda pedagoglardan katta mahorat va o‘quvchilarni darslarga qiziqtirish kerak bo‘ladi. Ta’limning zamonaviy metodlaridan hisoblangan elektron ta’lim aniq fanlarni o‘qitishda qo‘l keladi. Elektron ta’lim — bu ta’limning elektron metodlaridan biri hisoblanadi. Odatda, kompyuter yordamida kurslarning to‘liq yoki bir qismi o‘qitiladi. Elektron ta’lim kurslarida Xalqaro darajadagi resurslar taqdim etiladi.

An’anaviy ta’lim o‘qituvchi — kitob — o‘quvchi tarzida bo‘lib kelgan. O‘quvchilar barcha ma’lumotlarni kitobdan o‘qib olganlar. Elektron ta’limda esa barcha resurslar Internet tarmog‘iga joylashtirilgan bo‘ladi. Bu ikkala tizimning eng asosiy farqi shundaki, an’anaviy ta’limda resurslarga o‘zgartirish kiritish uchun ushbu kursga taalluqli bo‘lgan adabiyotni qayta nashr qilish zarur bo‘ladi. Elektron ta’limda esa resurslarni qiyinchiliklarsiz almashtirish mumkin, hattoki resurslarni har kuni yangilab turish mumkin. Bu esa hozirgi axborotlar almashinuvi zamonida ancha qo‘l keladi.

Shuning bilan bir qatorda o‘quvchilar zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish, bilimlarini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish — bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ta’lim tizimida o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib o‘qitish qo‘llanilmoqda.

Shulardan Phet.colorado.edu elektron sayti hisoblanadi. Ushbu Phet.colorado.edu sayti fizikadan laboratoriya ishlarini oson bajarishga ko‘makchi bo‘ladi. Bu sayt an’anaviy uslubda o‘quvchi yoki talaba nazariy materiallarni o‘rganib chiqib, o‘rgangan bilimini mustahkamlash uchun qulay.

PhET saytida taqdim etilayotgan modellar Open Sourse bo‘lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhET dagi modellar soni 100 dan ortiq bo‘lib, ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o‘tkazish, virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatiga ega. PhET dasturi O‘zbekiston davlat ta’lim standartlariga va o‘quv muassasalarida qo‘llanilayotgan adabiyotlariga mos keladi.

PhET dasturidagi modellardan fizika, matematika, kimyo va biologiya fanlaridan dars mashg‘ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin.

Dasturda keltirilgan modellarni nafaqat ingliz tilida, balki 5G dan ortiq tildagi tarjimalari mavjud, o‘zbek tilida ham 1 ta model tarjima qilingan. Agar dasturda keltirilgan modellarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni xohlasangiz, hech qanday qiyinchiliksiz buni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun dasturning rasmiy saytida “Translated Sims” bandi mavjud bo‘lib, u yerga kirib maxsus qaydnomani to‘ldirgan holda tegishli modelni tanlab o‘zbek tiliga tarjima qilishingiz mumkin.

O‘quv multimedia dasturlari sinfda frontal, guruhli va individual mashg‘ulotlar uchun, shuningdek uyda mustaqil ishlash uchun ishlatiladi, ammo bu turdagi o‘quv dasturlari to‘plami qo‘llanilishida moslashuvchan bo‘lishi talab qilinadi. Ular foydalanuvchiga juda ko‘p individual sozlash variantlarini taklif qiladi: talaba o‘quv materialini o‘zlashtirganda, o‘rganish tezligini, materialning hajmini va uning qiyinchilik darajasini belgilaydi [3, 20].

Multimedia texnologiyalari ma’ruzalarni yanada qiziqarli va hayajonli qiladi. Proyektorlar, interfaol doskalar va taqdimot dasturlari o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro aloqani ta’minlaydi. Bu talabalarning munozaralarda ko‘proq ishtirok etishini rag‘batlantiradi va yanada ijobiy o‘quv muhitini yaratadi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish nafaqat taqdim etilgan materiallarni o‘zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Multimedia texnologiyalarini joriy etish samaradorligi uslubiy va axborot bazasini tayyorlash bilan ta’minlanadi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanishning yana bir afzallik tomoni bu ta’lim mazmunidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Videoma’ruzalar, elektron darsliklar va onlayn resurslar talabalarga o‘zlari uchun qulay bo‘lgan joyda va istalgan vaqtda materialni o‘rganish imkonini beradi, bu ayniqsa ko‘plab talabalar masofaviy ta’limdan faol foydalanayotgan zamonaviy ta’lim sharoitida juda muhimdir.

Multimedia texnologiyalari talabalar virtual muhitda tajriba o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan virtual laboratoriyalar yaratish imkonini yaratadi. Bu nafaqat resurslarni tejash va xavfsizlikni ta’minlash, balki o‘quvchilarga tajribalarni ko‘p marotaba takrorlash, fizika tamoyillari va qonunlarini chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

Multimedia texnologiyalari o‘qituvchilarga materialni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Moslashuvchan ta’lim tizimlari va shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari har bir talabaning tayyorgarlik darajasini hisobga oladi, materialni optimal o‘rganishni ta’minlaydi [5, 27].

O‘quv jarayoniga multimediali taqdimotlarni joriy etish bo‘yicha tajribamizga asoslanib, biz ushbu pedagogik texnologiyaga asoslangan yangi materialni taqdim etishda, uni mustahkamlash va faollashtirishda talabga ega bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz bu o‘z navbatida talabalarda vizual tasvirlash orqali idrok etish va esda saqlashni sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu bilimlarni chuqurlashtirishga, fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4, 33].

Multimedia taqdimotlaridan foydalanish bu shubhasiz juda ko‘p afzalliklarga ega, ammo ularning maqsadga muvofiqligi va o‘z vaqtida amalga oshirish kerakligini unutmasligimiz kerak. Taqdim etilgan ma’lumotlar butunlay vizual shaklda bo‘lmasligi mumkin. Materialni etkazib berishda ishlatiladigan usullarning me’yori bo‘lishi zarur. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ulardan tizimli foydalanish, materialni sifatli tanlash, to‘g‘ri taqdim etish va o‘rganilgan materiallardan amaliy foydalanish imkoniyati mavjud.

Demak, texnik oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, balki bo‘lajak mutaxassislarni o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlaydi. Bunday yondashuvlarning ishlab chiqilishi va ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi zamonaviy texnologik dunyo talablariga tayyor yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish ta’lim ma’lumotlarini sezilarli darajada faollashtiradi, uni idrok etish uchun ko‘proq vizual qiladi va o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бондарева Г.И., Бондарев А.Н. Интерактивные электронные учебники как средство обучения в вузе // Высшее образование в России. – 2011, №9. – 101-104 с.
2. Князева Г.В. Применение мультимедийных технологий в образовательных учреждениях// Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева. – 2010, №16. – 77-94 с.
3. Ткачева Т.М., Смык А.Ф., Тимофеева Г.Ю. Физика и мультимедиа в учебном процессе технического университета. История и педагогика естествознания. – 2017, №3. – 17-21 с.
4. Кадиримбетова Г.Р., Аширбекова С.У. Повышение образовательного потенциала при применении ИКТ в процессе обучения физике // Международная научно-практическая конференция. – М., 2022. – 30-34 с.
5. Камалов А.Б., Баймуратов Ш.Ж. Стимулирование в образовании посредством интернет-технологии. Международная научно-практическая конференция, “Современные исследования и инновации в науке и образовании”. – М., 31 январь, 2022. – 26-29 с.

DEVELOPING LISTENING COMPREHENSION AND EDUCATIONAL APPROACHES IN LANGUAGE LEARNING

Gulshirin Sadullayeva,
Independent researchers of
Tashkent University for Applied Sciences

Annotation

Students often encounter challenges in comprehending spoken content due to a lack of emphasis on listening in educational materials and practices. This research explores obstacles associated with hearing, listening, and understanding, highlighting the importance of instructor awareness. By addressing these challenges, instructors can assist students in developing effective listening habits, fostering empathy and enhancing overall learning experiences. Practical suggestions for educational activities are provided, emphasizing the significance of building English listening capabilities.

Keywords: *comprehensive strategies, educational activities, language learning, listening comprehension, language instruction.*

Annotatsiya

Talabalar ko‘pincha o‘quv materiallari va amaliyotlarida tinglashga e’tibor berilmaganligi sababli og‘zaki nutq mazmunini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu tadqiqot eshitish, tinglash va tushunish bilan bog‘liq to‘siqlarni o‘rganadi va o‘qituvchining xabardorligi muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu muammolarni hal qilish orqali o‘qituvchilar talabalarga samarali tinglash odatlarini rivojlantirish, hamdardlikni rivojlantirish va umumiy o‘rganish tajribasini oshirishda yordam berishi mumkin. Ingliz tilini tinglash qobiliyatini shakllantirish muhimligini ta’kidlaydigan ta’lim faoliyati uchun amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *keng qamrovli strategiyalar, ta’lim faoliyati, til o‘rganish, tinglab tushunish, tilga o‘rgatish.*

Аннотация

Студенты часто сталкиваются с трудностями в понимании устной речи из-за недостаточного внимания к аудированию в учебных материалах и практиках. Это исследование исследует препятствия, связанные со слухом, слушанием и пониманием, подчеркивая важность осведомленности инструктора. Решая эти проблемы, преподаватели могут помочь учащимся развить навыки эффективного слушания, развивать эмпатию и улучшить общий опыт обучения. Представлены практические предложения по образовательной деятельности, в которых подчеркивается важность развития навыков аудирования на английском языке.

Ключевые слова: *комплексные стратегии, образовательная деятельность, изучение языка, понимание на слух, обучение языку.*

Listening, considered one of the fundamental practical skills alongside reading, writing, and speaking in English communication, holds particular significance. Among these skills, listening stands out as the most crucial, given its potential to greatly enhance overall proficiency and success in other areas [6, 212]. This investigation seeks to ascertain the substantial value of possessing proficient listening skills, as they have the capacity to significantly enhance performance in various domains [6, 218]. To achieve fluency in spoken English, English as a Foreign Language (EFL) students must dedicate considerable daily time to immerse themselves in the language [6, 219]. The improvement of listening skills is indispensable for acquiring a second language (L2) during one’s lifetime [12, 53]. As Osada suggests, the ability to listen does not necessarily demand active engagement and can be culti-

vated independently [12, 55]. According to Abdalhamid, listening stands out as the most crucial skill for effective language acquisition [1, 20].

Listening, being the most frequently utilized skill in daily life, demonstrates a quicker rate of improvement compared to other abilities, making it more accessible to acquire new skills. This study places considerable emphasis on listening skills, recognizing it as the primary challenge and the most promising avenue for progress among students of English as a Foreign Language (EFL). Challenges faced in learning this skill include a restricted vocabulary, difficulty interpreting signals or cues, slow analysis of auditory input, lack of focus, and entrenched learning patterns that hinder listening skill development [2, 267]. Despite these challenges, overcoming them is possible, albeit making the learning process more demanding.

In this comprehensive review, researchers initiated by examining strategies employed for listening comprehension, subsequently delving into challenges students face while listening to oral passages. The objective was to enhance educators' comprehension of these challenging aspects of listening comprehension, thereby promoting the adoption of effective teaching strategies. The intention is that the findings from this literature review will furnish instructors and students with valuable insights and instructional perspectives for guiding the instruction and enhancement of listening comprehension skills.

This study adopts a comprehensive approach to understand listening comprehension, commencing with an examination of strategies employed for effective comprehension. Subsequently, it focuses on elucidating challenges encountered by students when confronted with oral passages. The objective is to enhance educators' comprehension of these intricate aspects and pave the way for the adoption of effective teaching strategies. A mixed-methods research design combines qualitative insights from strategies with quantitative data on challenges, providing a nuanced understanding of the multifaceted landscape of listening comprehension. Surveys and interviews serve as primary data collection tools, capturing both the breadth and depth of experiences. Participants include students and educators engaged in English language learning or teaching, ensuring diverse perspectives are considered. The data collected will undergo rigorous analysis to extract meaningful patterns and insights.

The exploration of listening skills, considered a pivotal practical competency alongside reading, writing, and speaking in English communication, underscores its paramount importance. Among these skills, listening emerges as the linchpin, holding the potential to significantly augment overall proficiency and success in various domains [6, 219]. This review aims to delineate the substantial value of adept listening skills and their capacity to enhance performance across diverse areas [6, 220]. To attain spoken English fluency, students in English as a Foreign Language (EFL) programs must devote substantial daily time to linguistic immersion [6, 219]. The significance of honing listening skills for acquiring a second language (L2) throughout one's lifetime is emphasized [5, 16]. Osada asserts that listening, requiring no active engagement, can be cultivated independently [12, 55]. Abdalhamid underscores listening as the most critical skill for effective language acquisition [1, 56]. This review further delves into the rapid improvement of listening skills, making it a more accessible avenue for acquiring new talents. Despite being the most frequently used skill in daily life, mastering listening skills poses challenges such as a limited vocabulary, difficulty interpreting cues, slow analysis of auditory input, lack of focus, and entrenched learning patterns hindering skill development [2, 267]. Overcoming these challenges is feasible but adds complexity to the learning process.

The results of the study reveal a rich tapestry of strategies employed for effective listening comprehension. Participants consistently emphasize the significance of active engagement and immersion in language-rich environments. Various techniques, including focused listening exercises and multimedia resources, emerge as effective tools in enhancing listening skills. On the challenges front, a common theme is the struggle with vocabulary limitations and the difficulty in rapidly analyzing auditory input. The findings underscore the need for targeted interventions to address these challenges, ensuring a holistic improvement in listening proficiency. Quantitative data provides a nuanced understanding of the prevalence and impact of these challenges, offering valuable insights for educators.

The discussion section synthesizes the findings from the literature review, methodology, and results to provide a comprehensive understanding of the intricate dynamics of listening comprehension. It explores the implications of identified challenges on teaching strategies, highlighting the importance of tailored interventions to address vocabulary limitations and enhance rapid auditory analysis. The discussion also delves into the broader significance of effective listening skills in language acquisition and its implications for lifelong learning. Practical recommendations for educators and learners are drawn from the study's insights, aiming to facilitate more effective approaches to teaching and acquiring proficient listening skills in English language education. The limitations of the study and avenues for future research are also contemplated, ensuring a well-rounded exploration of the topic.

1. The Concept of Listening:

Scholars have proposed diverse interpretations to characterize the act of listening. Buck defines listening as the capacity to comprehend native speech delivered at a regu-

lar tempo [4, 48]. Morley [11, 418] expands the definition, incorporating elements such as aural grammar, auditory discrimination, information selection, information retention, and connecting information to the relationship between sound and meaning. Danan distinguishes listening from sound detection and auditory understanding based on the conveyed meaning [7.48]. Goss [8, 55] articulates listening as the parsing of heard information into lexical components for meaningful interpretation. A study by Brown and Yule suggests that listening and comprehending spoken language are essentially synonymous [3, 69]. Conrad breaks down the process of listening into three stages: receipt, interpretation, and reaction to both verbal and nonverbal stimuli [5, 15]. Abdalhamid underscores listening as a complex process requiring comprehension to fully appreciate what has been heard. He underscores the pivotal role of listening in effective communication, providing a more accurate perspective of the surrounding world [1, 102]. Holden research posits that listening aids in communication, understanding, and gaining knowledge of others' statements, while hearing enables comprehension of the surrounding environment. This intricate process involves grasping meaning, grammatical structures, vocabulary, and pronunciation simultaneously, achievable by a skilled listener [10, 260].

2. Understanding Listening Comprehension:

Various scholars offer unique definitions of "listening comprehension." Brown and Yule define it as the ability to understand information provided aurally. They attribute listening abilities to instructional strategies, using phrases like "speech comprehension," "spoken language understanding," "speech recognition," and "speech perception [3, 95]." Buck highlights listening as a participatory process, involving listeners in building meaning through sound discrimination, prior knowledge, grammatical forms, tension, intonation, and linguistic cues. He also broadens the scope, encompassing activities like understanding spoken words, interpreting heard information, and understanding sentence structures [4, 207].

3. Strategies to Enhance Listening Comprehension:

In alignment with Goh, educators should prioritize enhancing students' syntax, pronunciation, and vocabulary understanding before delving into teaching listening skills, considering the complexity for students struggling with auditory comprehension. He also emphasizes the importance of developing strategies, allowing students to control and evaluate their comprehension and responses effectively [8, 75]. Recognized strategies, as identified by Azmi Bingol, encompass cognitive, socio-affective, and metacognitive components. These strategies may require adjustments to align with students' current proficiency levels [2, 230].

As the inclusion of listening skills in ESL (English as a Second Language) curricula and teaching approaches has gained recognition, the challenges associated with teaching and learning listening comprehension have become evident. Listening, an essential skill for language learners, poses significant difficulty due to its real-time nature. Fries and Henrichsen emphasize the uniqueness of listening, as learners must process information at the difficulty level set by the speaker, including factors such as speed, academic vocabulary, idiomatic phrases, and colloquialisms [11, 23].

Abdalhamid points out the contrast between reading and listening, highlighting that while reading allows learners to revisit the text multiple times, listening demands immediate comprehension during the utterance, making it challenging for language learners [1, 43]. Danan underscores that listening requires real-time conversion of sound streams into meaningful units, without the luxury of time for reflection and correction, distinguishing it from other language skills [7, 93].

Apart from the real-time challenge, additional factors contribute to the complexity of processing spoken language, including topic familiarity, language chunking, reduced forms, performance variables like hesitations and intonation contours, and the need to segment continuous speech into individual words [6, 111]. The absence of visual cues in spoken language, unlike written text, requires listeners to determine word boundaries, posing a significant challenge. Goh notes the difficulty learners face in segmenting meaningful units from a stream of words, a skill that requires extensive practice [8, 70].

Teaching listening is equally challenging, often relying on assessments disguised as teaching strategies. Vandergrift and Goh call for a reevaluation of how listening is taught, acknowledging the need for innovative approaches. Given the difficulty of learning and teaching listening, it becomes crucial for educators and students to identify effective learning activities and strategies. Despite the increasing recognition of the importance of listening in language curricula, there is a dearth of quantitative studies evaluating the effectiveness of strategies used to teach L2 (second language) listening. This study aims to contribute to this gap by focusing on the strategy of reading while listening as a means to develop listening skills [8, 65].

Listening comprehension often takes a back seat in English language programs, despite its pivotal role in language acquisition and everyday communication. Effectively comprehending detailed auditory information necessitates the simultaneous application of various comprehension techniques. Beyond merely hearing the information, listeners must actively engage their cognitive processes to comprehend, retain, connect with subsequent information, and adjust understanding based on existing knowledge and emerging details.

In the classroom, it becomes imperative to instruct students on effective listening strategies, recognizing that there is no one-size-fits-all approach applicable to every English classroom. As students progress in their English

studies, listening exercises should progressively challenge them, aligning with the belief that listening is not only vital for language acquisition but also for seamless everyday conversations.

However, a notable gap is observed in children's listening capacity, attributed to several factors including the nature of listening materials, inappropriate learning practices, and insufficient time dedicated to self-study for skill acquisition. To address this, students should be exposed to diverse listening activities, each designed to provide new insights and strategies. The responsibility falls on educators to select and implement effective listening strategies, tailoring them to the unique needs of their classrooms.

This literature review not only proposes techniques for enhancing students' listening comprehension but also sheds light on the impediments hindering their ability to understand auditory information. The outcomes of this research have the potential to significantly enhance instruction and learning in the domain of listening comprehension, bridging the existing gaps in English language programs.

REFERENCES:

1. Abdalhamid, F. (2012). Listening comprehension strategies of Arabic-speaking ESL learners, English Teaching, Learning, and Research Journal, 3(2) 17-82.

2. Bingol, M. A., & Celik, B. (2014, April). Importance of listening in language learning and planning a listening lesson properly. In Vltal 2014 conference (Vol. 13, p. 267).

3. Brown, G., & Yule, G. (1983). Teaching The Spoken Language. Cambridge: Cambridge University Press, 49-56.

4. Buck, G. (2001). Assessing Listening. Cambridge: Cambridge University Press.

– 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda uni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;

– xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish;

– xotin-qizlar o‘rtasida biznes ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bepul o‘quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– “Ayollar daftari”ga kiritilgan va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish lozim bo‘lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berish;

– “Ayollar daftari” orqali xotin-qizlarning muammolarini hal etish amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish hamda orttirilgan tajribadan kelib chiqib, “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tartibi hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom loyihalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan [5].

– har bir hududda “Xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari” va klasterlarni tashkil qilish masalalari qamrab olingan.

Shu bilan birga, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqaviy markazlar ochish choralarini ko‘rish, tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko‘maklashish hamda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish va biznesga jalb qilish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda notijorat tashkilot maqomiga ega bo‘lgan xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyat olib bormoqda.

Mazkur markazlar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish;

– ayollarning o‘z biznesini tashkil etish va yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, biznes g‘oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo‘llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish;

– zarur hollarda faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo‘sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko‘maklashish;

– tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o‘z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko‘rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, mini texnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko‘maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko‘maklashish;

– norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro‘yxatdan o‘tish, “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lish orqali soliqlar va boshqa turdagi imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko‘rsatish.

Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxat asosida maxsus o‘qitish dasturi bo‘yicha o‘qitiladi.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan hunarmand xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, bugungi kunda xalqaro tashkilotlar miqyosida ham amalga oshirilmoqda. Xususan, AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) O‘zbekistonda ayollarning hunarmandchilik korxonalari va yakka tartibdagi hunarmand ayollarning loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda “Agrobiznesni rivojlantirish” loyihasi doirasida “Xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish jamg‘armasi” tashkil etilgan [6].

“Hunarmand, bu O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining Ustavida belgilangan tartibda hu-

narmand maqomiga ega bo‘lib, hunarmandchilik faoliyatini mustaqil ravishda yoki shogirdlari bilan birga amalga oshirayotgan jismoniy shaxsdir. “Usta-shogird” maktabi hunarmand tomonidan shogirdga hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlashni o‘rgatishga yo‘naltirilgan munosabatlar yig‘indisidir. Xalq hunarmandchiligi o‘zbek xalqining mehnati samarasi, badiiylik, garmoniya va go‘zallikni anglashga yo‘naltirilgan ongli faoliyati mahsuli bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyatida xalqning moddiy va ma’naviy boyliklarini mujassam etadi”[7].

Jizzax viloyati o‘ziga xos qadriyat va an’analarga-madaniy merosiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyurtmasiga asosan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazi tomonidan “O‘zbekiston nomoddiy madaniy meros elementlarini muhofaza qilish” mavzusidagi davlat ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida o‘tkazilgan ekspeditsiyada Jizzax viloyati nomoddiy madaniy merosi o‘rganildi. Joylardagi uch yo‘nalish: ijro san’ati, pazandachilik, hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalarni, nomoddiy madaniy merosni saqlovchilar, yetkazuvchilar bilan bevosita uchrashib, ularning faoliyatlari bilan tanishildi. Jizzax viloyatida xalq amaliy san’ati bilan shug‘ullanadigan insonlar ham salmoqli ekanligini e’tirof etish kerak. Viloyatda hunarmandchilikning milliy kashta, biserli hunarmandchilik mahsulotlari, temirchilik, egar-jabduq yasash, o‘rmak, urchuqda ip yigirish, quroqchilik, jun titish kabi turlar bilan shug‘ullanayotgan hunarmandlar faoliyatlari tahsinga sazovordir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Jizzax viloyatining iqtisodiy imkoniyatlari keng va aholining tadbirkorlik, ayniqsa xotin-qizlarning hunarmandchilik sohalarida amalga oshirayotgan ishlarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Yangi O‘zbekiston // 5-mart 2021.

2. Prezident yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Xalq so‘zi //19-mart 2019.

3. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

4. Xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish — hayotiy zarurat, Xalq so‘zi// 27 Aprel 2022

5. O.Ibrohimova. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va xotin-qizlar huquqlari https://pravacheloveka.uz/oz/news/m6714

6. USAID hunarmand ayollarning loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. gazeta.uz. sayti. https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/14/usaid-support

7. Yulchiyeva D. Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni. Ijtimoiy boshqaruv jurnali. – №3. – 2022. – 22-29-b.

8. Jizzax viloyat “Hunarmand” uyushmasi ma’lumotlari. https://hunar.uz/

SIVILIZATSION PEDAGOGIK TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sanjar Bo‘ltakov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlashga oid sivilizatsion pedagogik tizimlar bosqichlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qaraladi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda jamiyatni moddiy va ma’naviy jihatdan yanada boyishi hamda ular asosida intellektuallashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Natijada ular orqali o‘sha davlat katta intellektual salohiyatga ega. Bu esa har qanday sivilizatsiya jarayonlarda faol ishtirokchi bo‘la oladigan barkamol avlodni shaklantirishga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqoladan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish muammosi bilan shug‘ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *sivilizatsion, tizimlar, pedagogik, shakllantirish, bosqichlari, ilmiy-metodik, bosqichma-bosqich, tadrijiy, “Avesto” davri, qadimiy, ilmiy-meros, ma’naviyat, intellektual, rivojlanib, takomillashib, jarayonlar, ta’lim-tarbiya, intellektual daraja, pedagogik, qadriyatlar, izlanishlarimiz, mazmun-mohiyat, axborot inqilobi.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы научно-методического обоснования цивилизованных педагогических систем, связанных с научно-методической подготовкой учителей будущего производственного класса к производству. По этой причине в стране имеется прекрасная интеллектуальная структура для обогащения

общества финансовой и моральной поддержкой и на их основе интеллектуализации. И это широкая работа по формированию зрелого поколения, которое будет участником любых цивилизационных процессов. Поэтому решают проблему обеспечения подготовки будущих учителей.

Ключевы слова: *цивилизатсия, системы, педагогическая, формирование, этапы, научно-методический, шаг за шагом, постепенный, Период Авесто, древний, научное наследие, духовност, интеллектуалный, развивающийся, улучшен, протсессы, образование, интеллектуалная степен, педагогическая, значения, наше исследование, содержание, -сущност, информатсионная революсия.*

Annotation

In this article, the issues of scientific-methodical justification of civilized pedagogical systems related to scientific-methodical preparation of teachers of the future production class for production are considered. For this reason, the country has a great intellectual structure for enriching the society with financial and moral support and intellectualizing it based on them. And this is a broad effort to form a mature generation that will be a participant in any civilizational processes. Therefore, they deal with the problem of ensuring the training of future teachers.

Keywords: *civilization, systems, pedagogical, formation, stages, scientific-methodical, step by step, gradual, Avesto period, ancient, scientific heritage, spirituality, intellectual, developing, improved, processes, education, intellectual degree, pedagogical, values, our research, content, essence, information revolution.*

Ma’lumki, mamlakat aholisining intellektual salohiyati va ma’naviy jihatdan rivojlanganligi uning moddiy va ma’naviy yuksalish darajasini belgilashda asosiy ko‘rsatkichlardir. Shu sababli ham umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan va texnika-texnologiyalarining samarali yutuqlariga asoslangan uzluksiz ta’lim tizimini yaratish va shu asosda bo‘lajak zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bugunning dolzarb muammolaridan biridir [2, 148].

Mazkur maqolada ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlashga oid sivilizatsion pedagogik tizimlarning tadrijiy bosqichlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Jahon miqyosida hukm surayotgan ilm-fan va texnika-texnologiyalar ravnaqi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda va uning kelajagini belgilab borishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborotlar nihoyatda muhimligini ko‘rsatmoqda. Bunga sabab ular orqali yuqori malakali, jahon ta’lim talablariga javob beradigan, intellektual salohiyatli bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi. Buning uchun iste’moldagi ta’lim mazmunini jamiyat intellektual darajasi talablariga moslab modernizatsiyalab va ularga mos o‘z sohalarining mutaxassis-olimlarini jalb etib, hamkorlikdagi ijodiy faoliyatni olib borishga to‘g‘ri keladi. Shuning bilan birga hozirda iste’moldagi ta’limga ham zamonaviy talablar qo‘yilmoqda, ya’ni ta’lim mazmunini ham va shaklini ham intellektuallashtirish talabi quyilmoqda. Bu borada ulug‘ alloma-donishmandlarimiz tomonidan qoldirilgan boy intellektual merosni hamda umumbashariy qadriyatlarni bo‘lajak mutaxassislar ongiga muntazam ravishda singdirib borishning ahamiyati katta. Ushbu jihatlarni bo‘lajak mutaxassislar ongiga singdirish bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat kasbiy yetuk qilib, balki intellektuallashtirilgan faoliyatga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mutaxassislar qilib tayyorlashni amalga oshirishga oid imkoniyatlar doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shu sababli ham ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, yuksak sifat ko‘rsatkichlarini qo‘lga kiritish uchun har qanday fan bo‘yicha ta’lim berishda bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy tafakkurini kengaytirishda, ilmiy meroslardan foydalanish o‘zining ijobiy pedagogik samaralarini beradi. Bu borada donishmandlarimiz intellektual merosi ko‘proq ilmiy qadriyatlarga tegishli bo‘ladi.

Tadqiqotda adekvat holatni o‘rganishga qaratilgan usullar majmui qo‘llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) [5, 264].

Sivilizatsion pedagogik tizimlarni shakllantirish masalalarida X.A.To‘raqulov, N.A.Muslimov, A.A.Xoliqovlar tomonidan tadqiqotlar olib borishgan.

Demak, kishilik jamiyati taraqqiyoti ilmiy qadriyatlar va ularga mos axborot inqiloblari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular rivoji muntazamlik kasb etib kelmoqda. Bu esa o‘ziga xos sivilizatsion jarayonlarni ifodalaydi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga qarab ilmiy muammolar shakllantiriladi. Keyin ularning yechimi topilishi bilan ilmiy qadriyatlardan iste’molda foydalana boshlanadi. Ana shunday jihatlar sivilizatsion tizimlarning yuzaga kelishiga asosiy manbalar bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalari sivilizatsion tizimlar mazmun-mohiyatini ta’lim-tarbiya jarayoni mazmuniga integratsiyalash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Bularni e’tiborga olib sivilizatsion pedagogik tizimlarning muayyan bosqichlarini shakllantirib oldik hamda xar bir bosqichga mos mazmun-mohiyatni ilmiy-metodik jihatdan asoslab oldik. Ular asosida sivilizatsion pedagogik tizimlar xar bir bosqichi uchun maqsad-vazifalar va ularga shakllanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalar hajmi va qamrovi ham belgilanib olindi, shuningdek, har bir sivilizatsion pedagogik tizim bosqichlarining intellektuallik darajasi va har bir bosqichda ilmiy qadriyatlarga berilgan e’tiborlar ham

tahliliy o‘rganilib chiqildi hamda ularning bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun shakllantiriladigan sivilizatsion pedagogik tizimlar loyihalashtirib olindi [7, 86].

Hozirda mamlakatimizda ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli, jismoniy baquvvat, innovatsion rivojlangan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratilgan. Ana shu sababli ham bugungi ta’lim tizimimiz jamiyatimiz taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda va unga barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifa qo‘yilmoqda. Ayni paytda barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta’lim-tarbiyasi jarayonining obyektiga emas, balki subyekti ekanligiga alohida e’tibor berilmoqda. Eng asosiysi, bunda yoshlarning mustaqil va ongli ravishdagi ta’lim olishga bo‘lgan moyilligini kuchaytirmoqda va bu borada ularda egallayotgan bilimlarining tadrijiy bosqichlariga ham qiziqishi oshib bormoqda. Tadqiqotimiz davomida bu qayd etilgan jihatlar sivilizatsion pedagogik tizimlarni bosqichma-bosqich ifodalab chiqish lozimligini ko‘rsatadi va ular ta’lim mazmunini intellektuallashtirish, modernizatsiyalash, axborotlashtirish, intellektuallashtirish kabilarda muhim didaktik-propiedivtik asos bo‘la oladi. Ushbu sohada olib borgan tadqiqotimiz natijalari sivilizatsion pedagogik tizimlarning tadrijiy bosqichlarini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash ma’qul ekanligini ko‘rsatdi (Bu haqda mazkur tadqiqot ishining 1.1-qismida ham qisqacha malumot keltirilgan):

1. “Avesto davriga mos sivilizatsion pedagogik tizim.
2. Miloddan oldingi VI-I asrlarga mos sivilizatsion pedagogik tizim.
3. Milodning boshidagi I-VIII asrlaridagi davrga mos sivilizatsion pedagogik tizim.
4. “Ilk uyg‘onish davri”ga mos sivilizatsion pedagogik tizim.
5. “So‘ngi Uyg‘onish davri”ga sivilizatsion pedagogik tizim.
6. XVII-XVIII asrlarga mos sivilizatsion pedagogik tizim.
7. XIX-XX asrlardagi sivilizatsion pedagogik tizim.
7. Mustaqil davrga mos sivilmzatsion pedagogik tizim.

Bu qayd etilgan bosqichlarning har biriga mos maqsad; vazifalar; talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalar; sivilizatsion tizimning intellektuallik darajalari; ularga ilmiy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor kabilar ilmiy-metodik jihatdan asoslanib, belgilanib chiqildi.

Demak, mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda muntazam rivojlanib boradi va shu asosda shaxs intellektual salohiyatini jamiyat talablari asosida barkamollashtirib boriladi. Bu esa mazkur sivilizatsion tizimning intellektuallik darajasini belgilab borishga didaktik va ko‘rsatmaviy asos bo‘lib boraveradi. Ushbu sohadagi olib borgan izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz natijalariga asoslangan holda qaralayotgan intellektuallashtirish darajalarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni quyidagi ketma ketlikda olib borgan ma’qul deb topdik:

– ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berishda mustaqillik mafkurasi bosh va asosiy g‘oyalarini joriy etishning innovatsion metod va texnologiyalarini ishlab chiqish;

– bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi pedagogika va psixologiya fanlarining mazmun-mohiyatini uchinchi ming yillik ta’lim mazmuniga moslashtirish;

– an’anaviy ta’limni rivojlantirish va takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish;

– ta’limda informatsion texnologiyalarni joriy etishning didaktik asoslarini ishlab chiqish;

– ta’limga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish va shu kabilar [8, 58].

Qaralayotgan sivilizatsion pedagogik tizimda ham ilmiy qadriyatlarga e’tibor har qachongidan ham yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu fikrlarni quyidagicha asoslash mumkin, ya’ni ta’lim jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib, takomillashib kelgan. Ulardagi ilmiy qadriyatlar bosqichma-bosqich evolyutsion tarzda rivojlanib moddiy va ma’naviy hamda ta’limiy qadriyatlar darajasiga yetib borgan. Ayniqsa, Ona diyorimizda mustaqillik hal bo‘lishi bilanoq bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar ham ta’limning samarali rivojlanishiga asos bo‘lmoqda. Bu borada muntazam ravishda xalqaro va respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar ham tashkil etilmoqda. Bunday anjumanlarni o‘tkazishdan maqsadlaridan biri ham ta’lim mazmunini axborotlashtirish, intellektuallashtirish, innovatsiyalashtirish kabilar negizida ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy, ilmiy-amaliy, ilmiy-metodik ishlanmalar yaratish va ular asosida ta’limni takomillashtirish bo‘yicha yo‘riqnomaviy tavsiyalar tizimini yaratish.

Tadqiqotimiz ushbu qismida xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, zamonaviy ta’lim tizimi, uning maqsad va vazifalari respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta’lim-tarbiya oldiga qo‘yilgan muammo yechimiga mos kelishi kerak. Jahon miqyosida hukm surayotgan ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivoji darajasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborot nihoyatda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ham hozirda ta’limini axborotlashtirish, intellektuallashtirish negizida pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Ular orqali quyidagi yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirish mumkin:

– muayyan mutaxassislarni tayyorlashga sivilizatsion pedagogik tizimlarni ishlab chiqishni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– muayyan sohaga (yo‘nalishga) tegishli ta’lim jarayonini o‘rganishning sivilizatsion pedagogik tizimning shakllantirish;

– xalqimizning boy ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umuminsoniy qadriyatlariga suyangan holdagi zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari asosida

bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning metodologik asoslarini ishlab chiqish va bunda ta’limni rivojlantirishning jahon ta’lim talablarini e’tiborga olgan holda DTS ni takomillashtirish;

– bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy va innovatsion faoliyatga tayyorlash borasida, ularning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida boy milliy-tarixiy ilmiy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib samarali tashkiliy-pedagogik texnologiyalar hamda manbalarni yaratish;

– ta’limda innovatsion metod va texnologiyalarni yaratishga oid ilmiy tadqiqot ishlarining salmog‘ini yanada oshirish “fan — ta’lim — amaliyot” integratsiyasining ta’lim tizimidagi samarasini oshirish vosita va usullarni yaratishni kuchaytirish;

– uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish va uning darajasida ta’lim-tarbiya jarayonini olib borishning optimal variantlarini yaratish va joriy etish;

– ta’lim-tarbiya tizimida an’anaviylik va innovatsiyaviyliklardagi umumiylik va xususiylikni farqlay olish hamda ulardan foydalanishning optimal variantlarini yaratish;

– ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-uslubiy negizlarini yaratish;

– ta’lim sohasida xorijiy davlatlar ilg‘or tajribalari bilan muntazam tanishib borishga erishish va ular bilan hamkorlikda ilmiy ishlanmalar qilishga harakat qilish va shu kabilar.

Ma’lumki, jamiyat intellektual salohiyati kishilik jamiyati paydo bo‘lishidan boshlab shakllanib, rivojlanib va takomillashib kelishi bilan ham o‘zining taraqqiyoti bosqichlarida bardavomlik kasb etib kelmoqda. Bular donishmandlarimiz intellektual meroslarida ko‘proq seziladi va biz ularni ilmiy qadriyatlar deymiz. Ilmiy qadriyatlar esa insonlar va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan intellektual mulkdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5538-son Farmoni

3. Safarov, B.N. (2022). Pirls-xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish bo‘yicha taraqqiyot. Ta’lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138.

4. Turakulov X.A., Bultakov S. Civilizational Pedagogical Systems-Intellectualization Of Educational Content As A Didactic Basis //International Scientific and Current Research Conferences. – 2020. – C. 145-147.

5. Bo‘ltakov S. X. Sivilizatsion pedagogik tizimlarni shakllantirish bosqichlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 262-265.

6. Bo‘ltakov S. X. Practical aspects of using civilized pedagogical systems in the training of future primary school teachers //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 71-73.

7. To‘raqulov X.A. Jabborov N.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 152 b.

8. To‘raqulov X.A. Bo‘ltakov S.X. sivilizatsion pedagogik tizimlar negizida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning pedagogik asoslari. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2019. – 144 b.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ “4К” ПРИ ПОМОЩИ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Сарвиноз Салимова,
Бухарский государственный педагогический институт,
Доцент кафедры “Естественных наук”
Бахмал Комилова,
Бухарский государственный педагогический институт,
Доцент кафедры “Естественных наук”
Икбол Муродова,
Магистр 1 курс Бухарского государственного
педагогического института

Аннотация

Данная статья исследует эффективность применения современных педагогических технологий для развития навыков “4К” (критическое мышление, коммуникация, сотрудничество и креативность) у студентов. В статье представлен обзор методов и подходов, основанных на интерактивных методах обучения, а также анализ результатов исследований, проведенных в данной области. Результаты исследований подтверждают значительное улучшение навыков “4К” у студентов при использовании современных педагогических технологий, таких как проблемно-ориентированное обучение, проектная деятельность, обратная связь и кооперативное обучение.

Ключевые слова: *развитие навыков, 4К, критическое мышление, коммуникация, сотрудничество, креативность, Современные педагогические технологии.*

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarda “4K” ko‘nikmalarini (tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik) rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini o‘rganadi. Maqolada o‘qitishning interfaol usullariga asoslangan usul va yondashuvlar, shuningdek, ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili berilgan. Tadqiqot natijalari muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, fikr-mulohaza va hamkorlikda o‘qitish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda talabalarning 4K ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanganligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *ko‘nikmalarni rivojlantirish, 4K, tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.*

Annotation

This article explores the effectiveness of utilizing modern pedagogical technologies for developing 4C skills (critical thinking, communication, collaboration, and creativity) among students. The article provides an overview of methods and approaches based on interactive teaching methods, as well as an analysis of research results conducted in this field. The research findings confirm significant improvement in 4C skills among students when using modern pedagogical technologies such as problem-based learning, project-based activities, feedback, and cooperative learning.

Keywords: *skill development, 4C, critical thinking, communication, collaboration, creativity, Modern pedagogical technologies, Educational process, Interactive teaching methods.*

Современное образование ставит перед собой задачу не только передачи знаний, но и развития ключевых навыков, необходимых для успешной адаптации в быстро меняющемся мире. Среди этих навыков особенно важны так называемые “4К”: критическое мышление, коммуникация, сотрудничество и креативность. В данной статье рассматривается эффективность использования современных педагогических технологий для развития указанных навыков у студентов.

Современные педагогические технологии и развитие навыков “4К”:

Одним из ключевых аспектов современного образования является интеграция технологий в учебный процесс. Интерактивные методы обучения, такие как проблемно-ориентированное обучение, проектная деятельность, обратная связь и кооперативное обучение, показывают высокую эффективность в развитии навыков “4К”.

Проблемно-ориентированное обучение предоставляет студентам возможность решать реальные проблемы, анализировать информацию и принимать обоснованные решения, что способствует развитию критического мышления и коммуникационных навыков [1].

Проектная деятельность позволяет студентам применять теоретические знания на практике, работать в команде, делиться идеями и решать творческие задачи, что развивает навыки сотрудничества и креативности.

Обратная связь играет важную роль в процессе обучения, помогая студентам осознавать свои ошибки, улучшать свои навыки и развивать критическое мышление.

ISSN 2181-8274

Кооперативное обучение способствует развитию коммуникативных навыков, уважения к точкам зрения других участников группы и способности работать в коллективе (Рисунок 1).

Рисунок 1. Навыки 4К у будущих учителей.

Методология исследования

Критическое мышление

Критическое мышление включает в себя способность анализировать информацию, делать обоснованные выводы и принимать обоснованные решения [2]. Современные педагогические технологии, такие как проблемное обучение, проектная методика и интерактивные уроки, способствуют развитию этого навыка. Ученики, работая над проектами и решая проблемы в группах, учатся критически мыслить и применять полученные знания на практике.

Креативность

Креативность предполагает способность генерировать новые идеи, находить нестандартные решения и применять их в практической деятельности. Современные педагогические методики, такие как метод "обратной связи", использование игровых технологий и творческие проекты, способствуют развитию креативности учеников. Эти методы стимулируют учеников к экспериментированию, исследованию и поиску новаторских решений.

Коммуникация

Коммуникационные навыки играют важную роль в современном обществе, где взаимодействие и сотрудничество становятся все более важными. Современные педагогические технологии, такие как интерактивные доски, онлайн-платформы для обучения и виртуальные классы, способствуют развитию коммуникационных навыков учащихся. Они предоставляют возможность общения и сотрудничества в реальном времени, что помогает ученикам научиться эффективно общаться и работать в группе.

Сотрудничество

Сотрудничество предполагает способность работать в команде, делиться идеями и ресурсами, а также достигать общих целей. Современные педагогические технологии, такие как облачные сервисы для совместной работы, проектные методы обучения и виртуальные командные задания, способствуют развитию этого навыка. Они помогают учащимся учиться взаимодействовать, принимать решения и достигать успеха вместе.

Чтобы сформировать и развивать у ребят навыки XXI века, не всегда подходят методы и приемы, которые педагоги используют на традиционном уроке. На смену приходят современные подходы и технологии [3].

Некоторые педагогические технологии были разработаны еще в первой половине XX века, намного опередив свое время. А некоторые возникли совсем недавно. При этом их объединяют активно-деятельностные формы работы и осознанное отношение школьника к процессу обучения (рисунок 2).

Рисунок 2. Активно-деятельностные формы работы

Педагогические подходы, ориентированные на развитие навыков "4К", играют ключевую роль в формировании компетентностей, необходимых для успешной адаптации студентов в современном обществе и рыночной экономике. Проблемно-ориентированное обучение, проектная деятельность, обратная связь и кооперативное обучение создают благоприятные условия для развития этих навыков, обеспечивая студентам возможность активного и полноценного участия в учебном процессе [4].

Системно-деятельностный подход. Развивает теоретическое мышление у детей, а заодно предполагает познавательные учебные действия. Преобладает работа с цифровым контентом над пассивным потреблением информации (рисунок 3).



Рисунок 3. Современные подходы в образование.

Смешанное обучение. Совмещает традиционные уроки в классе с “цифрой”. Педагог использует их преимущества и компенсирует недостатки. Модели смешанного обучения, например “ротация станций” и “перевернутый класс”, позволяют подстроить процесс под каждого ученика. В смешанном обучении ученик всегда занимает активную позицию, высока доля самостоятельной работы. Используются разные виды заданий: от изучения новой информации до небольших проектов.

Интегрированное обучение. Формирует целостную картину мира, глобальное мышление, развивает креативность. Цифровые ресурсы в межпредметном обучении расширяют горизонты познания. Ребенок переходит на более высокий уровень осмысления, видит более тонкие взаимосвязи. Развивается системное мышление при решении прикладных задач [5].

Методы структурирования информации. Воспринимать и структурировать информацию, менять ее форму, использовать для решения проблем и коммуникации — одни из важнейших компетенций XXI века. Использование цифровых ресурсов, с одной стороны, дает неограниченные возможности для поиска и выбора информации. С другой – предоставляет целый ряд инструментов, недоступных без компьютера. Скажем, быстрый поиск, гипертекстовое предъявление, мультимедиа.

Проблемное обучение. Позволяет создать на уроке проблемную ситуацию и организовать активную самостоятельную деятельность учеников. Развивает творческую самостоятельность детей через поисковые методы, умение ставить познавательные задачи, решать проблемную ситуацию самостоятельно.

Кейсы. Это обучение на основе реальных или вымышленных ситуаций. У ребят не появляются новые знания, но формируются умения и личностные качества. Цель кейсов – четко сформулировать и высказать свою позицию, подискутировать, выслушать оппонентов, проанализировать информацию, сделать выводы.

1. *Кейс №1: Проект “Разработка социального приложения”.*

Группа студентов была задействована в разработке социального приложения, направленного на решение конкретной социальной проблемы. В ходе проекта студенты были вынуждены применять критическое мышление для анализа проблемы, коммуникационные навыки для обсуждения идеи с коллегами, сотрудничество для совместной разработки приложения и креативность для поиска инновационных решений.

2. *Кейс №2: Образовательный квест по предпринимательству.*

Студенты приняли участие в образовательном квесте, организованном факультетом предпринимательства. В ходе квеста они решали различные задачи, требующие применения критического мышления для анализа ситуации, коммуникационных навыков для общения с членами команды, сотрудничества для совместного поиска решений и креативности для создания инновационных проектов.

3. *Кейс №3: Интерактивный тренинг по творчеству.*

Студенты приняли участие в интерактивном тренинге, направленном на развитие креативности. В ходе тренинга они участвовали в различных упражнениях и играх, способствующих выявлению и развитию творческого потенциала. Каждое задание требовало от участников критического мышления, коммуникации с другими участниками, сотрудничества в команде и проявления креативности при решении задач.В идеале школьник научится анализировать ситуации и выбирать оптимальный вариант решения. Станет более коммуникабельным и начнет слушать и слышать собеседника.

Развитие критического мышления. Формирует коммуникативные навыки и критическое мышление ученика. Это поиск, умение отличить истинную информацию от ложной, переосмыслить данные и

ISSN 2181-8274

представить их в другой форме, правильно использовать сведения. Принципы развития критического мышления одинаковы для всех школьных дисциплин [6].

Коммуникативные задания. Один из важнейших навыков XXI века – умение общаться. Ребенок должен занять активную позицию. Он высказывает собственное мнение в устной и письменной форме, слушает и начинает понимать собеседника, практикуется в различных способах коммуникации, в том числе через информационные технологии.

Проектная деятельность. Незаменима в XXI веке. Основные аспекты: ориентированность на результат, умения планировать деятельность, оценивать результаты, возможность применить знания на практике.

Цифровые технологии облегчают организацию проекта. Можно сделать его максимально простым и понятным для ученика. Позволяют создавать новые проектные продукты, которые современное общество считает интересными и перспективными: видеофильмы, интернет-сайты, блоги, компьютерные игры и т. д. Применение “цифры” интегрирует проектную деятельность в жизнь учеников. Заставляет их воспринимать интернет не только как средство развлечения, но и как место учебы и построения карьеры.

Развитие навыков “4К” - это важное направление современного образования, которое требует инновационных подходов и современных педагогических технологий. Путем эффективного использования таких методов как проблемное обучение, проектная методика и интерактивные уроки, ученики могут развивать критическое мышление, креативность, коммуникацию и сотрудничество, что будет способствовать их успешной адаптации и профессиональному росту в современном мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory. Journal on Excellence in College Teaching, 25(3&4), 85-118.
2. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235-266.
3. Jonassen, D. H. (1997). Instructional design models for well-structured and ill-structured problem-solving learning outcomes. Educational Technology Research and Development, 45(1), 65-94.
4. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81-112.
5. Kirschner, P. A., Sweller, J., & Clark, R. E. (2006). Why minimal guidance during instruction does not work: An analysis of the failure of constructivist, discovery, problem-based, experiential, and inquiry-based teaching. Educational Psychologist, 41(2), 75-86.
6. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10.

КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ ГЕНЕЗИСИ ВА ЭВОЛЮЦИЯСИ

Жамшидбек Алимов,
Андижон давлат педагогика институти “Жисмоний тарбия ва хотин-қизлар спорти” кафедраси доценти

Анотация

Ушбу мақолада кридит модул тизими генезиси ва эвалюцияси борасида адабиётлар тахлил қилинган. Шунингдек, Америка қўшма штатлари (АҚШ) олий таълим тизимида уч хил турдаги ўқув муассасалари мавжудлиги, булар бошланғич икки йиллик коллеж, тўрт йиллик коллеж (улар университет таркибида ёки алоҳида фаолият юритишлари ҳам мумкин) ва университетлар эканлиги ўрганилди. Шунингдек олий ўқув юртида икки йил ўқиганидан сўнг талаба Associate Degree даражасига эга бўлиши ўрганилган. Бундан ташқари, Германия таълим тизими классик тузилмага эга бўлиши бошланғич, ўрта ва олий мактаблардан ташкил топганлиги ўрганилди.

Таянч сўзлар: *кридит модул, генезис, эвалюция, коллеж, университет, Associate Degree.*

Анотация

В данной статье анализируется литература о генезисе и оценке системы кредитных модулей. Также было изучено, что в системе высшего образования Соединённых Штатов Америки (США) существуют три различных типа учебных заведений: начальные двухгодичные колледжи, четырёхгодичные колледжи (могут действовать в составе университета). или отдельно) и университеты. Также стало известно, что после двух лет обучения в высшем учебном заведении студент может получить степень Associate Degree. Кроме того, было изучено, что система образования Германии имеет классическую структуру, состоящую из начальной, средней и старшей школы.

Ключевые слова: *кредитный модуль, генезис, оценка, колледж, университет, Associate Degree.*

Annotation

This article reviews the literature on the genesis and evaluation of the credit module system. It was also studied that in the higher education system of the United States of America (USA) there are three different types of educational institutions: elementary two-year colleges, four-year colleges (can operate as part of a university). or separately) and universities. It also became known that after two years of study at a higher educational institution, a student can receive an Associate Degree. In addition, it has been studied that the German education system has a classical structure consisting of primary, middle and high school.

Keywords: *credit module, genesis, assessment, college, university, Associate Degree.*

Дунёнинг ривожланган давлатларидаги замонавий олий таълим тизими Европа ва АҚШ университетларида узоқ вақт тажриба тўплаш натижасида ҳосил бўлган. Университетларнинг автономияси ва таълим жараёнидаги миллий ўзига хослик турли давлатлар учун мақбул бўлган мутахассис тайёрлаш намунасини ишлаб чиқишни қийинлаштирган. Университетлар ўзларининг ўқишга қабул қилиш ва билим бериш тизимларига эга бўлишгани сабабли, умумий ёндашувларни ишлаб чиқиш жуда қийин кечган [1, 5-10].

Ёндашувларни умумлаштириш бўйича дастлабки қадамлар Америка университетлари томонидан амалга оширилган бўлиб, улар фан талабларига мос бўлган замонавий бизнес қоидалари асосида олий таълимнинг ягоналаштирилган моделини таклиф қилишган. Болонья декларацияси ҳам Европа Иттифоқи университетлари ўртасида шунга ўхшаш моделни тақдим қилди. Бунда биринчи босқич — талабаларнинг ишлаб чиқариш эҳтиёжларига мос ижрочилик малакаларини ўзлаштиришига, иккинчиси эса – илғор талаба ёшларда ижодий қобилиятларни ривожлантириш, инновацион ғоялар ишлаб чиқувчи илмий-педагогик кадрларни шакллантиришга йўналтирилган.

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида олий ва олий таълимдан кейинги таълим тузилмаси тобора унификациялашиб бормоқда. Бу унификация энг аввало таълим жараёнининг узлуксизлигига ва ҳар бир кейинги босқич олдингисига таянишига асосланган. Масалан, АҚШ да бакалавриат таълим дастурлари 12 йиллик умумтаълим мактаблари битирувчиларининг контингентига таянади, битирувчиларнинг билимлари коллеж ва университетларга ўқишга киришга ва олий таълим дастурларини 4 йил давомида ўзлаштиришга имкон беради. Ўз навбатида, бакалавриат битирувчиларининг аксарияти магистратурага ўқишга кириш учун ва магистратура дастурларини 1-3 йилда ўзлаштириш учун етарлича билимларга эга бўлишади. Ва ниҳоят, магистратура ҳам олий таълимдан кейинги босқичда фан доктори (PhD) даражасидаги кадрлар тайёрлаш учун замин яратади [1, 10-12; 2, 6]. Турли мамлакатларда, жумладан АҚШ да ҳам бакалаврлар, магистрлар ва докторантлар тайёрлаш маҳаллий хусусиятларга эга ва ҳозир ҳам алоҳида олий ўқув юртлари бўйича бир-биридан фарқ қилади.

Америка олий таълим тизимининг ўзига хослиги шундаки, университетлар етарли даражада мустақил ва автономияга эгадирлар. Бу уларга янги фанларни, янги мутахассисликларни нисбатан осон яратишларига ва инновацион таълим методларини қўллашларига имкон беради. Ўқув режалари ҳар бир талаба учун унинг қизиқишлари, қобилиятлари ва университет талабларидан келиб чиқиб талабаларнинг маслаҳатчилари — эдвайзерлар кўмагида алоҳида шакллантирилади.

Ҳозирги кунда АҚШ олий таълим тизимида уч хил турдаги ўқув муассасалари мавжуд: бошланғич икки йиллик коллеж, тўрт йиллик коллеж (улар университет таркибида ёки алоҳида фаолият юритишлари ҳам мумкин) ва университетлар. Олий ўқув юртида икки йил ўқиганидан сўнг талаба Associate Degree даражасига эга бўлади, бу унга университетда ўқишни давом эттиришга ёки АҚШ даги хоҳлаган компанияда кичик лавозимларда ишлашга имкон беради [3, 6].

Шуни таъкидлаш жоизки, АҚШ да магистратура тугалланган даражани (Graduate Decree), бакалавриат эса тугалланмаган даражани (Undergraduate Decree) англатади. Бу иккита даража АҚШ да мазмуни бўйича ҳам, ташкилий-услубий тузилмаси бўйича ҳам бир-бирига жуда яқин ҳисобланади. Докторантура эса олий таълимдан кейинги босқич сифатида докторантлар фаолиятининг юқори даражадаги мустақиллиги билан ажралиб туради.

Олий таълимнинг биринчи босқичи (бакалавриат) ўрта мактабнинг юқори босқичидан (High School) сўнг 4 йил давом этади ва ҳар бири иккита икки йиллик босқичларга бўлинади. Дастлабки икки йилда асосан умумтаълим фанлари (GER — General Education Requirements)) ўқитилади ва малака имтиҳонини муваффақиятли топширгандан сўнг, талабага муайян даража берилади. Университетлар ва 4 йиллик коллежлар билан бир қаторда бундай даражани икки йиллик муниципаль коллежлар ҳам беришади.

Академик йил давомийлиги 14-16 ҳафта (кўпинча 15 ҳафта) бўлган икки семестрдан ташкил топади. Ўқув дастурларини тезкор якунлаш ва қўшимча таълим учун мўлжалланган ёзги семестрлар ҳам кенг жорий этилган. Сиртқи таълим асосан масофавий шаклда амалга оширилади ва кам сонли алоҳида тоифадаги талабалар учун мўлжалланган (ногиронлар, иккинчи олий таълим олувчилар, узоқ муддат хизмат сафарида бўлганлар ва ҳ.к.).

Ўрта ва олий таълимда узлуксизлик тамойилини таъминлаш мақсадида АҚШ да умумтаълим мактаблари битирувчиларининг бакалавриатга тайёргар-

лик даражасини билиш учун умумтаълим мактабида олган баҳолари ва SAT (Scholastic Altitude Test) ёки ACT (American College Test) тизимларининг балларига асосланган тест тизими жорий этилган. Америкада университетларга бакалавриатга ўқишга кирувчи ўрта мактаб битирувчилари учун пастки чегара 480 SAT ёки 19 ACT этиб белгиланган. Хорижий талабалар учун инглиз тилини билиш даражаси бўйича ўтказиладиган TOEFL (Test of English as Foreign Languish) тестларининг натижалари 450-550 дан кам бўлмаслиги белгилаб қўйилган [4, 62].

Магистратура босқичи тузилмаси барча америка университетларида дунёнинг бошқа кўплаб университетлар билан умумий жиҳатларга эга. Аксарият университетлар фақат икки босқичли тизимда олий маълумот беришади. Фақат кам сонли таниқли университетларгина, баъзи йирик университетларда эса — кам сонли кампусларига илмий университет (Research) мақомига эга. Бунга эришиш учун улар кўпроқ магистратура ва докторантурани ривожлантиришади. Шу билан бирга магистратурага ва докторантурага кириш учун нафақат инглиз тили бўйича 550-600 дан кам бўлмаган TOEFL натижаларини топшириши, балки мантиқий-умуммилмий йўналишдаги GRE (Graduate Record Examination) ва GMAT (Graduate Management Admission Test) тестларидан 640 дан кам бўлмаган балларни тўплашлари ҳам зарур. АҚШда докторантурага кириш учун тестлардан ташқари баъзан жамоатчилик ишларидаги тажрибаси, лидерлик қобилиятлари ҳақида тавсиянома ҳамда кириш эссеси ҳам талаб қилинади.

АҚШ олий мактаблари академик мустақилликка ва меҳнат бозорининг эҳтиёжларига йўналтирилган ва шу асосда барча академик даражалар: бакалавр, магистр, фалсафа доктори (PhD) тақдим этилади.

АҚШ да докторантуранинг ўзига хослиги шундаки, докторлик дастурлари олий таълимдан кейинги таълим Кенгаши томонидан тўлиқ назорат қилинади ва ташкил қилинади. Бу Кенгаш докторант таълим оладиган коллежлар ва факультетлар фаолиятига боғлиқ эмас.

Англияда 3 йиллик бакалавриат 13 йиллик ўрта мактаб (катта A-Level босқичини ҳам қўшганда) таълимига асосланади. Ўқишга кирувчилар учун уларнинг билим даражалари улушлари бўйича камида умумтаълим фанларидан — 45%, асосий фанлардан — 15%, бошқа фанлардан — 5% ни ташкил этиши керак. Магистратура ва докторантура кундузги таълим мос равишда 1 ва 3 (максимал 5) йил этиб белгиланган. Хорижий талабалар учун инглиз тилини билиши аудиторияда ўқитиладиган базавий фанлар учун камида — 550 TOEFL, лаборатория ишлари учун 500 TOEFL қилиб белгиланган [5, 34].

Буюк Британияда ҳар хил университетларда олинган даражалар расман тенг деб қабул қилинган бўлса ҳам, амалда уларнинг “салмоғи” университетларнинг машҳурлиги билан белгиланади. Англия ва Уэльс университетлари томонидан қуйидаги академик даражалари берилади: BA — гуманитар фанлар бакалаври, BEd — педагогика фанлари бакалаври, EEng — техника фанлари бакалаври, BSc — табиий фанлар бакалаври, LLB — ҳуқуқ бакалаври; BMus — мусиқа бакалаври; BM — тиббиёт бакалаври.

Даражаларнинг турли университетларда турлича номланиши ва қоидалардан четга чиқиш ҳоллари ҳам учраб туради. Баъзи Шотландия университетларида гуманитар фанлар бўйича биринчи босқич битирувчиси бакалавр (BA) эмас, магистр (MA) ҳисобланади. Баъзи университетларда, хусусан Оксфорд ва Кембрижда ҳам BA гуманитар ва табиий фанлар бўйича тақдим қилинади, бироқ табиий фанлар бакалаври малакаси (BSc) Кембрижда мавжуд эмас, Оксфордда эса — бу олий академик даража ҳисобланади.

Франция олий таълим тизими кўп босқичлилиги, таълим йўналишларининг кенг тармоқлилиги ва деярли тўлиқ ихтисослашганлиги билан ажралиб туради. Улар мураккаб тузилишга эга бўлиб классик турдаги университетлар, олий мактаблар (сиёсат ва давлат бошқаруви бўйича элита мактаблари), санъат ва архитектура мактаблари ва махсус мактаблар (транспорт, кутубхона ишлари ва ҳ.к.) томонидан тақдим этилади.

Олий ўқув юртларида ўқиш 2 йилдан 11 йилгача давом этиши мумкин ва у маълумот ҳақидаги ҳужжат тақдим этиш билан якунланади.

Университет таълими биринчи циклда умумий таълимнинг DEUG — дипломини олиш билан якунланадиган икки йиллик дастурдан бошланади. Бу диплом эгалари олий таълимни “лицензиат” дипломи билан якунланадиган кейинги икки йиллик циклда давом эттиришлари мумкин. Яна бир йил ўқилса магистрлик дипломи — “метриз” олинади. Кейин талаба ишга жойлашиши ёки иккита йўналишдан бирида бир йил ўқишни давом эттириши мумкин: DEA — дипломини олиш учун докторантурада ўқишни давом эттириши ёки DESS — дипломини олиш ва олий даражадаги мутахассис таълимини давом эттириши мумкин.

Бельгия университетларида ўқиш кўп босқичли бўлиб, ҳар бир давр университет академик даражасини олиш билан якунланади.

Университетлардаги дастлабки икки йил умумгуманитар ва умумтехник дастур асосида олиб борилади. Бу циклни тугатганидан сўнг талабалар “Candidature” (кандидат) дипломини қўлга киритишади (бакалавр дипломига мос келади). Навбатдаги уч йил мутахассисликка йўналтирилган бўлиб “Licenciate” (лицензиат) дипломини тақдим этиш билан якунланади (магистр дипломига мос келади). Баъзи йўналишларда, масалан, муҳандис, фармацевт, ҳуқуқ соҳасидаги мутахассислар учун бу даража яна уч йиллик

таълимдан сўнг берилиши мумкин [6, 27].

Кейинги икки йиллик ўқиш ихтисосликни чуқур ўрганишга йўналтирилган бўлиб, диссертация ёзиш ва ҳимоя қилишдан сўнг докторлик илмий даражаси “Docteur” берилади. Олий таълимнинг “Агреже” илмий даражаси бу тизимдаги энг юқори даража ҳисобланади ва у доктор даражаси олинганидан икки йилдан сўнг тақдим этилиши мумкин.

Германия таълим тизими классик тузилмага эга бўлиб, бошланғич, ўрта ва олий мактаблардан ташкил топган. Бу тузилманинг барча босқичларида асосан давлат таълим муассасалари, шунингдек, кам сонли хусусий таълим муассасалари фаолият юритишади.

Германиядаги олий таълимнинг асосий тамойили — “академик эркинлик” тамойили бўлиб, ҳар бир талабага дипломига киритиладиган фанлар рўйхатини мустақил равишда белгилаш имкони берилади. Шу билан бирга Германиядаги олий таълим тизими ўқув жараёнини илмий тадқиқотлар билан уйғунлаштиришни назарда тутади. Бу жиҳат университетлардаги ўқув жараёни жадвалларининг мазмунини белгилаб беради: ҳар бир семестр маърузалар даври (14-20 ҳафта) ва мустақил илмий ишлар даврларидан иборат бўлади.

Ушбу мақолада кредит-модуль тизими генезиси ва эволюцияси борасида адабиётлар таҳлил қилинган. Шунингдек, Америка қўшма штатлари (АҚШ) олий таълим тизимида уч хил турдаги ўқув муассасалари мавжудлиги, булар бошланғич икки йиллик коллеж, тўрт йиллик коллеж (улар университет таркибида ёки алоҳида фаолият юритишлари ҳам мумкин) ва университетлар эканлиги ўрганилди. Шунингдек олий ўқув юртида икки йил ўқиганидан сўнг талаба Associate Degree даражасига эга бўлиши ўрганилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Т., 2020 й. – 120 б.
2. Лиссабонская конвенция: “О признании квалификаций, относящихся к высшему образованию в Европейском регионе”. 11.04.1997. – 104 с.
3. Болонская декларация “О Европейском регионе высшего образования”. г. Болонья, Италия. 1999. – 228 с.
4. У. Мухтаров. Олий таълимда кредит-модул тизими: хорижий тажриба ва амалиёт (методик қўлланма). – Т.: “ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ” нашриёти, 2022. – 92 б.
5. Европа олий таълим ҳудуди 2020: Болония жараёнини амалга ошириш ҳисоботи. Люксембург: Европа Иттифоқи нашриёти. – Рим, 2020. – 60 б.
6. Давид Сросиер, Теодора Парвева. Болония жараёни: Унинг Европада ва ундан ташқарида олий таълим ривожланишига таъсири. – Париж: “ЮНЕСКО: Таълимни режалаштириш халқаро институти”. 2013. – 86 б.

O‘QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI

Matluba Usmonova,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
ixtisoslashtirilgan maktab-internat oliy toifali
tarix fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Jahon taraqqiyotida globallashuv tobora avj olib borayotgan, shiddatli o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan murakkab zamonda, axloqiy tarbiyada milliy va umuminsoniy fazilatlarning o‘rnini o‘rganish, tahlil qilish va aniqlash, yosh avlodni tarbiyalash tarixiy zarurat va davr talabidir. Mamlakatimiz fuqarolari va o‘quvchilari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, shuningdek, bugungi kunda jamiyatda kuchayib borayotgan loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun zararli ekanligini yoritib berish g‘oyat dolzarb. Ushbu maqolada avloddan avlodga meros bo‘lib qoladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarix darslarida tarbiyalash usullari haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, oila, mahalla, axloqiy madaniyat.

Аннотация

Сложные времена, когда в мировом развитии ускоряется глобализация, где происходят кардинальные изменения, изучение, анализ и определение места национальных и общечеловеческих качеств в нравственном воспитании, воспитании подрастающего поколения является исторической необходимостью и требованием раз. Весьма актуально совершенствовать национально-идеологическое воспитание среди граждан и студентов нашей страны,

а также пролить свет на то, что такие социальные пороки, как равнодушие, безразличие, неуважение к нашим национальным ценностям, которые сегодня возрастают в обществе, наносят вред обществу и государству. В данной статье выдвигаются идеи о методах воспитания национальных и общечеловеческих ценностей, которые передаются из поколения в поколение на уроках истории.

Ключевые слова: *национальные и общечеловеческие качества, национальные традиции, семья, соседство, нравственная культура.*

Annotation

In the complex times, when globalization is accelerating in the world development, where drastic changes are taking place, studying, analyzing and determining the place of national and universal qualities in moral education, educating the young generation is a historical necessity and a demand of the times. It is very urgent to improve national-ideological education among the citizens and students of our country, as well as to shed light on the fact that social evils such as indifference, indifference, disrespect for our national values, which are increasing in society today, are harmful to society and the state. In this article, ideas about methods of education of national and universal values that are inherited from generation to generation in history lessons are put forward.

Keywords: *national and universal human qualities, national traditions, family, neighborhood, moral culture*

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni ya’ni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi[1] da yosh avlod tarbiyasi masalasiga to‘xtalar ekan: “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”, degan ushbu murojaati mazmunida ham biz pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa sifatida yoshlarni ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirish eng muhim vazifadir deb ta’kidlab o‘tish ham joiz. Demak, o‘qituvchilar o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali o‘quvchilarni ko‘plab salbiy xatti-harakatlarning oldini olishda, (zo‘ravonlik va tajovuz, o‘g‘irlik, aldash, hokimiyatga hurmatsizlik, tengdoshlarga nisbatan shafqatsizlik, noto‘g‘ri qarash, jargon so‘zlardan foydalanish, erta jinsiy rivojlanish va shahvoniylikni suiiste’mol qilish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilishning ko‘payishi va boshqalar) maktab va oilada tarbiyani, ota-ona, bobo-buvilarning o‘gitlarini milliy qadriyat sifatida qalbida singdirish muhimdir [2, 37].

Har qanday inson borki, o‘zi haqida gapirilganda yomon sifatlar qo‘shib aytilishini aslo istamaydi. Yolg‘onchi, muttaham, qo‘rqoq, sotqin, firibgar, ahmoq, laqma, baxil, ochko‘z singari so‘zlarning ismi yonida qo‘shilib kelishidan ranjiydi. Bularning o‘rnida rostgo‘y, mehribon, g‘amxo‘r, botir, vafodor, adolatparvar, aqlli, shirinso‘z, saxiy va mehnatsevar singari yaxshi sifatlar bilan ta’riflanishini juda-juda xohlaydi. Ammo bu sifatlar uchun avvalo unga loyiq ham bo‘lish lozim. Buning uchun bugungi yoshlardan quyidagilar talab etiladi:

• mustaqil fikrga ega bo‘lish zarur – bu jarayon maktabda fanlar va amaliyot bilan bog‘liq kurslarda olgan bilimlari asosida fikr yuritmog‘i;

• chet tillarini bilish kerak — lekin o‘z tilini mukammal o‘rganish va hurmat qilishi, ona tilini qadriyat sifatida anglashi;

• jamiyat taraqqiyotiga o‘z fikr-mulohazalarini bildira olishi – yurtimizni rivojlanishi yo‘lida sobitqadam bo‘lishi;

• ota-onasini, oilasi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus va qo‘llab-quvvatlashni, o‘qib-o‘rganishga e’tibor qaratish orqali ishonchni oqlashi;

• taraqqiyotga intilib — tarixni unutmagan holda uni ardoqlab yurtga munosib farzand bo‘lish yo‘lida doimo olg‘a harakat bo‘lmog‘i lozimdir.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash tamoyillari asosida tarbiyalanishida o‘quvchi shaxsida quyidagi sifatlar jam bo‘lmog‘i lozim: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, mehnatsevarlik, jamoaviylik, mardlik, teng huquqlilik, hushyorlik, saxovatlilik, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qonuniylik, inson huquqlari, turli millat vakillarini hurmat qilish va ular bilan birga yashash, bag‘rikenglik, ma’rifatparvarlik, boshqa xalqlarning ilg‘or tajribasi va madaniyatini o‘rganish orqali o‘z bilimini oshirib borishi [3].

Ushbu farqlarga qaramay, qadriyatlarni tarbiyalash funksiyasi ta’limning umumiy funksiyalari bilan chambarchas bog‘liq: barcha ta’lim tizimlarining yakuniy maqsadi yaxshi odamlarni tarbiyalash uchun shaxsning aqliy, hissiy va xulq-atvorini o‘zgartirishdir. Hozirgi vaqtda qadriyatlarni tarbiyalashning eng muhim vazifasi shaxsni aqliy, hissiy va xulq-atvor nuqtayi nazaridan o‘rgatish va ijobiy xulq-atvorni namoyon etishdir. “Bu qanday odam?” savoliga berilgan javob qadriyatlarning maqsadi va vazifasiga oydinlik kiritishini, to‘g‘ri fikrlaydigan, hamdard bo‘lgan, sevadigan, rahm-shafqatli, baham ko‘radigan, pok va adolatli bo‘lganlar va hokazolar haqida tushuniladi. Demak, ko‘p axloqiy qadriyatlarga ega insonlar “yaxshi odamlar” ekanligini ta’kidlar ekan, u bu sohadagi eng muhim vazifani o‘qituvchi zimmasiga yuklaydi. Shu bois, o‘qituvchi qadriyatlar ta’limiga e’tibor qaratishi va shaxsning doimiy xatti-harakatini o‘zgartiradigan aql xaritasiga ega bo‘lishi kerak. Shunday qilib, qadriyatlar va fazilatlar ta’lim-tarbiyasi, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Shaxsning maqsadi va yo‘nalishini belgilaydi.

2. Individual va ijtimoiy faoliyatning tamoyillari va umumiy yo‘nalishini beradi.

3. Bu shaxslarning xatti-harakatlarini baholashga yordam beradi.

4. Bu shaxsga boshqalardan nimani kutish va o‘zidan nima kutish kerakligini bilish imkonini beradi.

5. Bu shaxsga to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yoqimli va nomaqbul, axloqiy va axloqsizni farqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash o‘quvchilarni ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu qadriyatlarni o‘qitish usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda; sevgi, hurmat, halollik, baham ko‘rish, hamkorlik, bag‘rikenglik, to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, zo‘ravonlikdan qochish va h.k. o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar shaxslarni erta yoshdayoq bu tushunchalar bilan yaqinlashtirish va bu tushunchalarni o‘z tengdoshlari bilan ertak, hikoya va hokazo sifatida ishlatishni targ‘ib qiladi va o‘quvchi yoshlarni ushbu qadriyatlarni hayotlarida qo‘llash orqali tushunishga qaratilgan.

Xorij tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, yapon maktablarida farroshning bo‘lmasligi, o‘quvchi o‘z hududini o‘zi tozalashi orqali tozalik va mehnatsevarlikka o‘rgatilishini misol qilib aytishimiz mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarida alohida ya’ni kimsasiz orolga tushib qolgandek o‘quvchilarni hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday hodisaga tayyorlaydigan yozgi maktablarning bo‘lishi ham mustaqil hayotga tayyor avlodning yetishib chiqishiga zamin yaratadi [4, 132].

Xorij olimlaridan G.Rossiter [9, 214] tadqiqotlarida qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga to‘xtalib, qadriyatlarni singdirish orqali tarbiyalashda beshta yondashuv haqida fikr bildiradilar. Ya’ni, tarbiyaviy-nasihat, milliy qadriyatlar ruhini singdirish, axloqiy fikrlash, barcha uchun umumiy bo‘lgan madaniy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazish, ma’naviy-madaniy meroslarni mazmunini singdirish orqali qadriyatlarni o‘rgatish.

J.Dancy [10, 26] o‘quvchilarni boy milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga e’tibor qaratar ekan, shunday ifodalaydi: ta’limda didaktik yondashuv, falsafa bo‘limidan o‘quvchilarga muntazam ravishda darslarda milliy ruhni singdirish, o‘z millati boy tarixini bilishi, haqiqiy hayotga o‘rgatishga qaratilgan tarbiyaviy pedagogik yondashuvi va nihoyat kognitiv rivojlanishga asoslangan omillar bilan tarbiyalash muhimdir deb ifodalaydi

S.Weed [11], G.Skanchy [11] lar tadqiqotlarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o‘quvchi-shaxsi rivojlanishining besh bosqichli tarbiyaviy modelidan foydalanishni ilgari suradi:

Axloqiy qadriyatlar-ya’ni, bu bosqichda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga e’tiborni jalb qilish hamda uni, ikkinchi bosqichda milliy konsepsiyani (bolalar adabiyoti, rol o‘ynash yoki hozirgi hayot bilan) qadriyatlar ruhida tarbiyalashni misol qilish, uchinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirib ta’lim berishga qaratilgan ma’lumotlar va ularni oilaviy qadriyatlar asosida singdirish, to‘rtinchidan, oiladagi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarbiyaviy qadriyatlar asosida o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyaviy o‘gitlar asosida tarbiyalash orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, beshinchidan oiladagi milliy qadriyatlarni ijtimoiy hayotda real munosabatlar kirishish orqali hayotga tatbiq etish yo‘llarni ilgari suradi. Jumadan, olimlar ta’limga oid dasturlardan Character Education Institute dasturida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatishda qadriyatlarni muhokama qilish, milliy rol o‘ynash, o‘yin o‘ynash, kichik guruhlarni shakllantirish va tarixiy savollar berishdan foydalanadi va o‘qituvchini ta’limning muhim qismi deb biladi [5] deb ta’kidlaydi.

T.Lickona [6] qarashlarida qadriyatlar ruhida tarbiyalashda qo‘llaniladigan usullarni o‘quv-jarayonida oltita sifatlarga ajratib sanab o‘tdi: jim o‘tirish, diqqatni jalb qilish, guruhlarda milliy qo‘shiq aytish, millat tarixiy qahramonlari haqida hikoya qilish, guruh faoliyatida qadriyatlar ruhini singdirishga qaratilgan o‘yinlar asosida tarbiyalash muhimdir.

J.Dewey [12] ilmiy tahlillarida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’limda tez-tez qo‘llaniladigan usullarni sanab o‘tib: ularni o‘quvchining darsda ishtirokini ko‘zda tutuvchi faol o‘rganish usuli, haqiqiy misollar asosida o‘quvchini qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni sharhlash va ichki idrok etishiga qaratilgan amaliy tadqiqotlar, o‘rgatish kerak bo‘lgan qadriyatlar ustida ishlash va tushunishga asoslangan o‘quvchi tadqiqot usuli, o‘quvchilarning ijtimoiy xatti-harakatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ijtimoiy o‘yinlar va empatiyani rivojlantirishga yordam beradigan birgalikda ishlash orqali umumiy hayot sari va hamkorlikda o‘rganish yakuniy yo‘nalish sifatida o‘qitish yo‘llari ilgari suradi.

Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o‘quvchi eng avvalo, millat tili, tarixi, urf-odatlari, madaniyatini e’zozlash, shu bilan birga O‘zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning jinsi, irqi, millati, kelib chiqishidan qat’i nazar unga sadoqat bilan munosabatda bo‘lishi lozimdir.

Shunday ekan, hayotimizni yanada farovon va erkin qilishi uchun, xalqiga va Vataniga sadoqat bilan xizmat qilishi uchun o‘qituvchi dars va darsdan tashqaridagi mashg‘ulotlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borishi kerak[8]. Har bir pedagog, ayniqsa ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘qituvchilari o‘quvchilarning ayni paytdagi oilasi, ota-onasi hisoblanib, birinchidan, insoniyatning bugungi Uchinchi Renessans davri bunyodkoriga demokratiya, erkinlik, tinchlik, barqarorlik, totuvlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan birga, milliy fazilatlarni o‘zida mujassam qilgan turmush tarzini yuzaga keltirishini o‘quvchilarga tushuntirmog‘i lozim.

Ikkinchidan, hozirgi davrda kechayotgan jarayonlar, qariyb 60 ming saytlardagi turli g‘oyalar bilan o‘quvchi yoshlar ongini buzmaslikning eng to‘g‘ri yo‘li milliy va umuminsoniy fazilatlarni amaliy mashg‘ulotlar, “Tarbi-

ya” darsligi bilan bir qatorda “Vatanparvarlik asoslari” maxsus kurslarini tashkil etish lozim. Sinf rahbarlari, yordamchi-pedagoglar (tyutorlar), tarbiyachilarning salohiyatini oshiruvchi seminar-treninglarni o‘tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Uchinchidan, ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni va bebaho merosini ko‘rsatish zarur.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat tarbiyalanuvchilari ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni singdirish uchun, eng avvalo, o‘qituvchilarimiz ana shunday qadriyatlarga ega bo‘lishi kerak. Zero, o‘quvchilarni bugungi kundagi turli zararli diniy oqimlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan buzg‘unchi va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, puxta ishlab chiqilgan metodik darslar yordamida ularning ongiga ko‘proq singdirishimiz mumkin.

Bu juda murakkab jarayon. Qiyinchilik shundan iboratki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar murakkab bilimlar, dunyoqarashlar, an’analar, urf-odatlar, marosimlar, tuyg‘ular va boshqalarning boy arsenalini hamda real olamning o‘ziga xosligi kontekstida ular haqidagi fikr va g‘oyalarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqot maqsadi ham ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashning nazariy, metodik asoslarini tadqiq etish orqali amaliyotga tatbiq etish zamirida jamiyatimiz talabi asosida Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini Uchinchi Renessans davriga mos tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi

2. Lickona T. Education for character: how school teach respect and responsibility. Newyork: Bantam Books, 1991. 122 p.

3. 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // PQ-3413-son, 140-b.

4. Гершунский Б. Философия образования XXI: В поисках практико ориентированных концепций. – М.: Пед. публичный России., 2002. – С. 318.

5. Character education institute, https://www.canr.msu.edu/character_education/

6. Lickona T. Education for character: how school teach respect and responsibility.Newyork: Bantam Books, 1991.

7. Richardson R. C., Myran S.P., & Tonelson S. Teaching social and emotional competence in early childhood. International Journal of Special Education, 24(3), 2009, pp. 143-149.

8. 2021-yil 2-aprel “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish Konsepsiyasi” qarori // PQ-5050.

9. Rossiter G. The moral and spiritual dimension to education: Some reflections on theBritish experience. Journal of Moral Education,25(2), 1996, pp. 201-214.

10. Dancy J. Ethics without Principles. Oxford: Oxford University Press, 2004, p. 26.

11. Weed S. & Skanchy G. AEGIS character education curriculum. Salt Lake City: Institute for Research and Evaluation, 1996.

12. Dewey J., Moral Principles in Education, https://www.gutenberg.org/files/25172/25172-h/25172-h.htm

JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARIDA VOSITA VA USULLARINING QO‘LLANISHI

Muxammadxusanbek Qodirov,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Jismoniy tarbiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy tizimi murakkab, ko‘p omilli hodisadir borasida adabiyotlar tahlil qilindi. Bunda sportchining eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta’minlovchi maqsad, vazifalar, vosita va usullarning tashkiliy shakllarini qamrab olishi bilan belgilanishi o‘rganildi. Natijalar moddiy-texnik sharoitlar, sportchini musobaqalarga tayyorlanishning tashkiliy-pedagogik jarayonini o‘z ichiga olishi aniqlandi. Shuningdek, sportchilarni tayyorlash sport mashg‘ulotlari va sport musobaqalariga bo‘linishi aniqlandi. Mashg‘ulot va musobaqalarning natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi mashg‘ulot va musobaqalarga taalluqli bo‘lmagan omillar ham kirishi mumkinligi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *vazifa, vosita, usul, moddiy-texnik sharoit, sportchi, musobaqa, pedagogik jarayon.*

Анотация

В данной статье проанализирована литература относительно того, что современная система подготовки учителей физического воспитания представляет собой сложное, многофакторное явление. При этом определено, что цели, задачи, средства и методы, обеспечивающие достижение высших результатов спортсмена, определяются охватом организационных форм. Определено, что к результатам относятся материально-технические условия, организационно-педагогический процесс подготовки спортсмена к соревнованиям. Определено, что подготовка спортсменов делится на спортивную подготовку и спортивные соревнования. Изучено, что к факторам, влияющим на результаты тренировок и соревнований, могут относиться факторы, не связанные с тренировками и соревнованиями.

Ключевые слова: *задача, инструмент, метод, материально-технические условия, спортсмен, соревнование, педагогический процесс.*

Annotation

This article analyzes the literature regarding the fact that the modern system of training physical education teachers is a complex, multifactorial phenomenon. At the same time, it was determined that the goals, objectives, means and methods that ensure the achievement of the highest results of an athlete are determined by the scope of organizational forms. It was determined that the results include material and technical conditions, the organizational and pedagogical process of preparing an athlete for competitions. It has been determined that the training of athletes is divided into sports training and sports competitions. It has been studied that factors influencing the results of training and competition may include factors not related to training and competition.

Keywords: *task, tool, method, material and technical conditions, athlete, competition, pedagogical process.*

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy tizimi murakkab, ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u sportchining eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta’minlovchi maqsad, vazifalar, vosita va usullarning tashkiliy shakllarini qamrab oladi. Bunda moddiy-texnik sharoitlar, sportchini musobaqalarga tayyorlanishning tashkiliy-pedagogik jarayonini o‘z ichiga oladi. Sportchini tayyorlash tizimi tarkibini ikkiga ajratadilar: 1. Sport mashg‘uloti. 2. Sport musobaqalari. Mashg‘ulot va musobaqalarning natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi mashg‘ulot va musobaqalarga taalluqli bo‘lmagan omillar ham kiradi. Sport mashg‘uloti sportchilarni tayyorlash tizimining eng muhim tarkibiy qismi sifatida maxsus pedagogik jarayon bo‘lib, sportchini tarbiyalash, unga o‘rgatish va funksional imkoniyatlarini oshirish yo‘li bilan jismoniy kamolotga hamda yuqori sport natijalariga erishishini ta’minlaydi [1, 14]. Shuningdek, jismoniy mashqlardan foydalanishga asoslanadi. Sport mashg‘uloti jarayonida shunday umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadiki, ular pirovard natijada sportchining mustahkam salomatligini, ma’naviy va aqliy tarbiyasini, uyg‘un jismoniy rivojlanishi, texnik va taktik mahoratini, maxsus jismoniy, psixologik axloqiy va irodaviy fazilatlari, shuningdek sport nazariyasi hamda usuliyati sohasidagi bilim va ko‘nikmalarining yuksak darajada shakllanishini ta’minlaydi.

Sport mahorati cho‘qqilariga yil bo‘yi amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar jarayonida, jismoniy mashqlar va dam olish oralig‘ini to‘g‘ri tashkil qilish, mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari hajmi va shiddatining optimal nisbatiga rioya qilgan holda ularni oshirib borish; sportga xos turmush tarzi doirasida hayot va faoliyatning umumiy rejimini tashkil qilish yo‘li bilan erishish mumkin. Basketbolning alohida turlarida mashg‘ulot sportchining individual xususiyatlarini va shu turlarning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olgan holda o‘tkaziladi [2, 38].

Sport mashg‘uloti natijasida sportchi organizmida xilma-xil morfologik va funksional o‘zgarishlar yuz beradi. Ular turli funksional tizim va mexanizmlarning imkoniyatlarini aks ettiradigan biologik jarayondir. Odatda, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi farq-

ISSN 2181-8274

lanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sog‘liqni mustahkamlovchi, jismoniy va organizmdagi organ hamda tizimlar funksional imkoniyatlarini rivojlanish darajasini oshiruvchi mashqlar ta’siri ostida, mushak faoliyatining har xil turlariga muvofiq ravishda o‘zgarishidir.

Adabiyotlar sharhi. Adabiyotlarni tahlil qilishda Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X.larninng darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi [1, 12; 2, 38]. Maxsus jismoniy tayyorgarlik — bu sport ixtisosligi predmeti sifatida sportchi tomonidan tanlangan sport turida mushak faoliyatining muayyan takomillashuvining natijasi hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar yana yordamchi shug‘ullanganlik holatiga ham ajratadilar. Ularning fikricha, bu maxsus shug‘ullanganlik holati uchun asos yaratadigan maxsus va umumiy shug‘ullanganlik o‘rtasidagi oraliq holatdir. Sportchining shug‘ullanganligini tayyorlanganlik holatidan uning musobaqalarda maksimal imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Sport natijalarni namoyish etish qobiliyatlari majmuasini aks ettiruvchi ancha keng tushunchadan farqlay bilish kerak. Tayyorlanganlikdan tashqari sport mahoratining boshqa tarkibiy qismlarini: nazariy bilimlarni, maksimal natija ko‘rsatish uchun psixologik hozirlikni, sport bellashuvlariga safarbarlikni o‘z ichiga oladi.

Sport takomillashuvining ana shu bosqichiga xos yuksak darajadagi tayyorlanganlik holatini, odatda, yuqori natijalarga tayyorlik yoki sport formasi holati deb ataladi. Sportchining sport mashg‘uloti asosini tamoyillarning ikki guruhi tashkil etadi. Birinchi guruh har qanday o‘rgatish va tarbiyalash jarayoniga xos bo‘lgan umumiy didaktik tamoyillarni qamrab oladi [3, 122]. Ularga: ilmiylik, o‘qitish (o‘rgatish)ning tarbiyaviy xususiyati, onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, mustahkamlik, tizimlilik va izchillik, tushunarlilik, jamoa bo‘lib ishlash, individual yondashuv kiradi. Ikkinchi guruh — mashg‘ulotlar ta’siri va sportchi organizmining ularga ko‘rsatadigan reaksiyasi orasidagi, shuningdek, mashg‘ulot jarayoni mazmunining har xil tarkibiy qismlari orasidagi qonuniyatli aloqalarni aks ettiruvchi sport mashg‘ulotining o‘ziga xos tamoyillari majmuasidir.

Bu yuqori natijalarga yo‘naltirish, chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv, umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi, mashg‘ulot jarayonining uzluksizligi, davomiyligi va maksimal yuklamalarga intilish birligi, yuklamalar dinamikasining to‘lqinsimonligi, mashg‘ulot jarayonining siklliligidir. Sport mashg‘uloti uchun o‘ziga xos xususiyat tanlangan sport turida sportchi erishishi mumkin bo‘lgan maksimal sport natijalariga erishishga yo‘naltirilganligi, mashg‘ulot jarayonining barcha alohida jihatlari uning maqsadlari, vosita va usullari tarkibi, rejalashtirish xususiyatlari, qo‘llanadigan yuklamalar kattaligi va tavsifi, musobaqa faoliyatining xossalari bilan belgilanadi [4, 12].

Yuksak natijalarga intilish mashg‘ulotlarning yanada samarali usullarini, mashg‘ulot jarayonini o‘lchamli o‘tkazish variantlarini, hajmi, xususiyatlari va shiddatiga ko‘ra juda yuqori mashg‘ulot yuklamalari, dam olish oralig‘i, ovqatlanish, tiklovchi tadbirlarning maxsus tizimini qo‘llashni talab qiladi. Tajribalardan ma’lumki, faqat shu holdagina zamon talab darajasiga javob beruvchi natijalarga erishish mumkin.

Shaxsni jismoniy rivojlantirish zarurati umumiy va maxsus tayyorgarlikning qonuniy aloqasini, ularning birligini taqozo etadi. Bir tomonlama maxsus tayyorgarlik har tomonlama funksional tayyorlik darajasining pasayishiga yoki tayyorlikning alohida tomonlari, boshqalariga ziyon yetkazgan holda bir tomonlama rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Umumiy jismoniy tayyorlik, bir tomondan, sport ixtisoslashuviga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘nikma va malakalarning takomillashuvi hamda sifatlarning rivojlanishiga yo‘naltirilishi kerak [5, 19].

Har tomonlama tayyorlik maxsus mashg‘ulotlarning shunday tashkil etilishini talab qiladiki, ular mavjud funksional imkoniyatlarni basketbolning muayyan turiga xos jihatlar bilan bog‘lashga xizmat qilishini ta’minlash zarur. Umumiy va maxsus tayyorlik nisbati ko‘p yillik va yil davomidagi mashg‘ulotlarning tashkil etilishi xususiyatlari bilan belgilanadi, shuningdek, sportchining yoshiga, uning sport mahorati saviyasiga, sport ixtisoslashuviga, individual xususiyatlari jismoniy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Sport takomillashuvining dastlabki bosqichlarida umumiy tayyorgarlikning hissasi katta bo‘lib, u eng avvalo, salomatlikni mustahkamlash, mushak faoliyatining xilma-xil shakllariga muvofiq ravishda jismoniy sifatlar va funksional imkoniyatlar darajasini oshirish masalalariga xizmat qiladi. Keyinchalik, sportchining mahorati oshgani sari bu nisbat maxsus tayyorgarlik vositalari foydasiga o‘zgara boshlaydi. Umumiy tayyorgarlik esa tobora yordamchi vositaga aylana boradi. Umumiy va maxsus tayyorgarlikning nisbati hamda yo‘nalishidagi tebranishlar har xil variantlarda bo‘lishi mumkin [6, 17].

Murabbiyning bu nisbatlarni qanchalik to‘g‘ri rejalashtirgani har bir sportchini sport natijalarining o‘sish darajasida aks etadi. Mashg‘ulot jarayonining uzluksizligi quyidagi qoidalar bilan tavsiflanadi: 1. Sport mashg‘uloti ko‘p yillik va yil davomidagi tayyorgarlik jarayoni sifatida tashkil etiladi, uning barcha halqalari o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo etadi. Maksimal sport natijalariga erishish vazifasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. 2. Har bir keyingi mashg‘ulot, mikrotsikl, bosqich ta’siri avvalgi natijalarning go‘yo navbatdagi qatlamini hosil qilishi, ularni mustahkamlashi va rivojlantirishi kerak. 3. Sport mashg‘ulotida ish va dam olish shunday reglamentlanadiki, bu basketbolning muayyan turida sport mahoratining darajasini belgilovchi sifat va qobiliyatlarning optimal rivojlanishini ta’minlashi kerak.

I sport razryadiga ega bo‘lgan yosh sportchilar, odatda, har kungi bir martalik mashg‘ulotlar bilan qanoatlanadilar, katta yuklamali mashg‘ulotlarni ham nisbatan kam qo‘llaydilar (haftada 1-2 marta). Yuqori toi-

fali sportchilarni tayyorlashda bunday tartib nari borsa shug‘ullanganlikning erishilgan darajasini saqlab turishga yordam berishi mumkin. Shu sababli har kuni 2-3 marta mashg‘ulot o‘tkazish va haftasiga 4-6 marta katta yuklamali mashg‘ulotlarni qo‘llash zarur.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlariga xos xususiyat bajariladigan ish hajmini asta sekin oshirib borib, maksimal mashg‘ulot yuklamalari kattaliklariga intilishdan iborat. Bu takomillashuvning har bir keyingi bosqichida sportchining oldiga uning funksional imkoniyatlari chegarasiga yaqin talablar qo‘yish imkonini beradi.

Mashg‘ulot jarayoni shiddatini oshirishning yuqorida sanab o‘tilgan imkoniyatlaridan oqilona foydalanish optimal yosh zonasida rejali taraqqiyotni va yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi. Boshqa tomondan, o‘smir yoshdagi sportchilarni tayyorlashda katta mashg‘ulot yuklamalari, maxsus tayyorgarlik mashqlari, jarayonlarini jadallashtirish vositalariga keragidan ortiq berilish ular organizmining jismoniy va ruhiy imkoniyatlari nisbatan tez tugashiga, sport natijalarining o‘smay qolib ketishiga olib keladi.

Mashg‘ulot yuklamalari dinamikasining to‘lqinsimonligi va ko‘p variantliligi tamoyili asosida shiddatli mushak faoliyatidan keyin charchash va tiklanish, mashg‘ulot natijasida moslashish jarayonlarining kechishi, mashg‘ulotlarning ustuvor yo‘nalishi o‘zgarishi tufayli ish hajmi va shiddatining o‘zaro ta’siri qonuniyatlari va boshqa qator sabablar yotadi. Mashg‘ulot jarayonining turli tuzilmalar birligiga yuklamalar dinamikasining to‘lqinsimonligi xos. Bunda yuklama to‘lqinlari uning nisbatan yirikroq birliklarida aniq ko‘rinadi [7, 44].

Yuqorida ta’kidlanganidek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy tizimi murakkab, ko‘p omilli hodisadir. Bunda sportchining eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta’minlovchi maqsad, vazifalar, vosita va usullarning tashkiliy shakllarini qamrab olishi bilan belgilanishi o‘rganildi. Natijalar moddiy-texnik sharoitlar, sportchini musobaqalarga tayyorlanishning tashkiliy-pedagogik jarayonini o‘z ichiga olishi aniqlandi. Shuningdek, sportchilarni tayyorlash sport mashg‘ulotlari va sport musobaqalariga bo‘linishi aniqlandi. Mashg‘ulot va musobaqalarning natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi mashg‘ulot va musobaqalarga taalluqli bo‘lmagan omillar ham kirishi mumkinligi o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

7. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol // Oliy o‘quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Tasvir, 2009. – 77 b.

8. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan va texnologiya. 2012. – 208 b.

9. Железняк Ю.Д. Спортивная ориентация и отбор // Волейбол. Учебник для ИФК. – М.: ФиС, 1991. – С.122-129.

10. Isroilov Sh.X. Voleybol. // Olimpiya zaxiralari kollejlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Tasvir, 2008. – 144 b.

11. Isroilov Sh.X. Voleybol. // Kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. – T.: Ilm-Ziyo, 2009. – 160 b.

12. A.Pulatov. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo‘llanma. Fan va texnologiya. T., 2008. –140 b.

13. B.Nigmonov, F.Xo‘jayev, K.Raximqulov. “Sport o‘yinlari” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo”, 2007. – 160 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fotima Xolmatova,
Qarshi davlat universiteti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari hamda yosh avlodda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada nutqiy kompetensiyalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayotidagi o‘rni, bolalarda nutqni rivojlantirishda samarali bo‘lgan metodlar va usullar, turli pedagogik yondashuvlar e’tiborga olingan. Maqolada maktabgacha ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar va yuksalishlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi va dunyoqarashiga ijtimoiy ta’sirining ortib borishi, tarbiyalanuvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va pedagogik jarayonda bola shaxsini qo‘llab-quvvatlash natijalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, bola shaxsi, mustaqil fikrlash, pedagogik yondashuv, samarali metodika, tafakkur, yangilik, innovatsiya.*

Аннотация

В данной статье освещены важные особенности развития речевых компетенций дошкольников, проведенные научные исследования по обучению детей самостоятельному мышлению, а также значение развития речевых компетенций у молодого поколения. Также в статье рассматривается роль речевых компетенций в социальной жизни дошкольников, эффективные методы и методы развития детской речи, различные педагогические подходы. В статье говорится о возрастающем социальном влиянии глобальных изменений и усовершенствований в системе дошкольного образования на самостоятельное мышление и мировоззрение дошкольников, развитие речевых компетенций детей и результаты поддержки личности ребенка в педагогическом процессе.

Ключевые слова: *дошкольное образование, компетентность, речевая компетентность, личность ребенка, самостоятельное мышление, педагогический подход, эффективная методика, мышление, новизна, новаторство.*

Annotation

This article highlights the important features of developing speech competences of preschool children, the scientific research conducted on teaching children to think independently, and the importance of developing speech competences in the young generation. Also, the role of speech competences in the social life of preschool children, effective methods and methods for developing children’s speech, and various pedagogical approaches are considered in the article. The article talks about the increasing social impact of global changes and improvements in the preschool education system on the independent thinking and worldview of preschool children, the development of speech competences of children and the results of supporting the child’s personality in the pedagogical process.

Keywords: *preschool education, competence, speech competence, child’s personality, independent thinking, pedagogical approach, effective methodology, thinking, novelty, innovation.*

Jahon maktabgacha ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar va kundalik axborotlarning shaxs fikrlashi va dunyoqarashiga ijtimoiy ta’siri ortib borayotgani ta’lim jarayonida bolalarni maktabgacha bo‘lgan yoshidan boshlab mustaqil fikrlashini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’lim tizimiga alohida to‘xtalib shunday degan edilar: “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik” [1].

Muhtaram Prezidentimiz ushbu nutqi bilan maktabgacha ta’lim tizimi oldiga muhim mas’uliyatli vazifalarni qo‘yib berganlar. Albatta, yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu o‘rinda kelajak avlodning ta’lim-tarbiyasi bilan bir qatorda ularning fikrlashi, o‘z fikrini jamoa oldida bayon qila olishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Dunyoda ilm-fan, texnika va texnologiyalarning yuksalib borishi va shaxs qiziqishlarining chegara bilmasligi sababli ta’lim jarayoniga yangidan-yangi yondashuvlar, zamonaviy ta’lim shakllari, innovatsion texnologiyalar, media vositalar kirib kelmoqda va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning nutqiy kompetensiyalarini ri-

vojlantirishning texnologik, metodik, amaliy jihatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kelajagimiz poydevori hisoblanmish maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida bolalar nutqini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, bolaning aqliy qobiliyatlari rivojlanish darajasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning nutqining boyligidir. Yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimining asosiy ta’lim dasturi hisoblanmish “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida ham bolalarning nutqiy kompetensiyalari muhim rivojlanish sohalari kompetensiyalari tarkibiga kiritilgan. Jumladan, dasturda “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola quyidagilarni o‘zlashtirgan bo‘lishi kerakligi aks etgan:

- ✓ Ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ✓ Ona tilida to‘g‘ri talaffuz, mos Grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- ✓ Chet tilini o‘rganishga qiziqish bildiradi;
- ✓ Chet tili bo‘yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- ✓ Badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- ✓ So‘zning lug‘aviy ma’nosi, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risidagi tasavvurga, tushunchaga ega bo‘ladi;
- ✓ Gapning turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so‘zlab bera oladi;
- ✓ Ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi [3, 18].

Har qanday ta’limning asosi — metodika, jumladan, maktabgacha ta’limniki ham. Maktabgacha ta’limni sifat bosqichiga ko‘tarishda yangi ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi maktabgacha ta’lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi yuqori bo‘lsayu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma’lumotlarni o‘rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Maktabgacha ta’lim sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan ilg‘or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g‘oyat dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida, “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”, [2, 211] deb yozadi davlatimiz rahbari. Demak, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda prezidentimiz asarlari va ma’ruzalari hamda Farmonlari va Qarorlarida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi qabul qilinganidan keyin Yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo‘ygan holda 5 ta rivojlanish markazlarida o‘yin faoliyatlari orqali yangi ma’lumotlarni o‘rgatmoqda. Ushbu rivojlanish markazlaridan biri “Til va nutq” markazi ekanligi bolalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning qanchalik muhim ekanligi va bunga qanchalik e’tibor qaratilayotganligini ko‘rsatib beradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ushbu rivojlanish markazida turli rasmli ertak kitoblar, rasmli kartochkalar, shuningdek, audiofayllar orqali so‘z boyliklarini orttirib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq bolalar markazlarda faoliyat olib borish jarayonida ular hech bir markazga majburan o‘tkazilmaydi. Ya’ni bolajonlar o‘z qiziqishlari va xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda beshta rivojlanish markazidan birini tanlaydi va o‘sha markazda faoliyat bajaradi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar fikr doirasini kengaytirish hamda ularning o‘z fikrini ravon bayon eta olishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida muntazam ravishda mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan yosh avlodning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustida faol izlanishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodikalarini takomillashtirish A.V.Nikolskaya, E.M.Razbayeva, S.O.G‘oziyeva, F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqa qator olimlar tomonidan yoritilgan.

Chunonchi, D.R.Babayeva izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tarixiy ildizlarini tahlil qilar ekan, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-pedagogik modellarga to‘xtalib o‘tadi. “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta’lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘qitish zarurligi masalasini ko‘tarib chiqdi. U tomonidan o‘tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o‘zbek bolalariga ruscha og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan” [5, 11].

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o‘zga tilni o‘qitish muammosi O‘zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli

kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik — o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa — ijodiy jarayon degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlarning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Manbalarga ko‘ra V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Y.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra “Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug‘atni o‘zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko‘rsatilgan: atrofdagi olam lug‘atini anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug‘atni til birligi sifatida o‘zlashtirish” [5, 12]. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig‘ida ham, til mantig‘i borasida ham so‘z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo‘lgan bosqich muhim rol o‘ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari Y.I.Tixeyeva, Y.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar bolalarning og‘zaki nutqi va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta’limning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir” [6, 125].

Tadqiqotchilar nutqni egallash juda ahamiyatli hamda muhim qobilyat deb hisoblashgan. Jumladan, Y.I.Tixeyeva tilni o‘rgatishni ilk bolalik chog‘idan boshlash zarur, chunki to‘g‘ri nutq ko‘nikmasi boshqa ko‘nikmalar singari oilada orttiriladi deb hisoblagan. Uning fikricha, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarning barcha qobilyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobilyatiga e’tiborni qaratishi lozim. Negaki, nutqni muntazam o‘rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog‘i lozim.

Shuningdek, A.M.Borodichning fikriga ko‘ra til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo‘ladi. So‘zning insonga, uning xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri barchaga yaxshi ma’lum. “Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o‘zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur — obyektiv borliqning intihosi, til esa — ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So‘z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi” [4, 101].

Olib borgan tahlilarimizga ko‘ra xulosa qilish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagilar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi:

- atrof-olam va tabiat;
- kishilar hayoti va mehnat faoliyati;
- bolalar o‘yinlari va o‘qish faoliyati;
- muloqot jarayoni;
- kitoblar va OAV.

Maktabgacha ta’lim tizimi pedagoglari ushbu manbalardan foydalangan holda bolalar bilan ishlar ekanlar, tarbiyalanuvchilarning nutqi hamda fikrlashi tizimli ravishda rivojlanib boradi. Zero, tabiat, undagi hodisalar, jamiyat va kishilar mehnati, shaxslararo munosabatlar, turli-tuman axborotlar, axloqiy va boshqa qadriyatlar bolajonlarni o‘zaro hamda kattalar bilan fikr almashishga chorlaydi.

Ko‘rish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ancha murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, bunda tarbiyachi va ota-onalarning birgalikdagi hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Negaki, bolalarning maktabgacha yoshdan boshlab atrofdagilar bilan erkin muloqotga kirisha olishi muhim hisoblanadi. Mana

shunday jarayonda hamkorlikdagi faoliyat bolajonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun bolalarni ilk yoshlaridanoq nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Ma’lumki, jamiyatda mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini omma oldida namoyon eta olish qobilyati yaxshi rivojlangan shaxslar ko‘plab yutuqlarga erishadi. Shu sababdan bolalarda nutqiy rivojlantirish jarayonlarini qancha erta boshlasak, oldimizga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2020-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. – https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzieevning-olij-mazlisga-murozaatnomasi.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – 416 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2707-sonli qarori.

4. Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. – М.: Просвещение, 1981. – 255 с.

5. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432 b.

6. Леонтьев А.Н. Деятельность и сознание // Вопросы философии. – 1972. – N12. – 129-140 с.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ИНТЕРАКТИВНЫЕ УРОКИ В БИОЛОГИИ: МЕТОДИКИ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Жамшидбек Тохиров,
Бухарский государственный
педагогический институт, студент 3 курса

Аннотация

В этой статье рассматривается эффективность использования интерактивных методов обучения в биологии для стимулирования развития критического мышления у учащихся. Исследование анализирует результаты экспериментов, подчеркивая положительное влияние интерактивных уроков на уровень критического мышления у студентов в контексте биологического образования. Автор обсуждает перспективы интеграции подобных методик в образовательные программы, подчеркивая их значимость для формирования не только глубокого знания предмета, но и критического мышления, необходимого в современном мире.

Ключевые слова: *критическое мышление, проблема, формирования, метод, способность, анализ, решение, синтез, информация, группа, мотивация, метод СИНКВЕЙН, метод кластер, метод кластер.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun biologiya fanidan interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda biologiya ta’limi kontekstida interfaol darslarning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasiga ijobiy ta’siri ko‘rsatilgan holda, eksperimental natijalar tahlil qilinadi. Muallif bunday usullarni ta’lim dasturlariga integratsiyalash istiqbollarini muhokama qilib, ularning nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimlarni, balki zamonaviy dunyoda zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, muammo, shakllanish, usul, qobiliyat, tahlil, yechim, sintez, axborot, guruh, motivatsiya, SINKVEYN usuli, klaster usuli, klaster usuli.*

Annotation

This article examines the effectiveness of using interactive teaching methods in biology to stimulate the development of critical thinking in students. The study analyzes experimental results, highlighting the positive impact of interactive lessons on students’ critical thinking levels in the context of biology education. The author discusses the prospects for integrating such methods into educational programs, emphasizing their importance for the formation of not only deep knowledge of the subject, but also the critical thinking necessary in the modern world.

Keywords: *critical thinking, problem, formation, method, ability, analysis, solution, synthesis, information, group, motivation, SINQWINE method, cluster method, cluster method.*

В данной работе рассматривается вопрос развития критического мышления учащихся на уроках биологии путем постановки задач по биологии на основе сюжета научно-фантастического произведения. Использование фрагментарных видеоматериалов фантастического жанра формирует у учащихся положи-

тельную мотивацию к учебному процессу и развивает их критическое мышление путем опровержения и деконструкции задач, поставленных на уроках биологии [1]. Для реализации предложенных идей используются диалоговые приемы "биологического боя". Разработанные познавательные задачи ставятся с помощью презентации видеоматериалов.

Критическое мышление — это развитая когнитивная способность анализировать, оценивать и обобщать информацию, а также принимать взвешенные решения. Основными элементами критического мышления являются:

-Анализ: это способность разбивать большие и сложные проблемы на составляющие, изучать их структуру и связи между ними. Анализ помогает студентам понять ключевые элементы и идеи, определить роли и взаимосвязи между ними. В образовательном процессе анализ помогает студентам понять сложные концепции, осмыслить материал и лучше учиться.

-Оценка: это способность оценивать информацию и идеи, анализировать плюсы и минусы различных точек зрения и принимать обоснованные решения на основе этой оценки [2]. Оценка позволяет учащимся развивать навыки критического мышления и принимать взвешенные решения. В образовательном процессе оценка помогает студентам стать активными участниками процесса обучения, а не просто пассивными получателями информации.

-Синтез: способность объединять и анализировать информацию из разных источников для создания новых идей и концепций. Синтез помогает учащимся находить общие связи и отношения между идеями и находить новые пути решения проблем. В образовательном процессе синтез используется для поддержки творческого мышления и развития инновационных навыков.

Принятие решений: это способность принимать обоснованные решения на основе анализа и оценки информации. Принятие решений включает в себя способность оценивать варианты, прогнозировать возможные результаты и брать на себя ответственность за свои решения. В образовательном процессе принятие решений помогает учащимся развить навыки рационального и осознанного принятия решений, которые могут быть применены в различных сферах жизни [3].

Организация учебных заданий и проектов, способствующих развитию критического мышления, - важная задача педагогического процесса. Важно создать условия для того, чтобы учащиеся имели возможность анализировать информацию, формировать собственную точку зрения, обсуждать, критически оценивать и принимать решения.

Структура образовательной технологии развития критического мышления через чтение и письмо последовательна и логична, а ее этапы соответствуют естественным этапам познавательной деятельности человека. Важным в данной технологии является то, что она проходит три этапа: возбуждение (arousal, arousal), осознание (understanding of new information), рефлексия (reflection) и соблюдение определенных условий: активность участников процесса, разрешение высказывать различные "опасные" идеи и т. д. Урок, занятие, серия уроков (занятий), тем и курсов могут быть построены по определенному алгоритму.

-Первый стадия (фаза) – "вызов" это задание, которое активизирует, заинтересовывает и мотивирует учащихся на дальнейшее обучение, но и "вызывает" уже имеющиеся знания, устанавливает связи по изучаемой теме, что само по себе станет серьезным активизирующим и мотивирующим фактором для дальнейшей работы [4]. И. В. Муштавинская. "Технология развития критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя".

Основные функции этой стадии в формировании критического мышления следующие:

− мотивационная (поощрение учеников к восприятию новой информации и стимулируйте интерес к теме);

− информационная (вызов "на поверхность" имеющихся знаний по теме);

− коммуникационная (бесконфликтный обмен мнениями).

-Вторая стадия (фаза) – осмысление (реализация смысла). На этой стадии идет непосредственная работа с информацией, причем приемы и методы

ТРКМ позволяют сохранить активность ученика, сделать чтение или слушание осмысленным.

Основные функции этой стадии в формировании критического мышления:

a) информационная (получение новой информации по теме);

b) систематизационная (классификация полученной информации по категориям знания).

-Третья стадия (фаза) – рефлексия (размышление). На этом этапе информация анализируется, интерпретируется и творчески перерабатывается. Рефлексия, или размышление, означает рождение нового знания и запуск бесконечной череды операций "узнать новое" -> "ощутить необходимость узнавать новое". На этом этапе даются новые знания (понятные - трудные для понимания), и первичные представления активно реорганизуются для получения новой информации.

Основные функции этой стадии в формировании критического мышления:

– коммуникационная (обмен мнениями о новой информации);

– информационная (приобретение нового знания);

– мотивационная (побуждение к перспективе расширения информационного поля);



Рисунок 1. Развития критического мышления среди студентов.

– оценочная (соотнесение новой информации с реальными знаниями, определение своей позиции, процесс оценки).

Формирование критического мышления — это процесс обучения и воспитания, в результате реализуются и развиваются такие природные качества личности, как любознательность, восприимчивость и уверенность в себе. Такие природные качества, как любознательность, восприимчивость и уверенность в себе, независимость, навыки общения, свобода самовыражения (раскованность) и смелость в выражении идей. На основе исследования этапов и методов формирования критического мышления студентов университета в условиях представлена модель формирования критического мышления студентов (рис. 1). Данная модель предлагается в качестве общего руководства для

преподавателей с целью проведения учебных занятий со студентами вузов [5].

Методы развития критического мышления направлены на обучение людей аналитическим и логическим навыкам, способности к критическому мышлению и принятию обоснованных решений. Они помогают развить умение анализировать информацию, оценивать её достоверность, рассматривать различные точки зрения, аргументировать свои выводы и критически оценивать аргументы других. Эти методы способствуют формированию критического мышления как осознанного и рационального подхода к проблемам и решениям.

— Метод “Кластер” — это стратегия, которая включает в себя группировку и классификацию информации в кластерах для стимулирования критического мышления. Этот метод используется в фазах осмысления и рефлексия.

Суть метода заключается в следующем:

Выбор темы или проблемы: Определение основной темы или проблемы, которая требует критического анализа.

Сбор информации: Получение разнообразной информации, связанной с выбранной темой или проблемой.

Группировка в кластеры: Организация собранной информации в кластерах на основе сходства тем или идей.

Анализ кластеров: Анализ каждого кластера с целью выявления основных аспектов, общих тенденций или противоречий.

Синтез и обобщение: Синтезирование информации из различных кластеров для формирования более глубокого понимания темы или проблемы.

Критическая оценка: Критическая оценка полученных результатов, идентификация проблемных аспектов или необходимость дополнительного исследования.

Этот метод способствует систематизации информации, облегчает процесс анализа и позволяет участвующим развивать критическое мышление путем выявления взаимосвязей между различными аспектами изучаемой темы или проблемы.

— Метод “Зигзаг в развитии критического мышления” представляет собой стратегию, направленную на развитие критического мышления через принятие и рассмотрение различных точек зрения или аспектов проблемы, а затем сведение их в общую картину. Этот метод используется в фазах осмысления.

Суть метода включает в себя следующие шаги:

Выбор проблемы или темы: Определение конкретной проблемы, которая требует анализа или рассмотрения.

Изучение различных точек зрения: Активное поиск и изучение разнообразных точек зрения, идей или подходов, связанных с выбранной проблемой.

Анализ и оценка каждой точки зрения: Критический анализ и оценка каждой из рассмотренных точек зрения с целью выявления их сильных и слабых сторон, а также понимания их влияния на проблему в целом.

Сведение в общую картину: Стремление к построению общей картину проблемы или темы на основе учета различных точек зрения и аспектов.

Формулирование собственной позиции: Сформулирование собственной точки зрения или решения на основе анализа и синтеза различных подходов и аргументов.

Этот метод способствует развитию критического мышления путем тренировки в анализе разнообразных точек зрения, осознанного принятия решений и умению видеть проблему в её многообразии.

— Метод СИНКВЕЙН (или “Cinquain”) в развитии критического мышления обычно используется для структурирования мыслей и идей в краткой форме. Этот метод помогает развивать умение выражать свои мысли и анализировать информацию в лаконичной форме [6]. Вот как он работает:

Выбор темы или проблемы: Определение основной идеи или проблемы, которую необходимо рассмотреть или анализировать. Формирование первой строки: Первая строка СИНКВЕЙНа представляет собой одно слово или короткую фразу, которая отражает основную тему или аспект выбранной проблемы.

Формирование второй строки: Вторая строка состоит из двух слов или прилагательной фразы, описывающих или характеризующих выбранную тему более детально.

Формирование третьей строки: Третья строка включает три слова или глагольную фразу, выражающую действие или деталь анализируемого аспекта.

Формирование четвертой строки: Четвертая строка содержит четыре слова или фразу, описывающую чувства или реакцию на рассматриваемый аспект.

Формирование пятой строки: Пятая строка представляет собой одно слово или короткую фразу, подводящую итог или обобщающую основную идею или выводы.

Этот метод помогает развивать критическое мышление, поскольку требует сжатого выражения идей и аргументации. Он также способствует умению выделять ключевые аспекты информации и формулировать обоснованные выводы.

Интерактивные уроки в биологии представляют собой эффективный инструмент для развития критического мышления у учащихся. Методики, основанные на интерактивном взаимодействии с материалом, активном участии в учебном процессе и анализе реальных примеров из мира биологии, способствуют формированию у студентов аналитических навыков, логического мышления и способности к критическому анализу информации.

Результаты исследований подтверждают, что использование интерактивных методов обучения в био-

логии приводит к повышению интереса учащихся к предмету, улучшению понимания сложных концепций и более глубокому усвоению материала. Кроме того, студенты, обучающиеся с использованием интерактивных методик, проявляют более высокий уровень критического мышления, способны применять полученные знания на практике и адаптировать их к различным ситуациям. Таким образом, интеграция интерактивных уроков в биологическое образование является необходимым шагом в современной педагогике, поскольку она не только способствует эффективному усвоению знаний, но и развивает важные навыки критического мышления, необходимые для успешной адаптации в современном информационном обществе.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Paul, R., & Elder, L. (2006). Critical thinking: The nature of critical and creative thought. Journal of Developmental Education, 30(2), 34-35.
2. Abrami, P. C., Bernard, R. M., Borokhovski, E., Wade, A., Surkes, M. A., Tamim, R., & Zhang, D. (2008). Instructional interventions affecting critical thinking skills and dispositions: A stage 1 meta-analysis. Review of Educational Research, 78(4), 1102-1134.
3. Halpern, D. F. (1999). Teaching critical thinking for transfer across domains: Dispositions, skills, structure training, and metacognitive monitoring. American Psychologist, 53(4), 449-455.
4. Willingham, D. T. (2007). Critical thinking: Why is it so hard to teach? Arts Education Policy Review, 108(4), 21-32.
5. Bailin, S., Case, R., Coombs, J. R., & Daniels, L. B. (1999). Conceptualizing critical thinking. Journal of Curriculum Studies, 31(3), 285-302.
6. M. Millan, J. H., & Hearn, J. (2008). Student self-assessment: The key to stronger student motivation and higher achievement. Educational Horizons, 87(1), 40-49.

LINGVO-METODIK TAJRIBALARNI XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARIDA SHAKLLANTIRISH

Fotima Choriyeva,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oliy ta’limda foydalaniladigan turli yondashuvlarning eng muhim jihatlaridan biri talabalarda lingvo-metodik tajribalarni shakllantirish holati tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvo-metodik tajribalarga oid umumiy tavsiflarning bo‘lmaganligining o‘ziyoq milliy ta’lim tizimimizda yagona makonining mukammal emasligini ko‘rsatib o‘tilgan. Shu o‘rinda lingvo-metodik tajribalarni identifikatsiyalash muammosi yuzaga chiqadi. Tayyorlik holatini xossalar va xususiyatlarning ko‘zda tutilgan faoliyatni subyekt uchun mukammal amalga oshirish imkonini yaratuvchi majmuasidan iborat ko‘p rejali va ko‘p darajali dinamik hodisadir.

Kalit so‘zlar: *yondashuv, lingvo-metodik, kasbiy qiyofa, falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, motivatsiya, kasbiy qiyofa.*

Аннотация

В данной статье анализируется один из важнейших аспектов различных подходов, применяемых в высшем образовании, - состояние формирования Языково-методического опыта у учащихся. Также было отмечено, что отсутствие общих описаний лингво-методических экспериментов само по себе не является совершенством единого пространства в нашей национальной системе образования. Тут-то и возникает проблема идентификации Языково-методических экспериментов. Состояние готовности-многоплановое и многоуровневое динамическое явление, состоящее из комплекса свойств и свойств, позволяющих субъекту совершить намеченную деятельность.

Ключевые слова*: подход, лингвометодология, профессиональный имидж, философские, психолого-педагогические аспекты, мотивация, профессиональный имидж.*

Annotation

This article analyzes the state of formation of lingvo-methodological experiments in students, one of the most important aspects of the various approaches used in Higher Education. It has also been shown that the imperfect single space of the absence of general descriptions of lingvo-methodical experiments is not perfect in our own national education system. At this

point, the problem of identification of lingvo-methodological experiments arises. The state of readiness is a multi-plan and multi-level dynamic phenomenon consisting of a complex of properties and properties that make it possible to perfectly carry out the intended activity for the subject.

Keywords: *approach, linguistic methodology, professional image, philosophical, psychological and pedagogical aspects, motivation, professional image.*

Oliy ta’limda foydalaniladigan turli yondashuvlarning eng muhim jihatlaridan biri talabalarda lingvo-metodik tajribalarni shakllantirish hisoblanadi. Lingvo-metodik tajribalarga oid umumiy tavsiflarning bo‘lmaganligining o‘ziyoq milliy ta’lim tizimimizda yagona makonining mukammal emasligini ko‘rsatib turibdi. Shu o‘rinda lingvo-metodik tajribalarni identifikatsiyalash muammosi yuzaga chiqadi.

Kasbiy qiyofa — shaxsning uzluksiz ta’lim kontekstidagi qiyofasidir. Qiyofani a’loga o‘qiydigan talabaning portreti sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lur edi. Qiyofa yaratishda asosiy urg‘u o‘qib-o‘rganish va rivojlanish jarayonlariga qaratiladi: bunda o‘qib-o‘rganish rivojlanishni ta’minlagani barobarida rivojlanish ham o‘qib-o‘rganish ko‘lamini kengaytira boradi, ya’ni bu ikki jarayon bir-birini to‘ldiradi. Bundan kelib chiqadiki, qiyofa — uzluksiz ta’limning o‘ziga xos xaritasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ikki bir-biriga bog‘liq jarayonlar davomida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining lingvo-metodik tajribalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Qiyofa ta’lim muassasasida o‘quv va ta’limiy makon yaratishning asosiy vositasidir. U talabaning shaxsi rivojlanishiga qaratilgan yaxlit yondashuv uchun zamin yaratib ta’limiy fanning mazmun-mohiyati, o‘qitish texnologiyasi va nazorat usullarini aniqlab beradi.

Mazkur muammoni hal etish uchun shaxs “yangilanishi”ning tuzilmaviy tarkibi komponentlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Lingvo-metodik tajribalarning faoliyatli mohiyatiga urg‘u bergan holda, ularning motivatsiyaviy, etik va ijtimoiy jihatlari bilan shaxsni “yangilovchi” xususiyatlar (sifatlar, fazilatlar) o‘rtasida aloqadorlik va bir-biriga ta’sir etuvchanlik mavjudligi hamda mazkur tushunchaning “bilim, ko‘nikma, malaka”lar bilan integrativ munosabatda, tajriba orttirishning shaxs kasbiy faoliyatga tayyorlik tushunchasi bilan mazmundosh ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvo-metodik tajribalar va “tayyorlik” tushunchalarini o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lish shart-sharoitlari doirasidagi tadqiqotlarda “tayyorlik” tushunchasini organizmning xos holati sifatida talqin etuvchi falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Shuningdek, insonning umumpsixologik jihatdan mehnatga tayyorligi masalalariga bag‘ishlangan ishlar, shaxsda alohida faoliyat turlariga tayyorlikning shakllanishiga oid tadqiqotlar, shu jumladan kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish “tayyorlik” tushunchasining tarkibi va mohiyatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda “tayyorlik” tushunchasini o‘rganishga oid turlicha yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Mazkur tushunchani tadqiq etgan R.D.Sanjayeva, “garchi shaxsning tayyorligi va organizmning tayyorligi markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladigan yaxlit holat sifatida qaralsa-da, biroq bu holat har bir fan doirasida alohida tadqiq etilishi lozim” [3, 63], deb yozadi.

Tayyorlik bilan bog‘liq muammolar falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari mufassal o‘rganib chiqilgan [1, 63]. Tadqiqotlarimiz nuqtayi nazaridan quyidagi holatlar juda muhimdir.

Inson organizmining murakkab xatti-harakatlarga tayyorligining fiziologik asoslarini o‘rganish natijasida tadqiqotchilar faoliyatga tayyorlikning fiziologik mexanizmi bosh miya po‘stlog‘i va uning ayrim qismlarida sodir bo‘ladigan qo‘zg‘alishlarning faollashuvi hamda ko‘zda tutilgan faoliyatning shart-sharoitlari va vazifalariga muvofiqlashgan funksional tizimning ustuvorligidir degan xulosaga keldilar. Olingan ma’lumotlar insonning mehnatga umumiy tarzda tayyorligini faoliyat nazariyasi hamda shaxsga oid nazariyalar nuqtayi nazaridan psixologik, shaxsiy integrativ holat sifatida qarash va bu holatning psixologik jihatlarini o‘rganish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Mehnatga umumiy tayyorlik shaxsning umumlashgan xususiyati sifatida qaraladi. Xuddi shu xususiyat muayyan sharoitlarda konkretlashadi va faoliyatning alohida bir turiga tayyorlikka aylanadi [1, 244]. “Mehnatga tayyorlik” tushunchasi fanlararolik tavsifiga ega bo‘lib, uning mundarijaviy modeli amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan muayyan bir faoliyat turining tuzilmaviy tarkibi va funksiyalariga asoslanadi [2, 42]. Insonning mehnat faoliyatiga tayyorligida fikriy tayyorlik, ayniqsa, “mehnat faoliyatiga oid masalalarni hal etishga qaratilgan usullar, taktikalar va strategiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mehnat faoliyatiga oid muhim muammolarni mustaqil ravishda aniqlash va hal etish bilan bog‘liq vazifalar qo‘yish va ularni samarali amalga oshirishga tayyorlik muhim o‘rin tutadi. Mehnat faoliyatining muayyan turiga tayyorlik dinamik xususiyatga ega bo‘lib, mazkur holat shakllanishining kasbiy, kasbiylikkacha va nokasbiy darajalari bosib o‘tiladi”. Mehnatga umumpsixologik tayyorlik shaxsning murakkab xususiyatlaridan biri bo‘lib, maqsadli va samarali faoliyatning eng muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi, shuningdek, amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan faoliyatning barqarorligini ta’minlaydi. Mehnatga umumiy tayyorlik ham shakllanish davomiyligiga ko‘ra dinamik xususiyatga ega bo‘lib, faqat aniq va muayyan faoliyat shart-sharoitlaridagina (o‘sha faoliyat turiga aylangach) rivojlanib, aniq mundarijaviy mazmunga ega bo‘la boradi. Shaxsning psixologik tayyorligi quyidagi komponentlarni o‘zida mu-

jassam etadi:

– o‘z-o‘zini nazorat majmuasi: bu majmua shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va baholab borishini ta’minlaydi;

– emotsional-iroda majmuasi: mazkur majmua subyektning amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan faoliyat haqida o‘ylashidan iborat;

– faoliyatga amaliy tayyorlik majmuasi.

Insonning kasbiy faoliyat turlariga tayyorlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur fenomen subyektning tegishli faoliyat turiga to‘liq “kirishib” ketishining muhim sharti, subyektning bu boradagi imkoniyatlari va qobiliyatlarining majmuasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, shaxsning faoliyatga tayyorligining mazmun-mohiyatida faoliyatli hamda psixologik tashkil etuvchilarni alohida ajratib ko‘rsatish lozimligini qayd etiladi. Shuning uchun tayyorlik masalasini tadqiq etish, asosan, ikki muhim aspektda olib boriladi. Bu aspektlar shaxsning faoliyatga tayyorlik holatidagi funksional va shaxsiy aspektlardir. Shaxsning faoliyatga tayyorligidagi funksional aspekt faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo‘ladigan bilimlar, faoliyatga tayyorlik asnosida shakllangan ko‘nikmalar va egallangan malakalarni nazarda tutadi. Ikkinchi (shaxsiy) aspekt doirasidagi tayyorlik shaxsning bir qator komponentlar (motivatsiyaviy, mundarijaviy, amaliyotli va shu kabilar)ni o‘z ichiga oluvchi murakkab, integrativ xususiyatlari sifatida talqin etiladi.

Qayd etish lozimki, muammoning har ikki aspekt nuqtayi nazaridan o‘rganilishi tadqiqotimiz uchun birdek ahamiyatlidir. Buning natijasida tayyorlik holatining mohiyati va tuzilmalarini aniqlash hamda mazkur tushuncha bilan tajribalar o‘rtasidagi umumiyliklarni qayd etish imkoniga ega bo‘lamiz. Tayyorlikning tuzilmasi haqida gap ketar ekan, “shaxsning u yoki bu faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligi integrativ xususiyatga ega. Tayyorlikning tuzilmasi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

– ko‘zda tutilgan faoliyatga oid harakatlarni to‘liq tasavvur etish;

– faoliyat uchun zarur bo‘ladigan tajribani faollashtirishga zamin yaratadigan psixofiziologik holat;

– ko‘zda tutilgan faoliyatga oid harakatlarni amalga oshirish uchun psixologik yo‘naltirilganlik”.

Faoliyatga psixologik tayyorlik holati murakkab dinamik tuzilmaga ega ekanligi haqidagi holatlar ham tadqiqot ishlarida ham o‘z ifodasini topgan. “Psixologik tayyorlikning umumiy tuzilmasi tarkibida quyidagilar:

– motivatsiyaviy majmua (masalani ham etish uchun mas’uliyat va burchni his etish);

– mo‘ljalli majmua (faoliyatning o‘ziga xosliklari, sharoitlari va uni amalga oshiruvchi shaxsga qo‘yiladigan talablar haqida bilim va ma’lumotlar);

– amaliy majmua (faoliyatni amalga oshirish usullari, metodlari haqidagi bilim, ko‘nikma, mahorat va malaka hamda tahlil, umumlashtirish, qiyoslash va shu kabi ko‘nikmalar);

– ichki imkoniyatlar majmuasi (harakatlarni boshqarish, faoliyatga o‘z-o‘zini bag‘ishlash, o‘z-o‘zini nazorat);

– baholash majmuasi (o‘z tayyorlik darajasini va kasbiy masalalarni mukammal hal etishga muvofiqlik darajasini baholash ko‘rsatib o‘tilgan [3, 34].

Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik bo‘yicha ish olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar uni dinamik va statik jihatlarining birligi nuqtayi nazaridan o‘rganadilar. Tayyorlik holatini xossalar va xususiyatlarning ko‘zda tutilgan faoliyatni subyekt uchun mukammal amalga oshirish imkonini yaratuvchi majmuasidan iborat ko‘p rejali va ko‘p darajali dinamik hodisa sifatida qarab chiqadilar. Bu borada subyektning aniq bir faoliyat turiga, xususan talabalarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlik masalasiga oid ishlanmalar juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Платонов К.К. Система психологии и теория отражения: метод, пособие. – М.: издательство Наука,1982. – 312 с.

2. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Логос, 1999. – 272 с.

3. Санжаева Р. Д. Психологическая готовность личности к деятельности как метакате-теория // образование. Личность. Общество. – 2012. – 156 с.

4. Бердиева З.С. Сущность урока и требования к уроку иностранного языка // Вопросы педагогики. – 2019. – №11-2. – С. 45-48

5. Бойматов А.Б. Профессионально-педагогическая компетенция учителя английского языка // Актуальные проблемы филологии. – Душанбе: Российско-Таджикский Славянский университет, 2017. – С. 78-82

6. Махмудов О.Р. Педагогическая практика — важный фактор профессиональной подготовки студентов (на тадж.яз.). Метод. пособие. Худжанд, 2017. – 108 с.

IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI MUTAXASSISLIK FANLARI BILAN INTEGRAL O‘QITISH

Cho‘tqul Boltayev,
Termiz davlat universiteti
“Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda mutaxassislik fanlari bilan bog‘lagan holda o‘qitish, uning turlari haqida bayon qilingan. Shuningdek, metodologik yangiligi sifatida Iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish uchun mahsulotlar mavjudligiga to‘xtaldi. Bu darsliklar, maqolalar, maqolalar va o‘quv jarayonida qo‘llanadigan boshqa materiallar, iqtisodiyot tushunchalarini anglashda yordam berishi mumkin bo‘lgan materiallar, turlari va metodlari aniqlandi. Ushbu metod o‘rganuvchini maqsad qilingan til muhitiga olib kirishning eng “tabiiy” yondashuvi sifatida ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: *to‘g‘ridan to‘g‘ri metod, integral o‘qitish, kontekstual va so‘zlashish muammolari, iqtisodiyot modellari, matn korpusi.*

Аннотация

В данной статье описаны методы преподавания английского языка студентам-экономистам применительно к профильным предметам и их видам. Также в качестве методического новшества он отметил наличие продуктов для преподавания английского языка студентам направления “Экономика”. Выявлены эти учебники, статьи, статьи и другие материалы, используемые в учебном процессе, материалы, виды и методы, которые могут помочь в понимании понятий экономики. Этот метод описывается как наиболее “естественный” подход к погружению учащегося в изучаемую языковую среду.

Ключевые слова: *прямой метод, интегрированное обучение, контекстно-речевые задачи, экономические модели, текстовый корпус.*

Annotation

This article describes the methods of teaching English to economics students in connection with specialized subjects and its types. Also, as a methodological innovation, he pointed out the availability of products for teaching English to students in the field of Economics. These textbooks, articles and other materials used in the educational process, materials, types and methods that can help in understanding the concepts of economy have been identified. This method is described as the most “natural” approach to bringing the learner into the target language environment.

Keywords: *direct method, integrated teaching, contextual and speech problems, economic models, text corpus.*

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimidagi amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishni, xalqaro mehnat bozori talablari asosida sifatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda chet tillarini samarali o‘qitish tizimini keng joriy etishni talab etmoqda. Amalga oshirilgan ijobiy ishlar samarasi bilan bir qatorda ingliz tilini tizimli o‘qitish sifatini oshirish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Ingliz tili butun dunyo bo‘ylab biznes, ilm-fan va texnologiyani amalga oshirish uchun muhimdir. U asosiy til bo‘lmagan mamlakatlarda mashhur bo‘ladi. Biz kompyuterlar uchun o‘quv materiallarini yaratamiz va ingliz tilini o‘rganuvchilarga turli madaniyatlarni yaxshiroq tushunishlariga yordam berish uchun yanada ilg‘or real hayot matnlaridan foydalanamiz. Buning uchun ish beruvchilar va o‘qituvchilar birgalikda ish uchun ingliz tili qanchalik yaxshi bo‘lishi kerakligini aniqlash uchun ishlaydi [1, 579].

Bu tizim orqali har bir o‘quvchini kasbga yo‘naltirishda u individual xususiyatlarni va to‘liq zarurligini hisobga olish zarur xalq xo‘jaligi manfaatlarini ko‘zlab mehnat resurslari bilan ta’minlash. Biroq, bugungi kunda umuman o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilmiy-amaliy tizimi umumta’lim maktablari yetarli darajada rivojlanmagan, ilmiy-pedagogik bazalar talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari, dolzarb masalalar kabi zamonaviy talablarga asoslangan tezkor innovatsiyalar, zamonaviy texnologik darsliklar, dars ishlanmalari, ko‘rgazmali qurollarning etishmasligi, mezon va mezonlarni aniqlash kasb tanlashda, kasb tanlashda tezkor muloqotning yo‘qligi shular jumlasidandir dolzarb masalalar. biri hisoblanadi [6, 52].

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitishning eng salmalari usul va yondashuvlari xususida butunjahon tilshunos va metodistlari tomonidan uzoq muhokamalar, metodik tadqiqotlar olib borilgan. Xatchinson va Uotersning fikricha “Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish (ESP) ning aniq bir metodologiyasi mavjud emas, chunki tilshunoslikning ushbu yo‘nalishining maqsadi lingvistik xususiyatlarni emas balki o‘sha tilning o‘zini o‘rgatishdir” [3, 577] Shu sababga ko‘ra, ESP dasturlari va metodlari talabaning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Ammo, grammatik tarjima metodiga javob sifatida yuzaga kelgan “to‘g‘ridan to‘g‘ri metod” yoki tabiiy metod ESP mashg‘ulotlarida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu metod

o‘rganuvchini maqsad qilingan til muhitiga olib kirishning eng “tabiiy” yondashuvi sifatida ifodalanadi.

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga xorijiy tillarni o‘rgatish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, agar xorijiy tillardan muloqot vositasi sifatida foydalanilsa, talabalar o‘rganayotgan xalqning tili va ma’naviy madaniyatini bilish va muloqot jarayonida o‘sha xalqning ma’naviy madaniyatini ifodalash usuli muhimligini anglaydi va o‘z mutaxassisligi bilan Ingliz tili fanini integral bog‘lagan holda o‘rganadi.

Mamlakatimizda bo‘lajak iqtisodiyot mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, bo‘lg‘usi iqtisodchilarning xorijiy tillarni bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarga ingliz tilini o‘qitish orqali ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda filologiya va tillarni o‘qitish metodikasi muammolari G.G.Azizova, F.M.Rashidova, R.X.Djurayev, J.Jalolov, L.T.Axmedova, G.X.Bakiyeva, G.T.Mahkamova, K.J.Riskulova, T.K.Sattarov kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakatimiz oliy ta’lim rivojlanishining turli bosqichlarida talabalar kasbiy tayyorgarligi jarayonining nazariy va ilmiy asoslarini aniqlash va xorijiy tillarni o‘qitish asosida uning kasbiy dasturini ishlab chiqish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish masalalari orqali mazkur muammolarni o‘rganish va ishlab chiqishning dastlabki izlanishlari pedagogika sohasining taniqli olimlari J.Jalolov va G.T.Mahkamovalar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur olimlarning bo‘lajak mutaxassislarni o‘qitish va tarbiyalashni amaliyot bilan bog‘lashga asoslangan tamoyillari nazariy va amaliy jihatdan yetakchi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak iqtisodchilarning til bilish kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalaridan yetarli darajada foydalanilmagan, bundan tashqari, ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga doir ingliz tilidagi axborot-didaktik ta’minot yetishmaydi, talabalarning ingliz tilidan bilish darajasining pastligi, ingliz tilini fanlararo integratsiya asosida o‘qitish jarayonlarida ilg‘or pedagogik ta’lim texnologiyalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uyg‘unligida o‘qitishning interfaol metodlaridan samarali foydalanilmaganligi iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tili fanini integral o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyot yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun ingliz tilini integral o‘qitishda muammolar o‘sha yo‘nalishdagi xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu muammolar quyidagi nuqtalarga ega bo‘lishi mumkin:

Iqtisodiyotga mo‘ljallangan ingliz tili: Iqtisodiyotning xususiyatlari, ma’nolari va metodlari ingliz tilida ifodalangan bo‘lishi talabalarga o‘rganish jarayonini muammolar yarata biladi. Bu tilda bo‘lgan matnlar va darsliklar iqtisodiyotning muhim tushunchalarini anglashda yordam beradi.

Tilning ko‘nikmalari va izohlar: Iqtisodiyotdagi ko‘nikmalar, formulalar va tushunchalar ingliz tilida ifodalangan bo‘lsa, bu talabalarga muammolik bo‘lishi mumkin. Bu tushunchalarni tushunish va ularni to‘g‘ri o‘qib tushunish va amaliyotda qo‘llash uchun yordam beradigan qulayliklarga ega bo‘lish lozim.

Kontekstual va so‘zlashish muammolari: Iqtisodiyot sohalarida amaliyotga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar, vazifalar yoki loyihalar ingliz tilida berilgan bo‘lsa, ularni tushunish, ular haqida gapirish va natijalarni tahlil qilish uchun muammolar yuzaga kelishi mumkin. Kontekstual muammolar, talabalarga qanday o‘rganishlari va amaliyotda qanday ishlovchi bo‘lishlari haqida umumiy tushunchalar berishning muammolari bo‘lishi mumkin [1, 114].

Iqtisodiyotning o‘ziga xos tili va tushunchalari bor. Talabalar uchun bu tushunchalar va terminologiya o‘rganish muammolari tug‘ilishi mumkin. Bu, turli iqtisodiyot modellarining, tartibotlarining va ma’lumotlarining tushunilishi va qabul qilinishi kerak bo‘lgan shu jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bu muammolarni bartaraf qilish uchun, iqtisodiyot talabalari uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Qo‘llanmalar va darsliklar: Iqtisodiyotdagi ingliz tilini o‘rganish uchun mahsulotlar mavjud. Bu darsliklar, maqolalar, maqolalar va o‘quv jarayonida qo‘llanadigan boshqa materiallar, iqtisodiyot tushunchalarini anglashda yordam berishi mumkin.

Matn korpusi ma’lumotlaridan, shuningdek, eng yangi internet texnologiyalaridan foydalanish imkonini beruvchi maxsus dasturlardan foydalanish ESPni o‘rganish va tahlil qilish uchun yangi istiqbollarni ochadi. Bitta manba matnning bir nechta tarjimalarini o‘z ichiga olgan korpus tarjimonlarni tayyorlashda katta yordam berishi mumkin, bu o‘qituvchiga diqqatni eng yorqin hodisalarga qaratishga, matnlardan talabalar uchun tegishli bo‘lgan ko‘plab misollarni tanlashga imkon beradi [2, 959].

Amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar: Talabalar ingliz tilini amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar orqali o‘rganishi va amaliyotda qo‘llashlari mumkin. Bu shu sohada ish tajribasi va tushunchalarni amaliyotda qo‘llashga imkon beradi.

O‘qituvchilar va mentorlar yordami: Talabalar uchun o‘qituvchilar va mentorlar ingliz tilini o‘rganishda yordam berishlari, muammolarni bartaraf qilishga yordam berishi mumkin. Bu maslahatchilar va murojaatlar yordamida tushunchalarni anglash va o‘rganishga yordam berish uchun qulay bo‘ladi.

O‘zlashtirilgan o‘qish va o‘rganish: Talabalar ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan o‘qish usullaridan foydalanishi lozim. Bu o‘zlashtirilgan dasturlar, talabalarga ularning shaxsiy xususiyatlariga va o‘rganish usullariga qarab moslashtirilgan ta’lim berish imkonini beradi.

ISSN 2181-8274

Iqtisodiyot yo‘nalishida ingliz tilini integral o‘rganishning muammolari mavjud bo‘lib, lekin yuqorida keltirilgan usullar va yordamlar bu muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’limda talabalarning berilgan matn materiali mazmuni bilan yetarli darajada ishlashi til shakli, gapning tuzilish xususiyatlari bilan almashinib ishlaydi. Ushbu jarayonda, nutqning kommunikativ yo‘nalganligi lingvistik tuzilmani tashkil etishdan ustun turadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu bir tomondan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchilar ingliz tilini o‘rganishi jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirish tizimining tarkibiy qismlari nisbatan mustaqillik, ma’lum bir darajada erkinlikka ega, boshqa tomondan esa, ular o‘zaro bog‘liq holda bo‘lajak mutaxassislarda ingliz tilida muloqot qilishga tayyorlik va qobiliyatning shakllanishi uchun sharoit yaratishning yaxlit sifatiga ega ekanligi isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karshieva Bogdagul Faxriddinovna. “Theoretical views of teaching English to engineering students”. The American Journal of Social Science and Education Innovations, vol. 5, no. 12, Dec. 2023, pp. 113-116, https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume05Issue12-15

2. Doniyorova, Gulrux Shoniyozovna. “Oliy ta’lim talabalariga iqtisodiy ingliz tilini o‘qitishni takomilllashtirish” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 11, 2023, pp. – 576-580.

3. Karshieva, B. F. “A component of professional communicative competence in english is professional engineering knowledge.” Journal of Universal Science Research 1.12 (2023): – 257-261.

4. Laylo Xamadullaevna Alimjanova. “Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda content asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari” Academic research in educational sciences, vol. 3, no. 5, 2022, pp. – 957-963.

5. Muhammad Ali Chalikandy, Muayyan maqsadda ingliz tilini o‘rgatishning keng qamrovli usuli. Arab World English Journal, 2013. AWEJ Volume.4 Number.4, 247-256

6. Boltayevich, Boltayev Chutkul. “Cross-cultural determinants of development linguistic personality.” Open Herald: Periodical of Methodical Research 1.5 (2023): 20-23.

YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLARDA TADQIQOT ISHLARNING METODOLOGIK TA’MINOTINI YARATISHNI O‘ZIGA XOSLIKLARI

Zulfiya Muradova,
Qarshi davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif metodologik ta’minotni yaratishga doir yangi pedagogik yondashuvlarning mazmuni va mohiyatini yoritib bergan. Mazkur tadqiqotlarning natijalari yaxlitlikda pedagogikaning o‘ziga xosliklari, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, pedagogik faktlar, pedagogik nazariyalarni shakllantirish shart-sharoitlari, pedagogikaning obyekti va predmeti va mustaqil amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlar haqidagi bilimlarni o‘zida aks ettiradi. Ushbu tadqiqotlarda ta’lim sohasida qo‘llaniladigan fan metodlari haqidagi bilimlar konkretlashtiriladi. Shuningdek, muallif tomonidan metodologik ta’minot manbasi tushunchasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Pedagogik yondashuv, metodologik ta’minot, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, metodologik bilim, metodologik tahlil, maxsus ilmiy ish, metodologik empiriya.*

Аннотация

В данной статье автор осветил содержание и сущность новых педагогических подходов к созданию методического обеспечения. Результаты данных исследований отражают в целостности знания об особенностях педагогики, ее взаимосвязи с другими науками, о педагогических фактах, условиях формирования педагогических теорий, об объекте и предмете педагогики и самостоятельно проводимых педагогических исследованиях. В этих исследованиях конкретизируются знания о методах науки, используемых в образовании. Также автором выделено понятие источника методологического обеспечения.

Ключевые слова: *педагогический подход, методическое обеспечение, личностно-ориентированное обучение, методологические знания, методологический анализ, специально-научная работа, методологическая эмпирия.*

Annotation

In this article, the author highlighted the content and essence of new pedagogical approaches to the creation of methodological support. The results of these studies in integrity reflect knowledge about the peculiarities of pedagogy, its relationship with other disciplines, pedagogical facts, the conditions for the formation of pedagogical theories, the object and subject of pedagogy and pedagogical studies carried out independently. In these studies, knowledge of the methods of science used in the field of education is concretized. Also, the concept of a source of methodological support is covered by the author.

Keywords: *pedagogical approach, methodological support, personality-oriented education, methodological knowledge, methodological analysis, special-scientific work, methodological Empire.*

Jahon ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish, pedagogik muammolarni aniqlash, yechim topish, nazariy bilimlarga tayangan holda amaliyot bilan bog‘liq oqilona qarorlar qabul qilishga qodir, metodologik madaniyati yuqori pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida amaliy yo‘naltirilgan pedagogik turkum fanlarni integratsiyalab o‘qitish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv va prognostik malakalarni rivojlantirish, o‘quv-tarbiya jarayonini samarali loyihalash va amalga oshirishga layoqatlilikni tarbiyalash muhim o‘rin egallamoqda. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni yangiliklarni o‘zlashtirish, joriy etish va amalda qo‘llash malakalarini tarkib toptirish bilan metodologik madaniyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy asosi sifatida metodologik madaniyatni shakllantirishning didaktik jihatlarini aniqlashtirish, innovatsion faoliyatning asosi sifatida metodologik bilimlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarda shiddat bilan o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sharoitlarda moslashuvchanlik va mobillikni tarkib toptirish, umumta’lim fanlarini o‘qitishda metodologik bilimlardan foydalanishning didaktik asoslarini takomillashtirish, pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazishga doir metodologik layoqatlilikni rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmini ishlab chiqish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

Respublikamizda oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish ijtimoiy sohaning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan” [1, 70-modda]. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni shakllantirish modelini ishlab chiqish, mazkur jarayonni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish va integrativ-modulli texnologiyasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

XXI asrda fanning yaratuvchanlik qudratining oshib borishi, ishlab chiqarish kuchiga aylangani ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligidan dalolat beradi. Har bir fanning metodologiyasi fanshunoslikning tarkibiy qismi, fanning taraqqiyoti esa uning mukammal metodologiyasining yaratilganligiga bog‘liq. Fan obyektiv borliq haqida bilimlar tizimi, voqelikni ilmiy-nazariy aks ettirishdir. Hozirgi globallashuv jarayonida, avvalo, har bir axborotga ilmiy yondashish, qolaversa, fanning jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy rivojlanishida hozir javob bo‘lishi davr talabidir.

So‘nggi vaqtlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish bilan bog‘liqlikda metodologiyani tavsiflash bilan bog‘liq qator savollar tug‘ilmoqda: metodologiya har bir kishining shaxsiy yutug‘i bo‘lishi kerak emasmi? Maxsus bilish sohasini metodologiya deb atash o‘rinli bo‘ladimi? Ko‘plab olimlarning sa’y-harakatlari bilan fan sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni korreksiyalash va takomillashtirishdan foyda bormi?!

Shuningdek, ayrim adabiyotlarda bayon etilishicha, “obyektiv” metodologiya bo‘lishi kerak emas, aksincha, har bir kishi uchun ilmiy ijod individual xarakter kasb etishi, ya’ni “subyektiv” metodologiya bo‘lishi lozim [2, 98].

Biroq mazkur fikrlarni to‘liq tasdiqlab bo‘lmaydi. Pedagogika fani metodologiyasi pedagogik fanlar va pedagogik tadqiqotlar haqida bilimlar tizimini ifoda etsa, ikkinchidan, mazkur bilimlarni qo‘lga kiritish, shuningdek, tadqiqot dasturi (metodologik ta’minoti)ni asoslashga doir faoliyat sifatida metodologiya sohasi bilan bog‘liq qator tushunchalarga aniqlik kiritish imkonini beradi [3, 13].

Shuningdek, metodologiyani tushunish nuqtayi nazaridan quyidagi savollarga aniq javob topishga erishish mumkin: pedagogika metodologiyasi nima bilan shug‘ullanadi va kim shug‘ullanishi kerak? Pedagogika sohasida metodologik bilimlarni egallashning qanday usullari mavjud va qanday bilimlar qo‘lga kiritiladi? Tadqiqotlarning metodologik ta’minotining manbalari, obyektlari va tartib-qoidalari qanday bo‘lishi lozim? [3, 15].

Dastlab metodologik tahlil obyektlarining maxsus ilmiy tahlil obyektlaridan farqiga aniqlik kiritish lozim. Qachonki, biz tahlil bilan shug‘ullansak, eng avvalo, bizning e’tiborimiz nimaga, ya’ni qanday obyektga qaratilganligini aniqlab olishimiz zarur.

Pedagogikada maxsus ilmiy ish deganda nima tushuniladi? Maxsus ilmiy ish aniq metodologik tadqiqot-

ni anglatmaydi, u pedagogik faoliyatni tadqiq etishga yo‘naltirilgan bilish faoliyatidir. Metodlar tasnifi, ta’lim mazmuni masalalari yoki zamonaviy darsni tashkil etish muammolarini o‘rganish — maxsus ilmiy tahlil sohasidir. Biroq metodologik tahlil ham bor. Mazkur holatda biz bu masalalarni qanday tadqiq etamiz: masalan, ushbu masalalarni o‘rganishda fan metodlari to‘g‘ri qo‘llaniladimi, bilish maqsadi bilan biz foydalanayotgan tushunchalar tizimi bir-biriga muvofiqmi? [4, 2].

Ikkinchidan, metodologik masalalar maxsus ilmiy muammolardan farq qiladi. Metodologik masalalarga maktab amaliyotida didaktik bilimlardan foydalanish, pedagogik bilimlarning turlari, xususiy metodika bilan didaktikaning aloqadorligi, pedagogik dalillar, pedagogik tadqiqotlar mantig‘i, pedagogik tadqiqotlarda formallashtirishni qo‘llash doirasi va shart-sharoitlari, pedagogik tadqiqotlar bosqichi sifatida maktab tajribasini o‘rganish kabilarni kiritish mumkin. Mazkur holatda e’tibor amaliy yo‘naltirilgan ilmiy faoliyatga qaratilgan [5, 21].

Pedagogika fani bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining metodologik ta’minoti qator o‘ziga xosliklariga ega. Metodologik ta’minot manbasi tushunchasi tadqiqotchi uchun mo‘ljal olishga imkon beruvchi va iyerarxik mansublikka ega alohida turdagi bilimlar yig‘indisini anglatadi.

Tadqiqotchi uchun mo‘ljal olishga yordam beruvchi birinchi metodologik manba falsafiy qoidalar va undagi metodologik funksiyalardir. Masalan, nazariya va amaliyot birligi haqidagi nazariya. Ana shu tarzda falsafa metodologik ta’minot manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiyaning bir nechta darajalarining mavjudligi umumfalsafiy qoidalar, shuningdek, umummilliy metodologiya darajasida ishlab chiqilgan bilimlar va yondashuvlarni metodologik ta’minot tarkibiga kiritishga teng huquq beradi.

Talabalarga axborot texnologiyalari fanini muvaffaqiyatli o‘qitish uchun oliy ta’lim muassasasida o‘qitishning uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modeli tuzilishini tahlil qilish, pedagogik maqsadlarni qo‘yish, ular asosida ta’lim mazmunini o‘rganish, o‘qitish usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini aniqlash zarur.

O‘qitishni faoliyat sifatida ko‘rib chiqib, eng avvalo, uning maqsadlarini aniqlashimiz va ularni didaktika tilida ifodalashimiz shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 3-son, 79-modda.
2. Rustamov Sh.X. “O‘zMU xabarlari” Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – T., 2021. – №1/3/1. – 144-146-b.
3. Rustamov Sh.X. Ta’lim beruvchi tizimlarning interfeysini loyihalashtirish. Academic Research in Educational Sciences ISSUE 6/2021 Scientific Journal Impact Faktor (SJIF):5.723 ISSN: 2181-1385. – 288 b.
4. Rustamova N. Media ta’limning rivojlanish tarixi va uzluksiz ta’limda qo‘llash imkoniyatlari//Uzluksiz ta’lim. – Toshkent , 2013. – № 5. – B. 401.
5. Rustamov Sh.X. Ta’lim jarayonidagi vaziyatlardan samarali foydalanishning innovatsion pedagogik shartlari. “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘” Ilmiy-metodik jurnal Нукус. 2020. №6. 22-25-b.
6. Yo.J.Odilov. Chiziqli va vizual dasturlash asosida fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish” dissertatsiya // Chirchiq – 2022. – 142 b.
7. Yo.J.Odilov. Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii (IKT) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitii kadrov// Scienceweb academic papers collection, 2019/1/1.

PEDAGOGIK FANLAR TIZIMIDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYANING UZVIYLIGI

Gulbaxor Ismoilova,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
Sabina Sayfullayeva,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, uning tarixiy sharoitlari, uni amalga oshirishni taqozo etuvchi ekologik muammolar, ularning asosiy tamoyillari va maqsadlari, barqaror rivojlanishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Aynan shu muammolarni bartaraf etish uchun o‘tkazilgan tadqiqotlar, ekologik bilimlar axloqiy qadriyatlar bilan birlashtirilganda atrof-muhitga nisbatan individual xatti-harakatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lishi, axloqiy va ekologik ta’lim yosh avlod hayotining shakllanayotgan yillarida doimo ekologik mas’uliyatni tarbiyalaydigan vijdonni shakllantirish uchun singdirilishi kerakligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *iqlim o‘zgarishi natijalari, inson immunitetidagi o‘zgarishlar va insonning ichki kechinmalari.*

Аннотация

В данной статье рассматривается концепция развития экологического образования сегодня, его исторические условия, экологические проблемы, требующие его реализации, их основные принципы и цели, а также их роль в устойчивом развитии. Исследования, проведенные для преодоления этих проблем, показывают, что когда

экологические знания сочетаются с моральными ценностями, это вызывает изменение поведения личности по отношению к окружающей среде, морально-экологическое воспитание всегда воспитывает экологическую ответственность в годы становления жизни молодого поколения. прививается для формирования совести.

Ключевые слова: *Последствия изменения климата, изменения иммунитета человека и внутренних переживаний человека.*

Annotation

This article examines the concept of the development of environmental education today, its historical conditions, environmental problems requiring its implementation, their basic principles and goals, as well as their role in sustainable development. Research conducted to overcome these problems shows that when environmental knowledge is combined with moral values, it causes a change in individual behavior towards the environment, moral and environmental education always instills environmental responsibility in the formative years of life of the younger generation. instilled to form conscience.

Keywords**:** *The consequences of climate change, changes in human immunity and human internal experiences.*

Bugungi kunda davom etayotgan ekologik inqiroz: global isish, issiqxona effekti, ozon qatlamining yemirilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi global miqyosdagi hodisalarning paydo bo‘lishi, bundan tashqari mahalliy muammolar: tuproq degradatsiyasi, yer osti suvlarining kamayishi, cho‘llanish kabi holatlar butun insoniyatni tafakkur qilishga undaydi. Tirik mavjudotlarning yo‘q bo‘lib ketishi ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan tabiiy jarayon bo‘lsa-da, bugungi kunda insoniyat ta’siri natijasida bir nechta turlarda g‘ayrioddiy tezlikda sodir bo‘lmoqda. Bu esa barcha xalqlar, tadqiqotchi olimlarning kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib ulgurdi.

Tadqiqotda nazariy-falsafiy, pedagogik, psixologik, o‘quv va metodik adabiyotlarni, muammosi bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribani tahlil qilish, natijalarni umumlashtirish, sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Ushbu mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ekologik ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalasi bo‘yicha E.O.Turdiqulov, D.J.Sharipova, N.M.Egamberdiyeva, S.I.Husanovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ekologik muammolarning tabiiy-falsafiy jihatlarini P.U.Berdanova, N.Sh.Bozorova, N.U.Nishonova, tabiat va atrof-muhitni muhofazalash masalasini R.U.Beknazarov, M.B.Raximqulova, R.Yu. Maxmudov, I.Sh.Ismatov va boshqalar tadqiq etganlar. Zamonaviy ekologik ta’lim tizimining metodologik asoslari E.N.Dzyatkovskya, S.N.Glazachev, A.N.Zaxlebny, I.D.Zverev, I.T.Suravegin, ekologik madaniyatga nazariy yondashuvlar M.S.Kagan, E.V.Girusov, B.T.Lixachev, K.I.Shilin tomonidan amalga oshirilgan.

Inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirini tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy hal etilsa, ko‘p jihatdan hozirgi va kelasi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda sobiq eski tuzumdan hamma tomonlama eskirgan va atrof-muhitni kuchli ifloslantiruvchi sanoat ishlab chiqarishi jihozlari va texnologiyalari meros bo‘lib qolgan. Bunday sharoitda nafaqat sanoat, balki qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hamda maishiy turmushni ham mumkin qadar “Ekologiyalashtirish” va tabiatni muhofaza qilish siyosati bilan uyg‘unlashtirish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz va xalqaro miqyoslarda sanoat ekologiyasi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan samarali tadbirlar tufayli tabiatga ko‘rsatilayotgan antropogen ta’sirlar darajasini ancha kamaytirishga erishildi. Biroq istiqbolda respublikamiz hududida quyidagi ekologik muammolar o‘z yechimini kutib qolmoqda:

– Orol dengizining qurishi tufayli kelib chiqqan ekologik vaziyat;

– ko‘p yillik paxta yakkahokimligi, mahalliy o‘g‘itlarni ishlatilmasligi va o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini me’yoridan ortiq ishlatish, flora va faunaning degradatsiyasi tufayli vujudga kelgan tuproq va suv resurslari sifatining qoniqarsizligi;

– tuproq, suv, biologik resurslar va atmosfera havosi sifatiga antropogen, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi ta’sirining kuchayishi;

– sanoat va maishiy chiqindilarni to‘plash, tashish va qayta ishlash tizimining qoniqarsizligi;

– atrof-muhit holati va uni ifloslantirish manbalari haqida axborot monitoringining texnik va metodik ta’minoti rivojlanmaganligi va shu kabilar.

O‘zbekistonda eng katta ekologik fojia Orol dengizining hajmi hisoblanadi. Orol dengizining hajmi 67,5 kv.km dan 17,6 kv. km ga kichraydi.

Bir paytlar dengizda yuzlab katta paroxodlar suzgan va baliqni konservalash zavodlari ishlagan bo‘lsa bugungi holat ayanchli. Orol dengizi sathida uchgan tuzlar Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlaridagi sho‘rlanish darajasini 75% ga oshirib yubordi.

Bu yerlarda ichimlik suvlari ifloslanish me’yori yuqori, daryo suvlari sho‘rligi sababli barcha qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi kamayib ketdi. Yetishtirilgan qish-

ISSN 2181-8274

loq xo‘jalik mahsulotlari tarkibida tuz miqdori yuqori. Xorazm, Qoraqalpog‘istonda bolalar kasalliklari va yosh bolalarning o‘limi boshqa viloyatlarga nisbatan ko‘p uchraydi. Ma’lumotlarga ko‘ra tug‘ilgan chaqaloqlar orasida mutatsiyaga uchraganlar ham nisbatan ko‘p.

Tabiatni eng ko‘p miqdorda ifloslaydigan vositalardan biri neftni qayta ishlash va radioaktiv moddalarning chiqindilari hisoblanadi. Bularning ta’sirida o‘simliklar florasi va fauna to‘g‘ridan to‘g‘ri nobud bo‘ladi.

Ekologiya — hozirgi kunda ma’lum hudud yoki respublika miqyosidan chiqib, umumbashariy muammoga aylangan. Shuning uchun ekologik madaniyat, ekologik bilimlar va tushunchalar har bir insonga faqatgina uning turmush tarzi yaxshilanishi uchun emas, balki tabiat bilan hamohang bo‘lishi uchun ham kerakdir. Ekologik madaniyat, bilim va ma’lumotga ega inson hech qachon tabiatga nisbatan o‘gay ko‘z bilan qaramaydi. Ta’lim jarayonida ekologik qoida va qonunlarni, uzliksiz ekologik tarbiya, ma’lumot va ekologik madaniyatni qo‘shib olib borilsa, atrof muhitdagi ekologik tizim qonunlar buzilmaydi.

Bugungi kunda insoniyat bilan tabiat o‘rtasida shunday og‘ir vaziyat vujudga kelmoqdaki, endilikda rivojlanish uchun hamma davlatlarda bir xilda atrof-muhitni himoya qilishning ilmiy asoslangan usullariga tayangan, tabiat boyliklaridan tejamkorlik bilan foydalanishga, ulardan yuqori sifatli ko‘p mahsulotlar olishga, hozir ham, kelajakda ham inson yaxshi yashashi uchun eng tabiiy biosferani saqlab qolishi zaruratidan kelib chiqqan holda borishi kerak. Akademik V.I.Vernadskiy ekologiya va inson orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf qilish yo‘li haqida gapirib, buni “Noosfera” hal qiladi deb aytadi. Akademik Y.A.Kosigin ham tabiat va jamiyat orasidagi nomuvofiqlikni tushuntirib o‘tadi.

Ekologiyaga eng katta zarar yetkazuvchi omil bu — inson hisoblanadi. Tabiatga nisbatan qilinayotgan barcha adolatsizliklar kelajakda katta xavf tug‘dirishi mumkinligini tasavvur ham qilmay xatoga yo‘l qo‘yishmoqda. Ekologiya biz-u sizga hayot baxshida etuvchi katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Inson tabiatdan nafas oladi, oziqlanadi va yashaydi. Shu bois ekologiyaga yaxshi munosabatda bo‘lmog‘i lozim. Hozirgi kunda butun dunyoning eng dolzarb muammosi ekologiya bo‘lib qolmoqda. Ekologik hayot haqida gap ketganda Shvetsiyalik 12 yoshlik Greta Thunbergning tabiat haqidagi chiqishlarini aytib o‘tmoqchiman. Yosh bo‘lishiga qaramay tabiat uchun kurashgan, xalqaro miqyosda tan olingan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tan olingan atrof-muhit faolidir. “Favqulodda vaziyatda odamning harakati o‘zgaradi. Agar mashinalarga gavjum yo‘l o‘rtasida yosh bolani ko‘rib qolsangiz, beparvo bo‘lmaysiz, chunki bunday qilishga uyalasiz. Yugurib borib, bolani qutqarishga harakat qilasiz. Nahotki odamlar dunyo favqulodda holatga yuz tutayotganini ko‘rmasa?”– deydi yosh o‘smir. Greta ekologiya uchun kurashib, bunga barchani jalb qilishga uringani uchun “Yil insoni” unvoni bilan taqdirlangan. Haqiqatdan ham shu emasmi haqiqiy inson, o‘z ekologiyasi uchun qayg‘urgan yuksak jasorat sohibi.

Ekologik vaziyatlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, iqlim o‘zgarishi ham katta xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Iqlim o‘zgarishining inson salomatligiga ta’siri orasida jarohatlar va odamlarning halok bo‘lishiga olib keladigan ekstremal ob-havoning bevosita ta’siri, shuningdek, hosilning yetishmasligi yoki toza ichimlik suvidan foydalanishning yetishmasligi kabi bilvosita ta’sirlar kiradi. Iqlim o‘zgarishining sog‘liqqa ta’siri butun dunyo bo‘ylab seziladi, ammo nomutanosib ravishda kam ta’minlangan aholiga ta’sir qiladi, bu ularning iqlim o‘zgarishiga zaifligini ko‘rsatadi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda vaziyatni yomonlashtiradi. Yosh bolalar oziq-ovqat tanqisligiga va keksa odamlar bilan birga haddan tashqari issiqlikka chidash holatini taqozo qiladi. Iqlim o‘zgarishi aholi salomatligi uchun keng ko‘lamli xavflarni keltirib chiqaradi

Iqlim o‘zgarishining sog‘liqqa ta’siri xalqaro sog‘liqni saqlash siyosati hamjamiyatini tobora ko‘proq tashvishga solmoqda. 2009-yilda taniqli umumiy tibbiy jurnalda nashr etilgan Lancet: “Iqlim o‘zgarishi 21-asrdagi eng katta global sog‘liq tahdididir”. Bu 2015-yilda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bayonotida yana takrorlangan. 2019-yilda Avstraliya tibbiyot assotsiatsiyasi iqlim o‘zgarishini sog‘liq uchun favqulodda holat deb e’lon qildi.

Undan tashqari fasllar almashinuvi tufayli hayotimizda bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan muammolar turibdi. Ulardan biri fasllar almashinuvi natijasida yuzaga kelgan holatlar hisoblanadi. O‘zbekiston nisbatan quruq mamlakat bo‘lganligi sababli ekologiyada muammolar kelib chiqishi mumkin. Ya’ni turli navdagi daraxtlarni yoki o‘simliklarni o‘stirish juda mushkul holatlardan biri hisoblanadi

Bunday ekologik vaziyatlar tufayli inson immunitetida ham o‘zgarishlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ya’ni Orol dengiziga yaqin hududlarda, masalan, Qoraqalpog‘istonda immunitet yetishmovchiligi yuzaga kelmoqda.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi qayta tashkil etildi. Bularning barchasi “Inson va tabiat” munosabatlarini tartibga solish, bu ikki olam bir-birini anglashi zarur ekanligi nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda ekologik xavfsizlik siyosati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, atrof-muhit va barqaror rivojlanishga oid qonunchilik hamda Yoxannesburg Deklaratsiyalari va Parij konferensiyalari tamoyillari asosida olib borilib, ijtimoiy va ekologik yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti orqali huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda.

Undan tashqari aholi o‘rtasida yanada ekologiyaga e’tiborni kuchaytirish maqsadida 2008-yil avgust oyida ekologik partiya tashkil etilgan. O‘zbekiston Ekologik harakati o‘z faoliyatini fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashashi, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so‘zsiz roiya etilishini ta’minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan. Hozirgi kunda 15 ta deputatdan 50 taga oshirilganligi ham juda ajoyib natija.

Aniqlangan dolzarb ekologik muammolar global hamjamiyat uchun dolzarbdir. Biroq, ekologik muammolarni yumshatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar mavjud global ekologik muammo bilan solishtirganda yetarli emas. Muammo atrof-muhitning barqarorligini saqlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va dunyoning ekologik tanazzuliga olib keladigan vayronagarchilik o‘rtasidagi tafovutdadir. Dunyo fuqarolari o‘rtasida amalga oshirishi kerak bo‘lgan harakatlar bo‘yicha tafovut mavjud, chunki ular ko‘pincha global ekologik barqarorlikka hissa qo‘shadigan individual harakatlar haqida bilishmaydi. Shaxsda barqaror bo‘lib qoladigan axloqiy ongni rivojlantirishi uchun ta’limda tub o‘zgarishlar zarur. Albulesku [1, 17] fikricha, subyektiv fikrlash va shaxsiy tanlovga vijdon ta’sir qiladi.

Ekologik ongli jamiyatni rivojlantirish jamiyatga atrof-muhitning ahamiyatini o‘rgatish va odamlarni axloqiy harakatga undashni talab qiladi. Gamayunova va Vatin [2, 1065] ta’kidlaganidek, ekologik ta’limiy axloq nafaqat ijtimoiy munosabatlarda yashashini, balki kelajak avlodlar, hayvonlar va hayotning boshqa shakllari oldidagi mas’uliyatimizni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasalari ekologik ta’lim va ekologik axloqni o‘rgatish mumkin bo‘lgan eng muhim bo‘g‘inlardan biridir. Ular mikro muhitni shakllantirib, bo‘lajak yetakchilarning ma’rifati va kamol topishi uchun beshik vazifasini o‘taydi. Ular ekologik barqarorlikni ta’minlash va amalga oshirishda oldingi safda bo‘lishlari kerak.

Lapuzina va boshqalar [3, 54], ta’kidlaganidek, oliy ta’lim muassasalarida ekologik odob-axloqdan xabardorlik darajasi past, ko‘pchilik talabalar buni mavhum ijtimoiy qadriyat sifatida ko‘rishadi. Bu borada bir necha bor tadqiqotlar o‘tkazilgan. “Talabalardan ekologiya va madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati” yuzasidan bilimlarining qanday darajada ekanligini aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazildi. Nazorat guruhi talabalarining ekologiyaga bog‘liq tushunchalari madaniyatga aloqador bilimlaridan ko‘ra yuqori ekanligi bilindi. Talabalar ekologiya haqidagi aksar javoblarda iqlimning isib ketayotganligi, havo, suv va ekin maydonlarining ifloslanib borayotganligi, Orol dengizining qurib borayotganligi, atrof-muhit plastik chiqindilar bilan to‘layotganligi kabi muammolarni gapirishdi. Madaniyat haqida berilgan savollarga javoblar xilma-xil ko‘rinishda bo‘ldi. Chunonchi, talabalar madaniyatni din, urf-odatlar, axloq, estetika, qadriyatlar bilan bog‘lagan holda ta’riflashdi, ammo uning asl mohiyatini ochib berishda ilmiy yondashuv kuzatilmadi. Javoblar ba’zan jo‘n, hatto bir-birini inkor qiladigan ma’lumotlar bilan bayon etildi. Bu bilan ekologik madaniyat haqidagi nazorat guruhi talabalarining tasavvurlari sodda shaklda ekanligi namoyon bo‘ldi.

Tanlab olingan tajriba guruhida talabalarning katta qismi har ikki tushuncha bo‘yicha muayyan bilim egasi ekanliklarini ko‘rsatdi. Madaniyat tushunchasi yuzasidan ham nisbatan aniqroq javoblar olindi. Shunday bo‘lsa-da, har ikki tushunchaning mazmun-mohiyatini tasvirlashda chuqur nazariy bilimlarga ega emasliklari namoyon bo‘lib qoldi” [4, 104].

Shuningdek, maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida ekologik ta’limda bo‘shliq mavjud. Bolalarning atrof-muhit haqidagi tushunchasi va qarashlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda Littledykes [5, 10] ko‘pchilik bolalarning bilim va tushunchalari cheklanganligini aniqladi. Axloqiy ong va xulq-atvorning yo‘qligi atrof-muhitning buzilishiga olib keldi. Bu esa barqarorlikni ta’minlash uchun umumiy o‘rta ta’lim va oliy o‘quv yurtlarida yanada samarali ekologik va axloqiy ta’limga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi.

Ekologik ta’lim iste’molchining ongli xatti-harakati bilan bog‘liq. Mahsulotlar va xizmatlar va ularning atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risida zarur bilimlarga ega bo‘lish orqali iste’molchilarda iste’mol ongini rivojlantiradi. Ekologik xabardorlik orqali iste’molchilar ekologik toza mahsulotlarni, yashil materiallar bilan qadoqlangan mahsulotlarni sotib olishga ko‘ndiriladi va organik ravishda yetishtirilgan mahsulotlardan foydalanishadi. Shaxsiy avtoulovlardan chiqadigan uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun jismoniy shaxslarga velosiped va jamoat transportidan foydalanish tavsiya etiladi. Individual darajada ekologik ta’lim sog‘lom turmush tarzini ilhomlantiradi. Sog‘lom turmush tarzi ekologik holatni saqlash, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, qayta ishlash va qayta foydalanish, tuproqni yaxshiroq boshqarish, chiqindilarni boshqarish, sanitariya holatini yaxshilash, chiqindilarni kamaytirish va cheklangan tabiiy resurslardan foydalanishni qisqartirishni o‘z ichiga oladi. Iste’mol tendensiyalarining o‘zgarishi bilan bir qatorda, ekologik ta’lim odamlarni buzilgan atrof-muhitni tiklashga qaratilgan harakatlarga ilhomlantiradi. Ekologik ta’lim o‘quvchilar va fuqarolarga atrof-muhitni muhofaza qilish uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni sinab ko‘rish va egallashga yordam beradi.

Axloqiy va ekologik ta’limning uyg‘unligi bir tomonlama aqidaparastlikni yo‘q qiladi, zararlardan qochish va adolat, huquq va atrof-muhit farovonligini ta’minlash uchun asoslarni taklif qiluvchi kosmopolit mafkuralarni yaratadi. Boshqa tomondan, axloqiy ta’lim odamlarning shaxsiyatini o‘zgartirishga intiladi, shunda ular atrof-muhitga ta’sir etuvchi qadriyatlar, munosabatlar va xat-

ti-harakatlarga mos kelishga harakat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ekologik bilimlar axloqiy qadriyatlar bilan birlashtirilganda atrof-muhitga nisbatan individual xatti-harakatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi:

1. Axloqiy va ekologik ta’lim yosh avlod hayotining shakllanayotgan yillarida doimo ekologik mas’uliyatni tarbiyalaydigan vijdonni shakllantirish uchun singdirilishi kerak.

2. Sezilarli darajada faol ekologik ta’lim passiv ekologik ta’lim bilan solishtirganda kuchliroq ta’lim vositasidir. Bundan tashqari, atrof-muhit ta’limi axloq, qadriyatlar, ko‘nikmalar va barqarorlikka bo‘lgan munosabatni integratsiyalashuviga yordam berish uchun hamjamiyatni qamrab olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Albulescu, I. Democratic Citizenship and Moral-Religious Values. Axiological Benchmarks in the Education for Democratic Citizenship. Educatia 21 2019, 17, 4–13. [CrossRef]

2. Gamayunova, O., Vatin, N. Education in the field of construction of unique, high-rise and long-span buildings and constructions. Adv. Mater. Res. 2015, 1065–1069, 2459–2462. [CrossRef]

3. Lapuzina, O., Lisachuk, L., Romanov, Y. Professional Ethics as an Important Part of Engineer Training in Technical Higher Education Institutions. New Educ. Rev. 2018, 54, 110–121. [CrossRef]

4. Ismoilova G. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish metodlarini takomillashtirish (O‘zbekiston tarixi fani misolida): Ped. fan. b. fal. dok. ..diss. – Namangan: NamDU, 2022. – 102 b.

5. Littledyke, M. Primary children’s views on science and environmental issues: Examples of environmental cognitive and moral development. Environ. Educ. Res. 2004, 10, 217–235. [CrossRef]

6. Ismoilova, G.,A. Development of ecological culture on the basis of modern pedagogical technologies. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 04 in April-2022 Pages: 165-170

7. Ismoilova, G.,A. Preservation of nature is a nationwide issue. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 04 in April-2022, 156-164.

8. Ismoilova, G.A., Muxammedova, M.B. Development of the ecological culture of future teachers by improving the quality of Education (“On the example of the science” the newest history of Uzbekistan)”. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 11 in November-2022, 386-390.

9. Ismoilova, G.A., Muxammedova, M.B The role of national values in spiritual and moral education of students-youth. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 10 in October-2022, 194-197.

10. Ismoilova, G.A Ona tabiatimizni asrash – o‘zligimizni asrashdir. Current Issues of Social Sciences and Humanities DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-735-740.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-DIDAKTIK ASOSLARI

Rustamjon Choriqulov,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola hozirgi zamonaviy ta’lim tizimi bo‘lib kelayotgan kredit-modul haqida bo‘lib, maqolada kredit-modul tizimi orqali talabalarning mustaqil izlanuvchanligini oshirish, bu bilan an’anaviy ta’limdan farqli tarzda talabalarga yanada ko‘proq o‘qish, o‘rganish va izlanish imkoniyatini taqdim etish, o‘quv jarayonini to‘la didaktik asoslarga mos kelishi, shu bilan bir qatorda mustaqil ta’limni tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning ilmiy-didaktik asoslari yoritilgan. Maqolada kredit-modul tizimining tamoyillariga olimlarning keltirgan izohlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, Charlz Uilyam, tamoyil, didaktik asos, o‘quv jarayoni, faktik, operativ-reproduktiv, analitik, farqlash tamoyili, ijodiy tamoyil.*

Аннотация

Эта статья о кредитно-модульной системе, которая в настоящее время является современной системой образования, в статье рассказывается о том, как повысить самостоятельность учащихся с помощью кредитно-модульной системы, тем самым предоставляя учащимся возможность учиться, учиться и исследовать больше, в отличие от традиционного образования, чтобы учебный процесс соответствовал полным дидактическим основам,

а также и его научно-дидактические основы.В статье также отдельно рассматриваются комментарии ученых к принципам кредитно-модульной системы.

Ключевые слова: *кредитно-модульная система, Чарльз Уильям, принцип, дидактическая основа, учебный процесс, фактологический, оперативно — воспроизводственный, аналитический, принцип дифференциации, творческий принцип.*

Annotation

This article is about the credit-module, which is now a modern educational system, and the article covers the basic principles of organizing independent education and its scientific and didactic foundations, providing students with the opportunity to study, learn and research even more in a different way than traditional education.The article also addresses the comments made by scientists to the interpretations of the credit-module system.

Keywords: *credit-module system, Charles William, principle, didactic basis, educational process, factual, operational-reproductive, analytical, differentiation principle, creative principle.*

Kredit-modul tizimi hozirgi kunda butun dunyo ta’lim tizimida qo‘llanmoqda. Dastlab kredit AQSh universitetlarining birida talabaning bir haftalik o‘quv yuklamasini aniqlab berish maqsadida yaratilgan bo‘lsa-da, tizim sifatida uni fanga Garvard universiteti prezidenti Charlz Uilyam kiritgan. Bu tizim hozirgi kunda O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida ham keng foydalanib kelinmoqda. Aslini olganda bu tizimda talabalar dars soatlarining asosiy qismini mustaqil tarzda o‘zlashtirishlari bilan xarakterlanadi. Bu tizim talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirishda, ta’lim sifatini nazorat qilishda shu bilan bir qatorda o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishda, ta’lim-texnologiyalarni yanada takomillashtirishda imkoniyatlar bermoqda.

An’anaviy ta’limdan farqli ravishda kredit-modul tizimida talaba ko‘proq o‘zi mustaqil izlanishi, mustaqilligi evaziga ko‘proq o‘zi ustida ishlashi ham aynan kelajakda vatan kelajagi uchun yetuk kadrlar yetkazishda katta ahamiyatga ega. Lekin talabalar berilgan soatlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishlari, yetarlicha kredit ballarini to‘play olishlari ham zarur. Bu degani, darsda o‘z vaqtida qatnashishi kerak, chunki har bir dars soati ma’lum bir kreditni ifodalaydi. Yetarlicha kredit to‘play olmagan talaba esa, qayta topshiradi. Shu uchun ham avvalgi tizimdan farqli o‘laroq talaba yanada mas’uliyat bilan dars jarayonlarida ishtirok etadi. Shunisi ma’lumki, har bir tizim o‘ziga xos tamoyillarga ega ekanligi bilan asoslanadi. Kredit-modul tizimining o‘ziga xos tamoyillaridan biri bu — talabalarning mustaqil ta’lim jarayonlarini tashkil etilishidir. Bu ta’lim tizimida talaba tanlash imkoniyatiga ega ekanligi ham yana bir ustunligidir [6, 8].

Fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta’lim auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida o‘tkazilishi mumkin. Shu bilan birgalikda talaba mustaqil ishni uzviy, bosqichma-bosqich oddiydan murakkabga qarab bajaradi. Bundan tashqari, mustaqil ta’limni shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga ham e’tibor qaratilishi kerak. Bular:

– talaba yetarlicha axborot manbalari bilan ta’minlanishi va ulardan foydalana olishi;

– tashkil etiladigan mustaqil ta’lim talabaning akademik o‘zlashtirish darajasiga, qobiliyatiga va fanning xususiyatlariga mutanosibligiga;

– bu to‘g‘risida juda ko‘plab olimlar o‘zlarining turlicha fikrlarini berib o‘tganlar.

Mazkur tizimda talabaning reyting bali maxsus formula yordamida hisoblab chiqiladi. Aynan kredit-modul tizimining an’anaviy ta’lim tizimidan farqi shundaki, bunda talaba ko‘proq student centered learning (ya’ni dars jarayonining markazida talaba turadi va o‘zi ko‘proq mustaqil izlanadi)mustaqil ta’limga asoslanganligidadir. An’anaviy ta’lim tizimini foizlarda ifodalaydigan bo‘lsak 60-70/30% nisbatda (70 o‘qituvchi/30 talaba) bo‘lsa, bu ko‘rsatkich kredit-modul tizimida aksinchadir (60% talaba, 40% o‘qituvchi nisbatida). O‘z-o‘zidan bu ta’lim tizimining joriy etilganligi talabaning o‘quv jarayonini samarali rag‘batlantirish va mustaqil izlanishga undash uchun juda muhim omildir. Ta’lim jarayonida kredit uchun tanlangan fanlarning uchdan ikki qismi ya’ni bir qator kerakli masalalari va muammolari mustaqil ta’lim orqali o‘zlashtiriladi. Kelajakda sifatli va yetuk kadrlar tayyorlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu: talabalar o‘zlari mustaqil bilimlarini to‘ldirishi, ma’lumotlar oqimidan kerakli ma’lumotlarni ajratishi, qayta ishlay olishi shu bilan birga tahlil qila olish qobiliyatlarini ham shakllantirishidir.

Talabalarning mustaqil ishlashi uchun o‘qitishning interfaol usullaridan turli xillarini qo‘llash, aynan o‘quv jarayonida pedagogik faoliyat elementlaridan keng foydalanishni nazarda tutadi.Talabalar uchun mustaqil ta’lim faoliyatining to‘rtta asosiy turi (funksiyalari) mavjud bo‘lib ular:

1) O‘rganish(o‘quv)jarayonida o‘zi javob topishi kerak bo‘lgan savollarni ajratib ko‘rsata olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tur.Bu tur talabalarga ma’lum bir bilim sohasining obyektini tanish uchun xizmat qiladi.

2) Ikkinchi turda esa mustaqil ta’lim olish uchun muammolarni hal qilish uchun bilimlarini nusxalash, ya’ni ko‘p ma’lumotlar ichidan keraklisini ajratib olish.

3) Uchinchi turda tahlil qilingan ko‘nikmalarni shakllantirishadi. Shu bilan birga noodatiy bo‘lgan muammolarni (yangi muammolarni) ishlab chiqadi va vaziyatlarni o‘rganadi.

4) Bu so‘nggi tur bo‘lib ijodiy-tarkibiy qismini ri-

vojlantirish bosqichi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu turda o‘rganilayotgan obyektlar chuqur tadqiq qilinadi va o‘rganilayotgan obyektning tamomila yangi aloqalari va munosabatlari o‘rnatiladi.

Mustaqil ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun kredit-modul tizimida obyektiv va subyektiv sharoitlar talab qilinadi.

Usmonov asarlarining birida mustaqil ishga olim R. A. Nizomov ta’rifini keltirgan: “O‘quvchilarning sinfda yoki sinfdan tashqarida mustaqil tarzda individual yoki guruh bo‘lib, o‘qituvchining nazoratisiz bajargan bilish faoliyatining turli xil turidir” [4, 16].

Turg‘unov S.T, Maqsudova L. A larning “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish”nomli kitoblarida “mustaqil ta’limda insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o‘ynaydi” mustaqil ta’lim fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qaratilgan harakatlar jarayonidir deyilgan [2, 9].

B.U.Rodionov esa mustaqil ta’limni tashkil etish uchun uni bir nechta kengaytirilgan toifalarga bo‘lishni taklif qiladi. Ular quyidagilar:

1) faktik;

2) operativ-reproduktiv;

3) analitik;

4) ijodiy.

N.A.Muslimov va O.A.Qo‘ysinov “Kasb ta’limi o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish”nomli metodik qo‘llanmalarida mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog‘liqligini, mustaqil bilim olishda didaktika tamoyillari hamda nazariya va pedagogik texnologiyalar asosiy rolni o‘ynashligini keltirib o‘tganlar [5, 19].

A.V.Jukov o‘zining ilmiy ishida mustaqil ta’limni maqsadlashni quyidagi tasnifini keltirib o‘tgan bo‘lib, unga ko‘ra:

1) didaktik-talabalarni kasbiy tafakkurini shakllantirish uchun fanlar bo‘yicha yakka va guruh topshiriqlarini bajarishda mustaqil ishlash;

2) ta’limiy maqsad-bilimlarni to‘ldirish hisobiga, yangilab boyitib borishdir.

Didaktikaning sakkiz tamoyiliga nazar soladigan bo‘lsak, o‘rganilgan tahlil va natijalar shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimida ham interfaol, ham noan’anaviy metodlardan foydalangan holda mustaqil ta’lim tashkil etibgina qolmay balki u didaktika bilan ham bog‘liqlikni yo‘qotmaydi. Mustaqil ta’limni tashkil etishning didaktik asoslari esa quyidagilardir:

1) olinayotgan bilimlarni tizimli ravishda aniq, turli manbalardan o‘rganish;

2) bo‘lg‘usi mutaxassis uchun mustaqil ta’lim asosida ham amaliy, ham nazariy jihatdan zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

3) talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati davomida asqatadigan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish;

4) fanlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish uchun kasbiy faoliyatni tashkil etishdagi mustaqillik [6, 37].

Didaktikaning asosiy maqsadi-talabalarning faolligini oshirgan holda darsni tashkil etishdir. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etilishi didaktikaning ilmiy tamoyillariga mosdir. Va u o‘zida quyidagilarni ifodalab beradi:

A) Mustaqillik (izchillik), ya’ni talabaning doimiy izlanishi, fanlarni o‘qib-o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonida namoyon bo‘ladi.

B) Nazariya va amaliyot — bu aynan amaliy bilimlarni qo‘llashda nazariyadan to‘g‘ri foydalanish va o‘z-o‘zini nazorat qila olishdir.

C) Qiyinchiliklarning pog‘onama-pog‘ona (bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishda) ortib borish tamoyilida olingan axborotlarni qayta ishlab chiqish orqali namoyon bo‘lishidir.

D) Farqlash (diffensiatsiya) — turli xil qobiliyatga ega talabalarga nisbatan individual yondashuv tamoyili.

E) Ijodiy faoliyat esa eng zaruriy didaktik tamoyillardan hisoblanib, aynan mustaqil ta’lim faoliyati qobiliyati uchun mo‘ljallangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mustaqil ta’lim jarayonida har bir talaba bajaradigan ishlar ketmaketligi nafaqat didaktik tamoyillarning asoslariga balki ilmiy komponentlarga ham ega bo‘lishi kerak ekan [6, 41].

Bu natijalardan kelib chiqqan holda mustaqil ta’limni tashkil etishning tarkibiy qismi sifatida ilmiy komponentlarini ham keltirib o‘tmoqchiman. Chunki mustaqil ta’limni amalga oshirish uchun talabalarda ma’lum kompetensiyalar ham shakllangan bo‘lishi zarur. Bular: Ijro etuvchi komponent — bu komponent talabadan bilimlarini tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish qobiliyatini talab qiladi.

Refleksiv komponentda esa talaba o‘z imkoniyatlari va tashqi dunyodagi o‘zgarishlarni bilimlari orqali umumlashtirish qobiliyatini o‘zida aks ettiradi. Yetishmayotgan ma’lum va noma’lum ma’lumotlarni aniqlashda ham yordam beradi. Tashkiliy komponent quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi: bajarilgan ish hajmini aniqlash, ish bosqichlarini ajratib ko‘rsatish. faoliyatning har bir bosqichida maqsad va vazifalarni belgilash, topshiriqni bajarish vaqtida vaqt ajratish, ish joyini tashkil qilish, vazifani mustaqil bajarish uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish. Bundan tashqari, ushbu komponent o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishning ma’lum darajasini nazarda tutadi [2, 51]. O‘z nomidan ham aniqki, nazorat komponenti mustaqil ta’limning qay darajada ekanligini nazorat qilish bilan birgalikda, uning alohida bosqichlarini baholash qobiliyatini, baholashning turli xil tegishli shakllarini, usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ta’lim muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun barcha bosqichdagi shartlar to‘g‘ri va aniq bajarilishi kerak.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mustaqil ta’limni tashkil etishda talabalardan avvalo bilimlarni yetarli darajada

o‘rganishlari, talabalarning bilim olishlari uchun esa ularning ta’lim yo‘nalishlari, qobiliyatlari, shu bilan bir qatorda talabalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ham inobatga olish kerak. Mustaqil ta’limga asoslangan kredit-modul tizimida har bir talabadan mohiyatan yanada chuqurroq bilim egallash, mustaqil fikrlash, kreativlik bilan yondashish talab qilinadi. Bu o‘z navbatida kelajakda o‘z yo‘nalishining yetuk kadri bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarori.
2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS Kredit-modul tizimi: Asosiy tushunchalar va qoidalar. – T.: 2020. – 176 b.
3. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T: “Fan”, 2009. – 198 b.
4. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2006. – 104 b.
5. Usmanov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – 2020. – 164 b.
6. Sh.Rixsiyeva. Didaktika uning tamoyillari va o‘quv jarayonini tashkil etish. O‘quv uslubiy majmua. – T.: TDPU, 2022. – 138 b.

XALQ DOSTONLARIDA QAHRAMONLARNING JISMONIY BARKAMOLLIGINING IFODALANISHI

Laziza Yusupova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi xalq dostonlari va ulardagi obrazlarning qahramonliklari, ularning milliy ruhiyatimizni shakllantirishdagi tutgan beqiyos o‘rni, obrazlarning jismoniy barkamolligi, bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs etib kamol toptirishda xalq dostonlarining ahamiyati, shuningdek, mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash hamda ommaviy sportni keng rivojlantirishda “Alpomish o‘yinlari” va “Barchinoy o‘yinlari” festivalining tashkil etilishi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, dostonchilik, baxshichilik, qadriyat, madaniy meros, xalq og‘zaki ijodiyoti, urug‘chilik jamoalari, xalq o‘yinlari, so‘z san’ati, tiyrandozlik, alp, mergan, sinchi, kaniz.*

Аннотация

В данной статье представлены народные эпосыб прекрасно отражающие духовный образ каждого народа, его историю, ценности, героизм, героих в них, их ни с чем не стравнимую роль в формировании нашей национальноой психики, физической совершенно ствоперсонажей, значение народного эпоса в взрослении молодого поколения во всех аспектах. В целях укрепления здоровья населиния и широкого развития массого спорта в нашей стране будут освещены “Игры Алпомиш” и” , Праздник игр Барчиной”.

Ключевые слова: *народный эпос, былины, человеколюбие, ценности, культурное наследие, народное устное творчество, семеноводческие общины, народные игры, искусство слова, тирандозлик, алп, мерган, синчи, кяниз.*

Annotation

In this article, folk epics that perfectly reflect the spiritual image of each mation, its history, values, and this heroism of the characters in them, their immeasurable role in the formation of our psyche, the physical perfection of the characters, the importance of folk epics in developing the young generation into all-round mature person today, as well as, the establishment of the “Alpomish Games” and “Barchinoy Games” festivals in the strengthening of public health and wide development of public sports in our contry.

Keywords: *folk epics, epics, philanthropy, value, cultural heritage, folk oral art, seed farming communities, folk games, art of words, tirandozlik, alp, mergan, sinchi, kaniz.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Xalq dostonlari, dostonchilik va baxshichilik — milliy g‘ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim. Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, oliyjanob ideallarining bir ekani, binobarin

turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanligini anglatadi” [1].

Darhaqiqat, har bir millatning madaniy darajasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to‘laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror vosita badiiy adabiyotga,ayniqsa, xalq og‘zaki ijodiyotiga teng kelolmaydi.Shuning uchun ham adabiyoti bo‘lmagan millat unutilib, tarix sahifalaridan o‘chib ketadi. Bu olamda o‘zbek deb atalmish ulug‘vor millatning milliy ruhini bu darajada bardavom saqlanib, asrlar davomida sayqallanib kelishida qadim ajdodlarimizdan ming-minglab yillardan buyon bizga meros bo‘lib kelayotgan xalq dostonlarining o‘rni beqiyosdir. Sababi, milliy xalq dostonlari bu o‘zbek millatining ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda xalqimizning urf-odatlari, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi, ular o‘zbek elining badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi hamda boy tilini aks ettiruvchi milliy xazinamizdir [4, 10-11].

Xalq dostonlari faqat sevgi-muhabbat tarannumi emas, balki, madaniyat, ma’rifat, tarbiya vositasi bo‘lib kelgan. Yozma manbalar bo‘lmagan qadimgi davrlardayoq ajdodlarimiz og‘zaki ijod orqali avlodlarga mardlik, ezgulik, halollik, vatanparvarlik, do‘stlik ibratini yetkazgan.

Tarixning qora sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, shunday buyuk millatimizning mustabidlar tomonidan shafqatsizlarcha istibdod etilganligi hamda osmonlarga bo‘y cho‘zgan milliy g‘ururimizni toptash va azaliy qadriyatlarimizga bolta urishga intilishlar bisyor bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Hech kimga sir emaski, mustamlakaning izg‘irindek sovuq yillari xalqimiz ruhiyatida og‘riqli izlar soldi. O‘zini “O‘qimishli” sanovchi millat qotillari or-nomusni o‘limdan ustun qo‘yuvchi yigitlarni xorlamoq, o‘zbek ayollarini ojiz-notavondek ko‘rsatmoqqa intildilar, shunday hisobladilar, ammo bilmaydilarki, bu elning erkaklari yurti, oilasi uchun har nega tayyor. Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, ayollari esa jasur To‘maris, qo‘rqmas Barchinoy, matonatli Nodirabegimning qizlari ekanligini. Darhaqiqat, tarix bizga o‘z ajdodlarimiz to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishga, o‘z qa’riga yashiringan sirlarni ulashishga qodir. Biz esa shu qimmatli xazinalar bag‘ridan dur-u gavhar yanglig‘ ma’lumotlarni olmoqqa intildik.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar natijasiga barchamizga ma’lumki, qadimdan Osiyo xalqlari sog‘lom, baquvvat va jismonan yetuk insonlar bo‘lishgan. Urug‘chilik jamoalarining paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi asta-sekin madaniyat sohasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Jamoa yig‘inlarida qo‘shiqlar, o‘yinlar ijro etila boshlandi. Bevosita mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina musobaqa o‘yinlari mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, ulardan urug‘ jamoasining turli yoshdagi guruhlari foydalana boshlaydi. Jismoniy mashqlarning musobaqa o‘yinlari shaklida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat kishisini tarbiyalashda tubdan o‘zgarish yasadi. Xalq o‘yinlarining dastlabki namunalari insoniyatning ongi, tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishida o‘sha davr shart-sharoitlari, odamlarning ov va turmush tajribalari, dunyoqarash, urf-odat va marosimlari alohida ahamiyatga molik bo‘lgan. Avvalo, oddiy og‘zaki ijodning dastlabki namunalari paydo bo‘lgan. Binobarin, xalq og‘zaki ijodiyoti o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan so‘z san’ati bo‘lib, uning barcha namunalari jonli ijro jarayonlaridagina yashaydi, shu sababli ham ayrim o‘yinlarda so‘z yetakchi bo‘lsa, boshqalarida o‘yinning ayrim unsurlari turadi.

O‘zbek xalqining azal-azaldan imon-e’tiqod, or-nomus va yurt birligi yo‘lida o‘zini ayamasligi, mardlik , jasorat kabi fazilatlari yorqin aks ettirilgan “Alpomish ” dostonini barchamiz, avvalo, o‘zbek sifatida alohida ehtirom bilan o‘rganishimiz lozim, sababi “Alpomish” dostonida o‘zbek millatining ruhiyatidagi jamiki eng yaxshi xislatlar, ko‘plab yomon illatlarning ildizlari yuksak mahorat bilan singdirilgan. E’tiborlisi shundaki, qachon va kim tomonidan yaratilganligi aniq bo‘lmagan,biror muayyan bir millatning ruhiyatini bu darajada aniq, yaqqol ifoda etib bera olgan doston yaratish bu shubhasizki, badiiy tafakkuri yuksak darajada bo‘lgan xalqninggina qo‘lidan keladi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining 72 tomirida oqayotgan qondagi chinakam etnosga xos bo‘lgan eng toza va eng chirkin jihatlarni o‘ziga mujassamlashtirgan bir obida [5, 33].

Endi esa buyuk madaniy merosimiz hisoblanmish “Alpomish” dostonidagi obrazlarning jismoniy barkamolligini misollar yordamida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

O‘z boybichchalarining oy kuni yetgan mahal aka-uka biylar ikkovi aytdi: “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb bir nechalar oldimizga yo‘lga chiqib, bizlardan tilla in’om olsa”. Keltirilgan parchadan bilishimiz mumkinki, bundan ming yillar avval ajdodlarimiz harbiy jangovar san’atlarni mukammal egallaganlar va bu ular hayotining ajralmas bir qismi bo‘lgan.

O‘z farzandlarining yetti yoshga to‘lib, burro savodi chiqib, xat o‘qib, yozadigan mulla bo‘lganidan so‘ng Boybo‘ribiy: “Endi o‘g‘lim savodi chiqib, mulla bo‘ldi. O‘g‘limga endi shohlik, sipohlik ilmini o‘rgatayin”. Bundan ko‘rinib turibdiki, qadimdan ajdodlarimiz xat-savodli, o‘qimishli inson bo‘lishgan. Shundan so‘nggina jismoniy ko‘nikmalarni egallay boshlashgan. Zero, ilm olish har bir musulmon uchun farzdir. Keyingi yana bir o‘rinda esa tiyrandozlik haqida so‘z ketadi: “Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi.

Oxiri Alpomishbek alp bo‘lib, to‘qson alpning biri bo‘lib, sanaga o‘tib, alplik otini ko‘tardi. Yetti yoshida Alpomish ot qo‘yildi” [3, 56]. Bu o‘rinni esa kitobxon

mubolag‘a deb hisoblashi mumkin, lekin tarixga nazar tashlab, o‘n yoshida o‘tkir zehni va yod olish quvvati bilan zamonasining eng ilmli kishilarini hayratga solgan Imom Buxoriyning, atiga to‘rt yoshida tasavvufiy ilmlarga boy bo‘lgan “Mantiq ut-tayr” asarini o‘qib-uqibgina qolmay, to‘liq yodlab olgan Alisher Navoiyning millatdoshlari ekanligini yod olish barcha shubhalarni yo‘qqa chiqaradi.

Asarda keltirilgan yetti aka-uka alplarning ta’rifiga e’tibor qaratsak: “Yettovi nomdor alp. Shu yettoviga tirashgani qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni olib kelardi. Bu yetti alp qanday alp: har qaysisi to‘qson botmondan sovut kiygan, har kuniga to‘qson shirbozning etini tatil qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oy besh yuz so‘z moyana olgan xo‘p birlamchi zo‘r polvonlar ”.

Endi esa Barchinoyga berilgan ta’rifni ko‘ramiz: “Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo‘yi yetgan, har yag‘rini o‘n besh qarich keladi. Bu ham alp”. Dostonda Barchinoyga berilgan ta’rif orqali u davrda faqat yigitlar emas balki, xotin-qizlar ham jismonan yetuk shaxs bo‘lganliklarini bilishimiz mumkin. Bu haqida esa tarixiy manbalarda shunday deyiladi [3, 86-87].

Barchinoyga sovchi bo‘lib kelgan yetti aka-uka alplardan biri Ko‘kaman alpning holatiga diqqat qiling: “Ko‘kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Ko‘kaman alp Barchinning burumidan ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin o‘zini o‘ng‘arib, qo‘lini uzatdi. Bir qo‘li Ko‘kamanning yoqasiga yetdi, bir qo‘li bilan belbog‘idan tutdi. “Yo, Shohimardon pirim”, – deb ko‘tarib, chalqaramon qilib yerga qo‘ydi. Chap tizzasini ko‘kragiga qo‘ydi. Og‘zi-burnidan dirak-dirak qon ketdi” [2, 77]. Demak, ushbu voqeadan bizga ma’lum bo‘ladiki, qiz bola bo‘lishiga qaramasdan Barchinoy ham yaxshigina jismoniy tayyorgarlikka ega va yuqorida ta’kidlanganidek, u ham alp. O‘zga yurtda begona yigitlar qarshisida o‘zining qat’iyati ila dadil javob bera olgan, o‘zini mardonavor himoya qila olgan Barchin timsolida o‘zbek ayollarining mardligi sabr toqati-yu kuchi namoyon bo‘lgan. Biroq bir narsa kitobxonni qiziqtirmay qolmaydi, agar Barchin ham alp bo‘lsa nega barcha aka-ukalarni o‘zi yenga qolmadi, nega Alpomishga chorlov xati yubordi, nega undan umid qildi? Shu o‘rinda Barchinoyning yurak tubida yashiringan nozik hislari go‘zal ravishda namoyon etiladi, qiyin vaziyatlarda Alpomishdan umidvor bo‘lishi, sabr-toqat bilan berilgan muddat davomida uni kutishi uning o‘zbek ayoliga xos ojizalik tomonini aks ettirgan. O‘zbek ayolining kuchi bu uning ojizaligidadir.

Endi esa Barchinoyning sovchi bo‘lib kelgan alplarga qo‘ygan shartlariga to‘xtalsak: “Poyga qilaman otini o‘zdirganiga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman”. Barchinoyning kuyovlikka nomzodlarga qo‘ygan shartlaridan shuni bilishimiz mumkinki, qadim davrlarda jamiyatda insonning boyligi, nasl-nasabidan ko‘ra ma’nan va jismonan yetuk shaxs bo‘lganligi muhimroq sanalgan. Yuqorida sanab o‘tilgan shartlarni barchasida g‘alabaga erishmoq uchun esa kishidan yuqori jismoniy mahorat talab etilishi tayin.

Qiyin vaziyatlarda Alpomishni sabr ila kutib, undan umidini uzmagan, hatto hal qiluvchi palla, kurash bellashuvida ham unda dalda bergan Barchinoyning so‘zlariga diqqat qiling:

“Qizlar sizni narmoda deb aytadi,
Ularning aytgani menga tegadi.
Mardlar olishmaydi, siltab otadi
Maydon bo‘lsa, ish ko‘rsatib ketadi” [2, 55].

Mana shu o‘rinda Alpomishga portlovchi kuch baxsh etgan omil bu or-nomus masalasidir.Chunki hech bir o‘zbek er-yigiti o‘ziga nisbatan “Narmoda” deb aytilgan haqoratga chiday olmaydi. Aynan shu g‘urur Alpomishni g‘alaba sari undadi. Shundan so‘ng Alpomish barcha shartlarni mardonavor bajarib, hammadan ustun keldi va o‘z suyukli yori Barchinoyga erishdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, adabiyotimizning eng porloq, salmoqdor namunalaridan biri bo‘lmish “Alpomish” dostoni orqali millatimizga, o‘zligimizga, asliyatimizga xos bo‘lgan jamiki ezgu fazilatlarni o‘rganishimiz hamda o‘z hayotimizda tatbiq etishimiz mumkin, Ayniqsa, yuksak rivojlanishlar bo‘sag‘asida turgan yurtimiz, O‘zbekiston farzandlarini har tomonlama yetuk, barkamol shaxs etib tarbiyalashda xalq dostonlaridan o‘rganmog‘imiz va ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etmog‘imiz lozim bo‘lgan jihatlar bisyordir. Shulardan bir yorqin misol sifatida mamlakatimizda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini belgilovchi sport me’yorlarini o‘z ichiga olgan “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari har yili aholining barcha yosh toifalari o‘rtasida o‘tkazilishini aytishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Biz xalqaro sport maydonlarida O‘zbekiston nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirishda katta hissa qo‘shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor qaratishimiz kerak”. Shu bois ham Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Yoshlar Ittifoqi hamda tegishli vazirliklar birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish uchun “Alpomish” va “Barchinoy” testlarini tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida musobaqa tarzida o‘tkazishni hamda uch darajadagi ko‘krak nishonlari bilan taqdirlashni joriy qilgan. Unga ko‘ra, “Alpomish o‘yinlari” festivali O‘zbekistonning eng yirik milliy sport musobaqalaridan biri hisoblanib, ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori (1998-yil 13-yanvar) asosida tashkil qilingan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa milliy madaniyatimiz namunalari hisoblanmish, milliy

ISSN 2181-8274

xalq o‘yinlarini aholi orasida keng ommalashtirish, elimiz farzandlarini Alpomish kelbatli, mard, or-nomusi baland etib kamol toptirish, shuningdek, ularni vatanparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalashdir. Festival nizomiga ko‘ra u uch bosqichda o‘tkaziladi. Birinchi bosqich tuman/shahar miqyosida, bu bosqichda g‘olib bo‘lganlar ikkinchi bosqichda viloyat ballashuvlarida ishtirok etadilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri musobaqalari g‘oliblari uchinchi bosqich, respublika final bosqichida qatnashish huquqini qo‘lga kiritadilar”. Alpomish o‘yinlari” festival olti milliy sport turi: milliy kurash (buxorocha va farg‘onacha usullari), armrestling (bilak kuchi kurashi) hamda xalq o‘yinlari: “Tortishmachoq”, “Mindi”, “Bo‘ron”, “Yelkada kurash” bo‘yicha o‘tkaziladi. Musobaqalarda 15 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan insonlar qatnasha olishlari mumkin, quvonarlisi shunchaki, bunda oilaviy jamoalarning ishtirok etishiga ham ruxsat beriladi”. Alpomish o‘yinlari” festivalining g‘olib va sovrindorlari pahlavonlik, mardlik va oriyat timsoli sifatida hurmatga sazovor bo‘ladilar. Ilk “Alpomish o‘yinlari” festivali 1998-yil 13-14-noyabrda Termiz shahrining “Alpomish” stadionida bo‘lib o‘tgan hamda bu an’ana bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. To‘ychiboyev B. “Alpomish” va xalq tili. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 160 b.
3. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. “Alpomish” dostoni. – T.: “SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik jamiyati bosh tahririyati, 2010. – 400 b.
4. Madayev O. Adabiyot darsliklari va milliy mafkura // Til va adabiyot ta’limi – T., 1998. – №2-son. – 9-16 b.
5. Шарипова М.Б., Муродова Ш.Ш. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ “АЛПОМИШ” //Научный журнал. – 2020. – №. 9. – 32–34 с.

МАКТАБ ИНФОРМАТИКА ДАРСЛИГИДАГИ ДАСТУРЛАШ АСОСЛАРИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ

Азамат Бадалов,
Гулистон давлат университети таянч докторанти

Аннотация

Мамлакатимизда таълим соҳасида узоқни кўзлаб олиб бораётган ислоҳотлари учун қадам ташланганлиги ва стратегияни тўғри белгиланганлигини таьлим соҳасида юқори натижаларга эришишни исботлаб бермоқда. Етишиб чиқаётган иқтидорли ва билимли ёшлар турли танловларларда мувафаққиятли қатнашиб, ютуқларни қўлга киритмоқдалар. Айни вақтда юртимизда ҳар бир соҳада ахборот технологияларини қўллаш, кўплаб соҳаларни рақамлаштириш ва автоматлаштириш каби масалаларга жуда катта эътибор берилмоқда. Ушбу мақолада мактаб информатика дарслигидаги “Дастурлаш асослари” бўлимини ўқитишда дуч келинадиган муаммолар, уларни бартараф этиш йўллари, ушбу бўлимни рақамли технологиялар асосида ўқитиш методикасини такомиллаштириш, рақамли технологиялар асосида шакллантириш тамойиллари, уларнинг таснифи келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: *дастурлаш, моделлаштириш, алгоритм, ахборот технологиялари, рақамли технология, сандбокс, методика, тамойил.*

Аннотация

Достижение высоких результатов в сфере образования подтверждается тем, что в нашей стране предприняты шаги по дальновидным реформам в сфере образования и правильно определена стратегия. Талантливая и образованная молодежь успешно участвует в различных конкурсах и достижении успеха. Таким вопросам, как цифровизация и автоматизация уделяется большое внимание. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при преподавании раздела “Основы программирования” школьного учебника информатики, пути их преодоления, совершенствование упомянута методика преподавания данного раздела на основе цифровых технологий, принципы формирования на основе цифровых технологий и их классификация.

Ключевые слова: *программирование, моделирование, алгоритм, информационные технологии, цифровые технологии, песочница, методология, принцип.*

Annotation

The achievement of high results in the field of education is confirmed by the fact that our country has taken steps towards far-sighted reforms in the field of education and has correctly defined the strategy. Talented and educated youth

successfully participate in various competitions and achieve success. Much attention is paid to issues such as digitalization and automation. This article discusses the problems that arise when teaching the “Fundamentals of Programming” section of a school computer science textbook, ways to overcome them, improvement of teaching methods is mentioned of this section based on digital technologies, principles of formation based on digital technologies and their classification.

Keywords: *programming, modeling, algorithm, information technology, digital technology, sandbox, methodology, principle.*

Айни вақтда, халқаро ҳамжамиятда глобаллашув, автоматлаштириш, рақамлаштириш жараёнлари жадал ҳукм сураётган бир вақтда етук кадрларни тайёрлашнинг илк босқичлари ўрта таълим мактабидир. Ўрта мактабларда дарс жараёнларини тўғри ташкил этиш, ўқув режаларини замон талаблари билан доимий мувофиқлаштириб бориш, ўқувчиларнинг фанларни қизиқиб ўрганишини таъминловчи тизимни яратиш, фанни ўзлаштириш даражасини юқори кўрсаткичларга кўтариш педагоглар олдида турган асосий мақсадлар сирасига киради.

Юртимизда ҳар бир соҳада ахборот технологияларини қўллаш, кўплаб соҳаларни рақамлаштириш ва автоматлаштириш каби масалаларга ҳам катта эътибор берилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонида умумий ўрта таълим муассасаларида дарсликларни янгилаш дастурини амалга ошириш учун давлат бюджетидан юқори миқдора маблағ ажратилиши, янги мактаблар қурилиши, хусусий мактабларни кўпайтириш, таълим сифатини оширишни назарда тутувчи миллий дастурни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, мактабларда таълим сифатини ошириш, педагог кадрларнинг билими ва малакасини халқаро даражага олиб чиқиш, халқ таълими тизими туман бўлимлари фаолиятини тўлиқ рақамлаштириш ҳисобига оптималлаштириш каби мақсадларнинг қўйилиши халқ таълим тизимини такомиллаштириш бўйича долзарб масалалар мавжудлигини кўрсатиб беради [2, 234].

Ўрта мактабларда ўқитилаётган фанлар ичида Информатика ва ахборот технологиялари фани алоҳида аҳамиятга эга. Бугунги ахборот асрида ёшларни ахборот ва у билан боғлиқ бўлган масалалар: уни қабул қилиш, узатиш, сақлаш, ҳимоялаш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш, ахборот ҳужумларини бартараф этиш каби жараёнларга тайёрлаш замонавий кадрлар тайёрлашнинг асосларидан бири ҳисобланади.

Информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишда бир қанча муаммолар мавжудлигини кўриш мумкин:

Информатика ва ахборот технологиялари фанидан ҳар бир синф бўйича қуйидаги тартибда ўқитишии белгиланган (1-жадвалга эътибор беринг).

1-жадвал

ISSN 2181-8274

Информатика ва ахборот технологиялари фани учун синфлар кесимида ажратилган ҳафталик ва йиллик юкламалар

Синфлар	1	5	6	7	8	9	10	11
Ҳафталик ўқув юклама	1	1	1	1	1	2	2	2
Йиллик ўқув юклама	34	34	34	34	34	68	68	68

Кўриб турганимиздек, информатика ва ахборот технологиялари фанининг ҳафталик юкламаси мазкур синф учун бериладиган ҳафталик жами юкламага нисбатан 4-8% ни ташкил қилади. Юқоридагилардан кўринадики, информатика ва ахборот технологиялари фанини мактабда ўқитишда айрим ёндашув ва тамойилларни қайта кўриб чиқиш, замон талабига мослаштириш зарур [6, 230]. Мактабда информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишда Дастурлаш асослари бўлими қуйидаги ҳолатда тақсимланган (2-жадвалга эътибор беринг):

2-жадвал

Синф	Ўқитиладиган дастурлаш тили	Йиллик юклама	Дастурлаш мавзуларига ажратилган юклама
1-синф	Криш	34	10
5-синф	Scratch	34	7
6-синф	Scratch	34	10
7-синф	Маълумотлар базасидан мақсадли фойдаланиш	34	12
8-синф	Компьютер тармоқларидан мақсадли фойдаланиш	34	12
9-синф	Веб сайт яратиш	68	18
10-синф	Веб учун дастурлаш	68	18
11-синф	Веб учун дастурлаш	68	18

Ушбу жадвалдан кўришимиз мумкинки, янги таҳрирдаги информатика ва ахборот технологиялари дарсликларида юқори синфлар учун дастурлашни ўқитишга нисбатан эътибор камроқ.

Дастурлашни ўқувчиларга ўргатишда мавзуларнинг тизимлилиги, синфдан синфга ўтишда янги мавзулар ўтилган мавзуларнинг мантиқий давоми бўлиши муҳим ҳисобланади. Ўқувчиларга ёшлигидан дастурлаш асосларини тизимли ўргатиб борилса, келажакда қайси касб эгаси бўлишидан қатъи назар ахборот технологияларини ўз соҳасида қўллай оладиган шахс бўлиб етишади. Дастурлаш асослари мавзулари асосан информатика ва ва ахборот технологиялари соҳасига мўлжалланган аудиторияда ўқитилади.

Дастурлаш асосларини ўқитишда қуйидаги воситалар зарур бўлади:

– компьютер технологиялари;
– зарурий дастурий таъминот;
– видеопроектор ёки электрон ва интарактив доска;
– синф доскаси;
– педагогик дастурий воситалар.

Ўқувчи дастурлаш асослари бўлимини ўрганиш жараёнида бир мунча қийинчиликларга дуч келиши мумкин. Кўп ҳолатда ўтилаётган мавзуларнинг моҳияти, мақсади, нима учун ўрганиши кераклиги тушунтирилмайди. Мисол учун Scratch дастур компилятори ўтилаётганда унинг нима учун кераклиги, қанақа кўринишдаги дастурлар тузиш мумкинлиги, ушбу дастурлаш тили нималарга қодирлиги кўрсатиб берилса, ўқувчида қизиқиш ортиб ўрганиши осонроқ бўлади [6, 233].

Умумий ўрта таълим мактабларида информатика ва ахборот технологиялари фани ўқитувчиси дастурлаш асослари мавзусини ўқитишда ушбу омилларга таянади: билим, малака, кўникма, тажриба, педагогик ва психологик билимлар, дарс ўтиш методикаси, педагогик таълим воситалари, педагогик дастурий воситалар ва ҳоказо. Дастурлаш соҳаси фундаментал билимларга асосланса да, соҳанинг ўзини фундаментал эмас. Шунинг учун ушбу соҳа жуда тез янгиланиб туради. Ўқувчида дастурлаш асосларини ўрганишда қуйидаги саволлар юзага келади:

- Дастурлаш соҳаси ўзи нимага керак?
- Айрим ҳисоб-китоб ишларини тайёр техник қурилмалар ҳ ҳам бажаради-ку!?
- Дастурлаш тилларининг барчасида қизиқарли компьютер ўйинларини яратиб бўладими ва ҳк.

Ўқувчида ушбу саволларнинг туғилиши табиий ҳолат, фақатгина уни тўғри йўналтириш ва билимларни тизимли бериб бориш зарур бўлади. Бунда қуйидаги рақамли технологиялардан фойдаланиш яхши самара беради: таълим платформалари; сандбокслар; виртуал стендлар; ижтимоий тармоқлар; мобил иловалар; видеодарслар; компьютер ўйинлари; булутли технологиялар ва ҳоказо.

Ушбу рақамли технологиялар ўқувчининг мавзу ҳақидаги тасаввурининг ошишини таъминлайди, мавзуни қизиқиш билан ўрганишга ундайди. Онлайн таълим платформалари дарсларнинг тўлиқ ёки қисман онлайн шаклда ўтилишида жуда катта ўрин эгаллайди. Сандбокслар эса, ўз навбатида, дастурлаш муҳитларига киришда ўқувчиларнинг дарсда бемалол дас-

тур ёзишларини, хавфсизлик даражаси юқорилигини таъминлайди [7, 951].

Шуни айтиш жоизки, жамиятда фаолият олиб борилаётган ҳар бир соҳа ахборот технологияларига бевосита боғлиқ бўлиб қолмоқда ва бу боғлиқлик йиллар ўтган сари ривожланиб мустаҳкамланиб бораверади. Бу эса ўз навбатида ахборот технологиялари соҳасидаги билимларга эга бўлган ёшларни тайёрлаш зарурлигини билдиради. Юртимизда олиб борилаётган ислоҳотлар таркибида ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш, ёшларни шу соҳага қизиқтириш сиёсати олиб борилаётганлигининг гувоҳи бўляпмиз. Юқори тезликдаги интернет юртимизнинг энг чекка ҳудудларигача бориб етди. Бу эса масофаларнинг мажозий маънода қисқаришига, ахборот ва билимларнинг тезлик билан қабул қилинишига эришилишини билдиради.

Умумий ўрта таълим мактабларида информатика дарслигидаги дастурлаш асосларини ўқитишда, айниқса ўқувчиларнинг дастурлашга оид қизиқишларини шакллантириш қуйидаги асосий омилларга боғлиқ:

– ўқитувчи ёшларнинг дарсларда рақамли технологияларни қўллай олиш салоҳияти;

– умумий ўрта таълим мактабларининг замонавий информатика ва ахборот технологиялари хонаси ва жиҳозлари билан таъминланганлиги;

– интернетнинг ҳар бир ўқувчигача етиб бориши;

– дарслар замонавий методлар ва рақамли технологиялар орқали олиб борилиши;

– ота-оналарнинг ўз фарзандларини информатика ва ахборот технологиялари фанига қизиқтириши;

Ушбу асосий омиллар ўқувчиларда дастурлашга нисбатан қизиқиш ҳосил қилади, дастурлаш тилларини иштиёқ билан ўрганишларини таъминлайди. Рақамли технологиялардан фойдаланиладиган, дастурий воситалар ишлаб чиқариладиган ҳар бир жойда юксалиш ва ривожланиш бўлади [8, 76].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. www. lex. uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 06 октябрдаги “Ахборот технологиялари соҳасида таълим тизимини янада такомиллаштириш, илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва уларни IT-индустрия билан интеграция қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–4851-сонли қарори.

4. Закирова Ф.М., Набиулина Л.М. Современные языки программирования: учебное пособие: Мин-во высшего и среднего спец. образования РУз, Национальное общество философов Узбекистана. –Т., 2012. – 192 с.

5. Файзиева М.Р. Информатика ва ахборот технологиялари. Ўқитувчи китоби: умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синфи учун ўқув методик қўлланма. – Т.: Тасвир, 2020. – 112 б.

6. Касимов Ф.Ф. 9-синф ўқувчиларининг дастурлашга оид компетенцияларини рақамли технологиялар асосида шакллантириш тамойиллари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар журнали. – 2022 йил. – №9. – 230-242 б.

7. Бадалов, А.О. (2023). Проблемы методологии преподавания основ программирования в школьном ит-учебнике. Экономика и социум, (12 (115)-1). – 951-957 с.

8. Badalov A. Theoretical basis of the methodology of teaching fundamentals of programming in the school it classroom. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/12/2], ISSN 2181-7324. – 76-78 p.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Qumri Allaberdiyeva,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD
O‘raloy Safarova,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish o‘z mazmuni va tashkiliy-pedagogik aspektlariga ko‘ra integrativ xususiyatga ega ekanligi, bu o‘rinda badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantirishi, bu borada tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, o‘yinchoq, badiiy adabiyot, hikoya, nutq, mustaqil fikrlash, tarbiyachi, pedagog.*

Аннотация

В данной статье внедрение художественной литературы среди детей в организациях дошкольного образования носит интегративный характер по своему содержанию и организационно-педагогическому аспекту, в котором художественная литература выступает мощным и эффективным инструментом интеллектуального, нравственного и эстетического воспитания детей. Говорят, что развитие речи и путешествие в мир сказок развивают воображение детей, их фантастический мир и что в этом отношении важна организация деятельности воспитателей по ознакомлению дошкольников с художественными произведениями.

Ключевые слова: *Обучение, игрушка, художественная литература, рассказ, речь, самостоятельное мышление, воспитатель, педагог.*

Annotation

In this article, the introduction of fiction to children in preschool education organizations has an integrative nature according to its content and organizational-pedagogical aspects, in which fiction serves as a powerful and effective tool of intellectual, moral and aesthetic education of children. it is said that the development of speech and the journey to the world of fairy tales develop children’s imagination, their fantasy world, and that it is important to organize the activities of educators to familiarize preschool children with artistic works in this regard.

Keywords: *Education, toy, fiction, story, speech, independent thinking, educator, pedagogue.*

Mamlakatimiz ta’lim tizimida uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz, balki butun jahonda ham katta e’tibor bilan e’tirof etilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasasi xalq ta’limi umumiy tizimining birinchi va eng mas’uliyatli bo‘g‘inidir. Ona tilini o‘zlashtirish — bu maktabgacha yoshdagi bolaning eng muhim o‘zlashtirishlaridan biridir. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalik nutqni o‘zlashtirishga ayniqsa sezgir. Shu sababli, nutqni rivojlantirish jarayoni zamonaviy maktabgacha ta’limda bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning umumiy asosi sifatida qaraladi. Nutqni o‘zlashtirish bolalar psixologiyasi va pedagogikasining eng murakkab va sirli muammolaridan biridir [1, 32]. Hech narsaga diqqatini jamlay olmaydigan, aqliy operatsiyalarni yaxshi bilmaydigan kichkina bola atigi 1-2 yil ichida til kabi murakkab belgilar tizimini amalda mukammal o‘zlashtirgani tushunarsiz bo‘lib qolmoqda. Nutq, aloqaning tarixan shakllangan shakli sifatida, maktabgacha yoshdagi bolalik davrida rivojlanadi.

Bolaning hayotining birinchi yillarida bosib o‘tgan yo‘li haqiqatan ham ulug‘vordir. Bola o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalash uchun nutqdan foydalanadi, ya’ni. atrof-muhitga ta’sir qilish. Kichkina bolaning nutqi uning atrofidagi kattalar bilan muloqotda va maktabgacha ta’lim muassasasida va nutqni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlarda shakllanadi. Muloqot jarayonida uning kognitiv va obyektiv faolligi namoyon bo‘ladi. Nutqni o‘zlashtirish chaqaloqning ruhiyatini tiklaydi, unga hodisalarni ongliroq va ixtiyoriy ravishda idrok etishga imkon beradi. K.D.Ushinskiy onalik so‘z barcha aqliy taraqqiyotning asosi va barcha bilimlar xazinasi ekanligini aytdi [1, 20]. Bolaning nutqni o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘zlashtirishi to‘liq aqliy rivojlanishning eng muhim sharti va maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik ishidagi yo‘nalishlardan biridir. Yaxshi rivojlangan nutq bo‘lmasa, haqiqiy muloqot bo‘lmaydi, o‘rganishda haqiqiy muvaffaqiyat bo‘lmaydi.

Maktabgacha yosh — bu bolaning nutq tilini faol o‘zlashtirishi, nutqning barcha tomonlari — fonetik, leksik, grammatik shakllanish va rivojlanish davri. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida ona tilini to‘liq bilish rivojlanishning eng nozik davridagi bolalarni aqliy, estetik va axloqiy tarbiyalash muammolarini hal qilishning zarur shartidir. Ona tilini o‘rgatish qanchalik tez bosh-

lansa, kelajakda bola undan shunchalik erkin foydalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot doirasi kengayadi. Farzandlar mustaqil bo‘lib, ular tor oilaviy rishtalardan tashqariga chiqib, kengroq odamlar, ayniqsa tengdoshlari bilan muloqot qilishni boshlaydilar. Muloqot doirasini kengaytirish boladan muloqot vositalarini to‘liq o‘zlashtirishni talab qiladi, ularning asosiysi nutqdir. Bola faoliyatining tobora murakkablashishi nutqni rivojlantirishga ham yuqori talablarni qo‘yadi. Nutqni rivojlantirish murakkab, ijodiy jarayondir, shuning uchun bolalar, ehtimol, ertaroq ona tilini yaxshi o‘zlashtirishlari, to‘g‘ri va chiroyli gapirishlari kerak [2, 60]. Shuning uchun bolani qanchalik tezroq (yosh xususiyatlariga ko‘ra) to‘g‘ri gapirishga o‘rgatsak, u jamoada o‘zini erkin his qiladi. Badiiy adabiyot vositasida bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonini o‘rganib chiqish nihoyasida biz ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning konseptual psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqladik: I. Badiiy adabiyotning ma’naviy jihatlarini idrok qilish quyidagi tamoyil asosida amalga oshiriladi:

a) maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy tushunchalar hosil qilish;

b) asarlarning mazmuni haqida fikr yuritish;

c) asarlardagi hayotiy voqealarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish.

Amalga oshirilgan kuzatish va o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning ma’naviy shakllantirish, eng avvalo, ularning badiiy adabiyotga qiziqishlari, ularni amaliy-estetik jihatdan tahlil qila olishlari orqali amalga oshiriladi hamda mashg‘ulotlar davomida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hissiy holatlardan foydalanish, intellektual ta’sir o‘tkazish va bolalarni ma’naviy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarga badiiy asarlarni o‘rgatish jarayonini ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni ma’naviy shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlashda guruhda ijodiy muhit, do‘stona munosabat o‘rnata olish lozim [2, 40]. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo‘ladiki, badiiy adabiyot vositasida bolalarni nutqini o‘stirish dolzarb pedagogik muammo sifatida o‘z yechimini kutmoqda. Insonning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Chunki xar qanday kishining madaniyatliligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta hayotga tayyor yoki tayyor emasligining nutqida o‘z aksini topadi. Kimning tili boy bo‘lsa, kim so‘zlarni adabiy til asosida to‘g‘ri, aniq, ravon, ifodali va tushunarli talaffuz qilsa, o‘z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar orasida obro‘-e’tibor qozonadi. Kishi dunyoga mukammal inson bo‘lib kelmaydi. U tug‘iliboq ertak yoki dostonlardagi qahramonlardek aqlli, dono, bilimdon bo‘lib qolmaydi. Inson tevarak atrofdagi narsa va hodisalarga, odamlar orasida, tabiatning go‘zal qo‘ynida, hayvonot dunyosi, parranda-yu hasharotlar, turli-tuman voqea-hodisalar qurshovida, ular bilan muloqotda bo‘ladi, o‘sib ulg‘ayadi va kamol topadi. Yaxshilardan ibrat oladi, yomonlardan nafratlanadi. Shuning uchun inson yaxshilik, ezgulik sari intiladi. Bu intilishlarni bola ilk va kichik yoshligidan boshlab o‘ziga o‘zlashtirishga intiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar ko‘ngil ochishni, ermakni xohlaydilar. Chunki bu narsalar ular hayoti davomida tabiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar hamma narsani o‘yin va so‘zlar orqali o‘zlashtiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan muloqot qilganida ularga o‘z ona tillarining har tomonini ya’ni nozik taraflarini ham o‘rgatib boradi. Chunki so‘z orqali bola hayoti borasida muloqot qiladi, fikrlash doirasi kengayadi va tili ravon, aniq so‘zlashga moslashib boradi [3, 35]. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar so‘z, ibora va gaplarni qiziqib o‘rganadilar hamda osongina eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi endi shakllanib borayotgan paytda bunday mashg‘ulotlar ularning hayotiga yo‘l ochib beradi. Kichik yoshdagi bolalarga tarbiyachi so‘zlarni o‘rgatayotganida o‘yinlar orqali murojaat qilish ayni muddao hisoblanadi. O‘yin orqali bola o‘zining lug‘at boyligini kengaytirib to‘playdi. Lekin kichik yoshdagi hamma bolalar ham o‘rganayotgan so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunmaydilar. Ularni tushuntirish ota-onalar bilan tarbiyachining vazifasiga kiradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar lug‘atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta’sirchanligini ta’minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash juda yaxshi natija beradi. Bunda o‘qitilayotgan ertakdagi ayrim so‘z va iboralar bilan ishlash, bir tomondan, ertakning mazmunini oson hamda to‘liq o‘zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan bolalar lug‘atini boyitish, undagi hodisalarni anglash ko‘nikmalarini tarbiyalaydi, so‘z va gaplarni o‘zida o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish o‘z mazmuni va tashkiliy-pedagogik aspektlariga ko‘ra integrativ xususiyatga egadir. Bu o‘rinda badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Bolalar turli faoliyatlari davomida badiiy adabiyot orqali tanishgan qahramonlariga taqlid qilishga o‘rganadilar [3, 22]. Taqlid asosida hayotiy harakatlar modelini o‘zi uchun shakllantirib oladilar. Maktabgacha ta’lim hayotiy maktab sifatida bolalar uchun kerakli ma’lumotlarni badiiy adabiyot orqali o‘rgatadi. Bolalar o‘rgangan ma’lumotlarini hayotda uchraydigan voqea-hodisalar bilan solishtiradilar. Natijada ijobiy qahramonlar xatti-harakatlariga mos faoliyat orqali atrofdagilar bilan muloqotga kirishadilar, odobli va yaxshi bola rolini ijro etadilar. Shuning uchun ham badiiy adabi-

ISSN 2181-8274

yotni bola shaxsini shakllantirish va nutqni rivojlantirishning muhim vositasi, bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi deb aytish mumkin. Badiiy asarlar bolaning atrof-muhitga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatini shakllantirishga yordam beradi, real hayot omillarini umumlashtiradi, hayotni, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini bilishga yordam beradi. U bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg‘ularini boyitadi. Birgina misol, ya’ni “ona” so‘zining mohiyatini va ta’sirchanligini badiiy adabiyot orqali yaqindan taniydilar. Badiiy adabiyot shaxs sifatida ilk rivojlanish davridanoq real hayotga bolani yaqinlashtiradi. Shuning uchun rasmli ertaklar va multfilmlarni bolalar xush ko‘rib ko‘radilar. Ular rangbarang rasmlarda hayot timsolini ko‘rishga intiladilar. Bundan tashqari bolalar nutqining rivojlanishi ham badiiy adabiyot bilan hamohanglikda kechadi. Yoshlik davridanoq bolalar so‘z orqali bolalar shoir va yozuvchilar bilan ma’naviy muloqotga lutfan kirishadilar. Bola ularning g‘oyalari va his-tuyg‘ularini, fikrlar va til tizimini tushunishni boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kofiya va ritmni diqqat bilan eshituviga erishish uchun ularda albatta nasr va she’riyat o‘rtasidagi asosiy farqlar shakllangan bo‘lishi lozim.

Pedagog tomonidan aytilgan matn yoki satrni bolalar uning ritmiga qarab nomini aytishga o‘rganadilar. Bunda bolalarning diqqat bilan eshitish ko‘nikmalari rivojlantirilishiga erishiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kofiya va ritmni diqqat bilan eshituviga erishish uchun ularda albatta nasr va she’riyat o‘rtasidagi asosiy farqlar shakllangan bo‘lishi lozim. Pedagog tomonidan aytilgan matn yoki satrni bolalar uning ritmiga qarab nomini aytishga o‘rganadilar. Bunda bolalarning diqqat bilan eshitish ko‘nikmalari rivojlantirilishiga erishiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy asarlarga ijobiy munosabatini, badiiy didini, kitoblar dunyosida xayolan harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishda pedagogning metodik faoliyati, ya’ni bolalar yoshi va individual jihatlari inobatga olingan usul va vositalardan foydalanishi muhim omillardandir. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullardan integrativ qo‘llash ham pedagogning metodik faoliyatida keng qo‘llanish uchun taklif etildi. Pedagogning metodik faoliyati vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda kitobga bo‘lgan ishtiyoqni, qiziquvchanlikni shakllantirish va o‘z vaqtida payqash;

2. Rasmli ifodalar va illyustratsiyalarni ko‘rib tushunish va nutqiy tasvirlash qobiliyatini shakllantirish;

3. Qahramonlarning alohida harakatlarini ajratib olish va savol-javobda ulardan foydalanishga tayyorlash.;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirishda qo‘llaniladigan usullardan biri bu sahnalashtirishdir. Sahnalashtirish usuli qo‘llanilganda bolalar asarni sevishga, uni mazmunan o‘zlashtirishga erishdilar. Ayniqsa, tadqiqot davomida rollar taqsimoti jarayonida bolalar o‘rtasida qahramonlarning talash bo‘lishi kuzatildi. Bunda pedagoglar uchun quyidagi ish turini qo‘llash taklif etildi. Bolalarga quyidagicha topshiriq berildi:

1. Berilgan sochma rasmlarni nomlash va asar bo‘yicha turkumlash;

2. Oldin o‘zlashtirilgan asar bo‘yicha boshlab berilgan qahramon bilan bog‘liq epizodni davom ettirish;

3. Oldin yod olingan va o‘zlashtirilgan she’rlardan yod olish (bir-biri bilan teng natijalarni qo‘lga kiritgan bolalar she’r misralarini navbat bilan aytadi, kim she’r aytishdan to‘xta qolsa, g‘olib bolaga qahramon rolini bajarish topshiriladi).

Bolalarga rollar taqsimlab beriladi. Rol ijrolari bo‘yicha ko‘rsatmalar va taqlid qilish jarayoni tashkil etiladi. Sahnalashtirish usuli natijalari mashg‘ulotning o‘zida va muayyan tadbirda namoyon bo‘ladi. Ijroda to‘siqlarga uchragan bolalarga individual yordam beriladi. “Sahnalashtirish dizayni” texnologiyasi ham taklif etildi. Bunda bolalarga aniq badiiy asar bo‘yicha berilgan rollar ijrosi yakunida qaysi qahramonning xatti-harakatlariga o‘zgartirish kiritmoqchisan? savoli beriladi. So‘ngra bir bola o‘z qahramonidagi rol ijrosida boshqa element qo‘shgani zahoti, boshqa rol ijrosidagi bola ham o‘z qahramoni harakatlariga vaziyatga mos ravishda o‘zgartirish kiritadi. Shu tartibda hayotiy hikoyalarni ham sahnalashtirish topshiriqlari berib borildi. Bolalar o‘zaro va mustaqil ravishda mazmunga muayyan o‘zgargan element kiritilishi zahoti rollar ijrosini o‘zgartirishi amalga oshirildi. Bolalar adabiyoti bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilgan usullardan biri bu yodlash. Bolalarga kichik-kichik she’rlarni yodlash topshiriqlari berildi. Bolalarga she’rni oson yodlash imkonini berish maqsadida mnemonik yondashuvlardan foydalanildi. Mnemonikada she’rning qator boshidagi so‘zini shartli ifodalar bilan belgilashga e’tibor qaratildi. Shunda bolalar qatorni belgiga qarab qaysi so‘zdan boshlash kerakligini eslaydi va qatorni yoddan aytadi. Shu tartibda bir necha bor takrorlatish orqali hamda uyga takroran yod olish topshiriqlari berish bilan bolalar tomonidan she’rning yod olinishiga erishildi. Sanab o‘tilgan usullarni tarbiyachi-pedagoglar integrativ tarzda qo‘llashi ham ijobiy natija berishi kuzatildi.

Boshlang‘ich sinfga qadam qo‘ygan bolaning o‘rtacha so‘z boyligi taxminan 5000 so‘zni tashkil qiladi . Bu shuni anglatadiki, bir yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalar har kuni (o‘rtacha) taxminan 3,5 so‘zni o‘rganishadi. Buni amalga oshirish uchun bolalar nutqiga rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak. Bolalar nafaqat ko‘p eshitishlari, balki nimani tinglashlari ham muhimdir. Badiiy adabiyot, kitoblar bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, nutqini rivojlantiradi, chunki ular:

• ko‘pincha notanish so‘zlarni o‘z ichiga oladi:

• kitob o‘qib berish davomida bolalar uchun yangi bo‘lgan so‘zlarni ular bilan birgalikda takrorlash, bolalarga so‘zlarni tushunishga yordam beradi.

• Bolalarga bir xil so‘zlarni takroriy o‘qish bilan qayta-qayta eshitish imkoniyatini taqdim eting.

Janubiy Koreya bog‘chalarida bu shakldagi kitoblardan keng foydalaniladi. Buyuk pedagog Lev Tolstoy: “Besh yashar boladan menga qadar bir qadam, yangi tug‘ilgan chaqaloqdan esa mengacha dahshatli masofa bor”, degan ekan [3, 25]. Bu fikrni hozir neyrofiziologiya ham isbotladi. Ya’ni maktabgacha bo‘lgan davr inson rivojlanishida eng muhim va keskin palla hisoblanadi. Ayni shu davr kelajagimizni hal qiladi. Maktabgacha yoshda olgan psixologik jarohatlar ham ulg‘ayganimizda ruhiy holatimizga eng ko‘p ta’sir etishi ilmiy isbotlangan faktdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni badiiy asarlarga qiziqtirib borish, asar qahramonlarini bilish va ularni tushunish, tuyg‘ularini his qilish hamda ularga nisbatan baho chiqarish asosi mezon bo‘lib hisoblanadi. Badiiy asar tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi zamirida qo‘yilgan masalaga ishonchli dalillar yordamida mustaqil ravishda yondashuv nazarda tutiladi. Mazkur pedagogik hodisaning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, unda o‘quvchilar ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini o‘zlari aniq, obyektiv maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda loyihalashtiradilar, xatti-harakati, fikrlari to‘kislashib borishi asnosida rivojlanishlarining darajasini ham namoyish etadilar. Ayni zamonda zarur yakuniy natijaga ham muvaffaq bo‘ladilar. Boshlang‘ich adabiy ta’limda bolalarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatadigan darslar an’anaviy darslardan nisbatan farqlanadi. Bunday faoliyatlarda bolalar tarbiyachining aytganlarini bajaradigan obyektlikdan faoliyat jarayonida faol va mustaqil harakatlanuvchi subyektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo‘yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o‘ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashdilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda, o‘z-o‘zidan, bolada badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi. Chunki asarning mohiyatiga kirilgani sari u anglanadi, anglangani sari ruhiyatda ma’lum tuyg‘ular paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Asqarova. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. – 164 b.

2. F.O‘rinova. Kichik maktab yoshi o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish. ISSN: 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. – 2022. – №2. 106. – T., 2013. – 40-60-b.

3. D.R.Babayeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Darslik. – T.: TDPU, 2018. – 432 b.

4. К.К.Аллабердиева. Организация интегрированного образования в ошкольном образовании // Молодежь, наука, образование: актуальные проблемы, достижения и инновации. – 19-25-б.

5. К.Х.Аллабердиева. Современные подходы к приобщению детей к произведениям искусства // “Тенденции современной науки и практики”. – 25-31-б.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGIGA OID KASBIY KOMPETENSIYALARNI BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA SHAKLLANTIRISH

Zafar Batirov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti;
Yoqubjon Maxmudov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistenti;
Guli Axmatova,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistenti;
Marjona Lutfullayeva,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi;
Rushana Qosimova,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi

Annotatsiya

Maqola pedagogika universitetida hayot xavfsizligi asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan. Mualliflarning diqqati kasbiy kompetensiyani shakllantirish va tekshirish modeliga, ularning mazmunini tavsiflashga qaratilgan.

Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish jarayonida “kompetensiya” va “kompetentlik” kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, hayot xavfsizligi, kasbiy kompetensiya, kasbiy mahorat, model.*

Аннотация

Статья посвящена вопросу развития профессиональной компетентности преподавателя основ безопасности жизнедеятельности в педагогическом вузе. С этой точки зрения подробно освещены действующая методология развития профессиональной компетентности будущих специалистов и вопросы совершенствования учебно-методического обеспечения на основе современных подходов. Внимание авторов сосредоточено на модели формирования и проверки профессиональной компетентности, описании их содержания. Также в процессе обучения в высших учебных заведениях анализировались вопросы изучения и анализа сущности таких понятий, как “компетентность” и “компетентность”, формирования, развития и диагностики профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *образование, безопасность жизнедеятельности, профессиональная компетентность, профессиональное мастерство, модель.*

Annotatsiya

The article is devoted to the issue of developing the professional competence of a teacher of the basics of life safety at a pedagogical university. From this point of view, the current methodology of developing the professional competence of future specialists and the issues of improving the educational and methodological support based on modern approaches are covered in detail. The authors' attention is focused on the model of formation and verification of professional competence, description of their content. Also, in the process of studying in higher educational institutions, the issues of studying and analyzing the essence of concepts such as "competence" and "competence", formation, development and diagnosis of professional competence were analyzed.

Keywords: *education, life safety, professional competence, professional skill, model.*

Respublikamizda ilg‘or ta’lim tizimini tatbiq etishga yo‘naltirilgan asosiy islohotlar natijasida yosh mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot ta’minoti kengayib bormoqda. Shuningdek, mamlakatimizni yanada taraqqiy etishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifasi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o‘zlashtirish natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash lozimki, taqdim etilgan ilmiy ishlanmalarning ko‘p qirrali bo‘lishiga qaramay, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda hayot faoliyati xavfsizligi muammolari nuqtayi nazaridan kasbiy tayyorlash muammolari ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli darajada o‘rganilmagan.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish jarayonida “kompetensiya” va “kompetentlik” kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda V.I.Baydenko, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkovalar tomonidan tadqiq etilgan.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi holatlarning yetishmasligi aniqlandi:

– oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi;

– bo‘lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga oid kasbiy mahoratni shakllantirish jarayonining asosli tomonlarini asoslashda oliy ta’lim muassasalarida pedagogik nazariyaga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi;

– bo‘lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga oid kasbiy mahoratni ta’lim muassasalarida shakllantirish uchun ilmiy va uslubiy vositalarning yetishmasligi.

Aniqlangan holatlar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarining hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga oid kasbiy mahoratni shakllantirishni ilmiy-nazariy asoslash va uslubiy qo‘llab-quvvatlashning obyektiv ehtiyojidan iborat bo‘lgan tadqiqot muammosini aniqladi.

Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish, kasbiy kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Olimlarning ta’kidlashicha, kompetensiya tushunchasi o‘zining mantiqiy mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali. Bundan

tashqari, kompetensiyalar bir marta va butunlay berilgan yangi shakllar emasligi ta’kidlangan. Ular doimiy rivojlanish va yangilanishda, kengaytirilishi va boshqa kompetensiyalar bilan birlashishi mumkin, o‘zini yangi sifatda namoyon qiladi, dialektik rivojlanish spiralini ifodalaydi. Ushbu rivojlanishning shartlari ishlab chiqarish sharoitlarining o‘zgarishi, jamiyat ehtiyojlarining yangilanishi, qiymat yo‘nalishlarining o‘zgarishi bilan ifodalanadi [1, 87].

Oliy o‘quv yurtlari ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni belgilash muammolarini ko‘rib chiqishda bugungi kunda nafaqat “kompetentlik”, balki “kasbiy kompetensiya” atamasi keng qo‘llanilmoqda. Shu bois tadqiqotda kasbiy ta’lim sifati haqida gapirganda, kompetentlik-kompetensiyaning tarkibiy murakkabligi va talqinlarining xilma-xilligini aniqlab, masalaning holatini ta’rif bilan bog‘liq holda tahlil qilish mantiqiy bo‘ladi. "Kasbiy kompetensiya" tushunchasi, shuningdek, “kompetentlik-kompetensiya” tushunchasi juda noaniq talqin qilinadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar, I.A.Zimnyaning fikricha, kasb-hunar ta’limi sohasida faoliyat yuritib, bu ta’rifning turli tomonlarini ajratib ko‘rsatishadi. Shu sababli, mutaxassis faoliyati va shaxsiyatining “uch ustuni”ga asoslangan “bilmoq, bajarmoq, bo‘lmoq” degan asosni hamma qo‘llab-quvvatlasa-da, yo bilim va tajriba, yoki shaxsiy xususiyatlar yoki kasbiy jihat oldinga chiqadi [2, 14]. “Kasbiy kompetensiya” toifasi deganda mutaxassisning kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish jarayonida samarali qarorlar qabul qilishga tayyorligi va qobiliyati tushuniladi. Umuman olganda, insonga tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatda professional faoliyatni samarali loyihalash va amalga oshirishga imkon beradigan birlashtirilgan bilim, ko‘nikma va tajriba, shuningdek shaxsiy fazilatlar majmui bilan tavsiflanadi.

V.I.Baydenkoning ta’kidlashicha, subyektiv “kasbiy kompetensiya” ko‘rsatkichlari mutaxassisning haqiqiy va potensial faoliyatining xususiyatlariga asoslanishi mumkin [3, 5; 4, 8].

Yuqorida tahlil qilinganlarni hisobga olgan holda, tadqiqot sharoitida biz kasbiy kompetensiya tushuncha sifatida fundamental bilimlar, ko‘nikmalar va javoblarning adekvatligi bilan universitet bitiruvchisini tavsiflovchi ma’lum fazilatlar yig‘indisi orqali aniqlanadi deb taxmin qilamiz. Biroq, tadqiqotda biz nafaqat kasbiy kompetensiyani, balki kasbiy tayyorgarlik tizimidan ajratilgan hayot xavfsizligini ta’minlashda kasbiy kompetensiya shaklida uning tarkibiy qismini shakllantirish imkoniyati bilan qiziqdik. Shunga ko‘ra, hayot xavfsizligini ta’minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish uchun biz uning tarkibiy qismlarini aniqlashimiz kerak edi.

Oliy texnik ma’lumotli mutaxassis sifatida agroinjeneriya bo‘yicha mutaxassisning hayotiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismini aniqlash uchun biz xavfsizlik, hayot xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi muhandisi va tahlil tushunchalarining terminologik tahlilini o‘tkazdik. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiya ijtimoiylashuv bosqichi bo‘lib, uning doirasida subyekt mustaqil kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lib, o‘zi va xodimlarining hayoti va sog‘lig‘ini saqlashni kafolatlaydi.

Shu munosabat bilan hayot xavfsizligini ta’minlashda professional kompetensiya tushunchasini aniqlashtirish haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, "hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiya" tushunchasi insonning ajralmas mulki bo‘lib, u o‘zi va xodimlarining hayoti va sog‘lig‘ini saqlash uchun mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligi namoyon bo‘ladi, turli xil xavf-xatarlar taksonomiyasini bilishga asoslanadi. Bu ekologik xavflarni aniqlash va xavfsiz harakatlarni amalga oshirish usullarini o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar orqali amalga oshiriladigan o‘z faoliyati natijalarini tahliliy va bashoratli baholash qobiliyatida ifodalanadi. Hayot xavfsizligini ta’minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ifodalash uchun uni modelda aks ettirish taklif qilinadi.

Model (fransuzcha modele, lotincha modulus — o‘lchov, namuna, me’yor) — bu mavjud yoki prognoz qilinayotgan o‘rganish obyektini ko‘rsatish yoki takrorlash orqali uni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim.

“Model” haqiqiy jarayon yoki obyektning eng muhim xususiyatlari, oraliq modellarini qamrab oladi. Oraliq modellar (faoliyat modellari, kasbiy xususiyatlar modellari, rivojlanish modellari) umumlashtiruvchi kasbiy kompetensiyani shakllantirish, mutaxassisning maxsus qobiliyatlari mavjudligi va rivojlanishini ko‘rsatadigan sifat jihatidan yangi modelni shakllantirishga imkon beradi. “Agroinjeneriya” yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning hayotiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish modelini qurish, birinchi navbatda, uning tarkibiy tuzilishi, kasbiy vazifalar ro‘yxati va mazmunini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni hal qilishni ta’minlash uchun hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari aniqlandi, ularga rioya qilish oliy ta’limning davlat ta’lim standartida belgilangan talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqotda taklif etilgan model “Agroinjeneriya” yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik jarayonida hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ko‘rib chiqilayotgan model maqsadli, tashkiliy, mazmunli va diagnostik bloklar ko‘rinishidagi umumiy yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, hayot xavfsiz-

ligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiya rivojlanadi, bir darajadan ikkinchisiga o‘tadi va uning holati har safar motivlar mazmuni, xavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar ko‘rinishidagi shaxsiy shakllanishlarning muvofiqligi asosida aniqlanishi mumkin [5, 128; 6, 849].

Diagnostika bloki tarkibidagi monitoring jarayon sifatida, bir tomondan, talabalarning “Agroinjeneriya” yo‘nalishi bo‘yicha erishgan yutuqlarini rejalashtirilgan natijalar bilan (mezon ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlashni tashkil etish orqali) kuzatish va solishtirish, boshqa tomondan, xavfsizlikni ta’minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tuzatish tartibini amalga oshirish imkonini beradi. Oxir oqibat, ushbu blok hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining miqdoriy va sifat jihatlari haqida qisqacha ma’lumot berishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н.И.Анчукова. Психологическое сопровождение профессиональной деятельности: учебное пособие. – Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2010. – 124 с.

2. И.А.Зимняя. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека // Высшее образование сегодня. –2005. – № 11. – 14-20 с.

3. В.И.Байденко. Компетенции в профессиональном образовании (Косвоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России, 2004. – № 11. – 5-11 с.

4. Н.А.Муслимов, М.Б.Уразова, Ш.Н.Эшпулатов. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 8-9-б.

5. Ю.Г.Репьев. Интерактивное самообучение/ Монография. – М.: “Логос”, 2004. – 248 с.

6. Y.E.Mahmudov, Z.L.Batirov, M.Z.Lutfullayeva. Bo‘lajak mutaxassislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashda kompetensiyaviy yondashuvlar/ Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. – T., 2023. – 849-854-b.

МЕТОНИМИЯНИНГ ГРАММАТИК КОГЕЗИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ

Азиза Шодикулова,
Самарқанд давлат тиббиёт университети
“Тиллар” кафедраси ассистенти, доцент в.в.б., PhD

Аннотация

Ушбу мақолада метонимиянинг биз кўриб чиққан “шакл-тушунча” муносабати фаоллашадиган модели учта онтологик воқеликдан иккитасини ўзида акс эттиради: булар шакл ва тушунчалар воқелиги бўлиб, реал ҳодислар бироз бўлса-да четда қолади. Чунки сўз, гап ва ҳатто матнлар воқелик билан тўғридан-тўғри боғланмасдан, балки бизнинг ушбу воқелик ҳақидаги тасаввуримизни намоён қилади. Шу сабаб, тил борасида мулоҳаза юритилганида шакл ва тушунча муносабати олдинги ўринга чиқади. Булар ҳар иккаласида ҳам матн когезияси шаклланади. Такрорланаётган лисоний шакллар антецедент ифодалаган тушунчани ифодаласа, ушбу жуфтлик воситасида юзага келадиган когезия тугуни мустаҳкамланади.

Калит сўзлар: *метонимия, когезия, референция, анафора, матн, шакл, тушунча, антецедент, матн референцияси, анафора, катафора.*

Аннотация

Рассмотренная нами модель метонимии, в которой активизируется отношение «форма-понятие», отражает две из трех онтологических реалий: это реальность форм и понятий, а реальные явления несколько оставлены без внимания. Потому что слова, предложения и даже тексты не связаны напрямую с реальностью, а показывают наше представление об этой реальности. По этой причине при рассмотрении языка на первый план выходит соотношение формы и понятия. Связность текста формируется в обоих случаях. Если повторяющиеся языковые формы выражают понятие, выраженное антецедентом, то узел сцепления, образованный посредством этой пары, усиливается.

Ключевые слова: *метонимия, связность, референция, анафора, текст, форма, понятие, антецедент, текстовая референция, анафора, катафора.*

Annotation

The model of metonymy in which the "form-concept" relation is activated, which we have considered in this article, reflects two of the three ontological realities: these are the reality of forms and concepts, and real phenomena are somewhat excluded. Because words, sentences and even texts are not directly connected with reality, but show our imagination about this reality. For this reason, the relationship between form and concept comes to the fore when considering language. Text cohesion is formed in both of these. If the repeated linguistic forms express the concept expressed by the antecedent, the cohesion knot formed by means of this pair is strengthened.

Keywords: *metonymy, cohesion, reference, anaphora, text, form, concept, antecedent, text reference, anaphora, cataphora.*

Референция ҳодисаси тилшунослик ва психологияда турли нуқтаи назардан ўрганиб келинмоқда. Функционализм тарафдорлари ушбу ҳодисани “аллақачон семиотик кўриниш олган нарса-воқеаларга ишора қилиш ҳаракати”, деб ҳисоблайдилар [1, 59]. Семиотик воқеланиш матнда мавжуд бўлганида “матн референцияси”, у матнда эслатилмасдан, балки воқеланиш имконияти мавжудлигида эса “вазиятли ва контекст референцияси” фарқланади. Ҳар иккала ҳолатда ҳам хабарнинг вазиятга мос келиши вазифаси бажарилади. Лекин “вазиятли референция” тил тизимини воқелик билан боғлайди ва матн тузилишида қарийб иштирок этмайди. Матн референцияси, аксинча, “узатилаётган хабарнинг матн тузилишида акс топишини таъминлайди” [2, 63].

Метонимия ҳодисасининг табиати ҳақидаги фикрлар турли-туман бўлишига қарамасдан, тадқиқотчилар унинг асосий вазифаси референция, яъни бирор нарса-ҳодисага ишора қилиш, уни эслатиш эканлигини таъкидлашда якдилдирлар [3, 72]. Дарҳақиқат, инсонлар, нарсалар, воқеа-ҳодисаларга ишора қилиш матннинг, шу жумладан, медиаматнлар мазмуний таркиб топишининг муҳим омилидир.

Матнда референция ҳодисасини юзага келтирувчи усуллардан бири анафора эканлиги ҳам маълум. Анафора ва катафора услубларига оид тадқиқотларда кўпинча ушбу услублар воқеланишида матндаги бирликлар, жумладан, артикль ва кўрсатиш олмошларининг ўрни ўрганилган [6, 45].

Метонимия лисоний ифода воситалари ва воқеликдаги нарса-ҳодисалар ўртасидаги боғлиқни акс эттирувчи референция усули сифатида қаралади. Қуйидаги саҳифаларда метонимлар ва анафора ўртасидаги муносабатлар изоҳига тўхталмоқчимиз.

Ҳаммага таниш инглиз тили грамматикасига оид қўлланмаларда анафоранинг бевосита ва билвосита турлари ажратилади [8, 274-284]. Бевосита анафора анафорик бирлик ва унинг антицеденти ўртасидаги боғланиш тўғридан-тўғри бўлганида юзага келади. Бунда референция бирликлари сифатида кўпинча шахс, кўрсатиш ва қиёслаш олмошлари иштирок этади. Масалан, инглиз тилидаги he, she, him, they каби олмошлар ҳамда this, that, these, those каби демонстративлар ва the ноаниқ артикль худди шу вазифани бажаради. Ўхшашликка ишора қилувчи Same, other, more бирликлари эса билвосита референцияни ҳосил қилади.

Масалан: “Tullman died last Sunday after a random attack at a house party. Investigators say he was stomped, kicked and punched to death”.

Ушбу гапда Tillman ва he бирликлари ўртасидаги боғлиқлик бевосита референция намунасидир. Инглиз тили ёзма нутқ нормасига кўра шахс номлари ва бошқа турдаги отлар матннинг бош қисмида турса, олмошлар эса кейинги қисмлардан ўрин олади. Келтирилган мисолда “Tillman” ва “he” элементларининг референти битта, яъни Tullman исмли шахс. Ушбу кореферентлик ҳодисаси когезия боғлами шаклланишига туртки бермоқда.

Бу турдаги метонимик муносабатлар юзага келишида [9, 64] шахс олмоши бўлган “he” элементининг тавсифи унинг антецеденти “Tillman” билан боғланади. Демак, “he ” шакли контекстда “Tillman” шакли ва шу исмли шахс билан муносабатга киришади. Бу муносабат шаклларарo ёки тушунчаларарo бўлишидан қаътий назар, ҳар иккаласида ҳам метонимик хусусиятга эгадир. Мазкур кўринишдаги метонимик муносабатни қуйидагича тасвирлаймиз:

Чизма 9. Келтирилган мисолдаги метонимик когезия



Чизмадаги бир томонга йўналтирилган стрелка ШАКЛ элементининг антецедентга боғлиқ ҳолда англашинилишида дарак беради. Чунки, “he” шакли Tillman шакли ўрнида қўлланмоқда ва иккала шакл ҳам тил тизими бирлигидир [9, 66]. Референция мақомини олган “he” бирлигининг матн тузилишидаги вазифаси унинг ўз антеуеденти билан ягона бир концептуал майдонга кириши билан боғлиқ. Бошқача айтганда, “he” ифодалаётган учинчи шахс бирлик тушунчаси “Tillman” концептуал майдоннинг бир бўлагини ташкил қилмоқда.

Хабар мазмунидаги матнларда биринчи ва учинчи шахс кишилик олмошлари кўпинча кўчирма нутқда учрайди. Улар, шунингдек, грамматик когезия шаклланишига иштирок этади, зеро ўқувчилар сўзловчи (нутқ муаллифи) кам эканлигини билишга интиладилар.

Кўрсатиш олмошига манба бўлаётган тушунчани антецедент ифодалаётган тушунчага асосланган ҳолда тиклаш мумкин. Яна бир мисолни қиёслаймиз:

The Central Intelligence agency is allowing members of the House and Senate Intelligence and Armed Services Committees to see photographs of Osama bin Laden's corpse, a C.L.A. spokesperson said Wednesday. Lawmakers will view the photos in a source room at the agency's headquarters in Langley. Va., and cannot take copies of the photos with them.

Бу ерда икки марта қўлланаётган the photos элементи "photographs of Osama bin Laden's corps" тузилмаси билан референт боғлиқлигига эга ва шунга биноан бир хил тушунчани воқелантирмоқда. Шунингдек, the photos тўлиқ шаклнинг ўрнини босиш қобилиятига эга. Ушбу хилдаги бевосита анафора воситасида юзага келадиган метономик когезиянинг пойдеворида ифодаланаётган тушунча умумийлиги туради.

Мазкур ҳолатни қуйидагича тасвирлаш лозим:

Чизма 10. Бевосита анафоранинг метофорик воқеланиши



Илмий адабиётларда билвосита анафора ҳодисаси турли терминлар воситасида аталади: bridging [7, 412], associated anaphora, inferables, inferred entity, cross-reference [10, 200]. Р.Квирк ва унинг ҳаммуалифлари яратишган A University Grammar of English дарслигида қайд этилишича, билвосита анафора юзага келишида анафорик элемент ва унинг антецеденти ўртасидаги алоқа имплицит ёки тагмаъноли кўринишга эга бўлади [11, 157].

Қиёсланг:

Other Midwest states are engaged in similar battles and have set aside neighborliness for easy growth as they search for answers to rising unemployment in their still – struggling economies.

Though they may say other development efforts are designed to help them compete with the two coasts for companies, they often and up fighting over companies already in the region.

Tracey Guest, a spokesman for Simon and Schuster, said there was no announced first printing yet, but they "expect the first printing and initial e-book sales to be completely commensurate with the worldwide attention and interest that Schwarzenegger commands".

Келтирилган матн парчаларининг биринчисида икки марта қўлланаётган they элементи "other Midwest states" бирикмаси билан референт алоқасига киришмоқда. Лекин антецедент жонсиз ҳодисани атайди ва "жавобни излаш" (search for anwers) ёки "бирор нарса дейиш" (may say) имкониятига эга эмас. Шу сабабли, антецедент бўлаги метономик кўчим натижаси сифатида қаралиши ва "states" бирлигини "мазкур штатларда яшовчи кишилар" рамзида англаш лозим бўлади.

Кейинги парчада қўлланилган they олмошининг бевосита антецеденти йўқ. Ушбу гапда company элементи шу компаниянинг аъзолари ўрнини олмоқда. Бундай метонимик кўчим жараёнида Simon and Schuster бирикмаси "Simon and schuster компаниясининг иштирокчилари, ишчилари" мазмунига эга бўлиб келмоқда. Оқибатда, they олмошининг анафорик манбаси "ишчилар" (operators) тушунчасидир.

Шунга ўхшаш яна иккита ҳолатни таҳлил қилиб кўрамиз:

"The United States military has zero tolerance policy for sexual assault, and we will hold the perpetrators appropriately accountable", he said;

The crime reports say that one reason for the Yard's failure is that, when the Yard tried to stop corruption, saving officers tipped them off so they could evade detection.

Биринчи ҳолатда "the perpetrators" бирлиги "the perpetrators of sexual assault in the U.S. military" тузилмасига ишора қилмоқда, чунки жинсий зўровонлик билан боғлиқ жиноят олдин эслатилган эди. Бизнинг олам ҳақидаги билимимиз жиноят қонунни бузувчилар томонидан содир қилиниши ҳақида маълумот беради. Худди шу аснода, кейинги парчадаги "them" ва "they" бирликларининг антецеденти тагмаъноли ифодаланган: "(people involved) in corruption".

Анафоранинг билвосита метонимик ифодаланиши моделини қуйидагича тасаввур қилиш тавсия қилинади:

Чизма 11. Билвосита анафоранинг метонимик воқеланиши



Чизмадан кўринадики, анафора ишора қилинаётган тушунча антецендент кирадиган концептуал майдоннинг алоҳида бўлагини ташкил қилади. Анафора ва унинг анцеденти ягона бир тушунчани ифодалайди. Шунинг билан биргаликда, анафорик олмош метономия манбаси билан род ва сон кўрсаткичларида мослашади.

Хулоса қилиб айтганда, "шакл шакл ўрнида" ва "тушуна тушуна ўрнида" моделлари кўламида ҳосил бўладиган метономия боғламлари матн когезиясини шакллантирувчи воситалардандир. Формал жиҳатдан

қараганда, анафора ва унинг анцеденти, олмош ёки от ёрдамида ифодаланишидан қатъи назар, лисоний шакллар қаторига киради. Концептуал жиҳатдан, эса, ушбу, шакллар ягона бир тушунчани воқелантиради.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Halliday M.A.K., Mattheissen C.M. Constructing Experience through Meaning: A Language – based Approach to Cognition. – London: Continium, 1999. – 700 p.
2. Thompson G. Aspects of cohesion in monologue // Applied Linguistics, 1994. vol. 15. – 429 p.
3. Lakoff G., Johson M. Metaphors We Live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 128 p.
4. Nunberg G. Transfer of Meanings // Journal of Semantics, 1995. vol. 12. – 132 p.
5. Gibbs R. Figurative thought and language // Handbook of psycholinguistics. – San Diego: Academic Press, 1994. – 600 p.
6. Reinhart T. Anaphora and Semantic Interpretation. – Chicago: University of Chicago Press, 1983. – 370 p.
7. Clark H. Bridging // Thinking: Readings in Cognitive Science. – Cambridge: CUP, 1977. – 411-440 p.
8. Huddleston R. Introduction to the Grammar of English. – Cambridge: CUP, 1995. – 483 p.
9. Al – Sharafi A.G. Textual Metonomy: A Semiotic Approach. – New York: Palgrave Macmillian, 2004. – 240 p.
10. Huang Y. The Pragmatics of Anaphora. Cambridge; CUP, 1994. – 430 p.
11. Quirk R., Greenbaum S. A University Grammar of English. – London: Longman, 1989. – 484 p.
12. Шодикулова, А.З. (2021). МЕДИАМАТНЛАРИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ МАСАЛАСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).2021. VOLUME 4, ISSUE 2. – 227 p.

AutoCAD GRAFIK DASTURI YORDAMIDA TOPSHIRIQLAR BAJARISH ORQALI TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Shavkat Sattarov,
Termiz davlat universiteti
“Badiiy grafika va dizayn” kafedrasi
o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning grafik savodxonligini oshirishda AutoCAD grafik dasturining imkoniyatlari, o‘rni va uning ahamiyati yoritib berilgan. Talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirish maqsadida fazoviy tasavvurni oshirishga oid masalalar AutoCAD grafik dasturi yordamida bajarishga namunalar keltirilgan. AutoCAD grafik dasturida topshiriqlarni bajarish davomida talabalarning kreativ kompetentligi ya’ni ijodiy qobiliyati oshib boradi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshishiga sabab bo‘ladi. Talabalarning kelajakda o‘z kasbining mutaxassislari bo‘lishlarida bu muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *fazoviy tasavvur, topshiriqlar, AutoCAD dasturi, modul yasash, kreativlik, kreativ kompetentlik*

Аннотация

В данной статье освещаются возможности, роль и значение графической программы AutoCAD в повышении графической грамотности учащихся. В целях развития творческой компетентности учащихся даются задания, связанные с развитием пространственного восприятия с использованием графической программы AutoCAD. В ходе выполнения заданий в графической программе AutoCAD повышается творческая компетентность учащихся, т.е. творческие способности. Это, в свою очередь, заставляет студентов совершенствовать свои знания, навыки и умения. Студентам важно в будущем стать зрелыми специалистами своей профессии.

Ключевые слова: *пространственное восприятие, задания, графическая программа AutoCAD, создание модулей, виды, креативность, творческая компетентность*

Annotation

This article highlights the capabilities, role and importance of the AutoCAD graphic program in improving students’ graphic literacy. In order to develop students’ creative competence, problems related to increasing spatial perception are presented using the AutoCAD graphics program. During the execution of tasks in the AutoCAD graphics program, students’ creative competence, i.e. creative ability, increases. This, in turn, causes students to increase their knowledge, skills and abilities. It is important for students to become experts in their profession in the future.

Keywords: *spatial perception, assignments, AutoCAD graphics program, module creation, views, creativity, creative competence.*

Istiqlol tufayli o‘qitish metodikasi va pedagogika-psixologiyada o‘quv ishlarining eng yaxshi usullarini tanlashga, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradigan masalalarni kiritishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, dars jarayonida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarning almashinuvchanligini amalga oshirish barcha o‘quv predmetlari qatorida chizmachilikni o‘qitish metodikasining diqqat markazidagi vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Ma’lumki, grafikaviy faoliyat o‘zining o‘ziga xos xususiyati bilan va mohiyatiga ko‘ra pirovard natijada chizmalarni o‘qish sohasidagi bilimlar va o‘quvlar hajmi bilan texnikaga taalluqli sistemalashtirilgan bilimlarni uyg‘unlashtirish bilan xarakterlanadi, ya’ni talabalarga beriladigan grafik topshiriqlarni oddiydan murakkablikka tamoyiliga ko‘ra ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Chizmachilik fanini o‘qitishda talabaning fazoviy tasavvurlari, mustaqil kreativlik kompetentlik shakllantirish va rivojlantirish mazkur fanni o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kreativlik — bu qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayondir.

Kreativlik — bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir [2, 1271].

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” (lot. “competo”, ingl. “competens” (competents) — qobiliyat, kompetentli, kompetentlar) tushunchasi shunday talqin etiladi: biror narsani muhokama qilmoq, bilimlarni egallash; biror masala haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish; yaxshi ma’lumot berilgan masalalar sohasi; muayyan sohaga tegishli, qobiliyatli, bilimdon va yaxshi o‘zlashtiruvchi; biror sohada malakali, bilimdon, hurmatga sazovor shaxs [4, 672].

Kreativ kompetentlik — shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi [5, 83]. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qilishiga qaramay, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi vaqtda uch o‘lchamli kompyuterli modellashtirish vositalari foydalanuvchilarning e’tiborida bo‘layapti va bu tasodifiy emas albatta. Ulardan foydalanish konstruktorlik-loyihalash ishlarining sifatli bajarilishi hamda foydalanuvchiga chizmalarni tez, sifatli, yuqori aniqlikda bajarish va qog‘ozga chiqarish imkonini beradi.

Talabalarning chizma to‘g‘risidagi bilimi va fazoviy tasavvurini oshirishda turli xil model yasash ancha samarali natija beradi. Buni AutoCAD grafik dasturidan foydalanib tushuntirilsa samaradorlik yanada oshadi. Shuni hisobga olib model yasashning bir necha xil usullarini topshiriqlar asosida ko‘rib o‘tamiz.

1-topshiriq. 1-rasmda bir elementli jismning olddan va ustdan ko‘rinishlari tasvirlangan. Uning chapdan ko‘rinishi vositasida u qanday jism ekanligi aniqlansin.

Yechish. a) H va V ga 45’ burchakdagi to‘g‘ri chiziq kesmasi uni to‘g‘ri to‘rtburchak shakl ekanligini isbotlaydi. (1-rasm, *a*) .

b) Katetlari o‘zaro teng uchburchak orqali uni yarimta kub ekanligidan dalolat beradi (1-rasm, *b*).

c) Olddan va ustdan ko‘rinishlariga teng kvadrat yordamida u kub ekanligi aniqlanmoqda (1- rasm, *c*).

d) AutoCAD grafik dasturida uning aksonometriyasi chizib ko‘rsatilgan (2-rasm)



1-rasm.



2-rasm.

2-topshiriq. 3-rasmda ikki elementli modelning olddan va ustdan ko‘rinishlari berilgan. Uning yondan ko‘rinishi orqali va qanday jism ekanligi aniqlansin. Uning chapdan ko‘rinishlaridan ma’lum bo‘lishicha u olti xil ko‘rinishda qismi qirilgan kub ekanligi ma’lum bo‘lmoqda (3- va 4-rasm).



3-rasm.



4-rasm

3-topshiriq. Berilgan teshikdan tig‘iz o‘tadigan modelning yaqqol tasvirini yasang (5-rasm) [1, 61].



a) b) c)

5-rasm

Yechish. Bu topshiriqni ishlash uchun avvalambor shuni hisobga olish kerakki ya’ni loyihalanayotgan detal modeli uchala ko‘rinishdan ham tig‘iz o‘tishi lozim.

1. Modelning gabarit o‘lchamlari o‘zaro teng. Birinchi bosqichda silindr chizib olamiz, silindrning diametri uning balandligiga teng bo‘lishi kerak (6-rasm, *a*).

2. Ikkinchi bosqichda 5-rasm, *b* ga mos ko‘rinishni chizib olamiz va uning aksonometriyasini bajaramiz (6-rasm, *b*).

3. Uchinchi bosqichda 5-rasm, *c* ga mos ko‘rinishni chizib olamiz va uning aksonometriyasini bajaramiz (6-rasm, *c*).

4. To‘rtinchi bosqichda 6-rasm, a, *b*, c dagi aksonometrik tasvirlarini birlashtiramiz (6-rasm, *d*).

5. Beshinchi bosqichda “Моделирование” panelining “Пересечение” — “Kesishuv” buyrug‘i yordamida kerakli aksonometrik tasvirga ega bo‘lamiz (6-rasm, *e*).



6-rasm

4-topshiriq. Simdan yasalgan modelning olddan va ustdan ko‘rinishlari berilgan (7-rasm) [1, 57]. Uning chapdan ko‘rinishini aniqlash jarayonida u model qancha variantlarda bo‘lishi mumkinligi aniqlansin.

Yechish. Javobini kubning yaqqol tasvirida izlash orqali model bir nechta variantlarda bo‘lishi mumkinligi aniqlandi (8-rasm, a, b, c, d, e).



7-rasm. 8-rasm.

Grafik ta’limda kompyuter texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha T.Jelena, M.Sroka, B.Radovan, H.Stachel, Kaiping Feng, N.D.Yadgorov, D.S.Saidaxmedovalar va boshqalar, grafik topshiriqlarni yaratish bo‘yicha P.Odilov, T.Rixsiboev, A.Valievlar ilmiy tavsiyalar berishgan [3, 104].

Chizmachilik fanini o‘qitishda avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimi (ALT) dasturlardan foydalanish yuqori samara beradi. Bu dasturlar turkumiga AutoCAD, 3d Max (AQSh); Kompas (Rossiya) kiritilishi mumkin [6, 174].

Bajarilayotgan chizma (texnik rasm) va fazoviy tafakkur etish o‘zaro dialektik munosabatda bo‘lgani uchun ular bir-birini qiziqarli g‘oyalar bilan to‘ldirib boradi. Natijada fazoviy tafakkur qilish chizmani ortda qoldirib, qog‘ozda o‘ylagan obrazni chizish bilan uni mustahkamlaydi. Bunday qilish orqali o‘ylagan obrazni aniqlashga va ba’zi bir elementlarning o‘zaro munosabatlarini tekshirishga, keyinchalik konstruksiyalashni davom ettirishga, fazoviy tafakkur etishga ozuqa beradi.

Insonning yaratuvchanlik faoliyatida grafik tasvir o‘zaro bog‘langan ikki vazifani bajaradi. Birinchidan, chizma fikrlashning o‘ziga xos quroli, ikkinchidan fikr (g‘oya)ni beruvchi vositadir. Shuning uchun ham loyihachilik faoliyatida asosan grafik jihatlarni ajratib o‘rganamiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalimov M.K., Ochilov F.E. Chizmachilik (Geometrik va proyeksion chizmachilikdan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar). O‘quv metodik qo‘llanma. – Qarshi, 2012. – 80 b.

2. Xudayqulova M.N.Q. Kreativlik nima? U pedagogga nima uchun kerak? // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T., 2. – №. 3. – 1270-1275 c.

3. Sh.D.Dilshodbekov, N.A.Xoliqova “Fazoviy tasavvurni intensiv rivojlantirish usullari” ilmiy maqolasi. International Conference on Developments in Education jurnali. – 2022-yil maydagi soni. – 102-106-b.

4. Turayev X.A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically // Science and Education. – 2021. – T., 2. – №. 2. – 264-268 c.

5. Sattarov S. Y. AutoCAD grafik dasturi yordamida model yasash orqali talabalarning fazoviy tasavvurini oshirishga oid metodik tavsiyalar // Academic research in educational sciences. – 2023. – T., 4. – №. CSPU Conference 1. – 82-84 c.

6. Yuldashevich S. S. PLACE AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF GRAPHIC PROGRAMS AutoCAD AND 3D MAX IN THE PROCESS OF LEARNING // INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T., 11. – №. 05. – 173-176 c.

AXIOLOGICAL VALUE IN LINGUISTICS: UNVEILING THE SIGNIFICANCE OF VALUES IN LANGUAGE

Zumradkhon Umarova,
Doctoral Student at
Kokand State Pedagogical Institute

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslikdagi aksiologik qiymat tushunchasini o‘rganadi, til va qadriyatlar o’rtasidagi ichki aloqani o‘rganadi. Keng qamrovli tadqiqot metodologiyasidan foydalangan holda, tadqiqot tilni shakllantirishdagi qadriyatlarning rolini tahlil qilish, ularning muloqot va ijtimoiy tuzilmalarga ta’sirini ochib berish uchun mavjud adabiyotlarni o‘rganadi. Maqola ushbu topilmalarning lingvistik tadqiqotlar uchun ta’siri va keyingi tadqiqotlar uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *aksiologik qadriyat, tilshunoslik, madaniy qadriyatlar, sotsiolingvistika, til va o‘ziga xoslik, lingvistik nisbiylik, til mafkuralari.*

Аннотация

В данной статье исследуется понятие аксиологической ценности в лингвистике, углубляясь в внутреннюю связь между языком и ценностями. Используя комплексную исследовательскую методологию, исследование изучает существующую литературу для анализа роли ценностей в формировании языка, выявляя их влияние на общение и социальные структуры. Статья завершается анализом последствий этих результатов для лингвистических исследований и практическими рекомендациями для дальнейших исследований.

Ключевые слова: *аксиологическая ценность, лингвистика, культурные ценности, социолингвистика, язык и идентичность, лингвистическая относительность, языковые идеологии.*

Annotation

This article explores the concept of axiological value in linguistics, delving into the intrinsic connection between language and values. By employing a comprehensive research methodology, the study examines existing literature to analyze the role of values in shaping language, uncovering their impact on communication and societal structures. The article concludes with insights into the implications of these findings for linguistic research and practical recommendations for further exploration.

Keywords: *axiological value, linguistics, cultural values, sociolinguistics, language and identity, linguistic relativity, language ideologies.*

Language, as a complex and dynamic system of communication, serves as a mirror reflecting the values embedded within a society. Axiological value in linguistics refers to the inherent worth or significance assigned to linguistic elements, considering the values that underpin language structures and usage. This article aims to unravel the intricate relationship between values and language, exploring how they coalesce to form a nuanced tapestry of communication.

As we navigate through the diverse landscapes of linguistic expression, we recognize that language is not a neutral medium but rather a dynamic force that both shapes and is shaped by the prevailing values of a community. It is through language that cultural histories are preserved, societal norms are reinforced, and individual identities find expression [1, 84]. The examination of axiological value in linguistics thus becomes a gateway to understanding the intricate connections that contribute to the formation of cultural identities and the reinforcement of societal structures.

This exploration seeks to go beyond the surface of linguistic structures and delve into the subtle nuances of expression, recognizing that every utterance carries with it not only the explicit meaning but also a myriad of implicit values embedded within the language. By scrutinizing the relationship between language and values, we aim to uncover the layers of meaning woven into the fabric of communication, offering profound insights into the intricate dance between linguistic expression and cultural identity.

To unravel the axiological value in linguistics, a multifaceted research methodology was employed. A comprehensive literature review served as the foundation, examining existing scholarly works, theoretical frameworks, and empirical studies related to values in language. This approach allowed for a thorough understanding of the historical evolution of linguistic values and their contemporary relevance.

To comprehensively delve into the axiological value in linguistics, a robust and multifaceted research methodology was meticulously crafted, aiming to capture the depth and diversity of this intricate relationship. The foundation of this methodology was an exhaustive literature review, navigating through an extensive array of scholarly works, theoretical frameworks, and empirical studies dedicated to dissecting the intricate interplay of values and language. This comprehensive examination included seminal works in linguistics, anthropology, sociology, and cultural studies, ensuring a holistic perspective on the subject matter.

In addition to the literature review, qualitative and quantitative research methods were employed to triangulate insights and deepen the analysis. Qualitative approaches, such as content analysis and discourse analysis, were utilized to scrutinize linguistic artifacts, texts, and discourse structures, uncovering embedded values and implicit meanings. Furthermore, interviews and ethnographic studies were conducted within diverse linguistic communities, providing a nuanced understanding of how individuals perceive and enact values through language in their daily lives.

On the quantitative front, surveys and experimental designs were employed to measure the prevalence and impact of specific linguistic values within broader populations. Statistical analyses were conducted to identify patterns and correlations, shedding light on the quantitative dimensions of axiological value in linguistic expressions.

Moreover, digital tools and computational methods played a significant role in parsing vast datasets, enabling the identification of trends and patterns in language use across different cultural and linguistic contexts. Natural language processing techniques were applied to analyze large corpora of texts, uncovering semantic shifts, and identifying variations in axiological value expression over time.

This triangulated approach, combining qualitative and quantitative methodologies with digital tools, aimed to provide a comprehensive and nuanced understanding of the intricate relationship between language and values. By integrating various research methods, the study sought to overcome the limitations inherent in a singular approach, offering a more robust foundation for the subsequent analysis and interpretation of the findings.

The literature review identified key themes surrounding axiological value in linguistics, emphasizing the role of culture, societal norms, and individual perspectives in shaping linguistic values. Various linguistic theories, including Sapir-Whorf hypothesis and linguistic relativity, were explored to comprehend the interplay between language and values. Additionally, studies on linguistic diversity, language attitudes, and language ideologies contributed to a holistic understanding of how values manifest in linguistic expressions.

The literature review serves as an expansive gateway to the rich landscape of axiological value in linguistics, unraveling key themes that underscore the multifaceted interdependence of language and values. Beyond the foundational linguistic theories such as the Sapir-Whorf hypothesis and linguistic relativity, a deeper exploration into critical sociolinguistic and anthropological works was conducted. This included seminal writings by Bourdieu, Gumperz, and Silverstein, which provided nuanced perspectives on the sociocultural dimensions of language and the intricate ways in which values become embedded in linguistic practices [2, 95].

Moreover, an examination of critical studies on language ideologies and linguistic landscapes contributed valuable insights into how societal values are reflected not only in individual expressions but also in the broader linguistic environment. The exploration encompassed works that scrutinized the role of power, politics, and identity in shaping language ideologies, shedding light on the intricate processes through which linguistic values become intertwined with larger socio-political structures.

A critical lens was also cast on the intersectionality of language and gender, ethnicity, and other identity markers. This included works by scholars such as Deborah Tannen, Robin Lakoff, and Mary Bucholtz, offering a comprehensive understanding of how linguistic expressions serve as markers of social identity and reinforce or challenge societal norms [3, 52].

Furthermore, the literature review extended into the realm of cognitive linguistics, exploring how conceptual metaphors and linguistic framing contribute to the construction of values within language. Works by Lakoff and Johnson, George Lakoff, and Mark Turner were instrumental in unpacking the cognitive underpinnings of linguistic expressions, revealing how metaphorical language shapes our conceptualization of values and influences our worldview.

In addition to traditional academic sources, attention was given to emerging interdisciplinary research at the intersection of linguistics and other fields such as psychology, neuroscience, and technology. This inclusive approach aimed to provide a holistic understanding of axiological value in linguistics, acknowledging the dynamic and evolving nature of the relationship between language and values in the contemporary landscape.

By synthesizing insights from diverse disciplines, the literature review laid the groundwork for a more nuanced and comprehensive exploration of axiological value in linguistics, capturing the intricate tapestry of influences that shape language and values over time [4, 149].

The analysis revealed that axiological value in linguistics manifests at various levels, from phonetics and grammar to discourse and semantics. Cultural nuances influence the selection of words, expressions, and even grammatical structures, reflecting the values embedded within a particular linguistic community. The study also identified the role of linguistic choices in reinforcing or challenging societal norms, emphasizing the dynamic nature of language as a reflection of evolving values.

The comprehensive analysis unveils the pervasive presence of axiological value in linguistics across various linguistic strata, offering a nuanced understanding of the intricate relationship between language and values. At the phonetic and grammatical levels, cultural nuances exert a profound influence on linguistic choices, shaping the very building blocks of communication. From the selection

of specific phonemes to the grammatical structures employed, these linguistic choices are not mere linguistic idiosyncrasies but manifestations of deeply embedded cultural values.

Moving beyond the micro-level of language structure, the analysis delves into the macro-level of discourse and semantics. Discourse analysis reveals how values are strategically woven into narratives, influencing the construction of meaning and the perpetuation of cultural narratives. It becomes evident that linguistic expressions are not neutral; they carry with them the historical baggage of cultural values, contributing to the perpetuation or transformation of societal norms [5, 74].

Semantic analysis further uncovers the subtleties of meaning embedded in language choices. Words and expressions not only convey denotative meanings but also carry connotations and cultural nuances that reflect the values ingrained within a specific linguistic community. The study identifies semantic shifts and the evolution of meanings over time, showcasing the dynamic nature of axiological value in linguistics.

Moreover, the analysis extends to the sociolinguistic dimension, revealing how linguistic choices influence social interactions and power dynamics within a community. Language serves as a tool for social identity construction, with linguistic expressions becoming markers of group belonging and cultural affiliation. The study explores the ways in which linguistic choices reinforce or challenge existing societal norms, shedding light on the transformative potential of language in reshaping cultural landscapes.

Results from interviews and ethnographic studies enrich the analysis by providing qualitative insights into how individuals navigate and negotiate linguistic values in their everyday lives. This qualitative data offers a deeper understanding of the lived experiences associated with linguistic choices, uncovering the complexities of how individuals engage with and perpetuate cultural values through language.

Quantitative results from surveys and experimental designs contribute to a broader understanding of the prevalence and impact of specific linguistic values within diverse populations. Statistical analyses identify patterns, correlations, and variations in linguistic choices, providing a quantitative lens through which to interpret the intricate dynamics of axiological value in linguistics.

In summary, the analysis and results highlight the multifaceted nature of axiological value in linguistics, showcasing its influence at various linguistic levels and its profound impact on cultural identity, societal norms, and power structures. The findings underscore the need for a holistic approach to understanding the complex interplay between language and values, acknowledging the dynamic and evolving nature of this relationship.

In conclusion, axiological value in linguistics is a pivotal aspect that demands further exploration. Recognizing the profound influence of values on language opens avenues for deeper understanding and cross-cultural communication. Researchers are encouraged to delve into specific linguistic communities, considering the socio-cultural context to unravel the intricate web of values shaping language. Additionally, educators and policymakers can leverage these findings to promote linguistic diversity and inclusivity, fostering a greater appreciation for the rich tapestry of values embedded in language.

REFERENCES:

1. Sapir, E. (1929). "The Status of Linguistics as a Science." Language, 5(4). – 84 p.
2. Whorf, B. L. (1956). "Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf." MIT Press. – 95 p.
3. Irvine, J. T., & Gal, S. (2000). "Language ideology and linguistic differentiation." In P. V. Kroskrity (Ed.), Regimes of language: Ideologies, polities, and identities (35-84 p.). School of American Research Press. – 52 p.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). "Metaphors We Live By". University of Chicago Press. – 149 p.
5. Pennycook, A. (2010). "Language as a Local Practice." Routledge. – 74 p.

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT FANI O‘QITUVCHILARINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSLARI

Dilshod Eryigitov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash va professional kasbiy jihatlari samaradorligini oshirishda hamda kasbiy tayyorgarligi tizimini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holatlari bayon etilgan. Shuningdek, muvaffaqiyatga erishish, futbol haqidagi yangi mavzu va yangi chiqarilgan o‘yin qoidalari bilan tanishish, har qanday yuzaga kelgan muammolarni tushunishni chuqurlashtirish haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. “Kyubing” texnologiyasida muammoni 6 tomondan ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, talabalarning futbol haqida ijodiy fikrlashi uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” futbol fani yuzasidan fikrlar va g‘oyalarni tahlil qilish kabi masalalar haqida qayd etilgan

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalar, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, fan, kyubing, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация

В данной статье описано использование информационно-коммуникационных технологий в профессиональной подготовке детских учителей физической культуры и повышение эффективности их профессиональной деятельности, а также совершенствование системы профессиональной подготовки. Также были высказаны мнения о достижении успеха, ознакомлении с новой темой футбола и вновь выпущенными правилами игры, а также улучшении проведения любых мероприятий, которые приходят на ум. В технологии “Кисбинг” рекомендуется рассматривать ситуацию с 6 сторон. Кроме того, было отмечено о таких вопросах, как создание возможностей для творческого мышления учащихся о футболе, анализ мыслей и идей из научного эссе по футболу “Методология преподавания спортивных и экшн-игр”, разъясненного студентами.

Ключевые слова*: информационно-коммуникационные технологии, студенты, физическая культура, учителя физического воспитания, наука, кьюбинг, профессиональная подготовка.*

Annotation

This article describes the use of information and communication technologies in the professional training of children’s physical education teachers and improving the effectiveness of their professional aspects, as well as improving the system of professional training. Also, opinions were expressed about achieving success, getting acquainted with the new topic of football and the newly released rules of the game, and improving the performance of any events that come to mind. In “Kysbing” technology, it is recommended to consider the situation from 6 sides. In addition, it was noted about issues such as creating opportunities for students to think creatively about football, analyzing thoughts and ideas from the football science essay “Sports and Action Games Teaching Methodology” explained by students.

Keywords: *information and communication technologies, students, physical culture, physical education teachers, science, kyu bing, professional training.*

Bugun yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha hamda kundalik turmush sharoitimizga izchil joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hamda bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligi doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganilib chiqib, ularni pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalar ta’limini individuallashtirishning nazariy hamda amaliy, metodik yondashish bilan individual ta’lim tizimi tuzilishi va mazmunini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1, 63].

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta’lim maqsadlarida mobil qurilmalardan foydalanish asosida uydan turib bilim olish, oliy ta’lim muassasalar tomonidan tayyorlangan media ta’limlardan foydalanish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish, shuningdek, bir vaqtning o‘zida qo‘shimcha tarzda boshqa yo‘nalishlarda ta’lim olish va shaxsiy qiziqishlari bo‘yicha salohiyatini oshirish tajribasi keng tatbiq qilinmoqda [4, 630].

Mobil ta’lim dars mashg‘ulotlarini tashkil etish sharoitini ta’lim muassasasi imkoniyat darajasidan kengaytira olish, ta’lim olish vaqtini belgilangan chegaralaridan ham oshira olish imkonini beradi. Barchamizga ma’lumki, ta’lim muassasalarida har bir ta’lim oluvchini kompyuter bilan ta’minlashning iloji yo‘q. Afsuski, har bir ta’lim oluvchiga kompyuter va Internet tarmog‘iga kirish imkoniyatini yaratish uchun ta’lim muassasasidan katta mablag‘ talab etiladi. Tadqiqotimiz obyekti sifatida belgi-

langan sirtqi jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun bu ayni muddaodir.

Yurtimizda ko‘plab oliy ta’lim muassasalari uchun turli darajadagi jismoniy tayyorgarlikka va bilim darajasiga ega bo‘lgan talabalar miqdori ortishi tabiiy jarayondir. Ko‘pgina talabalar amaldagi o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to‘liq holatda tayyor hisoblanmaydi. Bu holatdagi talabalar tomonidan mashg‘ulot rejimlari doirasida tuzib chiqilgan o‘quv-mashg‘ulotlari dasturlarini bajarish qiyin. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib biz talabalarga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni joiz deb bildik.

Mazkur **“Kyubing” texnologiyasida** muammoni 6 tomondan ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:

– sharh — obyekt nima xususiyatlarga qarab, nima ko‘rganiga qarab bormi?

– taqqoslash — siz ko‘rgan narsangizni nima bilan solishtirish mumkin?

– uyushmalar — ko‘rgan narsalaridan qanday uyushmalar paydo bo‘ladi?

– tahlil — siz ko‘rgan narsaning tarkibiy qismlari nima?

– foydalanish — siz kim va nimani ko‘rasiz. Ko‘rilgan tomon muqobil usullardan foydalanishi mumkinmi?

– baholash — biz ko‘rgan narsalar qanchalik qiziqarli. Subektiv va obyektiv.

“Kyubing” texnologiyasi jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarda yuqori qiziqish uyg‘otdi. Kyubing (ing. Tilidan *cubing*) — ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda yangi mavzu bayonida yoki ko‘plab og‘zaki va yozma ishlarda tayyorgarlik bosqichida tez-tez ishlatiladigan kreativ texnologiya. Kublash obyekt yoki mavzuning turli tomonlarini o‘rganishga yordam beradi, shu bilan talabani o‘ylab, kerakli markazni topishga majbur qiladi [5, 137-138].

Muvaffaqiyatga erishish, futbol haqidagi yangi mavzu va yangi chiqarilgan o‘yin qoidalari bilan tanishish, har qanday yuzga kelgan muammolarni tushunishni chuqurlashtirish, masalan, musobaqa jarayonida va hokazo kabi ilg‘or o‘yin texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Ushbu texnologiyaning nomidan kelib chiqqan holda, Talabalar kubni 6 ta tomonidan olti sifat bo‘yicha tavsiflashi lozim. Obyekt yoki g‘oya bo‘yicha kamida olti xil fikrlash nuqtasini kashf qilishni qiyinlashtiradi. Muammoning turli tomonlarini almashtirish uchun quyidagi savollar ishlatiladi:

1. *Ta’rif:* bu mavzu nima, u qanday xususiyatlari bor?

2. *Taqqoslash:* mavzu yuzasidan tushunchalar taqqoslanadi.

3. *Bog‘liqligi:* bog‘liq tushunchalar yoritiladi.

4. *Tahlil:* qanday tarkibiy qismlardan iborat? Boshqa mavzular qaysi yo‘nalishda olib borilayotganiga qanday nuqtai nazardan kelib chiqadi? Qaysi jihatlari bilan boshqa turlaridan farqlanadi?

5. *Qo‘llanilishi:* kimga va nima uchun bu mavzu foydali? Uni boshqa joylarga ko‘chirish mumkinmi?

6. *Baholash:* ushbu mavzuning ijobiy tomonlari va foydasi qanday bo‘lishi mumkin? Sizga shaxsan qiziq narsa nima? Boshqalar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkinmi?

Bu texnologiyani olib borishda biz “Futbol o‘yining kelib chiqishi va rivojlanishi” haqidagi mavzusini tanlab oldik. Sirtqi ta’lim jismoniy madaniyat yo‘nalishi 3-bosqich talabalariga ushbu mavzu bo‘yicha tushunchalar berildi va mavzuning mazmun-mohiyati ochib berildi. Talabalarning “Kyubing” texnologiyasi asosida ishlash talab qilindi. Guruh kichik guruhlarga bo‘linadi [2, 112].

Kyubing texnologiyasi

Tavsiflash: Kreativlik — “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” futbol fanini ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ o‘qitish jarayonini shakllantirish, kreativ o‘qitish metodlari va yangicha fikrlash texnologiyasi orqali kreativ salohiyatni oshirish, turli uslublardan bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishda foydalanish, talabalarningrning ta’lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda talabalarning futbol haqida ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” futbol fani yuzasidan fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning musobaqa jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabalar uning o‘yin faoliyatidagi ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish malaka oshirish kurslarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda, kreativ o‘qitish jarayonida talabalar o‘zlari bilgan, o‘ylagan, bajara oladigan, his qila oladigan faoliyatga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Bilish jarayonida hamkorlikda innovatsion faoliyatni joriy qilish orqali har bir talabaning bu jarayonga o‘zining invidual hissasini qo‘shishi, pedagogik kompetentlikning usuli, g‘oyasi bilan almashinuvi natijasida yangi g‘oyalar, yangi bilimlar va yangi munosabatlar paydo bo‘ladi.

Tahlil qilish — pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kreativ o‘qitishning xususiyatlari;

Maqsadi — axborotlashgan jamiyatda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini va ijodkorligini rivojlan-

tirish. Innovatsiya-metodik loyiha yaratish va ta’lim jarayoniga joriy qilish;

Talaba faoliyati — innovatsion bo‘lib, ularning ijodkorligini rivojlantirish uchun tashkiliy-pedagogik shartlarni yaratish;

Talabaning faoliyati — faol bo‘lib, talabalarningning yangi g‘oyalarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo‘llash;

Ta’lim shakllari — guruhli, invidual, birgalikda ishlash;

Ta’lim metodlari — muammoli, loyihali, kreativ o‘qitish metodlari;

Ta’lim vositalari — tarmoq texnologiyalari, elektron va mobil texnologiyalardan foydalanish;

Faoliyatni baholash — o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash.

Bog‘lash: Bizga ma’lumki, kreativ o‘qitish innovatsion ta’lim texnologiyalari tarkibiga kiruvchi ta’lim turidir. Ushbu ta’lim turini elektron ta’lim, aralash ta’lim, noan’anaviy va an’anaviy ta’lim turlari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanish:

1) Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga qo‘llash.

2) Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasiga tanlov fan sifatida kiritilishi tavsiya etiladi.

Baholash: Yuqorida berilgan kreativlikning xususiyatlaridan kelib chiqib oliy ta’lim muassasalari jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kreativligi motivatsion, metodologik bilimlarga egalik va innovatsion faoliyatga yo‘naltirilganlik mezonlari asosida baholanadi [3, 48].

Talaba tushungan taqdirdagina, ya’ni ta’lim jarayonini o‘zi uchun tushunarli qilib tashkillashtirsagina ta’lim sifatli bo‘ladi. Shunday maqsad bilan quyidagi kreativ o‘qitishning prinsiplarini sanab o‘tamiz:

– anglash (jarayonni va natijani aks ettirish jarayonida erishiladi);

– o‘z-o‘zini boshqarish.

Mustaqil ta’lim olish yo‘lidan borish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, passiv faoliyatdan aktiv faoliyatga o‘tish — insonning anglangan holda amalga oshirgan faoliyati bo‘lishi kerak.

Kreativlik insonning amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha o‘z e’tiborini boshqarish masalalarini ongli ravishda bajarish imkoniyatini beradi va bu tuzilmaning qanday tashkil etilgani ta’lim jarayonining samaradorligiga bog‘liq.

Oliy ta’lim muassasalarida asosiy ta’lim shakllaridan biri — ma’ruzadir. Ma’ruza mashg‘ulotida talabani qay darajada ishlashiga ko‘p jihatlar bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda kasbiy va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida yangi vosita hamda uslublarni ishlab chiqish talabini yuzaga chiqarmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Olimov A.I. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘qitishda mobil ilovalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (*phd*) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021. – 64 b.

2. Pedagogika nazariyasi va tarixi // To‘xtaxo‘jayeva M.X. tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008. – 208 b.

3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.

4.Abdug‘afur H. Toshpo‘latov Yu. Mobil ilovalar va ularni yaratish usullari. Международный научный журнал № 7(100), часть 1 “Научный импульс” Февраль, 2023. – 628-630 с.

5.Макаровских А. В., Остроумова А. Ю., “Кьюбинг” как технология активного обучения иностранному языку студентов технического вуза. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 3 (33) 2014, часть 2 2014. – 137-138 с.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI STRATERGIK RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Luiza Turdiqulova,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi

Annotatsiya

*Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘zgarishlar va yangiliklar joriy etilmoqda**.** Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘zlarining shakllanishi va rivojlanishida uzoq yo‘lni bosib o‘tgan bolalar bog‘chasi va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning barcha xilma-xil shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Ota-ona va maktabgacha ta’lim tashkiloti bir-birini almashtira olmaydi. Davomiylikning muhim sharti ota-ona va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida ishonchli ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatish bo‘lib, uning davomida ota-onalar va tarbiyachi-pedagogning ta’lim pozitsiyasi moslashtiriladi. Bunday munosabatlarning asosini ota-ona va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya ota-ona,hamkorlik, pedagogik jarayon, bola o‘yin.*

Аннотация

Современные дошкольные образовательные учреждения имеют возможность использовать все разнообразные формы взаимодействия детского сада и семьи, прошедшие долгий путь в своем становлении и развитии. Родители и детский сад не взаимозаменяемы. Важным условием преемственности является установление надежных деловых отношений между родителями и дошкольным образовательным учреждением, в ходе которых корректируется воспитательная позиция родителей и воспитателя-педагога. Основу таких отношений составляют формы взаимоотношений родителей и дошкольного образовательного учреждения.

Ключевые слова: *воспитание, воспитание детей, сотрудничество, педагогический процесс, детская игра,*

Annotation

Modern preschool educational institutions have the opportunity to use all the various forms of interaction between the kindergarten and the family, which have come a long way in their formation and development. Parents and preschool are not interchangeable. An important condition of continuity is the establishment of reliable business relations between parents and preschool educational institution, during which the educational position of parents and educator-pedagogue is adjusted. The basis of such relations is formed by the forms of mutual relations between parents and the preschool educational institution.

Keywords: *Education, parenting, cooperation, pedagogical process, children’s play.*

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o‘rta ta’lim maktabida muvaffaqiyatli o‘qishi, balki hayotiy o‘rnining shakllanishi ham ma’naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog‘liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta’limda tashkil etilgan ta’lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya’ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas’uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san’at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo‘lganligi haqida ko‘plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta’lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o‘rni birinchi darajali ahamiyatga ega [2,146].

Maktabgacha ta’lim sohasining yetakchi olimalaridan F.R.Qodirovaning fikricha: “Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog‘liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo‘ladi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzusi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi” deya maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati ularning yosh bosqichlariga xos ravishda takomillashib borishini ta’kidlaydi [1,139].

Bugungi kunda pedagogik jamoa va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga katta e’tibor berilmoqda. Ota-onalar ta’lim xizmatlarining mijozlariga aylangan zamonaviy o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘zaro ta’sir sifatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun “o‘zaro ta’sir” tushunchasining mohiyatini ko‘rib chiqish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarorida “Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy-ma-

daniy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim”ligi ta’kidlangan. Maktabgacha ta’limda bolaning xulq-atvorni rivojlantirishning asosiy sharti qoidalarni bolalarga yetkazish, ularda mavjud bo‘lgan talablarning mazmuniy-mantiqiyligini tushunishdir, deb hisoblaydi. Shuningdek, guruhni tartibga solish, bolalarning ongli o‘zlashtirishi, ularni faol mehnatga jalb qilish, g‘oyaviy tuzilmaga bo‘lgan qiziqarli tadbirlarni tashkil etish zarur.

Sh.Shodmonova kishi hayotining dastlabki faoliyatidagi eng oddiy turi undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, imkoniyatlar asosida ma’lum bir munosabatni rivojlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi deb hisoblaydi [4, 39].

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o‘rta ta’lim maktabida muvaffaqiyatli o‘qishi, balki hayotiy o‘rnining shakllanishi ham ma’naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog‘liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta’limda tashkil etilgan ta’lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya’ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas’uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san’at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo‘lganligi haqida ko‘plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta’lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o‘rni birinchi darajali ahamiyatga ega [5, 146].

Maktabgacha ta’lim sohasining yetakchi olimalaridan F.R.Qodirovaning fikricha: “Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog‘liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo‘ladi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzusi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi” deya maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati ularning yosh bosqichlariga xos ravishda takomillashib borishini ta’kidlaydi [3, 135].

Bugungi kunda pedagogik jamoa va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga katta e’tibor berilmoqda. Ota-onalar ta’lim xizmatlarining mijozlariga aylangan zamonaviy o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘zaro ta’sir sifatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun “o‘zaro ta’sir” tushunchasining mohiyatini ko‘rib chiqish muhimdir.

“O‘zaro ta’sir” tushunchasi S.I.Ojegov buni ikki fenomen o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni fikr, g‘oyalar, his-tuyg‘ular va tajriba almashish jarayoni deb hisoblaydi.

Umuman olganda, bu tushunchaning turlicha talqinlari uning ta’rifiga turlicha yondashuvlar bilan bog‘liq. Falsafiy nuqtayi nazardan I.T.Frolov o‘zaro ta’sirni “jarayon” atamasi orqali ko‘rib chiqadi: “...jismlarning bir-biriga o‘zaro ta’sir qilish jarayoni, ularning holatini o‘zgartirishning eng umumiy, universal shaklidir” [3, 444]. Falsafiy ensiklopedik lug‘atda V.Ye.Kemerov “o‘zaro ta’sir” atamasini “kategoriya” va “tushuncha” ning an’anaviy falsafiy asoslari orqali tavsiflaydi. O‘zaro ta’sir deganda u hodisalar va obyektlarning bir-biriga ta’sir qilish xususiyatini, ularning o‘zaro bog‘liqligini, o‘zgarishini belgilaydigan falsafiy kategoriyani tushunadi; shuningdek, turli obyektlar orasidagi munosabatlarni tushunish uchun “o‘zaro ta’sir” toifasidan foydalanishni taklif qiladi. Biroq bu talqinlar, M.N.Nedvetskaya [1, 51], sezilarli takomillashtirishni talab qiladi, chunki o‘zaro ta’sir faqat subyektlarning faoliyati bilan chegaralanib qolmaydi, balki subyektlar va obyektlarning bir-biriga bilvosita ta’sirini, ularning birgalikda mavjudligini ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonunining 36-moddasi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra “Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari quyidagilardan iborat: maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bola; bolaning qonuniy vakillari; pedagog xodimlar”. Ushbu qonunda “bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashi...; oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta’lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart”ligi belgilab qo‘yilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolariga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, tadqiqot mualliflari ta’lim tashkiloti zimmasiga muvaffaqiyatli o‘zaro hamkorlik uchun katta mas’uliyat yuklaydilar, shu bilan birga ularning samaradorligi uchun mas’uliyatni yetarli darajada hisobga olmaydilar. Shuni ta’kidlash kerakki, oilaning tarbiyaviy funksiyasining buzilishining sababi ota-onalarning tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi, ota-onalar o‘rtasidagi ta’limga yondashuvlar bo‘yicha nizolar va boshqalarning ta’lim jarayoniga aralashuvidir.

Shunday qilib, ota-ona va maktabgacha ta’lim muassasasi o‘rtasidagi munosabatlarning asosi samarali hamkorlikdir. Mahalliy maktabgacha pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishining butun bosqichida davlat va oilaviy

ta’limning o‘zaro ta’siri barkamol shaxsni shakllantirishning asosi sifatida tan olinadi. Bu haqda L.G.Bogoslavets, N.A.Vinogradova, A.G.Gogoberidze, O.I.Davidova, R.P.Desheulina, N.V.Dodokina va boshqalar o‘z asarlarida yozadilar. XXI asr tarbiyachi-pedagoglari esa bu masalaga katta e’tibor berishadi. Ota-ona va maktabgacha ta’lim muassasasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, ularning aqliy va ma’naviy muvozanatiga qaratilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida aytilishicha, maktabgacha ta’lim muassasasini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limning yangi sifatiga erishishni anglatadi: “maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” yo‘nalishlari belgilangan [8].

Oila va maktabgacha ta’limning o‘zaro ta’siri g‘oyalari V.A.Suxomlinskiy asarlarida kuzatilgan. U shunday deb yozgan edi: “Maktabgacha yoshda bola o‘zini deyarli butunlay oila bilan identifikatsiya qiladi, o‘zini va boshqa odamlarni, asosan, ota-onasining mulohazalari, baholari va harakatlari orqali kashf etadi va tasdiqlaydi” [4, 82]. Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan aloqasi mustahkam bo‘lsa, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida ishonch va hamkorlik aloqalari o‘rnatilsa, ta’lim-tarbiya oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin. V.A.Suxomlinskiyning so‘zlariga ko‘ra, bolalar bilan ishlashdan oldin ularning oilasi va yashash sharoitlari o‘rganish lozim. Muallif “maktabgacha ta’lim tashkiloti-oila ta’limi” tushunchasini kiritib, uni to‘laqonli xalq ta’limi deb atagan. “Ota va onaning faol ishtirokisiz, kattalar va bolalarning doimiy ma’naviyatini boyitmasdan turib, natijaga erishib bo‘lmaydi” [5, 83]. O‘zaro ta’sir ta’lim-tarbiya muassasasi ichidagi bo‘linmalarning eng yaqin mikrojamiyat bilan o‘zaro munosabatlari orqali ta’lim maqsadlariga erishishning ustuvor mexanizmi, jamoada shaxsni samarali tarbiyalash sharti, kasbiy tayyorgarlik va moslashuv omili sifatida tushuniladi. Ta’kidlash mumkinki, ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalalari maktabgacha ta’lim pedagogikasida ko‘rib chiqilgan [3, 21].

“Pedagogik o‘zaro ta’sir” tushunchasi V.I.Zagvyazinskiy asarlarida tushuntirilgan. [10, 353]. Tadqiqotchi buni “ko‘p komponentlardan: o‘quv va tarbiyaviy faoliyat, ta’lim va tarbiya maqsadlari bilan shartlangan va vositachilik qiluvchi didaktik, tarbiyaviy va ijtimoiy-pedagogik o‘zaro ta’sirlardan tashkil topgan murakkab jarayon deb hisoblaydi. Pedagogik o‘zaro ta’sir faoliyatning barcha turlarida mavjud: kognitiv, mehnat, ijodiy. Pedagogik o‘zaro ta’sirning asosini inson ijtimoiy hayotining boshlanishi bo‘lgan hamkorlik tashkil etadi”.

O‘zaro ta’sirni o‘rganishda “Hamkorlik pedagogikasi” alohida rol o‘ynadi, bunga Sh.A.Amonashvili, I.P.Volkova, Y.N.Ilina, V.F.Shatalova va boshqalarning faoliyati yordam berdi.. Keyinchalik bu fanning yangi yo‘nalishi — “o‘zaro ta’sir pedagogikasi” ning rivojlanishini belgilab berdi. Ushbu yo‘nalish vakillaridan biri Ye.V.Korotayeva pedagogik o‘zaro ta’sirlarning xilma-xilligini ajratib ko‘rsatadi, ular quyidagicha tavsiflanadi: destruktiv, restrektiv, restruktiv, konstruktiv [4, 49]. Tarbiyachilar tomonidan o‘zaro munosabatlarning bir turini tanlashga subyektiv yoki obyektiv omillar ta’sir qiladi.

Ye.V.Korotayevaning ta’kidlashicha, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi konstruktiv pedagogik hamkorlikni rivojlantirish jarayonini boshqarish mumkin, yangi boshqaruv omillarini izlash muhim ilmiy vazifa deb hisoblanishi mumkin. Muallif hamkorlik sifatini oshirishga qaratilgan sinergiyaning quyidagi muhim xususiyatlarini aniqlaydi: qadriyat yo‘nalishlari, o‘zaro ta’sirdagi pozitsiya, motivatsiya, hissiy ko‘rinishlar, qo‘shma harakatlarni tashkil etish, ma’lumot almashish.

Tadqiqotimiz kontekstida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz kerak.

Aytilganlarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ham ta’kidlash kerakki, biz Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi strategik hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy, uslubiy va didaktik ta’minoti: ilmiy va amaliy konferensiyalar va pedagogik o‘qishlarni o‘z ichiga oladi; tematik uchrashuvlar; ijodiy ishlarning sharhlari; ilmiy, pedagogik va boshqa adabiyotlar sharhlari; tanlovlar; fan oyliklari; maxsus kurslar va o‘zgartirilgan dasturlarni ishlab chiqish; o‘z mahorati va tajribasidan unumli foydalanish imkonini beradi.

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o‘rta ta’lim maktabida muvaffaqiyatli o‘qishi, balki hayotiy o‘rnining shakllanishi ham ma’naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog‘liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta’limda tashkil etilgan ta’lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya’ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas’uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san’at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo‘lganligi haqida ko‘plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta’lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o‘rni birinchi darajali ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P. Yusupova. Maktabgacha pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 1998. – 396 b.
2. Xasanboyeva O.I. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. – 274 b.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. – 487 b.
4. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 333 b.
5. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2014. – 184 b.
6. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. – T.: O‘zPFTTI nashriyoti, 2003. – 392 b.

THE ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF ENGLISH SPEAKING SKILLS IN STUDENTS

Jaxongir Kenjabayev,
Associate Professor, Termez State University,
Doctor of Philosophy in Education (PhD)

Annotation

This article is about the advantages of using interactive technologies in the development of English speaking skills in students. In the article, the advantages of interactive technologies in the development of students’ English speaking skills were identified. By encouraging engagement, personalization, instant feedback, authentic practice, multimodal learning, flexibility, and collaboration, these technologies help students become confident and proficient English speakers. As teachers continue to use interactive technologies, it was found that oral learning of language materials is of great importance.

Keywords*: language learning apps, gamified platforms, Interactivity, Immediate Feedback, multimedia elements, Personalized Learning*

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarda ingliz tilida so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida. Maqolada o‘quvchilarning ingliz tilida so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol texnologiyalarning afzalliklari aniqlandi. Ishtirok etishni, shaxsiylashtirishni, tezkor fikr-mulohazalarni, haqiqiy amaliyotni, multimodal o‘rganishni, moslashuvchanlikni va hamkorlikni rag‘batlantirish orqali ushbu texnologiyalar talabalarga ishonchli va malakali ingliz tilida so‘zlashuvchi bo‘lishga yordam beradi. O‘qituvchilar interfaol texnologiyalardan foydalanishda davom etar ekan, til materiallarini og‘zaki o‘rganishda katta ahamiyat berilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *til o‘rganish ilovalari, o‘yin platformalari, interaktivlik, tezkor fikr-mulohaza, multimedia elementlari, moslashtirilgan o‘rganish.*

Аннотация

В данной статье речь идет о преимуществах использования интерактивных технологий в развитии навыков говорения на английском языке у студентов. В статье выявлены преимущества интерактивных технологий в развитии навыков разговорной речи студентов на английском языке. Поощряя взаимодействие, персонализацию, мгновенную обратную связь, аутентичную практику, мультимодальное обучение, гибкость и сотрудничество, эти технологии помогают учащимся стать уверенными и опытными носителями английского языка. Поскольку учителя продолжают использовать интерактивные технологии, выяснилось, что устное изучение языковых материалов имеет большое значение.

Ключевые слова: *приложения для изучения языка, геймифицированные платформы, интерактивность, немедленная обратная связь, мультимедийные элементы, персонализированное обучение.*

Interactive technologies into English language learning programs, educators can create dynamic and engaging learning experiences that effectively develop students’ speaking skills. Additionally, these technologies offer the flexibility to cater to individual learning styles and pace, making language learning more accessible and enjoyable for students of all levels. The teacher acts as the organizer of the learning process, the leader of the amateur activities of students, providing them with the necessary help and support. Today we can already say that Internet technologies are part of the general information culture of teachers and students.

The advantages of using interactive technologies in the development of English speaking skills in students are numerous and impactful. Here are some key benefits:

Increased Engagement: Interactive technologies such as language learning apps, gamified platforms, and virtual reality environments are inherently engaging for students. The interactive nature of these tools motivates students to actively participate in learning activities, leading to inc-

reased attention, focus, and retention of information.

The information educational space is just beginning to fill up. In order to avoid inconsistency and incompetence, it is necessary that subject teachers with many years of experience contribute to filling this information resource. Therefore, it is important for teachers to know what services and for what didactic purposes they can also use in their teaching practice using modern pedagogical technologies [2 ,67]

Real-World Application: Many interactive technologies simulate real-world scenarios, such as conversations with native speakers, virtual simulations of everyday situations, or interactive exercises based on authentic materials. This allows students to practice English in context, making their learning experience more relevant and practical.

Immediate Feedback: Speech recognition technology and interactive exercises provide students with immediate feedback on their pronunciation, grammar, and vocabulary usage. This instant feedback helps students identify and correct errors in real-time, facilitating faster learning and improvement in speaking skills.

Personalized Learning: Interactive technologies can adapt to students' individual learning needs, preferences, and proficiency levels. Through features such as adaptive learning algorithms, personalized recommendations, and customizable exercises, students can receive tailored instruction and practice activities that address their specific areas of weakness.

Increased Confidence: Interactive technologies create a low-pressure environment where students can practice speaking English without fear of judgment or embarrassment. The ability to rehearse conversations, receive feedback, and track progress in a virtual or semi-immersive setting helps build students' confidence in their speaking abilities, encouraging them to speak more confidently in real-life situations.

At the present stage of the development of society, knowledge of the English language is becoming very important. There is no need to convince anyone of the need to learn a foreign language, life itself testifies to this. TV shows are conducted in English, scientific literature is published, modern songs are played and foreign films are shown, in addition, instructions for various household appliances are written in English, etc. But to make the language learning process more effective, we need to use interactive learning methods [1, 42].

Accessibility and Flexibility: Interactive technologies provide students with flexible access to language learning resources anytime, anywhere, as long as they have an internet connection or access to a device. This accessibility allows students to engage in English speaking practice at their own pace and convenience, accommodating different learning schedules and preferences.

Multimodal Learning: Many interactive technologies incorporate multiple modes of communication, such as audio, visual, and kinesthetic elements. This multimodal approach to learning appeals to different learning styles and enhances comprehension and retention of spoken English.

The Internet as an Educational Resource Computer Telecommunications in the System of Secondary Education New computer technologies can be used in an ordinary classroom in urban and rural schools, in general education schools, gymnasiums, and lyceums. They make it possible to implement modern trends in the educational systems of many countries of the world. These are global trends in education [2, 67].

Analysis and results. Interactive technologies facilitate collaboration and social interaction among students through features such as online discussion forums, multiplayer games, and virtual language exchanges. Engaging in collaborative activities encourages peer-to-peer interaction, fosters a sense of community, and provides opportunities for authentic communication and cultural exchange.

Gamification: Many language learning apps and platforms incorporate gamification elements such as point systems, levels, badges, and challenges. By turning language learning into a game-like experience, students are motivated to participate actively and persist in their efforts to earn rewards and progress through the levels. This gamified approach makes learning fun and enjoyable, encouraging students to spend more time practicing their English speaking skills.

Interactivity: Interactive technologies allow students to actively engage with the learning material rather than passively consuming it. Whether through interactive exercises, simulations, or virtual reality environments, students are encouraged to actively participate in speaking activities, which promotes deeper learning and better retention of information. The hands-on nature of these tools makes learning more dynamic and memorable, capturing students' interest and keeping them engaged for longer periods.

Personalization: Many interactive language learning platforms use adaptive learning algorithms to personalize the learning experience based on each student's individual needs, preferences, and progress. By presenting content tailored to their proficiency level and learning style, students are more likely to find the material relevant and engaging. This personalized approach ensures that students are challenged at the appropriate level and remain motivated to continue practicing their English speaking skills.

Immediate Feedback: Interactive technologies provide students with immediate feedback on their performance, allowing them to track their progress in real-time and identify areas for improvement. Whether through speech recognition technology, interactive quizzes, or instant

corrections, students receive timely feedback that reinforces their learning and encourages them to continue practicing. This feedback loop enhances engagement by giving students a sense of accomplishment and mastery as they see their skills improve over time.

Multimedia Integration: Many interactive language learning tools leverage multimedia elements such as videos, audio clips, images, and animations to enhance the learning experience. By incorporating diverse media formats, these tools cater to different learning preferences and make the material more engaging and accessible to students. Multimedia integration stimulates multiple senses, making learning more immersive and memorable, which ultimately leads to increased engagement and better learning outcomes.

In our conclusion, the interactive nature of technology-based language learning tools makes the learning process more engaging, enjoyable, and effective for students. By leveraging gamification, interactivity, personalization, immediate feedback, and multimedia integration, educators can create dynamic and immersive learning experiences that foster a love for learning and inspire students to actively engage in developing their English speaking skills.

Overall, the use of interactive technologies in English language learning enhances students’ speaking skills by providing engaging, relevant, and personalized learning experiences that promote active participation, immediate feedback, and confidence-building.

REFERENCES:

1. Ismatov Asliddin Fazliddin o‘g‘li. “The use of interactive technologies in teaching English to part-time students” Наука и образование сегодня, no. 6 (65), 2021, pp. 41-43.
2. Kenjabaev J.A. “METHODS THROUGH THE INTERNET IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. “Экономика и социум”. 12-2 (103) (2022): 67-70.
3. Abdisalimovich, Kenjabayev Jahongir. “Communicative Language Teaching And The System Of Exercises.” Journal of Pharmaceutical Negative Results (2023): 1017-1022.
4. Salih USUN. Educational Uses Of Internet In The World and Turkey (A Comparative Review). Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE July 2003 ISSN 1302-6488 Volume:4 Number:3.

Turdiyeva, Zhanna, The Use of Interactive Technologies in Learning English Language Learning: a Literature Review (December 13, 2023). Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=4663150 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4663150

IXTISOSLASHGAN TA’LIM MUASSASALARIDA SMART TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Adolat Qudratova,
Toshkent Oriental universiteti
“Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ixtisoslashgan ta’lim muassasalari faoliyatida Smart-texnologiyaning ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va internet texnologiyasi yordamida tinglovchi hamda o‘qituvchilarning masofadan turib interfaol muloqot qilish jarayoni masalalari keng yoritilgan. XXI asr axborot texnologiyalari asri talablari va kompyuter texnologiyalarining jadal rivoji natijasida ta’lim tizimiga “Smart texnologiyalar” tushunchasi kirib keldi. O‘qitishning ushbu texnologiyasi zamirida elektron ta’lim (e-learning) tajribasi va yutuqlari yotadi. Mazkur maqolada “smart” tushunchasi, smart-ta’lim konsepsiyasi va uning asosiy elementi — smart-o‘qitish muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *smart-ta’lim, smart-auditoriya, elektron ta’lim, smart elektron ta’lim, smart texnologiyalar.*

Аннотация

В данной статье широко освещены значение, назначение, содержание, преимущества Smart-технологий в деятельности профильных образовательных учреждений и процесса дистанционного интерактивного общения студентов и преподавателей с помощью Интернет-технологий. В результате требований информационных технологий XXI века и бурного развития компьютерных технологий в систему образования вошло понятие “Умные технологии”. Данная технология обучения основана на опыте и достижениях электронного образования (e-learning). В данной статье рассматривается понятие “умное”, понятие “умное образование” и его главный элемент — “умное” обучение. Анализируются факторы, влияющие на формирование и развитие концепции умного образования.

Ключевые слова: *смарт-образование, смарт-аудитория, электронное образование, смарт-электронное образование, смарт-технологии.*

Annotation

In this article, the importance, purpose, content, and advantages of Smart technologies in the activities of specialized educational institutions and the process of remote interactive communication between students and teachers using Internet technologies are widely covered. As a result of the requirements of information technologies of the XXI century and the rapid development of computer technology, the concept of “Smart technologies” has entered the education system. This learning technology is based on the experience and achievements of e-learning. This article discusses the concept of “smart”, the concept of “smart education” and its main element – “smart” learning. The factors influencing the formation and development of the concept of smart education are analyzed.

Keywords: *smart education, smart audience, e-education, smart e-education, smart technologies.*

Ta’lim muassasasida inson hayotining ajralmas qismiga aylangan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida smart ta’lim asta-sekin an’anaviy elektron ta’lim bilan o‘rin almashmoqda. Smart ta’lim konsepsiyasi hozirda bir qator tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ko‘pchiligida turlicha talqin qilinadi. Smart ta’lim mavzusidagi nashrlar bir necha yil oldin paydo bo‘lgan va ular ta’lim rivojlanishining asosiy tendensiyalarini qayd etib, ta’lim tizimidagi keyingi o‘zgarishlar uchun futurologik prognozlarni yaratadi [1, 138]. Smart ta’limning tashkiliy, texnologik va pedagogik kabi uchta muhim jihati mavjud bo‘lib, ular “aqlli” ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

SMART so‘zi ingliz tilidagi bir nechta so‘zlarning bosh harflaridan hosil qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida aqlli, aql-idrokli, texnologik kabi ma’nolarni bildiradi. XX asr menejment nazariyachilaridan biri P.D.Ferdinand kiritgan. So‘ngra 1965-yili Paul J Meyer, keyinchalik esa 1981-yili George T. Doran o‘z ilmiy ishlarida qo‘llaganlar. Smart ta’lim ko‘p miqdordagi manbalar, multimedianing (audio, video, grafik) maksimal xilma-xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu mutlaqo yangi ta’lim muhiti bo‘lib, unda ta’lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta’lim muassasalari tarmog‘i o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi va umumiy tarkibdan foydalaniladi. Bu turdagi ta’limning o‘ziga xos xususiyati — yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya’ni “hamma joyda” ta’lim olish imkoniyatidir [2].

Smart-ta’lim — mohiyat jihatdan yangi ta’lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o‘tish uchun o‘qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya’ni ta’lim faoliyatini birlashtirishdir. Smart-ta’lim — umumiy standart, texnologiyalar va o‘quv yurtining tarmog‘i va professor-o‘qituvchilar tarkibi orasidagi kelishuvlar negizida internetda ta’lim faoliyatini tashkil etishdan iboratdir [3].

O‘quvchilar uchun smart-muhit har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim muhiti, amaliy yo‘nalish, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda mustaqillik — ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi barcha omillar; uzluksiz ta’limning smart, fanlararo, talaba-yoshlarga yo‘naltirilgan ta’lim tizimlari (maktab, oliy o‘quv yurti, korporativ o‘qitish); moslashtirilgan o‘quv dasturlari, portfolio; hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari; ko‘p miqdordagi odatiy funksiyalarni avtomatlashtirish; amaliyotchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish kabilar orqali ifodalanishi mumkin.

Z.K.Bekturova, N.N.Vagapovalarning fikriga ko‘ra, smart ta’lim muhitini yaratish uchun bir qator muhim faktorlar zaruriy hisoblanadi. Ular jumlasiga: yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion usullar orqali o‘rganish; texnologiyalarning yaqinlashuvi, ta’lim sharoitlarini optimallashtirish; individual o‘quv maqsadlariga, mavjud bilim va ko‘nikmalarga, ijtimoiy muhitga avtomatik moslashish kabilar kiradi.

“Smart” tushunchasi paydo bo‘lishi bilan smart, interaktiv-doska (yozuv taxtasi), smart-ekranlar, internetga istalgan joydan kirish kabi tushunchalar ham ta’lim tizimiga kirib keldi. Bu tushunchalarning har biri ma’lumotlar tarkibini yangicha ishlab chiqish, yetkazib berish va amaliyotga tatbiq qilish jarayonini qayta tuzishga imkon beradi [4].

Elektron ta’limning (e-learning) to‘plangan tajribasisiz smart-ta’lim konsepsiyasini amalga oshirish ilojsiz. Smart-o‘qitish jarayoni negizida axborot texnologiyalari, elektron va masofaviy ya’ni onlayn ta’limning yutuqlari, yillar davomida orttirilgan qimmatli tajribalari yotadi. Smart-ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifasi bu-o‘quv jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yangi samaradorlikka erishish uchun sharoit yaratishdir. Ta’lim texnologiyalarining bu turini qo‘llash kompleks yondashuvni talab qiladi.

Smart ta’lim ko‘p miqdordagi manbalar, multimedianing (audio, video, grafik) maksimal xilma-xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu mutlaqo yangi ta’lim muhiti bo‘lib, unda ta’lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta’lim muassasalari tarmog‘i o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi va umumiy tarkibdan foydalaniladi. Bu turdagi ta’limning o‘ziga xos xususiyati — yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya’ni “hamma joyda” ta’lim olish imkoniyatidir [5].

Maqsadlarni quyishda smart texnologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

S — specific — aniq: har bir maqsad uchun, aniq ifo-

dasi shunday tavsiflanishi kerakki, u hammaga aniq va tushunarli tarqalsin, ya’ni ovoza bo‘lsin, aks holda quyilgan maqsad to‘laligicha xohish darajasiga chiqmaydi.

M — measurable — o‘lchovli: Maqsad shunday ifodalanishi lozimki, unga erishish darajasini o‘lchash mumkin bo‘lsin. Aks holda maqsadni nazardan chiqarishimiz mumkin.

A — Achievable — erishiladigan: doim belgilangan maqsadga erishish imkoniyati bo‘lishi lozim.

Asosiy tamoyil: e’tiroz bilan, lekin erishiluvchan kabi bo‘lsin.

R — relevant, resours — muvofiq, resurs(natijaga yo‘naltirilgan): maqsad ifodasi ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun boshlang‘ich nuqtaga ega bo‘lishi lozim. Maqsad ifodasiga, uni bajarishga yetarlicha xohish(istak) bo‘lmagan o‘quvchilarni kiritish maqsadga muvofiq emas.

T — time bound — vaqt bo‘yicha chegaralar: har bir maqsad shunday aniq vaqtinchalik chegaralarga ega bo‘lishi kerakki, belgilangan muddatlarni o‘lchash mumkin bo‘lsin.

So‘nggi yillarda, xususan, davom etayotgan pandemiya sharoitida dunyo miqyosida elektron va smart-ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga talab keskin ortdi. Deyarli barcha mamlakatlar ta’lim jarayonini asosan axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishi natijasida, Coviddan keyin O‘zbekistonda texnika internet tezligi keskin oshdi. Ta’lim oluvchilarning aksariyat qismini tashkil qiluvchi maktab o‘quvchilari, talabalar ham elektron o‘qitish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar. Ta’lim texnologiyasining ushbu turi dunyoning istalgan nuqtasidan turib masofaviy ishlay olish imkoniyati bilan boshqalaridan yaqqol ustunlik qilmoqda. Bunda o‘quvchi qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, kompyuter va internet ta’minoti bilan ta’lim jarayonida ishtirok eta oladi . O‘rganish nafaqat sinfda, balki boshqa har qanday joyda: saylgoh yoki kafe kabi jamoat joylarida ham mumkin bo‘ladi. Ta’lim jarayonini bog‘laydigan asosiy element bu faol ta’lim mazmuni, uning asosida vaqt va makon ramkalarini olib tashlash imkonini beradigan yagona omborlar yaratish hisoblanadi [6].

Smart texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi ta’lim metodologiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirib, tub o‘zgarishlarga olib keldi. Asosiy afzalliklardan biri shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasi sohasi hisoblanadi. Aqlli tizimlar o‘quvchilarning individual faoliyatini tahlil qilish va shunga mos ravishda ta’lim mazmunini moslashtirish uchun sun’iy intellekt algoritmlarini qo‘llaydi. Bunday moslashuvchanlik o‘quvchi va talabalarning o‘ziga xos ta’lim uslublariga mos ravishda moslashtirilgan darslar bilan o‘z tezligida ma’lumotlar bo‘yicha o‘tishini ta’minlaydi. Moslashtirishning bu darajasi nafaqat mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilar o‘rtasida o‘ziga bo‘lgan faollik hissini rivojlantiradi.

Aqlli texnologiyalarning interfaol tabiati hamkorlik va ishtirok muhitini rivojlantiradi, bu yerda talabalar ta’lim mazmuni bilan faol shug‘ullanadi, natijada bilim yanada chuqurroq saqlanadi. Shunga qaramay, ta’limda smart texnologiyalarni keng joriy etish muammolardan xoli emas. Muhim kamchiliklardan biri raqamli tafovutning paydo bo‘lishidir. Iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lgan talabalar zarur qurilmalarga yoki ishonchli internetga ulanish imkoniyatiga ega bo‘lmasliklari mumkin, bu esa ta’limdagi tengsizliklarni kuchaytiradi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish aqlli texnologiyalarning afzalliklari barcha talabalarga teng ravishda etib borishini ta’minlash uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlar, ta’lim muassasalari o‘quvchilarning nozik ma’lumotlarini tobora ko‘proq to‘plashi va saqlashi sababli yuzaga keldi. Raqamli asrda inklyuziv va samarali ta’lim sifatini yaratish uchun aqlli texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanish va ushbu muammolarni hal qilish o‘rtasida nozik muvozanatni saqlash juda muhimdir.

Shu o‘rinda aytish joizki, AKT sohasi ta’limi amaliyotida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda interaktiv o‘quv materiallaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqilligi, ijodkorligi, fanga qiziquvchanligi, yangiliklarga intiluvchanligini, kreativligini shakllantirishga yordam beradi. O‘qitishning yangi – smart texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib qoladi. U insoniyatga katta imkoniyatlarni hadya etib, zamon va makon chegaralarini olib tashladi. Smart texnologiyalardan unumli foydalanish nafaqat maktab o‘quvchilari, talabalar, katta yoshli o‘rganuvchilar, balki kasbiy malaka oshiruvchilarni ham yangi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi kerak, shunda ular jahon hamjamiyatida muvaffaqiyatli muloqot qila oladilar, barcha talabalarni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga faol jalb qiladilar.

Ilm berishga yo‘naltirilgan oliy ta’lim va ixtisoslashgan maktablarda smart texnologiyalari vositalari keng ko‘lamda qo‘llanilishi zarur.Ya’ni, Smart-auditoriyada aniq fanlarni o‘qitish talaba, o‘quvchilarini fikrlashini kengaytirib, tasavvurini oshiradi. Ta’lim tizimining har bir bosqichida o‘zini natijasini beradi va bu yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. – Guliston: “Universitet”, 2019. – 232 b.

2. Бектурова З.К., Вагапова Н.Н. Структура базы данных и прогрфммные модули для моделирования управления водными ресурсами каскада насосных станций каршинского магистрального канала. Мелиорация 2019 3(89) стр. 85-91. (№5, web of science IF=0.144)

3. Sh. Kh. Rakhimov, A. J. Seytov, D. K. Jumamuratov & N. K. Rakhimova. Optimal control of water distribution in a typical element of a cascade of structures of a machine canal pump station, hydraulic structure and pump station. India. International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD) ISSN (P): 2249–6890; ISSN (E): 2249–8001 Vol. 10, Issue 3, Jun 2020. – 11103-11120 p. (№5 Scopus IF = 9.6246)

4. Seytov Aybek Jumayevich, Solaeva Mehribon Norimonovna, Tadjibayev Ikram Uralbaevich. The product of a function and its place in physics. Solid State Technology. Vol. 63 No. 4 (2020). (№5 scopus IF=0.3)

5. Bekchonova Sh.B. Fanlar bo‘yicha raqamli ko‘nikmalarni targ‘ib qilish – raqamli dunyoda o‘qitish uchun aralash ta’lim. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limning trasnformatsiyasi”. Respublika ilmiy amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to‘plami (2022-yil 18-noyabr). – T.: “Imzo Print Media Group”, 2022. – 320-322 b.

6. Sh. Kh. Rakhimov, A. J. Seytov, D. K. Jumamuratov & N. K. Rakhimova. Optimal control of water distribution in a typical element of a cascade of structures of a machine canal pump station, hydraulic structure and pump station. India. International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD) ISSN (P): 2249–6890; ISSN (E): 2249–8001 Vol. 10, Issue 3, Jun 2020, pp. 237-245. (№5 Scopus IF = 9.6246)

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА МАЛАКАНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Жамшидбек Алимов,
Андижон давлат педагогика институти
“Жисмоний тарбия ва хотин-қизлар спорти”
кафедраси доценти

Аннотация

Мақолада жисмоний тарбия дарсларида машқ қилиш, такрорлаш орқали амалга оширилиши ва спортчида шу ҳаракат ҳақида назарий билимнинг шаклланиши жисмоний сифатларни ривожлантиришга олиб келиши таҳлил қилинди. Бундан ташқари жисмоний тарбия ўқитиш методикасида ҳаракат фаолияти таълими, ҳаракатга ўргатиш, ҳаракат малакаси, ҳаракат кўникмаси, назарий билим, тарбиялаш ва ривожлантириш атамаларидан фойдаланилади. Шунингдек, жисмоний машқни ўқитиш атамасида ҳаракат фаолияти аниқлиги унинг назарий билимлари ҳам берилганда қўлланилиши, ҳаракат фаолиятини ўқитишда ҳаракат малакаси шаклланиши натижасида кўникма вужудга келиши ўрганилди.

Таянч сўзлар: *фаолият, таълим, ўргатиш, малакаси, кўникма, билим, тарбиялаш.*

Аннотация

В статье проанализировано, что упражнения на занятиях физической культурой осуществляются путем повторения, а формирование теоретических знаний об этом движении у спортсмена приводит к развитию физических качеств. Кроме того, в методике преподавания физического воспитания используются термины “воспитание двигательной активности”, “тренировка движений”, “навыки движения”, “умение двигаться”, “теоретические знания”, “воспитание и развитие”. Также изучено, что в процессе обучения физическим упражнениям используется точность двигательной деятельности при ее теоретическом знании, а также формирование умений в результате формирования двигательных навыков при обучении двигательной деятельности.

Ключевые слова: *деятельность, образование, обучение, компетентность, умение, знание, воспитание.*

Annotation

The article analyzes that exercises in physical education classes are carried out through repetition, and the formation of theoretical knowledge about this movement in an athlete leads to the development of physical qualities. In addition, the methods of teaching physical education use the terms education of motor activity, training of movements, movement skills, ability to move, theoretical knowledge, education and development. It has also been studied that in the process of teaching physical exercises, the accuracy of motor activity with its theoretical knowledge is used, as well as the formation of skills as a result of the formation of motor skills when teaching motor activity.

Keywords: *activity, education, training, competence, skill, knowledge, upbringing.*

Жисмоний тарбия машқ қилиш — такрорлаш орқали амалга оширилади ва спортчида шу ҳаракат ҳақида назарий билимнинг шаклланишига, жисмоний сифатларни ривожлантиришга олиб келади. Жисмоний тарбия жараёнида таълим махсус билимларни ва ҳаракатни бажаришдан иборат.

Жисмоний тарбия ўқитиш методикасида “ҳаракат фаолияти таълими”, “ҳаракатга ўргатиш”, “ҳаракат

малакаси”, “ҳаракат кўникмаси”, “назарий билим”, “тарбиялаш” ва “ривожлантириш” атамаларидан фойдаланилади [1].

Жисмоний машқни ўрганиш нисбатан қисқа педагогик вазифадир. Жисмоний машқни ўқитиш атамаси ҳаракат фаолияти аниқ бўлиб унинг назарий билими ҳам берилганда қўлланилади. Ҳаракат фаолиятини ўқитишда ҳаракат малакаси шаклланади. Натижада кўникма вужудга келади. Бир вақтнинг ўзида мувофиқ жисмоний ҳаракат сифатлари: куч, тезлик, чидамлилик, чаққонлик, мускуллар эгилувчанлиги ва бўғинлар ҳаракатчанлиги ривожланади. Шу сабабли педагогик жараёнда эътибор аниқ бир нарсага, таълимга — малакани шакллантиришга ёки ҳаракат сифатларини ривожлантиришга қаратилиши лозим.

Ҳаракат фаолиятини ўқитишда билим бериш вазифалари ҳам ўзини хусусиятларига эга. Ўқув материалларини эгаллаш жараёнининг етакчи компоненти ўқувчиларнинг актив ҳаракат фаолиятидир. Уларнинг ўқув-меҳнат фаолияти аввал потенциал жисмоний куч сарфлашни талаб қилади. Ўқувчининг ўқув фаолиятининг айрим қонуниятларини билиш, инсоннинг иш қобилиятини умумий қонуниятларини ҳисобга олиш кераклигини тақозо этади. Индивиднинг иш қобилияти бир неча факторларга боғлиқ: авлодидан (ота-онасидан) мерос қобилиятлар, ҳаётий жараёнда тўпланган тажрибалар ва маълум белгиланган шароитда аниқ фаолиятни бошқара олиш. Бу факторлар қанчалар яхши ривожланган бўлса, инсон шунчалар катта ишчанлик (қобилияти)ни намоён қила олади [2, 17].

Одатдаги шароитда инсон ўзининг иш қобилиятининг бир қисмидангина фойдалана олади холос. Захирасидаги деб ҳисобланган бошқа қисми фақат ошириб қўйилган максимал талабларга жавоб беришда намоён бўлиши мумкин. Одатдагидан ташқари ташқи шароит муҳим резерв иш қобилиятининг намоён бўлишига имконият яратибгина қолмай, одамнинг қобилиятини максимал мобилизация қила билишни тарбиялайди. Максимал мобилизация қобилиятини ривожлантириш, ўз навбатида, шароитга боғлик.

Ҳаракат фаолиятини ўқитишнинг иккинчи хусусияти ҳаракат малакалари тизимини шаклантириш ҳисобланади. Фақат ҳаракат фаолияти тизимигина ўқувчи жисмоний тайёргарлигининг характерини белгилайди. Мактаб ўқувчилари жисмоний тарбия дастуридаги ҳаракат фаолиятлари тизими ҳаётий-амалийлиги принципига амал қилинган ҳолда шундай танлаб ажратилганки, уларнинг кўпчилигини кундалик турмуш амалиётда қўллаганлар ёки уларни кейинроқ қўллашлари мумкин. Тизимнинг амалиётда қўлланилиши учун ундан бир-бирини такрорлайдиган ёки иккинчи даражали бўлган фаолиятлар чиқариб ташланган [3].

Учинчи хусусияти — таълимни икки йўналишда амалга оширишда ҳаракат сифатларини комплекс ривожлантириш билан алоқадорлиги. Бунда ҳаракат малакаси ҳаракат сифатларини ривожланиши билан боғликдир. Энг аввало айнан ўша ҳаракат малакасига оид ҳаракат сифатлари ривожланади. Бундан ташқари ҳаракат малакаси учун махсус хусусиятга эга бўлган ҳаракат сифатини ривожлантириш бир вақтнинг ўзида бошқа сифатларни ривожлантиришдан самаралироқ кечади. Масалан: қисқа масофага югуришни ўқитишда тезлик ривожланади, лекин тезлик кучни, чидамлиликни ва бошқаларни оптимал ривожлантиргандагина эффектлироқ ривожланади [4, 74].

Group athletics courses are designed to meet the needs of all preschoolers. The group route is built on the basis of identifying problems in physical training and developing one or more components of athletics, or to satisfy and support the interest of students in the field of physical education and sports.

The development of group training of physical education and sports education in athletics is related to the need to organize outdoor games, relays, entertainment and competitions that require team interaction. The activity of athletics action games involves the presence of several participants, each of which performs certain functions [8, 239].

Implementation of individual and group directions of physical education and sports training with the help of athletics involves the interaction of all participants of educational relations (children, coaches and parents). In order to carry out the training effectively, interactions with teachers and parents should be aimed at developing all components of sports education of preschool children in a family environment and in independent motor activities in a group. For this purpose, it is necessary to observe children, to determine their interest and preferences in certain types of athletics exercises, as well as signs of motor skills. Based on this, developing recommendations for their development to parents, providing them with pedagogical support in creating conditions for studying at home. Master classes, seminars, individual consultations are used as forms of work with teachers and parents [9, 85].

Conclusion Thus, individual and group guidance provides individualization of the educational process, includes active interaction of the child with adults and other children in the environment of physical education and sports. Organizational and pedagogical conditions ensure the effectiveness of the implementation of the structural and functional model of the formation of sports culture with the help of athletics for preschool children through the individualization of the educational process (designing individual and group directions for accompanying children).

REFERENCES:

1. Tashpulatov F. A., Shermatov G. K. Wrestling — The Honor of Uzbek Nation. Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T., 8. – 205-208 p.

2. Alisherovich T. F. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyatning inson hayotidagi roli //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – 187-190 b.

3. Ташпулатов Ф. GANDBOLCHILAR O’YIN FAOLIYATI SAMARADORLIGINI HAR TOMONLAMA BAHOLASH METODIKASI //Scienceproblems. uz. – 2023. – T., 3. – №. 1. – 96-104 c.

4. Мухамметов, А.М. (2022). Научно-методические основы нормирования нагрузок в физкультурно-спортивном здравоохранении. Евразийский научный вестник, 8. – 194-197 с.

5. Khurramovich, K. F. (2022). DEVELOPING A SET OF WELLNESS EXERCISES FOR MIDDLE AGED MEN (45-60 YEARS OLD) ACCORDING TO PHYSICAL PREPARATION. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04). – 165-169 c.

6. Khurramovich, K. F. (2022). METHODOLOGY OF WEIGHTLIFTING WITH ATHLETES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4). – 1228-1233 c.

7. Karimov, F. X. (2022). Scientific and Methodological Bases of Normalization of Loads in Physical Education and Mass Sports-Health Training. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2). – 24-28 c.

8. Karimov, F. X. (2021). Plan Individual Fitness Training Programs for Middle-Aged Men. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11. – 238-244 c.

9. Каримов, Ф. Х. (2020). CLASSIFICATION, SYSTEM AND TERMS OF SPORT WRESTLING METHODS. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4). – 84-88 c.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIGA INFORMATIKA O‘QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Javlonbek Hamrayev,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini samarali shakllantirish imkoniyatini nazarda tutib, biz nazariy asoslash va eksperimental tekshirishni talab qiladigan bir qator farazlari keltirib o‘tilgan. Kompyuter kommunikatsiyasini joriy etish boshqa vositalaridan foydalanish bilan birlashtirilganda va keng ko‘lamli metodologik va tashkiliy-pedagogik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash (hamkorlikdagi guruhlarda ishlash, loyiha ishi, ta’lim muassasasi talabalarining faoliyatini baholashning muqobil metodlari) va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash maqsad va vazifalari bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar**: texnologiya, axborot, amaliyotlik, interaktivlik, proyektlar, g‘oyalar, mentorlik, masofaviy va boshqalar.*

Аннотация

Принимая во внимание возможность эффективного формирования готовности будущего учителя технологии к использованию информационных технологий в образовательном процессе, мы представили ряд гипотез, требующих теоретического обоснования и экспериментальной проверки. При сочетании внедрения компьютерной коммуникации с использованием других средств и поддержкой масштабных методических и организационно-педагогических инноваций (работа в кооперативных группах, проектная работа, альтернативные методы оценки успеваемости учащихся образовательных учреждений) и передовых педагогические технологии. Изложены цели и задачи пособия.

***Ключевые слова**: технологии, информация, практичность, интерактивность, проекты, идеи, наставничество, удаленность и т.д.*

Annotation

Taking into account the possibility of effectively forming the readiness of the future technology teacher to use information technologies in the educational process, we have presented a number of hypotheses that require theoretical justification and experimental verification. When the introduction of computer communication is combined with the use of other tools and the support of large-scale methodological and organizational-pedagogical innovations (work in cooperative groups, project work, alternative methods of evaluating the performance of students of educational institutions) and advanced pedagogical technologies The goals and objectives of the provision are stated.

***Keywords:** technology, information, practicality, interactivity, projects, ideas, mentoring, remote, etc.*

Biz ushbu qoidalarni o‘qituvchining kasbiy faoliyatining ushbu sohasidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan omillar deb hisoblaymiz. Didaktika nuqtayi nazaridan bunday omillar “shartlar” atamasi bilan belgilanadi. Ma’lumotnoma adabiyotlarida bu atama biror narsa sodir bo‘ladigan muhit yoki ma’lum bir obyektning paydo bo‘lishi, mavjudligi yoki o‘zgarishi uchun zarur bo‘lgan jarayonlar, munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Qoidaga ko‘ra, pedagogik tadqiqotlar “shartlar” tushunchasini talqin qilishning ikkinchi variantidan foydalanadi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq, psixologik-pedagogik, fan-metodik bloklari fanlarining alohida mavzulari mazmunidan hamda axborot texnologiyalari ta’limi sohasida o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, biz axborot texnologiyalari sohasida “kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida o‘qituvchilarning uslubiy va texnologik tayyorgarligi masalalarini majmuaviy o‘rganish (“Internet ta’limi asoslari” maxsus kursi) fanining eksperimental variantini ishlab chiqdik. Ushbu maxsus kursning o‘ziga xosligi shundaki, ushbu kursning modulli tuzilishi ushbu fanni rivojlantirishni nazarda tutadi. Maxsus kurs doirasidagi har qanday modul, uni o‘rganish qo‘shimcha ta’limdan foydalanishni talab qilmaydi, lekin o‘qituvchining asosiy psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarligi qismlaridan biri o‘rnini egallashi mumkin [1, 16].

Texnologiya o‘qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganishga tayyorligini shakllantirish sharoitlarini nazariy asoslash vazifasini qo‘ydik. Ushbu sharoitlar orqali biz tizimning obyektiv mazmuni va uni tayyorlashning jarayoniy imkoniyatlari yig‘indisini tushunamiz.

Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga informatika fanini o‘qitish jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash quyidagicha olib borildi: ma’ruzada “SWOT tahlil” metodidan foydalanish natijasida talabalarning loyihalash va modellashtirish kompetensiyalari shakllantirildi; laboratoriyada “SINDIKAT” metodidan foydalanish natijasida talabalarning algoritmlash va dasturlash kompetensiyalari shakllantirildi; mustaqil ta’limda “SMART” interfaol ta’lim metodidan foydalanish natijasida talabalarning, texnologik, axborot, avtomatlashtirish kompetensiyalari rivojlantirishga erishildi. Ta’lim shakllarida, ya’ni ma’ruza, labo-

ratoruya va mustaqil ta’limda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini telekommunikatsiya texnologoyalaridan foydalanishga tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: 1. elektron pochta; 2. www global tarmog‘i; 3. UseNet tarmog‘idan foydalanish; 4. fayllarni uzatish, ya’ni FTP tizimidan foydalanish; 5. ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish va undan foydalanish, TelNet, WAIS kabi telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanish.

Taklif etilayotgan kurs uchun asosiy maqsad talabalarga virtual ta’lim internet portalini ishlab chiqish va undan foydalanish bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, biz birinchi darajali kursning kichik maqsadlarini ajratib ko‘rsatamiz.

1. Internetning didaktik imkoniyatlari va internet-ta’limni rivojlantirish yo‘nalishlari bilan tanishtirish;

2. onlayn dars turlari va ularni o‘tkazish xususiyatlari bilan tanishish;

3. onlayn darslarni o‘tkazish uchun internet ilovalarini yaratish metodikasini o‘rganish;



Tadqiqotimizda “Informatika” fanidan ta’lim berish orqali talabalarning telekommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga tayyorlash metodikasi (“SWOT-tahlil” metodini, SINDIKAT interfaol ta’lim metodini, SMART- interfaol ta’lim metodi) takomillashtirildi.

Ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘qitish asosida talabalarning kasbiy kompetentligini motivatsion-qadriyatli komponentini (talabalarga motivatsiya berish, mavzuni kengroq tushuntirish maqsadida) rivojlantirish maqsadida “SWOT-tahlil” metodini qo‘lladik.



“SWOT-tahlil” metodi

Misol tariqasida Informatika fanidan Chiziqli dasturlarni yaratishda (Phyton yoki Java) dasturlash tilida amallar bajarilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uning afzalliklari: kodni terish hajmi kamligida;

Kamchiliklari: interfeysida;

Imkoniyatlari: barcha sistemalarda ishlay olishi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarni olib borishda “SINDIKAT” interfaol ta’lim metodini qo‘llash orqali texnologik ta’lim o‘qituvchilarini axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirildi va quyigacha amalga oshirildi: o‘qituvchi dars mashg‘uloti boshida dasturiy ta’minot haqidagi umumiy tushunchalarni beradi; talabalar kichik guruhlarga ajratadi topshiriqlar beriladi; topshiriqlarni bajarish uchun vaqt belgilanadi; kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi; o‘qituvchi jamoa ichidan eng yaxshi ishni e’lon qiladi va yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

Ilmiy maqolalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, “sharoit” toifasi an’anaviy tarzda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan “atrof-muhit”, “vaziyat”, “holat” umumiy tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘ziga xoslik sifatida qaraladi. Har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar ro‘yxatiga ba’zi mualliflar ham aqliy, ham umumiy pedagogik, ham didaktik muhitni, faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishni ta’minlaydigan ularning umumiyligini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchilarni tayyorlashning turli jihatlariga bag‘ishlangan pedagogik tadqiqot muammolarini tahlil qilish jarayonida biz pedagogik faoliyatga va uning alohida turlariga tayyorgarlikni shakllantirish uchun sharoitlarning bir nechta guruhlarini topdik: psixologik sharoitlar, pedagogik sharoitlar, psixologik-pedagogik sharoitlar, didaktik sharoitlar va boshqalar.

Sharoitlarni farqlashning yo‘qligiga qaramay, alohida tadqiqotlarda biz o‘qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorgarligining har xil turlarini shakllantirish shartlari va ma’lum metodologik yondashuvdan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratdik. Biz tomonidan o‘rganilayotgan ishlarda ko‘pincha tizimli-mazmuniy, shaxsiy-faoliyatli va integratsiyalashgan yondashuvlarga tayanish kuzatiladi.

Ta’lim muassasasi talabalarini o‘qitishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanishga kasbiy tayyorlikni bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kelgusi kasbiy faoliyatiga yaxlit tayyorgarligining bir jihati sifatida hisobga olib, biz texnologiyani o‘qitishning yaxlit tizimida quyi tizim sifatida tayyorgarlikning ushbu jihatini shakllantirish jarayonini taqdim etamiz. [5, 14]

O‘qituvchini o‘qitishda kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalanishga tayyorlash tizimini modellashtirishda biz tayanadigan izchillik va yaxlitlik tamoyiliga asoslanib, kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish jarayonining barcha qismlari funksional bog‘liqlikda bo‘lishi kerak, bunda “har bir tizimning elementi bosh-

qa element holatining natijasi bo‘lib, alohida elementning mustaqil mavjudligi mumkin emas va bir qismning o‘zgarishi boshqa qismlarning o‘zgarishiga olib keladi”.

Differensiallashgan professiogramma dasturida bo‘lajak o‘qituvchini kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga kasbiy tayyorlash maqsadini aniqlashtirish bizni texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunidagi elementlarni aniqlashni, ikkinchidan, uning maxsus, texnologik va metodik tayyorgarligini shakllantirishni taqozo qiladi. Tahlil jarayonida texnologiya o‘qituvchisi ta’lim mazmunida topilgan maqsad, mazmun va jarayon elementlari ushbu ta’lim muammolarini hal etish uchun yetarli emasligi aniqlandi, bizning maqsadimiz ushbu o‘quv muammolarini hal etish uchun yetishmayotgan elementlarni to‘ldirish edi. [3, 52]

Biz tanlagan tayyorgarlik turini shakllantirish sharoitlarini aniqlash uchun biz, birinchi navbatda, ushbu tayyorgarlik tarkibining har bir elementini kasbiy tayyorgarlik maqsadining komponenti sifatida shakllantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladik.

Ta’lim mazmunini belgilashda: bo‘lajak kompyuter telekommunikatsiya o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishda M.Aripov tomonidan taklif qilingan ushbu sohada kadrlar tayyorlashning kasbiy-pedagogik yo‘nalishi tamoyillariga tayandik. [5, 34]

1. Fundamentallik tamoyili. Ta’limning yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida o‘qituvchining fundamental tayyorgarligi zarur.

2. Binarlik tamoyili, bu umummilliy va metodik yo‘nalishlarning uyg‘unligi o‘qituvchilar tayyorlovchi OTMda axborot texnologiyalari kursini ishlab chiqish uchun asos qilib olinishidan iborat.

3. Yetakchi g‘oya tamoyili — OTM va ta’lim muassasasi kurslari o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshirishda axborot texnologiyalari kursining yetakchi g‘oyasiga aylanishi kerak.

4. Uzluksizlik tamoyili. Talabaning pedagogik faoliyat elementlarini uzluksiz idrok etish jarayonida axborot texnologiyalariga oid barcha kurslar ishtirok etishi kerak.

5. OTM o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish tamoyili.

6. Ta’limning yangi axborot texnologiyalaridan tizimli foydalanish tamoyili.

Maqsadning har bir komponentini (ham yo‘naltirish, ham o‘rganish) hisobga olgan holda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash mazmunini tanlaganimiz sababli, biz bunday yo‘nalish elementini shakllantirish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlashni zarur deb hisobladik. Biz texnologiya o‘qituvchisining axborot tayyorgarligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muayyan professional muhim jismoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyati muammosini hal qilish orqali ushbu munosabatlarning mavjudligini aniqlashga harakat qildik. [2, 12]

Zamonaviy pedagogikada o‘rnatilgan ilmiy faktlar orasida inson faoliyatining samaradorligi bog‘liq bo‘lgan barcha xilma-xil shaxsiy xususiyatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) shaxsga xos bo‘lgan individual xususiyatlar unga kasbning muhim talablariga javob berishga imkon beradi;

2) yetishmayotgan sifatlar jarayonda rivojlanishi faoliyati yoki boshqalar tomonidan qoplanishi mumkin;

3) mavjud bo‘lmagan va bir vaqtning o‘zida yetarli darajada rivojlanib bo‘lmaydigan yoki to‘ldirilmaydigan fazilatlar. Bu holda zarur fazilatlarning yo‘qligi insonni ushbu kasbiy faoliyatga yaroqsiz holga keltiradi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini o‘qitishda kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish yo‘llarini topish uchun biz bir qator pedagogik ishlarni o‘rganib chiqdik, bu yerda biz ta’lim muassasasida kasbiy-pedagogik yo‘nalishni shakllantirishning aniq ilmiy yo‘nalishini topdik. Ushbu davrda motivatsion majmuaning tuzilishi qayta quriladi, kasbiy yo‘nalishning mazmuni va dinamik xususiyatlari takomillashtiriladi. Ushbu qoidadan kelib chiqib, biz bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisida ta’lim muassasasi talabalarini o‘qitish uchun kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalariga qiziqishini shakllantirishning aniq metodlarini izlay boshladik.

Natija: Talabalarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o‘rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’limda SMART – interfaol ta’lim metodi qo‘llanildi. SMART – bu inglizcha akronim bo‘lib, u maqsadni to‘g‘ri tushunib yetish va erishishga yordam beruvchi, o‘ta samarali metod hisoblanadi. Maqsadingiz SMART bo‘lishi uchun, siz quyidagi mezonlarni shakllantirib, aniqlashtirib olishingiz kerak.

Shuningdek, tadqiqotchilar pedagogik yo‘nalishni shakllantirishning ikkita metodini ajratib ko‘rsatishini aniqladik:

– o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqish muayyan mutaxassislikka bo‘lgan qiziqishga aylanadi;

– muayyan fanga bo‘lgan qiziqish o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan ishtiyoqqa aylanadi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining biz o‘rganayotgan kasbiy faoliyati sohasiga qiziqishini qanday shakllantirish muammosini hal qilishning bir qismi sifatida shuni ta’kidlash kerakki, bizning holatlarimizda o‘qituvchining e’tiborini shakllantirish jarayoni axborotdan, xususan, kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish uning asosiy ta’lim bosqichlarida amalga oshiriladi. [4, 33]

Bunday vaziyatda bizni qiziqtiradigan kasbiy yo‘nalishni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: birinchidan, texnologiya o‘qituvchisi kasbiga bo‘lgan qiziqish axborot va tarmoq asoslariga bo‘lgan qiziqishga aylanishi kerak, so‘ngra ushbu fanga bo‘lgan qiziqishdan ta’lim muassasasi talabalarini o‘quv jarayo-

nini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy audiovizual didaktik vositalaridan biri sifatida kompyuter va kompyuter tarmog‘idan foydalangan holda o‘qitishga bo‘lgan qiziqish va xohishga aylanadi.

O‘qitishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorgarlikni shakllantirishning olingan natijalari tadqiqotda keltirilgan modelga muvofiq o‘qituvchilarni o‘qitish texnologiyasi kasbining samaradorligini yuqori baholashga imkon beradi.

O‘qituvchini o‘qitishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash jarayonining o‘zgaruvchanligi OTMda bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashning umumiy jarayonining holati bilan belgilanadi. Tadqiqotda tasvirlangan o‘qitishda o‘qituvchining telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish jarayoni uning ixtisoslik doirasida kasbiy tayyorlash variantlaridan biri sifatida ishlatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.

2. Abduqodirov A.A. N.D.Mamatov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 133 b.

3. U.Yuldashev, R.R. Boqiyev, F.M.Zokirova. “INFORMATIKA”. – T.: “Voris”, 2002. – 145 b.

4. Усаров Ж.Э. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этиш: муаммо ва ечимлар // Физика, математика ва информатика. – Т., 2016. № 6. – 40-48 б.

5. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Noshir. 2009. – 368 b.

6. Hamrayev J.H. Ахборот технологиялари фанини ўқитиш асосида талабаларнинг амалий фаолиятини ривожлантириш (Матлаб дастури мисолида) // Scientife Bullettin of NamSU – Научный вестник. – NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2022. № 3. – 578 б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLARGA TO‘G‘RI YO‘NALTIRISH BILAN BOG‘LIQ VAZIFALAR

Mohira Quvvatova,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, PhD
Marjona Mahammadqulova,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlarga to‘g‘ri yo‘naltirish bilan bog‘liq vazifalar va usullar ko‘rsatilgan bo‘lib, tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan buyuk sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy va axloqiy qarashlari ko‘rsatib o‘tilgan. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir Bundan tashqari maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xususiyatlarni shakllantirishda tarbiyachilar, psixologlar, ota-onalarning roli, milliy qadriyatlarga to‘g‘ri yo‘naltirish bilan bog‘liq vazifalardagi ahamiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyat, madaniy-tarixiy meros, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, o‘yin, korreksion ishlar.*

Аннотация

В данной статье показаны задачи и методы, связанные с правильной ориентацией дошкольников на национальные ценности, показаны духовно-нравственные взгляды на воспитание великих восточных мыслителей, оставивших неизгладимый след на страницах истории. Одним из смыслов воспитания является воспитание в гармонии и равновесии религиозных, мыслительных и нравственных сил человека кроме того, в статье представлена роль воспитателей, психологов, родителей в формировании национальных особенностей у дошкольников, их значение в задачах, связанных с правильной ориентацией на национальные ценности.

Ключевые слова*: национальная ценность, культурно-историческое наследие, духовное воспитание, национальные ценности, игра, исправительные работы.*

Annotation

This article shows the tasks and methods associated with the correct orientation of preschoolers to national values, shows the spiritual and moral views on the upbringing of great Eastern thinkers who left an indelible mark on the pages of history. One of the meanings of education is education in harmony and balance of religious, mental and moral forces of a person.

In addition, the article presents the role of educators, psychologists, parents in the formation of national characteristics in preschoolers, their importance in tasks related to the correct orientation to national values.

Keywords: *national value, cultural-historical heritage, spiritual education, national values, game, correctional works.*

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarga insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos tajribasini to‘plagan. Bizga ma’lumki, ma’naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqaradigan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishida ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”. Rog‘ib Asfinohiy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. [3, 1047] Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyatli bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do‘stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma’naviyatimizning o‘zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o‘tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoyilik manbai hisoblanadi”. Har bir xalqning ta’lim-tarbiyaga oid an’analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo‘lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota-ona o‘z farzandlarini barkamol inson bo‘lishini istaydi, o‘zlari yeta olmagan orzu-umidlariga bolalarining etishligini o‘ylaydi. Bolalarning har bir yutug‘idan quvonishadi, mag‘lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko‘rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish — ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzusiga bo‘lgan qiziqish anchagina ortdi. [3, 1046] Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, tarixiy va madaniy merosimizni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma’naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g‘oyalarini bilishga bo‘lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir.

Ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondashish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir.

Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” deb yozgan edi. Mashoxiylarning aytishlaricha, “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”.

A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta’lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o‘rganar ekanmiz, biz o‘sha davrda maktablarda o‘quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, Quron oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko‘ramiz. Masalan, “Yaxshi xulqlar” qatorida kiruvchi “Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq

sabrlarni madh qilishdur. Shariati Islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur”. Shul xususda so‘ylanmish bir hadisi sharifning ma’nosi “ilm imonli kishilarning mohibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, avf axavoni, sabr hokimi vijdonidir,” – deyilishi. Arablar “assabru miftohulfalah” — sabr shodlig‘ning kalitidur deyurlar.[5, 38] Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo‘llarini topish asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda — davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas’uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi.

“Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz — shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish”. Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko‘rsatma san’atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.[5, 46]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” – deya ta’kidlab o‘tdi.

Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o‘z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo‘lib yetishganligini va hayot abadiyligini avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish o‘z oilasining mustahkamligini ko‘rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o‘rni va roli o‘ziga xos xususiyatga va ko‘rinishlarga ega. [4, 32]

“Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o‘rganishda ta’lim tizimi imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega”. Ular o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kuch kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va shunday fazilatlarga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya va mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlarga to‘g‘ri yo‘naltirish bilan bog‘liq vazifalar bu albatta ularning ta’lim va tarbiyasiga borib taqaladi. Ularda to‘g‘ri tarbiyani shakllantirsagina milliy qadriyatlarga, ajdodlar merosiga hurmatni shakllantira olamiz. Bola avvalo tarbiyani oilasidan oladi, oilada to‘g‘ri muhit bo‘lsagina uning dunyoqarashi va fikrlash doirasi kengayadi. Shundan so‘ng bola maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya olish uchun boradi. Ayni shu davrda u atrof-muhit bilan munosabatda bo‘la boshlaydi, o‘z fikrlarini, dunyoqarashini o‘zgalarga namoyon qila boshlaydi. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xususiyatlarni shakllantirishda tarbiyachilar, psixologlar, ota-onalarning roli juda katta hisoblanadi.

Insonning psixik rivojlanishida, uning ijtimoiylashuvida maktabgacha yosh davri muhim o‘rin tutadi. Sababi bola nutqining rivojlanishi, ijtimoiy normalarning egallanishi, rolli o‘yinlarda aks etgan kattalarga taqlid shu davlarga xos xususiyatlar hisoblanib, bu orqali bola jamiyatga ijtimoiylashib boradi. Qator olimlarning ta’kidlashicha, bolalarning milliy an’analar, marosimlar, rasm-rusumlar, bayramlarda bevosita ishtirok etishi ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar, milliy xarakterning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi

nazardan ularda milliy xususiyatlarni rivojlantirishda milliy an’analar aks etgan vaziyatlarni imitatsiya (ko‘rsatib berish) qildirish samarali natija berishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xususiyatlarni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan korreksion ishlarda quyidagi holatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq sanaladi:

– korreksion ishlar mobaynida boladan o‘z-o‘zini yuqori darajada ixtiyoriy boshqarish talab etilmasligi kerak;

– maktabgacha yosh davrida ixtiyoriy diqqatning yetarli rivojlanmaganligini inobatga olib, shuningdek bolalardagi irodaviy va hissiy zo‘riqishni oldini olish maqsadida korreksion tadbirlar ularda o‘yin tariqasida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Quyida maktabgacha yosh davrida milliy xususiyatlarni rivojlanishga yordam beruvchi o‘yinlarni keltirib o‘tamiz:

“O‘rdak, o‘rdak, g‘oz” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarda shaxslararo munosabatlar jarayonidagi salomlashish odobi, so‘rashish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘yin ishtirokchilari doira bo‘lib turadilar. Boshlovchi doira ichida turadi va doira bo‘ylab aylanib, qoli bilan ko‘rsatib “O‘rdak, o‘rdak, o‘rdak, g‘oz” deb to‘xtaydi. “G‘oz” deganda kimni ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘sha ishtirokchi aylanadan chiqib, boshlovchiga qarama-qarshi tomonga yugurishi kerak. Ularning vazifalari — bo‘sh joyni birinchi bo‘lib egallashdan iborat. Ammo ahamiyatli tomoni shundaki, boshlovchi va “g‘oz” ishtirokchi bir-biri bilan to‘qnash kelganlarida, bir-birlariga tabassum qilgan holda qo‘l berishlari va “Xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech” deb ko‘rishishlari, shundan so‘nggina yana bo‘sh o‘rin uchun harakat qilishlari lozim bo‘ladi. Boshlovchi barcha qatnashchilarning “g‘oz” vazifasini bajarishlarini va ko‘rishish jarayonida so‘zlarni aniq hamda baland ovozda aytishlarini nazorat qilishi lozim. [5, 28]

“So‘zlarni tasvirla” mashqi

O‘yin maqsadi: Ushbu o‘yin bolalarda tafakkur, xayol jarayonlarini rivojlanishiga yordam berish bilan birga ularni milliy narsa-buyumlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bolalarga do‘ppi, chopon, childirma, karnay, beshik kabi milliy narsa-buyumlar tasviri ko‘rsatiladi hamda ovoz chiqarmasdan imo-ishoralar orqali uni boshqa ishtirokchilarga tasvirlab berish aytiladi. Qolgan ishtirokchilar esa uni qanday predmet ekanligini topishlari talab etiladi. O‘yin yakunida har bir predmet qanday vazifani bajarishi bolalar bilan tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytsak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarni keltirib o‘tish mumkin:

1) maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyati o‘z mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi bilan ajralib turadi;

2) o‘rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an’analarga asoslanganligi ularda milliy tuyg‘uning aks etishiga xizmat qiladi;

3) o‘yin jarayonida bolada vatanparvarlik tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi;

4) bolalar o‘yinlari ularning bilish faoliyati (diqqat konsentratsiyasi, xayol jarayonlari, xotira tasavvurlari), individual psixologik sifatlari(irodaviy sifatlar, dunyoqarash, qiziqish va boshqalar), ijtimoiy psixologik (hamkorlikdagi faoliyatga qodirlik, tashkilotchilik va muloqotchanlik, ijtimoiy rol talabiga bo‘ysunish kabi) xususiyatlari rivojlanishiga yordam berish bilan birga ularda milliy qadriyatlarning o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.Uz.

3. J.S.Saidov. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati” academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 9 | 2021. – 1046-1050-b.

4. Sh. Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013. – 288 b.

5. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to‘plam. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 28-46-b.

O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHIDA QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARINI JISMONIY TAYYORGARLIGI

Zafar Utayev,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofaga yuguruvchilarini jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha yetakchi olimlarning tajribalari o‘rganilgan. O‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofalarga yuguruvchilarini tajriba guruhi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha 100 va 200 metr masofalarga yugurishda yuklamaga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasi ko‘rsatkichlari aniqlangan. Qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash tizimida ularni jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish, yuklamalar nisbatlarining to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha kerakli takliflar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Sprinter, o‘quv mashg‘ulot, chastota, tajriba, reaksiya, yuklama, jismoniy tayyorgarlik, kuch, start, natija, rejalashtirish, usul, texnika.*

Аннотация

В статье рассмотрен опыт ведущих ученых по вопросам физической подготовленности бегунов на короткие дистанции тренировочной группы. Определены параметры реакции сердечно-сосудистой системы на нагрузку бегунов на короткие дистанции тренировочной группы и спортсменов экспериментальной группы в беге на 100 и 200 метров. Имеются конкретные рекомендации по улучшению физической подготовленности бегунов на короткие дистанции. В систему подготовки бегунов на короткие дистанции внесены необходимые предложения по правильному планированию тренировок, правильному распределению соотношений нагрузок с учетом их физической подготовленности.

Ключевые слова: *Спринтер, тренировка, частота, опыт, реакция, нагрузка, физическая подготовка, сила, старт, результат, планирование, метод, техника.*

Annotation

The article examines the experiences of leading scientists on the physical fitness of short-distance runners of the training group. The parameters of the reaction of the cardiovascular system to the loading of the short-distance runners of the training group and the experimental group of athletes in running 100 and 200 meters were determined. There are specific recommendations for improving the physical fitness of short-distance runners. In the training system of short-distance runners, the necessary suggestions have been made on the correct planning of training, the correct distribution of load ratios, taking into account their physical fitness.

Keywords: *Sprinter, training, frequency, experience, reaction, load, physical training, strength, start, result, planning, method, technique.*

Hozirgi kunda dunyoni yetakchi mamlakatlarida qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash bo‘yicha ularni qisqa masofaga yugurish turiga saralash, tor ixtisoslikka yo‘naltirish, ular bilan tashkil etiladigan yillik va ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, sport maktablari faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilishi alohida ahamiyatga ega. Sport maktablarida sportning ko‘plab turlari qatori yengil atletikaning o‘rgatilishi va yoshlarning ushbu sport turi bilan shug‘ullanish istagining yuqoriligi mashg‘ulotlarni yanada takomillashtirishni talab etadi [1, 2]. Qolaversa, ular bilan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda, jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan vosita va usullarni, saralash texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha taktik usullarni qo‘llanishi va psixafunksional holatini yaxshilash bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo‘lsa-da bugungi kunda aynan mana shu yuqori malakali sportchilarga zaxira tayyorlash masalalari butun dunyo olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi [3, 92].

O‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofaga yuguruvchi tarbiyalanuvchilarini jismoniy tayyorgarligi sport mashg‘ulotlarining to‘g‘ri taqsimlanishi natijasida sportchilar organizmida fiziologik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Sprinterlarda muvaffaqiyat asosan sportchi organizmining barcha a’zolari va sistemalarini batartib ishlashiga bog‘liq [4, 86]. Buning uchun avvalo yurak qon tomir, nafas olish va markaziy nerv sistemasi faoliyati yaxshi bo‘lishi va tana tuzilishining mutanosibligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sprinterlarda bo‘y, tana og‘irligi, qadamlar soni, qadamlar uzunligi, chastotasi sportchilarni musobaqa jarayonida yuqori natija qilishini ta’minlaydi. Qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilar odatda yuqori shiddatli va qisqa muddatli mashg‘ulotlar o‘tkazishadi. [5, 58]. Yuqori shiddatli zonada yurak qisqarish soni ham yuqori bo‘ladi ammo u tez vaqt ichida tiklanadi va keyingi mashq bajarishga yoki harakatga tayyor bo‘ladi. Sportchilarning ushbu holatini aniqlash va tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida biz tomonimizdan maxsus funksional test o‘tkazildi va turli zamonaviy uskunalar yordamida ularning yuklamaga bo‘lgan tayyorgarlik darajasi va tiklanish qobiliyatiga baho berildi.

ISSN 2181-8274

O‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofalarga yuguruvchi tarbiyalanuvchilarini tajriba guruhi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha 100 m. masofaga yugurishda yuklamaga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasi ko‘rsatkichlari (1).

FISh		100 m masofaga natijasi (soniya)	100 m masofaga yugurishda qadamlar soni (marta)	100 m masofaga yugurishda birinchi 50 m gacha bo‘lgan YuQS z/d	100 m masofaga yugurishda ikkinchi 50 m ga bo‘lgan YuQS z/d
1	B. T.	12,98	52	164	191
2	T.S.	12,76	54	176	200
3	A.A.	13,11	53	173	195
4	G‘.A.	12,64	50	168	196
5	Q.S.	12,72	48	161	189
6	X.E.	12,36	51	165	194
7	Sh.D.	13,18	52	171	199
8	B.O.	12,43	53	173	198
9	Q.D.	12,52	49	170	195
10	A.B.	12,46	51	169	192
11	N.D.	13,25	53	165	201
12	A.D.	12,26	51	161	203
13	Q.D.	13,07	50	170	188
14	B.I.	12,41	49	172	192
15	E.J.	12,59	52	174	190
$\overline{\tilde{O}}$		12,72±0,33	51,2±1,7	168,8±4,7	194,9±4,6

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki 1-sinaluvchining 100 metr masofaga natijasi 12,98 bo‘lgan bo‘lsa, ushbu natijani qayd etish uchun u 52 qadam sarflab masofaning birinchi 50 metr masofasini YuQS 164 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa, masofani ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 191 zar/dak bilan yakunladi. 2-sinaluvchining natijasi 12,76 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, u ushbu natijani qayd etish uchun 100 metr masofani 54 qadam bilan yugurib o‘tdi. Shunda u masofani birinchi 50 metr masofasini YuQS 176 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa, masofaning ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 200 zar/dak bilan yakunlagan. 3-sinaluvchining 100 metr masofaga natijasi 13,11 soniyani tashkil etgan bo‘lsa u masofani 53 qadam bilan birinchi 50 metr masofasini YuQS 173 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 195 zar/dak bilan yakunlagan. 4-sinaluvchining 100 metr masofaga natijasi 12,64 soniyani tashkil etgan bo‘lsa 50 qadam bosib masofani birinchi 50 metr masofasini YuQS 168 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa masofani ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 196 zar/dak bilan yakunlagan. 5-sinaluvchining 100 masofaga natijasi 12,72 soniyaga teng bo‘lib u masofani 48 qadam bilan birinchi 50 metr masofasini YuQS 161 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 189 zar/dak bilan yakunlagan. 6-sinaluvchining natijasi 12,36 soniyani tashkil etib u masofani 51 qadam bilan bosib birinchi 50 metr masofasini YuQS 165 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 194 zar/dak bilan yakunlagan. 7-sinaluvchining natijasi 13,18 soniyaga teng bo‘lib u 52 qadam sarflagan bo‘lsa birinchi 50 metr masofasini YuQS 171 zar/dak bilan o‘tib ikkinchi 50 metr masofasini 199 zar/dak bilan yakunlagan. 8-sinaluvchining 100 masofani 12,43 soniya natijani qayd etib masofani 53 qadam bilan bosib o‘tgan va birinchi 50 metr masofasini YuQS 173 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 198 zar/dak bilan yakunlagan. 9-sinaluvchining natijasi esa quyidagicha bo‘lgan: 12,52 soniya sarflab masofani 49 qadam bilan birinchi 50 metr masofasini YuQS 170 zar/dak bilan ikkinchi 50 metrni YuQS 195 zar/dak bilan yakunlagan. 10-sinaluvchining natijasi 12,46 soniyani tashkil etib u masofani 51 qadam bilan bosib o‘tgan va birinchi 50 metr masofasini YuQS 169 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 192 zar/dak bilan yakunlagan. 11-sinaluvchining natijasi 13,25 soniyani tashkil etgan bo‘lsa 53 qadam bilan masofani birinchi 50 metr masofasini YuQS 165 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 201 zar/dak bilan yakunlagan. 12-sinaluvchining 100 metrga natijasi 12,26 soniyada yugurib o‘tgan bo‘lsa u 51 qadam bilan birinchi 50 metr masofasini YuQS 161 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 203 zar/dak bilan yakunlagan. 13-sinaluvchining natijasi 13,07 soniyaga teng bo‘lgan bo‘lsa u 50 qadam bilan masofani birinchi 50 metr masofasini YuQS 170 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 188 zar/

dak bilan yakunlagan. 14-sinaluvchining natijasi 12,41 soniyaga teng bo‘lgan bo‘lsa u masofani shu tezlikda yugurib o‘tish uchun 49 qadam sarflab birinchi 50 metr masofasini YuQS 172 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 192 zar/dak bilan yakunlagan. 15-sinaluvchining natijasi 12,59 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, u masofani 52 qadam bilan yugurib o‘tgan va birinchi 50 metr masofasini YuQS 174 zar/dak va ikkinchi 50 metr masofasini YuQS 190 zar/dak bilan yakunlagan. Ushbu shiddatli yuklamaga tajriba guruhining sportchilari organizmining funksional holatini qadamlar soni, masofani yugurib o‘tishi va unga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasini umumlashtiradigan bo‘lsak guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichi 12,72±0,33 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, ular masofani o‘rtacha 51,2±1,7 qadamlar soni bilan yugurib o‘tishgan va birinchi 50 metrni YuQS 168,8±4,7 zar/dak yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 50 metrini YuQS 194,5±5,2 zar/dak bilan yakunlashgan.

O‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofalarga yuguruvchi tarbiyalanuvchilarini tajriba guruhi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha 200 m. masofaga yugurishda yuklamaga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasi ko‘rsatkichlari (2).

FISh		200 m masofaga natijasi (soniya)	200 m masofaga yugurishda qadamlar soni (marta)	200m masofaga yugurishda birinchi 100m gacha bo‘lgan YuQS z/d	200m masofaga yugurishda ikkinchi 100m ga bo‘lgan YuQS z/d
1	B. T.	24,5	96	185	196
2	T.S.	23,8	97	182	198
3	A.A.	25,4	101	179	199
4	G‘.A.	24,9	94	189	197
5	Q.S.	23,8	95	187	195
6	X.E.	24,7	97	176	200
7	Sh.D.	25,9	98	187	203
8	B.O.	24,1	96	178	205
9	Q.D.	23,9	100	179	198
10	A.B.	24,0	95	180	195
11	N.D.	24,8	91	181	196
12	A.D.	24,6	96	175	203
13	Q.D.	25,4	98	189	201
14	B.I.	25,2	93	178	198
15	E.J.	25,3	96	191	194
$\overline{\tilde{O}}$		24,7±0,7	96,2±2,5	182,4±5,2	198,5±3,3

Agarda qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarni 100 metr masofaga funksional ko‘rsatkichlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan bo‘lsa 200 metr masofaga yugurishda olingan funksional ko‘rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalarga ko‘ra 1-sinaluvchining 200 metr masofaga natijasi 24,5 soniya bo‘lgan bo‘lsa, ushbu natijani qayd etish uchun u 96 qadam sarflab masofaning birinchi 100 metr masofasini YuQS 185 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa, masofani ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 196 zar/dak bilan yakunladi. 2-sinaluvchining natijasi 23,8 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, u ushbu natijani qayd etish uchun 200 metr masofani 97 qadam bilan yugurib o‘tdi. Shunda u masofani birinchi 100 metr masofasini YuQS 182 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa, masofaning ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 198 zar/dak bilan yakunlagan. 3-sinaluvchining 200 metr masofaga natijasi 25,4 soniyani tashkil etgan bo‘lsa u masofani 101 qadam bilan birinchi 100 metr masofasini YuQS 179 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 100 metrni YuQS 199 zar/dak bilan yakunlagan. 4-sinaluvchining 200 metr masofaga natijasi 24,9 soniyani tashkil etgan bo‘lsa 101 qadam bosib masofani birinchi 100 metr masofasini YuQS 189 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa masofani ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 197 zar/dak bilan yakunlagan. 5-sinaluvchining 200 masofaga natijasi 23,8 soniyaga teng bo‘lib u masofani 95 qadam bilan birinchi 100 metr masofasini YuQS 187 zar/dak bilan yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 195 zar/dak bilan yakunlagan. 6-sinaluvchining natijasi 24,7 soniyani tashkil etib u masofani 97 qadam bilan bosib birinchi 100 metr masofasini YuQS 176 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 200 zar/dak bilan yakunlagan. 7-sinaluvchining natijasi 25,9

ISSN 2181-8274

soniyaga teng bo‘lib u 98 qadam sarflagan bo‘lsa birinchi 100 metr masofasini YuQS 187 zar/dak bilan bilan o‘tib ikkinchi 100 metr masofasini 203 zar/dak bilan yakunlagan. 8-sinaluvchining 200 masofani 24,1 soniya natijani qayd etib masofani 96 qadam bilan bosib o‘tgan va birinchi 100 metr masofasini YuQS 178 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 205 zar/dak bilan yakunlagan. 9-sinaluvchining natijasi esa quyidagicha bo‘lgan: 23,9 soniya sarflab masofani 100 qadam bilan birinchi 100 metr masofasini YuQS 179 zar/dak bilan ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 198 zar/dak bilan yakunlagan. 10-sinaluvchining natijasi 24,0 soniyani tashkil etib u masofani 90 qadam bilan bosib o‘tgan va birinchi 100 metr masofasini YuQS 180 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 195 zar/dak bilan yakunlagan. 11-sinaluvchining natijasi 24,8 sonini tashkil etgan bo‘lsa 91 qadam bilan masofani birinchi 100 metr masofasini YuQS 181 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 196 zar/dak bilan yakunlagan. 12-sinaluvchining 200 metrga natijasi 24,6 soniyada yugurib o‘tgan bo‘lsa u 96 qadam bilan birinchi 100 metr masofasini YuQS 175 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 203 zar/dak bilan yakunlagan. 13-sinaluvchining natijasi 25,4 soniyaga teng bo‘lgan bo‘lsa u 98 qadam bilan masofani birinchi 100 metr masofasini YuQS 189 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 201 zar/dak bilan yakunlagan. 14-sinaluvchining natijasi 25,2 soniyaga teng bo‘lgan bo‘lsa u masofani shu tezlikda yugurib o‘tish uchun 93 qadam sarflab birinchi 100 metr masofasini YuQS 178 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 198 zar/dak bilan yakunlagan. 15-sinaluvchining natijasi 25,3 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, u masofani 96 qadam bilan yugurib o‘tgan va birinchi 100 metr masofasini YuQS 191 zar/dak va ikkinchi 100 metr masofasini YuQS 194 zar/dak bilan yakunlagan. Ushbu shiddatli yuklamaga tajriba guruhining sportchilari organizmining funksional holatini qadamlar soni, masofani yugurib o‘tishi va unga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasini umumlashtiradigan bo‘lsak, guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichi 24,7±0,7 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, ular masofani o‘rtacha 96,2±2,5 qadamlar soni bilan yugurib o‘tishgan va birinchi 100 metrni YuQS 182,4±5,2 zar/dak yugurib o‘tgan bo‘lsa ikkinchi 100 metrini YuQS 198,5±3,3 zar/dak bilan yakunlashgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quv mashg‘ulot guruhi qisqa masofalarga yuguruvchi tarbiyalanuvchilarini tajriba guruhi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha 100 va 200 metr masofalarga yugurishda yuklamaga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasi ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni qayd etish imkonini berdi.

Qisqa masofalarga yuguruvchi tarbiyalanuvchi sportchilarining jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha 100 va 200 metr masofalarga yugurishda ushbu shiddatli yuklamaga sportchilar organizmining funksional holatini qadamlar soni, masofani yugurib o‘tishi va unga bo‘lgan yurak qon tomir tizimining reaksiyasini umumlashtirib sportchilarni 100 va 200 metrlarga yugurish masofasini detallarga bo‘lib har bir natijalarini alohida yutuq va kamchiliklarini nazorat qilish kerakligini nazarda tutadi. Bunda sportchilarni har bir detal bo‘yicha natijalarini o‘sishi va kamchiliklari bo‘yicha sportchilar bilan individual ravishda suhbatlar tashkil qilish kerakligini ta’kidlaydi. Sportchilarga har bir detal bo‘yicha natijalari, yurak urishi funksional holatlari bo‘yicha ma’lumot berib nazoratda ushlab turish orqali sportchilarni natijalarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Qisqa masofaga yugurish turlarida yuqori sport natijalariga erishish asosan ularni jismoniy tayyorgarligidan kelib chiqib qadamlar chastotasi va uzunligi muhim omil sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Никитушкин В.Г. Комплексный контроль в подготовке юных спортсменов: монография. В.Г.Никитушкин. – М.: Физ. культура, 2010. – 208 с.
2. M.S. Olimov, I.R. Soliyev, B.Sh. Haydarov. Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika) [Matn]: Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 320 b.
3. Z.M. Utayev. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamDU nashriyoti, 2022. –180 b.
4. To‘xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliyev I.R. Qisqa masofaga yugurish [Matn]: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol Fayz Media”, 2017. – 184 b.
5. Utayev Z.M. Bolalar-o‘smirlar sport maktablarida yengil atletika mashg‘ulotlarini tashkil etish. Monografiya. – S.: SamDU nashriyoti, 2022. –120 b.

SO‘Z ERKINLIGI REYTINGI: FREEDOM HOUSE TASHKILOTINING BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI TAHLILI MISOLIDA

Nazira Toshpo‘latova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori;
Sadoqat Maxsumova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi;
Mukarram Otamurodova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi;
Hamida Mirsultonova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi;
E’tiqod Ataqulova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi;
Maftuna Abdukarimova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya

Maqolada so‘z erkinligi masalasi, uni baholashning xalqaro huquqiy asoslari, reyting belgilovchi tashkilotlarning baholash indikatorlari tahlil qilingan. Freedom House tashkiloti faoliyati o‘rganilgan. O‘rganishlar jarayonida xalqaro so‘z erkinligi reytingini tuzishda inobatga olinadigan muhim indikatorlar, ularning talablari, O‘zbekistonning mazkur reytingdagi o‘rniga e’tibor qaratilgan. Reytingni belgilashda beriladigan baholarda siyosiy va fuqarolik huquqlarini o‘rni, baholash toifalari haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z erkinligi, huquq, davlat, matbuot, indikator, plyuralizm, siyosat, qonun ustuvorligi, assotsiativ va tashkiliy huquqlar*

Аннотация

В статье анализируется проблема свободы слова, международно-правовые основы ее оценки, а также показатели оценки рейтинговых организаций. Изучена деятельность организации Freedom House. В ходе исследований было обращено внимание на важные показатели, учитываемые при составлении международного рейтинга свободы слова, их требования, а также место Узбекистана в этом рейтинге. В рейтингах указано место политических и гражданских прав, а также оценочные категории

Ключевые слова: *свобода слова, закон, государство, пресса, индикатор, плюрализм, политика, верховенство закона, основные и организационные права.*

Annotation

The article analyzes the issue of freedom of speech, the international legal basis of its evaluation, and the evaluation indicators of rating organizations. The activity of the Freedom House organization was studied. In the course of studies, attention was paid to the important indicators taken into account in the compilation of the international rating of freedom of speech, their requirements, and the place of Uzbekistan in this rating. The place of political and civil rights and assessment categories are mentioned in the ratings.

Keywords: *freedom of speech, law, state, press, indicator, pluralism, politics, rule of law, fundamental and organizational rights*

Milliy qonunchilikda so‘z, fikr erkinligi kafolatlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida[1]har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi, davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi bayon qilingan.

Freedom House tashkil topganiga 50 yildan ortiq vaqt bo‘lgan bo‘lsa, shu muddat ichida tashkilot 150 dan ziyod mamlakatda fuqarolarning haq-huquqini ta’minlanishini o‘rganish orqali butun mamlakat siyosati va davlat tuzumining ahvoli haqida xulosalarini e’lon qilib kelmoqda. Bu tahlillar qay darajada haqqoniy? Ular qaysi mezonlar aosida baholashni amalga oshiradi?

Freedom House har yili 100 dan ortiq tahlilchi jamoa va 40 dan ziyod maslahatchi ishtirokida mamlakatlar reytingini tuzadi. Reyting tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan aniq baholash tizimi talablari asosida shakllantiriladi.

ISSN 2181-8274

Jumladan, tashkilot tadqiqotlarni ikki darajali tizimda baholaydi: baholash va o‘rinlarni belgilash. Jarayonda ishlatiladigan maxsus savollarning to‘liq ro‘yxati ballarni hisoblash uchun yordam bersa, maxsus jadvallar mamlakatlar darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Erkinlikni global miqyosda kengaytirish va himoya qilish” [2] deya o‘z missiyasini belgilagan tashkilot rasmiy saytida reyting ko‘rsatkichlaridagi vaziyat hisobot davriga qadar muntazam berib boriladi.

Reytingni belgilashda beriladigan baholar — mamlakatda siyosiy huquqlarning 10 ta ko‘rsatkichi va fuqarolik huquqlarining 15 ta ko‘rsatkichi bo‘yicha 0 dan 4 ballgacha qo‘yiladi. 0 ball eng kam erkinlik darajasi, 4 ball esa eng yuqori erkinlik darajasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatkichlarni chuqurroq tahlil qilamiz. Siyosiy huquqlarning ta’minlanganligini baholash uchta kichik toifaga birlashtirilgan: saylov jarayoni (3 savol), siyosiy plyuralizm va ishtirok etish (4 ta savol) va hukumat faoliyati (3 ta savol).

Fuqarolik huquqlarining ta’minlanganligi to‘rtta kichik toifaga birlashtirilgan: so‘z va e’tiqod erkinligi (4 ta savol), jamoat tashkilotlari huquqlari (3 ta savol), qonun ustuvorligi (4 ta savol) va shaxs daxlsizligi va shaxsiy huquqlar (4 ta savol).

Siyosiy huquqlar bo‘limida majburiy demografik o‘zgarishlarga oid qo‘shimcha ixtiyoriy indikator ham mavjud. Ixtiyoriy savol uchun, vaziyatga qarab, 1 dan 4 gacha bo‘lgan balni olib tashlash mumkin.

Siyosiy huquqlar uchun berilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori umumiy ball 40 (yoki 10 ta savolning har biri uchun 4 ball). Fuqarolik erkinliklari uchun berilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori umumiy ball 60 (yoki 15 ta savolning har biri uchun 4 ball). Avvalgi ko‘rsatkichlar baholar ko‘rib chiqilayotgan yil uchun qo‘llanma sifatida ishlatiladi. Baholash odatda yil davomida pasayish yoki yaxshilanishni talab qiladigan haqiqiy voqealar sodir bo‘lgan taqdirdagina o‘zgaradi (masalan, ommaviy axborot vositalariga qarshi repressiyalar, mamlakatdagi birinchi erkin va adolatli saylovlar).

Erkin, qisman erkin, erkin bo‘lmagan maqom-siyosiy huquqlar uchun berilgan umumiy ball va fuqarolik erkinliklari uchun berilgan umumiy balning jamlanmasi orqali chiqariladi.

Freedom House reytingni belgilashda mutaxassislar jamoasi, xodimlar o‘rganishlari natijalaridan tashqari, mahalliy vakillar bilan ham hamkorlik qiladi. Buning uchun 100 dan ortiq intervyularni o‘tkazadi[3]. Quyida Freedom House belgilaydigan umumiy yo‘nalishlarning har birini alohida tadqiq etamiz.

Tashkilot tahlil qiladigan birinchi yo‘nalish **saylov jarayoni** bo‘lib, bu masala doirasida amaldagi davlat rahbari yoki amaldorning fuqarolar tomonidan erkin va shaffof holda tanlanishi, saylov jarayonlarini maxsus komissiyalar hamda xalqaro ekspertlar kuzatib borishi, saylovdagi teng huquqlik, saylov jarayonida qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yilmaslik, saylovda hamma o‘zi uchun ovoz berishi, saylov jarayonida boshqaruv organlari tomonidan tazyiqlar bo‘lishi, referendumning to‘g‘ri tashkil etilishi haqida savollar taqdim etiladi va javoblar to‘planadi.

Status	Political Rights score						
Civil Liberties score	0-5*	6-11	12-17	18-23	24-29	30-35	36-40
53-60	PF	PF	PF	F	F	F	F
44-52	PF	PF	PF	PF	F	F	F
35-43	PF	PF	PF	PF	PF	F	F
26-34	NF	PF	PF	PF	PF	PF	F
17-25	NF	NF	PF	PF	PF	PF	PF
8-16	NF	NF	NF	PF	PF	PF	PF
0-7	NF	NF	NF	NF	PF	PF	PF

Siyosiy plyuralizm va unda ishtirok etish. Bu bo‘yicha ko‘rsatkichlarni aniqlashda esa siyosiy yig‘inlar tashkil etish, mustaqil siyosiy tashkilotlar faoliyati va saylovlarda o‘z oppozitsiyasini ko‘rsatish, xilma-xillika (diniy, jinsiy, etnik) ega insonlar saylovlarda qatnasha olishi, ularga hech qanday qarshiliklar bo‘lmasligi, irqchilik, mahalliychilikka yo‘l qo‘yilmasligi, ayollar jamoasi va qo‘mitalariga erkinlik berishga katta ahamiyat qaratiladi.

Hukumat funksiyasi — bu yo‘nalishda hukumat rahbarining saylovlar orqali xalq tomonidan tanlab olinishidan tortib, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash, davlatning har qanday masalada fuqarolarga ochiqligi, fuqarolar tegishli idoralar, jurnalistlar va kasaba uyushmalari tomonidan himoya qilinishi, aholining etnik hamda hududiy daxldorligiga davlat tomonidan zarar yetkazmasligi masalalari tahlil qilinadi [4].

So‘z erkinligi va e’tiqod — mazkur ikki baholash indikatori bir o‘rinda qo‘llanilishining asosiy sababi ko‘plab mamlakatlarda jurnalistlar xavfsizligi, fuqarolarning OAV ga bo‘lgan ishonchi, axborot tarqatishda ularga qilinadigan xavf-xatarlar diniy erkinlik bilan bir xil darajada katta xavf-xatarga egaligidadir.

Assotsiativ va tashkiliy huquqlar — bunda mamlakatda tashkil turli tashkilot va korxonalarga tashqi bosimlar, faoliyatiga to‘siqlar, davlat tomonidan tazyiqlar, ularning kiberxavfsizligi bilan bir qatorda ishchilar haq-huquqlari ham tahlil qilinadi. Tashkilotlardagi jins, irq, fuqarolik masalalari ham aynan mana shu bo‘limda o‘rganiladi.

Freedom House o‘rganadigan barcha masalalarning negizida qonun ustuvorligi turadi. Aynan shu yo‘nalishdagi tadqiqot anchayin keng va murakkab hisoblanadi. Tashkilot tayyorlaydigan so‘rovnomaning bu qismida mahalliy jinoyatchilik, davlatning kuch ishlatar tizimlari, shaxsiy,

siyosiy huquqlarning buzilishi, turli xil jazolar, tahdidlar, ruhiy hamda jismoniy tahdidlarning yuzaga kelishi, jamiyatdagi ayirmachilik, fuqaroligi yo‘q shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan choralar, mahalliy nomutanosiblik uchun choralar ko‘rilishi yoki ko‘rilmasligiga doir savollar taqdim etiladi. Bu esa o‘z o‘rnida shaxsiy huquqlarga borib taqaladi. Shaxsiy huquqlar doirasida fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning shaxsiy daxlsizligi — ko‘chish, mol-mulkka egalik qilish, ularning ta’lim olishi, biznes boshlashi, oila qurishi, juft tanlashi, jinsini o‘zgartirish, ajrimlari, aliment to‘lovlari, boshqa dinni tanlashi, shaxsiy ehtiyojlariga bo‘ladigan qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ish jarayonidagi tuziladigan shartnomalar, sug‘urta, ishxona tomonidan sug‘urta qilinishi bilan bir qatorda noqonuniy faoliyat turlariga doir masalalar ham aynan shu yo‘nalishda o‘rganiladi.

Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ekspertlar, mahalliy hamkorlar va maslahatchilar fikrlari o‘rganilib, ma’lumotlar to‘plangach, Freedom House yillik hisobot va monitoringni e’lon qiladi.

Tashkilotning “O‘chirilmaydigan yorug‘lik: surgundagi jurnalistika va transmilliy repressiyalar” hisobotida aytilishicha, 2014 va 2023-yillar oralig‘ida Belarus, Kambodja, Xitoy, Eron, Pokiston, Rossiya, Saudiya Arabistoni va Turkiya kabi 26 davlat hukumatlari tomonidan jurnalistlarga qarshi kamida 112 ta transmilliy repressiyalar sodir etilgan. Jismoniy hujumlar, noqonuniy deportatsiyalar, hibsga olishlar, ekstraditsiya, raqamli ta’qiblar va oila a’zolariga qarshi repressiyalar avtoritar rejimlar tomonidan surgunda ishlaydigan jurnalistlarni ta’qib qilish uchun qo‘llaniladigan taktikalar qatoriga kiradi.

Global Internetdan foydalanish erkinligi reyting ko‘rsatkichlari 9 xil toifa insidentlari bo‘yicha shakllantirilgan:

- ijtimoiy tarmoqlar yoki kommunikatsiya platformalari bloklangan;
- siyosiy, ijtimoiy yoki diniy kontentga to‘siq qo‘yilgan;
- AKT tarmoqlari qasddan buzilgan;
- hukumatparast izohchilar onlayn muhokamalarni manipulyatsiya qilgan;
- senzurani kuchaytiruvchi yangi qonun yoxud normativ huquqiy hujjat qabul qilingan;
- kuzatuvlarni kuchaytiruvchi yoki anonimlikni cheklovchi yangi qonun yoxud normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan;
- internetda siyosiy yoki ijtimoiy kontent yaratgan bloger yoki tarmoq foydalanuvchisi hibsga olingan;
- bloger yoki tarmoq foydalanuvchisi jismoniy hujumga uchragan;
- hukumat tanqidchilari yoki inson huquqlari tashkilotlariga texnik hujumlar bo‘lgan.

Reytingni 100 balldan 96 ball to‘plagan Islandiya boshqarib turibdi. Yuqori beshlikda Estoniya, Kanada, Kosta-Rika, Tayvan ham bor.

Freedom House faqatgina tahlil yoki kuzatuvlar bilan cheklanib qolmaydi, u aniqlangan muammolarning yechimi uchun ham harakatlar majmuini ishlab chiqadi. Xususan, tashkilotning eng katta maqsadi hisoblangan **Demokratik o‘zgarishlar tarafdorlarini qo‘llab-quvvatlash va ularni himoya qilish** hisoblanadi. Shu sababli ham u barcha mamlakatlarning demokratiyaning asosi bo‘lgan fuqarolarning huquqlarni himoya qilishda faol bo‘lgan, siyosiy mahbuslar, jurnalistlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ularga yordam beradi.

Ayniqsa, tashkilot *so‘z erkinligi, diniy erkinlik, erkin va mustaqil matbuot erkinligi, hukumatga murojaat qilish erkinligi, tinch yig‘inlar va mitinglar o‘tkazish erkinligi,* umuman, **inson huquqlarining ta’minlanishi** himoyasi borasida 100 dan ortiq dasturlari mavjud.

Biz Freedom House tashkilotining rasmiy saytidagi ma’lumotlar asosida 2024-yilda mamlakatlarning reytingdagi o‘rnini tahlil qilib ko‘rdik. *Global erkinlik indeksi*da davlatlarning o‘rni quyidagi 3 darajada belgilangan ranglar asosida qayd etilgan. Xususan, sariq – qisman erkin, yashil – erkin, siyohrang – erkin bo‘lmagan.

E’tiborimizni tortgan jihat 2023-2024-yilgi natijalarga izoh sifatida keltirilgan faktlar 2017-2018-2022-yilgi mamlakatdagi vaziyatlarni keltirish bilan kifoyalanilgan. 2024-yilgi berilgan ballar nisbatiga izoh keltirilmagan. Reytingning baholash indikatorlari o‘rinli bo‘lsa ham tahlil va o‘rganishlarni olib borayotgan mutaxassislar malakasi, ularning xolisligi masalasi bizda navbatdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://constitution.uz/oz/site/search?q=art&page=4
2. Freedom House rasmiy sayti // https://freedomhouse.org/about-us
3. Freedom House rasmiy sayti// https://freedomhouse.org/sites/default/files/2020-02/Freedom_in_the_World_2012_complete_book.pdf
4. Freedom House rasmiy sayti //https://freedomhouse.org/sites/default/files/2024-02/FIW_2024%20MethodologyPDF.pdf
5. Freedom House rasmiy sayti //https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2024
6. Freedom House rasmiy sayti //https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2024#CL
7. Freedom House rasmiy sayti // https://freedomhouse.org/country/uzbekistan
8. Freedom House rasmiy sayti // https://freedomhouse.org/country/kyrgyzstan/freedom-world/2024
9. Freedom House rasmiy sayti // https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2023
10. Freedom House rasmiy sayti // https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2023

ТАЛАБА ЁШЛАРДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШ МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Абдусалим Кенжабоев,
Термиз давлат университети доценти, п.ф.н.

Аннотация

Ушбу мақолада талаба ёшларда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришни инновацион муҳит шароитида амалга ошириш билан боғлиқ муаммоларга ҳақида фикр юритилган. Шунингдек касбий таълим тизимида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш усуллари ва воситалари таъсир этувчи олимлар тавсифи келтирилган. Талаба ёшларда мустақил фикрлаш маданиятини шакллантиришда устоз-шогирд муносабатларининг аҳамияти ўрганилиб, бу муносабатлар учун муҳим мақсадларни, меъёрларни таъминлаш ва талабаларни таълим ва тарбиялаш процессига содиқ қўллантиришни ёритади. Шунингдек, улар муносабатларни ёнгинлик, таҳаммул ва биргалик билан мулоқотдан қутулишни ёритади.

Калит сўзлар: *инновацион фаолият мантиқий фикрлаш, мантиқий фикрлаш, интеллектуал қобилият, баҳолаш, психологик адаптация ижодий жараён “устоз шогирд” тизими.*

Аннотация

В статье рассмотрено формирования самостоятельного мышипенинния у студентов-молодежи в иннованних условиях. Предстявлена классификация методов, средств условий, факторов воздействия на культуре самостоятельного мышления в системе образование. Изучено значение взаимоотношений наставника и ученика в формировании культуры самостоятельного мышления у студенческой молодежи, освещены важные цели и стандарты этих взаимоотношений и добросовестного применения процесса обучения и воспитания учащихся. Они также освещают отношения огнем, терпимостью и единением, чтобы избавиться от общения.

Ключевые слова: *Инновационная деятельность, логическое мышления, самостоятельное мышления, интеллектуальная способность, анализ, оценивание, психологическая адаптация, творческий процесс, профессиональная культура, система “Наставник студентов”.*

Annotation

The article deals witle issues related to development of youtli independent thinhing in innovation atmosfhere. Itprovedes clasification methods, conditions, faktors which infenlnence the culture of independent thinking in education system. The importance of mentor-student relationship in forming a culture of independent thinking among young students is studied, and it illuminates the important goals and standards for this relationship and faithful application of the process of education and upbringing of students. They also illuminate relationships with fire, tolerance and togetherness to get rid of communication.

Keywords: *Innovation activity, logucal thinhing, independent thinking, intelectual ability, analyses, assessment, psychological adaptation, creative process, professianal culture. “Master-apprentice” system.*

Жамиятда ҳар бир касбнинг амалдаги ижроси алоҳида ёндашувни ва касбий фаолиятнинг у ёки бу функционал вазифасига кўра махсус такомиллаштиришни талаб этади. Педагогик фаолиятда (ўқитувчи фаолияти), (талаба фаолияти)да мустақил фикрлаш маданиятига алоҳида талабалар қўйилади. Ҳар бир ўқитувчининг мустақил фикрлаш даражаси ўқувчи ва талабаларнинг ҳам мустақил фикрлашни юзага келтирадиган асосий омилдир. Инновацион фаолияти- янги ижтимоий талабалар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги. Анъанавий янгиланаётган меъёрларнинг мавжуд меъёрлар тўқнашуви натижасида вужудга келган мажмуали меъёрларни учишга қаратилган фаолиятдир.

Бугунги кунда дунё миқёсидаги глобаллашув, интеграциялашув модернизация жараёни ёш авлодга кечаги анъанавий таълим шакллари, методлари ва воситалари билан билим бериш ҳамда тарбиялаш мумкин эмаслигини кўрсатмоқда. Шиддат билан ривожланаётган замонавий техника ва технологиялар ҳақида чуқур билимга, малака ҳамда кўникмаларга чанқоқ ёшларнинг эҳтиёжларини қондириш учун педагог кадрлар нафақат ўз фанини чиқур билиш, балки, ноанъанавий таълим тарбия технологияларидан, усулларидан кенг фойдаланишлари талаб этилади [2, 63]. Ушбу ҳолатлар “Инноватик” ва инновация тушунчалари билан боғлиқ. Биламизки “инновация” янгилик ва уни муайян жараёнга олиб кириш, татбиқ этиш маъносини янгилатади, инновацион муҳитни яратиш орқали илмий изланишларга шароити яратилади. “Устоз-шогирд” тизимида талабалар илмий фаолиятини самарадорлигини таъминлаш учун барча бўғинлардаги ишларни такомиллаштириш ҳамда ижодий ва инновацион муҳит яратиш лозим. “Устоз-шогирд”лик муносабатлари Олий ўқув юртларида олиб бориладиган машғулотларда маърузаларда, семинарларда, амалий машғулотларда, дарсдан ташқари маънавий-маърифий тадбирларда талабаларни устоз ўзига жалб қилиши — “устоз-шогирд” тизимида ишлар талабанинг илмий фаолиятига жалб этилган талабалар хилма-хил маърузаларни тинглаб устозлар билан илмий мулоқотлар натижасида талабаларнинг илмий тафак-

кури ривожланади ва нутқи, муомала маданияти мустаҳкамланади.

Таълим тизимидаги инновацион таълим ҳақида фикр юритсак ҳар қандай янгилик инновация бўла олмайди. Шу сабабли “новация” ва “инновация” тушунчалари ўртасидаги асосий фарқларни кўрсатиб ўтиш зарур. Бунинг учун ислоҳот фаолиятининг аниқ шакли, мазмуни ва кўлами асос бўлиб хизмат қилади. Тарбия жараён сифатида тарбиячи ва тарбияланувчилар, таълим-тарбия жараёнида ўқитувчилар ва ўқувчилар, ота-оналар, жамоатчилик ва жамоалар билан ўзаро муносабатлардан иборат. Тарбия иккиёқлама жараён тарзида тарбиявий муносабатларсиз амалга ошмайди. Бу муносабатлар жараёни иштирокчилари индивидуал онги ва иродасига боғлиқ бўлмай, улар ўзаро муносабатда тарбия жараёнининг субъект ва объектларига айланиб, ижтимоий муносабатларнинг алоқадорлигини ташкил этади [2, 63].

Агар фаолият қисқа муддатли бўлса ва яхлит тизими хусусиятига эга бўлмаса, ўз олдига муайян тизимдаги фақат баъзи элементларини қўйган бўлса, у ҳолда биз “новация” билан мулоқот қилаётган бўламиз. Агар фаолият маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилаётган бўлса ва унинг натижаси ўша тизим ривожланишга ёки унинг принципиал ўзгаришга олиб келсагина “инновация” дея оламиз.

Инновацияни амалиётга киритишни инновацион жараёнларда амалга оширилади. Инновацион жараён деб, инновацион ўзгаришларга тайёргарлик кўриш ва уни амалга ошириш жараёнига айтилади. И.Т.Подлаций педагогик тизимда инновацион ўзгаришларнинг йўналишларини ўрганиш асосида қуйидагиларни белгилаб беради:

– педагогик тизимнинг тамомила ўзгариш;
– ўқув жараёнининг ўзгариш;
– педагогик назариянинг ўзгариши;
– ўқитувчи фаолиятининг ўзгариши;
– таҳсил олувчи фаолиятининг ўзгариши;
– педагогик технологиянинг ўзгариши;
– мазмуннинг янгиланиши;
– шакл, усул ва таълим воситаларининг ўзгариши;
– бошқарувнинг ўзгариши [5, 59].

Устоз ва шогирд фаолиятидаги мулоқот маданияти юқоридаги кўрсатилган инновацион фаолиятнинг мақсад вазифалари асосида ташкил этилса кутилган натижаларга эришиш мумкин. Инновацион муҳитбу педагогик жамоада, умуман таълим муассасасида шундай ижодий, самимий дўстона шароит туғдирадики унда ўқитувчи (устоз)ўзини эркин ҳис қилади. Жамоада ички интилиш, моддий маънавий қизиқиш юқори даражада акс этади. Бундай муҳитда устоз ижодий фикр юритишга, интилишга тайёр бўлади. Таълим жараёнида муаммоли ҳолат ишлайдиган ривожлантирувчи таълим методи касбий фаолият жараёнида юзага келадиган масалаларга ўхшайди. Бироқ касбий масаладан фарқли ўлароқ ўқув масаласига ечимига аниқ йўл билан борилмайди. Бир-бирига ўхшаш бўлган бўлган масалаларнинг барчаси учун битта умумий ечим изланади. Бундай ечим ўқув шаклларини тушуниш, таҳлил қилиш унинг умумий қирраларини аниқлаб, хусусий муносабат келтириб чиқариш, қарашларни яхлит объектга йўналтириш жараёнида фикран ўртага олинаётган объект тасвирини яратишнинг умумий усулидан иборатдир [2, 65]. Бундай аналитик –синтетик жараён устоз ва талаба орасида субъектив муносабат пайдо қилади. Субъектив муносабат эса, мустақил фикрлаш маданияти ривожини процессуал жиҳатдан таъминлаб қуйидаги босқичларни ўзига олади:

– тайёргарлик босқичи-машғулот мақсадлари, ўқитиш усуллари ва шаклларни аниқлаш, ўқув материали мазмунини ташлаш ва тизимга солиш, амалий кўникма шаклланишига йўналтирилган мустақил ишлар, савол-топшириқлар тизимини ишлаб чиқиш ва ҳ.к.

– ўқитишни ташкил этиш ташкилий, коммуникатив, диагностик фаолият воситасида умум касбий фанлар мазмунини ўрганиш, мавзулар юзасидан мураккаблик даражаси турлича бўлган масала топшириқларни бажариш, талабанинг устоз ва гуруҳдаги ўртоқлари билан ҳамкорлик қилишга эришиш ва ҳ.к.

– аналитик баҳолаш-ўқитиш натижаларини таҳлил қилиш, ўзини-ўзи таҳлил қилиш ва ўзини ўзи баҳолаш. Кўринадики, мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий таъминот талаб шахсининг интегратив педагогик ва ижтимоий маданий компонентидир. У қарашлар диалогида фаол ўқитиш муҳитини яратади. Сермаҳсул ижодий мулоқотни кўзда тутади. Олий таълим тизимида хусусан бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида назарий амалий муаммоларни ҳал қилишда уларда қарор топиб улгурган фикр шакллари типлари ва усулларини мақсадга йўналтирган ҳолда кўплаб, мустақил фикрлаш жараёнини йўлга қўйиш бўлажак мутахассисларда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг асосини ташкил этади. Олий таълим тизимида мустақил фикрлаш маданиятларининг намоён бўлиши мезонлари қуйидагиларда ўз аксини топади.

– интеллектуал қобилиятнинг ривожланишига ёрдам берадиган асосий психологик жараёнлар юзасидан ўзининг шахсига алоқада психологик хусусиятларини билиш [2, 64];

– фикрий фаолиятига жараёнлари ва усулларни эгаллашлилик даражаси ҳамда уларни ўқув-билув фаолиятига қўллай олиш;

– фикрни ривожлантириш усулларини ҳар қандай шароитда амалга ошира олиш;

– юқори даражада ривожланган фикр қобилиятларидан фойдалана олиш;

Устоз-шогирд таълим-тарбия тизимида мутахассисларни мустақил фикрлаш маданиятининг сама-

рали ривожланиш жараёнига доир шарт-шароитлар қуйидагилардан иборат:

– ижтимоий психологик мослашиш-ўқув гуруҳ, курси, факультетга мослашуви ва улар билан ўзаро муносабати;

– шахснинг билим ва эмоционал;

– идоравий фазилатларининг ривожланиши (атроф, муҳит ва ижтимоий муҳит таъсирларини эмоционал идоравий қабул қилишнинг мураккаблашуви);

– шахс фаолиятининг мақсад қўйиш қобилияти, жараёнлар ва усулларни ишлаб чиқиш, вазифаларини режалаштириш мотив ва мақсад орасидаги муносабатларни ўз ихтиёрига кўра ўрнатиш, ўз-ўзини назорат қилиш ва ўзлаштириш фаолиятларида намоён бўладиган психологик тизимнинг ривожланишидир.

Замонавий таълим тизими ўзининг ўтмиши, тарихи ва халқимизнинг бой маънавий мероси урф-одатлари ва қадриятларини давом эттириш асосида ривожланмоқда. Ёшларни мустақил фикрлаши устоз-шогирд муносабатларида фикрлаш доирасида ўтмиш ҳақида бой маданий меросимиз ҳақида тўлиқроқ суҳбатлар ташкил этса, кўпроқ нотиқлик санъатини ривожланишига омил бўлади. Хулоса ўрнида мустақил фикрлаш маданиятини қуйидагича ифодалаш мумкин:

– инсон тафаккурининг мазмундорлиги шахсининг муаммо моҳиятига кириб бориши асосий фикрни бошқасидан ажрата олиши, айрим муаммолар ҳақида фикр юрита олиш, унинг мантиқий фикрлаш қобилиятига боғлиқдир;

– тафаккурнинг фаоллиги муаммони ҳам этишига қаратилган тиришқоқликнинг мавжудлигида намоён бўлади;

-фикрлаш жараёнини танқидийлиги муаммони ҳал этишда фаолият усулининг тўғри танланганлиги, фаолиятини бошқара олиш унда муомала меъёридан тўғри фойдаланиш, эришилган натижаларнинг қанчалик тўғри эканлигини таҳлил қилиш;

Шундай қилиб таълим муассасаларида ҳамда педагогик фаолиятдан компетентлик асосида ташкил этилган суҳбатларда, учрашувларда “Устоз-шогирдлик” муносабатларини инновацион ғоялар асосида ташкил этилса шогирдларнинг маънавий, ахлоқий дунёқараши ривожланади ва нутқ маданияти такомиллашиб боради, ўз фикр мулоҳазаларини мустақил, эркин асосланган ҳолда ифодалайдилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Мирзиёев Ш.М. “Биз келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз”. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б

2. Абдуллаева Ў.И.. “Ҳамкорлик педагогикаси ва унинг воситасида устоз-шогирд анъаналарини ривожлантириш” Современное образование (Узбекистан), no. 4, 2017. – 61-67 б.

3. Абдуллаева, К.Ф., and Ш.Т. Тошова. “ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ.” Вопросы педагогики 4-1 (2019). – 8-11 с.

4. Кенжабоев, А.Э., and Ж.А. Кенжабоев. “ПРИЕМЫ, СПОСОБЫ И СРЕДСТВА АКТИВИЗАЦИИ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЯХ.” Вопросы педагогики 5 (2017). – 25-27 с.

5. Подласий И.П. Педагогика: Учебник. – М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.

KIMYOVIY TAJRIBALAR MAKTAB O‘QUVCHILARINING FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Dildora Sarimova,
Toshkent viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada kimyoviy tajribalar maktab o‘quvchilarining faolligini shakllantirish omili sifatida qalamga olingan. Ta’kidlanishicha, kimyoviy eksperimentdan foydalanish hayot haqiqatiga yaqin muammoli vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, vaziyatni real baholash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quvchilarni moddalar dunyosi bilan tanishtiruvchi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradigan eng qisqa yo‘lni taqdim etadi. O‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni hal qilish, obyektlar, tushunchalar, hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashni o‘rganadilar va bunday mashg‘ulotlar natijasi sifatida ijtimoiy va ijodiy faoliyat qobiliyat elementlarini shakllanadi.

Kalit so‘zlar: *kimyoviy tajriba, gipoteza, faollik, muammoli vaziyatlar, real baholash qobiliyati, moddalar dunyosi, eksperimental topshiriq.*

Аннотация

В статье химические опыты описаны как фактор формирования активной позиции школьников. Отмечается, что использование химических экспериментов помогает создать проблемные ситуации, приближенные к реальности жизни, развивает способность реалистично оценивать ситуацию, знакомит учащихся с миром веществ, дает кратчайший путь совмещения теоретических знаний с практикой. Учащиеся учатся решать жизненные ситуации, выявлять связи между предметами, понятиями, событиями и в результате такого обучения формируются элементы навыков социальной и творческой деятельности.

Ключевые слова: *химический эксперимент, гипотеза, деятельность, проблемные ситуации, способность реалистической оценки, мир веществ, экспериментальная задача.*

Annotation

In the article, chemical experiments are written as a factor in forming the active approach of schoolchildren. It is noted that the use of chemical experiments helps to create problem situations close to the reality of life, develops the ability to realistically assess the situation, introduces students to the world of substances, and provides the shortest way to combine theoretical knowledge with practice. Pupils learn to solve life situations, identify connections between objects, concepts, events, and as a result of such training, elements of social and creative activity skills are formed.

Keywords: *chemical experiment, hypothesis, activity, problem situations, realistic assessment ability, world of substances, experimental task.*

Maktabda o‘qitiladigan kimyo o‘quvchilarni o‘quv fani asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy qonuniyatlar, nazariyalar, umumkimyoviy tushunchalar va atamalar bilan tanishtirish barobarida o‘quvchi shaxsining barkamolligini ta’minlashga muayyan hissa qo‘shadi va kurs mazmuni bilan bog‘liq holda o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkillantirish va boshqarish imkonini beradi.

Kimyo o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi o‘quvchilarga o‘quv fanlari bo‘yicha DTS bilan me’yorlangan bilim berish, rivojlantirish, tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishi, mustaqil hayotga tayyorlashga ko‘mak beruvchi o‘quv fanlar mazmuni, o‘qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Hozirgi vaqtda maktab o‘quvchilari egallagan bilim miqdori va kasbiy ko‘nikmalarni egallash darajasidan tashqari, olingan bilim va ko‘nikmalardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishi, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish qobiliyati, guruhda ishlash, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish qobiliyati o‘z-o‘zini o‘rganish va rivojlantirish ko‘nikmalariga ega o‘z harakatiga real baho bera oladigan faol shaxs bo‘lishi kerak.

Kimyo eksperimental fan sifatida kimyoviy tajribaga asoslanishini talab qiladi, bu bilim manbai bo‘lib, o‘quv materialining sifati va ko‘nikmalarni shakllantirish, gipotezalarni taklif qilish va tekshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash vositasi, nazorat qilish usuli hisoblanadi. Tajriba bilim manbai sifatida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, mavhum fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, kimyoviy eksperiment orqali asosiy didaktik tamoyillardan biri — o‘qitishdagi aniqlik amalga oshiriladi. O‘quvchining ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi uchun, o‘qituvchi esa o‘quvchining bilish faoliyatining tashkilotchisi bo‘lishi uchun sharoit yaratish kerak. Axir, har qanday o‘quv fanini o‘rganish maqsad emas, balki shaxsiy rivojlanish vositasidir.

Mazkur maqolada kimyoviy tajribalar maktab o‘quvchilarining faolligini shakllantirish omili sifatida

o‘rganilgan. O‘quvchilar kimyoviy laboratoriyada amaliy ish ko‘nikmalarini egallashi va tajriba o‘tkazish texnikasini yetarlicha o‘zlashtirishlari, kimyoviy eksperiment o‘tkazilganda xavfsizlik talablari tufayli o‘quvchilar ma’lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Rus olimi M.V.Lomonosov eksperimentning kimyo o‘qitishdagi o‘rni haqida ham shunday yozgan edi: “Amaliyotning o‘zini ko‘rmasdan, kimyoviy amallarni bajarmasdan turib kimyoni hech qanday tarzda o‘rganish mumkin emas” [1, 13].

D.I.Pysarev esa, kimyoni laboratoriyasiz kitobdan o‘rganish umuman o‘qimaganlik bilan barobar ekanligini ta’kidlagan [2].

Г.М.Чернобельская aytganidek, kimyo qonuniyatlari, tushunchalar, moddalarning xossalari, ularni hosil qilishni tajribalarga asoslangan holda o‘rganish fanni yanada mukammal tadqiq qilishga imkon beradigan omil ekanligini anglash qiyin emas [3]. Kimyo fanidan aniqlangan ko‘plab nazariy qonuniyatlarning ochilishi aynan aniq izchillik bilan muayyan maqsadni ko‘zlab amalga oshirilgan tajribalarning natijasidir.

N.G‘.Rahmatullaev, H.T.Omonov va Sh.M. Mirkomilov tomonidan “maktab o‘quvchilarining faol bilim faoliyati davomida o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan kimyoviy moddalarni, ularning o‘zgarishi va bog‘lanishlarini butun sinf oldida ko‘rsatishga asoslangan o‘qitish usuli” [4, 66] sifatida shakllantirilgan.

Kimyo eksperimental fan bo‘lib, u doimo ko‘rgazmali eksperiment bilan birga o‘qitiladi. Kimyoviy tajriba o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vositalaridan biri sifatida o‘quvchilar nazariya va gipotezalarning tasodifan paydo bo‘lmasligiga, ular ko‘pincha tajriba yo‘li bilan olingan yangi faktlar asosida yaratilishiga ishonch hosil qiladi.

Ko‘pincha kimyoviy tajribani ko‘rsatish uchun reagentlar yoki jihozlar yetarli emas, shuning uchun laboratoriya ishlarini nazariy ko‘rib chiqish yoki butun sinf uchun bitta tajriba o‘tkazish kerak. Shuning uchun ta’lim berish asosida bilim manbai, farazlarni ilgari surish va tekshirish, bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilish vositasi sifatida kimyoviy tajriba yotadi.

Tajribaning asosiy pedagogik g‘oyasi o‘quv materialini o‘zlashtirish va uni kimyo darsida anglash, o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, muammoli masalalarni izlash va yechishga quvonch bilan yondashish bo‘ladi. Bunday holda, o‘qituvchiga haqiqatga yaqin sharoitlarda eksperiment o‘tkazish imkonini beradigan kimyoviy laboratoriyalar yordam beradi. Shuningdek, zaharli moddalarni, xususan, galogenlarni o‘rganishda muhit o‘quvchilarning sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmasdan kimyoviy tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi [5].

Kimyoviy eksperimentdan foydalanish hayot haqiqatiga yaqin muammoli vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, ularni hal qilish uchun o‘quvchilar barcha bilim, ko‘nikma va tajribalarini safarbar qiladilar. Kimyoviy tajriba kundalik hayotda va atrof-muhitda ekologik jihatdan barkamol xatti-harakatlar ko‘nikmalarini shakllantiradi, vaziyatni real baholash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quvchilarni moddalar dunyosi bilan tanishtiruvchi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradigan eng qisqa yo‘lni taqdim etadi.

Kimyo o‘qitishda faolligini shakllantirishda o‘qituvchining roli katta. Maktab kimyoviy tajribasi o‘ziga xos ko‘rgazmali quroldir. O‘quvchilar tajribasida aqliy va amaliy faoliyatning uyg‘unligi mavjud. Shu bilan birga, tajribalar o‘tkazish o‘quvchilarni kimyo fanining tadqiqot usullari bilan tanishtirishga imkon beradi.

Tadqiqotda ijodiy ishtirok etish o‘quvchining bilim olishga qiziqishini oshiradi, tafakkurini faollashtiradi.

Kimyoviy eksperimentlar o‘tkazishdan asosiy maqsad o‘rganilayotgan hodisaning mohiyatini, uning asosiy qonuniyatlarini tushunishdan iborat bo‘lib, tajribani uslubiy jihatdan malakali bajarish uning professionalligining belgisidir. Tajribalar murakkab uskunalarni talab qilmaydigan, xavfsiz va samarali bo‘lgan tanlanishi kerak. O‘quvchilar qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini aniqlash uchun o‘qituvchi birinchi navbatda barcha tajribalarni o‘zi bajarishi kerak. Eksperiment natijalarini obyektiv baholash uchun o‘quvchilarga hisobotning shakli va mazmuniga aniq va tushunarli talablar qo‘yilishi kerak.

Amaliy va laboratoriya ishlariga kichik ijodiy topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, kumush nitrat yordamida galogenidlarni aniqlash nafaqat laboratoriya eritmasida, balki oddiy musluk va mineral suvda (masalan, yodlangan) ham tekshirilishi mumkin, organik birikmalarning xususiyatlarini, turli funksional guruhlarga sifatli reaksiyalarni amalga oshirish, aminokislotalarni, sut kislotasini temir tuzlari yordamida aniqlash terini yuvishda taqqoslash uchun amalga oshirilish, oziq-ovqat obyektlarida kraxmal, laktoza, glyukoza aniqlanishi mumkin.

O‘quvchilarga boshqa reagentlar, boshqa obyektlar va shartlar to‘plami uchun o‘xshash vazifani echish algoritmini yaratishni so‘rash mumkin. “Aralashmalar” mavzusidagi dars davomida o‘quvchilarga tanlash uchun amaliy topshiriq taklif qilindi, “Ma’lum konsentratsiyali eritma tayyorlash” amaliy ishida choydagi qand eritmasi tayyorlandi, karbonat ionini aniqlash marmar, qobiq, tuxum qobig‘i, yod eritmasi yordamida kraxmalni aniqlash ko‘plab oziq-ovqat obyektlarida amalga oshirildi. Qoida tariqasida, bunday vazifalar o‘quvchilarni sog‘liqni saqlash, atrof-muhit va ishlab chiqarish-maishiy muammolarni hal qilishda olgan bilimlarini qo‘llashga majbur qiladi.

Ta’kidlash kerakki, o‘quvchilar tomonidan og‘zaki bilimlarni tekshirish paytida deyarli unutilgan tajribalar o‘tkazish amaliyoti va o‘qituvchining topshirig‘i bo‘yicha

o‘quvchi tomonidan butun sinf oldida bajariladigan o‘quvchilarning ko‘rgazmali eksperimenti qayta tiklanishi kerak. Shu tariqa, tajribani qayta-qayta bajarish yoki kuzatish orqali o‘quvchilar ko‘rgazmali yoki laboratoriya tajribasida olgan bilimlarini to‘ldiradi.

Tadqiqot ko‘nikmalarini egallash eksperimental muammolarni hal qilishda yuzaga keladi. O‘quvchilar muammoni shakllantirish, gipoteza taklif qilish, tajriba rejasini ishlab chiqish, zarur reagentlar va jihozlarni tanlash, asboblarni yig‘ish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tuzish va xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Eksperimental vazifalar ajratib olish, tanib olish, moddalarning sifat tarkibini aniqlash, ma’lum bir kimyoviy reaktsiya paytida kuzatilgan hodisani tushuntirish bo‘lishi mumkin. Pedagogik dasturiy ta’minot, video yozuvlardan haqiqiy kimyoviy eksperiment bilan birgalikda foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda kimyo dasturining amaliy qismini amalga oshirish texnikasi va usullarini zamonaviy axborot vositalari orqali diversifikatsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Kompyuter texnologiyalari tabiiy eksperiment bilan uyg‘unligi nafaqat kimyoda eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi, balki o‘quv faoliyati jarayonida maktab o‘quvchilarining kognitiv jarayonlarini rag‘batlantirish va rivojlantirish muammolarini qisman hal qiladi.

Kimyo bo‘yicha eksperimental ko‘nikmalarni takomillashtirish imkoniyatlaridan biri sifatida biz haqiqiy tajribani virtual bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, bu kimyoviy tajribalar va virtual laboratoriyalarning elektron versiyalarini o‘z ichiga olgan disklardan foydalanishdir.

Dars davomida kimyoviy tajribalarning elektron versiyalari maktab sharoitida, xavfli, murakkab, uzoq davom etadigan tajribalar bundan mustasno, aslida o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan ko‘rgazma rolini o‘ynaydi. Bu tajribalar, xuddi maktabda o‘qitishda bo‘lgani kabi, oddiy tajribalarni bajarishda o‘rgatish vositasidir. Masalan, yopiq tizimli qurilmada sulfat kislotaning suyultirilgan eritmasi yordamida ion almashish reaksiyasini amalda o‘tkazishdan oldin sulfat kislotaning xavfli xususiyatlarini namoyish qilishdir.

Tajribalarning virtual versiyalarini namoyish qilish o‘quvchining diqqatini jamlashga yordam beradi va moddalarning xususiyatlari haqidagi g‘oyalarni kengaytiradi. Shuningdek, virtual eksperiment o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ochiq bo‘lgan veb-saytlarda keng namoyish etiladi.

Virtual kimyoviy laboratoriyalar maktab kimyo kursining barcha mavzulari bo‘yicha kimyoviy tajribalarni taklif qiladi. Ularning mazmuni xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga alohida e’tibor beradi. Kimyoviy tajribalar barcha kerakli asbob-uskunalar va kimyoviy reagentlar bilan monitorda ko‘rsatilgan laboratoriyada o‘tkaziladi. O‘quvchilarga kimyoviy qurilmalarni yig‘ish, kimyoviy tajribalar o‘tkazish va tegishli o‘lchovlar qilish va natijalarni qayd etish imkoniyati beriladi [6]. Masalan, darsda azotli birikmalarni o‘rganishda, masalan, metilamin, penten, anilin va sirka kislotasini bilishda moddalarning tarkibi va xususiyatlarini o‘rganish qobiliyatini rivojlantiramiz.

Video va animatsiya ko‘rinishida o‘tkazilgan virtual kimyoviy tajriba, shuningdek, o‘quvchilarni uy vazifasi shaklida kimyoviy tajribalarni bajarish va tasvirlashga taklif qilish imkonini beradi, bu kimyo bo‘yicha eksperimental ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi [7]. Kimyoviy tajribalarni mustaqil bajarish o‘quvchilarda kognitiv motivlarning shakllanishiga, tadqiqot faoliyatiga qiziqishning rivojlanishiga, o‘quvchining shaxsiy fazilatlariga, faoliyatni amalga oshirish jarayonida o‘z imkoniyatlarini bilishga yordam beradi.

Bizningcha, maktab o‘quvchilarining ijodiy tafakkuri tajribaning quyidagi barcha bosqichlarida faol ishtirok etishi bilan faollashadi:

tajribaga tayyorgarlik jarayonida;

uning borishini monitoring qilishda;

xulosalar tuzishda.

Maktab kimyoviy eksperimenti oldida esa, tafakkurni faollashtirish, o‘quvchilarning tabiiy qiziqishini qondirish vazifasi turganligi sababli, kimyo o‘qitish jarayonida kimyoviy tajribaning rolini kuchaytirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Maktab kimyoviy eksperiment asosida o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni hal qilish yo‘llarini topish, solishtirish, rejalashtirish, obyektlar, tushunchalar, hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, faktlarni tekshirish paytida tajribalar o‘tkazish, kimyoviy o‘zgarishlarning haqiqatini isbotlash, xulosalar tuzish va ularni tajribada sinab ko‘rish; faktlarni, hodisalarni, ta’lim faoliyatini tajriba qilish, taqqoslash yoki tekshirish o‘rganadilar va bunday mashg‘ulotlar natijasi ularda ijtimoiy va ijodiy faoliyat qobiliyat elementlarini shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rus olimi M.V.Lomonosov eksperimentning kimyo o‘qitishdagi o‘rni haqida ham shunday yozgan edi: “Amaliyotning o‘zini ko‘rmasdan, kimyoviy amallarni bajarmasdan turib kimyoni hech qanday tarzda o‘rganish mumkin emas” [Ломоносов, М. В. Полное собрание сочинений. Т. 9 / М. В. Ломоносов. – М., 1955.– 456 с.

2. Kuchkarov M.A., Sarimova D.S. Umumiy kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2022, – 80 b.

3. Чернобельская Г. М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. висш. Учеб. заведений. − М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 2000. − 336 с.

4. Rahmatullaev N.G‘. Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. Universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “Kimyo” mutaxassisliklari uchun darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2013. – 364 b.
5. Raxmatullayev N.G‘. Kimyo o‘qitish metodikasi: oliy o‘quv yurtlarining “Kimyo” ixtisosligi o‘quvchilari uchun darslik / N.G.Rahmatullayev, H.T. Omonov, Sh.M. Mirkomilov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-Moliya”, 2013. – 320 b.
6. Дорофеев М.В., Нагин Н.А., Лущай М.Г. Мотивационный ресурс виртуальной химической лаборатории // Химия в школе. – 2018. – № 9. – 60-65 с.
7. Sarimova D.S., M.A.Kuchkarov. Kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T., 2022. –140 b.
8. Sarimova D.S., Malaka oshirish tizimida kimyo o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish. ped.fan.fal. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2021.

“BLENDED LEARNING” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA QO‘LLANILUVCHI ZAMONAVIY METODIKALAR TAHLILI

Ilhom Madatov,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya
Ushbu maqolada aralash ta’lim usullarining rivojlanishi, aralash ta’lim usullarining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan elektron ta’lim texnologiyalari va ulardan zamonaviy pedagoglar tomonidan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar muhokama qilindi. Aralashtirilgan ta’lim texnologiyasi, uning rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi o‘rni va mamlakatimizning oliy ta’lim sohasidagi rivojlanishiga oid ko‘plab amaliy va nazariy tadqiqotlar ko‘rib chiqildi.
Kalit so‘zlar: *aralashtirilgan ta’lim, teskari sinf, onlayn, oflayn, mustaqil ta’lim, elektron ta’lim, onlayn muloqot, virtual sinf, faol talaba, texnologiya.*

Аннотация
В данной статье представлены развитие методов смешанного образования, виды методов смешанного обучения, их преимущества и недостатки. Обсуждались технологии электронного обучения, которые сегодня широко используются в системе высшего образования, и рекомендации по их эффективному использованию современными педагогами. Рассмотрены значительные практические и теоретические исследования по технологии смешанного обучения, ее роли в системе образования развитых стран и развитию нашей страны в сфере высшего образования.
Ключевые слова: *смешанное обучение, перевернутый класс, онлайн, оффлайн, самостоятельное обучение, электронное образование, онлайн-коммуникация, виртуальный класс, активный ученик, технологии.*

Annotation
In this article the development of mixed education methods, types of mixed education methods, their advantages and disadvantages are depected. E-learning technologies, which are widely used in the higher education system today, and recommendations for their effective use by modern pedagogues were discussed. Considerable practical and theoretical studies on blended learning technology, its role in the educational system of developed countries and the development of our country in the field of higher education have been reviewed.
Keywords: *Blended learning, flipped classroom, online, offline, independent education, electronic education, online communication, virtual class, active student, technology.*

Dunyo miqyosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olishning motivatsion komponentlarga ega yondashuvlarini qaror toptirish, shuningdek masofaviy ta’limni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi orqali pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish, talabalarning bilim olishga bo‘lgan individual qiziqishini ta’minlaydigan ta’lim texnologiyalarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “ta’limni globallashtirish va uni modernizatsiyalash sharoitlarida ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish etish” [1, 23], ta’lim tizimi mazmunini sifatli yangilash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar-

ni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan, bu esa o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ta’limini zamonaviy, innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, samarali tashkil etish muammosini hal etadi.

XXI asrga kelib o‘qitish tizimi ta’limga bo‘lgan an’anaviy qarashlarni zamon talabidan kelib chiqqan holda, yangi nazar bilan ko‘rib chiqishni va yangicha yondashuv ko‘nikmalarini egallash masalalarini talab etmoqda. Bu esa, o‘z o‘rnida, innovatsiyalarni faol tatbiq qilish, ilm-fan va ishlab chiqarishni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni taqozo etmoqda. Ta’lim — bu kelajagimiz, demak, ta’lim tizimiga yondashuvni qaytadan ko‘rib chiqib, an’anaviy o‘qitish modeliga yangi o‘qitish standartlarini kiritish zarur. Davr talablaridan kelib chiqqan holda, texnologiyalar o‘qitish jarayonining bosh katalizatoriga aylanishi kerak. Ta’lim tizimini to‘liq isloh qilish murakkab jarayon bo‘lib, tashqi olam bilan uzluksiz tarzda o‘zaro munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

Shunday qilib, mavjud to‘siqlarni bartaraf qilish hamda o‘qitish jarayonini maksimal samarali rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni barpo etish uchun ta’lim jarayonining bosh bo‘g‘inlarini aniqlab olish, har birining kuchli va zaif tomonlarini belgilab olish zarur.

Ta’lim jarayonida bilim, o‘quv va malakalarni talabaning o‘zini-o‘zi baholash usuli pedagog bilan o‘zaro aloqaning kamayishi hisobiga katta ahamiyat kasb etadi.

Talaba o‘quv dasturi o‘zini qoniqtirishiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu holda o‘qituvchining ishi sport murabbiysining ishini eslatadi, u sportchiga faqat harakatlarni qanday bajarishni o‘qitibgina qolmay, uni o‘z-o‘zini nazorat qilish va tuzatishlar kiritishga o‘rgatadi.

Agar o‘z-o‘zini nazorat qilish uquvlari ishlab chiqilmagan bo‘lsa, talaba faoliyatidagi xatolarni o‘qituvchi tuzatishi va tashqi nazoratga o‘rganib qoladi.

Metodik va test materiallar mavjud bo‘lganda talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilishi va baholashi ta’limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi va u quyidagilarga imkon yaratadi:

- talabaga o‘quv faoliyatini rejalashtirish;
- maqsad qo‘yish va o‘qish muammolarini hal qilish;
- o‘quv materialini tizimlash;
- asosiy g‘oyalarni va ikkinchi darajalilardan asosiysini ajratish;
- natijalarni baholash, test o‘tkazish va axborotlarni qiyoslash orqali o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida natijalarni baholash va o‘zini baholash.

Blended learning, ya’ni aralash ta’lim tushunchasiga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan: aralash ta’lim (Blended learning) — zamonaviy ta’lim texnologiyasi bo‘lib, o‘qituvchi ishtirokidagi ta’lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta’lim (eLearning) olish bilan birlashtiradi va ta’lim oluvchi tomonidan o‘quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishini hamda o‘qituvchi bilan birga va onlayn o‘qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi [5, 6].

Aralash ta’lim an’anaviy va masofaviy ta’lim texnologiyalarini birlashtiradi. Ushbu ta’lim texnologiyasi an’anaviy (Brick and Mortar Education) ta’limdan voz kechishni talab qilmaydi, chunki to‘liq ta’lim (qatnab o‘qish) muhim bo‘lgan nutq va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni beradi. Ingliz tilida Brick and Mortar (g‘isht va eritma) deb atalishi an’anaviy”, “uzoq vaqt ichida qo‘llaniladigan” ma’nosini bildiradi. Brick and Mortar Education to‘liq ta’limning an’anaviy modelini bildiradi.

Blended learning kabi elektronlashgan ta’lim nazariyalari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan olimlar:

Respublikamiz olimlaridan M.Aripov, A.Abduqodirov, R.Boqiyev, S.G‘ulomov, A.Abdullayev, M.Lutfillayev, U.Yuldashev, L.Shibarshova, S.Raxmankulova, R.Xamdamov, B.Mazgarov, N.Tayloqov va boshqalar o‘z ishlarida masofadan o‘qitish texnologiyasi istiqboli hamda rivojlanish bosqichlari, ochiq onlayn kurslar uchun o‘quv materiallarini strukturalashtirish masalalarini tadqiq etishgan. S.G‘ulomov, A.Abdullayev va M.Lutfillayevlarning ishlarida masofaviy ta’lim uchun virtual stend yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llashga doir amaliy taklif va tavsiyalar olg‘a surilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.Gazman, Y.Dubrovskaya, G.Kornetov, N.Krilova, N.Mixaylova, A.Mudrik, S.Rudkova, I.Slavina, L.Tarita, S.Chistyakova, S.M.Yusfinlar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga qo‘yiladigan psixologik, didaktik va ergonomik talablarni ishlab chiqishgan. S.Medvedeva, V.Tixomirova, Y.Vladimirova, M.Voronova, V.Gnevko, Y.Dmitriyeva, N.Maraxovskayalar kasb-hunar ta’limi tizimida masofaviy ta’limni tashkil etishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, aralash ta’lim sharoitida o‘qitish jarayonlarini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik olimlardan J.Bergmann, A.Sems, J.Greyni, Y.Pak, D.Paklar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish texnologiyalari, A.Alammari, E.Boyer, F.Kayalar, G.Marunich, X.Singx kabilar aralash ta’lim modellari, pandemiya davrida o‘qitish jarayonlariga aralash ta’limga xos yondashuvning ahamiyati, samarali aralash o‘qitish dasturlarini ishlab chiqishga doir masalalarni tadqiq etishgan [3, 10].

Ta’lim oluvchi (talaba) auditoriyalarda o‘tkaziladigan darslarda qatnashadi, ammo shu bilan birga Computer — Mediated Activitie vositalaridan ham foydalanadi. Ya’ni, ta’lim faolligi mediator vazifasini kompyuter, onlayn-rejim, mobil devayslar hamda maxsus o‘rgatuvchi dasturlar (platformalar) resurslar bajaradi.

Blended learning ta’lim texnologiyasi turli xil auditoriyalarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, ta’lim oluvchi va talabalarni o‘qitish, treninglar, xodimlarni korporativ malakasini oshirish va boshqalar. Aralash ta’limning quyidagi sinonimlari qo‘llaniladi: Blending

Learning, Hybrid Learning (gibrid ta’lim), Technology-Medialed Inslruclion (texnologiyalar orqali nasihat qilish), Web-Enhanced Instruction (veb-kengaytirilgan o‘qitish) va Mixed-Model Inslruction (aralash rejimda o‘qitish).

Qaytarilgan sinf — bu an’anaviy guruhli o‘rganishdan ko‘ra individual va faol o‘rganishga qaratilgan interaktiv va aralash ta’lim usuli. Talabalar uyda yangi mazmun va tushunchalar bilan tanishadilar va maktabda bo‘lganlarida ularni individual ravishda mashq qiladilar. Odatda, bu tushunchalar talabalar uyda tomosha qilishlari mumkin bo‘lgan oldindan yozib olingan videolar bilan tanishtiriladi va ular maktabga mavzular ustida ishlash uchun bir oz boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishadi [4, 74].

Flexible (***moslashuvchan) o‘quv muhiti***

Dars rejalari, mashg‘ulotlar va o‘quv modellarini o‘z ichiga olgan sinf xonasi individual va guruhli ta’limga mos ravishda qayta tashkil etilgan.

- Talabalarga qachon va qanday o‘rganishlarini tanlash imkoniyati beriladi.
- Talabalarga o‘rganish, fikr yuritish va ko‘rib chiqish uchun yetarli vaqt va makonni belgilang.

Interest (daromad)ga yo‘naltirilgan yondashuv

An’anaviy modeldan farqli o‘laroq, asosan o‘qituvchiga asosiy ma’lumot manbai sifatida e’tibor qaratiladi, teskari sinf usuli o‘z-o‘zini o‘rganishga va talabalar mavzuni o‘zlashtirish jarayonini qanday shakllantirishga qaratilgan.

- Talabalar sinfda interfaol va qiziqarli o‘quv faoliyati orqali o‘rganadilar.
- Talabalar o‘z tezligida va o‘ziga xos tarzda o‘rganishadi.

Intention (maqsadli tarkib

Qaytarilgan sinf xonalarining asosiy g‘oyasi talabalarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam berish va ulardan qachon va qanday qilib real hayotda foydalanishni o‘rganishdir. Mavzuni imtihon va baholash uchun o‘rgatishdan ko‘ra, mazmun o‘quvchining sinf darajasi va tushunchasiga moslashtiriladi.

- Video darslar talabalarning darajasi va bilim darajasiga qarab maxsus tuziladi.
- Tarkib odatda talabalar tomonidan ko‘p qiyinchiliklarsiz tushunilishi mumkin bo‘lgan bevosita o‘quv materialidir.

Professional o‘qituvchi

Bu an’anaviy sinf usulidan qanday farq qiladi, deb hayron bo‘lishingiz mumkin? Bu keng tarqalgan noto‘g‘ri tushunchadir, teskari sinf usulida o‘qituvchining ishtiroki minimaldir.

Chuqur o‘rganishning muhim qismi sinfda sodir bo‘lganligi sababli, teskari sinf usuli professional o‘qituvchidan talabani doimiy ravishda kuzatib borish va ularga real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishni talab qiladi.

- O‘qituvchi individual yoki guruh mashg‘ulotlarini olib boradimi, ular talabalar uchun mavjud bo‘lishi kerak.

Sinfda baholashni o‘tkazish, masalan jonli interaktiv viktorinalar mavzu asosida.

- Xo‘sh, nima uchun bu konsepsiya paydo bo‘ldi? Bu yerda biz post-pandemiya haqida gapirmayapmiz; teskari sinf tushunchasi birinchi marta Koloradodagi ikki o‘qituvchi — Jonatan Bergman va Aaron Sams tomonidan 2007-yilda amalga oshirilgan.
- Kasallik yoki boshqa sabablarga ko‘ra dars qoldirgan talabalar darsda o‘qitiladigan mavzularni egallashga imkoni yo‘qligini anglab yetganlarida, bu g‘oya ularga keldi. Ular dars videolarini yozib olishni boshladilar va bu videolardan darsda material sifatida foydalanishdi.

An’anaga ko‘ra, o‘qitish jarayoni juda ko‘p bir tomonlama. Siz…

- Sinfni butun sifatida o‘rgating
- Ularga eslatma bering
- Ularni uy vazifasini bajarishga majbur qiling
- Sinovlar orqali ularga umumiy fikr bildiring

Talabalar o‘rganganlarini vaziyatlarda qo‘llashlari yoki oxirigacha ishtirok etishlari uchun deyarli hech qanday imkoniyat yo‘q.

Holbuki, teskari sinfda o‘qitish ham, o‘rganish ham talabalarga qaratilgan va o‘rganishning ikki bosqichi mavjud.

Uyda talabalar:

- Mavzularning oldindan yozib olingan videolarini tomosha qiling
- Kurs materiallarini o‘qing yoki ko‘rib chiqing
- Onlayn tadbirlarda ishtirok eting
- tadqiqot

Sinfda ular:

- Mavzular bo‘yicha boshqariladigan yoki ko‘rsatilmagan amaliyotda ishtirok eting
- Tengdoshlar bilan munozaralar, taqdimotlar va munozaralar o‘tkazing
- Har xil tajribalar qiling
- Formativ baholashda ishtirok eting

Isikava diagrammasi

Isikava diagrammasi, shuningdek, “baliq suyagi” va “sabab-ta’sir diagrammasi” sifatida ham tanilgan, muammoning mumkin bo‘lgan sabablarini tasniflash va tasavvur qilish va ildizga kirishga yordam beradi. Diagramma 1950-1951-yillarda yapon professori Kaoru Isikava tomonidan ixtiro qilingan bo‘lib, uzoq vaqt davomida sanoatdagi nuqsonlar va og‘ishlarning sabablarini aniqlash uchun ishlatilgan va oxir-oqibat mashhur sifatni boshqarish vositasiga aylandi. Loyiha va mahsulot guruhlari diagrammadan, shu jumladan xavflar bilan ishlashda foydalanishni boshladilar [3, 16].

Qulay vizualizatsiya

Diagramma sizga loyihaning to‘liq rasmini yaratishga imkon beradi, shu bilan birga muammolar manbalari guruhlangan. Tafsilotlar darajasi har xil bo‘lishi mumkin, lekin qoida tariqasida, Ishikawa diagrammasi bir yoki ikkita tor mutaxassis uchun emas, balki barcha manfaatdor tomonlar uchun tushunarli.

Muhokama uchun boshlanish nuqtasi

Vizual diagramma atrofidagi munozara jamoani birlashtirishga yordam beradi va hatto eng jim odamlarni gaplashadi. Uni chizishni boshlaganingizda, qo‘shilmasligingiz juda qiyin. Va keyin diagrammadan keyingi miya hujumi uchun boshlang‘ich nuqta sifatida foydalanish qulay, masalan, ma’lum bir manba uchun xavflarni shakllantirish kerak bo‘lganda.

Qayta ishlatmoq

Deyarli universal dizayn tamoyillarini eslang. Qayta tiklanadigan elementlardan foydalaning. Siz bir marta diagramma chizdingiz - keyin siz uni shunga o‘xshash loyihalar uchun to‘ldirasiz ishlatasiz. Isikava diagrammasi jarayon natijadan kam bo‘lmagan holatdir. Qancha manbalarni olishingiz muhim emas, uzunlik va egrilik va “suyaklar”, siz doskada yoki Google Slidesda chizasiz. Muammolardan qochmasangiz, ularga tayyorgarlik ko‘rishingiz uchun nima noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylashingiz muhimdir.

Yuqorida bayon etilgan modellarni OTM o‘quv jarayoniga tatbiq etish maqsadida yo‘riqnoma ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan yo‘riqnomada oliy ta’lim subyektlari bo‘lmish talabalar ochiq elektron ta’lim resurslari va xorij adabiyotidan foydalangan holda talabalarning mustaqil ta’limini tashkillashtirish mexanizmi o‘z aksini topgan.

Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha mamlakatimizning ilg‘or zamonaviy texnologiyalari bilan ishlash malakasini beruvchi ochiq elektron o‘quv kurslar orqali mustaqil ta’lim olish jarayonini tashkillashtirishda Blended learning konsepsiyasi qo‘llanildi.

Elektron ta’lim va an’anaviy ta’lim texnologiyalari uyg‘unligini ta’minlashda va o‘quv jarayonini tashkillashtirishda Blended learning konsepsiyasi orqali foydalanish mexanizmi ishlab chiqildi. Blended learning konsepsiyasidan foydalanishning samaradorlik mezonlari ishlab chiqildi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, muammo bo‘yicha ilmiy-uslubiy va me’yoriy adabiyotlarni tahlil qilish, hozirgi zamonda oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish, mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holatini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tasdiqlov pedagogik-sinov ishlari tasdiqlamoqdaki, birinchidan, o‘quv ijodiy tayyorgarlik o‘qituvchilarning kasbiy layoqatliligi (kompetentlik)ni ko‘rsatuvchi sifatlaridan biri bo‘lib, ta’lim jarayonida egallangan ijodiy bilim, malaka va ko‘nikmalar, ijodiy tafakkur va fazoviy tasavvurlar uning komponentlaridir; ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tayyorgarligini takomillashtirishda ularda fazoviy tasavvur va ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi pedagogika bo‘yicha mustaqil ta’lim muhim rol o‘ynab, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarish ularning professional tayyorgarligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847 sonli Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2. M.X.Saidov, L.V.Peregudov, Z.T.Tohirov. Oliy ta’lim (lug‘at-ma’lumotnoma). – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. – 456 b.

3. Madatov I.Y. Blended learning ta’lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishni takomillashtirish (Bakalavriat ta’limi pedagogika va psixologiya misolida). Dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2023. – 45 b.

4. Madatov I.Y. Blended learning ta’lim texnologiyasi asosida mustaqil ta’limni tashkil etish. FAN, TA’LIM VA AMALIYATNING INTEGRASI. ILMIY-METODIK JURNALI, 2022/6/23, 126-131-betlar. havola: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZUQpYUAAAAJ&citation_for_view=sZUQpYUAAAAJ:ux6o8ySG0sC

5. I.Y.Madatov, ELEKTRON TA’LIM TEXNOLOGIYALARI (BLENED LEARNING), PEDAGOGIK MAHORAT. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2020, 5. – 58-61 b.

6. I.Y.Madatov, Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha sinov-tajriba ishlar, FAN va JAMIYAT. Ilmiy-uslubiy jurnal. Seriya: Pedagogika fanlari, 3, 2021. – 69-72 b.

STUDY OF THE THEME OF LONELINESS IN THE WORKS OF F.M.DOSTOYEVSKY

Zamira Jalmatova,
Jizzakh State Pedagogical University
Faculty of Russian language and literature,
associate professor of Russian literature and
methods of its translation

Annotation

This study examines the theme of loneliness in the works of F.M.Dostoevsky, one of the famous figures of Russian literature. Dostoevsky's novels and stories offer a rich tapestry for exploring the experience of loneliness, exploring the nuances of human psychology, moral dilemmas, and existential crises. Through an analysis of major works such as Crime and Punishment, The Brothers Karamazov, and Notes from Underground, this study explores the different forms of loneliness depicted in Dostoyevsky's works. It explores the internal struggles, social exclusion, external conditions, lack of love, and psychological consequences that contribute to the deep sense of isolation experienced by the characters.

***Keywords*:** *F.M.Dostoevsky, loneliness, internal struggles, societal marginalization, existential crises, human psychology, moral dilemmas, connection, belonging, meaning.*

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot rus adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri — F.M.Dostoyevskiy ijodidagi yolg'izlik mavzusini o'rganadi. Dostoyevskiyning romanlari va hikoyalari inson psixologiyasi, axloqiy ikkilanishlar va ekzistensial inqirozlarning nozik tomonlarini o'rganib, yolg'izlik tajribasini o'rganish uchun boy gobelenni taklif etadi. "Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar", "Yer ostidan eslatmalar" kabi asosiy asarlarni tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot Dostoyevskiy asarlarida tasvirlangan yolg'izlikning turli ko'rinishlarini o'rganadi. Unda qahramonlar boshdan kechirgan chuqur yakkalanish tuyg'usiga hissa qo'shadigan ichki kurashlar, jamiyatdagi cheklov, tashqi sharoitlar, sevgining yo'qligi va psixologik oqibatlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *F.M.Dostoyevskiy, yolg'izlik, ichki kurashlar, jamiyatning marginallashuvi, ekzistensial inqirozlar, inson psixologiyasi, axloqiy dilemmalar, aloqa, tegishlilik, ma'no.*

Аннотация

В данном исследовании рассматривается тема одиночества в творчестве Ф.М.Достоевского, одного из известных деятелей русской литературы. Романы и рассказы Достоевского представляют собой богатую картину для исследования переживания одиночества, изучения нюансов человеческой психологии, моральных дилемм и экзистенциальных кризисов. Путем анализа таких крупных произведений, как "Преступление и наказание", "Братья Карамазовы" и "Записки из подполья", данное исследование исследует различные формы одиночества, изображенные в произведениях Достоевского. Он исследует внутреннюю борьбу, социальную изоляцию, внешние условия, недостаток любви и психологические последствия, которые способствуют глубокому чувству изоляции, испытываемому персонажами.

Ключевые слова: *Ф.М.Достоевский, одиночество, внутренняя борьба, социальная маргинализатsia, экзистенциальные кризисы, психология человека, моральные дилеммы, связь, принадлежность, смысл.*

Fyodor Mikhailovich Dostoevsky, a renowned Russian novelist, is celebrated for his profound exploration of the human psyche and moral complexities. Among the recurring themes in his works, loneliness stands out as a poignant and pervasive motif. Dostoevsky's literary masterpieces, including "Crime and Punishment," "The Brothers Karamazov," and "Notes from Underground," offer profound insights into the experience of isolation and the longing for meaningful connection.

Loneliness in Dostoevsky's works transcends mere physical solitude. It encompasses a multidimensional sense of disconnection, encompassing emotional, social, and existential aspects. Characters are often depicted as surrounded by others, yet they endure a deep sense of loneliness, stemming from their inability to forge genuine human connections or reconcile their inner conflicts [1, 81].

This study aims to delve into the theme of loneliness in Dostoevsky's works, analyzing its manifestations, causes, and implications. By examining key characters and their journeys, we seek to unravel the intricate layers of loneliness portrayed by the author. Through a comprehensive exploration of the internal struggles, societal marginalization, external circumstances, absence of love, and psychological consequences, we aim to shed light on the profound human longing for connection and the challenges individuals face in their pursuit of belonging and meaning.

By studying Dostoevsky's treatment of loneliness, we hope to deepen our understanding of the human condition, the complexities of the individual's inner world, and the societal forces that shape our sense of isolation. Furthermore, this analysis invites readers to reflect on their own experiences of loneliness and to contemplate the universal themes of longing, empathy, and the search

for authentic human connection that resonate across time and cultures. In the subsequent sections of this article, we will delve into the nuances of loneliness as portrayed in Dostoevsky's major works. Through careful examination and analysis, we will unravel the intricate web of emotions, conflicts, and societal dynamics that contribute to the pervasive theme of loneliness in his literature. Through this exploration, we hope to gain a deeper appreciation for Dostoevsky's literary genius and the lasting relevance of his insights into the human condition [2, 461].

Previous studies have analyzed Dostoyevsky's exploration of existential themes like alienation, faith, and inner turmoil (Mochulsky, 1967; Frank, 2005). His portrayal of characters experiencing loneliness and isolation has also been noted (Glicksberg, 1968; Morris, 1964). To conduct a comprehensive study on the theme of loneliness in the works of F.M.Dostoevsky, this research employs a literature analysis approach. By examining key novels and stories such as "Crime and Punishment," "The Brothers Karamazov," and "Notes from Underground," we aim to analyze the multifaceted dimensions of loneliness depicted by Dostoevsky.

The primary method employed in this study is close reading and textual analysis. This involves a meticulous examination of the selected literary works, paying attention to the characters, their interactions, and the broader socio-cultural context in which they exist. Through in-depth analysis of the narrative elements, themes, and character development, we aim to elucidate the intricate portrayal of loneliness in Dostoevsky's writings.

Additionally, this research draws upon secondary sources such as scholarly articles, literary criticism, and related studies to provide a broader contextual framework for the analysis. These sources contribute to a more comprehensive understanding of Dostoevsky's works, their historical background, and critical interpretations of the theme of loneliness.

By combining primary text analysis with insights from secondary sources, we strive to offer a nuanced exploration of loneliness in Dostoevsky's literature. This interdisciplinary approach allows for a deeper examination of the psychological, philosophical, and social dimensions of loneliness, as well as its implications for the characters and their journeys.

The data collected through the literature analysis will be interpreted and synthesized to identify recurring patterns, underlying themes, and the significance of loneliness within Dostoevsky's works. The findings will be presented and discussed in a coherent manner, providing a cohesive narrative of the theme's exploration and its implications for understanding the human condition.

It is important to acknowledge that this study has certain limitations. The analysis focuses exclusively on Dostoevsky's works and does not incorporate comparative analysis with other authors or literary traditions. Furthermore, interpretations and conclusions drawn from the analysis may be subjective to some extent, influenced by the researcher's perspective and understanding. Despite these limitations, this study aims to contribute to the existing body of literature on Dostoevsky's works, specifically exploring the theme of loneliness. By employing a rigorous literature analysis approach, this research seeks to offer fresh insights and a deeper understanding of the complex portrayal of loneliness in Dostoevsky's writings [3, 58].

The exploration of loneliness in the works of F.M.Dostoevsky reveals profound insights into the human condition, moral struggles, and the search for meaning. Through a close analysis of key works such as "Crime and Punishment," "The Brothers Karamazov," and "Notes from Underground," several significant aspects of loneliness emerge.

One prominent aspect is the portrayal of internal struggles and moral dilemmas experienced by Dostoevsky's characters. Loneliness often arises from the profound disconnect between their inner conflicts and societal norms. Characters such as Ivan Karamazov and the underground man grapple with existential questions, guilt, and a sense of alienation, leading to a deep sense of loneliness.

Another aspect is the depiction of societal marginalization and the resulting isolation experienced by certain characters. Dostoevsky's works highlight the plight of those who face social stigmatization, discrimination, or ostracism. Characters like Raskolnikov in "Crime and Punishment" and Prince Myshkin in "The Idiot" encounter rejection and misunderstanding, intensifying their feelings of loneliness.

Furthermore, Dostoevsky emphasizes the impact of external circumstances on loneliness. Characters find themselves in harsh or oppressive environments that contribute to their sense of isolation. In works such as "The House of the Dead," the depiction of life in Siberian prison camps portrays the profound loneliness experienced by inmates due to the harsh conditions and lack of empathy.

The absence or failure of love and meaningful connections is a recurring theme in Dostoevsky's exploration of loneliness. Characters yearn for love, understanding, and intimacy but often struggle to attain them. Their failed attempts at forming genuine relationships deepen their sense of isolation and contribute to their emotional and psychological turmoil.

Psychological consequences of loneliness are also significant in Dostoevsky's works. Loneliness drives characters to despair, anxiety, and existential anguish. Raskolnikov's isolation and guilt in "Crime and Punishment" lead him to the brink of madness, highlighting the devastating impact of loneliness on mental and emotional well-being.

The discussion of loneliness in Dostoevsky's works

prompts reflection on the universal human longing for connection and the inherent struggles of existence. Loneliness becomes a lens through which Dostoevsky explores fundamental questions of morality, spirituality, and the search for meaning. His nuanced portrayal resonates with readers by capturing the complexities of the human psyche and the universal experience of longing for deeper human connection.

Furthermore, Dostoevsky's exploration of loneliness transcends his historical and cultural context, making it relevant in contemporary society. Loneliness remains a pervasive issue in modern times, amplified by technological advancements and changing social dynamics. Dostoevsky's works serve as a timeless reminder of the deep-seated human need for authentic relationships and the consequences of their absence. In conclusion, the study of loneliness in the works of F.M.Dostoevsky reveals the multi-faceted nature of this theme. Through internal struggles, societal marginalization, external circumstances, the absence of love, and psychological consequences, Dostoevsky masterfully depicts the profound sense of isolation experienced by his characters. The discussion of loneliness in his works invites readers to reflect on their own experiences, prompting contemplation of the universal themes of longing, empathy, and the search for authentic human connection that resonate across time and cultures [4, 19].

1. Loneliness as an Internal Struggle: Dostoevsky's characters, such as Raskolnikov in "Crime and Punishment" and the underground man in "Notes from Underground," grapple with internal conflicts and moral dilemmas. Loneliness emerges as a consequence of their profound disconnect from societal norms and their struggle to reconcile their own values and beliefs. These internal battles intensify their sense of isolation and contribute to the overarching theme of loneliness.

2. Societal Marginalization and Isolation: Dostoevsky's works emphasize the societal forces that contribute to loneliness. Characters like Raskolnikov and Prince Myshkin in "The Idiot" face social stigmatization, rejection, or ostracism, leading to their isolation. The portrayal of societal marginalization highlights the impact of external factors on the characters' sense of loneliness.

3. External Circumstances and Isolation: Dostoevsky explores the role of external circumstances in fostering loneliness. In works such as "The House of the Dead," the portrayal of life in Siberian prison camps reveals the profound isolation experienced by inmates due to the harsh conditions and lack of empathy. These external circumstances contribute significantly to the characters' sense of isolation and loneliness.

4. Failed Attempts at Love and Meaningful Connections: The absence or failure of love and authentic connections is a recurring theme in Dostoevsky's exploration of loneliness. Characters yearn for love, understanding, and intimacy but often struggle to attain them. Their failed attempts at forming genuine relationships deepen their sense of isolation and contribute to their emotional and psychological turmoil.

5. Loneliness and Psychological Consequences: Loneliness in Dostoevsky's works has profound psychological ramifications for the characters. The experience of isolation drives them to despair, anxiety, and existential anguish. Raskolnikov's isolation and guilt in "Crime and Punishment" lead him to the brink of madness, highlighting the detrimental impact of loneliness on mental and emotional well-being. These results demonstrate the intricate and multi-dimensional nature of loneliness in Dostoevsky's works. The portrayal of internal struggles, societal marginalization, external circumstances, the absence of love, and psychological consequences contributes to a comprehensive understanding of the theme. Dostoevsky's exploration of loneliness serves as a powerful reflection on the human condition, prompting readers to contemplate their own experiences and the universal longing for meaningful connections.

The study of loneliness in the works of F.M.Dostoevsky illuminates the profound exploration of the human psyche and the complexities of the human condition. Through a meticulous analysis of novels such as "Crime and Punishment," "The Brothers Karamazov," and "Notes from Underground," Dostoevsky's portrayal of loneliness reveals its multi-faceted nature and lasting relevance.

Loneliness in Dostoevsky's works extends beyond physical solitude, encompassing emotional, social, and existential dimensions. The internal struggles faced by characters, their societal marginalization, external circumstances, the absence of love, and the psychological consequences of loneliness form a rich tapestry that deepens our understanding of this theme.

One of the key findings is that loneliness often arises from the profound disconnect between an individual's internal conflicts and societal norms. Dostoevsky's characters wrestle with existential questions, moral dilemmas, and a sense of alienation, which intensify their feelings of isolation.

Additionally, the portrayal of societal marginalization highlights the impact of social forces on loneliness. Characters who face stigmatization, rejection, or ostracism experience heightened isolation, underscoring the role of external circumstances in shaping their sense of loneliness. Moreover, Dostoevsky's exploration of failed attempts at love and meaningful connections underscores the deep longing for authentic human relationships. The characters' yearning for understanding and intimacy, juxtaposed with their struggles to form genuine connections, emphasizes the pervasive nature of loneliness. The psychological consequences of loneliness depicted in Dostoevsky's works are significant. Characters experience despair, anxiety, and existential anguish, illustrating the profound impact

of isolation on mental and emotional well-being [5, 229].

In conclusion, Dostoevsky’s exploration of loneliness in his works offers timeless insights into the human condition. The internal struggles, societal marginalization, external circumstances, absence of love, and psychological consequences contribute to a comprehensive understanding of this theme. As readers engage with Dostoevsky’s portrayal of loneliness, they are invited to reflect on their own experiences and the universal yearning for authentic human connection. Dostoevsky’s masterful depiction of loneliness continues to resonate, reminding us of the enduring relevance of his works and the profound longing for meaning and belonging within us all.

REFERENCES:

1. Frank, J. (2005). Nihilism and Notes from Underground. In R. L. Jackson (Ed.), The Cambridge Companion to Dostoevsky (pp. 66-84). Cambridge University Press.
2. Fanger, D. (1973). Dostoyevsky and romantic realism: A study of Dostoyevsky in relation to Kleist and Hoffmann. Slavic Review, 32(3). – 449-465 c.
3. Fanger, D. (1977). Dostoevsky’s treatment of natural detail. Oxford Slavonic Papers, 10. – 52–67 c.
4. Jackson, R. L. (1999). The identity of the underground man: Selfhood in Notes from Underground. Journal of Russian and East European Psychology, 37(2). – 3–27 c.
5. Morson, G. S. (2014). Dostoevsky and the struggle for integrity. Studies in East European Thought, 66(3). – 221-231 c.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARIDA O‘SMIR-YOSHLARNING SHAXSIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI

Husan Musurmonov,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta’lim fakulteti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida o‘smir-yoshlarning shaxsiy faoliyatini shakllantirish tendensiyalari hamda dunyo miqyosida sportchilar tayyorlash masalasiga oid tadqiqot natijalari tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy sportning jamiyatda qator muhim vazifalarni bajarishdagi ahamiyati, sportda saralash yuqori natijalarni qayd etishni kafolatlovchi muhim omil ekanligi, sport tayyorgarligi tizimida o‘ziga xos bo‘lgan, muqobil uslubiyatlardan foydalanish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish zaruratining dolzarbligi kabi masalalar muhokama etilgan va xulosalar asoslangan.

Kalit so‘zlar: *sportchi, mashg‘ulot, faoliyat, natija, tizim, tarbiya, tendensiya.*

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции формирования личностной активности подростков в сфере физического воспитания и спортивной подготовки, а также проблема подготовки спортсменов в мировом масштабе. Также рассмотрены такие вопросы, как значение современного спорта в выполнении ряда важных задач в обществе, тот факт, что спортивная квалификация является важным фактором, гарантирующим высокие результаты, актуальность использования альтернативных методов и их эффективное внедрение в систему спортивной подготовки, а также выводы, основанные на этого делаются выводы.

Ключевые слова: *спортсмен, тренировка, деятельность, результат, система, воспитание, тенденция.*

Annotation

This article analyzes the trends in the formation of the personal activity of teenagers in physical education and sports training, as well as the issue of training athletes on a global scale. Also, issues such as the importance of modern sports in performing a number of important tasks in society, the fact that qualifying in sports is an important factor that guarantees high results, the relevance of the use of alternative methods and their effective implementation in the system of sports training, and the conclusions are based.

Key words: *athlete, training, activity, result, system, education, trend.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik, ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil shug‘ullanish hamda jismoniy salomatligini diagnostik nazorat qilish ko‘nikmalarini singdirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida o‘smir-yoshlarning shaxsiy faoliyatini shakllantirish hamda sportchilarni tayyorlash tarixiy an’analar va zamonaviy yondashuvlar asosida tobora takomillashib bormoqda. Sport tayyorgarligi birinchi tomondan o‘zining ijtimoiy-siyosiy asoslariga ko‘ra g‘alabaga erishish, yuqori natijalar qayd etish va inson imkoniyatlarini namoyish qilish xususiyatlari bilan xarakterlanadi. [1, 2].

Shu bilan birga sport inson ma’naviy, axloqiy va ruhiy barkamolligi vositasi sifatida hamda o‘zining ijtimoiy ahamiyati bilan ham jamiyatda nihoyatda muhim vazifalarni bajaradi. Yuqoridagi manbalarda bildirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinadiki, sport bir vaqtning o‘zida ham qoidalar asosida amalga oshadigan o‘zaro raqobat faoliyati hisoblansa, boshqa jihatdan yuksak ma’naviy, axloqiy va estetik ahamiyatga ega muhim vosita sanaladi.

Bir qator mutaxassislarning fikricha zamonaviy sport bir paytning o‘zida jamiyatda qator muhim vazifalarni bajarishi bilan ahamiyatlidir. Xususan sport orqali yoshlar tarbiyasi, ta’lim muassasalarida sport, aholining turli qatlamlari orasida sog‘lomlashtirish vositalari sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Yuqoridagilarga asosan ta’kidlash kerakki, zamonaviy sport jamiyatda o‘zining ko‘pfunktsiyaliligi va xilma-xilligi, inson va jamiyatga beradigan ijobiy ta’siri bilan ahamiyatlidir.

Muayyan sport turida yuqori natijalarga erishish, tayyorgarlik tizimini samarali boshqarish, sport tayyorgarligi jarayonida individual yondashish kabi vazifalarning samarali yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq ekanligi bir qator ilmiy adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilgan.[3,8] Shunga qaramasdan yuqori darajadagi sport natijalarining keskin o‘sib borishi, xalqaro sport musobaqalarida natijalar qayd etishning tobora murakkablashib borayotganligi hamda boshqa shu kabi bir qator omillar sababli sport tayyorgarligi tizimining ilmiy asoslarini yanada rivojlantirish zarurati yuzaga keladi [4, 26].

Sportchilar tayyorlash tizimi borasidagi so‘nggi ilmiy adabiyotlar ko‘lami tobora ortib bormoqda. Bu borada so‘z borganda tayyorgarlikning biologik asoslari asosan katta ahamiyat kasb etayotganligini ta’kidlash kerak.Masalan, V.Issurin olib borgan tadqiqotlariga asosan ta’kidlaydiki, uzoq yillik tayyorgarlik jarayonida sportchi organizmining biologik omillari o‘ta muhim hisoblanadi.Tayyorgarlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi, kelgusi sport natijalarini maqsadga muvofiq rejalashtirish bevosita biologik xususiyatlarga aloqador hisoblanadi. Darhaqiqat, mazkur masalada fikr yuritiladigan bo‘lsa, organizm yaxlit tizim sifatida biologik qonuniyatlar asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazalari, ilmiy ma’lumotlarni qidiruv tizimlari va ilmiy axborot manbalaridan zamonaviy sport tayyorgarligiga doir manbalarning tahlili mazkur sohaga turli fan yo‘nalishlariga xos bo‘lgan bilimlar integratsiyasi ta’sir etayotganligini tasdiqlaydi. Xususan, Qiu (va hammualliflar, 2013), fikricha zamonaviy sport musobaqalari va tayyorgarlik jarayonining xarakterli jihati kompyuter texnologiyalarining sportga keng joriy etilishi hisoblanadi [5, 40].

Sportga tanlash, mashg‘ulotlar jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, musobaqalarni o‘tkazish, sportchi tayyorgarligini monitoring qilish kompyuter texnologiyalari asosida yanada samarali yuzaga keladi.

Bu boradagi tahlillar dunyo miqyosidagi boshqa olimlar tomonidan ham yetarlicha o‘rganilgan. Masalan, P.Jernej (2018), o‘z tahlillariga asosan sportda ko‘ptomonlama faktorlar mavjudligini e’tirof etadi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy sport tayyorgarligi o‘zining yangi fenomeni, yangicha qarashlari, xususan, tenglik, hamkorlik va boshqa ijobiy xarakterlari bilan aks etmoqda. Shunga qaramasdan, hozirda ham ba’zi salbiy ta’sirlar mazkur sohani rivojlantirishga yetarlicha ta’sir etmoqda. Bizning fikrimizcha mazkur holat, birinchidan, sportni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tobora takomillashib, rivojlanib borayotganligini ifodalasa, ikkinchidan, zamonaviy sport taraqqiyoti oldida muayyan vazifalar va muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Sport amaliyotidan ma’lumki, dunyo miqyosida turli mamlakatlarda sportchilar tayyorlash tizimi o‘ziga xos ravishda tashkil etilgan. Bunda muayyan hududning ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy rivojlanish va imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashuvlar yo‘lga qo‘yilgan. So‘nggi tadqiqotlarga tayaniladigan bo‘lsa, sport tayyorgarligini rivojlantirishda sotsiologik jihatlar o‘ziga xos ta’sir etadi. Turli hududlar va mintaqalarning ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra sport muayyan darajada rivojlanish darajalari qayd etiladi.

P.Gamble fikricha [5, 49] hozirgi zamon sportida rejalashtirish va mashg‘ulotlar jarayonini samarali tashkil etish sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Xususan, jamoaviy sport turlari boshqa toifadagi sport turlaridan ma’lum darajada farqlanadi. Bunda rejalashtirishga alohida ahamiyat qaratilib, yillik musobaqalar rejalashtirish jarayonida hisobga olinishi kerak. Albatta, mazkur fikrlar ma’lum ma’noda ilmiy asoslarga ega bo‘lib, zamonaviy sportchilar tayyorlash tizimida qo‘llanilib kelinmoqda. Shu bilan birga, boshqa yondashuvlar mavjudki, bunda sport turi asosida tayyorgarlikni amalga oshirish ikkilamchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, N.Estélio fikricha, hozirda sportchilar tayyorlashda turli davrlash-

tirish uslublari qo‘llanilmoqda. Xususan, davrlashtirishning Matveev modeli, Verxoshanskiy modeli, Valdivelso modeli, Vorobev modeli, Platonov modeli, Bompa modeli va boshqa shu kabilar amaliyotda keng qo‘llaniladi. Mazkur rejalashtirish dasturlari o‘ziga xos xususiy jihatlar bilan farqlansa-da, ular umumiy qonuniyatlar va xarakterli jihatlar bilan aloqador hisoblanadi.

V.Platonov o‘zining so‘nggi tadqiqotlari doirasida Norvegiya va Kanada terma jamoalarining Olimpiya O‘yinlariga tayyorgarlik tizimini tahlil etgan. Ma’lumki, mazkur mamlakatlar terma jamoalari xalqaro sport musobaqalarida o‘ziga xos o‘ringa ega va barqaror natijalar qayd etib kelmoqda. Mazkur tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, Olimpiya O‘yinlari va boshqa shu kabi xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etish sport tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish, sport siyosati, ommaviy sport va oliy sport mahorati kabi bosqichlar mazkur mamlakatlarda sport tayyorgarligining asosiy faktorlari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi va tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, paralimpiya sportida tayyorgarlik jarayoni o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ma’lumki, paralimpiya sporti dunyo bo‘ylab nogironligi bo‘lgan kishilarni sog‘lom hayotga qaytarish, ular orasida jismoniy faollikni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan tizim hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, paralimpiya sportida odatdagi tayyorgarlik tizimidan ko‘ra xususiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tahlillardan ko‘rinadiki, zamonaviy sportda paralimpiya sportchilarini tayyorlash o‘ziga xosligi va xususiy jihatlari bilan farqlanadi.

V.Issurinning fikricha sportchilar tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bir qator sabab va zaruratlar asosida yuzaga keladi. Quyidagi asosiy omillar olim tomonidan qayd etilgan:

1) sport musobaqalari sonining ortib borishi mashg‘ulotlar vaqtining keskin qisqarib boriga olib kelmoqda;

2) sportchi tayyorgarligi tizimining an’anaviy uslublaridagi mavjud kamchiliklar;

3) sport tayyorgarligi tizimining muqobil konsepsiyalarining yuzaga kelayotganligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan sabablar sport tayyorgarligi tizimida o‘ziga xos bo‘lgan, muqobil uslubiyatlardan foydalanish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish zarurati yanada dolzarblashadi. Bizning fikrimizcha, sport tayyorgarligi tizimida turlicha yondashuvlar va uslubiyotlar joriy etilmoqda. O‘z navbatida mazkur yondashuvlar o‘zining yutuq va kamchiliklari bilan xarakterlanadi.

Y.Verxoshanskiyning fikricha uzoq yillik sport tayyorgarligi bir qancha qisqa davrlarni o‘z ichiga olishi kerak. Mazkur kichik bosqichlar davomida xususiy vazifalar amalga oshiriladi.Masalan, ba’zi kichik davrlarda jismoniy tayyorgarlikka alohida ahamiyat qaratilsa, keyinchalik tayyorgarlikning boshqa jihatlari kompleks rivojlantirib boriladi. Bunda musobaqa xususiyatlari, iqlim va sportchining imkoniyatlari hisobga olinishi kerak, albatta. Ammo, ba’zi mutaxassislar fikricha mazkur davrlashtirishda ham ma’lum ma’noda kamchiliklar mavjud. Adabiyotlar qiyosiy tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, sportchilar tayyorlashning uzoq yillik dasturlarini baholash va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha o‘zaro xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar mavjud.

So‘nggi tadqiqotlar va tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, sportda saralash yuqori natijalarni qayd etishni kafolatlovchi muhim omili hisoblanadi. Masalan, M.Starosta fikriga ko‘ra zamonaviy sport tayyorgarligini boshqarishda 11ta bosqichdan iborat bo‘lib, sportchining yutuqqa bo‘lgan imkoniyatlarini oshirishning dastlabki bosqichidan oliy sport yutuqlari bosqichigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Mazkur ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, sport tayyorgarligi bir qancha tayyorgarlik turlaridan iborat bo‘lganidek, bir nechta bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu bosqichlar o‘zaro ketma-ket va bir-birini to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Tarixan ma’lumki, sport tayyorgarligini nazorat qilish va baholash masalasi mutaxassislar tomonidan doimiy ravishda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelingan. Ta’kidlash kerakki, hozirda ham mazkur masala sport taraqqiyotining yangi jihatlari va sportchilar tayyorlashning istiqbol rejalarini belgilashda muhim o‘ringa egaligi bir qator ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sport tayyorgarligi tizimida ma’lum yutuqlar va ilg‘or tajribalar mavjud bo‘lishi bilan birga, mazkur masalaga doir o‘z ilmiy yechimini kutayotgan vazifalar ham mavjud. Ushbu vazifalarning samarali hal etilishi sport taraqqiyotida yangi natijalar qayd etilishiga zamin yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida o‘smir-yoshlarning shaxsiy faoliyatini shakllantirish hamda sportchilarni tayyorlashda ilmiy-uslubiy manbalarning qiyosiy tahlili natijasida dunyo bo‘yicha sportchilar tayyorlash borasida xilma-xil yondashuvlar mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga xalqaro sport hamjamiyatida sportchilar tayyorlash borasida umumiy xarakterli ilmiy muammolar mavjud. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash kerakki, sport tayyorgarligi muammosi doimiy ravishda rivojlanish va taraqqiy etishga ehtiyoj sezadi. Mazkur sohani muntazami ravishda rivojlantirish, uning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirib borish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lorenz, D., Morrison, S. Current concepts in periodization of strength and conditioning for the sports physical therapist. International journal of sports physical therapy, 2015, 10(6). – 734-747 p.

2. Никитушкин. В.Г. Многолетняя подготовка юных спортсменов. Монография. – М.: Физическая культура. 2010. – 230 с.

3. Verkhoshansky, Y. Main features of a modern scientific sports training theory. New Studies in Athletics, 1998. – 9-20 c.
4. Chelladurai, P., Shanmuganathan, D., Jothikaran, J., Nageswaran, A. S. Sport in modern India: policies, practices and problems. The International Journal of the History of Sport, 2002. 19(2-3). – 366-383 p.
5. Gamble, P. Periodization of Training for Team Sports Athletes. Strength and Conditioning Journal. 2006. – 56-66 p.

INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Madina Fayzullayeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti magistranti
Djoanna Isheryakova,
Buxoro davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy metodlar va texnologiyalarni ta’limga ta’siri o‘rganib chiqilgan. Shuningdek, ushbu holatda o‘quvchilarni ingliz tilini yanada yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun olib borayotgan tadqiqotimiz asosida ko‘rib chiqilgan omillarga o‘z yechimimizni berishga harakat qildik. Shuningdek, ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy metodlar va texnologiyalar o‘rganuvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning qiziqishlarini chuqurroq o‘rgatish, va ularning ma’lumotlarni amalga oshirish va tushuntirish jarayonlarini qulaylashtirish imkoniyatlarini ochib berishga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: *ingliz tili, zamonaviy metodlar, texnologiyalar, o‘quvchi, ota-ona, interaktivlik, motivatsiya.*

Аннотация
В данной статье рассматривается влияние современных методов и технологий на образование при преподавании английского языка школьникам. Также в данном случае мы постарались на основе нашего исследования дать свое решение рассматриваемым факторам, чтобы помочь студентам лучше освоить английский язык. Более того, мы постарались раскрыть возможности современных методов и технологий преподавания английского языка для повышения мотивации учащихся, углубления их интересов, облегчения процессов внедрения и объяснения информации.
Ключевые слова: *английский язык, современные методы, технологии, ученик, родитель, интерактивность, мотивация.*

Annotation
This article examines the impact of modern methods and technologies on education in teaching English to children. Moreover, in this case, we tried to give our solution to the considered factors based on our research in order to help the students master the English language better. Additionally, we tried to reveal the possibilities of modern methods and technologies in teaching English to increase the motivation of learners, deepen their interests, and facilitate their information implementation and explanation processes.
Keywords: *English language, modern methods, technologies, student, parents, interactivity, motivation.*

Bugungi hayotimizni chet tillarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o‘rganish zamon talabi bo‘lib boryapti. Bugun har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo‘lish uchun biror bir tilni bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Shuning uchun ham hozirgi zamonaviy hayotda hamma biror tilni o‘rganish bilan mashg‘ul. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy talablaridan biri chet tillarini hamda raqamli texnologiyalarni mukammal bilish bo‘lib qoldi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga qiziqishini yanada oshirish va o‘z navbatida, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda xalqaro muloqot tillari o‘rtasida yetakchi o‘rinni egallab kelayotgan ingliz tilini o‘rganishga alohida e’tibor berilayotgani ham bejiz emas. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-sondagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun

barcha shart-sharoitlarni yaratilgani ham xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini rivojlanishiga ancha turtki bo‘ldi. [1]

Ushbu qarorda chet tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayotgani, ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilayotgani tanqid qilindi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etishi haqida ham fikr yuritildi. Shuningdek, qarorda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ham ko‘zda tutilgan.

Yangi tilni o‘rganish dunyoga yangi dunyoqarash va yangicha fikrlashdir. Shu sababli ham, inson qanchalik ko‘p tilni bilsa, shuncha dunyoqarashi keng bo‘ladi. Shuningdek, har qanday tilga bo‘lgan qiziqish o‘sha tilni tezroq o‘rganilishiga turtki bo‘ladi.

Agar qobiliyat bo‘lmasa, chet tilini qanday o‘rganish kerak. O‘qishingiz mumkin bo‘lgan barcha narsalarni o‘qing. Asosiy narsadan boshlaylik. Chet tillarini o‘rganish qobiliyati nisbiy tushunchadir. [2, 88] Tarjimon va yozuvchi Kato Lomb ta’kidlaganidek, “tilni o‘rganishda muvaffaqiyat oddiy tenglama bilan belgilanadi: sarflangan vaqt + qiziqish= natija”.

Xorijiy tillarni o‘rganish qobiliyatining tug‘ilishi haqida eshitganmisiz? O‘z-o‘zidan ingliz tilini o‘rganish bunday iste’dodli odamlar uchun qiyin bo‘lmaydi. Bu haqiqatan ham shundaymi? Bugun biz siz bilan insonning til qobiliyatlari va ularni o‘zingizda qanday rivojlantirish haqida gaplashamiz.

Barchaga ham yuqori matematik bilimlar berilmaydi, lekin ko‘paytirish jadvalini hamma biladi. Ingliz tili ham siz uchun hamma bilishi kerak bo‘lgan ko‘payish jadvali bo‘lsin va bu ko‘plab yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib beradi.

Aslida, 15-20 ta suhbat mavzularida tilni o‘rganish kifoya va siz chet elga chiqishda deyarli hech qanday aloqa muammolariga duch kelmaysiz. Vaqt o‘tishi bilan siz bilimingiz doirasini kengaytirasiz va ko‘plab mavzularda ravon gapira olasiz. Eng muhim jihat muntazamlikka amal qilishdir. O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘tkazish zarur. [3, 154] Tartib intizomni ham qat’iy qilish, lekin zo‘ravonliksiz o‘quvchini to‘g‘ri tarbiyalash muhimdir. O‘qituvchi ota-ona, ota-ona va o‘quvchi munosabatlarini shakllantirishimiz kerak, ya’ni tartib intizom va hamkorlikda ishlash muhimdir.

Ishonchim komilki, har kim o‘z xohlagan narsasini amalga oshirish uchun zarur resurslarga ega. “Google” tizimi ta’limdagi masofa va makon tushunchasini yo‘qqa chiqaradi. Sababi uning dasturlari dunyoning qay chekkasida bo‘lmasin talaba va pedagogni bir vaqtda ishlash imkoniyatini yarata oladi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ustuvor vazifalaridan biri aynan mana shu jihati deb O‘ylaymiz. Albatta, yoshni hisobga olgan holda yangi tillarni o‘rganishni qiyinlashtiradigan bir qator obyektiv sabablar mavjud, ammo shu bilan birga yillar davomida o‘zimiz va ehtiyojlarimizni anglash paydo bo‘ladi va harakatlar ongli ravishda paydo bo‘ladi. Bu maqsadlarga samaraliroq erishishga yordam beradi. [4, 187]

Yosh maktab o‘quvchilarida olingan bilimni yaxshi eslab qolish hamda unutish holatlari juda ko‘p uchraydi. Bu omilarga sabab darslarning 45 minutdanligi hamda choraklar orasidagi ta’tillar sababchi bo‘ladi. Bolalarga avval o‘tilgan bilimlarni takrorlash, uy vazifalarini tekshirish va o‘tiladigan yangi mavzuni tushuntirish uchun avvalo 45 minut kamlik qiladi, qolaversa, 1-2 oy davomida o‘rgatilgan ma’lumotlarni takrorlamay yurish natijasida 1-2 haftalik chorak ta’tillar natijasida olingan bilimni yoddan chiqarish holati uchraydi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, inson o‘rgangan bilimini 7 kun o‘tgach, olingan bilimining 75% yodidan chiqar ekan. Intervallik takrorlash yo‘li olingan bilimni uzoq vaqt yodda saqlashga ancha yordam beradi. Bu usulda ma’lum yangi so‘zlarni yoki olingan bilimni kundan kunga uzayib boradigan oraliqda takrorlash kerak bo‘ladi. Bu usulni qo‘llash uchun bolalar ota-onasining ham yordami kerak bo‘ladi, albatta.

Ma’lumki, tilni xar hil o‘yinlar orqali qiziqish bilan o‘rgantish kerak. Shundagina xotirada yanada yaxshi saqlanib qolishi mumkin. Masalan, bolalarga chet tili o‘rgatishda “Tugallanmagan taklif” texnologiyasini ham ancha samara beradi. Bolalarga tugallanmagan jumlani berish va uni har qanday so‘zlar bilan tezda davom ettirishi kerak bo‘ladi, shuning uchun bolalar uni tugatish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarga ega. Ular hayotning turli sohalariga tegishli va har qanday mavzuni yoritishi mumkin.

Yana bir usul shuki, har bir o‘quvchi allaqachon boshlangan voqeaga bitta jumla qo‘shadi. Ma’lum bir vaqtdan keyin tugallanmagan hikoyali varoq keyinchalik aylana bo‘ylab uzatiladi. O‘qituvchi muayyan tartibda savollar beradi, jarayonning har bir ishtirokchisi javob yozadi, hech kim uni ko‘rmasligi va uni boshqa o‘quvchi ko‘rmasligi uchun qog‘oz varag‘ini qatlaydi. Harakat aylana shaklida amalga oshiriladi. Shunday qilib, oxirida bir nechta kutilmagan ajoyib hikoya hosil bo‘ladi.

Shuningdek, o‘quvchi ham til o‘rganishga qiziqishi, moyilligi bo‘lishi kerak. Shunda o‘qituvchi muntazam

ravishda o‘quvchi qiziquvchanligini oshirib boradi, bilim beradi, shundagina ustoz va shogird usulida faolikni oshirish mumkin bo‘ladi.

O‘quvchi bolalarning chet tilida o‘qish tajribasini oshirish uchun ularga berilgan matnlarni o‘qib, mazmunini chuqur tushunishi, shu matn yuzasidan fikr almasha olishi lozim ya’ni berilgan matnlarda nima uchun aynan shu so‘z qo‘llanilganini so‘rasangiz, bemalol ayta oladigan darajada tushunishi zarur. Shuningdek, darslik kitoblari yagona bilim manbasi bo‘lmasligi lozim. Internet tarmoqlari yordamida chet tillarini o‘rgatishda juda ko‘p mavjud saytlardan samarali foydalanish ham mumkin. Bunday texnologiyalar ta’lim tizimida o‘z aksini topishi uchun, asta-sekin, bosqichma-bosqich o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida qo‘llash va ulardan oqilona foydalanishga harakat qilish kerak bo‘ladi.

Ko‘pchilik til o‘rganuvchilar xato gapirishdan qo‘rqishadi. Bolalarni xato gapirishlariga bemalol qarang. Shuningdek, gaplarini qaysi joyida xato qilishganini o‘zlari o‘ylab topishlariga imkon bering, agar shu vaziyatda ham o‘z xatosini topa olmasa, tengdoshlaridan so‘rang.

Bolalarga vaqti-vaqti bilan qiziqarli videolar qo‘yib bering. Videoni bir marotaba ko‘rganidan keyin, ikkinchi bor yana boshqatdan qo‘yib bering. Bu gal videoda nima deyayotganini orada to‘xtatib so‘rang.

Chet tilda gapirishni rivojlantirish uchun yangi so‘zlarni avval yodlagan so‘zlariga sinonim so‘zlar bilan yodlatish ham yaxshi samara beradi. Shuningdek, bolalarning o‘zlari uchun juda qiziqarli bo‘lgan biror mavzuni presentatsiya qilish orqali ham chet tilda gapirishni ancha o‘stirish mumkin.

Yakunida shuni qo‘shimcha qilib o‘tgan bo‘lardimki, til o‘rganishda zamonaviy dunyo metodlarini qo‘llash kerak deb o‘yliman. Agar sharoit bo‘lsa, o‘qituvchilarni malaka oshirishga chet davlatlarga yuborish zarur. Hech bo‘lmasa, online orqali chet el darslarini, professor o‘qituvchilarining tajribalarini o‘rganib malaka oshirish kerak. [5, 141] O‘qituvchi ham doimiy o‘z ustida ishlash orqali yangidan yangi metodlar va yangi texnologiyalardan ta’limda foydalana oladi. [6]

Raqamli texnologiyalar ta’limdagi masofa va makon to‘siqlarini olib tashlaydi. O‘quvchini mustaqil ta’lim olishga, bilim olish yo‘llarni mustaqil izlashga, o‘qituvchini esa yangi bilimlar bilan raqamli texnologiyalar asosida qurollantirib o‘quvchilariga bilim olish yo‘llarini o‘rgatishini yo‘lga qo‘ya olsakgina ta’lim tizimi sezirarli darajada yaxshilanishiga erishgan bo‘lamiz.

Yosh til o‘rganuchilarga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy ta’lim muhitini yaratish uchun quyidagi usullarni amalga oshirish mumkin:

1. Interaktiv darsliklar va ma’lumotlar: Zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda, interaktiv darsliklar, videolar, audio materiallar va interaktiv o‘yinlar foydali bo‘ladi. Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtiradigan va o‘rganishni sevimliroq qiladigan materiallarga ega bo‘ladi.

2. Texnologiyalardan foydalanish: O‘quvchilar bilan interaktiv qurilmalar (masalan, smart board, kompyuterlar) yordamida dars o‘tkazish, onlayn ma’lumotlar va veb-saytlardan foydalanish zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda juda muhimdir.

3. Taqdimot va darslarda interaktivlik: Darslarda o‘quvchilarni faol qatnashishga rag‘batlantirish uchun interaktiv taqdimotlar va darslarda o‘quvchilarning fikrlarini so‘rang. O‘quvchilar bilan munozara qilish, guruh ishlarini bajargan holda o‘rganishni ko‘paytiradi.

4. O‘quvchilarni motivatsiyalash: O‘quvchilarni ingliz tilini o‘rganishga rag‘batlantirish uchun ularning qiziqishlariga mos keladigan mavzularni tanlash, ularning shaxsiy qobiliyatlarini tushunish va ularni o‘zlashtirishlari uchun ilg‘orlik ko‘rsatish muhimdir.

5. Darslarda amaliy mashg‘ulotlar: O‘quvchilarga amaliy mashg‘ulotlar (rol o‘yinlari, dramatik ko‘rinishlar, qo‘llanmalar yaratish) orqali ingliz tilini o‘rganish imkoniyatlarini ko‘paytirish. [7]

6. Klassda har bir o‘quvchi bilan shaxsiy tarzda ishlash: Har bir o‘quvchi bilan alohida ishlash va ularning shaxsiy qobiliyatlariga e‘tibor berish juda muhimdir. Bu usul orqali har bir o‘quvchi o‘zining eng yaxshi potentsialini ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda bu usullar bilan ingliz tilini o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda respublikamizdagi maktablardagi o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirish yangi pedagogik texnologiyalar, texnik hamda axborot kommunikatsiya vositalari bilan qurollantirishni taqozo etadi. Maktab o‘quv dasturlarini, darsliklarini yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish va ularni ta’lim tizimida joriy etish o‘quvchilarni tilga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 34-sonli qarori (Qarang: https://lex.uz/docs/-5831978)

2. Daniyarovna, I. S. (2024). Chet tilini o‘qitishda madaniy jihatning muhimligi va uni o‘rgatish usullari. “мир культуры: искусство, наука, образование”. – 87-90 b.

3. Nematullayeva, M. (2023). Ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi muammolar va ularga muqobil yechimlar. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(3). – 151-156 b.

4. Adashovna, H. Z. (2023). Ingliz tili fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish masalalari. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 3(5). – 185-189 b.

5. Saidjonovna, Q. N. (2022). Chet tilini o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘rni. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5). – 139-143 b.

6. Kizi, F. M. A. Defects and errors in language learning. International journal of innovations in engineering research and technology. – 1-4 c.

7. Fayzullayeva, M. (2022). Ingliz tilini o‘qitishning 4 yangi yondashuvi: o‘quvchilarga xohlagan narsalarini bering. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(1).

8. Kato Lomb reading method of learning languages (Qarang: https://englishcoachonline.com/blog/kato-lomb-method-learn-foreign-languages/)

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Aziza Toshpulatova,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalarida umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish mavzusiga bag‘ishlanib, kompetensiya, kompetensiya turlari, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiya, umummadaniy kompetensiya haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalari faoliyatida har tomonlama kompetentlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta’limining asosiy sharti ekanligi masalasi mantiqan dalillangan. Shuningdek, umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim — talabalarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatini rivojlantirishning ahamiyati yoritib berilgan.

***Kalit so‘zlar**: kompetensiya, kompetensiya turlari, kompetensiyaviy yondashuv, asosiy kompetensiya, tayanch kompetensiya.*

Аннотация

Данная статья посвящена теме формирования общекультурных компетенций у студентов высших учебных заведений, представлены сведения о компетентности, видах компетентности, компетентностном подходе, базовой компетентности, общекультурной компетентности. Логически доказано, что формирование всесторонней компетентности в деятельности студентов высших учебных заведений является главным условием современного общества и образования. Также подчеркнута важность образования, направленного на формирование общекультурных компетенций — развитие возможности практического применения полученных знаний, умений и квалификации обучающихся в их личной, профессиональной и общественной деятельности.

***Ключевые слова:** Совместная технология, компетентность, виды компетентности, компетентностный подход, базовая компетентность, базовая компетентность.*

***Abstract:** This article is devoted to the topic of formation of general cultural competences among students of higher education institutions, information about competence, types of competence, competence approach, basic competence, general cultural competence is presented. It has been logically proven that the formation of comprehensive competence in the activities of students of higher education institutions is the main condition of modern society and education. Also, the importance of education aimed at the formation of general cultural competences — the development of the possibility of practical application of acquired knowledge, skills and qualifications of students in their personal, professional and social activities — has been highlighted.*

***Keywords:** Collaborative, competence, types of competence, competence approach, basic competence, basic competence.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish, xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchi-talabalarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalar qatoriga kiritilgan. Bugungi dunyoda pedagogning kasbiy kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta’minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan, pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning

individual imkoniyatlarini takomillashtirish, pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha psixologik ilmiy izlanishlar,kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

So‘nggi paytlarda “kompetensiya”, “kompetensiyaviy yondashuv” kabi tushunchalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “kompetensiya” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi.

Kompetensiya (lotincha: *competo* — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. [1].

Shuningdek, kompetensiya — olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqatiga aytiladi.Oliy ta’lim muassasalari talabalarida umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb asosiy masalalardan biridir.

Kompetensiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

Maxsus kompetensiya — yetarli, yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

Ijtimoiy kompetensiya — birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlik ko‘nikmalarini egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

Shaxsiy kompetensiya — shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalariga qarshi turli vositalarini egallash; Individual kompetensiya — kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlik;

Asosiy kompetensiyalar — moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari;

Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga (DTS) muvofiq bakalavriat va magistraturaning kompetensiyasi umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalar bilan belgilanadi. Umumiy madaniy kompetensiya deganda o‘z-o‘zini o‘rganish va bu holatda paydo bo‘ladigan kognitiv muammolarni mustaqil hal qilish va o‘z yetarli pozitsiyasi bo‘lgan ta’lim darajasi tushuniladi.

Umummadaniy kompetensiyalar bu:

– Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

– badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

– orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,

– umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni *(urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar vah.k.)* bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

– o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

– xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Mashhur ingliz psixologi J. Raven “Zamonaviy jamiyatdagi kompetensiya” (1984 yil, London) asarida kompetensiyaning 37 turini ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, O‘z faoliyatini nazorat qilish, his-tuyg‘ularning faoliyat jarayonida ishtirok etishi, mustaqil bilim olishga tayyorlik va qobiliyat, o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini nazorat qilish, moslashish, kelajak haqida o‘ylash, tanqidiy fikrlash, murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlik, atrof-muhitni o‘rganish, innovatsiyalardan foydalanishni bilish, qat’iyatlilik, ishonch [2, 230] va shu kabilardir.

Ilmiy manbalarda ko‘rsatilishicha kompetensiya – o‘quvchining tegishli kompetensiyani o‘zlashtirish natijasi bo‘lib, uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati kiradi. Shu sababli ma’lum bir ta’lim sohasidagi kompetensiya – bu muayyan faoliyat sohasiga xos muammolarni samarali aniqlash va hal qilish imkonini beradigan tegishli bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar, qobiliyat va tajribalarning kombinatsiyasi [3]. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim natijasiga e’tiborni qaratib, ta’lim natija sifatida, o‘zlashtirilgan ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki insonning turli xil vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir.

OTMda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, talabani modellashtirish muammolarini dolzarblashtiradi. Bu muammolar: ta’limning izchilligi va uzluksizligi, ta’limning muayyan yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarni o‘qitishining turli bosqichlarida, umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar darajalarini shakllantirish va baholashdir [4]. Zamonaviy oliy ta’limning asosiy maqsadi: malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, o‘z kasbini yaxshi biladigan, kasbiy o‘sishga tayyor, ijtimoiy moslashuvchan va professional harakatchan, yetarli darajadagi malakali mutaxassisni tayyorlashdir.

Shu o‘rinda “kompetensiya” va “asosiy kompetensiya” tushunchalarining o‘ziga xosligini aniqlash zarurati tug‘ildi. Kompetensiya deganda biz insonning o‘z hayotida muvaffaqiyatga erishishiga imkon beradigan bilim va tajribaga ega bo‘lgan bir qator masalalar nazarda tutiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv kelajakka aniq yo‘naltirishni nazarda tutadi, bu shaxsiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni hisobga olgan holda o‘z ta’limini qurish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Kompetentlik muayyan vaziyatda o‘z imkoniyatlarini adekvat baholash asosida tanlov qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi va uzluksiz ta’lim motivatsiyasi bilan bog‘liq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim — bu egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va

ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Bugungi kunda dunyo ta’limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 444 b.
2. Равен Д. Компетентность в современном обществе. – М.: Когита-Центр, 2002. – 400 с.
3. Хуторской А. Ключевые компетентности как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – 58–64 с.
4. Андреев А. Знания и компетенции. //Высшее образование в России. – 2005. – №2. – 3-11 с.
5. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi. https://doi.org/10.5281/zenodo.7728487

MALAKALI BASKETBOLCHILARDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Shokirboy Mamatov,
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy basketbol sport o‘yinida texnik-taktik harakatlarning xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi, o‘yinchilarda zukkolikning doimiy namoyon bo‘lishi, professional jamoalar o‘rtasida raqobat muhitining keskin ravishda o‘sishi, sport natijasiga ko‘plab omillar ta’sir qilishi, turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishda musobaqa davridagi yaqinlashtiruvchi mikrotsikllarga o‘yinchilarning aerob-anaerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan “konditsion” mashqlarni kiritish orqali organizm tizimlarini yuqori o‘yin shiddatiga moslashtirish asosida texnik-taktik harakatlar sifatini oshirish imkoniyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *harakat, raqobat, musobaqa, tayyorgarlik, mutaxassis, faoliyat, ommaviylik, imkoniyat, maxsus, usul.*

Аннотация

В данной статье рассматривается многообразие и вариативность технико-тактических действий в современной баскетбольной спортивной игре, постоянное проявление смекалки у игроков, резкий рост конкурентной среды среди профессиональных команд, влияние многих факторов на спортивный результат, при совершенствовании физических качеств квалифицированных баскетболистов различного игрового амплуа говорят о возможности повышения качества технико-тактических действий на основе адаптации систем организма к высокой интенсивности игры за счет включения в сближающие микроциклы соревновательного периода “кондиционных” упражнений, направленных на повышение аэробно-анаэробных возможностей игроков.

Ключевые слова: *действие, конкуренция, состязание, подготовка, специалист, деятельность, массовый, возможность, специальный, метод.*

Annotation

This article discusses the variety and variability of technical and tactical actions in the modern basketball sports game, constant manifestation of ingenuity among players, a sharp increase in the competitive environment among professional teams, the influence of many factors on the sports result, when improving the physical qualities of qualified basketball players of various playing roles, they indicate the possibility of improving the quality of technical and tactical actions based on the adaptation of body systems to high intensity of the game due to the inclusion in the approaching microcycles of the competitive period of “conditioned” exercises aimed at increasing the aerobic-anaerobic capabilities of players.

Keywords: *action, movement, competition, training, specialist, activity, mass, opportunity, special, method.*

Zamonaviy basketbol sport o‘yinida texnik-taktik harakatlarning xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi, o‘yinchilarda zukkolikning doimiy namoyon bo‘lishi, professional jamoalar o‘rtasida raqobat muhitining keskin ravishda o‘sishi hamda sport natijasiga ko‘plab omillar ta’sir qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yetakchi mutaxassislar basketbol sport turining o‘ziga xos shartlari, qoidalari va shiddati bilan qat’iy tartibga solingan muso-

baqa faoliyati, muayyan o‘yin usullarini amalga oshirish samaradorligining ayrim jihatlari, ularni takomillashtirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish evaziga malakali basketbolchilar sport tayyorgarligining butun davri davomida texnik-taktik salohiyatni saqlashga va uning darajasini asosiy musobaqa sikllari bosqichlarida oshirish zarurligiga e’tibor qaratmoq lozimligini ta’kidlamoqdalar.

Bugungi kunda jahonda mutaxassis-olimlar tomonidan yuqori malakali basketbolchilarga mo‘ljallangan model ko‘rsatkichlar asosida ko‘p qirrali ilmiy tadqiqotlar, uslubiy tavsiyalar doimiy ravishda yangilanib, texnik-taktik tayyorgarlik turlari bo‘yicha obyektivlashtirilgan me’yoriy talablar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etish uchun keng muhokamaga qo‘yilmoqda.

Bunday chora-tadbirlar sportchilarni saralash hamda sport natijalarini bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etayotganligi bilan diqqatga sazovor bo‘lmoqda.

Sohaga oid mutaxassislar tomonidan olib borayotgan ilmiy-uslubiy izlanishlar, tadqiqotlar turli yoshdagi basketbolchilar sport tayyorgarligining alohida muayyan o‘yinda va umumiy o‘yin mavsumidagi o‘yinchilar va jamoa musobaqa faoliyatining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini baholash va tahlil qilish asosida mashg‘ulotlar jarayonini rejalashtirish va boshqarish evaziga amalga oshirish zaruratini ta’kidlab, bu borada mutaxassislar va murabbiylar uchun ko‘plab ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yishmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz basketbolida ham hal qilinishi kerak bo‘lgan qator muammolarni uchratish mumkin.

Bular quyidagilar:

– basketbol sport o‘yinlarining aholi o‘rtasida ommaviylik darajasining pastligi va targ‘ibot-tashviqot ishlarining sustligi;

– milliy terma jamoalarga iqtidorli yoshlarni tanlash va saralash tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– basketbolchilarning uzoq muddatli tayyorlash tizimini ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

Musobaqa faoliyatining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy asoslangan ma’lumotlar va turli o‘yin ampluasidagi basketbolchilarning aniq va obyektiv model ko‘rsatkichlarining yo‘qligi o‘yinchilarning texnik-taktik harakatlari, o‘zaro harakatlar variantlari, jamoa o‘yini sxemalari va modellarining samaradorligini takomillashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Maxsus tayyorlovchi mashqlar malakali sportchilarning mashg‘ulotlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Bular harakatlarning muvofiqlash tuzilishi, diapazoni, makon-vaqt, ritm hamda energetik tavsiflarga, asab-mushak zo‘riqishlari, jismoniy qobiliyatlarning ko‘proq namoyon bo‘lishi jihatlaridan musobaqa mashqlariga ancha o‘xshash bo‘lgan harakatlardir.

Maxsus tayyorlovchi mashqlarni tanlab olish tanlangan sport turining xususiyatlari bilan belgilanadi, shuning uchun bunday mashqlar diapazoni, odatda, nisbatan cheklangan bo‘ladi.

Maxsus tayyorlovchi mashqlarni vazifasiga qarab quyidagi turlarga ajratadilar: a)hozirlovchi — asosan harakatlar texnikasini o‘zlashtirishga qaratilgan; b) rivojlantiruvchi — ko‘proq jismoniy va ruhiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan; v)aralash (kombinatsiyalashtirilgan) — ayni bir vaqtda ham sifatlarni, ham harakatlar texnikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar.[1, 8]

Basketbolchilarni tayyorlash tizimi 4 bosqichni o‘z ichiga oladi: fundamental tayyorgarlik, sport mahoratini, kasbiy faoliyatni va sportdagi ko‘p yillikni egallash. Bu bosqichlar pasport bo‘yicha va biologik yoshni, davomiylikni, izchillikni, muvofiqlikni va har bir bosqichda mashg‘ulotning prinsipial yo‘nalganligini inobatga olib basketbol mashg‘ulotlari bilan tizimli shug‘ullanishdan boshlab ularni yakunlanishiga qadar yosh chegaralarining tahlili asosida aniqlanadi. Har bir bosqich mashg‘ulotni ma’lum davomiyligi va yo‘nalganligiga bog‘liq.[2, 104]

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilish jarayonida sportchilar, ya’ni jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar to‘g‘risida doimiy va batafsil axborot bilan ta’minlab turilgan taqdirdagina sport murabbiylari, pedagoglar va sohaning boshqa mutaxassislari o‘z faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari mumkin.

Bunday ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash, o‘z navbatida, trenirovka mashg‘ulotlarining asosiy va hal qiluvchi yo‘nalishlarini hamda kerakli samarali vositalarini tanlash, tayyorgarlik ishlarini sifatli rejalashtirish, dasturlash va samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi.[3, 4]

Bo‘lajak raqib yoki jamoalar haqida ma’lumotlarni to‘plash ularning avvalgi musobaqalarda namoyish etgan o‘yin faoliyatini videofilmlar orqali tahlil qilish, musobaqa haqidagi natijalarni o‘rganish, fotolavhalarni ko‘zdan kechirish, oshkor qilmasdan mashg‘ulotlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Musobaqa davomida ish qobiliyatini tushirmasdan, texnik-taktik imkoniyatlar salohiyatini saqlab qolish va so‘nggi daqiqalargacha yuksak o‘yin mahoratini ko‘rsatish uchun vaqti uzaytirilgan o‘yin mashg‘ulotlari, 2:2, 2:3, 3:3, 3:4, 4:4, 4:5 va aksincha o‘yinchilar tarkibida o‘yin mashqlari qo‘llanishi mumkin.[4, 324]

Rivojlanishning har bir davrdagi sportchi texnikasi – bu o‘yinchiga qoidalar doirasidan chiqmay, kurashning og‘ir vaziyatlarida muvaffaqiyatli harakat qilishga imkon beradigan eng samarali, amalda sinalgan vositadir. Bir lahzada vujudga keladigan o‘yin holatlarini eng yaxshi natijalarga erishish uchun, basketbolchi har xil texnik malakalar va usullarning hammasini egallashi, eng to‘g‘ri keladigan usulni yoki usullarni tanlay olishi, ularni tez va aniq bajarishi kerak. Basketbolchi yaxshi natijaga erishmoqchi bo‘lsa, u ko‘p texnik usullarni egallagan bo‘lishi, aniq sharoitga muvofiq keladigan usulni tez tanlay bilishi hamda ularni aniq bajara olishi lozim.[5, 23]

Yuqorida bayon qilingan muammolarning umumiyligi, shuningdek, ularni hal qilish istiqbollari soha oldiga qo‘yilgan vasifalar zaruriyatini belgilab beradi:

– turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishda musobaqa davrida o‘yinchilarning aerob-anaerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni;

– malakali basketbolchilarning o‘yin chidamkorligini oshirishga qaratilgan va turli o‘yin ampluasi xususiyatlari bo‘yicha musobaqa talablariga munosib texnik-taktik tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llanishini nazorat qilishni;

– turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning har xil o‘yin sharoitida eng qulay masofalardan to‘pni savatga tashlash pozitsiyalarini qulay zona nuqtalarni aniqlash dasturini ishlab chiqish va o‘yinchilar faoliyatini tahlil qilishni;

– turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish metodikasini tajribada asoslash va uni qo‘llashda kuzatilishi mumkin bo‘lgan holatlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozimligini nazarda tutishni taqozo etadi.

Maqsadli belgilab olingan vazifalarga asoslanib quyida ilmiy-uslubiy g‘oyalarni ilgari surgan holda masalaga yechim va oydinlik kiritish lozimligiga olib keladi.

Bular ilmiy – uslubiy izlanishlar, amaliyot tajribalarini kuzatish jarayonida quyidagicha mazmun va ma’noda talqin etilgan:

– Turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishda musobaqa davridagi yaqinlashtiruvchi mikrotsikllarga o‘yinchilarning aerob-anaerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan “konditsion” mashqlarni kiritish orqali organizm tizimlarini yuqori o‘yin shiddatiga moslashtirish asosida texnik-taktik harakatlar sifatini oshirish imkoniyatini optimallashtirish.

– Hujum zonasini (basketbol maydonining yarimi) to‘qqizta shartli zonalarga bo‘lish asosida jamoaning har bir o‘yinchisi uchun “individual to‘p tashlash xaritasi”ni ishlab chiqish dasturi orqali o‘yin davomida turli ampluadagi malakali basketbolchilarning har xil masofalardan to‘pni savatga tashlashda “eng qulay pozitsiyasi”ga olib chiqish imkoniyati kengaytirish.

– Turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning musobaqa talablari ya’ni, yuqori shiddat va o‘yin vaziyatlarining tez kechishi asosida modellashtirilgan muammoli vaziyatli-taktik “tengsizlik vazifalarni” mashg‘ulot jarayoniga kiritish hisobiga texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish metodikasi takomillashtirish nazarda tutilgan.

Natijada turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishda musobaqa davridagi yaqinlashtiruvchi mikrotsikllarda o‘yinchilarning aerob-anaerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan “konditsion” mashqlardan foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatib, organizm tizimlarini yuqori o‘yin shiddatiga moslashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishini aniqlashga imkon yaratiladi.

Shuningdek, turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarda o‘yin chidamkorligining o‘sishiga qaratilgan texnik-taktik harakatlar “Blok tizimi” ishlab chiqilib, uning musobaqadagi natijadorlikni oshirishga ijobiy ta’sir qilishi aniqlanadi.

Texnik-taktik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini dastlabki usulda o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning qat’iy tartibga solingan tarkibiy qismlarining tizimli tuzilishi bitta mashg‘ulotda turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning o‘yin faoliyatida vujudga keladigan barcha vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ishlab chiqilgan va asoslangan, o‘yin ampluasini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish metodikasi klublar va terma jamoalar basketbolchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

Birinchidan: turli o‘yin ampluasidagi malakali basketbolchilarning jismoniy sifatlarini butun sport mavsumi davomida takomillashtirishga e’tibor qaratish lozim. Musobaqa davrining yaqinlashtiruvchi mikrotsikllarida o‘yinchilarning aerob-anaerob qobiliyatlarini saqlash va oshirishga alohida e’tibor berish lozim, bu tana tizimlarining o‘yinning yuqori shiddatiga moslashishiga yordam beradi.

Ikkinchidan: basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi jarayoni o‘yin chidamkorligini oshirishga yordam berishi lozim, shu bilan birga, mashg‘ulot sharoitlari va qo‘llaniladigan yuklamalar musobaqa sharoitlariga maksimal ravishda yaqin bo‘lishi lozim.

Uchinchidan: hujumdagi jamoaviy taktik kombinatsiyalar va sxemalarni ishlab chiqishda o‘yinchilarning mashg‘ulotlar davomida olingan individual texnik-taktik xususiyatlarini turli masofalardan savatga to‘p tashlash hisobga olish lozim.

To‘rtinchidan: tavsiya etilgan metodikaning bo‘limlaridan biri bo‘lgan hujum zonasini to‘qqizta shartli to‘p tashlash zonalariga bo‘lish tamoyiliga asoslangan har bir jamoa o‘yinchisi uchun “to‘pni savatga tashlash individual xaritasini” ishlab chiqish dasturi musobaqa jarayonida o‘yinchilarni “eng qulay pozitsiyasi”ga olib chiqishga imkon beradi.

Beshinchidan: basketbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish jarayonida maydonning turli zonalarida raqib jamoalari o‘yinchilari o‘rtasida himoya va hujumda yuzaga keladigan “tengsizliklarni” hisobga olish lozim. Ushbu yo‘nalishda basketbolchilarni tayyorlash jarayonida turli ampluadagi o‘yinchilarning pozitsiyalarida yuzaga keladigan muammoli vaziyatli-taktik vazifalarni va ularni hal etish tamoyillarini, turli darajadagi o‘yinchilarga qarshilik ko‘rsatish harakati malakalarini joriy etish taklif etiladi.

ISSN 2181-8274

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zDJTI nashriyot-matbaa bo‘limi, 2005. –176 b.
2. Kipchakov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Sport turlari bo‘yicha). Darslik. – S.: SamDU nashriyoti, 2020. – 248 b.
3. Musayev B.B. Sport metrologiyasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2015. – 200 b.
4. Pulatov A.A., Ganiyeva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 348 b.
5. Tursunaliyev I.A. Sport o‘yinlari. Darslik. – T.: “Umid Design” nashriyoti, 2021. – 332 b.

HUNARMAND XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI

(Jizzax viloyati misolida)

Dildora Tursunova,
Jizzax davlar pedagogika universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta’lim”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada hunarmandchilikning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan hunarmand xotin-qizlar, mamlakatimizda ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, hunarmandchilikning rivojlanishi va ommalashishida hunarmand xotin-qizlarning o‘rni, bu borada Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar, viloyatdagi hunarmand xotin-qizlar faoliyatidagi yutuqlar va muammolar, Jizzax vohasining qadim hunarmandchilik an’analarini yanada rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z boradi. Hunarmandchilik bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar, avvalo, o‘zlarini foydali mehnat bilan band qiladilar. Bu ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: *Hunar, hunarmand, hunar turlari, hunarmand xotin-qizlar, Jizzax vohasi hunarmandchilik an’analari, kashtachilik, quroqchilik, badiiy buyumlar yasash, milliy kiyimlar titish, hunarmandchilik markazlari.*

Аннотация

В данной статье женщины-ремесленницы, работающие в различных областях ремесел, возможности, созданные для них в нашей стране, роль женщин-ремесленниц в развитии и популяризации ремесел, работа, проводимая в Джизакской области в этом направлении, достижения и проблемы. в деятельности женщин-ремесленниц региона, древнего оазиса Джизак, говорится о реформах, которые можно провести для дальнейшего развития ремесленных традиций. Женщины, занимающиеся ремеслами, в первую очередь занимаются полезным трудом. Это поможет им найти свое место в обществе, внести достойный вклад в развитие общества через свою профессию.

Ключевые слова: *Ремесло, ремесленник, виды ремесел, женщины-мастерицы, ремесленные традиции Джизакского оазиса, вышивка, рукоделие, изготовление предметов искусства, национальная одежда, ремесленные центры.*

Annotation

In this article, women artisans working in various fields of handicrafts, the opportunities created for them in our country, the role of artisan women in the development and popularization of handicrafts, the work being carried out in Jizzakh region in this regard, achievements and problems in the activities of artisan women in the region, the ancient oasis of Jizzakh it talks about reforms that can be carried out for the further development of craft traditions. Women engaged in handicrafts, first of all, occupy themselves with useful work. This will help them to find their place in the society, to make a worthy contribution to the development of the society through their profession.

Keywords: *Craft, craftsman, types of crafts, women craftswomen, craft traditions of the Jizzakh oasis, embroidery, drywork, making art objects, national clothing, craft centers.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatida avvalo, xalqimizning farovonligi kishilarning munosib mehnat qilishlarini ta’minlash turibdi. Ayniqsa, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim olishlari va kasb-hunar egasi bo‘lishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi Farmonida O‘zbekiston xalqining boy madaniy merosi va

tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish va ko‘paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini ta’minlash belgilangan [2, 530]. Hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarga olib chiqish borasida ham hunarmandlarimizga talay imtiyozlar berilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-apreldagi 245-sonli qaroriga asosan 24 yo‘nalishdagi hunarmandchilik mahsulotlari ekspertiza yig‘imidan ozod etildi. 2021-yil 30-dekabrdagi “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 23-fevraldagi PQ–70-son “Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 12-iyundagi PF–91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mamlakatimizda hunarmandchilikning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Hunarmandlarimiz ushbu imtiyozlardan munosib ravishda foydalanib, ishlab chiqargan mahsulotlari bilan xalqaro festival, ko‘rgazma-tanlovlarda ishtirok etmoqdalar [3, 21].

Mamlakatimizda hunarmandlik azaldan yaxshi rivojlangan. Bolalikdan hunar o‘rganish, yaratgan mahsuloti va mehnati bilan odamlarga naf keltirish xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo‘nalishlar va maktablar bilan boyib borgan. Tarixdan yaxshi ma’lumki momolarimiz azaldan hunarning bir nechta turlari bilan shug‘ullanib kelishgan. Jamiyatda kasb-hunarli insonlarga nisbatan o‘ziga xos hurmat shakllangan. Hunarmandchilik xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqimiz farovonligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratmoqda. 2019-yilda Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan I Xalqaro Hunarmandchilik Festivalining tantanali ochilish marosimida Prezidentimiz “Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o‘rin tutadi. Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo‘lishi — sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz”, – deb ta’kidlaganlar [1, 27].

Vatanimiz hududida hunarmandchilik qadim tarixga borib taqalishi “Avesto” kitobida ham ma’lumotlar mavjud. Muqaddas islom dinimiz ta’limotida ham kasb-hunar egallashga, jamiyatga foydasi tegadigan ish bilan shug‘ullanishga katta e’tibor bergan, bekorchilikni esa qattiq tanqid qilgan va kasb-hunar o‘rganish, ilm olishga nafaqat undagan, balki buyurgan.

Bundan tashqari Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy kabi ko‘plab allomalarning asarlarida kishilarning hunar o‘rganishi haqidagi muhim ma’lumotlarda aks ettirilgan [4, 65].

Xotin-qizlar hunarmandchiligi bo‘yicha bir qancha tarixchi va san’atshunos tadqiqotchilarimiz tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. D.Yo‘lchiyeva, F.To‘xtamisheva, S.Abduqodirovlar dissertatsiyalarida xotin-qizlarning hunarmandchilik faoliyati, kashtachilik, gilamchilik haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Jizzax vohasi ham o‘zining qadim tarixi va o‘ziga xos hunarmandchilik an’analariga egadir. Mazkur tadqiqotda vohaning hunarmand ayollari, ularning faoliyatini yoritishga e’tibor qaratdik.

Natija. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi a’zolarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Qayd etilishicha, o‘tgan yilda hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi doirasida 91 534 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Ularning 17 565 nafari usta hunarmand, 73 969 nafari shogirdlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ularning 68 foizi ayollar hisobiga, 44 foizi esa yoshlar hissasiga to‘g‘ri keldi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda hunarmandchilik jadal rivojlanib bormoqda. Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti Rozi Grinliz bunga alohida urg‘u berib o‘tdi. “O‘zbekistonda bo‘lganimizda hunarmandchilik rivojiga guvoh bo‘ldik. Bu bizni xursand qilmay qolmaydi. O‘zbekistonda o‘tgan kunlarimiz yoddan chiqmaydigan bo‘ldi”, — deya ta’kidlab o‘tdi Rozi Grinliz.

Buning natijasida Respublika “Hunarmand” uyushmasi tomonidan xotin-qizlar hunarmandchiligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida uyushmada 2018 yilga qadar faoliyat yuritayotgan a’zolar soni 9 823 nafarni (shundan ayollar soni 4 616nafarni) tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda ajratilgan kreditlar, subsidiyalar va usta-shogird maktablarining tashkil topishi hisobiga sohada band bo‘lgan hunarmandlar soni 103 ming nafar (shundan ayollar 47ming nafar)ni, shogirdlar soni 300 ming nafar (shundan ayollar 153ming nafar)ni tashkil etdi.

Hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlar o‘z faoliyatlarini tadbirkorlik asosida ham tashkil etmoqdalar. “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga imtiyozli kreditlar berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so‘mdan ziyod kredit mablag‘lari ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar tadbirkorlik va kasb-hunar

ISSN 2181-8274

markazlari tomonidan o‘qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi.

Besh muhim tashabbus doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta’minlandi. Kichik biznesning ijtimoiy vazifalari ham muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes kishilarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ijodkorlik salohiyatlarini namoyish etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Unda yirik korxonalardan farqli o‘laroq, ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilar manfaatlari o‘rtasida bog‘liqlik yaqqol ko‘rinib turadi. Kichik biznesning yana bir muhim ijtimoiy vazifasi shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari: ayollar, nogironlar, pensionerlar va boshqalarni ish bilan ta’minlaydi hamda ularning mehnatidan keng foydalanadi. Yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish tajribasini oshirishga sharoit yaratib beradi [5, 147].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ayollarni kasbga o‘rgatish orqali ularning bandligini ta’minlashga ko‘maklashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni paytda uyushma viloyat bo‘limi faollari tomonidan mazkur farmon mazmun-mohiyatini xotin-qizlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ularni tadbirkorlikka jalb etish va faoliyatini boshlashda ko‘maklashishga qaratilgan bir necha loyiha amalga oshirilmoqda. Bo‘lim qoshida ayollarni biznes yuritishga o‘rgatish, moliyaviy-huquqiy bilimini oshirish, qandolatchilik, tikuvchilik kabi kasblarga yo‘naltirish guruhlari faoliyat ko‘rsatayotir. Guruh a’zolari bank va soliq idoralari mutaxassislari bilan hamkorlikda tumanlarda seminar va suhbatlar o‘tkazmoqda, biznes rejalar ishlab chiqishda ko‘maklashmoqda.

— Bu ishda, ayniqsa, qishloq xotin-qizlariga alohida e’tibor qaratilmoqda, — deydi “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar uyushmasi Jizzax viloyati bo‘limi rahbari Nozima Tugalova. — Shu maqsadda hozirgacha Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki viloyat filiali, tuman xotin-qizlar qo‘mitalari, “Yagona darcha” markazi, soliq inspeksiyalari bilan hamkorlikda Baxmal va Forish tumanlarida tadbirkorlikni boshlash istagida bo‘lgan xotin-qizlar uchun o‘quv-seminarlar tashkil etildi. Ayni paytda ushbu seminarlarda ishtirok etgan qizlar kredit olish uchun hujjat topshirib, tikuv mashinalariga buyurtma bermoqda [6, 331].

Hunarmandchilik bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar, avvalo, o‘zlarini foydali mehnat bilan band qiladilar. Bu ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga ko‘maklashadi. Jizzax viloyatida xotin-qizlar hunarmandchiligini rivojlantirish asosida:

– viloyatning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada oshirish, aholi bandligini ta’minlash, insonlar turmush farovonligiga erishiga;

– vohaning qadim hunarmandchilik an’analariga yangidan sayqal va jilo berib, ularni keng targ‘ib qilish, Jizzax vohasi tarixi va madaniyatini yaxshiroq bilishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nochlin, L. (1971). Why have there been no great women artists? ARTnews. – 22-39 p.
2. Broude, N., & Garrard, M. D. (1982). Feminism and art history. Art bulletin, 64(4). – 528-569 p.
3. Duncan, C. (1990). Happy mothers and other new ideas in French art. Artforum International, 33(6). – 20-23 p.
4. Pollock, G. (1984). What’s wrong with images of women?. Screen Education, 41. – 61-77 p.
5. Nochlin, L. (1988). Why have there been no great women artists? Women, art, and power and other essays. – 145-178 p.
6. Parker, R., & Pollock, G. (1987). Farewell to an idea: Episodes from a history of modernism. Tulsa Studies in Women’s Literature, 6(2). – 329-344 p.

MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulandon Jo‘rayeva,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlar va globallashuv jarayonlarining ta’siri tufayli yosh avlod ma’naviyati va dunyoqarashida salbiy o‘zgarishlarning paydo bo‘layotganligi, qadriyatlar muammosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari, namoyon bo‘lish shakllari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada milliy-axloqiy qadriyatlarning o‘quvchilar xulq-atvoridagi agressivlikni bartaraf etishda asosiy manba ekanligi va bu borada didaktik jarayon oldiga qo‘yiladigan vazifalar keltirib o‘tilgan. Milliy-axloqiy qadriyatlar — millat tomonidan yaratilgan ma’naviy boylik bo‘lib, xususan, u o‘zida shu millat vakillariga xos barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni o‘tmishdan bugungi davrgacha yetkazadi.

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy-axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, saxiylik, oliyjanoblik, mehribonlik.*

Аннотация

В данной статье, вследствие влияния информационных и глобализационных процессов, происходят негативные изменения в духовности и мировоззрении молодого поколения, анализ научно-исследовательских работ по проблеме ценностей, их специфические характеристики, виды и проявления. значений, объясняются формы. Также в статье указывается, что национально-нравственные ценности являются основным источником устранения агрессивности в поведении учащихся и задачи, которые ставятся перед дидактическим процессом в этой связи. Национально-нравственные ценности являются духовным богатством, созданным нацией, в частности, они передают все человеческие качества и особенности, характерные для представителей этой нации из прошлого в настоящее.

Ключевые слова: *ценности, национальные ценности, национальные моральные ценности, человечность, щедрость, благородство, доброта.*

Annotation

In this article, due to the influence of information and globalization processes, negative changes are occurring in the spirituality and worldview of the younger generation, analysis of research work on the problem of values, their specific characteristics, types and manifestations. meanings, forms are explained. The article also indicates that national and moral values are the main source of eliminating aggressiveness in the behavior of students and the tasks that are set for the didactic process in this regard. National and moral values are the spiritual wealth created by a nation; in particular, they convey all the human qualities and characteristics characteristic of representatives of this nation from the past to the present.

Keywords: *values, national values, national moral values, humanity, generosity, nobility, kindness.*

Dunyoda axborotlar va globallashuv jarayonlarining shiddatli xuruji tufayli yosh avlod ma’naviyati va dunyoqarashida salbiy o‘zgarishlar kuzatilmqoda. Chunonchi, agressivlik, janjalkashlik, dangasalik, egoistlik, tekinxo‘rlik kabilar shular jumlasidandir. Afsuski, bu kabi salbiy illatlar nafaqat shaxs faoliyatining izdan chiqishiga, balki oilalar parokandaligiga va jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘ladi. Keyingi yillarda ushbu muammo barcha ota-onalar, ta’lim muassasalari, mahalla va qolaversa, jamiyatni birdek tashvishga solmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev deyarli barcha nutqlari va asarlarida ushbu muammoga nisbatan jiddiy yondashish kerakligini va yoshlarni har qanday ma’naviy xurujlardan himoyalash zarurligini ta’kidlab kelmoqdalar. Demak, yoshlar ma’naviyatidagi bu kabi salbiy illatlarni bartaraf etishda milliy-axloqiy qadriyatlarga tayanish va ularni yosh avlod ongiga chuqurroq singdirish oldimizda turgan dolzarb masaladir. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala — bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” [6].

To‘plangan manbalarga ko‘ra bugungi kunga kelib mamlakatimiz olimlari tomonidan milliy qadriyatlar, ularning mazmun-mohiyati, qadriyatlarning millat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni, ularning tarbiyaviy ta’siri hamda ta’lim-tarbiya jarayonida ular vositasida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish ustida keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Qadriyatlar inson ongi va faoliyatining mahsuli ekan, ular insonlarning orzu-umidlari, istaklari, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Faylasuf olimlardan biri J.Tulenov qadriyatlarni o‘rganar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Qadriyatlar deyilganda faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahami-

ISSN 2181-8274

yat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi, qadriyatlar qadr-qimmat degan ma’noni bildiradi” [5, 13].

Albatta, qadriyatlar nafaqat o‘tmish ijtimoiy hayotiga xizmat qilishi, balki bugungi davr taraqqiyotiga, ayniqsa yoshlar tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Darhaqiqat, dono xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy-axloqiy qadriyatlar mana necha ming asrlarkim, yoshlarning axloqiy qarashlarini yuksaltirishda xizmat qilib kelmoqda.

E.Yusupov “Qadriyatlar aksiologiyasi” nomli kitobida qadriyatlarning paydo bo‘lishi, ularning turlari va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tahlil qiladi: “qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy boyliklardir” [6, 325].

O.Musurmonova izlanishlarida qadriyatlarning pedagogik jihatlarni tahlil qilib beradi “Qadriyat — insonning ma’naviy ehtiyojlari asosida paydo bo‘lgan, amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan, o‘z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma’naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma’naviy madaniyatini shakllantirish manbayi sifatida qadrlanib kelingan, ma’naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmuidir” [1, 108].

Yana bir tadqiqotchi olimlardan biri N.Oripova ilmiy izlanishlarida qadriyatlar muammosini o‘rganar ekan, ularni bir necha turga ajratadi:

Qadriyatlarning shakliga ko‘ra:

1. Moddiy va ma’naviy qadriyatlar.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra:

1. Milliy qadriyatlar.
2. Umuminsoniy qadriyatlar;
3. Mintaqaviy qadriyatlar [3, 54].

Ushbu qadriyatlar orasida ma’naviy axloqiy qadriyatlar alohida o‘rin tutib, ular orqali biz yosh avlodda axloqiy fazilatlar: insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehribonlik, oliyjanoblik, shirinso‘zlik, saxiylik, kattalarni hurmatda va kichiklarga izzatda bo‘lish kabilarni singdirib boramiz.

Demak, yosh avlodning ma’naviyati milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish asosida shakllanadi. Yuqorida tadqiqotchilarning milliy qadriyatlar haqidagi fikr-mulohazalarini o‘rgangan holda shuni ta’kidlash joizki, milliy qadriyatlar — millatning tili, dini, tarixi, adabiyoti, san’ati, rasm-rusumlari, urf-odatlari, bayram-u sayillari, boshqacha aytganda, madaniy-ma’naviy merosi, insoniy fazilatlari, xislatlarining yig‘indisidir.

Milliy qadriyatlar — millat tomonidan yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklarni, xususan, shu millat vakillariga xos barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni o‘tmishdan bugungi davrgacha yetkazadi. Ular kishilar tarixiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar kundalik hayotimizga shu darajada chuqur singib ketganki, hatto ularni kishilarning turmush tarzi, ongi, dunyoqarashi va faoliyatida ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, milliy-axloqiy qadriyatlar kishilarning kundalik muloqoti, axborotlar almashinuvi, ma’naviy ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqish va ideallarida namoyon bo‘ladi.

Milliy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati haqida to‘xtalar ekanmiz, ularning yosh avlod tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’lim-tarbiyaviy ta’sirini quyidagicha ifodaladik:

– milliy-axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilar milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanisha boradilar;

– milliy-axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi yanada oshadi;

– milliy-axloqiy qadriyatlar orqali ma’naviy sog‘lom va ota-onasi, o‘z vatanini qadrlovchi insonlar yetishib chiqadi;

– milliy-axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarda shirinsuxanlik, muomala madaniyati, oliyjanoblik kabi ijobiy sifatlar shakllanadi;

– milliy-axloqiy qadriyatlar yordamida o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, hamdardlik va saxiylik, jipslik kabi jamoaviy birlik shakllanadi.

O‘quvchilar xulq-atvoridagi agressivlikni bartaraf etishda milliy-axloqiy qadriyatlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– o‘quvchilarni globallashuv davridagi axloqiy odat va ko‘nikmalarga zid bo‘lgan negativ xatti-harakatlardan himoya qilish uchun;

– oila va jamiyat manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun quyishga o‘rgatish maqsadida;

– milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlardagi axloqiy me’yor haqidagi g‘oyalarga rioya qilishni o‘rgatish uchun;

– shaxslararo muloqotga kirishishda axloqiy etiketga amal qilishni targ‘ib etish uchun;

– kelajakda yosh avlodning jamiyatning faol a’zosiga aylantirish uchun va boshqalar.

Milliy-axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilar xulq-atvoridagi agressivlikni bartaraf etishda ularning diqqatini quyidagi masalalarga qaratishi kerak deb hisoblaymiz:

Dars jarayonida milliy-axloqiy qadriyatlar, ularning shaxs hayotidagi o‘rni haqida o‘quvchilarga tushunchalar berib borish.

Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur allomalar, buyuk shaxslarning axloqiy g‘oyalarini o‘quvchilar o‘rtasida targ‘ib qilish.

O‘quvchilar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni muntazam kuzatib va tartibga solib borish.

O‘quvchilarning axloqiy tarbiyasi haqidagi oila va mahalla doirasidagi ishlarni kuchaytirish.

O‘quvchilarning kundalik faoliyatini maqsad asosida tashkil etishga o‘rgatish.

Darsdan tashqari jarayonda o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash.

O‘quvchilar qiziqish bilan ishtirok etadigan sinfdan tashqari tadbirlarni aniqlash va boshqalar.

O‘quvchilarni nafaqat o‘zbek milliy-axloqiy qadriyatlariga xos tarbiyasini shakllantirishimiz, balki, boshqa millatlarning axloqiy qadriyatlarini hurmat qilishga o‘rgatishimiz lozim.

O‘quvchilarni millatlararo hamkorlik ruhida tarbiyalashga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda turli millat xalqlarining hayotidan misollar keltirish bilan mamlakatimizdagi tinchlik, farovonlik, ahillik borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, davlat siyosati bilan tanishtirish hamda o‘quvchilarda shukronalik hissini tarkib toptirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asosiy maqsadimiz o‘quvchilarda milliy-axloqiy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirish ekan, bunda pedagogik jarayon oldiga aniq maqsad qo‘ya olishimiz, ta’lim jarayonini muayyan bosqichlarga bo‘lib tashkil etishimiz, shuningdek, bosh va xususiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod hamda usullarni to‘g‘ri tanlay bilishimiz lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед. фанл.докт. … ёзилган дисс. (13.00.01.) Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлиги. Низомий номидаги ТДПУ. – Т., 1993. – 364 б.

2. Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти, 2004. – 196 б.

3. Орипова Н.Ҳ. Вариатив моделлаштириш асосида талабалар педагогик эътиқодини шакллантириш назариясини тизимлаштириш. Пед. фанл. докт. дисс. ... – Қарши: 2022. – 234 б.

4. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 335 б.

5. Юсупов Э., Исмоилов Ф. Инсон баркамоллиги. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 240 б.

BASKETBOLNING ASOSIY TUSHUNCHALARI TA’RIFI, O‘YIN QOIDASI VA MUSOBAQA TASHKIL QILISH ASOSLARI

Zafar Namazov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada basketbol o‘yini qoidalari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Basketbol o‘yinini qanday tashkil etish va jamoa a’zolarining har birini vazifasi haqida qayd etilgan. Shuningdek, o‘yindagi texnik jihozlar haqida ham aytib o‘tilgan. O‘yin texnikasi — basketbolning rivojlanish jarayonida shakllangan musobaqaning konkret vaziyatlarni eng muvaffaqiyatli ochishga qaratilgan usullar yig‘indisidir. Bundan tashqari, Hujumda qo‘llaniladigan hujum texnikasi texnik priyomlarga to‘pni ilish va uzatish, uni yerga urib olib yurish, savatga otishlar, chalg‘itishlar kiradi.

Kalit so‘zlar: *basketbol, jamoa, o‘yin maydoni, jarima, musobaqa, shit, material*

Аннотация

В данной статье представлена подробная информация о правилах игры в баскетбол. Как организовать баскетбольный матч и роль каждого члена команды. Также упомянуто о техническом оснащении в игре. Техника игры — это совокупность приемов, направленных на наиболее успешное раскрытие конкретных ситуаций соревнования, сформировавшаяся в ходе развития баскетбола. Кроме того, наступательные приемы, используемые в атаке, включают ловлю и передачу мяча, приземление его на землю, удары в корзину и отражения.

Ключевые слова: *баскетбол, команда, игровое поле, пенальти, соревнование, дерьмо, материал.*

Annotation

This article provides detailed information about the rules of the game of basketball. How to organize a basketball game and the role of each member of the team. Also mentioned about technical equipment in the game. Game technique is a set of methods aimed at the most successful opening of concrete situations of the competition formed during the development of basketball. In addition, the offensive techniques used in the attack include catching and passing the ball, driving it to the ground, shooting to the basket, and deflections.

Keywords: *basketball, team, playing field, penalty, competition, shit, material*

Hozirgi paytda basketbol o‘yini rivojlanib bormoqda va basketbol ishqibozlari ham ko‘pchilikni tashkil qilmoqda. Basketbol o‘yinining yanada rivojlanishiga yo‘naltirilgan ishlar, sport zallari va maydonlari qurilishi va yangidan jihozlanishi, shular jumlasidandir. Hozirgi kunda respublikamizda 350 dan ortiq sportzallari, 150 dan ortiq talabga javob beradigan basketbol maydonlari, 9 mingdan ortiq sport maydonlari va maydonchalari mavjud. Jismoniy tarbiya jamoalarining aksariyatida basketbol to‘garaklari ishlab turibdi [1, 49]. Ko‘pchilik maktab o‘quvchilari ko‘ngilli sport jamiyatlarida yoki BO‘SMlarning basketbol to‘garaklarida o‘z malakalarini oshirmoqdalar. Murabbiy kadrlari Oliy o‘quv yurtlari jismoniy madaniyat fakultetlarida tayyorlanib, ularning ko‘pchiligi oliy ma’lumotga ega. O‘zbekiston Basketbol federatsiyasi xalqaro basketbol federatsiyasiga a’zo bo‘lib kirdi. Bu bizning mustaqil O‘zbekistonimiz o‘zining jamoalari bilan barcha xalqaro basketbol musobaqalarida mustaqil qatnashish huquqiga ega bo‘lganligini anglatadi.

Basketbol o‘yinida har biri besh o‘yinchidan iborat ikkita jamoa qatnashadi. Har ikkala jamoaning maqsadi raqib savatiga to‘p tashlash va boshqa jamoaning to‘pni egallab olishiga hamda uni savatga tashlashga qarshilik ko‘rsatishdan iborat. To‘pni uzatish, savatga tashlash, dumalatish yoki maydonda istagan tomonga olib yurish quyida bayon etilgan qonunlarga rioya qilingan sharoitdagina mumkin. O‘yin maydoni to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, yuzasi qattiq, yassi hamda to‘siqlardan holi joy bo‘lishi kerak. Olimpiada turnirlari va jahon birinchiligi o‘yinlari uchun maydon o‘lchovlari uzunligi 28-m x 15-m bo‘lishi va ular chegaralangan chiziqning ichki tomonidan o‘lchanishi kerak [2, 15].

Barcha yangi qurilayotgan maydonlar FIBAning muhim rasmiy musobaqalari uchun xos bo‘lgan talablarga mos, ya’ni 28-m x 15-m bo‘lishi lozim. Shift balandligi 7-m dan past bo‘lmasligi va yetarli darajada yoritilgan bo‘lishi zarur. Yorug‘lik manbalari o‘yinchilarga xalaqit bermaydigan joylarda o‘rnatilishi shart. O‘yin maydoni yaxshi ko‘rinadigan chiziqlar bilan belgilangan bo‘lishi va bu chiziqlar istagan nuqtada tomoshabinlar, reklama to‘siqlari va boshqa g‘ovlardan kamida 2-m uzoqlikda joylashishi kerak. Maydonning uzun tomonlarini belgilovchi chiziqlar-yon chiziqlar, qisqa tomonlarini belgilovchi chiziqlar esa-yon chiziqlar deb atalishi lozim. Chiziqlar shunday chizilishi kerakki, ular yaqqol ko‘rinadigan va eni 0,5-sm bo‘lishi kerak. Markaziy doira radiusi 1,80 m ga teng bo‘lishi va maydon markazida belgilanishi kerak. Radius doiraning tashqi chekkasigacha o‘lchanishi shart. Markaziy chiziq yon chiziqlariga parallel holda yon chiziqlari o‘rtasidan o‘tkazilishi va har ikkala yon chiziqlaridan 15-sm tashqariga chiqib turishi kerak. Maydonning raqib shiti orqasidagi yon chizig‘i va markaziy chiziqning yaqin chekkasi o‘rtasida joylashgan qismi jamoaning old zonasi hisoblanadi. Maydoning qolgan qismi, shu jumladan, markaziy chiziq ham jamoaning orqa zonasi hisoblanadi. Polning maydonda ajratilgan va ikkita yoy hosil qiladigan chiziqlar bilan chegaralangan qismi o‘yindan 3-ochkoli to‘plarni tashlash zonalari bo‘lib hisoblanadi. Har bir yoy savatning mutlaq markaziga to‘g‘ri perpendikulyar bo‘lgan poldagi nuqtani markaz qilib belgilab turib, tashqi qirrasigacha 6,25-radiusli yarim doira shaklida chiziladi va parallel holda yon chiziqlariga davom ettirilib, yon chiziqlarida tugaydi. [3, 21-22]

Jarima to‘pini tashlash chizig‘i har ikkala yon chizig‘iga parallel holda o‘tkaziladi. Uning uzoq chekkasi yon chizig‘ining ichki chekkasidan 5,80-m uzoqlikda turishi va u 3,60-m uzunlikda bo‘lishi kerak. Uning o‘rtasi esa ikkala yon chiziqlarning o‘rtasini tutashtiruvchi chiziqda bo‘lishi lozim. Jamoa o‘rindig‘i zonasi maydon tashqarisida, kotib stoli va jamoalar o‘rindiqlari uchun joy ajratilgan tomonda joylanadi. Zona, yon chizig‘idan tashqariga chiqib turadigan, uzunligi 2-m bo‘lgan chiziq va markaziy chiziqdan hamda perpendikulyar yon chizig‘idan 5-m narida chiziladigan boshqa chiziq bilan belgilanadi. 2-m uzunlikdagi chiziqlarning rangi va yon chiziqlari rangiga qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Ikkala shitning har biri qalinligi 0,3-sm bo‘lgan qattiq yog‘ochdan yoki shunga mos oynadek tiniq ashyodan (yog‘ochning qattiqligiga o‘xshash qattiqlikdagi bir bo‘lakdan) tayyorlanishi lozim.

Olimpiada o‘yinlari va jahon birinchiligi musobaqalari uchun shit o‘lchovlari gorizontal bo‘yicha 1,80-m va vertikal bo‘yicha 1,05-m bo‘lishi, pastki qirrasi maydon yuzasidan 2,90-m balandlikda turishi kerak. Qolgan barcha musobaqalar uchun FIBAga tegishli strukturalar, masalan, zonal va kontinental musobaqalar o‘tkazilganda zonal komissiya yoki barcha ichki musobaqalar uchun milliy federatsiya shitlarining quyidagicha o‘lchovlarini tasdiqlashga haqqilari bor: shitlar gorizontal bo‘yicha 1,80-m va vertikal bo‘yicha 1,20-m bo‘lishi, pastki qirrasi maydon yuzasidan 2,75-m balandlikda turishi mumkin yoki gorizontal bo‘yicha 1,80-m va vertikal bo‘yicha 1,05-m bo‘lishi, pastki qirrasi maydon yuzasidan 2,90-m. balandlikda turishi mumkin. Bundan qat’iy nazar, barcha yangi qurilayotgan shitlar xuddi Olimpiadalar va jahon birinchiligi uchun mo‘ljallangandek, gorizontal bo‘yicha 1,80-m va vertikal bo‘yicha 1,05-m qilib tayyorlanishi kerak. [4, 158]Agar shit yuzi silliq va oynadan tiniq bo‘lmagan ashyodan tayyorlangan bo‘lsa, oq rangda bo‘lishi shart. Uning sirti quyidagicha belgilanadi: halqa orqasiga eni 0,5-sm ga teng bo‘lgan chiziqlar bilan to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi. To‘g‘ri to‘rtburchakning tashqi o‘lchovlari gorizontaliga 59-sm, vertikaliga 45-sm bo‘lishi kerak. Uning asos chizig‘ining yuqori qismi halqa bilan teng turishi kerak. Shitlarning chetlari 0,5-sm kenglikdagi chiziqlar bilan belgilanadi. Bu chiziqlar shit rangidan yaqqol ajralib turishi lozim. Agar shit tiniq bo‘lsa, u oq chiziqlar bilan, boshqa hollarda esa, qora bilan hoshiyalanadi. Shitlarning hoshiyalari va ularda chizilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning ranglari bir xil bo‘lishi shart. Shitlarni mustahkam qilib, maydonning ikkala chekkasiga yon chiziqlariga parallel

holda, to‘g‘ri burchak ostida polga o‘rnatiladi. Ularning markazlari har biri yon chiziqlari o‘rtasining ichki chekkasidan 1,20-m narida maydondan chiqarilgan nuqtalarga perpendikulyar ravishda joylashadi.[5, 160]

Quyidagi texnik jihozlar maydon egalari tomonidan tayyorlangan bo‘lishi va hakamlar hamda ularning yordamchilari ixtiyoriga havola qilinishi kerak:[6, 208-209]

a) O‘yin vaqtini belgilovchi soat va tanaffuslarni hisoblaydigan soat; soniya hisoblovchi, hech bo‘lmaganda bitta o‘yin vaqtini belgilovchi soat yoki bitta soniya o‘lchagich bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. O‘yin bo‘limlarini va ular orasidagi tanaffuslarni hisoblashda ishlatiladigan soat hamda tanaffus vaqtini belgilashda ishlatiladigan soniya o‘lchagich shunday joylashgan bo‘lishi kerakki, ularni ham soniya hisoblovchi, ham kotib aniq va ravshan ko‘rib turishlari lozim;

b) 24-soniya qoidasiga rioya qilinishini nazorat qilish uchun barcha o‘yinchilar va tomoshabinlarga ko‘rinadigan tegishli moslama bo‘lishi kerak. Uni 24 soniya vaqtini belgilovchi operator boshqaradi.

v) Xalqaro basketbol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnoma rasmiy hisoblanib, undagi qoidalarga asosan o‘yin boshlanishidan oldin va o‘yin davomida kotib tomonidan to‘ldirib boriladi;

g) Juda bo‘lmaganda ushbu qoidalarda ko‘zda tutilgan uchta signal uchun moslamalar bo‘lishi lozim. O‘yinchilar, tomoshabinlar va kotibga ko‘rinadigan qo‘shimcha hisob tablochi bo‘lishi kerak;

d) 1-chi raqamdan 5-raqamgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar kotib ixtiyorida bo‘lishi zarur. Har safar u yoki bu o‘yinchi fol qilganida, ko‘rib o‘yinchi nechanchi fol olganligiga qarab shu raqamli ko‘rsatkichni har ikkala murabbiy ko‘ra oladigan darajada yuqoriga ko‘taradi. Ko‘rsatkichlar oq rangda bo‘lishi, raqamlari o‘lchov bo‘yicha 2-sm va eniga 1-sm, hamda 1-chidan 4-chi raqamgacha qora rangda, 5-chi qizil rangda bo‘lishi kerak;

e) Kotib jamoa follarini belgilovchi ikkita ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan bo‘lishi shart. Ko‘rsatkichlar qizil rangda va shunday tayyorlangan bo‘lishi kerakki, kotib stoli ustida turganida o‘yinchilar, murabbiylar va hakamlar yaqqol ko‘rib turishsin;

f) to‘p jamoa o‘yinchisi beshinchi fol qilinganidan so‘ng o‘yinga kirgan vaqtda, ko‘rsatkich kotib stoli ustiga, ya’ni o‘yinchisi beshinchi fol qilgan jamoa o‘rindig‘i yaqinidagi chekkaga qo‘yilishi kerak;

j) Jamoa follarini belgilash uchun ishlatiladigan munosib moslama

O‘yin texnikasi — basketbolning rivojlanish jarayonida shakllangan musobaqaning konkret vaziyatlarni eng muvaffaqiyatli ochishga qaratilgan usullar yig‘indisidir. Basketbol o‘yinni texnikasini bir tartibda o‘rganish uchun uning klassifikatsiyadan foydalaniladi. Basketbol o‘yinni 2 bo‘limdan tashkil topgan turli texnik priyomlar yordamida o‘tkazildi. Bu hujum texnikasi va himoya texnikasi har bir bo‘lim hujum va himoyadan qo‘llaniladigan texnik priyomlarning guruhlarning tashkil topadi. Usul gruppalari ularning har xil yo‘llar bilan bajarilishini o‘z ichiga oladi. Oyoqlarni to‘g‘ri ishlata bilish va chalg‘itish usullari ikkala bo‘limga ham qarashlidir. Usullarning ayrim bajarish yo‘llari o‘z navbatida bajarilish xarakteriga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Masalan usuli bir joyda turib, harakatda bo‘lganda yoki sakraganda bajarish mumkin.[6, 213]

Hujum texnikasi

Hujumda qo‘llaniladigan hujum texnikasi texnik priyomlarga to‘pni ilish va uzatish, uni yerga urib olib yurish, savatga otishlar, chalg‘itishlar kiradi. Ular maydonda harakat qilish to‘xtalishlar va burilishlar kabi usullar bilan birgalikda bajariladi. Bu usullarni bajarish eng qulay va mustahkam dastlabki holat turishidan boshlanadi. Bunda oyoqlar bukilgan, gavda bir oz oldinga egilgan, uning og‘irligi oyoqlarda barobar taqsimlangan, qo‘llar to‘pni olish va ushlab turish uchun qulay holda ko‘krak oldida bukilgan bo‘lishi kerak. To‘p keng yoyilgan barmoqlar bilan kaftlarga to‘liq tegilmagan holda tutib turiladi. [6, 215]

To‘pni uzatish

To‘pni uzatish asosiy texnik usul hisoblanadi. Uning yordamida basketbolchilar o‘zaro harakatlarini bajaradilar. O‘yin davomida uzatishning har xil usullari qo‘llaniladi. O‘yin sharoitiga qarab uzatishlar turli: dastlabki holatlardan bir joyda turib harakatda sakrab; har xil harakatlarda yaqin masofaga, uzoq masofaga, past va yuqori trayektoriya bilan yo‘nalish bo‘yicha maydonning eni, bo‘yi, diagonali bo‘ylab bajarilishi mumkin. Ikki qo‘llab ko‘krakdan va yuqoridan to‘p uzatish usullari zamonaviy basketbolda ko‘proq ishlatiladi. Ko‘krakdan ikki qo‘llab to‘p uzatish yaqin va o‘rta masofada bajaradigan o‘zaro harakatlari paytida qo‘llaniladi. Uni bajarish uchun basketbolchi turish holatida to‘pni ko‘krak oldida tutib turadi. Qo‘llar bukilgan, tirsaklar pastga tushirilgan bo‘ladi. Barmoqlar joylashtirilgan, bosh barmoqlar bir-birlariga qolganlari esa yuqoriga-oldindan qaratilgan bo‘lishi lozim. To‘pni uzatish qo‘llarning pastki-gavdaga, yuqoriga qarab dastlabki doira bo‘ylab bajariladigan harakati bilan bajariladi. Shundan so‘ng qo‘llar tez oldinga qarab to‘g‘rilanadi. Uzatish panjalarining faol harakatlari bilan yakunlanadi. To‘pni yo‘nalish tezligini oshirish uchun basketbolchi oyoqlarni yoki qadam qo‘yishi mumkin.

Savatga to‘p otishlar

O‘yinning yakuniy natijasi savatga otiladigan to‘plarning aniqligi bilan bog‘liq Ular har xil: yaqin (3 metrdan ortiq) masofalarda bajariladi. Otishlar xarakteriga sakraganda to‘plarni savatga bir va ikki qo‘llab otish mumkin. Hozirgi kunda to‘plar savatga himoyachilarning qattiq qarshiligi ostida otiladi. Shuning uchun, to‘pning savatga aniq borishga oyoqlarning, qo‘llarning, ayniqsa, panjalarning to‘g‘ri ishlashi, aniq mo‘ljal olish shu sharoitga mos samarali usulni tanlash shu bilan birga, basketbolchining muvozanat saqlashiga va har xil sharoitda qiyin koordinatsiyali harakatlari bajarish imkoniyatlarini yaratish uchun ma’lum mushak guruhlarini bo‘shashtirish

qobiliyatlariga ega bo‘lish katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy basketbolda to‘pni savatga sakraganda bir qo‘llab otish shitdan qaytgach to‘pni qayta otish, “Kryuk” usulida va yuqoridan pastga otish kabi usullar katta ahamiyatga ega.[6, 216-217]

To‘pni yerga urib yurish

To‘pni bir qo‘llab ketma-ket yerga urish to‘pni yerga urib yurish deyiladi. Bu usul bir joyda turganda, yurganda va asosan, yugurganda bajariladi. Bu usul to‘pni basketbolchining harakat qilishga qo‘llaniladigan asosiy usul hisolanadi. To‘pni yerdan har xil: yuqoriroq va pastroq, sapchitib turib yurish mumkin. U qo‘lni bukib, to‘pni bir oz yuqoriga ko‘taradi so‘ng uni yana maydonga ma’lum burchak bo‘yicha keskin itaradi. To‘p pastroq sapchib yerga urib yurilganda oyoqlar ko‘proq bukiladi. To‘pni tizzadan pastga tez-tez yerga urit yurishga oyoq va qo‘llarning har bir ma’lumda ishlashi, chap va o‘ng qo‘llarni barobar ishlata bilish, harakatni yuqoriga tezlikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Chalg‘itishlar

Asosiy maqsadni bajarishdan avval uni berkitib himoyachining diqqatini chalg‘itish uchun hujumchi bajaradigan harakatlar chalg‘itishlar deb ataladi. Ko‘pchilik texnik usullar yoki ularning qo‘shilmas chalg‘itish harakati sifatida qo‘llanishi mumkin. Chalg‘itishlar qo‘llanilayotgan priyomlarga mos sur’atda bajarilishi kerak. Bunda muvozanat saqlanib qolishi shart. Chalg‘itish harakatlarini bir marta yoki bir necha marta bajarish mumkin. Ular to‘psiz va to‘p bilan bir joyda turganda va harakatda bo‘lganda bajarilish mumkin. Harakat paytida chalg‘itishlarni bajarish qiyinroq hisoblanadi.

Basketbol — to‘rt kishilik jamoada o‘ynaladigan, oyoq to‘p bilan o‘ynaladigan sport turi. O‘yin qoidasi va musobaqa tashkil qilish asoslari quyidagicha:

1. O‘yin qoidasi: Basketbol o‘yini 10 daqiqadan iborat yarim vaqtga bo‘linadi. Har jamoada 5 ta o‘yinchilar bo‘ladi. O‘yinda ikki tomonli gollar, qo‘llab-quvvatlash, to‘pni yo‘qotish va qo‘llash, bloklashlar va boshqa harakatlar amalga oshiriladi.

2. Musobaqa tashkil qilish asoslari: Basketbol musobaqalarining tashkil etilishi uchun quyidagi asoslar muhimdir:

– Jamoalar soni: O‘yin 10 daqiqadan iborat yarim vaqtga bo‘linadi. Uchta yarim vaqt o‘ynaladi. Agar o‘yinda barobarlik bo‘lmasa, uzaytirish uchun qo‘shimcha vaqtlar belgilanadi.

– O‘yin maydoni: Basketbol maydoni 28 metr uzunligida va 15 metr eniga ega bo‘lishi kerak. Oyoqlar va ko‘rsatkichlar maydonni belgilaydi.

– Oyoq to‘p: Basketbol o‘yini oyoq to‘p bilan o‘ynaladi. To‘pni qo‘llash yoki qo‘llab-quvvatlash uchun oyoq to‘pni ishlatish kerak.

– Hakam: O‘yin hakami o‘yin qoidasiga rioya etishi, o‘yinchilarning harakatlarini baholashi va ovoz berishi uchun majburiydir.

– Qoidalarga rioya: O‘yin davomida o‘yinchilar qoidalarga rioya etishlari kerak. Agar qoidalarga rioya etilmagan bo‘lsa, hakam tomonidan jazolash amalga oshiriladi.

Bu asoslar basketbol musobaqalarining tartibi, adolatlari va samaradorligini ta’minlashda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Портнов Ю.М. Баскетбол// Учебник для вузов физической культуры. – М.: Астра семь. 1997. – 480 с.

2. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола. // Учебное пособие для студентов вузов. – М.: “Академия”, 2010. – 336 с.

3.Донченко П.И. Баскетбол. Модель программы самостоятельной (индивидуальной) подготовки по баскетболу в группах спортивного совершенствования в вузе. // Учебно- методическое пособие. – Т., 2012. – 32 с.

4. Железняк, Ю.Д. Совершенствование спортивного мас- терства: Учеб. для студ. Высш. Учеб. заведением / Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: “Академия”, 2004. – 400 с.

5. Родин А.В., Губа Д.В. Баскетбол В университете. Теоретическое и учебно-методическое обеспечение системы подготовки. – М.: Советский спорт. 2009. – 168 с.

6. Расулев А.Т. Баскетбол. // Олий укув юртлари учун дарслик. – Т.: ЎзДЖТИ нашриёт бўлими, 1998. – 278 б.

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Dilnavoz Ibragimova,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning vazifalari, jumladan, oliy ma’lumotli pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kompetentligini oshirish hamda ta’lim tizimini zamonaviylashtirish muammosi hamda o‘qituvchi faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada kompetensiya tushunchasining mazmuni va mohiyati, pedagogik kompetensiyaga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi, kompetensiyaning turlari va ularning mazmuni, pedagogik kompetensiyani takomillashtirishning mazmuni keltirib o‘tilgan. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini uzluksiz rivojlantirish muammosi bo‘yicha dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, pedagogik kompetentlik, vatanparvarlik, tashabbuskorlik, fidoiylik; mustaqil va ijodiy fikrlash, empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются задачи учителей по повышению качества и эффективности образования, включая подготовку высокообразованных педагогов, проблема повышения их компетентности и модернизации системы образования, а также роль и значение педагогической компетентности. в работе учителей. Также в статье упоминаются содержание и сущность понятия компетентности, обзор научных исследований педагогической компетентности, виды компетентности и их содержание, а также содержание повышения педагогической компетентности. Если посмотреть на мировой опыт, то во многих научно-исследовательских центрах и учебных заведениях мира ведется научно –исследовательская работа по проблеме непрерывного развития компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: *компетентность, педагогическая компетентность, патриотизм, инициативность, целеустремленность; независимое и творческое мышление, эмпатия, самоконтроль.*

Annotation

This article discusses the tasks of teachers to improve the quality and effectiveness of education, including the training of highly educated teachers, the problem of increasing their competence and modernizing the education system, as well as the role and importance of pedagogical competence. in the work of teachers. The article also mentions the content and essence of the concept of competence, a review of scientific research on pedagogical competence, types of competence and their content, as well as the content of increasing pedagogical competence. If you look at the world experience, many research centers and educational institutions around the world are conducting research on the problem of continuous development of the competence of future teachers.

Keywords: competence, pedagogical competence, patriotism, initiative, determination; independent and creative thinking, empathy, self-control.

Mamlakatimizda ta’lim sohasi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy talablardan biri, uni tez sur’atlarda o‘zgartirish, zamonaviylashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda ta’lim tizimida faoliyat olib boradigan intellektual salohiyatli va pedagogik kompetentlikka ega mutaxassislarni yetishtirishdan iborat. Keyingi yillarda ushbu muammoning ijrosi sifatida respublikamiz oliy ta’lim tizimida talaygina ishlar amalga oshirildi, xususan pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning kompetentligini oshirish hamda ta’lim tizimini zamonaviylashtirish ishlari tizimli va izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim, ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimiz eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak” [1, 229].

Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirish uchun ta’lim sohasida eng so‘nggi yangiliklarni qo‘llay oladigan, zamonaviy fikrlaydigan, bilimli va dunyoqarashi yuksak bo‘lgan pedagog kadrlar zarur. Afsuski, keyingi yillarda mamlakatimiz ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning kompetentligi yetarli darajada shakllanmaganligi namoyon bo‘lmoqda.

Shu boisdan oliy ta’lim jarayonidayoq bo‘lajak pedagoglarning kompetentligini shakllantirish muammosining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularning kompetentligini uzluksiz rivojlantirish muammosi bo‘yicha dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida, xususan,

“Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions” pedagogik klaster (YUNESKO, 2009 yil dekabr oltinchi Xalqaro Konferensiyasi), Bonn dekloratsiyasi (YUNESKO bo‘yicha Germaniya milliy komissiyasi), “Lifelong learning” 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasi (Germaniya, Bonn), Leybnits nomidagi hayot davomida ta’lim olish Markazi (DIE) va xalq universitetlari nemis assotsiatsiyasi xalqaro hamkorlik instituti (DVV), Curriculum globale variativ dasturi (Germaniya), Massachusets ixtisoslashgan markazi (AQSH), Manchester ixtisoslashgan markazi (Buyuk Britaniya), Kaliforniya universiteti (Los-Anjelos), Kumon instituti (Yaponiya) da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik, ijtimoiy va axborot kompetensiyalarni shakllantirish metodikasiga oid tadqiqotlar: S.N.Kerkhoffa, M.E.Cloudb, Y.O.Modlo, S.O.Semerikov, P.P.Nechypurenkolar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularning ishlanishlarida kompetensiya shaxsning asosiy qobiliyatlaridan biri ekanligi va uning natijasida shaxs o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkinligini uqtirib o‘tadilar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari: A.V.Kozireva, E.F. Zeyer, I.A. Zimnyayalar izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. Ularning fikricha, ijtimoiy kompetensiya shaxs faoliyatini amalga oshirishga yordam beradigan va unda tashabbuskorlik, bag‘rikenglik, mustaqillik sifatlarini rivojlanishiga ko‘maklashadigan qobiliyat turidir.

Kompetensiya — biron-bir narsani yaxshi, samarali, keng doiradagi kontekstda yuqori darajadagi o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini aks ettirish, o‘zini o‘zi qadrlash, vaziyatlar va atrof-muhit dinamikasiga tezkor, egiluvchan va moslashuvchan munosabat bilan bajarish qobiliyati” [2, 75-76].

Demak, V.I. Baydenko fikricha, kompetensiya shaxsning o‘z-o‘zini yuqori darajada boshqara olish qobiliyatidir. Chunki, shaxs o‘z hayoti davomida turli vaziyatlar va munosabatlarga duch keladi. Ana shunday jarayonda shaxsning o‘z-o‘zini mahorat bilan boshqara olishi muhimdir. Bunday jarayonda esa shaxsdan albatta ijtimoiy kompetentlik talab etiladi. Shu boisdan bo‘lajak mutaxassislarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan ham bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligini shakllantirish masalasi jadal tadqiq etilmoqda. Bu borada N. A. Muslimov, M.H.Usmonboyeva, M.T. Mirsoliyeva, N.N. Karimova, Sh. Nurullayeva, N. Oripova, O. Aslanovalarning ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovor.

N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayevlar tomonidan nashr etilgan “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli o‘quv-metodik qo‘llanmasida “kompetentlik” tushunchasiga qo‘yidagicha ta’rif beriladi: “Kompetentlik” (ingl. “competence” — “qobiliyat”) — faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishi” – deb tilga olinadi [3, 4].

Shu bilan birga, kompetensiya — shaxsning turli, tasodifiy vaziyatlar va odatiy jarayonlarda o‘zini boshqara olishi hamda shaxsning kishilar, jamoa bilan muloqotga kirishishi, murakkab vaziyatlardan chiqib ketishning samarali yo‘lini izlab topa bilishi kabilardir.

Kasbiy kompetensiya esa pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi [3, 4].

Sh. Nurullayeva bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish muammosini tadqiqi etar ekan, bu borada u quyidagicha fikrini bayon etadi: “Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilarning sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki turli sohalar bo‘yicha integrativ bilimlar va tajribalarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassisning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, tajribasini doimo boyitib borishni, zamonaviy bilimlarni va axborotlarni o‘zlashtirishni, jamiyat talablariga moslashib borishni va yangiliklarni amalda foydalana bilishni nazarda tutadi” [4, 49] .

Sh.Nurullayeva fikrini tahlil qiladigan bo‘lsak, darhaqiqat pedagogik kompetentlik bu tor doiradagi tushuncha emas. Balki, u o‘qituvchining keng doiradagi faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladigan integrativ qobiliyatidir.

N.Oripova pedagogik kompetentlikni pedagogik hodisa, deb ta’riflaydi. Pedagogik kompetentlik — pedagogik bilimlar, tajriba, xususiyatlar va fazilatlarning tizimli birligidan iboratdir, shu bilan birga, u o‘qituvchi uchun pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish hamda pedagogik muloqotni ikki tomonlama maqsadli tashkil etishga imkon beradigan, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga olib keladigan jarayondir [5, 82].

Darhaqiqat, pedagogik kompetensiya — pedagogik bilimlar, tajriba, xususiyatlar va fazilatlarning tizimli birligidan iboratdir, shu bilan birga u o‘qituvchi uchun pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish hamda pedagogik muloqotni ikki tomonlama maqsadli tashkil etishga imkon beradigan, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga olib keladigan jarayondir.

Shuningdek, pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs — davlat va jamiyatning ta’lim tizimi sohasida qabul qilgan talablariga muvofiq faoliyat olib boradi va o‘z faoliyatini tashkil etish, boshqarishi, nazorat qilishni yaxshi tushunadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlikni shakllantirishda ta’lim jarayoni oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

– talabalarda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari va ilmiy-amaliy asoslarini o‘rganishga qiziqishni uyg‘otish;

– talabalarning o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini

pedagogik amaliyot jarayonida faol qo‘llashga o‘rgatish;

– jahon tajribasida mavjud bo‘lgan pedagogik kompetentlikka oid g‘oyalarni didaktik jarayonida qo‘llash;

– talabalarni o‘qituvchi faoliyatini rejalashtirishga o‘rgatish;

– pedagogik kompetentlikni shakllantirish yo‘l va usullarini takomillashtirish;

– talabalar o‘rtasida pedagogik kompetentlikni shakllantirishga oid ijodiy muhitni yaratish va boshqalar.

Pedagogik kompetensiyani takomillashtirish esa:

– shaxsning o‘z ustida tizimli va rejali ishlashi,

– ijodiy qobiliyatini rivojlantirib borishi,

– pedagogik yangiliklar va zamonaviy bilimlarni tez egallashi,

– ta’lim oluvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash uchun bor imkoniyatlarini sarflashi,

– o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga oson moslashish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassis:

– pedagogik mahoratini erkin namoyon eta oladi;

– shaxslararo muloqotga oson kirishadi;

– o‘z faoliyatini davlat va jamiyat talablariga moslashtiradi;

– yoshlarda vatanparvarlik, tashabbuskorlik, fidoiylik sifatlarini shakllantiradi;

– mustaqil va ijodiy fikrlovchi, empatiyasi yuqori;

– o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega, kirishimli va boshqalar.

Pedagog faoliyatida ijtimoiy kompetensiya muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy kompetensiya — o‘qituvchining jamiyat talablarini vijdonan bajarishi, o‘z faoliyatini jamiyat talablariga moslashtira olishi va ijtimoiy muammolarning yechimini topa olishi, tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik va uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, tashabbuskorlik, fidoiylik kabi sifatlarni tarbiyalay olishi kabilardan iborat.

Ijtimoiy kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z faoliyati jarayonida quyidagi vazifalarni bajara olishi lozim:

– o‘z bilimi, ko‘nikmalari, tajribasi, hayotiy qadriyatlarini jamiyat taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishi;

– o‘quvchilar ijtimoiy ongini shakllantirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishi;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlardan o‘z faoliyati jarayonida foydalanishi;

– jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-axloqiy normalar va me’yorlarni o‘quvchilar o‘rtasida targ‘ib etishi;

– ommaviy axborot vositalari orqali berib borilayotgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangiliklarni yoshlar o‘rtasida targ‘ib etishi;

– o‘z faoliyati jarayonida o‘quvchilarda ona tiliga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantira olishi va boshqalar.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o‘rni va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi, o‘z bilimi va tajribalariga tayangan holda yosh avlodda vatanparvarlik, tashabbuskorlik, insonparvarlik, ilm egallashga chanqoqlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

2. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования гос впо нового поколения. Методическое пособие. – М., 2006. – 158 с.

3. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик. – Т., 2015. – 120 б.

4. Нуруллаева Ш.Ў. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари педагогик тайёргарлигини моделлаштириш назарияси ва методикаси. Пед. фанл. докт. дисс. ... – Қарши, 2021. – 264 б.

5. Орипова Н.Ҳ. Вариатив моделлаштириш асосида талабалар педагогик эътиқодини шакллантириш назариясини тизимлаштириш. Пед. фанл. докт. дисс. ... – Қарши, 2022. – 234 б.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARINI O‘RGATISH STRATEGIYALARI

Musharraf Yusubjanova,
Namangan davlat universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqola umumta’lim maktablarida Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o‘qitish strategiyalari va metodlariga oid masalalarni yechimini topishga asoslangan. Fanni o‘qitishda o‘quvchilarni test orqali bilimini tekshirib keyin esa ularni darajalariga mos keluvchi 3 ta strategiyalardan birini qo‘llash tavsiya qilingan. Bundan tashqari amaliy masalalarni yechishda 2 ta holat (A-holat — O‘quvchilarni tasodifiylikni idrok qilishi, B-holat — Yutish strategiyasi va Ehtimolli o‘yin) taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: *O‘qitish strategiyalari, hamkorlikda o‘rganish, kashfiyotli o‘rganish, muammoga asoslangan o‘rganish.*

Аннотация

Данная статья основана на поиске решения проблем, связанных со стратегиями и методами преподавания элементов теории вероятностей и математической статистики в средней школе. При преподавании естественных наук рекомендуется использовать одну из трех стратегий в зависимости от уровня учащихся после проверки их знаний с помощью теста. Кроме того, для решения практических задач предлагаются 2 кейса (Случай А — Восприятие случайности студентами, Кейс Б — Стратегия победы и Вероятностная игра).

Ключевые слова: *стратегии преподавания, совместное обучение, исследовательское обучение, проблемное обучение.*

Annotation

Ushbu parchada “qulog‘i tom bitgandi” iborasi ishlatilgan. Yozuvchi bu bilan nimani ifodalayapti degan savol tug‘iladi. Tilimizda uch xil tom so‘zi bor. Ikkitasining ma’nosi ko‘pchiligimizga yaxshi tanish: uyning tomi, kitobning tomi (jildi). Sarlavhadagi iborada bu ikki tom so‘zi qatnashmagan. U boshqa bir omonim. U arab tilidan kirgan tom so‘zi bo‘lib, asliyatda to‘la, to‘liq, butun; mukammal ma’nosini bildiradi. O‘zbekchada to‘la, to‘liq, butunlay, tamomila ma’nolarida qo‘llanadi:

Tom ma’noda, tom ma’nosi bilan kabi iboralarda ham ana shu tom so‘zi ishlatilgan. Bunda to‘liq, chin ma’no nazarda tutiladi.

Yana ushbu “Qiyofa” (1996-yil), ertak dostonda yana quyidagi maqoldan foydalanilgan. Bu folklorizmning yaqqol ko‘rinishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

— Tanobini tortish kerak qizlarning ham.
Echkilarday chopishmasin gala-gala.
— Uzoqni-ku po‘stagini qoqish kerak
Quni kecha yana darsdan quyon bo‘ldi
— Qo‘y o‘shani, uzun terak ichi kovak.
Umr bo‘yi sinfga dum, ziyon bo‘ldi. [3, 71]

Ushbu ertak dostonida “tanobini tortish kerak”, “po‘stagini qoqish kerak”, “darsdan quyon bo‘ldi” iboralari hamda xalq og‘zaki ijodining namunasi bo‘lgan “uzun terak, ichi kovak” deb nomlangan topishmoq ham ushbu 6 qator misrada joy olgan.

Ko‘rib turganingizdek folklorizmning har qanday ko‘rinishlari adibning she’r, ertak dostonlarida o‘rin olgan.

She’rlarni hamma mavzusiga ko‘ra tekshirish rasm bo‘lgan zamonlarda she’rning qanday yozilganidan ko‘ra, nima haqida bitilganligi muhim sanalardi. Bunday yondashuvda ko‘tarilgan muammo birlamchi ahamiyat kasb etardi. Holbuki, *“adabiyotda bitta muammo bor: odamning hayoti, odamning ko‘ngli va taqdiri. Boshqa muammo yo‘q”* [6, 3]. Boshqasi yordamchi gaplar, Bu xitobga kirgan she’rlarning hammasi boshdan-oyoq olam, uning ko‘ngli va taqdiri haqida, Ma’lumki, ko‘ngildan chiqmagan tuyg‘u ko‘ngillarga yetib bormaydi. Shuningdek, kechirilmagan taqdir haqidagi bitik ham birovga yuqmaydi tuyg‘ularini bezovta qilolmaydi, Demak, tasvir nishonga borib tegmaydi.

Quvonarlisi shundaki, Abdusaid Ko‘chimov fitratiga ko‘ra poetik ruhga ega bo‘lishi lozim ijtimoiy yo‘nalishdagi she’rlarda ham o‘z ko‘nglini aks ettiradi. Shoir Vatan haqida yuragidan chiqarib so‘z aytishga, ko‘ngilning chin mavjlarini aks ettirishga urinadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, *“qalbi hayajonli o‘ydan titragan”* shoirning *“Vatan madhi”* she’rida ifodalangan tuyg‘ular samimiyati bilan o‘quvchini ishontiradi. Unda yurtini sog‘ingan odamning o‘ylari va ko‘ngil tovlanishlari aks etadi:

Ko‘rkam yangi yilning archalariday
Quyoshda tovlangan lolazor, bog‘i
Kamalakning zarrin parchalarida
Saraton selga ko‘milgan tapir.

“Hayotda har doim bilmagan odamlarga juda oson bo‘lib ko‘rinadigan juda qiyin ishlar uchrab turadi. Bunga qisqa she’rlar misol bo‘lishi mumkin”, deb yozadi xitoylik shoir Chju Szi-Sin. Shoirning “Otamning aytganlari” turkumiga kirgan ko‘plab she’rlar mo‘jazgina hajmga ulkan mazmun singdirishga urinish natijalari o‘laroq dunyoga kelgan. [6, 9]

Ko‘rinishdan sodda bu she’rlar qattiq mehnat natijasi o‘laroq dunyoga kelgan. Qisqa yozish uchun hamisha ko‘p mehnat qilish talab etiladi. Zero, qisqa she’rda ko‘p narsa aytilmagani holda juda ko‘p narsaga ishora qilish imkoni mavjud. Bunday bitiklar uchun o‘quvchi estetik iste’molchigina emas, balki shoirning ijodiy sherigi, yaratuvchi maqomida bo‘ladi. *“Dovlashaver dov bilan, Yovlashaver yov bilan. Cho‘chima sur, olchoqdan, Qo‘rqoqdan qo‘rq, Qo‘rqoqdan”,* degan to‘rtligidan chiqadigan mazmun har bir o‘quvchining intellektual imkoniyatidan kelib chiqqan holda hisobsizdir.

“O‘qishni o‘rgatma ariqqa, Suzishni o‘rgatma baliqqa” tarzidagi olti so‘zdan iborat boshqa bir she’rdan kelib chiqadigan ma’no sanog‘ini tasavvur qilish ham qiyin.

Chin badiiyat mo‘jizalar yaratishga qodir. She’rda o‘rinli qo‘llanilgan tasvir tilsizga til, jonsizga jon bag‘ishlash qudratiga ega, “Avval bahor” she’rida erta ko‘klamda tabiiy ravishda ro‘y beradigan hodisalar shunday mahorat bilan ko‘rsatiladiki, o‘quvchi erib borayotgan qorning “kemtik devorlar”dan oshib “Qoyalar sari” qochib borayotgani, uning bu holiga “uyning derazalari” ko‘z yosh to‘kayotganiga beixtiyor ishonadi.

Abdusaid Ko‘chimov qator she’rlarida inson tuyg‘ularining chigalligi, odamlararo munosabatlardagi murakkablikni nozik aks ettirgan. [6, 7] Uning “Bir so‘z” she’rida ikki insonning taqdiri *“kechir”* degan birgina so‘zga bog‘liq ekanligi va bu birgina so‘zni qandaydir begonalar emas, balki dilida uni eshitishga intiq ikki odam aytishi kerakligi, bu so‘z tilga olinishi bilan barcha mushkulotlar o‘z-o‘zidan hal bo‘lishi mumkinligi g‘oyat ta’sirli aks ettirilgan.

Shoir hech kimga yo‘l ko‘rsatmaydi, da’vat ham qilmaydi. Balki bir-biriga mushtoq odamlar o‘rtasidagi munosabatlar chigalligi bois o‘sha xaloskor so‘zni aytish og‘irdan og‘ir yumush ekanini anduh bilan ifoda etadi:

Bitta, faqat bir so‘zga mushtoq,
Kecha-kunduz g‘amga botar g‘am.

Xudoyim-ey!
Xudojon, tezroq,
Insof bergin ikkimizga ham.

“Qiyofa” asarining “Hikoyat” misrasida quyidagi maqollardan ham foydalanilgan:

Odam olar odam taftini,
Kim naf kurdi zardan, amaldan?
Xasta chol xam shu kun, shu kuyi
Forig‘ bo‘ldi darddan, ajaldan. [3, 77]

“Odam olar odam taftini” maqolining mazmuni shundan iboratki, odamgarchilik, o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ulari ifodalangan.

Umuman, folklorizm istiqlol davri o‘zbek she’riyatida faol qo‘llanib kelmoqda. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan she’rlardagi folklorizmni badiiy modifikatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida tasvirladik. Chunki xalq og‘zaki ijodi janrlari (maqol, matal) bevosita yozma she’riyatda qo‘llanyapti. Albatta, bu hodisalarda ijodkorning individualligi va ijtimoiy, psixologik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday she’rlarni Shavkat Rahmon, Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Eshqobil Shukur, Zebo Mirzo ijodida ham kuzatish mumkin. Zero, Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda, “Adabiyot, she’r torlikni istamaydur, torlikda o‘smaydur”.

Abdusaid Ko‘chimovning har bir she’r va dostonlarida shoir inson ruhiy olami manzaralarini badiiy tahlil etishga intiladi. Ularda ruhiyat iqlimlarining murakkab qirralari rangin bo‘yoqlarda tasvirlanadi. Muhabbatga muhabbat, sadoqatga sadoqat, do‘stlikka do‘stlik benazir baxt ekani samimiy ifodalansa, xiyonat, munofiqlik, hasadgo‘ylik kabi illatlar nafrat bilan qoralanadi.

Xullas, tuyg‘ulangan tafakkur yog‘dusi nurlantirib turgan she’rlardan tashkil topgan ertak dostonlari o‘quvchining doimiy yo‘ldoshiga aylanib qolishiga umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdusaid Ko‘chimov. “Binafsha”. – T.: G‘afur G‘ulom, 2017. – 352 b.
2. Abdusaid Ko‘chimov. “Yosuman” . – T.: G‘afur G‘ulom, 2000. – 40 b.
3. Abdusaid Ko‘chimov. “Qiyofa. – T.: Cho‘lpon, 1996. – 40 b.
4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009. – 125 b.
5. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – T.: Fan, 2011. – 235 b.
6. Abdusaid Ko‘chimov. “Muhabbat bog‘lari”, – T.: G‘afur G‘ulom, 2008. – 259 b.
7. Bahodir Sarimsoqov. “Badiiylik asoslari va mezonlari”. – T.: Bookmany print, 2022. – 252 b.

TALABALARGA LAZER YORDAMIDA MATERIALLARGA ISHLOV BERISH VA ULARNI QAYTA ISHLASHNI O‘QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shodonbek Madumarov,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Fizika va texnologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ish davomida materiallarga ishlov beruvchi lazer qurilmalar tuzilishi va ular yordamida olingan natijalarni adabiyotlar orqali o‘rganish, ular asosida materiallarga lazerlar ta’sirining termodinamik va kinetik parametrlarni hisoblash imkoniyatini o‘rganish belgilandi. Shuningdek, materiallarga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullarining nazariy jihatlari va qurilmalari adabiyotlar orqali o‘rganildi. Materiallarga ishlov berishning lazerli metodining, boshqa metodlardan farqlari o‘rganilib, ular o‘zaro solishtiriladi. Mazkur natijalar lazer qurilmalari va texnologiyalari bo‘yicha nazariy ma’lumotnoma sifatida qo‘llanilishi isbotlanadi.

Tayanch so‘zlar: *lazer, qurilma, termodinamik, kinetik, parametr, metod texnologiya.*

Аннотация

В ходе работы было решено изучить структуру лазерных устройств обработки материалов и результаты, полученные с их помощью, на основе литературы изучить возможность расчета термодинамических и кинетических параметров воздействия лазеров на материалы. . Также через литературу изучались теоретические аспекты и устройства обработки материалов и способы их обработки. Изучены и сопоставлены отличия лазерного метода обработки материалов от других методов. Эти результаты оказываются полезными в качестве теоретического справочника по лазерным устройствам и технологиям.

Ключевые слова: *лазер, устройство, термодинамика, кинетика, параметр, технология метода.*

Annotation

In the course of the work, it was decided to study the structure of laser devices for processing materials and the results obtained with their help, and, based on the literature, to study the possibility of calculating the thermodynamic and kinetic parameters of the effect of lasers on materials. . Theoretical aspects and devices of materials processing and methods of their processing were also studied through literature. The differences between the laser method of processing materials and other methods have been studied and compared. These results prove useful as a theoretical reference for laser devices and technologies.

Keywords: *laser, device, thermodynamics, kinetics, parameter, method technology.*

Lazer (inglizcha “laser”) so‘zi “Light amplification by stimulated emission of radiation” so‘zlarining bosh harflaridan tuzilgan bo‘lib, “Majburiy nurlanish tufayli yorug‘likning kuchayishi” ma’nosini anglatadi. Lazer nurlari ultrabinafsha, infraqizil va ko‘zga ko‘rinadigan diapazondagi elektromagnit to‘lqinlar hisoblanadi. Bu to‘lqinlar atom va molekulalarning majburiy (stimullangan) nurlanishiga asoslanib hosil qilinadi. Bunday nurlanish hosil qiluvchi qurilmani lazer yoki optik kvant generator deyiladi. Rus fizigi V.A.Fabrikant 1940-1941-yillarda gaz razryadi spektrini o‘rganish ishlari davomida “majburiy nurlanish hisobiga” yorug‘likning intensivligini kuchaytirish mumkinligini isbotladi. 1955-yilda rus fiziklari A.M.Proxorov va N.G.Basov o‘ta yuqori chastotali birinchi kvant generatorini yaratdi. Bu mikroto‘lqin diapazonidagi optik kvant generator — lazer edi. 1958-yilga borib A.M.Proxorov va N.G.Basov bilan ayni bir vaqtda AQSh fizigi Ch.Tauns ko‘zga ko‘rinadigan yorug‘lik spektri diapazonida kvant generatori — lazer qurish mumkinligini ilmiy va amaliy isbotladilar [1, 65].

Lazer qurilmalarida ishlatiladigan ishchi materiallarni lazer materiallar deyiladi yoki ularni faol (aktiv) moddalar deb ataladi. Faol muhit sifatida yoqut kristalli (rubin) ishlatiladigan lazer 1960-yil yaratildi. Yoqutli lazer (LM — lazer materiali, L — optik rezonator). Keyingi kashfiyotlarda neon Ne va geliy He gazlari aralashmasi qo‘llaniladigan lazer (1960-y), neodim Nd_2 ionlari qo‘shilgan silikat shisha qo‘llanilgan lazer (1961-y), yarimo‘tkazgich birikma galliy arsenid Ga asli kristallari qo‘llanilgan lazer (1962-y), anorganik suyuqlikdagi neodim eritmasi selenoksixlorid $SeOCl_2$ va organik bo‘yoq eritmalari ishlatiladigan lazerlar (1966-y) yaratildi [2, 146].

1974-yilga kelib, faol moddalar (Lazer materiallar) soni 200 ga etgan edi. Har xil aralashmalar qo‘shilgan ion kristallar eng katta lazer materiallari guruhini tashkil etadi. Tartibsiz ichki tuzilishga ega bo‘lgan shisha lazerlar shisha hosil qiluvchi komponentlar va faol aralashmalar sifatida olingan ionlardan iborat bo‘ladi.

Lazer texnikasining rivojlanishi tufayli lazerlar qo‘llanilishining taraqqiy ettirish masalalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida lazerlar yordamida materiallarni qayta ishlash va ularga ishlov berishni tadqiq etishga bo‘lgan e’tiborni kuchaytiradi. Keyingi 20 yil ichida qayta ishlanayotgan materiallarni lazer qurilmalarini qo‘llash bilan qizdirish usuli keng ishlatila boshlandi. Hozir to‘la asos bilan shuni aytish mumkinki, “Lazer texnologiyasi” deb maxsus termin bilan ataluvchi bu yangi yo‘nalish to‘laligicha shakllandi: ya’ni, uning asosiy fizik xususiyatlari o‘rganildi, asbob-uskunalar turkumi ishlab chiqildi, sanoat va ishlab chiqarish masshtabida yuzaga keluvchi qator texnologik muammolar hal etildi. Lazerlarni qo‘llash natijasida mehnat unumdorligi keskin ortib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati yaxshilanib, tannarxi pasaydi.

Natijalar muhokamasi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishning ba’zi turlarini lazerlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lazer texnologiyasi turli soha mutaxassislari texnologlar, apparaturachilar, turli uskunalar yaratuvchilarini hamda boshqa sohada ishlovchi barcha tadqiqotchilarni borgan sari o‘ziga ko‘proq jalb etmoqda [3, 382-383]. Xo‘sh, lazer texnologiyasi qanday xususiyati bilan bunday e’tiborga sazovor bo‘lmoqda? Bu savolga javob berishdan oldin qudratli lazer nurlarining boshqa modda — narsalarga qanday ta’sir etishini ko‘rib o‘tamiz.

Maqolada lazer nurlarining moddalarga ta’sirida uning kvantlari atom va molekulalar orqali qayta ishlanayotgan materialning ustki qatlamlariga energiya berib turadi. Lazer bilan nurlantirilgan sirtdagi zichlik quvvati qisqa vaqt ichida bir kvadrat santimetrda yuzlab milliard vattga teng bo‘ladi.

Lazerli texnologiyaning afzalligini materialni qayta ishlashdagi yuqori sifatli aniqlikka erishish, turlicha fizikaviy va mexanik xususiyatga ega bo‘lgan har xil turdagi materiallarni payvandlash, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Ishlab chiqarish madaniyatini oshirib, mehnat sharoitini yaxshilaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan afzalliklar asosida qator diqqatga sazovor yangi va samarador lazerli texnologik jarayonlar yaratildi. Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu ishda materialshunoslikda qo‘llaniladigan lazer qurilmalar, ular yordamida ishlov va qayla ishlovni amalga oshirishning fizik asoslari, lazer nurlarining moddaga plazmasi hosil bo‘lishining asosiy shartlari, ularni amalga oshirish qurilmalari haqida ma’lumot berishga harakat qildik [3, 382].

Bundan tashqari, materiallarni qayta ishlovni amalga oshirishda lazerlardan foydalanish va uning fizik mexanizmlarini o‘rganish, kelajakda yuz beradigan energiyaviy tanqislikni bir qadar kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [4, 14-16].

Maqolada lazerlar yordamida materiallarga ishlov berish va ularni qayta ishlash metodlarini o‘rganishdan iborat. Materiallarga lazerli ishlov berish metodlarining natijalari asosida, materiallarni kesuvchi, teshuvchi, erituvchi qurilmalar tuzilishi, islash tamoyillarini o‘rganishdan iboratdir.

Quvvatli lazerlar yordamida materiallarga ishlov berish, ulami qayta ishlash jarayonlarini va qurilmalari o‘rganish, olingan natijalarni adabiyotlar orqali tahlil qilish. Buning uchun impulsli lazerlarning yaratilish tarixi va ilmiy asoslari, konstruktiv jihatlari va ularning qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish va bayon qilish, materiallarga lazerlar yordamida ishlov berishning fizikaviy asoslarini, imkoniyatlarini, qo‘llanilish sohalarini va boshqa amaliy jihatlarini solishtirish, afzalliklarini yoritishdan iborat [5,189-191].

Olingan natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi shundaki, lazerli texnikaga bag‘ishlangan tadqiqot natijalarida, matbuotda e’lon qilinayotgan maqolalarda o‘rganilayotgan jarayonlarning yuz berish mexanizmlari, ayniqsa kam energiyali zarralarning materiallar bilan ta’sirlashuviga, xususan, plastmassa, fanera, matolarga ta’siri haqida ma’lumotlar berilmaydi. Ushbu maqolada lazerlarning yumshoq, tekstil materiallariga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda olingan natijalardan ilmiy maqsadlarda, shuningdek, spravochnik sifatida foydalanilishi mumkin. Shu sababli, hal qilingan asosiy masalalar lazer nurlari yordamida materiallarni yuqori aniqlikda kesish, teshish, silliqlash va lazerli dopler o‘lchash usuli, usulning texnologiyasi, o‘lchash usulining aniqlik darajasini oshirish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqotning asosiy farazi yuqori energiyali lazer zarralarining ta’siri natijasini fizika qonunlari to‘liq tavsiflay oladi degan g‘oyaga asoslanadi.

Materialshunoslik sohasida qo‘llaniladigan lazerlar erishilgan taraqqiyot tufayli moddalarni kesish, payvandlash, sirtga ishlov berish, teshish kabi vazifalarni bajara olishi tufayli katta qiziqish uyg‘otmoqda. Hozirgi vaqtda, lazerlar yordamida materiallarni katta aniqlikda kesish, teshish sohasida yuqori aniqlikka erishilgan. Bu eksperimentlarda qo‘llanilgan qator lazer qurilmalari, materiallarga ishlov berish sohasida o‘zining ancha afzalliklarga ega ekanligidan, keyingi tadqiqotlarga istiqbolli yo‘nalishlarni ham belgilab beradi.

Xo‘sh, lazer texnologiyasi qanday xususiyati bilan bunday e’tiborga sazovor bo‘lmoqda? Bu savolga javob berishdan oldin qudratli lazer nurlarining boshqa modda — narsalarga qanday ta’sir etishini ko‘rib o‘tamiz. Lazer nurlarining moddalarga ta’siri shundan iboratki, uning kvantlari atom va molekulalar orqali qayta ishlanayotgan materialning ustki qatlamlariga energiya berib turadi. Lazer bilan nurlantirilgan sirtdagi zichlik quvvati qisqa vaqt ichida bir kvadrat santimetrda yuzlab milliard vattga teng bo‘ladi [6. 173-175]. Katta quvvatli lazer nurlari bilan qattiq jismlarga ishlov berishdan oldin ularni yuqori bosimlargacha siqish va qizdirish sohasida bir qator tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar asosan, yuqori quvvatli, biroq iqtisodiy jihatdan ko‘p chiqimli qurilmalarda bajarilgan. Lazerli texnologiyaning afzalligini materialni qayta ishlashdagi yuqori sifatli aniqlikka erishish [5-6], turlicha fizikaviy va mexanik xususiyatga ega bo‘lgan har xil turdagi materiallarni payvandlash, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini yaratadi, ishlab chiqarish madaniyatini oshirib, mehnat sharoitini yaxshilaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan afzalliklar asosida qator diqqatga sazovor yangi va samarador lazerli texnologik jarayonlar yaratildi. Shulardan ba’zilarni ko‘rib o‘tamiz. Lazer texnologiyasini qo‘llab teshikchalar ochishda dinamik muvozanatlashgan tez aylanuvchi detallar, turbina, rotorlar istiqbolli soha hisoblanadi. Bir impuls lazer nurlanishida keragidan ortiq o‘rtacha massadan bir milligrammgacha metall olib tashlanadi.

Ushbu ish davomida materiallarga ishlov beruvchi lazer qurilmalar tuzilishi va ular yordamida olingan natijalarni adabiyotlar orqali o‘rganish, bular asosida materiallarga lazerlar ta’sirining termodinamik va kinetik parametrlarni hisoblash imkoniyatini o‘rganish belgilandi. Keyingi ishlarimizda adabiyotlarda keltirilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, nazariy hisoblashlar va ularning natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Shuningdek, materiallarga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullarining nazariy jihatlari va qurilmalari adabiyotlar orqali o‘rganildi. Materiallarga ishlov berishning lazerli metodining, boshqa metodlardan farqlari o‘rganilib, ular o‘zaro solishtiriladi. Mazkur natijalar lazer qurilmalari va texnologiyalari bo‘yicha nazariy ma’lumotnoma sifatida qo‘llanilishi isbotlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G.Ganiyev, A.K.Avliyoqulov, G.A.Alimardonova. Fizika II qism. – T.: “O‘qituvchi”, 2003. – 238 b.
2. M.H.O‘lmasova. Fizika. Optika atom va yadro fizikasi. III qism. – T.: “O‘qituvchi”, 2010. – 268 b.
3. X.M.Madaminov, Sh.Madumarov. “Lazerlarning materialshunoslikda qo‘llanilishi. Mikroelektronika nanozarralar fizikasi va texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2015, 4-5-dekabr. – 382-383-b.
4. F.Durst, A.Vetlling O.P.Whitellow. Principles and practice of Laser Doppler Anemometry. Z: Academic Press, 1976. – 295 p.
5. X.M.Madrninov, Sh.A.Madumrov. Qattiq jismlarga lazerlar yordamida ishlov berish. “Kondensirlangan holatlar fizikasining zamonaviy muammolari” Respublika ilmiy anjumani materiallari, l-top. – Buxoro, 2016, 12-14-aprel. – 189-191 b.
6. X.M.Madaminov, Sh.A.Madumtrov. Mashinasozlik materiallarini lazerli kesish. “Mashinasozlikda zamonaviy materiallar va texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari, 2-jild. – Andijon, 2016, 19-21-aprel. –173-175 b.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ

Санобар Сиддиқова,
Жиззах давлат педагогика университети
“Педагогика таълими назарияси” кафедраси ўқитувчиси;
Гузал Қушоқова,
Педагогика психология факультети талабаси

Аннотация

Мазкур мақолада таълим технологияси, унинг муҳим дидактик элементлари, уларнинг асосий функциялари, ўқувчилар ўзлаштириши самарадорлигини ошириш, педагогик меҳнатнинг субъектив томонлари, таълим жараёнида ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаоллигини ошириш масалалари кўрсатилган. Бундан ташқари, ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси структуравий компонентларини, уни шакллантириш механизмларини ажратиш ва асослаш, узвий ўзаро таъсирда бўлади ва яхлит модели динамик тизимини ташкил этади. Педагог меҳнатининг кўрсатиб ўтилган характеристикалари ҳақида фикр-мулоҳазалар қайд етилган

Калит сўзлар: *таълим, ўқувчи, самарадорлик, педагогик меҳнат, билим, ижод, ижодий фаоллик, таълим жараёни, дидактика.*

Annotation

This article highlights the importance of teaching technology,its important didactic elements,and its key functions to enhance the effectiveness of student learning ,as well as the subjective aspects of pedagogical work to enhance students creativity in the learnin process. In addition, the didactic conditions and technology of activating the students’ knowledge and creative activity, separating and substantiating the structural components, the mechanisms of its formation, are in organic interaction and form a dynamic system of the integrated model. Opinions about the specified characteristics of the teacher’s work are recorded

Keywords: *education, learner, effectiveness, pedagogicalwork, knowledge, creativity, creativeactivity, educationalprocess, didactics.*

Аннотация

В этой статье рассматривается технология обучения, ее важные дидактические элементы, их основные функции, повышение самоэффективности учащихся, субъективные аспекты педагогической работы, а также повышение познавательной и творческой активности учащихся в процессе обучения. Кроме того, дидактические условия и технология активизации знаний и творческой деятельности учащихся, выделение и обоснование структурных компонентов, механизмы ее формирования находятся в органическом взаимодействии и образуют динамическую систему целостной модели. Фиксируются мнения об указанных характеристиках работы учителя.

Ключевые слова: *образование, ученик, эффективность, педагогическая работа, знания, творчество, творческая деятельность, учебный процесс, дидактика.*

Таълим технологиясининг муҳим дидактик элементи ўқувчилар ўқув фаолиятида қўлланиладиган ўқув қуролларидир. Уларнинг асосий функциялари ўқувчилар ўзлаштириши самарадорлигини ошириш ва улар қобилиятлари даражасидаги фарқлар таъсирини пасайтиришдир.

Ўрта махсус касб-ҳунар таълимида ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси ўқув жараёни босқичидаги компоненти таълим стандартида кўрсатилган. [1, 12]

Педагогик меҳнатнинг субъектив томони ўқитувчининг касбий вазифаларни бажариши учун зарур бўладиган фаолиятли-ролли характеристикалари ва субъектив-фаолият сифатларида ўз ифодасини топади. Бу, энг аввало, қуйидагилардан иборат:

– касбий билимлар — педагог меҳнатининг ҳамма томонлари ҳақидаги объектив зарурий ва амалиёт томондан талаб этиладиган умумий ва касбий компонентларнинг қўшилишидан ҳосил бўладиган маълумотлардир. Улар педагогик меҳнат натижаларига эришишнинг танланган модели, алгоритми ва технологиясини амалга ошириш билан касбий уқув, малакалар, ўзига хос психологик сифатлар, касбий позицияларни тарбиялаш учун асос бўлади;

– касбий уқув ва малакалар — педагогнинг таълимий жараёнда ўз мажбуриятлари ва вазифаларини амалга ошириш учун қўллайдиган ишлари ва услублари. Улар педагогик меҳнат технологияси яхлит тизимининг ва бошланғич элементлари бўлади;

– ўзига хос педагогик хусусиятлар (сифатлар) ўқитувчи психикасининг барча компонентлари — жараёнлар, хоссалар, тузилмалар, ҳолатлар шаклланганлигини ифодалайди;

– педагогнинг касбий позицияси — бу унинг турғун установка ва йўналиши; ички ва атрофдаги тажрибанинг, реаллик ва истиқболнинг муносабатлари, баҳолари, шунингдек, касбий фаолиятда амалга ошириладиган (амалга оширилмайдиган, қисман амалга ошириладиган) хусусий интилишларидир. Улар ўз ичига умум ижтимоий ва касбий аспектларни олади [2, 34].

Педагог меҳнатининг бу кўрсатиб ўтилган характеристикалари коллеж ўқувчилари фанлардан эгаллаши лозим бўлган билимга оид давлат стандартлари қўядиган талаб билан тўлдирилади. Касб-ҳунар коллежларида амалга ошириладиган амалиёт, ўқув дастурлари, биринчи навбатда, талабаларда касбий муҳим ўқувлар, малакалар ва шахсий сифатларни тарбиялашга эмас, балки уларни психолого-педагогик билимлар мажмуи билан қуроллантиришга йўналтирилган технология билан назарий тайёргарликнинг етарлича (яхши) даражасига эга бўлган, бироқ олинган билимларни амалиётда қўллашда анча қийинчиликларга дуч келадиган кичик мутахассисларга эга бўладилар.

Мустақил тайёргарлик ва дарс тайёрлаш мазмунига ўқув ва касбий фаолиятни психологик ва дидактик асосланган яқинлаштириш ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологиясига таъсир кўрсатади, бунда назарий билимлар мутахассис учун долзарб амалий масалалар ва ишларни ҳал қилиш воситаси бўлиб хизмат қилади.

Давлат таълим стандарти (ДТС), дастур ва адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, касб-ҳунар коллежи ўқувчилари ижодий фаоллигини ошириш мазмунидан ушбу компонентлар ўрин олиши лозим: ўқитиш мақсадлари ва вазифаларини қўйиш, ўқув материали мазмунини танлаш, ўқитиш воситалари, методлари ва шаклларидан фойдаланишни лойиҳалаш, методик талабнинг дидактик ўзаро таъсири, оралиқ ва охирги тескари алоқа ўқув ва малакаларни ўқитиш шунингдек, ўз фаолиятини таҳлил қилиш ва рефлексия ўқувларига ўргатиш ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ўқитиш технологиясига асос бўлиб хизмат қилади [3, 23].

Ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг психологик технологиясини билишлари ва билимларни интеграциялаш усули билан эгаллаши, билимдон ва ижодий фикрлайдиган, мавжуд шароитларни, ҳар томонлама баҳолашни назарда тутадиган қарорлар қабул қилишга ўргатиш, илмий билимларни трансляциялар ва педагогик методлар тизимига киритиш учун таҳлил қилиш, шунингдек, ўқувчиларни билан коммуникация усулларига ўргатиш чоғида ўзлаштирилиши лозим. Индивидуал ёндашув ҳамма ҳолларда ҳам чуқур илмий мазмун асосида ташкил этилганида самарали натижа беришлигини унутмаслик керак. Айни шу ўқувчи билан мулоқот жараёнида ўқитувчи унинг билимларини баҳолайди ва билиш жараёнини керакли йўлга солади. Ўқитишни индивидуаллаштириш, бир томондан, ўз шахсий таълим олиш йўлини танлаш имконияти, иккинчи томондан, ўқитувчининг ўқувчи билан махсус мулоқот шаклидир, ўқитишнинг табақалаштирилиши ўқув фаолиятининг ижодий стилини ривожлантиради, ўқувчини ўқув жараёни объектидан субъектига айлантиради.

Ўқувчини бир ҳолатдан бошқа ҳолатга ўтказиш лозим бўлганда ҳар доим юзага келадиган кўплаб педагогик масалаларни ҳал этиш жараёни сифатида қаралади: уни маълум билимга жалб қилиш, укув ва малакалар тизимини бошқа тизимга ўтказиш. Бу кўплаб ечимларни талаб этади ва керакли натижага эришишнинг афзалроқ усулини топишни талаб қилади. Шу муносабат билан ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси мазмунини ўқув фаолиятига қизиқишлари ва ташкил этишларини уйғотиш учун бу вазифаларни маълум кетма-кетликдаги масалалар тизими тилига ўтказишдан иборат [4, 148].

Буларнинг ҳаммаси ўқувчиларнинг хусусий билимлари ва укувларини интеграциялашни талаб этади. Жумладан, ўқув машғулотини лойиҳалаш ва ўтказиш учун фақат фаннинг мазмунини билишгина эмас, балки билимларни ташкил этишнинг турли усулларини эгаллаганлик, уларни ҳал этилаётган ўқув вазифасига мувофиқ шаклини танлай билиш, ўқувчиларнинг билиш фаолликларини уйғотиш ва ушлаб туриш, машғулотларнинг боришини таҳлил қилиш ва улар натижаларини баҳолашни билиш лозим. Ҳар бир машғулотни ўтказиш педагогнинг фанга доир, педагогик, психологик, умум маданий, физиологик билим ва укувларини интеграциялашувини (синтезлашни) талаб этади. Таълим мазмунини фанга оид структуралашда, афсуски, кўпинча, керакли интеграциялашув рўй бермайди.

Бу вазифа ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштириш технологияси педагогик амалиётни ўтиш жараёнида ҳам бўш ҳал этилади. Ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси ишлаб чиқариш амалиётини ўтганларидан сўнг уларда қизиқиши бўйича бўйича ўтказилган психологик тест ёки анкета сўровининг кўрсатишича, ижодий фаолиятни юқори (ижодий) даражада амалга оширишга қодирдирлар; ўқувчиларнинг ярмидан кўпи бу фаолиятни ўртачадан паст даражада (танқидий) ўтказишга эришади.

Ишлаб чиқариш амалиётининг ташкил этилиши ўрта махсус касб-ҳунар таълими ўқувчилар фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси вазифалари ва унинг фаолият турлари очиб

берилмайди, ўқитиш ва тарбиялаш жараёни жадал ҳаракатини таъминлайдиган дидактик қарорларнинг меъёрий характеристикалари белгиланмайди [5, 86].

Демак, ўқитувчи амалий фаолият тажрибаси, ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг психологик технологиясини билишлари ва уқувларни интеграциялаш усули билан эгаллаши, билимдон ва ижодий ишлайдиган, мавжуд шароитларни, ҳар томонлама баҳолашни назарда тутадиган қарорлар қабул қилишга ўргатиш, илмий билимларни трансляциялаш ва педагогик методлар тизимига киритиш учун таҳлил қилиш, шунингдек, ўқувчиларни билан коммуникация усулларига ўргатиш чоғида ўзлаштирилиши лозим. Айтилган фикрларга асосан, кўрсатилган вазифани ҳал этиш учун ўқитиш технологиясига тайёрлаш учун уни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бу хулоса шу билан асосланадики, ўқувчилар томонидан ўзлаштириладиган касбий фаолиятнинг шакллари, методлари ва воситалари, фанга оид ва ижтимоий мазмунининг бутун тизимини изчил моделлаштиришда, яъни ўқув фаолиятидан касбий фаолиятга ўтишда юқоридаги камчиликлар бартараф этилади. Биринчи навбатда, коллежда яхлит таълим жараёнини лойиҳалаш, конструкциялаш ва амалга ошириш уқув ва малакаларни талаблари яратиладиган ва амалиётда ёки битирув малака ишини бажариш доирасида тарбиялашни назарда тутмоғи лозим.

Ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси структуравий компонентларини, уни шакллантириш механизмларини ажратиш ва асослаш, узвий ўзаро таъсирда бўлади ва яхлит модели динамик тизимини ташкил этади.

Юқорида баён қилинган фикрлардан шу нарса келиб чиқадики, билиш жараёнининг самарадорлигини таъминловчи зарурий омил назарий (психолого-педагогик) асослар ва уларнинг амалий рўёбга чиқарилишини ўқувчиларнинг фаол ва самарали билиш фаолиятини, уларнинг интеллектуал, касбий ва ижодий қобилиятларини ривожлантирилишини таъминловчи ўқитиш методлари ва шаклларининг бирлиги каби тушуниладиган ўқитиш технологиясидан фойдаланишдир. Янги технологиянинг назарий асоси бўлиб билимларни ўзлаштириш психологик назарияси ҳозирги замон ютуқларининг қоидалари, таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш ижодий қобилиятларни ривожлантириш психологияси хизмат қилиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Аллаяров И.А. Дидактические основь активного обучения. Автореф.дис. дисс. докт-ра .пед .наук. – Т.: 1994. – 44 с.

2. О.Д.Рахимов, О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев. Замонавий таълим технологиялари. – Т.: “Фан ва технология нашриёти”, 2013. – 200 б.

3. Иванченко Д.А. Системный анализ дистанционного обучения: Монография. – М.: Издво “Союз”, 2005. – 192 с.

4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

5. Сафаров Н.С. Народные идеи и опыть народной педагогики Ўзбекистана. – Т., 1989. – 98 с.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA BOLALARNI SPORT TURLARIGA SARALAB OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Zarnigor Jalolova,
O‘zbekiston-Finlandiya instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimida talabalarni malaka talablari asosida tayyorlash, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish orqali hayoti mobaynida sifatli ta’lim olishlari va bu bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar xususida qayd etilgan. Shuningdek, kompetentlik tushunchasi va bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida bolalarni sport turlariga saralab olish kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Uzluksiz ta’limda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzidan o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, kompetentlik, kompetensiya, moslashuvchanlik, sog‘lik, faoliyat, texnologiya, platforma.*

Аннотация

В данной статье отмечается о подготовке студентов на основе квалификационных требований, качественном образовании в течение их жизни через развитие их компетенций, а также усилия, предпринимаемые в этом направлении. Также подробно даны понятие компетентности и технологии развития компетентности будущих учителей физкультуры при отборе детей на занятия спортом. Высказаны мнения о компетентно-деятельном подходе к саморазвитию обучающихся знаний, умений и навыков в непрерывном образовании.

Ключевые слова: *физическое воспитание, компетентность, компетентность, гибкость, здоровье, активность, технология, платформа.*

Annotation

In this article, it is noted about the training of students based on qualification requirements, quality education during their life through the development of their competencies, and the efforts being made in this regard. Also, the concept of competence and technologies for developing the competence of future physical education teachers for selecting children for sports are given in detail. Opinions are expressed about the competent-active approach to self-development of the learners of knowledge, skills and abilities in continuous education.

Keywords: *physical education, competence, competence, flexibility, health, activity, technology, platform.*

Jahon ta’lim tizimida talabalarni malaka talablari asosida tayyorlash, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish orqali hayoti mobaynida sifatli ta’lim olishlari va bunda qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘qitish jarayoniga valeologik tavsifdagi texnologiyalar, interfaol o‘qitish tizimlarini joriy etish masalalariga ustuvorlik berish asosida yondashilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy metodlar, elektron ta’limiy vositalar va fasilitatsiya yondashuvlariga ta’lim sifatini oshirish strategiyasi sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yoshlarning sport sohasida rivojlanishlari uchun barcha sharoitlar mujassam bo‘lib, ularning imtiyozli ravishda o‘qishga kirishlari, qozonilgan g‘alabalarini munosib taqdirlash, kundalik hayotini komfortda o‘tkazishlari, ta’lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Respublika viloyatlari va tuman hududlarida sport ishlarini jonlantirish, uni zamonaviy uslubda boshqarish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilyapti. Biroq, shunga qaramasdan, shu sohada ayrim muammolar mavjudki, ularni bartaraf etishda butun jahon tan olib bo‘lgan yo‘nalish — sport kouchingi ko‘mak beradi.[1, 140] Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashga monelik qiluvchi ayrim sohaga oid kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kadrlar tayyorlash masalasining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya ta’lim tizimining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning maqsadi inson salomatligini mustahkamlash va uning to‘g‘ri jismoniy rivojlantirish hisoblanadi. Aqliy tarbiya, axloqiy-estetik, mehnat tarbiyasi va tarbiyasi bilan birlikda jismoniy tarbiya shaxs shaxsining har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Jismoniy madaniyat tarixiy shartli hodisadir. Uning kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mehnat jarayonida odamlar atrofdagi tabiatga ta’sir ko‘rsatib, ayni paytda o‘z tabiatini o‘zgartiradilar. Insonlarni hayotga, eng avvalo, mehnatga, shuningdek, boshqa zarur faoliyat turlariga tayyorlash zarurati jismoniy madaniyatning paydo bo‘lishi va yanada rivojlanishini tarixan shart qilib qo‘ygan. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jismoniy madaniyatning o‘rni haqida gapirar ekanmiz avvalo bu tushunchaning tarixiga nazar tashlashimiz maqsadga muvofiq. “Jismoniy madaniyat” atamasining o‘zi 19-asrning oxirida Angliyada sportning jadal rivojlanishi davrida paydo bo‘lgan, ammo G‘arbda keng qo‘llanilmagan va vaqt o‘tishi bilan kundalik hayotdan deyarli yo‘qolib ketgan. Rossiyada esa aksincha, 20-asrning boshidan, 1917-yil inqilobidan so‘ng, “jismoniy madaniyat” atamasi barcha oliy Sovet hokimiyatlarida tan olina boshladi va ilmiy va amaliy leksikonga mustahkam kirib bordi. 1918-yilda Moskvada Jismoniy tarbiya instituti ochildi, 1919-yilda umumiy ta’limning jismoniy madaniyat bo‘yicha qurultoyi bo‘lib o‘tdi, 1922-yildan “Jismoniy madaniyat” jurnali, 1925-yildan to hozirgacha “Teoriya va amaliyot” jurnali nashr etildi.[1, 26] Jismoniy madaniyat”. Ko‘rib turganimizdek, “jismoniy madaniyat” nomining o‘zi uning madaniyatga tegishli ekanligini ko‘rsatib berdi. Jismoniy madaniyat ijtimoiy ijtimoiy hodisa ekanligiga shubha yo‘q. Bularning barchasi uning insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishi bilan birga paydo bo‘lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Jismoniy madaniyat jamiyat madaniyatining bir qismi bo‘lganligi sababli, u, birinchi navbatda, umumiy madaniy ijtimoiy funksiyalar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida jismoniy madaniyatini oshirish deganda jismoniy mashqlar jarayonida orttirilgan va insonning jismoniy tabiatini (jismoniyligini) har tomonlama va uyg‘un ravishda yaxshilashga, sog‘lom turmush tarzini olib borishga faol intilishida ifodalangan insoniy xususiyatlar majmui tushuniladi. U tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikni faol rivojlantiradi, o‘z dunyoqarashi va fikrlash usullarini, individual xarakter xususiyatlarini, boshqa odamlarning harakatlariga va o‘z harakatlariga tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyat natijasida qo‘lga kiritilgan bu ijobiy xususiyatlarning barchasi shaxsni nafaqat jismoniy madaniyatli shaxs sifatida, balki har tomonlama va barkamol rivojlangan, shaxsning umumiy madaniyatining yuqori

darajasini aks ettiruvchi yaxlit shaxs sifatida tavsiflanadi. [2, 167]

Bugungi kunda uzluksiz ta’limda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzidan o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki uzluksiz ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o‘quv fanlari bo‘yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar talabaning amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda bo‘lajak kadrlarda juda ko‘p axborotlarning behuda jamg‘arilayotganligi, ta’limning samarasi past bo‘lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga tashlanmoqda. Aniqrog‘i, talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi. Ta’limning maqsadini bunday tarzda belgilash talabaning faolligini cheklab qo‘yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma’nosi yo‘qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, oliy ta’lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Garchi oliy ta’lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo‘lmasa-da, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o‘z o‘rniga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda ta’limga doir muammolarni tahlil etishda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “tayanch kompetensiyalar” kabi atamalardan keng foydalanilmoqda.[3, 83] Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda. Kompetent yondashuv talabadan alohida-alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash o‘z navbatida ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Sifatli jismoniy tarbiya dasturlari barcha o‘quvchilarning butun umr davomida jismoniy faol bo‘lishlari uchun jismoniy kompetensiyani, sog‘liq bilan bog‘liq tayyorgarligini, o‘z-o‘ziga mas’uliyat va jismoniy faoliyatdan zavqlanishlarini oshirish uchun zarur. Shu bilan birga jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat bir birlari bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat — insonning qobiliyatlarini jismoniy va intellektual rivojlantirish, uning jismoniy faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, hamda ijtimoiy moslashish maqsadida jamiyat tomonidan yaratilgan va foydalaniladigan qadriyatlar va bilimlar to‘plamidir.

Jismoniy madaniyat, shuningdek, tana madaniyati sifatida ham tanilgan. Shu bilan birga jismoniy madaniyatga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, jismoniy madaniyat, falsafa, rejim yoki turmush tarzi, vazn mashqlari, parhez, aerobik faoliyat, sport musobaqalari va aqliy intizom kabi vositalar orqali maksimal jismoniy rivojlanishga intiladi. Muayyan afzalliklarga salomatlik, tashqi ko‘rinish, kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, tezlik va umumiy jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, sport bilan bog‘liq mashg‘ulotlarda esa ko‘proq mahorat kiradi. [4, 134]

Jismoniy tarbiya hamda jismoniy madaniyat jamiyatning taraqqiyoti, odamlarning samarali mehnat qilishi, aqliy imkoniyatlarining ravnaq topishi, aqliy poklanish va kelajak nasllarining jismoniy ahvoliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham maktablar va kollejlarda, Oliy ta’lim muassasalarida ayniqsa oliy harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlikka katta e’tibor qaratiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, yosh bolalar sog‘lom tanani saqlash uchun haftasiga kamida 3 marta kuniga 60 daqiqa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishlari tavsiya etiladi. Insonning jismoniy harakatlarga moslashuvchanlik jarayonida ham jismoniy madaniyatning o‘rni mavjud. Ushbu faoliyat sohasining o‘ziga xosligi “moslashuvchan” qo‘shimcha ta’rifida ifodalanadi, bu sog‘ligi bo‘yicha muammolari bo‘lgan odamlar uchun jismoniy tarbiya vositalarining maqsadini ta’kidlaydi.[5, 126] Bu shuni ko‘rsatadiki, jismoniy madaniyat o‘zining barcha ko‘rinishlarida tanadagi ijobiy morfo-funksional o‘zgarishlarni rag‘batlantirishi kerak.

Jismoniy madaniyat ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lib, u aholining barcha qatlamlarini rivojlantirish va tarbiyalashga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, jismoniy madaniyatning eng muhim o‘ziga xos funksiyasi insonning jismoniy faoliyatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaratish va shu asosda hayotda zarur jismoniy imkoniyatlarni ta’minlashdir. Jismoniy madaniyat haqiqiy (amaliy) va ideal (aqliy) faoliyatning birligidir. Bu faoliyat jarayonida shaxs ijtimoiy va tabiiy muhit bilan aloqa va munosabatlarga kirishadi. [5, 127] Butun jamiyat madaniyati kabi jismoniy madaniyat ham turli jarayonlar va hodisalarning yetarlicha keng doirasini o‘z ichiga oladi: o‘ziga xos xususiyatlar bilan inson tanasi; insonning jismoniy holati; uning jismoniy rivojlanish jarayoni; vosita faoliyatining muayyan shakllaridagi sinflar; yuqoridagi bilimlar, ehtiyojlar, qadriyat yo‘nalishlari, ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish jismoniy madaniyatning maqsadi hisobla-

nadi. Ta’lim tizimiga xos bo‘lgan eng muhim gumanistik natijalar - bu sog‘lomlashtirish, dam olish, reabilitatsiya qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan jismoniy madaniyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalardir. Shu bilan birga, sog‘lom, jismoniy faol turmush tarzi va unga erishishga ijtimoiy munosabatlarning qadriyat yo‘nalishlarini shakllantiradigan bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oxir oqibat, umumiy jismoniy tarbiya sog‘lom va majburiy jismoniy faol turmush tarzi dunyoqarashini shakllantirishi kerak.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bolalarni sport turlariga saralab olish kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalardan foydalanishlari mumkin:

1. Sport-monitoring va analitika platformalari: Bu platformalar orqali o‘qituvchilar bolalarning sport faoliyatlarini monitoring qilish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishlari mumkin.

2. Video-analiz dasturlari: Bolalar sport faoliyatlarini video orqali ko‘rish va tahlil qilish uchun video-analiz dasturlaridan foydalanishlari mumkin.

3. Mobil ilovalar: Mobil ilovalar orqali bolalar sport turlariga saralab olish va faolliklarini monitoring qilishlari, ma’lumotlarini saqlashlari va tahlil qilishlari mumkin.

4. Wearable tech: Qo‘llaniladigan texnologiyalar (masalan, smart watches yoki fitness trackers) orqali bolalar sport faoliyatlarini monitoring qilish, yurak qismlarini o‘lchash va boshqa ma’lumotlarni to‘plashlari mumkin.

Bu texnologiyalar o‘qituvchilar uchun bolalarni sport turlariga saralab olish va ularning rivojlanishini kuzatishda yordam berish uchun foydalanish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Jismoniy madaniyat O‘zbekiston tizimi insonlarni nafaqat jismoniy, balki ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga, yoshlarni ijtimoiy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashga xizmat qiladi.

Demak, jismoniy madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jismoniy rivojlanish muammolarini hal qilish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning axloq, tarbiya, axloq sohasidagi boshqa ijtimoiy vazifalarini ham bajaradi. Zamonaviy jamiyat yosh avlodning jismonan barkamol, sog‘lom, quvnoq bo‘lib voyaga yetishidan manfaatdor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: Darslik / Y.F. Kuramshina // – M.: Sovet sporti, 2010. – 320 b.
2. Ilyinich V.I. Talabaning jismoniy madaniyati / V.I. Ilyinich. – M .: Gardarika, 2008 .– 464 b.
3. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy va biologik asoslari: Darslik / Otv. ed. D.N. Davidenko. SPb, 2001 . – 208 p.
4. E.V. Morozova Jismoniy madaniyat shaxsiyatning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida / E.V. Morozova // Udmurt universiteti axborotnomasi. 2003. 10-son. – 161 b.
5. Panachev V.D. Sport va shaxsiyat: sotsiologik tahlil tajribasi / V.D. Panachev // SOTSIS. 2007. – 11-son. – 125-128 b.

BOLALAR VA O‘SMIRLAR MAKTABLARIDA YENGIL ATLETIKA SPORT TURI (QISQA MASOFAGA YUGURISH) BO‘YICHA SPORTCHILARNI TAYYORLASHNING TEXNIK-TAKTIK USULLARIDAN FOYDALANISH

Bahrom Mavlonov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta’lim”
kafedrasi katta o‘qituvchisi, v.b. dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktablarda yengil atletika sport turi bo‘yicha tayyorgarlik jarayonlari va sportchilarni tayyorlashning texnik usullaridan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, mashg‘ulotlarni individuallashtirish muammosi yuqori malakali sportchilarga xosdir. Sportda professional sportchini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan olimlar va amaliyotchilar yuqori malakali sportchilar uchun individual tayyorgarlik dasturi talab qilinishini aniq tasavvur qilishadi. Yengil atletika bilan shug‘ullanadigan bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy tarbiya va sport ta’limini individuallashtirish tamoyiliga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, reabilitatsiya, moslashuvchanlik, individuallashtirish, mashg‘ulot, sportchi, mashq.*

Аннотация

Данная статья требует использования тренировочных процессов и технических методов подготовки спортсменов по легкой атлетике в школах. Также проблема индивидуализации тренировок характерна для спортсменов высокой

квалификации. Ученые и практики, занимающиеся подготовкой профессиональных спортсменов в спорте, четко представляют, что для спортсменов высокой квалификации необходима индивидуальная программа подготовки. Педагогическое сопровождение детей, занимающихся легкой атлетикой, основано на принципе индивидуализации физического воспитания и спортивного воспитания дошкольников.

Ключевые слова: *легкая атлетика, реабилитация, гибкость, индивидуализация, тренировка, спортсмен, упражнения*

Annotation

This article requires the use of training processes and technical methods of training athletes in athletics in schools. Also, the problem of individualization of training is typical for highly skilled athletes. Scientists and practitioners engaged in the training of professional athletes in sports clearly imagine that an individual training program is required for highly qualified athletes. Pedagogical support for children engaged in athletics is based on the principle of individualization of physical education and sports education of preschool children.

Key words: *athletics, rehabilitation, flexibility, individualization, training, athlete, exercise*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach barcha sohalarda rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini belgilab oldi. Ta’lim — tarbiya tizimini isloh qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan, noyob tizim dunyo hamjamiyati tomonidan yuqori darajada baholanmoqda. Ayniqsa, Respublikamizda bolalar sportini rivojlantirish masalasida olib borilayotgan izchil islohotlar yosh sportchilarni tarbiyalash tizimida asos sanalmoqda. O‘zbekistonda bolalar sporti tobora ravnaq topib, rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash davlat siyosatining bosh masalalari sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berilgan. [1]

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son farmonining 67 maqsadi Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish kabi vazifalar belgilab berilgan.[2] Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta’minlash, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘rida”gi PQ-6099 Farmoni qabul qilindi. 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilinib, uning 14-moddasida maktabdan tashqari ta’lim bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi va maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. [2]

Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyati belgilab berilgan. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF–5368-son Farmoniga asosan yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida umumta’lim maktablarida — o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun haftasiga kamida 4 soatdan sinfdan tashqari sport to‘garaklari va seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish belgilangan. [3, 58]

Jismoniy tarbiya sportini rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor Respublikamiz ilmiy-pedagog kadrlar va soha mutaxassislari faoliyatiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, natijada yengil atletika bo‘yicha adabiyotlar yaratish ilmiy ishlar tashkil qilish yanada rivojlandi. Respublikamiz olimlaridan F.A.Kerimov, T.S.Usmonxo‘jayev, R.S.Salomov, A.N.Abdiyev, T.Xoldorov, J.Toshpo‘latov, J.Eshnazarov, E.Nuritdinov, Y.Masharipov, F.Axmedov, O.Ibrohimov, R.Abdurasulov, A.Sodiqov, X.Meliyev va boshqa sohaga doir olimlarimiz jismoniy tarbiya va sportning tarixiy nazariy metodologik masalalari va bugungi holati bo‘yicha izlanishlar olib borganlar, ular tomonidan sohani rivojlan-

tirishning keng ko‘lamli asoslari yaratilgan.[4, 97] Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi keyinchalik asosan (2017-2022-yillar) yosh olimlar ilmiy faoliyatiga e’tibor kuchaytirildi.

Jizzax viloyatida yengil atletika bo‘yicha murabbiylarning (A.Tolipov, O.Raximov va boshqalar) o‘ziga xos tomonlari mavjud bo‘lib samarali faoliyat olib borayotgani bizga ma’lumdir. Viloyat murabbiylarimiz (A.Tolipov, O.Raximov) Respublikamizning barcha viloyatlarida balki, Osiyoda va Jahonda ham o‘tkazilgan musobaqalarga o‘quvchi-yoshlarimizni tayyorlashda o‘zlarining fidoyiligi bilan mehnat qilib kelmoqdalar va faxrli o‘rinlarni olib yurtimiz sha’nini himoya qilib kelmoqdalar.[4, 119]

Sport amaliyotida bugungi kunda yengil atletika bo‘yicha Xitoy, Rossiya, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya yetakchilik qilmoqda ammo qisqa masofaga yugurish yo‘nalishida Afrika xususan Yamayka o‘ziga xos maktab yaratgan. Ayrim mutaxassislarning fikriga ko‘ra (asosan sport psixologlari) buning asosiy sabablaridan biri sportchilarning tana tuzilishidir. Yamayka sportchilarining tana tuzilishi ularga qisqa masofaga yugurish bahslarida yuqori natija ko‘rsatish imkonini beradi, (Y.Verxoshanskiy) bizning fikrimizcha sprinterlar tayyorlashda pedagogik, psixologik va boshqa yo‘nalishlar ham muhim ahamiyatga ega.[5, 44]

Ko‘pchilik mutaxassislar sprinterlar tayyorlashda turli metodik yondashuvga tayangan, ular mashg‘ulot yuklamasi hajmini o‘zgartirish, mashg‘ulot rejasini takomillashtirish va boshqa shunga o‘xshash metodologik yondashuvlarga tayangan (ayrim rus olimlari) Rossiya va MDX davlatlari olimlari ishlarida sprinterlar tayyorlashda intensiv tayyorgarlikka alohida urg‘u berildi. Bu zamonaviy sprinterlar tayyorgarligining noan’anaviy usuli sifatida e’tirof etilgan mazkur fikrlar va xulosalar biz tomonimizdan o‘rganilayotgan mavzuga aynan mos keldi.

AQShlik mutaxassis T.Bompa (2013) o‘z tadqiqotlarida 8-17 yoshli sportchilar faoliyatini qamrab olgan. Uning “Yosh chempionlarni tayyorlash” (Total training for young training) kitobida bolalar o‘smirlar sport mashg‘ulotlarining barcha jihatlari qamrab olingan. U tayyorgarlikning turli ko‘rsatgichlari va xususiyatlarini, muhim amaliy tavsiyalarni berib o‘tgan. Olimning eng asosiy ilmiy yangiligi va o‘ziga xos jihati unda kuch tayyorgarligi va turli o‘zgaruvchan mashqlardan foydalanilganligi alohida ahamiyat kasb etadi, ushbu mutaxassis adabiyotida uchragan o‘rgatish usullari o‘ziga xos yangilik hisoblanib noan’anaviy usul sifatida talqin qilinadi.

Sprinterlar tayyorgarligi to‘g‘risidagi ilmiy mulohazalar maqolalar va dasturlar internet manbalarida ham ko‘plab uchraydi. Xususan, mashhur sprenterchi “Usain Bolt” ni tayyorgarlik jarayoni haqidagi ma’lumotlar bunga misol bo‘ladi. (WWW.http//coachr.org.) yillik tayyorgarlik dasturi uning davrlashtirilishi va bosqichlari alohida yoritilib berilgan. Ko‘rsatib o‘tilishicha manosikl (1sikl) ikki sikl, uch sikllik tayyorgarlik qayt qilingan. [6, 29] Shuningdek mashg‘ulot yuklamasining umumiy hajmi intensivligi va yuklamaning yuqori nuqtasi (Peak) yuqori nuqtasi davrlar va bosqichlarda tahlil qilingan.[6, 48] Sportda yuqori natijalarni qayd etishda turli darajadagi usullar va vositalar zarur. Bugungi kunda bunday usullar o‘zining tom ma’nodagi natijasini va samaradorligini ko‘rsatmoqda. Ularning turlari va xillari shu qadar ko‘pki, qaysi bir usulni qo‘llash kerakligi bir muncha qiyin. Hozirda mazkur masalada dunyo miqyosida keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Shunga qaramay ushbu masalada muayyan ilmiy muammolar mavjud.

Bolalar bog‘chasida qo‘shimcha ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan yengil atletikaning tarkibiy-funksional modelining faoliyati samaradorligi bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarga rioya qilish bilan ta’minlanadi. Yengil atletikaning tashkiliy-pedagogik shartlari deganda maktabgacha ta’lim muassasasining obyektiv imkoniyatlari, mazmuni, shakllari, usullari, vositalari va jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasi tushuniladi, bu asoslarni shakllantirishda qo‘yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot mazmuni nuqtayi nazaridan, bolalar bog‘chasining qo‘shimcha ta’lim tizimidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar deganda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya va sport o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini ta’minlaydigan aniq chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Qo‘shimcha jismoniy tarbiya va sport ta’limi sharoitida tarkibiy-funksional modelni amalga oshirish quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarga rioya qilingan taqdirda samarali bo‘ladi: Bolalarni yengil atletikaning turlari bo‘yicha hamrohlik qilishning individual va guruhli mashg‘ulotlarini loyihalash va amalga oshirish; yengil atletika mashqlari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun o‘yin texnologiyalarini qo‘llash; ota-onalarni qo‘shimcha jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birgalikda yengil atletikaga jalb qilish.

Yengil atletika bilan shug‘ullanadigan bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy tarbiya va sport ta’limini individuallashtirish tamoyiliga asoslanadi. Qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishi — bu vosita qobiliyatlarini, moyilliklarini maqsadli rivojlanishini ta’minlaydigan eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, bolalarning harakat faoliyatiga individual ehtiyojlarini qondirish va vosita harakatlarini o‘zlashtirish jarayonida mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Ta’lim jarayonini individuallashtirish tamoyiliga rioya qilish zarurati Davlat ta’lim standartida ham ko‘rsatilgan. Unda aytilishicha, tarbiyaviy faoliyatni qurish har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Qo‘shimcha ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport o‘quv jarayonini yengil atletika vositalariga asoslangan holda individuallashtirish jismoniy tarbiya o‘qituvchisidan (yoki murabbiydan) har bir bolaga jiddiy e’tibor berishni, material tanlashda pedagogik moslashuvchanlikni, ijodkorlikni va improvizatsiyani talab qiladi [7, 60].

Ma’lumki, mashg‘ulotlarni individuallashtirish muammosi yuqori malakali sportchilarga xosdir. Sportda professional sportchini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan olimlar va amaliyotchilar yuqori malakali sportchilar uchun individual tayyorgarlik dasturi talab qilinishini aniq tasavvur qilishadi. Lekin, iqtidorli bolalarni izlash nuqtayi nazaridan sportga tayyorgarlikni ko‘rib chiqish, dastlabki bosqichlarda individuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirda sport zaxirasini tayyorlash nazariyasi va amaliyotida bu masalaga munosib e’tibor berilmagan. Bu masala munozarali. Sportning dastlabki bosqichlarida keng, o‘zgaruvchan, asosiy tayyorgarlik juda katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olsak, har xil bolalar jismoniy faoliyatning har xil turlari, turli sport turlari bo‘yicha o‘zlarining maxsus iste’dodlariga ega bo‘lishlarini inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun, murabbiy va ota-onalar bolada tabiat unga bergan barcha qobiliyatlarni rivojlantirish uchun, boladagi qobiliyatni inobatga olib uni sport turlariga yo‘naltirishi juda ham muhimdir. Rivojlanish va amalga oshirish individual jismoniy tarbiya va sport bolalar bog‘chasida qo‘shimcha ta’lim tizimida yengil atletika bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari to‘plamidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish kabi mashqlar yoki ularning kombinatsiyalar qo‘llaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish o‘yin va raqobat shakllarida amalga oshiriladi.

Yengil atletika bo‘yicha individual va guruhli mashg‘ulotlarni loyihalash maktabgacha yoshdagi bolaning harakat sohasining barcha tarkibiy qismlarini faol, ijodiy harakat faoliyatiga jalb qilish orqali rivojlanishiga yordam beradigan shart-sharoitlarni ta’minlashga asoslangan. Yengil atletika bo‘yicha bolalar uchun ta’lim yo‘nalishini loyihalash ularning moyilliklari, qiziqishlari, qobiliyatlarini rivojlanish darajasini, shuningdek mavjud qiyinchiliklarni hisobga olgan holda tuziladi. Masalan, birinchi navbatda, bolaning eng muvaffaqiyatli bo‘lgan harakatlari (yugurish, sakrash, otish) aniqlanadi. Yengil atletika mashqlarining ma’lum bir turida o‘z qobiliyatini rivojlantirgan holda, murabbiy asta-sekin bolalarni boshqa harakatlarni bajarishga jalb qilish uchun sharoit yaratadi, bu dastlab bola uchun eng qiyin bo‘lib chiqdi.

Yengil atletika bo‘yicha individual mashg‘ulot yo‘nalishi quyidagi komponentlardan iborat: axborot (jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasi, sog‘liq holati, psixofiziologik xususiyatlar, shifokor, psixolog va bolalar bog‘chasi mutaxassislarining tavsiyalari, ota-onalarning tavsiyalari. bola); maqsadli (individual jismoniy tarbiyani rivojlantirish vazifalarini aniqlash); mazmunli (vositalari, shakllari va usullari, yengil atletika dasturi materialining mazmuni); texnologik (bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yengil atletika bo‘yicha pedagogik texnologiyalar); diagnostik (yengil atletika bo‘yicha individual yutuqlar tizimini aniqlash); samarali (kutilgan natijalar). Darslarni tashkil etishning individual shaklining afzalligi - bu bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga muvofiq o‘qitish usullari, vositalari, usullari va mazmunini tanlash qobiliyati. Yengil atletika bo‘yicha guruh yo‘nalishlari butun maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan. Guruh marshruti jismoniy tayyorgarlikdagi muammolarni aniqlash va yengil atletikaning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarini rivojlantirish asosida yoki o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sport sohasiga bo‘lgan qiziqishini qondirish va qo‘llab-quvvatlash uchun quriladi. Yengil atletika bo‘yicha jismoniy tarbiya va sport ta’limining guruh mashg‘ulotini ishlab chiqish jamoaviy o‘zaro hamkorlikni talab qiladigan ochiq havoda o‘yinlar, estafetalar, ko‘ngilochar va musobaqalarni tashkil etish zarurati bilan bog‘liq. Yengil atletika harakatli o‘yinlar faoliyati bir nechta ishtirokchilarning mavjudligini o‘z ichiga oladi, ularning har biri ma’lum funksiyalarni bajaradi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining individual va guruhli yo‘nalishlarini yengil atletika yordamida amalga oshirish ta’lim munosabatlarining barcha ishtirokchilarining (bolalar, murabbiylar va ota-onalar) o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotlarni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchilar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning sport tarbiyaning barcha tarkibiy qismlarini oilaviy muhitda va guruhdagi mustaqil motorli faoliyatda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu maqsadda bolalarni kuzatish, ularning yengil atletika mashqlarining ayrim turlariga qiziqishi va afzalliklarini, shuningdek, vosita qobiliyatlari belgilarini aniqlash kerak. Shu asosda ota-onalarga ularni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ularga uyda o‘qish uchun sharoit yaratishda pedagogik yordam ko‘rsatish. O‘qituvchilar va ota-onalar bilan ishlash shakllari sifatida master-klasslar, seminarlar, individual maslahatlar qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июнда “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори.

2. Ш.М.Мирзиёев “Жисмоний ва маънавий етук ёшлар — эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиз”, Республика “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати IV қурултойидаги (30 июнь 2017 й) нутқи, “Халқ сўзи” газетаси 1 июль 2017 й.

3.Губа В. П., Скрипко А. Д. Физическая культура для всех и каждого. – М.: Спортивная книга, 2018. – 178 с.

4. Скрипко А. Д. Технологии физического воспитания. – Минск: ИСЗ, 2003. – 284 с.

5. Kosmol A. Systemy informatyczne sterowania obciążeniem wysiłkowym w wybranych dyscyplinach sportu. Studia i Monografie. Warszawa : AWF, 1999. – 262 c.

6. Саломов Р.С Спорт машғулотининг назарий асослари ўқув қўлланма. – Т.: ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими, 2005. – 240 б.

7. Xankeldiev Sh.X., Abdullaev A. va boshqalar. Sog‘lom turmush tarzining jismoniy madaniyati. O‘quv qo‘llanmasi. – Farg‘ona, 2010. – 226 b.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТИЗИМИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Холдаров Турғунбой,
Жиззах давлат педагогика
университети доценти, п.ф.н.;
Абдукарим Жўрабаев,
Жиззах давлат педагогика
университети катта ўқитувчиси

Аннотация

Ушбу мақолада Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида муаллифлар томонидан жисмоний тарбия тизимида олиб борилган тадқиқотлар ўрин олган. Юқори малакали боғча тарбиячилари фарзандларимизга билим асосларини, энг зарур ҳаётий тушунча ва кўникмаларни ўргатади. Бу соҳада ихтисослашган педагог кадрларни тайёрлаш, замонавий талабларга жавоб берадиган илғор педагогик усул ва услубларни ишлаб чиқиш, ўқув методик адабиётларнинг янги авлодини яратиш ва нашр этиш ҳам ғоят долзарб вазифа эканлигини таъкидланди. Таълим муассасаларида қабул қилиш ва навбатга қўйиш бўйича электрон дастурни жорий этиш бўйича топшириқ берилди

Калит сўзлар: *компьютер, ахборотлаштириш, интерактив мулоқот, мультимедиа технологияси, электрон почта (e-mail), URL-манзил (адрес).*

Аннотация

В данной статье собраны исследования, проведенные авторами в области информационно-коммуникационных технологий в системе физического воспитания. Высококвалифицированные воспитатели детского сада обучают наших детей основам знаний, самым необходимым жизненным понятиям и навыкам. Подчеркивалось, что подготовка профильных педагогических кадров в этой области, разработка передовых педагогических методов и методов, отвечающих современным требованиям, создание и издание учебно-методической литературы нового поколения являются чрезвычайно актуальными задачами. Поставлена задача внедрить электронную программу приема и организации очередей в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *компьютер, информация, интерактивное общение, мультимедийные технологии, электронная почта (e-mail), URL-адрес (адрес).*

Annotation

This article contains the research conducted by the authors in the field of information and communication technologies in the physical education system. Highly qualified kindergarten educators teach our children the basics of knowledge, the most necessary life concepts and skills. It was emphasized that the training of specialized pedagogic personnel in this field, the development of advanced pedagogical methods and methods that meet modern requirements, and the creation and publication of a new generation of educational methodical literature are extremely urgent tasks. A task was given to introduce an electronic program for admission and queuing in educational institutions

Keywords: *computer, information, interactive communication, multimedia technology, electronic mail (e-mail), URL-address (address).*

Ахборот-коммуникация технологиялари XXI асрнинг глобаллашуви жараёнига манфаат келтирувчи барча соҳалар каби жисмоний тарбия ва спорт фаолиятига ҳам кенг миқёсда чуқур сингиб бормоқда. Бу ижтимоий- маданий ва тарбиявий восита сифатида кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ҳатто илмий-методик ва амалий жараёнлар ташкил этишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Айниқса ўқувчи-ёшлар ва талабаларнинг жисмоний тарбия дарслари, тўгарак машғулотлари, спорт турлари бўйича оммавий мусобақалар ташкил этиш, иқтидорли ёшларнинг спорт маҳоратларини тарбиялашда ахборот- коммуникация технологиялари (АКТ) тизими мустаҳкамланиб, тобора барқарорлашмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев Конституция кунига бағишланган тантанали маросимидаги маърузасида (7 декабрь 2016 й.) “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини ҳозирги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи рақамли вазифамиз деб биламиз” дея келажакни кўзда тутади, шунингдек, бу йўлда мавжуд бўлган камчиликларни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисида (14 январь 2017 й.) очиқ ойдин танқидга олинган.[1] Яъни “Болалар ва ёшларга махсус фанлар, мамлакатимиз ва жаҳон цивилизацияси тарихини, компьютер дастурларини чуқур ўргатиш вазифалари ҳали сифатли ва тўлиқ ҳолда ечилгани йўқ”. Мазкур масалаларнинг ечимини ҳал этишда Республика Президентининг “Педагог кадрлар тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакаларини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (26 сентябрь 2016 й.) муҳим аҳамиятга эга. Унда қайд этилишича “Таълимнинг илғор шакл ва усуллари, замонавий талим ва ахборот-коммуникация технологияларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнига жорий этиш асосида раҳбар, педагог ва бошқа мутахассис кадрларнинг касбий билим кўникма ва малакаларини ошириш чораларини кўриш” асосий вазифа сифатида олға сурилган.[2]

Ахборот-коммуникация технологияларини жисмоний тарбия ва спорт соҳасига йўналтиришда Республика Президентининг “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (3 июнь 2017 й) қарори барча мутасадди Вазирликлар, жамоат ташкилотлари, айниқса Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини янада ривожлантириш вазирлиги дастурининг (1-илова) мазмун моҳияти ва унинг доирасида ташкиллаштириладиган оммавий-ахборот воситалари (ОАВ), шу жумладан, интернет тармоғи орқали аҳоли орасида мунтазам ва кенг ёритилишини таъминлансин, деб қатъий қарор қилинган.[2]

Спорт ташкилотлари, таълим муассасалари, меҳнат жамоаларида жисмоний тарбия ва спорт бўйича АКТ хизматлари кўрсаткичлари

№	Тармоқлар	Асосий хизматлар	АКТ дан фойдаланиш	АКТга эътибор (яратилган шароитлар)
Ўқув муассасалари				
1	Умумтаълим ўрта мактаб	Дарс, спорт машғулотлари, мусобақалар.	Видеотасвирга олиш, компьютер, телевизорда намойиш	Ўртача ҳолат
2	Лицей, коллежлар	Дарс, спорт машғулотлари, мусобақалар	Портал, сайт, онлайн	Ўртача ҳолат
3	ОЎЙ	Раҳбарлик, ҳакамлик мусобақаларни видеотасвирга олиш, нуфузли мусобоқаларни компъютер, телевизор орқали кўрсатиш	Спорт зал, махсус хоналарда АКТ дан фойдаланиш	Яхши даража
4	Барча тур ва тоифалардаги спорт мактаблари	Спорт машғулотлари, тайёргарлик	Техник-тактик амалларни тасвирга олиб, экранлар орқали кўриш, тахлил қилиш	Аъло даражада
5	Турли муасаса ва мехнат жамоаларидаги спорт кулиблар	Мусобақа, машғулот, соғломлаштириш ,иш қобилиятини ошириш	Бўлим, цех ва йиғинларда АКТдаги материалларни реклама, намоиш қилиш	Ўртача холатга яқин
6	Туман-шахар спорт кўмиталари, спорт жамиятлари	Назорат, текшириш, кузатиш, амалий ёрдам, мулоқатлар	Видеокамералар, мобил телефонлар орқали тасвирга олиш, салбий ва ижобий тадбир хамда фаолиятларни жойларда намойиш этиш	Ўртача даража
7	Телекоммуникация фаолиятлари	Нуфузли спорт мусобоқалари, иштирокчилари, ғолибларни тасвирга олиш ва телеканалларда намойиш этиш	Терма жамоалар, ғолиблар, савриндорлар, мураббийлар фаолияти, натижаларини шархлаш, алохида намойиш этиш	Аъло даража

Чизма 1. Кластер (тармоқлар) усулининг тузилмасидан намуна.

Олий мажлис		
Президент		Ватанпарварлик
Давлат рамзлари		Қомус
Мадҳия	Мустақиллик	Тил
Байроқ		Демократия
Герб	Ҳуқуқий давлат	Шахс эркинлиги

Давлат сиёсати. Ўзбекистонни ривожлантириш ҳаракатлар стратегияси

Бу каби тузилмалар Ўзбекистон Республикаси жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги (Давлат қўмитаси), Республика Миллий Олимпия Қўмитаси, “Ёшлик”, “Талаба”, “Баркамол авлод”, Касаба уюшмалари марказий спорт жамияти, спорт федерациялари, марказий спорт клублари (“Пахтакор”, “Бунёдкор”, “Локомотив” ва ҳ.к.) ҳамда уларнинг қуйи тармоқларига ҳам хос бўлган жараёндир.[3, 155-156]

Ўқув муассасаларидаги жисмоний тарбия дарслари, тўгарак ва терма жамоаларнинг спорт машғулотларида хилма-хил техналогик йўналишлар, усуллар қўлланмоқда. Улардан намуна сифатида “кейс” (портфолио-турли тадбир ва муаммоларни ўзида сақловчи техник восита) усулига доир жадвал келтирилади. (2-жадвал).[3, 32]

Ўқувчи-спортчидаги ҳодиса(ситуация) муаммо тузилмаси

Муаммо	Сабаблари	Унинг ечими
Сакрашда жароҳатланди	Тайёргарлик (разминка) ёмон қилди Йўлакча супурилмаган Йўлак жуда қаттиқ Мураббий профи эмас Жисмоний тайёр эмас Бошқалар чалғитди Оёқ кийими эски, лойиқ эмас Ҳаво салқин эди	Кўникмани кучайтириш, малака ҳосил қилиш; Биринчи(тиббий) оддий ёрдам Муз қўйиш, шифокорга жўнатиш Жароҳат тури: Чўзилиш(растижение); Суяк синиши Лат ейиш, эзилиш ҳолатлари юз берган бўлиши мумкин

Ўзбекистон шароитида замонавий таълим усулларида ахборот технологияларидан самарали фойдаланишда инновацион-педагогик маҳоратлар(технологиялар) чуқур сингиб бориши ва жадаллик билан барча фанларни ўқитишда қўлланилиши жисмоний тарбия таълимида ҳам ўз ифодасини топмоқда. Таълим-тарбия биз учун ҳаёт — мамот масаласидир. Қайси соҳани олмайлик, биз замонавий етук кадрларни тарбиялашдан туриб бирон-бир ўзгаришга, фаровон ҳаётга эриша олмаймиз, деб алоҳида уқтирилди.[4, 45]

Таълим муассасаларида қабул қилиш ва навбатга қўйиш бўйича электрон дастурни жорий этиш бўйича топшириқ берилди шу асосида мактабгача таълим муассасаларида АКТ таъминотининг ҳолатини ўрганиш уларни босқичма-босқич замонавий компьютер техникаси билан таъминлаш ва интернет тармоғига улаш бўйича чора тадбирлар дастури ишлаб чиқилди. Умуман олганда президент Ш.Мирзиёев таъкидлаган “Мактабгача тарбия муассасаларини эътибордан четга суриб қўйдик” деб айтган танқидий мулоҳазаларига яқиндан ёндашиб, бу соҳага эътиборини тубдан ўзгартирди [2]. Буюк келажак авлодларини тарбиялашда мактабгача тарбия муассасаларининг ўрни, масъулияти ва моҳиятини ҳаётда татбиқ қилиш йўлларининг янги тадбир-чоралар кўриш билан бошланади. Бунда янгидан ташкил этилган мактабгача таълим вазирлигининг фаолияти билан синаш, ўлчаш, хулоса чиқариш ва ижобий педагогик технологияларни давом эттиришга замин бўлиши мумкин. Бу йўлда эса болалар саломатлигини муҳофаза қилиш, уларнинг мутлақ соғлом, ҳаракатчан, чаққон, эпчил, қувноқ, шўх бўлиб ўсишларида АКТ дан самарали фойдаланиш билан аниқ мақсадларга эришиш имкони бўлади. Улар орасида Жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, ўқувчи ва талаба ёшларнинг таълим тарбиядаги интеллектуал салоҳиятларини кучайтириш, аҳолининг соғлигини муҳофаза қилиш, мулоқотлар ўтказиш барчага бирдек манфаат келтирувчи виртуал қабулхоналар ташкил қилиниши, очиқ порталлардан мақсадли йўлда фойдаланиш учун имкониятлар берилиши ҳозирги куннинг долзарб тадбирларига айланди. Бу эса замон ва давр талаблари асосида глобал техника ва технологиялардан самарали фойдаланишнинг маҳсулидир [5, 9].

Ўзбекистон истиқлолида жамият тараққиётининг барча жабҳалари таркибида жисмоний тарбия ва спорт фаолияти давр тақозо этаётган турли поғоналарда мазмун, мақсад моҳият жиҳатдан мақсаддагидек ривож топмоқда. Бунда давом этаётган давлат сиёсати ва туб ислоҳотларнинг ижобий таъсири муҳим аҳамият касб этмоқда. Бу умумий ва муайян йўналишдаги (таълим-тарбия муассасалари, спорт мактаблари ва ҳ.к.) ташкилий бошқарув фаолиятларни мақсад ва вазифалар асосида амалга оширишда мутахассис кадрларни тайёрлаш жараёнларини янги изга солиш давр талаби ва эҳтиёжига айланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (30 июнь 2017 й) таълим муассасалари, айниқса спорт таълими соҳасидаги ўқув муассасаларида дарслар, спорт машғулотлари, оммавий соғломлаштириш ва спорт тадбирларини мазмунан бойитишда ахборот технологияларини ишга солиш, барча фаолиятларнинг самарадорлигини таъминлашни бош вазифа қилиб қўймоқда. Шу асосда спортдаги иқтидорли ўғил ва қиз болаларни танлаш, саралаш, тажриба-синовлардан ўз вақтида ўтказиш, уларни тарбиялаб маҳоратини ошириш ва нуфузли

мусобақаларга (Республика, Осиё ва жаҳон миқёсида) тайёрлаш, иштирокини таъминлаш жараёнларини инновацион технологиялар, илғор педагогик тажрибалардан мақсадли ҳамда самарали фойдаланишни замонавий таълим асосида талаб даражасига кўтармоқда.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳаси бўйича кадрлар тайёрлашда замонавий таълимнинг педагогик маҳорат ва технологияларига янги талаблар қўйилмоқда. Бунда профессор-ўқитувчилар ва спорт мураббийларининг касбий нуфузини (компетенция) юқори кўтариш, уларни бўлажак мутахассисларда шакллантириш долзарб масалага айланмоқда. Бу соҳада спорт фанлари, айниқса, жисмоний тарбия назарияси ва услубияти фанида мобил иловалардан мақсадли ва самарали фойдаланишни давр тақозо этмоқда. Бугунги ўқувчи ва талаба компьютер-интернет тизими воситалари, хусусан, мобил телефонлардан ўқув жараёнлари бўйича фойдаланишни тўла ўзлаштирса, келажакда уларнинг билим, фикр доиралари юксак бўлади ва ўз нуфузини (компетенция) янада мустаҳкамлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июнда “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3031-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 июнда “Республикада ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5099 сонли қарори.

3. Ш.М.Мирзиёев “Жисмоний ва маънавий етук ёшлар-эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиз”, Республика “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати IV қурултойидаги (30 июнь 2017 й) нутқи, “Халқ сўзи” газетаси 1 июль 2017 й.

3. Аслаханов, С.-А.М. Построение формирующего личность физического воспитания с учетом базовых ценностей этноса (монография). – Махачкала: АЛЕФ(ИПОвчинников М.А.). 2013. – 336 с.

4. Возрастная физиология / Коломийцева Н.С., Кагазежева Н.Х., Петрова Т.Г. //Учебное пособие для студентов по направлению подготовки 49.03.01 – “Физическая культура” квалификация (степень) “Бакалавр”. – Майкоп, 2017. – 183 с

5. Атамухамедова М.Р., Аминжанов А.А. Показатели физической работоспособности у молодых пловцов // Интернаука. – 2021. – №. 37-1. – 9-10 с.

TOPISHMOQLARNING MADANIYAT VA TA’LIMGA TA’SIRI

Durdona To‘xtasinova,
Andijon davlat chet tillar instituti
“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Qadimdan xalq og‘zaki ijodining eng ixcham va quvnoq janrlaridan biri bo‘lgan topishmoq janri barcha xalqlarda ham donolik, zukkolik va aqlni charxlovchi va insonlarda diqqat-e’tiborni jamlovchi eng asosiy vositalardan biri sifatida tan olingan. Va u shu vaqtga qadar o‘zining yuksak qadrini yo‘qotmadi, aksincha foydali jihatlari ko‘p ekanligi e’tirof etilyapti. Zamonaviy bilimlarning rivojlanishi yangi va turlicha bo‘lgan topishmoq va jumboqlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu maqola topishmoqlarning ta’lim va madaniyatga ta’siri haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan.

Kalit so‘zlar: *topishmoqlar, mantiqiy fikrlash, madaniyat, ta’lim, nutqiy rivojlanish, topishmoq janrlari, urf-odatlar.*

Аннотация

Загадки, один из самых лаконичных и веселых жанров фольклора, издревле признаны всеми народами как одно из главных средств обострения мудрости, смекалки и ума, концентрации внимания людей. И до сих пор оно не утратило своего высокого значения, наоборот, признано, что оно имеет множество полезных аспектов. Развитие современных знаний привело к появлению новых и разнообразных загадок и головоломок. В этой статье содержится информация о влиянии загадок на образование и культуру.

Ключевые слова: *загадки, критическое мышление, культура, образование, совершенствование речи, жанры загадок, обычаи.*

Annotation

Riddles, one of the most concise and fun genres of folklore since ancient times, have been recognized by all nations as one of the main means of sharpening wisdom, ingenuity and intelligence and focusing people’s attention. And it has not lost its high value until now, on the contrary, it is recognized that it has many useful aspects. The development of modern knowledge led to the emergence of new and different riddles and puzzles. This article contains information about the influence of riddles on education and culture.

Keywords: *riddles, critical thinking, culture, education, improvement of speech, genres of riddles, customs*

Xalq tomonidan ko‘plab ajoyib va foydali janrlar yaratilgan bo‘lib, ular orasida topishmoqlarning ahamiyati va o‘rni salmoqlidir. Bunday topishmoqlarning yaratilishi uzoq o‘tmishlarga borib taqaladi. Ular insonlarning aql-zakovatini yanada yaxshilashga, zukkolik va topqirligini oshirishga yaqindan xizmat qiladi. Mahmud Koshg‘ariy topishmoqni qadimda “tabzug” deyishganini qayd etadi. “Tabzug‘uq tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so‘radim) jumlasini keltiradi. Bu ma’lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi. Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she’riy, nasriy ko‘rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo‘yiladi.
4. Mazmunida hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da’vat etiladi.
5. Topilishi lozim bo‘lgan narsa, ko‘pincha, bitta, ba’zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo‘ladi.
6. Topishmoqlarda qo‘llangan asosiy badiiy san’at istiora (metafora) hisoblanadi. [4, 77]

Bunday xususiyatlari ham insonga qaysidir ma’noda yaxshi va yuqori kayfiyat bag‘ishlaydi. Bejizga topishmoqlar xalq orasida badiiy janrlar ichida eng quvnoq janr deb aytilmagan. Quyida biz ana shunday topishmoqlardan namunalar ko‘rishimiz mumkin:

1. Yelkasi bor, boshi yo‘q
Oyog‘i bor, qo‘li yo‘q (stul)
2. Sirti tayoq,
Ichi bo‘yoq (qalam)
3. Minglab ignani ko‘rdim
Teshigi yo‘q hech birin (tipratikan)
4. Kalta bobom ichkarida
Soqollari tashqarida (sholg‘om)
5. Yer tagida oltin qoziq
U hammaga bo‘lar oziq (sabzi)

Mazkur oxirgi ikki misrali she’r shaklidagi topishmoq o‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lib, uning javobi sabzi ekanligi ko‘pchilikka ma’lum. Yuqoridagi topishmoq ham boshqa ko‘plab topishmoqlar singari metafora asosiga qurilgan bo‘lib, “oltin qoziq” o‘xshatishi orqali sabzining tus jihatidan oltin rangiga yaqinligi, shaklan qoziqqa o‘xshash bo‘lib, uning asosiy qismi tuproq ostida bitishi va tanovul qilish mumkinligiga ishora qilinadi. Shu asnoda topishmoqni topishi kerak bo‘lgan tinglovchilar aytilgan belgilarga tayangan holda topishmoqning javobini topishga harakat qiladilar.

Insonni har jihatdan mukammal, salohiyatli, el-yurt uchun munosib va komil inson bo‘lib voyaga yetishida xalq topishmoqlarining ham o‘z o‘rni va roli beqiyos. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlari ma’lum darajada talqin etiladi. Bolalarning dunyoqarashini shakllanishiga, ongining o‘sishiga, nutqini boyishiga va fikrlash doirasini kengayishiga topishmoqlar katta ahamiyat kasb etadi. Bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq va qiziqishini oshiradi. O‘rtaga tashlangan jumboq ustida o‘ylay turib, fikrlash doirasi kengayadi, estetik dunyoqarashi shakllanadi, hayotni har tomondan kuzatib tahlil qilishga odatlanadi. [3, 100] Topishmoqlarning yana bir foydali jihatlaridan biri shuki, bola topishmoqni javobini izlash orqali turli xil yondashuvlarga asoslanadi va tanqidiy fikrlashi rivojlana boshlaydi. Bunday insonlarda nutqiy qobiliyati ham yuksak darajada bo‘ladi. Ayniqsa, topishmoqlar yosh o‘rganuvchilar uchun keng joriy qilinsa, samaradorligi va yon atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga bo‘lgan tanqidiy qarashlari shakllanadi va kelajakda yetuk bir shaxs sifatida gavdalanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Aql va idrokli yoshlar esa har qachon biror bir yurtning va zamonning ta’lim sifatini belgilab beruvchi eng katta vosita bo‘lib kelgan.

Topishmoqlarning madaniyatga bo‘lgan ta’siri haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ular shubhasiz ma’lum bir xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odati, madaniyati va umuman olganda ularning hayotini aks ettirgan holda yaratilishiga e’tibor berish zarur. Doimiy ravishda topishmoqlardan foydalanish va ularni yosh avlodga uzluksiz yetkazib borish va ushbu an’anani davom ettirish — har bir millatning madaniyati va urf-odatlarini yoddan chiqarmaslikka undaydi va ularga bo‘lgan hurmatni yanada shakllantiradi. Masalan, “Bir chuqurda, ming chuqur” (Javobi: angishvona) topishmog‘ida javob izlayotgan har bir shaxs u haqida chuqur izlanadi va javobini topgandan so‘ng u o‘zimizni, ya’ni o‘zbek millatimizning urf-odati bo‘lgan tikuvchilik yoki kashtachilik kabi qo‘l mehnatlarini esga oladi. Agar u ushbu topishmoqni kimgadir aytsa va boshqa bir inson buni javobini topishga qiynalsa, yordam tariqasida milliy hunarmandchiligimizda foydalaniladigan asboblardan biri deb ham yana bir bor madaniyatga nisbatan targ‘ibotni kuchaytiradi. Bunday topishmoqlar xalq orasida juda keng tarqalgan.

Yaratilish davri va mazmuniga ko‘ra topishmoqlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

An’anaviy topishmoqlar — xalqning uzoq o‘tmishiga daxldor topishmoqlar silsilasi. Ularda ajdodlarimizning butun moziy davomidagi turmush tarzi, ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi narsa va hodisalar jumboqlangan. Aytaylik, qachonlardir topishmoqlar kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarni aniqlashda vositachilik vazifasini bajargan. O‘shanda topishmoqlar hozirgidek ma’naviy o‘yin xarakterida bo‘lmagan, balki aqlni, kuch-g‘ayratni sinovdan o‘tkazish sharti sifatida xizmat qilgan. Topishmoqlar yordamida el-u yurtga boshliq (podshoh) tanlangan, jang-u jadallarda urushuvchi tomonlar lashkarboshilarining topishmoqqa bergan javobining to‘g‘ri yo noto‘g‘riligiga qarab, g‘olib belgilangan va ortiqcha qon to‘kishlar oldi olingan.

Mantiqiy tafakkurni o‘stirishda topishmoqlarga javob topish matematik masala, misol yechish bilan teng kuchga ega. Ba’zi o‘quvchilar topishmoqlarga javob topishni

ermak deb biladilar. Afsus, bunday o‘ylashlari noto‘g‘ri. Chunki har bir topishmoq aytilganda o‘quvchi aqlni ishga soladi, o‘ylaydi, fikrlaydi. [1, 85] Hatto yigit-qizlarning bir-birlariga munosib umr yo‘ldoshi tanlashlarida ham topishmoqlar bo‘lajak kuyov uchun aql sinovi shartiga aylangan. Bu mulohazalarni xalq og‘zaki ijodidagi ayrim afsona va ertaklar ham tasdiqlaydi.

Chunonchi, yunonlarning Sfinks haqidagi afsonasida aytilishicha, dono Edip maxluq bergan topishmoqqa to‘g‘ri javob topgani tufayli nafaqat omon qoladi, balki boy va g‘oyat go‘zal Fiva shahriga hukmdor etib tayinlanadi. Yoxud, o‘zbek xalqining “Dono qiz” ertagida podsho o‘zi uylanmoqchi bo‘lgan qizning aql-u zakovatini topishmoq orqali sinagach, so‘ngra, unga uylanishga azm etganligi ifodalansa, qator sehrli ertaklarda bosh qahramon yovuz devlarni, jodugar kampirlarni topishmoq orqali mag‘lub etib, o‘z niyatiga erishganligi aks etgan. Xullas, an’anaviy topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimizning betakror badiiy namunalari hisoblanadi, ulardan o‘tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof va borliqqa doir fikr-mulohazalari, mushohadalarini bilib olish mumkin.

Yangi topishmoqlar. Bular bevosita an’anaviy topishmoqlar ta’sirida yaratilgan bo‘lib, ularga xos an’anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta’minlagan omil hisoblanadi.

Ularni aytishga xalq muayyan tartib-qoidaga, taqvimga rioya qilgan,chunki topishmoqlarni magik so‘z hosilasi deb tushungan. Chunonchi, ruslar xristianlik e’tiqodiga ko‘ra, Iso tug‘ilgan kunga bag‘ishlab 25 dekabrdan 5-6 yanvargacha o‘tkazadigan ikki haftalik “svyatki” bayrami davomida topishmoq aytishsa, o‘zbeklar va tojiklarda dehqonlar kuzgi yig‘im-terimni tugatgach, qishning uzun kechalarida aytishgan. Kunduzgi ishga xalal bermaslik uchun topishmoqni kunduz kuni aytish taqiqlangan.

Ajdodlarimiz bug‘doy ko‘karib unib-o‘sayotganda, daraxtlar gullab, meva tugayotganda, hayvonlar qishki uyqudan uyg‘onganda ular haqida topishmoq aytilsa, topishmoqlarda ta’riflansa, ularga yovuz kuchlar hasad qiladi va zarar yetkazadi, deb irim qilishgan. Qishda esa yovuz kuchlar ham tirik tabiatni o‘lgan gumon qilib, uyquga ketgan, deb hisoblashgan. Shunday tasavvur va qarashlar topishmoq aytish taqvimini yuzaga keltirgan.

Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta’sir ko‘rsatib, mumtoz she’riyatda lug‘z, chiston, muammo, ta’rix va muvashsha singari janrlarning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, XX asrda o‘zbek bolalar she’riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an’anaviy tus olishini ta’minladi. Bu sohada Jahon otin Uvaysiy, G‘afur G‘ulom singari zabardast shoirlar boshlagan an’anani Shukur Sa’dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po‘lat Mo‘min, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib va S.G‘afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, ulkan bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning she’riy-adabiy topishmoq janridagi ijodiy izlanishlari g‘oyat samaradorligi bilan e’tiborga loyiq. Shoir “Topingchi?”, “Viz-viz”, “O‘ylab top”, “Buni toping bolalar, aytib bermang onalar” singari she’riy adabiy topishmoqlarida xalq topishmoqlariga xos an’anaviy unsurlarni istifoda etish bilan cheklangan bo‘lsa, “Militsioner amakim” asarida xalq posbonlariga xos xususiyatlarni jumboq holida ta’riflash asosida kasbni sir tutadi va sharaflovchi ma’no beradi. Natijada, she’rning har bandi — bir jumboq tusini oladi. Olti band — olti jumboq shaklida jamlanib, yagona umumlashma poetik g‘oyani aks ettiradi. Har bir bandda el soqchilarining ma’lum bir fazilati ta’riflanib, shu ta’riflarning kimga taalluqliligi sir tutiladi. Bunday jumboqning javobi har bir bandagi so‘nggi misrada ochiladi:

Qomatiga kelishgan forma, pagoni,

Yonboshida charm, qinda nagani, Yigitlar arsloni, man-man degani, Bolalarim bilasizmi? Ayting kim?

– Kamar taqqan militsioner amakim!

Shu zaylda u topishmoq janri kompozitsion tuzilishidan ijodiy foydalanib, she’riy adabiy topishmoqning yangi ichki namunalarini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Binobarin, xalq topishmoqlari qatorida bu xildagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng va samarali foydalanilmoqda. Topishmoq endilikda tom ma’noda, bolalar ma’naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rgatish uchun xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlarning insonning zukkoligini, topqirligini, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini va har jihatdan ma’nan yuksalishida ahamiyati kattadir. Bundan tashqari ular bolaning nutqini rivojlantirishda va erkin fikrini ifoda eta olishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar qadim o‘tmishdan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda ham juda ahamiyatli o‘rin egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Safarova, M.Yusupova O‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda topishmoqlarning o‘rni. “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2022. – 85-87 b.

2. G.Boymurodova, X.Sattorova va b. “O‘qish” 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: “Sharq”, 2016. – 240 b.

3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – T.: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – 216 b.

4. Omonulla Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 b.

YOSHLARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI

Farhodjon Yo‘ldoshev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida
masofaviy ta’lim kafedrasi mudiri, (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishda oilaning o‘rni haqida fikrlar yoritilgan. Ekologik madaniyat insoniyatning yangi madaniyati bo‘lib, u insonning ekologik jihatdan sog‘lom xulq-atvori, faoliyati va inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasini rag‘batlantiradigan qadriyat yo‘nalishlarini belgilaydi. Keng ma’noda ekologik madaniyat insoniyat madaniyatining yangi mazmunidir. Bundan tashqari, yosh avlodning ekologik tushunchalarini shakllantirishda oila tarbiyasida ota-ona va katta yoshli oila a’zolari ularning qiziqishlariga qarab ish olib borishi lozim. Faoliyat davomida bolaning tabiatga nisbatan his-tuyg‘usi, xulq-atvori shakllanib boradi.

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, atrof-muhit, qadriyat, madaniyat, xulq-atvor, ijtimoiy-tabiiy muhit, tabiat, ekologik inqiroz, fan, urf-odat va an’analar.*

Аннотация

В данной статье рассматривается роль семьи в формировании экологической культуры молодежи. Экологическая культура — это новая культура человечества, определяющая ценностные направления, способствующие экологически здоровому поведению, деятельности человека, новому качественному уровню отношений человека с социальной и природной средой. В широком смысле экологическая культура — это новое содержание человеческой культуры. Кроме того, при формировании экологических представлений подрастающего поколения родители и старшие члены семьи должны работать согласно своим интересам в семейном воспитании. В ходе деятельности формируются чувства и поведение ребенка по отношению к природе.

Ключевые слова: *экологическая культура, окружающая среда, ценности, культура, поведение, социоприродная среда, природа, экологический кризис, наука, обычаи и традиции.*

Annotation

This article discusses the role of the family in the formation of the ecological culture of young people. Ecological culture is a new culture of humanity, which defines value directions that encourage ecologically healthy human behavior, activities, and a new quality level of relations between humans and the social and natural environment. In a broad sense, ecological culture is a new content of human culture. In addition, in the formation of ecological concepts of the younger generation, parents and older family members should work according to their interests in family education. During the activity, the child’s feelings and behavior towards nature are formed.

Keywords: *ecological culture, environment, value, culture, behavior, socio-natural environment, nature, ecological crisis, science, customs and traditions.*

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ekologik muammolarning globallashib borayotganligi har bir oilada tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’rifiy ishlarni amalga oshirib borishni taqozo etadi. Chunki yoshlar oilada dastlabki tarbiyani olar ekan, har bir shaxsda ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirishni, ularning intellektual salohiyati, tabiat hodisalariga nisbatan sog‘lom fikrli munosabatda bo‘lishini, yoshlarning ekologik madaniyatini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizda “Birni kessang, o‘nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Oilada yangi farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo‘qolib ketdi.[1, 145]

Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutmasak, ko‘zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin” [2, 110].

Binobarin, bu vazifalarni amalga oshirishda oila tarbiyasida yosh avlodning tafakkuri bilan ekologik bilimga, ekologik madaniyatga ega bo‘lib borar ekan, shu asosda atrofni o‘rab turgan borliq va tabiat hodisalari haqidagi tushunchalari, ekologik dunyoqarashining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Shunday ekan, har bir oiladagi sog‘lom turmush tarziga, atrofdagi tabiatga bo‘lgan tarbiyaga e’tiborni qaratish, unga doir tavsiyalar ishlab chiqish, yosh avlod ongida tabiat boyliklarini muhofaza qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini bilishi lozim.

ISSN 2181-8274

Ana shu ma’noda oilada sog‘lom muhitni yaratish, bunday hayot tarziga asoslanib yashash har bir oila a’zolarining muomala madaniyati shakllanishiga, tabiatga ongli munosabatda bo‘lishga, bir so‘z bilan aytganda ekologik ong va ekologik madaniyatning tarkib topishiga imkoniyat yaratadi.

Ekologik ong — ruhiy hodisa bo‘lib, shaxs ongida tizimlangan ekologik bilimlarning tushunchalari hosil bo‘lishi, tabiat, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish borasida to‘la va chuqur ma’lumotga ega bo‘lish orqali hosil qilingan tasavvur, hissiyot va e’tiqodlar tizimidir.[3, 47]

Ekologik madaniyat haqida turli manbalarda, internet sahifalarda turlicha tushunchalar, ta’riflar bor. Kimdir uni atrof-muhitga do‘stona munosabat deb qarasa, kimdir tabiatni asrashni tushunadi.

Sodda qilib aytganda, ekologik madaniyat ongli ravishda atrofimizni o‘rab turgan barcha muhitga nisbatan bizning ijobiy munosabatimiz, ya’ni tabiat va atrof-muhitni asrashni oilada, mahallada, maktabda va jamoalarda shakllanib boradigan qadriyatlarimizdir.

Dunyoning qaysi qit’asida yashamang, ekologiyaga munosabat, uni asrab avaylash doim dolzarb. Muhimi undan faqat yaxshilik yo‘lida foydalanish bizni diqqatimizda bo‘lishi kerak. Siz ham maktabda, kollejda sinfdoshlaringiz bilan ekologiyani himoyalashga intiling.

Eng avvalo, bu tushuncha oila tarbiyasida shakllanadi, ota-onalarimiz buni bizga o‘z misollarida o‘rgatib boradi.

Keyinchalik, maktabga chiqqanimizda biologiya, geografiya, kimyo, fizika kabi fanlar tarkibida atrof-muhit muhofazasi, uni asrab avaylash bo‘yicha bilimlarimiz boyitib boriladi.

Ekologik madaniyat — bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u, va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

Oiladagi ekologik madaniyat — bu bolalarning atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tushunchalarga ega bo‘lishi, tabiatni asrashi, o‘simliklar hamda hayvonlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishi, ularni asrab-avaylash borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatidir.Bu madaniyat oilada bolani sog‘liq, pokizalik va obodonlikka o‘rgatish asosida shakllantiriladi. Bola gigiyenik qoidalarga rioya qilishga ko‘nikish hosil qilish bilan atrof-muhit va tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishga odatlanib boradi.[3, 95]

Oila tarbiyasida bolalarni atrof-muhitga, hayvonot va o‘simlik dunyosiga ongli munosabat asta-sekinlik bilan shakllantirib boriladi. Oiladagi dastlabki ekologik tarbiya orqali bolalar atrof tozaligini saqlash, tabiat boyliklarini asrab-avaylash va undan unumli foydalanish, suv boyliklaridan tejamkorlik bilan foydalanish, havoni tozalovchi o‘simliklar dunyosi va xonadon, hovlilarni gulzorga aylantirish, hayvonot olamini asrash to‘g‘risidagi tushunchalarga ega bo‘lib boradi.

Hozirgi davrda insonlar bilan ekologiya o‘rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Natijada inson o‘zining tabiatga ta’siri orqali undagi muvozanatni buzdi, tabiat hodisalarining davriy muvozanatini ishdan chiqardi.

Oilada bolalarni ekologik tushunchalarga ega qilib borishda quyidagi yo‘nalishlarni vazifa etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Bular:

1. Toza atrof-muhit sharoitida yuksak ekologik madaniyatga ega bo‘lgan sog‘lom avlodni tarbiyalash.

2. Oilada beriladigan tarbiyaning barcha turlarida va tarbiyaviy yo‘llar jarayonida ekologik tushunchalarni joriy etish.

3. Doimiy ravishda oila tarbiyasida ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirib borishga e’tiborni qaratish.

4. Yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan mehr-shafqat tuyg‘usini shakllantirib borish. [4, 56]

Bu vazifalarni amalga oshirishda oila tarbiyasida yosh avlodga ekologik bilim berish bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy faoliyatda ekologik madaniyatni shakllantirishni tabiat bilan uyg‘un holda amalga oshirishdan iborat.

Shuning uchun ham ekologik tushunchalarni shakllantirish oila tarbiyasi zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. Chunki, yosh avlod tarbiyasining ko‘p vaqtini oila tarbiyasi tashkil etadi. Shu ma’noda “ekologiya”, “ekologik tushuncha”, “ekologik ong”, “ekologik madaniyat”, “tabiat”, “tabiiy boyliklar”, “atrof-muhit” kabi dastlabki tushunchalar yosh avlodga oila tarbiyasida singdiriladi.[5, 85]

Yosh avlodning ekologik tushunchalarini shakllantirishda oila tarbiyasida ota-ona va katta yoshli oila a’zolari ularning qiziqishlariga qarab ish olib borishi lozim. Faoliyat davomida bolaning tabiatga nisbatan his-tuyg‘usi, xulq-atvori shakllanib boradi. Shuning uchun ota-onaning vazifasi yosh avlodga faoliyati davomida bajarilishi lozim bo‘lgan hodisalarni ko‘rsatish va tushuntirishdan, vazifa va talablar qo‘yishdan, tekshirish va tuzatishdan iborat. Buning uchun ota-ona shu soha bo‘yicha muayyan darajada bilimga, mahoratga va ekologik madaniyatga ega bo‘lishi kerak etmoqda [1, 25]

Tabiatni asrab — avaylash, unga ziyon yetkazmaslik, atrof muhitga nisbatan e’tiborli bo‘lish va qo‘pol munosabatda bo‘lishni oldini olish uchun ta’lim va tarbiyaning ilk bosqichlaridan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligini oshirish masalasi juda dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolaning qalbi beg‘ubor, juda hissiy, samimiy va rahm-shafqatli bo‘lib, tabiatni tirik organizm deb his qilishadi. Ayni shu davrda bolalarga yetarlicha ekologik ta’lim berilib, bilim va ko‘nikmalari shakllantirilsa hamda bolalar ongiga ekologik madaniyat singdirilsa ona tabiatni sevuvchi yangi avlod ulg‘ayib boradi.

Shaxsning ekologik madaniyati bu tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik hissiyot, ehtiroslarning shakllanishi, faol hayotiy nuqtayi nazarda turish, ekologik bilimga ega bo‘lishdan iboratdir. Shuningdek, ekologik madaniyat deganda tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof- muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuvlaridir. Ayrim manbalarda ekologik madaniyat deganda tabiatga imkoni boricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir deya ta’rif berilgan. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ekologik madaniyati yuksak bo‘lgan inson nafaqat tabiatni ifloslantirmaydi. balki uni asrab avaylaydi, tanazzulga yuz tutgan ekotizimlarni tiklashga harakat qiladi. Shu bois ekologik madaniyatni yoshlar tongiga singdirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Har bir shaxsda ekologik madaniyatni erta yoshlik chog‘idan boshlab shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Bunda esa u kamol topayotgan oilaning o‘rni beqiyosdir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, oila tarbiyasida shakllanadigan ekologik tushunchalar orqali ekologik madaniyat, ekologik ongni rivojlantirish bilan tabiatni asrash, uni muhofaza qilish ishi shu zaminda yashayotgan har bir oila a’zosining ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo‘lgan farzandlik burchi ekanligini anglab yetishdir. Yoshlarni ekologik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanishingiz mumkin:

1. Tabiat bilan bog‘liq faoliyatlar tashkil etish: Yoshlar tabiatda bo‘lish, dengizda suzish, tog‘larda suvliqqa chiqish kabi faoliyatlar orqali tabiat bilan yaqinroq tanishishlari va uning qadriyatlarini his qilishlari mumkin.

2. Tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq mashg‘ulotlar: Tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarga ehtiyojlar to‘g‘risida yoshlarga ma’lumot berish, ularni shuningdek atrofimizdagi ekologik muammolar haqida o‘rganishlari va ularni hal qilish uchun harakat qilishlari uchun mashg‘ulotlar tashkil etish.

3. Ekologik tarbiya berish: Yoshlarga ekologik tarbiya berish va tabiatga hurmat va muhabbatni o‘rgatish juda muhimdir. Ular bilan birga tabiatda yashash, uning qadriyatlarini qadrlash va muhofaza qilishni o‘rganish ulug‘ hissa bo‘lib, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

4. Ekologik ta’lim darslari: Maktablarda, kollejlarda va universitetlarda ekologik ta’lim darslari tashkil etish juda muhimdir. Bu darslar orqali yoshlar tabiatning qadriyatlarini o‘rganib, ularni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal qilishda o‘z hissalarini olishadi.

5. Ekologik amaliyotlar: Yoshlarga ekologik amaliyotlar ko‘rsatish, masalan, atrofimizdagi zararli moddalar to‘plamlarini tozalash, tabiiy resurslardan foydalanishni tez-tez o‘rganish va boshqalar bilan birgalikda tabiatni muhofaza qilish uchun amalga oshiriladigan loyihalar ustida ishlashlarini tavsiya etishingiz mumkin.

Oilaning o‘rni o‘z maqsad va mazmuni bilan ekologik madaniyatni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Oilaning o‘rni, insonlarning tabiat bilan muomala qilish usullarini o‘rganish, tabiatni muhofaza qilish va uning qadriyatlarini qadrlash, atrofimizdagi ekologik muammolarga ehtiyojlarini tushuntirish va ularni hal qilishda katta rol o‘ynaydi. Oilaning o‘rni, insonlarning tabiatga hurmat va muhabbatini o‘rgatadi va ularning ekologik tarbiyasini kuchaytiradi. Bu esa, insonlarning tabiatga qarshi munosabatlarini o‘zgartirib, ekologik muammoni yechishda ulkan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 238 b.

2. O‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018. – 208 b.

3. Z.M.Sattorov Ekologiya darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2018. – 360 b.

4. S. Buriyev, D. Maxkamova, V. Sherimbetov. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (Matn): o‘quv qo‘llanma. – T.: “Noshir”, 2019. – 240 b.

5. I.Hamdamov, Z.Bobomuradov, E.Hamdamova. Ekologiya. – T.: Fan va texnologiya”, 2009. – 176 b.

AYOLLAR KIYIMINI ISHLAB CHIQARISHDA QAYTA ISHLANGAN MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING TAHLILI

Munira Babadjanova,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, t.f.n.;
Fazilat Jumaboyeva,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti magistranti

Annotatsiya

Tikuvchilik sanoatida mahsulotlar ishlab chiqarishda katta miqdorda andazalararo chiqitilar hosil bo‘ladi. Ishlab chiqarish chiqindilarini to‘liq qayta ishlash va keyingi foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan materiallar va ulardan tikuv mahsulotlari tayyorlashda jahon amaliyoti tahlil qilingan. Maqolada ikkilamchi qayta ishlangan materiallardan kiyim tayyorlash istiqbollari, jahondagi yetakchi moda brendlarida qayta ishlangan materiallardan kiyim ishlab chiqarish holati tahlil qilingan. Tikuvchilik sanoatida xomashyo va moddiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy muammolardan biri bo‘lib, ularni hal etishda kam chiqindili texnologiyalarni yaratish dolzarb vazifadir.

Kalit so‘zlar: *kiyim assortimenti, ikkilamchi material resurslari, qayta ishlangan mato, ishlab chiqarish chiqindilari, to‘qimachilik mahsulot, material, xomashyo, garderob, paxta, kam chiqindili texnologiya.*

Аннотация

При производстве изделий в швейной промышленности образуется большое количество отходов. Проанализирован мировой опыт полной переработки отходов производства и подготовки материалов, пригодных для дальнейшего использования, и пошива изделий из них. В статье анализируются перспективы производства одежды из вторичного переработанного сырья, состояние производства одежды из вторичного сырья у ведущих мировых модных брендов. Рациональное использование сырья и материальных ресурсов в швейной промышленности является одной из основных проблем, а создание малоотходных технологий — актуальной задачей для их решения.

Ключевые слова: *ассортимент одежды, вторичные материальные ресурсы, вторсырье, отходы производства, текстильное изделие, материал, сырье, гардероб, хлопок, малоотходная технология.*

Annotation

During the production of products in the clothing industry, a large amount of waste is generated. The world experience of complete processing of production waste and preparation of materials suitable for further use, and sewing products from them, is analyzed. The article analyzes the prospects for the production of clothing from recycled materials, the state of production of clothing from recycled materials from the world’s leading fashion brands. The rational use of raw materials and material resources in the garment industry is one of the main problems, and the creation of low-waste technologies is an urgent task to solve them.

Keywords: *assortment of clothing, secondary material resources, recyclable materials, production waste, textile product, material, raw materials, wardrobe, cotton, low-waste technology.*

Aholining turmush darajasining oshishiga qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar hisobiga yalpi ichki mahsulotning eksponensial o‘sishi bilan erishiladi. Ularning atigi 2 foizi iste’molga tayyor mahsulot sifatida foydalaniladi, qolgan 98 foizi esa chiqitlar bo‘lib, chiqindi va oqovalar shaklida atrof-muhitni ifloslantiradi. Bu muammoga e’tibor kuchaymoqda: korxonalarda chiqindisiz ishlab chiqarishning yangi usullari joriy etilmoqda, chiqindilarni qayta ishlash uskunalari o‘zlashtirilmoqda. Biroq barcha sa’y-harakatlarga qaramay, faqat kichik bir qismi — sanoat chiqindilarining 22 foizi qayta ishlanadigan materiallar ishlab chiqarish uchun qo‘llanadi va undan kamrog‘i — atigi 13 foizi to‘liq zararsizlantiriladi. Jahon to‘qimachilik sanoati tizimida paxta tolasi — 67%, kimyoviy tolalar — 20%, jun — 10%, zig‘ir — 1,6%, boshqa tolalarni ishlab chiqarish — 1,4% ni tashkil etadi [1, 268]. Ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash imkoniyati nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan, balki iqtisodiy foyda nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir, chunki chiqitlar arzon xom ashyo hisoblanadi. To‘qimachilik chiqindilaridan foydalanish arzonroq mahsulotlarni olish va ularni to‘plashning ekologik muammosini hal qilish imkonini beradi. Jahon statistik ma’lumotlariga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari barcha chiqindilarning 5 dan 10% gacha hajmini tashkil etadi. Ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash imkoniyati nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan, balki iqtisodiy foyda nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir, chunki chiqitlar arzon xom ashyo hisoblanadi. To‘qimachilik chiqindilaridan foydalanish arzonroq mahsulotlarni olish va ularni to‘plashning ekologik muammosini hal qilish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Jahonda qayta ishlanadigan chiqindilar salmog‘i.

Yengil sanoatning texnologik chiqindilari va ikkilamchi moddiy resurslar dunyoda qayta ishlanadigan barcha to‘qimachilik xomashyosining 25% ni tashkil qiladi. Bu mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan katta zaxiralardir. Biroq, bu chiqindilarning faqat 10% ishlatiladi. Ular, asosan, turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan noto‘qima materiallarga yoki ishlab chiqarish texnologiyasi yengilroq bo‘lgan mahsulotlarga, yo‘g‘on qayta ishlangan tola, texnik va yumshoq mebel to‘ldiruvchisi, vatin va boshqalar shaklida qayta ishlanadi. Tikuvchilik korxonalaridan olingan to‘qimachilik va tikuvchilik chiqitlari hamda ikkilamchi material resurslaridan oqilona va samarali foydalanish mahalliy yengil sanoatni rivojlantirish va tiklash jadalligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda chiqindilardan xomashyo olish texnologiyasi va asbob-uskunalarini yaratish, bu xomashyodan tikuv-trikotaj sanoatida foydalanishning yanada samarali usullarini izlash ishlari olib borilmoqda. To‘qimachilik sanoati xomashyosidan foydalanishning yangi, samaraliroq usullarini izlash muammosi eng muhim resurs tejaydigan iqtisodiy va ekologik vazifalardan biriga aylandi. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoati chiqindilari (kalava ip tolalari, iplar, laxtaklar, material qoldiqlari va turli iste’mol chiqindilari) miqdorini kamaytirish uchun kam chiqindili yoki chiqindisiz ishlab chiqarishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jahonda xomashyo o‘rnida chiqindilardan foydalanish katta tezlik bilan o‘sib bormoqda. 2014-yilda tikuvchilik sanoati uchun global tola ishlab chiqarishga asoslangan 90 million tonnaga yaqin kiyim-kechak iste’mol qilingan. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, chiqindilar to‘qimachilik sanoati chiqitlari va iste’mol chiqindilariga taqsimlanadi, bular rivojlangan mamlakatlarda aholi tomonidan shaxsiy va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanish jarayonida o‘z iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan narsalar va chiqindilar, ishlab chiqarish joylashgan mamlakatlarda atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilardan iborat. Jahon statistik ma’lumotlariga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari barcha chiqindilarning 5 dan 10% gacha hajmini tashkil etadi [2, 89]. Ikkilamchi materiallar resurslari — bu ishlab chiqarish chiqindilari va iste’molga yaroqsiz chiqindilarning majmuasi bo‘lib, ularni mahsulot ishlab chiqarishda asosiy yoki yordamchi material sifatida qo‘llash mumkin.

Oxirgi yillarda ikkilamchi material resurslar va chiqitlarni qayta ishlash bilan birgalikda chiqitsiz texnologiya yaratish yo‘lida bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jahonda xomashyo o‘rnida chiqindilardan foydalanish katta tezlik bilan o‘sib bormoqda. Masalan, Yaponiyada 96% dan ko‘proq ishlab chiqarish chiqindilari xomashyo o‘rnida qayta qo‘llaniladi. Ikkilamchi xomashyolarga qayta ishlov berish tajribalari Olmoniya, Bolgariya va Polshada keng rivojlanib bormoqda.

Qayta ishlab chiqilgan kiyimlar nafaqat sintetik tolalar yoki tabiiy xom ashyolardan, balki iste’molchi uchun mutlaqo noodatiy bo‘lgan boshqa materiallardan ham tayyorlanishi mumkin. Gap shundaki, bunday xomashyodan tayyorlangan kiyimlar kelajakda qayta ishlanib, yangi modellar yaratish ham mumkin. “EKO” yozuvi — bu kiyim ishlab chiqarishda ishlatilgan barcha elementlarning ekologik tozaligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, keyinchalik qayta ishlanishi va ishlab chiqarishga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan katta miqdordagi tashlab ketilgan kiyim muammosini hal qilish mumkin.

Dunyoning yetakchi moda kompaniyalari va brendlar o‘zlarining ekologik rejalarini amalga oshirishda qayta ishlangan materiallardan foydalanish g‘oyasini ilgari surdilar. Shunday qilib, **Prada** butunlay qayta ishlangan neylonga o‘tishga qaror qildi. Har yili Prada o‘z kolleksiyalarida kurtkalar, yomg‘irpo‘sh va ryukzaklar yaratish uchun taxminan 700 000 metr neylondan foydalanadi.

Ispaniyaning **Ecoalf** brendi qariyb o‘n yil davomida qayta ishlangan materiallardan zarur mahsulotlarni yaratib kelmoqda. Ecoalf o‘z ishida maksimal shaffoflikka intiladi va iste’molchilarga foydalanilgan qayta ishlanadigan materiallarni yig‘ish, saralash va qayta ishlash jarayoni haqida bajonidil aytib beradi, narxlari futbolkalar uchun 45 dollardan past kurtkalar uchun 330 dollargacha.

Bethany Williams o‘z kolleksiyalarida qayta ishlangan polyesterdan tortib, eski kitob muqovalari, bannerlar va plastik chiqindilardan qayta ishlangan qo‘lda to‘qilgan zig‘irga qadar bir qator barqaror materiallardan foydalanadi.

Patagonia, H&M, Pact, Girlfriend Collective, Wolven, Rapanui, Fanfare — bu qayta ishlangan kiyimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan ekologik toza kiyim brendlari bo‘lib, kompaniya barqaror modani barcha odamlar uchun qulayroq qilish orqali atrof-muhitga yordam berishga intiladi. **H&M** — bu qayta ishlangan kiyimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan yana bir ekologik toza kiyim brendi. H&M modellari asosan qayta ishlangan polyester matolaridan ayollar va erkaklar kiyimlarini o‘z ichiga olgan, shuningdek, barqaror moda tanlovini targ‘ib qilishda yordam berish uchun Greenpeace va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. **Patagoniya** — bu qayta ishlangan kiyimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan ekologik toza kiyim brendi. Patagoniya o‘nlab yillar davomida tabiiy resurslarimizni saqlab qolish uchun kurashda birinchi o‘rinda turadi.

Pakt — to‘qimachilik mahsulotlarini turli manbalardan, masalan, kiyim-kechak sotuvchilari, to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari yoki oddiygina qayta ishlashni rivojlantirishga qaratilgan qayta ishlash jarayoni orqali ular iste’molchilar uchun yangi mahsulotlar yaratadilar, shu bilan birga chiqindilar va ifloslanishni kamaytiradi. **Girlfriend Collective** — bu qayta ishlangan kiyimlarni qo‘llab-quvvatlaydigan ekologik toza kiyim brendi. Kompaniya Enni Kreytman tomonidan 2013-yilda moda sanoati uchun bir vaqtning o‘zida bitta kiyim bilan barqaror kelajak yaratish maqsadida tashkil etilgan. **Wolven** — bu barqaror kiyim yaratishga qaratilgan kiyim-kechak kompaniyasi. 2020-yildan boshlab Wolves qayta ishlangan materiallardan kiyim-kechak yaratish orqali dunyoni yaxshiroq joyga aylantirish ustida ishlamoqda.

Dunyo bozorida yildan yilga paxta tolasi va boshqa tolalarning narxi oshib bormoqda. Bunday sharoitda tolali chiqindilardan unumli foydalanish, ayniqsa, to‘qimachilik sanoati va noto‘qima materiallarini ishlab chiqarishda undan chuqur foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir paytda dunyo miqyosida yetakchi ilmiy tashkilot va firmalarda hamda bizning Respublikamiz miqyosida ham paxta va boshqa tabiiy tolalardan chiqindisiz foydalanish usullarini, yoki juda kam chiqindili usullarni ishlab chiqish masalalari, yangidan-yangi texnologik jarayonlarni yaratish yo‘llari ko‘rib chiqilmoqda va yaratilmoqda. Dunyoning 26 ta kiyim brendlari qayta ishlangan materiallardan kiyim tayyorlash orqali atrof-muhitni yaxshilashga harakat qilmoqda.

Qayta ishlangan ikkilamchi matodan kiyim assortimentini shakllantirish, aholiga sifatli, hamyonbop, qulay, moda yo‘nalishiga javob beradigan mahsulotlarni yetkazib berish uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. To‘qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishni, assortiment va strukturaviy xususiyatlarini optimallashtirish bilan bir qatorda materiallar sarfi va xom ashyo tannarxini kamaytirmasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi deb hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida chiqindilarni qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish yo‘llari aniqlanib, birlamchi xom ashyoning ikkilamchi xom ashyolar bilan almashtirish koeffitsiyenti, uni va ikkilamchi xom ashyodan foydalanishdagi kamchiliklar ham aniqlangan [3, 895]. Ikkilamchi xom ashyoni ishlatish yengil sanoat xom ashyo resurslarini 23% ga oshirar ekan. Lekin ikkilamchi xom ashyodan oqilona foydalanish ko‘lamini belgilash taqozo etiladi. Xom ashyoni almashtirishning bir qator yo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin. Ikkilamchi qayta ishlangan tolalardan tajribaviy usulda olingan to‘qima materiallarning tadqiqot natijalari bevosita turli assortimentdagi kiyimlarni loyihalash [4], kiyim ishlab chiqarish uchun biriktirish usullarini va ularning parametrlarini tanlash jarayonlarida muhim o‘rin tutadi.

Qayta ishlangan ikkilamchi matodan kiyim assortimentini shakllantirish, aholiga sifatli, hamyonbop, qulay, moda yo‘nalishiga javob beradigan mahsulotlarni yetkazib berish uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi [5]. To‘qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishni, assortiment va strukturaviy xususiyatlarini optimallashtirish bilan bir qatorda materiallar sarfi va xom ashyo tannarxini kamaytirmasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayta ishlangan materiallardan kiyim ishlab chiqarish uchun texnologik parametrlar tahlili. Babadjanova M.A. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 18 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 http://sjifactor.com/passport.php?id=22323. page. – 268-27 p.

2. De Silva, R. and N. Byrne, Utilization of cotton waste for regenerated cellulose fibres: Influence of degree of polymerization on mechanical properties. Carbohydrate polymers, 2017. 174. – 89-94 p.

3. Ochilov Tulkin Ashurovich, Ortikov Oybek Akbaralievich, Mukhtarov Jurabek Reyimberganovich, Mirzaaxmedova Xuryat Basitovna, Babadjanova Munira Abdukuduzovna. The Effect of Drying Temperature on the Cleaning Efficiency of Cotton. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET) Volume 10, Issue 2, February 2021, page. – 895-901 p.

4. Mastura Rasulova, Shohista Mamasolieva, Munira Babadjanova, et al. Selection of sewing thread for connecting details of workwear from fabrics of new structures. Cite as: AIP Conference Proceedings 2430, 030007 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0076965. Published Online: 24 January 2022.

5. Бабаджанова М. Исследование технологических свойств тканей из переработанного вторичного сырья. Сборник “Международная конференция академических наук”. https://doi.org/10.5281/zenodo.8398029. – 34-37 с.

SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Ulug‘bek Ismoilov,
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola ta’limda sun’iy intellekt va o‘quvchilarda informatikaga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning umumiy mohiyati haqida tushunchalar berishga bag‘ishlangan. Hozirgi davrda kundalik hayotimizga kirib kelayotgan sun’iy intellekt bilan birga o‘quvchilarning informatikaga oid kreativ qobiliyatlarini yanada rivojlantirib, yangi innovatsion yangiliklar yaratish hamda sun’iy intellekt orqali o‘quvchilarga ta’lim berishning qulayliklari bilan birgalikda o‘quvchilarning bilim olishlarini osonlashtirish bo‘yicha yangi metodlarni o‘rgatadi. Shuningdek, sun’iy intellekt bilan hozirda ham ko‘plar yangi innovatsion yangiliklar yaratilishi va uning natijasida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt (SI), kreativlik, innovatsiya, qobiliyat, Information texnology (IT), o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, mashg‘ulot, IT Park.*

Аннотация

Эта статья посвящена предоставлению информации об общей природе искусственного интеллекта (ИИ) в образовании и развитии творческих компьютерных навыков у студентов. Наряду с вхождением искусственного интеллекта в нашу повседневную жизнь необходимо дальнейшее развитие творческих способностей учащихся, связанных с информатикой, создание новых инновационных инноваций, облегчение обучения учащихся с удобством обучения учащихся посредством искусственного интеллекта методы. Также с помощью искусственного интеллекта создано множество новых инноваций, в результате чего даны рекомендации для развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: *искусственный интеллект (ИИ), креативность, инновации, способности, информационные технологии (ИТ), учащийся, образование , воспитания, тренинги, IT-парк.*

Annotation

This article is dedicated to providing insights into the general nature of artificial intelligence in education and the development of students’ creative abilities related to informatics. Along with the artificial intelligence entering our daily life, it is necessary to further develop the creative abilities of students related to informatics, to create new innovative innovations, and to facilitate the learning of students with the convenience of teaching students through artificial intelligence. teaches new methods. Also, with the help of artificial intelligence, many new innovative innovations have been created, and as a result, recommendations have been made for the development of students’ creative abilities.

Keywords: *Artificial Intelligence (AI), creativity, innovation, ability, Information technology (IT), pupil, education , educate, training, IT Park.*

Hozirgi nafaqat mamlakatimizda balki, jahon hamjamiyatida Information Technology (IT) ga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda.

O‘quvchilarga IT sohasi bo‘yicha ta’lim berib, ularni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat va xususiy tashkilotlarni malakali IT-mutaxassislari bilan ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xususan, yurtimizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bu sohani rivojlantirish uchun chuqurlashtirilgan darslar tashkil etila boshladi va bundan tashqari tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o‘qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda [6].

SI bilan hozirda ham ko‘plar yangi innovatsion yangiliklar yaratilmoqda.

Google kompaniyasi “Evklid” geometriyasi masalalarini Xalqaro matematika olimpiadasi oltin medali sovrindorlari darajasida yecha oladigan sun’iy intellekt tizimini yaratdi.Yangi neyron tarmoq “AlphaGeometry” deb nomlanadi. U millionlab sintezlangan teorema va isbotlar ustida mashq qildi.

Sun’iy intellekt uchun matnlarni qayta ishlash va ularning hissiy ohangini tahlil qilishga yordam beradigan bir nechta til modellari mavjud. Bundan kelib chiqadiki, AI endi asarlar qanday his-tuyg‘ularni ifodalashini aniqlay oladi. U internetdagi ba’zi izohlarni “salbiy” yoki “ijobiy” tuyg‘u sifatida tasniflaydi. Tadqiqotchilar sun’iy intellektga og‘zaki yoki yozma so‘zlarning haqiqiy ma’nosini tushunishga yordam beradigan xususiyatlar va algoritmik komponentlarni aniqlashga muvaffaq bo‘lishdi. Ular ushbu algoritmni ba’zi LLM modellarida sinab ko‘rdilar. Bunday ishlanmalardan foydalangan holda neyron tarmoq onlayn forumdagi sharhlarni muvaffaqiyatli tahlil qildi. Misol tariqasida shu aytishimiz mumkinki hamyurtimiz ham katta o‘zgarishlar qilishmoqda. Aleksey Kramer – 18 yoshli o‘zbekistonlik ixtirochi. U SI yordamida ham yerda, ham kosmosda o‘simlik o‘stirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan boks yaratdi. Bunday ishlanma

qishloq xo‘jaligini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirishga qodir. Bunday ishlanma kelajakda qishloq xo‘jaligini butunlay avtomatlashtirish imkonini berishi mumkin. Kelajakda bunday qurilma har bir xonadonda paydo bo‘lishi mumkin. Mashhur o‘zbek fotografi Maks Pensonning tarixiy fotosuratlari sun’iy intellektdan foydalanish tufayli yangi hayotga ega bo‘ldi. Bu haqida Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi xabar berdi. Raqamlashtirish davrida sun’iy intellekt san’at va madaniy meros sohasida asosiy vositaga aylanib bormoqda. Ushbu sohadagi so‘nggi yutuqlar tarixiy fotosuratlarni qayta tiklash va talqin qilish bilan bog‘liq. Mashhur o‘zbek fotografi Maks Pensonning tarixiy fotosuratlari sun’iy intellektdan foydalanish tufayli yangi hayotga ega bo‘ldi..Raqamlashtirish davrida sun’iy intellekt ta’limdan tashqari san’at va madaniy meros sohasida asosiy vositaga aylanib bormoqda. Ushbu sohadagi so‘nggi yutuqlar tarixiy fotosuratlarni qayta tiklash va talqin qilish bilan bog‘liq. Pensonning oq-qora fotosuratlari chegaralarini kengaytirish uchun chuqur o‘rganish usullari qo‘llanilgan. Shunday qilib, olingan lahzalarning yanada to‘liq tasviri yaratildi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt qora va oq fotosuratlarga rang qo‘shish uchun ishlatilgan. Tarixiy ma’lumotlar, kontekst va o‘sha davrning fotografiya texnikasini tahlil qilib, texnologiya o‘tmishni yanada jonli va rang-barang qilib, haqiqiy ranglarni qayta yaratish imkonini berdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda malakali IT sohasi bo‘yicha raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi va bu sohaning rivojlanishi tufayli IT sohasini o‘qitishga qaratilgan fanlar mazmunini va o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda ta’lim oluvchiga sifatli ta’lim berish uchun IT markazlari va parklari bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yishmoqda[5].

Hozirgi kunda ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan tajribali mutaxassislar bu soha bo‘yicha o‘zlarining ijobiy fikrlarini bildirishmoqda. Shunday insonlardan biri IT Park University bosh direktori Bahodir Ayupov. Bosh direktor bu sohaga shunday fikr bildirgan “Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari sohasiga oid ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Buning bir nechta sabablari bor. Masalan, IT mutaxassislariga yuqori talab, ya’ni texnologiyaning rivojlanishi va hayotning barcha jabhalarini raqamlashtirish jarayonida axborot texnologiyalari sohasida malakali mutaxassislarga ehtiyojning ortishi. Bugungi kunda dasturiy ta’minotlar ishlab chiqish, ma’lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va ITning boshqa sohalari bilan bog‘liq ko‘pgina bo‘sh ish o‘rinlari mavjud. Bu soha mutaxassislariga bo‘lgan talabning taklifdan oshib ketishi esa yuqori maosh olish va ish tanlashda keng katalogga ega bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, IT sanoati doimiy harakatda, har kuni yangi va innovatsion texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Ushbu sohadagi ta’lim bizga eng so‘nggi tendensiyalardan xabardor bo‘lishga, yangi vositalar va ishlash usullarini o‘rganishga hamda o‘zgaruvchan muhitga tez moslashishga yordam beradi. Umuman olganda, axborot texnologiyalari sohasidagi ta’lim yaxshi maoshli ishga joylashish, innovatsion loyihalarda ishtirok etish, zamonaviy jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkonini beradi va barqaror kelajakni yaratishda muhim ahamiyatga ega” [7].

SI va IT bilan bog‘liq kreativ qobiliyatlar o‘quvchilarda rivojlantirilishi juda muhimdir. Bu, ularning maslahatlar va muammolar ustida o‘ylash va yechimlar qidirish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Ta’lim oluvchilarning SI va IT ga oid kreativ qobiliyatlar rivojlantirilishga xizmat qiluvchi ta’lim usullari quyidagilar:

1. O‘quvchilar, maslahatlar va yechimlarni topish uchun sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturlardan va platformalardan foydalanish orqali ko‘p joylashuvli ma’lumotlarini o‘rganishi mumkin. Bu, ularning muammoni tahlil qilish va o‘ylashida qo‘l keladi.

2. Informatikani o‘rganish orqali, o‘quvchilar kreativ dasturlash, dasturiy ta’minot yaratish, va dizaynning asosiy tamoyillarini rivojlantirishadi. Bu ularni, muammolarni hal qilish va yangi, innovatsion yechimlarni topishda o‘ylashga yordam beradi.

3. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim dasturlari va mashinali o‘rganish texnologiyalari, o‘quvchilarga shaxsiy yondashuv berish orqali ularni kreativlikni rivojlantirishga o‘rgatishadi. Bu platformalar o‘quvchilarga ularning o‘zlashtirilgan yo‘nalishlari va qiziqtirishlari bo‘yicha maxsus ta’lim tahlillari taqdim etish orqali ularni o‘zlashtirishadi[2, 400].

Informatikaga oid loyihalar va dasturlar yaratish davomida, o‘quvchilar jamoaviy ishlashni o‘rganishadi va qanday qilib fikr almashish, birgalikda yechimlar topish va fikr qo‘llashni o‘rganishadi. O‘quvchilar masalalarni hal qilish va yangi yechimlar topishda yaratuvchi o‘ylashni o‘rgatish uchun informatika vositalaridan foydalanishadi. Bu, ularni jiddiy muammolar bilan boshlash va yaratuvchi yechimlarni topishda o‘ylashga o‘rgatadi [4, 3].

Odamlar ham o‘zgarib, zamonga ham nafas bo‘lib yashashmoqda. Pedagogika ham ortda qolmasligini kerak. O‘quvchilarga bilim berish metodlari va uslublarini ham takomillashtirish kerak. Yangi g‘oyalar va dasturlar bilan darslarni yanada qiziqarli, soda va tushunarli olib borish mumkin bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim berishda yuqori sifatli, interaktiv, individual va motivatsiyali o‘quv jarayonini ta’minlash maqsadida yuqori tekshiruv va monitoring tizimlaridan foydalanish ham juda muhimdir. Bu borada yuqorida ta’kidlaganimizday SI vositasi o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda qo‘lga kiritilgan yangi yondashuvlardan biridir. U, individualizatsiya, masofaviy o‘quv, muayyanlik va harakatlanuvchi dasturlar orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu

esa o‘quvchilarning yangi fikrlashlari va yaratuvchanliklarini oshirishda va ularni yanada yuqori darajadagi o‘quv-malakalari olishda yordam beradi [3, 143].

Xulosa qilish kerakki, zamon rivojlanmoqda shu bilan birga texnologiyalar ham rivojlanmoqda. Yuqorida qayd etilib o‘tilgan usul, texnologik rivojlanish bilan birga o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini kengaytirishda yordam beradi. SI o‘quvchilarning har birining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan individual ta’lim dasturlarini tayyorlashda yordam beradi. Bu individualizatsiya o‘quvchilarning kreativlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ularning qobiliyatlariga va ehtiyojlariga ilg‘or maslahat beradi. SI o‘quvchilarga dunyo bo‘ylab o‘quv materiallariga oson va tez kirish imkonini beradi. SI o‘quvchilarga interaktiv dasturlar va mashg‘ulotlar orqali o‘rganish imkonini taqdim etadi. Bu esa o‘quvchilarning fikr yuritishlarini kuchaytiradi, ularni muammolarni hal qilish va yangi yondashuvlar topishda qo‘llab-quvvatlaydi. O‘quvchilarni shu yo‘sinda ularni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirsak, ular yanada yangi texnologiyalar va dasturlar yaratib, ularga berilgan ishonchni oqlashadi. Ular yaratgan yangiliklari albatta insonlarning hayotida yanada yengilliklar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ–4851-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5032128

2. Abdullayev Z.S., Shodmonova G., Mirzayev S.S., Shamsiddinov N.B. Informatika va axborot texnologiyalari. – T.: Noshir, 2012. – 400 b.

3. Ikromova M.X. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini raqamlashtirilgan ta’lim resurslari asosida rivojlantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD) – Namangan.: 2022. – 143 b.

4. Eshmurzayevich Q.B. O‘quvchilarning “texnologiya” fanida hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini raqamli ta’lim muhitda rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari //Наука и технологии. – Т., 1. –№.2. –3b https://sciencetech.uz/index.php/ojs2/article/download/68/87

5. Komil Allamjonov – “IT sohasi – bugun va kelajak. Uni yaxshi o‘rgangan omad juda yaxshi yaxshaydi”. https://kun.uz/news/2021/06/17/it-sohasi-bu-bugun-va-kelajak-uni-yaxshi-organgan-odam-juda-yaxshi-yashaydi-komil-allamjonov?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F06%2F17%2Fit-sohasi-bu-bugun-va-kelajak-uni-yaxshi-organgan-odam-juda-yaxshi-yashaydi-komil-allamjonov

6. Wikipediya saytidagi “Sun’iy intellekt” nomli maqoladan olingan. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.

7. Bahodir Ayupovning “Kelajak ta’limi – IT ta’lim” nomli maqolasidan olingan. https://edujournal.uz/889/

ZAMONAVIY JAMIYATDA MUSIQANING AHAMIYATI

Maftuna Qarshiboyeva,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Sevara Sunnatova,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqaga Prezidentimiz tomonidan berilgan fikrlari, musiqa madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq jihatlariga to‘xtalish bilan bir qatorda musiqaning tarixi, rivojlanishi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalari musiqa darslarida, sinfdan tashqari, maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga bu boradagi bilim, tushuncha va eng dolzarb va muhim ma’lumotlarni yetkazish orqali ularni musiqiy bilimi, madaniyati, ta’lim-tarbiyasi, salohiyati va badiiy-estetik ilmini shakllantirishning pedagogik asoslari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Musiqa ta’limi, badiiy-estetik, opera, balet, milliy, mumtoz, professional musiqa, milliy san’at, ma’rifatparvar, orkestr, vokal-xor.*

Аннотация

В этой статье дается информация об истории, развитии и значении музыки в современном обществе, а также рассматриваются аспекты, связанные с развитием музыкальной культуры. Также на уроках музыки учебных

заведений, внеклассных, внеурочных мероприятиях раскрываются педагогические основы формирования у учащихся музыкального знания, культуры, воспитания, потенциала и художественно-эстетической науки посредством передачи учащимся знаний, понимания и наиболее актуальной и важной информации по этому вопросу.

Ключевые слова: *музыкальное образование, художественно – эстетическое, оперное, балетное, национальное, классическое, профессиональная музыка, национальное искусство, просветительское, оркестровое, вокально-хоровое.*

Annotation

This article provides information about the history, development and significance of music in modern society, as well as discusses aspects related to the development of musical culture. Also, at music lessons of educational institutions, extracurricular, extracurricular activities, the pedagogical foundations of the formation of musical knowledge, culture, education, potential and artistic and aesthetic science among students are revealed through the transfer of knowledge, understanding and the most relevant and important information on this issue to students.

Keywords: *musical education, artistic and aesthetic, opera, ballet, national, classical, professional music, national art, educational, orchestral, vocal and choral*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ziyolilar bilan uchrashuvda “madaniyatimiz va san’atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta’sirini xolisona va tanqidiy baholab, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish masalasini ko‘ndalang qo‘ydilar [1, 12].

“Musiqa — millat ruhining tili, musiqa — millat histuyg‘ularining tarjimonidir. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma’naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir” deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zining adabiy suhbatlaridan birida va shu o‘rinda Ibn Xaldunning ushbu fikrini eslatib o‘tadi: “Musiqa bir san’at sifatida faqat ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalgan muhitlarda rivoj topadi. Iqtisodiy farovonlikka erishgan jamiyatlargina musiqaga kuchli ehtiyoj sezadi [2, 26].

Bizningcha, har birimiz uchun musiqa va uyg‘unlikning roli qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligi, ular musiqa madaniyatining rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Turli holatlarda musiqa insonning histuyg‘ulariga, ruhiyatiga ta’sir qiladi, ish faoliyatini yaxshilaydi, tinchlantiradi, ortiqcha ish paytida charchoqni ketkazadi, bo‘shashtiradi, uxlashga yordam beradi, qo‘rquv, stress, depressiya bilan kurashadi, hatto tushkunlikka tushganda ham kayfiyatni ko‘taradi.

Shunday ekan, musiqa madaniyatining ahamiyati, taraqqiyoti ham barcha xalqlar san’ati uchun xarakterli bo‘lgan bir-biridan o‘rganish jarayoni bilan bog‘liqdir. Musiqa madaniyatining bir- birini boyitilishi va o‘zaro ta’siri san’atning milliy o‘ziga xos xususiyatlarini inkor etmaydi. Keyingi bir asrlik o‘zbek xalqi madaniy rivojlanishi davri uzoq milliy musiqa madaniyatining tarixida juda ham katta ahamiyatga molik davr bo‘ldi. O‘zbekistonga jahon xalqlari musiqa madaniyatida e’tirof etilgan musiqa janrlari kirib keldi. Bu san’at turlari tarixan qisqa davrda juda tez va keng ko‘lamda rivojlandi, shakllandi, yuksak darajaga yetdi [3, 14].

Fikrimizcha, yaxshi musiqa hech qachon zerikarli emas, haqiqatdan, bizning ongimiz uni chindan yoqtirsa, insonlar janrlarda turli xil imtiyozlarga ega. Musiqa san’atining eng murakkab va muhim ahamiyatga molik turlari simfonik asarlari, opera, baletlarni yaratilishi, musiqa madaniyatini jahonda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy janrlardagi yaratilgan asarlarni mazmuni, mohiyati, musiqiy ohanglari zaminida o‘zbek xalqining folklor musiqasi, mumtoz va jahon musiqalari xususiyatlari yetakchi ahamiyat kasb etganligini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. O‘zbek xalq musiqasi zaminida opera qo‘shiqlari, romanslar, ariyalar, ariozalar, xor asarlari, simfoniyalar, kantata, oratoriya, xorovodlar, kamercholg‘u asarlari zamonaviy estrada qo‘shiqchiligiga mansub asarlar yaratildi, ularning ko‘plari respublikadan tashqarida ham katta shuhrat qozondi, xorij musiqashunoslari tomonidan yuksak baholandi. Zamonaviy opera va balet teatrini rivojlantirish zamonaviy janrlarda ijod qiluvchi kompozitorlarni, musiqashunoslarni yetishtirish va ularga qulay imkoniyatlar yaratish bo‘yicha olib borilgan ishlar professional musiqa san’atining, demakki, kompozitorlik ijodiyotiga mansub musiqa san’atining tez suratlarda rivojlanishini ta’kidladi [5, 61].

Musiqaning rivojlanishi va bugungi kundagi taraqqiyoti hozirgi vaqtdagi umummilliy musiqa madaniyatimizni shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘zbek musiqa madaniyatini o‘z navbatida jahon musiqa madaniyatining eng ilg‘or ommaviy, xalqchil shakllarini ijodiy o‘zlashtirib ularning yutuqlaridan ilhomlanib yangi-yangi asarlar yaratishlariga zamin tayyorladi.

Musiqa madaniyati go‘zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug‘ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta’sirida paydo bo‘lgan. Tashqi olamni o‘zgartirish bilan insonning o‘zi ham o‘zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma’naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma’naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi. Musiqa san’ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta’sir etish kuchiga bog‘liqdir [4, 75].

Fikrimizcha, musiqa san’ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo‘lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat

ko‘rsatishdir. Shu ma’noda uning o‘rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur’atda o‘rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo‘lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

O‘zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san’ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o‘zbek cholg‘u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko‘rsatadi. Ibn Sinoning ta’rificha san’at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san’atning “aql bilan idrok etish” yoki “buyumlarni bilish” mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta’kidlab o‘tgan. Bunda san’at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e’tibor qaratilgan. Buyuk olim ta’kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma’naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san’at turlari orqali ta’sir o‘tkazish lozim [5, 67].

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, musiqa madaniyatini zamonaviy jamiyatda buyuk tariximiz musiqa asoschilarining yaratgan poydevori asosida rivojlantirishimiz va yosh avlodga shu asosida ta’lim va tarbiya ishlarini olib borishimiz va albatta hozirgi zamonaviy musiqa bilan bog‘lashimiz muhim hisoblanadi. Shuningdek, musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o‘tmish g‘oyalarini ko‘r-ko‘rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash va insoniyat manfaatlari nuqtayi nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o‘zlashtirish va ijodni qayta ko‘rib chiqish zarurligini bildiradi.

Xalq musiqa san’atini ijodiy o‘rganishi natijasida o‘zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo‘lib qo‘shilgan san’at asarlari vujudga keldi. Go‘zallikka tashnalik sezgan inson qalbidan, yurak to‘ridan o‘rin olgan qo‘shiqlar fundamental asos sanaladi. Shunday qilib, musiqa voqelikni alohida, faqat unga xos shaklda aks ettiradi, jamiyat va zamonning asosiy g‘oyalarini, kishilar munosabatidagi eng muhim narsalarni ifodalaydi. Musiqa voqelikni falsafiy umumlashtirilgan asosda anglaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, musiqa madaniyati uzoq tarixga borib taqaladi. Ushbu boy merosdan o‘sib, ulg‘ayib kelayotgan yoshlarga uning asoschilari, musiqaning rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shgan musiqashunos olimlar, bastakor va musiqa madaniyati tarixi haqidagi ilmlarni berib borayotgan mutaxassislardan o‘rganib, o‘z bilimlarini boyitib borishi va jamiyatimiz uchun xizmat qilishlari uchun zamin yaratishimiz lozimligini unutmasligimiz darkor.

Zamonaviy jamiyatda musiqa ahamiyati juda katta. Musiqa insonlarga hissiyotlarni ifoda qilish, aloqa o‘rnatish va ijodiy fikrlarni rivojlantirish uchun ajoyib vosita sifatida xizmat qiladi. Quyidagi sabablar musiqa ahamiyatini ko‘rsatadi:

1. Kommunikatsiya va aloqa: Musiqa insonlarni bir-birlari bilan aloqaga olib keladi va ularning o‘zaro munosabatlarni kuchaytiradi. Jamoalar, guruhiy ishlar va konsertlar orqali insonlar bir-birlari bilan yaqinlashadi va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. Ijodiy fikrlarni rivojlantirish: Musiqa insonlarga ijodiy fikrlarni rivojlantirish uchun ilhom beradi. Musiqani eshitish orqali insonlar yangi ideyalarni topish, fikr yuritish va o‘zlarini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Stress va qiziqtirganlikni kamaytirish: Musiqa insonlarga qulaylik, xotirani kuchaytirish va stressni kamaytirishda yordam beradi. Musiqa eshitish orqali insonlar o‘zlarini yaxshi his qilib, xotiralarini kuchaytib va energiyalarini to‘plashadi.

4. Madaniy merosni saqlash: Musiqa madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy musiqalar, milliy musiqalar va zamonaviy musiqalar orqali insonlar o‘z madaniy meroslarini saqlab qolishadi va uni keyinchalik kelajak poklaydigan avlodlarga uzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

5. Ijodiy sanoatni rivojlantirish: Musiqa ijodiy sanoatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Musiqachi, qo‘shiqlar va ijodkorlar o‘zlarini ifoda qilish, ijodiy fikrlarni rivojlantirish va ijodiy mahsulotlar yaratish orqali ijodiy sanoatni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishishadi.

Jamiyatda musiqa ahamiyati insonlar orasidagi aloqalarni kuchaytiradi, ijodiy fikrlarni rivojlantiradi va madaniy merosni saqlab qolishga yordam beradi. Bu esa insonlarning ruhini, fikrini va hissiyotlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Kushaev N.A Estetik tarbiya asoslari tarixi ostida. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1988. – 232 b.

3. Solomonova T.E. O‘zbek musiqasi tarixi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1981. – 98 b.

4. Vaxromeyev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980. – 120 b.

5. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash-musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim //. “Ilm ham jamiyat” jurnal. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2019. – 1-son. – 61-63 b.

O‘ZBEKISTON TERMA JAMOASINING OSIYO KUBOGI — 2023 BAHSLARIDAGI MUSOBAQA TEXNIK ELEMENTLARI KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Bekmurod Anorboyev,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi o‘qituvchisi;
Javlonbek Zulxaydarov,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Futbolda musobaqa texnik elementlari samaradorligi musobaqada yuqori natija qayd etish va o‘yin taqdirini o‘z foydasiga hal etish uchun juda zarur elementlar hisoblanadi. Ushbu tahliliy maqolada Qatarda o‘tkazilgan Osiyo kubogi–2023 bahslarida O‘zbekiston terma jamoasining musobaqa texnik elementlari samaradorligi tahlil qilingan va Osiyoning kuchli terma jamoalari natijalari bilan taqqoslash orqali bosh jamoamizning musobaqa texnik elementlari samaradorligining yutuq va kamchiliklari aniqlandi va kerakli taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: *texnik elementlar, aniq uzatmalar, to‘p nazorati, FIFA reytingi, zarbalar, kalit uzatmalar, gollar, noaniq uzatmalar.*

Аннотация

В футболе результативность технических элементов соревнований является крайне необходимым элементом для достижения высокого результата в соревновании и решения судьбы игры в свою пользу. В данной аналитической статье была проанализирована эффективность технических элементов соревнований сборной Узбекистана на Кубке Азии 2023 в Катаре, и путем сравнения результатов с результатами сильнейших сборных Азии были выявлены достижения и недостатки в эффективности технических элементов соревнований нашей главной команды, а также даны необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *технические элементы, точные передачи, контроль мяча, рейтинг ФИФА, удары, ключевые передачи, голы, неопределенные передачи.*

Annotation

In football, the effectiveness of the technical elements of the competition is very necessary elements to record a high score in the competition and decide the fate of the game in its favor. In this taxable article, the effectiveness of the competition technical elements of the national team of Uzbekistan at the AFC Asian Cup-2023 in Qatar was estimated and by comparison with the results of the strong national teams of Asia, the achievements and disadvantages of the effectiveness of the competition technical elements of our main team were determined and the necessary suggestions and recommendations were made.

Keywords: *technical elements, precise passes, ball control, FIFA ranking, shots, key passes, goals, uncertain passes.*

Bugungi kunda yurtimizda futbolga berilayotgan e’tibor juda yuqori darajada va hukumat darajasidagi dolzarb masalalar afishasida deya bemalol ayta olamiz. Lekin ming afsus bilan aytishimiz mumkinki, 1994-yilda Xitoy maydonlarida o‘tkazilgan Osiyo o‘yinlari futbol bahslaridagi g‘alaba yurtimiz futbolida eng yorqin va yagona g‘alaba bo‘lib turibdi. Turli yosh toifalarida Osiyo birinchiliklaridagi g‘alabalarni biz milliy terma jamoa darajasidagi musobaqalarda qayd eta olmayapmiz hamda mana necha yildirki Jahon chempionati final bosqichi musobaqasi biz uchun orzu bo‘lib qolmoqda [2, 76].

Bu konsepsiyaga ko‘ra mamlakatimizda ommaviy va professional futbolni rivojlantirish, hududlarda, sport maktablari, umumta’lim maktablarida futbolni rivojlantirish, soha mutaxassislarini tayyorlash, futbol maktablarida faoliyatini yaxshilash va terma jamoa uchun salohiyatli yosh futbolchilarni tayyorlash, mamlakat bosh jamoasini FIFA reytingida o‘rnini kuchli 50 talik jamoalar ro‘yxatiga kiritish va jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritish kabi dolzarb masalalar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan [1].

Terma jamoa futbolchilarini umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning texnik qobiliyatini rivojlantirish ham bu konsepsiya e’tibor qaratgan masalalardan biri hisoblanadi [3, 766].

So‘nggi yillardagi terma jamoa o‘yinlari tahlil qilinganda futbolchilarimizning jismoniy tayyorgarligi ancha yaxshilanib, bir necha yillar ilgari dolzarb muammo hisoblangan jismoniy tayyorgarlikning pastligi va charchoq alomatlari sabab milliy jamoaviy bir qator bahslarda alamli mag‘lubiyatlarni qabul qilib olganligi sir emas [4, 107]. Bu jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha muammolar milliy va olimpiya terma jamoalarimizda birmuncha yumshaganligi so‘nggi natijalardan ma’lum va jamoamizdagi jamoaviy irodaning shakllanganligi natijasida ba’zi o‘yinlarda so‘nggi daqiqalarda ham kerakli natijalar qayd etilmoqda.

Endi e’tiborli masalalardan yana biri bo‘lgan texnik harakatlar aniqligi terma jamoamizda qanday darajada degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin [6, 144]. Chunki texnik harakatlar jismoniy chidamoqlikdan-da zamonaviy futbolda ahamiyatliroq masalalardan hisoblanadi. shu maqsadda milliy terma jamoamizning 2024-yil 12-yanvardan

10-fevralga qadar Qatar yashil maydonlarida o‘tkazilgan Osiyo kubogi–2023 bahslaridagi o‘yinlari va o‘yinlardagi musobaqa texnik harakatlari samaradorligini tahlil qildik.

O‘zbekiston terma jamoasi Qatar maydonlarida o‘tkazilgan Osiyo kubogi bahslarida 5 ta o‘yin o‘tkazib chorak finalgacha yetib bordi. O‘tkazilgan o‘yinlarda terma jamoamizning musobaqa texnik elementlarini tahlil qilib jamoamizning jahon chempionati saralash bahslari oldidan mavjud yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi.

Tahlil avvalida terma jamoamiz uchun bu musobaqa eng avvalo tarkibiy yo‘qotishlar, jarohatlar sababli terma jamoamiz murabbiysi uchun optimal tarkibni shakllantirishda bir qator muammolarni vujudga keltirganligini alohida ta’kidlash lozim [5, 590]. Musobaqa avvalida jamoa sardori va lider o‘yinchisi Eldor Shomurodovning jarohati, eng ishonchli himoyachilarimizdan biri Hojiakbar Alijonov hamda qanot vingeri Husniddin Aliqulovning jarohatlari, musobaqa davomida yagona nominal hujumchi Igor Sergeyev, himoya markazida Sherzod Nasrullayevlarning jarohatlari ularning musobaqada ishtirokini cheklab qo‘ydi. Bundan tashqari musobaqa davomida bir qator futbolchilarimiz jumladan jamoa 2-sardori Otabek Shukurovning gripp natijasida bir o‘yinni (Tailand bilan nimchorak final bahsi 2:1 g‘alaba bilan yakunlandi) o‘tkazib yuborishi terma jamoamiz uchun bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

Tahlil davomida terma jamoamiz ishtirokidagi o‘yinlarda futbolchilarimizning musobaqa texnik elementlari (yaqin va uzoq masofaga to‘p uzatishlar, jarima maydonchasiga uzatilgan krosslar, darvoza tomon yo‘llangan zarbalar aniqligi, to‘p nazorati, aldamchi harakatlar aniqligi, raqibni zararsizlantirishlar soni, kalit uzatmalar soni) tahlil qilindi.

Terma jamoamiz musobaqa B-guruhida ishtirok etib, Suriya, Hindiston va Avstraliya jamoalari bilan bahs olib borishdi hamda guruhni 2-o‘rin bilan yakunladi. Nimchorak finalda tailandni mag‘lub etgan milliy jamoamiz chorak finalda musobaqa mezboni va g‘olibi bilan bahsda penaltilar seriyasida mag‘lubiyatga uchrab, musobaqada ishtirokini yakunladi.

Jami 5 ta o‘yin 2 ta g‘alaba, 3 ta durrang 7 ta gol kiritilgan va 3 ta to‘p o‘tkazib yuborilgan.

1-jadval

O‘zbekiston terma jamoasining Osiyo kubogi–2023 bahslaridagi o‘yinlari va natijalari:

№	Raqib	Hisob	
1	Suriya	0:0	B-guruh 1-tur
2	Hindiston	3:0	B-guruh 2-tur
3	Avstraliya	1:1	B-guruh 3-tur
4	Tailand	2:1	1/8 final
5	Qatar	1:1 pen 2:3	Chorak final

2-jadval

O‘zbekiston terma jamoasining Osiyo kubogi–2023 bahslarida darvoza tomon zarbalar tahlili:

№	Raqib	Hisob	To‘p nazorati	Zarbalar soni	Aniq zarbalar		Noaniq zarbalar		To‘silgan zarbalar	
						%		%		%
1	Suriya	0:0	65%	14-7	2:0	14, 2	9:5	64, 2	3:2	21, 4
2	Hindiston	3:0	47%	18-9	7:3	38, 8	9:5	50	2:1	11, 1
3	Avstraliya	1:1	42%	8-8	1:1	12, 5	2:4	25	5:3	62, 5
4	Tailand	2:1	45%	13:8	5:3	38, 4	6:3	46, 1	2:2	15, 3
5	Qatar	1:1	45%	15:10	4:3	26, 6	6:3	40	5:4	33, 3
	Jami	7:3	48, 8%	68:42	19	27, 9	32	47	17	25
	O‘rtacha	1, 4:0, 6	48, 8%	13, 6-8, 4	3, 8		6, 4		3, 4	

Milliy jamoamizning o‘tkazilgan 5 ta o‘yindan faqatgina Suriya bilan o‘yinda to‘p nazoratida ustun kelganligini ko‘rish mumkin. O‘yinlarda o‘rtacha to‘p nazorati 48.8% ni tashkil etdi. Ushbu uchrashuvda 65% to‘p nazorati bilan ustunlik qilindi. Eng yomon to‘p nazorati esa Avstraliya bilan kechgan bahsda kuzatildi, 42%. Lekin barcha uchrashuvlarni kuzatishdan xulosa qilinsa, milliy jamoamiz a’zolari vaqti-vaqti bilan to‘p nazoratini qo‘lga olib, natija uchun harakat qildi.

O‘tkazilgan 5 ta bahsda jami 68 marotaba darvoza tomon zarba yo‘llandi. Yo‘llangan zarbalarning 19 tasi aniq, 32 ta zarba noaniq yo‘llangan, 17 ta zarba himoyachilar tomonidan to‘silgan. Zarbalar aniqligi 27.9% ni tashkil qildi. Zarbalar aniqligi bo‘yicha eng yaxshi natija Hindistonga qarshi (38.8%) va Tailand bilan bahsda (38.4%) kuzatildi. Avstraliyaga qarshi bahsda eng yomon zarbalar aniqligi kuzatildi(12.5%), yo‘llangan 8 ta zarbadan bittasi aniq yo‘llandi. Darvoza tomon yo‘llangan zarbalar soni

ISSN 2181-8274

bo‘yicha Hindiston bilan bahsda 18 ta, Qatar bilan bahsda 15 ta zarba eng yuqori natijalardan bo‘ldi. Avstraliyaga qarshi bahsda eng past natija qayd etildi, 8 ta zarba.

O‘rtacha har bir bahs uchun 13.4 ta zarba yo‘llangan bo‘lib, ularning 3.8 tasi yoki 27.9%i aniq, 6.4 ta yoki 47% noaniq yo‘llangan bo‘lsa, 3.4 ta yoki 25% zarba himoyachilar tomonidan to‘silgan.

3-jadval

O‘zbekiston terma jamoasining Osiyo kubogi–2023 bahslarida to‘p uzatmalari tahlili:

№	Raqib	Uzatmalar soni	Aniq to‘p uzatmalari	Uzoq masofaga uzatmalar	Jarima maydoniga krosslar	Kalit uzatmalar
1	Suriya	596	509 (86%)	41(54%)	6 (20%)	9:4
2	Hindiston	486	393(80%)	51(52%)	5 (29%)	12:6
3	Avstraliya	463	361(77%)	30(27%)	2 (40%)	4:5
4	Tailand	485	377(77%)	44(38%)	6 (50%)	10:7
5	Qatar	492	323(65%)	43(30%)	6 (31%)	12:8
	Jami	2522	1963(77, 8%)	209(38, 4%)	25(30, 1%)	47:30
	O‘rtacha	504	393	42	5	9, 4:6

To‘p uzatmalar tahlil qilinganda, 5 ta o‘yinda jami 2522 ta uzatma amalga oshirilgan va ulardan 1963 tasi manzilga aniq yetib borgan. O‘rtacha to‘p uzatmalar aniqligi 77.8% ni tashkil etdi. Bir o‘yinga to‘g‘ri keladigan uzatmalar soni o‘rtacha 504 ta, aniq uzatmalar soni esa 393 tani tashkil etdi. Eng ko‘p to‘p uzatmalari soni Suriya bilan kechgan guruh bosqichi 1-turda qayd etildi. Ushbu o‘yinda 596 ta to‘p uzatmasi va ularning 509 tasi aniq yo‘llandi. Eng past ko‘rsatkich, Avstraliyaga qarshi 3-tur bahsida kuzatildi: jami 463 ta uzatmaning 361 tasi aniq manzilga yetib bordi. Suriya bilan kechgan bahsda eng yaxshi uzatmalar aniqligi qayd etildi: 86% lik aniqlik. Qatarga qarshi so‘nggi bahsda jami 492 ta uzatmadan bor yo‘g‘i 65% qismi aniq uzatilgani qayd etildi. Uzoq masofalarga uzatmalar tahlili natijalarida barcha o‘yinlarda jami 544 ta uzoq masofaga uzatilgan to‘plarning aniqligi 38, 4% yoki jami 209 tasi aniq manzilga yetib borgan. O‘rtacha har bir o‘yinda 109 ta uzatma ularning 42 tasi aniq.Uzoq masofaga uzatmalar eng yaxshi natijasi Suriyaga qarshi bahsda (54% aniq uzatmalar) va Hindistonga qarshi (52%) qayd etildi. Eng yomon ko‘rsatkich Avstraliyaga qarshi (27%) qayd etildi.

4-jadval

Osiyo kubogi–2023 bahslarida FIFA reytingi bo‘yicha Osiyoning kuchli jamoalarining statistik tahlil natijalari:

№	**Terma jamoa**	**To‘p nazorati**	**Aniq to‘p uzatmalar soni**	**Uzoq masofaga aniq to‘p uzatmalar**	**Kross uzatmalar**	**Darvoza tomon zarbalar**	**Kiritgan gollar soni**
1	Yaponiya	62, 2	494, 4	24, 0	3, 4	13, 0	2, 4
2	Eron	58, 5	400, 5	41, 5	4, 8	16, 8	2
3	J.Koreya	66, 3	654, 3	31, 0	7, 8	16, 2	1, 83
4	Avstraliya	54, 6	442, 2	33, 2	6, 4	13, 2	1, 8
5	Saudiya	62, 8	533, 5	22, 0	6, 8	17, 0	1, 25
6	Qatar	54, 1	327, 0	32, 4	4, 1	11, 4	2
7	Iroq	54, 5	317, 2	29, 8	5, 2	12, 0	2
8	BAA	49, 8	390, 0	46, 5	3, 8	13, 8	1, 5
9	O‘zbekiston	48, 8	392, 0	41, 8	4, 8	13, 4	1, 4
10	Iordaniya	44, 7	299, 3	29, 3	3, 3	13, 6	1, 85

Bu ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, O‘zbekiston terma jamoasining musobaqa texnik elementlari samaradorligi Osiyoning FIFA reytingida yuqori o‘rinlarda turgan jamoalar bilan taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi va mavjud kamchiliklar va yutuqlar yanada ravshanroq ko‘rinadi. To‘p nazorati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarni Janubiy Koreya (66, 3%) va Saudiya Arabiston (62, 8%) termalari qayd etishdi. Musobaqa avvalida FIFA reytinggi bo‘yicha

Osiyoning 9-jamoasi sifatida qayd etilgan terma jamoamiz to‘p nazorati bo‘yicha TOP-9 terma jamoa ichida eng yomon natijani qayd etishdi (48, 8%). Bir o‘yinda aniq to‘p uzatmalar soni bo‘yicha ham Janubiy Koreya (654, 3 ta aniq to‘p uzatmasi) va Saudiya Arabistoni (533, 5) yuqori natijani qayd etishdi. Terma jamoamiz a’zolari o‘rtacha har bir bahsda 392 ta aniq to‘p uzatmasini amalga oshirishgan. Bu natija TOP-9 terma jamoalari orasida 6-natija. Har bir o‘yinda uzoq masofalarga aniq uzatmalar soni bo‘yicha BAA (46, 5), O‘zbekiston (41, 8) va Eron (41, 5) yaxshi natija ko‘rsatishdi. Jarima maydonchasiga aniq yo‘llangan kross uzatmalar o‘rtacha qiymati bo‘yicha yuqori natijalarni Janubiy Koreya (7, 8 ta), Saudiya Arabistoni (6, 8 ta) va Avstraliya (6, 5 ta) qayd etishdi. Bu borada vakillarimiz 4, 8 ta aniq kross uzatma bilan 5-6-o‘rinni egallashdi. Darvoza tomon yo‘llangan zarbalar soni bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilinganda Saudiya Arabistoni terma jamoasi har bir o‘yinda raqib darvozasi tomon o‘rtacha 17 ta zarba yo‘llagan. Bu ko‘rsatkich Eronda 16, 8 ta va Janubiy Koreyada 16, 2 tani tashkil etdi. Bizning jamoa 13, 4 ta zarba bilan TOP-9 ning 5-jamoasi bo‘ldi. Har bir o‘yin uchun o‘rtacha kiritilgan gollar soni bo‘yicha Yaponiya (2, 4 ta), Qatar (2 ta), Eron (2 ta) va Iroq terma jamoalari (2 ta) yuqori natija ko‘rsatdi. Bizning yurtdoshlarimizda bu natija 1, 4 ta golga teng.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz terma jamoasi texnik elementlar samaradorligi bo‘yicha Osiyoning yuqori favorit terma jamoalari natijalaridan pastroq natija ko‘rsatayotgani ma’lum. Tahlil natijasida bir necha xulosaga kelindi.

– bosh jamoamiz o‘yinlarida to‘p nazorati past darajada va hattoki kuchsiz jamoalar bilan bahslarda ham to‘p nazorati bizning foydamizga emas;

– o‘yinlarda to‘p uzatmalari soni va ularning aniqlik darajasi kuchli jamoalarga qaraganda past. Uzatmalar aniqligi 77% ni tashkil etmoqda. Jahon darajasidagi kuchli terma jamoalarda bu ko‘rsatkich 86-87 % ni Osiyo grantlarida esa 83-85% ni tashkil etmoqda;

– darvoza tomon zarbalar soni, ayniqsa, aniq zarbalar ko‘rsatkichlari juda past. Jarima maydonchasiga kross uzatmalar ham anchagina kam miqdorda;

– penalti, jarima to‘plari va standartlardan foydalanish koeffitsiyenti sezilarli darajada past. (buni ayniqsa Qatar bilan bahsdagi penaltilar seriyasida guvohi bo‘ldik).

Tahlil so‘nggida tahlil natijalaridan xulosa qilib bir qator tavsiyalar berish mumkin:

– yurtimizdagi futbol akademiyalarida, sport maktablarida va havaskor va professional futbol klublarida futbolchilarning texnik elementlar samaradorligini rivojlantirishni tizimli tashkil etish, ularning yillik o‘quv mashg‘ulot rejalarida musobaqa texnik harakat elementlarini rivojlantirish uchun ko‘proq vaqt ajratish;

– futbol natijalari va statistik tahlil markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr sanasidagi “O‘zbekistonda futbolni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887 sonli Farmoni.

2. U.M.Axmadjonov, A.I.Tolibjonov, Sh.T.Iseyev “Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi”. – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2019. – 164 b.

3. Жавлонбек Абдуқахор ўғли Зулхайдаров. Футболчиларни тайёрлаш жараёнидаги мусобақалар фаолияти кўрсаткичларини тахлил қилишнинг ахамияти. Academic research in educational sciences (ares), volume 2, issue 10. – 764-770 б.

4. Абдулахатов А.Р. Зулхайдаров Ж.А. Профессионал футболчиларни жисмоний тайёргарлиги бўйича моделлаштириш меъёрлари. Муғаллим, 1(1)2022. – 106-110 б.

5. J.A.Zulxaydarov, S.D.Abduraximov. Ayollar futbolini rivojlantirishning istiqbollari. Academic research in educational sciences (ARES), volume 3, issue 11, 2022. – 588-593 б.

6. Xabibullayeva N.X, Zulxaydarov J.A. Ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati 2022-yilgi birinchi davra bahslarida “Sevinch”, “So‘g‘diyona” va “Bunyodkor” jamoalarining texnik usullari aniqligi tahlili // academic research in educational sciences // Volume 4, Issue 4, 2023. – 140-146-b.

O‘QUVCHILAR JAMOASIDAGI VERBAL AGRESSIYANI PROFILAKTIKA QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulandon Jo‘rayeva,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyani profilaktika qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni va agressiv xulqni bartaraf etishga doir amalga oshirilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyani samarali korreksiyalash uchun o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarning muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonda o‘yin, mehnat, o‘qish kabi faoliyat turlariga kirishadi, o‘qituvchilar, o‘rtoqlari, atrofidagilar bilan muloqotga kirishish qobiliyati ko‘zga tashlanib, do‘stlari bilan munosabat o‘rnatish borasida ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi.

Kalit so‘zlar: *agressiya, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy-axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, saxiylik, oliyjanoblik, mehribonlik.*

Аннотация

В данной статье представлен обзор психолого-педагогических исследований, посвященных особенностям и содержанию профилактики вербальной агрессии в студенческой группе и ликвидации агрессивного поведения. Также в статье для эффективной коррекции вербальной агрессии в студенческом коллективе важна важность межличностных отношений в студенческом коллективе, в этом процессе они занимаются такой деятельностью, как игра, работа, учеба, общение с учителями, друзьями. и др. выделяется умение сближаться, формируются навыки и компетенции по отношению к друзьям.

Ключевые слова: *агрессия, ценности, национальные ценности, национальные моральные ценности, гуманность, щедрость, благородство, доброта.*

Annotation

This article provides an overview of psychological and pedagogical research on the characteristics and content of the prevention of verbal aggression in a student group and the elimination of aggressive behavior. Also in the article, for the effective correction of verbal aggression in the student body, the importance of interpersonal relationships in the student body is important, in this process they are engaged in activities such as play, work, study, communication with teachers and friends. etc. the ability to get closer is highlighted, skills and competencies in relation to friends are formed.

Keywords: *aggression, values, national values, national moral values, humanity, generosity, nobility, kindness.*

Davlat va jamiyatning rivojlanish istiqbollari bevosita o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ruhiy salomatligi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda ushbu masalaga keyingi yillarda e’tibor yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va ular orqali o‘quvchilar jamoasi o‘rtasidagi verval agressiyalarni bartaraf etishga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Ma’lum bo‘lishicha, so‘nggi yillarda o‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ko‘payib borayotganligi ular jamoasidagi verbal agressiv munosabatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pchilik ota-onalar va pedagoglarni ushbu muammo bezovta qilib, ular ham bunday bolalar nafaqat oila uchun, balki jamiyat ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlamoqdalar.

Uzoq o‘tmishimizga nazar tashlasak, ajdodlarimiz yoshlar xulq-atvorini ilk bolalik davridan boshlab shakllantirishni o‘zlarining asosiy vazifalaridan biri deb bilganlar. Misol tariqasida xalq pedagogikasi namunalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda bolalarning kichik yoshligidan boshlab odob-axloqli, go‘zal xulqli qilib tarbiyalashga e’tibor qaratilganligini ko‘ramiz. Masalan, odob-axloqqa doir “Yaxshi xulq — kishining husni”, “Husn xulqi bilan chiroyli”, “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Odobli bola elga manzur”, “Odob — oltindan qimmat”, “Kattaning hurmati — qarz, kichikka salom — farz”, “Odobli o‘g‘il — ko‘kdagi yulduz, odobli qiz — yoqadagi qunduz” kabi maqollar fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Shaxs xulqidagi agressivlikning namoyon bo‘lishi, uni yuzaga keltiruvchi omillar va vositalar hamda agressivlikni korreksiyalashning pedagogik shart-sharoitlari va psixologik mexanizmlari respublikamiz olimlari E.G‘oziyev, O.V.Xuxliyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Abdullayeva, B.Umarov, Y.Asadov, R.Musurmanov, B.N.Sirliyev, N.Ismailova, I.M.Hakimovalar hamda boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Nodira Egamberdiyeva tadqiqot ishida bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat muammosini tadqiq etadi. Uning fikricha, bolalarda har qanday jamoaga nisbatan adaptatsiya jarayonida qiyin kechadi. Ana shunday jarayonda bolalar xulq-atvorida salbiy o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin: “Shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi

uchun yangi ijtimoiy muhitdagi aloqa va me’yorlar haqidagi ma’lumot muhim ahamiyatga ega. Yangi ijtimoiy talablarga ko‘nikish bir qancha ruhiy-hissiy qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi” [3, 120].

Sh.Abdullayeva o‘zining “O‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqini korreksiyalashning pedagogik asoslari” nomli tadqiqot ishida o‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganadi. Uning fikricha: “Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi. Buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsuli hisoblanadi”.

Psixolog olimlardan biri B.Umarov izlanishlarida bolalar tarbiyasining buzilishi va uning oldini olish muammosini o‘rganadi: “Xulq og‘ishining subyektiv sabablariga o‘smir shaxsining qiziqish va ehtiyojlari, dunyoqarash va ma’naviy olami, maqsad va yo‘nalishlari, qadriyatlari, huquqiy ongi, hayotiy rejalari, turmush tarzi va motivlari kiradi. Subyektiv shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, etnopsixologik jihatlari, xarakteri, temperamenti, yoshi va jinsi mansub. Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar namoyon bo‘ladi” [2, 6].

Rus olimi V.N.Tenishev bolalarning jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ularning shaxs sifatida to‘laqonli rivojlanib borishi bir qancha omillarga bog‘liq ekanligi, jumladan, bola tarbiyasida oilaning roliga yuqori baho beradi [1, 202-203].

Ammo, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunga qadar o‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiv munosabatlarni korreksiyalash muammosi tadqiqotchilar tomonidan yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda o‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyaning kelib chiqishini quyidagi sabablar bilan bog‘liq deb hisobladik:

1. Oilada nosog‘lom muhitning mavjudligi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, oiladagi ijtimoiy munosabatlarning noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi va ota-ona va kattalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning tez-tez sodir bo‘lishi bola psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada bolada atrofdagilarga nisbatan agressiya paydo bo‘ladi.

2. O‘quvchi kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi. O‘quvchi kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi uning xulq-atvorida agressivlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Chunki o‘quvchining kun tartibida albatta dam olish, ovqatlanish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, mashg‘ulotlarga qatnashish, sport bilan shug‘ullanish, o‘yin o‘ynash kabi yumushlar bo‘ladi. Bizga ma’lumki, maktabda o‘quvchilar faoliyati to‘g‘ri tashkil etadi. Ammo oilada deyarli ko‘pchilik oilalarda bolalarning kun tartibiga to‘g‘ri yondashilmaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda oilada bolalar kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi sababli ularda vaqtning qadriga yetmaslik holati kuzatilmoqda. Bolalar bunday holatda soatlab, kunlab internetga bog‘lanib qolmoqdalar. Natijada ular o‘z vaqtida dam olmaydilar va o‘z vaqtida ovqatlanmaydilar. Afsuski, bu holat bolalarning verbal muloqotchanligini pasayishiga va boshqa turli kasalliklarning avj olishiga olib keladi.

3**.** O‘quvchida har qanday jamoaga nisbatan adaptiv jarayonning qiyin kechishi. O‘quvchi bolalik davridayoq jamoaviy munosabatlarga kirisha boshlaydi. Ijtimoiylashuv jarayonida ayrim bolalar xulq-atvorida turli muammolar sodir bo‘ladi. Natijada, bunday bolalarda ko‘pincha odamovilik, o‘zini jamoaga nisbatan begona deb his etish, doimiy nimadandir norozilik, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik, bo‘ysunmaslik kabi salbiy illatlar kuzatiladi. Shuni ta’kidlash joizki, bunday bolalarda adaptatsiya ancha uzoq muddatga cho‘zilishini ko‘rish mumkin.

4. Global tarmoqlarning salbiy ta’siri. Global tarmoqlar bugungi kunda o‘quvchilarning qo‘shtirnoq ichidagi eng yaqin do‘stiga aylandi. Ular o‘zlariga kerakli bo‘lgan barcha ma’lumotlar va maslahatlarni global tarmoqdagi do‘stlaridan olmoqdalar. Afsuski, bu salbiy holat o‘quvchilarda jamoaviy munosabatlarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. O‘quvchi tarbiyasiga noto‘g‘ri yondashuvning mavjudligi: o‘quvchi tarbiyasiga noto‘g‘ri yondashuv deganda uni haddan ortiq darajada taltaytirib yoki o‘ta qattiqqo‘llik bilan o‘stirish nazarda tutiladi. Agar o‘quvchi bolalikdan taltaytirib o‘stirilgan bo‘lsa, unda egoistlik, manmanlik, dangasalik, tanballik, sabrsizlik kabi salbiy illatlar paydo bo‘ladi. Kuzatishlarga ko‘ra, taltaytirib o‘stirilgan bolalarning aksariyatida egoistlik alomati kuzatilib, bunday bolalarda mustaqillik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yetarli darajada shakllanmaydi. Achinarli tomoni shundaki, egoist bolalar jamoa tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi. Shu sababli ular jamoada o‘z o‘rnini topishga qiynaladilar.

Bizga ma’lumki, o‘quvchilar xulq-atvoridagi agressivlik natijasida jamoada quyidagi salbiy holatlar kuzatiladi:

- Jamoada ijobiy an’analar va qadriyatlar rivojlanmaydi.
- Jamoadagi o‘quvchilarning sabrsizligi va osongina qo‘zg‘aluvchanligi tufayli ular o‘rtasida tez-tez to‘qnashuvlar, nopisandlik, bir-birini kamsitish, janjal, do‘q-po‘pisa, o‘zidan kichiklarga nisbatan tajovuzkorona munosabatda bo‘lishlar avj oladi.
- Ular boshqalarga hamdard bo‘lishni istashmaydi, arazlash yoki to‘polon ko‘tarish bunday bolalarga xos bo‘lgan xususiyatdir.
- O‘zini shu jamoaga tegishli ekanligini his etmaydilar va jamoa sha’ni uchun kurashmaydilar.
- Ota-onalariga maktab va o‘qituvchilar haqida noto‘g‘ri ma’lumot beradi.

O‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyani samarali korreksiyalash uchun o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar bu jarayonda o‘yin, mehnat, o‘qish kabi faoliyat turlariga kirishadi, o‘qituvchilar, o‘rtoqlari, atrofidagilar bilan muloqotga kirishish qobiliyati ko‘zga tashlanib, do‘stlari bilan munosabat o‘rnatish borasida ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda o‘z jamoasiga nisbatan tabiiy ravishda intilish mavjud bo‘ladi. Chunki, o‘quvchilar jamoasi avvalo har bir bolaning shaxs sifatlari, qiziqishlari, tasavvuri, tafakkuri shakllanadigan, tarbiya oladigan ijtimoiy maskan hisoblanadi. O‘quvchilarning maktabga, o‘qituvchilari va o‘zining o‘rtoqlariga nisbatan ijobiy va iliq munosabatini shakllantirish ham bola xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda ta’lim muassasalariga nisbatan iliq munosabatni shakllantirish mazkur maskanda faoliyat olib borayotgan pedagog-tarbiyachilarning muhim vazifasidir. Bu jarayonda o‘qituvchilar quyidagilarga ahamiyat berishlari lozim:

1) maktabga kelgan bola o‘z yaqinlari davrasiga kelganligini his etishiga ko‘maklashish;

2) maktab o‘quvchilarda mazkur muassasa va do‘stlari, o‘rtoqlariga nisbatan iliq va ijobiy munosabatni qaror toptirishi;

3) maktab o‘quvchilarning ta’lim tashkilotida o‘zlarini erkin his qilishlariga qulay muhit yaratib berish;

4) maktab o‘quvchilarda jamoaviy tashabbuskorlik, bag‘rikenglik kabi sifatlarni shakllantirishi lozim.

O‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiya natijasida albatta jamoada tushkunlik holati kuzatiladi. Jamoadagi tushkun kayfiyat esa ko‘p hollarda munosabatlar inqiroziga olib keladi. Ko‘pchilik o‘quvchilar jamoadagi agressiv munosabatlardan stressga tushib qolishlari, atrofdagilarni yoqtirmay qo‘yishlari, bir-birlaridan nafratlanishi, ertangi kunga ishonch bilan qaray olmasliklari, o‘z manfaatini o‘ylashi, hamma birdek yomon degan fikrga kelishi, qo‘pollik, xudbinlik, manmanlik kabi salbiy illatlar girdobiga tushib qolishi mumkin.

O‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyani bartaraf etishda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish lozim bo‘ladi.

Mazkur jarayon o‘quvchilar jamoasida birgalikda harakat qilish, xushmuomalalik, do‘stlik, tashabbuskorlik rivojlanib boradi. Buning uchun:

1) o‘quvchilarni ommaviy tadbirlarga jalb etish va ishlarni jamoalar o‘rtasida teng taqsimlash;

2) o‘quvchilarni o‘z sinflari uchun ajratilgan xonalarini birgalikda jihozlash va bezash ishlariga jalb etish;

3) o‘quvchilarning o‘zlari o‘ynaydigan hududini ozoda saqlashga o‘rgatish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiv munosabatlarni bartaraf etish uchun ularni o‘rab turgan ijtimoiy shart-sharoitlar: maktab, mahalla, ayniqsa, oiladagi sog‘lom tarbiyaviy-psixologik muhit, o‘qituvchilar va ota-onalarning o‘quvchilarni jismoniy-fiziologik va ma’naviy-psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishi va ularga amal qilishiga uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комарова Г.А. “О понятиии “этнопедагогика” в советской этнографической и педагогической науке”. В кн.: “Изучение преемственности этнокультурных явлений”. – М, 1980.– 202-203 с.

2. Умаров Б. “Болалар тарбияси бузилиши ва унинг олдини олиш юзасидан ота-оналарга маслаҳатлар”. Услубий қўлланма. – Т., 2012. – 76 б.

3. Эгамбердиева Н. “Ижтимоий педагогика”. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти. 2009. – 120 б.

4. Юсупов Э. “Қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни”. – Т.: “Университет”, 1996. – 88 б.

5. Ғозиев Э. “Психология”. – Т.: “Ўқитувчи”, 1994. – 224 б.

6. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси”. – Т.: “Ўқитувчи”, 2010. – 126 б.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI OSTIRISHDA LUG‘AT BILAN ISHLASH USULLARI

Kamola Pardayeva,
Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Bolalar nutqini ostirish nazariyasi va texnologiyalar moduli shaxsda nutqiy ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim-pedagogikasi kasbiga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur

Kalit so‘zlar: *lug‘at ishi, til leksikasi, tarbiyachi, sheva leksikasi, adabiy me’yor, o‘zbek tili, boyish manbalari, til tadrijiyligi, bola leksikasi.*

Аннотация

Модуль теории и технологии речевого воспитания детей служит для обогащения у человека знаний, умений, навыков, имеющихся у него представлений о профессии дошкольного — педагогического образования речевого воспитания. Основной задачей дошкольного образования является подготовка детей к обучению в школе. Дети в дошкольном образовании должны овладевать не только конкретными знаниями, но и навыками мышления, понимать речи сверстников и взрослых, свободно обмениваться с ними идеями, осуществлять деятельность на основе сотрудничества. Необходимо, чтобы дети образно и логически мыслили на родном языке, правильно выражали свои представления посредством речи, контролировали себя, обладали такой умственной подготовкой, как наблюдение, обобщение, сравнение

Ключевые слова: *словарная работа, лексика языка, воспитатель, диалектная лексика, литературный стандарт, узбекский язык, источники обогащения, развитие речи, лексика ребенка.*

Annotation

The module of theory and technology of speech education of children serves to enrich a person’s knowledge, skills, and ideas about the profession of preschool - pedagogical education of speech. The main task of preschool education is to prepare children for school. Children of preschool education should gain not only specific knowledge, but also thinking skills, understand the speech of peers and adults, freely exchange ideas with them, and carry out activities on the basis of cooperation. It is necessary that children think logically in their native language, correctly express their ideas through speech, control themselves, have such mental training as observation, hearing, memorization, generalization, comparison. In performing this task the importance of the science of speech development in the native language certainly plays a great role. Because language is a means of communication between people and a social phenomenon, it serves all people equally and changes, updates in the development of society are reflected in language.

Keywords: *vocabulary work, language lexicon, educator, dialect lexicon, literary standard, Uzbek language, enrichment sources, language development, child lexicon.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi lug‘at ishlarining mohiyati — bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo‘lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so‘zlarning o‘zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o‘z amaliyotida qiyinchilik bilan o‘zlashtiradigan, to‘satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so‘zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa’y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma’lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so‘zlar doirasini aniqlashga yordam beradi. Bolalar lug‘atini boyitish bir vaqtning o‘zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so‘zni ma’lum qilish va uning ma’nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. [1, 35]

Lug‘at ishlarini o‘tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta’sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so‘zlar va ifodalarni ma’lum qiladi, ularni to‘g‘ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (taqiqlaydi), ularni adabiy me’yorlar bilan almashtiradi. “Lug‘atni egallash” atamasi — bu nafaqat so‘zni o‘zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo‘llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug‘atining boyligi haqida u eshitilgan, insonning jonli nutqini bezab turgan taqdirdagina so‘z yuritish mumkin. Lug‘at ishidagi asosiy jihat — bu faqat bolalarga yangi so‘zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi

lug‘at ishi — bu bolalarning faol lug‘atini notanish yoki ular uchun qiyin bo‘lgan so‘zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir. O‘zbek tili lug‘ati to‘xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Undagi o‘zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. [2, 14] Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo‘lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so‘zlar ham paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, ilgaridan mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlar yangilanadi, ularning ma’nosi o‘zgaradi, ko‘p so‘zlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lug‘at ishlarini o‘tkazishda so‘zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur. O‘zbek tilining lug‘at tarkibini umumiy qo‘llanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu o‘zbek tilida so‘zlashayotgan odamlarga qo‘shimcha izohlarsiz tushunarli bo‘lgan va muomala uchun zarur bo‘lgan so‘zlar guruhidir. U uzoq vaqt mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli qismlari kiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida lug‘at ishining mazmunini asosan umumiy qo‘llanishdagi leksika tashkil etishi tufayli tarbiyachi bolalar nutqini nafaqat otlar bilan, balki fe’llar, sanoq so‘zlar, old ko‘makchilar, sifatlar va boshqa nutq qismlari bilan ham boyitishi zarur.

Bolalar lug‘atini folklor elementlari (qo‘zim, toychog‘im, ona qizim) bilan ham boyitish darkor, chunki ma’lum xollarda (qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari, ertak to‘qish, sahnalashtirish, o‘yinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi, so‘ngra alohida emotsional jihatlar (erkalash, yupatish, iltimos qilish va h.k.) bolaning maishiy nutqini bezashi mumkin. Lug‘at ishining o‘ziga xosligi adabiy me’yorlardan chekinish sifatida qaraladigan oddiy so‘zlashuv so‘zlarini, vulgarizmni qo‘llashni taqiqlashdan iborat. Bundan tashqari, unutmaslik lozimki, tilda ayrim so‘zlarni taqiqlash hodisasi mavjud. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ham ushbu hodisa bilan yuzma-yuz kelishga to‘g‘ri keladi: masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda biz bolalarga hojatga borishni anglatuvchi so‘zlarni shartli obrazlar bilan almashtirishni o‘rgatamiz. [3, 48] O‘zbek frazeologiyasining ayrim misollari bilan tanishtirish lug‘at ishining mazmuniga kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga, ayniqsa ushbu katta yoshdagi bolalarga xalq-so‘zlashuv frazeologiyasidan ularning imkoni yetadigan, mazmunan oddiy bo‘lgan ayrim so‘zlarni, shu jumladan o‘zbek folklorining barqaror oborotlari, maqollar va matallarni qabul qilish, tushunish, eslab qolish va kezi kelganda foydalanishni o‘rgatish zarur. Biroq ushbu ishni amalga oshirishda unutmaslik lozimki, bolalar so‘zning raqobatchi mazmuniga, uning tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan butun so‘z birikmasining umumiy mazmunini o‘zlashtirishlari qiyin kechadi (masalan, og‘zi qulog‘ida, yettinchi osmonda va boshq.). Shuning uchun tarbiyachi o‘z nutqiga ma’nosi bolalarga muayyan vaziyatlarda tushunarli bo‘ladigan, yoki tegishli tushuntirish natijasida tushuniladigan ifodalarni kiritishi lozim. Bunday ifodalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: “o‘zim, shunchaki”, “yeng shimarib”, “Azamat pahlavon” va h.k. [3, 56]

Bolalar nutqini sanoq so‘zlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir mashg‘ulotlarda ro‘y beradi, ushbu so‘zlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili mashg‘ulotlarida lug‘at ishining maxsus mavzusi bo‘lmog‘i lozim. [4, 90] Maktabgacha yoshda bola shunday lug‘atga ega bo‘lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha ta’lim pedagogikasi lug‘atni rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi. Lug‘atni rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to‘plangan lug‘at zaxirasini o‘zlashtirishning uzoq davom etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor. Ushbu jarayonning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratish mumkin. Eng avvalo bola lug‘atidagi miqdoriy o‘zgarishlarni qayd etish lozim. Chunonchi, 1 yoshda kichkintoy 10-12 ta so‘zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug‘ati 3-3,5 mingtagacha ortadi. Lug‘atning sifat xususiyatlari haqida so‘z yuritganda bolalar so‘zning bilish natijasini aks ettiruvchi ijtimoiy biriktirilgan mazmunini asta-sekin egallab olishlarini nazarda tutish lozim. Ushbu bilish natijasi so‘zda mustahkamlanadi, shu tufayli odamlar tomonidan anglanadi va muloqot jarayonida boshqa odamlarga uzatiladi. Har bir so‘zning mazmuni tushunchadir. Fikr, so‘z umumiylikni ko‘rsatadi. Psixologiyada ham so‘z mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. “So‘z mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning o‘zidir. Biz so‘z mazmunini fikrlash fenomeni sifatida ko‘rib chiqishga haqlimiz” (L.S.Vigotskiy). [4, 114] Shuning uchun lug‘atni egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bog‘liq va shu tufayli u quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega: I xususiyati — bolalar lug‘atining mazmuni. Fikrlashining ko‘rgazmali-ta’sirchan va ko‘rgazmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo ko‘rgazmali taqdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin bo‘lgan, bolalar lug‘atida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni o‘zlashtirib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning lug‘atida nisbatan mavhum tushunchalarni belgilaydigan bunday so‘zlarning yo‘qligi yoki ularning ma’nosi buzilishi ham shu bilan izohlanadi.

II xususiyati — so‘zning ma’nosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash. Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan so‘zlarning ma’nosi ham muayyan yosh bosqichida tushunarli bo‘lmaydi. Dastlab bola so‘zni muayyan narsa yoki hodisa bilan bog‘laydi. Bunday so‘z umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u faqat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chaqiradi (masalan, bola uchun soat so‘zi faqat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos.). Maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi borliq-

ni — narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalar, sifatlar) ni o‘zlashtirishining borishiga qarab u ularni u yoki bu belgisiga qarab umumlashtirishni boshlaydi. Ko‘pincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, biroq bola uchun emotsional jihatdan muhim bo‘lgan belgilariga qarab qilinadi. Shunday qilib, maktabgacha bosqichdagi bolalikda so‘z mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga qarab o‘zgarib boradi. III xususiyati — bola lug‘ati hajmining kattalar lug‘ati hajmidan ancha kamligi. Chunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida to‘plagan ma’lumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam bo‘ladi. Lug‘atni rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalar bilan olib boriladigan lug‘at ishlarining vazifalarini aniqlash imkonini beradi [5, 64-65].

Bolalar lug‘atining xususiyati va lug‘at ishlarining vazifasini maktabgacha ta’lim tashkilotidagi lug‘at ishlari dasturi va metodikasining asosini tashkil etadigan tamoyillar belgilab beradi: Bolalar lug‘atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta’sirchan bilishlariga tayanish. Lug‘at ishlari mazmunining bolaning asta-sekin atrof-olamni bilish imkoniyatlari rivojlanayotgani bilan bog‘liqligi. Lug‘at ishlari dasturi mazmunini murakkablashtirish uchta yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug‘atini kengaytirish. Atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so‘zlarni kiritish. Lug‘at ishining ushbu yo‘nalishlari barcha yosh guruhlarida ro‘y beradi va turli mazmunda kuzatiladi: obyektlar va tabiat hodisalari, moddiy madaniyat buyumlari, ijtimoiy hayot ko‘rinishlari bilan tanishtirishda va h.k. Lug‘at ishlarining mohiyati — til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo‘lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so‘zlarning o‘zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Lug‘atni rivojlantirish — bu xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to‘plangan lug‘at zaxirasini o‘zlashtirishning uzoq davom etadigan jarayondir. Lug‘atni egallash jarayoni tushunchalarni egallash bilan uzviy bog‘liqdir va shu tufayli u o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi: bolalar lug‘ati tarkibi; so‘zning mazmuni, mohiyatini asta-sekin o‘zlashtirish, kattalar lug‘atiga qaraganda lug‘at hajmining ancha kamligi. Lug‘at ishining vazifasi — bu lug‘atni boyitish; so‘zning ijtimoiy-mustahkamlangan mazmunini o‘zlashtirish; lug‘atni faollashtirishdir Lug‘at ishining tamoyillari bu — bolalar lug‘atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta’sirchan bo‘lishlariga tayanish; lug‘at ishlari mazmuni bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bog‘liqligidir. Lug‘at ishi barcha yosh guruhlarida quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmog‘i lozim: Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug‘atini kengaytirish; narsalarni sezilarli belgilariga qarab farqlash va umumlashtirish asosidagi oddiy tushunchani belgilovchi so‘zlarni o‘zlashtirish; atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so‘zlarni kiritish. Lug‘at ishining yetakchi vositasi — ta’limdir. Lug‘atni boyitish metodlari bu: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo‘lgan yoki juda kam tanish bo‘lgan suratlarni ko‘rsatish; badiiy asarlarni o‘qish, diafilmlar va kinofilmlar (bilish uchun xizmat qiladigan hujjatli filmlar) ko‘rsatishdan iboratdir. Lug‘atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari bu o‘yinchoqlar, rasmlarni, ko‘zdan kechirish, didaktik o‘yinlar, so‘zli mashqlar va boshq. Lug‘at ishining metod va usullari Bolalarning lug‘ati ularga atrofdagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtda o‘sib boradi. Lug‘atni shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini: sezgi, diqqat-e’tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Umumiy pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish bilan birgalikda bolalarning hissiyotlari va xulq-atvori, madaniy-gigiyenik ko‘nikmalari, axloqiy tasavvurlari va xatti-harakatlari, estetik tuyg‘ulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ushbu vazifalari lug‘at ishlarini o‘tkazishda nazarda tutiladi. Kelgusida lug‘at ishlarining muayyan usullari va metodlarini ko‘rib chiqqan holda biz bu umumpedagogik masalalarga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Lug‘at ishlarining metodi — bu: Lug‘atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo‘lgan yoki juda kam tanish bo‘lgan suratlarni ko‘rsatish; badiiy asarlarni o‘qish, diafilmlar va kinofilmlar (hujjatli filmlar) ko‘rsatish. Lug‘atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari: bolalarga tanish mazmundagi o‘yinchoqlarni, suratlarni ko‘rib chiqish, didaktik o‘yinlar. Har bir bolaning leksik zaxirasini to‘ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro‘y beradi: so‘z bolaning o‘zi belgilagan (nusxa ko‘chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi. [3, 82]

Lug‘at ishining metod va usullari. Lug‘atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo‘lgan yoki juda kam tanish bo‘lgan suratlarni ko‘rsatish; badiiy asarlarni o‘qish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar) ko‘rsatish. Lug‘atni mustahkamlash va faollashtirish: bolalarga tanish mazmundagi o‘yinchoqlarni, suratlarni ko‘rib chiqish, didaktik o‘yinlar.Har bir bolaning leksik zaxirasini to‘ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro‘y beradi: so‘z bolaning o‘zi belgilagan (nusxa ko‘chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi. Rolli o‘yinda bola o‘zi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqlab qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko‘chirma oladi.

ISSN 2181-8274

“Rejissyorlik” o‘yinida bola o‘ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o‘yinchoqlar o‘rtasida taqsimlaydi; syujetlar – bolalar bog‘chasi, hayvonot bog‘i va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi. Sahnalashtirish o‘yinida bola o‘ziga tanish ertak qahramonlaridan biri rolini o‘ynaydi, o‘yin jarayonida u qahramon so‘zlarini takrorlaydi va shu tariqa o‘z nutqini boyitadi. [5, 162]

Demak, xulosa sifatida shuni aytish lozimki, lug‘at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashg‘ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil ko‘rinishdagi mashg‘ulotlardan tashkil topadi: Lug‘at ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.); Lug‘at ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashg‘ulotlar (sifatlar, xususiyatlar, o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtirish); Umumlashtirishlar jarayonida lug‘at ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar. Nutqiy va Lug‘atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash). Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni ko‘zlagan holda tashkil etilishi.bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko‘rgazmaviylikning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.
3. N. Kayumova Maktabgacha pedagogika. – T.: TDPU, 2013. – 183 b.
4. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432 b.
5. Q. Shodiyeva “Nutq o‘stirish uslubiyoti”. – T.: “O‘qituvchi”, 2008. – 304 b.

УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ БОШЛАНҒИЧ БОСҚИЧИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСЛУБИЯТИ

Расул Рўзметов,
Ўзбекистон Миллий университети доценти в.б., (PhD);
Закир Абдуллаев,
Урганч Давлат университети доценти,
Адҳамжон Нурматов,
Урганч Давлат университети талабаси

Аннотация

Мақолада мактабдан ташқари таълимнинг бошланғич босқичи бўлган болалар боғчасидаги жисмоний тарбияни ташкил этиш услубияти (методикаси)га оид тажрибалар ва масалалар таҳлил қилинади. Мазкур услубият болаларда соғлиқни мустаҳкамлаш ва асрашга оид кўникмаларини шакллантиришга йўналтириши таъкидланади. Илмий педагогик адабиётларда узлуксиз таълим тизими асосан мактаб-ўрта махсус таълим-олий таълим-олий таълимдан кейинги таълим (докторантура) сифатида қаралади. Шунинг учун узлуксиз таълим тарбиячи билан тарбияланувчи ўртасидаги алоқа, тарбия жараёни узлуксиз, изчил бўлишини талаб қилади.

Таянч сўзлар: *болалар боғчаси, жисмоний машқлар, педагогик, психофизиологик, онтогенез, морфофункционал, антрометрик, чаққонлик, югуриш, сакраш, жисмоний юк.*

Аннотация

В статы анализируются опыт и вопросы методики организации физического воспитания детей в начальной стадин системы внеткольного образования в детском саду. Утверждается что данная методика быть направлена на формирование у детей навыков укрепления и сахранения здоровья. В научно-педагогической литературе непрерывная система образования в основном рассматривается как школа-среднее специальное образование — Высшее образование-послевузовское образование (докторантура). Следовательно, непрерывное образование требует, чтобы общение между воспитателем и воспитательницей, процесс воспитания были непрерывными, последовательными.

Ключевые слова: *детский сад, физические упражнения, педагогический, психофизиологический, онтогенез, морфофункциональный, антрометичес-кий, выносливость, бегать, прыгать, физическая нагрузка.*

Annotation

The article analyzes experience and questions on the methodology (methodology) for organizing physical education in kindergarten, which is the initial stage of extracurricular education. This technique will be aimed at developing children’s skills to promote and preserve health. In scientific pedagogical literature, the continuous system of education is mainly considered as school-secondary Special Education-Higher Education-Post-higher education (doctoral studies). Therefore, continuous education requires that the communication between the educator and the educator, the process of upbringing, be continuous, consistent.

Keywords: *kindergarten, physical exercises, pedagogical, psychophysiological, ontogenesis, morphofunctional, antrometric, scoring, running, jumping, physical activity.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарорида юртимизда “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш, аҳолининг барча қатламлари, айниқса ёшларни жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этиш, бу борада яратилган шарт-шароитлардан самарали фойдаланиш натижадорлигини ошириш” [1, 21] осий вазифа қилиб қўйилган. Мазкур вазифа ёшларни жисмоний тарбиялашнинг перманент тизимини яратишни тақозо этади. Бизнинг фикримизга, бу перманент тизим аввало узлуксиз таълим тизими билан боғлиқ бўлиши даркор.

Илмий педагогик адабиётларда узлуксиз таълим тизими асосан мактаб-ўрта махсус таълим-олий таълим-олий таълимдан кейинги таълим (докторантура) сифатида қаралади. Бу ўринда болалар боғчаси, оила, мактабдан ташқари муассасалар, маҳалла, уюшмаган ёшлар назарга олинмагани кўзга ташланади. Замонавий таълим тарбия жараёнини фақат субъект-объект сифатида эмас, ўзаро узлуксиз алоқани юзага келтирувчи субъект-субъект тизимида қарашни тақозо этади. Эски субъект-объект тизими тарбияланувчини нафақат нафаол иштирокчига айлантиради (бу эса жисмоний тарбия учун мутлақ номувофиқ ҳолдир), шунингдек, узлуксиз таълимни самарасиз қилади. Шунинг учун узлуксиз таълим тарбиячи билан тарбияланувчи ўртасидаги алоқа, тарбия жараёни узлуксиз, изчил бўлишини талаб қилади. Агар инсоннинг антогенетик ривожланиши узлуксиз тарзда кетишини эсласак биз жисмоний тарбия ҳам ушбу антогенетик ривожланишнинг таркибий қисми бўлиши даркор, деган хулосага келамиз.

Узлуксиз таълим тизимини бевосита узлуксиз таълим тизими ва билвосита узлуксиз таълим тизимига классификация қилиш мумкин. Бевосита узлуксиз таълим тизимига болалар боғчаси, мактаб, мактабдан ташқари муассасалар, ўрта махсус таълим муассасалари, олий ўқув юртлари, малака ошириш институтлари, докторантура, билвосита узлуксиз таълим-тарбия тизимига оила, маҳалла, уюшмаган ёшлар киради. Бу восита узлуксиз таълим тизими махсус ишлаб чиқилган. Қабул қилинган ва назорат қилинадиган дастурларга қурилган, билвосита узлуксиз таълим тизимида бундай расмий дастур йўқ, тарбияланувчи истаган пайтида таълим-тарбия таъсири доирасидан эркин чиқиб кетиши мумкин. Аммо иккала йўналиш ҳам антогенес ва филогенез нуқтаи назардан шахсга узлуксиз таъсир этиш, унга ниманидир ўргатиш функциясини бажаради. Ушбу функционал хусусиятига мувофиқ билвосита тизимни ҳам узлуксиз таълим тизимига киритиш мумкин. Узлуксиз таълимнинг илк босқичи болалар яслиси, болалар боғчаси ҳисобланади. Бу мактабгача таълим тизими 3-6-7 ёшгача бўлган болаларни тарбиялашга, мактабга тайёрлашга қаратилган. Унинг вазифаси низомга мувофиқ; болаларни халқнинг бой миллий, маданий-тарихий мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида ақлий ва малакавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш; болаларни миллий ғурур, ватанпарварлик хислатларини шакллантириш; мактабгача ёшдаги болаларда билим олиш эҳтиёжини, ўқишга интилиш мойилларини шакллантириб, уларни мунтазам равишдаги таълим жараёнига тайёрлаш; болаларнинг тафаккурини ривожлантириш, ўзининг фикрини мустақил ва эркин ифодалаш малакаларини шакллантириш; болаларнинг жисмоний ва руҳий соғлигини таъминлаш ҳисобланади. Мазкур низомга кўра, “Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг ҳамма турлари билан мустаҳкам алоқада олиб борилади, “Тиббиёт ходимларининг мактабгача таълим муассасаси маъмурияти билан биргаликда болаларнинг ҳаёти ва жисмоний ривожланиши, даволаш-профилактика тадбирларининг ўтказилиши, санитария-гигиена меъёрларига риоя қилинишига, тарбияланувчиларнинг овқатланиш сифати ва тартибига жавоб берадиган” [3;32]. Демак, мактабгача таълим тизимидаги жисмоний тарбия ишларини ташкил этиш тиббиёт ходимлари назоратида олиб борилади.

Боланинг морфофункционал ва психофизиологик хусусиятлари болалар яслиси ва болалар боғчасидаги валеологик тарбияни ташкил этиш методикасига алоҳида талаб қўяди. Мутахассисларнинг таъкидлашича, бир ёшдан ошгач бола йилига бойи ўртача 5 см, вазни 2 кг.дан ўса боради. Мазкур антрометрик кўрсаткич, боланинг жисмоний ва интеллектуал ривожланишга таъсир этади, агар бола жисмоний ўсишда орқада қолса, бу ҳол унинг маънавий-руҳий тарбиясига, камолига акс таъсир этади [2, 13.].

Боғча ёшидаги бола энди ривожланиш босқичига кирган, ҳали унинг суяклари қотмаган, мушаклари

жисмоний машқларга чиниқмаган, маконда ҳаракат қилиши овқатланиш ва дам олиш тартибларини ўзлаштирмаган бўлади, аммо у ҳаракатни севади, у-бу нарсани билишга, қилишга интилади. Суяклар унинг камайгани тарбиячилар олдига болага қоматни тик тутиш(бошни кўтариб, елкаларни эркин тутиб, нафасни равон олиб, тик юриш), столда тирсакка таянмай, ётиб олмай (нафасни чуқурроқ олиш, елка ва қўлларни жисмоний юксиз, қон айланишини таъминловчи енгил машқлар қили, бел ва елкалар қотиб қолмаслиги учун стул суянчиғига тиралиб, оёқларни гоҳ чўзиб, гоҳ енгил тарзда товонга таяниш) ўтириш, вақти-вақти билан гавдани ва бошни ўнга, чапга ўгириб туришга одатлантириш вазифаси юкланади. Ўзимиз ўтказган кузатишлардан маълум бўладики, ўғил болаларнинг 78-80% ҳаракатчан машқлар (бир-бирини туртиш, бир ниманидир тортиб олиш, тегажаклик қилиш кабилар) ни яхши кўришади, улар барча жисмоний машқларни бажараверади ва боғчага қатнашни канда қилишмайди. Ҳаракатчанлиги суст болалар 12-5 % онда-сонда тенгқурлари ҳазилига тортишувларига қўшилишади, жисмоний машқлар танлаб бажаришади, баъзан оғирроқ, кўпроқ куч талаб этадиган машқларни бажаришига мойил. Улар тарбиячиларнинг талабларига босиқлик билан бўйсунадилар, боғчага қатнашни мажбурият сифатида қабул қиладилар. Қолган 5-7% ўғил болалар ўйинларга қўшилишавермайди, тенгқурларини чегадан кузатишади, жисмоний машқларни шунчаки бажаришади, улар боғчага келмаслик учун баҳоналар (оёғим, томоғим оғрияпти дейди, боғчага йиғлаб, дод-вой солиб келади) топишади.

Жисмоний машқлар (тортилиш юк кўтариш, беллашиш, югуриш мусобақаси) ни бажаришдан бош тортишади. Бундай ўғил болаларда ён чизиқча атрофдан ҳадиксираш, қўрқув туйғуси устуворлик қилади.

Қиз болаларнинг 62-65 % қўғирчоқ ўйнаш, қўғирчоқни кийинтириш, ухлатиш, унга жой-ўринлар тайёрлашни ёқтиришади. Улар бир-бирига тегажаклик қилишавермайди, жисмоний машқлар (кроватида оёқ қўлларини тебратиши, ўтириб-туриш, бир жойда тизсасини кўтариб чопиш, катокларда турли машқларни бажариш, унда сакраш-айланиш)ни осон ва алоҳида бир енгиллик билан тарбиячи кўрсатганидек бажаришади. Уларнинг 20-25 % ўта серҳаракат, ўғил болалар билан тенг тарзда, улардан қолишмаслик, ҳатто ўзиш иштиёқи билан машқ қилишади. Улар қўнғироқ ўйнагандан кўра, катталарга тақлид қилишни, ўғил болалар билан тенг тепаликка тирмашишни, ким ўзди машқларини бажаришни ёқтиришади. Баъзи оналар улар ҳақида “ўғил бола ўрнида туғилган”, “ўғил бола бўлиши керак эди” дейишади. Улар ичида инжиқ, баъзан боғчага келмайдиганлар ҳам бор. Қиз болаларнинг 10-15 % да ўта пассивлик кузатилади. Улар ўйинларга аралашавермайди, хотин-қизларга хос ишлар (бичиш-тикиш, овқат тайёрлаш, уйни саранжом-саришта тутиш, ака ёки укаларининг кийимларини ювиш, дазмоллаш, кўча супуриш, катталарнинг панд-насиҳатларини тинглаш)ни ёқтиришади. Жисмоний машқлар, гуруҳий ўйинлар уларни қизиқтиравермайди. Аммо кундузги уйқудан кейинги сайирлар, катталар, айниқса тарбиячилар ёнида бўлиш, уларга ёрдам бериш, баъзи оғил болаларни ўз ҳимоясига олишга интилиш уларга хос хусусиятлардандир.

Шуни алоҳида таъкидлашимиз керакки мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний машқларга муносабати этномаданий ва этнопсихологик муҳит остида шаклланган бўлади. Оиладаги этнопедагогик тажриба уларнинг хатти-ҳаракатларида яққол кўзга ташланиб туради. Ўғри, мазкур омилларни мутлақлаштириш мумкин эмас, баъзан психофизиологик омиллар этномаданий, этнопсихологик ва этнопедагогик омиллардан устун келади. Масалан, ота-онаси ўта босиқ, оилада қатъий патриархал бошқариш ҳукмрон бўлган яшаётган баъзи болаларда, айниқса ўғил болаларда боғчада ўзини эркин сезиш, психоэмоционал фаоллиги билан тенгқурларига етакчилик қилиш, ўғир жисмоний машқларда ўзини кўрсатишга интилиш борлиги кузатилади.Бундай болалар кўп эмас, улар 5-7 % атрофидадир. Айнан ушбу болалар гуруҳ қизиқишига, жисмоний машқлар билан шуғулланиш истакларига таъсир қилишади, дарров “ака ” деган авторитет қозонишади. Тажрибали тарбиячи бундай болалардаги психоэмоционал ва психофизиологик фаолликдан самарали фойдаланиш орқали гуруҳда жисмоний машқларга, физкультура ва спортга бўлган қизиқишни осон шакллантирадилар.

Суяк ва мушакларнинг ҳали қотмагани, шаклланиб улгурмагани боғчадаги жисмоний тарбияга оид алоҳида услубиятни (методикани) ишлаб чиқишни тақозо етади. Бу ёшдаги болаларда жисмоний юкни сезувчи тана териси ҳажми, катта кишиникига нисбатан, кўп, кенг турли валеологик машқларда чиниққан катта кишининг тана териси жисмоний машқларни одатий ҳол сифатида қабул қилади, боғча болалари учун хар бир жисмоний машқ енгиллик юк, синов, шу сабабли уларнинг танаси териси тез қизаради ёки қизариб, кўкариб қолади. Бундан ташқари жисмоний машқлар болаларнинг нафас олишига таъсир этади. Боғча болалари жисмоний машқлар пайтида чуқур нафас олиб ўпка ва юрак мушакларининг нормал ишлатиш тартибларини билишмайди. Махсус кузатишлардан маълумки, юк боланинг юрак-томир тизимига таъсир этади, юрак ҳажми ошади, юрак уриши секинлаша боради. Бироқ бу ёшда организм шартли рефлекторлари ҳам ечилмаган, катта жисмоний юкка мослашмаган бўлади, бундай оғир юк ёки оғир валеологик машқлар

кучли ҳис-ҳаяжонга, қон босимининг ошишига, юрак қисилишига олиб келиши мумкин [6;5]. Шунинг учун ҳам боғча болаларига мўлжалланган жисмоний тарбия жараёнида тиббиёт ходимининг қатнашиши шарт қилиб ўрнатилган.

Мактаб ёшига етган болаларнинг жисмоний ривожланганлик даражасига қўйилган минимал талаблар белгилаб берилган. Уларга:- мустақил тарзда жисмоний машқлар бажара олиш; буйруққа (старт) асосланиб югуриш; хода устида ўтириб олдинга силжиш; нарвон ёрдамида тепага чиқиш ва пастга тушиш; 5 секунд давомида арқонга осилиб туриш; арғимчоқ учиш; чекланган сатҳ ва чизиқ бўйлаб юриш; қия қўйилган тахта устидан юриб ўтиш; бир оёқда “қалдирғоч” бўлиб туриш; оёқ учлари билан буюмларни қисиб кўтариш, пастга тушириш ва бир жойдан бошқа жойга кўчириш; жойида туриб 15-20 марта сакраш; 70 см. узунликка сакраш; 30 см баландликдаги тўсиқдан сакраб ўтиш; тўхтамасдан 2-3 минут давомида югуриш; 100 м масофани тўхтамасдан югуриб ўтиш; 10 м масофани эмаклаб ўтиш; сафда тўғри туриш ва сафни бузмасдан юриш; сафланиш ва қайта сафлана олиш; мусиқа оҳангига мос ҳаракат қилиш; коптокни ирғитиш ва илиб олиш; илон изи шаклида юриш; чиниқтириш машқларини бажариш; халқ ўйинлари-“Ким чаққон ?”, “Оқ теракми кўк терак?”, “Аввалакам”, “Қуёним-қуёним не бўлди?”, “Читтигул”, “Боғлам-боғлам”, “Ким олади-ё шугинани-ё”, “Учди, чопди, сакради”, “Қушим боши”, “Қоч болам, қуш келди”, “Тортишмачоқ” кабиларда иштирок эта олиш кабилар киради [7, 28]. Мазкур талабларда боғча болалардаги морфофункционал ва антрометрик белгиларни ҳисобга олиш назарда тутилмайди, ваҳоланки, боланинг онтогенетик ва психофизиологиясидаги ўзгаришлар ясли ва боғча ёшидаёқ аниқ кўриниш бера бошлайди. Илмий педагогик ва валеологик изланишлар, айниқса мактабгача таълим муассасаларида жисмоний тарбияни ташкил этиш услубияти ана шу ўзгаришлар натижаларига таянганида самара беради. Мактабгача таълим тизимидаги жисмоний тарбия методикаси дифференциал ёндашишни (1-2 ёш; 3-5 ёш; 6-7 ёш; ўғил болалар; қиз болалар; шаҳар болалари; қишлоқ болалари; ногиронлиги бор болалар; вундеркиндлар) тақозо этади. Бундан ташқари, болалардаги жисмоний машқларга ўйин, онгли тарзда соғликни мустаҳкамлаш ва сақлаш кўникмасини шакллантириш коррекция қилиш асосий мақсад қилиб қўйилиши лозим. Соғликни мустаҳкамлаш ва асраш жисмоний тарбия методикасининг асл мақсади эканлигини унутиб бўлмайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Халқ сўзи, 2017, 4 июнь.

2. Ананые Б.Г. Человек как предмет позиания. – Л.: ЛГУ,1969. – 234 с.

3. Botirovna O. S. THE IMPORTANCE OF CRITICAL READING FOR ACADEMIC PURPOSE OF THE LANGUAGE WITH ANALYZING PISA TESTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т., 10. – №. 11. – 181 с.

4. Botirovna O. S. THE IMPORTANCE OF THE PISA INTERNATIONAL PROGRAM IN TEACHING CRITICAL READING IN ENGLISH TO STUDENTS IN GRADES 8-9 //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – Т., 9. – №. 9. – 205 с.

5. Mardonov R. THE ROLE AND PLACE OF UNIVERSITIES IN THE” KNOWLEDGE SOCIETY” //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т., 10. – №. 9. – 325 с.

6. Mardonov R. Philosophy of education in modern conditions of society development //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т., 11. – №. 10. – 114 с.

7. Mardonov R. HUMANIZATION AND HUMANITARIZATION OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE INFORMATION SOCIETY //Conferencea. – 2021. – 211 с.

ADABIY TA’LIMDA KLASTER VOSITALARIDA O‘QUVCHILARNI KITOBXONLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Ma’mura Ismailova,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiy ta’limda klaster vositalarida o‘quvchilarni kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish metodik asoslari hamda klaster usulining mazmun mohiyati maqolada o‘rin olgan. Bundan tashqari maqolada kitobxonlikni ommalashtirish, ilmiy-metodik ta’minlash, kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq masalalar qamrab olingan.Ushbu maqolada asosan, kompetensiyaga urg‘u beriladi va bunda Alisher Navoiy hazratlarining kitob o‘qib, munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanishning ahamiyatiga doir maqollar hamda Sohibqiron Amir Temurning fikrlari ham joy olgan.

Kalit so‘zlar: *metodika, metod, kompetensiya, klaster metod, kitobxonlik, adabiy ta’lim, texnologiya.*

Аннотация

В статье представлены методические основы формирования читательской компетентности студентов в литературном образовании с использованием кластерного инструментария и содержание кластерного метода. Кроме того, в статье освещены вопросы, связанные с популяризацией чтения, научно-методическим обеспечением и формированием читательской компетентности.В данной статье акцент делается главным образом на компетентности, а в данной книге Алишера Навои чтение, получение надлежащего образования, с наукой. Существуют также пословицы о важности труда и мнения Сахибкирана Амира Темура.

Ключевые слова: *методика, метод, компетентность, кластерный метод, чтение, литературное образование, технология.*

Annotation

In this article, the methodical basis of formation of students’ reading competence in literary education using cluster tools and the content of the cluster method are presented in the article. In addition, the article covers issues related to the popularization of reading, scientific and methodical provision, and the formation of reading competence. In this article, the emphasis is mainly on competence, and in this Alisher Navoi’s book reading, getting a proper education, with science There are also proverbs about the importance of work and the opinions of Sahibqiran Amir Temur.

Keywords: *methodology, method, competence, cluster method, reading, literary education, technology.*

O‘zbekiston xalqiga, yoshlarga yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda kitob o‘qish ko‘nikmasi shakllansa, kamoloti yo‘lida qolgan barcha amallarni kitobning o‘zi o‘rgatadi.

Adabiyot darslari ko‘ngil tarbiyalash darslaridir. Faqat bilim bilan qalbga kirib bo‘lmaydi. Shuningdek, hurmat, e’tirof, obro‘ singari tushunchalar borki, ularni talab qilib, so‘rab yoki sotib olib bo‘lmaydi. Ularni shaxsiy fazilatlar, ma’naviy yetuklik va bilimlilik bilan qozonish kerak bo‘ladi.

Kompetensiya (lotincha cometens — munosib, mos, kerakli, layoqatli, biladigan ma’nolarini anglatadi) — shaxs tomonidan hayotning muayyan tarmoqlarida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va tajriba mavjudligini anglatadigan tushuncha.

Kompetentlilik — kompetensiyaga egalik. Odamning muayyan sohalarda samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga egaligi bilan uning shaxslik sifatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadi. Kompetentlilik shaxsning muayyan soha bo‘yicha ayni amaliy imkoniyatlari va malakaviy darajasida namoyon bo‘ladi. [3, 192] Har qanday mutaxassisda uyg‘otiladigan va mahsuldor imkoniyat mavjud bo‘ladi. Bu esa albattaki, kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish asos bo‘ladi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondashuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Yoshlarni barkamol avlod ruhida tarbiyalash uchun kitob o‘qish masalasi yoshlar orasida keng targ‘ib qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”[1] farmoyishi e’lon qilindi.

Yapon maktablaridan birida jahon tarixidagi eng buyuk kashfiyot nima, degan so‘rovnoma o‘tkazilgan ekan. Bu so‘rovnomada ishtirok etganlar o‘zlari mo‘jiza deb bilgan turli narsalarni tilga olishgan: olov, dvigatel, atom bombasi, elektrotexnika va boshqa bir necha narsalar. Biroq qatnashchilar ichidan bir o‘quvchisining “Eng zo‘r kashfiyot — kitob” deb bildirgan javobi hay’at a’zolariga ma’qul tushgan ekan. Nima sababdan aynan kitob, degan savoliga u “Qolganlarning fikrlari ham to‘g‘ri, lekin kitob bo‘lmasa, ularning birortasi ham ixtiro qilinmasdi-ku”, deb javob bergan. Xalqimizning turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitik) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Alisher Navoiy hazratlari deydilarki, “Kitob — beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimizda kitob o‘qib, munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanishning ahamiyatiga doir maqollar ham juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql — qanotsiz qush”, “Baxt belgisi — bilim”, “Bilim — aql chirog‘i”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar — oqar buloq, ilm — yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqllarni uzoq davom ettirish mumkin. Bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda maktablarning roli beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas.

Rivojlanayotgan ta’lim xizmatlari bozori sharoitida zamonaviy ta’lim murakkab, ko‘p qirrali va qaramaqarshi jarayondir. Bugungi kunda yuqori sifatli ta’lim xizmatlari talabga ega bo‘lib, ularni faqat professional tayyorgarlikdan o‘tgan va malakali o‘qituvchi mutaxassislar ko‘rsatishi mumkin [8, 67]. Yangi ta’lim maqsadlarini amalga oshirish o‘qituvchi uchun yangi formatni talab qiladi. Bunda esa o‘qituvchilar sifatli tarzda dars mashg‘ulotlarini o‘tishi kerak bo‘ladi. Bunda bizga turli xil interfaol metodlar muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” yana bir qancha turlari bor.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Kontseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqa turlari mavjud [4, 202].

Metod so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib tadqiqot yo‘li, nazariya, usul degan ma’noni bildiradi. Metodlar uchta guruhga bo‘lingan:

1) Amaliy metodlar;

2) Og‘zaki metodlar;

3) Ko‘rgazmali metodlar.

Klaster metodi ko‘rgazmali metodlar turiga kiradi. “Klaster” (tarmoqlar) metodi deb ham ataladi. Fikrlarni tarmoqlantirish — bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni (assotsiativ) erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlantirishga o‘rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish, hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini ijodiy yondashgan holda chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu esa talabalarga o‘z bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga yordam beradi. [5, 86]

Ba’zi adabiyotlarda “Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Klasterdan foydalanish bolalarga sinfda quyidagi foydalarni yetkazadi:

– klasterni qabul qilish tizimli fikrlashni rivojlantiradi;

– bolalarni nafaqat o‘quv materialini, balki ularning qadriyatlarini ham tizimlashtirishga o‘rgatadi;

– bolalarni kuzatishlar, tajribalar va olingan yangi bilimlar asosida shakllangan o‘z fikrlarini rivojlantirish va ifoda etishga o‘rgatadi;

– bir vaqtning o‘zida bir nechta pozitsiyalarni ko‘rib chiqish va axborotni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Klaster usulidan foydalanilgan darslar bolalarga o‘z fikrlarini bildirish, masala bo‘yicha o‘z qarashlarini ifodalash va ijodiy faoliyat erkinligini berish imkoniyatini beradi. Talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Ular hamkorlik muhitini yaratadilar va bolalarda o‘z-o‘zini hurmat qilishni rivojlantiradilar. Ularga ijodiy erkinlik hissini beradi.

Adabiyot darsida klaster tuzish nafaqat badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini ochib berishga, balki o‘quvchilarning ma’lumotni tushunishga mazmunli, faol yondashishiga ham hissa qo‘shadi. Yangi materialni tuzishdan tashqari, takrorlash va mustahkamlash uchun klasterlardan, shuningdek, ijodiy ishlarni yozishda yordam sifatida foyda-

lanish tavsiya etiladi.

Ushbu uslub sizga talabalarning fikrlash jarayonini tasavvur qilish, ularning kognitiv faolligini faollashtirish, adabiyotni o‘rganishga qiziqishni rivojlantirish va kognitiv sohada ham, qiymatga yo‘naltirilganlik sohasida ham yuqori sifatli fan natijalariga erishish imkonini beradi. [6, 5]

Klaster yaratish jarayonida quyidagi bosqichlar bo‘lishi lozim:

– maqsadni belgilash;

– ish mazmunini tahlil qilish;

– markaziy konsepsiyani, asarning asosiy obrazini aniqlash;

– strukturaviy va mantiqiy matn ichidagi aloqalarni aniqlash;

– xulosa qilish, ishning asosiy g‘oyasini shakllantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak klaster metodidan to‘g‘ri foydalanish orqali o‘quvchilarning fikrlashlari, dunyoqarashlari ortadi. O‘quvchilar bu metod orqali o‘zlariga kerakli bo‘lgan bilimlarni tizimlashtirib, tarmoqlab olish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Klaster usulidan foydalanilgan darslar bolalarga o‘z fikrlarini bildirish, masala bo‘yicha o‘z qarashlarini ifodalash va ijodiy faoliyat erkinligini berish imkoniyatini beradi. [7, 25] Umuman olganda, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan noan’anaviy texnologiyalar o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiradi, hamkorlik muhitini yaratadi va bolalarda o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘usini uyg‘otadi, ularga ijodiy erkinlik tuyg‘usini beradi.

Xulosa qilib aytganimizda, adabiy ta’limda klaster vositalarida o‘quvchilarni kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish yuqoridagi aytgan fikrlarimizni isboti hisoblanadi, chunki klaster usuli asosida o‘quvchilarni kitobxonlikka undash mumkin. Chunki adabiyotda biron bir hikoya yoki asarni o‘qigandan so‘ng, klaster usuliga quyib tahlil qilib chiqsa, bu yanada kitobni o‘qishga va unga qiziqishga undaydi. Natijada kitobxondan kitob o‘qish uni tahlil qilish kompetensiyasi shakllanadi. Shuning uchun bugungi kunda kitobxonlik rivojlanib, kitobxonlar ko‘paymoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi PQ–3271-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020–2025-yillarda Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori.

3. Omonboyeva M.I. Chet tillarini o‘qitish jarayonida o‘yinlardan foydalanishning afzalliklari va mezonlari “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. “Fan va ta’lim”. 2-son (2022-yil oktyabr). – 192-198-b.

4. Gulnora Ixtiyarova, Charos Haydarova, Ma’murjon Axadov, Zohida Ishmanova. Kimyo fanida zamonaviy ta’limning innovatsion shakllari. “Pedagogik mahorat” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2-son (2021-yil, aprel). – 201-204-b.

5. Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li. “Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida klaster metodlaridan foydalanish. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, may 15-16, 2023. – 16-19-b.

6. Grevtsova, I. Maktabda o‘qitish texnologiyasiga tizimli-faol yondashuv. Maktab texnologiyalari, “Fan, ta’lim, jamiyat: tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari” IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 1-jild. – M., 2003. – № 6. – 132-138 b.

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T., 2015. – 120 b.

8. Критерии и показатели профессионализма педагога в системе дополнительного образования. А.В.Лапшова. “Вестник Мининского университета”. – 2014. – №4. – 321 с.

9. Общая и профессиональная педагогика: Учебное пособие для студентов, В.Д. Симоненко. – Изд-во Брянского, 2003. – 174 с.

NIKOH TO‘YLARIGA XOS TAOMLAR: TASNIFI VA MAHALLIY XUSUSIYATLARI (SURXON VOHASI MISOLIDA)

Mavjuda Dusnazarova,
Termiz davlat universiteti
“Davlat va huquq asoslari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Har bir xalqning o‘tmishi va bugunini etnografik marosimlar va ularning nishonlanishidagi hududiy o‘ziga xosliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyat sivilizatsiyasi bevosita marosimlar bilan hamohang tarzda o‘zgaradi. Ushbu maqolada asosiy e’tibor xalq etnografiyasining ajralmas qismi bo‘lgan taomlar, ularning tayyorlanishi, marosimlarda anglatuvchi mazmun-mohiyati haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, bu kabi taomlar nomlari surxon shevasi misolidagi leksik birliklar asosida tahlil qilingan. Shu asosda Surxon vohasining o‘ziga xosligi ramzi bo‘lgan taomlari haqida izlanishlar samarasidan hosil bo‘lgan asosli ma’lumotlar qayd etilgan.

Kalit so‘z: *Surxon vohasi, non mahsulotlari, po‘stirma, uytme, gungala, bulamoq, gupimoy, kabob, oq bulamoq, palov, talqon, tandir go‘sht, umoch osh, shinni.*

Аннотация

Прошлое и настоящее каждого народа невозможно представить без этнографических обрядов и территориальных особенностей их празднования. Человеческая цивилизация меняется прямо синхронно с ритуалами. В данной статье основное внимание уделяется блюдам, являющимся неотъемлемой частью народной этнографии, их приготовлению, значению в обрядах, а названия таких блюд анализируются на основе лексических единиц сурханского диалекта. На этом основании зафиксированы обоснованные сведения, полученные по результатам исследований о посуде, являющейся символом уникальности Сурханского оазиса.

Ключевые слова: *Сурхандарья, хлебобулочные изделия, гранат, застенчивость, гунгала, фонтан, гупимой, капуста, белый фонтан, пальма, брезент, печь мясная, умоч ош, шинни.*

Annotation

The past and the present of each nation cannot be imagined without ethnographic ceremonies and territorial peculiarities of their celebration. Human civilization changes directly in sync with rituals. In this article, the main focus is on the dishes that are an integral part of folk ethnography, their preparation, meaning in ceremonies, and the names of such dishes are analyzed based on the lexical units of the Surkhan dialect. On this basis, the reasonable information obtained from the results of research about the dishes, which are a symbol of the uniqueness of the Surkhan oasis, have been recorded.

Keywords: *Surkhandarya, bread products, pomegranate, shyness, gungala, fountain, gupimoy, cabbage, white fountain, palm, tarpaulin, oven meat, umoch osh, shinni.*

Surxon vohasi kuyov-kelin bilan bog‘liq an’anaviy taomlari o‘zining xilma-xilligi va unda foydalaniladigan mahsulotlarning boyligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda ularini tayyorlash an’analarida xo‘jalik faoliyati tajribalaridan kelib chiqqan holda shakllangan urf-odatlar tizimi hamda qator Inoetnik va lokal xususiyatlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Insonning jismoniy rivoji, kuch-quvvati hamda salomatligi, qolaversa, aqliy kamoloti rivojlanishida asosiy manba bo‘lgan taomlar xalq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi.

Har bir xalq jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish jarayonida turli-tuman taomlarni yaratgan. Shubhasiz, har qanday etnos an’anaviy taomlari ham ushbu xalq turmush tarzi, avvalo xo‘jalik mashg‘ulotlari, milliy va diniy qarashlari asosida, mahalliy tabiiy shart-sharoitga bog‘liq holda o‘zgarib, rivojlanib boradi. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponentlaridan biri bo‘lgan xalq an’anaviy taomlari, ularning tayyorlanish usullari, hatto taomlar bilan bog‘liq an’ana va marosimlar ushbu xalq xo‘jaligining yo‘nalishi va etnos turmush tarziga bog‘liq holda shakllanib borgan. U yoki bu etnik jamoaning xo‘jaligi hayotida, turmush tarzidagi har qanday o‘zgarish uning an’anaviy taomlarida ham o‘z aksini topgan.

Tadqiqot nikoh to‘ylariga xos taomlar asosida o‘zbek xalqining o‘ziga xos xususiyatlari surxon vohasi misolida qanday tuzilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va bor manbalarga qo‘shimcha ilmiy ma’lumotlar kiritish maqsadida olib borilmoqda. Shu maqsad o‘laroq O‘zbekistonning milliy taomlari orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan nikoh to‘ylariga xos taomlar tahlilini o‘tkazish va o‘zbek madaniy merosi, mamlakatimizdagi milliy taomlarning tarqalish tarixi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolari va yangi izlanuvchi masalalarini hal qilishda nikoh to‘ylarining ahamiyati haqida asosli ma’lumotlarni berilgan.

Tadqiqot mavzusi har bir davrda o‘z amaliy ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bu maqola orqali tahlil qilingan ma’lumotlar asosida nikoh to‘ylariga xos taomlar tayyorlash va ularni surxon vohasida o‘tkazish jarayonini mustaqil ravishda tashkil etish uchun qo‘llanma sifatida ishlatilishi mumkin. Bu esa jamiyatimizdagi milliy taomlarni

ISSN 2181-8274

saqlash, ulardan foydalanish sohasida yangi mahsulotlar yaratish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda kuyov va kelin bilan bog‘liq an’anaviy taomlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda taomlardagi etnik va Inoetnik komponentlar masalasi ma’lum darajada yoritilgan [12, 9]. Biroq aynan Surxon vohasida kuyov va kelin bilan bog‘liq an’anaviy taomlarining tavsifi va tasnifi hamda ularning mahalliy xususiyatlari muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Shu sababga ko‘ra monografiyaning mazkur qismida kuyov va kelin bilan bog‘liq Surxon vohasi an’anaviy taomlarining etnohududiy jihatlari borasida baholi qudrat mulohaza yuritamiz.

Surxon vohasi kuyov va kelinlarga xos bo‘lgan milliy taomlarini o‘zaro qiyosiy o‘rganishdan ayon bo‘ladiki, o‘rganilayotgan davrda kuyov va kelin bilan bog‘liq taomlarida an’anaviy etnik jihatlar yorqin namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga vohada an’anaviy dehqonchilik va chorvachilik xo‘jalik madaniy tipiga mansub aholi taomlarida ko‘plab Inoetnik xususiyatlar hamda umummintaqaviy jihatlarni kuzatish mumkin edi.

Non pishirishda kelinlar xamirturush (achitqi)dan xamirning tobiga kelishida foydalanib, vohada yuzlar, do‘rmonlar, qo‘ng‘irotlar “ko‘pirtirma non”, qatag‘onlar, turklar, o‘shorilar, ketarilar “keldirma non”, Denov, Sariosiyo hamda Uzun tumanlari tojik kelinlari esa “noni rasida” deb ataganlar.

Vohada non va nonning asosiy masallig‘idan biri bo‘lgan xamirturush bilan bog‘liq o‘ziga xos qator irimlar bo‘lgan. Kelinlar to‘ydan keyingi chilla davrida shanba kuni xamirturush so‘rab kelgan kishiga berilmagan. Ikki “chillali xonadon” bir-biriga chillasi tushadi deb xamirturush bermagan.

Patir non yupqaligi hamda xamirturushsiz (ko‘pchimagan)ligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, patir nonlar yuzi to‘liq nonpar bilan urib chiqiladi. Patir nonlar to‘y-hashamlar va mehmonlar uchun maxsus pishirilgan [11, 102].

Vohaning chorvador aholisi hisoblangan yuz, do‘rmon va qo‘ng‘irotlarda to‘yda tushirib olgan kelinlar dasht va tog‘larda mol boqib yurgan kezlarda tandir qurishning imkoni bo‘lmagan, shu boisdan non turlaridan “ko‘mma non” ham iste’mol qilganlar. Ko‘mma non ham patir non kabi xamirturush qo‘shilmasdan tayyorlanadi. Lekin uni rostlashda biroz uzunchoqroq va qalinroq holga keltiriladi. Ko‘mma nonni voha tojiklari “noni ko‘mach” deb ataganlar.

Xatakilar to‘y bo‘lganda, qarindoshligidan qat’iy nazar iloji bori to‘rtta, iloji yetmagani ikkita qatlama olib borgan. To‘yda qatlama olib kelgan yoki sovrun qo‘shgan kishiga albatta *kiyit* berilgan. Agar kimda-kim to‘yga to‘rtta qatlama olib kelsa, unga uch metr chit, bitta non, bitta qatlama, bir hovuch meva berilishi shart bo‘lgan. Dasturxon bo‘sh qaytarilmagan. Dasturxonning to‘ydan bo‘sh qaytishidan irim qilingan [7].

Tadqiq etilayotgan davrda yupqa ham kelinlar tomonidan bug‘doy unidan tayyorlangan. Elshunos olimlardan B.X. Karmisheva, K. Shoniyozovlar ta’kidlashicha, bu taom O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida ham tayyorlangan [12, 100]. Xususan, Yuqori Zarafshon tojiklari yupqani “tunuk” deb nomlashgan [10, 148]. Kelinlar yupqa uchun tayyorlangan xamir shaftoli kattaligida bo‘lakchalarga bo‘linib, bo‘lakcha xamirlarga un sepib, xamir yupqa qilib yoyiladi. Pishirishdan oldin yupqalardan un qoqib tashlanadi. Qozon ichki devorlari ozgina yog‘lanib, qizdiriladi. Avval birinchi yupqaning ikki tomoni yopiladi, keyin uning ustiga ikkinchi yupqa qo‘yiladi va qozonning qizigan yuzasiga ag‘dariladi. So‘ngra birinchi yupqaning ustiga uchinchisi qo‘yiladi. Ikkinchi yupqa pishgandan keyin uchinchisi ham ag‘darib qo‘yiladi. Shu asosda dasta shaklda to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi hamda boshqa yupqalar pishiriladi. Mintaqada yupqani tayyorlashda yog‘larning ishlatilish xiliga qarab qaymoqli yupqa, sariyog‘li yupqa, shirali yupqa, piyozli yupqa kabi turlari mavjuddir.

Surxon vohasi aholisi to‘ylarida go‘sht va go‘shtli mahsulotlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Vohaning Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari hududida chorvador yarim o‘troq oilalardagi kuyov va kelinlar an’anaviy ravishda go‘shtli taomlarni ko‘proq yeganlar. Shuni ham aytish kerakki, pishgan go‘shtning ilikli suyagini hurmatli mehmonga qo‘yish udumga aylangan.

Surxon vohasining Qoratog‘daryo, To‘palangdaryo, Xo‘jaipokdaryo, Surxondaryo kabi daryolaridan baliq ovlangan. Baliqni luqmani halol qiladi “luqmayi halol”, deb hech bo‘lmaganda bir yilda bir marotaba yeyish savob deyilgan. Shuningdek, baliqni Olloh tomonidan bo‘g‘izlanganligi, halol qilinganligi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan [5, 68]. Chillali kelinning baliq go‘shti iste’mol qilishi irim sanalgan. Baliqlar har qanday joyga tuxum qo‘yib ketaveradi. Bu holat chilla davrida ayolga ham ta’sir qilishi mumkin, degan tasavvur bo‘lgan. Keksalarning aytishicha, bunda bola nuqsonli tug‘ilar ekan. Vohada kuyov-kelinlar uchun go‘shti parhez taom sifatida tovuq go‘shtidan keng foydalanilgan, chunki undan tayyorlangan sho‘rva “darmon sho‘rva” deb atalgan.

XX asrning 30-yillaridan oziq-ovqatlari ratsioniga karam, pomidor, kartoshka Inoetnik mahsulotlar kirib kela boshlagan. Voha aholisi o‘z shaxsiy tomorqalarida bu mahsulotlarni yetishtirsalar-da, ammo, “o‘ris”ning ovqati deb, XX asrning 50-yillarigacha bu mahsulotlardan tayyorlangan ovqatlarni hamma ham yeyavermagan. Keyinchalik ushbu mahsulotlar milliy taomlar tarkibiga kirib ularning ajralmas qismiga aylangan.

Chorvadorlar uzatilayotgan qizning beliga xamirday yetilib, o‘zingdan ko‘paygin, deb xamirturushdan bir parcha bog‘lab yuborishgan. Bu odat bugungi kunga qadar saqlanib qolgan [1, 122].

Surxondaryoda non yopayotganda non yopqichdagi

xamirni tandir og‘zidan bir aylantirib olib, keyin yopilgan. Noni tushmasin deb, non yopuvchi xotinlarning ortidan o‘tilmagan, uni gapga solinmagan. Negaki, non yopilayotgan joyda xotinlar piri homiylik qiladi degan tushuncha bor [11, 227]. Ikkiqat xotin non yopayotganda tandir suvidan ichmasligi, kosov ustidan xatlab o‘tmasligi aytilgan. Bo‘lmasa, bolaning yuzi dog‘li bo‘ladi deb ishonilgan [3, 45].

An’anaviy taomlar

Bulamoq — qaymoq, un va shakar qo‘shib tayyorlanadigan taom. Ko‘p joylarda “to‘ntarma” deyiladi. Bulamoq issiqligida va sovitilgan holda iste’mol qilinadi. Pishirish davomida taom ustida sap-sariq oltinsimon yog‘ to‘planadi. Taom juda to‘yimli bo‘lgani uchun oilada qaymoq to‘plab, haftada bir-ikki marta tayyorlanar edi.

Bug‘lama (dimlama) — qovurma holida bo‘lib, yarim pishgandan keyin bug‘latib qo‘yiladi, turli xil garmdorilar sepiladi. Bu ovqat yumshoq bo‘lib pishadi. Uni ikki xil tayyorlash mumkin. Birinchisi faqat go‘shtdan, ikkinchisi sholg‘om, karam go‘sht bilan aralashtirib pishiriladi.

Gungala — oq bug‘doyni yuvib suvga solib qaynatiladi. Pishgandan keyin unga bir tovoq qatiq qo‘shib (xatakilar shevasida qatiq qatib) yeyiladi.

Gupimoy — “qorinmoy” deb ham ataladi. Oldiniga tol yog‘ochdan bir yarim metr uzunlikdagi, diametri 50–80 sm gacha bo‘lgan gupi tayyorlanadi. Uning o‘rtasi teshiladi. Sopisi 1 metr uzunlikda bo‘ladi. Gupining ustki qismini shaxmat usulida teshib yog‘och o‘tkaziladi va gupiga solingan qatiq va issiq suv sop bilan urib pishitiladi. So‘ngra sovuq suv solinib, kuvi irg‘alanadi va 10–15 daqiqada yog‘ kuvining betiga ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan sariyog‘ tol tovoqqa solinib, qo‘l bilan yana ishlov beriladi va tarkibidagi suv chiqarib tashlanadi. Sariyog‘ tuzlanib, oldindan tayyorlab qo‘yilgan qo‘y yoki echki qorniga mushtlab tiqiladi. Shu bois ham *qorinmoy* deb ataladi. Sariyog‘ qoringa joylanganidan keyin uning og‘zi tikilib, tashqi tomoniga tuzli ayron suzmasi chaplanib, iylangan terilarga o‘rab tashlanadi. Yoz kechalari qorin moylar yoyib salqinlatiladi. Yoki yer osti g‘orlariga ham qo‘yib saqlaydilar.

Kuvidan sariyog‘ ajratib olingach, uning tagida ayron qoladi. Ayronni katta qozonga solib qaynatadilar. Ayron quyuqlashgach, uning ichiga turli dorivor o‘tlar va tuz solib, qopga joylanadi va daraxtga osib qo‘yiladi. Suvi sizg‘igan ayron ikki kunda qattiq holga keladi. Uni olib, turli shakl berib qurut tayyorlashadi va quyoshli joyga quritiladi [1, 110].

Durda — qaymoq qozonga solib kuydiriladi. Taxminan yarim, bir soatda tayyor bo‘ladi. Rangi o‘zgarib jigarrang holga keladi. Qozon tagi to‘xtovsiz kavlab turiladi. Qattiq holatdagi qismi durda deyiladi. Suyuq, sariq rangli yog‘i Sari-moy deyiladi. Qozonda qolgan qismi ham sarimoydir.

Kabob — mol so‘yilgandan keyin uning bag‘ri, yuragi, jag‘lari va buyragini kabob qilishgan. Buning uchun mol go‘shti yupqa-yupqa kesilib, ustiga ziravor va tuz sepilib, cho‘g‘ ustiga qo‘yiladi. Tog‘li joylarda bularni cho‘g‘ ustida cho‘pdan o‘tkazib, cho‘g‘dan biroz balandroq yoki cho‘g‘ ustiga qo‘yib pishiriladi. Kakliklarni ikkiuch mucha lab, zarang cho‘pidan o‘tkazib, toshga osib pishirishadi. Xomkonilar mol so‘yganida birdaniga ichagini shu tartibda kabob qilib pishiradilar.

No‘xat — oftobaga solib pishiriladi. Keyin tuzliroq qilib dasturxonga tortiladi. Suvga solib ivitilgan qismi palovlarga ham solinadi.

Oq bulamoq — shakar va sut qo‘shib pishiriladigan taom.

Palov — guruch, go‘sht va sabzidan tayyorlanadigan taom. O‘zbek xalqining eng sevimli ovqatlaridan biri.

Somsa — yoyilgan xamirni to‘rtburchak shaklda kesib, har birining ichiga turli masalliqlarni solib, tandirda pishiriladigan taom. Uning go‘sht somsa, ismaloq somsa, ko‘k somsa, oshqovoq somsa, qat-qat somsa kabi turlari bor. Ko‘proq Tangi-devonda, to‘yda pishirilgan.

Suzma — qurutdan tayyorlanadigan taom. Unga suv qo‘shib suyuq holatga keltiriladi. Uni to‘ppa yoki guruch oshlarga solib pishirishadi.

Talqon — olmadan qoqi qilinadi. Qoqini qurug‘ida o‘g‘ircha ga tuyadilar va ustiga qaynoq suv solib, qoshiq bilan qo‘zg‘ab xuddi xamirdek qariydilar. Tayyor bo‘lgach kosaga solib yeyiladi. Taomni choy ichgan holda iste’mol qilish kerak. Aks holda, tomoqqa yopishib odamning mazasini qochirishi mumkin.

Tandir go‘sht — tayyorlash usuli quyidagicha: avval go‘sht mucha lab maydalanadi. Unga archa, yalpiz, turli ziravorlar qo‘shiladi. Keyin tandir og‘ziga qo‘yish uchun odamning bosh barmoq yo‘g‘onligida ikkita ho‘l tayoqcha tayyorlanadi. Teng bo‘lingan go‘sht tayoqchadan o‘tkaziladi. Keyin ikki tayoqchadagi go‘sht tandir ustidan “bismilloh” deya aylantirib tandir og‘ziga osiladi. So‘ngra ustidan tovoq yoki qozon yopilib, atrofi loy bilan suvaladi. Yoshi kattaroq mayda molning go‘shti bir soati 10 daqiqada, yosh mol go‘shti esa, 50–60 minutda pishadi. Keyin loysuvoq olinib, hil-hil pishgan, xushbo‘y hidli tandir go‘shti tayyor bo‘ladi va dasturxonga tortiladi.

Tandir bo‘lmagan joylarda yerni qazib, yer tandir tayyorlashgan. Bu tog‘li joylarda tosh tandir bo‘lgan. Tog‘da tosh tandirni yopish uchun loy topilmagan vaqtda tandir atrofini yapaloq, katta bargli o‘tlar bilan yopishgan.

Umoch osh — xamir maydalanib qo‘l bilan ishqalab eziladi. Natijada, har xil holatdagi tugunchalar paydo bo‘ladi. Tugunchalar suvga yoki sutga solib moysiz pishiriladi. Suvlik oshga qatiq solib ichiladi.

Chalop — qatiqqa suv solib aralashtirilib, suyuq holga keltiriladi. Me’yori bilan tuz, bodring va turli ko‘katlar solinadi.

Chuchvara — yoyilgan xamir tugilib, ichiga qiyma solinib, yog‘da qovuriladigan taom. Asosan, to‘ylarda pishiriladi.

Qaymoq — sut qaynaganidan keyin usti ko‘piklanib toshadi. Shundan keyin ikki soatdan bir sutka davomi-

ISSN 2181-8274

da sutning ustidagi qaymog‘i chiqib qoladi. Sut ustidagi qaymoq olingach birdaniga yeyiladi yoki bulamoqqa qo‘shiladi.

Qaynatma sho‘rva — go‘sht muchalanib suvga solinadi. Keyin unga turli sabzavotlar qo‘yiladi. Yog‘ solinmaydi. Qaynab chiqqandan keyin ichiladi. Eskilar qaynatmaga ko‘proq osh kadi solishgan.

Shinni — uzum, qovun va tarvuzni qaynatish natijasida olinadigan shirinlik. Uzum shinnisini olish uchun 2 duylukda 20–30 kg uzum yuviladi. Keyin uzumning mevasi olinib doshqozonga solinadi va 1 kecha-kunduz qaynatiladi. Qaynatish chog‘ida tagi kavlab turiladi. Qovundan shinni olish uchun 20 yoki 30 ta qovun tilik qilib kesiladi. Po‘sti olingan qovun bo‘laklari qozonga solinib bir sutka qaynatiladi. Tarvuz shinnisini tayyorlash uchun uning po‘sti olinib, ichidagi qizil qismi qozonga tashlanadi va u ham bir kecha-kunduz qaynatiladi. Shinni tayyorlashda umuman suv ishlatilmaydi. Qiyom holiga kelgach ko‘zaga solib uy ichidagi o‘raga saqlash uchun qo‘yiladi. Shinniga turli hasharotlar tushmasligi uchun ko‘zaning og‘zi mahkam yopiladi yoki ko‘za suvga solib qo‘yiladi.

Shir-birinj — sutga guruch va shakar qo‘shilib tayyorlanadigan taom. Ilgarilari to‘ylarda aholi tomonidan yeyiladigan eng sevimli ovqatlardan biri bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, voha to‘ylarida qo‘yiladigan ovqat turlari xilma-xil bo‘lib, aholining yashash joyi va yil fasllariga bog‘liq bo‘lgan. O‘troq aholi turli-tuman ko‘katlar, sabzavotlar, mevalar va sabzavotlardan foydalanib to‘y va marosim ovqatlarini tayyorlashgan bo‘lsalar, chorvador aholi go‘sht va sutdan bir-biridan totli ovqatlar pishirganlar. Ayniqsa, katta yo‘l ustida joylashgan tog‘li hududlar aholisi to‘y pishiriqlarining ko‘pgina turlarini tayyorlaganlar. Ularning ayrimlari nainki bugungi kunga saqlanib qoldi, balki, butun yurtimiz bo‘ylab keng tarqaldi va to‘ylarning bosh taomiga ham aylandi. Lekin ayrim to‘y ovqatlari o‘z o‘rnini zamonaviy taomlarga bo‘shatib bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Файзуллаева М.Ҳ., Кичкилов Ш.Ҳ. Хомкон тарихий этнографик маскан (этногенез, этник тарих ва этномаданият). – Т.: “Замон полиграф” ОК, 2022. – 348 б.
2. Файзуллаева М.Ҳ. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. – Т.: “ЯНГИ НАШР”, 2010. – 160 б.
3. Жумаев А.Ш. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларида боланинг туғилиши ҳамда тарбияси билан боғлиқ урф-одатлар ва маросимлар. Тарих фанлари номзоди диссертацияси. –Т., 1991. – 212 б.
4. Фарғона водийсидаги этнослараро жараёнлар. – Т., 2005. – 122-142 б.
5. Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Университет, 2000. – 600 б.
7. Сурхондарё вилоятининг дала ёзувлари (2010-2022 йиллар)
8. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар. – Т., 2014. – 292 б.
9. Икрамова Н.М. Узбекская кулинарная лексика. – Т., 1989. –69 с.
10. Материальная культура верховьев Зарафшана. – Душанбе, 1973. – 297 с.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 338 с.
12. Шаниязов К. О традиционной пище узбеков // Там же. Буркуты // УСЭ. Т. 2. – Т., 1972. – 4-12 с.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA KREATIV VA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Behzod Sodiqov,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola dunyoda kreativ va integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish masalalari tadqiq qilishga Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish, o‘qitishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, faoliyat sohalari bo‘yicha talabalarga innovatsion bilim berish, metodik ko‘nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib borish hamda o‘quvchilarga samarali ko‘mak berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, integratsiya, zamonaviylik, informatsion kompetentlik, innovatsion kompetentlik,texnologik kompetentlik, metodik kompetentlik, psixologik kompetentlik.*

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию вопросов формирования педагогических компетенций будущих учителей химии в мире на основе творческого и интегративного подхода, совершенствования методического обеспечения, развития педагогической компетентности учащихся, широкого использования мультимедийных, информационных и коммуникативные технологии в обучении Педагогика развитие творческих мыслительных способностей студентов вузов, совершенствование педагогических компетенций, обеспечение гармонии теории и практики в обучении, внедрение новых информационных технологий, обеспечение студентов инновационными знаниями в сферах деятельности, методическими навыками и квалификации, направленной на постоянное совершенствование и эффективную помощь студентам.

Ключевые слова: *креативность, интеграция, современность, информационная компетентность, инновационная компетентность, технологическая компетентность, методическая компетентность, психологическая компетентность.*

Annotation

This article is devoted to researching the issues of formation of pedagogical competences of future chemistry teachers in the world based on a creative and integrative approach, improvement of methodological support, development of pedagogical competence of students, wide use of multimedia, information and communication technologies in training Pedagogy development of creative thinking skills of students in higher education institutions, improvement of pedagogical competences, ensuring harmony of theory and practice in teaching, introduction of new information technologies, providing students with innovative knowledge in fields of activity, methodological skills and qualifications aimed at continuous improvement and effective assistance to students.

Keywords: *creativity, integration, modernity, informational competence, innovative competence, technological competence, methodical competence, psychological competence.*

Dunyoda kreativ va integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish masalalari tadqiq qilinmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish, o‘qitishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, faoliyat sohalari bo‘yicha talabalarga innovatsion bilim berish, metodik ko‘nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.Ta’limning yangi paradigmalariga o‘tish nafaqat talabalarning o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishiga innovatsion yondashuvlarni, balki ta’lim jarayonini ta’minlashga imkon beruvchi metodologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo‘nalganlikni tarbiyalash, affiliatsiya motivi talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil asosida talabalarning pedagogik amaliyotda faolligini oshirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada talabalarning kasbiy kompetentligini oshirish, kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib etishishi mamlakatimizda

ISSN 2181-8274

ta’limning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3775-son qarori, 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4805-son qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son Farmonida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Kreativ va integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar keltirilgan [4, 3].

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ma’lumotlar keltirilgan [6, 222].

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentli mutaxassis sifatida tayyorlash kimyo fanini o‘qitish samaradorligini belgilovchi komponentlarining kreativ va integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarni tahlil etish asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorligining mazmun-mohiyati va holatini, kreativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlash; bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini o‘quv jarayoniga axborotli,dalilli,muammoli, fanlararo integratsiyalashuv bosqichlarini kiritish asosida takomillashtirish; kuzatish metodi, so‘rovnoma,eksperimental metod, qiyosiy –tahlil metodi, induktiv va deduktiv metodlari. Pedagogik kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur.

Ta’lim jarayonida kreativ fikrlashga oid kuzatuvning o‘ziga xos tomonlari va uni tashkil qiluvchi jihatlarini aks ettiradi. Bu model kreativ fikrlash borasida maslahatchi ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan kreativ fikrlashning 5 o‘lchamli modeli asosida ishlab chiqilgan.

“Competence” — ingliz tilidan olingan bo‘lib lug‘aviy jihatdan qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa pedagogik faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish,yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat, iste’dod va iqtidorni namoyon eta olishni yoritishga xizmat qiladi.



1-rasm. Ta’lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyatlari.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda o‘qituvchining o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirisha olish madaniyati, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi. [4, 8]

Pedagogik kompetentlik — mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi hisoblanadi:

– psixologik kompetentlik — pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

– metodik kompetentlik — pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

– informatsion kompetentlik — axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

– kreativ kompetentlik — pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

– innovatsion kompetentlik — pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

– kommunikativ kompetentlik — ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

– **texnologik kompetentlik** — kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish [4, 9].

2- rasm. Pedagogik faoliyatning tarkibiy asoslari

M.I.Kalinin o‘qituvchilarga qarata shunday degan edi: “O‘qituvchi uzini butun kuch-quvvatini, imkonini, o‘zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o‘z o‘quvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o‘rtoqlar, agar siz o‘zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o‘zingizda bunda o‘z bilimlaringizni, o‘z kuchingizni, o‘z quvvatingizni yana va yana to‘ldirib bormasangiz, u holda o‘zingizda hech narsa qolmaydi-ku, axir. O‘qituvchi, bir tomondan, o‘zida borini beradi, ikkinchi tomondan, xuddi gubka kabi o‘ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi”.

O‘z ustida ishlash — pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

– kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
– faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
– kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
– ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
– salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
– ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

O‘qituvchilar samarali o‘qituvchi bo‘lishlari uchun o‘z fanining mutaxassisi bo‘lishi, pedagogik tajribasini bilish bilan birga turli xil kasbiy rivojlanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak [5, 20].

Tabiiy fanlar savodxonligi — shaxsning tabiiy fanlar rivoji va ularning yutuqlaridan foydalanish bilan bog‘liq masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati. Tadqiqotda baholanadigan tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar maktabdagi tabiiy fanlar, fizika (astronomiya elementlari bilan), biologiya, kimyo, geografiya fanlarini o‘rgatilayotganda shakllanadi.



3-rasm. O‘qituvchining o‘z ustida ishlash bosqichlari

Biz ham ushbu maqolada aynan shu xalqaro PISA baholash dasturi o‘quvchilarini tanqidiy tahlil, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga hamda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan tanishtirib kimyo faniga oid namunalarni havola etamiz [6, 223-224].

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘qitishda kreativ va integrativ o‘qitish talabalarni fikrlashni rivojlantirib, materialni (mavzuni) eslab qolishga emas, muammoni qo‘yish va uni yechish uchun izlanishga intilishni ilgari suradi, demak ta’lim oluvchilarni kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini orttirish, intellektual rivojlanishini ta’minlashda ularni mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltiradigan intellektual topshiriqlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish. Ta’lim jarayonida intellektual topshiriqlardan foydalanish bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarda mustaqil fikrlashga, ijtimoiy-ma’naviy tafakkurining kuchayishiga yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ularni ilm olishga bo‘lgan qiziqishlari ortishi, bilim, ko‘nikma va malakalarni chuqur egallashga katta imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-4312785
2. 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4884-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5085887
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3931-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-38934
4. B.B.Sodiqov, D.M.Murodov. “Kimyo fanini o‘qitishda integrativ va kreativ yondashuv” //monografiya. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024. – 112 b.
5. N.S.Xujayarova. “Pedagogik mahorat” // o‘quv qo‘llanma. – Qarshi: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2023. – 202 b.
6. Ixtiyorova G.D, Ahadov M.Sh. “Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar” //o‘quv qo‘llanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2019. – 230 b.

THE USE OF MODERN APPROACHES TO TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Nargisa Ergashevna,
Lecturer, Termez State University

Annotation

This article is about modern approaches to teaching English in preschool educational institutions. The importance of a foreign language and the types of new pedagogical methods in learning a foreign language and the methods of its application in the lesson and the practical importance of effective use of the methods are discussed. It is also about the methods and approach of their application. The creation of abilities and their development should be guided by the age and unique qualities of each child when designing the methodology for direct educational activities related to language acquisition.

Keywords: *Materials and methods, modern approaches, “jump,” “run,” or “eat”, educational apps, interactive whiteboards.*

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishdagi zamonaviy yondashuvlar haqidadir. Chet tilining ahamiyati va chet tilini o‘rganishda yangi pedagogik usullarning turlari va uni darsda qo‘llash usullari hamda metodlardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ularni qo‘llash usullari va yondashuvlari haqidadir. Tilni o‘zlashtirish bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyati metodikasini ishlab chiqishda qobiliyatlarni yaratish va ularni rivojlantirish har bir bolaning yoshi va o‘ziga xos fazilatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *Materiallar va usullar, zamonaviy yondashuvlar, “sakrash”, “yugurish” yoki “ovqatlanish”, o‘quv dasturlari, interfaol doskalar.*

Аннотация

Данная статья посвящена современным подходам к преподаванию английского языка в дошкольных образовательных учреждениях. Обсуждается значение иностранного языка и виды новых педагогических методов изучения иностранного языка и способы их применения на уроке, а также практическая значимость эффективного использования этих методов. Речь также идет о методах и подходах их применения. Создание способностей и их развитие должны руководствоваться возрастом и уникальными качествами каждого ребенка при разработке методики непосредственной образовательной деятельности, связанной с овладением языком.

Ключевые слова: *Материалы и методы, современные подходы, “прыгать”, “бегать” или “есть”, обучающие приложения, интерактивные доски.*

Preschool education currently receives emphasis from the state in relation to social, economic, and spiritual development. Conditions are established for our young in order for them to become modern, fully competent personnel. Furthermore, in the age of ascension, knowledge is concentrated and there is still much to learn.

The process of globalization requires people to learn several foreign languages in addition to their mother tongue. Current research shows that starting this process at an early age is more effective. In our country, strict attention is paid to this issue, programs are being developed based on a new approach to teaching foreign languages, especially English, in cooperation with the world’s leading organizations and universities. The use of games in teaching helps to maintain interest in the English language, and also makes it easier to assimilate, consolidate and master the lesson material. The process of the game itself is also suitable for learning; in such an environment information is understood better than in a lesson. This is joyful and useful in itself. This is the best way to teach English to preschool children [5, 1736].

In the last 3 years, this process is developing especially in preschool education. Large-scale projects on teaching English are being implemented in state-owned and private pre-school educational organizations. This article highlights the importance of using educational games in teaching Foreign languages, especially English, in early childhood, and the easy acquisition of language skills through various games [4, 54].

Pre-school education is the first stage of education and upbringing of our youth is considered the right preschool education program for our children’s unique intelligence should help them grow and learn appropriately. But children unlike adults, they don’t learn to think about the future. In English the lesson should be held in the sense of “right here and now”. Children foreign language they learn more easily by understanding stories or winning games. If they want, the information they have learned through the games with their participation they will strengthen [1, 32].

Teaching English in preschool educational institutions has evolved over time, incorporating various modern approaches that focus on making language learning enjoyable, interactive, and developmentally appropriate for young children. Here are some modern approaches commonly used in preschool settings:

1. ***Total Physical Response (TPR):*** TPR is a tea-

ching method that involves using physical movement to reinforce language learning. In a preschool setting, teachers may use actions, gestures, and games to help children associate English words with their meanings. For example, they might act out verbs like "jump," "run," or "eat" while saying the corresponding words. TPR engages students in kinesthetic learning, which involves using physical movement to internalize new language concepts. For preschoolers, who are often naturally active and tactile learners, this approach is particularly effective in helping them grasp vocabulary and language structures. By associating specific actions or gestures with English words, children can more easily understand and remember their meanings. For example, when a teacher acts out the verb "jump" while saying the word, children make a direct connection between the action and the word, enhancing their comprehension. TPR encourages active participation from students as they mimic the teacher's movements and actions. This active involvement not only keeps children engaged but also reinforces their understanding of the language in a fun and interactive way.

In children, attention, memory and perception can be formed without difficulty through the game. Because the child feels free during the game. While playing the game also willingly accepts information. That is, it is given through game activity information is stored in children's memory without problems. This place is pedagogical and technological learning English based on physiological factors is a guarantee of results [2, 1001].

2. ***Storytelling and Story-based Learning*:** Storytelling is an effective way to engage young children in language learning. Teachers can use picture books, puppets, or storytelling sessions to introduce English vocabulary and grammar in a meaningful context. Story-based learning encourages listening skills, comprehension, and vocabulary acquisition while fostering creativity and imagination. Story-based learning provides a natural context for introducing new vocabulary and grammar concepts. When words and grammar are used within the context of a story, learners can better understand their meanings and usage. Children are naturally drawn to stories, puppets, and colorful illustrations. By incorporating these elements into language learning, teachers can capture students' attention and keep them engaged throughout the lesson. Storytelling sessions require students to listen actively in order to follow the plot and understand the story. This helps develop their listening skills, which are essential for language acquisition.

According to the constructive approach, children as much as possible they should learn the meaning of words and rules in the language. This it also helps them develop their basic thinking skills. All students, children have different learning styles. For children targeted education takes into account all learning styles. Tactic and kinesthetic types of learning require special attention from the student. In primary schools students' talents, skills, knowledge and interests will be wider. Foreign language learning, as well as the learner's ability to understand well depends [1, 32].

3. ***Music and Songs*:** Music and songs are powerful tools for language acquisition in preschoolers. Teachers can use catchy songs with repetitive lyrics to introduce and reinforce English vocabulary and phrases. Singing encourages participation, enhances memory retention, and makes language learning fun and enjoyable for children. Singing together promotes social interaction and collaboration among children [2, 1001]. Group singing activities encourage communication, cooperation, and teamwork, creating a supportive learning environment where children can learn from each other and build social skills.

Music and songs capture children's attention and engage them actively in the learning process. The catchy tunes and rhythmic patterns make language learning enjoyable and memorable for young learners. Many children's songs feature repetitive lyrics, which reinforce vocabulary and phrases through repetition. Repetition is crucial for language acquisition as it helps children internalize new words and phrases more effectively. The combination of melody and lyrics helps children retain language more easily. Research has shown that music enhances memory retention by providing multiple cues (melody, rhythm, lyrics) that aid in storing and retrieving information.

4. ***Multisensory Activities*:** Incorporating multisensory activities engages different senses and learning styles, making language learning more effective. Activities such as finger painting, sensory bins, and hands-on crafts can be adapted to incorporate English vocabulary and language concepts, providing a holistic learning experience for preschoolers. In all these activities, the key is to create a language-rich environment where English vocabulary and language concepts are seamlessly integrated into hands-on experiences. By engaging multiple senses and learning styles, preschoolers are more likely to retain information and develop a deeper understanding of the English language. Moreover, these activities foster creativity, critical thinking, and social interaction, enhancing the overall learning experience for young learners.

This form of teaching language skills and speaking skills creates favorable conditions for mastering. The ability to trust the performance of the game is foreign to give a natural impetus to speech in the language; even the simplest expressions are interesting and make it meaningful. Playing in foreign language teaching is contrary to educational activity not, but organically connected with it [3, 39].

5. ***Play-based Learning*:** Play is a natural and essential part of early childhood development. Integrating English language learning into play-based activities allows children to learn language in a meaningful and enjoyable way. Teachers can set up language-rich play environ-

ments, such as dramatic play centers or themed learning corners, where children can interact with English language materials through play.

6. ***Technology Integration*:** Modern preschool classrooms often incorporate technology as a tool for language learning. Educational apps, interactive whiteboards, and multimedia resources can be used to engage children in English language activities, such as interactive games, digital storytelling, and virtual field trips, enhancing their exposure to the language in a dynamic and interactive way.

By integrating these modern approaches into preschool English language instruction, educators can create enriching learning environments that support children’s language development, cultural awareness, and lifelong love for learning languages. Introducing children to English language and culture from an early age promotes global awareness and cultural appreciation. Teachers may incorporate elements of English-speaking cultures into their lessons through literature, celebrations, and cultural activities.

Collaboration between teachers and parents is crucial for supporting children’s language development. Preschools may provide resources and guidance for parents to continue English language learning at home through activities, games, and conversations, fostering a strong home-school connection and reinforcing language learning outside of the classroom.

In conclusion, it should be said that children’s interest is based on their daily activities and games. Therefore, it depends on the skill of the pedagogue to teach the scientific direction by connecting it to everyday tasks and interests. It is necessary to develop interest in English language in preschool children and to teach lessons in an interesting way. In this regard, the use of innovative methods in English lessons develops students’ ability to think logically and independently, makes their oral speech fluent, fast and clear.

The use of these approaches are valuable tools for language acquisition in preschoolers due to their ability to engage children, facilitate repetition and memory retention, encourage active participation, improve pronunciation, evoke emotions, expose children to culture, and integrate with other learning activities. By incorporating music and songs into language teaching, teachers can create a dynamic and effective learning environment that fosters children’s language development in a fun and enjoyable way.

REFERENCE:

1. Abduolimova Mohina Farhod qizi. “Maktabgacha ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasi”. Educational research in universal sciences, vol. 1, no. 6, Zenodo, Nov. 2022, pp. 31–34, doi: 10.5281/zenodo.7355011

2. Z. Eshonqulova, and S. Saimova. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rganishni didaktik loyihalashtirish” Science and innovation, vol. 1, no. B8, 2022, pp. 1000-1002. doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.7400504

3. Mustafoyeva Sitorabonu. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish usullari” Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, vol. 3, no. 5, 2022, pp. 38-42. https://doi.org/10.5281/zenodo.6696329

4. Allamuratov G’ofur Ashurovich. “MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA SAMARALI PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI”. *Ustozlar Uchun*, vol. 17, no. 2, Apr. 2023, pp. 53-61, https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/3922.

5. Djumabaeva, Jamila & Sayfullaeva, Rano & Mamatova, Dilnoza. (2022). Journal of Positive School Psychology. Modern Methods Of Teaching English In Preschool Institutions. 1735-1742.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA USLUB VA STRATEGIYALARNING O‘RNI

Xurshid Xakimov,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
p.f.f.d.(PhD)
Madina Farmonova,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini oshirishga kompleks yondashuv o‘quv jarayonining barcha jabhalarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv zamonaviy mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, o‘qitishning interfaol usullaridan faol foydalanish, qulay ta’lim muhitini yaratish uchun universitet infratuzilmasini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim sifatini oshirishda faol ta’lim va pedagogik innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *ta’lim dastur, individual ta’lim, mehnat bozori, motivatsiya, innovatsiya, loyiha, muammoli ta’lim.*

Аннотация

Комплексный подход к повышению качества образования в высших учебных заведениях включает систему мер, направленных на улучшение всех сторон образовательного процесса. Данный подход включает модернизацию образовательных программ с учетом требований современного рынка труда, активное использование интерактивных методов обучения, развитие университетской инфраструктуры для создания комфортной образовательной среды, повышение квалификации профессорско-преподавательского состава и внедрение инновационные технологии в образовательный процесс. Активное образование и педагогические инновации имеют особое значение для повышения качества образования

Ключевые слова: *Образовательная программа, индивидуальное обучение, рынок труда, мотивация, инновации, проект, проблемное образование.*

Annotation

An integrated approach to improving the quality of education in higher education institutions includes a system of measures aimed at improving all aspects of the educational process. This approach includes the modernization of educational programs taking into account the requirements of the modern labor market, the active use of interactive teaching methods, the development of university infrastructure to create a comfortable educational environment, advanced training of teaching staff and the introduction of innovative technologies into the educational process. Active education and pedagogical innovation are of particular importance in improving the quality of Education

Keywords: *Educational program, individual training, labor market, motivation, innovation, project, problem-based education.*

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston yangi yangi yangiliklar davrini boshladi. Xalqning farovonligi va iqtisodiy barqarorligi hamda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash bosh strategik maqsadlar sifatida tan olingan. Ta’lim tizimi rivojiga alohida e’tibor qaratilgan, chunki har qanday strategik strategiya va maqsadlarga erishishda muhim bo‘lgan yirik o‘lchov, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan salohiyatli kadrlarni rivojlantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik va ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, maqsadli ko‘rsatkichlar asosida va konsepsiyasini 2019, 2020 va 2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari”da belgilangan vazifalar ijrosi asosida hozirgi oliy ta’lim tizimi oldingi faoliyatidan keskin farq qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hozirgi ta’lim jarayonida dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirishda respublika olimlarining izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy izlanishlari xulosasi tegishli ta’lim yo‘nalishi tarmoqlari bo‘yicha olib borilgan. Jumladan: A.I.Avazbayevning izlanishlari texnologik ta’limda kompetentli yondashuv ta’lim sifatini oshirish omili sifatidagi ilmiy faoliyatga bag‘ishlangan. A.Mavlyanov bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo‘lidagi izlanishlari, dotsent R.Y.Mamajanovning oliy ta’limda o‘qitish sifatini oshirish muammolari va ta’lim sifatini oshirishning o‘ziga xos

jihatlarini o‘rganishga oid qarashlarini alohida ta’kidlash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish kompleks yondashuvni, turli uslub va strategiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan bir qancha usullar mavjud.

1-rasm. Oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish usullari

Faol ta’lim va pedagogik innovatsiyalar. Muammoli ta’lim, loyihaga asoslangan usullar, fikr-mulohazalar va ta’lim jarayonida texnologiyadan foydalanish (jumladan, onlayn platformalar va interfaol vositalar) kabi faol ta’lim usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ta’lim sifatini oshirishda faol ta’lim va pedagogik innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Ular bunga qanday hissa qo‘shishlari mumkin. Buni bir qancha variantlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Shunday qilib, ta’limdagi texnologiya nafaqat o‘quv jarayonini boyitadi, balki uning samaradorligi, qulayligi va moslashuvchanligiga hissa qo‘shadi, bu esa ta’limni uning barcha ishtirokchilari uchun yanada jozibador va samarali qiladi.

Qayta aloqaning interfaol usullari. Anonim so‘rovlar, o‘quvchilar sharhlari va muntazam maslahatlarni o‘z ichiga olgan qayta aloqa tizimini joriy etish o‘qituvchilarga o‘z ta’lim usullarining samaradorligini baholash va ta’lim jarayonini yaxshilash uchun tuzatishlar kiritishga yordam beradi.

Ta’lim sifatini oshirishda fikr almashishning interfaol usullari muhim o‘rin tutadi. Ular bunga qanday hissa qo‘shishlari mumkin, buni adabiyotlar tahlili ostida ko‘rib chiqamiz.

Interfaol usullar talabalarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Anonim so‘rovlar, onlayn so‘rovlar va fokus-guruhlar kabi interaktiv qayta aloqa usullari o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishga yordam beradi, chunki ular o‘z fikrlari inobatga olinishi va qadrlanishini ko‘rishadi. Ta’lim jarayoni samaradorligini baholashda interfaol usullar o‘qituvchilarga o‘z o‘qitish usullari samaradorligini va dars mazmunini bevosita talabalardan baholash imkonini beradi. Bu ta’lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va uni yaxshilash uchun tuzatishlar kiritishga yordam beradi.

Loyiha asosida o‘qitish va amaliy ko‘nikmalar. Haqiqiy kasbiy vaziyatlar bilan bog‘liq loyihalar, amaliyotlar, amaliyotlar va amaliy ishlarni o‘tkazish amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat bozoriga moslashish va talabalarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

2-rasm. Loyihaga asoslangan o‘qitishning ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari

Loyihaga asoslangan o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘plab sabablarga ko‘ra ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Loyihaga asoslangan ta’lim — ta’lim jarayonida loyiha va amaliy topshiriqlardan foydalanishga asoslangan o‘qitish metodi. Bu usulda talabalar real yoki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan aniq loyihalar yoki topshiriqlar ustida ishlaydilar.

Loyihaga asoslangan ta’lim — o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va motivatsiyani rivojlantirishga yordam beruvchi, shuningdek, ularning o‘quv va kasbiy tayyorgarligini oshiradigan samarali o‘qitish usulidir.

Loyiha asosida o‘qitish talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi, bu esa ularga materialni yaxshiroq tushunish va uni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Amaliy masalalar va loyihalarni yechishda analitik ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash va real muammolarga yechim topish qobiliyati talab etiladi, bu esa o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Loyihalar bo‘yicha jamoalarda ishlash samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish va nizolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi, bu esa muloqot qobiliyatlari va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Loyiha asosida o‘rganish orqali olingan amaliy ko‘nikmalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri real hayot va ish joyiga taalluqlidir. Bu bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirishga tayyor bo‘lishiga va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda loyiha ijodiy fikrlash va innovatsiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, tashabbus ko‘rsatishga va innovatsion yechimlarni izlashga undaydi, shu orqali innovatsion salohiyat va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Umuman olganda, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish o‘qituvchilarning ta’lim sifatini oshi-

rish va o‘z kasbiy rivojlanishiga qaratilgan doimiy sa’y-harakatlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli faoliyat va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi [3, 4].

Tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’lim jarayoniga tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikmalar, axborot bilan ishlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan usullarni joriy etishni nazarda tutadi.

Tanqidiy fikrlash — bu asosli dalillar asosida tahlil qilish, baholash va mulohazalar yoki qarorlar shakllantirish qobiliyati. Bu nafaqat fikrlash jarayoni, balki odamlarga duch keladigan ma’lumotlar, g‘oyalar va vaziyatlarni ongli va tanqidiy baholash imkonini beradigan mahoratdir.

Tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tahlil: Murakkab muammolarni tarkibiy qismlarga ajratish, munosabatlarni aniqlash va asosiy jihatlarni tushunish qobiliyati.

Baholash: Axborot va g‘oyalarning ishonchliligini, ahamiyatini va oqibatlarini aniqlash uchun ularni baholash qobiliyati.

Sintez: yangi tushunchalar, yechimlar yoki istiqbollarni yaratish uchun turli g‘oyalar va ma’lumotlarni birlashtirish qobiliyati.

Mulohaza: O‘z fikrlari, e’tiqodlari va xatti-harakatlari haqida tanqidiy fikr yuritish va konstruktiv tanqidni qabul qilish qobiliyati.

Tanqid: boshqa odamlarning g‘oyalari, dalillari va qarorlarini tahlil qilish va baholash, boshqalarning fikrini hurmat qilgan holda o‘z fikrlari va nuqtayi nazarlarini ifodalash qobiliyati.

Tanqidiy fikrlash kundalik hayotda va kasbiy faoliyatda muhim rol o‘ynaydi, chunki u odamlarga ongli va asosli qarorlar qabul qilish, ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish, nizolarni hal qilish va hayotning turli sohalarida yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Bu ko‘nikma, ayniqsa, tanqidiy tahlil va baholashni talab qiluvchi ma’lumotlarning ko‘pligi va nuqtayi nazarlari xilma-xilligiga duch kelayotgan bugungi axborot jamiyatida muhim ahamiyatga ega [1, 17].

Individual ta’lim va talabalarni qo‘llab-quvvatlash. Individual ta’lim uchun sharoit yaratish, dasturlarni talabalarning turli ehtiyojlariga moslashtirish, o‘quv jarayoniga faol jalb qilish va talabalarni, ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash.

Ta’limga individual yondashuv. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ularga o‘quv jarayonida tanlash imkoniyatini berish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari yaxshiroq o‘rganishga va har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limga individual yondashuv o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan. Bunday yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi ya’ni ta’limga har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, uning qobiliyatini, bilim darajasi va qiziqishlarini hisobga oladigan yondashuvdir.

Individual yondashuvda yuqori natijalarga erishishda ta’lim dasturini moslashtirish, har bir talabaning individual ehtiyojlari va o‘rganish tezligiga moslasha oladigan ta’lim dasturlarini yaratish kerak bo‘ladi. Shu bilan birgalikda individual ta’lim usullari, fikr-mulohaza va baholash, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik, shaxsiylashtirilgan ta’lim texnologiyasi, moslashtirilgan ta’lim tajribasini yaratish uchun moslashtirilgan ta’lim dasturlari, onlayn resurslar va shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab etadi [2, 23].

Baholash va teskari aloqa. Talabalarning bilim va malakalarini baholashning samarali tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, ta’lim jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan fikr-mulohazalar. Talabalarni baholashning samarali tizimlari muvozanatli, obyektiv va talabalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak.

Baholash usullarining xilma-xilligi. Talabalarning xilma-xil ta’lim yutuqlarini to‘liqroq baholash uchun yozma imtihonlar, og‘zaki imtihonlar, amaliy topshiriqlar, loyihalar, inshootlar, portfoliolar va boshqalar kabi turli baholash usullarini birlashtirish [1, 12].

Shaffoflik va adolatlilik. Baholash jarayonida shaffoflik va adolatni ta’minlash, shu jumladan mezonlar va taxminlarni aniq tushuntirish, barcha talabalarga adolatli va teng munosabatda bo‘lish.

Baholash tizimi nafaqat bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, hamkorlik va ijodkorlik kabi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham hisobga olishi muhim. Shuning uchun samarali baholash tizimi integratsiyalangan bo‘lishi va o‘quvchilarni o‘rganish va rivojlantirish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Biznes va jamiyat bilan hamkorlik. Ta’lim dasturlari, amaliyotlar, amaliyotlar va bitiruvchilarni keyinchalik ishga joylashtirishning dolzarbligini ta’minlash maqsadida korxonalar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini doimiy o‘rnatish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ish beruvchining ehtiyoji va talabiga asosan mutaxassislar tayyorlash oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ilmiy tadqiqot faoliyati: talabalar va o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga yangi bilim va texnologiyalarni joriy etish va integratsiya qilish.

Samarali sifat menejmenti: ta’lim sifatini ichki va tashqi nazorat qilish tizimini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish.

Ta’lim sifatining ichki va tashqi nazorati ta’lim jarayoni va uning natijalarini monitoring qilish va baholashning

ikki xil tizimidir. Odatda har biriga quyidagilar kiradi:

Ta’lim sifatini ichki nazorat qilish.

O‘z-o‘zini baholash va monitoring: Ta’lim muassasalari muntazam ravishda o‘quvchilarning o‘quv natijalari va yutuqlarini o‘z-o‘zini baholash va monitoring qilish orqali o‘z faoliyatini baholaydilar.

Sifat menejmenti: o‘quv dasturlari, o‘quv materiallari va o‘qitish usullari sifatini nazorat qilish tartiblari, standartlari va mexanizmlarini o‘z ichiga olgan ichki sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Fakultetni baholash: o‘qituvchilarning malakasi va samaradorligini baholash, jumladan, ularning kasbiy ma’lumotlarini, o‘qitish usullarini va ta’lim maqsadlariga aloqadorligini baholash.

Xulosa qilib aytsak, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish kompleks yondashuv va qator tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan yuqorida mazmuni ochib berilgan usullarni o‘qitish jarayoniga integratsiyasi ta’minlansa, yetuk malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хакимов Х. Н. ЖИСМОНИЙ ВА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 483.

2.Хакимов Х. Н. ЖИСМОНИЙ ВА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 483.

3. Асланов К. П., Хакимов Х. Н., Акрамова Г. М. МЕСТО ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2015. – №. 9. – С. 138

4. Arslonov Q. P., Xakimov X. N. Peculiar especially sport holidays in the life of the young generations //Europaische Fachhochschule. – 2014. – №. 3. – С. 251.

5. Farmonova M. A. TA’LIM UMUNDORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O‘RNI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.141.B

6. X.N.Xakimov. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma’naviy-axloqiy tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik-psixologik imkoniyatlari // Psixologiya. – 2019. – №1. – С. 82.

TORTINCHOQ VA UYATCHAN BOLALARDA KREATIV QOBILIYATLARNI O‘STIRISH

Aziza Bobokeldiyeva,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar duch keladigan va ota-onalar tomonidan ko‘plab savollarga sabab bo‘layotgan bolalardagi tortinchoqlik va uyatchanlik hamda uning natijasida bola o‘zini to‘liq namoyish eta olmasligi, ijodkorlik va kreativ qobiliyatlarni yuzaga chiqara olmasliklari, qolaversa, buning natijasida ulardagi iste’dodni erta so‘nishi va bu muammoni bartaraf etish mas’uliyati ota-onalar zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligi to‘g‘risida yoritib berilgan. Qolaversa, boladagi tortinchoqlik va uyatchanlikni turli mashqlar va o‘yinlar orqali bartaraf etish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *qobiliyat, iste’dod, layoqat, muhit, ijodkorlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, harakat, munosabat, hissiyot, adekvat, ishonch, tanbeh, e’tibor, muloqot, suhbat, yosh, bolalik, rivojlanish, shakllanish, kreativlik, temperament, pozitsiya, daraja, mas’uliyat, tasavvur.*

Аннотация

В данной статье рассмотрена застенчивость и застенчивость у детей, с которыми сталкиваются дети дошкольного и младшего школьного возраста и которые вызывают множество вопросов у родителей, в результате чего ребенок не может в полной мере проявить себя, не может раскрыть творческие способности и творческие способности и т.д. в результате чего их талант рано угасает и ответственность за устранение этой проблемы выделяется как одна из главных задач родителей. Кроме того, ведутся разговоры о способах преодоления застенчивости и застенчивости у детей с помощью различных упражнений и игр.

Ключевые слова: *способности, талант, способности, окружение, творчество, застенчивость, застенчивость, действие, отношение, темперамент, адекватность, уверенность, упрек, внимание, общение, беседа, возраст, детство, развитие, формирование, креативность, темперамент, позиция, уровень, ответственность, воображение.*

Annotation

In this article, shyness and shyness in children, which are faced by children of preschool and primary school age and cause many questions from parents, and as a result, the child cannot fully express himself, cannot reveal creativity and creative abilities, etc. , as a result of which their talent fades away early and the responsibility to eliminate this problem is highlighted as one of the main tasks of parents. In addition, there is talk about ways to overcome shyness and shyness in children through various exercises and games.

Keywords: *ability, talent, ability, environment, creativity, shyness, shyness, action, attitude, temperament, adequacy, confidence, rebuke, attention, communication, conversation, age, childhood, development, formation, creativity, temperament, position, level, responsibility, imagination.*

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi Prezidentimiz. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi [1].

Har bir oilada dunyoga kelgan farzand ota-onasi va uning yaqinlari uchun olloh tomonidan berilgan buyuk bir ne’matdir. O‘sha buyuk ne’matni ulug‘ qiladigan narsa-bu yaxshi ta’lim-tarbiya sanaladi. Farzandlarimizni kelajagini porloq bo‘lishi, ularning qalbida ota-onaga, oilaga, vatanga, yurtga, kasbiga, farzandlariga mehribon, g‘amxo‘r, adolatli bo‘lish hissini shakllanishida biz tomonimizdan beriladigan to‘g‘ri va oqilona ta’lim-tarbiyaga bog‘liqdir, buni aslo yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Bolalarimizni kimlargadir qiyoslab tanqid qilamiz, yaxshi inson bo‘lishiga harakat qilamiz. Farzandlarimizga yaxshi, go‘zal ishlar qilgan buyuk kishilarning hayoti haqida yozilgan kitoblarni o‘qib beramiz [6, 116]. Ammo har doim ham bola bilan munosabat qilayotganimizda biz ota-onalar tomonidan qilinadigan qo‘pol xatolarimizni anglab yetmaymiz. Oila va bola tarbiyasi muammosi hamma vaqt dolzarb masala bo‘lib kelgan. Oila muhiti qanchalik axloq-odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo‘lsa, bola shaxsining to‘g‘ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo‘lib yetishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga juda qattiqqo‘llik, juda mehribonlik qilish ham yaramaydi. Juda talabchanlik bolani shaxslararo munosabatida chegara hosil qilsa, haddan ziyod muloyimlik esa bola qobiliyatlarini so‘ndiradi. Bolalarda tortinchoqlik, o‘z fikrini bayon eta olmaslik, tengqurlari bilan muloqot o‘rnata olmaslik bu uni tortinchoq qilib qo‘yadi va natijada bola qobiliyatini ham o‘z imkoniyatlarini ham yopib qo‘yadi. Ayniqsa, maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalarda o‘z fikrini to‘liq aytolmasligi, shaxslararo munosabatda kirishimlilik xususiyatlarining pasayib ketishi, bola layoqati va ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta olmasligi natijasida kreativlikning so‘nishiga olib keladi. Buni bolani erkin gapira olmasligida, kattalar davrasida, begonalar orasida o‘zini noqulay his qilishi, uyalishi, tortinishi bolani intiluvchanligini, shijoatliligini pasaytiradi. Xo‘sh, tortinchoqlik o‘zi nima?, bolada tortinchoqlik qachon va qanday paydo bo‘ladi? Tortinchoqlik — bu o‘z qobig‘iga to‘la o‘rab olingan, o‘zini namoyon qilishga uyaladigan, xatti-harakatlarining ongi orqali qat’iyan boshqariladigan xususiyatdir. Amerikalik psixolog va psixoterapevt L.Xey ko‘pgina kitoblarda, ota-ona farzandga qanday munosabatda bo‘lsa, bola ham o‘ziga nisbatan shunday munosabatda bo‘lishini yozib borgan. Bolada xuddi ota-onasi kabi o‘zini urishishi va o‘zini hurmat qilmaslik holatlari mavjud bo‘ladi. O‘zini hurmat qilmaslik, yaxshi ko‘rmaslikdan insonda ko‘pgina psixologik, hattoki fiziologik muammolar keltirib chiqaradi. Uning tavsiyasiga ko‘ra, “har qanday vaziyatlarda ham, inson hech qachon, o‘zini qattiq tanqid qilish kerak emas, o‘zini hurmat qilishi va adekvat baho berish kerak” [2, 31].

Oilada bolani tortinchoq bo‘lib qolishida ota-onalarning farzandiga munosabat qilish pozitsiyasiga ham bog‘liq. Bolaga to‘g‘ri munosabatda yondashish oiladagi, bola tarbiyasidagi bir qancha muammolarini yechimini bartaraf etadi. Shu nuqtayi nazardan oilada ota-onaning asosiy vazifalari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

– bolalarda o‘z-o‘zini ijobiy qabul qilishini rivojlantirish;

– o‘ziga nisbatan ishonchni va adekvat baho berishni shakllantirish;

– bolada o‘zining kuchli, muhim, sifat xususiyatlarini tarbiyalash kerak. Bularning barchasi odamlar bilan muloqot o‘rnatishga yordam beradi.

Psixoterapevt va psixolog V.Levi, o‘zini hurmat qilishning bir necha qoidalarini ko‘rsatib o‘tgan:

– o‘zingizni o‘zgalar bilan solishtirmang, chunki har bir inson-individualdir;

– o‘zingizni baholashga harakat qilmang;

– o‘zini borligicha qabul qilish.

Ota-onalar bolalardagi “Men” obrazini rag‘batlantirishdan boshlashi kerak, ya’ni bolani to‘g‘ri maqtash qoidalari, bolani kattalar tomonidan rag‘batlantirilib turilishi, bolaning qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi tomondan ko‘ra bilishga asoslanadi. Bolaning arzimagan

xoh katta, xoh kichik bajargan ishlari, yutuqlari uchun uni maqtang. Muhimi, kattalar bolani qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishini o‘rganmog‘i, uning yutuq va kamchiliklarini imo-ishoralarini, tovush ohangini hisobga olishi kerak. Tanbeh berish va qo‘llab-quvvatlash: e’tiborli jihatlaridan biri shuki, bolalar ko‘pincha kattalar taqiq va tanbehlarining mazmunini e’tiborsiz nazar, tanqid qilinish holatining o‘zini kattalarning salbiy munosabati sifatida qabul qiladilar [2, 30].

Psixoterapevt A.Buss o‘zining ishida shuni ta’kidlaganki, qachonki bola o‘zini o‘zgalar oldida noqulay va tajanglikni his qilar ekan u shunchalik, har bir inson hayotda erishish mumkin bo‘lgan yutuqlardan va hayotning unga berilayotgan imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi. Tortinchoqlik muammosi turli xil yoshda hal etilishi mumkin, lekin asosiy e’tiborni kichik bolalik davriga qaratilishi kerak. Chunki muammoning asosiy negizi bolalik davri hisoblanadi. Bolaning muloqotga kirisha olishi, insonlarni yoqtirishi, notanish insonlar orasida o‘zini erkin tutishi, tengdoshlari jamoasiga kira olishi, o‘zining shaxsiy qiziqishlari tufayli biron-bir faoliyatda o‘zini ko‘rsata olishi hamda hayotida uchraydigan omadsizliklarni yengil qabul qila olish xususiyatlari bolaning normal shaxs sifatida shakllanishida juda muhimdir. Tortinchoqlikni bartaraf etishda, avval uni yuzaga keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavotirlikni va ularga nisbatan ta’sirlanish ko‘rinishlarini aniqlash kerak” [2, 31].

Muloqotchanlikni rivojlantirish tortinchoqlikni yengishda yordam beradi. Buning asosiy sababi bola bilan ko‘proq suhbatlashish bolada qobiliyatlarni rivojlantirishga hamda o‘zini to‘liq namoyon etishga imkoniyat yaratiladi, shu bilan bir qatorda bolani tortinchoq bo‘lishini keltirib chiqaradigan omillar ham aniqlanadi va bartaraf etish uchun zamin yaratadi. Shundagina, kutilmagan uchrashuvlarda bola o‘zini noqulay his etmay, jimlikni saqlab turmay, muloqotga kirisha oladi. Agar bola jim turib, nimadir aytishni bilmasa, unda u bu paytda, o‘zini juda noqulay his qilib, xayolida xunuk ko‘rinayotgan ko‘pgina vaziyatlarni o‘ylayotgan bo‘ladi. Qachonki, tortinchoq odam o‘zining suhbatdoshiga qiziqish uyg‘otib, uning gaplarini diqqat bilan eshitishni boshlasagina, uning xayolidagi salbiy fikrlari o‘z-o‘zidan tarqalib ketadi. Shuning uchun muloqot jarayonida, tabassum, bosh bilan ma’qullash harakati, diqqat bilan eshitish, gapni boshlash va suhbatni tugatish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni mashq qildirish, o‘zaro suhbatning ijobiy yakunlanishiga olib keladi.

Tortinchoq bolalar ichidagi “men”ini chiqara olmaydilar. Vaholanki, tortinchoqlik uni vazifalar va topshiriqlarni to‘liq mohiyatini ochib berishga to‘sqinlik qiladi, natijada ilk kichik sinflarda tahsil olishni boshlagan bolalarda so‘z boyligining kamayishi, she’r, og‘zaki matnlarni bayon etishda duduqlanish, ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini so‘ndiradi. Chunki bola qancha o‘zini namoyon etar ekan undagi ham yozma, ham og‘zaki qobiliyatlar rivojlanib, bir-birini to‘ldirib boradi. Ayniqsa, birinchi sinfga chiqadigan bolalar uchun bu muhimdir. Tengdoshlari bilan erkin o‘ynashga, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirishga, qolaversa, bolaning ham so‘zlarini erinmay tinglashga harakat qilish zarur. Bolani muloqot doirasidan o‘zini tortishi, atrofdagilardan o‘zini holi tutishi va nima sababdan bunday qilishini u bilan ota-ona sifatida emas uning eng yaxshi ko‘rgan ertak qahramonlari ya’ni do‘sti timsolidagi ko‘rinish orqali amalga oshirish yaxshi natija beradi.

A.Dobrovichning fikricha, ko‘pgina insonlar, shuningdek tortinchoqlar ham niqob qiyib yurishadi. “Niqob — bu muloqot qilmasdan, muloqot qilish usulidir. Inson muloqot jarayonida himoyalanishi uchun, gapirayotganda yoki nimanidir bajarayotganda imo-ishora, intonatsiya, xatti-harakat va mimikalardan foydalanadi. A.Dobrovich guruh ishtirokchilariga niqobdan voz kechib, rol o‘ynashni taklif qiladi [3, 22].

Tortinchoqlikni bartaraf etishda ijtimoiy bilimlarni rivojlantirish mashqlariga alohida e’tibor qaratilishi, kerakli natijalarni bermaydi, zarur muloqotchanlik ko‘nikmalarini egallagani bilan inson baribir tortinchoq bo‘lib qolaveradi. Demak, avvalgidek shaxslararo munosabatlarda tajanglikni his qilib, muloqotdan qochishga harakat qiladi. Agar inson to‘liq emaslik hissini boshdan kechirayotgan ekan, unda, hech qanday yutuq va muvaffaqiyatlar uni qoniqtirmaydi.

“Hayotda ajoyib bir qoida bor. Agar sen faqat eng yaxshisini tanlasang, aynan shu narsaga ega bo‘lishing ehtimoli katta” degan edi Somerset Moyem.[5.3b]. Darhaqiqat, bolalarda umuman olganda insonlar o‘zlaridagi tortinchoqlikni yengishlari uchun, o‘zlarini, qolaversa qobiliyat va iste’dodlarini to‘la namoyon eta olishlari uchun turli xil psixokorreksion yo‘nalishlardagi treninglar va mashqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu treninglar insonlarga ijobiy fikrlashni, katta-katta jamoalarda o‘zini noqulay his qilishlikni pasaytirishga, ichki imkoniyatlarini to‘la aks ettirishga, qobiliyat va layoqatlarini ko‘rsata olishga, ijtimoiy jamoada to‘g‘ri muomala qilish qoidalariga, tengqurlari davrasida erkin suhbatlashishiga ko‘mak beradi. Bunday trening va mashqlarga “ijobiy fikrlaymiz”, relaksatsion mashqlar, tana harakati terapiyasi, art-terapiya, rolli o‘yinlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu nomlari keltirilgan treninglar bolani vujudidagi xavotirlikni pasaytirib o‘ziga nisbatan ishonchlilikni, qat’iyatni oshirishda yordam beradi.

Bundan tashqari bolaning asosiy faoliyati o‘yin orqali ham bolalardagi tortinchoqlikni bartaraf etib ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin. Mashhur Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘yin — bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida

qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni maslahat bergan edi [4, 314].

Ayniqsa, bugun zamonaviy psixoterapiya usullaridan biri art-terapiya mashg‘ulotlari va treninglari tortinchoq, uyatchan, o‘ziga ishonchi past bolalar bilan olib boriladigan tuzatish ishlarida yaxshi foyda beradi. Ya’ni psixoterapevtlar tomonidan avvalo, boladagi bu holatda olib kelingan sabablar aniqlanadi hamda bolada uning yaqinlariga nisbatan ota-onasi, o‘rtoqlari bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va motivatsiya uyg‘otiladi, natijada bolani oila, maktab va o‘rtoqlari bilan muloqotda, suhbatda va ular bilan ko‘proq vaqtini o‘tkazishiga zamin yaratadi. Boladagi tortinchoqlikni oldini olishning eng asosiy yo‘li — bu bolani muloqotchanlikka o‘rgatishdir.

Kattalar bilan muloqotga kirisha boshlagan bolaning dunyoqarashi, hayotga nazar tashlashi, nutqi, fikrlash doirasi, boladagi yashirin qobiliyatlar asta-sekin kurtak yoza boshlaydi va biz bolani qaytadan kashf qilamiz. Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar o‘zlaridagi Tortinchoqlikni yengib o‘tishi ularni o‘z tengdoshlaridan ajratib turuvchi to‘siqdan o‘tishi unchalik oson kechmaydi ammo bunday vaziyatda bolaning ota-onasi juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Farzandlarimiz nega tortinchoq, o‘z fikrini erkin aytishga qiynaladi, bog‘chada, o‘rtoqlari bilan o‘ynashda do‘st topishga qiynaladi yoki ular bilan kirishib ketavermay uyaladi? Mutaxassislarning fikriga ko‘ra tortinchoqlik va uyatchanlikni ijtimoiy vaziyatlardagi noqulaylik hissi sifatida ta’riflaydi. U bolaga ijtimoiy rivojlanishga xalaqit beradi. Shuning uchun bolaning shaxs sifatida shakllanishining dastlabki bosqichlarida uning kattalar bilan muloqoti katta ahamiyatga egadir.

U o‘ziga baho berishda to‘lig‘icha uni tarbiya qilayotgan kishilarning fikridan mo‘ljal oladi. Ota-onalardagi qo‘pollik, keskinlik, bechidamlik kichkina odamchada ma’lum bir ijtimoiy vaziyatlarda tortinish kabi javob reaksiyasini yuzaga keltiradi. Boladagi tortinchoqlikni yengish uchun ota-ona bu muammoni o‘z vaqtida ko‘ra olishi kerak. Bolaga mutaxassislar yordami va yangi ko‘nikmalarni ishlab chiqish uchun guruh ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar kerak bo‘ladi. Bu guruh bo‘lib o‘ynaladigan turli o‘yinlar bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, bola uchun yangi va kutilmagan vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi turli mashg‘ulotlar ham foydalidir. Tasavvur qilib o‘ynaladigan o‘yinlar ham yaxshi: masalan, bola o‘rmonga kelib qoladi va boshqa bolalarga bu yer qo‘rqinchli emasligi va o‘rmonda ham suv va yegulik topish mumkinligini isbotlashi kerak. Tortinchoq bola yetakchi rolini bajarishi va boshqalarni o‘ziga jalb qilishi kerak. Bundan tashqari, bolalarning kattalar bilan o‘rnini almashtirib o‘ynaladigan o‘yinlar ham tortinchoqlikni yengishga yordam beradi [2, 33].

Psixolog va psixoterapevtlar tortinchoq bolalarning ota-onasiga bir qancha vazifalarni belgilaydi. Jumladan,

– bolani boshqa bolalar bilan muloqot qilishga majburlamaslik;

– hech qachon bolani oldida “meni bolam tortinchoq” deb aytmaslik;

– “tortinchoq bo‘lsang, hech kim seni yaxshi ko‘rmaydi, bolalar sen bilan o‘ynamay qo‘yadi” demaslik;

– mas’uliyatli ishlarning bir qismini bolaga yuklash va u bilan birga bajarish;

– kattalar va bolalar bilan salomlashganda jilmaying va farzandingizni ham shunga o‘rgatish;

– bola shaxsiyati rivojlanishi mumkin bo‘lgan qulay shart-sharoitni yaratish;

– uydagi qo‘ng‘iroqlarga javob qaytarishi, do‘kondagi kerakli mahsulotlarni topib, uni o‘zi olishi, bolalar maydonchasida kimgadir yangi o‘yinni o‘rgatishi mumkin;

– bolaga munosabat qilayotganda unga doim ishonishini bildirib turish;

– bolani tez-tez maqtab turish va rag‘batlantirish.

Bolalarni tortinchoqligi tufayli kelajakda o‘zini yolg‘iz his qilmasligi uchun undagi bu odatni o‘z vaqtida bartaraf qilish va bu muammoga jiddiy yondashish undan keyin kelib chiqadigan katta-katta masalalarni oldini olishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir farzand bitta san’at asaridir. Bu asarni qiymati va qadri qanchalik ulug‘lanishi o‘sha asarning o‘tkir syujeti va yozuvchining mahorati belgilaydi. Shunday ekan biz yozuvchilar har bitta san’at asarlarimizni tarbiyalayotganimizda ularni asrlarga yetgudek ma’naviyat-ma’rifat bilan, iymon-e’tiqod bilan, mehr-muhabbat bilan, oqillik va adolat bilan to‘g‘ri so‘zlik diyonat bilan boyitaylik. Zero, kelajak avlod bizdan qoladigan boy merosdan bahramand bo‘lishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqi // 16.08.2017-y.
2. Nishanova Z.T., Raximova I.Ye., Do‘stmuxamedova Sh.A., Ergashev P.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tortinchoqlikning profilaktikasi va psikorreksiyasi// uslubiy qo‘llanma. – T.: TDPU, 2013. – 35 b.
3. Галигузова Л.Н. Застенчивый ребёнок// Дошкольное образование. – 2000. – №4. – 116-120 с.
4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika // darslik. – T.: Tafakkur, 2019. – 314 b.
5. Pravdina N. O‘zimga omadni jalb etaman// adabiyot. – T.: Yurist media markazi, 2016. – 62 b.
6. Sheniz Y. Go‘daklikdan yigitlikka qadar// adabiyot. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 116 b.

ECOLOGY AND ENVIRONMENT

Sharifjon Rakhmanov,
Associate Professor,
Namangan Engineering Construction Institute

Annotation

The field of ecology and environment encompasses the study of the interactions between organisms and their environment, as well as the examination of environmental processes, conservation, and sustainable practices. This article provides an overview of key concepts and topics within this field, including biodiversity, ecosystems, environmental impact assessment, sustainable development, and ecological economics. It explores the importance of understanding ecological principles, addressing environmental challenges, and promoting responsible behavior towards the environment. The article emphasizes the need for interdisciplinary approaches, collaboration, and effective environmental governance to achieve ecological sustainability.

Keywords: *ecology, environment, biodiversity, ecosystems, environmental impact assessment, sustainable development, ecological economics, interdisciplinary, collaboration, environmental governance.*

Аннотация

Область экологии и окружающей среды включает в себя изучение взаимодействия между организмами и окружающей их средой, а также изучение экологических процессов, сохранения и устойчивых практик. В этой статье представлен обзор ключевых концепций и тем в этой области, включая биоразнообразие, экосистемы, оценку воздействия на окружающую среду, устойчивое развитие и экологическую экономику. Он исследует важность понимания экологических принципов, решения экологических проблем и продвижения ответственного поведения по отношению к окружающей среде. В статье подчеркивается необходимость междисциплинарных подходов, сотрудничества и эффективного управления окружающей средой для достижения экологической устойчивости.

Ключевые слова: *экология, окружающая среда, биоразнообразие, экосистемы, оценка воздействия на окружающую среду, устойчивое развитие, экологическая экономика, междисциплинарность, сотрудничество, экологическое управление.*

Annotatsiya

Ekologiya va atrof-muhit sohasi organizmlar va ularning atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirini o‘rganish, shuningdek, atrof-muhit jarayonlari, tabiatni muhofaza qilish va barqaror amaliyotlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada bioxilma-xillik, ekotizimlar, atrof-muhitga ta’sirni baholash, barqaror rivojlanish va ekologik iqtisodiyot kabi asosiy tushunchalar va mavzular haqida umumiy ma’lumot berilgan. U ekologik tamoyillarni tushunish, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli xatti-harakatlarni rag‘batlantirish muhimligini o‘rganadi. Maqolada ekologik barqarorlikka erishish uchun fanlararo yondashuvlar, hamkorlik va samarali atrof-muhitni boshqarish zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *ekologiya, atrof-muhit, biologik xilma-xillik, ekotizimlar, atrof-muhitga ta’sirni baholash, barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot, fanlararo, hamkorlik, atrof-muhitni boshqarish.*

The field of ecology and environment encompasses the study of the interactions between organisms and their environment, as well as the examination of environmental processes, conservation, and sustainable practices. It delves into the intricate connections between living organisms, their habitats, and the physical and biological factors that shape ecosystems.

Ecology is the scientific study of the relationships between organisms and their environment. It seeks to understand how organisms interact with each other and with their surroundings, including the biotic (living) and abiotic (non-living) components of their environment. Ecologists study various levels of ecological organization, from individuals and populations to communities and ecosystems, to unravel the complex dynamics at play [1, 221].

The environment, on the other hand, encompasses the physical, chemical, and biological factors that surround living organisms. It includes elements such as air, water, soil, climate, and the availability of resources. The environment provides the fundamental conditions necessary for life to exist and influences the distribution, abundance, and behavior of organisms.

Understanding ecology and the environment is crucial for addressing pressing environmental issues, such as biodiversity loss, climate change, habitat destruction, pollution, and resource depletion. It plays a pivotal role in developing strategies for conservation, sustainable development, and the responsible management of natural resources.

This article aims to provide an overview of key concepts and topics within the field of ecology and environment. It will explore areas such as biodiversity, ecosystems, environmental impact assessment, sustainable development, and ecological economics. By delving into these subjects, we can gain a deeper understanding of the complex interactions within ecosystems and the importance of

balancing human activities with environmental preservation. In the following sections, we will delve into specific concepts and their implications, highlighting the need for interdisciplinary approaches, collaboration, and effective environmental governance to achieve ecological sustainability. By examining these topics, we can appreciate the interconnectedness of ecological systems, recognize the challenges they face, and work towards finding solutions that promote the well-being of both humans and the environment [2, 1139].

There is a growing body of research examining the interactions between ecological communities and their surrounding environment. Studies have investigated topics such as biodiversity patterns (Magurran & Henderson, 2003), species distributions (Guisan & Thuiller, 2005), climate change impacts (Parmesan, 2006), and conservation strategies (Poiani et al., 2000). However, more applied research is still needed to inform land management practices. To explore the field of ecology and environment, a comprehensive literature analysis was conducted to gather relevant information from scientific articles, books, and reputable online sources. The analysis aimed to identify key concepts, theories, and empirical studies that contribute to our understanding of ecology, environmental processes, and sustainable practices.

The literature review revealed a rich body of knowledge in the field, highlighting the interconnectedness of ecological systems, the importance of biodiversity conservation, and the impacts of human activities on the environment. It also shed light on various methodologies and approaches used to study ecology and assess environmental conditions.

A range of research methods and techniques are employed in ecological studies, including field observations, experimental manipulations, modeling, and data analysis. Field observations involve direct observations of organisms and their interactions in their natural habitats, providing valuable insights into ecological patterns and processes. Experimental manipulations, such as controlled experiments or field studies, allow researchers to test hypotheses and understand cause-and-effect relationships.

Modeling plays a significant role in ecology and environmental research, enabling scientists to simulate complex ecological systems and predict the outcomes of different scenarios. Models can help assess the impacts of climate change, simulate population dynamics, and inform conservation strategies. Data analysis techniques, such as statistical analyses and spatial modeling, are used to analyze large datasets and identify patterns or trends.

In addition to primary research, the literature analysis also considered reviews, meta-analyses, and synthesis studies that provide a comprehensive overview of specific topics within ecology and the environment. These synthesized studies help to consolidate existing knowledge, identify research gaps, and guide future research directions.

The methods used in the literature analysis involved systematic search strategies, including keyword searches in scientific databases, citation tracking, and reference screening. The inclusion criteria focused on selecting peer-reviewed and reputable sources that provided reliable information and contributed to the understanding of the field.

By analyzing a diverse range of literature sources, this article aims to provide a comprehensive overview of key concepts and topics within ecology and the environment. The integration of findings from multiple studies and sources allows for a holistic understanding of the field and enhances the reliability and validity of the information presented. It is important to note that while the literature analysis provides a comprehensive overview, it is not exhaustive, and there may be additional research and perspectives that were not included. Nonetheless, the analysis serves as a foundation for the information presented in this article, contributing to a robust understanding of ecology, environmental processes, and sustainable practices [3, 506].

The field of ecology and environment encompasses a wide range of concepts, theories, and practices that are essential for understanding and addressing environmental challenges. Through the literature analysis and exploration of key topics, this article highlights the interconnectedness of ecological systems, the importance of biodiversity conservation, the need for sustainable development, and the role of environmental governance in achieving ecological sustainability.

One prominent theme that emerges from the discussion is the critical role of biodiversity in maintaining the health and functioning of ecosystems. Biodiversity, encompassing the variety of species, genetic diversity, and ecosystem diversity, is fundamental to the stability and resilience of ecological systems. The loss of biodiversity, driven by factors such as habitat destruction, pollution, and climate change, has significant implications for ecosystem services, human well-being, and the overall health of the planet.

Sustainable development is another crucial aspect discussed in this article. The concept of sustainable development emphasizes the integration of environmental, social, and economic concerns to ensure that the needs of the present generation are met without compromising the ability of future generations to meet their own needs. Achieving sustainability requires a shift towards more efficient use of resources, adoption of renewable energy sources, conservation of natural habitats, and the promotion of equitable and inclusive development practices.

Environmental governance plays a vital role in addressing ecological and environmental challenges. Effective governance frameworks and policies are necessary to regulate human activities, promote sustainable practices, and ensure the protection of natural resources. Collaboration among governments, organizations, communities, and individuals is crucial for implementing environmental

policies, fostering innovation, and mobilizing resources for conservation and sustainable development initiatives.

Furthermore, interdisciplinary approaches are essential for tackling complex environmental issues. The field of ecology and environment draws upon insights from various disciplines, including biology, chemistry, physics, economics, sociology, and policy studies. Integrating knowledge and expertise from different fields allows for a comprehensive understanding of ecological systems and the development of holistic solutions to environmental problems.

The discussion also highlights the importance of individual and collective action in promoting environmental sustainability. Each individual has a role to play in adopting sustainable practices, reducing their ecological footprint, and advocating for positive change. Engaging communities, raising awareness, and fostering environmental education are crucial for building a society that values and protects the environment.

While this article provides a broad overview of key concepts within ecology and the environment, it is important to acknowledge that the field is vast and constantly evolving. New research, technological advancements, and emerging environmental challenges continue to shape our understanding of ecological systems and inform conservation and sustainability efforts. In conclusion, the field of ecology and environment offers valuable insights into the intricate relationships between organisms and their surroundings. By embracing the principles of biodiversity conservation, sustainable development, interdisciplinary collaboration, and effective environmental governance, we can strive towards a more sustainable and resilient future for both humans and the environment [4, 62].

Results:

1. Biodiversity Conservation: The literature consistently emphasized the critical importance of biodiversity conservation for maintaining the health and functioning of ecosystems. Studies highlighted the positive impacts of species diversity on ecosystem stability, resilience, and productivity. Conversely, the loss of biodiversity was found to have detrimental effects on ecosystem services, such as pollination, nutrient cycling, and pest control. The literature emphasized the urgent need for conservation efforts to mitigate biodiversity loss and preserve the intricate web of life.

2. Ecosystem Dynamics: The literature analysis revealed the dynamic nature of ecosystems and the complex interactions between organisms and their environment. Studies explored ecological processes, such as nutrient cycling, energy flow, and succession, and their influence on ecosystem structure and function. Understanding these processes is crucial for managing ecosystems effectively and promoting their long-term sustainability.

3. Human Impact on the Environment: The literature consistently highlighted the significant impact of human activities on the environment. Anthropogenic factors, including habitat destruction, pollution, climate change, and overexploitation of natural resources, were found to be major drivers of environmental degradation. The results emphasized the need for sustainable practices, responsible resource management, and policies to mitigate human-induced environmental impacts.

4. Sustainable Development: The literature analysis revealed a growing emphasis on sustainable development approaches that integrate environmental, social, and economic considerations. Studies explored various aspects of sustainable development, including renewable energy, sustainable agriculture, waste management, and green infrastructure. The results highlighted the potential for sustainable development practices to promote environmental conservation while addressing social and economic needs.

5. Environmental Governance: The literature analysis underscored the importance of effective environmental governance in addressing ecological and environmental challenges. Studies explored governance frameworks, policies, and regulatory mechanisms aimed at safeguarding the environment and promoting sustainable practices. The results emphasized the need for collaboration among stakeholders, transparent decision-making processes, and enforcement of regulations to achieve effective environmental governance[5, 26].

6. Interdisciplinary Approaches: The literature consistently emphasized the value of interdisciplinary approaches in understanding and addressing environmental issues. Studies highlighted the benefits of integrating knowledge and expertise from various fields, such as biology, chemistry, economics, and social sciences. The results demonstrated that interdisciplinary collaborations can lead to more comprehensive and innovative solutions to complex ecological and environmental problems. These results provide valuable insights into the field of ecology and the environment, highlighting the importance of biodiversity conservation, ecosystem dynamics, sustainable development, environmental governance, and interdisciplinary approaches. By understanding and applying these findings, we can make informed decisions and take meaningful actions to protect and sustainably manage our natural environment. It is important to note that the results presented here are based on the analysis of existing literature and should be interpreted within the context of the sources reviewed. Future research and empirical studies may contribute additional insights and expand our understanding of ecology and the environment.

Interdisciplinary approaches stand out as a key strategy for tackling complex environmental issues. Integrating knowledge and expertise from diverse disciplines allows for a comprehensive understanding of ecological systems and the development of holistic solutions. By fostering collaboration and knowledge exchange among scientists, policymakers, practitioners, and community members, we

can leverage the strengths of different fields to address environmental challenges more effectively [6, 474].

In conclusion, the field of ecology and environment provides valuable insights into the intricate relationships between organisms and their surroundings. The findings from the literature analysis underscore the importance of biodiversity conservation, sustainable development, environmental governance, and interdisciplinary approaches. By translating this knowledge into action, we can work towards a more sustainable and resilient future, where the well-being of both humans and the environment is prioritized. It is crucial that individuals, communities, organizations, and governments come together to implement evidence-based strategies, raise awareness, and foster a collective responsibility towards the conservation and preservation of our planet’s ecological integrity.

REFERENCES:

1. Leemans, R., & Eickhout, B. (2004). Another reason for concern: Regional and global impacts on ecosystems for different levels of climate change. Global Environmental Change, 14(3), 219-228.
2. Perrings, C., Duraiappah, A., Larigauderie, A., & Mooney, H. (2011). The biodiversity and ecosystem services science-policy interface. Science, 331(6021), 1139-1140.
3. Reyers, B., Polasky, S., Tallis, H., Mooney, H. A., & Larigauderie, A. (2012). Finding common ground for biodiversity and ecosystem services. Bioscience, 62(5), 503-507.
4. Cardinale, B. J., Duffy, J. E., Gonzalez, A., Hooper, D. U., Perrings, C., Venail, P., ... & Naeem, S. (2012). Biodiversity loss and its impact on humanity. Nature, 486(7401), 59-67.
5. Daily, G. C., Polasky, S., Goldstein, J., Kareiva, P. M., Mooney, H. A., Pejchar, L., ... & Ricketts, T. H. (2009). Ecosystem services in decision making: time to deliver. Frontiers in Ecology and the Environment, 7(1), 21-28.
6. Rockström, J., Steffen, W., Noone, K., Persson, Å., Chapin, F. S., Lambin, E., ... & Foley, J. A. (2009). A safe operating space for humanity. Nature, 461(7263), 472-475.

KOREYS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASI

Dilfuza Abbasova,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Koreyashunoslik fakulteti “Koreys filologiyasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Tadqiqot koreys va o‘zbek xalqlarining madaniyati va mentalitetidagi o‘xshashlik va farqlarni do‘stona maqolalar orqali o‘rganish, koreys va o‘zbek tillarida do‘stlik tushunchasini ifodalovchi maqolalar mazmunini ilk bor o‘rganishdir. lingvomadaniy va semantik xususiyatlarni o‘rganish, ularni shakl va madaniyatda taqqoslash. Koreys va o‘zbek maqollarining ikki tilda qay darajada o‘rganilganligini aniqlash va ularning qiyosiy jihatlarining lingvistik, madaniy va semantik jihatlarini tahlil qilish, biz o‘rganayotgan tillardagi maqollarning o‘xshashligi joiz. Koreys xalq maqolning o‘zbek tilidagi tarjimasini yoki ma’nosini har doim ham o‘zbek tiliga tayyor holda ishlata olmaymiz

Kalit so‘zlar: *koreys maqollari, o‘zbek maqollari, tillar, tilshunoslik, mentalitet.*

Аннотация

Исследование является первым исследованием сходства и различия культуры и менталитета корейского и узбекского народов посредством дружественных статей, содержания статей, выражающих понятие дружбы на корейском и узбекском языках, в изучение лингвокультурных и семантических особенностей, сравнение их по форме и культуре. Определение степени изученности корейских и узбекских пословиц на двух языках и анализ лингвистических, культурологических и семантических аспектов их сравнительного аспекта. Мы не всегда можем использовать узбекский перевод или значение Корейской народной пословицы, готовой для узбекского языка

Ключевые слова: *корейские пословицы, узбекские пословицы, языки, лингвистика, менталитет.*

Annotation:

The study is the first study of the similarities and differences in the culture and mentality of the Korean and Uzbek peoples through friendly articles, the content of articles expressing the concept of friendship in Korean and Uzbek, in the study of linguacultural and semantic features, comparing them in form and culture. Determining the extent to which Korean and Uzbek proverbs have been studied in two languages and analyzing the linguistic, cultural and semantic aspects of their comparative aspects, the similarities. We cannot always use the Uzbek translation or meaning of the Korean folk proverb ready for the Uzbek language

Keywords: *Korean proverbs, Uzbek proverbs, languages, linguistic, mentality.*

Ona tili va ikkinchi til ta’limidagi qoidalar sistemali lingvistik mazmun kasb etadi. Chunki tilni tabiiy muhitda amaliy o‘rganish va unga ajratiladigan vaqt miqdori mukammal qoidalar berish imkoniyatini yaratadi. Chet til sharoiti qoidalarni oddiylashtirish va sonini ozaytirish muammosini ko‘ndalang qilib quyadi. Chet tili qoidasi nutq faoliyatini egallashni osonlashtiruvchi vositadir. Chet til o‘rgatishda mashqlar bajarishdan iborat jarayon deyilsa, mubolag‘a yoki xato bo‘lmaydi. Grammatika va talaffuz minimumlari tashkiliy muhitga bog‘liq emas, chunki til minimumini tanlashda o‘quv yurtining turi, o‘qitish maqsadlari va ajratilgan soatlar hisobga olinadi [1, 21].

Koreys va o‘zbek maqollarining mavzu doirasi rangbarang va har ikki tilda deyarli bir xil ma’noni anglatuvchi maqollar mavjud. Har ikki tildagi maqollarni tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va o‘ziga xos xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o‘rinda koreys xalqining sharq davlatlariga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda koreys millatining turmush tarzini ko‘rsata oladi.

Quyida tahlil qilmoqchi bo‘lgan do‘stlik mavzusidagi o‘zbek va koreys xalq maqollarini asosiy manba sifatida “우리 말 속담 4000” (대한출판문화협회, 2010.), “O‘zbek xalq maqollari” T.Mirzayev, A.Musaqulov kitoblaridan foydalanildi.

Koreys va o‘zbek xalq maqollari ma’no jihatdan ham, qo‘llash jihatdan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. O‘zbek va koreys tilidagi maqollarni hajm jihatidan o‘rganib borish asnosida aynan do‘stlik haqidagi maqollarning ko‘proq uchratish mumkin.

Jadval-1

№	Koreys xalq maqoli	O‘zbek tilida tarjimasi	O‘zbek tilida varianti
1	친구와 포도주는 오래될 수록 좋다.	Do‘stlar va sharob, qanchalik eski bo‘lsa, shuncha yaxshi	Qadim do‘stlik zanglamas
2	오랜 친구가 새 친구보다 낫다다	Eski do‘stlar yangilaridan yaxshiroq	Yangining nodonligi bor, Eskining – qadrdonlig
3	옷은 새 옷이 좋고 친구는 옛 친구가 좋다.	Kiyimning yangisi, do‘stning eskisi yaxshi	Kiyimning yangisi – yaxshi, Do‘stning – eskisi.
4	새 정이 옛 정만 못하다	Yangi sevgi (tanish) eskisiga o‘xshamaydi	Do‘st do‘stga - qalqon
5	친구의 친구는 친구다	Do‘stning do‘sti - do‘st	Dushmanimning do‘sti – mening dushmanim, Dushmanimning dushmani – mening do‘stim
6	한 친구에게 성실한 친구는 자신이 가치 있음을 많은 이에게 증명할 수 있다.	Bir do‘stga sodiq bo‘lgan do‘st ko‘pchilikka munosib ekanligini isbotlay oladi	Do‘st achitib gapirar, Dushman – kuldirib.
7	사람은 남 어울림에 산다	Odamlar hamjihatlikda yashaydilar	Do‘st do‘stga - qalqon
8	벗이 없는 곳이 가장 낮선 곳이요, 가장 외로운 존재는 벗이 없는 사람이다.	Do‘stsiz joy - eng past joy, yolg‘iz odam - do‘stsiz odam	Baliq suvsiz yashamas, Inson – do‘stsiz.
9	믿을만한 친구는 인생의 약	Sodiq do‘st oltindan afzal	Vafoli do‘st yo‘lg‘ab solar, Ig‘vogar do‘st paydan olar.
10	재물을 잃은 것은 작은 것을 잃은 것이고, 벗을 잃은 것은 큰 것을 잃은 것이다.	Boylikni yo‘qotish - kichik narsani yo‘qotish, do‘stni yo‘qotish - katta narsani yo‘qotish	Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.

Bu maqollarda koreys millatining doimiy do‘stlik haqidagi fikr mulohazasi, tasavvuri yoritilgan. Har ikkala tildagi umumiy ma’nosi shuki, uzoq yillik sinalgan do‘st, yangi do‘stdan afzalligi ta’kidlangan. Bu maqollar koreys va o‘zbek xalqining turli xil obrazidagi maqollari bo‘lishiga qaramay bir xil ma’noni anglatib, do‘stlik mavzusidagi maqollarning semantik xususiyatlari aks ettirilib, maqollarning qo‘llash ma’nosi bir xil ekanligini ko‘rsatilgan. [2, 12]

Masalan:

Koreys xalq maqoli: “친구와 포도주는 오래될 수록 좋다”

O‘zbek tilida tarjimasi*: “Do‘stlar va sharob, qanchalik eski bo‘lsa, shuncha yaxshi”* ma’nosini beradi.

Bu maqol orqali uzoq yillik do‘st yangi do‘stidan afzalligi tasvirlanadi. Ammo koreys xalq maqolning o‘zbek tilidagi tarjimasini yoki ma’nosini har doim ham o‘zbek tiliga tayyor holda ishlata olmaymiz.

O‘zbek tilida ekvivalenti: *“Qadim do‘stlik zanglamas”*, *“Yangining nodonligi bor, Eskining — qadrdonligi”, “Kiyimning yangisi — yaxshi, Do‘stning — eskisi”* maqollaridan foydalansak bo‘ladi.

Fikrimizni yana bir isboti sifatida,

Koreys xalq maqoli: “물이 아니면 건너지 말고 인정이 아니면 사귀지 말라”,

O‘zbek tilida tarjimasi: *“Suv bo‘lmaguncha o‘tma, mehr bo‘lmaguncha uchrashma”,*

O‘zbek tilida ekvivalenti: *“Quyosh havoni isitar, Do‘st — qalbni”*

Bu maqol shuni anglatadiki, odamlar bilan uchrashishda imon va sadoqat asos bo‘lishi kerakligi yoritilgan.

Koreys xalq maqoli: “콩 한쪽도 나누어 먹는다” maqoli ko‘rib chiqildi. O‘zbek tilida tarjimasi: *“Fasolning bir tomonini yeyaveringlar”.*

Maqolning ma’nosi shuki, fasol kabi bir kichik narsani bo‘lishish, qiyin paytlarda do‘stlar bir-biriga yordam berishi kerakligi tariflangan. Bir qarashda maqol tarbiyaviy ahamiyatga ega va insondagi yaxshi fazilatlarni targ‘ib etuvchi jihatlarini ko‘rsatadi. Ammo o‘zbek tilidagi tarjima har doim ham maqolning aslini saqlab qolmasligi mumkin. Va biz buni og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham tilga tayyor holda faol ishlata olmaymiz. Maqoldan kelib chiqayotgan ma’no har doim ham uni tashkil etayotgan so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazliligi bir maqolni har ikkala tilda bir xil talqin etilishiga olib keladi. [3, 14]

Qadim-qadimdan beri ishlatilib kelayotgan bu maqolning o‘zbek tilida ekvivalenti sifatida: *“Do‘st og‘ir kunda bilinar”, “Nomardni jang sinaydi, do‘stni — muhtojlik”* kabi maqollarni keltirish mumkin.

Yana bir misol orqali koreys xalq maqollardagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berildi.

Koreys xalq maqoli: 친구는 당신 자신에게 주어진 선물.

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Do‘st — bu sizga berilgan sovg‘a”*

Do‘stlik insoniy munosabatlarda muhimligini anglatib, koreys xalqining do‘stlar tomonidan yoki boshqa insonlar tomonidan baholanishi do‘stlikka bo‘lgan ijobiy munosabatini anglatadi.

O‘zbek tilida ekvivalenti: *“Do‘stlik — barcha boylikdan afzal”.*

Koreys xalq maqoli: “의가 좋으면 천하도 반분한다”

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Agar solihlik yaxshi bo‘lsa, dunyo yarmiga bo‘linadi”*

Bu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qilganda ma’nosi tushunarsiz , lekin asl mohiyati shuni anglatadiki, agar o‘zaro do‘stlar yaxshi munosabatda bo‘lsa, ular hamma narsani o‘rtada baham ko‘ra olishi ta’kidlangan.

O‘zbek tilida ekvivalenti: *“Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi, Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi”*

Koreys xalq maqoli: “새도 가지를 가려서 앉는다”

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Qushlar ham novdalarni yopib o‘tirishadi”* bu maqol ham so‘zma-so‘z tarjima natijasida koreys millatidan boshqa xalqlar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin , lekin asosiy ma’no-mazmuni o‘rganilib, o‘zbek xaql maqoli bilan taqqoslandi. Koreys tilida bu shuni anglatadiki, atrofingizga diqqat bilan qarashingizni va do‘st tanlashda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishingizni ifodalaydi.

Bu maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalenti sifatida: *“Do‘st — oshkor, dushman — yashirin” “Dushman ba’zan kuldirar, o‘ng‘ay topsa, o‘ldirar”* kabi o‘zbek xalq maqollari ma’no jihatdan mos keladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, maqol bugungi kunda ham har ikkala xalq orasida juda faol hisoblanadi. Buni nafaqat kundalik turmushda uchratish mumkin, balki badiiy asarlardagi ishtirokini ham kuzatish mumkin. Mazkur maqollar singari quyidagi jadvalda koreys xalq maqollarining asl ma’no-mazmuni chuqur o‘rganilib chiqildi.

Jadval-2.

№	Koreys xalq maqoli	O‘zbek tilida tarjimasi	O‘zbek tilida ma’nosi
1	십 리 모래 바닥이라도 눈 찌를 막대는 있다	Hatto o‘n millik qumli tubida ham, ko‘zingizni kiradigan tayoq bor	Hatto yaqin do‘stlar yig‘ilgan joyda ham siz yomon ko‘radigan odamlar borligini aytilgan.
2	죽이 잘 맞는다.	Bo‘tqa yaxshi to‘g‘ri keldi	Koreys tilida “bo‘tqa yaxshi mos keladi” degan ibora bor. Bu shuni anglatadiki, ikki yoki undan ortiq odam bir-biri bilan yaxshi kelishib, yaxshi munosabatda bo‘lishadi
3	같은 깃의 새는 같이 모인다	Bir xil patli qushlar bir joyga to‘planishadi	Harakteri, dunyoqarashi o‘xshash insonlar do‘st bo‘lishadi
4	의가 좋으면 천하도 반분한다	Agar solihlik yaxshi bo‘lsa, dunyo yarmiga bo‘linadi	Aytishlaricha, agar o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lsak, biz hamma narsani baham ko‘ramiz
5	새도 가지를 가려서 앉는다	Qushlar ham novdalarni yopib o‘tirishadi	Bu maqolda atrofingizga diqqat bilan qarashingizni va do‘st tanlashda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishingizni ifodalaydi
6	콩 한쪽도 나누어 먹는다.	Fasolning bir tomonini yeyaveringlar	Fasol kabi bir kichik narsani bo‘lishish ham qiyin paytlarda bir-biriga yordam beradi va kuch beradi
7	친구는 팔십에도 아이들이다.	Do‘stlar — saksondan oshgan bolalar	Agar siz do‘stlaringiz bilan uchrashsangiz, 80 yoshga kirsangiz ham, siz bolalar kabi yashaysiz.

ISSN 2181-8274

8	검은 데 가면 검어지고 흰 데 가면 희어진다.	Agar siz qora rangga kirsangiz, u qora bo‘ladi, oq rangga kirsangiz, u oq rangga aylanadi	Odamlarga atrof-muhit va atrofdagi odamlar katta ta’sir ko‘rsatadi.
9	벗 줄 것은 없어도 도둑 줄 것은 있다	Sizga beradigan hech narsam yo‘q, lekin sizga o‘g‘ri sifatida beradigan narsam bor	Metaforik atama, yaqinlariga nisbatan juda ziqna bo‘lishni anglatadi, lekin ularni kuch bilan olib keta olmaydi.
10	바늘 가는 데 실 간다	Igna ipga o‘tadi	Bu shuni anglatadiki, igna har doim ipning orqasidan ergashadi va bu odamlar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar uchun metafora

Ta’kidlab o‘tilgandek, maqollardagi pand-nasihat ohangidagi xususiyatlar insonlarga har doim to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, yomon oqibatlardan ogohlantiradi. Maqollar ustida qaysi tilda ish olib borilishidan qat’iy nazar ularning semantik xususiyatlariga to‘xtalish ishning eng muhim qirralarini ochib berishga yordam beradi.

Maqollar semantik va struktura jihatdan to‘la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo‘lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o‘ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o‘zaro yaqin bo‘lgan va umuman bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo‘lishi va bir xil alomatni ko‘rsatishi mumkin. O‘zbek va koreys maqollarining semantik xususiyatlari tahlil qilingan holda, maqollarning har ikkala tildagi o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rib chiqildi. Bu orqali o‘zbek va koreys tillaridagi maqollarning ikki tildagi semantik jihatdan ishlatilish o‘rnini o‘rganildi. Maqollarda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik doimo ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Aynan ko‘rib o‘rganib, tahlil qilib chiqqan maqollarda ham ushbu holatni ko‘rish mumkin. Maqollarni tarjima qilish va muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma’no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma’no-mazmunini chuqur o‘rganib chiqishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Jalolov. Chet tilini o‘qitish metodikasi. – T.: Sharq nashriyoti, 2012. – 350 b.
2. Qoshg‘ariy M. Devon-u lug‘atit turk. I tom. – T.: Fan nashriyoti, 1960. – 175 b.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq nashriyoti, 2010. – 208 b.
4. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B., O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq nashriyoti, 2005. – 512 b.
5. Temirova M. O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining tipologik xususiyatlari. – T.: O‘zbek tili va adabiyoti, 2017. – 165 b.
6. To‘xtaliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘z. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – 184 b.

TALABALARDA YENGIL ATLETIKA TURLARI BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sunnatulla Izzatullayev,
Guliston davlat universiteti
“Sport turlarini o‘qitish uslubiyati”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Yengil atletika turlari bo‘yicha hakamlik qilishda talabalarni bilim va malakalarini amalda qo‘llay olish qobiliyatini oshirish hamda ularning vazifalari haqida so‘z boradi. Yengil atletika sport turini yanada ommalashtirishda hakamlarni o‘rni ularni musobaqalar tashkil qilishda musobaqa nizomini ishlab chiqish kompetensiyalarini takomillashtirish, hakamlarning huquq va burchlari majburiyatlari maqolani yanada dolzarbligini oshiradi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va murabbiylarning kasbiy faoliyatida foydalanish uchun ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, kompetensiya, musobaqa, musobaqa nizomi, huquq, ommalashtirish, hakamlar burchi.*

Аннотация

Речь идет о повышении способности студентов применять свои знания и умения на практике в легкоатлетическом судействе, а также о выполнении прав и обязанностей, что делает статью более актуальной. Информация была предоставлена будущим учителям и тренерам по физическому воспитанию для использования в своей профессиональной деятельности. В настоящее время спорту уделяется большое внимание, поэтому ведутся разговоры о подготовке квалифицированных спортивных судей, совершенствовании их знаний и навыков на практике.

Ключевые слова: *легкая атлетика, компетентность, соревнования, регламент соревнований, закон, продвижение по службе, обязанности судей.*

Annotation

It is about increasing the ability of students to apply their knowledge and skills in practice in athletics refereeing, as well as the duties of the rights. rights and obligations makes the article more relevant. Information was provided for future physical education teachers and coaches to use in their professional activities. Currently, a lot of attention is being paid to sports, that is why there is talk about training qualified referees in sports, improving their knowledge and skills in practice.

Keywords: *athletics, competence, competition, competition regulations, law, promotion, duty of referees.*

Globallashib borayotgan hozirgi davrda sport davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Jismoniy madaniyat kishilar salomatligida muhim o‘rin tutib, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini ta’minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o‘zgarishlar, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari sportning o‘sishini ta’minlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish yuzasidan o‘zlarining strategiyalarini ishlab chiqmoqda. [5, 149]

Dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Braziliya va Yaponiya kabi mamlakatlarining ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida jismoniy tarbiyaning inson salomatligidagi o‘rni, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishda sport turlaridan keng foydalanish, sport musobaqalarini tashkil etish va musobaqa shartlarini me’yorlashtirish, xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish va ularda ishtirok etuvchi davlatlar safini kengaytirish, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida kadrlar tayyorlash, sport turlari bo‘yicha musobaqa o‘tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. [2, 104]

Bugungi kunda respublikamizda pedagog, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi bo‘yicha H.Abdukarimov, Yu.Ahrorov, M.Ashurov K.Ushinskiy, M.Lisina, M.Quronov kabi pedagog olimlar izlanishlar olib borgan va bu muammolarni yechimini topishda o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.[1, 694] Yengil atletika bo‘yicha musobaqalarni tayyorlash va o‘tkazishda bosh kotib hamda kotibiyat ishlarini tashkillashtirish va o‘tkazish ko‘p vaqt, kuch va muayyan harakatlarni talab qiladi. Shu sababli yosh hakamlarning musobaqalarga hakamlik qilish masalalariga doir bilimlarni egallashi va ularga o‘z vaqtida hozirlik ko‘rishi uchun juda qulay. Hakamlarning vazifalar:

– musobaqalarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha materiallar va hujjatlarni tayyorlash;

– musobaqa ishtirokchilari ko‘rsatgan natijalarga tezkor ravishda ishlov berish, ularni tizimlashtirish va shaxsiy hamda jamoa birinchiliklarida g‘oliblarni aniqlash;

– natijalar va jamoaviy bellashuvlarning borishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ishtirokchilar, jamoalarning vakillari, matbuot hamda tomoshabinlar e’tiboriga o‘z vaqtida yetkazish;

– rasmiy materiallarni bosib chiqarish (texnik hisobot). [3, 39]

Tuzilishi: Kotibiyat ishiga bosh kotib rahbarlik qiladi. U kotibiyat hakamlarining o‘zaro, shuningdek, kotibiyat hamda hakamlar hay’atlari va xizmatlari orasidagi hujjatlar aylanishi bilan bog‘liq barcha xatti-harakatlari izchilligini belgilaydi, o‘tkazilayotgan muayyan bir musobaqada hujjatlar aylanishining axborotlar oqimi umumiy sxemasi asosidagi sxemasini ishlab chiqadi.

Kotibiyat faoliyati sxemasini ishlab chiqishda hujjatlar ro‘yxati va axborot turlarini belgilab olish, ularni turli toifadagi foydalanuvchilarga yetkazib berish usullari va vositalarini quyidagicha aniqlash zarur:

– ishtirokchilarga — jamoa vakillari orqali;

– hakamlar hay’atiga — bevosita kotibiyat orqali;

– matbuot vakillariga — matbuot markazi yoki kotibiyat orqali;

– tomoshabinlarga — axborot xizmati orqali.

Har bir musobaqada kotibiyat faoliyatining tuzilishi va texnologiyasi uning darajasi hamda texnik jihozlanganligiga ko‘ra aniqlanadi.Kotibiyat faoliyati shartli ravishda uch asosiy bosqichga bo‘linadi:

– musobaqalarga tayyorlanish;

– bevosita musobaqalarni o‘tkazish;

– texnik hisobotni rasmiylashtirib, topshirish.

Musobaqalarga tayyorlanish: Kotibiyatning musobaqalarga qadar bajaradigan ishlari tayyorgarlik davrida (musobaqalar boshlanguniga qadar) Bosh kotib katta ishlarni amalga oshirishi kerakki, ular musobaqa jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan qator anglashilmovchilik va xatolarning oldini oladi.

Nizomni o‘rganish:

1. Musobaqalar dasturi, jamoalar tarkibini, kotibiyatning miqdoriy tarkibi hamda blanklar, qog‘oz va boshqa moddiy ta’minot ashyolarining zarur miqdorini aniqlash uchun jamoaviy hisob turlarini tahlil qilish.

2. Nizomning quyidagilarga nisbatan turlicha talqin etilishi mumkin bo‘lgan bandlarini aniqlash:

– jamoalar joyini belgilash tartibi;

– ishtirokchilarning navbatdagi musobaqa davrasiga o‘tishi tartibi;

– ishtirokchilarning shaxsiy joylarini belgilash tartibi;

– parallel hisob imkoniyatlari;

– ishtirokchilarni joylarga, seriyalarga taqsimlash yo‘li;

– shaxsiy birinchilik va guruhga qo‘yish;

– qur’a tashlash yo‘li va h.k.

Mazkur masalalar bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va kiritilgan aniqliklar jamoa vakillariga yetkazilishi shart.

3. Nizomda texnik tur bo‘yicha malakaviy me’yorlar, sakrash turida plankani ko‘tarish tartibi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarning mavjudligi.

1-jadval

Kotibiyatning tuzilishi

<table>
<tr><td colspan="3">Bosh kotib uning muovinlari</td><td colspan="2">Dispetcher</td></tr>
<tr><td>Harajatlarni berish guruhi</td><td>Hakamlar hujjatlarini qabul qilish guruhi</td><td>Statistika va rekordlar guruhi</td><td>Varaqalarga ishlov berish guruhi</td><td>Jamoaviy natijalar guruhi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Ma’lumot berish guruhi</td><td colspan="2">Materiallarning nusxasini ko‘paytirish guruhi</td></tr>
</table>

Turli toifali musobaqalarda guruhlar va ulardagi kotiblar miqdori o‘zgarishi mumkin. Barcha hollarda kotibiyatning o‘ziga xos tuzilishini hamda ish tartibini ishlab chiqish lozim [3, 45].

Bosh kotibning faoliyati: Bosh kotib musobaqaning bosh hakamiga bo‘ysunadi. Bosh kotibning majburiyatlari:

– bosh kotibiyat a’zolari orasida vazifalarni taqsimlash va ularning ishini tashkil etish;

– shaxsiy va texnik talabnomalarning qabul qilinishini tashkil etish (ishtirokchilarni musobaqalarga kiritish hay’ati bilan hamkorlikda);

– qaydnomalarni tayyorlash va ularni barcha xizmatlarga tarqatish;

– alohida sport turlari bo‘yicha kotib guruhlariga ko‘rsatmalar berish va ular faoliyatini nazorat qilish;

– shaxsiy va jamoaviy musobaqalar, shuningdek, ko‘pkurashlar natijalarini chiqarish;

– rekord dalolatnomalari tuzilishining to‘g‘riligini ta’minlash va nazorat qilish;

– natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bosib chiqarish va nusxasini ko‘paytirishga rahbarlik qilish;

Hakamlarning malakasini oshirish:

1. Keng qamrovli trening: Hakamlar uchun qoidalarni bilish, o‘yinni boshqarish, nizolarni hal qilish va muloqot qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan puxta o‘quv dasturlarini taqdim eting.

2. Sertifikatlash jarayoni: Hakamlar uchun sertifikatlash jarayonini amalga oshiring, ular o‘yinlarni boshqarishdan oldin belgilangan malaka va professionallik standartlariga javob berishlarini ta’minlash.

3. Mentorlik dasturlari: Yangi hakamlarni tajribali murabbiylar bilan bog‘lang, ular o‘z mahoratlarini rivojlantirishda yo‘l-yo‘riq, fikr-mulohaza va yordam beradi.

4. Uzluksiz ta’lim: Hakamlarga qoidalar o‘zgarishlari, eng yaxshi amaliyotlar va hakamlik faoliyatining yangi tendensiyalaridan xabardor bo‘lishlari uchun doimiy professional rivojlanish imkoniyatlarini taklif eting.

5. Baholash va fikr-mulohazalar: Uzluksiz takomillashtirishga yordam berish uchun hakamlar faoliyatini baholash va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish mexanizmlarini yarating.

6. Adolat va izchillik: Jamoa mansubligi yoki shaxsiy tarafkashliklaridan qat’i nazar, barcha ishtirokchilarga adolatli munosabatda bo‘lishini ta’minlab, hakamlik qi-

lishda adolat, izchillik va xolislik muhimligini ta’kidlang.

7. Axloq kodeksi: hakamlar uchun kutilayotgan xatti-harakatlar, halollik standartlari va buzilishlar uchun intizomiy tartib-qoidalarni belgilab beruvchi axloq kodeksini amalga oshirish. [3, 49]

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali maktablar atletika musobaqalari professionallik, adolat va halollik bilan o‘tkazilishini ta’minlagan holda, sportchi talabalar uchun yanada boyitilgan va foydali tajriba yaratishi mumkin.

Talabalarda yengil atletika musobaqalarida hakamlar uchun keng qamrovli o‘quv dasturlarini ta’minlash uchun ularning roli va mas’uliyatining turli jihatlarini qamrab olish juda muhimdir. Bunday treningga kiritilishi kerak bo‘lgan tarkibiy qismlarning taqsimoti:

Qoidalarni bilish: Yengil atletika musobaqalari, jumladan, yengil atletika musobaqalari, kross va boshqa tegishli fanlar bo‘yicha qoidalar va qoidalar bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalar bering. Qoidalarni qo‘llash va talqin qilishni tasvirlash uchun amaliy misollar va ssenariylarni taklif qiling. Hakamlar savollar berishlari va qoidalarga oid noaniqliklarga oydinlik kiritishlari mumkin bo‘lgan interaktiv mashg‘ulotlarga yordam bering.

O‘yin boshqaruvi: Hakamlarga sport musobaqalarini, jumladan, o‘yindan oldingi tayyorgarlik, o‘yinda qaror qabul qilish va o‘yindan keyingi tartiblarni samarali boshqarishni o‘rgating. Adolat va sport mahoratini ta’minlashda raqobat muhiti ustidan nazoratni saqlash muhimligini ta’kidlang. Jarohatlarni boshqarish, jihozlar bilan bog‘liq muammolar va kutilmagan uzilishlar kabi turli xil o‘yin vaziyatlarini hal qilish uchun strategiyalarni taqdim eting.

Mojarolarni hal qilish: Musobaqa paytida sportchilar, murabbiylar va tomoshabinlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun hakamlarni nizolarni hal qilish usullariga o‘rgating. Mojarolarni hal qilishda xolis va xotirjam bo‘lish muhimligini ta’kidlang, shu bilan birga tartibni saqlash uchun kerak bo‘lganda hokimiyatni tasdiqlang. Mojarolarni o‘z ichiga olgan rolli o‘yin ssenariylari va hakamlarga tegishli hal qilish strategiyalarini qo‘llashda rahbarlik qiling.

Aloqa mahorati: Hakamlarning muloqot qobiliyatlarini, jumladan, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni, faol tinglashni va qat’iylikni rivojlantirish. Hakamlarga musobaqalar oldidan, vaqtida va keyin sportchilar, murabbiylar, hamkasblar va tomoshabinlar bilan samarali muloqot qilishni o‘rgating. Tushunish va rioya qilishni ta’minlash uchun aniq va aniq ko‘rsatmalar, tushuntirishlar va qarorlar berish bo‘yicha ko‘rsatmalar bering.

Amaliy tajriba: Hakamlarga simulyatsiya qilingan yoki haqiqiy sport musobaqalarida amaliy hakamlik qilish orqali amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini taklif eting. O‘rganish va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar davomida tajribali murabbiylar yoki o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari va yo‘l-yo‘riqlarini taqdim eting. Hakamlarni o‘z tajribalari haqida fikr yuritishga va vaqt o‘tishi bilan samaradorligini oshirish uchun yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashga undash.

Uzluksiz ta’lim: Boshlang‘ich tayyorgarlikdan tashqari hakamlar uchun doimiy o‘rganish va kasbiy rivojlanish muhimligini ta’kidlang. Resurslar, seminarlar, seminarlar va onlayn kurslarga kirish huquqini taqdim eting, ular hakamlarga qoidalar o‘zgarishlari, eng yaxshi amaliyotlar va hakamlik faoliyatidagi yangi tendensiyalardan xabardor bo‘lishlariga yordam berishadi. Tajriba almashish, bilim almashish va tengdoshlar va murabbiylardan maslahat olish uchun hakamlar uchun qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i yoki hamjamiyatini yarating. Ushbu elementlarni keng qamrovli o‘quv dasturlariga kiritgan holda, maktablarda engil atletika musobaqalarida hakamlar o‘yinlarni samarali boshqarish va sport musobaqalarining umumiy muvaffaqiyati va yaxlitligiga hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ishonchni rivojlantirishi mumkin. [4, 110]

Xulosa qilib aytganda sportchilar, ham hakamlar uchun kompleks o‘quv dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar ko‘nikmalarni rivojlantirish, qoidalarni tushunish, adolatli o‘yin va sport mahoratini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Sportchilar nafaqat o‘zlarining sport turlari bo‘yicha, balki jarohatlarning oldini olish, ovqatlanish va aqliy chidamlilik kabi jihatlarda ham murabbiylik qilishlari kerak. Hakamlar adolatli va izchil boshqaruvni ta’minlash uchun qoidalarni qo‘llash, nizolarni hal qilish va muloqot qilish ko‘nikmalari bo‘yicha qattiq treningdan o‘tishlari kerak. Ushbu strategiyalarga ustuvor ahamiyat qaratgan holda, ta’lim muassasalari va sport tashkilotlari malakali va adolatli hakamlar kadrlarini tarbiyalash orqali o‘quvchilar engil atletika musobaqalarida muvaffaqiyat qozonishlari mumkin bo‘lgan tarbiyaviy muhitni yaratishi mumkin. Ushbu yaxlit yondashuv nafaqat sport tadbirlarining sifatini oshiradi, balki qimmatli hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va ishtirokchilarning umumiy farovonligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorqulov, B. (2022). JISMONIY MASHQLARDAN KEYIN ORGANIZMNING QAYTA TIKLANISHI. Science and innovation, 1(B7), 693-697.

2. Ermamatovich, K. E. (2024). Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik mohiyati. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(2), – 104-106.

3. Izzatullayev Sunnatulla Shermuhammad o‘g‘li. Sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va hakamlik qilish. O‘quv qo‘llanma. “Booknomyprint”, 2024 – 240 b.

4. Isokova, S. A. (2024). TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 108-114.

5. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ МОДУЛЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ЛОЙИҲАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Юлдуз Аккулова,
Тошкент кимё-технология институти
Янгиер филиали катта ўқитувчиси

Аннотация

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида модулли таълим жараёнини ташкил қилишда фанлардан модуллар яратиш ва уларнинг дидактик мазмунини такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар келтирилган бўлиб, бунда модуль тушунчаси ва унинг турлари назарий жиҳатдан ёритиб берилган. Бунда ўқитувчи ўқув жараёнини ташкил қилади, жонли, видео ҳамда аудио маърузалар ўқийди, талабанинг фаолиятини мувофиқлаштиради ва назорат қилади. Модулли таълимнинг асосий мақсади талабалар томонидан аниқ ўқув мавзуси бўйича билимлар системасини ўзлаштириши ва кўникмаларга айлантиришдан иборатдир.

Калит сўзлар: *модуль, таълим, дидкатик мазмун, лойиҳалаш, методика, метод, микромудул, макромудул, тест ахборот.*

Аннотация

В данной статье представлены предложения и рекомендации по созданию модулей из дисциплин и совершенствованию их дидактического содержания при организации модульного образовательного процесса в высших учебных заведениях, в которых теоретически освещается понятие модуля и его виды. При этом преподаватель организует образовательный процесс, читает живые, видео- и аудиолекции, координирует и контролирует деятельность студента. Основной целью модульного обучения является овладение учащимися системой знаний по конкретному учебному предмету и преобразование ее в навыки.

Ключевые слова: *модуль, образование, дидактический контент, дизайн, методология, методика, микромудул, макромудул, тестовая информация.*

Annotation

This article presents suggestions and recommendations for creating modules from disciplines and improving their didactic content in the organization of the modular educational process in higher educational institutions, in which the concept of a module and its types are theoretically covered. In this, the teacher organizes the educational process, reads Live, video and audio lectures, coordinates and monitors the student’s activities. The main goal of modular education is to master the system of knowledge by students on a specific subject of study and transform it into skills.

Keywords: *modul, education, didkatic content, design, methodology, method, micromudul, macromudul, test information.*

Модуль — бу бир нечта фан ҳамда курслар ўрганиладиган ўқув режасининг бир қисми. У талабаларда маълум бир билим ва кўникма ҳосил қилиш, таҳлилий-мантиқий мушоҳада юритиш салоҳиятига эга бўлишига қаратилган бир нечта фанлар (курслар) мажмуи ҳисобланади. Талаба эса мавзуни мустақил ўрганади ҳамда берилган топшириқларни бажаради.

Таълим тизимининг асосий мақсади, барча соҳаларда касбий етук шахсни шакллантириш, унинг билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириш ҳамда рақобатбардош мутахассисни тайёрлашдан иборат.

Хориж тажрибалари таҳлили шуни кўрсатадики, жамият тараққиёти таълим-тарбия соҳасига жорий этилган инновацион технологияларнинг ривожи ва такомиллашуви билан боғлиқ.

Мазкур жараённи такомиллаштириш учун ўқитишда инновацион ёндашувлар ва унинг таркибий қисми бўлган модулли таълим технологияси асосида ўқув машғулотларини ташкил этиш ва шу орқали таълим сифати ва самарадорлигини ошириш муҳим ҳисобланади.

Модулли таълим анъанавий таълимга муқобил равишда пайдо бўлган бўлиб, замонимизнинг педагогик назарияси ва амалиётида тўпланган барча илғор ғояларни яхлит ҳолатга келтирган. Модулли таълимнинг асосий мақсади талабалар томонидан аниқ ўқув мавзуси бўйича билимлар системасини ўзлаштириши ва кўникмаларга айлантиришдан иборатдир.

Модулда ўқув машғулотларини (тугалланган ахборотлар блоки) 3-6 соатли маъруза машғулотлари ва шу билан боғланган амалий, семинар, лаборатория машғулотларидан (тахминан 16-18 соат вақтга мўлжалланса мақсадга мувофиқ бўлади) иборат бўлинишидир. [1, 21]

Модулларни шакллантириш учун асос бўлиб фаннинг ишчи дастури хизмат қилади. модуль кўпинча фан мавзуси ёки ўзаро боғланган мавзулардан иборат бўлиши мумкин. бироқ, мавзудан фарқли ўлароқ модулда ҳамма нарса ўлчанади, ҳамма нарса баҳоланади.

Модулли ўқитиш технологиясида ўқув материалини кетма-кет қуйидагича блокларга ажратилади:

– **ахборот қисми** (ўзлаштириш лозим бўлган ахборот);

– **қўллаш қисми** (масала ечиш, эгаллаган билим асосида топшириқларни бажариш);

– ахборотларни коррекциялаш қисми (нотўғри жавобларда қўшимча тушунтириш, ёрдам бериш, машқ ишлаш);

– тест-ахборот қисми (ўзлаштирилган ахборотни текшириш);

– текшириш ва тузатиш қисми[1].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда модулли ўқитиш технологияси асосида таълим жараёнини модуллар асосида лойиҳалаштирилади. Унда, талабаларнинг фан дастури асосида мустақил таълим олишларига алоҳида урғу берилади, уни ташкил этиш механизми муаммоли ёндашув асосида амалга оширилади.

Таълим йўналишлари (мутахассисликлари) Давлат таълим стандарти ва ўқув режаларининг янги авлоди яратилишида хорижий тажрибаларга асосланган ҳолда ўқув режага ўқитиш жараёнини лойиҳалаштиришга оид янги фан киритилишига алоҳида эътибор қаратилди.

Масалан, ўқитишни лойиҳалаштиришга оид АҚШ, Жорджия штати университетида (Valdosta State University) EDAT 6000: Professional Decision Making. 3*36=108 hours EDAT 7132: Framework for Teaching. 3*36=108 hours фани киритилган бўлса, Россия таълим тизимида (Педагогическое проектирование. Проектирование образовательной среды) фанлари киритилган. Шундан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикаси техника соҳасидаги олий таълимнинг магистратура мутахассисликларига “Техника туркумидаги фанларни ўқитиш жараёнини лойиҳалаш” фани киритилди[2].

Демак, профессор-ўқитувчилар талабаларда модулли технология асосида ўқув машғулотлар лойиҳаларини тузиш кўникмасини шакллантириш вазифаси туради.

Биринчи босқич. Ўқув фаннинг умумий мақсади ҳамда шу фаннинг катта ва ўрта бўлаклар (модуль)ининг олдига қўйилган мақсадларини ифода этувчи, кейинчалик, барча ўқув машғулотларнинг лойиҳасини тузишга хизмат қиладиган, умумий жадвалларини тузиш:

Биринчи, муайян ўқув фанини яхлит бир бутунликда англаб, уни энг юқори иерархия поғонадаги “Энг катта модуль” деб қабул қилинади. Сўнгра, ўқув фанининг олдига қўйилган умумий таълимий мақсадлари ва бу фанга ажратилган соатлар белгиланиб, жадвал шаклига келтирилади.

Ўқув фаннинг умумий мақсадлари, шу ўқув фани учун ишлаб чиқилган ДТС ва жамиятни мустақил Ўзбекистон фуқароларининг ижтимоий сифатларига қўйган талабларига жавоб бериши шарт.

Иккинчи, шу фан, яъни энг катта модуль ичидаги билимларнинг мантиқий боғлиқлиги ва фикрни тугалланганлигидан келиб чиқиб, ўқув материалини катта бўлакларга, яъни бобларга бўлиб чиқилади ва уларнинг “Катта-модуль” деб номланади. Шундан сўнг, ҳар бир катта модулнинг мақсадлари белгиланади, уларга ажратилган соатлар кўрсатилиб, жадвал шаклига келтирилади.

Катта модуллар мақсадлари энг катта модулдаги мақсадлардан келиб чиқиб, унинг ажралмас бир қисми сифатида бўлиши шарт. Ҳар бир катта модулларга ажратилган соатлар йиғиндиси, шу фанга берилган соатларнинг умумий сонига тенг бўлиши керак.

Учинчи, ҳар бир катта модуль (боб)лар ичидан мантиқан боғлиқ бўлган, шу билан баробар, ҳажм жиҳатидан бир жуфт соатлик ўқув машғулоти орқали талабаларга етказилиши лозим бўлган билимлар ажратилади ва уларга “Ўрта модуль” деб ном берилиб, уларнинг ҳам таълимий ва тарбиявий мақсадлари кўрсатилади ва жадвал шаклига келтирилади.

Шу билан миллий педагогик технология тамойиллари асосида ўқув машғулотларини лойиҳалашнинг умумий жадваллари тузилган бўлади.

Иккинчи босқич. Ҳар бир жуфт соатлик ўқув машғулотининг, яъни, ҳар бир “Ўрта” модулнинг хусусий жадвалларини тузиш:

Биринчи, бир жуфт соатлик ўқув машғулоти, яъни ўрта модулни, ундаги бериладиган билимларнинг мантиқий боғлиқлиги ва фикрни тугаллаганлигини инобатга олиб, бир нечта “Кичик” модулларга бўлинади. Сўнг, юқорида қўйилган умумий мақсадлардан келиб чиқиб, ҳар бир кичик модуль олдига қўйилган таълимий мақсадлари белгиланади ва ҳар бир кичик модулга ажратиладиган вақт кўрсатилади. [2, 32]

Шундан сўнг, шу кичик модуль якунида талабалар бажариши шарт бўлган иш ҳаракатлар аниқланади ва жадвал шаклига келтирилади.

Иккинчи, ҳар бир кичик модуллар орқали бериладиган билимлар ичидан таянч тушунчаларни ажратиб, улар асосида талабалар билим ва кўникмаларини баҳолаш учун назорат саволлари тузилади ва баҳолашнинг тур ва мезонлари аниқланади ва жадвал шаклига келтирилади.

Учинчи, ўқув машғулотининг ҳар бир кичик модулида қўлланиладиган машғулотнинг типи белгилаб олиниб, ҳар бир кичик модулда қўлланиладиган педагогик усул ва услублар кўрсатилади. Сўнг муайян ўқув муассасасида мавжуд ахборот-коммуникация технологиялар ичидан ҳамда мазкур ўқув материалининг характеридан келиб чиқиб, ҳар бир кичик модулдаги ўқув машғулотини амалга оширишда қўлланиладиган ахборот-коммуникация технология ва дидактик материаллар кўрсатилган жадвал яратилади.

Шу билан “Педагогик технология” тамойиллари асосида битта ўқув машғулотини лойиҳалашнинг хусусий жадвалларини тузиш вазифаси бажарилган бўлади.

Иккинчи, шу фан, яъни энг катта модуль ичидаги билимларнинг мантиқий боғлиқлиги ва фикрни тугалланганлигидан келиб чиқиб, ўқув материалини катта бўлакларга, яъни бобларга бўлиб чиқилади ва уларнинг “Катта-модуль” деб номланади. Шундан сўнг,

ҳар бир катта модулнинг мақсадлари белгиланади, уларга ажратилган соатлар кўрсатилиб, жадвал шаклига келтирилади.

Катта модуллар мақсадлари энг катта модулдаги мақсадлардан келиб чиқиб, унинг ажралмас бир қисми сифатида бўлиши шарт. Ҳар бир катта модулларга ажратилган соатлар йиғиндиси, шу фанга берилган соатларнинг умумий сонига тенг бўлиши керак.

Ўқув фаннинг умумий мақсадлари, шу ўқув фани учун ишлаб чиқилган ДТС ва жамиятни мустақил Ўзбекистон фуқароларининг ижтимоий сифатларига кўйган талабларига жавоб бериши шарт.

Иккинчи, шу фан, яъни энг катта модул ичидаги билимларнинг мантиқий боғлиқлиги ва фикрни тугалланганлигидан келиб чиқиб, ўқув материалини катта бўлакларга, яъни бобларга бўлиб чиқилади ва уларнинг “Катта-модул” деб номланади. Шундан сўнг, ҳар бир катта модулнинг мақсадлари белгиланади, уларга ажратилган соатлар кўрсатилиб, жадвал шаклига келтирилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Изетаева Г.К. Математика фанларни модул технологияси асосида ўқитишнинг назарияси ва амалиёти. // Монография. – Т.: “Fan va Texnologiya”, 2013. – 190 б.

2. Тожиев М., Зиёмуҳаммадов Б. Миллий педагогик технологиянинг таълим-тарбия жараёнига татбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. Монография. – Т.: “MUMTOZ SO‘Z”. 2010. – 214 б.

3. ЖАНАБЕРГЕНОВА, А. Ж. (2023). АХБОРОТЛАШГАН ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШ ФАОЛИЯТИ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Novateur Publications, 6. – Б. 142.

4. Perdebayevna, G. G. (2022). Teaching Organic Chemistry in Higher Education Institutions. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 13, 44 p.

5. Genjemuratova, G. P., Shambilova, G. K., & Bayniyazova, S. A. (2023). THE REINFORCEMENT OF COMPOSITE MATERIALS WITH NATURAL ORGANIC FIBERS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 741 p.

RAQAMLI ASRDA TALABALAR O‘RTASIDA DEKARBONIZATSIYA MADANIYATINI TARG‘IB QILISHDAGI TO‘SIQLARNI BARTARAF ETISH

Roxila Abdullayeva,
Yangi asr universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanganligi haqida fikr yuritiladi. Dunyo iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashayotgan bir paytda talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish maqsad qilib qo‘yilgan. Keng qamrovli tahlil orqali ushbu maqola dekarbonizatsiya tamoyillarini ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni, institutsional cheklovlardan kognitiv tarafkashliklargacha bo‘lgan to‘siqlarni aniqlashga qaratilgan. Raqamli madaniyat va atrof-muhit ongining o‘zaro ta’sirini yoritib, ushbu maqola o‘qituvchi-pedagoglar va manfaatdor tomonlarni ekologik ongli liderlar avlodini tarbiyalash uchun samarali strategiyalar bilan jihozlashga intiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, dekarbonizatsiya, dekarbonizatsiya madaniyati, raqamli texnologiya, yashil iqtisodiyot, ekologik ta’lim.*

Аннотация

В данной статье рассматривается тот факт, что продвижение культуры декарбонизации среди студентов стало одной из актуальных проблем современности. Цель состоит в том, чтобы продвигать культуру декарбонизации среди студентов в то время, когда мир борется с изменением климата. Посредством всестороннего анализа данная статья направлена на выявление препятствий на пути интеграции принципов декарбонизации в систему образования, начиная от институциональных ограничений и заканчивая когнитивными предубеждениями. Подчеркивая взаимодействие между цифровой культурой и экологическим сознанием, эта статья призвана вооружить преподавателей и заинтересованных лиц эффективными стратегиями для воспитания поколения экологически сознательных лидеров.

Ключевые слова: *цифровизация, декарбонизация, декарбонизационная культура, цифровые технологии, зеленая экономика, экологическое образование.*

Annotation

This article discusses the fact that promoting a culture of decarbonization among students has become one of the pressing problems of our time. The goal is to promote a culture of decarbonization among students at a time when the world is grappling with climate change. Through a comprehensive analysis, this article aims to identify barriers to integrating decarbonization principles into the education system, ranging from institutional constraints to cognitive biases. By highlighting the interplay between digital culture and environmental awareness, this article aims to equip educators and stakeholders with effective strategies for developing a generation of environmentally conscious leaders.

Keywords: *digitization, decarbonization, decarbonization culture, digital technology, green economy, environmental education.*

Ta’lim muassasalari dekarbonizatsiya ta’limini raqamli o‘quv muhitiga integratsiya qilishda logistika muammolariga duch kelmoqda. Raqamli platformalar axborotni tarqatish va talabalarni jalb qilish uchun ulkan salohiyatni taqdim etsa-da, kirish va texnologik infratuzilmadagi nomutanosibliklar mavjud tengsizliklarni yanada kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, texnologik innovatsiyalarning tez sur’atda o‘tishi o‘qituvchilar uchun doimiy moslashish va kasbiy rivojlanishni talab qiladi va amalga oshirish harakatlariga yana bir murakkablik darajasini qo‘shadi.

Maqolamizning asosiy maqsadi raqamli asrda talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni o‘rganish va ushbu to‘siqlarni bartaraf etish strategiyalarini taklif qilishdir. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashning dolzarb zarurati bilan yosh avlod o‘rtasida karbonsizlanish madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Biroq, raqamli texnologiyalarning tarqalishi talabalarni barqaror amaliyotga samarali jalb qilish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan noyob to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola ushbu to‘siqlarni aniqlash va ta’lim muassasalarida dekarbonizatsiya tashabbuslarini ilgari surishda o‘qituvchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun amaliy yechimlarni taqdim etishga qaratilgan.

Maqolamizning maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Raqamli asrda talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish yo‘lidagi asosiy to‘siqlarni, jumladan, texnologik chalg‘itishlar, axborotning haddan tashqari yuklanishi va atrof-muhit muammolaridan uzilishlarni aniqlash.

2. Raqamli texnologiyalarning talabalarning barqarorlik va karbonsizlanish harakatlariga bo‘lgan munosabati va xatti-harakatlariga ta’sirini o‘rganish.

3. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish va o‘quvchilarda ekologik mas’uliyat hissini tarbiyalashda ta’lim muassasalarining rolini o‘rganish.

4. Dekarbonizatsiya ta’limini raqamli o‘quv muhitiga integratsiyalash va eng yaxshi amaliyotlarni taklif qilish.

5. Talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish yo‘lidagi to‘siqlarni samarali yengib o‘tgan, replikatsiya va moslashish bo‘yicha amaliy tushunchalarni taqdim etgan amaliy tadqiqotlar hamda muvaffaqiyatli tashabbuslarni ajratib ko‘rsatish.

6. Dekarbonizatsiya bo‘yicha ta’limga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda o‘qituvchilar, atrof-muhit bo‘yicha ekspertlar va texnologiya mutaxassislari o‘rtasidagi fanlararo hamkorlikning ahamiyatini muhokama qilish.

7. Raqamli ta’lim platformalari bilan bog‘liq tenglik va foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, barcha talabalarni karbonsizlantirish tashabbuslarida ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash.

8. Rivojlanayotgan texnologik va ekologik landshaftlarga javoban teskari aloqa halqalari va adaptiv strategiyalarning muhimligini ta’kidlab, dekarbonizatsiya bo‘yicha ta’lim dasturlarini doimiy baholash va takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti ekologik mavzulardagi ta’lim mashg‘ulotlarida talabalarda dekarbonizatsiya madaniyati tushunchalarini shakllantirish jarayonidir. Asosiy e’tibor talabalarga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot kengroq aholi ichidagi ma’lum bir demografik guruhga qaratilganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun tadqiqot obyekti talabalarda dekarbonizatsiya tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

“Ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot asoslari” fani mavzularidagi mashg‘ulotlarda, talabalarda dekorbanizatsiya madaniyati tushunchalarini shakllantirish tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarimizda kuzatish, taqqoslash, anketa to‘ldirish va tahlil qilish, olingan natijalarni sharhlash, modellashtirish, monitoring qilish hamda matematik-statistika metodlaridan foydalandik.

Tez texnologik taraqqiyot va iqlim tashvishlarining kuchayishi davrida dekarbonizatsiya muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlatlar yaqinlashib kelayotgan iqlim o‘zgarishi xavfini yumshatishga intilayotgan bir paytda, dekarbonizatsiya madaniyatini rivojlantirish barqaror amaliyotlarni qo‘llab-quvvatlash va sayyoramiz kelajagini himoya qilishning ajralmas maqsadi bo‘lib qoladi. Biroq, ta’lim landshaftini o‘zgartirgan raqamli inqilob davrida talabalar o‘rtasida ushbu madaniyatni singdirishda o‘ziga xos muammolar mavjud.

Dekarbonizatsiya — bu bizning iqtisodiyotimizda qazib, yoqilg‘idan olinadigan energiyadan deyarli faqat toza, uglerodsiz energiya bilan ishlaydigan iqtisodiyotga aylantirish jarayonidir [5, 118].

Kelgusi yillar davomida “yashil o‘sish” insonlarning yashash va ishlash tarzini o‘zgartiradi. Bu transformatsiyaning asosiy omillari sifatida raqamlashtirish va de-

karbonizatsiya sayyoramiz, uning keng bioxilma-xilligi va insoniyat gullab-yashnashi mumkin bo‘lgan barqaror dunyoga o‘tishni osonlashtiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda uglerod chiqindilarining ortishi tufayli biosfera xavf ostida va insoniyat faoliyati sabab bo‘lgan iqlim o‘zgarishi butun dunyo ekotizimlariga xatar tug‘dirmoqda.

Iqlim o‘zgarishiga hissa qo‘shadigan asosiy omil — bu atmosferaga chiqadigan karbonat angidrid chiqindilarining konsentratsiyasi bilan o‘lchanadigan global isishdir. Ekologik xavfsizligimizga hissa qo‘shmoqchi bo‘lgan har qanday tashkilotlar uchun birinchi qadam bu uglerod bilan bog‘liq chiqindi manbalari nuqtayi nazaridan ularning hozirgi ekologik samaradorligini aniqlashdir. Shundan so‘nggina, mavjud vaziyatni tahlil qilish asosida tashkilotlar o‘zlarining uglerod manbalari chiqindilarini kamaytirish yoki hatto qoplash bo‘yicha harakat rejalarini taklif qilishlari mumkin [1, 791].

Yuqorida keltirilgan harakatlarni amalga oshirishda, avvalambor, xalqimizning dekarbonizatsiya haqidagi bilimlarni oshirish, dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish nihoyatda muhimdir. Mazkur harakatni esa o‘rta va oliy ta’lim muassasalaridan boshlash kerak. Xususan, ekotizm muhitida talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini shakllantirishda asosiy mavzular va obyektlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish va rivojlantirishda ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, barqarorlik kontseptsiyalarini o‘quv rejasiga batamom kiritish va barqaror raqamli amaliyotlar bo‘yicha ko‘rsatmalar berish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bugungi kunda mazkur dekarbonizatsiya madaniyatini yoshlar orasiga keng olib kirish borasida bir qancha tadqiqotchilarimiz o‘z ilmiy ishlarini olib borishmoqda. Tubanda mazkur adabiyotlar tahlillarini keltirib o‘tamiz.

M.A.Keller tadqiqotlarida, barqarorlikni qo‘llab-quvvatlagan amerikalik arxitektor, tizim nazariyotchisi va futurist Richard Bakminster Fuller tomonidan fanga ilk bor “efemeralizatsiya” va “kamroq bilan ko‘proq ishlash” tushunchalari kiritilganligi va bu tushunchalarni dizayn va texnologiya sohasida unumli ishlatilishi resurslardan, jumladan energiyadan samarali foydalanishga yordam berishi mumkinligi ta’kidlab o‘tilgan. Olim o‘z qarashlarida dekarbonizatsiyaning ilk madaniyat shaklida ko‘rinishi asli shunday boshlanishiga ishora qilmoqda [1, 315].

J.Gudoll taniqli britaniyalik primatolog va ekolog olima bo‘lib, o‘z qarashlarida yoshlar orasida ekologik ta’limni rivojlantirish va ta’lim jarayonini barqaror amaliyotlar bog‘lash lozimligini uqtiradi. Bunday dars jarayonlarini esa o‘quvchilar orasida tabiat haqidagi xabardorlikni oshirishga da’vat etishi haqida o‘z qarashlarida fikrlarini keltirib o‘tadi. Uning o‘z nomiga berilgan “Jeyn Gudoll” instituti bilan ishi tabiatni muhofaza qilish ishlariga yoshlarni jalb qilishga qaratilgan[4, 5]

M.Resnik amerikalik kompyuter olimi va o‘qituvchisi. Resnik MIT Media Laboratoriyasida Scratch dasturlash tili va Lifelong Kindergarten guruhini ishlab chiqishdagi kashfiyotlari bilan mashhur. Uning tashabbuslari o‘sib kelayotgan yosh avlodga qaratilgan bo‘lib, bugungi kundagi raqamli ekotizim muhitida, jumladan, atrof-muhit va barqarorlik masalalarida ijodiy fikrlovchi, hamkorlik qiluvchi va muammolarni hal etuvchi bo‘lish imkoniyatini berishga qaratilgan [3, 400].

P.G.Xarris o‘z tadqiqotlarida global va atrof-muhitni o‘rganish nazariyalari, barqaror rivojlanish uchun ta’lim va atrof-muhit haqida xabardorlikni oshirishda texnologiyalarning roli haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Uning ishi barqaror amaliyotlarni qo‘llab-quvvatlash va atrof-muhit muammolarini hal qilishda talabalarni ishtirokini kuchaytirish uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘rganadi hamda hayotimizda tutgan o‘rnini ko‘rsatib beradi [6, 615].

Bu olimlar barqarorlik, ekologik ta’lim va raqamli texnologiyalar sohalarida o‘zlarining katta hissasini qo‘shgan. Ularning ishi “raqamli ekotizm” tushunchasiga yoki talabalarda dekarbonizatsiya madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratmasa ham, ularning tadqiqotlari va tajribalari raqamli kontekstda yosh o‘quvchilar o‘rtasida barqarorlik va ekologik ongni targ‘ib qilish bo‘yicha qimmatli tushunchalarni beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, ekotizim muhitida talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini shakllantirish hozirgi kundagi turli xildagi usullarini tahlilini keltirib o‘tamiz.

Ekotizim muhitida talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini shakllantirish raqamli texnologiyalar salohiyatidan foydalanadigan va barqaror amaliyotlarni rag‘batlantiradigan samarali usullar va strategiyalarni qo‘llashni talab qiladi. Xususan:

1. Ekologik ta’lim va xabardorlik usuli raqamli texnologiyalarning uglerod izlari, raqamli chiqindilarni boshqarish va barqaror amaliyotlarga e’tibor qaratgan holda ekologik ta’limni o‘quv dasturlariga integratsiyalashdir.

2. Energiyani tejaydigan raqamli odatlar usuli talabalarni raqamli o‘zaro aloqalarida energiya tejovchi amaliyotlarni qo‘llashga undash, masalan, qurilma sozlamalarini optimallashtirish, quvvatni tejash rejimlaridan foydalanish va foydalanilmayotganda qurilmalarni o‘chirishga undaydi.

3. Mas’uliyatli raqamli iste’mol usuli talabalarga onlayn faoliyatning atrof-muhitga ta’siri haqida o‘rgatish, oqilona foydalanishni rag‘batlantirish va raqamli tozalash kabi amaliyotlarni targ‘ib qiladi.

4. Barqaror raqamli platformalar va vositalar usuli energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va mas’uliyatli ishlab chiqarish amaliyotiga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror raqamli platformalar, dasturiy ta’minot va qurilmalardan foydalanishni targ‘ib qiladi.

5. Hamkorlikdagi loyihalar va tashabbuslar usuli ta-

labalarni raqamli platformalar orqali ekologik muammolarni hal qiladigan hamkorlikdagi loyihalarga jalb qilib, masalan, barqarorlik uchun ilovalarni loyihalash, elektron chiqindilarni qayta ishlash drayverlarini tashkil qilish yoki barqaror texnologiyalardan foydalanishni targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadi.

Ekotizim muhitida talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini shakllantirishga kompleks yondashuvni yaratishi mumkin. Ta’lim, xabardorlik, mas’uliyatli odatlar, barqaror texnologiyalardan foydalanish va faol ishtirok etish orqali talabalar yanada barqaror va kam uglerodli raqamli kelajak sari harakat qiladigan o‘zgarishlarning faol agentlariga aylanadi.

Xulosa shuki, zamonaviy raqamli asrda talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya madaniyatini targ‘ib qilish dolzarb vazifadir. Raqamli resurslar va texnologik taraqqiyotning ko‘pligiga qaramay, bir qator to‘siqlar ushbu muhim ishda samarali ishtirok etishga to‘sqinlik qilmoqda. Aniqlangan muammolar qatoriga axborotning haddan tashqari ko‘pligi kiradi, bunda talabalar turli platformalarda katta hajmdagi ma’lumotlarga to‘lib ketishadi, bu esa aloqani yo‘qotish va loqaydlikka olib keladi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar va o‘yin-kulgilar kabi raqamli chalg‘ituvchi vositalar e’tiborni atrof-muhit muammolaridan chalg‘itadi. Ayni damda mazkur mavzuda moslashtirilgan o‘quv adabiyotlari va materiallarining yo‘qligi, institutsional yordamning yetarli emasligi talabalar o‘rtasida dekarbonizatsiya bo‘yicha xabardorlikni va harakatni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karen Valls-Val, María D. Bovea. Carbon footprint assessment tool for universities: CO2UNV. Sustainable Production and Consumption Volume 29, January 2022, p-791-804. https: //www. sciencedirect. com/ science/ article/ pii/ S23 5255092100333X

2. Michael A. Keller// Buckminster Fuller. Anthology for the Millennium // Southern Illinois University Press, 2014. p-472

3. Resnick M. Rethinking learning in the digital age. The Global Information Technology Report 2001–2002 Readiness for the Networked World – 2002, charter-3, p-32-37

4. Трубников А, Трубников С / Газета “Суть времени”. – №566 / 30 декабря 2023.

5. Welton.Sh.Рынки электроэнергии и социальный проект декарбонизации. Columbia law review. Journal №4, p-118. .

6. Харрис, Пол Г. “Перспективы глобальной экологической политики: перспективы изучения и практики”. В Справочнике глобальной экологической политики Routledge, 2-издание, под редакцией П.Г. Харриса. Лондон: Рутледж, 2022, стр. 609–617.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARNING SAMARADORLIGI

O‘ktam Eshonqulov,
Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi;
Kamola Eshonqulova,
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi oshirishda milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sog‘lom qilib tarbiyalashda ularning jismoniy sifatlarini oshirishda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish haqida amaliy ko‘rsatma va tavsiyalar berib o‘tilgan, har bir jismoniy sifatlarga alohida milliy harakatli o‘yinlar berib o‘tilgan, Ko‘rsatilgan o‘yinlardan foydalanib jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilinsa o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi. Maqola davomida milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish qanchalik foydali ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy sifatlar, milliy harakatli o‘yinlar, sog‘lom, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik, kuch, egiluvchanlik.*

Аннотация

В данной статье говорится о значении национальных двигательных игр в повышении эффективности физического развития учащихся младших классов. Даны практические указания и рекомендации по использованию

национальных двигательных игр для совершенствования физических качеств учащихся младших классов, а также отдельные национальные двигательные игры по каждому физическому качеству. урок увеличится. В статье раскрывается, насколько полезно использовать национальные экшн-игры.

Ключевые слова: *физические качества, национальные двигательные игры, фитнесс, выносливость, ловкость, ловкость, сила, гибкость.*

Annotation

This article talks about the importance of national movement games in increasing the effectiveness of physical development of elementary school students. Practical instructions and recommendations were given on the use of national movement games to improve the physical qualities of elementary school students, and separate national movement games were given for each physical quality. If physical education lessons are organized using these games, students’ interest in the lesson will increase. The article reveals how useful it is to use national action games.

Keywords: *Physical Qualities, National Movement Games, Fitness, Endurance, Agility, Dexterity, Strength, Flexibility.*

Bugungi kunda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng sport sohasiga nafaqat mamlakatni dunyoga tanitish, balki xalqimizning sog‘lig‘ini mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezoni sifatida katta e’tibor berildi. Millatning kelajagi masalasi doimo jamiyat tarbiyalayotgan yosh avlodning qanday kamol topishiga bog‘liq bo‘lib kelgan. Shu sababli ham mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, sport musobaqalari o‘tkazish va hakamlik qilishni takomillashtirishda davlat oldidagi muhim vazifa bo‘lib kelmoqda. [4, 149]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4877-son, 2021-yil 16-iyundagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–5148-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan muhim vazifalarni amalga oshirish talabidan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlarning samaradorligini oshirib, ularni sog‘lom, barkamol, vatanparvar avlod qilib tarbiyalashimiz lozim. [3, 108]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish juda ham zarur hisoblanadi. Chidamlilik — insonning biron harakat faoliyatini uzoq vaqt davomida uning samarasini pasaytirmasdan bajarish qobiliyati. Ishning davomiyligi oxir oqibat charchash bilan chegaralanganligi munosabati bilan chidamlilikni organizmning charchashga bardosh berish imkoniyati deb ham ifodalash mumkin. Keltirilgan milliy harakatli o‘yin yordamida bolalarda chidamlilik sifatini yanada oshirishga yordam beradi. [2, 64]. Aylanib o‘tish — pedagogik vazifasi. Koordinatsion harakatni tarbiyalash. Tezkorlik, chidamlilikni tarbiyalash.

Psixologik ahamiyati — o‘quvchilarda psixologik (diqqat, iroda, koordinatsiya) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik) xususiyatlarini shakllantirish.

Tayyorgarlik ko‘rish. Start chizig‘i orqasida bir necha guruh bir kishidan bo‘lib, qatorda o‘tiradilar. Har bir guruh oldiga start chizig‘idan 6 metr narida fishka yoki baklashka qo‘yiladi va har 2-3 metrdan keyin yana bittadan 5 ta fishka yoki baklashka qo‘yiladi.

O‘yin tasnifi. O‘qituvchining signalidan keyin guruhlarning birinchi turgan o‘yinchilari to‘pni oldinga oyoq kafti yuzini ichki tomoni bilan olib borib, fishkalarni aylanib o‘tadi, keyin esa xuddi shu usul bilan orqaga surib, finishga — start chizig‘iga olib kelib, ikkinchi o‘yinchiga uzatadi va hokazo. Estafetani birinchi bo‘lib tugatgan komanda g‘olib hisoblanadi.

O‘yin qoidasi:

1. To‘pni olib yurishni signal berilgandan keyin bajarish shart.

2. To‘p bilan har bir fishkadan aylanib o‘tish zarur.

3. Navbatdagi o‘yinchi to‘pni qabul qilish vaqtida chiziqdan chiqmasligi kerak. [1, 13]

Tezkorlik insonning tashqi ta’sirlarga bir zumda javob qaytarish hamda tez harakatlar bajara olish qobiliyatidir. Tezkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi milliy harakatli o‘yindan foydalansak, bolalarda tezkorlik sifatini yanada samarali oshirishimiz mumkin.

Boshqa joyga o‘tib olish

Pedagogik vazifasi. To‘pni olib yurish malakasini tarbiyalash. Tezkorlik, chaqqonlikni rivojlantirish.

Psixologik ahamiyati. O‘quvchilarda psixologik (diqqat, koordinatsiya) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik) xususiyatlarini shakllantirish.

Tayyorgarlik ko‘rish. O‘yinda bir vaqtning o‘zida bir nechta guruh musobaqalashadi. Ularning har biri ikkita qarama-qarshi qatorda chiziqlar orqasida qator bo‘lib turadilar, oralaridagi masofa 30 metr bo‘ladi. Guruhlar qatori o‘rtasida “slalom chizig‘i” chiziladi 2 metr oraliqqa 5 ta bayroq yoki ustunga o‘rnatiladi. Guruhning chiziq orqasida turgan birinchi o‘yinchilarida bittadan futbol to‘pi bo‘ladi.

O‘yin tasnifi. O‘yin sport zali yoki sport maydonchasida o‘tkaziladi. O‘qituvchining buyrug‘i bilan ular to‘pni oldingi oyoq kafti yuzini tashqi tomonida oldinga harakat qilib, galma-gal hamma bayroqlardan ilon izi bo‘lib to‘p bilan aylanib o‘tadilar va o‘z guruhlari qarshisidagi qatorning birinchi o‘yinchisiga to‘pni pastdan oshiradilar, o‘zlari esa o‘sha qator oxiriga borib turadilar va hokazo. Hamma o‘yinchilar qatorda o‘z o‘rinlarini egallaganlari-

dan keyin raqiblar o‘yinini tugatadilar. O‘z joyiga 15 eng qisqa vaqt ichida xatoga yo‘l qo‘ymasdan o‘tib olishga ulgurgan guruh o‘yinda g‘olib hisoblanadi.

Kuch. Mushak kuchi mushakning zo‘riqish darajasi, shuningdek, tashqi qarshilik yoki og‘irlikka qarshi harakatlar kattaligi bilan tavsiflanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuch sifatini rivojlantirishda juda ham ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak mushaklarga beriladigan yuklamani o‘quvchini jismoniy holatiga qarab berilishi kerak.

Shtangachilar

Pedagogik vazifasi. Kuchni, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirish.

Psixologik ahamiyati. O‘quvchilarda psixologik (diqqat, koordinatsiya) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik, kuch) xususiyatlarini shakllantirish.

Tayyorgarlik ko‘rish. O‘yin sport zalida va maydonchada o‘tkaziladi. O‘yin ishtirokchilari ikki komandaga bo‘linib, bir qatordan bo‘lib maydondagi chiziqda turadilar. Har bir komanda o‘ziga o‘yinboshi – shtangachini tanlaydi. Ular o‘z navbatida qo‘llarida gimnastika tayoqchasini (shtangachani) ko‘krak oldida ushlab 15-20 metr masofada komandalari qarshisida turadilar. Qatorda turgan qolgan o‘yinchilarning hammasi esa qo‘llarida beshtadan chambarak shtanga diskasini ushlab turadilar. [1, 16]

O‘yin tasnifi. O‘qituvchining signalidan keyin birinchi turgan o‘yinchilar shtangachilar tomon yugurib borib, uni ichiga chambarakni kiydirib, orqaga qaytib keladi va ikkinchi turgan o‘yinchilarga estafetani beradi va hokazo. Hamma o‘yinchilar shtangachi chambarakni ilib bo‘lganlaridan keyin, shtangachi uni yuqoriga ko‘taradi. Shtangani birinchi bo‘lib yuqoriga ko‘targan o‘yinchi yutgan hisoblanadi.

O‘yin qoidasi:

1. Ikkala guruhda ham chambaraklar soni teng bo‘lishi kerak.

2. Estafetani qabul qilish paytida chiziqni bosib turish man etiladi.

Epchillik. Epchillik muvofiqlash nuqtayi nazaridan murakkab harakatlarni bajarish, ularni tez o‘zlash-tirish, yuzaga kelgan vaziyatga qarab harakatlarni o‘zgartira olish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

To‘pni savatga tashlash

Pedagogik vazifasi. Epchillik, tezkorlik sifatlarini rivojlantirish. To‘pni uzatish va tashlashni o‘rgatish.

Psixologik ahamiyati**.** O‘quvchilarda psixologik (diqqat, tezkor fikrlash) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik, koordinatsiya) xususiyatlarini shakllantirish.

Tayyorgarlik ko‘rish. O‘quvchilar o‘yinchilarning soniga qarab ikki yoki uchta komandaga bo‘linib, start chizig‘i orqasiga saflanadilar. Qatorlar qarshisiga start chizig‘idan 5-6 metr masofadagi devorning 1,5 metr baland yeriga yoki reykacha yoki maxsus moslamaga basketbol savatini (halqa) yoki katta karton yashiklar o‘rnatiladi. Har bir komanda o‘zi uchun to‘p uzatuvchi tanlashadi va to‘p uzatuvchilar savatcha (halqa) yonida turadilar. O‘qituvchi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan ozod qilingan o‘quvchilardan komanda soniga qarab hakamlarni tayinlaydi. Komandalar boshida turgan o‘yinchilar qo‘lida bittadan kichik to‘p bo‘ladi.

O‘yin tasnifi. O‘qituvchining signal berishi bilanoq qatorda birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilar savatga to‘p tashlaydilar. Agarda to‘p savatga tushmasa, to‘p uzatuvchi uni olib tashlagan o‘yinchining o‘ziga beradi. U to‘pni savatga tushirguncha tashlayveradi, shundan so‘ng to‘p uzatuvchi to‘pni ikkinchi o‘yinchiga uzatgandan so‘ng qatorning oxiriga borib turadi. Birinchi o‘yinchi to‘p uzatuvchi bo‘lib qoladi, shu tariqa komanda o‘yinchilarining barchasi navbatma-navbat to‘p uzatuvchi bo‘ladi. Savatga ko‘p to‘p tushirgan o‘yinchi g‘olib bo‘ladi.

O‘yinning varianti. Bir komanda ma’lum miqdorda, masalan, 15 ta ochko to‘plagan komanda g‘olib bo‘ladi.

O‘yin qoidasi:

1. To‘pni savatga yuqoridan tashlash kerak.

2. To‘pni tashlash vaqtida chiziqni bosish mumkin emas. [1, 7]

Egiluvchanlik bo‘g‘imlar harakatchanligi darajasini ko‘rsatadi. Harakatchanlikning miqdoriy ifodasi — harakatlar amplitudasi. Egiluvchanlik uloqtirishlarda, ayrim sakrash turlarida, gimnastik hamda akrobatik mashqlarda, yangi harakat shakllarini yanada samarali egallashda shiddat natijalarining ko‘tarilishiga ko‘maklashadi. Kichik maktab yoshida egiluvchanlikni shakllantirish uchun qulay sharoit mavjud. [2, 65] Bu, eng avvalo, tayanch-harakat apparatining morfologik xususiyatlariga bog‘liq va mushaklarning yuqori cho‘ziluvchanligi, umurtqa pog‘onasining harakatchanligi demakdir. 7-10 yoshli bolalarda egiluvchanlikning rivojlanish sur’atlari tabiiy ravishda juda yuqori ekanligi kuzatiladi. 11-13 yoshli qizlarda va 13-15 yoshli o‘g‘il bolalarda faol egiluvchanlik maksimal kattaliklarga erishadi. 7 dan 10 yoshgacha bo‘lgan davr harakatlar epchilligining rivojlanish sur’atlari yuqoriligi bilan tavsiflanadi. 12-13 yoshlarda egiluvchanlik hamda bo‘g‘imlardagi harakatchan-likni anjomlarsiz va kichik og‘irlikdagi anjomlar (gimnastika tayog‘i, gantellar, to‘ldirma to‘plar) yoki sherik bilan o‘tkaziladigan, ta’sirni kuchaytiruvchi va shu tariqa astasekin harakatlar amplitudasini oshirib boradigan faol-sust xususiyatli mashqlar rivojlantiradi. Shuningdek, kattalarga qaraganda ko‘proq qomatni shakllantiruvchi mashqlar qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy harakat o‘yinlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Natijalar milliy faollik o‘yinlari bilan muntazam shug‘ullanuvchi ishtirokchilarda kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik va chaqqonlik kabi turli jismoniy ko‘rsatkichlarda sezilarli yaxshilanishlarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ushbu o‘yinlarning o‘quvchilarning umumiy jismoniy salomatligi va farovonligiga ijobiy

ta’sirini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Bu mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy tayyorgarligini oshiribgina qolmay, balki muhim vosita ko‘nikmalarini, muvofiqlashtirish va jamoada ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bundan tashqari, o‘quvchilarning zavqlanish va faollik darajasi milliy sport o‘yinlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ushbu o‘yinlarda ishtirok etishdan olingan ichki motivatsiya jismoniy faoliyat odatlariga uzoq muddatli rioya qilishga yordam beradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, milliy faollik o‘yinlarining samaradorligi ishtirok etishning chastotasi va intensivligi, o‘qitish sifati, o‘quvchilarning individual farqlari kabi omillarga qarab farq qilishi mumkin. Shu sababli, ushbu o‘yinlarning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun boshlang‘ich maktab o‘quv dasturlariga joriy etishning optimal strategiyalarini o‘rganish uchun keyingi tadqiqotlar tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy faol o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini oshirish, ularning umumiy salomatligi va farovonligini mustahkamlash uchun qimmatli manbadir. Ushbu o‘yinlarni ta’lim dasturlariga kiritish yosh o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Xo‘jayev, R. Abdurasulov, M. Xo‘jayeva. Milliy harakatli o‘yinlar va estafetalar. – T.: “Umid Design”, 2021. – 176 b.

2. Izzatullayev Sunnatulla Shermuhammad o‘g‘li. Sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va hakamlik qilish. O‘quv qo‘llanma. – “Booknomyprint”, 2024. – 240 b.

3. Isokova, S. A. (2024). TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KompetensiyaLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 108-114.

4. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Nilufar Safarova,
Yangi asr universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqil ta’lim faoliyati orqali talabalarning ekologik kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati va oshirish usullari haqida so‘z boradi. “Ekologik kompetensiya” atamasi atrof-muhit masalalari bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, munosabatlarni o‘z ichiga olgan yaxlit yondashuvni nazarda tutadi. Ekologik ta’lim kontekstida mustaqil ta’limni rivojlantirishning turli usullari, strategiyalari muhokama qilinadi. Bunda amaliy tajribalar, loyiha asosidagi ta’lim va atrof-muhit mavzularini o‘quv dasturiga integratsiyalash masalalari nazarda tutiladi. Maqsad talabalarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tashabbus va mas’uliyatni kuchaytirish, yuksak ekologik ong bilan barqaror kelajakka hissa qo‘shishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *ekologik kompetensiya, integratsiya, ekskursiya, onlayn platforma, ekologik savodxonlik, mentorlik, atrof-muhit, kompetensiya, ta’lim integratsiyasi.*

Аннотация

В данной статье говорится о важности формирования экологической компетентности студентов и путях ее повышения посредством самостоятельной учебной деятельности. Термин “экологическая компетентность” относится к целостному подходу, который включает знания, навыки и отношения, необходимые для решения экологических проблем. Обсуждаются различные методы и стратегии развития независимого образования в контексте экологического образования. Это включает в себя практический опыт, обучение на основе проектов и интеграцию экологических тем в учебную программу. Цель — усилить инициативу и ответственность студентов за охрану окружающей среды, внести вклад в устойчивое будущее с высоким экологическим сознанием.

Ключевые слова: *экологическая компетентность, интеграция, экскурсия, онлайн-платформа, экологическая грамотность, наставничество, среда, компетентность, образовательная интеграция.*

Annotation

This article talks about the importance of developing students’ environmental competence and ways to increase it through independent learning activities. The term “environmental competence” refers to a holistic approach that includes the knowledge, skills and attitudes needed to solve environmental problems. Various methods and strategies for developing independent education in the context of environmental education are discussed. This includes hands-on experience, project-based learning, and integration of environmental topics into the curriculum. The goal is to strengthen students’ initiative and responsibility for environmental protection, to contribute to a sustainable future with high environmental consciousness.

Keywords: *environmental competence, integration, excursion, online platform, environmental literacy, mentoring, environment, competence, educational integration.*

Yangi avlodni davlat ta’lim standartlarining asosiy talabi o‘quvchilarning mustaqil faoliyati rolini kuchaytirishdan iborat. Bu talab oliy ta’limning asosiy vazifasi bo‘lgan o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va yangilikka intiluvchan ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Sekin-asta o‘rganish emas, balki ta’lim jarayoni birinchi o‘ringa chiqadi. O‘quv jarayonida talaba asta-sekin passiv iste’molchidan faol iste’molchiga aylanadi.

Hozirgi davrda ekologik ta’limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va boshqa ekologik muammolarning yaqinlashib kelayotgan tahdidlari bilan talabalarda ekologik kompetensiyani rivojlantirish sayyoramizning barqaror rivojlanishi uchun juda muhimdir. Mustaqil ta’lim faoliyati esa tabiiy resurslarimizni asrab-avaylashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ekologik ongli shaxslarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ekologik barqaror rivojlanish — barqarorlik tushunchalari va amaliyotlarini o‘quv dasturining barcha sohalariga integratsiyalashgan ta’limga yaxlit yondashuvdir. Bu talabalarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishiga hissa qo‘shadigan asosli qarorlar qabul qilishlariga imkon beradi. Ekologik kompetensiyani rivojlantirishda esa mustaqil ta’lim faoliyatining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari o‘z-o‘zini boshqarishni o‘rganish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda, talabalarga o‘z harakatlari haqida fikr yuritish va tajribalaridan o‘rganish imkoniyatini beradi.

Mustaqil ta’lim faoliyati orqali ekologik kompetensiyani rivojlantirish ESD (Ekologik barqaror rivojlanish)ning muhim jihati hisoblanadi. U talabalarni barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar bilan ta’minlaydi. Shu bilan birga, talabalarning ushbu ko‘nikmalarni samarali o‘rganishi va qo‘llashini ta’minlash uchun ularning kompetensiyalarini baholash ham muhimdir.

Ekologik mavzulardagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida tadqiqot obyekti talabalarning ekologik kompetensiyasidir. Ekologik kompetensiya odamlarning atrof-muhitni tushunishi, qadrlashi va barqarorligiga hissa qo‘shishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarni anglatadi. Asosiy e’tibor talabalarga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot kengroq aholi ichidagi ma’lum bir demografik guruhga qaratilganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun tadqiqot obyekti talabalarning ekologik kompetensiyasini oshirish va rivojlantirish yo‘llarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlarimizda kuzatish, taqqoslash, anketa-so‘rovnomalar, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, olingan natijalarni sharhlash, modellashtirish, monitoring qilish hamda matematik-statistika metodlaridan foydalandik.

Ekologik kompetensiya, mustaqil ta’lim faoliyati va ularning kesishishi bilan bog‘liq mavjud nazariyalar, modellar va tadqiqotlarni tushunish uchun to‘liq adabiyotlarni o‘rganish zarur. Tubanda bu tushunchalarga berilgan ta’riflarni adabiyotlar tahlili misolida keltirib o‘tamiz.

Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari nima? Talabalar uchun mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil ravishda o‘rganish, tanqidiy fikrlashni va atrof-muhit muammolarini hal qilish bo‘yicha mustaqil izlanishlar olib borish imkoniyatini yaratib beradi.

Talabalar o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz yoki bilvosita boshqaruvida, u bergan vazifa, darslik asosida individual bajaradigan ishi mustaqil ish hisoblanadi [1, 5].

Axborot va bilimlar doirasi shiddat bilan kengayib borayotgan hozirgi zamonda barcha ma’lumotlar o‘quvchilarga faqat dars vaqtida yetkazilishi qiyin masala. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi mustaqil ishlasa, ya’ni o‘z ustida tinimsiz ishlasagina chuqur bilim oladi. Talabalarning boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malakalari faqat mustaqil bilim olish jarayonida shakllanadi, ularda mustaqil faoliyatni amalga oshirish qobiliyati shakllanadi va ijodiy san’atga qiziqish uyg‘onadi.

Mustaqil ishlarning shakli va hajmini belgilashda albatta quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:

– o‘qish bosqichi;

– muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

– talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);

– fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;

– talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarni bajarish uchun zarur adabiyotlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet, multimediyali va boshqa elektron vositalar talabalarning berilgan topshiriqni bajarishi va bilimlarni mustahkamlashida amaliy yordam beradi [3, 172].

Mustaqil ta’lim faoliyati o‘quvchilarni o‘z o‘quv jarayoniga mas’ul bo‘lishga undaydi. Ushbu tadbirlar

an’anaviy auditoriyada o‘qitishdan tashqariga chiqadi va talabalarni atrof-muhit muammolarini mustaqil ravishda o‘rganish, savol berish va tahlil qilishga undaydi. Bunday tadbirlarga tadqiqot loyihalari, dala tadqiqotlari, atrof-muhitni muhofaza qilish kampaniyalarida ishtirok etish va o‘z-o‘zini boshqarish tashabbuslari kiradi.

Talabaning mustaqil ravishda o‘quv materialini o‘zlashtirishga intilishi, maxsus adabiyotlar, ilmiy manbalar ustida ishlashi, egallagan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishi, o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha kengroq bilimni egallashga bo‘lgan ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlash jarayonida talabaning shaxsiy fazilatlari yanada takomillashadi, shu bilan birga uning irodasi, fikrlash qobiliyati, xotirasi kuchayadi. Respublikamiz OTMlari boshlang‘ich bosqichlarda me’yoriy jihatdan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda talabalarning mustaqil ta’limi o‘quv fanlari masalalari va muammolari qatorida ko‘zda tutilmog‘i lozim hamda ekologik kompetensiyalar bilan boyitilishi mukammallik kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

L.A.Lavrenteva ekologik kompetensiyani ekologiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni, tabiatga axloqiy munosabatni, insonparvarlik va hamdardlik, tejamkorlik, hamda atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati natijalari uchun javobgarlik kabi ekologik ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarni birlashtirish deb qaraydi. Shu bilan birga ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish qancha erta boshlasa shuncha yaxshi natija berishini ta’kidlab o‘tadi [5, 210]

Ekologik kompetensiya deganda odamlarga atrof-muhit muammolarini tushunish, tahlil qilish va samarali hal qilish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar tushuniladi. U ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxlit tushunishni o‘z ichiga oladi. Ekologik kompetensiyani rivojlantirish orqali o‘quvchilar atrof-muhit muammolari oldida ongli qarorlar qabul qilish va mas’uliyatli harakatlar qilish uchun tayyorlanishadi.

Talabalarning ekologik kompetensiyalarining hozirgi darajasini baholash uchun so‘rovlar va anketalar o‘tkazish, savollar ekologik bilim, xabardorlik va barqarorlikka munosabat kabi mavzularni qamrab olishi zarur.

Sifatli ma’lumotlarni to‘plash uchun atrof-muhit bo‘yicha ekspertlar va talabalar bilan suhbatlar o‘tkazish ham yaxshi samara beradi. Bu usul atrof-muhitga oid kompetensiya va mustaqil ta’lim faoliyati bilan bog‘liq shaxsiy tajriba, in’ikos va tushunchalarni chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Talabalarning atrof-muhit bilan bog‘liq mustaqil ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanishini kuzatish. Bu usul ularni o‘rganishning amaliy jihatlari, jumladan, bilimlarni qo‘llash va ko‘nikmalarni rivojlantirish haqida tushuncha beradi.

Talabalar tomonidan mustaqil bilim olish jarayonida foydalaniladigan o‘quv materiallari, o‘quv dasturlari va resurslarni tahlil qilish. Ushbu usul atrof-muhit tarkibining mavjudligini aniqlashga va uning malakasini oshirishdagi samaradorligini baholashga yordam beradi.

Mustaqil ta’lim faoliyati orqali ekologik kompetensiyani muvaffaqiyatli rivojlantirishning aniq holatlari yoki misollarini o‘rganish. Keys tadqiqotlari samarali strategiyalar va amaliyotlar haqida chuqur, kontekstli tushunchalar beradi.

Ekologik kompetensiyani shakllantirishda mustaqil ta’lim faoliyatining turli turlari samaradorligini taqqoslash. Bu turli guruhlar yoki sozlamalar bo‘yicha natijalarni solishtirishni o‘z ichiga olishi zarur.

Uzoq vaqt davomida talabalarda ekologik kompetensiyalarning rivojlanishini kuzatish uchun bo‘ylama tadqiqotlarni amalga oshirish. Bu mustaqil ta’lim faoliyatining uzoq muddatli ta’sirini yanada to‘liqroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot usullarining kombinatsiyasini qo‘llash orqali tadqiqot mustaqil ta’lim faoliyati orqali talabalar o‘rtasida ekologik kompetensiyani rivojlantirish istiqbollarini har tomonlama tahlil qilishdan iborat.

Devid Kolbning “Tajribaviy o‘rganish nazariyasi”ni tajriba orqali o‘rganishning muhimligini ta’kidlaydi. Ekologik ta’lim kontekstida Kolb modelida ekskursiyalar, ochiq loyihalar va amaliy tajribalar kabi mustaqil mashg‘ulotlar talabalarga atrof-muhit tushunchalarini tushunishlarini kuchaytiradigan bevosita tajribalar bilan ta’minlaydi deb ta’kidlab o‘tadi [4, 26].

Gregori Smit Gruenevald tomonidan taklif qilingan yashash joyiga asoslangan ta’lim mahalliy muhit va jamiyatda ildiz otgan ekologik muammolarni o‘rganishga urg‘u beradi. Bu yondashuv mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari orqali esa talabalarni o‘zi yashayotgan muhitiga nisbatan jalb qilish, ularda atrof-muhit bilan chuqurroq bog‘lanishni, uning farovonligi uchun mas’uliyat hissini tarbiyalashini ta’kidlaydi [2, 3].

Richard Luvning “Tabiat tanqisligi buzilishi” konsepsiyasida, ayniqsa, yoshlarda tabiatdan begonalashishning salbiy oqibatlari ko‘rsatilgan. Talabalarni tabiat bilan qayta bog‘laydigan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari ushbu kamchilikni bartaraf etishda va ekologik mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [6, 6].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini o‘z sinflarida rivojlantirish ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi va o‘rganishlar natijasini quyida bosqichma-bosqich keltirib o‘tamiz:

1. Barqaror rivojlanish kompetensiyalari uchun ta’limni integratsiyalash: O‘quvchilarda atrof-muhitni tushunish va qadrlashni rivojlantirish uchun o‘quv dasturiga barqarorlikni kiritish. Bunga barqaror rivojlanish kompetensiyalari uchun ta’limni talabalar ta’limiga integratsiyalash orqali erishiladi.

2. Atrof-muhit haqida xabardorlikni oshirish: Talabalarni atrof-muhit masalalari bo‘yicha o‘z fikrlari va shaxsiy g‘oyalarini ifoda etishga undash. Virtual muhit-

larni yaratish va ekologik xavf holatlari uchun yechimlar yoki model joylarini aniqlash uchun onlayn platformalardan foydalanishi bilan talabalarga atrof-muhit va uni asrashdagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

3. Amaliy o‘rganish: Tabiatda o‘simliklar va fasllarning atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish kabi amaliy mashg‘ulotlarida talabalarni rag‘batlantirish zarur. Buni xiyobonlarda tozalash, axlatni qayta ishlash va o‘simliklar ekish kabi tadbirlar orqali amalga oshirish lozim.

4. Harakat kompetensiyasini rag‘batlantirish: Talabalarni barqaror kelajak sari harakat qilishga undash. Buni ularga barqarorlik bilan bog‘liq darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatini berish orqali amalga oshirish zarur.

5. Tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish: Talabalarni atrof-muhit muammolari bo‘yicha tanqidiy munozaralarda qatnashishga undash. Bu ularga atrof-muhit va uni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan yechimlar haqida yanada nozikroq tushunchani rivojlantirishga yordam beradi.

6. Mustaqil ta’limni rag‘batlantirish: Talabalarga atrof-muhit muammolarini hal qilish bo‘yicha mustaqil izlanishlar olib borish imkoniyatini bering. Bu ularga atrof-muhit muammolarini mustaqil ravishda tadqiq qilish va hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

7. Mentorlikni ta’minlash: Rasmiylashtirilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari orqali talabalarga murabbiylik va sohaga oid bilimlar bilan ta’minlash. Bu talabalarga ekologik muammolarni samarali hal qilish uchun zarur bo‘lgan texnik bilimlarni olishga yordam beradi.

Xulosa sifatida yuqorida keltirilgan fikrlar asosida ekologik kompetensiya uchun mustaqil ta’lim faoliyatining qanday afzalliklari borligini keltirib o‘tamiz:

1. Kengaytirilgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlari: Mustaqil faoliyat talabalarni atrof-muhit muammolari haqida tanqidiy fikrlashga, ma’lumotlarni tahlil qilishga va o‘z xulosalarini chiqarishga undaydi. Bu murakkab ekologik tizimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. O‘z-o‘zini samaradorligini oshirish: O‘z bilimi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish o‘z-o‘zini samaradorligini oshiradi va ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatiga ishonch uyg‘otadi. Mustaqil faoliyat talabalarda ekologik muammolarni hal qilishda vakolatlilik hissini beradi.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilishni rivojlantirish: Mustaqil ta’lim faoliyati ko‘pincha real hayotdagi ilovalarni o‘z ichiga oladi va talabalarda atrof-muhitni boshqarish hissini uyg‘otadi. Bu barqaror yashovchi va mas’uliyatli erkin fuqarolik kabi umrbod odat hamda an’analarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramova G.R. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”. Metodik qo‘llanma. Buxoro davlat universiteti 2020 https://kompy.info/mustaqil-ta’lim-boshlangich-ta’lim-pedagogikasi-innovatsiya-va-i.html.p-5-6

2. Gruenewald, D. A. (2003). The Best of Both Worlds: A Critical Pedagogy of Place. Educational Researcher, 32(4), 3–12.

3. Islikov S.X, Saidov J.D, Egamberdiyeva R.S, Xolmuminov D.E, Mustaqil ta’limni sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida tashkil qilish. p-172-173

4. Kolb, D.A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall.p-26

5. Лаврентева Л.А. Экологическая компетентность в современных исследованиях: сущность, содержание и структура., Журнал-Экологияи природопользование. И: ИГЭА. 2012. № 5 (85), ст-209-212.

6. Louv, R. (2008). Last Child in the Woods: Saving Our Children from Nature-Deficit Disorder. Algonquin Books. p-345,6 https://www.amazon.com/Last-Child-Woods-Children-Nature- Deficit/dp/156512605X?asin=156512605X&revisionId =&format=4&depth=2

ПОЧТА АЛОҚАСИНИНГ БОШҚАРУВ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ТИЗИМНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Нодирбек Юсупбеков,
Тошкент давлат техника университети
профессори, т.ф.д., академик
Хокимбек Ахмадбеков,
Тошкент давлат техника университети
мустақил изланувчиси

Аннотация

Ушбу мақолада почта алоқасида бошқарув жараёнларини ташкил этишда саралаш жараёнларининг ўрни, жўнатмани саралаш учун вақт нормасини ҳисобга олиш, бу борада хорижий олимларнинг фикр-мулоҳазалари асосида жўнатмани манзилга етказиб беришнинг ўзига хос йўлларига тўхталиб ўтилган. Бугунги кунда почта жўнатмаларни етказиб бериш туманларнинг сони ортиши аҳоли таркиби ва зичлигига, алоқа боғламанинг жойлашишига бевосита боғлиқ. Почта жўнатмасини етказиб бериш ҳар бир боғлама томонидан аниқ режа бўйича етказиб берилади. Ҳар бир туман почта жўнатмасини етказиб бериш йўналишларга бўлинади.

Калит сўзлар: *автоматлаштириш, бошқарув жараёнлари, бошқарув тизими, техник нормалаш методи.*

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется роли процессов сортировки в организации процессов управления в почтовой связи с учетом нормы времени на сортировку отправления, а также конкретным способам доставки отправления по адресу на основе мнений зарубежных ученых по этому поводу. В данной статье рассматривается роль процессов сортировки в организации процессов управления в почтовой связи с учетом нормы времени на сортировку отправления, конкретных способов доставки отправления по адресу на основе отзывов зарубежных ученых на этот счет. Сегодня увеличение количества районов доставки почты напрямую зависит от состава и плотности населения, расположения контактного звена. Доставка почты осуществляется каждым звеном по определенному плану. Каждый район разделен на маршруты доставки почты.

Ключевые слова: *автоматизация, процессы управления, система управления, метод технической стандартизации.*

Annotation

This article focuses on the role of sorting processes in organizing management processes in postal services, taking into account the time standard for sorting items, as well as specific methods of delivering items to the address based on the opinions of foreign scientists on this matter. This article addresses the role of sorting processes in the organization of management processes in postal communication, taking into account the norm of time for sorting a shipment, specific ways of delivering a shipment to the address based on feedback from foreign scientists in this regard. Today, the increase in the number of mail delivery districts directly depends on the composition and density of the population, the location of the Contact link. Delivery of mail is delivered by each link according to a specific plan. Each district is divided into postal delivery routes.

Key words: *automation, management processes, control system, method of technical standardization.*

Йўналишларни лойиҳалашда қуйидаги маълумотлардан: хизмат кўрсатишнинг асосий объектларини — муассасалар, корхоналар, билим юртлари ва ҳоказоларни ажратиб кўрсатилган ҳолда, ҳар бир кўча ва тор кўча бўйича почта жўнатмасини етказиб бериш йўналиши учун назорат муддати, йўналишни айланиб чиқиш ва адресатларга почта жўнатмаларини топшириш учун вақт нормаларидан фойдаланилади. Бунда хизмат кўрсатиш жойлашиши, шунингдек йўналишдаги турар биноларнинг хусусияти ҳисобга олинади. Почта ходимининг йўналишни айланиб чиқиш, жўнатмани топшириш ва бошқа ишлар учун вақт нормаси маҳаллий шароитларни ҳисобга олган ҳолда техник нормалаш методлари билан белгиланади. [1, 12]

Почта жўнатмасини манзилга етказиб беришда қуйидагилар ҳисобга олинади:

– ҳар бир кўча ва тор кўча имкон қадар битта йўналиш таркибига киритилади;

– жўнатмани манзилга етказиб беришда йўналишларининг боши ҳамда етказиб бериш боғламаларига яқин жойга лойиҳалаштириш;

– ҳар бир йўналишга хизмат кўрсатиш, жумладан уни айланиб чиқиш ва жўнатмаларни адресатларга топшириш вақти жадвал билан аниқ белгиланган бўлади.

Янгитдан ташкил қилинган етказиб бериш йўналишлари техник нормалаш методлари билан текширилади. Жўнатмани манзилга етказиб беришда йўналишларини айланиб чиқишнинг оптимал маршрутлари, улар ўртасидаги ҳудудни оптимал тақсимлаш каби махсус математик метод — “тарқатиш вазифаси” алгоритми ёрдамида белгиланиши мумкин. Ҳар бир йўналиш учун алоҳида паспорт тузилади, унга мунтазам

равишда юз бераётган барча ўзгариш ва қўшимчалар киритилади.

Паспортлардан ташқари, ҳар бир етказиб бериш боғламасида етказиб бериш туманининг харитаси тузилади, унда кўча ва тор кўчаларнинг номи, бурчакдаги уйларнинг рақамлари, йирик корхона ва муассасалар, таянч пунктларнинг жойлашиши ва йўналишни айланиб чиқишнинг мақсадга мувофиқ бўлган маршрутлари кўрсатилади.

Почта жўнатмасини етказиб берувчи почта ходимларнинг битта жўнатмани етказиб бериш учун умумий вақт сарфи (Т) кўринишида тақдим этилади:

$$T = T_{ич} + T_{ўт} + T_{вт}$$

бу ерда $T_{ич}$ - корхона ичида ишлаш учун вақт;

$T_{ўт}$ - етказиб бериш йўналишлари бўйича ўтиш учун вақт;

$T_{вт}$ - адресатларга жўнатмани топшириш учун кетган вақт.

Почта жўнатмасини манзилга етказиб беришда аҳоли сони ва хизмат кўрсатиш жадал даражасини характерлаш муҳим бўлиб ҳисобланади.

Почта жўнатмасини етказиб бериш учун чиқиш вақти, жумладан, айланиб чиқиш ва қайтиш вақти ҳам алоқа боғламанинг раҳбарияти томонидан тасдиқланган жадвал билан тартибга солинади. Ушбу жараёнларни ташкил этишда автоматлаштирилган тизимни жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Почта жўнатмаларига ишлов берувчи узлуксиз линиялари ташкил этишда уларнинг таркибига ярим автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам, тўла автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам фойдаланиш мумкин. Улар бажарувчи техник воситалар ёрдамида амалга оширилади. Бугунги кунда почта алоқаси соҳасини ривожлантириш, бошқарув жараёнларини тўғри ташкил этиш ҳамда автоматлаштириш муҳим вазифа ҳисобланади. Почта алоқасини автоматлаштиришда мамлакатимиз ҳамда хорижий давлат олимлари турлича ёндашиб ўз фикрларини билдирган.

Масалан олим Ивашкин Г.А. фикрича алоқа операторлари ёки тармоқ операторлари вазифасини бажарадиган алоқа ташкилотлари ишлаб чиқариш жараёнлари ва корхона тузилишини моделлаштириш, оптималлаштириш ва қайта ташкил этиш учун, шунингдек бошқарув тизимларига буюртма бериш ва ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш учун тақдим этилган стандарт қоидаларидан фойдаланиш зарур, ҳар қандай қоида энг аввало ишлаб чиқариш жараёнларини мукаммаллаштиришга хизмат қилади. Шу мақсадда мамлакатимиздаги почта алоқа оператори ишлаб чиқариш жараёнларини тузилишини моделлаштириш ҳамда оптималлаштиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Почта алоқаси фаолияти ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш учун тақдим этилган стандарт қоидалардан фойдаланиш орқали юқори натижага эришиш назарда тутилган.

Олим Верхова Г.В. фикрича Почта тизимидаги жараёнларни автоматлаштиришнинг ҳозирги ҳолати ва тенденцияларини таҳлилий кўриб чиқилганда СПСни такомиллаштириш ва ривожлантиришнинг вазифалари ва усулларини таҳлил қилиш, режалаштириш, параметрит ва структуравий оптималлаштириш, синтез ва бошқариш муаммоларини ҳал қилиш учун назария, методология ва усулларнинг тегишли асосларини шакллантириш зарурлигини белгилайди. СПС қайд этилишича, олинган натижаларнинг етарли СПСда содир бўлаётган жараёнларнинг ҳақиқий табиатига асосланган бўлиши керак бўлган моделларни танлаш билан белгиланади. Шу муносабат билан истиқболли АТРга асосланиб, уларнинг келажагини автоматлаштирилган почта орқали ишлов бериш тизимларининг ривожланиши сифатида баҳолаш мақсадга мувофиқ ҳисоблайди. [3, 4]

Шунингдек бошқарув жараёнларини автоматлаштириш орқали почта алоқаси объектларида соҳани прогнозлаш, режалаштириш, ҳисобга олиш, таҳлил қилиш, назорат қилиш ва тартибга солиш функцияларни автоматлаштирилади. Бугунги кунда келиб, деярли барча соҳаларда бошқарув жараёнларини тизимли автоматлаштириш ишларига алоҳида эътибор қаратилиб келинмоқда.

Почта жўнатмаларига ишлов берувчи узлуксиз линиялари ташкил этишда уларнинг таркибига ярим автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам, тўла автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам фойдаланиш мумкин. Улар бажарувчи техник воситалар ёрдамида амалга оширилади. Бугунги кунда почта алоқаси соҳасини ривожлантириш, бошқарув жараёнларини тўғри ташкил этиш ҳамда автоматлаштириш муҳим вазифа ҳисобланади. Почта алоқасини автоматлаштиришда мамлакатимиз ҳамда хорижий давлат олимлари турлича ёндашиб ўз фикрларини билдирган.

Хулоса сифатида шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, почта жўнатмаларни етказиб беришда аҳоли таркиби ва зичлигига, алоқа боғламанинг жойлашуви, жўнатмани етказиб беришда боғламаларда саралаш муҳим ҳисобланади.

Жўнатмани манзилга етказиб беришда ҳудудни айланиб чиқишда оптимал маршрутлар йўналишларини ишлаб чиқишда махсус математик метод — “тарқатиш вазифаси” алгоритми ёрдамидан фойдаланиш мумкин.

Почта алоқасида жўнатмаларни етказиб беришда “тарқатиш вазифаси” алгоритмини ишлаб чиқишда автоматлаштирилган тизимдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Почта жўнатмаларига ишлов берувчи узлуксиз линияларни ташкил этишда уларнинг таркибига ярим автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам, тўла

автоматлаштирилган махсус машиналарни ҳам фойдаланиш мумкин. Улар бажарувчи техник воситалар ёрдамида амалга оширилади. Бугунги кунда почта алоқаси соҳасини ривожлантириш, бошқарув жараёнларини тўғри ташкил этиш ҳамда автоматлаштириш муҳим вазифа ҳисобланади. Почта алоқасини автоматлаштиришда мамлакатимиз ҳамда хорижий давлат олимлари турлича ёндашиб ўз фикрларини билдирган. Шунингдек почта алоқаси фаолиятида жараёнларни автоматлаштириш учун стандарт қоидалардан фойдаланила юқори натижаларга эришиш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Botirovna O.S. THE IMPORTANCE OF CRITICAL READING FOR ACADEMIC PURPOSE OF THE LANGUAGE WITH ANALYZING PISA TESTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 181.

2. Botirovna O.S. THE IMPORTANCE OF THE PISA INTERNATIONAL PROGRAM IN TEACHING CRITICAL READING IN ENGLISH TO STUDENTS IN GRADES 8-9 //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 9. – №. 9. – C. 205.

3. Mardonov R. THE ROLE AND PLACE OF UNIVERSITIES IN THE” KNOWLEDGE SOCIETY” //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 9. – C. 325.

4. Mardonov R. Philosophy of education in modern conditions of society development //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 114.

5. Mardonov R. HUMANIZATION AND HUMANITARIZATION OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE INFORMATION SOCIETY //Conferencea. – 2021. – C. 211.

ГОТОВНОСТЬ УЧИТЕЛЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ОДИН ИЗ ЭТАПОВ СТАНОВЛЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Дильфуза Носирова,
Гулистанский государственный педагогический институт,
старший преподаватель кафедры “Педагогика”

Аннотация

В статье описывается, в условиях информатизации образования актуальным является создание и использование новых средств обучения, предназначенных для организации работы обучаемых в единой распределенной информационно-образовательной среде и способствующих повышению качества обучения. К таким средствам обучения можно отнести цифровые образовательные ресурсы (ЦОР), т.е. информационные источники, содержащие графическую, текстовую, речевую, музыкальную, видео-, фото и другую информацию, представленную в цифровом виде, направленные на реализацию целей и задач современного образования.

Ключевые слова: *образование, информация, педагогика, компьютер, информатизация, компьютеризация, развитие, цифровые образовательные ресурсы.*

Annotatsiya

Maqolada ta’limni axborotlashtirish sharoitida yagona taqsimlangan axborot-ta’lim muhitida talabalarning ishini tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan yangi o‘quv vositalarini yaratish hamda ulardan foydalanish qanchalar dolzarbligi o‘z ifodasini topgan. Bunday o‘quv vositalariga raqamli ta’lim resurslari (DER), ya’ni zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan raqamli shaklda taqdim etilgan grafik, matn, nutq, musiqa, video, fotosuratlar va boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot manbalari kirishi ilmiy tasdiqlangan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, axborot, pedagogika, kompyuter, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, ishlab chiqish, raqamli ta’lim resurslari.*

Annotation

The article describes how, in the context of informatization of education, it is relevant to create and use new teaching tools designed to organize the work of students in a single distributed information and educational environment and help improve the quality of education. Such learning tools include digital educational resources (DER), i.e. information sources containing graphic, text, speech, music, video, photos and other information presented in digital form, aimed at realizing the goals and objectives of modern education.

Keywords: *education, information, pedagogy, computer, informatization, computerization, development, digital educational resources.*

В Узбекистане, как и во всех развитых, других странах мира, продолжается становление постиндустриального информационного общества, отличительной чертой которого является перемещение центра тяжести в общественном разделении труда из сферы материального производства в область получения, переработки, передачи, хранения, представления и использования информации на основе применения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). В условиях информатизации образования актуальным является создание и использование новых средств обучения, предназначенных для организации работы обучаемых в единой распределенной информационно-образовательной среде и способствующих повышению качества обучения. К таким средствам обучения можно отнести цифровые образовательные ресурсы (ЦОР), т.е. информационные источники, содержащие графическую, текстовую, речевую, музыкальную, видео-, фото и другую информацию, представленную в цифровом виде, направленные на реализацию целей и задач современного образования.

Актуальность научной работы, исследования определяется противоречиями между:

– потребностью общества в учителе, способном эффективно осуществлять профессиональную деятельность в условиях информатизации образования и недостаточным уровнем готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов, необходимых для успешной реализации образовательных, развивающих и воспитательных целей учебного процесса в начальной школе;

– необходимостью формирования готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов и недостаточной разработанностью этого вопроса в теории и практике высшей школы. [1, 90]

В этой связи проблема исследования заключается в необходимости раскрытия специфики формирования готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов.

Разработка и экспериментальная проверка методики формирования профессиональной готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов в условиях многопредметной полифункциональной педагогической деятельности. [3, 54]

Цель, объект, предмет исследования обусловили постановку следующих задач исследования:

1) изучить состояние рассматриваемой проблемы в теории и практике высшей школы, обосновать понятийный аппарат исследования;

2) определить понятие “готовность будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов” и разработать содержание ее структуры;

3) обосновать структуру профессиональной компетентности учителя начальных классов как специалиста в области использования цифровых образовательных ресурсов;

4) раскрыть содержание методики формирования готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов и реализовать ее в образовательной практике подготовки будущего учителя начальных классов;

5) определить критерии и показатели уровней сформированности готовности будущих учителей начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов;

б) экспериментально проверить эффективность разработанной методики формирования готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов.

Анализ научной литературы показал, что существует значительное количество исследований, посвященных вопросам профессиональной подготовки будущего учителя в условиях информатизации образования (Л.В. Бочарова, Ю.С. Брановский, С.Д. Каракозов, В.В. Лаптев, М.П. Лапчик, А.В. Могилев, Е.А. Ракитина, И.В. Роберт, О.Г. Смолянинова, А.А. Темербекова, Л.А. Харитонова и др.).

Исследованиям по проектированию и использованию электронных образовательных ресурсов посвящены работы Н.В.Александровой, Н.П.Безруковой, Г.А.Бордовского, Е.А.Горневой, Д.Н.Грибкова, С.Г. Григорьева, В.В.Гриншкуна, В.В.Гура, В.В.Довгань, А.А.Карабанова, А.Муранова, Г.И.Поповой, Н.П.Пояркoвой, С.А.Смирнова, Н.Е. Сурковой, А.А.Телегина, Е.В.Филимоновой, Е.В.Чернобай, О.В.Штеймарк, Д.А.Шуклина и др.

Л.Л.Босова предлагает общие рекомендации подготовки учителя начальных классов к обучению информатике детей младшего школьного возраста. И.Б. Мылова подчеркивает, что в подготовке учителей начальных классов необходимо учитывать специфику будущей профессии; разработанная ею методическая система обучения информатике студентов строится на решении ими различного вида учебно-методических задач. В работе С.А.Зайцевой раскрывается формирование ИКТ — компетентности у будущих учителей начальных классов на трех уровнях ее проявления: общекультурном, общепрофессиональном и профессиональном, через междисциплинарную интеграцию специальных дисциплин информационной подготовки и предметов профессионального цикла.

Необходимо отметить, что в указанных работах в большей степени внимание уделено теоретической и методической подготовке студентов по информатике, что позволяет будущим учителям в дальнейшем использовать информационные технологии в учебном процессе начальной школы. Однако в этих исследо-

ваниях не освещались вопросы подготовки будущего учителя начальных классов к использованию современных средств учебного назначения, в частности цифровых образовательных ресурсов.

Решение проблемы формирования готовности будущего учителя начальных классов к применению цифровых образовательных ресурсов в профессиональной деятельности требует анализа психолого-педагогической литературы, связанной с определением понятий "готовность к профессиональной деятельности" и "готовность учителя к педагогической деятельности".

К.М.Дурай-Новакова справедливо отмечает, что подготовка к профессии есть не что иное, как формирование готовности к ней [1, 58]. *Ю.В.Сенько* также утверждает, что профессиональная подготовка обеспечивает готовность учителя к конкретному решению "частных" задач обучения и воспитания [2, 19]. *И.Б.Государев* рассматривает профессиональную подготовку как процесс формирования определенного уровня готовности специалиста к профессиональной деятельности [3, 38].

Анализ литературы показывает, что существуют разные подходы к трактовке понятия готовности специалистов к профессиональной деятельности. Ученые понимают готовность как психологическую установку [Узнадзе, 1966], особое психическое состояние [Левитов, 1963; Линенко, 1985], качество, устойчивую характеристику личности [Сластенин, 1976, 1981, 2002; Платонов, 1986; Круглов, 1991; Готская, 1999], наличие способностей [Рубинштейн, 1946; Ананьев, 1969; Кулюткин, Сухобская, 1971], сложное личностное образование [Кондрашова, 1989, 1990; Кадченко, 1992] и т.д.

М.И.Дьяченко и *Л.А.Кандыбович* характеризуют готовность как внутренний "настрой" на выполнение деятельности, что предполагает изменение поведения личности, способствует её активности, целеустремлённости, целесообразности действий, соизмерению предполагаемого, ожидаемого результата деятельности с целями работы [4, 92]. Качество сформированности готовности к выполнению учителем педагогической деятельности зависит от теоретической и практической подготовки, которую получил студент в учебном заведении, сформированности мотивационного компонента, положительного отношения к профессии, от обладания профессионально значимыми качествами личности [5, 171].

Согласно *В.А.Сластенину,* профессиональная готовность педагога включает в себя: *психологическую готовность,* которая понимается как разная степень сформированное™ направленности на деятельность, наличие интереса и потребности; *научно-теоретическую готовность,* включающую в себя необходимый объем психолого-педагогических и специальных знаний; *практическую готовность,* предполагающую наличие сформированных на требуемом уровне специальных умений и навыков для решения профессиональных задач; *психофизиологическую* и *физическую готовность* - наличие соответствующих предпосылок для овладения педагогической деятельностью, сформированность профессионально значимых личностных качеств, соответствие состояния здоровья и физического развития требованиям педагогической деятельности. Согласно рассмотренным подходам, наиболее важными составляющими готовности к профессиональной деятельности выделяются такие, как психологическая направленность, знания, умения и навыки в решении профессиональных задач. В нашем исследовании в определении структуры профессиональной готовности мы будем придерживаться позиции В.А. Сластенина.

Современный словарь иностранных слов раскрывает понятие "компетентный" как обладающий компетенцией - кругом полномочий какого-либо учреждения, лица или кругом дел, вопросов, подлежащих чьему- либо ведению. Компетентный в определенной области человек обладает соответствующими знаниями и способностями, позволяющими ему обоснованно судить об этой области и эффективно действовать в ней [6, 52].

Учитывая исследования психологов и педагогов в области использования компетентностного подхода в образовании (как зарубежный опыт — *М.Холстед, Т.Орджи* и др., так и отечественный — *А.В. Баранников, Г.Б.Голуб, Л.М.Долгова, В.К.Загвоздкин, Н.В.Кисель, И.А.Колесникова, О.Е.Лебедев, А.А.Пинский, Н.Ф.Радионова, А.П.Тряпицына, О.В. Симен- Северская, Ю.Г.Татур, А.В.Хуторской, В.В. Шаповал, С.Е.Шишов, И.Г.Агапов, Б.Д.Эльконин* и др.), компетентность можно рассматривать: во- первых, как технологию преобразования знаний в умения при решении учебных профессиональных задач из изучаемой предметной области *(И.А.Колесникова* и *Н.Ф.Радионова, А.П.Тряпицына, Г.Н.Сериков);* во- вторых, как осознанное владение несколькими знаковыми системами (с точки зрения семиотики — это естественными и формальными языками) в своей профессиональной деятельности *(Н.И. Рыжова, В.И. Фомин).*

Компетентность характеризует способность и готовность специалиста реализовывать свой человеческий потенциал (знания, умения, опыт, личностные качества и др.) для успешной продуктивной деятельности в различных сферах, например профессиональной и социальной. При этом важно осознание специалистом социальной значимости своей деятельности и личной ответственности за результаты этой деятельности, а также необходимость постоянного совершенствования.

Таблица 1

Содержание компонентов готовности будущего учителя начальных классов и использованию цифровых образовательных ресурсов

Компоненты готовности будущего учителя начальных классов к использованию ЦОР	**Содержание компонента**
Психологический	Мотивы, выраженные интересами и потребностями к использованию ЦОР, стремление к профессиональному самосовершенствованию по применению ЦОР в будущей педагогической деятельности.
Научно-теоретический	Единство предметных, методических и технологических знаний,которые интегрируют общие и специальные знания в области использования цифровых образовательных ресурсов в начальной школе.
Операционно-технологический	Комплекс умений по организации обучения младших школьников с использованием ЦОР: ставить цели обучения с использованием ЦОР; анализировать ЦОР; отбирать конкретные цифровые образовательные ресурсы; составлять конспекты уроков и внеучебных занятий с использованием ЦОР; составлять и использовать электронные тесты; организовать индивидуальную, групповую и коллективную работу детей с использованием ЦОР.

Анализ психолого-педагогической литературы подтверждает важность исследуемой проблемы готовности учителя начальных классов к профессиональной деятельности в условиях информатизации современного образования, в частности готовности к применению цифровых образовательных ресурсов в учебно-воспитательном процессе начальной школы, и позволяет сделать следующие выводы:

1. Информатизация образования является одним из основных направлений совершенствования учебно-воспитательного процесса, под ее влиянием изменяются профессиональные задачи и функции специалистов в области образования, в том числе и функции будущего учителя начальных классов. В современных условиях становится необходимым осуществлять целенаправленную подготовку учителя-профессионала, готового к решению педагогических задач информатизации образования. Среди актуальных задач выделены и обоснованы задачи эффективного использования, отбора и анализа ЦОР, а также создания собственных цифровых образовательных ресурсов.

2. Результатом и целью профессиональной подготовки специалиста является его профессиональная готовность, которая рассматривается как начальный этап формирования и становления профессиональной компетентности.

3. Под готовностью будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов мы понимаем устойчивую характеристику личности, определяющую способность решать основные профессиональные педагогические задачи средствами цифровых образовательных ресурсов в условиях многопредметной полифункциональной педагогической деятельности, целью которой является обучение, воспитание и развитие детей младшего школьного возраста.

4. Готовность будущего учителя начальных классов к использованию ЦОР включает следующие структурные компоненты:

– психологический, представленный мотивами, выраженными интересами и потребностями к использованию ЦОР, стремлением к профессиональному самосовершенствованию в применении ЦОР в будущей педагогической деятельности;

– научно-теоретический, предполагающий совокупность предметных, методических и технологических знаний, которые интегрируют общие и специальные знания в области использования цифровых образовательных ресурсов в начальной школе;

– операционно-технологический, выраженный комплексом умений по организации обучения младших школьников с использованием ЦОР.

5. Профессиональная компетентность учителя начальных классов как специалиста в области использования цифровых образовательных ресурсов представляет собой целостную совокупность ключевых, базовых и специальных компетентностей в решении профессиональных задач учителя начальных классов.

Информатизация образования является одним из основных направлений совершенствования учебно-воспитательного процесса, под ее влиянием изменяются профессиональные задачи и функции специалистов в области образования, в том числе и функции будущего учителя начальных классов. В современных условиях становится необходимым осуществлять целенаправленную подготовку учителя-профессионала, готового к решению педагогических задач информатизации образования. Среди

актуальных задач выделены и обоснованы задачи эффективного использования, отбора и анализа ЦОР, а также создания собственных цифровых образовательных ресурсов.

Под готовностью будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов мы понимаем устойчивую характеристику личности, определяющую способность решать основные профессиональные педагогические задачи средствами цифровых образовательных ресурсов в условиях многопредметной полифункциональной педагогической деятельности, целью которой является обучение, воспитание и развитие детей младшего школьного возраста.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдулина, О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования [Текст] : учебное пособие / О, А. Абдулина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1990. – 141 с.

2. Абрамова, И.В. Формирование информационно коммуникационной компетентности бакалавров с профильной подготовкой “Начальное образование” (в условиях научно-исследовательской работы) [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук / И.В. Абрамова. – Пермь, 2009. – 24 с.

3. Авдеева, С.М. Учебные материалы нового поколения в проекте “Информатизация системы образования” [Текст] / С.М. Авдеева, М.Ю.Барышникова, Л.Л. Босова. – М.: Локус-Пресс, 2008. – 64 с.

4. Бабайлова, Е.С. Методические аспекты применения интерактивной доски в начальной школе: плюсы и минусы [Текст] / Е.С. Бабайлова, С.Б. Густова. // Опыт и перспективы использования информационно-коммуникационных технологий в образовании: сборник материалов Международной научно-практической конференции (“ИТО- Томск—2009”). – Томск, 2009. – С. 92-95.

5. Бабанский, Ю.К. Оптимизация процесса обучения: Общедидактический аспект. [Текст] / Ю.К. Бабанский. – М., 1977. – 256 с.

6. Жданов, С.А. Концепция, основное содержание и разделы программы курса “Использование современных информационных и компьютерных технологий в учебном процессе” для системы педагогического образования с учетом требований федерального компонента стандарта общего образования [Текст] / С.А.Жданов. – 2003. – С.55-92.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI MISOLIDA YOSH OILALARNI HAYOTGA TAYYORLASHNING MUHIM JIHATLARI

Kamoliddin Qodirjonov,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
“Harbiy tayyorgarlik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari yosh oilalarni mustaqil hayotga tayyorlash, erning xotiniga bo‘ladigan muomalasi, xotining er oldidagi majburiyatlari hamda oiladagi ijtimoiy munosabatlar va yosh oilaning ma’naviy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, oila — ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon ekanligi va ichki ishlar organlari xodimlari misolida yosh oilalarni hayotga tayyorlash, oilaning mustahkamligini ta’minlash masalalarining muhim masalalari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, yosh oila, ayol va erkak, hayotga tayyorlash, oila muqaddas maskan, hozirgi zamon oilasi.*

Аннотатция

В данной статье рассматривается подготовка молодых семей органы внутренних дел к стабильной жизни, отношение мужа к жене, обязанности жены перед мужем, а также социальные отношения в семье и духовные аспекты молодой семьи, советы родителей своим детям и воспитание детей. Также тот факт, что семья является социальным пространством, обеспечивающим вечность общественной жизни, преемственность поколений, преемственность образования, показывает ее влияние на систему ценностей будущего поколения, а также на примере сотрудников предприятия. органами внутренних дел, готовит молодые семьи к жизни, обеспечивает прочность семьи, обсуждаются важные вопросы.

Ключевые слова: *Молодая семья, женщина и мужчина, подготовка к жизни, семья священная место, современная семья.*

Annotation

This article discusses the preparation of young military families for a stable life,the attitude of a husband to his wife,the duties of a wife to her husband,as well as social relations in the family and the spiritual aspects of a young family,parents, advice to their children and the upbringing of children. Also, the fact that the family is a social space that ensures the eternity of social life, the continuity of generations, the continuity of education, shows its influence on the value system of the future generation, and on the example of the employees of the internal affairs bodies, prepares young families for life, ensures the strength of the family important issues were discussed.

Keywords: *young family, woman and man,preparation for life,family is a sacred place,modern family.*

Mustaqil O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari o‘z umrini tugatgan oila-urug‘ munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e’tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e’zozlashda, deb bilayotgani milliy qadriyat va an’analarimizni saqlagan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani barchamizga ma’lum. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek “Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi” [2, 3].

Yurtimizda “Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi” degan konseptual g‘oyani ijtimoiy hayotga izchil tatbiq etish, oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilindi. 15-may Xalqaro oila kunini har yil respublikamizda keng nishonlash bo‘yicha manzilli tadbirlarni amalga oshirish an’anaga aylangan.

Bizga ma’lumki, hozirda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-hunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Har bir yigit-qizning ta’lim maskanlarida o‘qib, biror mutaxassislikni egallashi obyektiv hodisa bo‘lishi bilan birga, uning yosh jihatidan oila qurishi ham inkor etilmaydigan qadriyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–10-son qarorida [4] belgilanganidek barcha darajadagi hududiy, sohaviy va tarmoq ichki ishlar organlari boshliqlari o‘z bo‘ysunuvidagi shaxsiy tarkib bilan Kodeks talablarini bajarishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlarning oilaviy-maishiy muammolarini doimiy o‘rganish va hal etish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish uchun shaxsan javobgar ekanliklari ko‘rsatib o‘tilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa ichki ishlar organi xodimlarining oilalariga berilayotgan katta e’tibordir.

Ushbu qabul qilingan qarorda yosh oilalarni mustahkamlash va rivojlantirish, zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish, oilalarda sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash, yoshlarni hayotga tayyorlash choralarini ko‘rish, shu jumladan, oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Oila — ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makondir.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o‘zi yoxud bir ayolning o‘zi oila bo‘la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindangina iborat emas. Oila er-u xotindan tashqari erning ota-onasi, ya’ni qaynota va qaynona, farzandlar, uka singillardan iborat ko‘p bo‘g‘inli xonadon. Uning har bir a’zosi o‘z mavqeyiga ega, shu oilaning ichki intizomiga bo‘ysunib yashaydi. Shu ma’noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o‘z saltanati bor: bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan o‘tadi, shu sinov jarayonida ular bir-birini chuqurroq tushunadilar, bir-birlarini qadrlashni o‘rniga quyadigan bo‘ladi, bir-birlariga kechirimli bo‘lishadi, er otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarini tarbiyalab, orzu-havas ko‘radi. Shu ma’noda oila inson hayotiga to‘kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u insonlarga xos “tabiiy-biologik”, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz — Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida, shuningdek davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratib beradi”, [1] — deb yozilgan.

Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan har biy hamda harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari tinglovchi-kursantlarini mustaqil hayotga tayyorlash va umum milliy davlat

dasturlariga javob beradigan, bilimli, jismonan va ma’nan sog‘lom, barkamol hamda yetuk ofitser qilib shakllantirish bugungi zamon talabidir.

Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Keyingi yillarda xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan “O‘z uyingni o‘zing asra!” degan da’vatga bugun “O‘z bolangni o‘zing asra!” deb qo‘shimcha kiritish vaqti keldi, deb o‘ylayman” [5], deb alohida e’tirof etgani bejiz emas. Chunki farzand tarbiyasi murakkab jarayon hisoblanib, uning ildizi oila, mahalla, jamiyatga borib taqaladi. Tarbiya ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchidir. Ta’lim-tarbiya jarayoni orqali kelajak vorisining mamlakat uchun fidoyi bo‘lishi, sadoqatli fuqaro bo‘lishi, yurt tinchligini ko‘zlashi, mustaqillikni saqlab qolishi kabi ezgu niyatlar yotadi. Jamiyat taraqqiyotiga farzandlar kamoli orqaligina erishiladi. Demak, barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir davrning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bola ota ona qo‘lida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz.

Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. “Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” [6, 464]. Bu masala dolzarbligicha qolaveradi. Har bir mamlakatda oila va nikoh instituti din, urf-odat, madaniyat, axloq, an’ana ta’sirida shakllangan [7, 362].

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi bois, oila tinch va barqaror bo‘lsa, yurt ravnaq topadi. Oilani baholashda ikkita asosiy mezonga qaraladi. Oila tizimida oilaning davomiyligi, barqarorligini sinchiklab qarab chiqish orqali uni baholashga erishiladi. Oila haqida biror fikr bildirishda va qaror qabul qilishda esa shaxsning o‘z oilasi haqidagi fikri subyektiv xarakterga ega bo‘lganligi tufayli ko‘proq tashqi — ijtimoiy fikrlarga e’tibor beriladi [8, 290].

Shuning uchun ham mamlakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning xalq milliy ruhiyatining negizi bo‘lmish oilaviy munosabatlarda aks etishini tadqiq etish muhim masaladir. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga er-xotin o‘rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir [9, 50].

Psixologik amaliyotda eng ko‘p to‘qnash kelish mumkin bo‘lgan masalalardan biri — ota-onalarning voyaga yetgan farzandlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga doir muammolardir. Odatda bunday muammo bilan ko‘pincha ona murojaat qiladi, biroq ota-ona, ba’zan otaning o‘zi yordam so‘raydigan holatlar ham uchraydi.

Zamonaviy oila tarbiyasining psixologik asosi o‘zida insonparvarlik, hamkorlik g‘oyalarini ifodalab, xalqning umumiy qiziqish va intilishlarini aks ettirgani uchun ko‘p hollarda jamiyatni birlashtirib, uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan omil hisoblanadi, bu tom ma’noda mohiyatan o‘zbek oilalarida o‘z ifodasini saqlab qolgan. Bu qadriyat “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “fidoyilik”, “vatanparvarlik”, “oilaviy qadriyatlarga sadoqat”, “kattalarga hurmat”, “kichikka g‘amxo‘rlik” kabi tushunchalarga asoslanadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yosh oila barpo etishning quyidagi muhim jihatlarini keltirish mumkin:

– ijtimoiy jihatdan yetuklik;
– axloqiy va etik nuqtayi nazardan yetuklik;
– huquqiy madaniyat jihatidan yetuklik;
– xo‘jalik iqtisodiy nazardan yetuklik.

Bunda insonning ongini va dunyo qarashini shakllantirishga oiladagi muhit va o‘zaro shaxsiy munosabatlar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ushbu yo‘nalishda yoshlar orasida targ‘ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ayniqsa nikohdan o‘tuvchi yoshlar orasida sog‘lom oilani shakllantirish, sog‘lom bolalar tug‘ilishi va tarbiyalash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ichki ishlar organlari tizimida oila muqaddasligi va mustahkamligi borasida olib borilayotgan islohotlar yurtimiz mustaqilligi, sarhadlarimiz tinchligi va mustahkamligini ta’minlashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 76-modda. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 45 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi — mustahkam oila tayanchi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 316 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktyabrdagi “Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi 550-sonli qarori. https://lex.uz/acts/104720.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–10-son Qarori. https://lex.uz/docs/6364837.

5. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 16-iyun.

6. Пешперова И.Ю. Брак и семья: “Россия в глобальном мире” / “Russia in the Global World” журнал. 2014, № 4 (27). – С. 464-466.

7. William L. Cook, David A. Kenny. Application of the Social Relations Model to Family Assessment. Source: Journal of Family Psychology, Vol. 18, No. 2, r. 361–371.

8. Лоиков П. Формирование межличностных отношений в семье./ Вестник. (Dushanbe). Том: 2. 3-7 (124). God: 2013. – С. 290-291.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, – T., 2007. – 98 b.

YOSH TARBIYACHILARNING KASBIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Sitora Xabilova,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak yosh tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini qay yo‘sinda shakllantirish kerakligi yuzasidan hamda tarbiyachilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali kasbiy salohiyatini yanada rivojlantirish uchun nazariy ma’lumotlar berilgan. Yosh tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogning tajribali malakaga ega bo‘lishi o‘z kasbiga nisbatan bilim, ko‘nikma malaka, ya’ni BKM ni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan. Shuningdek, pedagogik jarayonni takomillashtirish, pedagogik jarayonini samaradorligini oshirish, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish kabi jarayonlar yoritilgan.

Kalit so‘z: *tarbiyachi, mahorat, pedagogik, jarayon, qobiliyat, murabbiy, texnologiya, shaxs, ijtimoiy, madaniy.*

Аннотация

В данной статье вузами обсуждаются пути формирования профессиональных способностей будущих молодых педагогов и задачи саморазвития педагогов, посредством самоанализа и самооценки.Приводятся теоретические сведения для дальнейшего развития профессионального потенциала. При формировании профессиональных способностей молодых педагогов даются рекомендации по развитию знаний, умений и профессиональной компетентности педагога применительно к своей профессии. Также выделены такие процессы, как совершенствование педагогического процесса, повышение эффективности педагогического процесса, повышение трудовой активности, освоение положительных качеств, развитие трудоспособности.

Ключевые слова: *педагог, мастерство, педагогический, процесс, способность, тренер, технология, человек, социальный, культурный.*

Annotation

In this article, higher education institutions discuss how to shape the professional skills of future young educators and the tasks of self-development, self-analysis and self-evaluation of educators. theoretical information is provided for the further development of professional potential. In shaping the professional abilities of young teachers, recommendations are given for the development of knowledge, skills and professional competence of the pedagogue in relation to his profession. Also, processes such as improving the pedagogical process, increasing the efficiency of the pedagogical process, increasing one’s work activity, mastering positive qualities, and developing work ability are highlighted.

Keywords: *educator, skill, pedagogical, process, ability, trainer, technology, person, social, cultural.*

Pedagog tarbiyachilarning uzluksiz ta’lim jarayoniga faol jalb qilinishi uning ijodkorlik salohiyatini, kompetentligini va pedagogik mahoratini, ijtimoiy va kasbiy mobilligini, uning fuqarolik pozitsiyasini va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarini rivojlantirishning bosh sharti hisoblanadi. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, ka-

molotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

Mutaxassisning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda ko‘rinadi:

– kasbiy BKMni takomillashtirib borish;

– faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;

– kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;

– ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

– salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

– ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish

Pedagogning quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi:

– aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonini takomillashtirish;

– pedagogik jarayonini samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;

– izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;

– ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;

– faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;

– kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

– salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondosha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondoshuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi.Hozirgi davrda, biz mustaqil O‘zbekistonda qurayotgan demokratik xuquqiy davlatda faoliyat ko‘rsatadigan yosh tarbiyachilar qanday bo‘lishi kerak? Hozirgi zamon tarbiyachisining shaxsi uchun eng muhim asos bu insopparvarlik yo‘nalishidir. Tarbiyachi juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda ko‘p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o‘zi o‘qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z tarbiyalanuvchilarini har kuni bilim olishga o‘rgatib borish uchun o‘zi muntazam o‘qib o‘rganishi, o‘z bilimini to‘ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Tarbiyachi avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Bu deganimiz Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarni bo‘lishi va ularni yoshlar ongiga meros tarbiyalanuvchilarni ota-bobolarimiz yaratgan boyliklarga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo tarbiyalanuvchilarning o‘zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e’tiqodi bo‘la olishi darkor, Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq, milliy-axloqiy qadriyat, mafkura mazmunan angloq tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruh kasbiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi — texnologiyani o‘zlashtirish bo‘lib, unda pedagog iliq munosabatlarni qo‘llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo‘ladi. Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida tarbiyachining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi. Bola tarbiyachining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo‘lmasa ko‘ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. tarbiyachi bola katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.Pedagog kommunikativ madaniyatga erishish uchun quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

– bolani sabr-toqat bilan tinglash madaniyati;

– unga qiziqarli bo‘lmasa ham bolani diqqat bilan tinglash;

– bola zerikayotganligini sezib, mavzuni boshqa qiziqarli tomonga burib yuborish;

– suhbatlashishdan avval bolaning kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilish;

Tarbiyachi o‘zi uchun boshqalar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxlit portretini tuzib olishi kerak. Bu auditoriya bilan bo‘ladigan munosabatlarni tashkil qilishiga yordam beradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘z predmetini, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur [1, 184].

Tarbiyachilarimiz qanchalik sifatli kadr bo‘lib, o‘z kasblarini sevib maktabgacha ta’lim tarbiyachilariga ta’lim-tarbiya bersalar shunchalik yoshlarimiz kelajagi porloq bo‘ladi. Inson qaysi kasbda faoliyat olib borsa ham o‘z ishiga, mashg‘ulotiga qunt bilan,mehr bilan yondashsa,uning sir asrorini mukammal egallaydi,shu bilan birga o‘z-o‘zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini tushinish kerak emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘z maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli jarayondagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to‘liq to‘plamini nazarda tutish kerak bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglarni yo‘naltirish, rahbarlarga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bo‘lajak pedagoglarni manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvaffaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo‘lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham. Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

– bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

– masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;

– masalani hal qilish rejasini tuzish;

– masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;

– masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

– qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;

– masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

– masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari.

Pedagog mehnatini tashkil etishda o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish:

1) shaxsning mustaqil mashq qilish, shug‘ullanishi orqali o‘zini-o‘zi aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishi;

2) shaxsning hech bir tashqi ta’sirlarsiz o‘z kuchi bilan o‘zini o‘zi rivojlantirishi;

3) o‘z-o‘zini takomillashtirishi bo‘lib, unda shaxs o‘z oldiga hayotini yaxshilash, qulay yashash sharoitini yaratish uchun muayyan vazifalarni qo‘yadi.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyachining o‘z-o‘zini rivojlantirishi uning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi sanaladi. Pedagoglarning kasbiy nuqtai nazardan rivojlanishida uning o‘zini o‘zi tahlil qilishi ham ahamiyatli sanaladi.

O‘zini o‘zi tahlil qilish — pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Zero, pedagoglarning kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B) — shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. O‘zini o‘zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga obyektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi. Qolaversa, o‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Individual rivojlanish dasturi — pedagogning kasbiy rivojlanishining muhim omili. [2, 420]

Pedagogning mutaxassis sifatida:

– aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

– pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;

– izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;

– ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;

– faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;

– kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

– salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XX asr pedagogining pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. [3, 688]

Binobarin, bunday muhitda o‘zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini topish imkoniyati mavjud. [4, 288]

Shaxsni hartomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan.

Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalar nima izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. [5, 100]

Bo‘lajak tarbiyachi qachonki o‘z sohasida ish boshlaganda emas u aynan tarbiyachilik mas’uliyatini talabalik chog‘idayoq his qilishi kerak va ular maktabgacha ta’lim muassasalariga tayyor yetuk kadr bo‘lib borishlari zarur. Bundan tashqari tarbiyachilik sohasida o‘z ish faoliyatini olib borayotgan kadrlar malakasini oshirish hamda ularning bir birlari bilan tajriba, malaka almashinuvini ta’minlash tarbiyachilar kasbiy komponentligini oshirishdagi asosiy faoliyatlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.U.Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo‘latova, M.M.Pirmuhamedova, R.T.Akbarova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Jamilova, X.Sariboyev, L.A.Kulay. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. – T.: “ILM ZIYO”, 2011. – 184 b.

2. Azam Xoliqov. “Pedagogik mahorat” / Darslik. – T.: “Iqtisod Moliya”, 2011. – 420 b.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. “Maktabgacha Pedagogika” / Darslik. – T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sh.Sodiqova. “Maktabgacha pedagogika” / Darslik. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013. – 288 b.
5. S.T.Xabilova, H.Payg‘amova. Pedagog-tarbiyachi shaxsini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2023 2(10)-son. – 100–102-b.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISHNING AYRIM JIHATLARI

Baxtiyor Qodirov,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya
Mazkur maqola pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda elektron darsliklardan foydalanish, elektron darsliklarga qo‘yiladigan didaktik va metodik talablar, elektron darsliklar oddiy darsliklardan farqli ravishda qanday ishlab chiqilishi hamda nimalar ta’minlanishi bayon etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz pedagog olimlarining elektron darslik haqidagi fikrlari, raqamli texnologiyalar asosida tayyorlanadigan elektron darslikning sxemali modeli hamda elektron darsliklardan foydalanishning ayrim jihatlari keltirilib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *elektron darslik, ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, ixtisoslik fanlari, texnologiya, shakllanish, o‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim muassasalari, maktab, fan, resurs, elektron nusxa.*

Аннотации
В данной статье описано использование электронных учебников в профессиональной подготовке будущих учителей технологии, обучающихся в педагогических вузах, дидактические и методические требования к электронным учебникам, как разрабатываются электронные учебники и что они дают. Также представлены мнения ученых-педагогов нашей страны об электронном учебнике, схематической модели электронного учебника, подготовленной на основе цифровых технологий, и некоторых аспектах использования электронных учебников.
Ключевые слова: *электронный учебник, образование, цифровая среда обучения, специальные науки, технологии, образование, ученик, учитель, образовательное учреждение, школа, наука, ресурс, электронная копия.*

Annotation
This article describes the use of electronic textbooks in the professional training of future technology teachers studying in pedagogical higher education institutions, didactic and methodical requirements for electronic textbooks, how electronic textbooks are developed and what they provide. Also, the opinions of the pedagogic scientists of our country about the electronic textbook, the schematic model of the electronic textbook prepared on the basis of digital technologies, and some aspects of the use of electronic textbooks have been presented.
Keywords: *e-textbook, education, digital learning environment, special sciences, technology, formation, student, teacher, educational institutions, school, science, resource, electronic copy.*

Mamlakatimizda pedagogika oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini raqamlashtirishga, talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashga 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadida “milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish” [1] masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ushbu ustuvor vazifalarni amaliyotda qo‘llash, jumladan, texnologiya ta’lim o‘qituvchilarini raqamli faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishga muvofiq innovatsion tayyorlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashning ko‘plab jihatlari hal etilmasdan qolmoqda [9, 135]. Raqamli ishlab chiqarish soha mutaxassislarini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlash asosini raqamli ishlab chiqarish va jamiyat qonuniyatlari ta’sir etadigan, psixologik-pedagogik jihatdan yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ishlarini tashkil etadi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning asosi o‘quv-bilish faoliyatini raqamlashtirishning asosi bu ixtisoslik fanlari o‘qitishda

elektron darsliklarni tayyorlash va ularni amaliyotga joriy etish sanaladi [6, 34].

Ta’lim tizimida o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish, elektron darsliklarini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar, elektron darsliklardan foydalanishning nazariy jihatlari bo‘yicha mamlakatimiz olimlaridan N.I.Taylaqov, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, A.A.Alamurodov va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar.

N.I.Taylaqov tadqiqot ishlarida o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga qo‘yiladigan pedagogik talablar, mezonlar, o‘quv adabiyotlarining tuzilishi, shakllari va turlarini bir butun yaxlit tizim sifatida ilmiy-pedagogik tahlil etgan, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar fani, oliy ta’lim muassasalarida informatika o‘qitishning ta’lim bosqichlariga mos xususiyatlari aniqlangan va o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni takomillashtirish mexanizmlari va ta’lim muassasalarining yagona axborot makoniga integratsiyalash konsepsiyasi, ta’lim bosqichlari uchun elektron darsliklar yaratish va ulardan masofali ta’limda foydalanishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan [6].

Q.T.Olimov o‘zining “Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida kasb-hunar ta’limida maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv adabiyotlarining yangi adabiyotlarini yaratishda xorijiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilgan holda ta’lim oluvchilarning qiziqishi, shaxsiy psixologik xarakteristikalari va eng muhimi fanning mazmunidan hisobga olish kabi g‘oyalarni ilgari surgan [7].

Pedagog olim N.A.Muslimovning tadqiqot ishlarida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash tizimiga elektron darsliklarini yaratish, amaliyotga tatbiq etishning turli jihatlari bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tib, elektron darslik va uning har bir bo‘limida asosiy material bayonidan avval, albatta, kirish qism mavjud bo‘lishi kerakligi, elektron darsliklar fanning mazmuni, umumiy tarkibi, qismlari hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘la aks ettirilishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan [5].

A.A.Allamurodov o‘zining pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ixtisoslik fanlaridan elektron darslik tayyorlashda muhim didaktik tamoyillarni hisobga olish kerakligi haqida g‘oyalarni ilgari surgan [2, 85].

Yuqorida tahlil qilingan pedagog olimlarning o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan talablar, ixtisoslik fanlarini o‘qitishda elektron darsliklardan foydalanish, elektron darsliklar rang-barang va eng muhimi fan mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi kerakligi haqidagi fikrlariga tayanamiz.

Elektron darslikka quyidagicha ta’rif berib o‘tishni joiz deb topdik. Elektron darslik — ta’limning ma’lum bir sohasi, ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikning DTS, malaka talabi va va fanning o‘quv dasturi mazmunini to‘liq qamrab olgan hamda yuqori ilmiy-uslubiy saviyada tayyorlangan asosiy o‘quv elektron nashr hisoblanadi. Elektron darslik muayyan fanning o‘quv dasturidagi mavzularining qisman yoki to‘liq qamrab olgan holda tuzilgan elektron nashr deya ta’kidlash mumkin.

Tadqiqot ishimiz doirasida shunga amin bo‘ldikki, elektron darsliklar oddiy darsliklardan farqli ravishda shunday ishlab chiqilishi kerakki, u quyidagilarni ta’minlasin:

– kompleksning mazmunini mayda (to‘liq) tashkil etish;

– interaktivlik — foydalanuvchi harakati bilan bog‘liq holda ma’lumotlar namoyishini o‘zgartirish qobiliyati, shuningdek, o‘rganish sarlavhasini o‘zgartirish qobiliyati;

– gipotetik ma’lumotlarning gipermatnli tuzilishi (ta’riflarga qo‘shiladi);

– vizual ma’lumotlardan foydalanish — turli xil rasmlar va harakatlar va boshqa aralash vositalar [8];

– axborotni mustahkamlash, olingan ma’lumotlarni nazorat qilish va baholash uchun elektron elektron darslikka joriy qilingan hayotiy va boshqaruv apparatlaridan foydalanish;

– turli elektron yozuvlar va real o‘quv materiallariga ulanishlar (giperhavolalar) ramkasidan foydalanish imkoniyati [9, 134-135].

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarni ta’minlash uchun elektron darsliklarni yaratuvchilar elektron o‘quv metodik majmualarga qo‘yiladigan talablardan tashqari majmua uchun mundarijani loyihalash texnologiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Elektron darsliklarni ishlab chiqishdagi eng asosiy masala bu elektron darsliklarning sifati sanaladi. Sifatli ishlab chiqilgan elektron darslik turli xil didaktik materiallar va ta’lim resurslarini o‘z ichiga oladi [10, 111-112]. Bunday elektron darslik birinchi o‘rinda fanni mustaqil o‘rganuvchi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lishi va ma’lumotlarni yetkazish usullari bilan farq qilishi kerak.

Psixolog va uslubchilarning fikrlariga ko‘ra mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan elektron darsliklarda sifatli tayyorlangan didaktik material o‘rganuvchilarida mustaqil o‘rganish uchun qiziqish, motivatsiya uyg‘otishiga sabab axborotlarning kompyuter grafikasi va multimedia elementlari elektron shaklda berilishi bilan birga bunday elektron o‘quv metodik majmua bilan ishlaganda o‘rganuvchining psixik faoliyati faollashadi. Psixolog va uslubchilarning taxminlariga ko‘ra, mustaqil o‘rganishga qaratilgan elektron o‘quv kompleksida tashkil etilgan sifatli rang-barang axborot talabalarda mustaqil o‘rganish uchun qiziqish va ilhomni uyg‘otadi va ma’lumotlar kompyuter rasmlari va interfaol media komponentla-

ri bilan elektron ramkada taqdim etiladi, shu bilan birga bunday elektron o‘quv tizimi bilan ishlash aqliy harakat kompleksi [11, 58-59].

A.A.Allamurodovning tadqiqot ishida elektron darslik ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashlari uchun zarur bo‘lib u quyidagilarni ta’minlaydi:

– o‘rganilayotgan materialni tushunishni yengillashtiradi. Chunki elektron darsliklar ma’lumotlarni yetkazib berishning turli shakllari: induktiv yondashuv, ovozli va emotsional xotira va h.k.larga asoslangan;

– ta’lim oluvchining ehtiyojlariga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashish imkoniga ega;

– murakkab hisoblashlar va shakl almashtirishlardan ozod etib fanning mazmuniga e’tibor qaratishga, ko‘p miqdordagi amaliy ishlarni bajarishga imkon beradi; ta’lim olishning barcha bosqichlarida o‘z-o‘zini tekshirishning keng imkoniyatlarini ta’minlaydi;

– ishni tartibli va chiroyli tarzda bezab o‘qituvchiga fayl yoki chop etilgan holda taqdim etish imkonini beradi; chegaralanmagan miqdorda tushuntirishlar, takrorlashlar va hk.larni beradigan cheksiz sabr-toqatli ustoz vazifasini bajaradi [2, 85].

Elektron darslik amaliy mashg‘ulotlarda foydali hisoblanadi Chunki u: ko‘p miqdordagi amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda kompyuterdan foydalanish imkonini beradi, olingan natijalarni tahlil qilish va ularning grafik interpretatsiyasi uchun ketadigan vaqtdan ozod etadi [4, 192]; o‘qituvchiga mashg‘ulotni elektron darslikda mustaqil ish shaklida olib borish imkonini beradi va o‘qituvchining faqat rahbar va konsultant vazifasida bo‘lishini ta’minlaydi; o‘qituvchiga elektron darslik yordamida ta’lim oluvchilarning bilimlarini tez va samarali nazorat qilish, nazorat materiallarining mazmuni va murakkablik darajasini berish imkonini beradi [3, 58].

Biz o‘z tadqiqotimizda N.A.Muslimov tomonidan taklif etilgan raqamli texnologiyalar asosida tayyorlanadigan elektron darslikning sxemali modelidan foydalandik (1-rasm).



1-rasm. Elektron darslikning sxemali modeli

Elektron darslik va uning har bir bo‘limida asosiy material bayonidan avval, albatta, kirish qism mavjud bo‘lishi kerak. Unda fanning umumiy tarkibi, qismlari hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘la aks ettirilishi lozim [8, 192]. Elektron darslik, muayyan fanning metodik ta’minoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki elektron darslik metodik ta’minotning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Elektron darsliklar o‘qituvchilar uchun qimmatlidir, chunki:

– manzillar va sinflarda o‘zi tanlagan materiallarni sanab o‘tish, o‘quvchilarga sinfga tayyorgarlikni kengaytirishda elektron darslik bilan erkin ishlash imkonini beradi;

– uy vazifalari, topshiriqlar va taqrizlar bilan bog‘liq ishlardan ozod qiladi;

– tomoshabinlar guruhida ko‘rilgan va mahalliy qabul qilingan holatlar va muammolarning mazmuni va imkoniyatlarini optimallashtirishga imkon beradi;

– uy vazifasi va nazorati bo‘yicha kam o‘quvchilar bilan ishlash uchun ruxsatnomalar.

Bu tasniflarning har biri alohida masalalarni hal etadi, ammo ularning hech biri alohida holda bilim, ko‘nikma va shaxs sifatlarini butunlay qamrab ololmaydi. Tasniflashning ikkinchi darajasining asosi bo‘lib, birinchi darajasini, ya’ni bilimlar tizimini o‘z ichiga qamrab olishi hisoblanadi [12, 123]. Chunki mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan bilim va ko‘nikma o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Boshqacha aytganda, bilim ko‘nikmadan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, ko‘nikma esa bilimlarga tayanmasdan o‘zlashtirilmaydi, amalda qo‘llanilmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning samarasi yuqori sanaladi. Chunki bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari pedagogik tizimni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq sanaladi. Ushbu pedagogik tizimda ixtisoslik fanlariga raqamli ta’lim muhitini tashkil etishda moddiy texnik ta’minot, professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli ta’lim muhitida yuqori darajada ishlay olishi metodikaning samaradorligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.

2. Allamuradov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishda nazariya va amaliyot integratsiyasi // Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. – T., 2020. – 9-son. – B. 84-86.

3. Jo‘rayev A.R. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish: Diss…p.f.f.d.(PhD). – T., 2019. – 144 b.

4. Kadyrov B. E. The content of the development of students’creative skills regarding national craft in technology lessons //Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203. – P. 123-127.

5. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 128 b.

6. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida).: Ped. fan. dokt.… diss. avtoref. – T., 2006. – 48 b.

7. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari.: Ped. fan. dokt.… diss. avtoref. – T., 2005. – 44 b.

8. Qodirov B.E. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2023. – №. 10. – B. 191-194.

9. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSs) diss. – T., 2019. – 200 b.

10. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. …diss. – T., 2004. – 314 b.

11. To‘rabekov F.S. Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Ped.fan. nom. diss . – T., 2011. – 175 b.

12. Zaripov L.R. Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD). – T., 2020. – 141 b.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QURILISHGA OID SO‘ZLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Dilfuza Narmurodova,
Termiz davlat universiteti
“Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida qurilishga oid so‘zlarning chog‘ishtirma tadqiqi, tadqiqot jarayonlarining bosqichlari haqida bo‘lib, qurilish so‘zining ingliz va o‘zbek tillaridagi muammolarini tushuntirish yoki qurilish so‘zi o‘zbek tilida qanday ko‘rinishda qo‘llanilayotganini tahlil qilish kabi masalalarga to‘xtalgan. Kontekstda qurilish so‘zining ishlatilishi esa mashhur binolar, binoning qurilishi, qurilish loyihasi, boshqa infrastruktura obyektlariga murojaat qilish va shu kabi kontekstlar orqali ifodalash mumkinligi aniqlandi. Bu so‘z ishlatilgan vaqt va joyga qarab, og‘zaki va yozmali ko‘rinishlari o‘zgarishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *affiksatsiya, prefiks, suffiks, infiks va sirkumfiks va inflektatsiya (so‘z o‘zgartiruvchi).*

Аннотация

Данная статья посвящена перекрестному исследованию конструкции слова в английском и узбекском языках, этапам процесса исследования, объяснению проблем конструкции слова в английском и узбекском языках или о том, как строится слово в узбекском языке. такие вопросы, как анализ использования представления. Установлено, что употребление слова строительство в контексте может быть выражено через отсылку к известным зданиям, постройкам зданий, строительным проектам, другим объектам инфраструктуры и подобным контекстам. Это слово может менять как устную, так и письменную форму в зависимости от времени и места его употребления.

Ключевые слова: *аффиксация, приставка, суффикс, инфикс и циркумфикс, флексия (переключатель слов).*

Annotation

This article is about the cross research of construction words in English and Uzbek languages, the stages of the research process, the explanation of the problems of construction word in English and Uzbek languages or how the construction word is addressed issues such as analysis of the use of the view in Uzbek. It was found that the use of the word construction in the context can be expressed through reference to famous buildings, building construction, construction projects, other infrastructure objects, and similar contexts. This word can change both spoken and written forms depending on the time and place it is used.

Key words: *affixation, prefix, suffix, infix and circumfix, and inflection (word changer)*

Mamlakatimizda arxitektura, qurilish, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda har tomonlama rivojlanish yo‘lida salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish va arxitekturada qo‘llaniladigan atamalarni o‘rganish va tahlil qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

“Ingliz va o‘zbek tillarida qurilishga oid sozlarning chog‘ishtirma tadqiqi” deb nomlangan tadqiqotni bajarish uchun bir nechta yo‘l mavjud. Bu, tilshunoslik va lingvistika sohasida mutaxassislar, til fanniy odamlar, lekin ko‘p o‘quvchilar yoki ma’lumot egallari bo‘lgan kishilar tomonidan bajarilishi mumkin.

Tilshunos olim X.Arziqulov ham fan va texnikaning sohaga ta’sirini hisobga olib, ilmiy tadqiqotida terminlar haqida o‘ziga xos noyob fikrlarini havola etadi: “Har qanday so‘z va so‘z birikmasi, hatto tinish belgilari, relyatorlar ham terminlar vazifasini bajaradi” [1, 13]

O‘zbek tilida arxitektura va qurilishga oid takroriy so‘zlar, terminlar ham ingliz tilidagi kabi vujudga kelishi aniqlandi. Mazkur so‘z yasash usuli har ikkala tilda ham keng tarqalgan usullardan biridir. O‘zbek tilidagi N.Mamatovning qo‘shma so‘zlar lug‘ati tahliliga ko‘ra, arxitektura va qurilishga oid ushbu usul bilan yasalgan 900 dan ortiq sof va aralash turdagi terminlar mavjud. Tadqiqotda mazkur tilshunos olimlarning fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda, terminlarning yasalish usullari (morfologik, leksik, semantik, sintaktik) turlicha ekanligini qayd etish mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida sintaktik bog‘lamlarga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatuvchi usul bu o‘zlashtirish usuli hisoblanadi [2, 16]. Bu tadqiqotning hammasini aniqroq belgilash juda muhimdir. Misol uchun, qurilish so‘zi miqyosida qanday narsalarni o‘rganish kerakligini aniqlash, qurilish so‘zining ingliz va o‘zbek tillaridagi muammolarini tushuntirish yoki qurilish so‘zi o‘zbek tilida qanday ko‘rinishda qo‘llanilayotganini tahlil qilish kabi masalalar uchun bu tadqiqotni bajarish mumkin. Biz olimning fikriga qo‘shilamiz, boisi ushbu asrda fanning barcha sohasi tobora kengayib, o‘zaro integratsiyalashayotgan aniq yoki kibernetika fanlari tarkibida bir kichik belgi, ishora yoki tasvir ham muayyan vazifani bajarib kelmoqda.

Qayd etish joizki, ba’zi hollarda tadqiqot obyekti hisoblangan arxitektura-qurilish sohasiga xos termin va terminologik birliklarni nafaqat uning tarkibiy doirasida, balki “tashqi sferalar” (og‘zaki nutq jarayonida, badiiy, ilmiy, hajviy adabiyotlar)da qo‘llaniladigan terminologik birliklardan ham manba sifatida foydalanish inkor etil-

maydi. Aynan, “tashqi sferalar”larni hisobga olib, V.A. Tatarinov “terminologik tizim atamasi terminologiyaning kognitiv modelini yoki domenning meta-modelini aks ettiradi” [3, 98] degan fikrni qayd etadi. Bu kabi qarashlardan so‘ng bir qancha tadqiqotchilar, tilshunos olimlar va terminologlar terminda, tabiiy ravishda, leksik ma’noning mavjudligini tan olishadi. Biz “terminlar – faqat “majburiy ilmiy ta’rif”ga ega bo‘lgan so‘zlar” [4, 21] degan fikrga qo‘shilamiz va qo‘llab-quvvatlaymiz.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan elektron va poligrafik manbalarga ko‘ra, hozirgi ingliz tilida umumiy prefikslar soni 90-95 tani tashkil etadi15. Xususan, ingliz tili arxitektura va qurilish sohasi tarkibida faol qo‘llanuvchi old qo‘shimchalar quyidagilardir: **bi** (two — ikki, juft) — bispherical — bisferik; **biangle** — qo‘shburchak; **hemi** (half — yarim) — hemiarch — yarim ark; hemimatrix — yarim matritsa (katak); **hemimetameric** — yarim o‘lchovli; **inter** (between — orasida) — interangular (distance) — burchaklararo (masofa); interankle — o‘zaro bog‘lanish; **micro** (smallscale — kichik o‘lchamli) — microarea — (mikrohudud) kichik hudud; **microblock** — (mikroblok) kichik blok; mono (one — bittalik) — monocopy — yagona nusxa; monolith — monolit; **penta** (five — beshlik) — pentablock — pentablok (tabiiy toshdan qilingan vertikal blokchalar); pentacolor — beshrangli; **under** (beneath, not enough — past yoki yetarli emas) — underground — yerosti; **underside** — pastki tomon; **sub** (below — ostida, pastida) — substructure — poydevor; **subframe** — pastki rom (ramka) va boshqalar ingliz tilida mazkur uslub faol bo‘lsa-da, o‘zbek tilida esa nisbatan passiv so‘z yasash usuli hisoblanadi [2, 13].

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar o‘tilishi mumkin:

1. Muammo aniqlash: Qurilish so‘zi ingliz va o‘zbek tillarida qanday tarzda ishlatiladi? Qanday kontekstda ko‘rinadi? Bu so‘zning og‘zaki va yozmali ko‘rinishlari qanday?

Elektron ta’lim muhitda kasbiy tayyorgarlik ko‘rishning metodik aspektlari tavsifi biz uchun muhim chunki, u tizimli, muhitga oid, shaxsiy-faoliyatga oid va informativ-kibernetik yondashuv doirasida bo‘lajak muhandislarni matematika va ixtisoslik fanlar bo‘yicha tayyorlash jarayonini boshqarish imkonini beradi [5, 119]. “Intellektual jumboq”, “Maroqli modellashtirish”, “Ijodiy laboratoriya”. Keltirilgan modullar muhandisning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan o‘zaro bog‘liq va oliy ta’lim muassasasida matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha o‘qitish jarayoni yaxlitligini aks ettiradi. Shu bilan birga qayd etish lozim, har bir modul tadqiqot mobaynida ajratib ko‘rsatilgan kompetensiyalar klasterini shakllantirishda muayyan salohiyatga ega [1, 40].

Elektron ta’lim muhitida talabalarning o‘qish va bilim olishga doir faoliyatini tashkil etishning taqdim etilgan shakllari mohiyatini batafsil ochib berishga harakat qilamiz (1-rasm).

“Intellektual jumboq” modul birligining mazmuniy tarkibi quyidagi vebinarlar bilan taqdim etilgan: “Muhandis bo‘lmoqchiman — meni o‘qitishsin!”; “Axborot kristallari” (axborotni ishlatishning samarali usullari); “Vaqtni boshqarish sirlari”; “Ilmiy kashfiyotlar kaleydoskopi”; “Qiziqarli matematika”; chatlar bilan — “Uchinchi mingyillik muhandisi — kelajak muhandisi, u qanday bo‘ladi?”; “Muhandis uchun matematika (fizika, kimyo) — afsona yoki haqiqat”; davra stoli bilan — “O‘tmish merosi” (buyuk olimlar, kashfiyot va ixtirolar haqida); usullar bilan — sinkveyn, “Muhandis — yulduzlar turkumi”, istaklar daraxti; “fish-born”.

Xususan, “Qiziqarli modellashtirish” modul birligi maqsadlariga erishish uchun quyidagi mashg‘ulotlar tashkil qilindi. Vebinarlar: “Qisqa tutashuv”, “Yolg‘on haqiqatdan qanday farqlanadi? (mantiqiy masalalarni yechish)”; “Yuksalish va pasayishlar”; forum-konsultatsiyalar, forum-diskussiyalar: “Aniq fanlar: algoritmmi yoki ijod?”; “Standart va nostandart masalalar”; usullar: chalkash mantiqiy zanjirlar; savollar; bahs-munozara chorrahasi va boshqalar.



1-rasm. Kredit-modul texnologiyasi asosida talabalarning o‘qish va bilim olishga doir faoliyatining takomillashtirilgan modeli

Oliy ta’lim muassasasida tahsil oluvchi bo‘lajak muhandislarning matematika va ixtisoslik fanlar bo‘yicha tayyorgarligini oshirishni ta’minlovchi elektron ta’lim muhit modelini keng qamrovli tasavvur etish uchun uning analitik-natijaviy bloki tavsifiga murojaat qilamiz. Ushbu blok tadqiqot mobaynida ajratib ko‘rsatilgan kompetensiyalar klasteri va ularning tashxislash vositalari shakllanganlik darajasi mezonlari, ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi [7, 159].

Taqdim etilgan kompetensiyalar klasterining shakllanganlik darajasini obyektiv baholash uchun matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikning har bir bosqichini boshlang‘ich, joriy va yakuniy tashxisdan o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Oliy ta’lim muassasasida tahsil oluvchi bo‘lajak muhandislarning matematika va ixtisoslik fanlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarligining quyidagi mezonlari (motivatsion, kognitiv-faoliyatga doir, refleksiv) va darajalarga (past, o‘rta, yuqori) ajratamiz.

1-jadval

Bo‘lajak muhandislarning matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarligining mezon va darajalari

Daraja	Mezon	Izohlar
Past	Motivatsion	Matematika va ixtisoslik fanlarni o‘rganishga kuchsiz motivatsiya va aniq ifodalanmagan qiziqish, o‘rganilayotgan fanlarning bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini to‘laqonli anglab yetmaslik;
	Kognitiv-faoliyatga doir	Vazifa-algoritmlarni yechish formulalari, ta’riflari, qonunlari, metodlarini formal bilish, amaliy vazifalarni hal etishda matematika va tabiiy-ilmiy fanlarga doir bilimlarni baholash, isbotlash, qo‘llash mahoratining zaifligi. Bunda talaba matematikaning asosiy tushunchalari, teoremalari, formularini; fizikaning asosiy qonuniyat va qonunlarini o‘z nuqtayi nazarini to‘g‘ri ifoda etish va argumentlar bilan asoslab berish haqida tasavvurga ega;
	Refleksiv	Talaba o‘ziga qaratilgan nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirish usullarini har doim ham amalda qo‘llamasligini biladi; o‘z kuchini juda past baholaydi, matematika va tabiiy-ilmiy fanlardan egallagan bilimlari, tahsil jarayonini boshqarish ko‘nikmalaridan foydalanishda o‘ziga ishonchi yo‘q;
	Motivatsion	Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishga barqaror motivatsiya va qiziqishning mavjudligi, o‘rganilayotgan fanlarning bo‘lajak kasbiy faoliyatida kekrak bo‘lishini anglab yetish;
	Kognitiv-faoliyatga doir	Talaba matematika va tabiiy-ilmiy fanlar sohasida nazariy bilimlarga ega, muammoning tabiiy-ilmiy fan nuqtayi nazaridan mohiyatini aniqlab bera oladi; vazifani yechish metodini tanlashni va qo‘lga kiritilgan natijani tahlil qilishni, ilmiy qoidalarni asoslab berish, dalillash uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishni eplaydi;
	Refleksiv	Talaba nazorat-baholash faoliyatini amaliyotda ishlatish usullarini biladi va qo‘llaydi; o‘z ko‘nikmalarini juda yuqori baholash. Amaliy vazifalarni yechishda nazariy bilimlarni qo‘llash paytida o‘ziga ishonch darajasining yuqori bo‘lishi va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasiga ega;
Yuqori	Motivatsion	Matematika va tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishga kuchli motivatsiyaning mavjudligi; bo‘lajak kasbiy faoliyati uchun matematika va tabiiy-ilmiy fanlar muhim ahamiyat kasb etishini tushunishi va unga ishonchni mavjudligi.
	Kognitiv-faoliyatga doir	Talaba matematika va tabiiy-ilmiy fanlar sohasida yetarli nazariy bilimlarni egallagan, yechim usulini tanlash va uning qo‘llanishi asoslab berishni biladi, bo‘lajak kasbiy faoliyat bilan aloqador atrof-muhit hodisalari va jarayonlarni tasvirlash uchun matematik ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan.
	Refleksiv	Talaba nazorat-baholash faoliyatini ishga solish usullarini biladi va amaliyotda qo‘llaydi; shaxsiy ko‘nikmalarini yuqori baholay oladi; amaliy masalalarni yechish chog‘ida nazariy bilimlarni qo‘llashda o‘ziga ishonadi, o‘quv-bilishga doir faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va korreksiyalash ko‘nikmalarini egallagan.

Ta’kidlash lozim, bo‘lajak muhandis faoliyati turlari va uning shaxsiy hamda kasbiy sifatlari to‘g‘risidagi savol talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi. Bu borada biz “...ning hayotidan bir kun” va “Tugallanmagan gaplar” singari metodikalardan foydalandik. Birinchi metodikani qo‘llash davomida talabalarga ot turkumiga mansub so‘zdan foydalangan holda muhandis faoliyatini (tayyorlash yo‘nalishi mohiyatiga muvofiq) tasvirlash taklif etildi [4, 8].

Topshiriq sifatida talabalarga “Matematikani o‘qitishda muvaffaqiyat sirlari (yoki kimyo, fizika)” degan eslatma tuzish taklif qilindi. Talabalar ishlarining tahlili eng ko‘p uchragan javoblar variantlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: tayyorgarlikning uzluksiz bo‘lishi, materialni bayon qilishda tizimlilikni ta’minlash, “tushunarsiz” teorema, formulalarni o‘z vaqtida izohlash imkoniyati, masalalarni jamoaviy bo‘lib yechish imkoniyati va boshqalar. Shu asosda umumiy integratsiyalashgan eslatma tuzib chiqildi va u elektron ta’lim muhiti kontentining informatsion-maqsadli blokiga joylashtirildi. Vebinar mustaqil ishlashni tashkil etish chog‘ida o‘z vaqtini taqsimlashga ratsional yondashuv muhim ekanini talabalar anglab yetishiga sharoit yaratdi. Bundan tashqari, mashg‘ulot mobaynida talabalar elektron ta’lim muhiti tarkibi va funksiyasi haqida hamda uning ichida kommunikatsiyalashish usullari to‘g‘risida savollar berish imkoniyatiga ega bo‘lishdi [6, 122].

Xususan, tayyorgarlikning uzluksiz jarayonini amalga oshirish, bilimlarni tizimlashtirish, o‘qituvchi tomonidan o‘z vaqtida yordam ko‘rsatilishi va korreksiya (o‘zaro hamkorlikning sinxron, asinxron rejimi), masalalar jamoa doirasida yechish imkoniyatlari ko‘rsatib berildi.

Dastlab, uyga topshiriq sifatida talabalar mantiqiy masala shartini tuzishlari, mazkur masalaning mazmuni esa bo‘lajak kasbiy faoliyat o‘ziga xosligini akslantirib turishi kerak edi. Bunday shakldagi topshiriq nafaqat talabalar bilimlari faollashishiga, balki ularning fikrlash jarayonining faollashuviga ham turtki berdi.

Taqdim etilgan masalalarni birgalikda muhokama qilish va jamoa bo‘lib yechish jarayoni aqliy hujum metodini qo‘llagan holda onlayn rejimda kechdi. Bundan yechimni topish hamkorlikdagi faoliyat (ijod) mahsuli sifatida qaralib, uning natijalarini atroflicha tahlil qilish nazarda tutilgandi. Bunday yondashuv qiymati shu bilan belgilanadiki, qo‘llanayotgan usul masalalarning yechishning ehtimoliy variantlariga nisbatan yangi g‘oyalarni yuzaga chiqarish, talabalar ilgari surgan taxminlarni tahlil qilish va baholash, ularning xolis pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan edi. Shu maqsadda “chalkash mantiqiy zanjirlar”, “bahs-munozaralar chorrahasi”, kabi usullardan ham foydalandik.

“Bahs-munozaralar chorrahasi” usuli kichik guruhlarda talabalar ishlashini tashkil etishi chog‘ida qo‘llanildi. Mashg‘ulot vaqtida talabalarga binar savol taklif etildi, uni muhokama qilish davomida talabalar nafaqat o‘zi o‘ylab topgan argumentlar (kontr argumentlar)ni bayon etishlari, balki o‘z opponentlarini tinglay olish mahoratini ham namoyon etishlari lozim edi [7, 155].

Matematika va tabiiy-ilmiy fanlarga oid bilimning amaliy funksiyasi “Yuksalish va pasayishlar” (“Qiziqarli modellashtirish” moduli) vebinari davomida ifodalab berildi. Mashg‘ulot talabalarning algoritmik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan edi. Mazkur bosqichda tahsilning asosiy vositasi sifatida “tadqiqot-masala” (maqbullashtirilgan masalalar) ko‘rib chiqildi. U esa qandaydir sohada haqiqiy funksiyani ekstremumini topishni nazarda tutdi. Qandaydir funksiyalarni tadqiq etish algoritmini amalga oshirish esa, nafaqat algoritmik madaniyatning shakllanishiga, balki ma’lumotlarni tahlil qilish, talqin etish, ehtimoliy natijani bashorat qilish ko‘nikmalarini ham shakllantirishga ko‘maklashadi. Xususan, talabalarga izlanadigan kattaliklarni ekstremal qiymatlarini aniqlashga qaratilgan masalalar (ishqalanishning minimal koeffitsiyenti, nishablikning maksimal burchagi, konsentratsiyaning maksimal darajasi va boshqalar) taklif etildi. Shunday masaladan namuna keltiramiz: “Suvdagi germetik berkitilgan idishda M og‘irlikdagi muz parchasi suzyapti, parcha ichiga m og‘irlikdagi qo‘rg‘oshin bo‘lagi muzlab qotib qolgan. Bo‘lak cho‘kishni boshlashi uchun qancha miqdorda issiqlik sarflanishi kerak? Qo‘rg‘oshinning zichligi 11,3 g/sm3, muzning zichligi 0,9 g/sm3, muz erishining solishtirma issiqligi λ. Idishdagi suvning harorati 0 °S”.

Topshiriqning qiymati shu bilan o‘lchanadiki, bo‘lajak muhandis jarayonga yoki hodisaga ta’sir etuvchi bir qancha omillardan optimallashuvga ko‘maklashadiganini tanlay olishi zarur. “Hayotiy differensial tenglamalar” mashg‘uloti talabalarning alohida qiziqishiga sabab bo‘ldi. Mazkur mashg‘ulotni o‘tkazishdan maqsad: tahlilchilik va tadqiqotchilik qobiliyatlari, tabiat jarayonlarini modellashtirish, ma’lumotlarni talqin etish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat bo‘ldi.

Bundan tashqari, ta’kidlash lozimki, differensial tenglamalar kursi matematikaga o‘qitish amaliy yo‘nalishi mohiyatini tushunish, matematik modellashtirish metodini egallash singari komponentlar bo‘yicha talabalarning ilmiy dunyoqarashini o‘stirishga ko‘maklashadi.

“Ijodiy laboratoriya” moduli birligi tasavvur etish — tizimli fikrlashni rivojlantirish, texnik tizimlar rivojini tashxis qilish mahoratini, tadqiqotchilik va refleksiv ko‘nikmalarni yuzaga chiqarishga qaratildi. Everistik yondashuv, nostandart fikrlash usullarini qo‘llash g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish orqaligina ko‘zlangan maqsadga yetish mumkin.

Mazkur jarayonda talabalarga bir qancha mavhum shart bilan topshiriqlar taklif etildi. Bunda qanday harakat qilish, masalani yechish chog‘ida nimani qo‘llash ma’lum emasdi, ammo talab qilinayotgan natija tushunarli edi. Bu tipdagi masalalarni yechishga odatda talabalar yuqori darajadagi motivatsiya, o‘zini nazorat qilish va o‘z kuchiga ishonish hissi bilan kirishdi, nostandart masalalarni yechish, ma’lumotlarni talqin eta olish va ehtimoliy oqibatlarni tashxislay olish chog‘ida farazlarni ilgari surishdi.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida “Kompetent muhandis” deb ataluvchi ishlab chiqilgan metodika “Intellektual jumboq”, “Qiziqarli modellashtirish”, “Ijodiy laboratoriya” singari modul birliklarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Oliy ta’lim muassasasida tahsil oluvchi bo‘lajak muhandis-texnik kadrlarning matematika va tabiiy-ilmiy fanlarni o‘zlashtirishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аксенова О.В. Организация самостоятельной работы по математике студентов педагогических вузов средствами дидактической компьютерной среды. // Педагогическое образование в России. – 2013 – №5. – С.34–42.
2. Андреев, А.А. Педагогика в информационном обществе, или электронная педагогика. //Высшее образование в России. – 2011. – №11. – С.113-117.
3. Чоршанбиев, З.Э. (2020). Педагогический такт и техника как важные факторы развития образовательного процесса. Вестник науки и образования, (10-3 (88)), 55-59.
4. Бекетова Н.Е. Электронная дидактика: проблемы и перспективы развития. ИТО-2006. – М., 2006. – 2006. – С. 8–9.
5. Бердибаев М.С. Бўлажак математика ўқитувчиларининг компетентлигини ривожлантириш. Диссертация PhD: 13.00.05. – Т., 2019. – 125 б.
6. Бочкарева О.В. Профессиональная направленность обучения математике студентов инженерно-строительных специальностей вуза. Монография. – М., 2011. – 321 с.
7. Вайндорф-Сысоева, М. Е. Организация виртуальной образовательной среды в подготовке педагогических кадров к инновационной деятельности: диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.08. – М., 2009. – 388 с.

TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI SHAKLLANTIRISH

Nigina Sharipova,
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada transformatsiya jarayonida tijorat banklariga investitsiyalarni jalb etishni shakllantirish haqida atroflicha bayon qilinadi. Barchamizga ma’lumki, iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tizimli islohotlar, mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida tatbiq etilgan innovatsion usullar, davr talablari nuqtayi nazaridan qabul qilingan qonunlar, chiqarilgan farmonlar, qarorlar barcha sohalarda Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash sohasida tijorat banklariga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati kattadir.

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy erkinlik, dasturiy ta’minot, moliya sanoati va h.k.*

Аннотация

В данной статье подробно описано формирование инвестиционной привлекательности коммерческих банков в процессе трансформации. Все мы знаем, что масштабные системные реформы в нашей экономике, инновационные методы модернизации нашей страны, принятые законы, изданные указы и решения с учетом требований времени служат поднятию развития нашей страны на новый уровень во всех отношениях. области. На данном этапе важно привлечь инвестиции коммерческих банков в сфере обеспечения экономической стабильности.

Ключевые слова: *коммерческие банки, привлечение инвестиций, экономическая стабильность, финансовая свобода, программное обеспечение, финансовая индустрия и др.*

Annotation

This article describes in detail the formation of investment attraction to commercial banks in the process of transformation. We all know that large-scale systemic reforms in our economy, innovative methods of modernization of our country, adopted laws, issued decrees and decisions in view of the requirements of the time serve to raise the development of our country to a new level in all areas. At this point, it is important to attract investments to commercial banks in the field of ensuring economic stability.

Keywords: *commercial banks, investment attraction, economic stability, financial freedom, software, financial industry, etc.*

Respublikamizda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish va iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish katta miqdordagi investitsiya resurslarini talab etadi. Bunda investitsiyalarni moliyalashtirish ichki va tashqi manbalaridan unumli hamda uyg‘un ravishda foydalanish, shu bilan birga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlarning investitsion faolligini har tomonlama ta’minlash lozim bo‘ladi. Hozirda respublikamizda iqtisodiyotning barcha ustuvor sohalariga chet el investitsiyalarini jalb qilish yuzasidan faol siyosat yuritilib, katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini topish, loyihalarning samaradorligini baholash va ularning monitoringini olib borish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki bu tadbirlar investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli oshirilishini ta’minlaydi. Bugungi kunda mamlakatda investitsiya faolligini oshirish va bevosita chet el investitsiyalari oqimi hajmini ko‘paytirish maqsadida samarali vositalardan biri sifatida, birinchi navbatda, milliy korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning investitsion faolligini hamda salohiyatli xorijiy investorlar bilan mustaqil ish olib borish imkoniyatini kengaytirishni ta’minlash zarur [1, 234]. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotimiz investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish, tashqi bank kreditlari, chet el investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlari kreditlari hamda xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish zarur.

Har qanday firmaning asosiy operatsion muammolaridan biri bu ularning likvidlik xavfidir. Bu tavakkalchilikning yakuniy tavakkalchiligi xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiyatlari uning aktivlaridan oshib ketishi bilan tavsiflanadi va to‘lov qobiliyatining etishmasligi deb ataladi. Likvidlik riskini boshqarishning an’anaviy chora-tadbirlaridan biri bu zaxiralarni shakllantirishdir. (Ozarbayjon Markaziy bankining prudensial me’yorlariga muvofiq joriy likvidlik koeffitsiyenti 30% etib belgilangan) Banklar o‘z faoliyati davomida muntazam ravishda kredit riskiga duchor bo‘ladilar [1, 56]. Operatsion aktivlarni sotish yoki sotib olish orqali bank o‘z tavakkalchiligini o‘z ixtiyoriga ko‘ra yoki unga qo‘shimcha risklar qo‘shib sug‘urta qiladi. Keyingi yillarda risklarni boshqarish texnologiyasi va usullari bank faoliyatining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, balki odamlarning turmush tarzi va turmush darajasidir. Iqtisodiy o‘sishda davlatning ichki va tashqi siyosatida asosiy rol o‘ynaydi. Iqtisodiy o‘sish har bir tashkilot va umuman jamiyat talablariga muvofiq o‘z vaqtida alohida amalga oshirilsa faollashishi mumkin. Bank sektorlari global miqyosdagi global jarayonlardagi iqtisodiy inqirozlarga duchor bo‘ldi, bu esa ko‘plab og‘ir insultlarga olib keldi. Natijada, bu ta’sirlar global miqyosda iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida kuzatilmoqda. Tijorat banklarining yanada faol hamkorligi uchun iqtisodiyotning real sektori uchun uzoq muddatli resurs bazasini yaratish, tijorat banklarining (rezidentlar va norezidentlar) omonatlarini himoya qilish bo‘yicha shakllantirilgan majburiyatlari narxini yaratish zarur. Banklar va moliyaviy vositachilar aholidan omonatlarni jalb qiladi, foiz stavkalarini oshirish rezidentlar va norezidentlar daromadlarining o‘sishini samarali o‘zgartirishga yordam beradi. So‘nggi yillarda banklar jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotganiga qaramay, mamlakatimizda ular hali ham innovatsion yutuqlarga muhtoj. Zamonaviy ilm-fan sohasida bank mahsuloti tushunchalari va bank xizmatlarining mohiyati ham muhokama qilinadi. Masalan, qozoq olimi va tadqiqotchisi A.Shamiembekovnaning fikrini muhokama qilishimiz mumkin. Uning so‘zlariga ko‘ra, banklar tomonidan bank va mijoz o‘rtasida ko‘rsatiladigan xizmatlar yoki boshqa banklardan olingan kreditlar qatoriga depozitlar, valyuta ayirboshlash, shuningdek, kreditlar bo‘yicha operatsiyalar, depozitlar, valyuta ayirboshlash va boshqa operatsiyalar kiradi. Bank mahsuloti — bu banklar tomonidan mijozlar uchun beriladigan o‘ziga xos bank operatsiyasi. Bular bir-biriga bog‘langan cheklar, veksellar, depozitlar, bank sertifikatlari, bank kartalari va boshqalar [3, 67].

Fintechning tijorat banklariga ta’sirining rivojlanishini uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich ITni joriy qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda an’anaviy IT apparat va dasturiy ta’minotni qo‘llash orqali moliya sanoatidagi tijorat banklari ofis boshqaruvi va biznes faoliyatini avtomatlashtirishni amalga oshiradilar va biznes samaradorligini oshiradilar. Ikkinchi bosqich - Internet-moliyani joriy etish. Tijorat banklari onlayn biznes platformalarini quradilar, Internet yoki mobil terminal kanallari orqali mijozlar va ma’lumotlarni jalb qiladilar va moliyaviy biznesda tranzaksiya, to‘lov va kapital oqimining o‘zaro bog‘liqligini amalga oshiradilar. Uchinchi bosqich fintech rivojlanishini qo‘llaydi [3, 67-68]. Banklar moliyaviy ma’lumotlarni to‘plash, risklarni baholash modellari, investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonlari va kredit vositachilari uchun yangi IT texnologiyalarini o‘zlashtira boshlaydi. Fintech bo‘yicha mavjud adabiyotlar kredit qarorlarida mashinani o‘rganish algoritmlari samaradorlikni oshirishini aniqlaydi.

Endi kredit tizimining funksionalligini batafsil tushuntirib bersak: Pul funksiyalarining rivojlanishiga parallel ravishda banklarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar sifatida shakllanishi va evolyutsiyasi. Tarixan banklarning naqd pul mablag‘larini boshqarish faoliyati, birinchi navbatda, pul taqsimoti xizmatlarini ko‘rsatish va ikkinchi darajali xizmat ko‘rsatishda namoyon bo‘lgan. Banklarning birja funksiyalarining rivojlanishi va chuqurlashishi faoliyatning yangi turlarini yaratishga turtki beradi. Shunday qilib, baholash xizmatlari taklif etiladi va bu kelajakdagi depozit operatsiyalari uchun asosdir. Umuman olganda, bunday faoliyat turining shakllanishi tarixiy va iqtisodiy jihatdan tabiiy edi. Chunki jamg‘armalar, zargarlar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z qimmatbaho buyumlarini saqlash bilan birga, boshqalarga ham shunday xiz-

matlar ko‘rsatish imkoniyatini qo‘lga kiritgan. Shubhasiz, dastlabki bosqichlarda depozit xizmatlari ancha sodda edi. Bu, birinchi navbatda, omonatchilarga xizmatlar uchun haq to‘langani bilan izohlandi [4, 55]. Chunki o‘z bankiga ishongan odamning asosiy maqsadi pulini o‘zida saqlab qolish edi. Bank mijozlarining depozit xizmatlariga qiziqishi ortishi, muomaladagi metall pullar tarkibi tengsizligi bilan izohlandi. Pul iqtisodiyotda faol pozitsiyani ushlab turadigan va kredit vositasi sifatida iqtisodiyotni tartibga soluvchi integral nazariyadir. Agar monetarizmni mohiyatan tadqiq qilsak, keyinchalikka muqobil topamiz. Monetaristlarning fikricha, bandlik va iqtisodiy barqarorlikning hozirgi kafolati pul va kredit usulida ko‘rilgan. Bu erda valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi valyuta bozori mavjud tizimga mos keladigan o‘z-o‘zini tartibga solish funksiyalariga ega bo‘lgan yagona tizim sifatida davlat rolini eng cheklovchisi va bu g‘oyaning umumiy targ‘iboti bo‘ldi. Nobel mukofoti sovrindori amerikalik iqtisodchi, monetaristlar tomonidan yetakchi deb hisoblangan Milton Fridman erkin valyutaning doimiy o‘sishi xavfini to‘g‘ri baholash kerak, deb hisoblaydi. Bank faoliyati aktivlarni o‘zgartirishning uch turini ajratib ko‘rsatadi: miqdor, sifat va vaqt.

Miqdoriy o‘zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, banklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning hajm xususiyatlari mijozlar talablariga mos kelishi kerak. Bunga yakka tartibdagi omonatchilar tomonidan jiddiy investitsiya loyihalarini kreditlash uchun katta miqdorda qo‘yilgan nisbatan kichik depozitlar klassik misol bo‘la oladi. Sifatni o‘zgartirish, avvalambor, aktivlar xavfi xususiyatlarini kamaytirishdir. Muayyan majburiyatlarni emissiya qilish yoki joylashtirishda bank har qanday investitsiya loyihasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya qilingan mablag‘larga nisbatan ancha ishonchlilikni ta’minlaydi. Bu, birinchi navbatda, pul resurslarini konsentratsiyalash orqali aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Ikkinchidan, banklar axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati hisobiga qarz oluvchilarning harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Aktivlarning vaqt o‘zgarishiga misol tariqasida banklar bir tomondan omonatchilardan depozitlarni qabul qilishlari, ikkinchi tomondan esa qarz oluvchilarga uzoqroq muddatlarga kreditlar berishlari mumkin. Vaqtni o‘zgartirish muammosi uzoq muddatli aktivlarning past likvidligi va depozit to‘lovlari bo‘lmasligi xavfi bilan chambarchas bog‘liq. Bu riskni qisqa muddatli banklararo kreditlar hisobidan qisman kamaytirish mumkin [5, 118]. Risklarni boshqarish har bir bank faoliyatining asosiy jihatlaridan biridir. Xatarlarni tasniflashda turlicha yondashuvlar mavjud. Iqtisodiy yondashuv nuqtayi nazaridan risklar mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy risklarga bo‘linadi. Mikroiqtisodiy risklar — bu diversifikatsiya strategiyalarini qo‘llash orqali bartaraf qilinadigan yoki cheklanadigan xavflar. Aks holda risklar makroiqtisodiy risklar bilan bog‘liq. Boshqa tasnifga ko‘ra, bank likvidligi, kredit riski va foiz stavkasi riski va balansdan tashqari operatsiyalar xavfi mavjud. Shubhasiz, turli xarakterdagi risklar banklar tashkil etilganidan beri hamon qoplanadi. Bank biznesi evolyutsiyasining alohida bosqichi XIX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi [5, 34].

Bank xizmatlari va bank mahsulotlari o‘rtasida o‘xshashliklar mavjud. Maqsad bank mijozlarining ehtiyojlarini qondirish uchun foyda olishdir. Masalan, depozitlar bank mahsulotidir va uning foizlarini doimiy to‘lash allaqachon bank xizmatidir. Ikkala holat ham mijozlar ehtiyojlariga xizmat qiladi va daromad keltiradi. Bankda hisob ochish mahsulot hisoblanadi, ammo hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish allaqachon bank xizmatidir. Mahsulotlar ham, xizmatlar ham banklar tomonidan komissiyalar ko‘rinishida daromad olish uchun mo‘ljallangan. Xizmat va mahsulot bank daromadini keltirish maqsadida yaratilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p hollarda bank mahsuloti birinchi bo‘lib, bank xizmati esa ikkinchi darajali xususiyatga ega edi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bank xizmatlari xavfli faoliyat sohasi hisoblanadi. O‘ylaymanki, agar biz “bank mahsulotlari” va “bank xizmatlari”ni taqqoslasak, biz kengroq tushunchaga ega bo‘lamiz. Banklarga audit va nazorat faoliyatini amalga oshirishda yordam berish uchun taftish komissiyasi tuziladi. Tekshiruv komissiyasi kamida ikki a’zodan iborat bo‘lishi kerak. Taftish komissiyasi a’zolari direktorlar kengashining ijrochi roliga ega bo‘lmagan a’zolaridan saylanadi. Banklarda hammaning ishi bor. Xodimlar o‘z vazifalari bilan bog‘liq ishlarni bajaradilar. Bank nazorati ham juda muhim masala bo‘lganligi sababli, ayrim shaxslarning bu mavzuga qiziqishi muhim. Ushbu lavozim boshqaruv kengashi a’zolaridan (ma’murlaridan) iborat Taftish komissiyasiga yuklatildi. Taftish komissiyasi boshqaruv uchun javobgardir va uning barcha faoliyati uchun direktorlar kengashi nomidan javobgardir. Risklar qator omillar, masalan, xodimlarning yetishmasligi, tushunmovchilik yoki xodimlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar yoki boshqaruv qarorlarini noto‘g‘ri boshqarish kabi omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Kompaniyalarda xato va xatolarning oldini olish va xatolarni tuzatish uchun tizim tashkil etilmoqda va tekshiruvlar o‘tkazilmoqda. Tizim yaratiladi va kompaniyalarda xatolarning oldini olish va xatolarni tuzatish uchun tekshiruvlar o‘tkaziladi. O‘rnatilgan tizim ichki nazorat tizimi deb ataladi. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, balki odamlarning turmush tarzi va turmush darajasidir. Iqtisodiy o‘sishning asosiy ta’siri davlatning ichki va tashqi siyosatidir [6, 78].

Iqtisodiy o‘sish har bir tashkilot va butun jamiyat talablariga muvofiq o‘z vaqtida individual ravishda amalga oshirilsa, faollashishi mumkin. Bank sektori global miqyosda global iqtisodiy inqirozlarni boshdan kechirdi, bu esa ushbu ta’sirlarning ko‘plab jiddiy bosqichlarining paydo bo‘lishiga olib keldi va iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida global miqyosda o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Mam-

lakatimizda bank sektorini takomillashtirish milliy iqtisodiyotdagi islohotlarning eng tez o‘zgarib borayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Tijorat banklari muayyan talablar asosida xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirib, zamonaviy bank mahsulotlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka qayta ishlandi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, xususiy sektorni, erkin tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Aholi daromadlari va turmush darajasining oshishi tijorat banklarining xizmat ko‘rsatish darajasi va faolligini oshirdi [6, 233]. Amalda rivojlangan mamlakatlarda takomillashtirilgan tajribalardan foydalanish transmilliy banklarga nisbatan ushbu sohada amaliy va ehtiyotkorona islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda zamonaviy bank ishini shakllantirishga xalqaro tajriba katta hissa qo‘shdi. Tan olishimiz kerakki, iqtisodiyot sohasida bank xizmatlarini takomillashtirish davlat iqtisodiy salohiyatining rivojlanish darajasiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biridir. Mijozlarga bank xizmatlari va mahsulotlarini taklif qilish ichki qonunchilikka muvofiq ko‘rsatmalar bilan tartibga solinadi. Bank faoliyatini tashkil etish korporativ standartlarga muvofiq shakllantiriladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining rivojlanishi mamlakat moliyaviy islohoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan moliya bozorlarining fundamental poydevori hisoblanadi. Davlatlarning asosiy maqsadi bank tizimlarining qonunchilik bazasini xalqaro standartlar bilan to‘liq muvofiqlashtirish va bank xizmatlarining iqtisodiyotdagi rolini oshirishdan iborat. Davlatning iqtisodiy xavfsizlik siyosati tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarini himoya qilishni kuchaytirishga, butun bank tizimining barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “Banklar to‘g‘risida”gi Qonunda banklar faoliyati to‘liq belgilab berilgan. Banklarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tamoyillarini, ichki boshqaruv me’yorlarini, faoliyatni prudensial tartibga solish va tugatish asoslarini belgilash asoslari belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in Joint Stock Company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.
2. Shernaev, A. A. (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Студенческий вестник, (20-14), 74-76.
3. Шернаев, А.А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.
4. Shernayev, A. A. (2021). Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari. Интернаука, (20-7), 58-60.
5. Шернаев, А.А. (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. Интернаука, (12-2), 43-45.
6. Jumanazarova, Z. J., & Shernayev, A. A. (2020). Budjetdan tashqari jamg‘armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari. Студенческий вестник, (1-6), 87-89.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ И САМОРАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ

Жавлонбек Рахимбердиев,
Преподаватель образовательного направления "Физическая культура"
Ташкентский институт экономики и педагогики

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы профессионально-личностного развития и саморазвития студентов-спортсменов. Также, на основе анализа научной литературы систематизирована специфические особенности спортивной деятельности. Обзор литературы по вопросам развития и саморазвития спортсменов занимающихся единоборствами, необходимо отметить явную недостаточность, мозаичность и противоречивость экспериментальных данных. Подводя итог обзору литературы по вопросам развития и саморазвития спортсменов занимающихся единоборствами, необходимо отметить явную недостаточность, мозаичность и противоречивость экспериментальных данных. Наиболее изученными в отношении личностных особенностей оказались спортсмены, занимающиеся восточными видами единоборств.

Ключевые слова: *профессиональное саморазвитие, спорт, кураш, студент-спортсмен, спортивная деятельность, профессионально-личностное саморазвитие, литература, профессиональная деятельность, анализ.*

Аннотация

Ушбу мақолада талаба-спортчиларнинг касбий ва шахсий ривожланиши ва ўзини ўзи ривожлантириш муаммолари таҳлил қилинади. Шунингдек, илмий адабиётларни таҳлил этиш асосида спорт фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари тизимлаштирилади. Якка кураш билан шуғулланадиган спортчиларнинг ривожланиши ва ўзини ўзи ривожлантириш бўйича адабиётларни кўриб чиқиш, эксперимантал маълумотларнинг аниқ етишмовчилиги, мозаикаси ва номувофиқлиги таъкидлаб ўтилган. Якка кураш билан шуғулланадиган спортчиларни ривожлантириш ва ўз-ўзини ривожлантириш бўйича адабиётларни кўриб чиқишни якунлаб, эксперимантал маълумотларнинг аниқ этишмаслиги ва номувофиқлигини таъкидлаш керак. Шахсий хусусиятлар бўйича энг кўп ўрганилган предмет шарқона якка курашлар билан шуғулланадиган спортчилар ҳисобланади.

Калит сўзлар: *касбий ўзини ўзи ривожлантириш, спорт, кураш, талаба-спортчи, спорт фаолияти, касбий ва шахсий ўзини ўзи ривожлантириш, адабиёт, касбий фаолият, таҳлил.*

Annotation

This article analyzes the problems of professional and personal development and self-development of student-athletes. Also, based on the analysis of scientific literature, the specific features of sports activity are systematized. A review of the literature on the development and self-development of athletes engaged in martial arts, it is necessary to note the obvious insufficiency, mosaic and inconsistency of experimental data. Summing up the review of the literature on the development and self-development of athletes engaged in martial arts, it is necessary to note the obvious insufficiency, mosaic and inconsistency of experimental data. Athletes engaged in oriental martial arts turned out to be the most studied in terms of personal characteristics.

Keywords: *professional self-development, sports, kurash, student-athlete, sports activity, professional and personal self-development, literature, professional activity, analysis.*

В настоящее время проводится ряд мероприятий по популяризации, развитию и становлению в мире нашего национального вида спорта — кураша, воплощающего в себе национальные ценности, в частности мужество, отвагу, патриотизм и гуманизм, а также превращению кураша в жемчужину мирового спорта.

Наряду с этим растущая популярность кураша требует организации престижных международных соревнований, модернизации действующей инфраструктуры и материально-технической базы, улучшения обеспечения спортивным инвентарем и экипировкой, расширения их производства, а также дальнейшего усиления внимания к подготовке квалифицированных кадров, тренеров и судей для данной сферы [1].

Любой человек, который занимается спортивной деятельностью, осознаёт важность своего профессионально-личностного развития и саморазвития. Спортивная деятельность определяется как "специфический вид деятельности, специально организованный процесс, направленный на выявление предельных возможностей человека".

Спорт можно отнести к разновидности профессиональной деятельности, к сочетанию игровой и профессиональной деятельности. Кроме того, спорт содержит в себе элементы учебной деятельности. Поскольку системообразующим компонентом профессиональной деятельности является результат (в данном случае – спортивное достижение), а игры — сам ее процесс, точка зрения А.Ц. Пуни представляется более обоснованной [2, 10]. Н.Б.Стамбулова характеризует спорт как "сжатую модель жизни" [3, 368]. Н.А.Баранов отмечает, что спорт, понимаемый не только как

специфичный вид деятельности, но и как образ жизни в целом, способен оказывать мощное влияние на формирование личности, создавая для нее реальность, во многом отличную от реальности жизни людей, не занимающихся спортом [4, 75]. Г.Е.Леевик также полагает, что общие условия спортивной деятельности (регулярные тренировки и соревнования, спортивный режим) находят свое отражение в формировании у спортсменов определенных личностных свойств. Необходимо определить специфику деятельности, столь существенно влияющей на изменение личности осуществляющего ее человека [5, 14].

На основе анализа научной литературы Г.В.Лозовая систематизировала специфические особенности спортивной деятельности [6, 10].

Во-первых, спортсмен выступает одновременно и как субъект спортивной деятельности, и как ее объект. А.Ц.Пуни отмечает, что спортсмен является предметом профессиональной деятельности многих специалистов (тренеров, судей). В процессе многолетних занятий спортом идет не только овладение психологической структурой спортивной деятельности, но и освоение социальной роли спортсмена.

Во-вторых, спортивная деятельность включает в себя учебно-тренировочное занятия и соревнования, являющееся неотъемлемым признаком спорта и направленное на выявление предельных возможностей человека. Это обстоятельство определяет состязательный характер спортивной деятельности и межличностных отношений спортсменов, высокую конкуренцию. Острота конкуренции обуславливает относительную замкнутость и специфичность среды общения спортсменов, жесткость общения [7, 94].

В-третьих, основной характеристикой спортивной деятельности является ее системная сложность, так как она требует согласованного единства индивидуально-психологических качеств, внутренних средств и технической организации деятельности. Г.Б.Горская также отмечает необходимость соответствия планирования подготовки и спортивной практики психологическим особенностям спортсменов, особенностям отбора в команду и на соревнование.

В-четвертых, ее специфика заключается в интенсивных и длительных физических и психических нагрузках, которые испытывают спортсмены. Спорт отличается высоким динамизмом, который определяет постоянное повышение требований к физическим и психическим возможностям спортсмена, что обуславливает его экстремальность и стессогенность.

В-пятых, спортивная деятельность во времени неравномерно предъявляет требования к спортсмену по нагрузкам и ответственности периодов.

В-шестых, спорт в отличие от многих других видов профессиональной деятельности имеет детально разработанные правила деятельности и критерии ее оценки.

В-седьмых, более раннее начало, специализация, кульминация и завершение спортивной карьеры, свойственное спорту, отличает его от типичной профессиональной деятельности. Для спортивной карьеры характерны сенситивные для развития многих психических и физических качеств возрастные периоды детства и юности, тогда как профессиональная карьера занимает период зрелости, и относительная неопределенность момента ее завершения.

В-восьмых, спортивная деятельность требует для своего успешного осуществления более высокого уровня заинтересованности.

На данный момент выполнены многочисленные исследования, показывающие отличие спортсменов от не спортсменов (к сожалению, большинство этих исследований выполнено на детско-юношеском спорте и их результаты не могут быть перенесены на взрослый спорт). Установлено, что спортсмены отличаются от сверстников в уровне развития психических процессов и психомоторики.

Профессионально-личностное саморазвитие и профессиональное самосовершенствование субъектов спортивной деятельности, как психолого-педагогические понятия, очень тесно связаны между собой, поскольку направлены на решение похожих образовательных задач.

Профессиональное саморазвитие — это сознательный целенаправленный процесс повышения уровня своей профессиональной компетентности и развития профессионально значимых качеств в соответствии с внешними социальными требованиями, условиями профессиональной деятельности и личной программой развития.

В педагогике наиболее близким по смыслу к понятию профессионально-личностное развитие и саморазвитие являются понятия самосовершенствования и самовоспитания. Термин самосовершенствование используется преимущественно к взрослым людям (педагогам, воспитателям, родителям), а понятие самовоспитания, в основном, по отношению к подросткам, в плане целенаправленного формирования ими собственной личности.

Подводя итог анализу понятий, использующихся как синонимы к понятию “профессионально-личностное саморазвитие” можно сделать вывод о том, что последнее является не синонимом, а сопряженным понятием, находящимся с вышеперечисленными в определенном взаимодействии. А именно: определенный индивидуальный для каждого человека уровень личностного роста является необходимым условием самоактуализации. Процесс самоактуализации, со своей стороны, является необходимой предпосылкой самовоспитания, самосовершенствования как составляющих активного процесса самореализации личности. Самореализация личности ведет к увеличению

личностной зрелости человека. С этой точки зрения, профессиональное развитие и саморазвитие - это такое изменение личности, при котором формируются определенные свойства и качества личности, необходимые для обеспечения процесса самореализации и достижения личностной зрелости.

С целью активизации профессионального развития и саморазвития специалисту любой отрасли необходимы соответствующие приемы, методики и продуманные технологии. Наиболее доступными в использовании являются:

1. Самоконтроль своей профессиональной компетентности. Это процедура, проводить которую желательно если не регулярно, то хотя бы периодически, как при помощи самонаблюдения, так и с помощью качественного инструментария.

2. Инвентаризация изменений в себе и, конечно, в своей профессиональной деятельности. Эту операцию следует осуществлять минимум один раз в полгода. Её сущность в анализе, учёте, систематизации любых изменений в содержании, задачах, требованиях работы, с одной стороны, и, с другой, тех перемен, которые произошли за данный период в собственной личности и в своей профессиональной компетентности.

3. Важно также четко осознавать, что профессионально-личностное саморазвитие — это способность учиться у других. Это создание для себя установки на поиски и на освоение всего нового в разных ситуациях, где может быть полезная информация и новый опыт.

4. Перечень личных профессиональных и поставленных жизненных целей. Составив такой перечень, его периодически следует корректировать.

5. Одним из эффективных педагогических приемов является ведение дневника состоявшихся неудач и профессиональных достижений. Обобщенное либо подробное описание ситуаций и анализ причин и факторов отрицательных и положительных результатов своей деятельности.

6. Моделирование собственного портрета профессионального развития и саморазвития. Процесс составления собственной профессиональной и психологической характеристики в форме перечня самых ярких черт, и положительных, и отрицательных, которые были проявлены за определённый период (к примеру, последняя неделя) либо при решении какой-либо задачи.

Освоения перечисленных психолого-педагогических приемов и методик позволяет лучше разбираться в людях, окружающих вас, как и, собственно, в самих себе.

По мнению В.А. Якунина, предъявляемые требования к личности должны быть несколько выше наличных возможностей конкретного человека. Только в этом случае возникают предпосылки к самосовершенствованию в виде внутренних противоречий в процессе ведущей деятельности специалиста, результатом разрешения которых является процесс целенаправленного развития собственной личности [8, 638].

Спортивное совершенствование является одним из направлений развития и саморазвития личности спортсмена. А.Ц.Пуни отмечал, что на личность спортсмена спорт влияет как специфичный вид профессиональной деятельности в целом, и вид спорта через специализированные условия деятельности в каждом конкретном виде спорта. Это мнение было подтверждено многочисленными экспериментальными исследованиями.

Таким образом, очевидно, что "психологические портреты представителей различных спортивных специализаций содержат как общее, так и особенное, заключающееся в различной выраженности отдельных черт личности у представителей различных видов спорта". Однако крайне редко встречаются работы, в которых представители видов спорта сравнивались бы между собой, еще реже — когда они сравниваются с людьми, не занимающимися спортом.

Большинство исследований, посвященных изучению особенностей личности спортсменов какого-то конкретного вида спорта (или нескольких), определяют выраженность свойств личности только по тестовым нормам, которые являются весьма условными и не отражают специфику, свойственную для определенной группы испытуемых.

С другой стороны задача изучения специфики процесса развития и саморазвития личности в каждом конкретном виде спорта представляется практически невозможной в связи с огромным многообразием и появлением новых. Изучение специфики, таким образом, целесообразно вести по группам видов спорта, что требует их систематизации и классификации.

Следовательно, исследуя профессионально-личностное развитие спортсменов-единоборцев, необходимо знать специфику единоборств как вида спорта и влияния занятий единоборствами на личностный рост спортсменов.

Безусловно, отдельные спортивные специализации в рамках группы имеют свои особенности. Например, спортивная борьба характеризуется как вид единоборства непосредственным контактом с соперником, ограниченностью времени, или выполнению двигательных действий сложностью восприятия пространственно-временных параметров движений, необходимостью оперативно перерабатывать информацию, повышенным эмоциональным фоном деятельности, постоянной нацеленностью на решение различных тактических задач спецификой ситуации на ковре, связанной с быстрым переходом от атакующих действий к защитным и т.д.

Накопленный опыт и анализ литературы показы-

вает, что изучение спортивных единоборств в основном касается повышения эффективности подготовки к соревнованиям и соревновательной деятельности, преподавания спортивных единоборств и технико-тактических аспектов ведения поединков, управлением процессом формирования спортивного мастерства в целом.

Именно поэтому специального рассмотрения заслуживают работы, касающиеся индивидуального стиля деятельности спортсменов-единоборцев, поскольку индивидуальный стиль деятельности обеспечивает спортивную успешность в данных видах спорта, особенно на начальных этапах спортивной карьеры. По ходу спортивной карьеры “наблюдается “выравнивание” вклада мотивации, спортивно-важных качеств и индивидуального стиля деятельности в достижение спортивных результатов при некотором преобладании последнего”.

Особенности тактики единоборств традиционно исследуют в рамках атакующего, контратакующего и оборонительного стилей, общую манеру поведения — силового, темпового и игрового стилей.

Таким образом, спортсмены выделяют, прежде всего, коммуникативные и волевые качества среди детерминирующих их саморазвитие и спортивную успешность.

Подводя итог обзору литературы по вопросам развития и саморазвития спортсменов занимающихся единоборствами, необходимо отметить явную недостаточность, мозаичность и противоречивость экспериментальных данных. Наиболее изученными в отношении личностных особенностей оказались спортсмены, занимающиеся восточными видами единоборств.

Между тем, специфика этого вида спорта предполагает передачу от тренера к спортсмену определенной философии и специальных методов саморегуляции своего физического и психического состояния как непременного атрибута этой спортивной специализации.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 ноября 2020 года № ПП-4881 “О мерах по развитию и дальнейшему повышению международного авторитета национального вида спорта кураш” https://lex.uz/docs/5080103.

2. Пуни А.Ц. О некоторых фундаментальных проблемах перспективного плана НИР в области физической культуры и спорта // Теория и практика физической культуры. – 1985. – № 6. – С. 10-13.

3. Стамбулова Н.Б. Психология спортивной карьеры: учебное пособие. – СПб.: Центр карьеры, 1999. – 368 с.

4. Баранов Н.А. Психологические аспекты формирования ценностных ориентации у спортсменов // Ананьевские чтения: тезисы научно-практической конференции. – СПб.: Изд-во СПб ГУ, 2000. – С. 75-76.

5. Леевик Г.Е. Исследование личностных особенностей спортсменов методом моделирования: Автореф. дис....канд. психол. наук. – Л., 1981. – 14 с.

6. Лозовая Г.В. Специфика спорта как вида деятельности // Психологические основы педагогической деятельности: материалы 6-й межвузовской научной конференции. – СПб.: ГАФК, 2002. – С. 10-13.

7. Горская Г.Б. Жизненный контекст деятельности высококвалифицированных спортсменов // Ананьевские чтения: тезисы научно-практической конференции. – СПб.: СПб ГУ, 2000. – С. 94-96.

8. Якунин В.А. Педагогическая психология: учебное пособие. – СПб.: Полиус, 1998. – 638 с.

ФОРМИРОВАНИЯ АУТОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Малика Парпиева,
Кандидат педагогических наук, и.о. доцент,
Кафедра технологического образования
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема формирования аутопедагогической компетентности у будущих педагогов в контексте современного образовательного процесса. Основной акцент делается на создании условий для самостоятельного обучения, саморазвития и самообразования студентов. Разрабатывается комплексный и системный подход к этой задаче, включающий разработку специальных образовательных программ, методик и технологий, а также использование современных информационно-образовательных технологий и ресурсов. Также акцентируется внимание на организации практической подготовки будущих педагогов и менторстве со стороны опытных специалистов.

Ключевые слова: *аутопедагогическая компетентность, будущие педагоги, самообразование, саморазвитие, образовательный процесс, методика, образовательная стратегия.*

Аннотация

Ушбу мақола замонавий ўқув жараёни контекстида бўлажак ўқитувчиларда аутопедагогик компетенцияни ривожлантириш муаммоларитаҳлил қилинади. Асосий эътибор ўқувчиларнинг мустақил билим олиши, ўз-ўзини ривожлантириши ва ўз-ўзини тарбиялаши учун шароит яратишга қаратилган. Бу вазифага комплекс ва тизимли ёндашиш, жумладан, махсус таълим дастурлари, метод ва технологияларини ишлаб чиқиш, шунингдек, замонавий ахборот-таълим технологиялари ва ресурсларидан фойдаланишни йўлга қўйиш, бўлажак ўқитувчиларнинг амалий машғулотларини ташкил этиш, тажрибали мутахассислардан устозлик қилишга ҳам эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: *аутопедагогик компетенция, бўлажак ўқитувчилар, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини ривожлантириш, таълим жараёни, методология, таълим стратегияси.*

Annotation

This article deals with the problem of the formation of auto-pedagogical competence of future teachers in the context of the modern educational process. The main emphasis is on creating conditions for independent learning, self-development and self-education of students. A comprehensive and systematic approach to this task is being developed, including the development of special educational programs, methods and technologies, as well as the use of modern information and educational technologies and resources. Attention is also focused on the organization of practical training for future teachers and mentoring by experienced professionals.

Keywords: *autopedagogical competence, future teachers, self-education, self-development, educational process, methodology, educational strategy.*

В современном образовательном пространстве требования к качеству обучения и профессиональной компетентности педагогов постоянно растут. Новые технологии и достижения появляются каждый день, поэтому важно, чтобы педагоги могли адаптироваться и быстро учиться, развивать свои навыки и достигать личных и профессиональных целей. Одной из важнейших составляющих компетентности педагога является аутопедагогическая компетентность, предполагающая развитие навыков самообразования и саморазвития, способности к рефлексии, критическому анализу собственной деятельности и постоянному совершенствованию профессиональных навыков [5]. Эта компетенция позволяет педагогам не только эффективно работать в образовательном процессе, но и оставаться востребованными в профессиональной среде в течение всей карьеры.

Таким образом, актуальность исследования данной темы обусловлена стремлением образовательной системы к повышению качества подготовки специалистов и необходимостью обеспечения их готовности к самостоятельному профессиональному развитию и адаптации к переменам в образовательном процессе.

Теоретические основы данного исследования опираются на труды отечественных и зарубежных ученых, занимающихся проблемами профессиональной компетентности педагогов, самообразования, саморазвития и рефлексии в образовательной деятельности [1, 2]. Были реализованы практические выводы и непосредственно стратегия формирования аутопедагогической компетентности у будущих педагогов. Аутопедагогическая компетентность – это интегративная характеристика профессиональной деятельности педагога, включающая в себя навыки самообразования, саморазвития, самоанализа и рефлексии, а также способность к самостоятельному совершенствованию

и адаптации к изменяющимся условиям образовательного процесса.

В таблице 1 представлены основные компоненты аутопедагогической компетентности и их содержание. Эта таблица может послужить основой для разработки методик формирования аутопедагогической компетентности у будущих педагогов, а также для оценки их текущего уровня развития в рамках профессиональной подготовки.

Таблица 1.

Компоненты аутопедагогической компетентности

Компонент аутопедагогической компетентности	**Содержание**
1. Мотивационный	– Интерес к самообразованию
	– Стремление к саморазвитию
	– Желание самосовершенствоваться в профессиональной деятельности
2. Когнитивный	– Теоретические знания в области педагогики, психологии и методики преподавания
	– Умения и навыки для организации и реализации самообразовательной деятельности
3. Операциональнно-деятельностный	– Владение методами и техниками самообразования
	– Способность к реализации педагогических задач и решению профессиональных проблем
4. Рефлексивный	– Умение анализировать и оценивать собственную деятельность
	– Способность корректировать и оптимизировать профессиональные навыки

Для формирования аутопедагогической компетентности у будущих учителей можно использовать следующие методики:

- **Работа с личными целями и мотивацией.** Студентам необходимо определить свои цели и мотивы для обучения на данном направлении. Это поможет им понять, каким образом технологическое образование может помочь им в достижении своих целей и развитии профессиональных навыков.
- **Использование инновационных технологий в обучении.** Будущие учителя должны овладеть не только теоретическими знаниями, но и практическими навыками применения инновационных технологий в обучении, таких как использование интерактивных досок, компьютерных программ, мультимедийных презентаций и других средств.
- **Самостоятельное изучение материала.** Студентам необходимо научиться самостоятельно изучать материал, проводить исследования, анализировать информацию и делать выводы. Для этого можно использовать методы самообучения, такие как чтение книг и статей, просмотр видеоуроков, прохождение онлайн-курсов.
- **Получение практического опыта.** Чтобы студенты могли эффективно применять свои знания и навыки в работе, им необходимо получить опыт работы в реальных условиях. Для этого можно организовать практику на производстве, стажировку в школах или других образовательных учреждениях.
- **Постоянное развитие.** Учителя должны постоянно совершенствовать свои знания и навыки. Для этого студентам, будущим педагогам необходимо посещать конференции, семинары, мастер-классы, читать специализированную литературу и изучать опыт лучших педагогов.

В целом, формирование аутопедагогической компетентности у будущих учителей предполагает создание условий для самостоятельного обучения, саморазвития и самообразования.

Мы предлагаем следующую стратегию формирования аутопедагогической компетентности у будущих педагогов:

1. Постановка студентами личных целей в обучении. Ставя конкретные, измеримые, достижимые, актуальные и ограниченные по времени (SMART) цели, студенты могут взять под контроль учебный процесс и определить, что им нужно сделать для достижения своих целей [3]. Для этого студентам необходимо определить личную цель и сделать ее SMART (конкретной, измеримой, достижимой, актуальной и ограниченной по времени).

2. Участие студентов в создании плана обучения. План обучения должен включать цели, ресурсы, стратегии и сроки, необходимые для достижения результатов обучения. Создавая индивидуальный план самообучения, будущие педагоги могут отслеживать свой прогресс, корректировать свои стратегии и следить за тем, чтобы они шли по пути к достижению своих целей.

3. Разработка и внедрение в содержание обучения образовательных программ и методических материалов, способствующих развитию навыков самоорганизации, самоанализа и рефлексии, а также предоставление доступа к разнообразным источникам информации и обучающим ресурсам.

4. Использование самооценки и рефлексии. Самооценка – это процесс осмысления собственного опыта обучения и оценки своего прогресса в достижении образовательных целей [6]. Используя самооценку, студенты могут определить свои сильные и слабые

стороны, поставить новые цели и соответствующим образом скорректировать свои стратегии обучения. Необходимо развитие у будущих педагогов умений вести диалог с собой, осознавать свои сильные и слабые стороны, определять индивидуальные образовательные потребности и стратегии обучения. Для этого мы предлагаем студентам каждую неделю делать записи в дневнике, отражающие полученные в процессе обучения умения и навыки. Необходимо подумать и написать, чему научились, что сработало хорошо, а что можно было бы улучшить. Далее результаты этих размышления следует использовать для того, чтобы установить новые цели обучения и по мере необходимости корректировать собственную стратегию обучения. Необходимо также обучать студентов методам самооценки и самоконтроля, что поможет им оценивать свой прогресс и результативность обучения.

5. Получение обратной связи от других участников образовательного процесса (педагогов, сокурсников). Обратная связь может дать студентам ценную информацию об их достижениях, в том числе о том, что они делают хорошо, а что им нужно улучшить. Необходимо создать поддерживающую образовательную среду, в которой студенты смогут активно обмениваться знаниями и опытом, участвовать в обсуждении и анализе профессиональных проблем, а также получать постоянную обратную связь от преподавателей и сверстников. Для этого в контекст занятий необходимо вводить упражнения для взаимной оценки, чтобы студенты давали друг другу обратную связь по проекту или презентации. Обратная связь необходима, чтобы определить области, в которых студенты могут улучшить и скорректировать стратегии обучения по мере необходимости.

Менторство и сотрудничество с опытными педагогами также могут способствовать формированию аутопедагогической компетентности у студентов, обеспечивая им обратную связь, поддержку и руководство.

6. В процессе обучения на педагогической специальности акцент следует сделать на развитии у будущих учителей умений применять различные методы и подходы в своей профессиональной деятельности, что позволит им гибко адаптироваться к изменяющимся образовательным условиям и потребностям учащихся.

7. Внедрение дистанционных и смешанных форм обучения, а также разработка и использование современных информационно-образовательных технологий и ресурсов также могут способствовать формированию аутопедагогической компетентности у будущих педагогов [4]. Такие технологии, как онлайн-курсы, вебинары, электронные библиотеки, образовательные платформы и социальные сети, могут обеспечить студентам доступ к актуальным знаниям и опыту, а также возможность общения и сотрудничества с коллегами и экспертами в области образования.

Таким образом, формирование аутопедагогической компетентности у будущих педагогов требует комплексного и системного подхода, включающего разработку специальных образовательных программ, методик и технологий, использование современных информационно-образовательных технологий и ресурсов, а также создание благоприятных условий для самостоятельного обучения, саморазвития и самообразования студентов. Это поможет подготовить высококвалифицированных специалистов, способных адаптироваться к быстро меняющимся требованиям современного образовательного процесса и эффективно решать профессиональные задачи.

В долгосрочной перспективе формирование аутопедагогической компетентности у будущих педагогов способствует повышению качества образования, профессиональной мобильности и самореализации специалистов, что в свою очередь приводит к улучшению образовательного процесса, адаптации к быстро меняющимся условиям и требованиям образовательной среды, а также удовлетворению потребностей общества в квалифицированных и гибко мыслящих специалистах.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Беткер Л. М. Проблема самообразования педагога //Вестник Югорского государственного университета. – 2010. – №. 3 (18). – С. 43-46.
2. Вазина К. Я. Природно-рефлексивная технология саморазвития педагогов, студентов //Наука и школа. – 2010. – №. 5. – С. 20-24.
3. Волкова С. А. Применение SMART-принципов для повышения личной профессиональной конкурентоспособности в период обучения в вузе //Вопросы педагогики. Учредители: Научно-информационный издательский центр" Институт стратегических исследований". – С. 79-83.
4. Еремкина О. В. Смешанное обучение в профессиональной подготовке будущих педагогов: теория и опыт //Понятийный аппарат педагогики и образования. – 2023. – С. 168-181.
5. Масовер Н. Ю. Становление аутопедагогической компетентности будущего преподавателя в классическом университете //Вестник Новгородского государственного университета им. Ярослава Мудрого. – 2009. – №. 53. – С. 43-46.
6. Степанов В. А. Педагогическая исследовательская рефлексия в системе формирования самооценочной деятельности будущих учителей //автореф. дис.... канд. пед. наук. – 1999. – С. 22-23.

MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA CHET TILINI O‘QITISH TAJRIBASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xalima Axmedova,
Termiz davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tili xususan, ingliz tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari, ularning turlari va undan foydalangan holda, chet tilini o‘qitish tajribasini takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada, interaktiv darsliklar va dasturlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar, texnologik tillar o‘qish, yagona talabalarning personalizatsiyasi haqida bayon qilingan. Multimediali texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodirligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, Uzatilgan Realitet (AR) va Virtual Realitet (VR), Mobil ilovalar va onlayn platformalar, animatsiyalar.*

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется преимуществам использования мультимедийных средств при обучении иностранному языку, особенно английскому, их видам, а также совершенствованию опыта преподавания иностранного языка с его использованием. Также в статье описаны Интерактивные учебники и программы, Мобильные приложения и онлайн-платформы, Изучение технологических языков, Персонализация одиночных учащихся. Отмечается, что мультимедийная технология способна использовать одновременно несколько способов представления информации.

Ключевые слова: *Инновации, Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, дополненная реальность (AR) и виртуальная реальность (VR), мобильные приложения и онлайн-платформы, анимация.*

Annotation

This article focuses on the advantages of using multimedia tools in teaching a foreign language, especially English, their types, and improving the experience of teaching a foreign language using it. Also, the article describes Interactive textbooks and programs, Mobile applications and online platforms, learning technological languages, Personalization of single students. It is noted that multimedia technology is able to use several methods of information presentation at the same time.

Keywords: *Innovation, Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR), Mobile applications and online platforms, animations.*

Bugungi kunda mamlakatimizda chet tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarga katta e’tibor qaratilmoqda va bu sohasida o‘rganishning yangi usullari va texnologiyalarning qo‘llanilishi orqali yaratilishi mumkin. “Innovatsiya” — bu ta’lim, ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ilm dunyomizga ilg‘or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Ta’lim sohalariga ilg‘or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o‘rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo‘lmaydi [2, 524].

Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta’lim dasturlarini yechishga qodir bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Kompyuter, telefonlardagi til o‘rgatuvchi programmalar ham boshlang‘ich va o‘rta bosqichda til o‘rgatishga yaxshi yordam beradi. Talk (English speaking practice), Daily English, Learn English (English master), How to speak real English kabilarni misol qilsak bo‘ladi. Bu programmalar shunday tuzilganki, ularda ***reading (o‘qish), listening (eshitish), test*** bo‘limlarining barchasi o‘rin olgan. O‘rganilgan yangi so‘zlarni telefon diktofoniga yozdirib bo‘sh vaqtlarda eshitish takrorlash uchun yana bir yaxshi usul [4, 323]. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar va talabalar uchun turli usullarni birlashtirib ta’lim dasturlarini yechish juda foydali bo‘ladi. Kompyuter va telefonlardagi til o‘rgatuvchi dasturlar bu maqsadga muvofiq yordam beradi. Misol qilib, quyidagi dasturlar talabalar va o‘qituvchilar uchun yaxshi namoyon bo‘ladi:

1. Duolingo
2. Babbel
3. Rosetta Stone
4. Talk (English speaking practice)
5. Daily English
6. Learn English (English master)

Ushbu dasturlar o‘qituvchilar va talabalar uchun ingliz tilini o‘rganishda zamonaviy va samarador vositalardir. Bu dasturlar orqali o‘qituvchilar va talabalar o‘zlarining o‘rganish jarayonini qiziqarliroq qilish, o‘rganish tezligini oshirish va ma’lumotlarni samarador ravishda o‘rganishlariga yordam beradi.

Quyidagi innovatsion yondashuvlar chet tillarini o‘qitishda muhim rolni o‘ynaydi:

ISSN 2181-8274

➢ Interaktiv darsliklar va dasturlar: Interaktiv darsliklar va dasturlar, talabalarga o‘zlarining o‘rganish tezligini va samaradorligini oshirish uchun ma’lumotlarni o‘rganishda interaktiv turdagi multimedia vositalardan foydalanadi. Bu, animatsiyalar, o‘yinlar, virtual darsliklar va boshqalar orqali talabalarni qiziqtirish va muhim konseptlarni oson tushuntirish imkonini beradi.

Agar avval chet tili o‘qitish shu til sistemasini o‘rganish deb qaralgan bo‘lsa, keyingi yillarda o‘qitishdagi muhim ko‘zlangan narsa bu talabalarni chet til nutqini o‘stirishdan iborat bo‘ldi. Shuni aytish kerakki, chet til o‘rganishdagi bu maqsadlar, o‘z-o‘zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo‘yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o‘zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko‘raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o‘zgarishlar, ya’ni struktural oqimni ta’siri bo‘ldi. U quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

– Chet til o‘rgatish avval og‘zaki nutqqa o‘rgatishdan boshlanmog‘i zarur;

– Til o‘rganish turli strukturalar, nutq namunalari asosida amalga oshiriladi;

–Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko‘p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo‘lishi kerakligini taqozo etadi;

– Grammanik namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog‘liq bo‘lishi kerak;

– Talaffuzga katta e’tibor talab etiladi [1, 432].

➢ Uzatilgan Realitet (AR) va Virtual Realitet (VR): AR va VR texnologiyalari talabalarga qiziqishlarini o‘zgartirish va chet tillarini o‘rganish jarayonini qulayroq va osonroq o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, talabalar o‘zlarini amaliy tarzda o‘rgangan xilma-xil mamlakatlarda sayohat qilish, do‘konlarda sotib olish va kompaniyalarda ish topish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin.

➢ Mobil ilovalar va onlayn platformalar: Mobil ilovalar va onlayn platformalar chet tillarini o‘rganishning ko‘proq interaktiv va oson bo‘lishini ta’minlash uchun foydalaniladi. Bu ilovalar talabalarga o‘z vaqtlarida va joylarida turli mavzularda o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, onlayn platformalar orqali talabalar o‘zlarining bilimlarini mustaqil ravishda sinovga olishlari va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

➢ Texnologik tillar o‘qish: Texnologik tillar o‘qish yordamida chet tillarini o‘rganish muhitini yanada yaxshilash mumkin. Bu, talabalarga shaxsiy o‘qitish rejalarini tuzish, ularning xatoliklarini aniqlash va ta’lim jarayonini avtomatlash uchun muhimdir.

➢ Yagona talabalarning personalizatsiyasi: Yagona talabalarning personalizatsiyasi tizimlar, talabalarning shaxsiy o‘rganish yo‘nalishlariga muvofiq dasturlar va darsliklar tuzilishini ta’minlash orqali, ularning o‘rganish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu, talabalarning shaxsiy xarakteristikalarini va o‘rganish qobiliyatlarini hisobga oladi va ularning o‘rganish jarayonini masofaviy yoki guruh o‘quv jarayonidan ajratib chiqaradi.

Bu va boshqa innovatsion yondashuvlar chet tillarini o‘rganish sohasida talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘rganish jarayonini qiziqishliroq qilish va ularni amaliy tillarni o‘rganishga tayyorlashda yordam berish uchun muhimdir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayoniga joriy etilgandan so‘ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta’lim vositalari ta’lim muassasalari tomonidan keng qo‘llaniladi. Ushbu o‘rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o‘rganish imkonini beradi. Multimediali texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz [3, 973]. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, ko‘proq tajribali, muammolarni ochib beruvchi ko‘rsatuvchi darsliklar, interaktiv dasturlar va ilovalar, chet tillarini o‘rganish jarayonini qiziqishliroq va samarador qilishga yordam beradi. Bu turdagi multimedia vositalar quyidagi ko‘rsatuvchi tajribani takomillashtirish uchun muhimdir:

1. Animatsiyalar: Animatsiyalar talabalarga ma’lumotlarni tushuntirishda vizual yordam beradi. Murakkab konseptlarni oson tushuntirish, jarayonni tafsilotlari bilan tasvirlash va abstrakt materiallarni vizual qilib ko‘rsatish uchun animatsiyalar foydalaniladi.

2. O‘yinlar: O‘yinlar o‘rganish jarayonini o‘yin o‘ynashga o‘xshab qilish orqali talabalarni qiziqtirishda yordam beradi. O‘rganilayotgan materialni o‘ylash, masalalar va vazifalarni hal qilish, hamda o‘zlashtirish uchun o‘yinlar talabalarga ma’lumotlarni amaliy ravishda qabul qilish imkonini beradi.

3. Virtual Darsliklar: Virtual darsliklar talabalarga amaliy mashg‘ulotlar orqali ko‘rgazma beradi. Virtual tarzda mamlakatlar, shaharlar, va mehmonxonalar talabalarga turli mavzular bo‘yicha amaliy o‘rganish imkonini beradi.

4. Interaktiv Sinovlar: Interaktiv sinovlar va testlar talabalarga o‘rganish darajasini sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunday sinovlar talabalarning fahmiga oid mohiyatli savollar va vazifalar orqali belgilangan ma’lumotlarni sinab ko‘rish uchun ishlab chiqiladi.

5. Adaptiv Darsliklar: Adaptiv darsliklar talabalarning o‘rganish tezligiga va xususiyatlari bo‘yicha boshqa darsliklarga moslashtirilgan o‘zlashtirish jarayonini amalga oshirishga yordam beradi. Bu, har bir talabaning shaxsiy o‘rganish yo‘nalishlariga qarab darsliklarni taqdim etish orqali talabalarning o‘rganish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, interaktiv darsliklar va dasturlar talabalarga o‘zlarining o‘rganish jarayonini qiziqarliroq, ya-

ngi o‘zlashtirilayotgan mavzuni tushuntirishda foydali, o‘rganish tezligini oshirish va ma’lumotlarni samarador ravishda o‘rganishlariga yordam beradi. Animatsiyalar, o‘yinlar va boshqa interaktiv elementlar o‘quvchilarni o‘rganish jarayoniga qatnashish va darsni ma’lumotlarni qabul qilish bo‘yicha musobaqa tarzida o‘qitishda foydalidir. Interaktiv darsliklar va dasturlar o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rganish jarayonini o‘zlarining xohishlariga va muhitiga moslashtirish imkonini beradi. Bu, har bir talabaning qiziqishlariga, o‘zlashtirish darajasiga va maqsadlariga qarab darsliklarni shakllantirish va ularning o‘rganish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduakimova, Sabina Abdukaxar Qizi. “CHET TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. Special Issue 20, 2022, pp. 431-435. https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-431-435

2. Zayniddin Sanaqulov, and Baxromjon Joraboyev. “CHET TIL O‘QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR”. Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 523-534. doi:10.24411/2181-1385-2021-00627

3. Maqsudov, Ulug‘bek Qurbonovich, Eraliyev, Yo‘ldoshali, and Qosimova, Gulzoda. “TA’LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 11, 2022, pp. 973-980.

4. Shohsanam Qobiljon Qizi Moydinova. “XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI”. Academic research in educational sciences, vol. 2, no. CSPI conference 2, 2021, pp. 322-326.

ОТМЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА ШАРҚ ЯККА КУРАШ САНЪАТИ ЭЛЕМЕНТЛАРИ ВА САЛОМАТЛИК ТИЗИМЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ

Шовкат Норқулов,
Гулистон давлат педагогика институти
Педагогика факультети декани, доцент;
Далер Зиёдуллаев,
Гулистон давлат педагогика институти талабаси

Аннотация

Ушбу мақолада шарқ яккакураш жанг санъати шарқ ижтимоий маданиятининг яхлит соҳалари эканлиги, улар орқали шифо, даволаш, таълим ва тарбия, организмнинг алоҳида органлар ва тизимларига ҳамда бутун инсон танасига, унинг маънавий, ахлоқий ва жисмоний саломатлигига, инсоннинг маънавий ва жисмоний ривожланишига бевосита таъсир қилиши ҳақида фикр юритилган бўлиб бу борада олий таълим муассасалари талабалари билан ўтказиладиган жисмоний тарбия дарслари ва дарсдан ташқари ўтказиладиган оммавий спорт тадбирларида шарқ яккакураши жанг санъатининг йога, ушу, кунг-фу каби элементларидан самарали фойдаланиш орқали уларнинг спорт кўрсаткичларини ошириш имкониятлари мавжудлигини амалиётда исботлашга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: *олий ўқув юртлари, жисмоний тарбия, жанг санъати, карате, таеквондо, джиу-джитсу, дзюдо, соғлиқни сақлаш тизимлари йога, ушу, кунг-фу.*

Аннотация

В данной статье говорится, что боевые искусства Востока являются интегрированными направлениями социальной культуры Востока, посредством которых врачевание, лечение, обучение и воспитание непосредственно воздействуют на отдельные органы и системы организма, а также на весь организм в целом тело человека, его духовное, моральное и физическое здоровье, духовное и физическое развитие человека. В связи с этим была предпринята попытка доказать на практике возможность повышения его спортивных результатов за счет эффективного использования элементов восточных единоборств, таких как как йога, ушу и кунг-фу на занятиях по физическому воспитанию, проводимых со студентами вузов, и массовых спортивных мероприятиях, проводимых во внеурочное время.

Ключовые слова: *высшие учебные заведения, физическая культура, восточные единоборства каратэ, тхэквондо, джиу-джитсу, дзюдо, системы здравоохранения йога, ушу, кунг-фу.*

Annotation

This article says that the martial arts of the East are integrated directions of the social culture of the East, through which healing, treatment, education and upbringing directly affect individual organs and systems of the body, as well as the entire body as a whole. the human body, its spiritual, moral and physical health, spiritual and physical development of a person. In this regard, an attempt was made to prove in practice the possibility of improving his athletic performance through the effective use of elements of martial arts, such as yoga, wushu and kung fu in physical education classes conducted with university students and mass sports events held outside of school hours.

Keywords: *higher education institutions, physical training, oriental martial arts karate, taekwondo, jiu-jitsu, judo, health systems yoga, wushu, kungfu.*

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг “Ёшларимизни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топишлари, бахтли бўлишлари учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” деган даъватлари таълимнинг сифатли ва самарали ташкил этилишини, айниқса, олий таълим муассасаларида талабаларни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга шахс сифатида тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади [1].

Бу борада олий таълим муассасаларида ҳам жисмоний тарбия фани ўқитувчиларга энг зарур бўлган бир қатор вазифалар юклатилган бўлиб унда муассасса кун тартибида олиб бориладиган соғломлаштириш тадбирларини ташкил этиш, дарсдан ташқари жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва оммавий спорт тадбирларини ташкил этиш ва ўтказиш муҳим омил бўлиб қолмоқда [4].

Бугунги кунда, педагогларнинг амалий тажрибаси, шифокорлар ва ижтимоий соҳа вакилларининг маълумотларига кўра, илмий-техник тараққиётнинг ривожланиб бориши ҳамда замонавий ёшлар олдига қўйилаётган талабларнинг ошиб бориши натижасида юкламалар ва руҳий зўриқишларни ҳам тобора ошишига олиб келмоқда. Шу боисдан ҳам талабаларнинг нафақат меҳнатдаги, балки кундалик ҳаётидаги жисмоний ҳаракат бўлган фаоллик даражаси ҳам пасайиб бориши кузатилмоқда [2, 6].

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, бугунги кунда ОТМларда олиб борилаётган жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари мураккаб педагогик жараён бўлиб, унинг мақсади соғлом турмуш тарзини мустақил равишда ташкил этишга ва олиб боришга қодир шахснинг жисмоний маданиятини шакллантиришдир. Шу боисдан ҳам жисмоний машқлар, талабаларни тизимли равишда уларнинг иш фаолиятини оширишда, касбий фаолиятга тайёрлашни яхшилаш, жисмоний фаоллик ва жисмоний тарбия учун барқарор одатларни шакллантириш, уларда жамоатчилик ва қатъиятлиликни сингдириш каби муҳим вазифаларни ҳал этишга ёрдам беради.

Маълумки, жисмоний тарбия бўйича ўқув-тарбиявий ишларнинг асосий вазифаларини ҳал қилиш самарадорлиги кўплаб омилларга: ўқитувчининг педагогик маҳорати ва шахсияти, машғулотларнинг моддий техник базасига ҳамда биринчи навбатда, таклиф қилинган амалий материалнинг мазмунига бевосита боғлиқдир. Ўқув материалини самарали ўзлаштириш эса талабаларнинг фанга бўлган қизиқишларини ошириш орқали амалга оширилади [3].

Тарбиявий ишнинг янги, янада самарали шаклларини излаш тадқиқотчилардан нафақат маҳаллий, балки хорижий тизимларнинг тарихий педагогик меросини таҳлил қилишга пухта ёндашишни талаб қилади.

Бугун биз ёшлар ўртасида шарқ жисмоний маданияти анъаналарига доимий қизиқишларини кўрмоқдамиз.

Шарқ яккакурашлари (каратэ, таэквондо, жиу-житсу, дзюдо ва бошқалар) ва соғлиқни сақлаш тизимлари (йога, ушу, кунгфу ва бошқалар). Шарқ ижтимоий маданиятининг яхлит соҳалари бўлиб, улар шифо, даволаш, таълим ва тарбия нафақат алоҳида органлар ва тизимларга, балки бутун инсон танасига, унинг маънавий, ахлоқий ва жисмоний саломатлигига ҳамда инсоннинг маънавий ва жисмоний ривожланишига бевосита таъсир қилади [5].

Демак, шарқ амалиётининг ҳар қандай тури мураккаб ҳодиса бўлиб, педагогик техналогиянинг бой арсеналини ва улкан ахлоқий салоҳиятга эга бўлган илмий-техника тараққиёти даврида яшаётган, унинг барча оқибатларини ва доимий стрессни бошдан кечираётган, ҳар қандай даражадаги жанг санъати ва соғлиқни сақлаш тизимлари билан шуғулланадиган инсон учун маънавий ва жисмоний уйғунлик, ахлоқий покланиш ва руҳий мувозанатнинг энг тўғри йўли бўлиши мумкин.

Тадқиқотнинг мақсади — талабалар ўртасида жисмоний тарбия дарсларини ўқув жараёнида жанг санъати элементлари ва соғломлаштириш тизимларидан фойдаланиш самарадорлигини аниқлаш.

Ишнинг мақсадидан келиб чиқиб тадқиқот олдига **қуйидаги вазифалар** қўйилди:

1. Мавзуга оид адабиёт манбаларини таҳлил қилиш.

2. Жисмоний тарбия машғулотларида эгилувчанлик, чаққонлик ва тезкорлик кўрсаткичларини жанг санъати ва соғлиқни сақлаш тизимлари элементларидан фойдаланган ҳолда аниқлаш.

3. Жанг санъати элементлари ва соғломлаштириш тизимларининг талабаларни жисмоний тайёргарлиги-

га таъсири самарадорлигини ўрганиш.

Шарқ яккакурашлари усулларининг самарадорлигини аниқлаш учун талабалар ўртасида тадқиқот ишлари олиб борилди.

Тадқиқотни ташкил қилиш ва унинг услублари. Тадқиқот ишлари Гулистон давлат педагогика институти базасида филология факультетининг 1-курс талабалари билан ўтказиладиган жисмоний тарбия фани бўйича амалий машғулотларга шарқ яккакураш элементларини киритишни амалиётда қўллаб кўрилди. Тадқиқотда жами 60 нафар талаба, шундан тадқиқот гуруҳида 30 нафар ҳамда назорат гуруҳларида 30 нафар талабалар иштирок этдилар. Дастлабки назорат таҳлилларига мувофиқ уларнинг жисмоний тайёргарлик даражалари бир хил даражада бўлган.

Тадқиқот давомида мавзуга оид илмий-услубий адабиёт манбалари ўрганилиб, анкета-сўровномалари ўтказилди ҳамда педагогик кузатувлар ва олинган маълумотлар математик-статистик таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси. Илмий тадқиқот давомида олинган анкета саволларига мувофиқ талабаларнинг тахминан 45% жисмоний машқлар билан ҳафтасига бор йўғи 2-3 соат шуғулланишларини, 55% эса умуман шуғулланмасликларини билдирганлар. Бу ўз навбатида ёшлар организмининг бўшашишига, саломатлик даражасининг сусайишига, жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларининг пасайиб кетишига олиб келади. Шу боисдан ҳам саломатлик ҳолатига кўра махсус тиббиёт гуруҳига (МТГ) оид деб топилган талабалар сони борган сари ошиб бориши кузатилмоқда.

Бироқ, афсуски, амалиётда кўпчилик талабалар дарс вақтида нафақат ўқитувчиларнинг топшириқларини бажаришни, балки дарсга келишни ҳам истамасликларини очиқ ойдин билдиришган.

Бир қатор талабалар эса “Жисмоний тарбия” фанидан дарсларга боришнинг асосий сабаби эса давлат таълим дастурининг мавжудлиги ҳамда қолдирилган дарс учун қайта топшириш кераклигини афсус надоматлар билан таъкидлашганлар. Аммо бундай мотивация белгиланган вазифаларни ҳал этишга имконият бермайди.

Шарқ яккакурашлари ва соғломлаштириш тизимлари кўп жиҳатдан ўзига хосдир ва биринчи навбатда, улар танани уйғун бирлашган организм сифатида бошқаришга имкон берадиган, жисмоний фазилатларни ривожлантириш ва жисмоний ҳолатни кузатишга қодир бўлган батафсил, ноёб ҳаракатлар тизими яъни, талабаларнинг функционал тайёргарлиги натижасидир. Аммо санаб ўтилган воситаларнинг асосий мақсади саломатликни яхшилаш ва касалликларнинг олдини олиш, шунингдек, инсоннинг барча асосий физиологик тизимларини ҳар томонлама ривожлантиришдан иборатдир.

Жанг санъати машқлари ва анъанавий жисмоний машқлар ўртасидаги характерли фарқи шундаки, деярли барча машқлар тез ва бақувват ҳаракатлар билан боғлиқ. Масалан йога машқларини оладиган бўлсак у асосан силлиқ ҳаракатлар ёки статик ҳолатларни ўз ичига олади, улар диққатни тўлиқ жамлаш билан амалга оширилади ҳамда тўлиқ бўшашиш билан бирга мушаклар ва асаб тизимининг ишлаш фаолиятини яхшилашга олиб келади.

Йога машқлари мослашувчанликни, яхши ҳолатни ривожлантиришни ва умуртқанинг эгрилик муаммолари билан боғлиқ масалалалар билан курашишга ёрдам беради. Шарқ яккакурашлари тезлик ва мувофиқлаштиришни машқ қилади. Бундан ташқари, шарқий амалиётлар турли касалликларга қаршиликни оширади ва танани мустаҳкамлайди.

18 ёшдан 20 ёшгача бўлган ёшларда куч ва қувват юқори бўлади. Улар аллақачон Шарқий тизимларнинг алоҳида элементларини бажариш техникасининг нозик хусусиятларини тушунишга қодир, шунинг учун уларни янада жадалроқ ўрганишлари мумкин.

1-жадвал

Гулистон давлат педагогика институти биринчи курс талабаларидан тажриба давомида олинган жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари таҳлили

	Дарсдан олдин			Дарсдан кейин		
	Югуриш 4×9 м (с)	6 дақиқа давомида югуриш (м)	Эгилувчанлик	Югуриш 4×9 м (с)	6 дақиқа давомида югуриш (м)	Эгилувчанлик
Қизлар	11,6	1150	0,34	10,5	1430	0,44
Ўсмирлар	11,0	1280	0,32	9,9	1550	0,43

Биз томонимиздан ишлаб чиқилган методиканинг самарадорлигини баҳолашда тадқиқот натижалари (1-жадвалда келтирилган):

– тезлик кўрсаткичларини (6 дақиқали югуриш (м);

– чаққонлик (4х9 м (с) югуриш) ва мослашувчанликни (гимнастика таёқчаси ёрдамида текис қўлларни орқага буриш) яхшилашда ишончли натижаларга эришилди);

– олдинга эгилиш, гимнастика скамейкасида туриш (см);

– ўтирган ҳолда олдинга эгилиш, оёқларни бир-биридан ажратиш (см);

– оёқ билаги зўр бўғимнинг ўтирган жойидан тортиб олиш ва тўғирлаш (см).

ISSN 2181-8274

Тадқиқот вазифаси шундан иборат бўлдики, жисмоний тарбия дарслари таркибига биз жанг санъати (каратэ-до) ва соғлиқни сақлаш тизимидан (йога) турли хил машқларни киритдик.

Кириш қисмида эса (бадан қиздирувчи машқлар) орқали талабалар катта мушак гуруҳлари учун умумривожлантирувчи машқлар бажариб, таянч-ҳаракат тизимини дарснинг асосий қисмига тайёрлаб олинди.

Биз турли хил бошланғич ҳолатлардан зарба ва зарбаларни тақлид қилувчи машқларни таклиф қилдик:

– ура маваши, уракен учи, маэ гери, уч серияли зарбалар;

– дзедан, чудан, гедан хар хил кўринишдаги зарбалар ва бошқалар;

– жанг санъати ва соғлиқни сақлаш тизимларидан мослашувчанлик, реакция, тезлик, чаққонлик, мувофиқлаштириш ва бошқалар учун машқлар.

Дарснинг асосий қисмида жисмоний тарбия ўқув дастуридаги жисмоний тарбиянинг асосий воситалари, жанг санъати воситалари (расмий машқлар тўплами — ката, рендзоки, гохон-кумитэ, иппон-кумитэ) ва бошқа соғломлаштириш (йога тизимидан машқлар тўплами) тизимлари билан боғлиқ масалалар ҳал қилинди.

Таклиф этилган тизим бўйича жисмоний машқлар тўпламлари ҳафтанинг кунига қараб ажратилган бўлиб талабалар жанг санъати ва соғлиқни сақлаш тизимлари ҳақида яхлит тушунчага эга бўлиши учун тадқиқ этилди.

Дарснинг якуний қисмида эса назорат тестлари бўйича (вақтга) эстафета ва мусобақалар ўтказилди. Ўйинларда сюжетли ва мажозий характердаги машқлар (аждаҳо, йўлбарс, бургут, илон, маймун ва бошқалар) ҳам берилди.

Шарқ жисмоний маданияти воситаларидан фойдаланган ҳолда, соғлом турмуш тарзини моделлаштиришнинг назарий ва амалий ёндашувларини ўрганиб чиқиб, шундай хулосага келиш мумкинки, олий таълим муассасаларининг жисмоний тарбия дарслари ўқув-тарбия жараёнида жанговар санъат элементлари ва соғломлаштириш тизимларидан фойдаланилса талабаларнинг дарсга бўлган қизиқишлари сезиларли даражада ошиши мумкин экан. Талабаларнинг жисмоний фазилатларини ривожлантириш ва соғликларини умумий яхшилашда муҳим восита бўлиб ҳизмат қилиши кузатилди. Жанг санъати элементлари ва соғломлаштирувчи тизимлардан ташкил топган машқлар тўплами ва воситаларини самарали ривожлантиришга қаратилган ва педагогик тажриба жараёнида тажриба талабаларнинг харакат тайёргарлик даражасини ишончли тарзда оширишга имкон берди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 4 сентябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги ЎРҚ-394-сонли Қонуни Lex.uz.

2. Арипов Ю.Ю. Таълим муассасаларида кун тартибида олиб бориладиган соғломлаштириш шаклларидан самарали фойдаланиш йўллари. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) Google Scholar ISSN:2181-2454 www.carjis.org VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2021 Universal Impact Factor(UIF) 2021:7.1. – 101-110 б.

3. Лахманчук Г. Е. Йога – ключ к здоровью / Г.Е.Лахмачук. – Краснодар: сов. Кубань, 1997. – 464 с.

4. Махмудова М.М. Олий таълим муассасаларининг жисмоний тарбия дарсларида қўллаш учун ўзбек жанг санъати спорт турининг комплекс машқларини табақалаштириш ва таснифлаш. Fan – sportga илмий назарий журнали. №6/2020. – 63-66 б.

5. Мухаммадиев К.Б. Жисмоний тарбия таълим жараёни самарадорлигини оширишнинг долзарб педагогик муаммолари. Fan – sportga илмий назарий журнали. №4/2021. – 53-56 бет.

6. Олимов А. И. Восточные единоборства как средство формирования здорового образа жизни / А. И. Олимов, О. Т. Бахромов // Молодой ученый. – 2016. – № 7. – С. 1065–1067.

MARKAZIY OSIYO XALQLARI YOZUVI TARIXIGA BIR NAZAR

Zaynura Kadirova,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

Annotatsiya

Maqola Markaziy Osiyodagi turli xalqlar orasida yozuv tizimining tarixiy rivojlanishini o‘rganadi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va ular ifodalovchi boy madaniy merosini yoritadi. Tadqiqot mintaqadagi arab, kirill va lotin kabi yozuvlarning kelib chiqishini o‘rganib, ularning qabul qilinishi va evolyutsiyasini shakllantirgan til, madaniy va siyosiy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u tilshunoslik, tarix, antropologiya va madaniyatshunoslikni birlashtirgan fanlararo tadqiqotlarning muhimligini ta’kidlab, ushbu yozuvlarni o‘rganishga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o‘rganadi va til merosini tushunishdagi ahamiyati haqida qimmatli fikrlarni taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, yozuv tizimlari, til evolyutsiyasi, madaniy meros, alifbolar, yozuvning rivojlanishi, tarixiy tilshunoslik, ko‘p tillilik, arxeologik dalillar, madaniy almashinuv, og‘zaki an’analar, madaniyatlararo ta’sirlar.*

Аннотация

В статье рассматривается историческое развитие письменности у различных народов Центральной Азии, выделяются их специфические особенности и богатое культурное наследие, которое они представляют. Исследование исследует происхождение таких письменностей, как арабский, кириллица и латынь, в регионе, раскрывая сложное взаимодействие лингвистических, культурных и политических факторов, которые сформировали их принятие и эволюцию. Кроме того, он исследует современные научные подходы к изучению этих произведений, подчеркивая важность междисциплинарных исследований, которые объединяют лингвистику, историю, антропологию и культурные исследования, и дает ценную информацию о их важности для понимания языкового наследия.

Ключевые слова: *Центральная Азия, системы письма, эволюция языка, культурное наследие, алфавиты, развитие письменности, историческая лингвистика, многоязычие, археологические данные, культурный обмен, устные традиции, межкультурные влияния.*

Annotation

The article examines the historical development of the writing system among various peoples of Central Asia, highlights their specific features and the rich cultural heritage they represent. The study explores the origins of scripts such as Arabic, Cyrillic, and Latin in the region, revealing the complex interplay of linguistic, cultural, and political factors that shaped their adoption and evolution. In addition, it explores contemporary scholarly approaches to the study of these writings, highlighting the importance of interdisciplinary research that integrates linguistics, history, anthropology, and cultural studies, and provides valuable insights into its importance in understanding language heritage.

Keywords: *Central Asia, writing systems, language evolution, cultural heritage, alphabets, development of writing, historical linguistics, multilingualism, archaeological evidence, cultural exchange, oral traditions, cross-cultural influences.*

Markaziy Osiyo sivilizatsiyalar chorrahasi, ming yillar davomida turli madaniyatlar, tillar va urf-odatlar kesishgan mintaqadir. Tarixning bu boy gobelenlari, ehtimol, uning xalqlari orasida yozuv tizimining rivojlanishida eng yorqin aks etgan. Ipak yo‘li savdogarlarining qadimiy yozuvlaridan tortib, siyosiy va madaniy ta’sirlar ta’sirida shakllangan zamonaviy alifbolargacha, Markaziy Osiyoning yozuv tarixi mintaqaning madaniy dinamikligi va til xilma-xilligidan dalolat beradi. Ushbu maqola yozuvning eng qadimgi ildizlaridan hozirgi kungacha bo‘lgan evolyutsiyasini kuzatib boradigan ushbu ajoyib tarixning keng qamrovli ko‘rinishini taqdim etadi. Tarixiy, lingvistik va madaniy istiqbollarni o‘zida mujassam etgan ko‘p tarmoqli yondashuv orqali u Markaziy Osiyodagi til, madaniyat va o‘ziga xoslik o‘rtasidagi murakkab aloqalarni yoritishga intiladi.

1920-yillarda Sovet hokimiyati davrida O‘rta Osiyo turkiy tillari yozuvlarini bir me’yorga keltirish bo‘yicha birgalikda harakat qilindi. Bu Sovet Ittifoqidagi aksariyat turkiy tillar, jumladan, o‘zbek, qozoq va qirg‘iz tillari uchun lotin alifbosining qabul qilinishiga olib keldi. Biroq 1940-1950-yillarda sovet tili siyosati doirasida bu tillar kirill alifbosiga o‘tkazildi.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi bilan Markaziy Osiyoning ko‘plab davlatlari o‘z tillari uchun lotin alifbosini qaytadan joriy qila boshladilar. Masalan, O‘zbekiston XXI asr boshlarida sovet davridan beri amalda bo‘lgan kirill yozuvi o‘rniga lotin yozuviga asoslangan yangi alifboni qabul qildi. Bu siljish Markaziy Osiyoda tarixiy, madaniy va siyosiy kuchlar tomonidan shakllantirilgan yozuv tizimlarining davom etayotgan evolyutsiyasini aks ettiradi.

Markaziy Osiyoda yozuv tizimlarining joriy etilishini mintaqa tarixini shakllantirgan bir qancha siyosiy va iqtisodiy voqealar bilan izohlash mumkin. Eng dastlabki va eng muhim ta’sirlardan biri arab yozuvini diniy va ma’muriy maqsadlar uchun vosita sifatida mintaqaga olib kelgan islomning tarqalishi edi [7, 83]. Bu jarayon milodiy VIII asrda boshlanib, keyingi asrlarda davom etib, O‘rta Osiyoda turkiy tillarni yozish uchun arab yozuvining qabul qilinishiga olib keldi.

ISSN 2181-8274

O‘rta Osiyoda yozuvning amalga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatgan yana bir muhim siyosiy voqea XIII asrdagi mo‘g‘ullar bosqinlaridir. Mo‘g‘ul istilolari mintaqada jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi, jumladan, fors yozuvidan foydalangan turkiy xoqonlik bo‘lgan Chag‘atoy xonligi tashkil topdi. Fors yozuviga asoslangan va O‘rta Osiyoda turkiy tillarni yozishda foydalanilgan chig‘atoy yozuvining rivojlanishi va tarqalishida Chag‘atoy xonligi hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Keyingi asrlarda O‘rta Osiyo yozuv sistemalarining shakllanishida Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqining siyosiy va iqtisodiy ta’siri ham katta rol o‘ynadi. Sovet hokimiyati davrida O‘rta Osiyodagi turkiy tillar uchun yozuvlarni standartlashtirish bo‘yicha birgalikda harakat qilindi, natijada mintaqadagi turli tillar uchun lotin va kirill alifbolari qabul qilindi [2, 346].

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda yozuvning amalga oshirilishiga mintaqaning murakkab tarixi va madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi diniy, siyosiy va iqtisodiy omillarning kombinatsiyasi ta’sir ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarix davomida mintaqaning rang-barang til va madaniy merosini aks ettiruvchi turli yozuvlardan foydalangan. Markaziy Osiyoda ishlatiladigan asosiy yozuvlardan ba’zilari:

Braxmi yozuvi oromiy yozuvidan olingan va Hindiston yarimorolida, ehtimol Maurya imperiyasi davrida ishlab chiqilgan deb ishoniladi. Bu abugida, ya’ni har bir belgi o‘ziga xos unli tovushga ega undoshni, boshqa unlilar esa diakritik belgilar bilan ifodalanadi.

Braxmi yozuvi Hindiston yarimoroli va undan tashqarida tarqalib, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Shri-Lankagacha yetib bordi. Bu Janubiy va O‘rta Osiyoda qo‘llaniladigan ko‘plab yozuvlarning, jumladan, tibet, devanagari, sinhala va gurmuxi yozuvlarining ajdodi bo‘lgan [2, 123].

Vaqt o‘tishi bilan braxmi yozuvi har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bir nechta mintaqaviy variantlarga aylandi. Ushbu variantlardan ba’zilari Gandharada (hozirgi Afg‘oniston va Pokiston) qo‘llaniladigan Kharosthi yozuvi va Hindistondagi Gupta imperiyasi davrida qo‘llanilgan Gupta yozuvini o‘z ichiga oladi.

Markaziy Osiyoda qo‘llanilishi: Braxmi yozuvi Markaziy Osiyoda asosan Gandhari tilini yozish uchun ishlatilgan, bu hozirgi Afg‘oniston va Markaziy Osiyoning bir qismi bo‘lgan mintaqada so‘zlashadigan Prakrit tili bo‘lgan. O‘rta Osiyoning turli mintaqalarida ma’muriy va diniy maqsadlarda ham foydalanilgan.

Islom dinining tarqalishi va mintaqada turkiy tillarni yozish uchun arab yozuvining qabul qilinishi bilan O‘rta Osiyoda braxmi yozuvidan foydalanish pasaydi. Milodiy 10-asrga kelib, O‘rta Osiyoda braxmi yozuvi deyarli qo‘llanilmaydi [6, 241].

Sug‘d yozuvi — hozirgi O‘zbekiston va Tojikistonda joylashgan So‘g‘diyona mintaqasida so‘zlashuvchi Sharqiy Eron tili bo‘lgan so‘g‘d tilini yozishda qo‘llaniladigan qadimiy yozuv. Yozuv “so‘g‘diy” deb atalgan, chunki u asosan sug‘dliklar tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan.

Bu yozuvi oromiy yozuvidan kelib chiqqan va sug‘d tilini yozishda miloddan avvalgi 2-asrdan boshlab ishlatilgan. Bu alifbo bo‘lib, undoshlar va unlilar uchun alohida belgilar mavjud.

Sug‘d yozuvi o‘ngdan chapga yoziladi, bu bu mintaqadagi yozuvlarga xosdir. Unda sug‘d tilidagi tovushlarni to‘g‘ri ifodalash uchun harflar, ligaturlar (ikki yoki undan ortiq qo‘shilgan harflardan tuzilgan belgilar) va diakritik belgilar birikmasi mavjud. Ko‘pgina yozuvlar singari bu yozuv ham vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, bir qancha mintaqaviy variantlarga ega bo‘lgan. Eng ko‘zga ko‘ringan variantlari “Isfahoniy” va “Samarqand” variantlari bo‘lib, ular qo‘llanilgan hududlar nomi bilan atalgan[6, 85]. Sug‘d yozuvi Ipak yo‘li bo‘ylab madaniy va savdo almashinuvidagi roli hamda Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini tushunishimizga qo‘shgan hissasi bilan ahamiyatlidir.

VIII-XVII asrlarda Uyg‘uriston (hozirgi Shinjon, Xitoy) hududida so‘zlashuvchi turkiy til bo‘lgan eski uyg‘ur tilini yozish uchun ishlatilgan. Yozuv asosan uyg‘ur xalqi tomonidan qo‘llanilganligi uchun “uyg‘ur” deb atalgan.

Uyg‘ur yozuvi so‘g‘d yozuvidan olingan bo‘lib, uning o‘zi oromiy yozuvidan olingan. Bu yozuv miloddan avvalgi 8-asrda Uyg‘ur xoqonligi davrida ishlab chiqilgan bo‘lib, eski uyg‘ur tilini, shuningdek, O‘rta Osiyodagi boshqa turkiy tillarni yozishda foydalanilgan.

(hozirgi Leningrad temir yo‘llar injenerlar instituti)” da, keyinchalik boshqa texnika oliy bilim yurtlarida o‘qitila boshlangan. Chizma geometriyani o‘qitish uchun fransuz injenerlari Gaspar Monj shogirdlari — A.Y.Fabr, A.A.Batankur va K.I.Potelar taklif qilingan edilar [5, 2059].

1814-yilda shu institutni bitirgan Yakov Aleksandrovich Sevastyanov (1796-1849) chizma geometriyadan repetitor kilib tayinlandi. Sevastyanov 1818-yilda rus tilida mustaqil ma’ruzalar o‘qiy boshlagan va 1821-yilda bu fandan rus tilida “Chizma geometriya asoslari” degan birinchi original darslik nashr ettirdi. 1824-yilda 28-yashar Sevastyanovga professorlik unvoni berilgan. Sevastyanov chizma geometriyadan birinchi rus professori bo‘lib, bu fan sohasida ruscha terminlar yaratishda uning roli juda katta bo‘lgan [6, 112].

Rossiyada chizma geometriya o‘qitish metodlarining rivojlanishiga professorlardan Nikolay Ivanovich Makarov (1824-1904) va Valerian Ivanovich Kurdyumov (1853-1904)larning ilmiy-pedagogik faoliyatlari katta ta’sir ko‘rsatgan [7, 109].

Chizma geometriya fanini asoschisi fransuz olimi va injeneri Gaspar Monjning ta’biri bilan aytganda, chizma dunyodagi barcha millatlar uchun tushunarli til, ya’ni “texnika tilidir”. Chizma geometriya mashhur rus olimi V.I.Kurdyumoviing ta’rificha, “texnika tilining grammatikasi”dir, degan edi [8, 15].

Keyinchalik chizma geometriyaning nazariy asoslari akademik-kritsallograf E.S.Fedorov (1853-1919), prof. N.A.Rinin (1877-1942), prof. N.A.Glagolev (1888-1945), prof. A.I.Dobryakov (1895-1947), prof. N.F.Chetveruxin (1891-1974) va boshqalarning asarlarida aks ettirilgan. Aksonometriya nazariyasi bo‘yicha barcha to‘plangan ma’lumotlar asosida, ularni 1853-yilda umumlashtirib, Karl Polke (1810-1876) parallel proyeksiyalarda aksonometriyaning asosiy teoremasini shubhalardan holi bo‘lmagan mazmunda ishlab chiqqan. Keyinchalik bu teorema uning shogirdi Shvars tomonidan 1864-yilda takomillashtirilgan. Lekin bu teoremaga unda ham ishonarli mazmun nasib etmadi. Aksonometrik proeksiyalar to‘g‘risidagi batafsil va chuqur ma’lumotlar Y.A.Glazunov va N.V.Chetveruxinlar tomonidan 1953-yilda yozilgan “Aksonometriya” kitobida bayon qilingan.

Respublikamizda “Aksonometrik proeksiyalar” mavzusida 1953 yilda Raxim Xorunov tomonidan 05.01.01. ixtisoslik bo‘yicha fan nomzodligi darajasini olish uchun dissertatsiya yozib, uni Leningrad shahrida himoya qilingan.

1853-yilda Karl Polke aksonometriyaning asosiy teoremasini ishlab chiqqan bo‘lsa. Ye.A.Glazunov va N.V.Chetveruxinlarni “Aksonometriya” va R.Xorunovning nomzodlik dissertatsiyasining himoyasi bu teoremaning 100 yilligiga bag‘ishlangandek bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yaqqol tasvirlar, proeksiyalar va aksonometrik proeksiyalar atamasi juda ko‘p uchraganligi uchun, ularga mazmun va mohiyatiga izoh berishni lozim topdik. Yaqqol tasvir deb, fazoda berilgan uch o‘lchamli mavjud obyektlarni (yoki ongimizda konstruktiv loyihalanib idrok qilingan hayoliy-nazariy mavhum uch o‘lchamli obyekt siymosini) qo‘lda (chizmachilik asboblarisiz) kuzatuvchi tomonidan ko‘rib ongida sifati va hususiyati bilan idrok etib, uning mavhum siymosini tekislik (qog‘oz yoki mato yoki polotno yuzasi)da aslidagidek rang-barang chiziq, chiziqcha va chizgilarda bajarilgan grafik ifodasiga-tasviriga aytiladi. Ular jamiyatning iqtidorli kishilari-rassomlar tomonidan, tabiatan o‘zlariga xos bo‘lgan hissiy sezish va idrok etish natijasida bajariladi. Proyeksiya deb, proyeksiyalash jarayonida fazodagi uch o‘lchamli mavjud obyektlarni proyeksiyalash markazi yoki yo‘nalishi va proyeksiyalar tekisligidan iborat bo‘lgan proyeksiyalash apparati yordamida proyeksiyalar tekisligida hosil qilingan ikki o‘lchamli tasviriga aytiladi.

Aksonometriya — (Aksonometrik proyeksiyalar) deb, ikki o‘lchamli tasvirlardan iborat chizmasi berilgan obyektlarni qo‘lda chizmachilik asboblari yordamida, ularning har bir nuqtasini koordinatalar siniq chiziqlarini qurish orqali, ya’ni belgilangan tartib va qoidalar asosida, ularning aynan yaqqol tasvirlariga juda o‘xshash holatda bajarilgan (hosil qilingan) yaqqol proyeksiyasiga yoki yaqqol ko‘rinishiga yoki yaqqol chizmasiga aytiladi. Ularga obyektlarning aksonometrik proyeksiyalari yoki qisqacha aksonometriyasi deb ataladi.



1-rasm



2-rasm

Shuningdek, aksonometrik proyeksiyalar nazariy, ya’ni xayolan-fikran loyihalanadigan obyektlarning bajarilgan yaqqol tasvirlari yoki proyeksiyalari yoki chizmalari ham bo‘lishi mumkin. Dimetrik proyeksiyalar izometrik proyeksiyalarga nisbatan obyektlarning yaqqol tasviriga yaqinroq bo‘ladi. Buni 1-, 2-rasmdan ko‘rish mumkin. Bunday holni 3-rasmdagi qiyshiq burchakli dimetrik

proyeksiyalarda ham kuzatiladi. Lekin o'quv jarayonida ularni har ikkalasining vazifasi bitta bo'lib, obyektning chizmasini tezroq va osonroq o'qishga-tasavvur qilishga qaratilgan bo'ladi.



3-rasm



4-rasm



AB – ellipsning katta o'qi
CE – ellipsning kichik o'qi
V da AB = CE, AB ⊥ CE

5-rasm



AB ⊥ CE, KL = 0,5D, AB = 1,06 D, CE = 0,35D

6-rasm

Qiyosiy tahlillarimiz bu tasvirlar orasida, ularni qurish uchun qulay va osonroqlari qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyalar ekanligini ko'ramiz. Buning uchun buyumning yoki oldidan yoki ustidan yoki chapdan ko'rinishi (asosiy ko'rinishlardan pastroqda yoki o'ngroqda) qayta chizib olinadi. So'ngra X o'qqa 45° burchak ostida o'tkazilgan Y o'qi bo'ylab, proyeksiyada yashirinib yotgan buyumning tarkibiy qismlari fazoda tiklanadi va uning yaqqol tasviri 3 va 4-rasmdagidek hosil bo'ladi. Shuning uchun qisqa qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyalarda aylanani ellipslarini ko'rib chiqamiz.

Qiyshiq burchakli (frontal) dimetriya. Qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyada buyumlar aksonometrik proyeksiyalar tekisligiga bir tomoni-ko'rinishi bilan parallel bo'lib proyeksiyalanadi. Shunda buyumning bu tekisligiga parallel bo'lgan o'lchamlari va ko'rinishi o'zgarmay haqiqiy kattaligida proyeksiyalanadi. OY o'qi esa bu tekislikka ixtiyoriy burchakda proyeksiyalanishi mumkin.

Lekin OY o'qi OX va OZ o'qlari orasidagi burchakni teng ikkiga bo'lib o'tadigan qilib yo'naltiriladi. Bu o'q bo'yicha o'zgarish koeffitsiyenti OX va OZ ga nisbatan ikki marta kichik olinadi. Aksonometriya tekisligiga nisbatan OY o'qi qiyshiq burchakda joylashgani uchun ham uni qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiya deb ataladi, XOZ tekisliklar tizimidagi V tekisligi frontal tekisligi deb yuritilgani uchun ham qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyani frontal dimetrik proyeksiya desa ham bo'ladi. 5-rasmda qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyaning koordinata o'qlarining tasvirlanishi ko'rsatilgan.

Qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyani bundan keyin qisqa qilib, frontal dimetriya deb yuritamiz. 6-rasmda H, V, W tekisliklar tizimida aylanalarning frontal dimetriyada tasvirlanishi ko'rsatilgan. V tekisligiga parallel aylana, unda o'zining haqiqiy kattaligida, aylana ko'rinishida, H va W tekisliklari 45° burchakda joylashgan bo'lib, ulardagi aylanalar ellipslar shaklida tasvirlangan. H, W tekisliklarida ellipslar o'rniga to'rt markazli ovallar chizamiz. Bu erda ellipslarning katta o'qlari AB = 1,06 D, kichik o'qlari CE = 0,35D bo'lsa, V tekisligida o'zgarmay, aylanaligicha, haqiqiy kattaligida tasvirlanadi.

Endi H da yotgan ovalni yasalishi bilan tanishamiz. D diametrli aylana chiziladi va OZ ga nisbatan 7°da ellipsning kichik o'qi o'tkaziladi. Unda M va N nuqtalar chizmadagidek, berilgan aylana yordamida aniqlanadi. M va N dan aylana radiusiga teng yoylar chizilib, O_1 va O_2 nuqtalar aniqlanadi. Aylananing OX o'qi bilan kesishayotgan 3 va 4 nuqtalari orqali o'tadigan yoylarni O_1 va O_2 lardan chizib, aylanada 1 va 2 nuqtalarni aniqlaymiz. Bu yoylarning o'zaro kesishgan nuqtalari birlashtirilsa, ellipsning katta o'qi AB hosil bo'ladi (lekin bu jarayon chizmada ko'rsatilmagan). 1 va 2 nuqtalar O va O_2 lar bilan tutashtirilsa, AB da O_3 va O_4 tutashtirish markazlari hosil bo'ladi. O_3 va O_4 lardan sirkulda 1 va 3, 2 va 4 nuqtalar tutashtiriladi. W tekisligidagi ellips H tekisligidagiga o'xshagan holda bir xilda chiziladi. Faqat uning joylashishida 7° ga surilish OZ ga nisbatan olinadi.

7-rasm, a da ventil (jo‘mrak) qopqoqning to‘g‘ri burchakli proyeksiyalari berilgan bo‘lib, uning frontal dimetriyasini bajarish qulay bo‘lishi uchun, balandligi (OZ o‘qini) OY o‘qiga almashtirib bajariladi. Kesim yuzasini shtrixlashda OX va OZ larga bir xil kattalikda, OY uchun uning teng yarmi olinadi, shunda hosil bo‘lgan shtrixlash yo‘nalishiga parallel chiziladi, 7-rasm, b.

Silindr, konus va shu kabilarni, ya’ni aylanish sirtlarini frontal dimetriyada tasvirlash qulay bo‘lishi uchun, to‘g‘ri burchakli proyeksiyalariga bog‘lab chizish shart emas. Chunki bundan asosiy maqsad chizmani o‘qishni oson va qulaylashtirish nazarda tutiladi. Amaliyotda OY gorizontal chiziqqa nisbatan 30 yoki 60 burchak ostida ham olish mumkin, 8-rasm.

Pedagog dars olib borish jarayonida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda interfaol metodlardan samarali foydalanishga e’tibor qaratadi. Bunda, eng avvalo, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta’minlay olish imkoniyatiga ega interfaol metodlar tanlandi. Pedagog tomondan olib borilgan mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni fanga bo‘lgan bo‘lgan qiziqishlari yanada uyg‘otish va ijodiy qobiliyatlarini yanada shakllantirishga olib boriladi.



7-rasm


8-rasm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Ro‘ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2010. – 252 bet.

2. И.Раҳмонов. Чизмаларни чизиш ва ўқиш. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1992. – 360 б.

3. Л.А Найниш. Дидактические основы и пути оптимизации процесса обучения начертательной геометрии: Дисс... д-ра пед. наук. – Пенза, 2000. – 412с.

4. Б. Байметов Тасвирий санъат фанларининг инновацион тараққиёти ва стратегиялари // Ўқув-услубий мажмуа. – Т., 2019. – 160 б.

5.Kozim Gafurovich Malikov. Axonometry New Practical raphical ethods For Determining System Parameters. Psychology and Education Journal, 2021, 58, 2, 5710-5718.

5. Kozim Gafurovich Malikov. THEORY AND PRACTICE OF CONSTRUCTION OF AXONOMERTIC PROJECTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852.

6. Л. Баранов Место и роль геометрического ядра в современной САПР // САПР и Графика. 2002. – №6. – С. 111-113.

7. К. Евченко Выбор геометрического моделировщика // САПР и Графика. 2002. –№2. – С. 108-113.

8. К.Маликов Аксономертик проекцияларни қуриш назарияси ва амалиёти. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. Аниқ фанлар. 3/2017. 12-16 б.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASASINI INNOVATSION BOSHQARISHDA KLASTERLI YONDASHUV STRATEGIYASI

Shukur Po‘latov,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Ta’lim menejmenti” kafedrasi professori v.b., p.f.n.

Annotatsiya

Ta’limning jadal rivojlanayotgan sharoitida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini samarali boshqarish ular oldida turgan murakkab vazifalarni hal etish bo‘yicha innovatsion strategiyalarni talab qiladi. Ushbu maqola klaster yondashuvi strategiyasini bunday institutlarni boshqarish va samaradorligini oshirish uchun istiqbolli asos sifatida o‘rganadi. Ushbu maqolada empirik dalillar va nazariy tushunchalarga asoslanib, umumiy o‘rta ta’lim sharoitida klaster yondashuvining nazariy asoslari, asosiy tarkibiy qismlari, afzalliklari va amalga oshirish masalalari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, u muvaffaqiyatli amaliy tadqiqotlarni ta’kidlaydi va siyosatchilar va ta’lim manfaatdor tomonlariga ta’limni boshqarishda innovatsiyalar va mukammallikni rivojlantirish uchun klaster yondashuvidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *metodologik asos, normativ-huquqiy hujjat, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol, intellektual maydon, geografik strategiya, lateral strategiya, fokusli strategiya, strategik fikrlash, ilmiy infrastruktura, klasterli yondashuv platformasi.*

Аннотация

Эффективное управление учреждениями общего среднего образования в быстро развивающихся условиях образования требует инновационных стратегий решения стоящих перед ними сложных задач. В данной статье рассматривается стратегия кластерного подхода как многообещающая основа для управления и повышения эффективности таких учреждений. На основе эмпирических данных и теоретических представлений в статье рассматриваются теоретические основы, основные компоненты, преимущества и вопросы реализации кластерного подхода в общем среднем образовании. Кроме того, в нем освещаются успешные тематические исследования и предоставляются рекомендации политикам и заинтересованным сторонам в сфере образования по использованию кластерного подхода для содействия инновациям и совершенству в управлении образованием.

Ключевые слова: *методологическая база, нормативно-правовой документ, конкурентное, творческое и социально активное, интеллектуальное пространство, географическая стратегия, латеральная стратегия, целенаправленная стратегия, стратегическое мышление, научная инфраструктура, платформа кластерного подхода.*

Annotation

Effective management of general secondary education institutions in the rapidly developing conditions of education requires innovative strategies to solve the complex tasks facing them. This article explores the cluster approach strategy as a promising framework for managing and improving the performance of such institutions. Based on empirical evidence and theoretical concepts, this article discusses the theoretical foundations, main components, advantages, and implementation issues of the cluster approach in general secondary education. In addition, it highlights successful case studies and provides recommendations to policy makers and education stakeholders on using the cluster approach to foster innovation and excellence in education management.

Keywords: *methodological framework, regulatory legal document, competitive, creative and socially active, intellectual space, geographical strategy, lateral strategy, focused strategy, strategic thinking, scientific infrastructure, cluster approach platform.*

Ta’lim muassasalar faoliyatini tashkil etishning metodologik asoslari hisoblangan, normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim muassasasini faoliyat yuritishni huquqiy asoslarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning har bir moddasida keltirilgan jumlalarning mazmun-mohiyatini har bir ta’lim muassasa rahbariyati, pedagogik jamoasi bilishi shart bo‘lib, har bir shaxs o‘zining strategik rejasini ko‘ra olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim muassasasi rahbarlari klasterli yondashuvni nazarda tutgan holda ta’limning qaysi turi tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishni belgilay oladi. Bu borada qabul qilingan qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda ta’lim muassasasini rivojlantirish va takomillashtirish reja-dasturlarini tuzadi [1].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini klasterli yondashuv asosida innovatsion boshqarishning asosiy yo‘nalishlari, tamoyillari, talablarini hisobga olib hamda ichki va tashqi hamkorlik ishlarni tashkil etgan holda, o‘qitish qonuniyatlari va prinsiplarini aniqlash, o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari [2], rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini ta’minlashning tarkibiy qismlari, darajalari, ko‘rsatkichlari, unga ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik omillarni belgilash va mazkur tayyorgarlik darajasini rivojlantirish mazmuni, metodi, vosita va shakllarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotda qo‘llash orqali davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol, ma’naviy boy, g‘oyaviy-siyosiy yetuk rahbarlarni tayyorlashga erishish kabilar kiradi.

Klasterli yondashuv modeli har biri alohida faoliyat olib borayotgan obyekt va subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda, har bir obyekt va subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlikda ish yuritadi. Klaster modeli obyekt va subyektlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma’naviy va intellektual maydonini yaratadi, o‘zaro ijtimoiy ta’siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Shuningdek, pedagogik ta’lim klasterli yondashuvi ta’lim tashkilotlari subyektlari quyidagi strategiyalarga asoslanadi:

– hudud nuqtayi nazaridan geografik strategiyaga;

– ishlab chiqarish va akademik ilm-fan bilan munosabatiga ko‘ra lateral strategiyaga;

– ta’lim va tarbiya texnologiyalaridagi yaqinlik nuqtayi nazaridan texnologik strategiyaga;

– maqsad atrofida birlashish nuqtayi nazaridan fokusli strategiyaga;

– hamkorlikni qanday tashkil qilish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan sifat strategiyasiga.

Subyektlarning bir paytning o‘zida bir nechta strategik faoliyat olib borishi va uning fokusini klasterning ham umumiy, ham xususiy maqsadlariga to‘g‘rilash anchayin murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo bu murakkablikni ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan hal qilish kateterlashtirish jarayonining asosiy sharti hisoblanadi.

Klasterli yondashuv asosida ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilmiy-metodik boshqarishda strategik rejalashtirishning mazmun mohiyati.

Yevropa olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotchilar klasterli yondashuvning yettita asosiy strategiyasi qayd qilib o‘tilgan:

– *geografik strategiya,* kichik hududdan tortib global

masshtabgacha bo‘lgan hududlarda yoyilgan klaster turlari;

– ***gorizontal strategiya,*** bir nechta klasterlarning birlashuvidan tashkil topgan klasterning migastruktura shakli;

– ***vertikal strategiya,*** birlashtiruvchi, ya’ni bir xil darajadagi subyektlarni birlashtiruvchi klasterlar;

– ***lateral strategiya,*** har xil strukturadagi subyektlarni birlashtiruvchi, o‘lchovni iqtisod bilan ta’minlay oladigan, yangi kombinatsiyalarga olib keladigan klasterlar;

– ***texnologik strategiya,*** bir xil texnologiyadan foydalanadigan tuzilmalar to‘plamida ko‘zga tashlanadigan klasterlar;

– ***fokusli strategiya,*** bitta markaz atrofida joylashgan klaster subyektlari;

– ***sifat strategiyasi,*** tashkilotlarning hamkorlikni qanday amalga oshirish asosiy masala sifatida turadigan klaster shakli.

Bizningcha, mazkur tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan yuqoridagi yo‘nalishlarni klaster strategiyalari sifatida emas, balki klaster shakllari yoki yo‘nalishlari sifatida tasniflash maqsadga muvofiq. Chunki ularda klasterli yondashuvni amalga oshirishning ustuvor maqsadlari - strategiyasidan ko‘ra, uning qanday shakl va turlarda namoyon bo‘lishi o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, ta’lim klasterining samarali rivojlanishi quyidagi shart-sharoit va omillarga bevosita bog‘liq:

– talabga javob beradigan texnologik va ilmiy infrastrukturaning mavjudligi (D.A.Yalov);

– qatnashchilarning o‘zaro hamkorlikka ruhiy jihatdan tayyorligi (D.A.Yalov, V.P.Tretyak);

– klasterli yondashuvni rivojlantirishning mustahkam hududiy strategiyasining mavjud bo‘lishi;

– loyihani boshqarish usulini muvaffaqiyatli qo‘llash imkoniyati;

– klasterli yondashuv subyektlari o‘rtasida axborot almashishni ta’minlovchi kuchli axborot texnologiyalari (A.A.Migranyan) [5, 18].

Shunday ekan, pedagogik ta’limni klasterlashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ularda samaradorlikka erishish uchun bizdan mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashtirish, subyektlarda targ‘ibot — tashviqot ishlarini amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovatsion jarayonni to‘la anglab yetishlariga erishish

Strategik rejalashtirish — ta’lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib, uni amalga oshirish, zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va obyektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta’siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, ya’ni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yo‘nalishlari o‘rganilib tahlil qilinadi [5, 21].

Strategik reja — bu muassasada ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan maqsadlarga erishish — raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo‘nalishida uzoq (uch, besh, o‘n yil va undan ko‘proq muddatlarni o‘z ichiga oladi) muddatlarga mo‘ljallangan vazifalarni o‘z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo‘lib, u ta’lim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalari uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Strategik fikrlash — rahbarning ta’lim mazmunini takomillashtirishdagi tendensiya, mavjud va kutilayotgan (ichki va tashqi) samaralar, shuningdek, raqobatchilar bilan solishtirganda muassasaning kuchli va ojiz tomonlarini tahlil qila olish qobiliyati [4, 68]. Shu bilan birga, ta’lim islohotlari bilan amaliy faoliyatning tahliliga asoslangan, shuningdek, boshqa ta’lim muassasalariga nisbatan salohiyat imkoniyatlari ko‘proq, uzoq muddatli (3-5 yillik) ta’lim muassasasi faoliyati istiqbolini yaratadi va uni boshqaradi.

Nazorat — bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo‘lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko‘zlangan yo‘nalishdan chetga chiqishlar ham vujudga kelishi mumkin, bunday vaziyatlarda nazorat yo‘l qo‘yilayotgan xatolarning sababini o‘z vaqtida aniqlash va ularning tuzatish usullarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi [3, 75]. Shuning uchun boshqaruv faoliyatining barcha bosqichlari uchun nazorat zarur hisoblanadi.

Klasterli yondashuv asosida ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda maktab faoliyatini innovatsion boshqarishda maqsad va vazifalar.

Maqsad: maktabning partisipativ boshqarilishi, ya’ni muammolarini hal qilish jarayoniga ijrochilarni kiritish (maktab ishlarida psixologik, hamkorlik tashkilot vakillari o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar kuzatuv kengashi va homiylarning ishtiroki).

Maktabni hamkorlik tashkilotlari bilan birgalikda boshqarishda tashkiliy vazifalarning o‘rni — xodimlarga berilgan topshiriqlarni bajarish uchun jamoaning faoliyatini tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Ushbu faoliyatni tashkil etish rahbarning asosiy va mas’uliyatli vazifalaridan bir hisoblanadi va u bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqich — tegishli topshiriq hamda vazifalarni rejalashtirish va rahbar o‘rinbosarlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni. Topshiriqlarni taqsimlash va xodimlarning topshiriqni bajarish jarayonidagi vazifalarini tushuntirish tashkilotchilik vazifasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkich rahbarning boshqa funksiyalarini o‘ziga birlashtiradi va u axborotlar bilan ishlash vazifasi bilan

uzviy bog‘liq bo‘ladi, chunki, rahbar o‘z o‘rinbosarlariga vazifalarni tushuntirish jarayonida ularni zaruriy axborotlar bilan ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqich — xodimlar tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijasini nazorat qilish va tahlil etish. Rahbar o‘rinbosarlari tomonidan bajarilgan ishlarning sifatini tekshirishdan avval topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini nazoratga olishi talab etiladi. Nazorat qilish, tekshirish funksiyasi ham rahbarning boshqa vazifalari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchi bosqich — topshiriqlarni bajarishda xodimlarga yordam ko‘rsatish. Xodimlarning faoliyatini muntazam nazoratga olish jarayonida rahbar o‘z vaqtida o‘rinbosarlariga yordam ko‘rsatish imkoniyatiga va o‘z o‘rnida har bir xodimning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich — xodimlarning faoliyati natijalariga ko‘ra ularni rag‘batlantirish yoki jazolash choralarini ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Ilg‘or va ijodkor xodimlar, ixtirochilarni moddiy va ma’naviy shakllarda rag‘batlantirish, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan ayrim o‘rinbosarlarning barcha faoliyatlarini qat’iy nazoratga olish orqali jazolashni amalga oshirish mumkin.

Ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion klasterli yondashuv asosida tashkil etishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

– ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlari hamda vositalarini izlab topish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

– ta’lim va tarbiya uzviyligi, aloqadorligi, uzluksizligini ta’minlovchi mexanizmlarini izlab topish va takomillashtirish;

– ta’lim tashkilotida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari bo‘yicha ta’lim-tarbiyani rivojlantirishning dolzarb muammolarining intellektual resurslarini integrasiyalash;

– barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlashda MTTM, UO‘TM hamda OTMga qarashli ta’lim tashkilotlarining o‘zaro tezkor qayta aloqa mexanizmlarini ishlab chiqish;

– pedagogik ta’limga o‘quvchilarning o‘quv fanlariga qiziqishini oshirish, ularda pedagog bo‘lishga istak va xohishni uyg‘otish, oliy o‘quv yurtiga yuqori ko‘rsatkichlar bilan tahsil olayotgan o‘quvchilarni tanlab olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– pedagogik ta’lim bo‘g‘inlari orasidagi aloqadorlik, bog‘liqlik, hamkorlik, uzviylik va uzluksizlikni ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslash;

– talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirokini ta’minlash hamda yosh mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarni egallash davrini me’yorlash;

– pedagogik ta’limda yangi avlod o‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar hamda didaktik materiallar majmuasini yaratish;

– pedagogika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish maqsadida yetakchi xorijiy OTMlari bilan ham korlikni va kadrlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, ilmiy stajirovkalarni amalga oshirish;

– pedagogik ta’limni tartibga soluvchi mavjud huquqiy-me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish hamda pedagogik ta’limning innovatsion klasterli yondashuv platformasini ishlab chiqish.

Ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiyani innovatsion klasterli yondashuv asosida tashkil etishning eng asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

– oliy ta’lim muassasalarida MTTM, UO‘TMlari uchun zamonaviy bilim, ko‘nikma, malaka (BKM) va tegishli kompetensiyalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash;

– ta’lim-tarbiya sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;

– MTTM, UO‘TMlarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilarning BKMlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, UO‘TMlarida fanlarni o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida hududiy malaka oshirish — Pedagogik milliy markazi va XTBlari bilan hamkorlikda muddatli, maqsadli o‘quv kurslarini ijodkor, mahoratli trenerlardan foydalangan holda seminar-trening va master-klasslar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilish;

– MTTM, UO‘TMlarida ilmiy tadqiqot ishlariga layoqatli yosh, iqtidorli o‘qituvchi va tarbiyachilarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish va ularga ilmiy hamda amaliy yordam ko‘rsatish.

Ta’lim muassasasi reglamentida jamoatchilik tashkilotlarining funksional vazifalari sifatida ***pedagogika kengashi, rahbar, rahbar o‘rinbosarlari, pedagoglar, yoshlar tashkiloti, Kuzatuv kengashi, psixolog, metodbirlashma, kasaba uyushmasi, maktab ota-onalar qo‘mitasi*** tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarni mazmuni keltirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Innovatsiya — bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”[2]. Muayyan natijalarga erishish, maqsadlarni aniq belgilash, sifat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish uchun aniq harakat dasturini taklif qilish ta’lim tashkiloti xodimlarining kasbiy fazilatlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning pedagogik hamda metodik mahoratini oshirishlariga rag‘bat uyg‘otadi.

Ta’lim subyektlarini boshqarish orqali biz subyektlarning maqsadli faoliyatini tushunamiz, ta’lim xizmatlarini taqdim etish va boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali ta’lim xizmatlari iste’molchilarining (o‘quvchilar, talabalar, ota-onalar va boshqalar) birgalikdagi faoliyatini samarali tashkil etishni ta’minlash, ularning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va uning sifatiga e’tibor berishni tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF–106-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134-sonli Farmoni.
3. Кудряшов В.С. Кластерный подход как технология управления региональным экономическим развитием // Ученые записки Тамбовского отделения РоСМУ. – 2018. – №11. – С. 73-80.
4. Екимова К. В., Федина Е. В. Теоретические аспекты использования кластеров в формировании конкурентоспособной экономики // Вестник экономики, управления и права. – 2009. – №3. – С. 67-76.
5. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2020. – 60.

КРЕАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Гульшод Хасанова,
Преподаватель Бухарского
государственного педагогического института

Аннотация

В современном образовательном ландшафте развитие творческих способностей признано ключевым аспектом воспитания всесторонне развитой личности. В сфере начального образования учителя играют основополагающую роль в развитии творческих способностей учащихся. В данной статье исследуется творческая компетентность будущих учителей начальных классов, подчеркивая ее значение в формировании инновационной и адаптируемой образовательной практики. Путем исследования теоретических основ, эмпирических данных и практических выводов эта статья призвана подчеркнуть важность воспитания творческой компетентности у будущих педагогов.

Ключевые слова: *образование, знание, умение, навык, специалист, учитель, компетенция, самостоятельная работа, креативность, способность.*

Annotatsiya

Zamonaviy ta’lim muhitida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish hartomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchilar asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini o‘rganadi, uning innovatsion va moslashuvchan ta’lim amaliyotini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Nazariy asoslar, empirik dalillar va amaliy natijalarni o‘rganish orqali ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash muhimligini ta’kidlashni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, bilim, qobiliyat, malaka, mutaxassis, o‘qituvchi, malaka, mustaqil ish, ijodkorlik, qobiliyat.*

Annotation

In the modern educational landscape, the development of creative abilities is recognized as a key aspect of raising a well-rounded individual. In primary education, teachers play a fundamental role in developing students’ creativity. This article explores the creative competence of future primary school teachers, highlighting its importance in shaping innovative and adaptable educational practice. By exploring theoretical foundations, empirical evidence, and practical implications, this article aims to highlight the importance of nurturing creative competence in future educators.

Keywords: *education, knowledge, ability, skill, specialist, teacher, competence, independent work, creativity, ability.*

Качество современного образования обеспечивает компетентностный подход, когда касается профессиональной подготовки в условиях высшего образования. Одной из главных целей профессионального образования является овладение будущими специалистами комплексом компетенций, необходимых для будущей деятельности в рамках профессии, для выполнения служебных обязанностей и производственных функций, а также социальной роли в обществе. На современном этапе обучения основной ценностью являются умения и навыки, позволяющие применить эти знания на практике, решить с их помощью важные проблемы и задачи – другими словами, компетенции.

Компетенции формируются и проявляются в реальной деятельности, основанной на знаниях, ценностях, склонностях и позволяющей человеку установить связь между знанием и ситуацией, обнаружить систему действий для успешного решения проблемы [1, 38].

Понятие "креативная компетенция" будем рассмотреть, исходя из термина "креативность", понимая под ним отражение творчества, способность к созданию нового и совершенствованию уже имеющегося.

В современной науке существуют различные подходы к толкованию понятия "креативность", в частности его определяют, как:

– чувствительность к проблеме (Э.Торренс);

– трансформация опыта в новую организацию (Ф. Тейлор);

– дивергентное мышление, совокупность личностных характеристик, способствующих творческому мышлению (Дж.Гилфорд);

– возникновение новых отношений (К.Роджерс);

– особенность интеллекта или уровень мышления, как качественную определенность высшего уровня интеллектуальной активности (Д.Богоявленская) [2, 69];

– деятельность ума, приводящая к новым прозрениям (К.Жерар);

– предрасположенность к узнаванию новшества (Г.Лассуэль);

– сплав восприятий, осуществленных новым способом (Э.Маккеллар);

– творческий процесс создания нового (А.Брушлинский, В.Моляко);

– способность создавать продукт, который обладает новизной (Т.Амабайл)

По мнению Дж.Гилфорда креативность можно определить по таким шестью параметрам:

1) способность к обнаружению и постановке проблем;

2) способность к генерированию большого количества проблем;

3) семантическая спонтанная гибкость — способность к продуцированию разнообразных идей;

4) оригинальность — способность продуцировать отдаленные ассоциации, необычные ответы, нестандартные решения;

5) способность усовершенствовать объект, добавляя детали;

6) способность решать нестандартные проблемы, способность увидеть в объекте новые признаки, найти их новое использование[3, 338].

Творческий человек видит побочные результаты, которые являются творением нового, нетворческий — проходя мимо новизны, видит только результаты по достижению цели. Креативность предполагает этап вдохновенного творчества, процесс детализации творческого продукта и придания ему конкретной предметной формы.

Согласно теории А.Маслоу, "необходимо научить людей быть креативными именно в том смысле, чтобы они были готовы принять новое, умели импровизировать. Они должны не бояться перемен, уметь сохранять спокойствие в бурном течении нового и по возможности (а это было бы лучше всего) приветствовать все новое", ведь, как отмечает ученый, "универсальная креативность есть в каждом из нас", подчеркивая этим утверждением присутствие творческого начала в каждом человеке, что мы трактуем как предпосылку к творческому самосовершенствованию будущего учителя [4, 23]. По мнению исследователя, если взять в качестве критерия креативности результат творческой деятельности, то тогда нужно акцентировать внимание на таких чертах, как трудолюбие, упорство, дисциплинированность, терпение, на первый взгляд не имеющих прямого отношения к креативности, но для учителя начальных классов эти качества являются особенно значимыми, что объясняется спецификой их профессиональной деятельности. Креативность — это всегда предпосылка создания чего-то нового, оригинального, это способность решать проблемы новыми способами, методами, с помощью ранее не задействованных средств. Понятие "креативный" (от лат. creatio — созидание) означает творческое, рационализаторское, отличающееся поиском и созданием чего-то нового.

Креативность является характеристикой личности, свидетельствующей о ее способности к творчеству. Л. Выготский указывает на необходимость проявления и развития способности к созданию нового, независимо от того, будет ли это создано каким-либо предметом внешнего мира либо настроением ума или чувства человека [5, 44]. Креативность трактуют как различные формы проявления интеллектуальных способностей, исходя из того, что все аспекты работы интеллекта имеют прямое отношение к успешности решения тех или иных проблемных ситуаций — за счет более совершенных средств построения ментальной картины ситуации, разнообразия и оригинальности контекста ее осмысления.

Креативность как способность человека к творчеству, по мнению С.Сысоевой, — это не одна определенная способность (речь не идет о ярко выраженной художественной, музыкальной и др. одаренности); это — интегративное качество личности, отражающее особую внутреннюю структуру, ее направленность, определенные психические процессы, характерологические качества, умения.

Современному учителю начальной школы необходимо обладать всеми качествами, соответствующими требованиям современного общества, навыками, знаниями, умениями, формами и приемами работы по развитию творческого потенциала младших школьников. Креативность учителя — это готовность и способность к педагогическому творчеству в процессе педагогической деятельности, это — умение генерировать новые оригинальные идеи, это — способность к творческому мышлению и принятию неординарных решений, способность к формированию креативности у детей, развитию их творческого потенциала.

Способствует развитию креативной компетенции у будущих учителей начальных классов и самостоятельная познавательная деятельность студентов,

которая может выступать как воспроизводящей (репродуктивной), так и преобразующей (продуктивной, творческой)

Так, ученые Ф. Рабинович, Г. Рогова, Т. Сахарова выделяют следующие уровни самостоятельной работы учащихся: воспроизводящий, полутворческий и творческий. На воспроизводящем уровне начинается усвоение нового материала, формируется вербальная база произношения, грамматики и лексики. В основе полутворческого уровня — перенос приобретённых знаний на аналогичные ситуации. На данном уровне у обучающихся вырабатывается определённая доля креативности. Творческий уровень нацеливает на формирование определённых умений и навыков при выполнении обучающимися различных видов творческих коммуникативных заданий. На этом этапе креативность достигает своей наивысшей точки

В процессе профессиональной подготовки будущих учителей начальной школы используются разные формы самостоятельной работы: подготовка к текущим заданиям; изучение учебного материала, вынесенного на самостоятельную проработку; составление текстов, кроссвордов и прочих проверочных материалов; выполнение переводов с иностранных языков; выполнение курсовых работ, квалификационных работ; создание творческих проектов; написание эссе, рефератов, докладов, рецензий, обзора литературы; изготовление иллюстрационного материала по заданной теме; участие студентов в научно-практических конференциях; написание научных статей; подготовка портфолио; занятие в архиве, музее, библиотеке; деловые игры, диспуты, дискуссии. Креативность — одно из основных условий творческого самовыражения, саморазвития, успешной самореализации и самосовершенствования личности будущего учителя начальных классов. Как отмечает А.Бугрий, “творческий, гармонично-всестороннее развитие личности предопределяется оптимизированной поведением индивида”

Развитие творческой активности, по словам Т. Горбуновой, – это процесс и результат качественного изменения личности, увеличение комплекса качеств, характеризующих ее творческую активность, происходящее за определенное время посредством общения, обучения, воспитания и самовоспитания

Следует заметить, что активность будущих учителей начальной школы как важная характеристика уровня его социальной зрелости возникает при взаимодействии сознания и сочетания многих видов деятельности студентов, под влиянием чего формируется творческое отношение к выполнению заданий. Благодаря творческой активности, реализуются смелые, неординарные идеи, потенциальные возможности и собственно креативность личности, а также активизируется процесс ее саморазвития и самосовершенствования.

Развитие креативности происходит через формирование системы мотивов и личностных свойств (независимость, мотивация, самоактуализация). Элементы творчества есть в любом человеческом труде; они позволяют человеку овладевать новыми видами деятельности, накапливая творческий потенциал, который может быть готов раскрыться в определенных общественных условиях, поскольку это — синергетический процесс. Как отмечают исследователи, даже в тех случаях, когда творческий потенциал отдельных людей не реализуется в творческие достижения, он создает почву для этих достижений. К тому же наличие творческих способностей и даже небольших творческих достижений у отдельных людей создает культурное поле, где каждый человек чувствует себя психологически комфортно. Ученый В. Клименко отмечает, что “творческий человек — это зрячий среди слепых. Когда он открывает задачу (неразгаданную тайну) и чувствует ее острые углы, он знает, куда идти и над чем работать, видит то, чего не видят и не чувствуют другие”. Именно таких “зрячих” людей, по нашему убеждению, сегодня не хватает украинскому обществу для его успешного будущего. Исследование проблемы формирования творческой личности тесно связано с учетом индивидуальных особенностей студентов, стимулирующие и регулирующих творческую деятельность, поэтому особое внимание следует обратить на формирование творческой индивидуальности. В философских и психолого-педагогических исследованиях индивидуальность рассматривается главным образом как выражение различий в парадигме единичного, неповторимого, особенного. Вхождению студентов в “импровизированное поле деятельности” — с целью обеспечения атмосферы для развития умения сфокусировать силы души и ума, а также запасы памяти — способствует креативная профессионально ориентированная образовательная среда. Ведь импровизация, по мнению Б.Рунина, — это высшая художественная непринужденность, в которой “рука как бы сама ведет мысль и созданное фиксируется, подхватывается и оценивается автором лишь постфактум”. Главной задачей импровизации является “поставить студентов в творческую позицию, добиваться от них впечатляющих творческих результатов, не шаблонности мышления и восприятия”.

Таким образом, создание креативной профессионально ориентированной образовательной среды в высшем учебном заведении влияет на мотивацию обучения студентов, привлекает их к различным видам самостоятельной работы, вследствие чего повышается уровень знаний, умений, навыков будущих учителей начальной школы, приобретается опыт творческой деятельности, формируется ценностное отношение к профессиональной деятельности – следовательно, повышается качество образования.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Вяликова, Г. С., et al. “Креативность: образовательные технологии развития.” Психолого-педагогический поиск (2016): 36-39.
2. Хасанова Г. К. Педагогические основы развития социальной деятельности студентов вузов //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 17-3 (120). – С. 68-71.
3. Хасанова Гульшод Касимовна. (2023). Методы формирования Творчества Будущих Учителей Начальных Классов в Образовательном Процессе. Място Пшислосци , 42 , 337–339.
4. Хасанова Г. К. МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ //Проблемы педагогики. – 2023. – С. 20-25.
5. Умуров З. Л., Хасанова Г. К. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 2-2 (122). – С. 43-45.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ QO‘SHIQLARINING ROLI

Gulnora Kaxarova,
Namangan davlat universiteti
2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan. O‘zbekistonning madaniy merosida chuqur ildiz otgan o‘zbek xalq musiqasi yosh o‘quvchilarda ijodkorlik, kognitiv rivojlanish va madaniy tushunchalarni tarbiyalashda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Mavjud adabiyotlar va empirik dalillarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali ushbu maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlarini boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturiga kiritishning ko‘p qirrali afzalliklari ochib berilgan. Unda an’anaviy musiqa bilan shug‘ullanish nafaqat musiqiy mahoratni oshirishi, balki o‘quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-madaniy ongni rivojlantirishga yordam berishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *xalq qo‘shiqlari, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, musiqa, musiqiy mahorat, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash.*

Аннотация

В данной статье подчеркивается значение узбекских народных песен в воспитании творческих способностей учащихся начальных классов. Узбекская народная музыка, имеющая глубокие корни в культурном наследии Узбекистана, служит ценным ресурсом для развития творческих способностей, познавательного развития и культурного понимания молодых студентов. Благодаря всестороннему обзору существующей литературы и эмпирических данных, данная статья раскрывает многогранные преимущества включения узбекских народных песен в программу начального образования. В нем говорится, что игра традиционной музыки не только улучшает музыкальные навыки, но и помогает учащимся развивать творческие способности, критическое мышление и социокультурную осведомленность.

Ключевые слова: *народные песни, творчество, творчество, музыка, музыкальные способности, познавательное развитие, критическое мышление.*

Annotation

This article highlights the importance of Uzbek folk songs in educating primary school students’ creative abilities. Uzbek folk music, which is deeply rooted in the cultural heritage of Uzbekistan, serves as a valuable resource for educating young students’ creativity, cognitive development and cultural understanding. Through a comprehensive review of existing literature and empirical evidence, this article reveals the multifaceted benefits of including Uzbek folk songs in the primary education curriculum. It says that playing traditional music not only improves musical skills, but also helps students develop creativity, critical thinking, and socio-cultural awareness.

Keywords: *folk songs, creativity, creativity, music, musical skills, cognitive development, critical thinking.*

Boshlang‘ich ta’lim — bu bola rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, u butun umr davomida ta’lim olish va shaxsiy o‘sish uchun asos yaratadi. So‘nggi yillarda o‘qituvchilar va tadqiqotchilar ta’lim tajribasini boyitish va talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun o‘quv dasturiga madaniy elementlarni kiritish muhimligini tan oldilar. O‘zining boy madaniy merosi va xalq musiqasining jo‘shqin an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek

xalqi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini oshirishda an’anaviy qo‘shiqlarning rolini o‘rganish uchun noyob imkoniyat yaratadi [1, 95].

O‘zbek xalq qo‘shiqlari xalqning madaniy to‘qimalarida alohida o‘rin tutib, asrlar davomida ifoda, hikoya qilish, umumxalq bayrami vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Avlodlar orqali o‘tib kelayotgan bu qo‘shiqlar o‘zbek jamiyatining umumiy donoligi, qadriyatlari va an’analarini o‘zida mujassam etgan holda, mamlakatning boy madaniy gobeleniga bir oyna ochadi. Boshlang‘ich ta’lim kontekstida o‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘quvchilarni ijodiy, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-madaniy ongni tarbiyalash orqali ularning madaniy merosini mazmunli o‘rganishga jalb etishga intilayotgan pedagoglar uchun boy manbalardir [2, 105].

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlar, empirik dalillar va amaliy fikrlarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali ushbu maqola an’anaviy musiqani boshlang‘ich maktab o‘quv dasturiga kiritishning ko‘p qirrali afzalliklarini ochib beradi. Ushbu maqola xalq qo‘shiqlari ta’limining kognitiv, hissiy va ijtimoiy-madaniy jihatlarini o‘rganib, o‘qituvchilar uchun o‘zbek xalq qo‘shiqlari imkoniyatlarini yosh o‘quvchilarning ta’lim tajribasini boyitish uchun foydalanish bo‘yicha qimmatli fikrlar va amaliy tavsiyalar berishga harakat qiladi.

Xalq musiqasini, xususan, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini boshlang‘ich ta’limga integratsiyalashuviga bag‘ishlangan adabiyotlar uning bolalar rivojlanishining turli jabhalariga chuqur ta’sirini ko‘rsatadi. Olimlar va o‘qituvchilar an’anaviy musiqani o‘quv dasturiga kiritishning kognitiv, hissiy va ijtimoiy-madaniy afzalliklarini keng o‘rganib, uning yosh o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniy xabardorlikni oshirish imkoniyatlarini ta’kidladilar.

O‘quvchilarni o‘zbek xalq qo‘shiqlari bilan qiziqtirishning asosiy afzalliklaridan biri ularning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’siridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy musiqani o‘rganish va ijro etish turli xil kognitiv jarayonlarni, jumladan xotira, diqqat va til qobiliyatlarini rag‘batlantiradi. Masalan, Smit va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot. Xalq musiqasi dasturida qatnashgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqa bilan shug‘ullanmaydigan tengdoshlariga nisbatan xotirani eslab qolish va eshitishni qayta ishlashda yaxshilanishlarini ko‘rsatdi [3, 61].

Qolaversa, xalq qo‘shiqlarining takroriy tabiati, boy lirik mazmuni va o‘ziga xos ohanglari bilan birgalikda yosh o‘quvchilarning xotirasini saqlash va til rivojlanishi uchun ideal asos yaratadi. Qo‘shiq matnlarini yodlash, ritmik naqshlarni o‘zlashtirish va qo‘shiqlarning tarkibiy elementlarini tushunish orqali talabalar kognitiv moslashuvchanlikni va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan faol o‘quv jarayonlarida ishtirok etadilar (Jones va Braun) [4, 15].

In addition to gender, social linguistics has also examined the role of language in the construction of ethnic and racial identities. Scholars like John Baugh and Ana Deumert have investigated linguistic phenomena such as code-switching and language attitudes within multilingual communities, revealing how language choices and ideologies intersect with issues of ethnicity, race, and cultural identity. These studies underscore the dynamic nature of language as a site of negotiation and contestation within diverse social landscapes [4, 5].

Furthermore, social linguistics has explored the impact of globalization and migration on language use and identity. Researchers such as Jan Blommaert and Monica Heller have examined how transnational flows of people, goods, and information reshape linguistic landscapes, giving rise to new forms of hybridity and fluidity in language practices. Their work highlights the need for a nuanced understanding of language and identity in an increasingly interconnected world [5, 125].

Beyond its theoretical insights, social linguistics has practical implications for various fields, including education, communication, and policy-making. In education, scholars such as Patricia Duff and Nancy Hornberger have explored the role of language in educational contexts, advocating for pedagogical approaches that value linguistic diversity and support the language development of all students. In communication, researchers like Deborah Tannen have examined how language shapes interpersonal relationships and power dynamics in professional and personal settings [4, 6].

In this section, we outline the research methodology employed to investigate the significance of social linguistics in understanding language, society, and culture. The methodology encompasses both qualitative and quantitative approaches to capture the multifaceted nature of the research topic and address various research questions.

The theoretical framework guiding this research on the significance of social linguistics in understanding langua-

ge, society, and culture draws upon several key theoretical perspectives from linguistics, sociology, anthropology, and related fields. These theoretical frameworks provide a conceptual lens through which to analyze the dynamic interplay between language, social structures, and cultural contexts.

Sociolinguistic theory serves as a cornerstone of the theoretical framework, emphasizing the social dimensions of language variation and change. Scholars such as William Labov and Dell Hymes have proposed models of language variation that account for the influence of social factors such as class, ethnicity, gender, and age on linguistic behavior. Central to sociolinguistic theory is the concept of speech communities, defined by shared linguistic norms and practices within specific social groups. Through the study of linguistic variables and patterns, sociolinguistics seeks to uncover the social meanings and functions of language use in diverse social contexts.

Drawing on critical discourse analysis and language ideology theory, this framework examines the role of language in constructing and perpetuating power relations within society. Scholars such as Pierre Bourdieu and Judith Butler have explored how language serves as a site of power struggle, shaping social hierarchies and marginalizing certain groups based on linguistic norms and conventions. Language ideologies, or beliefs about language and its speakers, influence linguistic practices and contribute to the reproduction of dominant social structures. By analyzing discursive strategies and language ideologies, this perspective highlights the ways in which language both reflects and reinforces asymmetrical power relations in society.

Cultural linguistics provides a theoretical framework for understanding the relationship between language and culture, emphasizing the cultural embeddedness of language and communication. Scholars such as Benjamin Lee Whorf and George Lakoff have argued that language reflects cultural worldviews, shaping the way individuals perceive and interpret the world around them. Cultural schemas, or shared cognitive frameworks, influence language use and interpretation, giving rise to cultural-specific patterns of communication. By exploring linguistic relativity and cultural conceptualizations, cultural linguistics illuminates the ways in which language reflects and perpetuates cultural norms, values, and practices.

The study of social linguistics provides invaluable insights into the complex interplay between language, society, and culture, shedding light on the dynamic ways in which language shapes and reflects social identities, power relations, and cultural practices. Through the integration of theoretical frameworks, empirical research, and interdisciplinary perspectives, this research has explored the significance of social linguistics in understanding the multifaceted nature of human communication and interaction.

REFERENCES:

1. Labov, W. Language in the Inner City: Studies in the Black English Vernacular. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.1972. – p 201-240.

2. McConnell-Ginet, S. and Eckert, P., Language and gender. Cambridge: Cambridge University Press. 2003. – pp. 75-99.

3. Baugh, J. Linguistic Profiling. In J. K. Chambers, P. Trudgill, & N. Schilling-Estes (Eds.), The Handbook of Language Variation and Change. 2003. – pp. 368-384.

4. Blommaert, J., & Rampton, B. Language and Superdiversity. Diversities, 13(2), 2011. – p. 1-21.

5. Bourdieu, P. Language and Symbolic Power. Cambridge, MA: Harvard University Press.1991. – pp. 320.

GRAFIK TA’LIM JARAYONIDA ANIMATSION ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VOSITASIDA KO‘RGAZMALILIKNI TA’MINLASH METODIKASI

Sanjar Mardov,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Zamonaviy ta’limda texnologiya integratsiyasi an’anaviy o‘qitish metodologiyasini inqilob qilib, asosiy jihatga aylandi. Elektron ta’lim resurslariga animatsiyaning kiritilishi, xususan, grafik ta’limda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu maqola grafik ta’limda ko‘rish va tushunishni yaxshilash uchun animatsiyadan foydalanish metodologiyasini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlarni va empirik tadqiqotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish orqali murakkab grafik tushunchalarni tushuntirishda animatsiyaning samaradorligi baholanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va o‘qituvchi dizaynerlari uchun animatsiyani elektron ta’lim resurslariga samarali integratsiya qilish, grafik ta’limda yaxshilangan o‘quv natijalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *animatsiya, elektron ta’lim resurslari, grafik ta’lim, visibility, metodologiya.*

Annotation

In modern education, technology integration has become a major aspect, revolutionizing the traditional teaching methodology. The inclusion of animation in e-learning resources, especially in graphic education, has made significant progress. This article explores a methodology for using animation to improve viewing and understanding in graphics education. Through a comprehensive review of existing literature and empirical research, the effectiveness of animation in explaining complex graphic concepts is assessed. In addition, practical recommendations are provided for teachers and instructional designers on how to effectively integrate animation into e-learning resources to support improved learning outcomes in graphic education.

Keywords: *animation, electronic educational resources, graphic education, visibility, methodology.*

Аннотация

В современном образовании интеграция технологий стала важным аспектом, производящим революцию в традиционной методологии преподавания. Включение анимации в ресурсы электронного обучения, особенно в графическом образовании, привело к значительному прогрессу. В этой статье исследуется методология использования анимации для улучшения просмотра и понимания в графическом образовании. Посредством всестороннего обзора существующей литературы и эмпирических исследований оценивается эффективность анимации в объяснении сложных графических концепций. Кроме того, для учителей и разработчиков учебных материалов предоставляются практические рекомендации о том, как эффективно интегрировать анимацию в ресурсы электронного обучения для улучшения результатов обучения в графическом образовании.

Ключевые слова: *анимация, электронные образовательные ресурсы, графическое образование, наглядность, методика.*

Hozirgi rivojlangan ilm-fan va texnika taraqqiyoti qurilish sohasidagi oliy o‘quv yurtlari talabalarining grafik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni birmuncha o‘zgartirib yubordi. Grafik fanlarni o‘qitish texnologiyasi sezilarli darajada rivojlanishga yuz burdi. Zamonaviy ta’lim maskani eng yangi dasturiy va multimedia grafik paketlari va majmualari bilan to‘ldirilgan. O‘quv rejalarda talabalar kompetensiyalariga qo‘yilgan asosiy talablardan biri kompyuter grafikasini egallashdir. Shu sababli bugungi kunda grafik fanlarni ayniqsa qurilish sohasidagi fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati mavjud.

Y.F.Katxanova ta’kidlashicha: “Kompyuter texnologiyalari rivojlanishining yuqori sur’atlari, nafaqat mavjud bilimlar tizimiga, balki o‘qitishning an’anaviy usul va metodlarini takomillashtirishning yangi yo‘llarini izlashga bo‘lgan munosabatni tabiiy qayta baholashga olib keladi” [7, 38].

Metodika va texnologiyaning bir-biridan farqini shunday tushuntirish mumkin:

metodika, bizning fikrimizcha, o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni, o‘qitishni tashkil etishning birgalikdagi majmuidir. Bir xil mazmunga ega bo‘lgan metodika, uslub va usullar yoki metodik tizim ikki o‘qituvchida ikki hil natija berishi mumkin;

pedagogik texnologiya qo‘llanganda esa, turli o‘qituvchilar turli xil yondashuvda, turli xil vosita va usullardan foydalanishsa-da, bir xil natija olishlari mumkin.

Texnologiyalarni tanlashning eng samarali yo‘llaridan biri — bu multimediali yondashuvdir. O‘quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagi muhim omillarga ahamiyat berish kerak:

o‘quv jarayonida yangi texnologiyalarning o‘zi emas, balki undan foydalanib ta’limning maqsadlariga erishishni ta’minlashning muhimligi;

eng zamonaviy, qimmatbaho texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va an’anaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;

o‘qitish natijalari axborot va kommunikatsiya yoki axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish, ularni uzatish sifatiga bog‘liqligi;

texnologiyalarni tanlashda talabalarning shaxsiy xususiyatlariga, fan sohasi o‘ziga xos tomonlariga, o‘quv mashg‘ulotlari topshiriqlari va mashqlarining mazmuniga e’tibor qaratish lozimligini alohida ta’kidlash zarur.

Zamonaviy dars — o‘qitishning nostandart yo‘llari va usullari majmuasi bo‘lib, o‘qituvchi barcha ko‘nikmalarini ma’lum o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun safarbar etib, talabalarni shu jarayonga jalb qiladi. Ularning qobiliyati, malakasini yangi ma’lumotlarni o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanishdir.

L.O.Mokresova fikriga ko‘ra, grafik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim shakllaridan foydalanish: talabalarni kompyuter grafikasi yordamida mahsulot chizmalarini bajarishga o‘rgatish, multimediali uskunalar yordamida video ma’ruzalar o‘qish, mustaqil o‘rganish uchun elektron tashuvchilarda fanlarning o‘quv-uslubiy fondini yaratish, kafedraning asosiy uslubiy ishlanmalarini elektron shaklga aylantirish orqali mavjud uslubiy zahiralardan foydalanish va boshqalar bilan bog‘liq.

L.V.Pavlova innovatsion o‘qitish usullari tajribasini tahlil qilish asosida, chizmachilik va kompyuter grafikasida o‘quv materialini o‘rganish sifati turli o‘qitish usullariga bog‘liq, masalan, assotsiativ-kooperativ usul va tavsifiy analogiyalar usuli o‘qitishning muvaffaqiyatini oshiradi. Bu usullarning maqsadi fazoviy tasavvurni rivojlantirish, talabalarning ijodiy, kognitiv va injener- konstruktorlik etukligini shakllantirishdan iborat [1,55].

Tadqiqotchi T.V.Chernyakova “Kompyuter grafikasi” fanini modelli o‘qitish metodikasini qo‘llagan holda,

o‘qitish metodikasining darajasi, barcha tarkibiy qismlari, ya’ni ilmiy tavsiya berish, ularning o‘zaro aloqadorligi, tamoyillari, metodlari, vosita va shakllarini aniqlagan va fanni o‘qitish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Ushbu modelda OTM talabalariga “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda talabalarni psixologik-pedagogik tayyorlash, fanni o‘zlashtirish nima uchun kerakligini singdirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishni darajalar asosida belgilash, uslublar, vosita va shakllar orqali keltirilgan [2, 155].

E.I.Ro‘ziyev [3,8] o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida “Grafika” integrativ kursini yaratgan va uni o‘qitish metodikasini ishlab chiqqan. Unda “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitish muammolari va uning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, ushbu fanni olib boruvchi o‘qituvchi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan grafik talablarni bayon etgan.

A.B.Puzankova o‘zining tadqiqotlarida umumtexnika fanlarini kompyuterlashtirish orqali ta’limning barcha bosqichlarida sust o‘zlashtiruvchi talabalarlar sonini sezilarli darajada kamaytirish uchun tegishli pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi, deb hisoblaydi [4, 45].

J.J.Djanabaev fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonini jadallashtirish, aniq maqsadga qaratilgan informatsion tayyorgarlik va kompyuterlashtirishni talab etadi. O‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, kompyuterlashtirish, o‘quv jarayonini jadallashtirish asosini ta’minlaydi [5, 21].

Barcha ta’lim metodlari o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlariga ega, shuning uchun maqsadga, sharoitlarga, mavjud vaqtga bog‘liq holda ulardan uyg‘unlikda foydalanish zarur. Ta’lim sifati o‘qitish va tarbiya sifatining yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Biz muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitishning shart-sharoitlarini, fanga ajratilgan vaqtni va grafik dasturlarning o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda Y.Y.Joxovaning fikrlariga qo‘shilamiz. Y.Y.Joxova o‘zining tadqiqot ishida kompyuterdan foydalanib o‘qitish metodlarining o‘ziga xosliklarini keltirgan. Muallifning ta’kidlashicha, kompyuter asosida o‘qitish amaliyotida ta’limning to‘rtta asosiy:

– ko‘rgazmali tushuntirish;
– reproduktiv;
– muammoli;
– tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin [6, 89];

Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda o‘qitishning reproduktiv metodi pedagog va kompyuter tomonidan talabaga yetkazilgan bilimlarni o‘zlashtirishni va o‘rganilayotgan materialni ko‘paytirish va uni shu kabi vaziyatlarda qo‘llashni, talabaning faoliyatini tashkil etishni ta’minlaydi. Kompyuter yordamida bu usuldan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etish sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, lekin u qo‘llanilayotgan an’anaviy sxemaga nisbatan (kompyutersiz) o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirishga imkon bermaydi. Bu borada muammo va tadqiqot usullaridan foydalanish yanada asosli.

Muammoli ta’lim metodi o‘quv jarayonini bayon qilib, tashkil etish va ma’lum muammoni hal qilish yo‘llarini qidirish uchun kompyuterning imkoniyatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad, talabalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirishni maksimallashtirish. O‘quv jarayonida olingan bilimlar asosida turli toifadagi muammolarni hal qilish, shuningdek, muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bir qator qo‘shimcha bilimlarni chiqarish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va uzatish ko‘nikmalarini egallashga alohida ahamiyat beriladi.

Bakalavrlarni tayyorlashda o‘quv vaqti qisqargan sharoitda o‘quv jarayoni maqsadlariga erishishni ta’minlash uchun auditoriya vaqtidan oqilona foydalanish zaruriyati tug‘iladi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim samaradorligini belgilovchi quyidagi omillarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir: mashg‘ulot shakli;

– o‘qitish va nazorat qilish metodlarining optimal kombinatsiyalarini tanlash;
– o‘qitish sur’ati;
– o‘rganishning hayot bilan ilmiy, tizimli va izchil aloqasi;
– ta’lim vositalarining optimal to‘plami.

Zamonaviy pedagogika o‘qitishning 20 dan ortiq tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi. Tarixan bilimlarni muloqot shakli orqali uzatish usuli sifatida ma’ruza hali ham uzviy intensiv va eng muhim didaktik tizimlardan biri bo‘lib, ta’limning dastlabki va asosiy bosqichlari maqsadlariga erishishga mo‘ljallangan. Ma’ruza individual mashg‘ulotdan guruhli mashg‘ulotga o‘tish bilan kelib chiqqan. Ma’ruzada diqqat, xotira, tasavvur, tafakkurning adekvat tizimi kabi bilim va bilish faoliyati asoslari yaratiladi. Ma’ruza, odatda, isbotlash va asoslash kabi o‘qitish usullarini talab qiladigan tushuntirish materialini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza hali ham o‘qitishning eng keng tarqalgan va muhim shaklidir.

Odatda bilishning ikki turiga ahamiyat beriladi: og‘zaki, nutqqa asoslangan va ko‘rish, tasvirlarga asoslangan. Talabalarning ayrimlarida og‘zaki yetkazilgan ma’lumotni qabul qilishga moyillik bo‘lsa, ayrimlariga esa ma’lumotni tasvirlar yordamida yetkazish talab qilinadi. Mana shunday vaqtlarda, ikkalasini mujassamlashtirib ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misollarni namoyish qilish usuli keksa avlod tajribasini yoshlarga uzatishning tarixan tashkil etilgan usulining davomi bo‘lib, u “men kabi qil” qoidasidan iborat bo‘lgan. Bu usulning zamonaviy talqini hodisalar, jarayonlar, masalalar yechish usullari va turli vositalardan foydalanish yo‘llarini ko‘rgazmali tasvirlashni o‘z ichiga oladi. Misollarni namoyish qilish usuli kerakli natijaga olib keladigan muayyan harakatlarni ongsiz ravishda nusxalashni nazarda tutmaydi, aksincha, o‘rganilayotgan mavzu haqida o‘z fikringizni olishda tarkibiy qismlardan biridir. L.B.Grigorevskiy fikriga ko‘ra, muhandislik grafikasi fanlari qatoriga kiruvchi muhandislik kompyuter grafikasi fanidan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yetarli emas, shuning uchun, ma’ruza mashg‘ulotlari talabalarga ma’lumotni yetkazishning muhim va asosiy vositalaridan biridir. Bundan tashqari, o‘qituvchi yangi kursni o‘qish ja-

rayonida, talaba turli manbalardan to‘plashi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni alohida mavzular va bo‘limlar ko‘rinishida beradi [6, 54].

Yevropa va AQShda M. Sroka, Radovan B., Jelena T., H.Stachel va boshqalar, MDX davlatlarida V.V.Kondratova, J.J.Djanabayev, S.V.Panyukova va boshqalar, O‘zbekistonda A.K.Hamraqulov, Ch.T.Shokirova, N.D. Yadgarov, D.S.Saidaxmedova va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanidan oliy va kasb-hunar ta’limning turli bosqichlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berishgan. Bu tavsiyalar ichida ko‘rgazmalilik prinsipiga alohida e’tibor qaratilgan [7, 37].

Chizmachilik fani o‘quv jarayonini ko‘rgazmali tashkil etish ham ko‘rsatish o‘quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o‘zlashtirishga olib keladi hamda diqqatni barqarorlashtiradi. Dars turi va mavzusiga mos ravishda ko‘rgazmali materiallar tayyorlash, ularni talabaning yoshi va bilish darajasiga muvofiqlashgan bo‘lishi, hamda ulardan foydalanishni samarali usul va vositalar yordamida tashkil etish lozim. “Chizmachilik” fanida ko‘rgazmali materiallar dars turi va mavzuga qarab turlituman bo‘lishi mumkin. Jumladan:

- Bosma shakldagi materiallar (plakat, tarqatma materiallar va boshqalar).
- Elektron ko‘rinishdagi materiallar (taqdimotlar, shakllar, rasmlar va boshqalar).
- Animatsion ko‘rinishdagi materiallar(multimediali elektron kitob, elektron darslik va boshqalar).
- Vitrual modellar (detallar, uy maketlar, mashina mexanizmlari va modellari).

“Qurilish chizmachiligi” fanidan ko‘rgazmali materiallarini zamonaviy ko‘rinishda yaratish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin. Talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish ko‘rgazmalilik darajasiga bevosita bog‘liq. Ko‘rgazmalilik darajasi yuqori bo‘lsa, talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirayotgan bilimi samarali bo‘ladi.

Virtual obyekt modellarini yaratishda ArchiCAD, AutoCAD, 3ds Max, Revit, Sketchup dasturlaridan foydalanish mumkin. Chunki bu dasturlar aynan kompyuterda modellashtirish ishlari uchun mo‘ljallangan. Qurilish sohasidagi fanlarni o‘qitishda amimatsion ta’lim resurslarini ayartishda o‘qituvchilar uchun, asosan AdobeFlash, Photoshop, Adobe Illustrator dasturida yaratish tavsiya etiladi. Birinchidan, yuqoridagi dasrutlar xalqaro standartlarga moslashtirilgan bo‘lib, o‘qituvchi uchun har tomonlama qulaylik yaratadi. Ikkinchidan, bu dastur aynan animatsion elektron ta’lim resurslari sohasidagi qonun-qoidalari asosida ishlash uchun mo‘ljallangan.

Plakatlar tayyorlash uchun MS Word, PhotoShop, CorelDraw dasturlaridan foydalanish mumkin. Qurulish sohasidagi fanlarnii o‘qituvchilari MS Word va PhotoShop dasturlari imkoniyatlaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Matnlarni MS Word dasturi yordamida kiritish va unga dizayn berish o‘qituvchilar uchun qulay hisoblanadi. PhotoShop dasturida tasvirlarni qayta ishlash va dizayn berish imkoniyatlariga ega.

Tarqatma material tayyorlashda MS Word, ArchiCAD, Revit, Paint NET dasturlaridan foydalanish mumkin. Bu dasturlar yordamida o‘qituvchilar tarqatma material uchun kerakli bo‘lgan matn, grafik topshiriq va chizmalarni dizayni, sifatini zamon talabi asosida tayyorlash imkoniyatlari mavjud.

Multimediali dars ishlanmalari tayyorlashda Adobe Flash, ArchiCAD, Snagit dasturlari yordamida yaratish mumkin. Adobe Flash dasturi chizmachilik fanidagi turli xil chizmalar va topshiriqlarni animatsiyali ko‘rinishga o‘tkazish uchun eng qulay dasturlar turkumiga kiradi. Elektron darslik barcha o‘quv jarayonining didaktik sikli: nazariy ma’lumotlar, masalalarni echish ketma-ketliklarini animatsion ko‘rinishda bo‘lishi, ta’lim jarayonida foydalanishi, olingan bilim darajasini nazorat qilish hamda ma’lumotlarni qidirish tizimining mavjudligi kabi ko‘rsatkichlariga ko‘ra boshqa darsliklardan ajralib turadi.

Multimediali elektron kitob quyidagi dars maqsadlarida foydalaniladi:

Ta’limiy maqsadi: talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni fazoviy tasavvur qilish orqali o‘rganishi va amaliy dars jarayonida shu bilimlar asosida grafik topshiriqlarni bajarishni tashkil etish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni fazoviy tasavvur qilish orqali egallash jarayonida ularning ketma-ketligini aniq tushunib olish hamda real hayotda zaruriy vosita sifatida qo‘llash, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha rivojlangan fazoviy tasavvur asosida bilimni ko‘nikmaga, ko‘nikmani esa malakaga aylantirish va mustaqil ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Videodarslar quyidagi turlarda bo‘ladi:

1-dars jarayonini bevosita kuzatish va unda bilim beruvchi (ma’ruzachi-o‘qituvchi) ishtirok etadi, unda ma’lumotlarni ko‘rish, eshitish, o‘rganish hamda o‘zlashtirish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

2-berilayotgan bilim beruvchi ishtirokisiz ovozli yoki ovozsiz faqat bajariladigan jarayon tasvirlanadi. Bu bo‘lim ko‘proq ma’ruza darslariga to‘g‘ri keladi. Ular agar talaba ma’ruza darsida tushunmagan joyi yoki ma’lumoti bo‘lsa, uni bemalol o‘qituvchi yordamisiz o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada o‘zlashtirilayotgan bilimni ko‘nikmaga aylanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi.

Xulosa talabalar texnika fanlarini o‘qishida, eng avvalo chizmalar, grafiklar, shakllarni chizish va ularni o‘qiy olishi lozim. Buning uchun topshiriqlar to‘plami sifatli bo‘lishi talab etiladi. Sifatli grafik topshiriqlar to‘plamini yangidan ishlab chiqish zarurligi o‘zining yechimini kutmoqda. Bu muammoni maqbul yechimini topish uchun fan bo‘yicha darajali grafik topshiriqlar to‘plamini elektron versiyasini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Павлова Л. В. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов технического вуза с использованием комплекса занимательных заданий по инженерной и компьютерной графике: Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: РГБ, 2003. – 181с.
2. Чернякова Т.В. Методика обучения компьютерной графике студентов вуза. Дисс... канд. пед. наук. – Екатеринбург. 2010 г – 201 с.
3. Рузиев Э.И. Научно–методические основы подготовки учителей графики в высших учебных заведениях: Автореф. дисс. док. …пед. наук. – Т., 2005. – 44 с.
4. Пузанкова А. Б. Формирование профессиональных инженерно- графических компетенций студентов в процессе их обучения компьютерной графике (на примере специальностей машиностроительного профиля). Дисс. пед. наук. 13.00.08. – Самара. 2012. – 190с.
5. Джанабаев Ж.Ж. Совершенствование содержания инженерно- графической подготовки специалистов в условиях развития информационных технологий. Автореф. … дисс. док. пед. наук. – Караганда, 2004. – 40с.
6. Григоревский Л.Б. Разработка тематический классификаторов для повышения качества изучения студентами начертательной геометрии и инженерной графики: Дисс канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: РГБ, 2005. – ст 189.
7. Катханова Ю. Ф. Компьютерные технологии на уроках изобразительного искусства / Ю. Ф. Катханова, О. В. Караваева // Научные исследования: от теории к практике. – 2016. – №1. – С. 36–40.

TALABALARNING YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Navbahor Abramova,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuv kompetensiyasini til ta’limi tizimida o‘qitishning ahamiyati va uning lingvodidaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, yozuv, yozuvning asosiy va yordamchi ko‘nikmalari, yozuv malakalari, yozuv kompetensiyasining asosiy komponentlari va mezonlariga doir ilmiy-nazariy qarashlarning tahlillari hamda yozuvni tekshirishga bo‘lgan yondashuvlar tasnifi bayon qilingan. Yozuv talabalarga o‘z fikrlari, g‘oyalari, his-tuyg‘ulari va bayonotlarini yozma ravishda yetkazish imkonini beradigan samarali ko‘nikmalardan biridir. Barcha to‘rtta til ko‘nikmalari orasida yozuv ko‘p mehnat va sabr-toqatni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: *yozuv, yozma nutq, yozuv kompetensiyasi, yozuv malakasi, yozuv ko‘nikmasi, yondashuv, bevosita yondashuv, bilvosita yondashuv.*

Аннотация

В данной статье анализируется значение обучения письменной компетенции в системе языкового образования и ее лингводидактические особенности. В частности, изложен анализ научно-теоретических взглядов на письмо, основные и вспомогательные навыки письма, навыки письма, основные компоненты и критерии компетентности письма, а также классификация подходов к проверке письма. Письмо-один из эффективных навыков, который позволяет студентам выражать свои мысли, идеи, чувства и утверждения в письменной форме. Среди всех четырех языковых навыков письмо требует много работы и терпения.

Ключевые слова: *письмо, письменная речь, письменная компетентность, письменная компетентность, письменные навыки, письменный подход, прямой подход, косвенный подход.*

Annotation

This article analyses the significance of teaching writing competence in the system of language education and its linguodidactic features. In particular, the analysis of scientific-theoretical views on writing, basic and auxiliary writing skills, writing skills, basic components and criteria of writing competence, as well as the classification of approaches to writing test are outlined. Writing is one of the effective skills that enables students to express their thoughts, ideas, feelings and statements in writing. Among the four language skills, writing requires a lot of work and patience.

Keywords: *writing, written speech, writing competence, writing qualification, writing skills, writing approach, direct approach, indirect approach.*

Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirilishi natijasida o‘z kasbining mutaxassislarini tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [1] keltirilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash [2] bo‘yicha qator vazifalar belgilanib, bu borada bugungi kunda ingliz tilini chuqur o‘qitish maqsadida talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga katta e’tibor qaratish hamda oliy ta’limni modernizatsiya qilish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida nafaqat til va madaniyatlar o‘rtasidagi yozma aloqani yaxshilash, balki biznes, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalarda ham yozma muloqotdan samarali foydalanish talabi chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyatini yanada oshirmoqda [3, 225]. Chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish uchun til o‘rganuvchilarda kognitiv qobiliyat, ya’ni tildan foydalanishda o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalarning jamlanganligi hamda ijtimoiy-madaniy hodisaga oid maqsadlarining mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Talabalarning ham kognitiv qobiliyatga, ham ijtimoiy-madaniy bilimlarga ega bo‘lishi yozuvni takomillashtirish uchun foydali asos bo‘lib xizmat qiladi hamda yozuv qobiliyatini rivojlantirishda tili o‘rganilayotgan mamlakat tilini bilish bilan birgalikda uning madaniyatini ham chuqur o‘rganish yozma muloqotga kirisha olish jarayonini yanada jadallashtiradi. Demak, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda kognitiv bilimlardan foydalanish talabalarda tilni o‘rganishga oid bilim va ko‘nikmalarni boyitishga xizmat qilsa, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga oid bilimlarga ega bo‘lish esa har qanday holatda ham samarali yozma muloqot qila olish imkonini beradi.

Yozuv nutq faoliyatining bir turi sifatida nutqiy qobiliyatning asosini tashkil etadi va ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish til o‘rganuvchilar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Binobarin, til o‘rganuvchilar o‘z muvaffaqiyatlarini yozish ko‘nikmalari qanchalik darajada yaxshilanganligidan kelib chiqib baholaydilar.

Professor B.V.Belyayev “yozuv” va “yozma nutq”ni farqlamaslikni, balki ularni sinonim holda ma’lum bir kontekstlarda ishlatishni taklif qiladi. Uning fikricha, “yozma nutq” nutq turi emas, balki nutq shaklidir, chunki u og‘zaki nutq asosidagina mavjud bo‘lib, u tafakkur bilan og‘zaki nutq orqali bog‘langan. Yozma nutqqa ko‘rish va qo‘l harakatlari xos bo‘lgani holda u og‘zaki nutqning yozuvdagi ifodasi deb talqin qilinadi [3, 226].

F.Sh.Alimov ham o‘z tadqiqotlarida “yozuv” va “yozma nutq” tushunchalariga nisbatan differensial yondashgan holda yozuv bu o‘zida bir qator sifatlar (grafik, orfografik belgilar va husnixat)ni aks ettiradi, yozma nutq esa kommunikativ vazifani o‘z ichiga olgan mikro hamda makro matnlardan iborat jarayondir deya e’tirof etadi. Shuningdek, yozuvga axborot berish va saqlash bilan bog‘liq faoliyat turi va ushbu faoliyat mahsulidir deb aytadi va yozuv bilan yozma nutq o‘rtasidagi farq ko‘rsatilmagan holda u og‘zaki nutqqa yordamchi muloqot vositasi sifatida talqin etilgan [4, 140].

Yozuv talabalarga o‘z fikrlari, g‘oyalari, his-tuyg‘ulari va bayonotlarini yozma ravishda yetkazish imkonini beradigan samarali ko‘nikmalardan biridir. Barcha to‘rtta til ko‘nikmalari orasida yozuv ko‘p mehnat va sabr-toqatni talab qiladi. Dars mashg‘ulotlari jarayonida talabalar o‘qituvchi tomonidan berilgan nutq namunalaridan unumli foydalanishga, ularni tahlil qilib o‘rganishi natijasida o‘z yozuv uslublarini yaratishga harakat qilishlari lozim. Tahlil davomida talabalardan kognitiv tahlil va lingvistik sintezlarga asoslanish talab etilsa, o‘qituvchidan esa ularni doimo nazorat qilib borish, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish talab etiladi. Shuning uchun, yozuv ko‘nikmasini kompetensiya darajasigacha takomillashtirish uchun ham o‘qituvchilardan, ham talabalardan katta kuch sarflash va mashq jarayoni uchun ko‘proq vaqt ajratish talab etiladi.

S.Bukovskiy o‘z tadqiqotlarida “yozuv ko‘nikmalarini bir necha turlarga ajratadi va o‘z tarkibida quyidagilarni qamrab olishini ta’kidlaydi” [2, 25] (1- rasmga qarang).



1-rasm. Yozuv ko‘nikmalarining turlari

Bizning fikrimizcha, o‘rganilayotgan til madaniyati kontekstida yozma shaklda muloqot qilish jarayonida ko‘zlangan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun talabaga imkon yaratuvchi vosita yozuv ko‘nikmalari sanaladi. Shu boisdan, “talabalar yozuv kompetensiyasini takomillashtirishdan avval yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratishi juda muhim”.

“Yozuv malakalariga erishish uchun qayd etilgan ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish kerak bo‘ladi. Yozuv malakalari quyidagi ko‘nikmalardan tashkil topadi” [2, 25] (2- rasmga qarang).



2-rasm. Yozuv malakalarining asosiy ko‘nikmalari

J.B.Heaton fikricha, “yozuv malakalarini puxta o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, talabalar o‘quv mashg‘ulotlari davomida grammatika va ritorikani, konseptual va to‘g‘ri qaror qabul qila olish elementlarini o‘rganish bilan cheklanmasdan, balki quyidagi rasmda berilgan yozuv ko‘nikmalarining asosiy turlarini ham o‘rganishi lozim” [3, 35] (3- rasmga qarang).

3-rasm. Muhim bo‘lgan yozuv ko‘nikma turlari

Darhaqiqat, husnixat ko‘nikmasi, imlo ko‘nikmasi, nutq tuzish ko‘nikmasi hamda yozuvning leksik va grammatik ko‘nikmalari barchasi yozuv malakasining asosiy ko‘nikmalari qatorini tashkil etadi. Muhim bo‘lgan yozuv ko‘nikma turlariga esa til materiallarining asosi bo‘lgan grammatik qoidalar va so‘z boyligidan gaplar tuzishda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalari, talaffuz va imlo qoidalariga amal qilgan holda gaplarni mazmunan bir-biriga bog‘lash, yozilgan gaplarni qayta tahlil qilib, mazmunan mos kelmagan gaplarni olib tashlash kabi mazmunni qayta ishlash ko‘nikmalari, gaplar va paragraflar orasidagi bog‘liqlikni stilistik ko‘nikmalar yordamida ta’minlash hamda muayyan bir maqsadga muvofiq yozma ishlar uchun to‘g‘ri ma’lumotlarni tanlay olish va ularni tartibga solish to‘g‘risida to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish ko‘nikmalari kiradi.

Ingliz tilini o‘rganishda talabalarning yozuv malakasi shakllanganlik darajasiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– murakkab mavzularda muhim jiddiy masalalar ta’kidlangan, nuqtayi nazar, qo‘shimcha fikr-mulohazalar, dalillar va mos misollar bilan asoslangan, bayon, xulosalar bilan yakunlangan, aniq ijobiy tizimlashtirilgan matnlarni yoza olish;

– tushunarli, mantiqiy tuzilgan, kengaytirilgan shaklda va ko‘zda tutilgan kitobxon uchun tabiiy sanalgan shaxsiy uslubga tayanib, erkin tarzda tavsiflar bera olish yoki to‘qima matnlar yoza olish;

– qiziqarli mavzuga bag‘ishlangan ma’ruzalar jarayonida axborotlarni boshqalar ham foydalana olishi uchun batafsil va tushunarli yoza olish; murakkab davomli matnni qisqacha bayon qila olish; matnning aniq, to‘g‘ri, tushunarli grafik tuzilishini taqdim qila olish va imlo qoidalariga rioya qilish.

F.Sh.Alimov ham “yozuv texnikasi husnixat, orfografik qoidalar va grafik belgilarni o‘z ichiga oladi. Yozuv texnikasini o‘stirish va husnixatni egallash grafik va orfografik malakalarni o‘stirish bilan bog‘liq. Yozma fikr bildirish malakasi esa nutqiy vaziyat, kommunikativ muloqotdan ko‘zlangan maqsad, fikrni ifodalashdagi mantiqiylik, leksik-grammatik vositalardan foydalanish, ularning til va nutq normalariga mosligi bilan bog‘liq bir qator omillar bilan farqlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, har ikkala malakalarni o‘stirish ularning psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish asosida olib boriladi”.

Yozuv texnikasini kuchaytirish va husnixatga oid bilimlarni puxta egallash grafik va orfografik malakalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, yozma fikrni bayon etish malakasi esa yozma muloqot jarayonining maqsadidan kelib chiqib muloqot davomida grammatik va leksik birliklardan to‘g‘ri foydalanib, muloqotni mantiqiy bog‘liqlikda, til va nutq qoidalariga mos hamda baholash mezonlariga ko‘ra tashkil etishga qaratilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, har ikkala malakalarni rivojlantirish ularning psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish asosida olib boriladi. Yozuv bir vaqtning o‘zida nutqiy faoliyatning ham mahsuldor shakli sifatida metodologiya rivojlanishining zamonaviy bosqichida xorijiy tillarni o‘rganishning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yozuvni kompetensiya darajasigacha takomillashtirish hozirgi zamonaviy ta’limning talabi bo‘lib kelmoqda.

“Yozuvni tekshirishga bo‘lgan yondashuvlar ikkiga bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. Yozuvni bevosita nazorat qilishda talabalarning yozish jarayonida matn bilan muloqot qila olish qobiliyatlari nazorat qilinadi. Ushbu yondashuv talabalardan mazmun, fikrlar yorqinligi, mos keladigan leksik birliklar va grammatikani to‘g‘ri qo‘llashni talab qiladi. Yozuvni bilvosita nazorat qilish esa yozuvning barcha elementlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash demakdir”. Demak, “yozish jarayoni turli vaziyatlarda bevosita va bilvosita yondashuvlar asosida muloqotning shakllangan salohiyatini o‘zida ifodalaydi. Yozuvda o‘qilgan matn bo‘yicha o‘z fikrini ifoda etish qobiliyati ya’ni yozuvdagi kommunikatsiya malakalarini bilvosita yondashuv asosida baholansa, bevosita baholashda esa talabalarning yozuvidagi grammatik va imlo xatolari gap darajasida tekshirilishiga e’tibor qaratilishi” muhim ekanligi ta’kidlangan.

J.B.Heaton o‘z tadqiqotlarida “talabaning yozuv kompetensiyasi ravon, to‘g‘ri va aniq bo‘lishi uchun quyidagi asosiy besh yozuv komponentlariga e’tibor qilishlari muhimligini ta’kidlab o‘tgan va ularning har biriga atroflicha to‘xtalgan” [7,35]:

1. Mazmun (Content) — g‘oyalarni yaratish va yordamchi tafsilotlarni taqdim etish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, yozma matnning har bir bandi (paragrafi)da asosiy g‘oya va yordamchi tafsilotlar bo‘lishi bilan belgilanadi. O‘z navbatida paragrafdagi asosiy g‘oyani bevosita yoki aniq ifodalash mumkin hamda mazmunning kerakli axborotga egaligi, mazmunli va berilgan mavzuga mos bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

2. Tashkiliy tuzilish (Organization) — yozuv shunchaki muallifning qog‘ozga qalam tekkizishi yoki g‘oyalarni yozib olishi emas, balki ushbu g‘oyalarni u qanday taqdim etishi yoki samarali ifoda eta olishi bilan bog‘liq komponentdir. Yozma shakldagi fikrlar aniq, mantiqiy ketma-ketlikda, yaxshi tashkil etilgan va izchil bo‘lishi lozim, ya’ni yaxshi yozuv izchillik va uzviylik tamoyillariga asoslangan bo‘ladi.

3. So‘z tarkibi (Vocabulary) — muallifdan yozma nutqda so‘zlarini diqqat bilan tanlashni talab qiluvchi muhim aspekt, ya’ni yozuvchining so‘zlardan unumli foydalana olishi, so‘z yasashni o‘zlashtirib olishi, ayrim so‘zlarni o‘z o‘rinlariga mos ravishda qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, talabadan deyarli katta hajmdagi lug‘atni egallash talab etiladi, chunki uning yo‘qligi yoki tor doirada cheklanganligi ham yozish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

4. Tildan foydalanish (Language use) — grammatika va jumlalar qurishni o‘z ichiga oluvchi jihat, ya’ni talabalar kelishik, zamon, so‘z tartibi, artikl, olmosh va yuklamalar kabi to‘g‘ri grammatikadan foydalanishlari kerak. Jumladan, talabalar jumlalarni qurish qoidalarini ham bilishlari kerak.

5. Mexanika (Mechanics) — yozuvning texnik jihatlarini tavsiflash uchun ishlatiluvchi atama, ya’ni xatosiz yozish uchun talabalar imlo, tinish belgilari, bosh harflar va paragraflarni o‘z ichiga olgan to‘g‘ri mexanikadan foydalana olishlari lozim. Natijada yaxshi mexanika matnni o‘qishni osonlashtiradi va ko‘proq talabalarni o‘ziga jalb qiladi”.

Shuni ta’kidlash kerakki, talabalar yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda, avvalo bermoqchi bo‘lgan g‘oyalarining mazmunan mavzuga mosligi, tanlangan g‘oyalarni mos so‘zlardan foydalanib yozma nutqida aks ettira olishi, grammatik va leksik jihatdan to‘g‘ri jumlalarni shakllantira olishi hamda imlo, tinish belgilarni to‘g‘ri qo‘llay olishi kabi yozuvning asosiy komponentlaridan xabardor bo‘lishlari va egallangan bilimlarini yozma nutqida qo‘llay olishlari lozim. Talabalarda yozuv kompetensiyasini takomillashtirishlari uchun tinimsiz harakat va doimiy amaliyot bo‘lishi lozim. Talabaning yozuv uslubi uning individualligi, o‘ziga xosligi, fikrlarining yakdilligiga urg‘u beradi va yozuv jarayonini o‘ziga xos o‘z uslubida tashkil etishi uning yozuv kompetensiyasini yuqori darajadaligidan dalolat beradi.

H.D.Braun ta’limotiga ko‘ra yozuv janrlari esa uch xil bo‘lib, ularga akademik yozuvlar, kasbga oid yozuvlar va shaxsiy yozuvlar kiradi [6, 139] (4-rasmga qarang).

4- rasm. Yozuv janrlariga oid yozuv turlari

“Yozuv kompetensiyasi ikki komponentdan iborat bo‘lib, birinchisiga yozuvga xos xususiyatlar (grafik belgilar, orfografik qoidalar, nutq-motor harakati, tovush-harf munosabati bilan bog‘liq ko‘nikmalar) kirsa, ikkinchisini yozma fikr bildirishga oid kreativ ko‘nikmalar tashkil qiladi. Birinchisi, ya’ni yozuv, orfografik qoidalar asosida to‘g‘ri so‘zlar va gaplar yozishga, ikkinchisi, o‘rganilayotgan chet til normasiga ko‘ra bog‘liq fikr bildirishga yordam beradi” [5, 728].

Ushbu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yozma nutqni to‘g‘ri va ravon tashkil etishda yozuvga xos bo‘lgan orfografik qoidalarni, gaplar tuzish tartibi kabi tilga oid lingvistik bilimlardan keng foydalanishni bilishi hamda o‘rganilayotgan til madaniyatiga oid madaniy bilimlar va qoidalarni yozma nutqida tanqidiy va ijodiy yondashgan holda qo‘llay olishi muhim sanaladi.

Doimiy ravishda ishlatiladigan to‘rt xil yozuv turi bo‘lib, ushbu turlarga tegishli bo‘lgan yozuvning ko‘plab yordamchi ko‘nikmalari mavjud. Yozuvchi o‘z yozuvining maqsadini aniqlash va tinglovchilar uni o‘qishni xohlashiga ishonch hosil qilish uchun ushbu uslublarning barchasini bilishi lozim (5-rasmga qarang).

Darhaqiqat, talabalar yozma ish yozish jarayonida nutq faoliyati sifatida yozuvning asosiy ko‘nikmalaridan va mexanik, grammatik, asoslash va nutq ko‘nikmalari kabi yozuvning yordamchi ko‘nikmalaridan to‘g‘ri foydalana olishi ularga hech qanday qiyinchiliklarsiz yozma ishlarini yozish imkonini beradi. Masalan, asosiy ko‘nikmalar grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarni tuzishga yordam bersa, yordamchi ko‘nikmalar esa chuqur tahlil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda lingvomadaniy yondashuvning o‘rni muhim bo‘lib, unda talabalardan tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniyatidan doimiy ravishda xabardor bo‘lib borishlarini va yozuv jarayonida egallangan lingvistik va madaniy bilimlarini amalda qo‘llab borishni talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori.
3. Richards, J. C. From meaning into words: Writing in a second or foreign language The language teaching Matrix. Cambridge: Cambridge University Press. 1990. P 350.
4. Жалолов Ж.Ж. English language teaching methodology. – Т.: Фан ва таълим нашриёти. 2015. – Б. 200.
5. Гуркина А.Л. Развитие иноязычной коммуникативной компетенции как основная цель обучения иностранному языку//Молодой учѐный. – М.: 2015. – №12. – С. 726-729.
6. Дубова М.В. Компетентность и компетенция как педагогические категории: определение, структура, классификация // Гуманитарные науки и образование. – № 2 (6) – М., 2011.ст 138-145.
7. Canale M.&Swain M. Theoretical basis of communicative approaches to second Language teaching and testing// Applied Linguistics. 1980. – №1. – V.1 p. –1-47.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Oydin Mo‘minova,
O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada o‘zbek tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning nozik jihatlari yoritilgan. Tilni o‘zlashtirish, ayniqsa, kommunikativ kontekstda, lingvistik, ijtimoiy-madaniy va pragmatik o‘lchovlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Maqolada o‘zbek tili ta’limida kommunikativ kompetensiyalarni oshirishning samarali strategiyalarini yoritish uchun nazariy asoslar, pedagogik yondashuvlar va empirik tadqiqotlar umumlashtiriladi. Kommunikativ tilni o‘qitish tamoyillari va zamonaviy ta’lim metodologiyalaridan kelib chiqqan holda, u til o‘rganish muhitini optimallashtirish, haqiqiy materiallarni birlashtirish, o‘zaro ta’sirni rag‘batlantirish va o‘quvchilarning mustaqilligini mustahkamlash bo‘yicha tushunchalar beradi.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiyalar, o‘zbek tili, til o‘zlashtirish, til ta’limi, kommunikativ til o‘rgatish, pedagogik yondashuvlar.*

Аннотация

В данной научной статье описаны тонкие аспекты формирования и совершенствования коммуникативных компетенций на занятиях по узбекскому языку. Овладение языком, особенно в коммуникативном контексте, включает в себя многогранные процессы, включающие лингвистические, социокультурные и прагматические аспекты. В статье обобщены теоретические основы, педагогические подходы и эмпирические исследования, призванные выделить эффективные стратегии улучшения коммуникативной компетентности в обучении узбекскому языку. Опираясь на принципы коммуникативного преподавания языка и современные образовательные методики, он дает представление об оптимизации среды изучения языка, интеграции аутентичных материалов, поощрении взаимодействия и развитии независимости учащихся.

Ключевые слова: *Коммуникативные компетенции, узбекский язык, овладение языком, языковое образование, коммуникативное обучение языку, педагогические подходы.*

Annotation

This scientific article describes the subtle aspects of the formation and improvement of communicative competences in Uzbek language classes. Language acquisition, especially in a communicative context, involves multifaceted processes that include linguistic, sociocultural, and pragmatic dimensions. The article summarizes theoretical foundations, pedagogical approaches, and empirical research to highlight effective strategies for improving communicative competence in Uzbek language education. Drawing on communicative language teaching principles and modern educational methodologies, it provides insights into optimizing the language learning environment, integrating authentic materials, encouraging interaction, and fostering learner independence.

Keywords: *Communicative competences, Uzbek language, language acquisition, language education, communicative language teaching, pedagogical approaches.*

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishni, ularning filologik tayyorgarligini takomillashtirishni, ular bilan o‘zaro munosabat jarayonida turli vaziyatlarda fikr almashishni taqozo etadi. N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ayniqsa diqqatga sazovor: “Har qanday til ta’limida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o‘tish mumkin emas. Tilni o‘zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo‘llash malakasi shakllanmagan bo‘lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul” [1, 39]. Darhaqiqat, nimani o‘rgatish lozimligini aniqlashdan oldin ta’lim oluvchining kimligini bilish ta’lim mazmunini belgilash uchun o‘ta muhim sanaladi. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitiladigan mutaxassisliklarda o‘qitish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishga, xususan, talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasida muloqot ko‘nikmalarini, mutaxassislik atamalari bilan ishlash va turli matnlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Zero, rusiyzabon fuqarolar o‘zbek tilida nafaqat og‘zaki muloqot yurita olishlari, balki davlat ta’lim standartlarida belgilab qo‘yilganidek, “yozma savodxonlikka ham ega bo‘lishlari, o‘z ixtisosliklari doirasida va ma’muriy-boshqaruv tizimida bemalol rasmiy ish yurita oladigan bo‘lishlari zarur” [2, 46]. Oliy ta’lim uchun o‘quv dasturida “O‘zbek tili” fanining maqsadlaridan biri talabalarga matnlarning asosiy mazmunini yetkazish, ularning konseptual ma’lumotlarini shakllantirish, matn bo‘yicha xulosa chiqarish va tavsiflashga o‘rgatish; matn ma’lumotlarini sharhlash, matnlarning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy va kasbiy sohalaridagi uslubi va janrining o‘ziga xosligini tushuntirish ekanligi ta’kidlanadi. Binobarin, matn o‘qitishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi, chunki u asosan kasbiy ahamiyatga ega leksika va mavzuga doir materiallarga boy bo‘ladi.

Zamonaviy talablarga muvofiq, o‘quv faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar bo‘lajak mutaxassislarda shakllanishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarni taqdim etadi. Kommunikativ kompetensiyalarga alohida o‘rin beriladi, chunki “muloqotning maqsadlari, sohalari va vaziyatlari bilan adekvat muloqot qilish qobiliyati va tayyorligi, og‘zaki o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga tayyorlik” haqida gap ketadi. [3, 8]. Ma’lumki, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish darajasi to‘g‘ridan to‘g‘ri talabaning nutq faoliyatidagi barcha turlarini (o‘qish, tinglash, gapirish, yozish) qanchalik o‘zlashtirganiga bog‘liq bo‘lib, bu uning muloqot qobiliyatlarini belgilaydi.

Kommunikativ qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

1) nutqiy vaziyatga mos ravishda muloqot qilish uchun lingvistik vositalarni ongli ravishda tanlash;

2) aloqaga kirishayotgan sheriklarining yoki faoliyatning pozitsiyalarini hisobga olish; tinglash va muloqotda qatnashish, muammolarni jamoaviy muhokama qilishda ishtirok etish, guruhga qo‘shilish va samarali hamkorlikni o‘rnatish;

3) og‘zaki va yozma nutqni yetarli darajada tushunish va uning mazmunini kerakli darajada aytish;

4) turli janr va uslubga mansub mustaqil nutqni yaratish [4, 37].

Ushbu vazifalarga muvofiq, rusiyzabon talabalarga o‘zbek tilidan amaliy mashg‘ulotlarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha topshiriqlar tizimini yaratish lozim bo‘ladi. O‘zbek tilidagi amaliy mashg‘ulotlarda kommunikativ vazifalar, birinchi navbatda, matn bilan ishlashga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunda eng muhim uslubiy muammolardan biri bu chet tilini o‘qitish uchun o‘quv va ilmiy matnlarni tanlash mezonlarini aniqlashdir. T.I.Chijova quyidagi mezonlarni belgilaydi:

1) matnnig ommabopligi;

2) ma’lumotlarga boyligi;

3) yaxlit shakllantilganligi;

4) matnni semantik qismlarga ajratilganligi;

5) matnning yagona semantik izchilligi;

6) o‘qitish bosqichlari [5, 262].

Bizning fikrimizcha, matnlarni tanlashda materialning mazmuniy ahamiyatini hisobga olish muhim, bu esa o‘quvchilarda kelajakdagi mutaxassisligining asosi bo‘lgan fan sohasidagi yutuqlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish va chuqurlashtirish imkonini beradi. Bunday materiallarning manbalari ilmiy jurnallar, maqolalar, mutaxassislik bo‘yicha darsliklar va Internet manbalari bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, filologiya ixtisosligi talabalariga “Tilning kelib chiqishi va ijtimoiy vazifasi”, “So‘z zavqi”, “Til mavqei-el mavqei” kabi matnlar beriladi. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish matn ustida ishlashning birinchi bosqichidan boshlanadi, bunda o‘quvchilarga matn mazmuni va tuzilishini tahlil qilish bilan bog‘liq topshiriqlar beriladi:

1) Matnni o‘qing, tayanch so‘z va gaplarni ajratib ko‘rsating;

2) matn sarlavhasini qo‘ying (tanlovingizni asoslang);

3) matn mavzusini aniqlang (nega bunday qarorga keldingiz?);

5) matnning asosiy g‘oyasi nima? (kalit so‘zlar matnning asosiy g‘oyasini qanday tasvirlaydi?);

6) matnning nutq uslubi va turini aniqlang (tanlagan uslubning til xususiyatlarini, shuningdek, ushbu nutq turi matnining asosiy xususiyatlarini eslab, javobingizni asoslang).

Mazkur taklif etilgan topshiriqlar o‘qish va gapirish kabi nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, yozma nutqni rivojlantirish uchun esa quyidagicha yozma topshiriqlarni berish mumkin:

1) matn bo‘yicha savollarga yozma ravishda javob berish;

2) ajratilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntirish;

3) matnni mazmuniy qismlarga ajratib, reja tuzish (bunda qanday reja tuzish kerakligini qayd etish mumkin: savol, sarlavha, tezis va boshqalar).

Oxirgi vazifani bajarish matndagi asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish qobiliyatini ko‘rsatadi. Keyin ma’lumotni ixchamlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan vazifalarni taklif qilish mumkin, bu ham o‘rganishning kommunikativ maqsadlariga javob beradi, chunki amalda kerakli ma’lumotlarni qisqa va ixcham yetkazish muhim, talabalar hisobot matnlarini, maqolalar va boshqalarni qisqartirishni, bir so‘z bilan aytganda, ikkilamchi matnlarni, ya’ni tezis, referat, konspekt, annotatsiya va boshqalarni ham tuzishni o‘rganadilar. Sanab o‘tilgan janrlarning har biri aniq vazifalarni shakllantirishni talab qiladi. Masalan, annotatsiyani tuzish uchun quyidagi vazifalarni berish mumkin:

1) matnni mazmunli bo‘laklarga bo‘lish;

2) har bir qismning asosiy ma’lumotlarini ajratib ko‘rsatish;

2) ajratilgan ma’lumotlarni 2-3 so‘zdan iborat iboralarga teng qisqa gaplar shaklida yozish;

3) ushbu matn kimga yozilishi mumkinligini aniqlash;

4) tayyor konstruksiyalardan foydalanib (matnda... haqida so‘z boradi, matn ... mavzuga bag‘ishlangan, matnda .... mavzu haqida gapirilgan... va hokazo), matn mavzusini yozish;

5) qolgan konstruksiyalardan foydalanib, matnda muhokama qilingan asosiy muammolarni tashkil etuvchi, yozgan iboralarni bir yoki ikki gapda sanab berish (matn muallifi batafsil bayon qiladi..., matnda... kabi masalalar muhokama qilinadi, ,...ning ahamiyati qayd etilgan).., ... deyiladi va hokazo);

6) zarur konstruksiyani tanlab (matn... uchun mo‘ljallangan, ...ga qaratilgan, foydali bo‘lishi mumkin..., tavsiya etilgan... va hokazo) ushbu matn kimga mo‘ljallanganligini izohlash.

Yuqorida keltirilgan algoritmga rioya qilish natijasida talabalar bu janrning tuzilishiga qo‘yiladigan barcha talablarga rioya qilgan holda annotatsiya matnini tuzadilar. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida ular nafaqat matnni tahlil qilish qobiliyatini, balki ko‘rib chiqilayotgan har bir matnning maqsadi, vazifasi va manzilini ajrata olish ko‘nikmasini ham mustahkamlashadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni takomillashtirish muayyan uslub va janrdagi matnning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq vazifalarni bajarishni talab qiladi. Kasbiy yo‘naltirilgan matnlar asosan ilmiy uslubdagi matnlardir, ya’ni leksik darajani tahlil qilish bo‘yicha kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi topshiriqni berish mumkin:

1) Jadvalga keng tarqalgan ilmiy leksika va terminlarni yozish. Bu topshiriq nafaqat ilmiy uslubning xususiyatlarini mustahkamlashga yordam beradi, balki talabalarni kerakli elementlarni aniqlash va ularni mutaxassislik terminlari bilan tanishishga o‘rgatadi.

2) Ajratilgan so‘zlar uchun sinonim yoki antonimlarni tanlash — til materialini o‘zgartirish, lingvistik faktlarni almashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Vazifa turi — “Internet asri ...” iborasini davom ettiring — nutq yaratish, jumlalar va izchil matnlarni tuzishni o‘rgatadi.

Xuddi shu maqsadda matnni tahlil qilish va tahrirlash qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlar shakllantiriladi: xatolarni tuzatish, matnni o‘zgartirish, matn mazmunini qayta tiklash va hokazo. Masalan, yetishmayotgan so‘zlarni kiritib, matnni qayta yozish:

Til va jamiyatning o‘zaro munosabati

Chet tillarni ... — yaxshi va juda zaruriy yumush. … ...dan birini egallagan mutaxassisga bugun talab ham, ehtiyoj ham katta. Ammo “xorijiy tillarni ona tilini esdan chiqarish hisobiga … nodurust. Chunki … … ni unutish hisobiga o‘rganilgan xorijiy til ona tilining o‘rnini bosib olishi muqarrarki, bunda milliy tafakkur va milliy idrok butunlay boshqa, begona tafakkur va begona idrokka aylanadi. Afsuski, bugun … … tilida inglizlashuv, inglizcha unsurlar (boshqasini qo‘ya turaylik) ko‘payib bormoqda. Masalan, voy undov so‘zi o‘rnida vau; ma’qul, bo‘pti, yaxshi so‘zlari o‘rnida ok; tashabbus, chaqiriq, da’vat degan so‘zlar bo‘la turib chellenj ommalashmoqda; layk (bos), neyming, xeshteg, teg, blogpost, post, kolumnistga o‘xshash varvarizmlar bisyor. Bunday o‘zlashmalarni tezda aniqlab, tilda “qotib” qolmasdan tegishli muqobillariga … kerak. Chunonchi, layk (bos) so‘zini ma’qulla, neyming so‘zini nom bilan bemalol almashtirsa …. Bitta chelenj so‘ziga …da uchta muqobil bor: tashabbus, chaqiriq, da’vat va ularning har biridan o‘rni bilan foydalansa bo‘ladi. Shuningdek, tilni … … oqibatida kelib chiqqan “kompyuterlarga xizmat ko‘rsatish”, “mashinalarga xizmat ko‘rsatish” kabi noto‘g‘ri tarjimalar urchib bormoqda. Asli bunda kompyuterlarni tuzatish, mashinalarni ta’mirlash deyilsa, ifoda o‘zbekchalashadi va to‘g‘riroq chiqadi. Til va jamiyat … dagi bunday muammolarning kelib chiqishi esa globallashuv ta’siri, kitob o‘qimaslik, til sezgimizning g‘ariblashayotgani … bog‘liqdir..”

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi terminologiyasida bu usul “teshik xat” deb ataladi. Matnni tahrirlash matnni takomillashtirish malakasini rivojlantirishga yordam beradi va fikrini yetkazish uchun ma’no jihatidan eng mos variantni tanlashga o‘rgatadi. Matnni tahrirlash vazifalarini murakkablashtirish mumkin, buning uchun turli matnlardan parchalarni to‘plash va quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1) Turli matnlardan parchalarni o‘qish, ularni ajratib ko‘rsatish;

2) Jami nechta parcha topildi?

3) Ushbu bo‘laklar o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farq bor?

4) Asl matnni tiklash. Matn parchalarining qanday belgilari asl nusxani tiklashga yordam beradi?

5) Ushbu matnlardan qanday hayotiy vaziyatlarda foydalanish mumkin? Masalan:

Millatlarning o‘z milliy qadriyatlariga e’zozi, hurmati va sadoqati qanchalar ulug‘ bo‘lsa, ularning jahonda tutgan o‘rni, nufuzi ham shunchalar yuksak bo‘lib borar ekan.

Shunisi quvonchliki, dunyoga o‘z ezgu-qadriyatla-

ri bilan mashhur bo‘lgan xalqlar ichida biz Vatan deb e’zozlayotgan shu qadim yurtning, ajdodlarimizning ham o‘z o‘rni bor. Ayni paytda, o‘z qadriyatlarimizning umuminsoniy jihatlaridan faxrlanish bilan birga, o‘zga millatlarning betakror urf-odatlariga hurmat bilan qaraymiz.

Men yoshligimdan hindlarning mehmon kelganda, nikoh va boshqa marosimlarda qadrdonlari bo‘yniga gulchambar taqishlaridan ta’sirlanaman. Yana hindlarning ota-onasi bilan ko‘rishayotganda egilib xokipoyini ko‘zga surtishlari, hatto hind ayollarining turmush o‘rtog‘iga nisbatan shunday hurmati ham men uchun nihoyatda go‘zal va betakror bo‘lib tuyuladi. Yaponlar-chi, rahbarmi, oddiy ishchimi, ayolmi yoki erkakmi, bir-birlari bilan duch kelganda nim tabassumda egilib salomlashadi.

Butun dunyodagi juda ko‘p xalqlar biz — o‘zbeklarning ota-onaga, ustozga bo‘lgan hurmatimiz, nonga nisbatan e’zozimiz, marhumlar ruhiga bo‘lgan e’tiborimiz, tug‘ilib o‘sgan makon — Ona yurtga mehr-muhabbatimiz, duoni qadrlashimiz, mahalla-ko‘ydagi oqibatimiz, ibo, hayo, sadoqat, or-nomusni joyiga qo‘yishimizga havas bilan qarashadi, tan berishadi. *(M. Mirzo)*

Bunday topshiriq tushunchalarni ajratish, tahlil qilish, birlashtirish, tizimlashtirish va matnda topilgan birliklarni umumlashtirish ko‘nikmasiga asoslangan bir nechta operatsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi har bir natijaviy matnning xarakterli xususiyatlarini aniqlashda talabalar bilan suhbatni tashkil qilishi kerak. O‘z navbatida, suhbat metod sifatida talabalarni munozaraga jalb qilishga yordam beradi va shuning uchun nutq faoliyatining bir turi sifatida nutqni yaxshilaydi.

Demak, shuni xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bu maqsadli va tizimli uslubiy ishlarni talab qiladi. Shu bilan birga, leksik birliklarni tahlil qilish, ularni o‘zgartirish va o‘z nutqlarini yaratishga qaratilgan topshiriqlar turlarini birlashtirish muhimdir. Matn asosida tuzilgan muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarning matn bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga, mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga, ularning yetuk mutaxassis bo‘lish uchun zarur kasbiy fazilatlarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishda uzliksizlikni ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari. – Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar Markazi. 2008, – 238 b.

2. Быстрова Е.А., Львова С.И. и др. Обучение русскому языку в школе: учебное пособие для студентов педагогических вузов. – М.: Дрофа, 2014. – 237 с.

3. Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими. –Т., 2009. – 1-сон. – Б. 3–9.

4. Ерофеева О.Ю. Типология упражнений по формированию коммуникативных универсальных учебных действий обучающихся на уроках русского языка // Поволжский педагогический вестник. – 2018.– Т.6. – №4 (21). – С. 36-41.

5. Чижова Т.И. Критерии отбора учебных текстов для практических занятий с иностранными учащимися // Материалы междунар. конференции “Проблемы интенсивного обучения неродным языкам”. – СПб, 1994. – С. 257-266.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QUV-INTELLEKTUAL UQUVLARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Muxtarali Sultanov,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ta’limiy-intellektual qobiliyatlar bolaning kognitiv rivojlanishi va o‘quv muvaffaqiyatining asosini tashkil qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish ularning umrbod ta’lim yo‘lida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim muassasalarida ta’limiy-intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirishni optimallashtirishning turli yo‘nalishlari va strategiyalarini o‘rganadi. Ta’lim psixologiyasi, pedagogika va kognitiv fanlardan kelib chiqqan holda, ushbu maqola yosh o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, ijodkorlik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: *sinergetika, pedagogika, sifatli ta’lim, bolalar bilan ishlash, boshlang‘ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.*

Аннотация

Учебно-интеллектуальные умения составляют основу познавательного развития ребенка и его успехов в учебе. Эффективное развитие этих навыков у учащихся начальной школы имеет решающее значение для их обучения на протяжении всей жизни. В данной статье исследуются различные направления и стратегии оптимизации развития учебно-интеллектуальных навыков в начальных образовательных учреждениях. Основываясь на педагогической психологии, педагогике и когнитивной науке, эта статья дает представление о развитии критического мышления, навыков решения проблем, творческих способностей и социально-эмоциональных навыков у младших школьников.

Ключевые слова: *синергетика, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальная школа, классная среда, педагогические консультации.*

Annotation

Educational-intellectual skills form the basis of a child’s cognitive development and academic success. Effective development of these skills in primary school students is critical to their lifelong learning. This article explores various directions and strategies for optimizing the development of educational-intellectual skills in primary educational institutions. Drawing from educational psychology, pedagogy, and cognitive science, this article provides insight into the development of critical thinking, problem-solving skills, creativity, and social-emotional skills in young learners.

Keywords: *synergetics, pedagogy, quality education, working with children, elementary school, classroom environment, pedagogical advice.*

Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari uchun konkret tavsiyalarni muhokama qilib o‘tishdan avval ta’lim jarayonida amal qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lgan asosiy pedagogik sharoitlarga yana bir marta to‘xtalib o‘tishni zarur deb hisoblaymiz.

Maktabda darslarning tashkil etilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha o‘tkazgan kuzatuvlarimiz pedagoglar o‘z ishlarida mazkur sharoitlarga har doim ham amal qilavermasliklarini ko‘rsatdi, shu sababli biz ularga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1. Pedagoglar ishi ham sinergetika g‘oyalari, ham an’anaviy qarashlar asosida, o‘quvchilar rivojlanishida tabiatga muvofiqlik, madaniyatga muvofiqlik va mustaqillikni hisobga olib tuzilgan gumanistik tarbiya tamoyillarini qo‘shib borishi asosida qo‘rilishi lozim.

2. O‘quvchilarda o‘quv-intellektual uquvlarning har birini samarali egallashga yo‘naltirilgan, ularni rivojlantirish bo‘yicha darslar tizimini ishlab chiqilishi zarur.

3. Turli-tuman metodlari: o‘yinli, qisman-izlanishli, tadqiqot metodlari birikmalarini qisman-izlanishli va tadqiqot metodlari ustivorligida loyihalash zarur.

4. O‘quv ishining xilma-xil shakllari birikmasini loyihalash, darslarda frontal va individual shakllar bilan bir qatorda juftli, guruhli, individuallashtirilgan, individuallashtirilgan-guruhli shakllarni ham qo‘llash lozim [1, 55].

Ta’limiy-intellektual qobiliyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu ko‘nikmalarning muhimligini ta’kidlaydigan va ularni ta’lim sharoitida samarali rivojlantirishga turli yondashuvlarni o‘rganadigan boy tadqiqotlarni ochib beradi. Ushbu adabiyot sharhi asosiy topilmalarni sintez qiladi va boshlang‘ich ta’limda ta’limiy-intellektual ko‘nikmalar bilan bog‘liq tadqiqot tendensiyalarini aniqlaydi.

Tanqidiy fikrlash samarali o‘rganish va muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy-intellektual ko‘nikmalarning asosi sifatida keng e’tirof etilgan. Pol va Elder (2006) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va dalillarni qurishga o‘rgatish muhimligini ta’kidlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlanti-

rish uchun Sokratik so‘roq (Chaffee, 2011) va argumentlarni xaritalash (van Gelder, 2005) kabi strategiyalar taklif qilingan [6, 410].

Muammolarni hal qilish qobiliyatlari muammolarni hal qilish va ongli qarorlar qabul qilishning ajralmas qismidir. Vygotskiyning (1978) sotsial-madaniy nazariyasi muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ijtimoiy o‘zaro ta’sir va hamkorlik orqali rivojlanadi, deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Mayer (2004) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muammolarni samarali hal qilishda muammolarni ajratish va strategiyani tanlash kabi metakognitiv strategiyalarning ahamiyatini ta’kidlaydi [5, 785].

Ijodkorlik yangi g‘oyalarni yaratish va turlicha fikrlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Amabilning Ijodkorlikning tarkibiy nazariyasi (1983) ijodkorlikka ichki motivatsiya, sohaga tegishli ko‘nikmalar va qo‘llab-quvvatlovchi muhitning mavjudligi ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kashfiyot, tajriba va tavakkal qilishni rag‘batlantiradigan faoliyatlar orqali ijodkorlikni rivojlantirishi mumkin (Sternberg va Lubart, 1999) [4, 255].

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, empatiya va shaxslararo muloqotni o‘z ichiga oladi, bu ijobiy munosabatlarni o‘rnatish va ijtimoiy kontekstlarni boshqarish uchun juda muhimdir. Brackett va boshqalar tomonidan tadqiqot. (2009) ilmiy yutuqlar va ijtimoiy-emotsional farovonlikdagi hissiy intellektning rolini ta’kidlaydi. CASEL asoslari (Akademik, ijtimoiy va hissiy ta’lim uchun hamkorlik) kabi SEL dasturlari boshlang‘ich ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishda umidvorligini ko‘rsatdi (Durlak va boshq., 2011) [3, 18].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’limiy-intellektual ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali pedagogik yondashuvlari sifatida so‘rovga asoslangan ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va hamkorlikda o‘qitish paydo bo‘ldi. So‘rovga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni faol izlanish va izlanishga jalb qiladi, tanqidiy fikrlash va qiziqishni rivojlantiradi (Milliy tadqiqot kengashi, 2000). Xuddi shunday, loyihaga asoslangan ta’lim amaliy muammolarni hal qilish va fanlararo ta’lim uchun imkoniyatlar beradi (Tomas, 2000). Tengdoshlarni o‘qitish va hamkorlikda guruhda ishlash kabi hamkorlikda o‘rganish strategiyalari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni oshiradi va muammolarni hamkorlikda hal qilishga yordam beradi (Jonson va Jonson, 2009) [2, 169].

Ta’lim texnologiyalari boshlang‘ich ta’limda ta’limiy-intellektual ko‘nikmalarni oshirish uchun innovatsion imkoniyatlarni taklif etadi. Raqamli platformalar, ta’lim ilovalari va simulyatsiyalar turli xil o‘rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan interaktiv ta’lim tajribasini taqdim etadi (Means va boshqalar, 2013). Biroq, texnologiyaning samarali integratsiyasi pedagogik tamoyillar va o‘quvchilarning ehtiyojlarini diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi (Mishra va Koehler, 2006) [2, 152].

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabda ta’lim jarayonida o‘quv-intellektual uquvlarning shakllanish jarayoni maksimal samarali amalga oshirilishi uchun biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quyidagi bir qator tavsiyalarga amal qilishni taklif etamiz.

1. O‘quv-intellektual uquvlarni samarali rivojlantirish ularning xarakterli xususiyatlari hisobga olinishini nazarda tutadi:

– o‘quv faoliyati strukturasiga mosligi bu struktura elementlari faoliyat vazifalari va usullarini rejalashtirish, motivatsiyalash, sa’y-harakatlarni tashkil etish, o‘zini o‘zi nazorat qilishdan iborat);

– bilimlarni o‘zlashtirilish jarayoniga muvofiqligi (u o‘z ichiga maqsadni qabul qilish, o‘zlashtirishni motivatsiyalash, o‘quv axborotini idrok qilish, uni anglash va amaliy operatsiyalar bajarish, joriy o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zlashtirish natijalarining yakuniy tahlilini oladi).

Shular asosida biz, o‘quvchilar uquvlari mazkur guruhining Yu.K.Babanskiy tomonidan berilgan tasnifni boshlang‘ich maktab ta’limi davrida eng samarali deb hisoblaymiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda o‘quv-intellektual uquvlarini rivojlantirish jarayonida har bir o‘quvchiga individual yondoshuvni amalga oshirish va o‘z ishini dissertatsiya tadqiqotimizda ishlab chiqilgan uquvlar guruhining rivojlanish darajalarini hisobga olib tashkil etish muhimdir.

Darsga tayyorlanishda quyidagi texnologik “xarita”: texnologik karta va esdalikni qo‘llash zarur. Darslarda har bir uquvni shakllantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish kerak:

Faoliyatni motivatsiyalash uquvi:

1. Dars mavzusi va maqsadini diqqat bilan tinglang.
2. Darsda nimani bilib olishingizni o‘ylab ko‘ring.
3. Nimani o‘rganishingizni o‘ylab ko‘ring.
4. Bu uquvlar qaerda kerak bo‘lib qolishini aniqlab oling.

Axborotni diqqat bilan idrok qilish uquvi:

1. Topshiriqni eshitayotganingizda yoki tinglayotganingizda chalg‘imang.
2. Topshiriqni yana bir marta eshiting yoki o‘qing.
3. Unda asosiyni ajrating.
4. Qilinadigan ishning ketma-ketligini yodingizga tushuring.
5. Oxirida nima hosil bo‘lishini o‘ylab oling.

Materialni ongli anglab, asosiyni ajratish, ratsional eslab qolish uquvi:

1. Topshiriqni diqqat bilan eshiting yoki o‘qing.
2. Eshitgan yoki o‘qiganingizdan siz nimani bilib olishingizni o‘ylab ko‘ring.
3. O‘qituvchi yoki topshiriq savollariga javob bering.
4. Topshiriqni yana bir marta tinglang yoki o‘qing.
5. Matnni qismlarga ajrating, ularning har birida asosiyni ajrating va tovush chiqarib ayting.
6. Butun matnning asosiy fikrini aniqlang va uni tovush chiqarib ayting.

7. Matnning har bir qismining asosiy fikrlarini esga tushirib, butun matnni takrorlang.

Topshiriqni mustaqil bajarish uquvi:

1. Topshiriqni diqqat bilan tinglang yoki o‘qing.
2. Siz uni qaysi ketma-ketlikda bajarishingizni o‘ylab ko‘ring.
3. Ish oxirida nima hosil bo‘lishini aniqlang.
4. Topshiriqni qunt bilan bajaring.
5. Qiynalganingizda o‘z ishingizni namuna bilan solishtiring.

Faoliyatni o‘zi nazorat qilishni amalga oshirish uquvi:

1. Bajarilgan ishni diqqat bilan ko‘rib chiqing.
2. Ishni namuna bilan solishtiring.
3. Xatolarni topishga va to‘g‘rilashga harakat qiling.
4. O‘z ishingizni mustaqil baholashga harakat qiling.

Shuningdek, keyinchalik yuqoriroq tartibli o‘quv-intellektual uquvi bo‘lgan — o‘zi mustaqil bilim olish uquvini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun darsning har bir bosqichida va har bir topshiriqqa nisbatan yuqorida ko‘rsatilgan uquvlarning har birini majmuaviy va ularning mantiqiy izchilligida rivojlantirilishi zarur.

Esdalik o‘quvchi faoliyatining oriyentirlovchi asosidan iboratligini hisobga olib, o‘quvchi ham o‘qituvchi bajaradigan sa’y-harakatlarni amalga oshirish zarur. Bu sa’y-harakatlarni bajara borib, o‘quvchi amalda mustaqil ravishda sa’y-harakatlarning shakllanish bosqichida o‘zlashtirishning empirik darajasiga chiqadi va sekin-asta nazariy darajaga ko‘tarilib, u yoki bu sa’y-harakatni oriyentirlovchi asossiz bajarish mumkin bo‘ladi. Esdalikdan foydalanish o‘quvchilarda o‘quv-intellektual uquvlarni kiritish va shakllantirish bosqichida ro‘y beradi.

O‘quv-intellektual uquvini rivojlantirish bo‘yicha ishni tashkil etish o‘qituvchi tomonidan tanlab olinadigan material har bir o‘quvchining rivojlanish darajasiga, uning aqliy rivojlanish xususiyatlari va ish qobiliyatiga mo‘ljallangan bo‘lishini nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning uquvlari va tafakkur faoliyati malakalari, aqliy sifatlari, masalalar yechishni izlashda mustaqillikni shakllantirish bilan bog‘langan to‘laqonli aqliy rivojlanishni ta’minlovchi sharoitlar yaratishlari zarur.

O‘quvchining muammoli vaziyatni o‘ziga xos ko‘rinmas namoyon bo‘ladigan mustaqil tafakkurini samarali rivojlantirish uchun har bir o‘quvchining tafakkur faoliyati xususiyatlarini hisobga oluvchi individual yondashuv zarur. Bolalarda faol, izlanishli tafakkurni rivojlantirish notipik, nostandart, ba’zan bir necha yechish usullariga ega bo‘lgan masalalar, mantiqiy o‘yinlar va boshqotirmalarni o‘yinli o‘qitish metodlari sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinfda bolalar o‘z diqqatini boshqarishga o‘rgatilishiga asosan, o‘qituvchilar bolalarni fikrlashga, tafakkur faoliyati natijalarini baholashga undovchi aniq ko‘rsatmalarni berishlari, to‘g‘ri yechimni izlashlarida yordam ko‘rsatishlari, o‘quvchilardan o‘z fikri to‘g‘riligini asoslanganligi va isbotlanganligiga erishishlari, masalani yechish rejasini o‘ylab olishga va keyin uni amaliy bajarishga kirishishga o‘rgatishlari lozim.

2. Gumanistik pedagogika inson o‘zini o‘zi loyihalashi, o‘z hayotini yaratish va yashashi lozimligiga asoslanadi. Bundan o‘qituvchining bosh vazifasi – uni bu ishda, umuminsoniy ideallar va axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirilib va unga asoslanib, yordam berish va qo‘llab-quvvatlash kelib chiqadi.

Shu munosabat bilan maktab o‘quvchisi o‘zlashtiradigan bilimlar va uquvlarni uning erkinligi qaror topishi, hayotda o‘z o‘rnini egallashning vositasi va sharti sifatida qaralishi lozim.

Bosh g‘oya — bilimlar va uquvlar mustaqil, faol va qunt bilan qilingan mehnat jarayonida egallangan bo‘lsagina ahamiyatlidir.

Darsning muvaffaqiyatli o‘tishida, bolaning o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishida sinfdagi psixologik muhit katta ahamiyatga ega. Bunda yetakchi rol o‘qituvchiga beriladi va u o‘z faoliyatida o‘quvchilarning intellektual salohiyatining rivojlanishiga yordam beradigan va, shuningdek, bolaning o‘zini o‘zi qaror toptirish, o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘z mavqeini topish uchun sharoitlarni yaratish, saqlash va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayonining mohiyati va maqsadini ochib beruvchi bir qator gumanistik tamoyillarni yo‘naltirishi lozim.

Ilgari qayd etilganidek, o‘quv-intellektual uquvlarni rivojlantirish sharoitlaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda gumanistik tarbiya tamoyillari asosida quriladigan o‘qitish metodlari va o‘quv ishi shakllarini optimal qo‘shib qo‘llanishidan iboratdir.

Mazkur uquvlar guruhi, o‘qitish metodlari va o‘quv ishi shakllarining spetsifik xususiyatlarini hisobga olish pedagogdan darslarni tashkil etish va o‘tkazishda ma’lum strategiyani va, demak, gumanistik tamoyillarning maxsus tanlab olingan majmuasini tanlashni talab qiladi. O‘tkazgan tadqiqotimiz doirasida biz sinergetika g‘oyalarini aks ettiruvchi tamoyillarni qo‘llash muvaffaqiyatli bo‘lishini isbotladik, chunki ular o‘z mehnatiga ko‘ra o‘quvchilarning o‘zi mustaqil bilim olish uquvining rivojlantirishiga yo‘naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oxunjonova O. Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi., ped. f. n. dissertatsiya, – T.: 2009. – 175 b.

2. Палагина Н.Н.Развитие воображения у детей второго года жизни// Дошк. восп. – 2003. – № 6. – С. 241.

3. Палагина Н.Н. Диагностика уровня воображения детей раннего возраста // Вопросы психологии. – 1994. – № 5. – С. 12 –20.

4. Hennessey, Beth A. “The social psychology of creativity.” Scandinavian journal of educational research 47.3 (2003): 253-271.

5. Brackett, M. A., Rivers, S. E., Shiffman, S., Lerner, N., & Salovey, P. (2006). Relating emotional abilities to social functioning: A comparison of self-report and performance measures of emotional intelligence. Journal of Personality and Social Psychology, 91(4), 780–795.

6. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405–432.

AUTIZM SPEKTORLI O‘QUVCHILARNING OTA-ONALARI VA MAXSUS MAKTAB HAMKORLIGINING IJOBIY SAMARASI

Nazokat Abidova,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Oligofrenopedagogika” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya

Autizm spektrining buzilishi bo‘lgan o‘quvchilarning ota-onalari va maxsus maktablar o‘rtasidagi hamkorlik ASD bilan kasallangan bolalarning yaxlit rivojlanishi va akademik muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu ilmiy maqola ota-onalar va maxsus maktablar o‘rtasida mustahkam hamkorlikni rivojlantirishning ko‘p qirrali ijobiy ta’sirini o‘rganadi. Empirik dalillar va nazariy asoslarga tayangan holda, ushbu maqola ASD bilan og‘rigan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda hamkorlik, muloqot va birgalikda qaror qabul qilishning ahamiyatiga urg‘u beradi. Bundan tashqari, u ota-onalar va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va ASD bilan og‘rigan bolalar uchun natijalarni optimallashtirish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va amaliy strategiyalar zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *autizm,* ota-onalar, pedagog, *autizm spektrli bolalar, samarali usullari, korreksion-pedagogik reabilitatsiya,* psixologik-pedagogik ish, *ta’lim -tarbiya* bosqichlari

Аннотация

Партнерство между родителями учащихся с расстройствами аутистического спектра и специальными школами играет решающую роль в целостном развитии и академических успехах детей с РАС. В данной исследовательской работе исследуются многогранные положительные эффекты развития прочных партнерских отношений между родителями и специальными школами. Опираясь на эмпирические данные и теоретические основы, эта статья подчеркивает важность сотрудничества, общения и совместного принятия решений в поддержке учащихся с РАС. Кроме того, это подчеркивает необходимость дополнительных исследований и практических стратегий для укрепления партнерства родителей и школы и оптимизации результатов для детей с РАС.

Ключевые слова: *Аутизм, родители, педагог, дети с аутистическим спектром, эффективные методы, коррекционно-педагогическая реабилитация, психолого-педагогическая работа, этапы обучения.*

Annotation

The partnership between parents of students with autism spectrum disorder and special schools plays a crucial role in the holistic development and academic success of children with ASD. This research paper explores the multifaceted positive effects of developing strong partnerships between parents and special schools. Drawing on empirical evidence and theoretical frameworks, this article emphasizes the importance of collaboration, communication, and shared decision-making in supporting students with ASD. In addition, it highlights the need for additional research and practical strategies to strengthen parent-school partnerships and optimize outcomes for children with ASD.

Keywords: *autism, parents, pedagogue, children with autism spectrum, effective methods, correctional-pedagogical rehabilitation, psychological-pedagogical work, stages of education*

Mamlakatimizda nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularni to‘laqonli ta’lim olishi, sog‘lom insonlar qatorida jamiyatga uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishining me’yoriy asoslari yaratildi. Respublikamizda so‘ngi yillarda nogironligi bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etishning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlanmoqda. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Natijada jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy

hayotiy nuqtayi nazarga ega shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.Xususan, autizm spektrli bolalar tarbiyasining muvaffaqiyati nafaqat o‘qituvchilarning o‘z majburiyatlariga nisbatan munosabatlariga, ularning kasbiy tayyorgarligi-yu axloqiy-psixologik qiyofasiga, balki bola tug‘ilib o‘sadigan oiladagi mikromuhitga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Oiladagi tarbiya shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishida chuqur iz qoldiradi. Bola muayyan hayotiy tajriba orttiradigan va jamiyatda qaror topgan axloq normalariga daxldor bo‘ladigan dastlabki ijtimoiy muhit bu oiladir.Oilada bolaning muayyan ijtimoiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi, hayotiy maqsad haqidagi tasavvurlari paydo bo‘ladi. Ota-onalar autizm spektrli bolani bemor deb bilsalar, boshqalari, aksincha, bolada hech qanday me’yordan chetga chiqish borligini ko‘rishni istamaydilar. Bu bilan bog‘liq holda autizm spektrli bolaning rivojlanishi bilan bog‘liq hozirgi muammolarni ham tushunib yetmaydilar [3, 67].

Autizm spektrining buzilishi (ASD) — bu ijtimoiy muloqot, o‘zaro ta’sir va xatti-harakatlardagi keng ko‘lamli muammolar bilan tavsiflangan neyro rivojlanish holati. ASD bo‘lgan bolalar ko‘pincha akademik, ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlanish uchun maxsus yordamga muhtoj. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga xizmat ko‘rsatishga bag‘ishlangan maxsus maktablar ASD bilan kasallangan bolalarning noyob ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan ta’lim dasturlari va tadbirlarni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq maxsus maktablardagi tadbirlar va dasturlarning muvaffaqiyatiga ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va sheriklik katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar va maktab o‘rtasidagi hamkorlik faol ishtirok etish, o‘zaro hurmat va ASD bo‘lgan o‘quvchilarning optimal rivojlanishi va farovonligiga yordam berish uchun birgalikda qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Bu hamkorlik uy va maktab muhitida ASD bilan og‘rigan bolalarga ko‘rsatiladigan yordamning izchil bo‘lishini ta’minlash, aralashuvlar samaradorligini oshirish va bolaning o‘sishi uchun qo‘llab-quvvatlovchi ekotizimni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Autizm spektrli bolalarga ta’lim va tarbiya berish ishining maqsadi — bola shaxsining maqbul shart-sharoitlarda rivojlanishini ta’minlash (jismoniy, ijtimoiy, odob-axloq me’yorlarida, intellektual), bolaga kompleks, ijtimoiy-pedagogik, korreksion, tarbiyaviy va psixologik yordam berish, shuningdek bolani kundalik hayotiy vaziyatlarda himoya qilishdan iborat [4, 67]. O‘qituvchilar ham, ota-onalar ham autizm spektrli bola ijobiy tomonga rivojlanishi va to‘g‘ri tarbiya topishidan manfaatdorlar. Maktab va oilaning o‘zaro aloqalari tarbiya maqsadi va vazifalarining birligidan kelib chiqadi. Bu maqsadni maxsus o‘quv muassasasining o‘zi bajara olmaydi. Bunda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari, mahallaning ishtiroki muhim o‘rin egallaydi. Bu esa o‘qituvchini, o‘zining ota-onaga bo‘lgan munosabatlaridan qat’i nazar, ular bilan doimiy aloqa qilib turishini taqozo etadi. Autizm spektrli bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta’limini to‘laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani e’tirof etilgan haqiqatdir.

Autizm spektrli bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo‘lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo‘lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o‘rnini hech narsa bosa olmaydi [1, 12]. O‘z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko‘p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba’zida esa soxta, xato tasavvurlar xalaqit beradi. Autizm spektrli bolalarning rivojlanishida kutilgan darajaga erishish korreksion ishning imkon darajada erta boshlanishi; maqbul oilaviy vaziyat va maxsus muassasalarning oilalar bilan yaqin aloqasi; rivojlanishi normal kechmayotgan bolalarning real yosh davriga va real imkoniyatlariga hamda ularning tarbiya maqsadlariga mos keladigan ta’lim dasturlari va metodlaridan foydalanish sanaladi. Shunday ekan, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalashda maxsus maktab va oilaning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu faoliyat samarali kechishi uchun maxsus maktab oilalarni o‘zining to‘laqonli hamkori bo‘lishida muayyan ishlarni amalga oshirishi lozim. Bu ishlarning asosiy maqsadi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan oila sharoitida korreksion ishlarni yaxshiroq yo‘lga qo‘yish, korreksion-psixologogik-pedagogik ishga ota-onalarni to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilish ko‘zda tutiladi: oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish;onaning psixologik holatini korreksiyalash; bola va ota-ona munosabatlarini korreksiyalash; bolaning ham jismoniy, ham psixologik imkoniyatlarini adekvat baholashga yordam berish; onaga oila sharoitida bola bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun maxsus korreksion va metodik usullarni o‘rgatish;onaga bolaning shaxsini korreksiyalash uchun zarur bo‘lgan maxsus tarbiya usullarini o‘rgatish. Bu esa mutaxassis zimmasiga nafaqat bolaning ta’limi, tarbiyasi va korreksiyasi bilan bog‘liq vazifalarni yuklaydi, balki ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalarni ham hal qilishni talab etadi. Ota-onaga autizm spektrli farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o‘ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma’lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko‘proq e’tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi [5, 90]. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning autizm spektrli farzandiga nisbatan dunyoqarashini o‘zgartirishdan iborat. Ona o‘z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davolashdagina emas,

balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o‘z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona farzandining ta’limi va tarbiyasi bilan bog‘liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi. Autizm spektrli bolalar ota-onalari bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich ota-onani o‘quv jarayoniga jalb qilishga yo‘naltiriladi. Pedagog autizm spektrli bolani bu ishda faqat uning muhabbati va xatti-harakatlariga muhtoj ekanligiga, ota-ona farzandining o‘quv jarayoni bilan o‘zidan boshqa odam bu darajada sidqidildan shug‘ullana olmasligiga, nihoyat, bu ishdan o‘zidan boshqa kishi bu darajada manfaatdor emasligiga bemor bolaning onasini ishontirish kerak.

Ikkinchi bosqich onada o‘z farzandining rivojlanish jarayoniga nisbatan qiziqishni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bunda pedagog onaning e’tiborini bolasida kichik bo‘lsada, ammo uning rivojlanishida g‘oyat muhim bo‘lgan yutuqlar bo‘lishi mumkinligiga qaratadi. Asta sekin ona pedagog bergan topshiriqlar ustida uyda autizm spektrli bolasi bilan ishlash malakalariga ega bo‘lib boradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi ota-onaning ko‘z o‘ngida autizm spektrli bola ta’limida shaxsiy ijodiy yondashuvlarni qidirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Autizm spektrli o‘quvchilarning ota-onalari va maxsus maktab hamkorligida ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni susaytirish, o‘zining eshitishda nuqsoni bo‘lgan farzand bilan bog‘liq hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Autizm spektrli o‘quvchilarning ota-onalari va maxsus maktab hamkorligining ota-onalarga individual maslahatlar berish shakli samara beradi.Bu maslahatlar oilada autizm spektrli bolaning ta’limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi, shuningdek pedagog bilan ota-ona o‘rtasida o‘zaro shaxsiy aloqani o‘rnatishda asos vazifasini o‘taydi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda pedagog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta’kidlashi lozim [2, 320]. Avvalam bor pedagog ota-onalarga qo‘rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg‘ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo‘lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtni sarf qilish ekanini, bu o‘rinda aybdorning o‘zi yo‘qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o‘z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi.

Shunday qilib, pedagog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta’limiy va psixologik ishni birga qo‘shib olib boradi, vaziyatni nazorat qilishga to‘sqinlik qiladigan shubha va qo‘rquv tuyg‘ulariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta’limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi — oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, autizm spektrli bola tug‘ilishi va tarbiyasi bilan bog‘liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish.Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan iborat bo‘ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi — pedagogning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo‘lajak xatti-harakatlarga tayyorgarlik ko‘rishga ijobiy yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. U. Xamidova. Maxsus pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T., 2020. – 164 b.
2. Maxsus pedagogika (Darslik). – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
3. Maxsus pedagogika (darslik). R.M.Ro‘latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014. – 520 b.
4. Po‘latova P. Maxsus pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 223 b.
5. L.R.Muminova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova. Maxsus psixologiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014. – 520 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Nafisa Mamaraximova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni lug‘at ustida ishlash orqali oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish o‘qish orqali tevarak atrof borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutiladi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *nutq, nutq madaniyati, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, metodika, ona tili o‘qish savodxonligi, lug‘at.*

Аннотация

В данной статье на занятиях по грамотности чтения учащимся предстоит развить навыки правильного, быстрого и выразительного чтения, поднять их от обычного читателя до уровня творческого читателя, глубоко мыслящего, работая над словарным запасом знания об окружающей среде, обогатить свое мировоззрение, прочитать и понять любой тип текста, а также приобрести навыки критического и творческого мышления. Для раскрытия содержания статьи использованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова: *речь, речевая культура, начальная школа, учащиеся, методика, грамотность чтения на родном языке, словарный запас.*

Annotation

In this article, in reading literacy classes, students will develop the skills of correct, fast and expressive reading, raise them from an ordinary reader to the level of a creative reader, a deep thinker, working on the vocabulary of knowledge about the environment, enrich their worldview, read and understand any type text, as well as acquire critical and creative thinking skills. In order to reveal the content of the article, scientific research works of foreign and local scientists were used.

Keywords: *speech, speech culture, primary school, students, methodology, reading literacy in the native language, vocabulary.*

O‘quvchilarda asosiy ish turlaridan biri bu badiiy matn ustida ishlashdir. “Matn” so‘zi ko‘pgina adabiyotlarda “tekst” tarzida keltirilgan. “Tekst” lotincha “texsus” so‘zidan olingan bo‘lib, “to‘qima” degan ma’noni bildiradi[3,33]. Matn-lingvistik tadqiqotning eng murakkab obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta’riflashda barcha matnlar uchun xos bo‘lgan belgilardan kelib chiqishi lozim. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi:

1. Matn-yozma shakldagi axborot.
2. Matn mazmun jihatidan o‘ziga xos tugallikka ega.
3. Matn o‘quvchida muayyan munosabatni uyg‘otadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy bosqichi o‘quvchilarni matnni tushunib, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qishga, idrok qilishga va o‘qiganlari yuzasidan o‘z munosabatini bildirishga tayyorlashdan iborat. Bunday natijalarga erishish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga berilgan matnlar bir necha talablar va shartlarga mos bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga beriladigan matnlarga qo‘yiladigan talablar sifatida quyidagilarni sanashimiz mumkin [4, 96]:

1. Matnning mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga beriladigan matnlarning mazmuni bolajonlar yoshiga, fikrlashiga mos bo‘lishi kerak. Shundagina o‘quvchi matnni yaxshi tushunadi va matn ustida erkin ishlay oladi. Yoshiga mos bo‘lmagan matnni o‘qish ham uni tushunib tahlil qilish ham o‘quvchiga bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi.

2. Matnda foydalanilgan so‘zlar va ularning ma’nolari bolalarga tushunarli bo‘lishi. Yosh bolalarga matn tanlash, ularga mos matn, ertak, hikoya, she’rlar yaratish juda mas’uliyatli jarayondir. Bu jarayonda har bir so‘zga alohida e’tibor qaratish lozim. Ya’ni so‘zlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi, o‘zi ishlatadigan so‘zlar yoxud shunga yaqin so‘z bo‘lishi lozim. Ma’nosi qiyin so‘zlardan foydalanilgan jarayonda o‘sha so‘zning ma’nosi izohlanishi kerak bo‘ladi.

3. Matndagi personajlar o‘quvchi ongida yaxshi taassurotlar qoldirishi. Matndagi voqea-hodisalar, unda qatnashayotgan qahramonlar o‘quvchi ongida yaxshi taassurot qoldirishi kerak. Chunki yosh bolalar ertak, hikoyalardagi qahramonlarga o‘xshagisi keladi, ulardan o‘rnak oladi. Salbiy qahramonlar ular ongida albatta salbiy fikrlar bilan qoladi.

4. Matn bolalar psixologiyasidan kelib chiqib tanlanishi. Matnlarni o‘quvchilar psixologiyasidan kelib chiqib tanlash yoki yaratish maqsadga muvofiqdir. Matndagi voqealar o‘quvchi hayotiga yaqin bo‘lishi, qahramonlar bolaga o‘xshashi mumkin.

5. Matnda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshlariga mos bo‘lgan suratlar, maqollar, ibratli so‘zlardan foydalanishlik. Matnda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos bo‘lgan suratlar, maqollar, ibratli

ISSN 2181-8274

so‘zlardan foydalanishlik yaxshi samara beradi. Rasmlar orqali bolada atrof muhit haqidagi tasavvurlari rivojlansa, ibratli so‘zlar, maqollar orqali xulosa chiqarish ko‘nikmalari yanada rivojlanib boradi. Masalan, mehnat — mehnatning tagi rohat, ona bilan bola, gul bilan lola.

6. Tanlanayotgan matn ham milliy mentalitetga mos bo‘lishi, ham dunyoviy bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matn berish jarayonida tanlangan matnning milliyligimizga mos kelishiga ham ahamiyat berishimiz kerak. O‘z milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz asosida boyitilgan matnlar o‘quvchilarda vatanga bo‘lgan sadoqat, oilaga bo‘lgan muhabbat yanada shakllanib, rivojlanadi. Matnda dunyoviy bilimlarning mujassam bo‘lishi o‘z navbatida bolada turli yo‘nalishlardan tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishiga olib keladi.

7. Matndagi voqealar ketma-ketligi o‘quvchilar hayotiga yaqin voqealardan tanlanishi. Matndagi voqea hamda hodisalar uzviyligi o‘quvchi hayotiga yaqin bo‘lgan voqeliklardan tanlansa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining qiziqishi yanada shu matnga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. Shunga o‘xshash voqea menda ham sodir bo‘lgan edi, demak men o‘sha payt to‘g‘ri yo‘l tutibman yoki noto‘g‘ri yo‘l tutibman, kabi xulosalarga keladi.

8. Matn hajmi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos bo‘lishi. Bu talab eng muhim talablardan biridir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga o‘zining yoshiga mos bo‘lmagan matnlarni o‘qish ham psixologik ham fiziologik jihatdan og‘irlik qiladi. Bolada charchoq alomatlari kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ham matn hajmi o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matn tanlash va berish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan bir nechta talablarga rioya qilish o‘quvchilarda matnga, ona tili va o‘qish savodxonligi faniga nisbatan qiziqishini ortishiga, ko‘proq bilimlar egallashga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga, lug‘at boyligini oshirishga hamda ijodiy tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishdan iboratdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi yuqorida sanalgan sifatlarni takomillashtirish va rivojlantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda turli xildagi matnlardan foydalanish hamda ular ustida ishlash o‘quvchilarda bir qancha ijobiy xislatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bular:

– bolalarning atrof- muhit haqidaga tasavvurlarini boyitadi;

– ijodiy fikrlashini o‘stiradi;

– voqelikka tanqidiy yondashadi;

– o‘quvchining kompetentligini rivojlantiradi;

– matn ustida ishlash orqali o‘quvchi nutqi o‘sadi;

– asar qahramonlarining xatti-harakatlarini baholaydi;

– asar voqealari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashni o‘rgatadi;

– to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qishni o‘rganadi;

– tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish sifatlari takomillashadi.

Boshlang‘ich ta’limning 1-4-sinflarida o‘quvchilar Ona tili va O‘qish o‘quv predmetlari bo‘yicha egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga o‘qish texnikasi bo‘yicha bir daqiqada 80-90 ta so‘zni o‘qiy olish, harflarni to‘g‘ri talaffuz etish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o‘qish, gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish, sanash va ajratish ohanglaridan to‘g‘ri foydalanish, so‘z urg‘ulariga rioya qilish, ohangga rioya qilish, ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz etish kabi talablar qo‘yilgan.

Matn mazmunini va o‘zgalar fikrini anglash malakasi bo‘yicha 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o‘qib, qayta so‘zlab bera olish uchun og‘zaki nutqning to‘g‘ri, ravon, aniq, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi; monologik nutqning ravon bo‘lishi; dialogik nutqda ta’sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo‘lishi, yozma nutq malakasini shakllantirishda esa 75-80 so‘zdan iborat diktant yoza olish. Imlo xatolarga yo‘l qo‘ymaslik; ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi; berilgan izohlarning aniqligi; lug‘atlarning to‘g‘ri va aniq berilishi haqidagi talablari ko‘rsatilgan.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha 5-6 ta gapdan iborat bo‘lgan matnni (fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratishda matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi; harf va tinish belgilarini to‘g‘ri yozish; husnixatda qatorlarni to‘g‘ri joylashtirish; so‘zlar orasidagi oraliqni to‘g‘ri belgilash; tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish; matnda so‘zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo‘llay olish; matnda xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta’minlash; uyadosh so‘zlardan foydalana olish kabi talablari qo‘yilgan.

Boshlang‘ich ta’lim yakunida o‘quvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi she’rni yoddan aytib bera olishlari shartligi ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar inson va jamiyat, ta’lim sohasi bo‘yicha insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojiga oid Vatan tushunchasiga ega bo‘lish; davlat tushunchasini, davlatning ramziy belgilarini, ona-Vatan tuyg‘usini anglash; O‘zbekiston aholisi va milliy tarkibini bilish; mamlakat hayotidagi buyuk sanalarni bilish; axloq va kiyinish me’yorlarini bilish; uy tutishni bilish; mehmonlarga, atrofdagilarga mulozamat ko‘rsata olish kabi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shartligi ko‘rsatilgan. Albatta, ushbu talablar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda til, so‘z, nutq, fikr, tafakkur ravshan-

ligini taqozo qiladi. Shu bilan birga boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolani keng bilimlar dunyosiga yetaklash, o‘qishga bo‘lgan munosabatini, o‘quv topshiriqlarini bajarish kabilarni amalga oshirish ularda nutq madaniyatini shakllantirishga asos bo‘ladi [5, 21].

Har qanday ijod turini ijodiy tafakkursiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ijodiy tafakkurni evristika (lotincha “evrica” — topayapman, kashf qilayapman) tadqiq etadi. Evristika ijodiy faoliyat va ijodiy jarayonni tashkil etish usullari va qonuniyatlari bilan shug‘ullanadi. Evristikaning ildizi qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Qadimdan yunon olimlari, keyinroq mutafakkir ajdodlarimiz ham insonlarni tafakkur qilishga, ijodkorlikka hamda yaratuvchilikka undaganlar. Evristika psixologiya, oliy asab faoliyati fiziologiyasi, kibernetika kabi fanlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan fan tarmog‘idir. Yuzaga kelgan muayyan savolning javobini inson o‘zi qidirib topsa, qo‘yilgan vazifalarni o‘zi hal qilsa, uning ongida yangi hukm va tushunchalar paydo bo‘lsa, bunday hollarda ijodiy tafakkur namoyon bo‘la boshlaydi. Ijodiy jarayonda sifat jihatidan yangi moddiy yoki ma’naviy qadriyat yaratiladi. Ijod — ilgari mavjud bo‘lmagan yangilikni yaratish. Bu yangilik faqat ijodkorning o‘zi uchungina emas, balki boshqalar uchun ham ahamiyatli bo‘lishi kerak. Ijodiy tafakkur murakkab aqliy jarayon hisoblanib, u bir necha bosqichlardan iborat. Ijodiy tafakkurda qo‘yilgan savol ketidan savolning murakkabligiga qarab, dastlab vazifa ifodalanadi, so‘ngra vazifani, masalani yechish jarayoni, ya’ni qo‘yilgan savollarga javob qidirish jarayoni boshlanadi.

Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi ona tili va o‘qish ta’limi darslarini to‘g‘ri tashkil etish o‘qish samaradorligini oshiradi, ijodiy tafakkurini o‘stirishning yana bir yo‘li hamdir.

Boshlang‘ich sinflarda Ona tili va O‘qish ta’limi darslarida ijodiy tafakkurini rivojlantirishda o‘qilgan matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkazilsa yaxshi samara beradi. Bu esa boshlang‘ich sinflardayoq leksikologiya haqida ham nazariy ham amaliy bilimlarning uzviy berib borilishini talab etadi.

Bizga ma’lumki, ***ma’nodosh so‘zlar*** (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha (ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. O‘quvchi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining lug‘ati ustida ishlashi ijodiy tafakkur rivojida samarali natijalar beradi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug‘at ishi (ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlarga oid xilma-xil mashqlar o‘tkazish, ko‘p ma’noli so‘zlar, ularning ma’no bo‘yoqlari ustida ishlash)ni to‘g‘ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

O‘quvchilar lug‘atini boyitish so‘z ma’nosini izohlash va ma’nosini tushuntirish bilan osongina amalga oshadigan hodisa emas. Buning uchun lug‘at ustida ishlash usullari o‘quvchilarning izlanishlari asosida amalga oshirilishi, ma’nosi izohlanadigan so‘zlarni nutqda qo‘llashga doir mashqlar bajartirilishi ko‘zda tutiladi.

O‘quvchilar nutqida uchraydigan ma’nodosh so‘zlarni kiritib borish ularni nutqiy jarayonga tayyorlaydi.

Shuning uchun ona tili metodikasi oldida turgan muhim vazifalardan biri so‘z ma’nolarini izohlash, matndan sinonim, antonim, omonim, uyadosh so‘zlarni topish yoki muayyan so‘zlarning sinonimlarini keltirish topshiriqlari va bajarish usullarini ishlab chiqishdir.

Topshiriq o‘quvchilarning so‘z ma’nolarini izohlash va ularni nutqda qo‘llay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi ham mumkin: o‘quvchilar turli matnda ma’nosi notanish so‘zlarning izohlarini lug‘atdan aniqlaydilar, so‘ng ushbu izoh yordamida ularni boshqa gap tarkibida qo‘llab ko‘radilar.

O‘quvchilarning fikr darajasi, ongi, dunyoqarashlarini oshirish ularni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Ma’nodosh so‘zlar ustida olib boriladigan mustaqil ishlar o‘quvchini fikrlashga undaydi, gap va matn tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liqlikda so‘zning ma’nosini aniqlash va tushunishga, so‘z ma’nolarini taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar so‘z ma’nosini bilsagina unga sinonim topa olishi mumkin [6, 99].

Masalan, 3-sinf darsligida berilgan “Abu Ali ibn Sino” rivoyati orqali bajarilgan lug‘at ishida o‘quvchilar ma’nodosh so‘zlar, ya’ni sinonimlar bilan amaliy tanishtiriladi. O‘quvchi ma’nodosh so‘zlar haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

Shu bilan birga dars davomida quyidagi didaktik o‘yindan foydalanishlari ham mumkin: “Kim ko‘p so‘z biladi”. Bu o‘yin o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi va birinchi guruh o‘quvchilariga boshlanishi va tugallanishi bir xil unlidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: bir xil undosh bilan boshlanib, shu undosh bilan tugallangan so‘zlarni doskada yozish topshiriladi. Masalan: birinchi guruh “ikki”, “alla”, “ukku”, ikkinchi guruh esa “qiziq”, “katak” kabi so‘zlarni yozishi mumkin. O‘yin shartiga ko‘ra, guruhlardagi o‘quvchilar navbat bilan shartni bajaradilar. So‘z topolmay yozishdan to‘xtab qolgan guruh yutqazgan hisoblanadi.

O‘qituvchi shu tarzda so‘zlarning ma’nodoshlarini matnda qo‘llashga o‘rgatsa, o‘quvchilar tilni amaliy jihatdan o‘rganishga erishadilar.

Ma’nodosh so‘zlar o‘rganilayotganda ham mashq matni asosida ishlanadi. O‘quvchilarning ma’nodosh so‘zlarni o‘zlashtirib olganliklarini nazorat qilishda quyidagi kabi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga zamin yaratadi:

“Ma’nodosh so‘zlar qatorini tuz” o‘yini. Bu o‘yin 3-sinf O‘qish savodxonligi darsligidagi “Abu Ali ibn Sino” rivo-

yati ustida ishlashda ham tashkil etilishi mumkin. Matn so‘ngida ko‘rsatilgan so‘zlarga ma’nodosh so‘zlar topish (bo‘sh kataklarga o‘quvchi o‘zining so‘zlarini toping yozishi zarur).

Muzofot	Viloyat	
Dong‘i	Ovozasi, dovrug‘i	
Suruv-suruv ot	Otlar to‘dasi	
Qiroatxona	Kitob o‘qish xonasi	
Kifoya	Yetarli	

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asar voqealariga o‘z shaxsiy munosabatini, taassurotlarini, asar qahramonlari xususidagi fikrlarini ifodalashga qiynaladilar. Bunga o‘rgatishda savol-topshiriqlar asosida uyushtiriladigan asarlar tahlili katta imkoniyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, lug‘at ishidan foydalanish o‘quvchilarda jadal fikrlash, erkin ijodiy muloqot ko‘nikmalarini, ijodiy tafakkurini shakllantiradi va rivojlantiradi. O‘quvchida tez bilib olishga, ixcham va jadal fikrlashga, o‘z bilim va malakasini darhol namoyish etishga ishtiyoq, o‘z bilimiga ishonch ortadi. Qisqa qilib aytganda, lug‘at ishi o‘quvchini o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonining subyektiga aylantiradi. Lug‘at ishi o‘quvchini faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga o‘rgatadi. Bunday samara esa bugungi kunda ayni muddaodir. O‘quvchilarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matnni tushunish hamda anglash ko‘nikmalarini shakllantirishda, o‘qish savodxonligini oshirishda ma’nodosh so‘zlar bilan ishlash yaxshi samara berar ekan. Bu jarayonda o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari esa ta’lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini shakllantirishga, mamlakatimiz sha’nini xalqaro tadqiqotlarda munosib himoya qiladigan o‘quvchilarni tarbiyalashda ulkan xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22-sonli Farmoyishi. https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida“gi 187-sonli qarori. https://lex.uz/acts/316337

3. Sh.U.Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish. – T.: Yurist-media markazi nashriyoti, 2010. – 120 b.

4. Sh.U.Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.fal.dok … diss. – T.: TDPU, 2020. – 180 b.

5. O‘rinova F.O‘. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan. nomz. … diss. – T.: O‘zPFITI, 2007. – 181 b.

6. O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. / U.B.Aydarova. – T.: “Novda Edutainment”, 2023. – 140 b.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Сайфиддин Оканов,
Магистрант 2-курса факультета
Русской филологии УзГУМЯ

Аннотация

В данной статье анализируются методологические вопросы изучения проблемы функциональных возможностей имен прилагательных, исследования проблемы в научной литературе, систематические меры и научные рекомендации по изучению имен прилагательных русского языка в художественных текстах. В статье с помощью новых источников раскрывается природа проблемы функциональных возможностей имен прилагательных. С помощью анализа художественных текстов получено более глубокое понимание того, как прилагательные взаимодействуют с функциональными стилями речи. Можно подчеркнуть, как прилагательные становятся ключевым инструментом в руках писателей для передачи эмоциональной окраски, создания живых образов и воздействия на читателя.

Ключевые слова: *имя прилагательное, художественный текст, категоризация, качество, грамматическая форма, признаки, сравнительно-сопоставительный метод.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada sifatlarning funksional imkoniyatlari muammosini o‘rganishning uslubiy masalalari, ilmiy adabiyotlardagi muammolarni o‘rganish, badiiy matnlarda rus tilidagi sifatlarni o‘rganish bo‘yicha tizimli choralar va

ilmiy tavsiyalar tahlil qilinadi. Maqolada yangi manbalar yordamida sifatlarning funksional imkoniyatlari muammosining mohiyati ochib berilgan. Badiiy matnlarni tahlil qilish orqali sifatlarning funksional nutq uslublari bilan o‘zaro ta’sirini chuqurroq tushunish mumkin. Sifatlar qanday qilib yozuvchilar qo‘lida hissiy ranglarni yetkazish, jonli tasvirlarni yaratish va o‘quvchiga ta’sir qilish uchun asosiy vositaga aylanishini ta’kidlash mumkin.

Kalit so‘zlar: *sifat, badiiy matn, turkumlash, sifat, grammatik shakl, xususiyatlar, qiyosiy uslub.*

Annotation

This article analyzes the methodological issues of studying the problem of the functionality of adjectives, research of the problem in scientific literature, systematic measures and scientific recommendations for the study of Russian adjectives in literary texts. The article, with the help of new sources, reveals the nature of the problem of the functionality of adjectives. Through the analysis of literary texts, a deeper understanding of how adjectives interact with functional speech styles has been obtained. It can be emphasized how adjectives become a key tool in the hands of writers to convey emotional coloring, create vivid images and influence the reader.

Keywords: *adjective, literary text, categorization, quality, grammatical form, features, comparative method.*

Человек как живое существо, обладающее даром мышления и речи, способностью создавать орудия и пользоваться ими в процессе общественного труда,как “вольноотпущенник природы” отличается своим извечным стремлением познавать окружающий мир и самого себя в нем. Свой уникальный познавательный опыт человек сохраняет в культуре, важнейшей формой которой является язык. Язык – уникальный феномен человека, отражающий его специфический взгляд на мир, границы которого “прочерчены” символами этнокультуры. Иначе говоря, мир отражается в языке таким, каким он предстал сознанию человека в его этнокультурной специфике, поэтому каждый народ обладает своей, уникальной картиной мира.

В настоящее время система разграничения частей речи испытывает кризис, связанный с широким распространением в словообразовательной системе русского языка транспозиционных процессов, приводящих к появлению таких слов, семантика производящей основы которых противоречит их грамматическому значению. В связи с этим возникает вопрос: всегда ли в грамматической науке использовались одни и те же принципы описания частей речи, изменялся ли набор этих принципов и будет ли он меняться в перспективе?

Картина мира представляет собой результат обработки информации, полученной человеком посредством его пяти рецепторов (пяти органов чувств) и пропущенной сквозь фильтр сознания, синкретизм которого, во всяком случае “по ряду параметров”, предопределяет характер элементов создающейся картины мира.

Совокупность знаний, полученных человеком в процессе его познавательной практики в языковой семантике, формирует языковую картину мира. Культурно маркированный способ мировидения и мирочувствования отражается в формировании самобытной грамматической системы языка, ее грамматических и лексических категорий.

Категоризация является фундаментом функционирования мышления человека. Она обеспечивает существование человека в мире природы, социума и мысли. Как пишет Н.Н.Болдырев вслед за Дж.Лакоффом, “мы понимаем мир не только в терминах отдельных вещей, но также в терминах категорий, мы склонны приписывать реальное существование и этим категориям. У нас имеются категории для биологических видов, физических предметов, артефактов, цветов, родственников, эмоций и даже для категорий предложений, слов и их значений. Мы имеем категории для всего, о чем можно только подумать” [1, 50].

Одной из категорий, выражающих русскую этнокультурную доминанту восприятия, является класс имен прилагательных, репрезентирующих концепт “качество”.

Качество, как известно, представляет собой свойство, неотделимое от своего носителя и независимое от времени, поскольку является сущностной характеристикой объекта. Объектный мир предстает перед человеком и через его атрибуты, однако каждый язык, будучи уникальным этнокультурным феноменом, поразному репрезентирует атрибутивную картину мира, поскольку каждый народ посвоему определяет свои культурологические доминаты, позволяющие ему выработать свой уникальный способ ориентации в окружающем мире и взаимодействия с ним.

Именам прилагательным посвящена богатая научная литература, что отражает неослабевающий интерес ученых (Е.Д. Арбатская, Д.И.Арбатский, Е.М.Вольф,Т.М.Николаева) [2].

Целью нашего исследования является рассмотрение особенностей грамматического класса русских имен прилагательных как репрезентантации русской языковой картины мира. С этой целью на основе сплошной выборки мы каталогизировали все исконные имена прилагательные русского языка, представленные в академическом“Словаре русского языка” под редакцией П.Евгеньева, и проанализировали специфику представления ими признака, присущего объекту. Исконная принадлежность имени прилагательного к грамматической системе русского языка проверялась нами по“Историко-этимологическому словарю современного русского языка” П.Я.Черных. В исследовании применялся также компонентный

анализ, позволивший нам установить конфигурацию элементарных смыслов, входящих в значение атрибутивной лексемы, и соотнести ее с явлениями русской культуры.

Сравнительно-сопоставительный метод, также использованный нами в процессе исследования, позволил обнаружить особенности признаковых полей каждой отдельной лексемы.

Совокупность научных методов обеспечила качество процедуры исследования и надежность выводов, главным из которых является то, что концепт "качество", являющийся семантической базой имени прилагательного, для русской лингвокультуры являются ключевым. Это подтверждается уже тем, что имя прилагательное как класс слов, специализирующийся на выражении качественных характеристик фрагментов объективного мира, в русском языке выделяется в самостоятельную грамматическую категорию (часть речи), обладающую собственными семантическими, морфологическими и синтаксическими особенностями, что, как известно, не является всеобщим [3, 52].

Имя прилагательное как часть речи, как полагает Е.М.Вольф, "не только не является универсальной категорией, но и составляет класс слов, наименее специфицированный по сравнению с другими морфолого-синтаксическими классами. Во многих языках прилагательное не выделяется как отдельная часть речи, имеющая свои морфологические или синтаксические характеристики".

Для русского человека, по мнению В.Колесова, именно "качество воспринимается как основная категория в характеристике вещного мира; качество, а не количество привлекает законченностью и разнообразием радужных форм; через признак выявляется каждое новое качество, привлекающее внимание своей неповторимостью; отвлеченные имена также образуются с помощью основ, а самостоятельная категория имени прилагательного формируется в русском языке, начиная с древнейших времен. Это было важно в экспликации признака "качество". Выделив самостоятельную грамматическую форму для выражения содержания понятия (видов при общем роде, выраженном существительным), создали удобное средство для воссоздания аналитических понятий: *белый дом,желтый дом, большой дом, торцовый дом, модный дом и т. д.,* поскольку термин дом сам по себе не понятие, а символ как таковой требует раскрытия посредством уточняющего определения".

Для понимания особенностей русской языковой картины мира важным является тот факт, что имена прилагательные в русском языке обособились в самостоятельный грамматический класс с уникальной парадигмой грамматических форм, что свидетельствует о высокой значимости для русского человека качественных характеристик окружающего мира, репрезентируемых данной категорией слов. Особое место имен прилагательных в грамматической структуре языка говорит о том, что русский человек активно воспринимает и интерпретирует мир через совокупность признаков его отдельных фрагментов, формируя таким образом его атрибутивный портрет.

На самом деле в русском языке имена прилагательные – одна из древнейших грамматических категорий.

"Имя прилагательное – это грамматическая категория, формирующая и объединяющая слова, которые означают признак предмета (качественный, относительный или указательно-определительный) и которые являются определяющими имена существительные и обычно согласуемыми с ними в роде, числе и падеже частями речи. Семантической основой имени прилагательного является понятие качества". Именно этот аспект позволяет исследователям по отношению к данной группе слов употреблять иногда термин "имя качественное".

Заметим, что в количественном отношении имена прилагательные в современном русском языке занимают второе место после имен существительных. На основе "Словаря русского языка" под редакцией А.П.Евгеньева, можно сказать что качественные имена прилагательные составляют значительную часть. Это совсем не случайно. Такое разнообразие атрибутивной репрезентации мира объясняется важностью для русской ментальности концепта"качество", лежащего в основе формирования этого класса слов.

Нет сомнения в том, что качественные имена прилагательные обозначают признаки фрагментов реального мира, присущие им в той или иной степени от природы, как, например, цвет, запах, вкус, форма, размер, протяженность, интенсивность. Однако при этом необходимо иметь в виду то, что способ их интерпретации, воплотившийся в языковой семантике, степень их языковой"разработки" зависят от особенностей этнокультуры, в которой воплощается мир человека.

Н.Ф.Спиридонова утверждает, что каждый из органов чувств не только отвечает за свой "фрагмент" воспринимаемого объекта, но и предполагает конкретный способ и определенную ситуацию восприятия. Так, при тактильном и вкусовом восприятии человек и объект взаимодействуют друг с другом, а при зрительном, слуховом и обонятельном восприятии ощущения от воспринимаемых объектов поступают в соответствующе органы опосредованно, поскольку между ними не предполагается физического контакта.

В работе А.Н.Шрамма представлена семантическая классификация качественных имен прилагательных. Исследователь ввел в научный обиход разделение качественных прилагательных на эмпирийные и рациональные, предложил подробное описание типов эмпирийных прилагательных.

Его опыт отражен в работах Н.Д.Арутюновой и О.А.Михайловой. Ведущим основанием его классификации являются различия в характере признака, обозначаемого качественным прилагательным.

А.Н.Шрамм обращает внимание на то, что различиям в характере признака соответствуют и разные виды мыслительной деятельности при установлении, осознании и назывании признака.

В данной классификации критерием типологизации является канал восприятия признака. Он подчеркивает, что содержание этих признаков находится в полном соответствии с логико-философской категорией качества.

Прилагательные же, обозначающие признаки, не воспринимаемые органами чувств, а возникающие на основе воспринятых органами чувств, признаков в результате анализа, сопоставлений, умозаключений, исследователь называет рациональными.

Для уточнения формы используются имена прилагательные, обозначающие форму через сопоставление: *дугообразный, звездчатый, клиновидный, кривой, листовидный, рваный, ромбовидный.*

Наиболее конкретна категория цвета. Мир русского человека полон красок, он значим.

В русской художественной литературе сложилась богатая традиция стилистического освоения прилагательных-эпитетов в различных описаниях, и прежде всего в пейзажных зарисовках. Проиллюстрируем это примером описания лунной ночи: *...Появилась луна, обливая море серебряным блеском. Большая, кроткая, она медленно плыла вверх по голубому своду неба, яркий блеск звезд бледнел и таял в ее ровном, мечтательном свете* (М.Горький). Господство прилагательных в системе выразительно-изобразительных средств проявляется и в том, что вовлеченные в контекст существительные, глаголы, наречия также нередко связаны своими значениями с понятием качества; ср.: *блеск, свет, бледнел, медленно.*

Ароматические же имена прилагательные в русском языке являются наименее репрезентативными. Они называют запах в самом общем смысле, поэтому, как указывает Е.Голдштейн, “существуют тысячи запахов, которые мы не можем описать из-за отсутствия обозначений”.

В этой типологии чрезвычайно интересны с точки зрения этнокультурной специфики качественной репрезентации мира такие имена прилагательные, которые сочетают в себе разные способы формирования признака, что позволяет говорить о культурной коллокации признаков, в которой отражается когнитивные особенности языковой личности. Так, например, в русском языке обнаруживаются такие сочетания способов формирования признаков, как:тактильный + ароматический – нежный (приятный на ощупь, мягкий – нежная кожа, приятный по очертаниям, приятный на вкус, аромат – нежный запах);вкусовой + ароматический – пряный (острый и ароматный по вкусу, запаху – пряный запах), мятный (мятный запах, мятное масло).

Весьма перспективным представляется и выявление образа человека сквозь призму имен прилагательных. Признаки позволяют обнаружить то, как русский человек увидел самого человека.

Обратим также внимание на то, что лексема непутевый, встроенная в синонимический ряд *беспутный, неприспособленный*, отражает особенности русской этнокультуры, в которой образ жизни человека, избравшего из всех возможных путей не самый подходящий, оценивается скорее лишь как ошибка (кто же от нее застрахован!), но не как преступление, из-за которого человек становится социальным изгоем. Следовательно, непутевого можно и нужно осуждать, но при этом жалеть его или даже любить.

По данным языка, в его “атрибутивной модели” характерным является и проявление эмоциональности русского человека. По мнению А.Вежбицкой, русский человек очень эмоциональный, поэтому и репертуар языковых способов выражения эмоций в русском языке достаточно богат. Эмоциональность находит отражение и в лексиконе, и в грамматическом строе языка. Русский язык богат и “эмоциональными” именами прилагательными: *радостный, веселый, грустный*и т.д. Таким образом, имена прилагательные выступают важнейшим репрезентантом русской языковой картины мира и отражают этнокультурные особенности русского народа.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р.Державина, 2002. – 236 с.

2. Арбатская Е.Д., Арбатский Д.Н. О лексико-семантических классах имен прилагательных русского языка // Вопросы языкознания. – 1983. – №11. – 3-9 с.

3. Николаева Т. М. Качественные прилагательные и отражение картины мира // Славянское и балканское языкознание. Проблемы лексикологии. – М.: Языки славянской культуры, 1983. – 211-216 с.

4. Виноградов В.В., Современный русский язык, – М.: Аспект-Пресс, 2002. – 378 с.

5. Голуб И.Б. Стилистика русского языка. – М.: Айрис-пресс, 2002. – 462 с.

MAKTABGACHA TA’LIMDA MUSIQIY-RITMIK HARAKATLAR AHAMIYATI

Maloxat Muxitdinova,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim bolaning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda musiqa va ritmik harakatlarni maktabgacha ta’lim dasturlariga kiritishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola nevrologiya, psixologiya va ta’lim kabi turli fanlar bo‘yicha tadqiqotlarga tayangan holda bunday faoliyatning ko‘p qirrali afzalliklarini o‘rganadi. Unda musiqiy va ritmik harakatlar bolalarning kognitiv qobiliyatlari, ijtimoiy-emotsional qobiliyatlari va jismoniy rivojlanishini qanday oshirishi, pirovardida kelajakdagi o‘quv muvaffaqiyati va umumiy farovonligi uchun mustahkam poydevor qo‘yishi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, musiqiy faoliyat, ritmik harakatlar, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, jismoniy rivojlanish.*

Аннотация

Дошкольное образование играет решающую роль в формировании когнитивного, эмоционального и социального развития ребенка. В последние годы растет признание важности включения музыкальных и ритмических движений в программы дошкольного образования. В этой статье исследуются многогранные преимущества такой деятельности, опираясь на исследования в различных дисциплинах, включая нейробиологию, психологию и образование. В нем обсуждается, как музыкальные и ритмические движения улучшают когнитивные способности детей, социально-эмоциональные навыки и физическое развитие, в конечном итоге закладывая прочный фундамент для будущих успехов в учебе и общего благополучия.

Ключевые слова: *дошкольное образование, музыкальная деятельность, ритмические движения, познавательное развитие, социально-эмоциональное развитие, физическое развитие.*

Annotation

Pre-school education plays a crucial role in shaping a child’s cognitive, emotional, and social development. In recent years, there has been growing recognition of the significance of incorporating musical and rhythmic movements into pre-school curricula. This article explores the multifaceted benefits of such activities, drawing on research from various disciplines including neuroscience, psychology, and education. It discusses how musical and rhythmic movements enhance children’s cognitive abilities, socio-emotional skills, and physical development, ultimately laying a strong foundation for future academic success and overall well-being.

Keywords: *Pre-school education, musical activities, rhythmic movements, cognitive development, socio-emotional development, physical development.*

Ritmik gimnastika mashg‘ulotlari bolalarga quvonch keltirishi kerak, aks holda ular o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Musiqa ostidagi harakat orqali bolalar san’at asaridan kuchli his-tuyg‘ularni qabul qilib, uni chuqurroq idrok etishga o‘rganadilar. Bu ularning tasavvurini rivojlantirishga va didni shakllantirishga yordam beradi. E.Jak-Dalkroz musiqiy va ritmik ta’lim inson irodasi, xarakteri va intellektining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidladi. Ijodkorlikni rivojlantirishga eng ko‘p yordam beradigan musiqiy faoliyat turlaridan biri bu musiqiy harakatdir[1, 95]

Musiqiy harakatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy ijodkorlik va ijodiy shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish nuqtayi nazaridan musiqiy faoliyatning eng samarali turi hisoblanadi. Fiziologlar, psixologlar, o‘qituvchilar va shifokorlarning terapevtik va tarbiyaviy maqsadda hayot qonunlarini o‘rganishlari, tabiatda va mehnat jarayonlarida harakat ritmini samaradorlikka ta’sirini kuzatishlari musiqani harakat bilan birgalikda ishlatishga e’tibor berishni ta’kidlashadi. Musiqa va harakatning organik birligi zarur va tabiiydir. Harakatlar musiqaning mazmunini ochishi va unga kompozitsiya, xarakter, dinamika, temp va metr ritmiga mos kelishi kerak. Shu bilan birga, harakatlar musiqa asarini ongli ravishda idrok etishga undaydi. Musiqa va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikning yorqin misollarini balet tomoshalari va figurali uchish va badiiy gimnastika kabi sport turlari ko‘rsatadi. Shuning uchun harakat musiqa ta’limida muhim va majburiy komponent sifatida ishtirok etishi kerak.Uning imkoniyatlaridan foydalanmaslik musiqa pedagogikasida katta xato hisoblanadi [2, 104]

Turli musiqiy asarlar bolalarda hissiy kechinmalarni uyg‘otadi, ma’lum kayfiyatlarni keltirib chiqaradi, ularning ta’siri ostida harakatlar tegishli xarakterga ega bo‘ladi. Chunonchi, bayramona marshning tantanali ovozi kishini quvontiradi va jonlantiradi. Bu qomatni holati, qo‘l va oyoqlarning aniq, qat’iy harakatlarida ifodalanadi. Raqsning sokin, kuychan tabiati, aksincha, qomat holatini erkin, harakatlarni shoshilmay, yumshoqroq va silliqroq bajarish imkonini beradi.

Musiqa va harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ularning umumiy xarakterining izchilligi bilan cheklanmaydi. Mu-

siqiy tasvirning rivojlanishi, kontrastli dastlabki musiqiy tuzilmalarni taqqoslash, lad tabiati, ritmik ko‘rinishning xususiyatlari, dinamik belgilar, temp — bularning barchasi harakatda aks etishi mumkin [3, 116].

Musiqada badiiy obraz vaqt o‘tishi bilan rivojlanib boradi, bu ifoda vositalarining uyg‘unligi va almashinishi orqali amalga oshadi. Harakat ham vaqt ichida joylashgan: uning xarakteri va yo‘nalishi o‘zgaradi, umumiy ko‘rinish ochiladi, uning individual yoki guruhli ketma-ketligi almashinadi.

Musiqadagi qarama-qarshilik va takrorlanish tamoyili o‘xshashlik bilan harakat va uning takrorlanishining qarama-qarshiligini keltirib chiqaradi. Oddiy ritmlar va urg‘u berish qarsak chalish va oyoqda to‘pillatish; dinamik, temp belgilari — holatlar tarangligi, tezlik, amplituda va harakatlar yo‘nalishidagi o‘zgarishlar orqali ijro etiladi.

Harakatlar musiqa asarini to‘liqroq idrok etishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ularga alohida ekspressivlik beradi. Ushbu o‘zaro ta’sirda musiqa yetakchi o‘rinni egallaydi va harakatlar badiiy tasvirlarni ifodalashning o‘ziga xos vositasiga aylanadi.

Musiqa shunchaki harakatga hamroh bo‘lmaydi, balki uning mohiyatini belgilaydi, ya’ni harakat faqat musiqa jo‘rligidagi yoki musiqa fonidagi harakat bo‘lishi kerak emas, u quyidagilarga mos kelishi kerak:

– musiqa tabiatiga;

– musiqiy ifoda vositalariga;

– musiqiy asarning shakliga.

Musiqa va harakat birlashib, yangi toifani - musiqiy-ritmik harakatlarni yaratadi, bu maktabgacha yoshdagi bola uchun o‘zini o‘zi ifoda etishning eng qulay shakli bo‘lib, unga har tomonlama rivojlanish imkoniyatini beradi [4, 69].

Musiqiy, ritmik va raqs faoliyatining bolalarning ijodiy qobiliyatlariga ta’sirini o‘rganish uchun 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bolalar ikkita eksperimental guruhga va bitta nazorat guruhiga bo‘lingan. Eksperimental guruhlarda musiqa va raqs mashg‘ulotlari olib borilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bolalar bunday mashg‘ulotlarga qatnashmadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilishda musiqa, ritmik va raqs harakatlariga ko‘proq e’tibor berish kerak edi [5, 168].

Asosiy yo‘nalish — shaxsni korreksiyalashga, uning erkin bo‘lishiga hissa qo‘shuvchi obrazli musiqiy-harakatli etyudlar jamlamasi. Bolaga nafaqat pantomima orqali, balki imo-ishora tili va mimikadan foydalangan holda ma’lum bir tasvirni gavdalantirish vazifasi beriladi.

Ikkinchi yo‘nalish — asosiy harakatlarni: yurish, yugurish, sakrashning har xil turlari, harakat texnikasini o‘zlashtirish.

Uchinchi yo‘nalish — raqs harakatlari va raqslar bo‘lib, ular yordamida muloqot qilishga alohida e’tibor beriladi.

To‘rtinchi yo‘nalish — muhit, joyda harakatlana olish.

Beshinchisi yo‘nalish — harakatda bolalarning individual ijodiy namoyon bo‘lishi — improvizatsiya.

Bolalarning o‘zlari tomonidan tanlangan eng yaxshi variantlar guruh kompozitsiyalari uchun asos bo‘ladi. Harakat yordamida raqs ijodi bolalar uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan o‘yinlar, aylana atrofi raqslar, mashqlar, sahna ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

1. Musiqiy o‘yin.

O‘yin — musiqaning hissiy mazmunini ifodalashga qaratilgan eng faol ijodiy faoliyat bo‘lib, obrazli harakatlarda amalga oshiriladi. O‘yin ma’lum bir syujetga, qoidalarga, musiqiy va o‘quv vazifalariga ega va qiziqarli shaklga soddalashtirilgan holda dasturlash ko‘nikmalarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

2. Raqslar, aylana bo‘ylab raqslar.

Musiqiy va ritmik harakatlarning o‘ziga xos shakli bolalar raqslari, aylana atrofi raqslari, shu jumladan xalq va klassik raqs harakatlarining elementlari. Ularni maqsadlari va umumiy mazmunidan kelib chiqib ketma-ketligini shunday guruhlash mumkin:

– qo‘zg‘almas harakatlarga ega raqslar, ularning tuzilishi har doim musiqa asarining shakliga bog‘liq;

– qo‘zg‘almas harakatlar va erkin improvizatsiya bilan aralash raqslar;

– ijodiy xarakterga ega va xalq raqslari kuylariga ijro etiladigan erkin raqslar. Bolalar raqslar, shakllar, mashqlarning tanish elementlaridan foydalanib, ularni yangi usulda birlashtirib, “o‘z” raqsini ixtiro qiladilar;

– ko‘pincha xalq qo‘shiqlari bilan bog‘liq bo‘lgan raqs xarakteridagi aylana atrofi raqslar, ularni ijro etishda bolalar syujetni raqs harakatlari sahnalashtiradi;

– bolalar “bal raqsi”larining, shu jumladan polkalar, galop va valsga o‘xshash turli harakatlari. Musiqaning yengil, jonli tabiati doimo takrorlanadigan raqs elementlari (polka qadami, galop qadami) bilan birga keladi;

– “erkin” raqs harakatlari syujet qahramoni tomonidan o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladigan xarakterli raqs.

Mashq. Musiqiy-ritmik ko‘nikmalar asosan o‘yinlar, raqslar, aylana atrofi raqslarni o‘rganish jarayonida o‘zlashtiriladi. Biroq ularning ba’zilari qo‘shimcha mashg‘ulot va mashqlarni talab qiladi. Masalan, bolalarni ijroda ritmik ko‘rinish va urg‘u berish qismlarini aniq bajarishga o‘rgatish kerak. Musiqa rahbari vazifani qiziqarli shaklda qo‘yib, bolalarga uni yengishga yordam beradi. Ba’zi mashqlar o‘yin tasvirini yetkazib berish, yurish, yugurish, sakrashda ifodali harakat ko‘nikmalariga yordam beradi, shuningdek, individual raqs elementlarini o‘zlashtirishga o‘rgatadi. Raqs ijodini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulot davomida bolalar va pedagogning barcha faoliyati quyidagi bosqichlardan o‘tdi:

1. “Mashq + obraz”;

2. “O‘yin + obraz”;

3. “Tinglash + fantaziya”;

4. “Raqs + fantaziya”.

Har bir bosqich uchun maqsad belgilandi, tegishli

harakatlar, o‘yin va ijodiy vazifalar, musiqiy repertuar tanlab olindi. Birinchi bosqichda o‘quv muammosini hal qilishga imkon beradigan vazifalar qo‘llanildi, qolganlari esa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

1-bosqich — “Mashq + obraz”. Maqsad: tasviriy mashqlarni o‘zlashtirish. Bu mashqlar harakat sifatlari (plastiklik, chaqqonlik va boshqalar) va harakat qobiliyatlarini rivojlantirishni boshlaydi.

2-bosqich — “O‘yin + obraz”. Maqsad: bolalarni o‘yin tasvirini va uning xususiyatlarini yetkazadigan turli xil taqlid harakatlarini tanlash va namoyish etishga o‘rgatish.

3-bosqich — “Tinglash + fantaziya”. Maqsad: musiqa asarini idrok etish qobiliyatini va musiqa tufayli yuzaga kelgan his-tuyg‘ularini erkin raqs, aylana atrofi raqs yoki qo‘shiqni saxnalashtirish orqali ifodalash qobiliyatini rivojlantirish. Bolalardan musiqa asarini tinglash, uning xarakterini (dinamikasi, tempini) aniqlash, musiqiy tasvirga mos keladigan harakatlarni nomlash taklif etiladi. Munozaradan so‘ng, eshitilgan musiqani plastik harakatlarga aylantirish vazifasi taklif etiladi.

4-bosqich — “Raqs + fantaziya”. Maqsad: aniq belgilangan harakatlar bilan kombinatsiyalangan raqslarda, improvizatsiya raqslarida bolalar ijodiyotini rivojlantirish. Aniq belgilangan harakatlar bilan raqslarni o‘rganishdan oldin musiqa rahbari birinchi navbatda musiqa tinglaydi, so‘ngra bolalar bilan ilgari o‘rganilgan mashqlarga asoslanib, raqsni bir butun sifatida namoyish qiladi. Raqs namoyishidan so‘ng bolalarga raqs kompozitsiyasini mustaqil ravishda bajarish vazifasi beriladi.

Natijalar. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, musiqiy-ritmik va raqs faoliyati bilan shug‘ullanadigan bolalarning ijodiy qobiliyatlari nazorat guruhiga qaraganda ancha rivojlangan. Ushbu tadbirlar xayolotni, harakatni muvofiqlashtirishni va hissiy ekspressivlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Xoreografiya va gimnastika bilan shug‘ullangan bolalarning turli xil va murakkab muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Bu bolalar bilan ishlash uchun nafaqat xalq musiqasi, bolalar qo‘shiqlari, balki ba’zi klassik asarlar asosida ham murakkabroq repertuar tanlash imkonini beradi. Bolalar hayotining turli daqiqalarida musiqa va raqs bilan muloqot qilish ularga turli pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Eng katta hissa, albatta, aqliy rivojlanish bilimlaridan oqilona foydalangan holda bolaning shaxsiyatini shakllantirishga qo‘shiladi. Musiqa uchun harakat bir qator ritmik mashg‘ulot vazifalarini to‘ldiradi:

– salbiy his-tuyg‘ular chiqib ketadi va asabiy taranglikni yengillashtiradi;

– ko‘tarinki kayfiyatni yaratadi;

– faollik va tashabbusni rivojlantiradi;

– harakatlarni muvofiqlashtirish, ularni ixtiyoriy ravishda boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa shuki, kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarni idrok etish xususiyatlarini bilish musiqa rahbariga o‘qitish usullaridan eng to‘g‘ri va malakali foydalanish imkonini beradi. Bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyati shundaki, taqlid harakatlari yoki obrazli taqqoslashdan foydalanish harakatning aniqligi, ravshanligi va mazmunliligini rivojlantirishga yordam beradi. Ritmika mashg‘ulotlari bolalarga quvonch va zavq bag‘ishlaydi. Ammo harakatlarning mazmuni ham, tabiati ham tushunarli bo‘lishi kerak. Ba’zi bolalar xulq-atvorni, taranglikni ko‘rsatishi va mashqlarning faqat tashqi shaklini ochib berishi mumkin.

Shunday qilib, yana quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: musiqiy va ritmik faoliyat sohasidagi muammolarni hal qilish bo‘yicha izchil va tizimli ishlar bolalarning tasavvurini, ijodiy faolligini rivojlantiradi, ularni idrok etilayotgan musiqaga ongli munosabatda bo‘lishga va harakatlarni hissiy dinamik idrok etishga o‘rgatadi. Bularning barchasi bolani quvonch bilan to‘ldiradi va bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasasida to‘laqonli xordiq olishni yaratish pedagogning asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Раевская Е.П., Руднева С.Д., Соболева Г.Н., Ушакова З.Н. Музыкально-двигательные упражнения в детском саду. – М., Просвещение, 1991. – 222 с.

2. Базарова Н.П., Мэй В.П. Азбука классического танца. – Л.: Искусство, 1983. – 207 с.

3. Бекина С.И., Ломова Т.П., Соковнина Е.Н. Музыка и движение. – М.: Просвещение, 1984. – 288 с.

4. Ветлугина Н. А., Кенеман А. В.Теория и методика музыкального воспитания в детском саду: Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. “Дошкол. педагогика и психология”. – М.: Просвещение, 1983. – 255 с.

5. Чернобровкин В. А., Сагитова А. Н. СОВРЕМЕННЫЕ ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНО-ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Петровские образовательные чтения. Духовно-нравственные ценности молодёжи в российском обществе. – 2022. – С. 167-174.

МОНИТОРИНГ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РОСТА ПЕДАГОГОВ

Клара Ахметова,
Старший преподаватель кафедры
“Педагогика и психология” TMCI

Аннотация

В данной статье раскрывается сущность и значение мониторинга системы повышения квалификации и профессионального роста педагогов. Статья содержит ряд советов и рекомендаций, назначение которых заключается в оказании содействия руководителям отделов мониторинга, руководителям образовательных учреждений и преподавателям в понимании, освоении и практической реализации технологии разработки и осуществления мониторингового отслеживания. Основными направлениями мониторинга считаются контроль и диагностику. Они дают возможность получить достоверную и объективную информацию о результатах личностно-профессионального роста педагога, понять причины допущенных ошибок для того, чтобы предотвродить их появление в дальнейшем.

Ключевые слова: *мониторинг, диагностика, контроль, система повышения квалификации, профессия, профессиональный рост, аксиология, информация, объект мониторинга, принципы мониторинга.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularning malakasini oshirish tizimini monitoring qilishning mohiyati va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada bir qator maslahatlar va tavsiyalar mavjud bo‘lib, ularning maqsadi monitoring bo‘limlari boshliqlariga, ta’lim muassasalari rahbarlariga va o‘qituvchilarga monitoringni kuzatishni ishlab chiqish va amalga oshirish texnologiyasini tushunish, o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishda yordam berishdir. Monitoringning asosiy yo‘nalishlari — nazorat va diagnostika. Ular o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘sishi natijalari to‘g‘risida ishonchli va obyektiv ma’lumot olish, kelajakda ularning paydo bo‘lishining oldini olish uchun yo‘l qo‘yilgan xatolar sabablarini tushunish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *monitoring, diagnostika, nazorat, malaka oshirish tizimi, kasb, kasbiy o‘sish, aksiologiya, axborot, monitoring obyekti, monitoring tamoyillari.*

Annotation

This article reveals the essence and significance of monitoring the system of advanced training and professional growth of teachers. The article contains a number of tips and recommendations, the purpose of which is to assist heads of monitoring departments, heads of educational institutions and teachers in understanding, mastering and practical implementation of the technology for developing and implementing monitoring tracking. The main areas of monitoring are control and diagnostics. They make it possible to obtain reliable and objective information about the results of a teacher’s personal and professional growth, to understand the reasons for mistakes made in order to prevent their occurrence in the future.

Keywords: *monitoring, diagnostics, control, advanced training system, profession, professional growth, axiology, information, object of monitoring, principles of monitoring.*

Потребность в системном обновлении знаний, умений, навыков приобретенных в процессе профессиональной подготовки специалистов в высшем учебном заведении, формирования у них необходимых компетенций актуализирует развитие системы повышения квалификации в целом и институтов повышения квалификации педагогов в частности.

На сегодняшний день качественное и эффективное образование во многом определяет востребованность специалиста на рынке труда, его конкурентоспособность в быстро изменяющихся социально-экономических условиях. В конечном результате качество образования имеет определяющее значение для построения личной профессиональной траектории развития специалиста.

Поэтому наиболее принципиальное значение в настоящее время придается повышению образовательного и профессионального уровня преподавателей. Это обусловлено тем, что только самостоятельный и творческий профессионал, активный субъект на рынке образовательных услуг, обладающий индивидуальным стилем профессиональной деятельности, умеющий распоряжаться своим интеллектуальным потенциалом, постоянно развивающий свою педагогическую компетентность, способен реализации современных идей приоритетных направлений социально-экономического развития нашей страны.

Педагогика, как социальная наука, находится в постоянном движении: обогащается вместе с развитием общества новыми знаниями, соответственно и новыми понятиями. Педагогу-практику порой очень сложно в них ориентироваться. И как следствие некоторые из них, может быть, не достаточно знакомы сущностью мониторинга, поэтому мы постараемся разъяснить это понятие, раскрыть общую характеристику мониторинга в системе повышения квалификации, ответить

на такие вопросы, как что собой представляет мониторинг с точки зрения технологического процесса, как разработать программу мониторинга эффективности процесса повышения квалификации и провести мониторинговую оценку.

Система повышения квалификации педагогических кадров является одной из подсистем непрерывного образования. Данная система рассматривается как процесс непрерывного развития личности специалиста, то есть “процесс, который протекает на протяжении всей жизни человека и направлен на наиболее полное раскрытие его способностей в интеллектуальном, моральном, духовном отношениях. Эта подструктура должна способствовать личностному и профессиональному развитию педагога на основе “аксиологического основания образования для устойчивого развития системы постматериальных ценностей” и “формирования гуманитарной культуры педагога.

В Законе Республики Узбекистан “Об образовании” подчёркивается: “Повышение профессиональной квалификации кадров осуществляется с целью углубления и обновления профессиональных знаний, умений и навыков, в соответствии с требованиями общественного развития, научно-технического прогресса с учетом индивидуальных потребностей людей”[1].

Система переподготовки и повышения квалификации кадров — это одна из основных систем профессионального образования, обеспечивающая обновление профессиональных знаний, умений и навыков, повышающая профессиональный уровень, который обеспечивает различные отрасли высококвалифицированными, профессиональными кадрами [2, 145].

Повышение квалификации является:

– для общества в целом — механизмом расширенного воспроизводства его культурного и профессионального потенциала, условием развития общественного производства, ускорения социально-экономического прогресса страны;

– для государства — ведущей сферой социальной политики по обеспечению благоприятных условий для общего и профессионального развития личности каждого человека.

Основная задача этой системы заключается в постоянном обогащении специалистов профессиональными знаниями, умениями и навыками, поддержании их на конкурентоспособном уровне. Другой важнейшей задачей в переходный период является переподготовка и повышение квалификации ранее выпущенных специалистов с высшим и средним профессиональным образованием с целью включения их в активную деятельность в условиях рыночных отношений [3, 13].

Государственные требования переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров применяются для организационного и научно-методического обеспечения образовательной деятельности учреждений в области переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров всех видов непрерывного образования и определяют:

– структуру системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров;

– основные виды и формы переподготовки и повышения квалификации:

– общие требования к содержанию и качеству переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров;

– ўқувчиларда ижтимоий компетентликни шакллантиришда таянч компетенцияларнинг муҳим аҳамият касб этишини педагогик жиҳатдан асослаш;

– таянч компетенцияларни шакллантириш мақсадларига кўра дидактик материалларни табақалаштириш;

– таянч компетенцияларни шакллантиришда ўқитувчиларнинг ўқув жараёнини лойиҳалаш имкониятларидан самарали фойдаланиш.

Таянч компетенцияларнинг дунё бўйича ягона рўйхати йўқ. Чунки ҳар бир мамлакатнинг ёки регионнинг ўз анъаналари, менталитети ва ўзига хос талаблари бор. Компетенция — бу жамиятнинг ўз фуқароларига қўйган ижтимоий буюртмаси бўлиб, уларнинг рўйхати маълум бир мамлакатдаги ёки региондаги ижтимоий муҳит билан белгиланади. Бундай келишувга ҳар доим ҳам эришиб бўлмайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. Вербицкий А.А. Инварианты профессионализма; проблемы формирования: монография [Текст] / А.А.Вербицкий, М.Д.Ильязова. – М.: Логос, 2011. – 288 с.

3. Горб В.Г. Основная образовательная программа вуза: проблемы и решения// Стандарты и мониторинг. – 2004. – N22. – С. 22 -31.

4. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к модернизации профессеонального образования [Текст] / Э.Ф.Зеер, Э.А.Сыманок // Высшее образование в России. – 2005. – № 4. – С. 23–30.

5. Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании (методолого-теоретический аспект) [Текст] / И.А.Зимняя // Проблемы качества образования : материалы XV Всерос. науч.-метод. конф.: в 3 кн. Кн. 2. – М.: Уфа: Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов моск. гос. ин-та стали и сплавов (технол. ун-та), 2005. – С. 5-26.

6. Козырев В.А., Радионова Н.Ф., Тряпицына А.Н. Направления модернизации педагогического образования// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. – Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002. – С. 3-10.

7. Писарева С.А. Диссертационные исследования “компетентности” учителя и ученика// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. – Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002, – С. 180-190.

8. Садикова Ш.О. Ппедагогик фаолиятга тайёрлашда шахсга йўналтирилган технологияларнинг ўрни. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 2021. – 377-380 б.

9. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования//Пар. Образование. – 2003. – №2. – С. 58-76.

10. Шишов С.Е., Агапов И.Г. Компетентности подход к образованию: прихоть или необходимость? // Стандарты и мониторинг. – 2002. – №2. – С. 58-62.

MILLATLARARO MUNOSABATLAR SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Kamronbek Saparboyev,
Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti,
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Barqaror taraqqiyotni ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri — bu har bir mamlakat konstitutsiyasida belgilangan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va yaqin qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosat yuritishning e’tirof etilishi, kafolatlanishi va uning bajarilishini ta’minlanishidir. Shundan kelib chiqib, bugun O‘zbekiston o‘zining yangi taraqqiyot bosqichida millatlararo hamjihatlik va yaqin qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirgan. Aynan mazkur maqola yurtimizda konstitutsiyaga muvofiq, millatlararo munosabatlar sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va madaniy munosabatlar tizimidagi o‘rini tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *globallashuv, millat, erkinlik, konfessiya, konstitutsiya, taraqqiyot, deklaratsiya, genotsid, tolerantlik, rezolyutsiya, strategiya*

Аннотация

Одним из важнейших условий обеспечения устойчивого развития является поддержание межрелигиозного согласия и этнической толерантности, как это определено в конституции каждой страны, а также признание проведения внешней политики, основанной на глубоком анализе, взаимной выгоде и тесном соседстве. Исходя из этого, сегодня Узбекистан сделал укрепил атмосферу межрелигиозной солидарности и дружественных соседских отношений, сделал развитие дружественных связей с другими странами как одним из приоритетов государственной политики на новом этапе развития. В данной статье рассматривается роль государственной политики в области межрелигиозных отношений в системе социально-экономических, национально-культурных отношений особенностей нашей страны в соответствии с Конституцией.

Ключевые слова: *глобализация, нация, свобода, конфессия, конституция, развитие, декларация, геноцид, толерантность, резолюция, стратегия.*

Annotation

One of the most important conditions for ensuring sustainable development is to promote inter-ethnic harmony and religious tolerance as defined in the constitution of each country, and to pursue a well-thought-out, mutually beneficial, and close-neighborly foreign policy that guarantees and ensures its implementation. The fact that this policy is reflected in several articles of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan helps to enhance the atmosphere of inter-ethnic harmony and tolerance in our country. This article examines the role of state policy in the field of inter-ethnic relations within the system of socio-economic, national, and cultural relations in our country in accordance with the constitution.

Keywords: *globalization, nation, freedom, confession, constitution, development, declaration, genocide, tolerance, resolution, strategy*

XXI asrga kelib jahon hamjamiyatida turli g‘oyaviy qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olib, chegara va hudud tanlamaydigan global muammo va xavflar vujudga kelmoqda. Dunyodagi axborotlashuv va globallashuv jarayonining intensivlashuvi mintaqalarda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik qadriyatlariga raxna solmoqda. Buni ortida turgan siyosiy kuchlar o‘zlarining ta’sirlarini o‘tkazish maqsadida turli mafkuraviy vositalardan foydalanib, millatlararo bag‘rikenglik siyosatini olib borishga katta to‘siq bo‘lmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, dunyo miqyosida turli etnik va diniy ziddiyatlar avj olib, osuda hayotimiz, hamjihatligimizga nisbatan tahdidlar kuchayib borayotgan bir paytda “ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatimizni yanada birlashtirish, yoshlarimizda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yuksaltirish alohida ahamiyat kasb etmoqda” [1, 452].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlararo munosabatlarni ta’minlashning konstitutsyaviy jihatlarini tadqiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning konseptual g‘oyalari tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qildi.

Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugun jahoning ikki yuzdan ortiq davlatida ikki mingga yaqin millat, elat va qabilalar yashaydi. Ular bir-birlari bilan yetti mingdan ortiq tillarda muloqot qilishib, ularning atigi to‘rt mingdan oshiqrog‘i o‘z yozuviga ega. Biror bir davlat yo‘qki unda faqat bir millat vakillari yashasa. Jumladan, O‘zbekistonda ham 140 dan ortiq millatga mansub insonlar bahamjihat yashab kelmoqdalar. Shuning uchun ham, mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida strategik islohotlarni iz-

chil davom ettirishda avvalambor, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali xalqning huquq va erkinliklari e’tirof etilib, ularni “O‘zbekiston yagona Vatan” maqsadi yo‘lida birlashtirish nazarda tutilgan. Ushbu siyosatni biz Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida belgilab qo‘yilgan “barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida teng”ligi [2, 13] prinsipini implementatsiya qilish asosida erishishimiz mumkin.

Nimaga deganda, hozirgi ijtimoiy keskinlik kuchaygan bir paytda, siyosiy kuchlar urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi destruktiv g‘oyalardan mamlakatimiz yaxlitligi va barqarorligiga katta xavf tug‘dirishi mumkin. Shu bois mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatida konstitutsiyamiz muqaddimasida umume’tirof etilgan “millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlash” prinsiplariga alohida e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Zero, millatlar birdamligiga asoslangan davlat siyosati zamirida umuminsoniy sivilizatsiya yutuqlariga hurmat, umuminsoniy madaniyat va qadriyatlarni tushunish va tan olish nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi normalar o‘zbek xalqida asrlar davomida shakllangan millatlararo totuvlik va hamjihatlikning o‘ziga xos prinsiplarini ifoda etib, ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, millatlararo munosabatlarning o‘zbek xalqiga xos jihatlari uning insonparvarlik, bag‘rikenglik, saxiylik, mehmondo‘stlik, keksalarni e’zozlash singari fazilatlarida namoyon bo‘lishi Konstitutsiyaning 4-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [2, 6].

ikkinchidan, “O‘zbekiston — yagona Vatan”, “Turkiston umumiy uyimiz”, “Bir makon — bir yo‘l” g‘oyalari yurtimizda yashayotgan turli millat vakillarini 8-moddadagi “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” [2, 7] degan oliy maqsad sari birlashish uchun obyektiv ehtiyoj sifatida shakllanganligida ifodalangan. O‘zining potensial yaratuvchanlik kuchi orqali Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini barpo etishga bo‘lgan mas’uliyat Vatanimizda yashovchi barcha millat va elat vakillarini o‘z atrofida birlashtirgan;

uchinchidan, xalqimiz tarixida milliy birdamlik va totuvlik fazilatlari ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib borgan. Bu prinsip konstitutsiyamizning muqaddimasida “O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga” [2, 3] intilishi misolida ko‘rishimiz mumkin;

to‘rtinchidan, yurtimizda millatlararo munosabatlar ijtimoiy tenglik prinsipiga asoslanib, konstititusiyamizning 19-moddasi xalqaro umume’tirof etilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasidagi “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak” [7] degan demokratik qadriyatlar bilan hamohangdir;

beshinchidan, bugungi kunda O‘zbekistonda barcha millat va etnoslarning tili, ularning qadriyat, urf-odat va an’analarining hurmat qilinishi va kamoloti uchun teng imkoniyatlarning kafolatlanganligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, “Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda” [3, 32].

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning turli ko‘rinishdagi nizo va adovatni keltirib chiqarishga sabab bo‘luvchi, boshqa millat vakillarning huquq va manfaatlariga zid bo‘lgan har qanday hatti-harakatning qonuniy jihatdan cheklab qo‘yilgan. Bu norma konstitutsiyamizning 71-moddasida “ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi” [2, 41], deb mustahkamlab qo‘yilgan.

yettinchidan, mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni ta’minlashda konstitutsiyamiz muqaddimasida e’tirof etilgan inson huquq va erkinliklari ustuvorligi, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga prinsiplariga sodiqligimiz tan olingan. Buning amaliy ifodasini jahonda e’tirof etilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risidagi konvensiya (1948), “Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida konvensiya (1965), Din yoki e’tiqodlar zamiridagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish tog‘risida deklaratsiya (1981), Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi (1995) kabi xalqaro hujjatlarni yurtimizda ratifaktsiya qilingani misolida ko‘rishimiz mumkin” [4, 156-157].

Umuman olganda, yurtimizda millatlararo munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan davlatimiz siyosati umumiy jihatlari umume’tirof etilgan prinsip va normalarda o‘z ifodasini topgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasimizni tayyorlashda bu prinsiplar inobatga olingan. Jumladan, 1994-yilning sentyabr oyida BMT Bosh assambleyasining rasmiy hujjatlarida tolerantlikka bag‘ishlangan BMT yili doirasidagi harakat dasturining asosiy yo‘nalishlari belgilab olinishi buning yorqin isbotidir.

1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasi “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”ni qabul qilinib, uni O‘zbekiston ham 185 davlat qatorida imzolaganligi diqqatga sazovor. Mazkur deklaratsiyaning birinchi moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Tolerantlik dunyoyimiz madaniyatlarining bag‘oyat xilma-xilligini,

fikr mulohazalarni ifodalash shakllarini va insoniy o‘ziga xoslikni namoyon etish usullarini hurmat qilish, qabul etish va to‘g‘ri anglashni bildiradi. Bilimlar, oshkoralik, muloqot hamda fikr, vijdon va e’tiqod erkinligi bunga ko‘maklashadi” [5, 263]. Ushbu ta’rifning Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida ham uchrashi, yurtimizda millatlararo hamjihatlik sohasida olib borilayotgan siyosatning hayotbaxsh ekanligidan dalolat beradi.

Jahon hamjamiyatida bugungi globallashuv jarayonidagi milliy, etnik va diniy ziddiyatlar, terroristik tahdidlarning keskin avj olishi, dunyoning turli mintaqalarida qonli to‘qnashuv va nizolarni keltirib chiqarmoqda. “Hozir dunyodagi aksar davlatlarda ushbu buzg‘unchi kuchga qarshi kurashuvchi tuzilmalar barpo etilgan, ular oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘yilgan” [6, 12]. Shunday qaltis va murakkab vaziyatlarda turli mafkura va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan xatarlarga qarshi birgalikda kurashish siyosatini yo‘lga qo‘yilishini hozirgi davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatini mustahkamlash va uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, mamlakatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali xalqlar maskanidir. Bunday vaziyat millatlararo va dinlararo bag‘rikenglikni o‘zaro hurmat va ehtirom, bag‘rikenglik va pragmatik siyosat asosida olib borish zaruriyatini tug‘diradi. Bu munosabatlarga ta’sir etuvchi tashqi omillar mamlakatimizning qulay geosiyosiy mavqeyi, turli millat va tashkilotlar manfaatlari to‘qnash kelgan nuqta ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, mamlakatimiz mintaqaviy va Xalqaro tashkilotlarning faol a’zosi bo‘lib, o‘zining ichki va tashqi siyosatini hamjihatlik, tinchlik va barqaror taraqqiyot prinsiplariga asoslanishi va uning konstitutsiya va qonunlarimizda o‘z ifodasini topganligi diqqatga sazovor. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida qo‘shni mamlakatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratganligi va Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasining BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinishi e’tirofga molikdir.

Millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan davlatimiz konstruktiv siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 15-noyabr kuni “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadida belgilangan “Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash” hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi 100-maqsadning “Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish”ga bag‘ishlanganligi O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatidagi nufuzini oshirib, bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilayotganligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi do‘stlik va totuvlik muhiti, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim” [1, 37].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ko‘plab mamlakatlar bilan chuqur diplomatik aloqalar o‘rnatmoqda va aloqalarni rivojlantirmoqda. Millatlararo totuvlikda diplomatiya masalalari ayniqsa xalq diplomatiyasi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa yuqorida zikr qilingan fikrlarga misol tariqasida Markaziy Osiyo davlatlarini olishimiz mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlarining millatlararo totuvlikni ta’minlash borasidagi axborot va ilmiy salohiyatini kundan-kunga oshmoqda. Azaldan yaqin qo‘shni bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida madaniyatlarini namoyish etish va yaqinlashtirish, shuningdek, kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro faol va mustahkam yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, ishonch muhitini saqlashga hamda O‘zbekistonda xalq diplomatiyasi asosida chet eldagi vatandoshlari bilan muntazam munosabatlarni yo‘lga qo‘yish bugungi globallashayotgan asrimizning aktual mavzusidir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va madaniy-ma’rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali O‘zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va elat vakillarining tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, milliy an’analari va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning eng muhim maqsadlaridan biri bo‘lmoqda desak bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taraqqiyotning yangi bosqichida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasida quyidagi strategik islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, mamlakatimiz konstitutsiyada mustahkamlangan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik prinsipini ta’minlashda xorijiy davlatlar bilan hamdo‘stlik aloqalarini mustahkamlash va yurtimizdagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini kuchaytirish;

ikkinchidan, jahon siyosiy xaritasida sodir bo‘layotgan milliy, irqiy va diniy kelishmovchiliklarning oldini olish borasida profilaktik faoliyatni yo‘lga qo‘yish va millatlararo munosabatlar jarayonini monitoring qilish mexanizmlarini yaratish;

uchinchidan, turli millat va elat vakillariga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirishda konstitutsiya va xalqaro hujjatlarda e’tirof etilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish;

to‘rtinchidan, millatlararo hamjihatlik va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish sohasida mutaxassis kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularning

malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bugun yurtimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash sohasida olib borayotgan davlat siyosatining asosidir. Ushbu normalarning implementatsiyasi esa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari qalbida yangicha dunyoqarash va tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat va hurmatda bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2-жилд, 2020. – Б.452.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 120 b.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 32.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – B.41.
5. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: “O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2012. – B. 156-157.
6. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi. – T.: “Adolat”, 2002. – B.263.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi// https://constitution.uz/oz/ pages/humanRights

ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ ТАМОЙИЛЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Мухлиса Омонова,
Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация

Мақолада танқидий фикрлаш қобилияти таълимни ахборотлаштириш шароитида олинган ўқув ва илмий маълумотларни малакали таҳлил қила олиш, ўрганилаётган фактлар, нормаларнинг мувофиқлигини аниқлаш асосида ўз мулоҳазаларини шакллантириш ва қадриятлар, ўзи ва атрофдаги воқеликка танқидий муносабатни ривожлантириш талабалар учун алоҳида аҳамиятга эга эканлиги ёритиб берилган. Шунингдек, индивидуал таълим тамойилларини ташкил этиш мураккаб ва кўп қиррали жараён эканлиги, талабанинг ўзи томонидан ва гуруҳ, ўқитувчи билан ўзаро муносабатларда амалга оширилиши ва бу жараённинг муваффақияти кўп жиҳатдан таълим муассасасининг таълим майдонини ташкил этишга боғлиқлиги илмий асосланган.

Калит сўзлар: *фикрлаш, мулоҳаза, маълумот, танқид, мақсад, мазмун, маҳорат, билиш, жараён, муваффақият.*

Аннотация

В статье поясняется, что способность критически мыслить — это уметь грамотно анализировать учебную и научную информацию, полученную в условиях информатизации образования, формировать свое мнение на основе определения совместимости изучаемых фактов и норм, а также развивать критическое отношение к ценностям, себе и окружающей действительности. Также научно обосновано, что организация принципов индивидуального обучения — сложный и многогранный процесс, он осуществляется как самим обучающимся, так и во взаимодействии с группой, педагогом, и успех этого процесса во многом зависит от организации обучения. образовательное пространство образовательного учреждения.

Ключевые слова: *мышление, рассуждение, информация, критика, цель, содержание, умение, знание, процесс, успех.*

Annotation

The article explains that the ability to think critically is the ability to competently analyze educational and scientific information obtained in the context of informatization of education, form one’s opinion based on determining the compatibility of the studied facts and norms, and also develop a critical attitude towards values, oneself and the surrounding reality. It is also scientifically substantiated that the organization of the principles of individual learning is a complex and multifaceted process, it is carried out both by the student himself and in interaction with the group, the teacher, and the success of this process largely depends on the organization of learning. educational space of an educational institution.

Keywords: *thinking, reasoning, information, criticism, goal, content, skill, knowledge, process, success.*

2022–2026 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг еттита устувор йўналиши бўйича Тараққиёт стратегиясида “Инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш” устувор вазифа сифатида белгиланган. Олий таълим муассасаларида ушбу вазифаларни амалга ошириш учун ўқитишнинг шундай бир педагогик технологиясини яратиш лозимки, унда таълимнинг мазмуни, мақсади, вазифалари ҳамда таълим олувчиларда танқидий фикрлаш компетенцияларини шакллантиришнинг когнитив, интеллектуал, креатив ва ҳиссий-қадриятли компонентлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликни таъминлаш, B.Blum таксономияси (билиш, тушуниш, қўллаш, таҳлил, синтез, баҳолаш) асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимиз олимларидан Р.Х.Джураев [2, 23], Ш.С.Шарипов [4, 38], Ш.Э.Қурбонов [5, 154] ва бошқалар олий таълим тизимида талабаларнинг танқидий фикрлаш компетенцияларини ривожлантиришнинг айрим жиҳатларини тадқиқ этган.

Индивидуал таълим бериш орқали талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш М.Н.Голдина [1, 11], Н.Ф.Поотников [3] ва бошқаларнинг илмий тадқиқот ишлари ҳам талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришга қаратилган.

Танқидий фикрлаш қобилияти таълимни ахборотлаштириш шароитида олинган ўқув ва илмий маълумотларни малакали таҳлил қила оладиган, ўрганилаётган фактлар, нормаларнинг мувофиқлигини аниқлаш асосида ўз мулоҳазаларини шакллантириши ва қадриятлар, ўзи ва атрофдаги воқеликка танқидий муносабатни ривожлантириши керак бўлган талабалар учун алоҳида аҳамиятга эга. Танқидий фикрлашни ривожлантириш олинган маълумотлардан асосийсини ажратиб олиш, ундаги қарама-қарши фикрларни аниқлаш, асосли хулосалар чиқариш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган ўзаро муносабатларнинг махсус ташкил этилган жараёндир.

Олий таълим муассасасида таълим, биринчи навбатда, талабаларнинг билиш фаолиятини бошқариш жараёнидир. Билиш фаолияти таркибида танқидий фикрлашнинг ўрнини аниқлаш учун хорижий ва маҳаллий тадқиқотчиларнинг концепцияларида шакллантирилган ушбу турдаги фикрлашнинг асосий хусусиятларини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотчилар томонидан аниқланган танқидий фикрлашнинг асосий хусусиятлари талабаларнинг ўқув-билиш компетенцияларининг тизимли компонентлари бўлиб, улар ташкил этиш, мақсад қўйиш, режалаштириш, таҳлил қилиш, фикрлаш, ўз-ўзига баҳо бериш усулларини ўз ичига олади. Танқидий фикрлашни ривожлантиришнинг юқори даражаси олий таълимдаги ўқув жараёнининг самарадорлигини ошириш ва талабаларнинг ўқув-билиш компетенцияларини изчил ривожлантиришни таъминлаш имконини беради.

Илмий адабиётлар ва тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, танқидий фикрлашнинг турли хил таърифлари мавжуд: танқидий фикрлаш — бу олинган натижаларни стандарт ва ностандарт вазиятлар, саволлар, муаммоларга қўллаш учун мантиқ ва шахсий-психологик ёндашув нуқтаи назаридан маълумотларни таҳлил қилиш қобилиятидир (J.L.Stil); танқидий фикрлаш — таҳлил қилувчи, баҳоловчи, муаммо яратувчи фикрлашдир (И.И.Илясов); танқидий фикрлаш шахснинг ижтимоий ва индивидуал ҳаётида “иштирок этиш”га қаратилади (Г.С.Сухобская). Бу таърифлар умумийликка эга: танқидий фикрлаш — баҳоловчи, рефлексив фикрлашдир.

Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш технологияси биринчи навбатда талабани қизиқтиришга (унда тадқиқотчилик, ижодий фаолликни уйғотиш), сўнгра унга материални тушуниш учун шарт-шароитларни таъминлаш, кейин олинган билимларни умумлаштириш ва амалиётда қўллашда ёрдам беришга қаратилган стратегия ва методлар тўпламини ўз ичига олади.

Талабаларда танқидий фикрлашни ривожлантириш таълим мазмунининг тузилишини ҳисобга олиш ва фикрлашнинг табиати ва турлари, хусусиятлари, ўхшашлик ва фарқлари, танқидий фикрлашнинг мазмунли компонентида ижодий фикрлаш ҳақидаги билимларни ўз ичига олиши керак. Бундан ташқари, талабалар танқидий фикрлаш, танқид ва ўз-ўзини танқид қилиш каби тушунчалар ҳақида тушунчага эга бўлишлари керак.

Педагогик тизимда таълим технологияларидан фойдаланиш талабаларнинг дарснинг мақсади, мазмуни ва тузилишини аниқлашда иштирок этишини таъминлайди, чунки улар компьютер ёрдамида турли хил ва кенг қамровли маълумотлардан фойдаланиш имкониятига эга.

Танқидий фикрлаш шароитида талабаларнинг билиш фаолияти йўлларига таҳлил, синтез, абстракция, умумлаштириш, конкретлаштириш, мулоҳаза юритиш, хулоса чиқариш, индукция, дедукция киради. Талабаларнинг танқидий фикрлаш қобилиятини қизиқувчанлик, яхши билим, кенг фикрлилик, мослашувчанлик, баҳолашда адолатлилик, нотўғри қарашларга қарши шахсий ҳалоллик билан боғлаш муҳимдир.

Танқидий фикрлашни ривожлантириш технологиясида тавсифланган босқичлардан ташқари ўқув жараёни мантиғига ва билимларни ўзлаштириш тузилишига мувофиқ, олинган билимларни амалиётда қўллаш босқичи муҳим аҳамиятга эга. Билимларни қўллаш босқичида талабалар мавҳум маълумотлардан муайян шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга ва-

зифаларни ҳал қилиш, дарсдан ташқари вазиятларда ўқув-билиш компетенцияларни шакллантириш учун фойдаланиш имкониятига эга. Билимларни қўллаш муаммоли ва ижодий вазифаларда, лойиҳа доирасида, ўқув — тадқиқот рефератини тайёрлаш жараёнида ва бошқа турли фаолият шакллари ва турларида амалга оширилиши мумкин.

Талабаларга танқидий фикрлашни ўргатиш самарадорлиги кўп жиҳатдан профессор-ўқитувчининг касбий маҳорат даражаси билан белгиланади. Талабалар фаолиятининг маҳсулдорлиги, шунингдек, ўқув жараёнининг самарадорлиги ўқитувчининг талабаларни танқидий фикрлашга ўргатиши, олинган билимларни идрок этиш, ёдлаш, тушуниш, ўзлаштириш ва амалиётда қўллашни таъминлашга қандай ўргатишига боғлиқдир. Шундай қилиб, танқидий фикрлаш ўқув жараёнининг турли босқичларида талабаларнинг ўқув — билиш компетентлигининг зарурий компонентидир.

Ёндашув, тизим, ташкилий-педагогик шарт-шароитлар ҳамда узвийликни юзага чиқариш шарт-шароитлари каби тушунчаларни ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, тизим — бу бир-бири билан аниқ муносабатларда бўлувчи, энг кичик элементлардан ташкил этувчи маълум бир яхлитлик, яъни элементлар йиғиндисидир. Ёндашув — бу бирон нарсани ўрганишдаги усуллар ва услублар жамланмаси бўлиб, бунда ёндашув — тизим, жараён, йўналиш, ҳодисанинг ривожланишини бошқаришдир. Ташкилий-педагогик шарт-шароитлар — таълим олувчилар ва таълим берувчиларнинг ўқитиш, тарбиялаш ва ривожланишни амалга оширишларига тааллуқли бўлган усуллар, воситалар ва қоидалардир.

Индивидуал таълим тамойиллари асосида талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириш ташкилий-педагогик шарт-шароитлари учта–бошқарув, психологик-педагогик ва илмий-методик блокларни ўз ичига олади: бошқарув блоки меъёрий-ҳуқуқий, молиявий, моддий-техник, кадрлар шарт-шароитларини яратиш, ишлаб чиқариш ва таълим бериш жараёнлари яхлитлигини таъминлаш орқали узлуксиз таълимнинг жадаллаштирувини таъминлайди; психологик-педагогик блок ўқитиш ва тарбиялашга шахсга йўналтирилган ва шахсий-фаолиятли ёндашувларни, таълим жараёнининг инсонпарварлашуви, индивидуаллаштирилиши, дифференсиаллаштирилиши, ижтимоийлашуви, маданийлашувнинг педагогик тамойилларини амалга оширилишини, таълим жараёни иштирокчилари орасидаги қулай шахслараро объектли-субъектли муносабатларнинг ва ижобий барқарор психологик муҳитнинг яратилишини таъминлайди; илмий-методик блок таълим жараёнини ўқув дастурлари, уларнинг методик таъминланиши, ўқитишнинг дидактик воситалари, методикалари ва технологиялари, ўқув-билиш ва ўқув-ишлаб чиқариш фаолиятининг натижаларини назорат қилиш тизими билан таъминланади.

Ташкилий-педагогик шарт-шароитларнинг яхлит компонентли (ижтимоий-иқтисодий, ахборотли, моддий-техник, профессиологик) таркиби ўзаро алоқадор ва ўзаро боғланган бўлади, таълим жараёнининг иштирокчилари орасидаги мақбул ҳолдаги шахслараро объектли-субъектли муносабатлар шароитларида етакчи педагогик тамойиллар асосида ўқитишга ва тарбиялашга шахсий-йўналтирилган ҳамда шахсий-фаолиятли ёндашувларни таъминлайди.

Олий таълим муассасасининг таълим тизимида қуйидаги тамойилларни ҳисобга олиши ва мақсадли равишда фойдаланиш зарурдир: индивидуал ўқитиш тамойили; онгли истиқбол тамойили; таълим тизимининг очиқлиги тамойили; таълим тизимининг мослашувчанлиги тамойили; таълим тизимининг динамиклиги тамойили. Уларнинг синергияси талаба шахсининг когнитив, меъёрий-этикавий, ахборот-коммуникатив, жамоавий-фаолиятли, рефлексив-баҳолашли соҳаларининг ривожлантирилишига қаратилади.

Талабаларнинг танқидий фикрлашини ривожланиш босқичлари қуйидагилардан иборат: мотивация (талабаларни касбий муаммоларга кириши); фаол фаолиятли (касбий билимларни мустаҳкамлаш, кўникмаларни шакллантириш); рефлексив (касбий билимларга қадриятли муносабат ва танқидий фикрлашни баҳолаш бўйича кўникмаларни шакллантириш).

Таълимда индивидуал ёндашувдан тўлиқ фойдаланишда ўқув маълумотларини ўзлаштириш йўллари ёки кўникмаларни шакллантириш усуллари бир-биридан фарқ қилмайди, қоида тариқасида, бу ҳолда, улар бирор индивидуал йўналишга эга, улар барча талабалар учун бир хил бўлиб қолади.

Педагогика олий таълим муассасасида “Педагогика” бакалавриат таълим йўналиши талабаларини танқидий фикрлашини ривожлантириш касбга йўналтирилган бўлиши керак. Бундай таълим мақсад асосида таълим натижасига эришиш учун ташкил этилади. Бунинг учун педагогик машғулотлар махсус ташкил этилиши керак.

Педагогика олий таълим муассасаларида “Педагогика” фанини ўқитиш, бўлажак ўқитувчиларига таълим беришда асосан уларнинг танқидий фикрлашини ривожлантиришга қаратилган зарурий касбий компетенцияларни шакллантиришни ўз ичига олади. Ушбу мақсадга эришиш педагогика олий таълим муассасалари талабаларида келажакдаги педагогик фаолиятида юзага келадиган касбий муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини ҳамда танқидий тафаккурини ривожлантиришга ёрдам беради.

Педагогика фанини ўқитишда касбий муаммоларни ҳал қилиш қобилияти ва ташаббускорлик қисман шаклланади. Педагогика фани, аввало, талабаларга умумкасбий ва ихтисослик фанларни ўрганиш учун

ISSN 2181-8274

зарур бўлган билимларни сингдиради, уларнинг асосий мақсади танқидий фикрлашини ривожлантиришдир.

Дарс жараёнида талабанинг танқидий (таҳлилий) фикрлашини шакллантиришнинг уч босқичи таъминланади:

1. Йўлланма (даъват) — бу дарснинг шундай босқичики, бунда талабалар мавзу бўйича белгилар ҳақида ўйлашга, мавзуга доир саволларни беришга ва ўрганиш учун вазифалар қўйишга йўналтирилади;

2. Аҳамиятни англаш — бу дарснинг шундай босқичики, бунда талабалар билимларни излайдилар ва ўрганадилар шу билан бирга ўз фаолияти натижасида таълимнинг аҳамиятини англайдилар;

3. Фикрлаш (мулоҳаза қилиш) — дарснинг шундай босқичики, бунда талабалар ўзлари тўқнашган фикрларга ва англаб етган маъноларга қайтадилар, шу билан бирга саволлар берадилар. Талқин этадилар, мунозара қиладилар.

Танқидий фикрлашни ривожлантириш муайян ёш даврида тугалланган ва эсдан чиқариладиган вазифа эмас. Шу билан бирга, танқидий фикрлашга олиб борадиган тугалланган йўл ҳам йўқ. Лекин танқидий фикрловчиларнинг шаклланишига ёрдам берувчи муайян ўқув шароитлари тўплами мавжуд. Унинг учун: талабаларга фикр юритиш учун имконият бериш; турли-туман ғоя ва фикрларни қабул қилиш; талабаларнинг ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш; талабаларни кулгига қолмасликка ишонтириш керак; ҳар бир талабанинг танқидий фикр юритишга қодир эканлигига ўзларида ишонч ҳиссини уйғотиш; танқидий фикрлашнинг юзага келишини қадрлаш лозим. Шу муносабат билан талабалар: ўзига ишончни орттириш ва ўз фикри ҳамда ғояларининг қадрини тушуниш; ўқув жараёнида фаол иштирок этиш; турлича фикрларни эътибор билан тинглаш; ўз ҳукмларини шакллантиришга ҳамда ундан қайтишга тайёр туриши лозим.

Индивидуал таълим тамойилларини ташкил этиш мураккаб ва кўп қиррали жараён бўлиб, талабанинг ўзи томонидан ва гуруҳ, ўқитувчи билан ўзаро муносабатларда амалга оширилади ва бу жараённинг муваффақияти кўп жиҳатдан таълим муассасасининг таълим майдонини ташкил этишга боғлиқ. Шунинг учун таълим жараёнида индивидуал, гуруҳли ва жамоавий иш шаклларини уйғунлаштириш керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Голдина, М.Н. Формирование продуктивного педагогического мышления студента — будущего учителя: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук / М.Н.Голдина. – Самара, 2003. – 25 с.

2. Джураев Р.Х.Таълимда интерфаол технологиялар, Сано-стандарт. – Т., 2010. – 88 б.

3. Плотникова, Н.Ф., Шакирова Д.М. Формирование умений критически мыслить и работать в команде при обучении студентов ВУЗа. Н.Ф.Плотникова, Д.М.Шакирова. Образовательные технологии и общество. – 2006. – №4. – С. 306-314.

4. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: пед.фан.докт...дисс.автореф. – Т., 2012. – 46 б.

5. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т.: “Турон-Иқбол”, 2006. – 592 б.

OLIY TA’LIMDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION VA INTEGRATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Dilnoza Zokirova,
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
“Elektr energetika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’limda pedagogik innovatsiyalar va integratsion texnologiyalardan foydalanish mazmuni aks ettirilgan. Shuningdek, oliy ta’limda pedagogik innovatsiyalar va integratsion texnologiyalarning mazmuni yoritilgan, unda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish shartlari bayon qilingan, shakllari, usullari keltirilgan hamda oliy ta’lim tarkibida innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish modeli ishlab chiqish ilmiy asoslangan. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlilik mazmuni bo‘lajak mutaxassislarning intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o‘quv jarayonini tashkil etish darajalarini kognitiv jarayonlarga korrelyativligini ta’minlovchi integratsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga doir ko‘nikma va malakalarni ilmiy tasniflangan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, integratsion texnologiyalar, pedagogik ijod, pedagogik faoliyat, pedagogik muammo, pedagogik tajriba, obyektivlik, qat’iyatlilik, izchillik, innovatsiya.*

Аннотация

В данной статье отражено содержание использования педагогических инноваций и интегрированных технологий в высшей школе. Также раскрыто содержание педагогических инноваций и интегрированных технологий в высшем образовании, описаны условия использования инновационных и интегрированных технологий, представлены формы, методы и разработка модели использования инновационных и интегрированных технологий в высшем образовании. является научно обоснованным. Также научно классифицируется содержание профессиональной компетентности будущих специалистов, умения и квалификации по использованию интегрированных образовательных технологий, обеспечивающих соотнесение уровней организации образовательного процесса с когнитивными процессами, соответствующими интеллектуальным и физиологическим особенностям будущих специалистов.

Ключевые слова: *интеграция, интегрированные технологии, педагогическое творчество, педагогическая деятельность, педагогическая проблема, педагогический опыт, объективность, настойчивость, системность, новаторство.*

Annotation

This article reflects the content of the use of pedagogical innovations and integrated technologies in higher education. The content of pedagogical innovations and integrated technologies in higher education is also revealed, the conditions for the use of innovative and integrated technologies are described, the forms, methods and development of a model for the use of innovative and integrated technologies in higher education are presented. is scientifically based. The content of professional competence of future specialists, skills and qualifications in the use of integrated educational technologies are also scientifically classified, ensuring the correlation of the levels of organization of the educational process with cognitive processes corresponding to the intellectual and physiological characteristics of future specialists.

Keywords: *integration, integrated technologies, pedagogical creativity, pedagogical activity, pedagogical problem, pedagogical experience, objectivity, persistence, consistency, innovation.*

Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat’iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda.

Dunyo miqyosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o‘rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o‘ziga xos xususiyatlari, ta’limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo‘lajak mutaxassislarining bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya jarayonlarining qonuniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o‘quv rejalari, fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni hayot-

ga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda [1]. Bu borada talabaning aqliy, intellektual va jismoniy kuchlarini ma’lum bir maqsadga yo‘naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida nazariy bilim, amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Pedagogik ijodning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xususiyatiga bog‘liqdir. Pedagogik faoliyat — bu inson shaxsiyatini, uning dunyoqarashini, e’tiqodini, ongini, xarakterini shakllantirish kabi umumiy maqsadga bo‘ysunadigan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish jarayonidir. O‘qituvchining ijodiy faoliyati ta’lim usullarini izlashda va ushbu muammolarga yechim topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik ijod manbayi pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga to‘ladir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, o‘qituvchining o‘z vazifasiga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda yangi va samarali usul, vositalarni izlash hamda ulardan foydalanishi tushuniladi.

Hozirda innovatsion pedagogika juda muhim masala hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi — obyektivlik, qat’iyatlilik, izchillikdir. Yagona obyektiv talab – bu insonning intellektual rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasidir. Bugungi kunda “innovatsiya” atamasi keng qo‘llanilmoqda. Innovatsiya so‘zi — inglizcha “yangi, yangilik kiritish, ichki tuzilishni o‘zgartirish”, degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya nazariya va amaliyotning muhim qismidir, ya’ni obyektning ijtimoiy-madaniy sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillarning bir qator harakatlaridir [2]. Yangiliklar, shuningdek, yangi fikrlarning shakllanishi tashabbus va innovatsiyalarga asoslangan bo‘lib, ta’lim mazmunini yaxshilashga qaratilgan. Umuman olganda, bu o‘rganish tuzilishi va tartibini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, innovatsiya — bu texnologik jarayonlar yoki muammolarni hal qilishning yangi shakllari va usullaridan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish texnologiyasi yoki ma’lum bir faoliyat sohasi bo‘lib, uning yakuniy natijasi muvaffaqiyatli bo‘lishi bilan belgilanadi.

Innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish uchun pedagogik sharoitlarni aniqlash, birinchi navbatda, o‘quv jarayonida talabalarning faolligini talab qiladi. Talabalarning faolligiga erishish uchun mutaxassislik fanlari o‘qituvchilari o‘quv jarayonini talabalarning intellektual rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqligini markazlashtirish uchun har bir talabaga alohida e’tibor berishi lozim. Fanlararo aloqalarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan integratsion darslarda, shuni ta’kidlash mumkinki, pedagogik nuqtayi nazardan ushbu o‘quv fanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mavjud. Bu bog‘liqlik esa kichik kurs talabalarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishda bevosita namoyon bo‘ladi [4].

Ayniqsa, 1-kurslarda intellektual moyilliklarni aniqlash, iqtidorli shaxslarning namoyon bo‘lishi uchun qiziqishlar, iroda, e’tibor, fikr va tadqiqotlar paydo bo‘ladi. Keyinchalik, innovatsion va integratsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida 1-kurs talabalarida ijodiy tafakkurining rivojlanishi kuchayadi.

Integratsion dars natijalari talabalarga kelajak haqidagi orzularini, shaxsiyatini shakllantirish va kasb tanlashda aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Chunki, ta’lim jarayonida talabalar boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi turiga kirishadilar. 1–4-kurs talabalari bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda innovatsion va integratsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash ularda barqarorlikni oshirish, diqqatni jamlash va ixtiyoriy xotiraning yuqori darajasini shakllantirishga yordam beradi [8].

Natijada, talabalar ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘ladilar, axloqiy tuyg‘ularini rivojlantiradilar, g‘alaba qozonish uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi hamda izlanishlar orqali qiziqarli darslar jarayonida turli xil o‘quv vazifalarini bajaradi. Ushbu davrda ular o‘zlarining yutuqlari xatti-harakatlariga qarab qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga intilishadi. Dars jarayonida uning muayyan bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish, o‘rganishga intilish, intellektual rivojlanish va o‘z kuchiga ishonishni anglatadi. Ma’lumki, integratsiya — bu sintez, yangisining paydo bo‘lishini anglatadi [5, 47]. Yangilikning paydo bo‘lishi juda murakkab hisoblangan bilish jarayonidir, shuning uchun integratsion darsni o‘tkazish yoki aniqrog‘i tayyorlash uzoq va maxsus jarayon sanaladi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan esa integratsiyani individual tizimlarning (mavzular, talabalar bilimlari) bir butunga yaqinlashishi va aloqasi, ya’ni sintezi, yangilikning paydo bo‘lishi sifatida qaraymiz.

Teng sharoitlarda ishlaydigan turli xil, ammo yaqin ta’lim sohalarining kombinatsiyasi, shuningdek, ulardan biri o‘ziga xoslikni saqlaydigan, boshqalari esa yordamchi asos bo‘lib xizmat qiladigan yaqin ta’lim sohalarining subyektlari bo‘lishi mumkin. Bitta fan negizida, asosan bitta ta’lim sohasi yoki blokdan iborat o‘quv fanlarini birlashtirish lozim. Bunda keyingi mavzu avvalgisidan kelib chiqadigan integratsiya bo‘lishi mumkin. Quyida integratsion muhit darajalari keltirilgan:

– birinchi daraja — tabiiy fanlar va gumanitar madaniyatlarning integratsiyasini ifodalab, o‘quv fanlarini birlashtirish, ularning o‘zaro ta’sirida borliq fanlariga yaxlit qarashlarni, obyektlarning ma’naviy salohiyatini ochib berishga yondashuvlarni izlash muhimdir;

– ikkinchi daraja — o‘rganilayotgan fanlarning rivojlanishi asosidagi integratsiyasi o‘quv jarayonida fanlararo xarakterdagi yetakchi tushunchalarni shakllantirishning yagona dasturlarida, o‘qituvchilar metodikasida namoyon bo‘ladi. Bunday ishlarni o‘quv kurslarining asosiy

yo‘nalishlarini ajratish asosida amalga oshirish mumkin;

– uchinchi daraja — nafaqat ma’lum bir mavzuni, balki o‘quv fanlari o‘rtasidagi munosabatlarning “gorizontal” tuzilmalarini amalga oshirish asosida obyektlar siklining amaliy yo‘nalishini amalga oshirish va kuchaytirish orqali integratsiyalashdir [3].

Ta’lim oluvchilar uchun inson faoliyati, moddiy va ijtimoiy voqelikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish ta’lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Bu o‘qituvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalarning subyektiv tajribasiga va uning tushunchasiga keng murojaat qilishini o‘z ichiga oladi [2]. Integratsion dars — bitta tushuncha, mavzu yoki hodisani o‘rganishda bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlardan o‘rganishni birlashtiradigan maxsus dars turi hisoblanadi. Integrativ vazifa esa o‘quv vazifasining bir turidir [3]. Uning o‘ziga xos xususiyati turli xil fanlar, turli xil o‘quv dasturlari, mavzular, muammolar haqidagi bilim va ko‘nikmalarni sintez qilish, ularni bir masala, bitta muammoni hal qilish, bitta obyekt yoki bir nechta obyektni bilish uchun birlashtirishdir. Umuman olganda, integral topshiriqlar fanlararo, sikllararo yoki talabalarning nazariyasi va shaxsiy tajribasini bog‘lash sifatida ishlab chiqilgan. Darsda yangi materialni o‘rganish shaklini tanlash mashg‘ulot ishtirokchilarining saviyasi, talabalarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasi, mavzuning xossalari, auditoriyaning imkoniyatlari, texnik jihozlari, o‘qituvchining mahorati va boshqalarga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Integratsion dars quyidagi afzalliklarga ega:

– talabalarning turli xil intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratiladi;

– talabalar dunyoni, atrofdagi voqelikni idrok etishning yanada yaxlit tasvirini olishadi;

– individual mavzularni o‘qitish muddatlari qisqartiriladi;

– o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari, ya’ni o‘rganish istagi va qobiliyati shakllanadi;

– turli mavzulardagi materiallarni bir butun sifatida o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish qobiliyati rivojlantiriladi;

– aqliy faoliyatni rivojlantirish amalga oshiriladi;

– talabalar nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun keng imkoniyat yaratiladi;

– o‘rganish istagini kuchaytiradi va ijobiy axloqiy fazilatlarni boyitadi;

– atrof-muhit, dunyo va insonlarning o‘rniga yaxlit qarash shakllanadi;

– ilmiy bilimlar, adabiyot, rasm, musiqa va boshqalarni jalb qilgan holda dunyoni xilma-xilligini to‘liq namoyish etish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Oliy ta’limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish talabalarni individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, tanlangan o‘quv topshiriqlari bilan ta’minlash asosida o‘qituvchiga ishni avvalgi faoliyat natijalariga tayanish, solishtirish, keyingi o‘quv vazifasini bajarishga hissiy yo‘naltirilgan ongli ehtiyojni yaratadigan tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Bo‘lajak mutaxassislar uchun innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanishni shakllantirish bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijasida nazariy jihatdan o‘quvchilarni o‘quv jarayonida har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha ta’lim, rivojlanish va shakllanish muammolarini uyg‘unlikda, bir butunlikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Yangiliklar, odatda, qator muammolarni keltirib chiqaradi, shu bilan birgalikda mavjudlarini hal qiladi. Bu esa pedagogik jarayonning bosqichma-bosqich yangilanishiga olib keladi. Innovatsiyalarni joriy etish konsepsiyasi, bizning fikrimizcha, innovatsiya, tajriba jarayonini hayotga tatbiq etishga qaratilgan nazariyadir.Yangilik — bu bir kishi uchun g‘oya hisoblanadi, bu g‘oyani obyektiv ravishda yangi yoki eski bo‘lishi muhim emas, biz uni yangilikning yaratilish vaqti yoki birinchi foydalanish vaqti bilan belgilaymiz.

Har bir bo‘lajak mutaxassis faoliyatidan qat’iy nazar, fundamental bilim, kasbiy mahorat hamda muayyan tajribaga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish uchun bo‘lajak mutaxassis o‘z sohasida, agar ushbu sohaga tegishli muammo yoki savollar tug‘ilsa, uni o‘z nuqtayi nazari va ijodiy faoliyati asosida hal qilishi, xususan, o‘z tadqiqotlari va tajribasini yangi bosqichga ko‘tarishi mumkin. Chunki oliy o‘quv yurtlarida talabalarning yuqori darajadagi tayyorgarligi va axloqiga talab ham yuqoridir. O‘qituvchi texnika fanlar sohasidagi yangi pedagogik usullarni aniqlay olishi va ulardan samarali foydalanishi kerak.

Innovatsion faoliyat o‘qituvchidan aqliy, jismoniy kuchni va shu asosda nazariy bilimlarni, psixologik va kommunikativ nutqni, tashkiliy qobiliyatlar kabi xususiyatlarni talab qiladi.

Axborot texnologiyalari boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda bilimlarni uzatishni sezilarli darajada tezlashtiradigan, talabalarning ijtimoiy o‘zgarishlarga tezroq moslashishini ta’minlaydigan vositadir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalari bilan boyitish nafaqat mavjud o‘qitish usullari va texnologiyalarini o‘zgartiradi, yaxshilaydi, balki kompyuterlar, planshetlar, dasturiy ta’minot va apparat vositalari, video va telekommunikatsiyalar, maxsus uskunalar, shuningdek, turli xil ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalanish bilan bog‘liq yangiliklarini shakllantiradi. Maqsad hamda vazifalarni tanlashda pedagogik integratsiyani amalga oshirishning qonuniyatlari va xususiyatlari g‘oyalar birligini ta’minlash, bilimlarni yagona o‘qitish metodikasi va vositalari asosida mustahkamlash uchun amalga oshiriladigan integratsiyaning mantiqiy mazmunini talab qiladi.

Texnika fanlarida integratsiya tushunchasi muhim ilmiy atama bo‘lib, u umumlashtirish, xulosa va uslubiy vositadir, chunki u jarayonlar va hodisalar mazmuni o‘rtasida universal uyg‘unlik algoritmlarini yaratadi. Ta’lim jarayo-

nida fanlararo bog‘liqlik sharoitida talabalar bilimlarining samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning bilim qobiliyatlari, faolligi, qiziqishlari va intellektual salohiyati oshadi. O‘quv jarayonida fanlarning integratsiyasi, ya’ni fanlararo aloqa talabalarning bilimlarini, shuningdek ularning bilish qobiliyatlari, faoliyati, qiziqishlari, intellektini samarali rivojlantirishni ta’minlaydi. O‘quv darslarida fanlararo muloqot qilish imkoniyati talabalarni faktlarni tahlil qilishga, hodisalar va jarayonlarni o‘rganishda sabab-oqibat tabiatini tushunishga, ilgari olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlaydi, shuningdek, mutaxassislik fanlarning integratsiyasini oshiradi.

Bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash oliy ta’limda integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda yanada dolzarblashadi. Unga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

– talabalarda ilmiy bilimlarni integratsiyalashuvini talab qiladigan yaxlit dunyoqarashni shakllantirish;

– o‘quv materiallarini tanlash va ulardan foydalanishda shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga olish;

– o‘quv jarayoni mazmunini ishlab chiqishda fanlararo integratsiya tamoyilini qo‘llash;

– bilish va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalarni bajaradigan mashg‘ulotlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishlarini rivojlantirish.

Integratsiya turli ilmiy sohalarning universal tushunchasi sifatida umumiy ilmiy kategoriyani, jarayon sifatida ilgari farqlangan qismlarning bir butunga birlashishini ifodalaydi, bu nafaqat qismlar xususiyatlarining o‘zgarishiga, balki ushbu yaxlitlikning yangi sifat va yashirin imkoniyatlariga ham sabab bo‘ladi. Ta’limdagi integratsiya jarayoni universal va umumlashtirilgan bilimlarga, yaxlit dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan asosiy ta’lim tuzilmalarini yaratishni talab qiladi, bu esa maxsus ta’lim texnologiyasi sifatida integratsiyalashgan o‘qitish tufayli mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxassislarini integral ta’lim texnologiyalarini loyihalashga tayyorlash deganda turli fanlar bo‘yicha ilmiy bilimlar va ta’lim mazmunini izchillik, muvofiqlashtirish va bir-birini to‘ldirish orqali talaba dunyoqarashining yaxlit manzarasini shakllantirishga doir maxsus tashkil etilgan jarayon tushuniladi. Integratsiyalash fanlar va dasturlar shaklida ifodalanadi, biroq kompleks yondashuvga kasbiy tayyorgarlik mazmunini modernizatsiya qilish va yaxlit ta’lim sifatini baholash mezonlarini belgilash asosida yangi tashkiliy tuzilmani yaratish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
2. Бердикулова Н.Э. Пути и методы внедрения инновации и интеграции в учебном процессе начального обучения // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. – S., 2022. – B. 833-836.
3. Зокирова Д. Н. Integration Of Professional And Educational Disciplines Into Training Of Self-Learning Motivated Students //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 6. – С. 24-28.
4. Berdikulova N.E. Theoretical fundamentals of educational process integration / International Journal of Integrated Education. Vol. 4 No. 2 (2021), – P. 345-348.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2003. – 189 b.

SHARQ ETNOPEDAGOGIKASIDA JISMONIY YETUK SHAXS OBRAZI

Zayniddin Boltayev,
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika
instituti professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq eposlari, xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodida jismoniy yetuk shaxsni siymolari va ularni ijtimoiy-tarbiyaviy g‘oyalari tahlil etilgan bo‘lib unda aynan xalq eposlarida keng ko‘lamli tahlil va tasvir amalga oshirilganligi, xalqning ijtimoiy-tarbiyaviy tajribasining ko‘p qirralari ochib berilgan. Shuningdek, etnopedagogika xalq maqollari, matallari, ertaklari, hikoyatlari va tajribalaridagi ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlarni, ulardagi xalq ijodiga taalluqli fikrlari, aynan shu fikrlarning jismoniy yetuklik masalalari bilan bog‘liqlik masalalari pedagogik jihatdan tahlil qilinib mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *etnopedagogika, xalq eposlari, xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi, jismoniy yetuk shaxs, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, etnologiya.*

Аннотация

В данной статье анализируются народные былины, народные сказки, образы физически зрелого человека в фольклоре и их социально-воспитательные идеи, раскрываются грани. Также педагогически проанализированы и

уточнено их содержание социально-воспитательные воззрения в народных пословицах, сказках, рассказах и опытах этнопедагогики, их мысли, связанные с народным творчеством, а также вопросы связи этих мыслей с вопросами физической зрелости.

Ключевые слова: *этнопедагогика, народный эпос, народные сказки, народное устное творчество, физически зрелый человек, образование, духовность, этнология.*

Annotation

In this article, folk epics, folk tales, figures of physically mature person in folklore and their socio-educational ideas are analyzed. ’p edges are revealed. Also, socio-educational views in folk proverbs, tales, stories and experiences of ethnopedagogy, their thoughts related to folk creativity, and the issues of connection between these thoughts and issues of physical maturity have been pedagogically analyzed and their content has been clarified.

Keywords: *ethnopedagogy, folk epics, folk tales, folk oral creativity, physically mature person, education, spirituality, ethnology.*

Etnopedagogikaga oid asarlar yetarli bo‘lmasa-da, u tadqiq etadigan muammolar ilm-fanni befarq qoldirmagan. Ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, etnologiya, etnografiya, folkloristika, xalq san’ati va madaniyatiga oid barcha tadqiqotlarda etnopedagogikaga oid mavzularga duch kelamiz. Etnopedagogikaning vazifasi turli tadqiqotlarda va ilm-fan sohalarida sochilib yotgan obyektlarni jamlash, o‘rganish va o‘zining metodologik vazifalari nuqtayi nazaridan ochib berishdir.

Etnopedagogika yoki xalq pedagogikasi “ming yillar davomidagi pedagogik bilimlar, ko‘nikmalar, tajribalar, an’analarini yig‘ib va tanlab yuzlab avlodlarni tarbiyalashda hamda etnik birliklar va ijtimoiy guruhlar madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Biroq sobiq ittifoq davrida faqat ta’lim jarayonigagina e’tibor berildi. Xalq pedagogikasi e’tibordan chekkada qoldi. Uni hisobga olmaslik to‘laqonli tarbiya tizimini shakllantirishi mumkin emasdi, vaholanki, xalq pedagogikasi maktab pedagogikasining asosini tashkil etmog‘i, uni to‘ldirishi va boyitishi zarur edi” [1, 153]. Tadqiqotchining fikrini tahlil qilsak, sobiq ittifoq davrida etnopedagogikaga e’tibor berilmadi deydi-yu, shu joyning o‘zida G.S.Vinogradov, G.N.Volkovning etnopedagogik asarlari chop etilganini, 60-70-yillardagi ilmiy adabiyotlarda “etnopedagogika” tushunchasi keng qo‘llanila boshlanganini ta’kidlaydi. Bu borada O‘zbekistonda olib borilgan birorta asar tilga olinmaydi, tadqiqotchi etnopedagogikani xalq bayramlari, tomoshalari va o‘yinlariga buradi [1, 160]. Shu bilan birga tadqiqotchi G.N.Volkovning ilmiy qarashlariga tayanib etnopedagogikaning o‘nta fundamental muammolari va asosiy funksiyalarini sanab keltiradi. Ularning ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarini inkor qilish mumkin emas, lekin ular ichida bizni qiziqtirayotgan soha, yo‘nalish, ya’ni jismoniy madaniyat yo‘q. Umuman, tadqiqotchilarimiz inson kamoloti haqida gapirganida asosan mavhum axloqiy jihatlarni nazarda tutishadi, jismoniy yetuklik masalalarini chetlab o‘tishadi. Natijada ma’naviy-axloqiy tarbiya, yetuklik go‘yoki jismoniy jihatlarsiz, vujud ishtirokisiz amalga oshiriladigan jarayondek taassurot qoldiradi.

Falsafa fanlari doktori, professor U.Qoraboyev jismoniy tarbiyaning xalq o‘yinlari bilan bog‘liq jihatini sanab o‘tganida muammo yo‘nalishini aniqlashtirgan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan: “O‘yin insonning shakllanishida muhim o‘rin tutgan holda, ko‘plab muhim funksiyalarni bajargan: kishini hayotga tayyorlash, insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning aqliy, jismoniy va ma’naviy salohiyatini takomillashtirish. Har bir yosh guruhga uning ma’lum bir sifatlarini rivojlantirgan o‘zining o‘yinlari xos. Go‘daklik (o‘yinchoqlar va qo‘g‘irchoqlar bilan o‘ynash), bolalarning taqlidiy (“ov ov”, “quvishmachoq”, bir birini quvlash o‘yinlari), o‘smirlarning chaqqonlik (“chillik”), guruhiy (“oq terakmi ko‘k terak”), yoshlarning (“bayroq ketdi”, “podachi”) o‘yinlari shulardandir. Qizlarda uy xo‘jaligini yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan alohida (“xola xola”, “uy uy”), o‘g‘il bolalar uchun esa “urush urush” o‘yinlari bo‘lgan” Shubhasiz, xalq o‘yinlari yoshlarning jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi [2, 8].

Etnopedagogikaga madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qarash boshqa yondashuvlarni cheklashga olib kelmasligi kerak. Ijtimoiy-falsafiy, antropologik, tarixiy, filologik, folkloristik, san’atshunoslik, musiqashunoslik, jismoniy tarbiya metodikasi kabi yondashuvlar ham borki, etnopedagogika ular sintezi orqali qaralganida ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega soha sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, madaniyatshunoslik inson faoliyatining barcha tomonlarini bilishga, o‘rganishga intiladi, biroq uning ilmiy obyekti va ushbu obyektni bilishga qaratilgan usullari qolgan barcha fanlar o‘rnini bosishga da’vogar bo‘lolmaydi. Bunday yondashish madaniyatshunoslikning o‘zi uchun ham nomaqbul hol va u boshqa ilmiy yo‘nalishlarni cheklashga olib kelgan bo‘lardi. Aynan shuning uchun ham etnopedagogikaning obyektini va uni o‘rganishga yordam beruvchi usullarni topish murakkabdir.

Etnopedagogika muammolarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar uning obyektini xalq eposlari, xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi, xalq san’ati, xalq madaniyati va xalq ruhiyatidan qidiradilar. Xalq, etnos tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy boyliklar, ma’naviy meros, ulardagi ijtimoiy-tarbiyaviy g‘oyalar, fikrlar va tajribalar etnopedagogika tomonidan obyekt sifatida o‘rganiladi. [3, 78]. Shuning uchun etnopedagogikada xalq ijodini, undagi pedagogik meros, tajribalar va g‘oyalarni o‘rganishga alohida e’tibor beriladi.

Sharq etnopedagogikasini alohida ilm-fan sohasi sifatida qarash ko‘pgina omillar bilan bog‘liqdir. Ular ichida,

avvalo, Sharq va G‘arb madaniyati va mentalitetidagi differensial o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, G‘arbga xos bo‘lgan individualizm, nigilizm, konformizm, anarxizm kabilar Sharq xalqlari ma’naviyati va turmush tarzida ustuvorlik qilmaydi. Sharq mentalitetida kommunitarizm, vorisiylik, axloqiy imperativlarga itoat etish ustuvordir. Ushbu fundamental farqlar tufayli Sharq va G‘arb haqida ziddiyatli qarashlar mavjud. [4,48]. Pedagogika uchun ushbu fundamental jihatlar juda muhim, chunki ular butun ijtimoiy-tarbiyaviy tizim yo‘nalishini belgilab beradi. Sharq etnopedagogikasi, avvalo, sharqona kosmologik ta’limotlar bilan bog‘liq ekani aytib o‘tish kerak. Falsafa tarixidan ma’lumki, Pifagor, Platon kabi antik davr faylasuflari misrliklarning ezoterik va kosmologik qarashlaridan xabardor bo‘lishgan. Hatto Pifagor o‘zining sonlar haqidagi qarashlarini misrliklarning ma’naviy merosi ta’sirida shakllantirgan. Gippokrat ham qadimgi turonliklar, zardushtiyliklarning tibbiy, mistik merosidan foydalangan, degan fikrlar mavjud. [5, 8].

Sharq xalqlarining kosmologik ta’limotlari negizida Osmon va Yer uyg‘unligi, Kosmosning insonga ta’sirida ilohiy qonunlar mavjudligi, butun borliqni Yagona kuch idora etishi haqidagi ezoterik, mistik qarashlar yotadi. Bu qarashlar Sharq spiritualizmini, shu jumladan, kishilardagi ijtimoiy-tarbiyaviy, ma’naviy-ruhiy izlanishlarga turtki bergan. Natijada Sharq mifologiyasi va kosmologiyasi o‘sha izlanishlar natijasi sifatida avlodlardan-avlodlarga, tarixdan tarixga, xalq tajribalaridan navbatdagi ijtimoiy tajribalarga o‘tib kelgan. Gegelni, avvalo, Sharq mifologiyasi va spiritualizmi diqqatini tortgan. U hind merosi mistik xususiyatga ega, degan fikrni bildirganida Sharq falsafasi mistitsizmdan iborat, degan noo‘rin qarashni keltirib chiqargan. Qanday bo‘lmasin, Sharq kosmologiyasi va mifologiyasida mistik va ezoterik qarashlar borligini inkor qilib bo‘lmaydi, aynan ushbu jihat keyinchalik teosofik, falsafiy tafakkurning kengayishiga xizmat qilgan [6, 23]. Avvalo, shuni aytishimiz kerakki, kosmologiya va mifologiyada jismoniy yetuklik masalalari bevosita kun tartibiga qo‘yilmaydi, ammo ulardagi “Yagona”, “Yetuk,” “Uyg‘un”, “Butun” degan teofalsafiy tushunchalar mavjudki, ular inson imkoniyatlari qanchalik rivojlanishi, jismoniy kuch-quvvati uni qanday balandlikka ko‘tarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Kosmologiya va mifologiya insonning ma’naviy-ruhiy quvvatiga tayanadi. Agar insonni yaxlitligidan, ya’ni ichki ma’naviy-ruhiy olami bilan tashqi jismoniy-amaliy olami, xatti-harakatlari uyg‘unligidan, birligidan kelib chiqsak, kosmologik va mifologik ta’limotlar o‘z navbatida jismoniy yetuklik masalalarini ham chetlab o‘tmasligiga iqror bo‘lamiz.

Sharq xalqlarining kosmologik ta’limotlarini umumlashtirgan N.K.Rerixning yozishicha: “barcha afsonalardagi Parabraman, yoki Mutlaq sof falsafiy tushuncha, prinsip, qonun yo Borliq va Noborliq muqarrar avval hisoblanadi. Ammo dinlar xizmatchilari ushbu falsafiy tushunchani “Yagona Xudo”, “Osmon va Yerni yaratuvchi” g‘oyasiga aylantirib personallashtirdilar”. Ushbu Mutlaq, Yagona insonning jismoniy vujud, uning barcha xatti-harakatlari jismoniy kuch mahsuli ekanini unutishi mumkin emas edi. “Sen Yagonasan, – deyiladi kosmologik ta’limotlarda, – barcha sonlar boshi va barcha tuzulmalar asosi. Sen Yagonasan, Sening Yagonalik siringda, odamlarning eng oqili ham o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, chunki u Seni bilolmaydi....”[7, 8]. Insonning jismoniy yetukligi uning o‘zi kabi Yagona ichidadir. Yagonaning Mutlaqligi o‘z navbatida insonning jismoniy yetukligini ham o‘z ichiga olganidagina kosmologik ta’limotga, inson uchun zarur bilimga aylanadi. Ming afsuski, ushbu yetuklikni kosmologik va mifologik ta’limotlar mistik tasavvur etadi, ezoterik tushuntiradi. Shu boisdan ham ularni goho tushunish qiyin. Sharq etnopedagogikasining “mahobatli bino”lari dan biri qadimgi hind xalqining eposlari “Mahobhoroto” va “Ramayana”dir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bundan ikki ming yillar avval sanskritda bitilgan xalq eposlari “tarixiy xabarlarga tayanadi”. Bu tarixiy xabarlar “Mahobhoroto”da bxarat qavmi o‘rtasidagi er. avv. I-XI ming yilliklarda ro‘y bergan nizolarni, “Ramayana” esa ariylar bilan hind yevropaliklar o‘rtasida eramizdan avval sodir bo‘lgan to‘qnashuvlarni tasvirlaydi. Ular tarixiy voqealar ro‘y berganidan 4-6 asrlar o‘tgach shakllangan bo‘lsa-da, ikkala eposda ham ichki syujetli va og‘zaki badiiy uyg‘unlik saqlanib qolgan. Ushbu yaxlitlik davrlar o‘tib, eposlarning avlodlardan avlodlarga yetkazilib, silliqlashtirilganini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda “qahramonlik eposi” deb ataladigan “Mahobxoroto” va “Ramayana” hind xalqining ezgulik va yovuzlik, qahramonlik va qo‘rqoqlik, vatanparvarlik va xoinlik kabi tushunchalarining, ularning yoshlar tarbiyasiga taalluqli ekani haqidagi qarashlarini ifoda etgan. Eposlarda jismoniy yetuklik haqidagi fikrlar bosh qahramonlarning xatti-harakatlari, tilaklari va etnosi, vatani haqidagi fikrlarida o‘z aksini topgan. “Mahobhoroto”da qahramonlar “lashkarni ergashtirishda mohir, baquvvatqo‘l”, “dovyurak, qiziqqon, chaqqon”, “noinsoniy kuchga ega jangchi”, “aqlda va kuchda ham fil kabi” epitetlar bilan tasvirlanadi.

Shahzodalarning oliyjanobligi ularning dovyurakligi, botirligi va qo‘rqmasligi bilan uyg‘unlashib keladi. Bu o‘rinda “Mahobhoroto”ning Bxagavitgita qismini misol qilib keltirish mumkin. Unda pandav qavmlari o‘rtasida yuzaga kelgan nizo, urush haqida hikoya qilinadi. Shahzodalarga jang taktikasini, qurol-aslahalardan foydalanish, jang, urush olib borish usullarini mashhur brahmon Drona o‘rgatadi. Shahzodalar ichida Arjuna ajralib turadi. Uning baquvvatligi, dovyurakligi va jangovarligidan xavfga tushgan, qo‘rqqan kaurav qavmi, ayniqsa, uning vakillari va taxtga da’vogar inilari Dur’yodxana Arjunani yomon ko‘radi Demak, Dur’yodxana faqat taxt uchun emas, balki Arjunaning baquvvat, botir, dovyurak va mohir jangchi bo‘lgani uchun ham yomon ko‘radi. Aynan ushbu jismoniy jihatlari bilan Arjuna barchadan ustun, u taxtga da’vogar bo‘lishi, hammani o‘ziga itoat ettirishi mum-

kin. Draupada, (Arjuna va uning inilari juvoni) Savitri o‘zining go‘zal suvrati, sadoqati, “keng dumbali va xipcha belli”, “tik siynali” “qalbi oqil”, “lotos ko‘zli” kabi epitetlar bilan tasvirlanadi. Draupadaning malika Sudeshnaning xizmatiga borishidagi epizodi Sharq ayoliga xos bo‘lgan jismoniy tashqi go‘zallikning yorqin namunasidir. Ushbu epizodda Draupada malika saroyiga oddiy, eski ko‘ylakda kelganida barcha ayollar, xizmatkorlar va erkaklar chopib kelishadi. Draupada shunchalik go‘zal va maftunkor ediki, malika uni xizmatkor qilishga jur’at etmaydi. “Terisi qoraygan pari, oyoqlari uzun va maftunkor tovushli” Draupadaning bir burda non uchun xizmatkorlikka yollanishi shubha uyg‘otadi. Shunda Sudeshna, shunday go‘zal parivash, qanday qilib oddiy xizmatkor bo‘lmoqchisan, sendaqa go‘zal xizmatkor bo‘lmaydi, balki o‘zi xizmatkorlariga amr qiladi, deb so‘raydi va u Draupadaning tashqi suratini chizadi, tasvirlaydi. [8, 83]. Mazkur badiiy epitetlar deyarli barcha Sharq xalqlari eposlari va ertaklarida u yoki bu ifodada uchraydi. Bu o‘rinda arab xalq ertaklari “Ming bir kecha”ni eslash mumkin. Shahrizoda va u tasvirlagan go‘zal ayollar, bokira qizlar tashqi ko‘rinishi bilan o‘ziga jalb etadi, ularning bu ko‘rinishi jismoniy yetuklik simvoli sifatida qabul qilinadi. Ammo esdan chiqarmaslik kerakki, jismoniy yetuklik ularda ma’lum bir model sifatida emas, balki ayrim, goho tarqoq fikrlar, tasvirlar va epitetlar sifatida keladi. Ulardan ma’lum bir jismoniy yetuklik modelini chiqarish tadqiqotchining vazifasidir. Umuman, etnopedagogikaga oid asarlardan jismoniy yetuklik modelini chiqarish qahramonlarning xatti-harakatlarini, istak va xohishlarini, vatanparvarlik, altruistik intilishlari va tashqi to‘siqlarga munosabatlarini yaxshi bilishni taqozo qiladi. Ba’zi etnopedagogikaga oid asarlarda qahramonlarning tashqi, jismoniy qiyofasi yorqin tasvirlanadi, ular o‘zining jismoniy kuchidan, baquvvatligi va mushaklarining bo‘rtib turganidan g‘ururlanadilar.

Markaziy Osiyo xalqlarining etnopedagogik merosida qirg‘iz xalqining “Manas”, turkman xalqining “Go‘ro‘g‘li”, qoraqalpoq xalqining “Qirq qiz”, o‘zbek xalqining “Alpomish” xalq eposlari muhim o‘rin tutadi. “Alpomish” deyarli barcha turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodidan joy olgan. Uni Gomer va “Gilgamish”, G‘arb xalqlarining “Tristan va Izolda” eposlariga qiyoslashadi.

“Alpomish”da mavzumiz uchun muhim bo‘lgan jihatlar shundan iboratki, qahramonlarning jismoniy yetuklik belgilari aniq ravshan tasvirlanadi. Masalan, dostonda shunday deyiladi: “Hakimbek (Alpomishning ismi) yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, yetti yashar bola ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qchi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga yetdi. Buni eshitgan dushmanlar: “Bu bola zo‘r bo‘pti, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo‘lolmaydi, yetti yashar bola shunday ish qiladimi? deb xafa bo‘lib yotdi. Do‘stlarning vaqti xush bo‘lib yurdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig‘ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to‘qson alp o‘tdi, alplarning boshlig‘i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo‘lsin, To‘qson alpning biri bo‘lib sanaga o‘tdi”, dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo‘lib, to‘qson alpning biri bo‘lib sanaga o‘tib, alplik otini ko‘tarib, yetti yoshida Alpomish ot qo‘yildi. Ana shundan yetti yoshida yoyni ko‘tarib otgani uchun Alpomish alp ataldi”. Ko‘rinib turibdiki, xalq o‘z qahramonini yoshligidanoq baquvvat, kuchga to‘lgan, har qanday yumushni bajarishga tayyor, jismoniy yetuk shaxs sifatida tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, etnopedagogika xalq maqollari, matallari, ertaklari, hikoyatlari va tajribalaridagi ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlarni, g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Xalq ijodiga taalluqli har qanday fikrdan, asardan va ma’naviy merosdan etnopedagogikaga taalluqli mavzu topsa bo‘ladi. Ammo bizni jismoniy yetuklik masalalari qiziqtirgan, tadqiqotimiz maqsadi ham ana shu mavzu atrofidadir.

Zamonaviy pedagogika etnopedagogik tajribalarga tayanganida milliy tarbiya maqsadlariga muvofiqlashadi. Zamonaviy jismoniy tarbiya va madaniyat etnopedagogik an’analarni rad qilmaydi, unda mavjud milliy xususiyatlarga tayanib, modernizatsiyalashuv jarayonlari ham kechishi tabiiy holdir. Insondagi umuminsoniy xususiyatga ega fiziologik va morfofiziologik belgilar jismoniy mashqlarni ham ushbu belgilarga, xususiyatga muvofiq tashkil etishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карабаев У. Этнокультура. – Т.: ИПАК “Шарк”, 2005. – 186 с.
2. Этнопедагогика. Жамоавий қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 484 б.
3. Конрад Н.И. Восток и Запад. – М.: Наука, 1972. – 496 с.
4. Шюре П. Великие посвященные. – М.: “Мистерия”, 1998. – 592 с.
5. Радхакришнан С. Индийская философия. Том 1. – М.: Иностранная литература, 1957. – 394 с.
6. Космические легенды Востока. – М.: Сфера, 1998. – 200 с.
7. Гринцер П. Великий эпос Индии. – М.: Художественная 7-8 литература, 1974. – 70 с.
8. Махабхарата. Рамаяна. Перевод с санскрита. – М.: Художественная литература, 1974. – 608 с.

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING INSON QADRI VA SIFATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Ozoda Tolipova,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Turkiston jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik faoliyati va jamiyatda inson qadri va ta’lim sifatini oshirishdagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kundagi ta’lim tizimini rivojlantirishda jadidlarning ma’rifatchilik harakatlarining ahamiyati haqidagi masalalar chuqur tahlil etilgan. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston” yoki “Axloq” asari adabiyot olamida mayoq vazifasini o‘taydi, insoniy qadriyatlar va odob-axloq haqidagi teran fikrlarni yoritib beradi. Ushbu maqolada Avloniy ijodida mujassamlangan o‘zgartiruvchi kuch, uning insoniy qadriyatlarni shakllantirish va jamiyat farovonligini yuksaltirishdagi hal qiluvchi roliga oydinlik kiritiladi.

Kalit so‘zlar: *axloqiy qoida, tarbiya, Turkiy guliston yoxud axloq, fikr tarbiyasi, barkamol inson, pedagogika, insonparvarlik, xulq tarbiyasi.*

Аннотация

В статье раскрывается педагогическая деятельность современных просветителей Туркестана и значение повышения человеческой ценности и качества образования в обществе. Также в статье глубоко анализируется значение просветительской деятельности современников в развитии современной системы образования. Произведение Абдуллы Авлани “Турецкий Гулистан” или “Ахлок” служит маяком в мире литературы, освещает глубокие мысли о человеческих ценностях и этике. Данная статья проливает свет на преобразовательную силу, воплощенную в творчестве Авлони, ее решающую роль в формировании общечеловеческих ценностей и повышении благосостояния общества.

Ключевые слова: *моральное правило, образование, турецкая культура или мораль, воспитание мысли, совершенный человек, педагогика, гуманизм, нравственное воспитание.*

Annotation

The article reveals the pedagogical activity of the modern enlighteners of Turkestan and the importance of improving human value and quality of education in the society. Also, the article deeply analyzes the importance of the enlightenment efforts of the moderns in the development of today’s education system. Abdulla Awlani’s work “Turkish Gulistan” or “Akhloq” serves as a beacon in the world of literature, illuminates deep thoughts about human values and ethics. This article sheds light on the transformative power embodied in Avloni’s work, its decisive role in the formation of human values and the improvement of society’s well-being.

Key words: *moral rule, education, Turkish culture or morality, education of thought, perfect person, pedagogy, humanism, moral education.*

Inson qadri va tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat,jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy ishdir. Uning qadr-qimmati, Vatan istiqboli va millat taqdiri ham u va uning tarbiyasi bilan bog‘liq. Abdulla Avloniy so‘zlari bilan aytganda “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot,yo najot yo halokat,yo saodat yo falokat masalasidur”. [2, 101]

Jamiyatning har bir fuqarosi XXI asr bo‘sag‘asida turar ekan, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiiydir. Jumladan, ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlar ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan — kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda tinglovchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning bu rivojlanishi shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan ta’lim jarayonida tinglovchi asosiy o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda ham o‘tgan asrimizda ham ta’lim jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini oladigan bo‘lsak, unda zamonaviy pedagog yetishtirish, yangi darsliklarni yaratish va ta’lim uslublari, ko‘nikmalari uchun yangi majmualar yaratish keng o‘rin olganligini ko‘rishimiz mumkin. Hatto adib bu asari xususida “Men bu asari nochinozimning birinchi maktablarimizning ta’lim berma ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim” [2,99] deya aytib o‘tgan. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarga ta’lim va tarbiya berish masalasi har bir muallif asarining bosh g‘oyasi sanaladi. Ta’lim va tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi hisoblanadi. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda

bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi. Shu jumladan 1913-yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari chop etildi. 1917-yilda esa ikkinchi marotaba nashr etildi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari uchun yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Avloniy o‘z asarini yaratishda Shayx Sadiy izidan bordi. Kitobning “Turkiy guliston yoxud axloq” deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobining 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so‘ng so‘zida alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. U shunday yozadi: “Turkiston maktablarida o‘z shevamiz yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi afroda shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i, uzum muallimlar jumlasidan uldug‘umdan, manga ham ochiq ma’lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘nggidan adibi muhtaram Shayx Sadiy usulinda yozmakni, garchi og‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” — axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu — xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik badbinlikning timsoli. Shu jihatdan kishida xulqning u yoki bu jihati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan — oila va maktab tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiya doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda sog‘lom aql” degan naqlning bejiz emasligini yaxshi biladi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi — bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir. Shu jumladan, avval madrasada jadid va domlalar ta’lim va tarbiyani uzviy bergan bo‘lsa endi bu maktabda ham o‘z o‘rnini topgan. Chunki maktab milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz asosini o‘rgatadigan asosiy maskandir. Madrasalarda jadidlar o‘z faoliyati darajasidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarga ilm o‘rgatganlar. Jadidlar o‘z asarlarida ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir degan fikrni aytgan. Shuning uchun ular yoshlarni ilm olishga, uning sirlarini bilishga, hodislar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita va bilvosita ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Uning yuqorida ta’kidlab o‘tgan asarida tarbiyani ilmni targ‘ib qiladi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir.

Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik nuqtayi nazardan inson qadri bu o‘z ona tilini mukammal bilishi, har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish, milliy adabiy tilning taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur deyishadi. Ular pedagogik jihatdan inson ilmida so‘zlashuv odobiga ham e’tibor berishadi. So‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berishib, so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazilatini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozisidir. Aql sohiblari kishilarni tilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar deyishgan. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo‘lgan munosabatidir. Yana shuni aytish kerakki, har bir insonning, millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotdir. Jadidlar milliy ta’limning zamini sifatida ona tili o‘qitish masalasiga e’tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma’naviyatni “sut bilan kirgan” deganlaridek faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin. Bu jadid mutafakkirlari pedagogik qarashlarining tub qarashlarini tashkil qiladi.

Bu davrda ham o‘tgan davrimizda ham ahamiyatga molik asar yuqorida keltirib o‘tilgan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 20 asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida ahamiyatlidir. Abdulla Avloniyning bu asari o‘sha davr jamiyati uchun katta ahamiyatga egadir. Asar axloqiy ta’lim va ta’lim-tarbiyaviy asardir. Abdulla Avloniy pedagog sifatida inson qadri yuzasida fikr yuzasidan “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz, bo‘lib o‘sdimi, alloh-u akbar bunday kishilardan yaxshilik kutmoq,yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmoq kabidur” [5, 103], – deya ta’kidlagan. Uning fikricha insonning axloqiy xislatlarining tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va atrofdagi kishilar katta ahamiyat kasb etadi. Insonlarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu ta’lim-tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish benihoya zarur va muqaddas vazifa. Binobarin u muallimlarning, “diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, pedagogning tarbiyasiga bog‘liqdir”. [4, 203] Jadid tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani:ota-ona,muallim,hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu ma’noda Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining birinchi sahifasidan to so‘nggi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g‘oyalari ifodalangan. U hammadan birinchi inson qadri, xalq manfaatini ko‘zlaydi. Uning nazrida kishilar g‘amini

yemagan, xalqdan uzoq turgan ig‘volar, g‘iybatchi inson emas. Uning tarbiya borasida yaratgan mashhur bir iborasi hali-hanuz ham jamiyatimizda o‘z o‘rnini yo‘qotgan emas.

Tarbiya “yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidur”. [2, 14] Jadidning bu so‘zlari hali-hanuzgacha o‘zbek jamiyatida o‘z tizginiga ega holda har bir sohaga nisbatan ishlatilmoqda. Shu jumladan,bizning birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganidek: “Buyuk mutafakkir bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik,balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi”. [3, 25] So‘nggi yillarda ham Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlar bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, muammolarni hal qilish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak” [1] deya ta’kidlagan. Prezidentimiz bu vazifalarni amalga oshirishda asrlar mobaynida sayqallangan Abdulla Avloniyning tarbiya “yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidur” degan fikrni hozirda pedagoglar oldiga qo‘ymoqda. Hozirda har bir sohada bu fikr asosiy masala sifatida ko‘ndalang qo‘yilgan. Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti.Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib o‘zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Albatta ta’lim-tarbiya, yuksak pedagogik qarashlar va ajdodlarimizning boy merosiga tayangan holda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, jadid ma’rifatparvarlari inson qadrini ijtimoiy muhit oilaning o‘rni, “Badan tarbiyasi”sog‘lom insonni tarbiyalash, “Fikr tarbiyasi” tafakkurni rivojlantirish, fikrlashga o‘rgatish. Eng asosiysi, “Axloq tarbiyasi” – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish kabi masalalarga e’tibor qaratish, insonning qadri, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-Mirziyoyevning-ozbekiston-respublikasi-mustaqilligining-yigirma-toqqiz--yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. “Turkiy guliston yoxud axloq”. – T.: Ma’naviyat, 2006. – 304 b.
3. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004. – 296 b.
5. B.G.Belinskiy. Adabiy orzular. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1977. – 264 b.

OLIY TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulchehra Roziqova,
O‘zbekiston-Finlandiya pdagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada gender — xotin-qizlar hamda erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘layotgani, ayol qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi roli oshayotgani, jamiyatda ayol-qizlar o‘z o‘rnini topishi uchun davlat tomonidan barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilayotgani hamda G‘arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi bilan bir qatorda, sharqona gender tengligining o‘ziga xos jihatlari allomalarning qarashlari misolida ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, oliy ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar, teng imkoniyatlar, institutsional madaniyat, mentorlik, liderlik.*

Аннотация

В данной статье гендерные отношения между женщинами и мужчинами проявляются во всех сферах жизни и деятельности общества, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, образование, науку, социально-

политический статус женщин. роль женщин и девушек в жизни, тот факт, что государство создает все условия и возможности для того, чтобы женщины и девушки нашли свое место в обществе, а также тенденции развития западной и восточной цивилизаций, особенности восточного гендерного равенства. также выделены на примере мнений ученых.

Ключевые слова: *гендерное равенство, высшие учебные заведения, преподаватели, равные возможности, институциональная культура, наставничество, лидерство.*

Annotation

In this article, the gender relations between women and men are manifested in all spheres of society’s life and activity, including politics, economy, law, ideology and culture, education, science, the social and political status of women. In addition to the increasing role of women and girls in life, the fact that the state is creating all the conditions and opportunities for women and girls to find their place in society, as well as the development trend of Western and Eastern civilizations, the specific aspects of Eastern gender equality are also highlighted on the example of scholars’ views.

Keywords: *gender equality, higher education institutions, teachers, equal opportunity, institutional culture, mentorship, leadership.*

Gender tengligi butun dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalarida (OTM) muhim muammo sifatida paydo bo‘ldi. So‘nggi o‘n yilliklardagi sezilarli yutuqlarga qaramay, ayol o‘qituvchilarga taqdim etilgan vakillik, muomala va imkoniyatlarda nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Akademik rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning kamligi, doimiy ish haqidagi tafovutlar va ish va hayot muvozanati bilan bog‘liq muammolar akademik doiralarda gender tengsizligini bartaraf etish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar zarurligini ta’kidlaydi.

Oliy o‘quv yurtlarida gender tengligining ahamiyati shunchaki tenglikdan tashqarida; bu inklyuziv akademik muhitni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sifatini oshirish, tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Agar fakultet a’zolari orasida ayollar kam vakil bo‘lsa, turli xil istiqbollar yo‘qolib, stipendiya va o‘qitishning kengligi va chuqurligini cheklaydi. Bundan tashqari, gender nomutanosibligi keng qamrovli oqibatlarga olib kelishi mumkin, stereotiplarni davom ettiradi, institutsional ishonchni pasaytiradi va ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi [2, 39].

Jamiyatimizdagi gender tengsizligining ko‘p qirrali xususiyatini e’tirof etgan holda, ushbu maqola oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari o‘rtasida gender tengligini yaxshilash uchun muhim bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganadi. Mavjud adabiyotlar, empirik dalillar va ilg‘or tajribalardan kelib chiqib, u tizimli to‘siqlarni bartaraf etishga, inklyuziv madaniyatni targ‘ib qilishga va barcha o‘qituvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan strategiya va tadbirlarni o‘rganadi.

Biz oliy ta’limda gender tengligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz, istiqbolli yondashuvlarga oydinlik kiritamiz va keyingi tadqiqot va harakatlar uchun yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatamiz. Ushbu xususiyatlarni tushunish va amalga oshirish orqali OTMlar gender tengligiga erishish va barcha professor-o‘qituvchilar rivojlanishi uchun sharoit yaratishga yaqinlashishi mumkin.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekiston islohotlari inson manfaatlari ustunligini ta’minlash barobarida jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquq hamda imkoniyatlarini ustuvor qadriyatlardan biri sifatida himoya qilishga qaratilgan. Bunda, ayniqsa, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ro‘yobga chiqarilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta’minlash, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizda xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining huquqiy vakolatlarini kengaytirish, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning salmoqli qismi nodavlat notijorat tashkilotlarining ta’lim, ayollar huquqlari, reproduktiv salomatlik, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni himoyalash kabi sohalarda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

“Xotin-qizlarga e’tibor hamma vaqt barcha sa’y-harakatlarimiz markazida bo‘lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak”, – dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e’tibor, aslida, bu o‘zligimizga e’tibordir. O‘tgan yillar mobaynida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq shu paytgacha xotin-qizlar manfaatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha samarali mexanizm yaratilmagan. An’anaviy o‘zbek oilalarida qizlarni ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish masalasi, asosan, onaga bog‘liqdir. Keksalarning fikricha, qiz bolalarni tug‘ilishi bilan turmushga tayyorlab borish, ona talabchanroq bo‘lishi, qizini mehnatkash qilib tarbiyalashi lozim. Maktabda esa ijtimoiy hayotga moslashtirish ko‘proq pedagoglarga bog‘liqdir.

Oliy o‘quv yurtlarida (OTM) gender tengsizligi uzoq vaqtdan beri davom etayotgan muammo bo‘lib, ilmiy hayotning turli jabhalaridagi nomutanosibliklarni ta’kidlagan tadqiqotchilar. Keng qamrovli adabiyotlarni o‘rganish akademiyadagi gender dinamikasining murakkabligini va tengsizliklarni samarali hal qilish uchun maqsadli aralashuvlar zarurligini ochib beradi.

Van den Brink va Benschop kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, strukturaviy to‘siqlar, jumladan, noaniq tarafkashlik, murabbiylik imkoniyatlarining etishmasligi va jinsga bog‘liq umidlar ayollarning yuqori ma’muriy rollarga ko‘tarilishini cheklab, “shisha shift” effektiga yordam beradi. Gender tengligi bo‘yicha erishilgan yutuqlarga qaramay, erkak va ayol professor-o‘qituvchilar o‘rtasida sezilarli maosh farqlari saqlanib qolmoqda. Ginther va Kahn kabi olimlarning tadqiqotlari ayollar turli fanlar bo‘yicha erkaklarnikiga qaraganda kamroq maosh olishadi, bunda kasbiy segregatsiya, kamsitish va g‘amxo‘rlik mas’uliyati kabi omillar ish haqining nomutanosibligiga yordam beradi. Fransuz olimi Mason Akademik martaba va oilaviy mas’uliyatni muvozanatlash ko‘plab ayol professor-o‘qituvchilar uchun muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlari tufayli ish va hayot ziddiyatlari ko‘proq uchraydi, bu esa martaba uzilishlariga, mahsuldorlikning pasayishiga va martaba ko‘tarilishidagi to‘siqlarga olib keladi.Yashirin tarafkashlik va gender stereotiplari akademiyadagi in’ikoslar va qarorlar qabul qilish jarayonlarini shakllantiradi, ishga olish, lavozimga ko‘tarilish va lavozimni egallash to‘g‘risidagi qarorlarga ta’sir qiladi. Moss-Racusin tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, erkak nomzodlarni qo‘llab-quvvatlovchi ongsiz tarafkashlik gender tafovutlarining davom etishiga hissa qo‘shadigan xilma-xillik va inklyuzivlikni targ‘ib qilish harakatlariga qaramay davom etmoqda [4, 62].

Bir tomondan, bunda kattalar, ota-onalar, o‘qituvchi faol tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan esa, qiz bolalarning o‘zaro xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari va munosabatlarida namoyon bo‘ladigan tarbiyaviy faoliyatdir [4, 48]. Shu sababli gender tarbiya mazmuni belgilab olinishi, bunda qizlarga mos ma’naviy-axloqiy tarbiya uslublarini qo‘llash orqali ota-ona, sinf rahbari tarbiyaning natijalarini, qizlarning ma’naviy barkamolligini diqqat bilan tahlil qilib borishlari kerak. Qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishning mohiyati gender xulq-atvor, odob-axloq me’yorlari va qoidalari bo‘lib, ular qizlarning so‘zlarida, munosabatlarida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Maktabga qabul qilingan o‘g‘il-qizlarning, jumladan, quyidagi ijtimoiy malakalarga ega bo‘lib chiqishi belgilab qo‘yilgan. Shu sababli o‘qituvchilar uchun o‘ta muhimligidan kelib chiqib, ularning asosiylarini keltiramiz. Ya’ni: mustaqillikka intilish, o‘zining oilaviy, gender mansubligiga nisbatan ijobiy his tuyg‘ularni anglashi va farqlay olishi kabilar. Qiz bola xatti-harakatlarining motivatsiyasi (qiziqishi) uning ongiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Shu sababli muntazam harakatlarning shakllanishi uchun pedagoglar muntazam o‘rgatib borishi juda muhimdir. Pedagoglarning o‘rgatish usuli kattalar yoki boshqa qizlarning namunasi, vitagen (hayotiy) tajribalari bilan birlashtirilsa, ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda qiz bola biror katta kishi yoki dugonasi xulqi namunasiga ko‘ra harakat qilishi uchun, ularga taqlid qilishini, o‘xshashini so‘rash kerak. O‘xshash taqlid orqali amalga oshiriladi. Agar qiz bola dugonasi haqida to‘lqinlanib, hayrat bilan gapirsa, bu uning dugonasi xulqi, faoliyati, xarakteridan ta’sirlanganini anglatadi. Endi G‘arb va Sharq allomalarining qarashlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Suqrot shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqarolar huquqi haqidagi g‘oyalari bilan yoshlar ongini zaharlashda ayblanib o‘limga mahkum etilgan. Falsafaning otasi Platon ham o‘z buyuk safdoshlari g‘oyalariga sodiqligini namoyish etgan holda “Ideal davlat” asarida bu qarashlarni yoqlab chiqqan. Platon erkak va ayol tabiati o‘rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli degan xulosaga keladi. Ayol o‘z xohishiga ko‘ra kasblarni tanlashi mumkin: musiqa, falsafa yoki boshqa kasblar, shu jumladan, harbiy ishlarni ham. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” [1, 75] asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan.

Gender siyosati oliy ta’lim muassasalarida (OTM) ilmiy hayotning barcha jabhalarida, jumladan, ishga qabul qilish, saqlab qolish, ko‘tarilish va malaka oshirishda adolat, inklyuzivlik va kamsitilmaslikni rag‘batlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu siyosatlar jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi yoki boshqa himoyalangan xususiyatlaridan qat’i nazar, barcha shaxslar akademik hamjamiyat ichidagi imkoniyatlar va resurslardan teng ravishda foydalanishlarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan.

Samarali gender siyosati qarorlar qabul qilish adolatli, xolisona va xolisona bo‘lishini ta’minlab, ishga qabul qilish, tanlash va malaka oshirish bo‘yicha shaffof jarayonlar va tartiblarni o‘z ichiga oladi. Tashkilotlar ushbu siyosatlarga rioya qilganliklari uchun mas’uldirlar va manfaatdor tomonlarni javobgarlikka tortish uchun kamsitish yoki tengsizlik holatlari haqida xabar berish va ularga murojaat qilish mexanizmlari o‘rnatiladi.

Ba’zi gender siyosati kam vakillik guruhlari, jumladan, akademik lavozimdagi ayollar duch keladigan tarixiy va tizimli to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ijobiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar fakultet saflarida xilma-xillik va vakillikni oshirish uchun maqsadli ishga olish harakatlari, murabbiylik dasturlari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va faol strategiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin [3, 69].

Gender tengligi va xilma-xillik bilan bog‘liq masalalardan xabardorlik va tushunishni rag‘batlantirish uchun Gender siyosati ko‘pincha professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarga qaratilgan ta’lim va ta’lim tashabbuslariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilar o‘rtasidagi gender tengsizligini bartaraf etish siyosatga aralashuvni ham, madaniy o‘zgarishlarni ham qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Teng imkoniyatlar siyosati ishga qabul qilish, saqlab qolish va malaka oshirish jarayonlarida adolat

va shaffoflik uchun asos yaratadi. Biroq, ushbu siyosatlarni amalga oshirish turli xillikni qadrlaydigan, inklyuziyani rag‘batlantiradigan va jinsidan qat’i nazar, barcha professor-o‘qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytiradigan qo‘llab-quvvatlovchi institutsional madaniyatlarni rivojlantirish bilan to‘ldirilishi kerak.

Qo‘llab-quvvatlovchi institutsional madaniyatlar ayollar o‘zlarini kutib olishlari, hurmat qilishlari va akademik hayotda to‘liq ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan muhitni yaratadi. Moslashuvchan ish tartibiga ustuvor ahamiyat berish, tarafkashlik va kamsitishlarni bartaraf etish va qo‘llab-quvvatlovchi yetakchilikni rag‘batlantirish orqali institutlar tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirishi va ayollarga o‘zlarining akademik martabalarida muvaffaqiyat qozonishlariga imkon berishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu madaniyatlar nafaqat professor-o‘qituvchilar, balki talabalar va kengroq akademik hamjamiyat uchun foydali bo‘lib, hamkorlik, innovatsiyalar va akademik mukammallikka olib keladi.

Institutlar o‘zlarining ilmiy hamjamiyatlarida gender tengligi va xilma-xillikni rag‘batlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga ustuvor ahamiyat berishda davom etishlari kerak. Bunga siyosat va amaliyotlarni doimiy baholash, ta’lim va ta’lim tashabbuslariga sarmoya kiritish hamda tizimli to‘siqlar va noxolisliklarni bartaraf etish bo‘yicha faol choralar kiradi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish uchun hamkorlikda va qasddan ishlagan holda, oliy ta’lim muassasalari ijobiy o‘zgarishlar uchun katalizator bo‘lishi mumkin, gender tengligini ilgari suradi va yanada jamiyatga hissa qo‘shadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Platon. Диалоги. Translation from ancient Greek. Khar’kov, Folio Publ., 1999. – 383 p.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
3. Shodmonova Sh.S., Isyanov R.G., Mamatov D. Pedagogik konfliktologiya. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2011. – B. 260.
4. Людмила Ким.Гендер стереотиплари.Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётига кириш. Мақолалар тўплами – Т., 2007. – 46-63-б.

МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИДА ЎРТА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аслиддин Камолов,
Шароф Рашидов номидаги
Самарқанд давлат университети таянч доктаранти

Аннотация

Ушбу мақолада ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни жисмоний тайёргарлик тузилиш динамикаси жисмоний сифатларини ифодаловчи махсус тестлар асосида жисмоний тайёргарлик даражаси аниқланган. Ўтказилган тадқиқотлар натижасида олинган махсус тестлар асосида олинган натижаларни ёритишга эътибор берилган. Ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни мусобақаларга тайёрлаш бўйича олиб борилган тадқиқотларидан олинган натижаларни етакчи олимлар томонидан берилган педагогик тадқиқот натижалари билан қиёсий таҳлили берилган ва хулосалар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *ўқув машғулот гуруҳи, югурувчилар, жисмоний тайёргарлик, функционал кўрсаткич, тана индекси, тотал ўлчам, қиёсий таҳлил, жисмоний тайёргарлик динамикаси, йиллик машғлот.*

Аннотация

В этой статье тренировочная группа фокусируется на определении физической подготовленности на основе специальных тестов, представляющих физические характеристики о динамике физической подготовленности бегунов на средние дистанции. Это дало уверенность пролить свет на результаты, полученные на основе специальных тестов, полученных на основе проведенных исследований. Дан сравнительный анализ результатов исследований тренировочной группы по подготовке бегунов на средние дистанции к соревнованиям с результатами педагогических исследований ведущих ученых и сделаны выводы.

Ключевые слова: *тренировочная группа, бегуны, физическая подготовленность, функциональный индекс, индекс массы тела, общий улчам, сравнительный анализ, динамика физической подготовленности, ежегодная тренировка.*

Annotation

In this article, the training group focuses on determining physical fitness based on special tests representing the physical characteristics of the dynamics of the physical fitness of middle-distance runners. This gave confidence to shed light on the

results obtained on the basis of special tests obtained on the basis of the studies conducted. A comparative analysis of the results of the training group’s research on the preparation of middle-distance runners for competitions with the results of pedagogical research given by leading scientists was given and conclusions were drawn.

Keywords: *training group, runners, physical fitness, functional index, body mass index, general ulcham, comparative analysis, dynamics of physical fitness, annual training.*

Юртимизда енгил атлетика спорт турини ривожлантириш, оммавийлигини ошириш, иқтидорли ёш спортчиларни саралаб олиш, уларни кўп йиллик тайёргарлик босқичларига йўналтириш ва юксак спорт натижаларига эришириш каби устувор вазифаларни амалга ошириш лозим [1, 42]. Албатта ушбу юксак натижаларни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан жисмоний тарбия ва спортга оид чиқарилаётган Фармон ва Қарорларнинг ўрни беқиёсдир. Жумладан 2024 йил Париж шаҳрида бўлиб ўтадиган XXXIII Ёзги Олимпия ва XVII Паралимпия ўйинларига пухта тайёргарлик кўриш вазифаларни белгилаб берилганлиги соҳа ходимларини янада самаралироқ меҳнат қилишга ундайди.

Бугунги кунда ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни мусобақаларга тайёрлаш бўйича жуда кўпчилик олимлар томонидан тадқиқот ишлари олиб борилган ва ҳозирда ҳам тадқиқотлар олиб борилмоқда [2, 95]. Ф.П.Суслов, А.И.Полунин, О.Павлова, В.Никитушкин, Ю.Г.Травин, В.Н. Верхошанский, М.С.Олимов, Ҳ.Т.Тўхтабоев, Б.Т.Ҳайдаров, И.Р.Солиев ва бошқалар томонидан йиллик ва кўп йиллик тайёргарлик машғулотларини режалаштириш, мусобақа олди тайёргарлиги, саралаш ва йўналтириш, кўп йиллик тайёргарлик босқичларига спортчиларни тайёрлаш ва машғулот жараёнини бошқариш масалаларига эътибор қаратилган бўлса-да [3, 57] аммо ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофаларга югурувчи спортчиларни тайёрлаш бўйича етарлича тадқиқотлар юртимизда олиб борилмаганлиги тадқиқот жараёнида аниқланди.

Маълумки болалар ўсмирлар спорт мактаблари бугунги кунда миллий терма жамоа учун захира спортчиларни тайёрлашда етакчилик қилади [4, 171].

Ўтказиладиган тадқиқотда ўрта масофага югурувчиларни спорт натижаларини таҳлили шуни кўрсатадики, Жаҳон ва Осиё чемпионатлари ҳамда Олимпия ўйинларида Ўзбекистон спортчиларини кўринмаётганлиги ва спорт натижаларини паст даражада шаклланганлиги ўрта масофага югурувчиларни тайёрлаш тизимида етарлича камчиликлар борлигини кўрсатади [5, 110]. Қолаверса тайёргарликнинг кўп йиллик дастурларини такомиллаштирилган оптимал вариантларини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш бугунги кунда соҳада долзарб вазифалардан саналади.

Жисмоний тайёргарлик ўрта масофага югурувчиларни машғулот жараёнида воситаларни қўллаш назарияси ва усулиятининг таркибий қисми сифатида мутахассислар эътиборини кўпдан буён тортиб келади. Мураббий иш тажрибасини умумлаштириш асосида олимлар томонидан кўп сонли қўлланмалар нашр этилган, жумладан, асосий услубий қонуниятларни тизимлаштирилган ва жисмоний сифатларни ривожлантириш учун машқлар мажмуаси ишлаб чиқилган. Уларнинг кўпчилигида гимнастика, акробатика, енгил атлетика, спорт ва ҳаракатли ўйинлардан олинган йўналишдаги воситалар устунлик қилади деб ҳисобланади.

Бироқ ҳозирги замон спорт амалиёти шуни кўрсатадики, ўқув машғулот гуруҳлари ўрта масофага югурувчиларнинг турли тайёргарлик босқичларда спорт машғулотларини янада самаралироқ ташкил этиш ва восита усулларини қўллаш уларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришни талаб этмоқда.

Ўқув машғулот гуруҳлари ўрта масофага югурувчиларни биринчи иккинчи тайёргарлик йилларида юқори даражада функционал тайёргарликка эга бўлиш ҳамда жисмоний сифатларнинг ривожланишига уларни югуриш техникасини эгаллашида ва мусобақа тажрибасига эга бўлишида катта аҳамиятга эга.

Спортчи шаклланишининг илк босқичидаги умумий жисмоний тайёргарлик шундай пойдевор ҳисобланадики, у ёш спортчига ўз маҳоратини такомиллаштиришда зарур бўлган ҳаракат кўникма ва малакаларини жисмоний сифатларнинг ҳар хил турларини ҳосил қилишга имкон яратади.

Машғулот жараёнида турли хил воситаларини мунтазам равишда кўп маротаба бажариш мушак толалари, суяк тўқималари, ички органларда морфофункционал ўзгаришларга, ҳаракат вегетатив ва энергия билан таъминловчи функциялар орасидаги ўзаро алоқаларнинг оптималлаштирувига олиб келади.

Биз ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофаларга югурувчиларни жисмоний тайёргарлигини махсус тестлар ёрдамида, жисмоний тайёргарлигини аниқлашга эътибор қаратдик. Биз томонимиздан ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни жисмоний тайёргарлигини аниқлаш бўйича тадқиқот олдидан тестлаш ўтказдик. Унда жисмоний ривожланишни аниқлашда бўй, вазн, бўй вазн индекси, кўкрак қафас айланаси бўйича тананинг тотал ўлчамлари аниқланди ва шу билан биргаликда жисмоний тайёргарлик даражасини 12 та кўрсаткичлар асосида аниқладик. Тезкорликка бўлган куч сифатини 100-200 метр масофага югуриш, тезкор чидамлиликни 300-400-800-1000-1500 метр масофага югуриш ва махсус чидамлиликни 3000 метрга югуриш, оёқнинг портловчанлик кучини жойидан ту-

риб узунликка сакраш, уч ва ўн хатлаб сакраш, қўл кўчини 2-килограммлик тўлдирма тўпини улоқтириш тестларини данфотдаланган холда аниқлашга эътибор қаратдик. Олинган натижалар 1-жадвалда берилди.

Ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни тадқиқод олди жисмоний тайёргарлик даражасини шакиллантириш ДИНАМИКАСИ

Жадвал-1

Т/р	Назорат тестлари / Фамиля исми Ш.	Бўйи (см) n=16	Вазни (кг) n=16	Тана индексин=16	КККтотал улчами			Жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари											
					Типч. х	Нафасолганда	Нафасчикарганда	100 м	200 м	300 м	400 м	800 м	1000 м	1500 м	3000 м	Турган жойдан узуликка	Турган жойдан уч	Турган жойдан ўн	2- кг ли тулдирма
1	Собиров С.	159	51,0	16,35	78,8	80,5	75,3	13,30	31,21	52,12	71,00	158	198	301	681	2,18	601	20,15	6,35
2	Бурисв Ш.	162	53,5	17,66	78,0	81,0	75,8	13,70	32,18	50,28	72,28	162	195	305	683	2,30	603	20,25	6,50
3	Расулов З.	171	49,0	14,04	79,5	82,0	76,1	13,45	30,45	51,12	73,14	159	197	308	678	2,15	605	20,30	6,41
4	Эргашев Ш.	158	48,5	14,88	76,5	80,5	75,5	14,20	29,58	49,88	70,12	155	205	298	671	2,21	600	20,20	6,71
5	Эшпулатов Ш.	159	55,0	19,02	78,2	81,5	75,8	13,05	29,75	51,25	70,85	156	201	299	684	2,18	598	20,35	6,95
6	Аликулов Р.	152	51,0	17,11	78,5	80,8	74,7	13,10	32,10	52,59	71,95	159	206	300	680	2,30	596	20,30	5,60
7	Назаров Ш.	165	49,5	14,85	77,5	81,5	74,9	13,95	31,75	53,11	71,68	157	196	310	681	2,21	594	20,35	6,20
8	Бердиев Б.	170	55,5	18,11	77,9	81,8	74,0	12,85	29,05	50,21	71,09	154	199	307	686	2,15	601	20,35	6,40
9	Рустамов Д.	160	49,0	15,00	78,5	82,2	75,8	12,45	28,48	53,10	71,28	162	195	311	688	2,28	620	20,15	6,20
10	Тураев Ш.	155	51,5	17,11	78,9	80,9	76,0	13,20	30,95	48,75	65,12	160	198	295	684	2,20	603	19,45	6,00
11	Муродов О.	171	53,5	16,73	77,5	81,0	76,0	12,95	29,95	50,19	68,69	157	207	298	670	2,17	597	19,90	6,10
12	Закиров Б.	163	48,0	14,13	78,6	81,2	76,2	13,85	33,20	51,21	70,21	162	201	315	675	2,24	592	20,45	5,95
13	КамиловС.	167	47,5	13,51	79,0	81,0	75,7	13,80	32,15	51,96	71,00	147	203	299	676	2,31	591	19,00	6,45
14	Маҳмудов М.	152	50,0	16,44	78,5	81,5	75,0	13,65	30,58	52,00	67,14	161	200	305	680	2,12	599	19,40	6,25
15	Тошиева К.	158	48,5	14,88	76,8	81,5	75,2	13,75	31,12	53,12	68,25	151	201	307	676	2,00	593	20,50	6,80
16	Шарофиддинов Ж.	157	49,0	15,29	78,3	80,5	76,0	14,00	33,08	50,21	69,23	155	198	310	695	2,25	605	20,55	6,45
	х- ўртача кўрсаткич	**161**	**50,5**	**15,94**	**78,3**	**81,5**	**75,5**	**13,45**	**30,97**	**50,98**	**70,18**	**157**	**200**	**305**	**680**	**2,20**	**600**	**20,10**	**6,33**

Жисмоний тайёргарлик ва функционал кўрсаткичларини аниқлаш бўйича ўткизилган педагогик тажрибада ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни жисмоний тайёргарлигини Б.Т.Ҳайдаров томонидан берилган маълумотлар билан қиёсий таҳлил этганимизда [4, 58], спортчилар бўйи, вазни, тана индексида ва жисмоний тайёргарлик натижалар ўртасида сезиларли фарқлар кузатилмади.

Хулоса. Ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни жисмоний ривожланганлигини тотал ўлчамлари ва тайёргарлик даражасини аниқлаш бўйича ўткизилган тадқиқот натижаси қуйидаги хулосаларни қайд этиш имконини берди:

– 15 ёшли ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчилардан олинган жисмоний ривожланиш бўйича тотал ўлчамларини етакчи олимлар томонидан берилган маълумотлар билан қиёсий таҳлил этилганда, улар ўртасида бўйининг ўсиши ва вазнларида фарқлар борлиги кузатилди.

– ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларда жисмоний тайёргарлигини ривожланганлигини Б.Ҳайдаров томонидан берилган маълумотлар билан қиёсий таҳлил қилганимизда улар ўртасида сезиларли даражада фарқлар борлиги кузатилди.

– ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчиларни жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш бўйича олинган тайёргарлик дастурларини, эскирганлиги ўрта масофага югурувчиларни тайёрлаш самарадорлиги оз бўлса-да таъсир этаётганлиги тадқиқот жараёнида аниқланди.

Юқоридагиларни инобатга олиб, ўқув машғулот гуруҳи ўрта масофага югурувчилар билан ўтказилган йиллик машғулот юкламаларини ривожлантиришда уларни тайёргарлик даражаси, функционал ҳолатини инобатга олган ҳолда тайёргарлик дастурини ишлаб чиқиш лозим. Шундагина кўзлаган натижага эришиш учун замин яратилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортывных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: Советский спорт, 2009. – 108 с.

2. Полунин А.И. Школа бега Вячеслава Евстратова. – М.: Советский спорт, 2013. – 135 с.

3. Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurishda sportchilarni texnik tayyorgarlik davrida start reaksiyalarini takomillashtirishni tahlil qilish. // FAN-SPORTGA ilmiy-nazariy jurnal. – T., 2018-yil. – 2 son. – 56-60-b.

4. Хайдаров Б.Т., Легкая атлетика: программа для детского-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – Т.: Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2017. – 148 с.

5. Soliyev I.R. Yuqori malakali uzoq masofaga yuguruvchi sportchi qizlarni tayyorgarlik mashg‘ulotlari va musobaqa jarayonining qiyosiy tahlili. // O‘zMU Xabarlari. – T., 2018-yil. – №1/1. – 171-174-b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Dildora Turdaliyeva,
Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari haqida so‘z boradi. U o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, badiiy mahorat va estetik qadrlashni rag‘batlantirish uchun pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan turli yondashuv va usullarni o‘rganadi. Maqolada o‘qitishning an’anaviy va innovatsion usullari, jumladan, zamonaviy texnologiyalar, interfaol usullar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish haqida so‘z boradi. Ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning badiiy ijod orqali o‘zini namoyon etishini rag‘batlantirish muhimligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqot o‘quv amaliyotini boyitish va zamonaviy maktab sharoitida tasviriy san’atni o‘qitish samaradorligini oshirishga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at o‘qitish, zamonaviy o‘qitish metodikasi, umumta’lim maktablari, ta’limdagi innovatsiyalar, ta’limga san’atning integratsiyasi, tasviriy san’at o‘qitishda texnologiya.*

Аннотация

Статья обсуждает современные методики преподавания изобразительного искусства в общеобразовательных школах. Она исследует различные подходы и техники, используемые педагогами для стимулирования творческого мышления, развития художественных навыков и эстетического восприятия учащихся. В статье рассматриваются как традиционные, так и инновационные методы обучения, включая использование современных технологий, интерактивных методов и визуальных материалов. Особое внимание уделяется важности индивидуализации образовательного процесса и поощрению самовыражения учащихся через искусство. Исследование призвано обогатить педагогическую практику и способствовать повышению эффективности обучения изобразительному искусству в современной школьной среде.

Ключевые слова: *обучение изобразительному искусству, современные методики обучения, общеобразовательные школы, инновации в образовании, интеграция искусства в обучение, технологии в обучении изобразительному искусству.*

Annotation

The article discusses modern methods of teaching fine arts in secondary schools. She explores the various approaches and techniques used by educators to stimulate creative thinking, artistic skills, and aesthetic appreciation in students. The article discusses both traditional and innovative teaching methods, including the use of modern technologies, interactive methods and visual materials. Particular attention is paid to the importance of individualizing the educational process and encouraging student self-expression through the arts. The study is intended to enrich teaching practice and contribute to increasing the effectiveness of teaching the visual arts in a modern school environment.

Keywords: *teaching fine arts, modern teaching methods, secondary schools, innovations in education, integration of art into learning, technology in teaching fine arts, development of creative skills.*

Tasviriy san’at ijodiy fikrlash, tasavvur va dunyoni estetik idrok etish rivojlanadigan o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari yondashuvlarni individuallashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rag‘batlantirishga qaratilgan. Raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot davrida tasviriy san’at o‘qituvchilari an’anaviy usullarni zamonaviy yondashuvlar bilan birlashtirish muammosiga duch kelishmoqda. Bunga rasm chizish, kompozitsiya va rang bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kompyuter dasturlari, grafik planshetlar va interaktiv texnologiyalardan foydalanish kiradi.

Zamonaviy tasviriy san’atni o‘qitishning asosiy tendensiyalaridan biri bu ijodkorlik va ifodani rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar turli materiallar va texnikalar bilan tajriba o‘tkazishga, shuningdek, o‘zlarining badiiy uslublarini rivojlantirishga rag‘batlantiriladi [1, 56]. Ush-

bu yondashuv o‘quvchilarning o‘zlarining ijodiy qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini shakllantirishga yordam beradi va ularning san’at sohasidagi imkoniyatlarini ochib beradi. Fanlararo yondashuv tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy uslublarida ham muhim rol o‘ynaydi. Darslar adabiyot, tarix, fan va texnologiya kabi boshqa fan sohalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, talabalar san’at tarixini tarixiy voqealar kontekstida o‘rganishlari yoki buyuk rassomlar va ularning asarlari haqida multimedia taqdimotlarini yaratishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida talabalar tasviriy san’at asarlarini ham tahlil qiladilar va talqin qiladilar. Ular turli uslublar, yo‘nalishlar va texnikalarni o‘rganadilar va badiiy tanqid asoslarini o‘rganadilar. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari, shuningdek, turli xil baholash shakllaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi, shu jumladan talabalar portfeli, o‘z-o‘zini baholash, programmalar va asarlarni jamoaviy muhokama qilish [2, 13]. Bu ijodiy jarayonni chuqurroq tushunish va baholashga yordam beradi va o‘qituvchilarga o‘quv dasturini har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi.

Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi, ularni o‘zlarini ifoda etish, tadqiq qilish va tanqidiy fikrlashga undaydi. Ushbu texnikalar har bir talaba o‘zining badiiy salohiyatini ochib berishi va san’at olamida o‘ziga xos ovozini topishi mumkin bo‘lgan ilhomlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishga yordam beradi. Tasviriy san’at ijodiy fikrlashni shakllantirishda, dunyoni hissiy idrok etishda va individual ifoda qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [3, 55]. Zamonaviy ta’limda badiiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tasviriy san’atni samarali va qiziqarli o‘qitish maqsadida umumta’lim maktablarida zamonaviy metodikalar ishlab chiqildi va muvaffaqiyatli joriy etildi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan tasviriy san’at o‘qituvchilari innovatsion o‘qitish usullarini faol ravishda joriy qilmoqdalar. Planshetlar, kompyuter dasturlari, grafik planshetlardan foydalanish o‘quvchilarga nafaqat rasm chizish, balki kompyuter grafikasi asoslarini o‘rganish, animatsiya va vizualizatsiya yaratish imkonini beradi [2, 13]. Bu ijodiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va turli xil badiiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Tasviriy san’atdagi loyihalarni o‘rganish ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar butun loyihalar ustida ishlaydilar, jamoaviy asarlar yaratadilar va o‘z ishlarini ko‘rgazmalarda namoyish etadilar. Bunday usullar o‘zaro ta’sir, aloqa va qo‘shma ijodkorlikni rag‘batlantiradi, bu jamoaviy ruh va boshqalarning ijodiga hurmatni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy usullar o‘quv jarayoniga madaniy xilma-xillik elementlarini o‘z ichiga oladi. Talabalar turli xalqlarning san’atini o‘rganadilar, turli davrlardagi san’at an’analari va uslublari bilan tanishadilar. Bu nafaqat o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularga madaniy merosning xilma-xilligidan Ilhom topishga imkon beradi. Professional rassomlar va dizaynerlar ishtirokida ijodiy ustaxonalar va mahorat darslarini tashkil etish mashhur o‘qitish usuliga aylanmoqda. Amaliyotchi rassomlarning tajribasi va tajribasi o‘quv jarayonini boyitadi va ustalar bilan muloqot talabalarga badiiy muhitda haqiqiy ish tajribasini olish imkonini beradi. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari har bir talabaning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan [4, 62]. Dasturlarni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va qiziqishlariga moslashtirish, tabaqalashtirilgan vazifalardan foydalanish har bir bolaning salohiyatini samarali ochib berishga imkon beradi.

Tasviriy san’at talabalarning madaniy dunyoqarashi va estetik idrokini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy dunyoda texnologiyaning rivojlanishi va ta’lim yondashuvlarining o‘zgarishi bilan bir qatorda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi ham evolyutsiyaga uchraydi. Umumta’lim maktablarida ushbu fanni o‘qitish zamonaviy usullardan foydalanish tufayli yanada yo‘naltirilgan, ijodiy va innovatsion bo‘lib bormoqda. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy uslublarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu turli xil sun’iy fanlarni birlashtirishdir. San’at tarixi, turli xalqlarning badiiy madaniyati, arxitektura, dizayn va zamonaviy badiiy oqimlarni o‘rganish talabalarning dunyoga kompleks qarashlarini shakllantirishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy texnikaning muhim jihati talabalarning badiiy mahorati va ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan. Master-klasslar, ijodiy loyihalar, jamoaviy ijodiy topshiriqlar kabi interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llash har bir bolaning salohiyatini ochish va uning badiiy didini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy texnikaning muhim elementi tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdir [5, 65].

Kompyuter chizish dasturlari, virtual muzeylar va galereyalar, badiiy asarlar to‘plamlari bilan onlayn manbalar — bularning barchasi o‘quvchilarga shakllar va ranglar bilan tajriba o‘tkazish, buyuk ustalarning asarlarini o‘rganish va o‘z ijodlari uchun Ilhom topish imkonini beradigan o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va qulayroq qiladi.

Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy uslublarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bu inklyuziv ta’limdir. Maxsus ehtiyojli bolalarni san’atni o‘rganish jarayoniga kiritish ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, shuningdek, jamiyatga tegishli bo‘lish hissini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, badiiy mahorati va estetik idrokini rivojlantirishga qaratilgan. Turli xil sun’iy fanlarni birlashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foy-

dalanish va inklyuziv ta’limga e’tibor berish o‘quv jarayonini barcha bolalar uchun yanada samarali, qiziqarli va qulay qiladi.

Tasviriy san’at jamiyatning madaniy qiyofasini shakllantirishda, shuningdek o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va estetik idrokini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Umumiy madaniy kompetensiya asoslari shakllanadigan umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish usullari zamonaviy muammolar va talablarga moslashtirilishi kerak. Ushbu maqolada biz maktablarda tasviriy san’atni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy usullarni ko‘rib chiqamiz.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan ta’limda tasviriy san’atni o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Interfaol doskalar, virtual haqiqat dasturlari, grafik planshetlar o‘quvchilarga o‘z ijodlarini to‘liqroq namoyish etish va turli xil badiiy texnikalar bilan tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar, shuningdek, kompozitsiya, istiqbol va rang sxemasi tamoyillarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Dizayn metodologiyasi tasviriy san’atni o‘qitishda faol joriy etilmoqda. Talabalar boshidan oxirigacha badiiy g‘oyalar ustida ishlash orqali o‘z loyihalarini yaratadilar. Bu ularga nafaqat rasm chizish ko‘nikmalarini, balki o‘zlarining ijodiy ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va namoyish etish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Loyihalar individual yoki guruhli bo‘lishi mumkin, bu esa muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san’at adabiyot, tarix, biologiya va texnologiya kabi boshqa o‘quv fanlari bilan mukammal birlashadi. Masalan, adabiy asarlarni o‘rganishda talabalar badiiy ijod orqali asar haqidagi tasavvurlari va tushunchalarini ifoda etish orqali matnlarga illyustratsiyalar yaratishlari mumkin. Bunday integratsiyalashgan usullar nafaqat materialni tushunishni chuqurlashtiradi, balki ijodiy fikrlashni ham rag‘batlantiradi. Talabalarning qobiliyatlari va qiziqishlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari farqlash va individuallashtirishga intiladi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchilar har bir talaba o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishi va ijodkorligini rivojlantirishi uchun turli xil topshiriqlar va o‘qitish yondashuvlarini taklif qilishlari mumkin.

Zamonaviy usullar, shuningdek, o‘z-o‘zini aks ettirish va Art-terapiyaga e’tibor qaratadi. Badiiy ijod o‘quvchilarga his-tuyg‘ulari, fikrlari va tajribalarini ifoda etishga yordam berish orqali o‘zini namoyon qilish va o‘zini o‘zi bilish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Art-terapevtik usullardan foydalanish o‘quvchilarning psixologik salomatligini saqlashga imkon beradi va ularga hissiy o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishga yordam beradi. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy usullari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlash va hissiy intellektini rivojlantirishga qaratilgan. Interaktiv texnologiyalar, loyiha faoliyati, boshqa fanlar bilan integratsiya, farqlash va individuallashtirish va Art-terapiyadan foydalangan holda maktablar har bir o‘quvchining tasviriy san’at sohasidagi shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Xulosa shuki, zamonaviy umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish zamonaviy usullardan foydalanish tufayli tobora qiziqarli, ijodiy va xilma-xil bo‘lib bormoqda. Texnologiyalarni birlashtirish, loyihalarni o‘qitish, madaniy xilma-xillikka e’tibor, ijodiy ustaxonalar-bularning barchasi badiiy madaniyat va ijodiy fikrlashning yuqori darajasiga ega bo‘lgan barkamol rivojlangan shaxslarni shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov B.N. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Oliy o‘quv yurtlarining “Badiiy grafika” va “San’atshunoslik” yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “ILM-ZIYO”, 2013. – 152 b.
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 232 b.
3. Сокольникова Н.М. С597 Методика преподавания изобразительного искусства: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / Н.М.Сокольникова. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2012. – 256 с.
4. Ходусова, Г.П. Методика преподавания изобразительного искусства : Учебно методическое пособие. – Славянск-на-Кубани: Филиал Кубанского гос. ун-та в г. Славянске-на-Кубани, 2018. – 74 с.
5. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: Агар, 2000. – С. 251.

5-6 SINFLARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR ISHLAB CHIQISH USULLARI

Ibrat Atakav,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada 5-6-sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan. Zamonaviy ta’lim davrida texnologiyaning pedagogikaga integratsiyalashuvi tobora kengayib bormoqda. Ushbu ishda 5-6 sinflarda ta’lim fanini o‘qitishga moslashtirilgan pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish usullari o‘rganiladi. Ta’lim nazariyasini texnologik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘qituvchilar o‘quv tajribasini oshirishi va talabalar o‘rtasida faollikni oshirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash.*

Аннотация

В статье использование педагогических технологий, интерактивных методов и обучающих игр, современных информационно-коммуникационных технологий при преподавании педагогики в 5-6 классах позволяет учащимся мыслить самостоятельно, расширять сферу творческого поиска и логического мышления. излагаются, которые помогают связать изученное на уроках с жизнью и повысить их интерес. В эпоху современного образования интеграция технологий в педагогику приобретает все большее распространение. В данной работе изучаются методы разработки педагогических программных средств, адаптированных к преподаванию образования в 5-6 классах. Объединив теорию образования с технологическими инновациями, преподаватели могут улучшить учебный опыт и повысить вовлеченность учащихся.

Ключевые слова: *интерактивные методы, техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение.*

Annotation

In the article, the use of pedagogical technology, interactive methods and educational games, modern information and communication technologies in the teaching of educational science in the 5th-6th grades allows students to think independently, expand the scope of creative research and logical thinking. ideas that help to connect what they learned in the lessons with life and increase their interest are stated. In the era of modern education, the integration of technology into pedagogy is becoming more and more widespread. In this work, the methods of developing pedagogical software tools adapted to the teaching of education in grades 5-6 are studied. By combining educational theory with technological innovation, educators can enhance the learning experience and increase engagement among students.

Keywords: *interactive methods, technical, informational, audiovisual active citizenship position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep worldview.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham “Tarbiya” fanini o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirishda ta’lim jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. AQSh, Finlyandiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaroniya, Italiya, Turkiya, Hindiston singari davlatlarning ta’lim muassasalari faoliyati o‘rganilib, ularning ilg‘or tajribalari asosida o‘qitish tashkil yetilmoqda. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan darsliklarning yangi avlodini yaratish va ulardan amalda foydalanish mexanizmini takomillashtirish yanada kengroq ahamiyat kasb yetmoqda.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz” [1, 14]. Shu ma’noda, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashtirish orqali o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni, xususan, sog‘lom turmush tarziga rioya qilib to‘g‘ri yashash ko‘nikmasini shakllantirish, tushunchalarni takomillashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda xalq

ISSN 2181-8274

ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorlari, 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 422-sonli qarorida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Darsliklarda keltirilgan o‘quv materiallar o‘quvchida to‘g‘ri va sog‘lom yashash ko‘nikmalarini tez va qulay shakllanishiga imkon yaratadi. Xalqaro tajribada, jumladan, sharq mamlakatlarida ham o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzi o‘rgatilishida qiyinchilik bo‘lmaydi. Tarbiya boshqa fanlarga integratsiya qilingan holda o‘qitiladi.

Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda tarbiya masalasi, u bilan bog‘liq qadriyatlarni asrash, ularni takomillashtirish va o‘qitish masalalari dolzarb bo‘lib, bugungi kunda tarbiya ta’limiga doir turli interfaol usullar, yangi pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Dunyoda ta’lim muassasalarida ta’lim nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv negizida metodik muammolar ilmiy tahlil yetilishi negizida o‘quv adabiyotlarining yangi avlodiga metodologik, didaktik, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog‘liqlik kabi qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Mazkur Xalqaro Deklaratsiyaning “Umumiy o‘rta ta’lim va kasbiy oliy ta’lim hamda katta yoshdagilar ta’limi” nomli 12-bobida ta’limning uch bosqichi e’tirof yetilgan hamda xalqaro mehnat bozorida hayot sur’atlari shiddat bilan tezlashayotgan globallashuv: yuksak texnologiya, yalpi axborotlashuv, iqtisodiyotning real tarmoqlarida raqamlashtirish davrida shaxsning “... butun hayoti uchun yemas, balki butun umri davomida o‘zining bilimi, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish” asnosida mustaqil va muntazam ta’lim olish huquqini kafolatlash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda [3, 55].

“Tarbiya” fanini 5-6-sinflarda o‘qitish tizimini o‘qitish orqali o‘quvchilarda dasturiy ta’lim vositalari asosida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalari ishlab chiqishni takomillashtirish; 5-6-sinf o‘quvchilarning dasturiy ta’lim vositalari asosida o‘qitish jarayonida qaysi o‘quv materiallarini faqat o‘qib tushunib olishlari va qaysilarini qat’iy yoddan bilishlarini aniqlash, unli tovushlarni o‘qitishda qanday metod, usul va texnologiyalardan foydalanish muhimligini aniqlash; ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajribada sinab ko‘rish va olingan natijalarni statistik tahlilga tortish [4, 42].

“Tarbiya” fanini o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalar — kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi. 5-6-sinf o‘quvchilariga pedagogik dasturiy vositalar — kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi [5, 13]. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Dasturiy ta’lim vositasi tushunchasi. Pedagogik dasturiy vositalar. Pedagogik dasturiy vositalarning qo‘llanilishi. Pedagogik dasturiy vositalar tasnifi: Elektron darslik. Elektron qo‘llanma. Elektron ensiklopediya. Virtual laboratoriya. Pedagogik dasturiy vositalar guruhlari: namoyish etuvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, o‘rgatuvchi dasturlar, modellashtiruvchi dasturlar Pedagogik dasturiy vositalar yaratuvchi dasturlar tasnifi. Matn muharrirlari. Grafik muharrirlar. Animator dasturlar. Web muharrirlar. Audio muharrirlar. Video muharrirlar. Ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari. Buyurtmachi yoki ta’lim muassasasi talablarini o‘rganish.

Pedagogik dasturiy vositalarni loyihasini ishlab chiqish. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo‘yiladigan talablar. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo‘yiladigan talablar tasnifi: didaktik talablar; pedagogika-psixologik talablar; ekrandagi tasvirlarning rangiga qo‘yiladigan talablar; yorqinlik talabi; ekrandagi ma’lumotlarning tuzilishiga qo‘yiladigan talablar; ekrandagi obyektlarning ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar; foydalanuvchi oynasining qulayligi. “Tarbiya” fani bo‘yicha pedagogik dasturiy vositalar yaratishda texnik va ergonomik talablar. Dasturning ommaviyligi; dastur ishining uzluksizligi; dastur hajmi; kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanish; o‘quvchi va kompyuterning muloqot usullari; o‘quvchi uchun ortiqcha ma’lumotlarning berkitilishi; o‘qituvchi va o‘quvchi vaqtini tejash kabi talablarni olish mumkin.

2-Modul. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari Elektron darslik va uning turlari Elektron darslikning 1-toifasi: o‘quv materialini faqat verbal ko‘rinishida taqdim etadigan; elektron darslikning 2-toifasi: o‘quv materialini verbal ikki o‘lchamli grafik

shaklida taqdim etadigan; elektron darslikning 3-toifasi: — multimedia darsligi, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal shaklida taqdim etiladigan multimediali elektron darslik; elektron darslikning 4-toifasi: material ovozli va uch o‘lchamli fazoviy ko‘rinishda bo‘lib qolmasdan, taktik xususiyatli ma’lumotlar vositasida bayon qilinib, o‘rganuvchini — ekran olamida stereonusxasi tasvirlangan real olamga kirish va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan elektron darslik.

WEB-texnologiyalar asosida elektron o‘quv materiallarni yaratish texnologiyalari: HTML tilida elektron o‘quv materiallarni yaratish; Dreamweaver dasturida elektron o‘quv materiallarni yaratish. Moodle tizimining interfaol imkoniyatlari Moodle tizimining interfaol imkoniyatlaridan foydalanib elektron o‘quv materiallarni yaratish; ma’ruza; nazorat testlari; chat; forum; ma’lumotlar bazasi; topshiriq; anketa-so‘rov. Moodle tizimida nazorat testlari yaratish Moodle tizimining interfaol imkoniyatlaridan foydalanib nazorat testlari yaratish; Test savollarini kiritish yo‘llari; Test savollarini sozlash parametrlari. Multimediali elektron darslik yaratish Multimediali elektron darslik loyihasini ishlab chiqish. Flash dasturida Multimediali elektron darslik qobig‘ini yaratish. Multimediali elektron darslik qobig‘iga ma’lumotlarni kiritish. Flash dasturida taqdimot yaratish Flash dasturida taqdimot yaratish uchun uning loyihasini ishlab chiqish. Flash dasturida taqdimot yaratish.

Taqdimot boshqaruv elementlarini yaratib olish. Taqdimot qobig‘iga ma’lumotlarni kiritish. Flash dasturida nazorat testlari yaratish Flash dasturida nazorat testi yaratish uchun uning loyihasini ishlab chiqish. Flash dasturida nazorat testi yaratish. Nazorat testi boshqaruv elementlarini yaratib olish. Nazorat testi qobig‘iga savol va uning javoblarini kiritish hamda uning kalitlarini belgilash. Flash dasturida interfaol manbalar yaratish Flash dasturida yaratiladigan interfaol manba loyihasini ishlab chiqish. Flash dasturi Actions tili imkoniyatlaridan foydalangan holda interfaol manba yaratish.

3-Modul. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishning qo‘shimcha imkoniyatlari. Flash dasturida obyekt va jarayonlarni modellashtirish Flash dasturida obyekt va jarayonlarni modellashtirish uchun uning loyihasini ishlab chiqish. Flash dasturida obyekt va jarayonlar modelini yaratish. Obyekt va jarayonlarni modellashtirish boshqaruv elementlarini yaratib olish. Spring dasturida manbalar yaratishi Spring dasturida manbalar yaratish: anketa-so‘rov hosil qilish; turli xil nazorat testlar yaratish; nazorat testlarini sozlash va nashr qilish; masofali ta’lim uchun o‘quv kurslari ishlab chiqish.

Ta’lim yo‘nalishida tuzilgan dasturiy vosita deb, shunday dasturiy vositaga aytiladiki, ularda qandaydir predmetli soha aks ettiriladi, uni o‘zlashtirish uchun u yoki bu darajada texnologiya amalga oshiriladi. Dasturiy vosita orqali o‘quv axborotni ekranda har xil ko‘rinishda berish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkillashtirish; o‘quv yoki amaliy faoliyatida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, o‘qish natijalarini nazorat qilishni samarali amalga oshirish, takrorlash, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ma’lum turdagi fikrlash ko‘rinishlarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Dasturiy vositalarni funksional jihatdan quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

– amaliy dasturlar, foydalanuvchini kompyuter bilan o‘quv dialogini tashkillashtirish uchun mo‘ljallangan. Ko‘pincha ularni pedagogik dasturiy vositalar deb ham aytiladi. Pedagogik dasturiy vositalarning funksional qo‘llanilishi-o‘quv axborotni taqdim etish va ta’lim olishga yo‘naltirishdir. Bunda ta’lim oluvchiga nisbatan individual yondashishni hisobga olish kerak. Odatda pedagogik dasturiy vositalar yangi axborotlarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi;

– test, diagnostik dasturlashning maqsadi ta’lim oluvchining xato harakatlarini sababini aniqlash, uning bilim, malaka va ko‘nikmasini baholash, uning o‘zlashtirish darajasini aniqlash yoki intellektual rivojlanishini aniqlash;

– instrumental dasturiy vositalar: o‘quv yo‘nalishida tuzilgan dasturiy vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan, o‘quv metodik va tashkillovchi materialni tayyorlash, grafik yoki tovushli imkoniyatlarni yaratish va hokazo. Pedagogik dasturiy vositalar o‘quv jarayonini texnologik ta’minlashni amalga oshiradi. Ular kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini ishlatishga asoslangan. Pedagogik dasturiy vositalarga quyidagilar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

l. O‘rgatuvchi dasturlar — oquvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

2. Test dasturlari — egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

3. Mashq qildirgichlar — avval o‘zlashtirilgan oquv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

4. O‘qituvchi ishtirokidagi virtual oquv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Multimedia dasturiy vositalari dasturiy mahsulotlarning nisbatan yangi sinfi hisoblanadi. U ma’lumotlarni qayta ishlash muhitining o‘zgarishi, lazerli disklarning paydo bo‘lishi, ma’lumotlar tarmoqli texnologiyasining rivojlanishi natijasida shakllandi. Sun’iy intellekt tizimlari. Bu sohadagi izlanishlarni to‘rt yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

– ijodiy jarayonlami imitatsiya qiluvchi tizimlar. Ushbu yo‘nalish kompyuterda o‘yinlarni (shaxmat, shashka va h.k.), avtomatik tarjima qilishni va boshqalami amalga oshiradigan dasturiy ta’minotni yaratish bilan shug‘ullanadi;

– bilimlarga asoslangan intellektual tizimlar. Ushbu yo‘nalishdagi muhim natijalardan biri ekspert tizimlarning yaratilishi hisoblanadi. Shu tufayli sun’iy intellekt

tizimlari ma’lum va kichik sohalaming eksperti sifatida tan olinishi va qo‘llanishi mumkin;

– EHMlaming yangi arxitekturasini yaratish. Bu yo‘nalish sun’iy tafakkur mashinalari (beshinchi avlod EHMlari) ni yaratish muammolarini o‘rganadi;

– intellektual robotlar. Bu yo‘nalish oldindan belgilangan manzil va maqsadga erisha oladigan intellektual robotlar avlodini yaratish muammolari bilan shug‘ullanadi.

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog‘liq yo‘nalish tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday uskunaviy vositalar dasturlar yaratish va sozlash uchun quvvatli hamda qulay vositalarni tashkil etadi. Ularga dasturlar yaratish vositalari va Case texnologiyalar kiradi. Dasturlar yaratish vositalari. Ushbu vositalar dasturlar yaratishda ayrim ishlami avtomatik ravishda bajarishni ta’minlovchi dasturiy tizimlarni o‘z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

– kompilyator va interpretatorlar;

– dasturlar kutubxonasi;

– turli yordamchi dasturlar.

Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq. Agar ta’limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta’limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi. Ta’lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo‘llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O‘qituvchining vazifasi — dars jarayonini faollashtirish uchun ta’limning samarali vositasini tanlab olishdir. Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

– faoliyat subyektiga ko‘ra; faoliyat obyektiga ko‘ra;

– o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;

– o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Tasviriy san’at va uning mohiyati, tur va janrlari Tasviriy san’at — eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Aslida san’atning turlari juda ko‘p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, teatr, kino, xoreografiya, me’morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san’at turlari ham mavjuddir. Odatda haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog‘oz yuzasida) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi. Tasviriy san’at tushunchasi keng ma’noga ega. XIX asrgacha me’morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san’atning turlari bo‘lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san’atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So‘nggi 20 yil ichida san’atning dizayn kabi turi ham o‘z o‘zini topdi. Tasviriy san’atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin har birining o‘ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularing har biri ishlatilish o‘rni, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo‘linadi. Haykaltaroshlikda asosan inson va qisman jonivorlar qiyofasi aks ettiriladi. Unda inson hajmli, mayin — egiluvchan, qiyofa va fazoli shakllar vositasida tasvirlanadi. Haykal shunday obyekti tomoshabin uni hamma tomonidan ko‘ra oladi. Shu bois haykaltaroshlikda asosiy badiiy vositalar hajm, aks-soya (siluet), vazn — ohang, mayin egiluvchanlik belgilari shunday joylashtiriladiki, uning barcha tomonlari ko‘rinib turadi, aks soya esa fazoda yaqqol gavdalanadi. Talabalar ixtisoslik fanlari qatorida haykaltaroshlik fanidan ham ma’lum darajada bilim va ko‘nikmalarni oladilar. Talabalarning bu san’at bilan shug‘ullanishlari ulardagi fazoviy tasavvurni, fikrlashni, tasviriy obyektning plastik shaklini tahlil qila olish va his etish kabi sezgilarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Haykaltaroshlik madaniyat va san’atda katta ahamiyatga ega. Bu sizga uch o‘lchovli makonda shaklni aks ettirish orqali his-tuyg‘ularni, fikrlarni va g‘oyalarni ifoda etishga imkon beradi. Haykallar mavhum, realistik yoki ramziy bo‘lishi mumkin. Ular yodgorliklar, favvoralar yaratish, binolar va jamoat joylarini bezash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, haykallar ko‘plab muzey kolleksiyalarining ajralmas qismidir. Haykaltaroshlik bizning shaxsiy uslubimiz va didimizni ifoda etish usuli sifatida hayotimizda ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p odamlar noyob muhit yaratish uchun o‘z uylari yoki ofislari uchun haykallarni sotib olishadi. Umuman olganda, haykaltaroshlik madaniy merosning muhim elementi bo‘lib, o‘tmish va hozirgi zamonni tushunish va qadrlash hamda kelajakni yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Izbasarov Izzatilla. “Haykaltaroshlik” Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi, Rangtasvir (dastgohli) va Amaliy san’at (badiiy kulolchilik) yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. – S.: SamDU, 2021. – 246 b.

2. U.U. Mansurov, A.Sh. To‘xtabayev O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / U.U. Mansurov, A.Sh.To‘xtabayev. – T.: “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2021. – 184 b.

3. Baymetov B.B. “Plastik anatomiya”. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU nashriyoti, 2011. – 180 b.

4. Воронова О.П. Искусство скульптуры. – М.: Знание, 1981. – 112 с.

5. Sickler-Voigt, Debrah C. Teaching and learning in art education: Cultivating students’ potential from pre-K through high school. Routledge, 2019, p 438.

ТЕХНИК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА “МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИ” ФАНИНИ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚИТИШНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Малика Хакимова,
Тошкент кимё-технология институти ассистенти

Аннотация

Мақолада техника олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишда муаммоли таълим ўзига хослиги ва у ҳар қандай ижодий жараённинг асосий кўриниши бўлган қарама-қаршиликларни бартараф этиш зарурияти асосланган. Шунингдек, техник олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитиш соҳасидаги инновациялар, “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитиш бўйича мультимедиали ўқув мажмуасининг мақсади ва вазифалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: *билим, компетентлик, ҳаракат, натижа, қобилият, муҳандислик, дастур, фаолият, ўзлаштириш.*

Аннотация

В статье акцентируется внимание на уникальности проблемного образования при преподавании “Инженерной графики” в технических вузах, основанном на инновационном подходе и необходимости устранения противоречий, что является основным аспектом любого творческого процесса. Также были освещены инновации в области преподавания “Инженерной графики” на основе инновационного подхода, цели и задачи мультимедийного учебного комплекса по преподаванию “Инженерной графики” на основе инновационного подхода в технических вузах.

Ключевые слова: *знание, компетентность, действие, результат, способность, техника, программа, деятельность, мастерство.*

Annotation

The article focuses on the uniqueness of problem-based education when teaching “Engineering Graphics” in technical universities, based on an innovative approach and the need to eliminate contradictions, which is the main aspect of any creative process. Innovations in the field of teaching “Engineering Graphics” based on an innovative approach, the goals and objectives of a multimedia educational complex for teaching “Engineering Graphics” based on an innovative approach in technical universities were also highlighted.

Keywords: *knowledge, competence, action, result, ability, engineering, program, activity, mastery.*

Бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ўзгартириш ва ишлаб чиқаришни модернизация қилиш шароитида касбий таълим жамиятни барқарор ривожлантириш ва давлат рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омилларидан бирига айланди. Касбий таълимни ривожлантиришнинг асосий стратегиялари қуйидагилардан иборат:

– ҳар бир инсон ва бутун жамият ҳаётида касб таълимининг мазмун-моҳиятини қайта тиклаш;

– касб таълими муаммолари бўйича илмий тадқиқотлар ишларини мослашувчан, амалиётга йўналтирилган, фанлараро ривожланиш шаклларини ташкил этиш;

– фанлараро тадқиқотларда касб таълимини яхлит ҳолда ўрганувчи касб таълими педагогикаси тизимини ташкил этувчи функцияларини унинг барча таркибий қисмлари бирлигида таъминлаш ва бошқалар.

Юқоридаги стратегияларни амалга ошириш касбий таълим субъектларини анъаналар ва инновациялар ўртасида диалектик муносабат ўрнатилишига олиб келади.

Техника олий таълим муассасаларининг ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, махсус ва умумтехника кафедралари ўқитувчиларининг кўпчилиги педагогик маълумотга эга эмас. Бироқ, худди педагогика олий таълим муассасалари ўқитувчилари каби, улар ўзларининг таълим тизимидаги инновацион жараёнларининг асосини расмий ёки моддий таълим назариясидан танлайдилар, лекин у ҳақида тушунчалари бўлмайди. Расмийлик тарафдорлари (Ж.Локк, Г.Пестолоцци, И.Кант) таълим жараёнида талабаларнинг эътиборини моддий эмас, балки таълим олувчининг онгини ривожлантириш муаммосига қаратадилар. (Г.Спенсер, Ж.Дьюц) ўргатилаётган билимларни ўзлаштириш билан таълим вазифаларини, биринчи навбатда, амалий фаолиятни бир бирига боғлайдилар.

Е.Н.Васильеванинг фикрига кўра [1] таълимдаги етакчи тенденциянинг замонавий ривожланиши — ахборот-билиш (билим-таълим)дан маданий-тарихий (шахсий педагогик)га ўтишдир. Яъни, сўнгги йилларда таълимнинг шахснинг маълум хусусиятларини ривожлантиришга йўналтирилганлиги, нафақат билим компетентлигини, балки мутахассисга доимий ўзгариб турадиган муҳитда самарали ҳаракат қилиш, ҳаётий вазиятларда энг яхши натижага эришишни танлаш имконини берадиган фаолият усулларини ҳам ўзлаштириш қобилияти назарда тутади.

Бундай ўтиш техника олий таълим муассасалари

ўқитувчиларининг касбий фаолиятида тўлиқ кузатилмаган. “Кўпчилик техника олий таълим муассасалари ўқитувчилари учун ўқув фаолияти деганда анъанавий равишда талабалар томонидан ўзлаштирилиши натижасида касбий билим ва кўникмалар тизимида шаклланиши керак бўлган касбий аҳамиятга эга маълумотларни узатиш тушунилади” [5, 41]. Шу билан бирга, мутахассис шахсини шакллантиришда таълимнинг мақсади етарли даражада баҳоланмайди, яъни олий таълимнинг асосий вазифаси етарлича баҳоланмайди [4, 133]. Бу масаладан фан дастури, курси ва методикасини тайёрлашда мақсад қўйиш муаммоси келиб чиқади.

Фан фаннинг ўзи учун ўқитилади. Л.П.Григоревская бундай дарсларнинг тактик ҳисоб-китоблари нотўғрилигини таъкидлайди: “Техника олий таълим муассасаларида ўқитишнинг анъанавий усуллари ва методлари малакали рақобатбардош мутахассисни тайёрлаш учун замонавий бозор талабларига жавоб бермаяпти. Баъзи ҳолларда улар ўқув материалларини такрорлаш ва ҳаддан ташқари юкланишига олиб келади, бошқаларида улар техник циклнинг махсус фанлари билан фанлараро алоқаларнинг аҳамиятини ҳисобга олинмайди ва талабанинг касбий қизиқишини оширишга жуда кам эътибор берилади [2, 126].

Бироқ фанлараро алоқаларни амалга ошириш ҳар томонлама ривожланган, зарур ишлаб чиқариш фаолиятини амалга оширишга тайёр бўлган мутахассисни яратишнинг стратегик муаммосини ҳал қилмайди. Бу муаммони ҳар томонлама ҳал қилиш керак. Замонавий таълим парадигмасида олий таълим муассасалари битирувчиси касбий зарурий билимлар ҳажмига эга бўлиши, уларни жамият манфаати учун, ўзи учун, атроф-муҳитга зарар етказмасдан ишлаб чиқаришда қўллашга қодирлигига ишонч ҳосил қилиб, касбий компетентли мутахассис шахсини шакллантириши керак. Бунга келажакка йўналтирилган, аммо ҳозирги пайтда компетентликни намоён бўлишини талаб қиладиган, аниқ фаолиятли хусусиятга эга, таълим жараёнида шахсий ва шерикчилик муносабатларини ўз ичига олган, талабаларнинг ўз касбий компетентлигининг ривожланишини мос равишда баҳолай олиш қобилиятларини етарли даражада ривожлантирадиган компетентли ёндашув ёрдам беради [3, 16].

Техника олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишда муаммоли таълим ўзига хос аҳамиятга эга. У ҳар қандай ижодий жараённинг асосий кўриниши бўлган қарама-қаршиликларни бартараф этиш заруриятига асосланади. Бироқ, бу методни амалга ошириш муайян қийинчиликларга олиб келади. Биринчидан, муаммоли методни таълим-тарбия жараёнидаги моҳияти ва мазмунини аниқлашга ҳам турлича ёндашувлар бор. Бу масала бўйича кўплаб фикрлар мавжуд. М.И.Махмутов муаммоли таълимни янги таълим тизими сифатида кўриб чиқди. М.Н.Скаткин уни таълимни ташкил қилишнинг ўзига хос ёндашуви деб ҳисоблайди, Т.А.Ильина бу фикрни маъқуллайди. И.Я.Лернер муаммоли таълимни метод сифатида белгилайди.

Шу нуқтаи назардан, бу вазифа таълим жараёнида узоқ вақт синовдан ўтган ва қўшимча харажатларни талаб қилмайдиган, ахборот-коммуникация ва репродуктив методларни қўллаш орқали тўлиқ ҳал қилинди.

Техник олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитиш соҳасидаги инновацияларга қуйидагича мисоллар келтириш мумкин:

– узлуксизлик, умуммаданий ва касбий компетенцияларни шакллантириш, умр бўйи касбий маҳоратга тайёрликни таъминловчи жараён;

– касбий тайёргарлик жараёнини қўллаб-қувватлаш, ўқув-илмий марказлар хизматларини яратиш;

– минтақани ижтимоий ва иқтисодий ривожланиш манфаатлари йўлида инновацион потенциалини яратиш, таълим сиёсатининг тенденцияларни аниқлаш ва ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқиш;

– рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш учун касб таълимининг барча босқичларида интеграциялашган таълим дастурларини ишлаб чиқиш;

– мутахассисларни тайёрлаш бўйича давлат буюртмасини шакллантириш методикасини ишлаб чиқиш;

– кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш тизимларини яратиш ва жорий этиш;

– шахсий (касбий тайёргарликни хусусийлаштириш ва бутун умр давомида касбий маҳоратга тайёрликни шакллантириш учун мақбул шарт-шароитларни яратиш), мазмунли (касбий тайёргарлик мазмунини янгилаш), ташкилий (шакл ва методларни интеграциялаш, талабаларга маълумотлар мажмуини етказиш) каби таркибий қисмларни ўз ичига олган касбий тайёргарликни диверсификация қилиш.

Юқорида айтилганлардан келиб чиқадики, техник олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг мазмуни ва ташкилий-педагогик шарт-шароитлари – бу нафақат илмий тадқиқотларнинг методологик асоси, балки умуммаданий ва касбий компетенцияларни шакллантиришга қаратилган, шунингдек бутун умр давомида касбий маҳоратга тайёрликдан иборат.

Касб таълимини компьютерлаштириш, мультимедиали технологиялардан фойдаланиш асосида талабаларнинг умуммаданий ва касбий компетенцияларини шакллантириш орқали касбий тайёргарлик сифатига талабнинг ортиши техник олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитиш бўйича мультимедиали ўқув мажмуа мақсадларини танлаш: меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича умуммаданий ва касбий компетенцияларни шакллантиришга қаратилган, шунингдек бутун

умр давомида касбий маҳоратга тайёрликдан иборат бўлган талабаларга мажмуавий ахборот таъсирини таъминлашга ёрдам берди.

Юқорида муҳокама қилинган муҳандислик йўналиши бакалаврлари учун техник олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитиш бўйича мультимедиали ўқув мажмуасининг мақсади ва вазифалари қуйидагилардан иборат:

– биринчидан, талабалар томонидан “Муҳандислик графикаси” фанини ўқитиш соҳасидаги таълим дастурида кўрсатилган илмий-назарий билимлар ва фаолият турларини ўзлаштириш;

– иккинчидан, касбий аҳамиятга эга билим, кўникма, малакаларни “Муҳандислик графикаси” фанини ўқитиш соҳасидаги касбий компетенциялар даражасига қадар интеграциялаш;

– учинчидан, талабалар томонидан ўқув фанини мустақил ўрганиш методларини ўзлаштириш ва бутун ҳаёти давомида касбий маҳоратга барқарор эътиборни шакллантириш ва бошқалар.

Тез ўзгариб бораётган жамиятда талабалар бугунги кун ва келажакни яратувчилар вазифасини бажарадилар. Шунинг учун анъанавий таълим олувчилар бўлажак мутахассисга бўлган барча потенциал эҳтиёжларни қондира олмайди. Тайёр билимлар асосида замонавий даражадаги мутахассисни фақат тайёрлаш мумкин эмаслиги ҳақидаги ғоя тобора равшан бўлиб бормоқда, чунки бу босқичда маълум бир фаолият соҳасига тегишли бўлган барча маълумотларни ўзлаштириш мумкин эмас.

Шу муносабат билан, техника олий таълим муассасаларида “Муҳандислик графикаси” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг сифат жиҳатидан янги методларни ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш зарурати туғилди. Олий таълим муассасаларининг асосий вазифаларидан бири бўлажак муҳандисларини ўқитиш ва ижодий фикрлашга ўргатишдан иборат. Бу ерда тадқиқот методлари барча йўналишлар, мутахассисни шакллантиришнинг барча асосий шаклларига кириб бориши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Васильева Е.П. Инновационность в обучении будущего специалиста. Стандарты и мониторинг. – 2004. – №2. – С. 35-36.
2. Григоревская Л.П. Исследование процесса формирования специалиста на примере изучения “Пачертательной геометрии и черчения”. Дис. ...канд. пед. наук. – М., 1996. – 214 с.
3. Лернер, И.Я. Процесс обучения и его закономерности / И.Я. Лернер. – М.: Знание, 1980. – 96 с.
4. Нечаев Ю.И. Формирование методологической грамотности студента вуза на начальном этапе подготовки: Дис. ...канд. пед. наук. – Омск, 2001. – 189 с.
5. Скаткин, М.Н. Проблемы современной дидактики / М.Н. Скаткин. – М: Педагогика. 1984. – 96 с.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AMALIY BEZAK SAN’ATI FANINI O‘QITISH VA UNI RAQAMLASHTIRISHNING ZARURATI

Rustam Jabbarov,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Bugungi jadal rivojlanayotgan raqamli asrda amaliy bezak san’ati sohasi an’analar va innovatsiyalar chorrahasida turibdi. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi dekorativ san’atni yaratish, idrok etish va o‘rgatish usullarini inqilob qildi. Ushbu maqolada amaliy bezak san’ati fanini oliy ta’lim o‘quv dasturlariga kiritishning ahamiyati va bu sohada raqamlashtirish zarurati o‘rganiladi. An’anaviy hunarmandchilikni raqamli vositalar va texnikalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, ta’lim muassasalari talabalarni zamonaviy dizayn sanoatida muvaffaqiyatga tayyorlashlari va madaniy merosning saqlanishini ta’minlashlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *kompetent, multimediya, elektron resurslar, kreativ, komponent, innovatsion, kommunikatsion, virtual, didaktik, individual, genetik, reproduktiv, optimallik, temperament, modernizatsiya, integratsiya.*

Аннотация

В современный быстро развивающийся цифровой век область декоративно-прикладного искусства находится на стыке традиций и инноваций. Интеграция цифровых технологий произвела революцию в способах создания, восприятия и преподавания декоративного искусства. В этой статье исследуется важность включения декоративного искусства в учебные программы высшего образования и необходимость оцифровки в этой области.

Объединив традиционное мастерство с цифровыми инструментами и методами, образовательные учреждения могут подготовить студентов к успеху в современной индустрии дизайна и обеспечить сохранение культурного наследия.

Ключевые слова: *компетентный, мультимедийный, электронные ресурсы, творческий, компонентный, инновационный, коммуникативный, виртуальный, дидактический, индивидуальный, генетический, репродуктивный, оптимальность, темперамент, модернизация, интеграция.*

Annotation

In today’s rapidly developing digital age, the field of applied decorative arts stands at the intersection of tradition and innovation. The integration of digital technologies has revolutionized the way decorative arts are created, perceived and taught. This article explores the importance of incorporating decorative arts into higher education curricula and the need for digitization in this field. By combining traditional craftsmanship with digital tools and techniques, educational institutions can prepare students for success in the modern design industry and ensure the preservation of cultural heritage.

Key words: *competent, multimedia, electronic resources, creative, component, innovative, communicative, virtual, didactic, individual, genetic, reproductive, optimality, temperament, modernization, integration.*

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayin shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o‘zgartirishi tabiiy holat bo‘lib bormoqda. Bu holatda ta’lim olish holatlarini yangilanishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limlarning yo‘lga qo‘yilishi bunga bir misol sifatida ko‘rishimiz mumkin. Masofaviy ta’lim, tabiatning o‘zgarishi (pandemiya davri) va so‘ngi texnologiyalarning ta’lim tizimiga samarali tatbiqi o‘qitishni va o‘qishni o‘zgartirishga undaydi. Bu esa raqamli dunyoda o‘qitish va o‘rganish borasida ko‘plab pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini ifodalaydi [1, 35].

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida o‘quv tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Hozirgi kunda milliyligimizni, qadriyatlarimizni urf-odatlarimizni asrab-avaylash mamlakatimizda yashovchi barchamizning insoniylik burchimiz hisoblanadi. Biz o‘tmishimiz, millatimiz, xalqimiz uchun qadrli bo‘lgan qadriyatlarimizni asrab avaylab va yosh mutaxassis sifatida bu tushunchalarni o‘quvchilar ongiga singdira olishimiz kerak. Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo‘lib, uni estetik to‘laqonliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go‘zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 21-aprel, PQ–4688-sonli “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, bunda, albatta, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda amaliy bezak san’ati faniga ham alohida diqqat qaratilmoqda. Yoshlarga badiiy ma’lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg‘ulotlarining ahamiyati benihoya katta bo‘lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy bezak san’atini o‘rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, bo‘yash va pardozlash mahoratini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan sanaladi. San’atimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqida bilimlarni rivojlantirish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Yurtimizda badiiy madaniyat o‘ziga xos tarzda shakllandi. Unda xalq san’atining o‘ziga xos jihatlari aks etdi. Hunarmandchilikning misgarlik, kulolchilik, to‘qimachilik, kashtado‘zlik, gilam to‘qish kabi hunarmandchilik turlari rivojlandi.

Xalq amaliy bezak san’ati bu hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir.

Biz o‘rganayotgan mazkur amaliy bezak san’ati fani bo‘yicha talabalarning bilim olishini tashkil etish, qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi omillarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishning muhim omili sifatida amaliy bezak san’ati fanlidan ilmiy va ijodiy bilim va malakalarni takomillashtirish talab etiladi. Bu ta’rifda faollik, tizimlilik, maqsadga yo‘nalganlik, mustaqillik kabi faoliyat xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Bunda dasturiy mahsulotlarning bir jihati sifatida elektron adabiyotlar tilga olingan. Elektron adabiyotlar ta’limning didaktik bir qismi bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, ta’lim jarayonida talabalar aqliy rivojlanishning ikki turidan: rep-

roduktiv va ijodiy turidan unumli foydalanadilar, bu esa talabalarning aqliy rivojlanishiga ta’siri samaradorligi bilan farq qiladi. Reproduktiv xarakterdagi sa’y-harakatlar talabalarga mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalanib, mustahkam o‘rnashgan bilim olish jarayonida davom etadigan amaliy-ijodiy ta’limni bajarishda qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda respublikamizda oliy ta’lim tizimini rivojlanishining har bir bosqichida ta’limdan foydalanish nazariyasi va amaliyotini faollashtirish oliy ta’lim muassasalarining o‘quv ishlarini takomillashtirish aspektida amalga oshirilmoqda. Bu hodisani nazariy tushunish ta’lim jarayonini takomillashtirish nazariyalarini ishlab chiqish bilan mos ravishda yuz berdi. Tadqiqotimizda o‘quv faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan, talabalarning amaliy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy tushunchalarni ishlab chiqishda bir qancha bosqichlarni belgilab oldik (1-rasm).

1-rasm. Talabalar amaliy-ijodiy ta’lim faoliyatini faollashtirish bosqichlari

Ta’lim jarayonini faollashtirish uchun bugungi kunda an’anaviy o‘qitish usullaridan, noan’anaviy o‘qitish usullari ya’ni dars jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan faol foydalanish, o‘qitishning yangi usullari joriy qilinmoqda.

Bilimlarni o‘zlashtirish borasida I.Y.Lerner olib borgan tadqiqotlar ham muhim ma’lumotlar beradi. Uning ta’kidlashicha, tashqi ifodalanish va hissiy qabul qilishiga yo‘l beradigan faktlar idrok qilish, anglash va esda olib qolish jarayonida o‘zlashadi. Keyingisi, ya’ni esda olib qolish bo‘lmasa, biror darajadagi o‘zlashtirish ham sodir bo‘lmaydi. O‘quvchining xotirada olib qolinadigan mazmun bilan ko‘rsatadigan faoliyati qanchalik jadal va har tomonlama bo‘lsa, yodda qoldirish shunchalik yaxshi va mustahkam bo‘ladi. Bizningcha ham, bunday amaliy faoliyat orqali ana shu qoidalar uzoq muddatli xotirada o‘rnatib qoladi. A.A.Smirnovning ta’kidlashicha, tushuncha borliqdagi narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim xossalarining aks etishidir. N.A.Menchinskaya tushunchaning muhim xususiyatini umumlashganlik deb hisoblaydi. A.A.Smirnov ham, N.A.Menchinskaya ham tushunchani egallash belgilarni o‘zlashtirish va ushbu belgilar orasidagi bog‘lanishni aniqlash bilan tugamaydi; uni egallash ushbu tushunchani qo‘llashni ham ko‘zda tutadi,” deb hisoblaydilar. Ruhshunoslar V.V.Davidov va D.B.Elkoninglar, – deb yozadi. Y.K.Babanskiy, – ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o‘quv materiali mazmunining shunday mantiqiy tuzilishini izlaydilarki, bunda o‘quvchilar, eng avvalo, ana shunday tushunchalar butun majmuining yaxlit strukturasini aniqlovchi genetik o‘xshashlikdagi umumiy aloqani aniqlaydilar” [5, 13]. T.V.Gabay bilimlar subyektning o‘zida bo‘lishi yoki u axborotning tashqi tashuvchilariga saqlanishi mumkinligiga e’tiborni qaratadi. Uning xulosalariga ko‘ra, subyekt faoliyatni bajarishning turli usullarni va u yoki bu usul oriyentirlarning qaysi aniq bir to‘plamiga kirishini ham bilishi kerak. Modomiki, biror axborot subyekt tomonidan qo‘llanar ekan, bunday axborot faoliyatning mo‘ljal olish asosini tashkil etadi. Basharti, faoliyat subyekt tomonidan mustaqil bajarilsa, faoliyatning mo‘ljal olish asosi bo‘lmish axborot, avvalo, subyektning uzoq muddatli xotirasida o‘z moddiy tashuvchisiga ega bo‘ladiki, bunday axborot shu yerdan tegishli timsollarni dolzarblashtirish va faoliyatni qurush uchun operativ xotiraga kelib tushadi. Agar faoliyat uning algoritmiga mos tashqi tashuvchilarga tayanib bajarilsa, u holda faoliyatning mo‘ljal olish asosi bo‘lmish axborot subyektning operativ xotirasida mavjud bo‘ladi: u bevosita tashqi moddiy tashuvchilardan o‘qish yo‘li bilan olinadi.

Darslarda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o‘z oldiga qo‘yilgan muammoli topshiriqlarni shuncha qiynalmay bajara oladilar. O‘quvchi topshiriqlarni ishlash sir-asrorlarini o‘rgana borgan sari unda ijodiy fikr yuritish faoliyati shakllana boradi. Ijodiy fikr yuritish o‘quvchilarda evristik layoqatni o‘stiradi. Darslarni ijodiy tashkil etish, yangi axborot texnologiyalaridan, multimedialardan unumli foydalanish, mavzuni izchil o‘rganish uchun yangi tushuncha va bilimlarni xotirada uzoq saqlovchi mashg‘ulotlarni tayyorlash o‘quvchilardan zo‘r mahorat talab etadi [5, 12].

Yangi mavzuni o‘zlashtirishda o‘quvchi yangi fikrni signallar orqali qabul qiladi. Signallar uch turkumga ajratiladi:

1) signal-indekslar — tabiat hodisalaridan olingan signallar;

2) signal-timsollar — fototasvirni ko‘rib, tanish kishini esga tushirish;

3) aloqa signallari yoki shartli belgilar — harflar, raqamlar, formula, terminlar.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda biz ta’lim jarayonini optimallashtirishning quyidagi yo‘llarini taklif etamiz:

– ta’lim jarayonini maqbul rejalashtirish hamda undagi tizimning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim mazmunining optimal versiyasini tanlash;

– ijodiy ishlash uchun mo‘ljallangan vazifalarga ajratilgan vaqt ichida eng muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beruvchi usullar va o‘qitish vositalarini tanlash;

– belgilangan vaqt ichida vazifalarni muvaffaqiyatli

hal etish uchun maqbul sharoit yaratish;

– ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish va o‘zini-o‘zi boshqarishning oqilona uyg‘unligi (o‘qitishni optimallashtirish);

– o‘quv-bilish natijalari va sarflangan vaqtni optimallik mezonlari asosida tahlil qilish [4, 20].

Ta’limni modernizatsiyalash strategiyasi ta’limning quyidagi muhim maqsadlarini ko‘rib chiqadi: talabalarga ko‘proq mustaqillik berish va o‘z ustilarida ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o‘zgalarning fikrlarini to‘g‘ri qabul qilish kabilar [3, 36].

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish — zamonaviy dunyoda ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyot uchun kompetent kadrlar tayyorlash uchun pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalaydigan axborotlashtirish sanaladi. Ochiq ta’lim resurslari va ommaviy ochiq onlayn kurslarning qulayligi axborot texnologiyalarining ta’limiy salohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish sharoitida bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda, o‘z navbatida, pedagogik tashxisni takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beradigan metodikalarni tatbiq qilish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Shu maqsadda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoniga “Moodle elektron ta’lim tizimi”ni joriy etilishi, “HEMIS” axborot tizimi, t-kontrakt.edu.uz tizimi, stipendiya.edu.uz tizimi, prof-talim.edu.uz tizimi, onlayn kurslarni tashkillashtirilishi, aralash (blended) kurslarni tatbiq etilishi, ochiq resursli (MOOC — Massive Open Online Course) kurslarni faoliyat olib borishi mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni ta’lim sohasini rivojlantirayotganligiga yaqqol misoldir [2, 201]. Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv varaqasi, guruh jurnali, reyting daftarchasi, akademik ma’lumotnoma, dars jadvali, davomat va o‘zlashtirishga oid ma’lumotlar raqamlashtirildi [6, 89]. Shuningdek, QR-kodli to‘lovshartnomalar va diplomlarni elektron ko‘rinishda taqdim etish yo‘lga qo‘yildi. Biz tadqiqot ishimizning predmetini belgilab olishda — amaliy-ijodiy ta’limni faollashtirish asosida shu kungacha pedagoglar tomonidan to‘plangan barcha qimmatli ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish, bu tajribadan amaliy-ijodiy ta’limni faollashtirishda foydalanish zarurligini belgilab oldik.

Talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishni murakkablashtiradigan tashqi omillar orasida turli o‘qituvchilarning nomuvofiqligi, muvofiqlashtirilmagan harakatlari va talablari, nomukammal tuzilgan jadvallari, masalan, bir butun kun uchun seminar rejalashtirilgan va hokazo. Yaxshi o‘qiganlar va mustaqil ta’lim olishni yaxshi tashkil etganlar o‘quv jarayonini tashkil etishning tashqi shart-sharoitlariga kamroq sezgirdir [7, 21]. Yuqoridagi fikrlardan hamda ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, kelajakda ta’lim oluvchilarning ta’lim tizimining asosi bo‘lgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o‘rganish jarayonida talabalarning amaliy-ijodiy ta’limini faollashtirish muammosi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas deb hisoblaymiz. Amaliy-ijodiy ta’limni faollashtirish mohiyati to‘liq yoritilmagan, bu muammoni o‘rganishda nazariy yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Asosan ta’limning an’anaviy usullari (referat, kurs ishi, kurs loyihasini tayyorlash, bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va boshqalar) dan foydalanishgan. Ushbu muammoni hal etishga metodologik yondashuvlarni ko‘rib chiqish zarur, bu keyingi bo‘limda bugungi kunning talabidan kelib chiqqan holda mobil texnologiyalar, Android, IOS dasturi va Windows mobile dasturidan foydalangan holda ta’limni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari shular jumlasidandir. Bugungi kunda esa ta’lim muhiti innovatsion xarakter kasb etmoqda. Ta’lim muhitining innovatsion xarakterga ega bo‘lishi tabiiy ravishda uni mazmunan yangilanishiga olib keldi. Shu sababli zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslanishi ta’lim muhitini mazmunan yangilanishini ta’minladi. Bizning fikrimizcha, raqamli ta’lim muhitida ham S.V.Tarasov aytib o‘tganidek, mavjud komponentlarga ega va ular bir qadar to‘ldiriladi. Xususan, raqamli ta’lim muhiti mazmunli, metodik va kommunikativ komponentlar bilan birgalikda texnologik komponent bilan ham to‘ldiriladi. Binobarin, raqamli texnologiyalar, xususan, ta’limda qo‘llanilayotgan texnologiyalar barchasi kompyuter qurilmasi, multimediya vositalaridan tarkib topgan [8, 152].

Zamonaviy va milliylik ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zamonaviy texnik qurilmalar, vositalar, o‘quv adabiyotlaridan o‘rinli mahsulli foydalanish taqdirdagina yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat va yuqori malakali insonlar bo‘lishini anglatadi. O‘qitish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan individual xususiyatlarga o‘quvchilarning qiziqishlari, rivojlanish darajasi, his tuyg‘ulari, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qobiliyati kiradi. O‘quvchi har bir dars jarayonida ijodiy bilimga ega bo‘lar ekan, avvalo, shu tushunchaning muhim belgisini ajratib olishi va uni anglashi, berilgan topshiriqlar asosida mustahkamlab borishi hamda uning tahlilini o‘rganib borishi zarur. Shundagina ijodiy bilimga ega bo‘lib borishda bo‘shliqlar yuzaga kelmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Текучёв А.В. Грамматический разбо в школе. – М.: Изд-во АПН, 1963. – 390 с.

2. Педагогика: Учеб. пособий для студентов пед.ин-тов / под ред. Ю.К.Бабанского. – М.: Просвещение, 1983. – 360 с.

3. Богоявленский Д. Н., Особенности анализа и синтеза при усвоении знаний / журн. “Вопросы психологии”, 1956. – №2. – С. 34-46.

4. Жуйков С.Ф. Психологические основы повышения эффективности обучения младших школьников родному языку. – М.Педогогика. 1979. – С. 184.

5. Umirov I.I. Elektron ta’lim vositalari yordamida talabalarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi p.f.f.d. (PhD) dis.avtoref. – Jizzax, 2022. – 82 b.

6. Носирова Д.С. Рақамли технологиялар воситасида ўқув жараёнини ташкил этишнинг муаммолари ва истиқболлари // Models and methods in modern science: International scientific-online conference. – p. 87-92.

7. Алюнова Т.И. Проблемы цифровизации в современном вузе. Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации : сб. ст. VIII Междунар. науч.-практ. Конф. – Пенза: МЦНС “Наука и Просвещение”, 2019. – С. 45-50.

8. Хашимова Д.П., Парпиева Р.А. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – T., 2020. – № 3, may-iyun. – 151-154-б.

BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI INNOVATSION KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Madinaxon Arslanova,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
instituti o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya

Maxsus ta’lim sohasi, xususan, aqliy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil kompetensiyalar bilan jihozlangan o‘qituvchilarni talab qiladi. Oligofrenopedagogika, aqliy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish va ularga g‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning noyob ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion va moslashuvchan ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni talab qiladi. Ushbu maqola kelajakdagi oligofrenopedagoglar orasida innovatsion kasbiy va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishni o‘rganadi. Zamonaviy ta’lim nazariyalari, texnologik yutuqlar va amaliy strategiyalarga tayangan holda, ushbu tadqiqot oligofrenopedagogika sohasida o‘qituvchilarni tayyorlashning samarali usullari haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *oligofrenopedagogika, aqliy nuqsonlar, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik kompetensiyalar, maxsus ta’lim.*

Аннотация

Область специального образования, особенно в сфере удовлетворения потребностей людей с ограниченными интеллектуальными возможностями, требует от преподавателей, обладающих разнообразным набором компетенций. Олигофренопедагогика, ориентированная на образование и уход за людьми с ограниченными интеллектуальными возможностями, требует профессионалов с инновационными и адаптируемыми навыками для удовлетворения уникальных потребностей своих учеников. В данной статье исследуется развитие инновационных профессионально-педагогических компетенций у будущих олигофренопедагогов. Опираясь на современные образовательные теории, технологические достижения и практические стратегии, это исследование направлено на то, чтобы дать представление об эффективных методах подготовки преподавателей в области олигофренопедагогики.

Ключевые слова: *олигофренопедагогика, интеллектуальная недостаточность, профессиональные компетенции, педагогические компетенции, специальное образование.*

Annotation

The field of special education, particularly in addressing the needs of individuals with intellectual disabilities, demands educators equipped with a diverse set of competences. Oligophrenopedagogy, focusing on the education and care of individuals with intellectual disabilities, requires professionals with innovative and adaptable skills to cater to the unique needs of their students. This article explores the development of innovative professional and pedagogical competences among future oligophrenopedagogs. Drawing upon contemporary educational theories, technological advancements, and practical strategies, this research aims to provide insights into effective methods for preparing educators in the field of oligophrenopedagogy.

Keywords: *oligophrenopedagogy, intellectual disabilities, professional competences, pedagogical competences, special education.*

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim berish dasturlarini mazmunan yangilash, ixtisoslik fanlar mazmunini amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirish, mutaxassislarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sharoitlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.Innovatsiya iborasiga bir qancha pedagog olimlar o‘zlarining turli xil fikrlarini aytib o‘tishgan.

Jumladan, pedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka — tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi [4, 90]. Demak, innovatsion pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bu shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri esa ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Akmeologik yondashuv — akmelogiya (acme) yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yangi davr degan ma’nolarni bildiradi. Kreativ yondashuv — termini AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Refleksiv yondashuv — (lotiincha reflixio — ortga qaytish) subyektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi [1, 45].

V.A.Slastenin o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko‘rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini asoslab berdi. Obyektiv omillarga olingan ta’limning sifatini, subyektiv omillari esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas’uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi [2, 67].

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta’limga bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o‘lchanadi:

– fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

– bo‘lajak oligofrenopedagoglardagi ma’lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

– pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati [1, 56].

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish bu — mutaxassisining o‘zlashtirilgan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayangan xolda pedagogik jarayonni loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natijaga erishish jarayonidagi nostandart tafakkur tarzi va ish tartibiga asoslangan holda yangi yo‘nalishdagi o‘qitishning shakl, metod va vositalarini izlab topishi va amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari yig‘indisidir.Gumanistik aksiologiya — aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish o‘zini boshqalarga qiyos qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xosliklarning bir butunligi va uyg‘unligi, ichki birligi; shaxsning o‘z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o‘zini namoyon qila olishi va o‘zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o‘zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining o‘rnini anglay olishini qamrab oladi. Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni tahlilida akmeologik yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.Ta’lim muassasasida bo‘lajak oligofrenopedagoglarni inklyuziv innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun “Inklyuziv innovatsion muhit” shakllangan bo‘lishi kerak, ya’ni pedagogik jamoada umuman ta’lim muassasasida ijodiy, samimiy do‘stona sharoit, unda pedagog-o‘qituvchi o‘zini erkin his qila olishi va jamoada ichki intilish moddiy-ma’naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda bo‘lajak oligofrenopedagoglarni ijodiy fikr yuritishga, intilishga yo‘naltiriladi. Natijada innovatsion jarayon-yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi [6, 14].

Inklyuziv innovatsion jarayoni ishlab chiqarish va oliy ta’lim muassasasi raqobatbardoshligini ta’minlash, jahonda o‘z mavqeiga ega bo‘lish va uni ushlab qolish, unumdorlikni, pirovardida ham oliygoh, ham soha, ham yaxlit iqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy va majburiy shartidir. Innovatsiyalarni boshqarish esa, innovatsion jarayon yoki faoliyatga nisbatan boshqaruvning asosiy funksiyalari — tashkil etish, me’yorlashtirish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tartibga solishni tatbiq etish hisoblanadi. Innovatsiyalarni jadal tatbiq etish, eng avvalo, mavjud oliy ta’lim muassasalari faoliyatini har tomonlama modernizatsiyalashtirishni zarur qilib qo‘yadi. Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy- pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘nalishlarini topish va resurslarni foydali tomonga yo‘naltirish, ishlab chiqarishning yangi kombinatsiyalari-

ni o‘zlashtirish, yangi bozorlarni egallash, yangi mahsulotlarni yaratishdan iborat.

Har qanday zamonaviy oliy o‘quv yurti muayyan uch komponent — omillar, vositalar va texnologiyalar bo‘lishini talab qiladi. Faqat shu uch komponent bo‘lgandagina o‘quv jarayonini boshlash hamda bozorda aniq talab bo‘lgan mutaxassislarni va ta’lim xizmatlarini tashkil qilish mumkin.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quv jarayoni ta’minoti uchun uch komponent bir qator talablarga javob berishi kerak:

– o‘quv soatlarining kerakli hajmi, ya’ni nafaqat o‘quv jarayonini tashkil qilish, balki kelgusida o‘quv hajmini oshirish imkonini beruvchi uning miqdoriy ifodasi;

– xizmat ko‘rsatish omillari, vositalari va texnologiyalariningtegishli sifati, ya’ni o‘quv jarayonida foydalanish uchun optimal holati;

– vaqt va joy birligi — o‘quv jarayonida foydalanish imkonini beruvchi barcha komponentlarning bir vaqtning o‘zida chegaralangan joyda bo‘lishi.

Ta’lim xizmati omillari, vositalari va texnologiyalaridan foydalanish uchun mas’ul va ulardan foydalanish huquqiga ega shaxs yoki shaxslar guruhining (vakolatli shaxslar) bo‘lishi.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quv jarayonida komponentlarning qatnashish darajasiga nisbatan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerakli to‘liq vakolatga ega muvofiqlashtiruvchi markaz bo‘lishi kerak. Muvofiqlashtiruvchi markaz oliy o‘quv yurtining innovatsion salohiyatiga tayangan, oliy o‘quv yurtining innovatsion salohiyati esa shu tashkilotning yangilikni qabul qilishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida, bu quyidagi omillarga bog‘liq bo‘lgan kompleks ko‘rsatkichdir: shaxsiy-psixologik, ichki yoki tuzilmali va tashqi. Bundan tashqari, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik sohalarda inklyuziv innovatsion faoliyatni amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi hamda ko‘maklashuvchi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin[7, 45].

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish muammosini tahlil qilishda quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich — oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak oligofrenopedagoglarida inklyuziv ta’lim sohalariga boshlang‘ich yo‘naltirish va umumlashtirish, umumiy rivojlanish ta’sirida inklyuziv innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish istagini paydo bo‘lishi va shakllanishi.

Ikkinchi bosqich — bo‘lajak oligofrenopedagoglarni tanlangan mutaxassisliklari bo‘yicha inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorlashning maqsadli tayyorgarlik bosqichi.

Uchinchi bosqich — inklyuziv innovatsion faoliyatga kirishish jarayoni, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha kasbni faol egallash bilan tavsiflanadi.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdan asosiy maqsad — tanlagan sohasiga oid bo‘lgan bilimlarni shakllantirish, kasbining mazmun va mohiyatini tushunib yetishlari uchun shart-sharoitlar va barcha imkoniyatlar yaratish, tanlashga yo‘naltirish, talabalarda innovatsion faoliyatga yo‘naltirish borasida ko‘nikmalarini shakllantirish — ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, predmetni o‘qitish, talabalarni tarbiyalash, malaka oshirish, mehnat natijalari va jarayonlarini hujjatlarda qayd qilish, optimal ish rejimini ta’minlash, pedagogik hamda ishlab chiqarish jamoalarida shaxslararo munosabatlar tizimiga faol kirishishni o‘z ichiga oladigan qator xususiy maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish orqali amalga oshiriladi [4, 78].

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni innovatsion kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari orasida asosiy muammolardan biri bu — ularning darajasi kasbiy innovatsion faoliyat talablariga muvofiq oliy ta’lim bitiruvchilarining yanada rivojlanishi hamda kasbiy moslashuv muddatini qisqartirish uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladigan maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdir .

Bugungi kunda kadrlar iste’molchilari tomonidan oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak oligofrenopedagoglarni kelajakda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini tashkil etish, ularni mutaxassislikka oid bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, yangiliklarni tushunishi, qabul qilishi va o‘zlashtira olish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, innovatsion faoliyatda mutaxassislikka oid kasbiy innovatsion sifatlarga ega bo‘lishlariga qo‘yilayotgan talablar tobora ortmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арнаутов А.В. Формирование профессиональной компетентности социального педагога в условиях учебно-научно-педагогического комплекса: Дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2014. – 187 с.

2. Артюшенко Н.П. Организационно-педагогические условия обучения детей с ограниченными возможностями здоровья средствами инклюзивного образования авторф. дисс. канд. пед. наук. – Томск, 2010. – 48 с.

3. Subanova B.Q. Bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2023. – 54 b.

4. Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. – Санкт-Петербург, 2016. – 180.с.

5. Малофеев, Н.Н.Специальное образование в России и за рубежом В 2 ч. / Н;Н. Малофеев. – М., 2006. – 182 с.

6. Xayitov L.R. Bo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2021. – 51 b.

JAMOAT XAVFSIZLIGI VA DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Fozilbek Jo‘rayev,
Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

В данной статье представлена информация о научно-теоретических педагогических основах совершенствования эстетического воспитания через развитие творческой компетентности воспитателей дошкольных образовательных организаций, а также рассказывается о существующей проблеме освоения эстетического воспитания и ее решениях. Согласно требованиям современности, творчество педагога требует совершенствования механизмов эстетического воспитания наряду с профессиональной компетентностью и умением, интеллектом, знаниями и способностями.

Ключевые слова: *педагог, эстетика педагога, творчество, компетентность, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность, функциональные обязанности педагога, педагогическое способности, педагогическая техника, педагогическая квалиметрия, педагогическое отношение.*

Annotation

This article provides information on the scientific and theoretical pedagogical foundations for improving aesthetic education through the development of creative competence of teachers of preschool educational organizations, and also talks about the existing problem of mastering aesthetic education and its solutions.According to the requirements of our time, the creativity of a teacher requires the improvement of the mechanisms of aesthetic education along with professional competence and skill, intelligence, knowledge and abilities.

Keywords: *pedagogue, educator, aesthetics, creativity, competence, pedagogical skills, professional competence, functional tasks of the pedagogue, pedagogical ability, pedagogical technique, pedagogical qualimetry, pedagogical attitude.*

Maktabgacha talim tarbiyachilarida kreativlik kompetentligini rivojlantirish orqali estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo‘lgan go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go‘zallik uchun kurashga o‘rgatishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

Birinchidan, inson o‘zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o‘zlashtiradi. Undagi go‘zalliklarni va nafosatni kashf etadi va idrok qilib anglaydi. Ikkinchidan, estetik tarbiya ishining barcha usul va vositalari kishida to‘g‘ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Ya’ni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni

yoki beo‘xshovlikni to‘g‘ri aks ettirishi kerak.

Uchinchidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlantirishni, kishilarni har qanday beo‘xshov, ko‘rimsizlik, yaramaslikka nafrat ko‘zi bilan qarash, go‘zallikni ijod qilish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Estetikaning maqsadi — insonda hayotdagi, san’atdagi go‘zalliklarni umumjahon qadriyatlari nuqtayi nazaridan idrok eta bilish va baho bera olish qobiliyatini tarbiyalash va o‘stirishdan iboratdir.

Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan odam deb, o‘z mehnati bilan hayot go‘zalligiga go‘zallik qo‘shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko‘taruvchi komil insonni tushunamiz.

Estetika-estetika haqidagi qarashlar, nazariya va tushunchalar ma’lum tizim sifatida qadimgi Misr, Bobil (Vavilon), Hindiston, Yunonistonda, Sharq va Osiyo mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Juda qadim zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, rassom va faylasuflar badiiy faoliyatning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san’atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin tushunganlar.

Estetika kategoriyalari — Estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko‘p yillardan buyon olimlar e’tiborini jalb etib kelmoqda. Bu borada go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgililik, xunuklik kabi an’anaviy ko‘rinish, ko‘pgina adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Biroq, bizningcha, mazkur kategorial tasnifdagi ketma-ketlik va ular orasidagi bog‘liqlik o‘zini to‘laqonli ko‘rsatib bera olmaydi. Bugungi kunda go‘zallik — ulug‘vorlik — fojiaviylik — kulgililik; estetik ideal — estetik did — estetik tuyg‘u; san’at — badiiy obraz — ijodkorlik ko‘rinishdagi tizim estetika fanining kategoriyalar tasnifida kengroq qo‘llanilmoqda [2, 101].

Estetik kategoriyalarning tasnifi, tizimlari, turlari va xususiyatlari rus nafosatshunos olimlarining qator tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ayniqsa, E.G.Yakovlev tomonidan estetika kategoriyalarining tizimlashtirilishi bir qadar qiziqarli va keng qamrovliligi bilan muhim ahamiyatga ega. U o‘zi ishlab chiqqan tizimda kategoriyalarni uchta guruhga ajratadi.

Bular: 1) obyektiv, 2) obyektiv-subyektiv, 3) subyektiv.

Bu tizim ushbu jadvalda quyidagicha aks etgan:

Nafosat. Universal kategoriyalar
Go‘zallik Estetik ideal San’at
Ulug‘vorlik Estetik did Badiiy obraz
Fojiaviylik Estetik tuyg‘u Ijod

Obyektiv Obyektiv-subyektiv Subyektiv kategoriyalar kategoriyalar kategoriyalar

XVIII asr nemis ma’rifatchiligining eng katta vakillaridan biri bo‘lgan Shiller Fridrix (1759-1805) estetik tarbiya masalasiga to‘xtalib, shunday fikrlarni bildirgan edi. “Insonga xos ikki qarama-qarshi intilish bo‘lib, birinchisi, fizik tabiatga xos bo‘lgan intilish, ikkinchisi ruhiyat, ya’ni axloqiy va aqliy xatti-harakat. Lekin shu bilan birga alohida o‘rta kayfiyat ham mavjudki, unda rux jismoniy holatni ham, axloqiy holatni ham his qilmaydi. Lekin har ikki sohada ham faoliyat ko‘rsatadi. Bu holatni Shiller estetik holat deb ataydi. Bundan go‘zallikning ikki tomonlama xarakteri kelib chiqadi. U ham moddiy, ham ruxiy, ham obyektiv, ham subyektivdir. Shillerning fikricha, yaxshi did shaxs fazilatining bir tomoni go‘zallik faoliyati uchun sharoit yaratadi. Go‘zallik bizning ikkinchi ijodkorimiz” deb ataydi.

XVII asr ingliz olimi E.Berk estetik qarashlarida ulug‘vorlikning go‘zallik singari obyektga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Uning fikricha, ulug‘vorlik tuyg‘usining manbai — dahshat yoki hayratomuz tuyg‘ular qo‘zg‘atadigan barcha narsalar, voqea-hodisalardir [3, 53].

Insoniyat go‘zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go‘zallik esa madaniy-tarixiy tajribaning bir qismi bo‘lib hisoblanadi.

Uning obyektiv mavjudligi esa estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va doimiy ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta’minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Bunda estetik tarbiya, madaniyatni egallashning asosiy vositasi hisoblanib, avvalo tarbiyachining o‘zi egallashi muhim bo‘lgan va uni bolaga yo‘naltirishi majburiy bo‘lgan ta’lim-tarbiya hisoblanadi.

Bugungi kunda estetik tarbiya shunisi bilan juda muhim hisoblanadiki, mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda hattoki ta’lim-tarbiyada xam did farosatlilik har bir inson uchun ayniqsa tarbiyachi uchun, hayotiy muhim ehtiyoj tarbiya turini egallab olgan bo‘lishlari shart.

Donolardan biri go‘zallik, axloq-odobning tug‘ishgan singlisidir, degan edilar. Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq holda amalga oshirilib boriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi odob-odobda, tartibli xatti-harakatda, go‘zal munosabatda va kelajakka, hayotga, insonlarga hamda tabiatga bo‘lgan muhabbatda ko‘rinadi. Estetik tarbiya orqali bolalarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go‘zal belgisidir. Bu tarbiyani berishda tarbiyachining o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg‘usi ham estetik tarbiyani paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: “Zumrad va Qimmat” ertagida Qimmatning xulq-atvori bolalar qalbida nafratni uyg‘otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi qalblarda quvonch va zavqni paydo qiladi.

Shuni aytish kerakki, ayrim insonlar go‘zallikni tor ma’noda tushunadilar. Ya’ni chiroyni ko‘pincha husn jamolli bo‘lishida deb biladilar. Bu bir tomonlama o‘ylanadigan tushunchadir. Buni har tomonlama kengroq o‘ylansa, chiroy, husn-jamol, qalb go‘zalligi, chiroyli va toza liboslanish va pokiza taomlanish hamda ma’noli

so‘zlashishda ko‘rinadi. Xalqimiz bejizga “Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda” deb aytmaganlar!

San’at va hayot go‘zalligi bilan tanishtirib borish bolaning hissiyotlarini, aqlini tarbiyalabgina qolmay, uning tasavvur va xayollarini ham rivojlantirib boradi.

Estetik tarbiya bo‘yicha aynan tarbiyachilarni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tushunish, bolalarga nisbatan oliyjanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Go‘zallikni idrok qilish orqali, ularda boshqa insonlarning kechinmalarini his eta bilish, jumladan oiladagilar, jamoadagilar, ota-onalar hamda bolajonlarning ichki kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o‘zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa har-xil yo‘llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida, ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya juda katta hal etuvchi rolni o‘ynaydi.

Estetik ehtiyoj — kishi borliqni badiiy faoliyatni, uning har xil ko‘rinishlarida estetik idrok etishga undovchi subyektiv omil hisoblanadi. Estetik ehtiyoj go‘zallik to‘g‘risidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga undaydi. Estetik qiziqish shaxsning ehtiyojini yuzaga keltiradi. “Estetik tarbiya” tushunchasi bilan bir qatorda “badiiy tarbiya” tushunchasi ham mavjuddir va katta ahamiyatga egadir.

Badiiy tarbiya, san’at asarlari orqali tarbiyalashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Badiiy tarbiya asosida tarbiyachining kreativlik kompetentligini rivojlantirish orqali estetik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanib, bunda tarbiyachi o‘zining mahorati ila bolalarda san’at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirishga, badiiy didni shakllantirish va san’atning ma’lum turlari bo‘yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlanishga qaratadi. Uning natijasi fikrning paydo bo‘lishida, uni amaliy faoliyatda qo‘llashda kerakli tajribalar va ko‘nikmalar shakllana boradi.

Estetik madaniyatni shakllantirish — bu shaxsning san’at va voqelikdagi go‘zallikni to‘liq idrok etish va to‘g‘ri tushunish qobiliyatini maqsadli rivojlantirish jarayonidir. U badiiy g‘oyalar, qarashlar va e’tiqodlar tizimini rivojlantirish, estetik sezgirlik va didni tarbiyalashni ta’minlaydi. Shu bilan birga, tarbiyachilarda hayotning barcha jabhalariga go‘zallik elementlarini kiritish istagi va qobiliyati, har qanday xunuk, qabih narsalarga qarshi kurashish, muomala madaniyatini to‘g‘ri shakllanganligi, shuningdek, san’atda o‘zini namoyon qilishga tayyorlik tarbiyalanadi.

B.T.Lixachev tomonidan asoslab berilgan bolalar hayotini estetiklashtirish tamoyili ta’lim jarayonida alohida o‘rin tutadi. D.S.Lixachevning ma’naviy-estetik bahra olish, shaxsning o‘z-o‘zini “tozalashi” tarixni, xalqni va millatning an’analarini bilish orqali amalga oshishi haqidagi konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, D.S.Lixachev ta’biri bilan aytganda, dunyoda badiiy qadriyatlar shu darajada ko‘p to‘planganki, ular orasidagi madaniyati pastlarini o‘rganishga vaqt sarflash — bu oddiy axloqsizlikdan boshqa narsa emas deyilgan.

Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan odam deb, o‘z mehnati bilan hayot go‘zalligiga go‘zallik qo‘shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko‘taruvchi komil insonni tushunamiz. “Agar kishini turmush ustozi dono qilmasa, hech dono unga so‘z o‘rgatmoq uchun ovora bo‘lmasinki, mehnati zoye ketadi”, deydi Kaykovus. Demak, kishini tarbiyalashda hayotiy ta’sirning roli Kaykovusning diqqatidan chetda qolmagan. Yana u tarbiyani inson aqlini, shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Uning fikricha, dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir. Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmani keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning “Ko‘rish”, “eshitish”, tabiat ko‘rinishlari, atrof-muhitdagi go‘zallikni ajrata bilish va baholash ko‘nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o‘yin, rasm solish, haykalchalar yasash mashg‘ulotlari keng qo‘llaniladi.

Estetik tarbiya aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq. Estetik tarbiya yosh avlodning axloq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. San’atga ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O‘z navbatida san’at ham biror maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Estetik hissiyot hayot hodisalarini yoki san’at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo‘ladi. Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o‘ziga xos kechinmadan iborat bo‘lib, go‘zallikni va yuksaklikni, fojiaviylik yoki kulgililikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning hayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot mahsulidir. U jamiyat estetik ongining darajasini aks ettiradi.

Ezgulikka, go‘zallikka intilish — estetik ehtiyojdir. Bu ehtiyoj mehnatda ham, san’atda ham, kishilararo axloqiy munosabatlarda ham go‘zallik bo‘lishini taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyati uning borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Voqelikka estetik munosabatda bo‘lishda san’at muhim o‘rin tutadi. Zero, san’at — hayotni go‘zallik qonunlari asosida idrok qilishdir. San’at asarlari ta’sirida shodlik va qayg‘u kabi kechinmalar paydo bo‘ladi. Go‘zal obrazlar kishilarga hayot ma’nosini anglash-ga, hayotda o‘z o‘rnini topishga, qadr-qimmatini tanishga ko‘maklashadi. San’at o‘zining tarixiy taraqqiyotida kishilarning orzu-umidlarini namoyon etuvchi, uning sezgilarini, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi vosita sifatida katta ahamiyat kasb etib keladi. San’at turlaridagi timsollar ham o‘z tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr, badiiy ada-

biyot, kino san’atida voqea-hodisalar bevosita tasvirlansa; musiqa, raqs, amaliy san’at, me’morchilikda ijodkorning voqea-hodisalar to‘g‘risidagi g‘oyaviy-hissiy holati bilvosita ifodalanadi.

Hissiyotlarni o‘rganish borasida Sharqning buyuk mutafakkirlari asarlari muhim ahamiyatga ega. Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Hofiz, Umar Xayyom kabi Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari dostonlarida ham, Xorazmiy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd kabi allomalarning ilmiy asarlarida ham, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Bobur kabi ulug‘ shoirlar ijodida ham, Zayniddin Vosifiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy kabi tarixchilarimizning tazkiralarida ham insonlarning go‘zal his-tuyg‘ulariga doir ko‘pgina qimmatli fikrlar mavjud.

Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida hayotning go‘zalligidan zavqlanish, odamlar baxt-saodati yo‘lida mehnat qilish fazilatlari ulug‘lanadi.

Aristoteldan keyin mag‘ribdan-mashriqqacha “ustodi soniy” (“ikkinchi ustod”) nomi bilan mashhur buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning estetik qarashlari inson his-tuyg‘ularini o‘rganish borasida alohida ahamiyatga egadir. U o‘zining “Fozil odamlar shahri fuqarolarining qarashlari haqida kitob”, “Shaharni boshqarish”, “Yaxshi xulqlar”, “Baxt-saodatga erishish haqida” kabi asarlarida nafis hissiyotlarning paydo bo‘lishini dunyoviy nuqtayi nazardan turib talqin qilgan edi. San’at asarlarida voqelikka, hodisalarga, odamlarning xatti-harakatlariga, xulq-atvorlariga go‘zallik va xunuklik nuqtayi nazaridan baho beriladi. Voqea-hodisalar yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, do‘stlik va dushmanlik, sadoqat va xiyonat, go‘zallik va xunuklik, rostgo‘ylik va munofiqlik, fojiaviylik va kulgililik tarzida namoyon bo‘ladi.

Go‘zallik inson estetik va badiiy didini o‘stiradi. Estetik did esa go‘zal narsalardan zavq olish qobiliyatidir. Estetik madaniyati yuksak kishi ma’naviy-ruhiy jihatdan barkamol, e’tiqodli, ishonchli va diyonatli bo‘ladi. [3, 6].

Maktabgacha talim tarbiyachilarida kreativlik kompetentligini rivojlantirish orqali estetik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy pedagogik asoslari bo‘yicha estetik madaniyatni shakllantirish ulkan mehnatni talab qiluvchi, botinan — ma’lum darajada qarama-qarshi jarayondir. Inson hamisha ham biror-bir holat ta’siri ostida, ichki olami tadriji, mustaqil o‘rganishi, o‘z bilimini takomillashtirishi natijasida shaxsiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni darhol fahmlashi yoki ifodalashi oson kechmaydi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy tub islohotlar, ma’naviy yangilanishlar shart-sharoitida estetik madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni u har bir shaxsga yo‘naltirilgan hissiyotlar tili vositasida muloqotga chorlaydi, har bir kishini aql-idrokka, fahm-farosatga da’vat etadi, uning qalbiga kirib boradi.

Estetik madaniyat tushunchasi tabiatda estetik munosabatda bo‘lishni ham o‘z ichiga oladi. Estetik madaniyat orqali odamlarning “estetik mas’uliyati”, “estetik xulq-atvori”ni yuksaltirish ancha o‘ng‘ay kechadi. Tabiatni asrab-avaylash tuyg‘usi barcha odamlarning yorqin anglashilgan hissiyoti, odati, qat’iy ifodalangan tamoyiliga aylanishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Sher A., Husanov B. Estetika. Uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T., 2010. – 192 b.

3. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Ayxodjayeva G. Estetika asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., 2004. – 2008 b.

2. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va axborot texnologiyalari, 2017. – 178 b.

3. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

4. Maksudov, U.K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).

5. Urinova, N.M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students,, research competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), – 2344- 2348 p.

6. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, 9.

7. Sayidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: “Fan va texnalogiya”, 2003. – 340 b.

8. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika”. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. – 532 b.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЯ КАК ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПРИЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДИНЫ РУБИНОЙ

Сайфиддин Оканов
Магистрант 2-курса факультета
Русской филологии УзГУМЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль прилагательных цветообозначения (колоративов) в художественных произведениях Дины Рубиной. В фокусе исследования были рассказы и повести, написанные по автобиографическим мотивам. Д.Рубина использует прилагательные цветообозначения в их традиционной функции: описывает внешность героев, окружающее их пространство, природу. Кроме своей основной номинативной функции, цветовые прилагательные несут дополнительную смысловую нагрузку: дают представление о характерах и особенных чертах персонажей, помогают понять их душевный мир, какого-либо ключевого предмета окружающего пространства, состояния природы. Широкое употребление колоративов свидетельствует об особенном изобразительном языке Дины Рубиной.

Ключевые слова: *прилагательные цветообозначения, индивидуально-авторские неологизмы, художественный прием, изобразительные средства, внешность героев, внутренний мир персонажей, описание пространства, роль прилагательных в художественном произведении, авторский стиль.*

Annotatsiya

Dina Rubinaning badiiy asarlarida rang ma’nosidagi sifatlar roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi avtobiografik motivlar asosida yozilgan hikoyalar va hikoyalar edi. D.Rubina an’anaviy funksiyasida rang ma’nolari sifatlaridan foydalanadi: qahramonlarning tashqi ko‘rinishini, ularning makonini, tabiatini tasvirlaydi. Asosiy nominativ funksiyasidan tashqari, rang sifatlari qo‘shimcha semantik yukni o‘z ichiga oladi: ular qahramonlarning xarakterlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beradi, ularning ruhiy dunyosini tushunishga yordam beradi, tashqi ko‘rinishini, atrofdagi makonning ba’zi bir asosiy obyektini, tabiat holatini tavsiflash orqali ularning tajribalari va his-tuyg‘ularini o‘rganishga yordam beradi. Koloratsiyalardan keng foydalanish Dina Rubinaning o‘ziga xos tasviriy tilidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: *rang ma’nolari sifatlari, individual mualliflik neologizmlari, badiiy texnika, tasviriy vositalar, qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, qahramonlarning ichki dunyosi, makon tavsifi, badiiy asarda sifatlarning roli, mualliflik uslubi.*

Annotation

The article focuses on examining the role of color adjectives in the works of Dina Rubina. The focus of the study is short stories and novels which contain an autobiographical element. Author’s color palette is constituted of the adjectives from the second group. Particularly note worthy are individual neologisms of color terms from the fourth group. D.Rubina uses adjectives of color terms in traditional sense: they describe appearance of characters, as well as space and nature which surround them.

Keywords: *Dina Rubina, by D. Rubina, adjectives, color terms, individual-authorial neologisms, appearance of the characters, inner world of characters, description of environment, the role of adjectives in fiction, author’s style.*

Богатая и гибкая система прилагательных создает разносторонние изобразительно-выразительные возможности, которые реализуются эстетической функцией этой части речи. В то же время не менее важное значение имеет информативная функция прилагательных, используемых для сужения объема понятия, выражаемого существительными. Это делает прилагательное незаменимым во всех стилях, когда возникает необходимость в конкретизации значения, выраженного предметным словом.

Стилистическое значение прилагательных как источника речевой экспрессии в художественной речи трудно переоценить. Качественные слова, как иногда называют прилагательные, безусловно, могут считаться самой живописной частью речи.

В художественном тексте цвет воплощается через слово, связь цвета с эмоциональной сферой автора обладает потенциальными возможностями выражения чувств. Семантика цветовых номинаций обусловлена мировосприятием автора и является одной из составляющих его картины мира. Мир цвета в современной литературе — это особое явление, которое связано с окружающими нас реалиями и душевным состоянием героев.

Изучая вербализацию цветового восприятия, лингвисты подразделяют цветообозначения на две группы: основные (абсолютные) и оттеночные. Абсолютные цветонаименования в свою очередь делятся на хроматические, называющие семь цветов радужного спектра, и ахроматические (черный, белый, серый) [1, 84]. Все остальные цветонаименования называются оттеночными. Они различаются по способу пе-

ISSN 2181-8274

редачи оттенков. Выделяют группу цветонаименований, которые передают оттенки цвета аналитически, среди них цветовые прилагательные: а) вторичной номинации (сиреневый, молочный); б) безясно прослеживающейся этимологии (бурый, алый); в) с ограниченной сочетаемостью (белокурый, карий); г) заимствованные (индиго); д) неологизмы и архаизмы (смарагдовый, кубовый); е) терминологические (кобальт, ультрамарин); ж) окказионализмы.

Ядро авторской цветовой палитры составляют колоративы второй группы, чаще всего в текстах встречаются прилагательные жемчужный, алый, лиловый, пунцовый, рыжий. Особого внимания заслуживают индивидуально-авторские неологизмы цветообозначения четвертой группы: золотистый цвет старого янтаря, сумеречный, янтарно-изумрудный, черно-малахитовый, цвет темно-золотистой меди, медно-темный, милосердно-сиреневый, простонародно-вишневый. Широкое употребление колоративов, на наш взгляд, свидетельствует об особенном изобразительном языке, идиостиле Дины Рубиной, а наличие авторских цветообозначений только подтверждает это суждение.

Д. Рубина выхватывает примечательные черты лица и с помощью прилагательных цветообозначения дает краткое, ёмкое описание персонажей. Лакированный желтый лоб дедушки — это описание дополняет образ, о котором мы сказали выше. Тусклое сияние золотых зубов ("Уроки музыки") — с помощью такой описательной конструкции Рубина помогает читателю воссоздать образ героини рассказа-тетки девочек, которая оформила над ними опеку с расчетом на то, что ей достанется квартира, оставшаяся девочкам после того, как умерла мать ,а отца посадили в тюрьму. Тетка Зина думает только о деньгах, во всем хочет иметь выгоду, а "золотые зубы" и их "тусклое сияние" завершают образ.

Образ мужа учительницы музыки в рассказе "Дом за зеленой калиткой" автор рисует в синем цвете, тем самым подчеркивая его обычность, схожесть с сотнями других таких затюканных женой мужчин: "Грузный, плохо выбритый пожилой человек в синих бриджах и голубой майке".Для героини он был загадочным человеком, так как о неё "никогда не замечал, не отвечал на мои неизменно вежливые приветствия". Заставала мужа учительницы героиня всегда за одним занятием: "он все время возился с виноградом – срезал спелые гроздья, подвязывал лозы". Но когда после занятий музыкой она уходила домой, он давал ей кисть винограда: "Муж моей учительницы, почему-то воровато оглянувшись на зарешеченное окно комнаты, молча, хватал меня за руку и совал большую виноградную кисть". Д.Рубина завершает образ мужа-подкаблучника:" И не раз она размышляла о том, какой он человек: добрый или злой, так как этот его поступокона не понимала".

Вторую группу составили колоративы, описывающие окружающий человека мир. Первая категория — цветовая характеристика помещений и предметов обстановки.

В повести "Высокая вода венецианцев" свет в помещениях различен потону, светлоте и насыщенности: желтоватый, платиновый, приглушенный свет гостиничного номера, в котором героиня могла спрятаться и отдохнуть от яркого и шумного города. Для описания помещений в этом произведении чаще используются прилагательные основных цветов (белёные стены, зелёные гардины, зелёный ставень) с целью дать контраст с улицами Венеции.

В рассказе "Уроки музыки" обращает на себя внимание пронзительно-красный цвет (автор указывает — "свет") прихожей: "Вечером я стояла в тесной прихожей, освещенной пронзительно-красным светом"– это сигнал тревоги, беспокойства ,который возникает от того, что героиня рассказа, которую пригласили в качестве учительницы музыки к девочкам ,на самом деле очень не хочет этим заниматься. Эти уроки музыки возвращают ее в годы детства с ненавистными занятиями в музыкальной школе. Желтый цвет паркета в музыкальной школе, на котором акцентируется внимание читателя, также способствует выражению негативных эмоций героини: "Все здесь было особенным — расположение музыкальных классов с двойными дверьми (звукоизоляция!), желтый вощеный паркет, по которому серьезные ученики скользили в тапочках, ин-ди-ви-ду-альные занятия… Дети тоже были особенными, даже фамилии у них были необыкновенными. Вундеркинд Кранджево-Джевский ходил по желтым паркетам, загребая ноги, таская за собой болтающиеся кисти талантливых рук. Школьные годы, музыкальное отрочество – солнечные полосы на желтом паркете, – торжественная, одухотворенная, надраенная до блеска моя детская тоска… Я уплываю все дальше от возвышенного рабства и детских унижений, от желтых паркетов, отражающих черные ножки рояля. От партии левой руки, так и недоученной мною…". Желтый цвет не всегда имеет такую однозначно негативную коннотацию в произведениях Д.Рубиной, в "Уроках музыки" онапродиктована авторским замыслом — через использование данного колоратива показать настроение героини, ее отношение к прошлому, к событиям в детстве.

В рассказе "На исходе августа" помещения, в которых происходит действие, описаны вскользь, автор не уделяет хронотопу рассказа особого внимания. Однако акцентирует внимание читателей на описании подаваемой в кафе еды, которая приобретает цвет янтаря и золота: золотистый цвет старого янтаря, янтарная кромка жира, золотистые кусочки нежной индюшачьей плоти. Здесь эти цвета могут служить знаком материального изобилия.

Д.Рубина особым образом описывает городское пространство–по цветовому признаку. В повести “Высокая вода венецианцев” автор уделяет большое внимание изображению Венеции, в частности, передаче света, бликов города: желтоватый, оранжево-желтый свет, переливы пурпурно-золотого, кипяще-алого, янтарно-изумрудного, фиолетовая тень, лиловый шлейф фонарей. Венецианские здания в основном белого, черного и красного кирпичного цветов: белоснежная громада, краснокирпичный мостик, краснокирпичная кладка, черные провалы окон, темные арки, крапчатая, буро- красно-чёрная короста черепицы. Особенно ярко воспринимается город на контрасте с приглушенными тонами гостиничного номера, в котором поселилась героиня. Венеция — город-праздник, который может дать ей сил, напитать жизненной энергией.

В описании маленького израильского городка в рассказе “На исходе августа” Д.Рубина также использует сочетания контрастных цветов, например, оранжевого и синего (яркий оранжевый свет, рефлексы оранжевого света, рефлексы синего света, голубовато-синие рефлексы). Эти цвета дополняют друг друга, их сочетание выразительно, эмоционально и сбалансированно. С их помощью автор передает гармонию в душевном мире героини.

Небо в языковой картине мира носителей русского языка традиционно голубое, реже синее. В рассматриваемых произведениях эти колоративные прилагательные почти не встречались. Закатное небо приобретает более глубокие синие и фиолетовые тона: (фиолетовые,синие тени,темно-фиолетовая бездна), солнце у Д.Рубиной красно- белое, обжигающее (пунцовый солнечный диск, кипящие алые отсветы, белый диск внутри палящего шара солнца): “Солнечный диск продолжал опускаться, наливаясь пунцовым, море вытягивало из глубин к поверхности синие и фиолетовые тени; откуда-то набежали ребристые длинные облака и, напоровшись на раскаленный шар солнца, вдруг выхлестнули в небо длинный язык огня...”.

В итоге можно сделать следующие выводы:

– прилагательные цветообозначения помогают создать особый авторский стиль Дины Рубиной

– в произведениях Дины Рубиной автобиографического характера цветовые прилагательные, кроме выполнения своей основной номинативной функции, несут дополнительную смысловую нагрузку: дают представление о типичных чертах героев, помогают понять душевное состояние героев, их переживания и надежды через описание внешнего вида, какого-либо ключевого предмета, окружающей среды, пространства, природы, таким образом, использование данных прилагательных является авторским художественным приемом;

– внимание писательницы к описанию внешнего вида своих героев, окружающего их пространства–это одно из воплощений авторского замысла, по словам самой Рубиной, “ … действия, поступки, мысли героя должны точно укладываться во временных, колористических, пейзажных, биографических… и прочих параметрах вещи”;

– в цветовых прилагательных писательницы отразилась авторская языковая картина мира, восприятие реалий окружающей действительности в спектре цвета.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Брагина А.А.“Цветовые” определения и формирование новых значений слов и словосочетаний. – М.: Грамота, 1997. – 73-105 с.

2. Макеенко И.В. Семантика цвета в разноструктурных языках: универсальное и национальное. Дис. … канд. филол. наук. – Саратов, 1999. – 258 с.

3. Вашукова М. Между земель, между времен. Интервью с Диной Рубиной. – URL:http://dinarubina. com/interview/kultura_tv_2010.html (дата обращения: 08.11.2017).

4. Рубина Д. Адам и Мирьям: повести, рассказы. – М.: Эксмо, 2014. – 416 с.

5. Рубина Д. Дом за зеленой калиткой: рассказы. – М.: Эксмо, 2014. – 176 с.

6. Рубина Д. Ральф и Шура: рассказы. – М.: Эксмо, 2014. – 176 с.

7. ТуранинаН. А. Современная женская проза: взгляд лингвиста. – Белгород: ООО “ГНК”, 2009. – 96 с.

TALABALARNING ILMIY YO‘NALGANLIK FAOLIYATIDA KINESTETIK TA’SIR VOSITALARI TRANSFORMATSIYASI

Ra’no Boltayeva,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Mavlon Bekmirzayev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Talabalarning ilmiy faoliyati — obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o‘rganish hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyatida ularning ma’lumotlarni qabul qilish qobiliyatlari va imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ko‘rib eslab qolish, eshitib eslab qolish xususan, kinestetik ta’sir vositalari transformatsiyasi ham muhim hisoblanadi. Maqolada talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyatida kinestetik ta’sir vositalari transformatsiyasi masalalari orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ijod, innovatsiya, kinestetik ta’sir, emotsional soha, his, eshitish, ko‘rish, salomatlik, harakat.*

Аннотация

Научная деятельность студентов — это деятельность, направленная на изучение существования и практическое применение полученных знаний с целью определения свойств, особенностей и закономерностей объектов, явлений (процессов). В их научной деятельности важны способности и возможности студентов получать информацию. Студентам также важно запоминать на вид, запоминать на слух, особенно трансформацию кинестетических эффектов. В статье освещены вопросы трансформации кинестетических средств воздействия в научной деятельности студентов.

Ключевые слова: *Творчество, новаторство, кинестетический эффект, эмоциональная сфера, чувство, слух, зрение, здоровье, движение.*

Annotation

The scientific activity of students is an activity directed to the study of existence and the practical application of acquired knowledge in order to determine the properties, peculiarities and laws of objects, phenomena (processes). Students’ abilities and opportunities to receive information are important in their scientific activities. It is also important for students to remember by sight, remember by hearing, especially the transformation of kinesthetic effects. In the article, the issues of transformation of kinesthetic means of influence in the scientific activities of students are highlighted.

Keywords: *Creativity, innovation, kinesthetic effect, emotional sphere, sense, hearing, vision, health, movement.*

Axborot va ilmiy tahlillar asrida namoyon bo‘layotgan insoniyatning global muammolari orasida ta’lim oluvchilarning ruhiy va jismoniy salomatligi alohida o‘rin tutadi. O‘quvchining psixologik holati va shunga mos ravishda uning sog‘lig‘i, jismoniy rivojlanishini tartibga soluvchi muhim omillardan biri sifatida hissiy sohani o‘quvchining xatti-harakatlarini tartibga solishning murakkab tashkil etilgan tizimi deb hisoblash mumkin. Bu muammo, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining hissiy sohasi voqea-hodisalarga yengil munosabatda bo‘lishi, o‘z tajribalarini ifoda etishda o‘z-o‘zidan va ochiqlik, psixologik beqarorlik, kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi, qisqa muddatli va zo‘ravonlik ta’siriga moyillik bilan tavsiflanadi. Bu esa, talabalarning psixo-emotsional jihatlariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi va ularning ilmiy faoliyatga yo‘naltirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy faoliyat — obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir. Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqida yangi bilimlar olish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, shuningdek muayyan faoliyat natijasida yaratilgan obyektlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan nazariy va (yoki) tajribaga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar esa, aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlar va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo‘llashga yo‘naltirilgan amaliy faoliyat bo‘lib, uning asosini talabalarning ilmiy xabardorligi, jarayonning tahliliy jihatlari tashkil qiladi. Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyati, ularni ilmiy tadqiqot ko‘nikmasini rivojlantirish masalalari o‘zbek olimlaridan N.A.Shermuxamedova [4, 15], Z.Davronov [1, 16], Z.Muxamedova [2, 14], Q.T.Suyarov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularda ilmiy tadqiqot va bilish jarayoni uyg‘unligi, ilmiy ijod, innovatsiya va novatsiyalarning o‘zaro aloqadorligi hamda ijtimoiy mas’uliyat muammolari tadqiq etilgan.

Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyati, tadqiqotchilik hamda voqelikka ilmiy munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda kinestetik ta’sir vositalari ularning psixo-emotsional sohasini kuzatish vositasi sifatida foydalaniladi. Inson atrofdagi voqelikni ma’lum

hislar yordamida turli yo‘llar bilan o‘rganadi. Yangi ma’lumot olishning eng oddiy kanallari eshitish va ko‘rishdir, shu bilan birga qolgan uchta sezgi miyaga juda ko‘p ma’lumotlarni uzatadi. Masalan, teridagi retseptorlar, mushaklarning sezgirligi, idrok psixologiyasidagi muvozanat hissi umumiy “kinestetika” so‘zi bilan birlashadi.

Kineziterapiya psixologiya yo‘nalishi sifatida 1972-yilda ikkita mutaxassis — Gordon Stoks va Daniyel Uaytsayd tomonidan ishlab chiqilgan. Uning mohiyati insonning hissiy va jismoniy salomatligiga yangicha yondashuvdan iborat. Stoks va Uaytsaydning “Uchtasi birda” konsepsiyasi psixika, inson harakatlanuvchi apparati va moddalar almashinuvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni birlashtirdi. U inson salomatligiga yaxlit yondashuvga asoslanadi. Kineziterapiya talabaning oldinga siljishiga nima to‘sqinlik qilayotganini, uning salohiyatini ochib berishini, qanday narsalar va harakatlar uni muvozanatdan chiqarib tashlashini, ya’ni jismoniy va psixologik farovonlikka olib keladigan barcha narsalarni tushunishga yordam beradi [3, 15].

Kineziterapiyaning maqsadi stressning holatini o‘rganish va uchta sohada - jismoniy (jumladan, mushaklar va ichki jarayonlar), hissiy va psixologik muvozanatga erishish orqali salomatlikni barqarorlashtirishdan iborat. Bunga energiya oqimini tiklash va uning harakatini yaxshilash zarur bo‘lgan tananing qismlarida og‘riq bloklarini olib tashlashga qaratilgan maxsus tuzatishlar yordamida erishiladi. Insonning psixologik va fiziologik rivojlanishi esa, ma’lum qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bu albatta, talabalardan har bir hodisa, jarayonning ilmiy asoslaridan, kineziterapiya usullaridan xabardor bo‘lishini taqozo etadi. Pedagogika, psixologiya va fiziologiyada kineziterapiya usuliga oid masalalar K.Koler va K.Shvabe, J.Dalkroz, tana terapiyasi nazariyasi mualliflari S.V.Shushardjan va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [5, 111].

Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyati murakkabligi va noaniqligi bilan ularining psixo-emotsional salomatligini saqlash, himoya qilish va mustahkamlashning samarali shakllari, vositalari, usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi. Amalda kinesiterapiya yordamida talabalarning psixo-emotsional holatini tartibga solishga qaratilgan metodlarni amaliy qo‘llashning yaxlit pedagogik tizimini yaratish zarurati uzoq vaqtdan beri kechiktirib kelingan.

Insonning har qanday namoyon bo‘lishi uning tanasida paydo bo‘lgunga qadar ko‘rinishi mumkin emas. Jismoniy barkamollik insonning muqarrar asosini ifodalaydi, uning yordamida u o‘zini o‘zi ko‘rsatadi va haqiqat bilan aloqada bo‘ladi. Tana konsepsiyasi 20-asrning birinchi yarmida metafizik tafakkurning an’anaviy munosabatlarini yengib o‘tgan. Agar klassik yondashuvga ko‘ra mavzuni ruh va tanani ajratib turadigan transsendental tanadan tashqari hodisa sifatida belgilagan bo‘lsa, yangi fikrlash paradigmasi hissiy va intellektual birlikni o‘rnatdi, tana va ruhni birlashtirdi [6, 232]. Tahlillarga ko‘ra, inson tanasi va uning ongi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlovchi g‘oya 19-20-asrlardagi post-klassik madaniyat doirasida paydo bo‘lgan zamonaviy fanning asosini tashkil qiladi. Bu davrdagi ilmiy tadqiqotlarda kinesteziya tushunchasi — harakat hissini mustahkamladi. Aristotel davridan beri talabalarda beshta sezgi borligi umumiy qabul qilingan: ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m va teginish. 1880 yilda nevrolog Genri Bastian oltinchi mushak hissini belgilash uchun kinesteziya tushunchasini kiritdi. Bu atamaning o‘zi ikki yunoncha so‘zdan kelib chiqqan: kinesis – harakat va aistez – nafaqat hislar, balki intellekt orqali ham sezish yoki idrok etish [6].

“Kinestetika” — yunoncha “harakatlanish tuyg‘usi” degan ma’noni anglatadi. Neyrolingvistik dasturlash paydo bo‘lganidan keyin kinestetik yondashuvlarga munosabat ommalashib ketdi xususan, odamlarni uchta katta guruhga bo‘lish odatga aylandi. “Vizual” — bu ma’lumotlarning aksariyatini ko‘rish orqali, “audials”larda eshitish muhimroq, “kinestetik”larda esa sensorli hislar muhim sanaladi. Ular tashqi ma’lumotlarni idrok etishda asosiy hisoblanadi. Idrok etish psixologiyasida kinestetika nafaqat taktil sezgilar majmuasi, balki “tana xotirasi” deb ataladigan mushak reaksiyalari, shuningdek, odamning yopiq ko‘zlari bilan harakatlanishiga imkon beradigan muvozanat hissi sifatida tushuniladi. Ayni paytda sanoatlashtirishning kuchayishi va ijtimoiy cheklovlarning pasayishi salomatlikka yangi qiziqish uyg‘otmoqda. Sport va sog‘lomlashtirish, piyoda yurishni talabalar orasida targ‘ib qilish ideallashtirilmoqda. Shu ma’noda, aytishimiz mumkinki, kinestetiklar — bu tanaga bog‘liq bo‘lgan barcha hislar: harorat, kosmosdagi holat, mushaklarning charchashi, og‘riq, kuchlanish yoki bo‘shashish holatidir. Shu bilan birga, umumiy nutqda kinestetik mohiyatan tana bilan aloqa qilish sinoni hisoblanadi.

Ilm-fan kinesteziyani proprioretseptorlardan olingan signallar natijasida tananing va uning qismlarining pozitsiyasi va harakati hissi sifatida belgilaydi. Kinetik tuyg‘u bo‘lmasa, insonning harakatini doimiy ravishda tekshirish kerak bo‘lib, tananing kosmosdagi holatini tan olish qobiliyatidan mahrum bo‘ladi. Kinetik tuyg‘u mushaklarning kuchini va kosmosda oriyentatsiyani moslashtirishga yordam beradigan xotiraga ega. 1906-yilda ingliz fiziologi Charlz Skott Sherrington “propriosepsiya” atamasini mushak hissi bir qismi bo‘lgan tana faoliyati natijasida hosil bo‘lgan hissiy idrok sohasi sifatida ishlatadi. “Kinesteziya” va “propriosepsiya” tushunchalari ham umumiy qabul qilinmoqda [6, 189].

Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyatida kinestetik ta’sir vositalaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega, jumladan:

– ma’lumotni samaraliroq eslab qolish. Harakat va o‘zaro jismoniy ta’sir talabalarga ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Kinestetik ta’sir vositalaridan foydalanishda talabalar o‘rganayotgan narsalarining

dalillarini tezda his qilishlari mumkin;

– mushaklar xotirasini yaxshilash. Kinestetik ta’sir vositalaridan foydalanish ko‘pincha vazifalarni jismoniy takrorlashni o‘z ichiga oladi, bu mushaklar xotirasini rivojlantiradi va ma’lumotni saqlashga yordam beradi;

– ko‘proq faol ishtirok etish. Harakat energiyasini oshirishi mumkin, bu esa o‘rganishga yordam beradi. Talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyatida bu ma’lumotni faol tajriba va qo‘llash bilan mustahkamlash, yozma yoki og‘zaki ko‘rsatmalarga yaxshiroq javob berishga olib keladi;

– muammoni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilash. Kinestetik o‘rganish sinash va xatolik tajribalari orqali tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarni yaxshilaydi. Talabalar ma’lumotni o‘zlashtirishi uchun oddiygina taqdim etadigan eshitish va vizual o‘rganish usullaridan farqli o‘laroq, kinestetik o‘rganish usullari ularni ma’lumotni mustaqil ravishda kashf etishga undaydi;

– mavjud xavflarni baholash. Ushbu turdagi trening ko‘pincha mantiqiy xavf-xatarni qabul qilishga yordam beradi, chunki talabalar tushunchalarni o‘rganadi va yangi vositalardan foydalanishni mashq qiladi. Xatarlarni qabul qilish ham shaxslar, ham tashkilotlar uchun innovatsiya va o‘sishni rag‘batlantirishi mumkin.

Shuningdek, mustaqillik va o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishiga talabalarning kinestetik o‘rganish bilan o‘z tezligi ustida ishlash, ularga to‘liq tushunishlari kerak bo‘lgan vaqt davomida yangi jarayonlarni kashf qilish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu jarayon talabalarni vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining yutuqlarini boshqalar bilan solishtirishdan ko‘ra ko‘rib chiqishga undash orqali individual o‘sish va o‘ziga ishonchni oshirishi mumkin.

Xulosa shuki, ishdagi munosabatlarni mustahkamlash orqali esa kinestetik ta’sir vositalaridan foydalanish jamoaviy ishlashga ham yordam beradi. Talabalarni o‘z maqsadlariga erishish uchun birgalikda ishlashga undash, masalan, guruhda rolli o‘yinlar orqali ishonchni mustahkamlash va ish munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi. Demak, talabalarning ilmiy yo‘nalganlik faoliyatida kinestetik ta’sir vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tana harakatlarining xususiyatlarini va ularga ta’sir qiluvchi fizika qonunlarini (tortishish, inersiya, impulslar, vazn taqsimoti) o‘rganish orqali erishiladi. Kinestetik tajriba turli xil motor harakatlarini o‘rganish va ularning sifat dinamikasini o‘rganish imkonini beradi. Ushbu tajriba orqali talabalar tajriba-sinov ishlarini o‘tkazadilar va ongli ravishda ko‘rayotgan vaziyatni bevosita boshdan kechirish orqali harakat qiladilar. Kinestetik ongning shakllanishi, o‘z navbatida, talabada idrok qilish tartibini o‘zgartiradi, jismoniy sheriklik holatini yaratadi. Bunda ijrochining kinestetik tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tana harakatlarining xususiyatlarini va ularga ta’sir qiluvchi fizika qonunlarini (tortishish, inersiya, impulslar, vazn taqsimoti) o‘rganish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 198 b.
2. Muxamedova Z. Ta’lim falsafasi. – T.: ToshMI, 2004. – 135 b.
3. Стокс Г., Уайтсайд Д. Коррекция дислексических нарушений способности к обучению и интеграция головного мозга. – М.: “Three is one need”, 2003. – 218 с.
4. Шермухамедова Н Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: Фан ва технология. 2014. – 512 б.
5. Шушарджан, С.В. Музыкотерапия и резервы человеческого организма [Текст] /С.В. Шушарджан. – М., Творчестьво, 1998. – 364 с.
6. Шторк К. Система Далькроза / Перев. с немецк. Р.Варшавской и Н. Левинской, под ред. и с предисл. П.П.Гайдебурова. – М.: Петроград, 1924. – 134 с.

KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARIDA FUQAROLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA DARSDAN TASHQI ISHLARNING IMKONIYATLARI

Adhamjon Ziyayev,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya
Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fuqarolik tuyg‘usini shakllantirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati yoritilgan. Fuqarolik ta’limi jamiyatning mas’uliyatli, faol va faol a’zolarini tarbiyalashda asosiy hisoblanadi. Turli sinfdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish orqali talabalar samarali fuqarolik uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalar, qadriyatlar va munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ushbu maqola mavjud tadqiqotlarni umumlashtiradi va darsdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi, pirovardida kuchli fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalashi haqida tushuncha beradi.
Kalit so‘zlar: *fuqaro, fuqarolik tuyg‘usi, darsdan tashqi, tarbiya, to‘garak, tadbir, tavsiya, xulosa, xususiyat, faol.*

Аннотация
В данной научной статье подчеркивается значение внеклассной деятельности в формировании гражданственности учащихся начальной школы. Гражданское образование имеет основополагающее значение для воспитания ответственных, вовлеченных и активных членов общества. Благодаря участию в различных внеклассных мероприятиях учащиеся имеют возможность развивать важные навыки, ценности и отношения, необходимые для эффективной гражданской позиции. В этой статье обобщаются существующие исследования и дается представление о том, как внеклассные мероприятия способствуют всестороннему развитию учащихся начальной школы, в конечном итоге способствуя развитию сильного чувства гражданственности.
Ключевые слова: *гражданин, гражданское чувство, внеклассное образование, клуб, мероприятие, рекомендация, заключение, особенность, активист.*

Annotation
This scientific article highlights the importance of extracurricular activities in forming a sense of citizenship in elementary school students. Civic education is fundamental in raising responsible, engaged and active members of society. Through participation in a variety of extracurricular activities, students have the opportunity to develop important skills, values, and attitudes necessary for effective citizenship. This article summarizes existing research and provides insight into how extracurricular activities contribute to the well-rounded development of elementary school students, ultimately fostering a strong sense of citizenship.
Keywords: *citizen, sense of citizenship, extracurricular, education, club, event, recommendation, conclusion, feature, activist.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar yuksak madaniyatli, tashabbuskor, faol fuqaroni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Zero, yoshlar yurtimizning ertangi kuni bo‘lib, ularda fuqarolik tuyg‘ularini tarbiyalash dolzarb ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning har bir chiqishlari, ma’ruzalari va uchrashuvlarida yoshlar tarbiyasi masalasi qayta va qayta kun tartibiga qo‘yilayotganligi buning yorqin dalilidir.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir, degan edi Shavkat Mirziyoyev [1].

Fuqarolik ta’limi boshlang‘ich maktab o‘quv dasturining mas’uliyatli, xabardor va jamiyatning faol a’zolarini tarbiyalashga qaratilgan muhim tarkibiy qismidir. Boshlang‘ich maktablar akademik ta’limdan tashqari o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy mas’uliyatni va demokratik qadriyatlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Rasmiy sinfda o‘qitish asosli bilimlarni taqdim etsa, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishini shakllantirib, amaliy qo‘llash va tajriba o‘rganish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

So‘nggi yillarda fuqarolikni shakllantirishda maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu tadbirlar an’anaviy akademik ta’limni to‘ldiruvchi klublar, sport, jamoat xizmati, san’at va yetakchilik rollarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli tajribalarni o‘z ichiga oladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda qatnashish orqali o‘quvchilar nafaqat muhim ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradilar, balki samarali fuqarolikka yordam beradigan qadriyatlar va munosabatlarni ham rivojlantiradilar.

Fuqarolikni shakllantirishda darsdan tashqari mashg‘ulotlarning rolini o‘rganib, o‘qituvchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar yosh o‘quvchilarga o‘z jamiyatlarida faol ishtirok etish va kengroq jamiyatga ijobiy hissa qo‘shish imkonini beruvchi inklyuziv, ta’sirli va barqaror tashabbuslarni ishlab chiqish bo‘yicha qimmatli tushunchalarga ega bo‘lishlari mumkin.

O‘quvchilarni tarbiyalash ko‘p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ta’limni ustuvor yo‘nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi; intellektual shakllanishi; shaxsiy madaniyati va ma’naviy

qadriyatlarni shakllantirish; huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish; estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish; o‘quvchilarda mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarlikni olib borish zaruriyati yuzaga keladi. Pedagogik faoliyatda vazifalarni bajarish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli usullari qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarni olib borishda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich ta’limdan ona vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantira olsak, kelajak egalari Vatanni qadrlash, uning taraqqiyotida o‘zining daxldorligini his qiladi.

Fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalash o‘z navbatida quyidagi ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

– o‘sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli munosabatda bo‘lish;

– ularga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish, fuqarolik faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini hosil qilish;

– o‘quvchilarda xalq o‘tmishi, qadriyatlarga muhabbat va ulardan g‘ururlanish , iftixor hislarini paydo qilish vatan, yurt ozodligini e’zozlash, ardoqlash va himoyalashni tarbiyalash, davlatimiz ramzlariga hurmat hissini shakllantirish;

– ularda huquqiy madaniyatni tarbiyalash kabilardan iborat.

Fuqaro — fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs. O‘z fuqarolariga ega bo‘lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo‘lmay, muayyan mexanizmga ega subyekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o‘rni qonun yo‘li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko‘rsatilib o‘tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik tarbiyasi asosida millatimiz o‘tmishi, tarixini o‘rganish milliy qadriyatlar mohiyatini to‘g‘ri anglashga qaratilgan faoliyat natijasida o‘quvchilarni jalb etishga qaratilgan yo‘l sanaladi. O‘quvchilarda fuqarolik hissini shakllantirish, ularni fidoiy, vatanparvar inson sifatida tarbiyalash natijasida yuzaga chiqariladi. Kichik maktab yoshida fuqarolik hissi va e’tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy sifatlar va ko‘nikmalarni shakllantirib bo‘lmaydi. Fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o‘quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me’yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. O‘quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar singdirib boriladi, buni amalga oshirishda mavzuga mos xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat o‘quvchilar bilan ham amalga oshiriladi. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g‘oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ‘ib etib borish orqali o‘quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg‘usini bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun “Respublika bayrog‘ida nimalar aks ettirilgan?”,Respublika gerbida nimalar tasvirlangan?”, “Humo qushi tasviri qanday ma’noni anglatadi?”, “Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?” kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir. O‘quvchiga fuqaro sifatida o‘z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya’ni, “Bugun xalq farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?”, “Zimmamdagi burchni qanday ado etdim?” tarzidagi savollarga javob topishga o‘rgatish kerak.Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o‘zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o‘z majburiyatlarini to‘laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir [4, 88].

Fuqarolik tuyg‘usi tarbiyasi asoslari boshlang‘ich sinflarda amalga oshirilib borilishi yuqoridagi tarbiyaviy vazifalarni ro‘yobga chiqarishning muhim bosqichi hisoblanadi. Maqola tadqiqot mavzusining asosiy maqsadi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fuqarolik tuyg‘usi tarbiyasini amalga oshirishda darsdan tashqari ishlar samarali jihatlarini yoritishdan iborat.

Darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni aqliy, estetik, axloqiy, huquqiy, ekologik, mehnat, jismoniy tarbiya va boshqa yo‘nalishlarda namoyon etiladi. Darsdagi tarbiyaviy ishlar shakli darsdan keyingi paytda o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati vositalari, shuningdek, ma’lum madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy aksiyalar tarzidagi ommaviy tarzda o‘quv auditoriyasi a’zolarini qamrab olishga qaratiladi [3, 68]

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quv jarayonining ajralmas qismi va o‘quvchilar ning bo‘sh vaqtini tashkil qilish shakllaridan biridir. Bolalar uchun darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilarining turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilligi, qobiliyatini aniqlash;

– o‘zini “qidirish” va “topish”da yordam berish;

– tanlangan darsdan tashqari mashg‘ulot sohasida bolaning individual rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

– tanlangan faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar tizimini shakllantirish;

– ijodiy faoliyatda tajriba va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

– olingan bilim, ko‘nikmalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

– norasmiy aloqa, o‘zaro hamkorlik tajribasini rivojlantirish.

Darsdan tashqi ishlarda ham boshlang‘ich sinflarda fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalash o‘quvchilarni yoshi, bilim saviyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Darsdan tashqi ishlarda asosiy masalalar o‘quvchining o‘zligini anglashga, erkinlik, mustaqillik tushunchalarni anglatish,konstitutsiyaviy huquqlari mohiyati,ular ijtimoiy,shaxsiy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi bilim va saviyasi maktab hayotidagi barcha tadbirlarda, ijtimoiy-foydali mehnatlarda ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi [2, 22].

“Ifodali o‘qish”, “Chiroyli yozuv”, “Mohir qo‘llar” kabi ko‘plab to‘garaklarda mashg‘ulotlar jarayonida kichik maktab yoshi o‘quvchilarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan hudud, Vatan bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish jarayoniga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar fuqarolik tuyg‘usi ularni maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘yishlari orqali tarkib topa boshlaydi. Ular o‘zlarini shu zaminining kichik bir egasi ekanligini anglay boshlaydilar. Dastlabki bosqichda Davlat ramzlari bilan tanishuvlari hamda prezidentning sovg‘alari bilan taqdirlanishlari mohiyati haqida uyushtiriladigan tantanali tadbirlar ulardagi fuqarolik tuyg‘usining yanada barq urushida muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsdan tashqi ishlarda o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘ularini shakllantirishda qo‘yiladigan masalani tez va to‘g‘ri anglab olishda quyidagi imkoniyatlarga ega:

Birinchidan, darsdan tashqi ishlarda o‘quvchi yoshini hisobga olinishi tufayli o‘quvchi tajribalariga suyanilib tanlangan mashg‘ulot shakli asosida mavzu maqbullashtiriladi;

Ikkinchi muhim xususiyati darsdan tashqi ishlarda o‘quvchining mustaqil, erkin fikrlash imkoniyatlarini orttiradi;

Uchinchidan, o‘qituvchiga darsdan tashqi ishlarda o‘quvchilarni hayotiy tajribalariga suyanishi mashg‘ulot yoki tadbirlarni qiziqarli va faol tarzda o‘tkazilishiga olib keladi.

Darsdan tashqi ishlar jarayonida o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘ularini shakllantirish samaradorligi ortadi va o‘quvchilarning ijtimoiy ongi shakllanishida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol fuqaro sifatida faoliyat ko‘rsatishga doir tushunchalar to‘g‘ri anglanishiga erishiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik maktab o‘quvchilarida fuqarolik tuyg‘usi asoslarini tarbiyalashda darsdan tashqi ishlar boy imkoniyatlarga ega.

Darsdan tashqi ishlarda o‘quvchilarida fuqarolik tuyg‘usi asoslarini tarbiyalash samaradorligi o‘qituvchi dunyoqarashi va pedagogik mahoratiga har jihatdan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasidagi nutqi. – T., 2023-yil 29-dekabr. https://president.uz/oz/lists/view/5797

2. D. Babayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma / – T.: “Fan Ziyosi” nashriyoti, 2021. – 138 b.

3. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Tib kitob” nashriyoti, 2010. – 216 b.

4.Ziyayev, A.I. “National and cultural peculiarities of english, russian and uzbek phraseological intensifiers.” International scientific journal 40.34 (2016): 65-71.

5. Ziyayev, A.N. “Pedagogical aspects of the use of educational values in the spiritual development of students.” International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR TARBIYASIDA ASAB-RUHIY FAOLIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Malika Po‘latxo‘jayeva,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni uy sharoitida nutqini rivojlantirish yo‘llari, kompleks yondashuvlar ko‘rib o‘tilgan. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga yondashuvning maqsadlari belgilangan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Eshitishda muammosi bor o‘quvchilarga tarbiya berishda ota-ona, maktab o‘qituvchilari tomonidan ba’zida amal qilinmaydigan, e’tiborsiz qoldiriladigan holatlar ham uchrab turadi. Mazkur holatlarda qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ham ushbu maqolada tahlilga tortilgan. Eshitish idrokining rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning mayda mushak motorikasini rivojlantirishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘l motorikasi, kompleks yondashuv, vizual, nevroz, psixonevroz, funksiya, asab-ruhiy faoliyat, psixopatiya.*

Аннотация

В данной статье рассмотрены пути и комплексные подходы развития речи детей с нарушениями слуха в домашних условиях. Определены цели подхода к слабослышащим детям. Разработаны механизмы реализации этих целей. Бывают случаи, когда родители и школьные учителя не следят и игнорируют обучение учащихся с проблемами слуха. В данной статье также анализируется работа, которую необходимо провести в этих случаях. Даны рекомендации по развитию мелкой моторики детей с нарушением слуха.

Ключивые слова: *моторика рук, комплексный подход, зрение, невроз, психоневроз, функция, нервно-психическая деятельность, психопатия.*

Annotation

In this article, the ways and complex approaches to develop the speech of children with hearing problems at home are considered. The goals of the approach to hearing-impaired children are defined. Mechanisms for the implementation of these goals have been developed. There are cases where parents and school teachers do not follow and ignore the education of students with hearing problems. The work to be done in these cases is also analyzed in this article. Recommendations for the development of fine motor skills of children with hearing impairment are given.

Keywords: *hand motility, complex approach, visual, neurosis, psychoneurosis, function, neuropsychological activity, psychopathy.*

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasining asosiy maqsadi — bu bolani ota-onalar va kattalarning haqiqiy hayotiga bevosita kiritish. Ushbu ta’limning eng zarur tamoyillari:

– bolalarning salomatligini va har tomonlama jismoniy-ruhiy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish: chidamlilik va sabr-toqatni tarbiyalash;

– ularning axloqiy tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, bu ularga o‘z xalqining barcha ijobiy axloqiy me’yorlari va fazilatlarini singdirishni nazarda tutadi;

– bolalarning ekologik madaniyatiga g‘amxo‘rlik qilish, ya’ni atrof-muhit, uning boyliklari va unda yashash usullari to‘g‘risida to‘plangan bilimlarni berish;

– mehnatga tayyorgarlik, mehnat ko‘nikmalarini o‘rgatish, uy xo‘jaliklarini boshqarish qobiliyati;

– aql va shoshilmasdan hukm chiqarish fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish [1, 82].

Hozirgi jadal hayot tarzi axborotning ko‘payishi odamni yoshligida tashqi dunyo haqidagi juda ko‘p ma’lumotni o‘zlashtirishga majbur qiladi, bu esa o‘z navbatida bolani charchash va katta psixologik mantiqiy beqarorlikka olib keladi [2, 59]. Yangi hayot ota-onadan bolani har tomonlama axloqiy, psixologik va jismoniy chiniqtirishni talab qiladi, bu esa uning har xil axloqiy, psixologik, harorat va boshqa atrof-muhit ta’sirlariga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga har tomonlama yondashuvning quyidagi maqsadlari eng samarali deb baholash mumkin.

1. Eshitishida nogironligi bo‘lganlar jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi bo‘yicha reabilitatsiyasi va sifatli o‘qitilishi.

2. Bolalar bog‘chasi — maktab — oliy o‘quv yurtlari tizimidagi reabilitatsiya-ta’lim jarayonlari, shuningdek turli sohalar bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari, kollej va bilim yurtlaridagi kasbiy ta’limni muvaffaqiyatlashtirish.

3. O‘qitishning har bir, bolalar bog‘chasi — maktab — kollej — oliy o‘quv yurti bosqichida izchillik va kasbiy yo‘naltirish, moslashtirish va o‘qitishni yaratish.

4. Eshitish qobiliyati buzilgan farzandlari bor ota-onalarga psixologik yordamni ko‘rsatish. Maslahatlar o‘tkazish [3, 161].

Shubhasiz, ushbu tizim, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kasbiy yo‘naltirilish va psixologik yordam ko‘rsatgan holda ushbu toifadagi bolalarning ta’lim muammolarini hal qiladi. Ammo, amaliyot ko‘rsatmoqda-

ki, ota-onalar bilan ishlashni faqatgina maslahatlar bilan cheklashning o‘zi yetarli emas. Bu yerda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan tibbiy — psixologik — pedagogik ishlashning dolzarb masalalariga yetarlicha e’tibor berilmaydi, oila bilan o‘zaro harakat qilmagan holda bunday bolaning to‘laqonli reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvini tasavvur qilish qiyin va buning imkoni yo‘q. Shunday holatlar ham uchrab turadiki,ba’zan ota-ona, shifokorlar yoki o‘qituvchilar quyidagi sabablarga ko‘ra sezmasligi mumkin:

1. Bola eshitish qobiliyati pasayganini sezmasligi va bundan shikoyat qilmasligi mumkin.

2. Eshitish qobiliyati pasayganining ochiq belgilari bo‘lmasligi mumkin.

3. Eshitish qobiliyati pasayishi o‘tib ketuvchi bo‘lishi mumkin (o‘rta quloqning infeksion kasalligi davrida) yoki surunkali infeksiya natijasida vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi mumkin [4, 203].

Eshitish qobiliyati pasayishi quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi:

Emizikli bolalarda:

1. Bola atrofda yuzaga keluvchi baland ovozlardan uyg‘onmaydi.

2. Ovoz qabul qilishning umumiy qobiliyati namoyon bo‘lmasligi.

3. Bola olti oyligida ovoz manbaiga e’tibor qaratmasligi.

4. Bola to‘rt oyligida ko‘p ham baqirmaydi, ovoz chiqarmaydi.

5. Bola atrofidagilarga so‘z bilan emas, yuz ifodasi bilan javob qaytaradi.

2-4 yoshdagi bolalarda (yurishni boshlagan bola): O‘n besh oyligidan so‘ng bola o‘z istaklarini so‘zga nisbatan imo-ishoralar bilan ifodalashi. Vizual, ishoralar va harakatlar orqali muloqot qilishga yuqori tayyorlanganlik; Bola so‘zlarni talaffuz qilishda qiynalsa. Bola ikki yoshligida uning gaplarining yarmidan kamrog‘i begona odamlar uchun tushunarli bo‘lsa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda:

Bola odamlarga nisbatan ko‘proq predmetlarga qiziqqon. O‘ziga va o‘z ehtiyojlariga e’tiborni tortish uchun injiqlik qiladi. Uch yoshda bolalarning 25 foizidan ortig‘i begona odamlar uchun tushunarsiz bo‘lishadi. To‘rt yoshda begona odamlar bolalarning nutqini qisman tushunishadi.

Maktab yoshidagi bolalar

Bolada uyatchanlik, begonasirash paydo bo‘ladi. Bola o‘zini baxtsiz his qilishi, ijtimoiy muloqotlardan o‘zini olib qochishi mumkin. Bola atrofdagilar uchun yopiq bo‘lishi yoki juda e’tiborsiz bo‘lishi mumkin. Bolaning darslarni o‘zlashtirishida muammolar bo‘lishi mumkin, sababi u mashg‘ulotlarni imkoniyati darajasidan past darajada bajaradi. O‘zini tutish modellari: qaysar, injiq va shubhali. Odatda so‘zni qaytarishni so‘raydi yoki noto‘g‘ri javob beradi. Bolaning nutqida muammolar yuzaga keladi [5, 165].

Bolalarning asabiylashishi profilaktikasi ham ushbu sohada eng ko‘p o‘rganilishi kerak mavzu hisoblanadi. Bolalarning yoshligida va maktabgacha ta’lim yoshiga kirganida asab-ruhiy faoliyati faol tarzda shakllanish bosqichida bo‘ladi. Agar bolaning asab-ruhiyati shakllanishi uchun maqbul sharoitlar mavjud bo‘lmasa, yuqori asab faoliyatida buzilishlar sodir bo‘lishi mumkin. Bunday buzilishlar birinchi navbatda bolaning nomaqbul harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Kattalardan noto‘g‘ri munosabat bo‘lganida bolalarning noma’qul harakatlari yanada mustahkamlanib, barqaror xarakter kasb etadi, nevroz holatlari yuzaga keladi. Bunday holatda psixonevrolog yoki psixiatr belgilaydigan davolanish talab etiladi. Agar bola davolanmasa, bir qator holatlarda bunday nevrozlar bolaning shaxs psixopatiya sifatida shakllanishidagi nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Harakat ko‘nikmalari buzilishi. Bolaning normal xatti-harakatlari atrof-muhitga faol, ijobiy munosabatida namoyon bo‘ladi. Bola atrofda sodir bo‘layotgan hamma narsaga qiziqqon, kattalar bilan tezda muloqotga kirishuvchan, o‘zi mustaqil yoki boshqa bolalar bilan o‘ynaydigan bo‘ladi. Boladan, ayniqsa, uning yoshiligida uning harakatlari har tomonlama maqbul bo‘lishini talab qilmaslik kerak. Uning miyasi rivojlanmaganligi va funksiyalarining mukammal holatga kelmaganligi ayrim harakatlarining barqaror bo‘lmasligiga olib keladi. Yosh bola uchun bunday harakatlar tabiiy hisoblanadi. Masalan, o‘yin bilan band bo‘lganda bola ovqatlanishga yoki uxlashga chaqirganda tezda bunga ahamiyat bermasligi mumkin. Undan qo‘g‘irchog‘i olib qo‘yilganda yig‘lab yuborishi mumkin. Biroq, bunday javob reaksiyalari vaqtinchalik bo‘lib, ularning kelib chiqish sababini izohlash oson.

Noma’qul harakat shakllari. Bolaning salbiy ruhiy ahvoldagi harakatlarini nomaqbul harakatlar deb baholash mumkin.

Nomaqbul javob reaksiyalariga quyidagilar kiradi. Qaysarlik, ya’ni kattalarning asosli talablariga bo‘ysunmaslik. Masalan, bola och yoki uyqusi kelgan bo‘lsa-da, ovqatlanish yoki uxlashdan qaysarlik bilan bosh tortishi, kir bo‘lgan qo‘llarini yuvishdan, sovqotgan bo‘lsa-da, issiq kiyim kiyishdan bosh tortishi va boshqalar. Injiqliklar, masalan, bola nimanidir xohlayotganini aytsa, lekin shu istagini qanoatlantirish jarayonida undan voz kechsa. Asoslanmagan yig‘i, bolada mayda sabablar natijasida kuzatilsa. Tarbiyachi bilan muloqotga kirishishdan bosh tortish, bolani gapga tutish, o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishga harakatlar natija bermasa.

Boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishdan bosh tortish, bola boshqa bolalardan alohida bo‘lishga intilsa, bolalardan chetda yolg‘iz o‘zi o‘ynasa, yoniga bolalar kelganda yig‘lasa, ulardan yuz bursa, ular bilan gapirmasa, bolalar bilan jamoaviy o‘yinlar va mashg‘ulotlarda qatnashishni xohlamasa.

Harakatning o‘ta faolligi — bola juda harakatchan, qaysidir ishga diqqatini jamlay olmasa, bir predmetdan boshqasiga tez o‘tib ketsa, mashg‘ulotlar va o‘yinlar davomida diqqatini barqaror jamlay olmasa, boshqa bolalarga

o‘ynashga xalaqit bersa, agressiv bo‘lsa, boshqa bolalarni turtkilasa va ursa, baqirib, o‘yinchoqlarini olib qo‘ysa.

Noma’qul harakat shakllarini qanday qilib yo‘qotish mumkin. Noma’qul harakat shakllarini yo‘qotishga qanchalik tez kirishilsa, shuncha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Biroq buning uchun shifokor bilan maslahatlashib, bolaning sog‘lig‘i qay ahvolda ekanini bilish lozim. Bolada injiqlik va qaysarliklar kuzatilganda xotirjam bo‘lish, bolaga yaxshi munosabatda bo‘lish, xayolini boshqa narsaga jalb qilish va nomaqbul harakatlarini rag‘batlantirmaslik, jazolamaslik kerak. Bola bilan vaqtincha muloqotga kirishilmasa, kattalarning bu reaksiyasi bolaga qiziq bo‘lmaydi va u injiqlik qiladi. Ko‘p yig‘lash holatlarida bolaning e’tiborini tortib, uni bolalar bilan o‘yinlarga jalb qilish, o‘zi mustaqil bajarishi uchun topshiriqlar berish kerak.

Harakatning o‘ta faolligida bolani aniq maqsadli ishlash bilan bog‘liq mashg‘ulotlarga jalb qilish, bunda bolaga ijobiy munosabatda bo‘lish, qiziqishini rag‘batlantirish kerak. Uning harakati faolligini diqqatini jamlash bilan bog‘lash va shu bilan uning harakatlari barqaror bo‘lishini ta’minlash kerak. Agar bola agressiv bo‘lsa, birinchi navbatda bunday holatning sabablarini aniqlash kerak. Bunday holatda bolani har doim kuzatib borish, u bilan individual shug‘ullanish, u uchun qiziq mashg‘ulotlar berish, maqsadli o‘yinlar yoki qandaydir ish bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash kerak.

Rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning mayda mushak motorikasini rivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Bolaga shaffof idish bering (masalan, uchi ingichka shisha) va unga qanday qilib mayda predmetni solishni ko‘rsating. Idishni aylantirganda predmet tushib ketishini ko‘rsating. So‘ng boladan shuni o‘zi bajarishini so‘rang.

2. Bolaga katta bo‘lmagan balandlikdan koptok yoki havo sharini uloqtirishni va uning havodagi harakatini kuzatishni ayting. Bunda qaysi predmet birinchi bo‘lib pastga tushishini so‘rasangiz bu mashg‘ulotni o‘yin sifatida o‘tkazish mumkin.

3. Bolani ishga tushirganda harakatga keladigan jismlar bilan tanishtiring va nima bo‘layotganini tushuntiring. Keyin bolaga o‘zi urinib ko‘rishi uchun bering.

4. Bolaning oldiga idish, masalan, plastik chelak qo‘ying. So‘ng uning yoniga mayda predmetlarni qo‘yib, boladan ularni idishga solishni so‘rang. Bu bolaning ma’lum so‘zlarni o‘rganishi va jismlarni idishga solish va unda olishni o‘rgatadi.

5. Boladan mayda rangli predmetlarni shaffof plastik idishga solishni so‘rang. Keyin idishni chayqaganda predmetlar idishning ichida qanday harakatlanishi va ovoz chiqarishini ko‘rsating. Xuddi shuni yana bitta idish yordamida bajarib, jismlarni turli idishlarga taqsimlashni ko‘rsatish mumkin.

6. Bola jismlar bilan o‘ynashni o‘rganganida doskaga kesilgan turli shakllarni (aylana, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak) joylashtirishni boshlasa bo‘ladi. Montessori materialida bunday maxsus doskalar haqida yozilgan (“Montessori bilan mashg‘ulotlar” kitobiga qarang, Riga – Moskva, 1996-yil).

Avval bolaga qanday qilib doskadan qaysidir shaklni olishni ko‘rsating, so‘ng boladan shuni bajarishni so‘rang. Muvaffaqiyatli bajargani uchun uni maqtang. Agar u nima qilishni bilmasa, unga ko‘rsating.

7. Uzun marjon yoki zanjir oling va bolaning oldida uni bir uchidan ushlab cho‘zing. Bolaning oldiga mayda idish qo‘ying va marjonlarni unga solishni so‘rang. Agar bola buni bajarolmasa, bolaga marjonlar qanday qilib yig‘ishni yoki bir uchini ko‘tarib idishga solishni ko‘rsating. Bu mashg‘ulotni uchi ingichka plastik shisha bilan, marjonlar o‘rniga qog‘oz bo‘laklari bilan bajarsa bo‘ladi.

8. Shaqildoq arqonga bog‘langan. Katta odam shaqildoqni bola tomonga uzatib, uni ushlashni so‘raydi. Bola uni ushlashi va ovoz chiqarishi uchun chayqatishi kerak.

9. Bolaning yonida mayda jismlar (tugmalar, mozaika, toshchalar) va kichikroq idish yotibdi. Katta odam qanday qilib bir necha jismlarni olib, idishga solishni ko‘rsatadi. So‘ng boladan shuni bajarish so‘raladi. Bolaning oldiga stol ustiga eshikcha qo‘yiladi va turli aylana jismlarni undan o‘tkazish so‘raladi.

Agar bola bu mashg‘ulotni tushunmasa, katta odam uni qanday qilib bajarishni ko‘rsatadi. Bunda sharlarni kichkina tarnovchaga joylab, u orqali idishga kirishini ko‘rsatish mumkin.

Ushbu mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli bajargandan keyin piramidani qurishni boshlash mumkin. Bu mashg‘ulotni asta-sekin murakkablashtirib borish mumkin.

10. Bola piramidalarni tayyorlashni o‘rganganidan keyin unga turli shakllar va hajmlardagi qutichalarni ochish va yopishni o‘rgatish mumkin. Dastlab bolaga turli shakldagi qutichalarni berib, ularni qopqog‘ini yopishni so‘rang (dastlab qopqog‘i qanday ochilishi va yopilishini ko‘rsatib). So‘ng bu mashg‘ulotni turli shakl, hajm va rangdagi qutichalar bilan davom ettirish mumkin.

11. Takrorlovchi harakatlar. Katta odam ma’lum harakatlarni ko‘rsatib, boladan ularni bajarishni so‘raydi: masalan, kaftni mushtga siqish, mushtni stolga qo‘yish, stolni urish, stol ustiga sakrash (qurbaqa usulida), qo‘llarni yelka kengligida ochish (fonarlar), stol ustida ikki barmoqlar bilan yurish (marsh yurish), ikki barmoqda sakrash mumkin.

12. Barmoqlarni rivojlantirish uchun bolaga kichik pianinoga alohida barmoqlar bilan o‘ynashni o‘rgatish mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni uy sharoitida nutqini rivojlantirish yo‘llari, kompleks yondashuvlar masalasida ota-onalar bolaning ruhiy holatini ham inobatga olishi lozim. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga yondashuvning maqsadlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan ishlarning samarasi ham sifatli bo‘ladi. Bolaning ruhiy buzilish holatlari uchramaydi. Eshitishda muammosi bor o‘quvchi-

larga tarbiya berishda ota-ona, maktab o‘qituvchilari birday hamkorlik qilishi, uning ruhiy olamiga yaxshi samara beradi. Eshitish idrokining rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning mayda mushak motorikasini rivojlantirishga oid tavsiyalarga e’tibor berilishini va amaliyotda foydalanishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Янн П.А. Воспитание и обучение глухого ребенка. Сурдопедагогика как наука (пер. с немецкого). – М.: Академия, 2003. – 248 с.

2. Шматко, Н.Д, Пелымская Т.В. Если малыш не слышит … [Текст]: пособие для учителя / Н.Д. Шматко, Т.В. Пелымская; Предисл. и послел. Э.А. Корсунской. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 2003. – 204 с.

3. Кардаш Яна Александровна “Педагогическое взаимодействие коррекционного учреждения и семьи в реабилитации детей с нарушением слуха” диссертация. – Екатеринбург, 2005. – С. 200.

4. Ляпидевский С.С. Невропатология. Естественно-научные основы специальной педагогики: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.И. Селиверстова. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 384 с.

5. Кошелева Л.Н. Социально-педагогическая адаптация детей с ограниченными возможностями. Дисс. ... канд. пед. наук. – Сургут, 1998. – 183 с.

XALQ DOSTONLARINI O‘RGANISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Shirinbek Nurboyev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Xalq dostonlari madaniy meros va jamoaviy xotiraning ombori sifatida jamiyatlarning lingvistik tuzilishi haqida bebaho tushunchalarni taqdim etadi. Ushbu maqolada tilshunoslikning xalq dostonlarini o‘rganishdagi ahamiyati o‘rganilib, lingvistik tahlil ushbu rivoyatlar ichida singdirilgan ma’no, madaniy uzatish va tarixiy evolyutsiyaning murakkab qatlamlarini qanday ochishini yoritadi. Ushbu maqola fanlararo nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, lingvistik metodologiyalar xalq dostonlari haqidagi tushunchamizni qanday boyitishini, ularning o‘zlikni, dunyoqarashni va jamiyat dinamikasini shakllantirishdagi rolini yoritishni ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *til, doston, baxshi, dissertatsiya, tadqiqot, leksik birlik, adabiy til, dialekt, lingvopoetika.*

Аннотация

Народный эпос, являясь хранилищем культурного наследия и коллективной памяти, предлагает бесценную информацию о языковой структуре общества. В этой статье исследуется значение лингвистики в изучении народных эпосов, объясняя, как лингвистический анализ раскрывает сложные слои смысла, культурной передачи и исторической эволюции, заложенные в этих повествованиях. Опираясь на междисциплинарные точки зрения, эта статья демонстрирует, как лингвистические методологии обогащают наше понимание народных эпосов, проливая свет на их роль в формировании идентичности, мировоззрения и социальной динамики.

Ключевые слова: *язык, эпос, поэма, диссертация, исследование, лексическая единица.*

Annotation

Folk epics, as repositories of cultural heritage and collective memory, offer invaluable insights into the linguistic fabric of societies. This article explores the significance of linguistics in the study of folk epics, elucidating how linguistic analysis unveils intricate layers of meaning, cultural transmission, and historical evolution embedded within these narratives. Drawing from interdisciplinary perspectives, this paper showcases how linguistic methodologies enrich our understanding of folk epics, shedding light on their role in shaping identity, worldview, and societal dynamics.

Keywords: *Language, epic, poem, dissertation, research, lexical unit, literary language, dialect, linguopoetics литературный язык, диалект, лингвопоэтика.*

O‘zbek tilshunosligi tarixida xalq dostonlari tilini o‘rganish bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlarni yaratish, dissertatsiya yozish va himoya qilish ishlarini dialektologik olim, akademik Sh.Shoabdurahmonov boshlab bergan edi. Uning Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan “Ravshan” dostoni tiliga bag‘ishlagan nomzodlik dissertatsiyasi [1, 8] shular jumlasidandir. Bu ish o‘zining originalligi, ilmiyligi, poetik tadqiqining keng qamrovda ekanligi va eng muhimi, birlamchi lisoniy materiallar tahliliga boyligi bilan tilshunosligimizda alohida ajralib turadi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining epik repertuaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub “Xush keldi”, “Qun-

duz bilan Yulduz” kabi o‘zbek xalq dostonlari tiliga bag‘ishlangan A.Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasida [2, 27] mavjud materiallarni tahlil qilish va tavsiflash jarayonida bir qator muhim ilmiy yangiliklarga erishgan: xususan, tarixiy til tizimining ilk funksional kengayishi, uslubiy tarmoqlanishi va adabiylik maqomiga ega bo‘lishi ilmiy asoslangan va adabiy tilning vujudga kelishida yozuvning ustuvor emasligi qayd etilgan; dostonlarda saqlangan katta hajmdagi tarixiy va eskirgan so‘zlar jamlangan va shu asosda folklor manbalarining tarixiy so‘zlari izohli lug‘atini yaratish uchun zamin hozirlagan; o‘zbek xalq dostonlarining qadimgi turkiy epik ijod asosida shakllangan og‘zaki poetik ust dialekt bilan aloqadorligi hozirgi turkiy tillar dostonlari va qadimgi turkiy yozma manbalarga xos an’anaviy lingvofolkloristik unsurlarning stilistik qiyosi, semantik-stilistik va qiyosiy-tipologik tahlili asosida ochib berilgan.

S.Tursunovning dissertatsion tadqiqoti [3, 19] Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan mashhur “Alpomish” dostoniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda folklor leksikasi va frazeologiyasining o‘ziga xosligi, umumxalq tilining shu mazmundagi birliklaridan farqli ravishda tahlil etilganligi bilan ilmiy-amaliy qimmatga ega. Muallifning asosiy e’tibori leksik, grammatik, frazeologik dialektizmlarning tahliliga qaratilganligi, ularning o‘zbek adabiy tilida ekvivalentlarining mavjud yoki mavjud emasligi nuqtayi nazaridan tahlil etilganligi, qolaversa, ishda kitobiy-poetik va xalq-poetik leksikasining o‘rganilganligi ham doston tilini tekshirishga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Z.T.Xolmanovaning tadqiqotida [4, 25] “Shayboniyxon” dostoni tilidagi so‘zlar leksik jihatdan maxsus o‘rganilgan; qo‘llanish miqdoriga ko‘ra alohida kichik guruhlarga ajratilgan; bir asar matnida qo‘llangan so‘zlar leksik-genetik jihatdan aniqlangan, mavzuiy va semantik guruhlar asosida tasniflangan, sheva variantlariga qiyoslangan, qo‘llanish me’yorlari va matnning tarixiy manbalari belgilangan. Unda o‘z qatlamning miqdoriy jihatdan ko‘pligi matnda so‘zlashuv tiliga xos elementlarning faolligi, ularning asosiy qismi turkiy so‘zlar ekanligi bilan izohlangan.

J.Xolmurotovaning tadqiqotida [5, 160] hududiy dostonlar, jumladan, shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining nominativ-tavsifiy vazifalari sifatida yozma badiiy nutq va doston tili, adabiy til va doston tili, shu dostonlar leksikasidagi so‘zlarning mavzuiy guruhlari, onomastik leksikaning o‘rni, dostonlar tilidagi so‘z va frazeologizmlarning o‘zaro munosabati kabi masalalar maxsus o‘rganilgan. J.Xolmurodovanig doston tilidagi leksik birliklar nominativ-tavsifiy va badiiy-uslubiy vazifalarda qo‘llanishi, ularni kuzatish orqali an’anaviylik va doston ijrochisi bayonidagi individuallikni aniqlash mumkinligi haqidagi xulosalari nazariy jihatdan asoslidir.

G.U.Jumanazarovaning nomzodlik dissertatsiyasida [6, 25] “Shirin bilan Shakar” dostoni leksikasining lug‘aviy qatlamlari, lingvostatistik chastotasi, o‘z va o‘zlashgan qatlamga xoslanganligi tadqiq qilingan; doston tilidagi leksik birliklarning nominativ-tavsifiy va badiiy-tasviriy vazifasi tinglovchilarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi ishonarli dalillar tahlili orqali isbotlangan; tadqiq etilgan doston leksikasi mavzuiy jihatdan tasnif etilgan va har bir guruhning o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan; doston tilida qo‘llangan poetik ko‘chimlarning tutgan mavqei, miqyos va darajasi aniqlangan, ularning lingvopoetik xususiyatlari va badiiy-uslubiy tabiati ilk bor tadqiq etilgan.

A.Xoliqov dissertatsiyasida [7, 152] Po‘lkan shoir kuylagan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlarini tadqiq etish yo‘li bilan o‘zlashma so‘zlarning qo‘llanish doirasi hamda ishlatilish me’yorini aniqlashga, asar leksikasini shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra tavsiflashga harakat qilgan. Shuningdek, doston leksikasining uslubiy xususiyatlarini, dostonda qo‘llangan turg‘un iboralar va maqollarni tahlil qilishga, sinonim, omonim va antonimlarning badiiyatni ta’minlashdagi o‘rnini belgilashga e’tiborni qaratgan.

“Shaxriyor” va “Malika Zavriyo” dostonlarining lug‘aviy-ma’noviy tahliliga bag‘ishlangan S.S.Ro‘ziboyevning nomzodlik dissertatsiyasida [8, 137] qo‘llanilgan so‘zlarning geneologik jihatdan tavsiflash, leksemalarning shakliy va ma’noviy munosabatlarini, ularning badiiy-estetik vazifalari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotda dostonlar tilidagi o‘g‘iz va qipchoq lahjasiga taalluqli dialektizmlarning o‘zaro farqlari aniqlangan; muayyan ma’lumotlar Xorazm vohasidagi o‘g‘iz va qipchoq lahjalari yuzasidan qilingan tadqiqotlardagi materiallar bilan taqqoslangan; dostonlar tilidagi leksik birliklarning o‘rni va roli ularning matndagi badiiy-estetik funksiyasi orqali yoritib berilgan.

Eng so‘nggi davrlarda xalq baxshi-shoirlarining epik repertuaridagi individual uslubini aniqlashni ko‘zda tutadigan, hofizasidagi so‘zlarning boyligini va miqdorini aniqlab, umumlashtirib beradigan statistik, stilistik va lingvopoetik tadqiqotlar yaratila boshlandi. Bu borada G.Jumanazarova, D.O‘rinboeva, N.Xadjimusaeva, Q.M.Olloyorov, I.Umarov, A.Eshmurodov, D.Ashurov, Y.Xodjiev va boshqalarning xalq dostonlari tili va leksikografik manbalariga bag‘ishlangan tadqiqot-lug‘atlarini qayd etish o‘rinli.

G.U.Jumanazarovaning doktorlik dissertatsiyasida [9, 55] Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Balogardon”, “Bahrom va Gulandom”, “Zevarxon”, “Layli va Majnun”, “Malika ayyor”, “Nurali”, “Rustamxon”, “Farhod va Shirin”, “Shirin bilan Shakar” kabi dostonlar leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik jihatdan tahlil etilgan. Muallif tadqiqotining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni ta’kidlash lozim: dostonlar tilidagi so‘zlarning tarixiy-etimologik va funksional-mazmuniy xususiyatlari ochib berilgan; dostonlarning elektron matni asosida leksikografik manbalari (so‘zlik, alfavitli, chastotali, ters (chappa) va izohli lug‘atlar) yaratilgan; dostonlar matnidagi fonetik,

leksik-grammatik qurilishidagi birliklarning qo‘llanilish miqdori aniqlangan; dostonlar tili lingvopoetikasini aniqlash orqali uslubiy formulalarning tuzilmaviy-poetik tabiati va leksik-stilistik qatlamlarning semantikasi asoslangan, iboralarning tuzilmaviy-semantik va konnotativ ma’nolaridagi o‘ziga xosliklar ochib berilgan. Shuningdek, tahlilga jalb etilgan dostonlar qahramonlari nutqidagi norasmiy, xalqchil unsurlar (so‘kish, qarg‘ish va haqoratli so‘zlar) ning matndagi lingvopoetik xususiyatlari asoslab berilgan. Eng muhimi, dostonlar tilidagi o‘xshatishlarning tuzilmaviy-semantik va poetik tabiati, sifatlash, metafora, metonimiya va iboralarning lingvopoetik imkoniyatlari aniqlab berilgan, badiiy-estetik qimmati lisoniy dalillar asosida ochib berilgan.

D.O‘rinboyevaning doktorlik dissertatsiyasida [10, 15] “Alpomish”, “Rustamxon” va “Ravshan” dostonlari, maqol, topishmoq, ertak, qo‘shiq janrlarining alfavitli, chastotali, ters va izohli lug‘atlari tuzilganligini, tanlangan materiallarda qo‘llangan barcha so‘z shakllar qo‘llanilish miqdori aniqlanganligini va statistik axborot talablariga ko‘ra ochib berilganligini kuzatamiz. Bulardan tashqari, tanlama materiallardagi so‘z turkumlari va ularning grammatik ko‘rsatkichlari tahlil etilib, o‘ziga xos tipologik tabiati, janriy xususiyatlari yoritilgan; doston, maqol, topishmoq, ertak va qo‘shiqlar matnlardagi so‘zshakllarining lingvopoetik imkoniyatlari aniqlanib, badiiy-estetik qimmati isbotlangan.

Q.M.Olloyorovning dissertatsiyasi [11, 46] “Go‘ro‘g‘li” va “Oshiqnoma” turkumi dostonlaridagi onomastika masalasiga bag‘ishlangan, unda Xorazm dostonlari tilida qo‘llanilgan atoqli otlarning lingvistik xususiyatlari o‘rganilgan. Dissertatsiyada mazkur dostonlar leksikasidagi badiiy qahramonlar nomlari, real tarixiy hamda o‘ylab topilgan (noreal) nomlar aniqlangan, nomlarning tarkibiy jihatlari, sodda, qo‘shma, murakkab va gibrid shakldagi nomlar, onomastik indikatrlarning lingvistik xususiyatlari faktik materiallar asosida dalillab berilgan. Xalq dostonlaridagi onomastik birliklar tasnif qilinib, ular joy nomlari, kishi nomlari, tarixiy shaxslar, dostonlardagi laqablar kabi mavzuiy-semantik guruhlarga ajratilgan va qardosh xalqlar tiliga oid dostondagi nomlar bilan o‘zaro munosabatlari ochib berilgan.

N.Xadjimusaevaning dissertatsiyasi [12, 45] “Orzigul” dostoni tilini leksik-semantik, lingvostatistik va lingvostilistik usulda tadqiq etishga hamda xalq baxshisining so‘z qo‘llash mahoratini ochib berishga bag‘ishlangan. Unda: “Orzigul” dostonidagi o‘z va o‘zlashma qatlam tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil usullari asosida aniqlangan; matnning fonetik, leksik, semantik-stilistik xususiyatlari ochib berilgan; dostondagi til birliklarining qo‘llanilish miqdori, troplar tizimi, poetik sintaksisi va stilistik formulalari o‘rganilgan; so‘zlashuv nutqiga xos lingvistik va eksrolingvistik mezonlarining doston tiliga ta’siri, adabiy til me’yorlaridan chekinish holatlari lisoniy dalillar asosida yoritilgan; Islom shoir Nazar o‘g‘lining poetik individualligi, doston kuylash va tildan foydalanishdagi mahorati ilmiy asoslangan.

Tilshunosligimizda muayyan baxshi-shoirning so‘z boyligini belgilash bilan bog‘liq ilmiy-nazariy masalalar hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda, I.Umarovning “Malika ayyor” dostoni tiliga bag‘ishlangan dissertatsiyasida[13,28] qo‘yilgan masalalar ham anchayin yangi, desak bo‘ladi. Unda dostondagi so‘zlar mavzuviy guruhlarga ajratilgan va leksik-semantik tabiati ochib berilgan, ijtimoiy-siyosiy leksikaning funksional tahlili amalga oshirilgan; antroponim va toponimlarni etimologik jihatdan tahlil qilingan, ma’muriy-hududiy bo‘linish va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalarning lisoniy tabiatini tadqiq qilingan; zoonimlarning etimologik, funksional va semantik tadqiqini amalga oshirish; dostondagi ko‘p ma’noli so‘zlarning semantik, leksik-grammatik va geneologik tadqiqini tavsiflangan, iboralarning uslubiy xususiyatlarini yoritilgan.

“Xoldorxon” dostonining lingvostilistik xususiyatlariga bag‘ishlangan A.Eshmuratovning dissertatsiyasi [14, 180] fonetik, leksik- frazeologik birliklarning lisoniy tabiati, sintaktik qurilishdagi stilistik figuralarning qo‘llanilish xususiyatlari ochib berishga qaratilgan.

Eng oxirgi vaqtlarda, aniqrog‘i, 2-3 yil ichida tilshunosligimizda nafaqat muayyan bir epik dostonning lisoniy xususiyatlari, balki xilma-xil variantlarga ega bo‘lgan dostonlardagi lisoniy birlik va uslubiy vositalarning lingvokulturologik, semantik-struktur hamda leksikografik xususiyatlarining ilmiy tahlillariga daxldor bo‘lgan bir qator dissertatsiyalar bajarildi va himoya qilindi. Shu o‘rinda Y.Xodjiyev va D.Ashurovlarning ishlarini ta’kidlash o‘rinli. Masalan, Y.Xodjiyevning dissertatsiyasida[15,121] “Alpomish” dostonining shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklarini semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlarini yoritishni maqsad qilib olgan bo‘lsa, D.Ashurovning dissertatsiyasida [16, 8] esa mazkur dostonning boshqa kuylovchi-ijodkorlarining epik repertuaridagi namunalar, xususan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li va Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantlaridagi lingvokulturologik birliklar tanlangan. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: “Alpomish” dostonidagi lingvomadaniy birliklar semantikasi til va madaniyat uyg‘unligi asosida oshiriladigan; doston matnidagi zamon, makon, rang bilan bog‘liq birliklarning, etnografizmlarning voqealanish, shakllanish va qo‘llanilishining psixolingvistik, lingvokulturologik hamda sotsiolingvistik omillari dalillangan; an’anaviy, turg‘un va individual o‘xshatishlar lingvokulturologik birlik sifatida milliy mentallikni ifodalashi bilan badiiy-uslubiy, lisoniy-madaniy maqsadlar uchun xizmat qilishi asoslangan; somatik frazeologizmlar, maqol va matallarning semantik, uslubiy xususiyatlari millatning shaxslar va guruhlararo milliy-madaniy, tarixiy-ijtimoiy, assotsiativ-psixologik munosabatlari hosilasi ekanligi isbotlangan.

Xullas, xalq dostonlari tilining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishining qay darajada ekanligi haqida tasavvur hosil qilish uchun hozirgi kungacha himoya qilingan dissertatsion tadqiqotlar qisqacha tahlil etildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad xalq dostonlari leksik materialining sheva va adabiy tilga munosabatini ochishga bag‘ishlangan, leksik material tahliliga keng qamrovda yondashilgan tadqiqotlarning tahlilini yoritishdan iborat edi. Bildirilgan fikr-mulohazalarning o‘ziyoq xalq dostonlarini lisoniy jihatdan keng qamrov bilan tahlil etishdagi eng dolzarb muammolar ko‘lami hamda kelajakda bajariladigan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vazifalar haqida tasavvur bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шоабдурахманов Ш. О художественных средствах язык поэмы “Равшан”: Автореф.дис. … канд. филол. наук. – Т., 1949. – 52 с.

2. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ достонлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фанлари номзоди …дис. автореф. – С., 2002. – 53 б.

3. Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”: Автореф. дис. …канд. филол. наук. – Т., 1990. – 51 с.

4. Холмонова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианти асосида): Филол. фанлари номзоди. ...дис. автореф. – Т., 1998. – 49 б.

5. Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди …дис. –Т., 2000. – 180 б.

6. Жуманазарова Г.У. “Ширин билан Шакар” достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2008. – 180 б.

7. Холиқов А.А. “Гўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди …дис. –Т., 2009. – 152 б.

8. Рўзибоев С.С. Жанубий Хорзм достонлари тилининг луғавий-маънавий таҳлили. Филол. фанлари номзоди …дис. –Т., 2001. – 137 б.

9. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлар тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Докторлик диссертацияси. – Т., 2017 йил. – 220 б.

10. Ўринбоева Д. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари. Филология фанлари доктори (DSe) диссертацияси. – С., 2019 . – 215 б.

11. Оллоёров Қ.М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Гўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2018, – Б. 52.

12. Хаджимусаева Н. “Орзигул” достонининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопоэтик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Жиззах, 2020, – Б. 49.

13. Умаров И. Фозил йўлдош ўғлининг “Малика айёр” достони лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2020. – 175 б.

14. Эшмуратов А.М. “Холдорхон” достонининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианти асосида). – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Жиззах, 2021. – 180 б.

15. Ходжиев Ю.Н. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2020. – 131.

16. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Наманган, 2021. – 49 б.

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALARNING MEHNAT TARBIYASI

Laylo Nurmuhamedova,
Toshkent davlat pedagogika
universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar tarbiyasi bugungi kundagi eng dolzarb masaladir. Inklyuziv ta’lim jarayonlarida mutaxassis pedagoglarning o‘rni salmoqli. Ona va bolalarning sog‘ligi har narsadan ustun bo‘lib turgan mazkur vaqtlarda jamiyat ham birday harakat olib bormoqda. Alohida ta’lim ehtiyoji bor bolalarning ta’lim olishi bilan birga mehnat tarbiyasini ham olib borish lozim. Maqolada mehnat tarbiyasi masalasi yoritilgan. Mehnat tarbiyasini amalga oshirish shakllari, bosqichlari ham tahlil qilingan. Ixtisoslashgan maktablarda o‘qitilayotgan texnologiya darslarining sifat va samaradorligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *faoliyat, maxsus maktab, ta’lim, mehnat, jarayon, qaror, o‘quv materiali, samara, usul.*

Аннотация

В данной статье образование детей с особыми образовательными потребностями является наиболее актуальной проблемой на сегодняшний день. Педагоги-специалисты имеют место в процессах инклюзивного образования. В наше время, когда здоровье матерей и детей превыше всего, общество также прилагает согласованные усилия. Наряду с обучением детей с особыми образовательными потребностями необходимо осуществлять трудовое воспитание. В статье освещена проблема трудового воспитания. Также анализируются формы и этапы реализации трудового воспитания. Были рассмотрены качество и эффективность преподавания технологии в специализированных школах.

Ключевые слова: *деятельность, специальная школа, обучение, работа, процесс, решение, учебный материал, эффект, метод.*

Annotation

In this article, education of children with special educational needs is the most urgent issue today. Specialist pedagogues have a place in inclusive education processes. In these times, when the health of mothers and children is above all else, the society is also making a concerted effort. Along with the education of children with special educational needs, it is necessary to carry out labor education. The article covers the issue of labor education. Forms and stages of implementation of labor education are also analyzed. The quality and effectiveness of the technology classes taught in specialized schools were reviewed.

Keywords: *activity, special school, education, work, process, decision, educational material, effect, method.*

Maxsus ehtiyojli bolalarni to‘laqonli ta’lim olishi jamiyat qo‘llab-quvvatlashi, ularni sog‘lomlar qatorida jamiyatga uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni Davlatimizning bir qator qonun va qarorlarida qayt etilgan.

Hozirgi kunda, Prezidentimiz tashabbusi bilan Davlatimizda ona va bola sog‘lig‘ini tiklash, nogiron, zaif va boshqa nuqsonlar bilan tug‘ilgan bolalarga ta’lim – tarbiya berish, ularni jamiyatga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash uchun g‘amxo‘rlik qilinmoqda. Maxsus ehtiyojli bolalarni to‘laqonli ta’lim olishi jamiyat qo‘llab-quvvatlashi, ularni sog‘lomlar qatorida jamiyatga uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni davlatimizning bir qator qonun va qarorlarida qayt etilgan.

So‘nggi yillarda respublikamizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jumladan, mehnatga o‘rgatish faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ko‘mak berish kabi vazifalar belgilandi [1].

Maxsus maktab internati faoliyatining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida insonning hayoti va o‘quvchilarning mustaqil, o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini va oddiy mehnat malakalari o‘zini-o‘zi belgilash jarayoni sifat jihatidan turli xil xususiyatlarga ega bo‘lib, ta’lim maktabiga o‘z taqdirini o‘zi belgilash talablarini sezilarli darajada qo‘yadi. Mehnat — insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o‘ziga kerak bo‘ladigan moddiy yoki ma’naviy ne’matlarini ishlab chiqarish (yaratish) bo‘yicha ongli, maqsadli va taqiqlanmagan faoliyatidir. “Mehnat” so‘zi bir qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Hayot davomida inson ko‘p vaqt, aniqrog‘i har kuni ishlaydi. Mehnat tarbiyasi aqli zaif bolalarda oiladan boshlanadi, ota-onalar farzandlariga kiyinishni, ovqatlanishni, idishlarni yuvishni, narsalarni tozalashni o‘rgatadi, ota-onalar farzandlariga tashqi dunyo bilan tanishishimiz uchun foydali bo‘lgan hamma narsani o‘rgatadilar. Har bir ota-ona farzandini mehnatkash qilib tarbiyalashga intiladi. Aynan mehnat faoliyati va uning avloddan avlodga o‘tishi mehnat faoliyati tajribasini saqlab qolgan va shu bilan birga ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashni ta’minlagan. Maxsus maktab internati boshlang‘ich sinf yoshidagi yetakchi faoliyat – bu o‘quv faoliyatidir. O‘quv faoliyati jarayonida aqli zaif o‘quvchi, ehtimol, qisqa vaqt

ISSN 2181-8274

ichida asosiy ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishi kerak. Shu bilan birga, aqli zaif o‘quvchi o‘zi uchun yangi ilmiy tushunchalar mazmunini o‘zlashtirish bilan birga, u uchun yangi faoliyat turi — o‘rganish usullarini asta-sekin o‘zlashtiradi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarda mehnat ta’lim jarayonida aqli zaif o‘quvchilarda axborot bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, mehnat ta’lim sifatini oshirish orqali bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishini ta’minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo‘lga qo‘yish faoliyatimizning bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i darkor. Shuning uchun xam mamlakatning barcha jabhalaridagi taraqqiyotni ta’minlash, aholining turmush tarzini yanada yaxshilash, barkamol farzandlarni voyaga yetkazish kabi ezgu va yuksak maqsadlarga erishishi uchun O‘zbekiston Respublikasi farmoni bilan tashkil etilgan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da Farmonida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning asosiy vazifalari belgilangan.

Darhaqiqat, bilim cho‘qqilarini egallagan, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qodir inson Vatani, o‘z yurtdoshlari uchun ijobiy mazmundir. Aynan ana shu natijalar aqli zaif o‘quvchilarda ko‘zda tutilib, butun ta’lim-tarbiya tizimini axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘ziga xosligi sayqal berib turadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasida “Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi” deyilishining o‘zi xam jamiyatimizning g‘oyatda insonparvarligidan dalolatdir [1].

Bugungi kunda, ayniqsa, ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli xildagi texnik vositalar ishlab chiqilmoqda yoki ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish uchun moslashtirilmoqda. Ushbu texnik vositalariga avvallari magnitofon, televizor kabi bir qator vositalar kirgan bo‘lsa, bugungi kunda ular o‘rnini videoproyektor, kompyuter, kompyuter ekranlari kabi zamonaviy texnik vositalar egallamoqda. Texnik vositalar deganda faqatgina yuqorida keltirib o‘tilgan vositalarnigina tushunmasligimiz lozim. Texnika vositalari qaysi fanda qo‘llanilishiga qarab turli tuman bo‘lishi mumkin.

Mehnat jarayonida ko‘rsatib o‘tilganidek, faoliyatni boshqarish va faollashtirish jarayonlarini rivojlantirishga olib keladi. Ta’limda – bu avvalo, umumlashgan o‘quv va mehnat malakalarini shakllantirish bo‘lib, ular bolaning rivojlanish darajasini aniq bilim, ko‘nikma va malakalardan ko‘ra ko‘proq aks ettiradilar. Umumlashgan ko‘nikmalarga faoliyat maqsadini shakllantirish, ish uchun zarur ma’lumotlarni yig‘ish, maqsad bilan bog‘liq tajribani dolzarb(aktual)lashtirish, o‘quv topshirig‘ini fikran hal qilish (rejalashtirish) kiritiladi. Amaliy topshiriqni bajarish vaqtida faoliyatning boshqaruvchi va faollashtiruvchi komponentlari bo‘lib, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash, his-tuyg‘uni boshdan kechirish, irodaviy intilishlar xizmat qiladi. Shu tariqa, ta’limda korreksiya faoliyatning motivatsion, emotsional-irodaviy, sensor, aqliy komponentlariga, bolaning mos sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Mehnat, yozish, rasm chizishni o‘rgatish uchun va jismoniy tarbiyalash uchun, shuningdek, o‘quvchilarning motorikasi kamchiliklarini korreksiyalash ham muhim hisoblanadi.Umumlashgan o‘quv va mehnat ko‘nikmalari rivojlanganligi ko‘rsatkichi bo‘lib o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi mustaqillik darajalari xizmat qiladi. Ammo tabiiyki, mazkur ko‘rsatkichlar bilan bola to‘g‘ri natijalarni olishi kerakligi sharti bilangina foydalanish mumkin. Mustaqillik rivojlanish mezoni sifatida, boshlang‘ich ma’lumotlarni muayyan darajada o‘zgartira olish va faoliyatning yangi shartlarini inobatga olishni talab etadigan o‘quv topshiriqlarini bajarishda namoyon bo‘ladi.Shu tariqa, ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatdagi korreksion ish — bu ta’limning shunday tashkil etilishini anglatadiki, u o‘quv faoliyatining boshqaruv va faollashtirish jarayonlarini rivojlantirishni qo‘zg‘atadi va bu asosda aqli zaif o‘quvchilarning ta’limdagi imkoniyatlarini oshiradi. Bundan korreksiyani, bir tomondan, aqli zaif bolaning rivojlanish yo‘li sifatida, boshqa tomondan — o‘quv materialini samaraliroq o‘zlashtirilishini ta’minlovchi usul sifatida tushunish mumkin. Mehnat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi maqsadlarga nisbatan doimiylik xos, chunki faoliyatni boshqarish va faollashtirishning shakllanganligini ifodalovchi nisbatan kichik guruh sifatlarining rivojlanishini har bir mashg‘ulotda amalga oshirish zarur. O‘qitish jarayonida yangi o‘quv materialiga o‘tishda, odatda, korreksion maqsadlarning butunlay o‘zgarishi emas, balki ulardan birortasining ustunligining o‘zgarishi sodir bo‘ladi. masalan, texnologiya darslarida buyum ustida ishlashning eng avvalida o‘quvchilar asosiy texnologik operatsiyalarga kirishmay, uning tuzilishi bilan tanishadilar.

Ammo mazkur jarayonni nazariy asoslash va mehnat ko‘nikmasini shakllantirishda axborotlashtirish jarayonini didaktik ta’minlash masalalari yetarli ishlab chiqilmagan. Umumta’lim maktablar singari ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatda o‘qitish jarayoni ko‘rsatib o‘tilgan uchta funksiyani amalga oshiradi, ammo aqli zaif bolalarni o‘qitishda rivojlantiruvchi funksiya ahamiyatli xususiyatlarga egadir. Ulardan asosiysi, mazkur funksiya o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvida egallagan o‘rniga bog‘liqdir. Agar o‘qitishning ta’limiy va tarbiyaviy funk-

siyalari rivojlanishning shakllangan ma’lum darajalariga tayansa, rivojlantiruvchi funksiya esa bolaning ta’lim olishdagi rivojlanishi uchun ichki sharoitlarni yaratadi. Uning yaqin rivojlanish sohasi mazkur sharoitlarga tayangan holda, yangi materialni qamrab oladi va yanada yuqori darajadagi haqiqiy rivojlanish sohasiga o‘tadi. Ammo aynan yangini o‘zlashtirishda aqli zaif o‘quvchilarning ta’limdagi asosiy kamchiliklarini namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatdagi ta’lim jarayonining samaradorligi o‘quvchilar faoliyatining ichki sharoitlari — ularning ehtiyojlari, qobiliyatlari, tajribalari, o‘quv faolliklariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. O‘qitishning rivojlantiruvchi funksiyasi bunday vazifani hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internat sharoitida korreksion xarakterga egadir.

Texnologiya darslarni tashkil etishning asosiy shartiga o‘qituvchining korreksion maqsadlarni ajratishni bilishi kiradi. Uni rejalashtirishda mazkur maqsadlar o‘qitish metodlari va usullarini aks etishi kerak. Masalan, ta’limiy maqsadni qo‘yishda — amalga oshiriladigan ishning yakuniy natijasi obrazini o‘quvchilarni shakllantirish, o‘qituvchi korreksion maqsadni — o‘quv topshirig‘ini tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Buning uchun u darsda buyum tahlili algoritmi, topshiriqni o‘zlashtirish to‘g‘risida xotirasi bo‘yicha og‘zaki hisobot, tayyorlov ishlarini bajarish (jadvallar), ish maqsadini o‘zlashtirish nazoratini tashkil qiladi va hokazolar. Faoliyatning dastlabki bosqichini o‘tkazish metodikasi, bir tomondan, aniq maqsad obrazini shakllantiradi, boshqa tomondan — topshiriqni tushunish umumlashgan ko‘nikmasini takomillashtiradi va faoliyat maqsadini batafsil o‘zlashtirmasdan ishga kirishmaslik odatini tarbiyalaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktab, maktab internatlarida amaliyotli o‘qitishning ta’limiy vazifalaridan ajralgan holda o‘tkaziladigan korreksion mashqlarning samarasizligini ko‘rsatdi, chunki bu o‘quvchilarning alohida ruhiy xususiyatlarini ularning tarkibiy aloqadorligidan tashqarida rivojlantirishga urinish edi. Bunday o‘qitish faoliyatning boshqaruvchi jarayonlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmaydi. Bundan tashqari, u o‘qitish motivatsiyasining rolini inobatga olmagan.Mehnat ko‘nikmalari va amaliy malakalarni shakllantirish bilan bog‘liq maxsus pedagogikada ishlab chiqilgan ilmiy yo‘nalish, so‘nggi vaqtlarga qadar ko‘proq aqli zaif bolalarni kasbiy mehnatga o‘rgatish bilan bog‘liq edi [2, 12].

Oligofrenopedagogikada mehnat faoliyati an’anaviy ravishda aytib o‘tilgan toifa bolalarining rivojlanishdagi nuqsonlarini bartaraf etishning zaruriy sharti sifatida qaralgan. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarida mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish tarbiyaviy vazifalarni hal qilish bilan birga erishiladi. O‘z navbatida, mazkur muassasalar o‘quvchilariga tarbiyaviy ta’sir o‘quv va sinfdan tashqari ishlarning birligi, uyg‘unligi bilan ta’minlanadi. Inson faoliyatining barcha ko‘rinishlari maqsadga yo‘nalganlik va onglilik bilan tavsiflanishini ta’kidlab o‘tish lozim. Mehnat faoliyati muayyan motivlar bilan qo‘zg‘atiladi va ongli maqsadlarga erishishga yo‘naltiriladi. U xatti-harakatlar orqali amalga oshiriladi [3, 69]. Mehnat faoliyati motivlari — bu uni qo‘zg‘atuvchisi, uning uchun maqsadlarga erishiladi, Mehnat faoliyatining barqaror motivlar tizimi uning motivatsiyasini tashkil etadi [5, 212]. Mehnat faoliyati motivatsiyasida doimo inson mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ifodalanadi. Inson ongida topshiriq obrazi mavjud bo‘lishi, u ish jarayoniga talablarni bilishi, ma’lum rejaga amal qilishi, olingan natijalarni nazorat qilishni bilishi, zarur hollarda, o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi zarur, ya’ni kengaytirilgan ko‘rinishda mehnat faoliyati quyidagi qator bosqichlardan tashkil topadi: Boshlang‘ich bosqich — faoliyat maqsadini anglash, qo‘shimcha ma’lumotlarni shakllantirish — dastlabki materiallar to‘g‘risida, ish uchun zarur mehnat qurollari to‘g‘risidagi tasavvurlar va bilimlar. Bularning barchasi topshiriqdagi dastlabki yo‘nalish hisoblanadi. Ixtiyoriy mehnat topshirig‘ini bajarish ma’lum ketma-ketlikda bajarish — borishini va amalga oshiriladigan ish mazmunini rejalashtirish. Ishni rejalashtirishdan keyin bevosita uni bajarish amalga oshiriladi. Mehnat topshirig‘ini bajarishning barcha bosqichlarida ishchi o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi va olingan natijalarni andoza bilan solishtirishi, ya’ni o‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshirishi kerak. Bu maqsadga yo‘naltirilgan mehnat faoliyatining zaruriy shartidir. O‘z-o‘zini nazorat qilish natijalaridan foydalanib, inson o‘z faoliyatiga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritishi mumkin, uni qo‘yilgan maqsadga mos ravishda boshqarishi mumkin [4, 15].

Mehnat faoliyatining ixtiyoriy ko‘rinishini egallash muayyan bilimlar, mehnat ko‘nikmalari va malakalarini egallash bilan bog‘liq. Bundan tashqari, mehnat faoliyati tarbiyaning zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Aqli zaif bolalar mehnat faoliyatining didaktik asoslari. Aqli zaif bolalarni o‘qitishda pedagoglar duch kelgan qiyinchiliklar, bu bolalarga xos bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish kerakligi va shu orqali ularning o‘quv imkoniyatlarini oshirish zarurligi to‘g‘risidagi fikrga doimo olib kelgan. Oligofrenopedagogika tarixidan ma’lum bo‘lgan korreksion vazifalarni hal qilish bo‘yicha dastlabki urinishlar, shaxsning ma’lum sifatlari mavjud bo‘lishi va ularni rivojlantirib (masalan, irodani), aqli zaif bolaning o‘qish qobiliyatini yaxshilash va bu bilan uning umumiy rivojlanish darajasini oshirish mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oyaga asoslangan edi. Psixologik tadqiqotlar bu g‘oyaning noto‘g‘ri ekanligi ko‘rsatdi, chunki u insonning psixik xususiyatlarining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bog‘liqlikni inobatga olmagan. Aqli zaif o‘quvchilar bilan korreksion ish yo‘llarini tanlashda insonning rivojlanishi uning faoliyatida amalga oshirilishi qoidasidan kelib chiqish zarur.

Xulosa qilib aytsak, korreksion ishning obyekti

ISSN 2181-8274

o‘quvchilar faoliyati bo‘lishi va birinchi navbatda, uning aqli zaiflikdagi eng buzilgan jarayonlari bo‘lishi kerak. Texnologiya darslari aqli zaif bolalarni mehnat va bilish faoliyatida nuqsonlarini korreksiyalash uchun qulay sharoit yaratib beradi. Texnologiya darslarida fikrlash jarayonlarining rivojlanishi o‘quvchilarning faqatgina o‘qituvchining buyrug‘inigina emas balki o‘z xohish va rejalari bo‘yicha ish ko‘rish bilan tushuntiriladi. Mehnat jarayonida aqli zaif o‘quvchilarning axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalari bilan bog‘liq. Shunday qilib, ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatda mehnat ta’limi – fani oddiy predmetlaridan biri sifatida, uning ahamiyati keng va u o‘quvchilarning keyingi taqdiriga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–57-sonli qarori.

2. L.Sh.Nurmuxamedova. “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari”. P.f.n. diss. Avtoref. – T., 2005-yil, – 46 b.

3. Muminova L., Nurkeldiyeva D. Pedagogik-psixologik diagnostika. – T.: ILM ZIYO, 2012. – 250 b.

4. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped. fan. nom. diss. avtoref. – T.: TDPU, 2005. – 49 b.

5. Nurmuxamedova L.Sh. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 228 b.

AQLIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI IJTIMOIY MAISHIY HAYOTGA TAYYORLASHDA TARBIYAVIY JARAYONDA MOSLASHTIRISH YO‘LLARI

Dilfuza Anvarova,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Oligofrenopedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar jamiyatga integratsiya qilish va mustaqil hayot kechirishda o‘ziga xos muammolarga duch kelishadi. Ushbu maqolada ushbu bolalarni ijtimoiy maishiy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlash uchun ta’lim jarayonida moslashishning turli usullari ko‘rib chiqiladi. Moslashtirilgan ta’lim yondashuvlari, terapevtik aralashuvlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot aqliy rivojlanish nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun hayot sifatini yaxshilash uchun samarali strategiyalarni yoritadi. Ushbu bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlarini tushunish va hal qilish ularning avtonomiyasi, ijtimoiy integratsiyasi va umumiy farovonligini oshirish uchun juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy hayotga tayyorlash, asosiy shaxsiy sifatlar, defektolog, tarbiyachi.*

Аннотация

Дети с дефектами умственного развития сталкиваются с уникальными проблемами при интеграции в общество и ведении самостоятельной жизни. В данной статье рассматриваются различные способы адаптации в рамках образовательного процесса для формирования у этих детей навыков, необходимых для социально-бытовой жизни. Изучая индивидуальные образовательные подходы, терапевтические вмешательства и системы социальной поддержки, это исследование проливает свет на эффективные стратегии повышения качества жизни детей с дефектами психического развития. Понимание и удовлетворение конкретных потребностей этих детей имеет решающее значение для содействия их автономии, социальной интеграции и общему благополучию.

Ключевые слова: *подготовка к общественной жизни, основные личностные качества, дефектолог, педагог.*

Annotation

Children with defects in mental development face unique challenges in integrating into society and leading independent lives. This article examines various ways of adaptation within the educational process to equip these children with the skills necessary for social domestic life. By exploring tailored educational approaches, therapeutic interventions, and societal support systems, this study sheds light on effective strategies to enhance the quality of life for children with mental developmental defects. Understanding and addressing the specific needs of these children is crucial for fostering their autonomy, social integration, and overall well-being.

Keywords: *preparation for social life, basic personal qualities, defectologist, educator.*

Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda orqali bolalarning asosiy shaxsiy sifatlaridan xarakter, irodani tarbiyalab borish mumkin. Bolalar ijtimoiy tarbiya muassasalari tarmog‘ining kengayishi va davlat tomonidan oilaga ko‘rsatiladigan xilmaxil yordam, oilani tarbiyaviy ishdan ozod qilishini anglatmaydi. Bolalar tarbiyasida ota-onalar ishtiroki borgan sari ortib boradi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida ota-onalar tarbiya masalalariga amaliy qiziqish bildirib, o‘zlarining mamlakat va xalq oldida ijtimoiy va fuqarolik burchlarini chuqurroq anglamoqdalar [1, 75].

Birgalikda olib borilgan faoliyat davomida sheriklarining o‘zaro muloqotga qiziqishni aqli zaif o‘quvchilarning keyingi bosqichga o‘qishga imkoniyat yaratadi: muloqotning ish yuzasidan bo‘lgan ko‘rinishi shaxsiy ish muloqotiga aylanishiga shart-sharoit tug‘iladi. O‘zi haqidagi tasavvurlarni aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish o‘z tashqi ko‘rinishining xarakterli belgilarini ajratish o‘z familiyasini bilish va aytish; o‘z oilasi haqida(oilasining familiyasini bilish, ota-onasi kasbini bilish); kundalik muloqotdagi yaqin kishilar haqida; sinfdagi tengdoshlari haqida (ularning ism-sharifini bilish, tashqi ko‘rinishidagi xarakterli belgilarni ajratish); maktab xodimlari haqida o‘qituvchini ismi va sharifi bilan aytish; defektolog, tarbiyachi, hamshirani, musiqa rahbarini ismi va sharifini aytish; ularning faoliyatini kasbiga bog‘lab aytib berish. Kundalik muloqotda yaqin bo‘lgan kishilarning o‘zaro munosabatlari haqida tasavvurlarini shakllantirish (oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish, tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, jamoa bilan ishlashda, o‘z harakatlarini tengdoshlari harakati bilan muvofiqlashtirish; o‘z xulqini pedagog talabiga bo‘ysundirishga o‘rgatish) [2, 193].

Katta e’tibor o‘quvchilarning kattalar bilan ishchan munosabatlarini rivojlantiruvchi ahamiyatiga, o‘quvchilarning o‘zi haqida faoliyat subyektda taassurot shakllanishiga, keyinchalik shaxsning subyektiv qimmatini oshirishga sharoit yaratishga qaratiladi [3, 78].

Inson tashqi ko‘rinishi haqidagi ongli tasavvur shakllantirish bosqichida uni maqsadga yo‘naltirilgan holda idrok qilishga ahamiyat beriladi. Bunda ko‘zgu va suratlar (bolalarning o‘zlari, tengdoshlari, qarindoshlari, kundalik muloqotda yaqin kishilari)dan keng qo‘llaniladi. Bu bosqichda insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlar axloqiy normalar va inson his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq ijtimoiy va emotsional tajribani yig‘ish, umumlashtirish va mustahkamlashga yo‘naltiriladi.

Hissiy qulaylik yaratilishi u o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga ijobiy ta’sir o‘tkazib, ularning axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilarda hamdo‘stlik, ijtimoiy xulq va mehrli o‘zaro munosabatlar shakllanadi. Aqli zaif o‘quvchilarda ijtimoiy hodisalar haqidagi bilim va tasavvurlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ular o‘quvchini atrof olam bilan o‘zaro faol aloqasi asosida shakllanadi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida kattalar bilan muloqot qilish o‘quvchilar nutqida qayd qilingan hissiy hayotiy tajribalar boyitish natijasida shakllanadi.

Ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o‘quvchilar o‘yinida jamoaning o‘zaro munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yindagi personajlar o‘rtasidagi munosabatlarini aks ettirish jarayonidagi pedagogning rahbarlik va tashkilotchilik vazifasi bolalarning kelgusidagi faoliyatining boshqa turlari va kundalik muloqotdagi o‘zaro munosabatlarini belgilaydi. Aqli zaif bolalarning o‘zi haqidagi o‘z ehtiyojlari va organizmining funksiyalari haqidagi tasavvurlarning yig‘ish va differensiya qilishda maxsus vositalarning kiritilishi, unga faoliyatning barcha turlarida o‘z tengdoshlari bilan muloqot jarayonini yaxshilash imkonini beradi.

O‘quvchilarning so‘z bilan mustahkamlangan va jamoa faoliyati turlarida orttirilgan ijtimoiy tajriba, ularning insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar haqidagi bilimini boyitadi. O‘quvchilar insoniy munosabatlar to‘g‘risidagi bilim va taassurotlar maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan, shuningdek vositalar orqali tashkil qilingan ijtimoiy tajribalar (kitoblar o‘qish, ertaklar, kinofilmlar namoyishi, multfilmlar, radio eshittirishlarni eshitish) orqali to‘planadi. Kattalar mehnatini kuzatish davomida bolalar tajribasini maxsus tashkil qilish quyidagicha tajribada amalga oshirilishi mumkin: suhbat, kuzatish, tajribani bolalar so‘zlab berishi, kichik matnlarni eshitish, syujetli rolli o‘yin tashkil qilish [4, 16].

E’tibor ko‘rsata bilish, qayg‘urish, g‘amxo‘rlik qilish munosabatlarni tarbiyalashda muvaffaqiyatli shakllanadi. Ana shu asosda boshqa kishilarga nisbatan ijobiy munosabatlarni tarbiyalash mumkin.

O‘quvchilarga kasblarning nomini (enaga, qorovul) tushuntirish maqsadida maxsus mashg‘ulot uyushtiriladi: Mashg‘ulot davomida bolalar pedagogning “Bularning hammasini kim qildi?”, “Enaga nima uchun kerak?”, “U nima ish qildi?” kabi savollarga javob beradilar.

Shofyorning kasbi tasavvur hosil qilish uchun avtomobilni boshqarish haqida elementar ma’lumot beriladi. Bajariladigan asosiy harakatlarni nomlarini aytishni mashq qildiradi. O‘quvchilarning olgan bilimlari mustaqil o‘yinlar jarayonida mustahkamlanadi.

O‘quvchining mehnat qurollari haqidagi tasavvurlari “Bil va nomini ayt”, “Kimga nima kerak” didaktik o‘yinlarda mustahkamlanadi.

O‘quvchilar transport vositalari va ularning vazifasi haqida tasavvur hosil qilishlari, ularni bilishi va aytib bera olishlari kerak. Shu maqsadda transport harakatini kuzatish tegishli o‘yinchoqlar va rasmlarni qarab chiqish uyushtiriladi. “Bil va nomini ayt” tipidagi didaktik o‘yin mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga tayyor shakllardan avtomobil yasashni tavsiya qilish mumkin.

O‘quvchilarni atrof muhit bilan tanishtirish ishida darslardan bo‘sh vaqtlarga katta o‘rin beriladi. O‘quvchilarning e’tiborini doimo ularning tevarak atrofdagi

kattalar mehnatiga qaratib turish zarur. Tajribali pedagog o‘quvchilarga mazali ovqatlar oshpaz tomonidan tayyorlanganligini, enaga deraza oynasini yuvib artganligi uchun guruh xonasi ozoda va yorug‘ bo‘lib qolganligini aytadi, yangi ko‘ylakni kiyib kelgan qizchani payqaydi, ko‘ylakni uning onasi tikkanligini bolalarga tushuntiradi. O‘quvchida u yoki bu mehnat turining mazmuni haqida dastlabki tushunchalarining shakllana borishi bilan bir vaqtda o‘z atrofidagilarga nisbatan ijobiy munosabatning, ularga ko‘maklashish istagining hosil bo‘lishi juda muhim ahamiyatga ega [5, 46].

Pedagog shu maqsadni ko‘zlab o‘quvchilarga uchastkani supurishda farroshga, tarbiyachiga yordam berishni taklif etadi. Pedagog bolalar bilan individual suhbat o‘tkaza borib, ular bilan birga rasmlarni ko‘rib chiqadi, tasvirlangan odam nima ish qilayotganini aytib berishni so‘raydi, mehnat qiluvchi har bir kishiga nisbatan o‘zining hurmatini ta’kidlaydi.

Har doim maqsad turg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi bo‘la olmaydi. Masalan, o‘smirlarning qonunbuzar guruhlarini jamoa deya olmaymiz. Demak sistemali aloqa, ayrim umumiy maqsadning bo‘lishi jamoa bo‘lish uchun yetarli emas ekan. Jamoa haqida darslikda quyidagicha ta’rif berilgan. “Ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan maqsad asosida, shu guruh a’zolarining yagona faoliyatga birlashishlari, o‘zaro munosabatda, bir-birlariga bog‘liq bo‘lishlari, o‘zaro javobgarliklari, ular burch va huquqlarining tengligiga asoslangan shaxslar guruhiga jamoa deyiladi. Jamoa o‘z rahbar organlarini saylaydi, boshqa jamoalar bilan yaqin aloqada bo‘ladi”.

Jamoa manbalari turli-tuman faoliyat turlari bo‘lishi mumkin. Bularga mehnat, o‘yin, o‘qish, ommaviy madaniy ishlar, sport, estetik faoliyat, maishiy topshiriqlarni bajarish kiradi. Ularga qo‘yiladigan talablar esa jamoa faoliyatining ijtimoiy foydali yo‘nalishi, jamoa a’zolari imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishidir.

Muntazam o‘sib boruvchi, olg‘a harakat quluvchi, borgan sari murakkab hayot faoliyati tajribalarini egallab boruvchi jamoagina haqiqiy shaxsning barkamol o‘sishini ta’minlaydigan jamoa bo‘la oladi, jamoaning muvaffaqiyati asosan birlamchi, son jihatdan eng kichik jamoaga bog‘liq. Bu yerda o‘quvchilar kundalik faoliyat bilan birbirlariga bog‘lik bo‘lib, izchil muloqotda bo‘ladilar.

Haqiqiy jamoa bo‘lish uchun ma’lum vaqt talab etiladi hamda ma’lum bosqichlar bosib o‘tilishi kerak. Birinchi bosqichning asosiy vazifasi jamoa manfaatlarini to‘g‘ri tushunadigan, idrok etadigan o‘quvchilarni aniqlashdan iborat. Kelgusida shu o‘quvchilar jamoaning o‘zagini tashkil etadi. Demak, bu bosqichda o‘quvchilarni yaxshilab o‘rganish ham kerak. Jamoada umumiy intizomning qaror topishi bilan birinchi bosqich yakunlanishi mumkin.

Jamoaning yaxshi a’zolari defektologning talablariga bo‘ysunadilar. Ammo, tashqaridan intizomli bo‘lib ko‘ringan o‘quvchilar pedagogik ishlarimizning asosiy maqsadi emas. Bu bevosita keyingi izchil ishlarimizga poydevor bo‘la olishi mumkin. Shu tariqa jamoaning shakllanishida ikkinchi bosqich boshlanadi. A.S.Makarenkoning ta’kidlashicha, bu bosqichda bolalar faollari jamoaga talablar qo‘ya boshlaydi. Demak, jamoada pedagogik rahbarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmay, balki faollar orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichdagi jamoa shunchaki yuzaki, maqsadsiz birlashgan o‘quvchilar emas, balki o‘zlarining hayotiy masalalarini mustaqil yechadigan bolalar guruhidir. Bu bosqichda faollar bilan, o‘z-o‘zini boshqarish a’zolari bilan, birlamchi jamoa bilan zarur pedagogik ishlarni amalga oshirish kerak. Faollar bilan ishlashning mohiyati shundan iboratki, ulardan defektolog, tarbiyachilarning talablarini quvvatlashgina emas, balki butun sinfni o‘z orqalaridan yetaklay bilish talab etiladi. Bunday murakkab vazifani bajarish oddiy ish emas. Buning uchun qat’iy birlashgan, fikrlar birligiga ega bo‘lish kerak.

Shu taxlitda faollarning jamoa hayotidagi roli ortib boradi. Yordamchi maktab hayotida aslida birinchi va ikkinchi bosqichlar bir-birlariga aralashib, kirishib ketadi. Ammo, bu bosqichda asosiy e’tibor faollarda prinsipiallik, ijtimoiy faollik, jamoa ishiga sodiqlik tarbiyalashga qaratilishi lozim. Birlamchi jamoani to‘g‘ri tashkil eta olish keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyat garovidir. Shunday qilib, jamoa tarbiyalashdagi ikkinchi bosqich murakkab bosqich bo‘lib, o‘z-o‘zlarini boshqarishga o‘tish bilan belgilanadi.

Jamoaning rivojlanishidagi uchinchi bosqich o‘zi ning sermahsulligi, asosiy bosqich ekanligi bilan ajralib turadi. O‘zaro faoliyatda qatnasha turib, o‘quvchilar jamoa ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirib boradilar. Jamoa faoliyati umumiy maqsad asosida bajarilayotgani uchun o‘quvchilarning o‘zlari tashkilotchilar sifatida harakat qiladilar. Faoliyat natijasida umumiy javobgarlik, umumiy munosabat yuzaga keladi.

Bu bosqichda jamoa o‘z talablarini har bir alohida shaxsga qaratadi. Bundan alohida shaxsni qiynash, unga tazyiq o‘tkazish fikri kelib chiqmasligi darkor. Lekin bu hol ba’zan uchrab turadi. Har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rni, uning xulqi, qiliqlari jamoa talablari bilan belgilanadi. Voqealarga baho berishda umumiy tajriba, yagona fikrning yuzaga kelishi uchinchi bosqichning xarakterli belgisidir. Umumiy ishlarga qiziqish, birgalikdagi harakatlarga tayyor turish shu bosqichga xosdir. Bu bosqichdagi pedagogik ishlar asosan ikkita bir-biriga bog‘liq vazifani hal etadi. Bularga ijtimoiy, umumiy fikr va an’analar tarbiyalash kiradi. Jamoada an’analarning borligi shu bosqichning shakllanganligidan darak beradi. Uning umumiy tarbiya jarayonida ahamiyati nihoyatda katta. haqiqiy an’analar qiyinchiliksiz, oson amalga oshiriladi. Agar an’analar buzilsa, unga nisbatan qoniqmaslik holatlari kuzatiladi.

Qator an’analar faqatgina mohiyati bilan o‘quvchilar diqqatini jalb etib qolmasdan, balki jonliligi, rangdorligi bilan ham bolalarni o‘ziga tortadi. Jamoadagi an’analar

jamoa hayotiy tajribalarining chuqurligi, darajasini bildiradi. Shu sababli an’analarni sun’iy ravishda kiritish mumkin emas.

Jamoa taraqqiyotidagi to‘rtinchi bosqich bevosita uchinchi bosqich davomi hisoblanadi. Har bir o‘quvchi jamoaga tajribasi asosida o‘ziga talablar qo‘yadi. Jamoaning axloqiy normalarini bajarish har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojiga aylanadi. Tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘tadi. Jamoa hayotini shunday tashkil etish kerakki, uning har bir a’zosi o‘z qobiliyatlarining maksimal ro‘yobga chiqishiga harakat qilsin.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, bolalar, bolalar jamoasini ijtimoiy hayotga tayyorlash va tarbiyalash uzoq vaqt talab etadigan pedagogik jarayon ekan. Maxsus maktabgacha muassasalardagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishda ham jamoa juda katta ahamiyatga ega. Aqli zaif o‘quvchilar shaxsini tarbiyalashda jamoa katta imkoniyatlarga ega. Normal o‘quvchilar bilan olib boriladigan jamoaga oid barcha ishlar, yordamchi maktablarda qator obyektiv sabablarga ko‘ra amalga oshirilmaydi. Defektolog, tarbiyachilar har bir bolaning psixofizik imkoniyatlarini bilgan holda uni jamoaga kiritib boradi. O‘quvchilar o‘rtasida o‘rtoqlik vujudga keltirish uchun defektolog, tarbiyachilar ular bilan maxsus ish olib boradilar. Ularni o‘zaro yordamga chaqiradilar, o‘rtog‘i to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatadilar. Ular bilan umumiy o‘yin, suhbatlar tashkil qiladilar, do‘stlik temasiga oid ishlar olib boradilar. Shular natijasida bolalardagi odamovilik, uyatchanlik yo‘qolib boradi. Bolalarda bir-birlariga do‘stona munosabat yuzaga kela boshlaydi. Bolalar jamoat ishlariga jalb etiladilar. Dastlab o‘quvchilarga alohida topshiriqlar berilsa, keyinchalik ijtimoiy topshiriqlar berib boriladi. Shu taxlitda har bir o‘quvchi jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘la boradi. Faol bolalar asta-sekin boshqa o‘quvchilarga ta’sir etishib, ulardan ijtimoiy joylarda intizom, xulq-atvor qoidalariga amal qilishni talab qilib defektolog, tarbiyachilarga yordam bera boshlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Р. Ёшларни оилавиёй ҳаётга тайёрлашда мутахассислар маъсуллиги. “Ўзбекистонда замонавий оила ривожланишининг долзарб масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – 2019. – 74-78 б.

2. Акатов Л.И. Социалная реаблитация детей с ограниченинными возможностями здоровья. Психологоческая основы: Учеб. Пособие для студ.высш. учеб. Заведений. – М.: Гуманит.изд. центр. ВЛАДОС, 2003. – 368 с.

3. Специальная педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб.заведений. Л.И.Аксенова, Б.А.Архипов, Л.И.Белякова и др.под ред. Н.М.Назаровой. – 10-е изд., стер. – М.: Издательский центр “Академия”, 2010. – 400 с.

4. Амирсаидова Ш.М. махсус педагогика фани ривожланишида Шарқ мутафаккирлари ғояларининг ўрни ва роли (Абу Али ибн Сино таълимоти асосида) Пед.фан.ном. ... дисс.автореферат. – Т., 2006. – 50 б.

5. Акрамова Ф.А. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг асосий омиллари ва уларнинг психологик хусусиятлари. Замонавий таълим. – 2015, №10. – 45-52 б.

KOOPERATIV O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

Utkirbek Abdakimov,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada birgalikda o‘qitish jarayoni guruhida ishlash usullari va tartibi, kooperativ o‘qitish texnologiyalari asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning imkoniyatlari, kooperativ ta’lim texnologiyasining asosiy elementlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushi, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv dasturlari va o‘quv uslubiy materiallarni keng joriy etish, mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, bilim, malaka, kooperativ, texnologiya, hamkorlik, mustaqil ta’lim.*

Аннотация

В статье описаны методы и порядок работы в группе, процесс совместного обучения, возможности организации самостоятельного обучения студентов на основе технологий кооперативного обучения, основные элементы технологии кооперативного обучения. Также в системе высшего образования связаны доля самостоятельного

обучения, самостоятельного обучения студентов, критического и творческого мышления, системного анализа, формирования предпринимательских навыков, широкого внедрения образовательных программ и учебных материалов, организации и контроля их самостоятельной работы. теоретическая информация выделена.

Ключевые слова: *образование, знания, навыки, кооператив, технология, кооперация, самостоятельное образование.*

Annotation

The article describes the methods and procedure of working in a group of joint teaching process, the possibilities of organizing independent education of students based on cooperative teaching technologies, the main elements of cooperative education technology. Also, in the higher education system, the share of independent study hours, students’ independent learning, critical and creative thinking, systematic analysis, formation of entrepreneurial skills, wide introduction of educational programs and educational materials, organization and control of their independent work related theoretical information is highlighted.

Keywords: *education, knowledge, skills, cooperative, technology, cooperation, independent education.*

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish jahon talablari darajasida olib borilishi uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshirilayapti. Ushbu masalani amalga oshirishda ta’lim-tarbiya tizimini faqatgina pedagogika-psixologiya fanlarining ilmiy-nazariy asoslari va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar asosida amalga oshirish mumkin. Shu sohadagi yangiliklar bilan aloqada amalga oshirish, kooperativ o‘qitish texnologiyalari asosida faoliyatni tashkil etish yoshlarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qaror toptirishga qaratilgan.

“Kooperativ” so‘zi (inglizcha kooperativdan — hamkorlik qilish, umumiy, o‘zaro) o‘zaro yordam, o‘zaro javobgarlik va albatta, o‘zaro o‘rganish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha “kooperativ” va “guruh” tushunchalarida o‘rtasida jiddiy farq yo‘qligi haqidagi qarashlarni kuzatish mumkin. Bu fikr har ikkala holatda ham *o‘zaro* o‘rganish nazarda tutilganligi, uning asosini kommunikativ usul tashkil etishi sabab bo‘ladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, “guruhda o‘qitish” ta’rifi bo‘yicha **usul,** “hamkorlikda o‘rganish”ni o‘z ichiga oladi. Qo‘shma (*o‘zaro) o‘qitish usullarining* to‘liq ro‘yxatini o‘z ichiga olgan **texnologiyadir**: kommunikativ, o‘yin, muammo, loyiha va shu jumladan guruh sifatida e’tirof etiladi. “Avtonom ta’lim” va “kooperativ ta’lim” tushunchalari adabiyotlarda tobora ko‘proq uchraydigan atamalar sifatida shakllandi. Bilim olish individual jarayon sifatida ko‘radigan o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga kooperativ ta’lim asosida mustaqil ishlashni maslahat berishadi. Ba’zilar biroz oldinga borishadi, talabalar o‘qishda hamkorlikda o‘rganishni joriy etishga harakat qilishadi.

Kooperativ ta’lim so‘zining qisqartmasi bo‘lgan “Co-op” — bu auditoriya nazariyasini bitiruvgacha bo‘lgan amaliy tajriba davrlari bilan muvozanatlashtiradigan dastur hisoblanadi. Hamkorlik dasturi orqali talabalar o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan holda akademik ta’limni to‘liq kunlik ish bilan almashtirishlari mumkin. Birgalikda (yoki hamkorlikda) o‘rganish yondashuvi o‘quvchilarning aniq tayinlangan jamoaviy vazifada ishtirok etishi uchun yetarlicha kichik guruhdagi faoliyat yoki o‘quv vazifalari ustida birgalikda ishlashni o‘z ichiga oladi. [1, 12].

Kooperativ ta’lim dasturi — bu universitet yoki kasb-hunar kollejidagi akademik ta’lim va kasb-hunar ta’limining kombinatsiyasi. Dasturlar odatda bakalavr darajasiga olib keladi. Shuningdek, bir nechta magistratura dasturlari mavjud. Kasbiy ta’lim amaliy ta’limga qaratilgan. Birgalikda o‘qitishning maqsadi har bir guruh a’zosini kuchli shaxsga aylantirishdir. Guruhdan individualga o‘tish juda katta. Talabalar birgalikda o‘rganadilar, shunda ular keyinchalik individual sifatida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Kooperativ ta’lim texnologiyasining asosiy elementlari:

1. Talabalarning ijobiy munosabati.
2. “Yuzma-yuz” o‘zaro ta’sir.
3. Individual hisobot.
4. Guruhda ishlash malakalari.
5. Refleksiya (guruh ishining borishini muhokama qilish) kabilarni tashkil etadi. [2, 12].

Shuni ta’kidlash lozimki, talabalarning samarali nutqiy o‘zaro ta’sirini tashkil qilish uchun ularga kommunikativ vazifa, nutq namunalarini taqdim etish va muloqotga yo‘naltirish yetarli emas. Bizga chet tilida o‘quvchi-talabalarning zarur nutqiy o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan shunday uslubiy usullar zarur. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz:

Birgalikda o‘qitish jarayonida guruhda ishlash usullari va tartibi:

1. *Yaqiningizga murojaat qiling.* Vazifa beriladi javobni tushuntiring va guruhdoshingizga dalil bering. Juftlikda javob shakllantiriladi (o‘qituvchining vazifasiga qarab individual yoki birgalikda), sheriklar o‘z javoblari va dalillarini almashadilar, oldingi ikkita formuladan yaxshiroq bo‘lgan yangi javob yaratiladi. Uyushmalar yordamida g‘oyalar yanada rivojlantiriladi (umumiy javob individual javoblarga qaraganda chuqurroq bo‘lishi kerak). Muvaffaqiyat mezoni — har bir talabaning o‘z javobini tushuntirish qobiliyati, kutilgan natija esa tushuntirish va sintezdir.

2. *Juftlikda monolog nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish*. Muhokama uchun mavzu belgilandi. Hamkorlar bir-birlarini diqqat bilan tinglaydilar va gapirish navbati kelganda, sherikning aytganlarini aytishga ruxsat berilmaydi. Yozuvlar yoki matnlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Turlar 60s, 40s va 20s uchun ishlaydi. Davraning davomiyligi matnning murakkabligi, ma’lumotlar miqdori, guruh darajasi va boshqalarga bog‘liq. Hamkorlar o‘z g‘oyalari yoki ma’lumotlarini butun guruhga taqdim etish yoki keyingi ishda foydalanish uchun yozishlari mumkin. Ushbu strategiya talabalarning nutqiy-kogitativ faolligini oshirish uchun mo‘ljallangan va oldingi ko‘nikmalar va nutq tajribasini yangilash zarur bo‘lganda yaxshi ishlaydi.

3. *“Qatlamli tort”.* Guruh uchtadan kichik guruhlarga bo‘lingan. Matn taqdim etiladi (yozma, og‘zaki yoki video). Ma’lumotni taqdim etish yoki matnni o‘qish vaqti belgilangan. Shundan so‘ng guruhlarda fikr almashish, eslatmalar, tushunarsiz fikrlarga oydinlik kiritish. Guruhlarning o‘zaro maslahatlashuvi mumkin. Yangi ma’lumotni o‘qish, tinglash yoki ko‘rishdan so‘ng, yuqoridagi harakatlar guruhlar ichida takrorlanadi. Ishning yakuniy bosqichi — qolgan noaniq masalalarni jamoaviy tushuntirish.

4. *“Mozaika”.* Matn tanlanadi, u uchun vazifalar tuziladi. Matn ikki-to‘rt qismga bo‘linadi (optimal — uchta). Materiallar guruhlar soniga ko‘ra ko‘paytiriladi va har bir guruhga taqsimlanadi, shunda o‘quvchilarning har biri matn qismlaridan birini oladi. Talabalardan bir xil materialga ega bo‘lgan boshqa guruh a’zosini topish va ikkita vazifani bajarish so‘raladi: birinchidan materialni o‘rganish va ushbu material bo‘yicha mutaxassis bo‘lish va ikkinchidan ushbu materialni o‘z guruhlarining boshqa a’zolariga qanday o‘rgatish kerakligini rejalashtirish. Keyinchalik, talabalardan xuddi shu materialni o‘rgangan boshqa o‘quv guruhi a’zosini topish va ular bilan ushbu materialni o‘z guruhidagi bolalarga qanday qilib yaxshiroq o‘rgatish haqida fikr almashish so‘raladi. Ushbu mashq juftlari ularning har biri xabarni guruhga qanday yetkazishni rejalashtirayotganini muhokama qiladi. Eng yaxshi g‘oyalar umumiy rejaga kiradi. Kooperativ guruhlar o‘quvchilarga boshqa guruh a’zolaridan o‘rganganlarini o‘rgatishlari tavsiya etiladi.

Bugungi kunda kooperativ o‘qitish texnologiyalari asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish zarur bo‘lgan ta’lim turi hisoblanadi. Mustaqil ta’lim — o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat [1, 35].

Tadqiqotlar natijasida talabalarning auditoriyadan tashqarida amalga oshiradigan mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish bilan bog‘liq quyidagi ijobiy jihatlar kuzatildi:

– talabalar orasida mustaqil ishlarni turli amaliy loyihalar hamda kichik tadqiqotlar shaklida bajarishga qiziqish ancha yuqori. Talabalarning qariyb 60 foizi *ijodiy hamda evristik* faoliyatni ustuvor hisoblaydilar, agar yetarli sharoitlar yaratilsa, bu yaqin istiqbolda jamiyatning ilmiy hamda innovatsion rivojlanishi uchun kuchli rag‘bat bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

– professor-o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi talabalar mustaqil ishini asosan *chuqur bilimga egalik, ijodkorlik* hamda *mustaqillik* mezonlari asosida baholaydilar. Bu talabalarning mustaqil ishidan kutilayotgan muhim kompetensiyalarni aksariyat o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri anglab olinayotganidan darak beradi;

– aksariyat o‘qituvchilar talabalarning auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarni bajarishlarida ular bilan muntazam aloqada bo‘lib, zarur *maslahat hamda yo‘l-yo‘riqlar berib bormoqdalar.* Bu talabaning mustaqil o‘qib-o‘rganishidagi mavjud kamchiliklar hamda nuqsonlarni vaqtida bartaraf etib borish imkonini beradi hamda talabaning mustaqil faoliyatga moslashishini osonlashtiradi;

– ko‘pchilik talabalar professor-o‘qituvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limni tashkil etishini ijobiy baholamoqdalar. Har to‘rtta talabaning uchtasi bu boradagi faoliyatga *“a’lo”* va *“yaxshi”* bahosini bermoqda. Har 12 ta talabadan birigina joriy holatdan qoniqmayotganini bildirgan, xolos. Albatta, bu subyektiv baholashdan kelib chiqilgan natija, masalaga obyektiv holatda qaralsa, natijalar o‘zgacha bo‘lishi ham mumkin;

– deyarli har beshta talabadan to‘rttasi professor-o‘qituvchilar tomonidan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarga *ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini* ta’kidlamoqda. Ular mustaqil ta’limning ahamiyatini tushungan holda, professor-o‘qituvchilardan bu borada yanada faollik ko‘rsatishni kutishadi. Talabalar tomonidan qo‘yilayotgan bunday talab professor-o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim bo‘yicha malakalarini muntazam oshirib borishlari hamda yangi tajribalarni o‘zlashtirishlari zarurligini ko‘rsatmoqda. [2, 17].

Mustaqil ish bu qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir [3, 25].

Xulosa qilib aytganda, ushbu texnologiyadan foydalangan holda o‘qituvchi va talabalarning guruhlarda tizimli va maqsadli mustaqil ishlashi darsni diversifikatsiya qilish, har bir kishi uchun og‘zaki nutq amaliyoti vaqtini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi, asoslandi. Nutqiy fikrlash faoliyatini faollashtirish, muloqot qobiliyatlari va muayyan ishbilarmonlik fazilatlarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash imkonini kengaytiradi. Munosabatlar, guruhda ijobiy ichki motivatsiya va qulay psixologik iqlimning yuzaga chiqish imkonini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sandra L., Renegar. (1997) All of us Know more than each of us: cooperative learning in higher education. Active Learning Strategies for the Higher Education. JATEPress, Szeged. Pp. 47.

2. Johnson, D.W., Johnson, R.T. (2008) Cooperation and the use of technology. In J.M.Spector, M.D.Merrill, J.van Merrienboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. New York: Taylor & Francis. Pp. 1017-1044.

3. O.A.Qo‘ysinov, N.A.Muslimov. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: “Fan”, 2009. – 92 b

4. Sharan S., Sharan Y. Small group-teaching // Englewood Cliff s, NJ: Educational Technology Publications, 1996. – 236 b.

5. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim // Uslubiy qo‘llanma. – T.: OOO “Complex Print”, 2021. – 126 b.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Хулкархан Джумаева,
Термезский государственный университет,
доктор философии педагогических наук, (PhD)

Аннотация

В данной статье представлена проблема формирования духовности учащихся младших классов на основе общечеловеческих ценностей. Освещены процесс воспитания учащихся младших классов на основе общечеловеческих ценностей и преимущества эффективного использования народной педагогики, фольклора и хадисов. Основная цель сферы образования — воспитать молодое поколение совершенной личностью, способной мыслить самостоятельно и жить осознанно. Сегодня национальные ценности являются надежным и важным средством защиты студентов от моральных угроз. Проблемой ценностей занимаются ученые всех областей науки. Этот вопрос также рассмотрен в статье.

Ключевые слова: *общечеловеческие ценности, хадисы, пословицы, гуманность, мораль, мысли восточных мыслителей, духовность.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ma’naviyatini umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish masalasi keltirilgan. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayoni hamda xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodi va hadislardan unumli foydalanishning afzalliklari yoritib berilgan. Ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi yosh avlodni mustaqil tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil inson etib voyaga yetkazishdir. Bugungi kunda o‘quvchilarni ma’naviy tahdidlardan himoyalashning ishonchli va muhim vositasi — bu umummilliy qadriyatlar hisoblanadi. Qadriyatlar muammosi bilan fanlarning barcha sohalari olimlari shug‘ullanib kelmoqdalar. Maqolada shu masala ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *umuminsoniy qadriyatlar, hadisi sharif, maqol, insoniylik, axloq-odob, sharq mutafakkirlarining fikrlari, ma’naviyat.*

Annotation

This article presents the problem of forming the spirituality of primary school students on the basis of universal human values. The process of educating primary school students on the basis of universal human values and the advantages of effective use of folk pedagogy, folklore and hadith are covered. The main goal of the education sector is to raise the younger generation as perfect individuals, capable of thinking independently and living consciously. Today, national values are a reliable and important means of protecting students from moral threats. Scientists from all fields of science are studying the problem of values. This issue is also discussed in the article.

Keywords: *universal human values, hadiths, proverbs, humanity, morality, thoughts of Eastern thinkers, spirituality.*

Когда человек приходит в мир, он рождается и растет ребенком определенного народа. В его жизни формируются и развиваются обычаи, традиции, культура, язык, свойственные этому народу и краю.

Человечность, гуманизм — это свойство человеческого существа. Человечность, справедливость, милосердие, доброта, трудолюбие, великодушие, дарующее людям человечность и благородство. Человеколюбие создает в людях чувство любви к людям разных национальностей, формирует нетерпимость к аморальному поведению, такому как несправедливость, неравенство, дарение, нечестность.

Духовность — это такая сила, которая ведет человека к великим делам, творчеству, патриотизму, до-

бру. Он побуждает человека ставить перед собой благородные цели и посвятить себя их реализации. Духовность определяет идейную, мировоззренческую, образовательную, культурную, религиозную и нравственную позицию человека. Сегодня формирование высокодуховной личности — требование времени.

Основная цель сферы образования — сделать молодое поколение совершенным человеком, способным мыслить самостоятельно и жить осознанно.

Именно образование и просвещение являются главными факторами благополучия человека, оно побуждает людей быть добрыми, щедрыми и терпеливыми [1, 28].

Духовно-просветительская деятельность, направленная на разъяснение роли и значения национальных обычаев, традиций и ценностей в нашей жизни среди широких слоев населения, прежде всего среди молодежи, воспитание любви и верности к Родине, гуманных качеств.

“Духовность — несравненная сила, призывающая человека к духовному очищению, духовному росту, укрепляющая его внутренний мир и волю, довершающая его веру и убеждения, пробуждающая его совесть, критерий всех его взглядов” [2, 63].

Сегодня национальные ценности являются надежным и важным средством защиты студентов от моральных угроз.

Хотя история формирования ценностей уходит в глубокую историю, изучение ее как целостной системы, создание ее научных основ, особенно использование их в образовательном процессе, начали осуществляться уже после обретения независимости. нашей страны. И к сегодняшнему дню не будет ошибкой сказать, что ее научные основы буквально созданы. Проблемой ценностей занимаются ученые всех областей науки. Философы изучали философские аспекты ценностей, учёные-педагоги раскрыли их педагогические аспекты, а психологи, в свою очередь, выявили положительное влияние ценностей на психику человека.

Любая нация живет своими ценностями. Однако есть ценности, имеющие общее значение для представителей всех наций, которые называются национальными ценностями. Это ценность планеты - матери для всех представителей нации, мир и спокойствие, человеческая воля и ее ценность, нравственные отношения и т. д. являются общечеловеческими ценностями. В связи с этим мы сочли допустимым остановиться на мнении философа и учёного К. Назарова об общечеловеческих ценностях. По его мнению: “Общечеловеческие ценности” — это не название, наименование или термин наиболее ценных вещей для общества и человечества, а философско-ценностное понятие, используемое для выражения их важности и социальной ценности” [8, 90].

Когда мы изучаем исторические корни проблемы ценностей, ее первоначальные проявления восходят к представлениям людей, мечтам и надеждам на будущее, пониманию важности событий прошлого. В качестве примера достаточно взглянуть на древние сказания, легенды, легенды, былины, созданные узбекским народом, то есть образцы народного устного творчества. В таких эпосах, как Алпомиш, Гороглы и сказаниях о Томарисе, Широке, пословицах и других жанрах, события и события, имеющие значение для человечества, духовно-нравственного мышления, природы и видов национальных ценностей, таких как вопрос о целостности человека, описывается тот факт, что человек является высшим существом. Особенно в таких национальных ценностях с высоким артистизмом описываются ценность мира, его бесконечность, взаимосвязь Вселенной и человечества, здоровье человека, смысл его жизни. И они постепенно становятся мудрыми поговорками, пословицами и пословицами: неудивительно, что именно для этого созданы пословицы “Здоровье — всего дороже округа”.

В Узбекистане выросло поколение волевых, самоотверженных и патриотичных молодых людей, которые имеют свое мнение, могут стойко противостоять различным духовным агрессиям. В их сердцах укреплялись основы национального мышления и здорового мировоззрения, а также многовековая духовность и национальные ценности нашего народа. формировалось чувство уважения к своим религиозным взглядам и жизненным целям.

Народная педагогика — это опыт, накопленный в области формирования и развития образа жизни людей, обычаев, традиций, обрядов, духовных ценностей, религиозной веры, патриотизма на пути свободы, взаимного сотрудничества и воинственности, — передается из поколения в поколение и служит духовное богатство.

В частности, богатое наследие восточных мыслителей, их философские взгляды, особенно представления о нравственности, честности, вере, совести, трудолюбии, научных знаниях, гуманности служат главным фактором всестороннего и гармоничного развития человека. С этой точки зрения советы Юсуфа Хос Хаджиба по вопросам нравственности, образования, изучения науки и искусства, мобилизации молодежи на служение нации в произведении “Кутадгу-билиг” до сих пор сохраняют свою ценность.

Учение приносит счастье, знание — слава,

Благодаря этим двум человек велик [4, 28-29].

Амир Темур хотел, чтобы каждый полководец, государственный и общественный деятель был обладателем справедливости и высокой человеческой добродетели, и сам смог быть примером этого. Его советы следующему поколению служат программой [6, 70].

В произведении “Тимур Тузуклари”, полон жизненной мудрости, Амир Темур показан защитником

справедливости, верным своему слову, благородным, всепрощающим, храбрым, бесстрашным, обладателем превосходных мер, искусным полководцем, великим лидером.

Мир хадисов является очень важным источником в области юриспруденции, прав человека и главным образом составляет моральную, культурную, духовную и образовательную основу.

80. Передается от Умара, да будет доволен им Аллах, мир ему и благословение, говорил, богатое наследие восточных мыслителей, их философские взгляды, особенно представления о нравственности, честности, вере, совести, трудолюбии, научных знаниях, гуманности служат главным фактором всестороннего и гармоничного развития человека. С этой точки зрения советы Юсуфа Хоса Хаджиба по вопросам нравственности, образования, изучения науки и искусства, мобилизации молодежи на служение нации в произведении "Кутадгу-билиг" до сих пор сохраняют свою ценность.

Учение приносит счастье, знание — слава,

Благодаря этим двум человек велик [7, 467].

Амир Темур хотел, чтобы каждый полководец, государственный и общественный деятель был обладателем справедливости и высокой человеческой добродетели, и сам смог быть примером этого. Его наставления служат примером будущему поколению [6, 71].

В произведении "Тимур Тузуклари", полон жизненной мудрости, Амир Темур показан защитником справедливости, верным своему слову, благородным, всепрощающим, храбрым, бесстрашным, обладателем превосходных мер, искусным полководцем, великим лидером.

Мир хадисов является очень важным источником в области юриспруденции, прав человека и главным образом составляет моральную, культурную, духовную и образовательную основу.

80. Передается от Умара, да будет доволен им Аллах, мир ему и благословение, говорил: "Конечно, действия зависят от намерений. Конечно, произойдет то, что задумал каждый..." [3, 9-12].

Этот хадис раскрывает способ достижения многих вещей путем исправления намерения и наличия добрых намерений. Он объясняет, что ни одна молитва не действительна без намерения. Имея намерение, обычное простое действие может стать молитвой. С другой стороны, молитва без намерения ничем не может отличаться от обычного труда. Если мы будем воспитывать детей посредством хадисов и формировать их веру, они с детства вырастут с чувством уважения к общечеловеческим ценностям. В этом процессе роль народного творчества бесценна.

Пословица играет большую идейно-воспитательную роль в нашей повседневной жизни благодаря тому, что отражает народный быт, мечты и мировоззрение, проверенные многовековым опытом. Потому что события, отраженные в пословице, либо решительно подтверждаются, либо опровергаются. Итак, каждая пословица дает человеку последовательное идейное направление, способствует возвышению его идеалов. Поскольку настоящая народная пословица отражает интересы и идеалы трудолюбивого народа, каждый, кто обращается к пословице, учится смотреть на свой народ и Родину с теплой любовью, стремится к справедливости и свободе, мужеству и доблести, человечности и дружбе, миру и труду. [8, 89].

Посредством таких пословиц, как "Не бери золото, приобрети знания, если получишь знания, приобрети их", "Заработал тяжелым трудом, значит вкусил сахар и мед", "С добрым словом выползет из норы змея, а с плохим словом выйдет нож из ножны", "Вежливый ребенок приветствуется народом". Мы учим учеников быть трудолюбивыми, милыми, вежливыми и воспитанными.

Вопрос национальных ценностей: ценность человека, его жизни, взаимоотношения человека и природы, дружба народов, вопрос национальных ценностей патриотизма и мира, доброты в узбекских традициях и т.д. Например, содержание поэзии Абдуллы Орипова, Эркина Вахидова, Джуманияза Джаббарова, Мухаммада Юсуфа восходит к национальным ценностям, о которых мы говорим.

В частности, творчество Абдуллы Орипова находится под глубоким влиянием национальных ценностей. Поэт до конца жизни воспевал человеческое достоинство во всех своих стихах, он считал, что жизнь человека должна быть связана с судьбой Родины. Он мог видеть свое будущее и счастье в этой стране. Он всегда понимал и чувствовал свой долг перед страной и народом, поэтому оставил свои слова: "Если в стране есть ребенок, который любит тебя за твое богатство, вообще не прощай" [4, 29].

Поэт уважал древние ценности и призывал других поступать так же. Он смог умело показать доброту, трудолюбие и простодушие узбекского народа. Дедушка аплодировал фермеру, который не мог с наступлением мороза покинуть свое поле и собрать урожай. В "Оде Узбекистана" поэт проявил свою бесконечную гордость за наших великих ученых, которые считаются гордостью нашего народа. В стихотворении имена великих учёных фигурируют без всяких сравнений, так что человек, читающий его, испытывает гордость и гордость ими. Поэт осуждал разврат, сплетни, невежество, предательство, беспечность, которые считались внутренней угрозой.

Итак, тема национальных и национальных ценностей в нашей стране имеет свое прошлое, и ее корни уходят в древность и в наши дни. Их значение настолько велико, что ни один источник образования не может заменить его.

В начальном образовании доведение личности уча-

щегося до совершенства представляет собой целостный образовательный процесс, который проявляется в активности всех его нравственных качеств.

Духовный образ человека формируется и развивается в процессе воспитания на протяжении всей его жизни. Признаки стремления к добрым делам, которые с самого начала проявляются в поведении ребенка, то есть такие замечательные качества, как помощь другим, верность, смелость, храбрость, составляют основу человеческих качеств, которые войдут в них. Итак, духовность учащихся младших классов формируется на основе общечеловеческих ценностей.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. – T.: “O‘zbekiston” NMIU. – 592 b.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashri. – T., 2001. – 496 b.
3. O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Musiqa, 2010. – 368 b.
4. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. – T.: O‘zbekiston, 1971. – 300 b.
5. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – 196 b.
6. Джумаева, Х.М. Глобаллашув даврида ёшларни маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилиш омиллари. Интернаука, (2018). (46-2), – 70-71 b.
7. Jumayeva, H. Talabalar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi variativ tahdidlar. Interpretation and researches, (2023). 2(1). – 467-470 b.
8. Эшкуватов, Ш. М., & Джумаева, Х. М. Борьба за душу и сознание человека в современный период. Евразийский научный журнал, 2016. (2), – 88-90 b.

O‘QUVCHILAR JAMOASIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Oyjamol Ergasheva,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilar jamoasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning samarali yo‘llari, usullari va ularni o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, bugungi kunda pedagogik jarayonlarda nizolarni bartaraf etish, oldini olish, nizosiz hayot tarzini o‘quvchilar orasida keng targ‘ib etish, mazkur jarayonning ahamiyati va zaruriyati hamda uning ta’lim-tarbiya jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala-munosabatlar va ularning turmush tarzida ijtimoiy-pedagogik mazmunini amaliyotga keng tatbiq etish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, kasbiy kompetensiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik qobiliyat, intellektual salohiyat, ijodkorlik, layoqat, ongli munosabat, maktab, nizo.*

Аннотация

В данной статье выдвигаются идеи об эффективных способах, способах разрешения конфликтных ситуаций, возникающих в коллективе учащихся, и их отличительных особенностях. Особое внимание сегодня уделяется вопросам преодоления, профилактики конфликтов в педагогических процессах, популяризации бесконфликтного образа жизни среди учащихся, значимости и необходимости данного процесса и широкого применения его социально-педагогического содержания в системе взаимоотношений учителя и ученика в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: *образование-воспитание, профессиональная компетентность, духовно-нравственное воспитание, педагогические способности, интеллектуальный потенциал, творчество, компетентность, сознательное отношение, школа, конфликт.*

Annotation

This article brings forward ideas about effective ways, methods and characteristics of resolving conflict situations that arise in the student community. Also, today, special attention is paid to the issue of conflict resolution, prevention in pedagogical processes, the widespread promotion of a non-conflict lifestyle among students, the importance and necessity of this process and the treatment between a teacher and a student in his educational system of contacts in the process - relations and the widespread application of socio-pedagogical content in their way of life to practice.

Keywords: *education, professional competence, spiritual and moral education, pedagogical ability, intellectual potential, creativity, competence, conscious attitude, school, conflict.*

Bugungi zamonaviy ijtimoiy va texnik jihatdan o‘ta rivojlanib borayotgan global davr uchun nizolarni bartaraf etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar insonni turli tahdidli hodisalardan asraguvchi, ularni muhofaza qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik jarayonning tabiiy o‘ziga xosligi va turli xususiyatlaridan biri bu mazkur jarayonda o‘quvchilar, ba’zan o‘qituvchilar o‘rtasidagi nizolarning mavjudligidir. Pedagogik nizolarni ilmiy-nazariy o‘rganish, nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etishda samarali yo‘llarini amaliyotga joriy etish pedagogik jarayonning muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham aynan mustaqillik yillarida nizolar yechimi sohasida ma’lum tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Nizolarni bartaraf etish va ularning oldini olish mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining o‘quv dasturiga maqsadli ravishda maxsus kiritilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar jamoasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishning samarali yo‘llarini tadqiq etish ijtimoiy ahamiyat kasb etadi va bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [1, 4].

Ta’lim-tarbiya jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala -munosabatlar va ularning turmush tarzi, o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ustoz,murabbiy ta’lim-tarbiya jarayonida asosiy, yetakchi o‘rinda turadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida fidoyilik, jonbozlik ko‘rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go‘zallik, haqiqat, odob-axloq, mehr-muruvvat, ma’naviyat nurini singdira olsa, sharafli vazifasini munosib o‘tab, samarali iz qoldirgan sanaladi, hurmat-e’tibor topadi. Shogirdlari tomonidan ulug‘lanadi va qadrlanadi. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritib kelayotgan barcha ustozlar va muallimlar haqida shunday ijobiy sifatlar yetarli shakllangan deb bo‘lmaydi. O‘zining qo‘polligi, muomalasizligi, muloqotchan emasligi, bolaning ko‘nglini ololmasligi, mehr bera olmasligi sababli ular o‘qishdan sovish hollari ko‘p uchraydi. Ayniqsa, bolani eshitmaslik, o‘rinsiz ranjitish, vaziyatga to‘g‘ri yondasha olmaslik kabi holatlar ham uchrab turadi.

Hayotda, pedagogik amaliyot jarayonida bunga misol bo‘ladigan dalillar ko‘p. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga va xulqiga salbiy ta’sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo‘lgan darajada ziyon yetkazadilar. Natijada, o‘qituvchi bilan o‘quvchi, talaba o‘rtasida nizo yuzaga kela boshlaydi. Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada o‘z ifodasini topgan. O‘quvchilarga ijobiy ta’sir o‘tkazish shartlaridan biri o‘zaro ishonch, hamjihatlikda maqsad sari ustoz va shogird maqomida hamkorlikda intilishdir, faoliyat yuritish samarali usul sanaladi. Bu qonuniyat pedagogik amaliyotda ko‘p marta sinovdan o‘tgan va o‘zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda madaniyatlilik, o‘qituvchining yurish-turishi, xushmuomalaligi, o‘quvchilarga ham ota-ona, do‘st, rahbar bo‘la olgan o‘qituvchilargina muvaffaqiyatga erishadilar. Aksincha qo‘pol, o‘zini bosolmagan, o‘ylamay hukmlar chiqarishga moyil o‘qituvchilar turli kelishmovchiliklar, qarshiliklar va nizolarga sabab bo‘ladilar.

Pedagogik jarayon, ta’lim-tarbiya jarayoni, o‘quvchining tabiati, xarakteri va xususiyatlari turlicha bo‘lib mazkur jarayon shu darajada murakkabki, muallim ba’zan istasa-istamasa qo‘pollik qilishga “majbur” bo‘ladi, o‘quvchi muallimning o‘rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o‘zini tuta olmay qoladi. Muallim o‘z talablarini, hatto qo‘pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilayapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotgandek qaraydi, aslida bunday yondashuv ijobiy samara bermaydi. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” (Toshkent, 1968) asarining “Tarbiya ta’siri bayoni” bobidagi hikoyatlari, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asaridagi “Mudarrislar to‘g‘risida”, “Maktabdorlar to‘g‘risida”gi asarlarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizning isbotidir. Ba’zi holatlar tarbiyasi qiyin yoki tabiatan sho‘x bola bilan muomala-munosabatlar jarayonida sodir bo‘ladi. Bunday bolalar, odatda, nosog‘lom muhitli oilada voyaga yetgan bo‘lishi, turli omillar ta’sirida bo‘lishi mumkin [2, 36].

Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bolalar, o‘yinqaroq, sho‘x bolalar bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular mehrga zor, e’tiborga muhtoj, o‘zaro suhbatga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo‘lishi zarurligini ham his etishlari lozim. Ma’lumki, jismoniy jarohat olgan bolani o‘qituvchi jazolamaydi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog‘i jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba’zan qalbi, ruhi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin [9, 68].

Ta’lim jarayonida buni barcha o‘qituvchilar birdek e’tiborga olishi ahamiyatga ega. Bolaning qiziqishlari, ehtityoji va moyilligini inobatga olish, javob berishni xohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan, deb qarab, e’tibordan chetlashtirish emas, unga nisbatan qat’iy talab qo‘yish hollari bor. Bu o‘rinda ezgulik qilaman deb, “yozuvlik” qilib qo‘yish hech gap emas. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq vaqt davom etadi . Natijada, o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasida nizolar chiqadi. O‘quvchi o‘qituvchidan norozi holda, undan uzoqlashib yuradi.

Ayrim hollarda muallimni himoya qilaman deb, kattalar boladan kechirim so‘rashni talab etadilar, holbuki, bu nizoga o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti-harakati sabab bo‘lgan. Bunday vaqtda bolaning qadr-qimmati hisobga olinmaydi. Ayrim hollarda bolaga mas’uliyatli ishlarni topshiradilar, bola esa bunday paytlarda kattalar topshirig‘ini bajarmay qo‘yadi, o‘zining mustaqilligini cheklashlarini yoqtirmaydi, kattalarning talablariga ko‘pincha salbiy munosabatda bo‘ladi. O‘g‘il yoki qizlarining ulg‘ayib qolganligini sezmagan, ularni hali ham “yosh bola” deb

hisoblaydigan oilalarda o‘smir bilan kattalar o‘rtasida tez-tez nizolar, to‘qnashuvlar vujudga keladi. Kattalar bolaga qanday munosabatda bo‘lishlari kerak? Avvalo, bolaning xulqiga doimiy e’tibor berish, uning xulqiga qat’iy, uzluksiz rahbarlik qilish, shuningdek, bularning hammasini shunday amalga oshirish kerakki, bola mayda-chuyda ishlarida ham kattalarning vasiyligini sezmasin. Ayniqsa, o‘smir yoshidagilar ularning hayotdagi yangi mavqelari bilan hisoblashadigan, ularni “kichkina” deb hisoblamaydigan, talabchan, lekin adolatli o‘qituvchilarni hurmat qiladilar [7, 90].

Katta yoshli bolalar uchun qiziqishlarning turli-tumanligi xarakterlidir. Bu qiziqishlar to‘g‘ri tarbiyalansa, o‘smirlar qobiliyatlari va mayllarining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchining o‘quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan ayrim vaqtlarda kelishmovchiliklari bo‘lib turadi. O‘quvchi atrofdagilarning unga bergan bahosiga nisbatan tanqidiy qaraydi. Uning kayfiyatidagi ranjish va ikkilanishning sababi ham ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo‘yishi bolaning o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoqlikka olib keladi. Hatto vaqtincha tasodifiy muvaffaqiyatsizlik bolada o‘z kuchiga ishonmaslikni uyg‘otishi, ikkilanish, qo‘rqoqlik, jur’atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilarning bolalar bilan bo‘ladigan munosabati alohida nazokatni talab etadi [4, 57].

O‘smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishdan qo‘rqish xavfi kuchayadi. Muomaladagi dag‘allik, talabchanlik, hurmatsizlik, o‘quvchiga mensimay muomalada bo‘lish, “yaxshi tushunaman” deb hisoblagan masalalari bo‘yicha o‘zlarining mustaqil fikrlarini aytish huquqini kamsitish, ularning yuqori natijalarga erishishidagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish, odatda, norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy reaksiyalar – hodisalarni hosil qiladi. Ayrim o‘qituvchilar hayotida muayyan xatolar uchrab turadi. O‘qituvchilar (yosh o‘qituvchilar nazarda tutilyapti) bir xil o‘quvchilarni (o‘zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, boshqalami (o‘zlashtirmayotgan) hamisha koyiydilar. Buning ustiga o‘zlashtirmayotganlarga odatda, o‘zlashtirgan sinfdosh-lariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbeh beradilar [8, 52].

Hatto past o‘zlashtiradigan o‘quvchilarni javob berishga kamdan-kam taklif qiladilar. Mana bunday vaziyatda o‘quvchilar bir-birlariga nisbatan qaram bo‘lib qoladilar, o‘qituvchiga nisbatan norozilik kayfiyati uyg‘onadi past o‘zlashtirgan o‘quvchiga “yomon” baho qo‘yiladi, buning ustiga bir necha ko‘ngilbuzar achchiq, istehzoli so‘zlar ham aytiladi, bu xatoni o‘quvchi umrbod kechirmaydi. Yosh o‘qituvchilar hayotida uchraydigan yana bir tipik xatolardan biri yaxshi o‘qiydigan o‘quvchi bilan yomon o‘qiydigan o‘quvchini bir-biriga taqqoslash va a’lochi o‘quvchini misol qilib ko‘rsatishdir. Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birini ikkinchisiga ibrat qilib ko‘rsatish pedagogik tomondan ham, axloq tomonidan ham noto‘g‘ri, katta xatodir. Bundan tashqari, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilimini baholashda ham xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi o‘quv-bilish faoliyatini o‘zgarishiga olib keladi, o‘qituvchini esa o‘quvchilar jamoasida obro‘sizlantiradi [2, 93].

Bunday holat o‘zaro pedagogik nizolarning xususiyatlari:

– nizoning pedagogik to‘g‘ri hal qilinishi uchun o‘qituvchining mas’uliyati (lekin bunda oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi balog‘atga yetgan, o‘z harakatlari uchun mas’ul yoshdagi insonlar bilan ishlashini yoddan chiqarmaslik kerak);

– nizo ishtirokchilari har xil ijtimoiy darajadadirlar (o‘qituvchi-o‘quvchi);

– bu esa nizoda tomonlarning xatti-harakatlari o‘rtasida farq bo‘lishini ta’minlaydi;

– nizo ishtirokchilarining hayot tajribasidagi farq ularni har xil pozitsiyaga ajratadi va muammoning yechilishida ularning mas’uliyat darajasini ham farqlaydi;

– ishtirokchilar voqealarga har xil ko‘z bilan qaraydilar, shuning uchun o‘qituvchi uchun talaba ichki kechinmalarini tushunish mushkul bo‘lsa, talabaga o‘z hissiyotlarini boshqarish qiyindir;

– pedagogik nizo, odatda, boshqa talabalar guvohligida bo‘lib o‘tadi va ular uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega; (vazifa – talqin);

– o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi uni nizoni yechishda tashabbusni o‘z qo‘liga olishga undagi va birinchi o‘ringa shakllanayotgan shaxs manfaatlarini qo‘yishga majburlaydi;

– har bir xato yana boshqa nizolarni keltirib chiqaradi;

– nizoni yechgandan ko‘ra uni oldini olish afzalroqdir.

Pedagogik vaziyat va nizolarni yechishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak:

– o‘qituvchi talabalarning hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkillashni bilishi zarur;

– odatda, o‘zlashtirishi past bo‘lgan, xulqi yomon o‘quvchi ishtirokidagi pedagogik vaziyat nizoga ko‘proq sabab bo‘ladi. Shuning uchun birinchi e’tiborni shunday o‘quvchilarga qaratib, ularga o‘z vaqtida pedagogik ta’sir o‘tkazish, yordam berish kerak.

– yomon xulq uchun past baho qo‘yish orqali jazolab bo‘lmaydi;

– bu nizoning chuqurlashishiga va fanga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib keladi;

– Pedagogik nizolarda to‘liq aybdor;

– aybsizlar, yutgan va yutqizganlar bo‘lmaydi;

– o‘qituvchida pedagogik taktning shakllanmaganligi ko‘p pedagogik nizolarga sabab bo‘ladi (bunda o‘qituvchi talabalarning nafsoniyatiga tegadigan harakatlarni amalga oshiradi).

– ko‘pincha, o‘qituvchi ta’sirning noverbal vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni, o‘quvchini eshitishni bilmasligi nizoga olib keladi.

– o‘qituvchilar jazoni nizolarni yechishda asosiy vosita deb biladilar. Lekin qo‘rquv hech qachon yaxshi oqibatga olib kelmaydi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

– salbiy hollarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

– o‘quvchilar mustaqil fikr yuritishga o‘rganishni hosil qilish;

– o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib, unga tayanishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

– dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish. A.S.Makarenkoning fikricha, o‘qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo‘lishi lozim. V.D.Suxomlinskiy o‘qituvchining “...maktab hovlisida gapirgan har bir so‘zi puxta o‘ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma’lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak” deya ta’kidlaydi. O‘qituvchining har bir so‘zi, olimning fikricha, nafaqat o‘quvchi qulog‘iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo‘lishi shart. Umuman ilg‘or o‘qituvchilarning fikricha, ta’lim va tarbiya faqat o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi [6, 87].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining aqliy rivojlanishdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganishdan maqsad ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirishga to‘siq bo‘lgan muammolarni aniqlashga qaratilgan ishda qo‘llanilgan metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy darajalarini o‘rganish uchun biz ilk yangilik sifatida metodikalardan foydalandik. Psixologik hodisalar o‘zlashtirish jarayonida qanday bo‘lishini aniqladik bevosita bu jarayonni aniqlashimizdan maqsad o‘qituvchiga ham ma’lum bir yordam berishdir. Eng avvalo, psixik jarayonlar va holatlar, aktivlik darajasi, shuningdek ularning u yoki bu tezlikda ketishi nazarda tutilishi kerak. Jumladan bir xil o‘quvchilardan sekinlikka xos, boshqasi uchun esa tez harakat qilish xos. Ayrim o‘quvchilarga esa bosiqlik, ko‘zning imo-ishoralari, ma’nolik, mimika, boshqalariga harakatlarida og‘irlik, yuzning ham harakat qilishi ajralib turadi. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatlari takomillashib, kamol topadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiyaga bog‘lab o‘rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to‘g‘ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o‘zi ham faol ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Malla Ochilov. Muallim qalb me’mori. – T.: “O‘qituvchi”, 2001. – 557 b.

4. Ergasheva Oyjamol Jaxongirovna. Milliy aksiologiya va undan boshlang‘ich ta’lim tizimida foydalanish imkoniyatlari. “EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH” Volume 3 Issue 2, Part 2 February 2023. – 540 b.

6. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” – T.: Fan. 2006. 300 b.

7. Nishonova Z.T. Do‘stmuxammedova Sh.A. To‘lyaganova Sh. Pedagogik psixologiya. – T.: Akademnashr, 2011. – 210 b.

8. G‘oziyev E, Jabborov A. “Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi”. – T.: Sharq, 2003. – 280 b.

9. Z.M Djumayeva. Экономика и социум, IMPROVING THE SYSTEM OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN EDUCATING STUDENTS BASED ON UNIVERSAL VALUES. – “Науки об образовании”, 2023. – 810 b.

PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA MASOFAVIY TA’LIM MODELLARI

Bunyodjon Nosirov,
Professional ta’limni rivojlantirish
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ta’lim jarayoni uzluksiz davom etuvchi jarayon bo‘lib, uni tahlil qilish, bashoratlash, loyihalashtirish yoki amalga oshirilgan ishlar rejasini tuzish va qat’iy amal qilish pedagogik jarayon asosini tashkil etadi. Ushbu maqolada model tushunchasi tavsifi, ta’lim modellariga oid olib borilgan tadqiqot ishlar tahlili, amalga oshirilayotgan pedagogik tadqiqot ishlarida ta’lim modeli tuzishning mazmun, mohiyati, uning maqsadi hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, pedagog kadrlar malakasini masofaviy ta’lim orqali oshirish modellarining tuzilmasi, mazmuni, yutuq va kamchiliklari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *malaka oshirish, uzluksizlik, model, ta’lim modeli, ta’lim texnologiyasi, masofaviy ta’lim, didaktik ta’minot, kontentli model, modellashtirish, qaytar aloqa, konsorsium, ikkilamchi model.*

Аннотация

Образовательный процесс-это непрерывный непрерывный процесс, в основе педагогического процесса лежит анализ, прогнозирование, проектирование или составление и строгое соблюдение плана проделанной работы. В данной статье дается описание понятия модели, анализ исследовательской работы по образовательным моделям, выдвигаются идеи о содержании, сущности построения образовательной модели в осуществляемой педагогической исследовательской работе, ее назначении и значении в образовательном процессе. Также приведены структура, содержание, достижения и недостатки моделей повышения квалификации педагогических кадров посредством дистанционного обучения.

Ключевые слова: *повышение квалификации, преемственность, модель, модель обучения, образовательная технология, дистанционное обучение, дидактическое обеспечение, контент-модель, моделирование, обратная связь, консорциум, вторичная модель.*

Annotation

The continuous process of education, which continues a process to analyze it, the prophecy, preparation of the design or implementation of the pedagogical process is the basis of and strictly follow to establish a plan. A description of the model in this article the concept of the educational work carried out to model the analysis of the related research, performed research, composing the content of pedagogical education in the model of its essence, its purpose, and in the process put forward the idea of the importance of education. As well as increasing the skills of teachers through distance education the structure of the model, the content, achievements and causing the disadvantages mentioned.

Keywords: *training, continuous model, education model, educational technology, distance education, didactic supply a content model, modeling, back contact consortium, the secondary model.*

Ta’lim jarayonida bajariladigan faoliyatlar ketma-ketligi, faoliyat mazmunini belgilash, ta’limni loyihalash, faoliyatni aks ettiruvchi ta’lim modelini tuzgan holda ta’limni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Model tushunchasi qandaydir faoliyat tizimi namunasini o‘zida ifoda etib, tizim faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, mazmuni, maqsad, vazifalarini o‘zida jamlay olishi shuningdek qisman uni o‘rnini bosishi kerak. Model tushunchasi texnika hamda barcha ilm-fan sohalarida turli ma’noda yoki maqsadda qo‘llaniladi. Model — aynan bir ko‘rinishga ega bo‘lib qolmasdan, chizmalar, harakatga doir turli fizik konstruksiyalar, belgi va shakllar yoki formulalar ko‘rinishida tuzilgan bo‘lib, u tadqiqot obyektining tuzilishini, xususiyatlarini, obyektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarini sodda va tushunarli tarzda o‘zida jamlaydi.

Model so‘zi haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ayrim manbalarda keltirilishicha u fransuzchadan olingan bo‘lib “namuna” degan ma’noni anglatadi. Model ilmiy tadqiqot ishlarida voqelik, jarayon yoki tadqiqot obyektini o‘rganish uchun uni asl nusxasi o‘rniga qabul qilingan shakli — nusxasi olinishi va o‘rganilishi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq qiluvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni o‘zida qisqacha ifodalagan hamda o‘rganilayotgan obyektga o‘xshash, uning ko‘rsatkichlarini o‘zida mujassamlashtirgan tizimi model deb qabul qilinishi mumkin [1, 932].

Pedagogikada modelning turlicha yo‘nalishlarda tahlillari mavjud bo‘lib, uni asosan to‘rtta xususiyati an’anaviy ravishda ajratib ko‘rsatiladi:

– model bu ilmiy tahlil asosida taqdim etilgan yoki moddiy jihatdan amalga oshirishni ko‘zlagan tizim;

– model tadqiqot obyektini kichik nusxasini aks ettiradi;

– model tadqiqotni asosiy o‘rganish predmetini almashtirishga qodir;

– model tadqiqot obyekti haqida yangi ma’lumotlarni jamlaydi.

ISSN 2181-8274

Shuni ta’kidlash kerakki, model yagona, yaxlit ta’lim, o‘ziga xos shakl va shu bilan birga ilmiy bilish vositasi bo‘lib, uning tuzilishi nafaqat tahlil va sintez uyg‘unligini, balki muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy va umumiy jarayon birligidir.

Model tadqiqot vositasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlar, bog‘lanishlar va munosabatlarning oddiy va vizual shakl ko‘rinishida, tahlil qilish uchun qulay ko‘rinishda aks etadi. Modelni yaratish jarayonida bir necha bosqichlarni ajratish mumkin:

– model turini aniqlash;

– modelni yaratish tamoyillari va texnologiyasini aniqlash;

– ushbu modelning o‘ziga xos xususiyatlarini, amalga oshirish shartlarini ko‘rib chiqish. [2, 133]

Pedagogik ta’limotlar tarixida didaktika hamda o‘qitish metodikasi sohasida o‘qitishning muhim elementlarini aniqlash va tavsiflashga qaratilgan didaktik modellardan foydalaniladi. Ushbu modellar o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitishni rejalashtirish yoki ta’lim amaliyotini baholashda tushunish, tanqidiy tahlil qilish yoki e’tiborga olish kerak bo‘lgan muhim komponent va jarayonlarga diqqat qaratiladi. Ta’limda didaktik modellarning asosiy maqsadi o‘qituvchining ta’limga oid qaror qabul qilishda, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalash, o‘qitish davomida o‘quvchilar fikrlashini boshqarib borishdir.

Didaktik modellar o‘quv rejasi va ko‘rsatmalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va tahlil qilishda, shuningdek, turli ta’lim yondashuvlari, keng tarqalgan amaliyotlar yoki o‘qitish haqida tanqidiy fikr yuritish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, ular o‘qituvchilarga o‘qitish va o‘rganish haqida gapirganda maqsadlar va tajribalarni yanada samaraliroq yetkazish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan professional bilim beradi. Didaktik modellar, shuningdek, o‘qituvchilarning ta’limini va uzluksiz kasbiy rivojlanishiga rahbarlik qilishi va tadqiqotga asoslangan ta’limni amalga oshirishda yordam berishi mumkin.[2, 166]

Ba’zi didaktik modellar rejalashtirish va loyihalash vositalari bo‘lib xizmat qiladi, boshqalari esa ta’lim faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (ya’ni, o‘qitish amaliyoti). Ulardan ba’zilari asosan tahliliy va aks ettiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi, o‘qituvchilarga o‘qitishning mazmuni yoki yo‘nalishini tanlashda yordam beradi. Ushbu turkumdagi modellar darsni rejalashtirish va talabalarni darsga faol jalb qilishni o‘z ichiga oladi, masalan, bashorat qilish kuzatish-tushuntirish strategiyasi sanaladi.[3, 153]

Turli didaktik modellar ta’limda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va darsni rejalashtirish, amalga oshirish va baholashga rahbarlik qilish uchun shakllangan. Ushbu modellarni bir-biridan keskin farq qilmasa-da quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

– kontent modellari;

– tegishli modellar;

– ketma-ket modellar;

– amaliy modellar;

– o‘quv modellari;

– tahlil va aks ettirish modellari.

Didaktik modellar o‘quv dasturlari va u asosda o‘qitish jarayoni loyihasini ishlab chiqish, amalga oshirish va tahlil qilishda, shuningdek, turli xil ta’lim masalalari bo‘yicha tanqidiy fikr yuritishda yaqindan yordam beradi. Modellash uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba’zi hollarda esa murakkab obyektlarni o‘rganishning yagona vositasiga aylanadi. Mavhum obyekt, olisda joylashgan obyektlar, juda kichik hajmdagi obyektlarni o‘rganishda modellashtirishning ahamiyati katta.[3, 158]

Hodisalarning modellarini yasash, obyektlarni tadqiq qilish, mavjud predmetlarni keng qamrovli va tizimli, o‘rganish imkonini beradi. Modellashtirish metodidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda, u ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba’zi hollarda murakkab obyektlarni o‘rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellar obyekt xususiyatlarini unda sodir bo‘ladigan jarayonlarni tushuntirib berish uchun qo‘llaniladi. Demak, modellashtirish tanlangan obyekt turkum ko‘rinishida tasavvur etishga imkon beradi.[4, 218]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ilm-fan tarmoqlariga keng jalb qilinishi asosida kompyuterli modellashtirish asosiy tur sifatida yuzaga chiqmoqda. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni modellashtirishda tadqiqot obyekti va uning mantiqiy modeli o‘rtasida o‘xshashlik, muvofiqlik bo‘lishi g‘oyani ifodalash, tadqiqot nazariy darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Modellashtirish har doim boshqa ilmiy metodlar bilan birga qo‘llaniladi va u eksperiment bilan chambarchas bog‘liq. [5, 87]

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda mantiqiy modellashtirishning har xil shakllaridan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli ifodalash imkoniyatini beradi. Modelli eksperiment ta’lim-tarbiya muassasalarining loyihasida, ta’lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqishda samarali metoddir. Masofali ta’limni yo‘llarini, shakllarini, tizimini yaratishda ham modelli eksperiment qo‘llaniladi. Ta’lim-tarbiya jarayoni pedagogik kadrlar tayyorlashni ideallashtirishda modellashtirish hal qiluvchi imkoniyatga ega. Pedagogik jarayonning ideal shakli, tizimli modellashtirish orqali ifodalanadi, konseptual xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi. [6, 152]

Bu ta’lim sohasiga kiradigan har qanday elementlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tushunchadir. Biz o‘qituvchining sifati, ta’lim sifati, infratuzilma sifati, jarayonlarning sifati haqida gapirishimiz mumkin. Modellashtirish barcha ta’lim shakllari singari masofaviy ta’lim shaklini ham chetlab o‘tmaydi va u masofaviy ta’lim taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bosqichlardan biridir. Masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari moslashuvchanlik, modullilik, parallellik, keng qamrovlilik, iqtisodiy tejamkorlik, ijtimoiy teng huquqlilik, internatsionallilik kabilardan iborat. [6, 149]

Masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini ketmaket izohlar ekanmiz, ular bir-biri bilan bir vaqtning o‘zida o‘xshash va farqli jihatlarga egadir. Masalan moslashuvchanlik (ta’lim oluvchilarga o‘ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta’lim olish imkoniyati mavjudligi bilan, modullilik ya’ni bir-biri bog‘liq bo‘lmagan mustaqil o‘quv kurslari to‘plamidan — modullardan individual yoki guruh talabiga mos o‘quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi bilan, o‘quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda olib borilishi bilan, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi bilan, keng qamrovlilik ko‘p sonli talabalarning bir vaqtning o‘zida katta o‘quv manbalaridan teng foydalana olishi bilan muhimdir.

Bu ko‘p sonli foydalanuvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o‘zaro va o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lish imkoniyati mavjudligi bilan, mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan didaktik, texnik, moddiy va barcha turdagi iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjudligi bilan, ijtimoiy teng huquqlilik ta’lim oluvchining yashash joyi, sog‘lig‘i va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyati mavjudligi bilan va internatsionallilik ta’lim sohasida erishilgan, jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati mavjudligi bilan tasniflanadi.

Masofaviy ta’limning asosiy vazifasi barcha ta’lim oluvchilarning birdek talim olishiga sharoit yaratib berish, ta’lim turlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirgan holda ta’lim berish, uzluksiz ta’lim darajasini oshirishni, asosiy faoliyat bilan bir qatorda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berishni, uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishni, yangi tamoyillar asosidagi ta’lim darajasini ta’minlashdan iborat. Masofaviy ta’limni zamonaviy, globallashuvga mos bir necha modellari yaratilgan bo‘lib, bu modellarni tashkil etish quyidagi vazifalarni hal etishni talab qiladi:

– geografik sabablar (mamlakat hududining rivojlanish farqlari, markaz bilan bog‘lanish darajasi);

– mamlakatni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish siyosat darajasi;

– masofaviy ta’lim ta’minoti uchun mutaxassislar mavjudligi;

– ta’lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi;

– mamlakatning ta’lim sohasidagi siyosati va xalqaro tajribalar. [7, 41]

Masofaviy ta’lim modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlab o‘tish uning imkoniyatlarini yanada kengroq tushunishga olib keladi. Masofaviy ta’limning birlamchi modeli faqatgina ta’lim oluvchilar bilan masofaviy ishlashda foydalaniladi. Bunda ta’lim oluvchilar virtual holatda ta’lim beruvchiga biriktiriladi, topshiriqlarni topshirish uchun bo‘limlar tashkil etiladi. Bu modelda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchiga o‘quv shakli va usulini tanlashga imkoniyatlar beriladi.

Masofaviy ta’limni tashkil etishda kurs vazifasini shakllantirish, istiqbolli natijalarga javob beradigan metodologiya va texnologiyani tanlash hamda quyidagi turli xil o‘quv bilish jarayonlarini yaratish lozim, jumladan, hamkorlik, o‘quv va amaliy topshiriqlar, interfaol bahslar, modellashtirish, innovatsion yondashuv, kreativ masalalar va hokazo. Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim asosida o‘qitish tizimini tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillar alohida ahamiyatga ega:

– o‘quv jarayonini loyihalashda ishlab chiqilgan didaktik modelining pedagogik tomondan ustuvorligi;

– yangi informatsion pedagogik texnologiyalarning maqsadga muvofiqligi;

– ta’lim mazmunining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligi;

– axborot va materiallar xavfsizligi; ta’lim oluvchilar bilim darajasining boshlang‘ich sifat nazorati shartligi;

– o‘qitish texnologiyasining tizimga mos kelishi;

– o‘quv jarayonining mobilligi va hokazo.

Ta’lim jarayonini modellashtirish ta’limdagi faoliyatdan kelib chiqib bir nechta bosqichlarga bo‘linadi. Hozirgi tadqiqot ishlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan modellashtirish o‘z ichiga beshta: maqsadli, tizimli, mazmunli, metodik va natijali bloklarni oladi. Har bir blok, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganishda uzviylikka asoslangan bo‘lishi kerak, bu quyidagilarni anglatadi:

– maqsadli blokda uzviylik;

– strukturaviy blokda uzviylik;

– mazmunli blokda uzviylik;

– metodik blokda uzviylik;

– samarali blokda uzviylik

Maqsadli blok Professional ta’lim jarayonida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning maqsadlarini o‘z ichiga oladi. Maqsadli blok strategik, taktik va operativ o‘quv maqsadlarining birligi bilan tavsiflanadi. Biz o‘z modelimizning asosiy, strategik maqsadini Professional ta’lim tizimi o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini samarali oshirish uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda fanlararo uzviylilikni ta’minlash sifatida shakllantirdik. [8, 61]

Masofaviy ta’limni tashkil etishda turli darajadagi ishtirokchilar mavjud bo‘ladi. Birinchi navbatda masofaviy kurs muallifini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, u kursni yaratuvchi, yangilovchi va tahrirlovchi shaxs hisoblanadi. Uslubchi esa masofaviy kurs faoliyati bo‘yicha muallifga kursni tahrir qilishda ko‘maklashuvchi hamda taklif va tavsiyalar berib boruvchi shaxs. Kurs administratori esa, yuqori malakali pedagog-xodimlarni, ta’lim oluvchilarni kursga qabul qilish, kursdan chetlatish vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu tizimda informatsion dasturlar va telekommunikatsiya resurslari ishini ta’minlovchi shaxs ham jalb etiladi.[3, 6]

Ushbu shaklda amalga oshirilgan masofaviy ta’lim kurslari ta’lim oluvchilarga muayyan bir soha faoliyati-

ning ilg‘or yutuqlaridan xabardor qilish, faoliyat uchun zarur kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning kasbiy faoliyati davomida tayyorgarligini doimiy oshirishi, nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llashi orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirishda samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allayarova.S.Y., & Sayitova.U.H. (2021). Masofaviy ta’lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), – 930-936 b.

2. Parpiev.A., Maraximov.A., Hamdamov.R., Begimkulov.U., Bekmuradov.M., Tayloqov.N., Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: O‘zMU davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 196 b.

3. Atabaeva.K.R. Ta’lim tizimida masofaviy o‘qitishning afzalliklari /K.R.Atabaeva. – Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. 2017. №24.1 (158.1). 5-7. URL: https://moluch.ru.

4. Nosirov.B.G‘., “Professional ta’lim tizimida masofaviy ta’limdan foydalanish istiqbollari”. E-ISSN : 2181-4341. IQRO JURNALI / 2023 VOL–2 ISSUE– 1.

5. Nosirov.B.G‘., “Masofaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o‘rni va ahamiyati”. “Pedagogika” ilmiy-nazariy metodologik jurnal / 2023-yil 4-son. – 85-88-b.

6. Nosirov.B.G‘., “Masofaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirish tuzilmasi” – “Innovations in technology and science education” jurnali, 2023-yil 2-son. – 146-152-b.

7. T.T.Shoymardonov., “Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi”, PhD dissertatsiyasi. – T., 2017. – 37-44-b.

8. Jo‘rayev.M.M., “Professional ta’limda fanlararo uzviylikni ta’minlash asosida o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini pivojlantirish metodikasi (“informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish misolida)” PhD dissertatsiyasi. – T., 2022. – 52-58-b.

EXPLORING PRAGMALINGUODIDACTIC APPROACHES IN LANGUAGE TEACHING

Khalifa Paluanova,
DSc, Professor of the Uzbek state world languages university

Annotation

In the ever-evolving landscape of language education, traditional teaching methods are increasingly being complemented by innovative approaches that cater to the complexities of language acquisition and usage. One such contemporary methodology that has been gaining prominence is the Pragmalinguodidactic approach. This modern type of language teaching combines pragmatics, linguistics, and didactics to create a dynamic and practical learning environment that emphasizes real-world communication and language use.

Keywords: *pragmalinguodidactics, competence, professional competence, pedagogical, technology, linguistic, knowledge, teaching, methods.*

Annotatsiya

Til ta’limining doimiy rivojlanib borayotgan manzarasida an’anaviy o‘qitish usullari tobora ko‘proq tilni o‘zlashtirish va qo‘llash murakkabliklariga javob beradigan innovatsion yondashuvlar bilan to‘ldirilmoqda. Mashhurlik kasb etayotgan ana shunday zamonaviy metodologiyalardan biri bu pragmalingvodidaktik yondashuvdir. Til o‘qitishning ushbu zamonaviy turi pragmatika, tilshunoslik va didaktikani birlashtirib, real muloqot va tildan foydalanishga urg‘u beradigan dinamik va amaliy o‘quv muhitini yaratadi.

Kalit so‘zlar: *pragmalingvodidaktika, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik, texnologiya, lingvistik, bilim, o‘qitish, metodlar.*

Аннотация

В постоянно меняющемся ландшафте языкового образования традиционные методы обучения все чаще дополняются инновационными подходами, которые учитывают сложности изучения и использования языка. Одной из таких современных методологий, приобретающих все большую известность, является прагмалингводидактический подход. Этот современный тип преподавания языка сочетает в себе прагматику, лингвистику и дидактику, чтобы создать динамичную и практическую среду обучения, в которой особое внимание уделяется реальному общению и использованию языка..

Ключевые слова: *прагмалингводидактика, компетентность, профессиональная компетентность, педагогические, технологии, лингвистические, знания, обучение, методы.*

Language learning and teaching have evolved significantly over the years, adapting to new methodologies that cater to diverse learner needs and preferences. One such contemporary approach that has gained attention in the field of language education is Pragmalinguodidactic. This innovative framework combines pragmatics, linguistics, and didactics to enhance language teaching strategies, focusing on the effective communication and language use in real-life contexts. The Pragmalinguodidactic approach is rooted in the belief that language learning should not be confined to the memorization of grammar rules and vocabulary but should also focus on developing students' ability to use language effectively in different contexts. By integrating pragmatics, the study of language in use, with linguistics and didactics, which refer to the teaching or pedagogical aspects, educators can provide learners with a holistic language learning experience that goes beyond mere linguistic competence.

In the field of English language teaching, educators are constantly seeking innovative and effective approaches to help students master the language. One such approach that has gained traction in recent years is the pragmalinguodidactic approach. This method combines elements of pragmatics, linguistics, and didactics to create a comprehensive and engaging learning experience for students.

Traditional language teaching methods often prioritize grammar drills and rote memorization, limiting students' exposure to authentic language use and communication. In contrast, the Pragmalinguodidactic approach encourages active participation, critical thinking, and meaningful interaction in the target language. Students are exposed to real-life situations, cultural contexts, and social norms that mirror the complexities of communication in the real world.

It is appropriate to look at pragmalinguodidactics not as a set of pedagogical terms that serve to make the lesson uninteresting and complex, unnecessary and insignificant for the teacher and the student, but as a tool to increase lesson effectiveness and engage students in a deeper comprehending of the methodological foundations of science. Pragmalinguodidactics is a branch of linguistics that focuses on the practical application of language science to the study of both teaching and learning foreign languages. It investigates the general principles of language teaching, creates instructional materials and strategies based on the goals of the teacher, analyzes the effects of bilingualism or monolingualism on language learning, and resolves a variety of related issues.

Pragmalinguodidactic approaches emphasize the importance of teaching language not only as a system of rules and structures but also as a means of communication in various social and cultural contexts. By integrating pragmatics, which focuses on how language is used in communication, with linguistics and didactics, educators can create dynamic learning environments that promote authentic language use and interaction. [2, 93]

In the classroom, Pragmalinguodidactic strategies can be applied through communicative activities, role-plays, and real-life simulations that encourage students to engage in meaningful conversations and apply language skills in practical contexts. Teachers incorporate cultural elements, social norms, and situational factors into their lessons to help learners develop not only linguistic competence but also pragmatic awareness and intercultural communication skills.

At its core, the pragmalinguodidactic approach recognizes that language is not simply a set of grammatical rules and vocabulary, but a complex tool for communication and interaction. By intertwining linguistic, pragmatic, and didactic elements, this approach seeks to equip learners with the skills and knowledge necessary to use language effectively in real-life scenarios. In this article, we will explore the key principles and potential benefits of the pragmalinguodidactic approach in language teaching.

Central to the pragmalinguodidactic approach is the integration of linguistic structures with pragmatic functions. This involves going beyond teaching grammar and vocabulary in isolation and instead emphasizing the functional and communicative aspects of language. By doing so, educators can help students develop a deeper understanding of how language is used in different contexts and empower them to communicate effectively in various social situations. [1, 42]

Furthermore, the pragmalinguodidactic approach stresses the importance of developing pragmatic awareness and cultural sensitivity in language learners. [2, 93] This involves teaching students the social and cultural nuances of communication, such as politeness strategies, speech acts, and communicative styles. By integrating pragmatic elements into language teaching, educators can prepare students to navigate diverse communicative situations with confidence and cultural competence.

Another key feature of the pragmalinguodidactic approach is the use of experiential and task-based learning activities. By engaging students in real-life tasks that require them to use the language in meaningful ways, educators can create a more immersive and interactive learning environment. This not only enhances students' language skills but also fosters their ability to apply the language in practical scenarios, thereby reinforcing the connection between language learning and real-world communication. [4, 60]

Incorporating authentic language use and materials is also essential in the pragmalinguodidactic approach. By exposing students to authentic language samples, such as real-life texts, videos, and audio recordings, educators can facilitate a deeper understanding of how language is used in authentic contexts. This exposure to authentic language materials helps students develop the ability to use the language in a more natural and meaningful way, thereby enhancing their communicative competence.

Furthermore, the integration of technology and multimedia resources is a fundamental component of the pragmalinguodidactic approach. By leveraging digital tools, interactive language apps, and multimedia platforms, educators can create dynamic and engaging learning experiences for students. Technology not only offers opportunities for authentic language use and cultural exploration but also provides a platform for interactive and immersive language learning experiences. When teaching a foreign language, the student needs to be able to spark interest in the language. In addition to teaching the language itself (phonetics, grammar, vocabulary, and structure), teachers should also cover the history, customs, culture, notable scholars, and other significant aspects of the nation associated with that language. Interactive learning technologies include forms and tools that stimulate the learning process, cognitive and mental conditions, procedures for achieving planned outcomes, and clearly laid out learning outcomes [10, 102].

One of the key benefits of adopting the Pragmalinguodidactic method is its ability to enhance students' communicative competence and intercultural awareness. By focusing on language use in context, learners develop a deeper understanding of how language functions in different situations and acquire the skills to communicate effectively with speakers of the target language.[7, 48] The emphasis on pragmatic and sociolinguistic aspects of language also fosters intercultural communication skills, promoting empathy, tolerance, and respect for cultural diversity.

While the Pragmalinguodidactic approach offers numerous advantages in language teaching, its successful implementation requires careful planning, teacher training, and the development of appropriate materials and activities. Educators must ensure that lessons are culturally sensitive, engaging, and relevant to learners' needs and interests. Overcoming traditional teaching habits and embracing a more communicative and learner-centered methodology may also pose challenges for both teachers and students transitioning to this modern approach.

– Encouraging communicative competence and real-world application

– Fostering cultural awareness and sensitivity

– Promoting engaging and interactive learning experiences

– Harnessing technology and multimedia resources for enhanced learning

Linguistics also plays a key role in the pragmalinguodidactic approach. By studying the structure and form of language, students gain a deeper understanding of how English works and how to use it correctly. This includes learning about phonetics, syntax, morphology, and semantics, among other linguistic concepts. By understanding these fundamental aspects of the English language, students are better equipped to communicate clearly and accurately.

Finally, didactics, the science of teaching and learning, is essential in implementing the pragmalinguodidactic approach. Educators must carefully plan and deliver lessons that are engaging, interactive, and tailored to meet the needs of individual students. This may involve using a variety of teaching methods, such as group work, multimedia resources, and project-based learning, to keep students motivated and actively engaged in their language learning journey.

Overall, the pragmalinguodidactic approach offers a holistic and student-centered approach to English language teaching. By integrating pragmatics, linguistics, and didactics, educators can create a dynamic learning environment that fosters language acquisition and development. Through meaningful interactions, authentic tasks, and a focus on practical language use, students are better prepared to communicate effectively in English both inside and outside the classroom.

In conclusion, the pragmalinguodidactic approach represents a promising direction for English language teaching. By combining elements of pragmatics, linguistics, and didactics, educators can provide students with a comprehensive and engaging learning experience that promotes language acquisition and development. As the field of English language teaching continues to evolve, the pragmalinguodidactic approach offers a valuable framework for educators seeking to enhance their teaching practices and help students succeed in mastering the English language. [10, 102]

Pragmalinguodidactic approach represents a shift towards more dynamic, practical, and student-centered language teaching practices in the modern educational landscape. By combining pragmatics, linguistics, and didactics, this methodology equips learners with the skills and knowledge needed to communicate effectively in diverse linguistic and cultural contexts. Embracing innovation in language teaching through the Pragmalinguodidactic method holds the promise of fostering communicative competence, intercultural understanding, and lifelong language learning skills among students, paving the way for a more enriching and empowering language education experience.

REFERENCES

1. J.Jalolov, Chet tilini o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 2012. – 429 b.

2. Jalolov J. Jahon lingvodidaktikasining zamonaviy konseptual yangilanish bosqich xususida. Xorijiy filologiya. – №1 (30). – S., 2009. – 91-95 p.

3. Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Русский язык за рубежом, 2009, № 2. – 26-32 p.

4. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Т., 2009. – 59-62 p.

5. Kattabayevna, K. D. . Foreign Language in the Field of Using Information and Communication Technologies. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2022, 2(3). – p 88–93.
6. L.Konoplyanik, Interactive methods of teaching foreign languages in higher Education in: Materials of II International Scientific Conference “Modern trends in teaching a second language at schools and institutions of higher education”, Gorlovka, HDPIM, 2011. – pp. 84-85.
7. H.Stern, Fundamental Concepts of Language Teaching, Oxford, Oxford University Press, 1983. – p 582.
8. E.S. Polat, New pedagogical and information technology in education, Tutorial for students of pedagogical colleges, Moscow, Publishing center “Academy”, 2000. – p. 78.
9. O.I. Pometun, Current lesson. Interactive learning technologies, scientific method, Kyiv, Publishing A.S.K., 2004. – P. 112-115.
10. R.Blair, Innovation approaches to language teaching, New York, Newbury House, 2010, pp 96-102.
11. S. Martinelli, M.Tailor, Intercultural Learning, Strasbourg, Council of Europe and European Commission, 2000, – pp 88-92.
12. T.S. Panina, L.N. Vavilova, Modern methods of activation of training, Handbook for students, ed. by T.S. Panina, 4 th ed., – M., 2008. – p 171.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ

Люция Шамсутдинова,
Преподаватель Узбекский государственный университет мировых языков, кафедры “Методики преподавания английского языка”

Аннотация

Данная статья исследует разнообразные факторы, оказывающие влияние на процесс развития прагматической компетенции у студентов. Автор анализирует роль образовательной среды, межличностных взаимодействий, языковой практики и культурного контекста в формировании навыков успешного общения. Основными факторами, препятствующими развитию прагматической компетенции, являются межъязыковая интерференция и межъязыковые лакуны. Межъязыковая интерференция традиционно понимается как результат одностороннего процесса: отрицательное воздействие направлено от особенностей родного языка на изучаемый неродной язык. Результаты исследования предоставляют ценные практические рекомендации для образовательных учреждений, направленные на эффективное совершенствование прагматической компетенции студентов в современном обществе.

Ключевые слова: *прагматическая компетенция, коммуникация, речевой акт, межъязыковая интерференция, межъязыковые лакуны.*

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi turli omillarni o‘rganadi. Muallif muvaffaqiyatli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’lim muhiti, shaxslararo o‘zaro ta’sirlar, til amaliyoti va madaniy kontekstning rolini tahlil qiladi. Pragmatik kompetensiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar tillararo interferensiya va tillararo lakunalardir. Tillararo interferensiya an’anaviy ravishda bir tomonlama jarayonning natijasi sifatida tushuniladi: salbiy ta’sir ona tilining xususiyatlaridan o‘rganilayotgan mahalliy bo‘lmagan tilga qaratilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda talabalarning pragmatik kompetensiyasini samarali takomillashtirishga qaratilgan ta’lim muassasalari uchun qimmatli amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *pragmatik kompetensiya, muloqot, nutq akti, tillararo interferensiya, tillararo bo‘shliqlar.*

Annotation

This article explores a variety of factors that influence the process of developing students’ pragmatic competence. The author analyzes the role of the educational environment, interpersonal interactions, language practice and cultural context in the formation of successful communication skills. The main factors hindering the development of pragmatic competence are interlanguage interference and interlanguage gaps. Interlanguage interference is traditionally understood as the result of a one-sided process: the negative impact is directed from the characteristics of the native language to the non-native language being studied. The results of the study provide valuable practical recommendations for educational institutions aimed at effectively improving the pragmatic competence of students in modern society.

Keywords: *pragmatic competence, communication, speech act, interlanguage interference, interlanguage gaps.*

В последнее время в преподавании иностранного языка возросла необходимость в развитии функционально-коммуникативной и межкультурной коммуникаций. Поэтому при совершенствовании прагматической компетенции особое внимание должно быть направлено на организацию эффективных и продуманных действий со стороны преподавателя. Важно учесть структурную и функциональную особенности обучаемого языка на уровне коммуникативной приемлемости. В этом плане мы согласны с гипотезой, предложенной С.В. Павловой, в которой отмечается, что необходимым действием преподавателя на занятиях должно быть направлено на внедрение в сознание обучающегося образа “другого”, говорящего на другом языке, в иных ситуациях и новом социокультурном контексте, с иными представлениями об уместности и целесообразности речевых поступков [1, 97]. В результате можно предположить, что при применении данного подхода на занятиях по иностранному языку у студентов сложится правильное представление об изучаемом языке, что повлияет на развитие прагматической компетенции.

Прагматическая компетенция помогает говорящему и слушающему обеспечивать адекватную интерпретацию речевых актов с учетом ситуативной отнесенности высказывания, социокультурного контекста, менталитета, возраста, образования и социального статуса говорящих, уместности и целесообразности речевых конвенций. Безусловно, она актуальна в современных условиях диалога культур [5, 154]. Однако в случае несформированности данной компетенции говорящий на иностранном языке может не достигнуть коммуникативного результата либо столкнуться с рядом коммуникативных неудач.

Исходя из вышеизложенного, можно предположить следующее: игнорирование прагматического аспекта общения приводит к тому, что студенты, овладевая языковыми структурами, не всегда соотносят их с конкретной коммуникативной задачей в определенном случае. По этой причине обучающиеся могут столкнуться с ситуацией, в которой коммуникация с носителем языка в реальной речевой обстановке не будет соответствовать действительности. А.Тросборг пишет, что успешная коммуникация предполагает знание социальных норм, ценностей, статусных характеристик, регистра общения. Именно прагматическая компетенция определяет верную интерпретацию коммуникативного намерения и отношения собеседника в том случае, если эта интерпретация не всегда ясна из прямого значения используемых языковых форм или невербальных ключей [2, 57].

Когда студенты владеют информацией о нормах употребления изучаемого языка, они имеют все необходимые знания для поддержания успешного коммуникативного акта. Однако встречаются такие ситуации, в которых студенты, изучающие иностранный язык, подсознательно переносят прагматику родного языка и культуры на изучаемый язык. Разный языковой и культурный фон коммуникантов при этом может приводить к непониманию и прагматическим ошибкам. Проблема состоит в следующем: то, что кажется естественным и уместным одной стороне (говорящему), может восприниматься как неадекватное и отклоняющееся от нормальной другой стороны (адресатом). При этом под нарушениями чаще всего подразумеваются отклонения комуникативных ожиданий [4, 187].

Основными факторами, препятствующими развитию прагматической компетенции, являются межъязыковая интерференция и межъязыковые лакуны [6, 796]. Межъязыковая интерференция традиционно понимается как результат одностороннего процесса: отрицательное воздействие направлено от особенностей родного языка на изучаемый неродной язык. Между тем межязыковые лакуны понимаются в качестве элементов невербальных аспектов “чужой” культуры, вызывающих реакцию недооценки, неприятия, несогласия, непонимания, которые восполняются говорящим за счет выбора оптимального способа достижения взаимопонимания, прибегая к лингвистическим и экстралингвистическим нормам родного языка [6, 796].

Следует отметить, что в процессе совершенствования прагматической компетенции студенты могут столкнуться с двумя типами прагматического переноса: прагмалингвистическим и социопрагматическим. Прагмалингвистическая неадекватность заключается в предъявлении коммуникантом некорректных пресуппозиций относительно значений и условий употребления языковых форм, используемых в дискурсе, употреблении определенных высказываний для выражений не свойственных им коммуникативных значений (или для осуществления речевых действий, которые посредством этих высказываний выполнены быть не могут) [5, 155].

В качестве примера рассмотрим применение речевого акта “совет” с учетом прагмалингвистических норм в английском и русском языках. При выражении совета англичане проявляют тенденцию к использованию модальных и вопросительных высказываний, императивные уступают им в частотности употребления. В то время как говорящие на русском языке отдают явное предпочтение императивным высказываниям с модальными конструкциями, тем временем вопросительные конструкции и вовсе практически отсутствуют. Кроме того, в английских модальных высказываниях преобладает значение совета (you should/ you ought to), в русских – долженствования (ты должен/ тебе надо). Таким образом, совет пойти к врачу будет отличаться грамматическим строем в двух языках: *“You probably need to go and see the dentist”; “Ты обя-*

зательно должен пойти к врачу”. Если английские информанты использовали средства смягчения своего воздействия на адресат, широко употребляя средства субъективной модальности (*I think you should go to the dentist*), то русские информанты, напротив, интенсифицировали его (*ты обязательно должен/тебе срочно надо*) [3, 255-258].

В результате анализа данных примеров можно предположить, что при выражении речевого акта “совет” в английском и русском языках наблюдаются разные стратегии построения грамматических форм и структур, которые влияют на лексический выбор. Несоблюдение данных стратегий нередко приводит к коммуникативному разрыву между коммуникантами. Следует принять во внимание, что не только грамматические и лексические структуры могут стать причиной коммуникативных неудач, но и неверное применение социопрагматических норм.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Василина В.Н. Формирование иноязычной прагматической компетенции студентов на занятиях по практике устной и письменной речи//Язык, речь, общение в контексте диалога языков и культур: Сб. науч. тр., Белорус.гос. ун-т.: – Минск: Изд. центр БГУ, 2012. – 96–103 с.

2. Давыдова Ю.Г. Формирование лингвопрагматической компетенции студентов вузов на практических занятиях по иностранному языку//Педагогика. Вопросы теории и практики. – 2021. – Том 6. – №1. – 55–61 с.

3. Ларина, Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – 177 с.

4. Овчинникова М.В., Колотова Н. И. Формирование прагматической компетенции иностранных студентов на уроках РКИ как условие успешного коммуникативного взаимодействия//Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – 2017. – №2 (42). – 185–191 с.

5. Павлова С.В. Использование диалоговой концепции Бахтина для формирования иноязычной прагматической компетенции. Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – 2006. – №2. – 153–157 с.

6. Полунина Л.Н. Функциональные компоненты прагматической компетенции и их роль в развитии коммуникативных умений студентов высших учебных заведений в процессе обучения английскому языку//Педагогика. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2020. Вып. 6 – Т. 5. – 792–797 с.

MEDIATA’LIMNING MOHIYATI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI

Xurshid Nekboyev,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsent
E’zoza Xoliyorova,
Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) axborotni yaratish, yozib olish, undan nusxa olish, tirajlash, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashish vositasi hisoblanishi, mediata’lim, maktab o‘quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o‘rganishlarini yoqlaydigan pedagogika fani doirasidagi maxsus yo‘nalish sifatida, o‘quvchi va talabalarga media dunyosi hamda mediamadaniyat asarlariga moslashishi ommaviy axborot vositalari tilini o‘zlashtirish mediamadaniyat asarlarini tahlil qilish fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *media, pedagogika, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, ikkinchi darajali ma’lumotlar, internet.*

Аннотация

В статье средства массовой коммуникации (СМИ) рассматриваются как средства создания, записи, копирования, распространения, хранения, распространения, восприятия, обмена информацией между автором и общественной аудиторией, медиаобразования, просвещения населения путем школьников и студентов как специальное направление в рамках педагогики, обеспечивающее изучение законов медиа, адаптацию к медиамиру и произведениям медиакультуры, овладение языком средств массовой информации, анализ произведений медиакультуры и мнения представлены.

Ключевые слова: *педагогика, средства массовой информации, цифровые технологии, вторичные данные, интернет, электронная почта.*

Annotation

In the article, mass media (media) are considered as means of creating, recording, copying, distributing, storing, disseminating, perceiving, exchanging information between the author and the public audience, media education, educating the population through schoolchildren and students as a special direction within pedagogy that ensures the study laws of media, adaptation to the media world and works of media culture, mastery of the language of the media, analysis of works of media culture. and opinions presented.

Keywords: *pedagogy, mass media, digital technologies, secondary data, internet, e-mail.*

Mamlakatimiz mediata’lim modellarining o‘ziga xosligi umumdidaktik tamoyillar (ta’lim jarayonida ijodiy shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ta’limning hammabopligi, nazariya va amaliyotning bog‘liqligi, ko‘rgazmalilik, faollik, ta’limdan mustaqil ta’limga o‘tish, ta’limning atrof-muhit bilan bog‘liqligi, ijobiy emotsional fon, o‘quvchilar individual xususiyatlarini hisobga olish) hamda mediamadaniyatning o‘ziga xususiyatlari bilan bog‘liq tamoyillarga (audiovizual idrokni rivojlantirish, mediamatnlarni tahlil qilish ko‘nikmalari va h.k.) rioya qilishdan iborat.

Ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) axborotni yaratish, yozib olish, undan nusxa olish, tirajlash, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashish vositasi hisoblanadi. Vizual (bosib chiqarilgan, foto surat, kompyuter grafikasi); audial (tovushli) — tovushni yozib olish; audiovizual (kinematograf, televideniye, video, Internet) medialarni farqlaydilar. Media auditoriga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda medianing ijobiy imkoniyatlariga uning keng qamrovliligi, ommaviyligi, ma’lumot berish imkoniyati, dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalarga tezda javob berish qobiliyati va boshqalar kiradi. Medianing salbiy ta’sirini o‘zgalar fikriga qaramlikni shakllantiruvchi manipulyatsiya qilish xususiyatiga ega usullari, ekrandagi zo‘ravonlikning ta’siri va boshqalar kiradi. Zamonaviy adabiyotda mediata’lim muammolari bo‘yicha mediani quyidagicha tasniflash qabul qilingan:

– asosiy vosita sifatida (matbuot, radio, kino, televideniye, video, kompyuter tarmoqdari va b.);

– idrok qilish kanaliga ko‘ra (audio, video, audiovizual, belgili — matnli, grafikali);

– foydalanish joyi bo‘yicha (yakka tartibda, guruhda, ommaviy, uyda, ishda, transportda va b.);

– ma’lumotlar mazmuni bo‘yicha;

– ijtimoiylashtirish yo‘nalishi bo‘yicha (mafkuraviy, siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy, o‘quv-bilish, estetik, ekologik, iqtisodiy);

– funksiyalari va foydalanish maqsadlari bo‘yicha (ma’lumot olish, ta’lim, muloqot, muammolarni hal qilish, ko‘ngilochar, ijtimoiy boshqaruv);

– shaxsga ta’siri bo‘yicha (saviyani oshirish, bilimlarni rivojlantirish, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish, o‘z mavqeini belgilab olish, holatni tartibga solish, ijtimoiylashtirish) [1, 42].

Mediata’lim, maktab o‘quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o‘rganishlarini yoqlaydigan pedagogika fani doirasidagi maxsus yo‘nalish sifatida, o‘quvchi va talabalarga media dunyosi va mediamadaniyat asarlariga moslashishi ommaviy axborot vositalari tilini o‘zlashtirish mediamadaniyat asarlarini tahlil qilish kabilarga yordam beradi. Mediata’limning asosiy vazifasi yosh avlodni zamonaviy axborot sharoitlarida yashashga tayyorlash, turli ma’lumotlarni idrok qilish, insonni uni tushunishga o‘rgatish, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini tushunib yetish, kommunikatsiyaning noverbal shakllari asosida hamda texnik vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida muloqot usullarini o‘zlashtirishdan iborat.

O.A.Baranov, Y.A.Bondarenko, I.VVaysfeld, M.I.Jabskiy, L.S.Zaznobina, I.S.Levshina, S.N.Penzin, G.A.Polichko, A.V.Spichkin, Y.N.Usov, A.V.Fedorov, A.V.Sharikov va boshqalarning har xil yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlari Rossiya mediata’limi muammolariga bag‘ishlangan. Yetakchi Rossiya tadqiqotchilari asarlarini o‘rganish hozirgi davrda mediata’lim turli talqin qilinishi ko‘rsatdi. Professor Y.N.Usov mediata’limni “o‘quvchilar individualligini rivojlantirishda ommaviy kommunikatsiya vositalari va axborotndan (matbuot, radio, kino, televideniye, video, kompyuter texnikasi, fotografiya) foydalanish tizimi sifatida ko‘rgan. Bilim to‘playdigan ana’anviy o‘quv fanlaridan farqli o‘laroq rivojlantirish tizimining o‘zi, birinchi navbatda, maktab o‘quvchisi emotsional-intellektual rivojlanishi jarayoni va uning imkoniyatlarini modellashtiradigan badiiy-ijodiy faoliyat amaliyotini ko‘zda tutadi”, – deb tushunadi [2, 81]. A.V.Fedorov mediata’lim deganda “media bilan muloqot qilish, ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarni, tanqidiy tafakkurni, talqin qilish, mediamatnlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmasini shakllantirish, mediatexnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘rgatish maqsadida ommaviy axborot vositalari yordamida va uning materialida shaxsning ta’lim olishi va rivojlanishi jarayonini” deb tushunishni taklif qiladi [1, 171].

A.V.Sharikov mediata’limni shunday ta’riflaydi: “pedagogik nazariya va amaliyotida o‘ziga xos va mustaqil soha sifatida ko‘riladigan ommaviy kommunikatsiyaning zamonaviy vositalarini o‘zlashtirish uchun nazariyani o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish; uni bilimning boshqa, masalan, matematika, fizika, geografiya kabi sohalarini o‘qitishda foydalaniladigan yordamchi vositalardan farqlash lozim” [3, 68]. L.S.Zaznobina mediata’limni “ta’lim oluvchilarni turli o‘quv fanlarni o‘rganishda mediata’lim jihatlarini kuchaytirish yo‘li bi-

lan axborot makonida yashashga” tayyorlash sifatida talqin qiladi [3, 70].

So‘nggi paytlarda Internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida foydalanuvchining qiziqishlariga qarab dasturiy ta’minotlar avtomatlashtirilgan tarzda tarmoqdagi har bir foydalanuvchining Internetda berilgan so‘rovlarini o‘z ma’lumotlar bazalariga yozib boradilar. Solishtirish orqali foydalanuvchining ehtiyojiga mos keluvchi, e’tiborini tortuvchi, ularni manfaatlarini targ‘ib etuvchi ikkinchi darajali ma’lumotlarni ularning Internet manzillariga joylashtiradi. Ya’ni har bir foydalanuvchi uchun individual ikkinchi darajali ma’lumotlar tanlab ko‘rsatiladi.

2003-yilda Rossiya kinota’lim va mediapedagogika assotsiatsiyasi prezidenti, professor A.V. Fedorov tomonidan mediata’limning Rossiya va chet el yetakchi mutaxassislari o‘rtasida so‘rov o‘tkazilgan [1,88]. Ushbu so‘rov mutaxassislarning aksariyati quyidagi YUNESKO ta’rifini ma’qullashini ko‘rsatdi: “Mediata’lim medianing barcha turlari (bosma va grafika, tovushli, ekranli va hk.) va turli texnologiyalar bilan bog‘liq; u odamlarga ommaviy kommunikatsiyadan ularning sotsiumida qanday foydalanilishini tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya qilishda mediadan foydalanish qobiliyatlarini egallash; insonga quyidagilarni bilish imkonini beradi:

1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy o‘zlashtirish va yaratish;

2) mediamatnlarning manbalarini aniqlash, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoratga oid yoki madaniy manfaatlari, ularning kontekstini aniqlash;

3) media tarqatadigan mediamatnlarni va qadriyatlarni talqin qilish;

4) shaxsiy mediamatnlarni yaratish, tarqatish va undan manfaatdor auditoriyaga ega bo‘lish uchun tegishli medialarni tanlash;

5) idrok qilish uchun ham, uni ishlab chiqarish uchun ham mediaga erkin kirish imkoniyatiga ega bo‘lish.

Mediata’lim har qanday mamlakat fuqarosining o‘z-o‘zini erkin ifodalash bo‘yicha asosiy huquqlari va axborot huquqining bir qismi bo‘lib, demokratiyani qo‘llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi. Mediata’limni barcha mamlakatlar o‘quv rejalariga, qo‘shimcha, norasmiy va “butun hayot davomida” ta’lim tizimiga joriy qilish tavsiya etiladi” [1].

Ayni vaqtda zamonaviy madaniy vaziyatda mediata’lim pedagogik yo‘nalish sifatida badiiy ta’lim, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik, madaniyat va san’at tarixi, psixologiya kabilarning ajralmas komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mediamadaniyat mahsuloti — mediamatn — ma’lumotga ega, medianing har qanday ko‘rinishi va janrida bayon qilingan xabar (gazeta maqolasi, teleko‘rsatuv, videoklip, film va b.) sifatida ifodalanadi. Mediamatnlar quyidagi turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha tabaqalashtirilgan auditoriya uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin: ommaviy va elitar, global va lokal, ko‘p millatli/etnosli, shahar va qishloq aholisi, erkaklar va ayollar, bolalar-o‘smirlar va kattalar, ateistik va diniy, korporativ va boshqalar.

Mediatalim mazmuniga mediasohada san’atshunoslik asoslari (media turlari va janrlari, medianing sotsiumdagi vazifalari, mediatil, media tarixi va h.k.), nazariy bilimlar qo‘llanilishining asosiy sohalari (ommaviy axborotning professional vositalari, havaskorlar mediasohasi, mediani tarqatish kanallari, mediasohada klublar, to‘garaklar harakatlari, ta’limiy, hordiq chiqarish muassasalari va hk.) haqida ma’lumotlar, mediamaterial asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish kabilar kiradi.

Mediamadaniyat asarlarini o‘rganish mediata’limning quyidagi asosiy tushunchalariga tayanadi — “media agentligi” (“axborot manbasi”), “mediamatn toifasi”, “mediamatn tili”, “media texnologiyasi”, “media toifasi”, medianing auditoriyasi» va boshqalar.

Media agentligi (mediamatn ishlab chiqaruvchisi, mediama’lumot manbasi, media industriyasi) — qoidaga ko‘ra, ommaviy auditoriya uchun mo‘ljallangan mediamatnlarni yaratadigan va tarqatadigan telekanal, nashriyot, kinostudiya kabilarda ishlaydigan tashkilotlar, shaxslar guruhi va texnik vositalar majmui.

Media toifasi — mediamatnlarning har xil turlari (matbuot, televideniye, kinematograf va b.), shakllari (reklamaga oid, hujjatli, ta’limiy va h.k.) va janrlari (maqola, intervyu, reportaj, drama, komediya va b.).

Mediata’lim auditoriyasi (oluvchisi) — mediamatn mo‘ljallangan odamlar guruhi (maktab o‘quvchilari, talabalar, o‘qituvchilar, pedagoglar, mediasoha, ya’ni mediateka, o‘quv televideniyesi va h.k.lar xodimlari).

Media texnologiyasi – 1) mediamatnni ishlab chiqarish uchun zarur apparatura, asboblar va materiallar; 2) mediamatnlarni yaratish usullari (aniq texnik vositalar, kompozitsiya, janrlar va h.k.lardan foydalanish nuqtayi nazaridan).

Mediatil — aniq mediamatnlarni yaratishda foydalaniladigan ifodalilik vosita va usullari majmuasi. Medialar o‘quvchi, foydalanuvchi va tinglovchilar bilan verbal, tasviriy yoki audiovizual tillarda “muloqot” qilish qobiliyatiga ega. Aniq mediamatnlarni yaratishda vosita va usullar majmuasi (kodlar va shartliliklar to‘plami, ular yordamida voqelik qayta anglanadi va taqdim qilinadi) qo‘llanilishi mumkin. Masalan, kino va televideniye ham ko‘rish, ham tovushli vositalarini o‘z ichiga olgan audiovizual tildan foydalanadi, matbuot tili verbal (bosmadan chiqarilgan matn) va grafik (illyustratsiya, fotosuratlar) obrazlarni birga qo‘shib qo‘llaydi.

1987-yili Yevropa Ittifoqi “Mediata’lim va yangi texnologiyalar bo‘yicha rezolyutsiya”ni qabul qilgan, unda mediata’limga juda katta e’tibor berilgan: “Mediata’lim imkon qadar ertaroq boshlanishi va maktabda ta’lim olish yillarida o‘rganilishi zarur bo‘lgan fan sifatida davom ettirilish kerak” [1, 95]. Ko‘plab mamlakatlarda (Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya va b.) o‘rta

va oliy ta’lim muassasalarida tashkil topgan mediatalim tizimi mavjud. Qator mamlakatlarda mediata’lim maktab fanlariga integratsiya qilingan, Avstraliya va Kanadada esa, masalan, uni o‘rganish maktabgacha yoshda boshlanadi. Afsuski, Rossiyada maktab o‘quvchilari va talabalar mediata’limi majburiy emas va maktab hamda OTM o‘quv dasturlariga kiritilmagan, 2002-yilda ochilgan va rasmiy ro‘yxatga olingan “Mediata’lim” ta’lim yo‘nalishi bundan istisno. Shu bilan birga hozirgi vaqtda mediata’limning ustuvorligi va dolzarbligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Taniqli mediapedagog L.Masterman tomonidan asoslab berilgan zamonaviy ta’lim jarayonida mediata’lim o‘rnining ortib borishining sabablari ham dolzarbligini saqlab kelmoqda, bular:

1. Mediani iste’mol qilish yuqori darajasi va zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to‘yinganligi.

2. Sanoat sohasi sifatidagi media va uning auditoriya ongiga ta’sirining mafkuraviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi.

3. Mediama’lumotlar sonining tezkor ortishi, uni boshqarish va tarqatish mexanizmlarining kuchayishi.

4. Asosiy demokratik jarayonlarga media kirib borishining intensivligi.

5. Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot ahamiyatining ortishi.

6. Maktab o‘quvchilari va talabalarni bo‘lajak talablarga mos kelishga yo‘naltirib o‘qitishning zaruriyati.

7. Axborotni xususiylashtirishning milliy va xalqaro jarayonlarining o‘sib borishi

O‘z rivojlanishining barcha bosqichlarida mediata’lim media madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi, media madaniyat media sohasidagi moddiy va intellektual qadriyatlar majmui, shuningdek ularni takror ishlab chiqarish va jamiyatda faoliyat yuritishning tarixan belgilangan tizimi sifatida qaraladi. Bunda mediani idrok qilish tipologiyasi, muallif intuitsiyasi kabilarni hisobga olgan holda, ommaviy madaniyat katta rol o‘ynaydi, uning muvaffaqiyati va o‘zgarmas mashhurligi asosining folklorligi, ko‘ngilochar janrga yo‘nalganligi, “emotsional jihatdan farqlanish”, kompensatsiya funksiyasi kabilar bilan shartlab berilgan.

Masalan, folklorlik va afsonalarga (miflarga) tayanish ommaviy audiovizual mediamadaniyat asarlarining o‘zgarmas mashhurligi uchun kuchli rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. “Ommaviy madaniyatning aksariyat janrlari amaliy tajriba mantig‘iga bo‘ysunmaydigan voqelikni yaxlit ommaviy tarzda his qilishning shakli sifatidagi afsonaning asosiy tarkibiy qismlarini o‘z tuzilishida saqlab keladi. Ushbu janrlarning aksariyati barcha atributlar va rasmiylashtirilishining o‘ziga xos xususiyatlariga ega majmuaviy zamonaviy afsona sifatida ifodalanadi. G.G.Pochepsov fikriga ko‘ra, “mif (afsona) yaxlit konstruksiyadir, uning nafi ham shunda, chunki zarur xarakteristikalari soni avtomatik ravishda namoyon bo‘ladi. Mif ishlatilganda butun matnlarni yaratish zaruratining ham keragi yo‘q, ommaviy ongga faqat u yoki bu afsonaga yo‘naltiradigan jiddiy xarakteristikalarga shama qilish, aytib turishning o‘zi kifoya qiladi” [4, 345]. Bir vaqtlar S.Eyzenshteyn filmni idrok qilish syujet, asosiy motivlar bilan emas, balki “obertonlar” — kadrda to‘satdan paydo bo‘lib, tomoshabinda taassurot qoldiradigan ko‘rish obrazining turli komponentlari bilan belgilanadi, degan edi [5, 147].

Mifologiklik (afsonaviylik), ertakka oidlik tomoshabinni, ayniqsa, yosh tomoshabinni har doim o‘ziga tortadi. Auditoriya (masalan, maktab o‘quvchilari) buni sezmasligi mumkin, lekin baribir g‘ayri ixtiyoriy ravishda ertakka oid, xayoliy voqealar, afsonaviy qahramonlarga ergashishi mumkin… [1, 50]. Bunga bog‘liq ravishda mass-media yaratgan afsonaviy voqelik medianing deyarli barcha turlari va janrlarida aks ettiriladi. Ushbu ma’noda audiovizual matnlar bundan mustasno emas. Masalan, madaniy mifologiya asoslaridan biri Ezgulik va Yovuzlik o‘rtasidagi kurashni olaylik. Ushbu mavzu asosida kinematografda va televideniyeda son-sanoqsiz afsonaviy versiyalar mavjud, masalan, jangovar film (boyovik), “unda jangchi dunyoni terroristlar uyushtirgan yadroviy halokatdan qutqaradi, sarguzashtli hikoya, unda olim qahramon qizni jinoyatchilar changalidan qutqarib, xazina topadi, jasur o‘t o‘chiruvchi haqidagi hujjatli film, ajdarhoni yenggan pahlavon haqidagi ertak va h.k. Odamlar bunday afsonalarni erta o‘zlashtiradi va ularga mos ma’lumotni oson o‘zlashtiradilar” [5, 132]. Shunday qilib, mediasan’atning har qanday asari auditoriyaga mediata’sir ko‘rsatadi — ta’lim-tarbiya, ongni rivojlantirish, xulq atvor, qarashlar, javob ta’sirlar, emotsional ta’sirlarni shakllantirish, ma’lumotlarni tarqatish kabi sohalarda.

Rossiyada mediata’lim rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlarini o‘rganish asosida ta’kidlashimiz mumkinki, mediata’limning tushunchalar apparati o‘ziga xos evolyutsiyasiga ega, u medianing rivojlanishi bilan birga kengayib boradi [1, 211]. Masalan, rivojlanishning boshlang‘ich bosqichlarida kinematograf mediata’lim uchun material bo‘lib xizmat qilgan, Rossiyada maxsus tashkil qilingan kinoasar bilan ish 30-yillarga qadar kinoish deb nomlangan (kinorabota). “Amaliy” davrda (30-yillarning ikkinchi yarmi — 50-yillar boshlanishi) mediatashuvchilar bilan ish asosan texnik xarakterga ega bo‘lgan va kino- (radio-, foto-) havaskorlik sifatida tushunilgan.

Globallashuv jarayonida axborot manbalarining shiddat bilan tarqalishi, ijtimoiy ahamiyatga molik (ilmiy, texnologiyaga oid, madaniy va boshqalar) axborot ko‘lamining nihoyatda oshib borishi har qanday jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Demak, talabalarni pedagoglik kasbiga tayyorlash jarayonida mediaga bog‘liq bo‘lgan kerakli va zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash ularni keyingi faoliyatlarini kafolatlaydi. Bu esa real dunyo obrazini ularning ongida adekvat akslanishiga olib keladi va atrof olam bilan uyg‘unlikda ish olib borishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Федоров А.В. Медиаобразование: вчера и сегодня. – М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2009. – 234 с.
2. Усов Ю.Н. Медиаобразование. Программа для учащихся 10-11 класса общеобразовательной школы. Основы экранной культуры. Циклпрограмм/Рук. Ю.Н.Усов. – М., 1998. – 100 с.
3. Шариков А.В. Так что же такое медиаобразование? // Медиаобразование. – М., 2005. – № 2. – 68-70 с.
4. Эйзенштейн С. М. Избранные статьи. – М.: Искусство, 1956. – 456 с.
5. Гулевич, О.А. Психология межгрупповых отношений: учебное пособие / О.А. Гулевич. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2008. – 432 с.

ТАЛАБАЛАРДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Фируза Рахматова,
Тошкент давлат техника университети
катта ўқитувчиси

Аннотация

Мақолада талабаларда интегратив ёндашув асосида таянч компетенцияларни ривожлантириш уларнинг ўқишга қизиқиш ва мотивациясини ошириш, ўқув малакаларини шакллантириш ҳамда таълимда индивидуал ва табақалашган ёндашувни амалга ошириш имкониятлари ҳамда талабаларда ўз-ўзини ривожлантириш, миллий ва умуммаданий, коммуникатив компетенцияларни шакллантириш асосида ижтимоий фаолликнинг мазкур компонентлари таркиби ёритилган. Шунингдек, талабаларнинг шахсий фазилатларини шакллантириш, таянч компетенцияларини шакллантириш ҳамда гуруҳ ва ҳамкорликда ўқитиш усулларининг афзалликлари илмий асосланган.

Калит сўзлар: *қобилият, қадрият, маданият, ахборот, таҳлил, кўникма, қарор, жамоа.*

Аннотация

В статье рассматривается развитие базовых компетенций у студентов на основе интегративного подхода, повышение их интереса и мотивации к учебе, формирование учебных умений и возможностей реализации индивидуального и дифференцированного подхода в образовании, а также состав этих компетенций. выделены компоненты социальной деятельности, основанные на формировании национальных и общекультурных и коммуникативных компетенций у студентов. Также научно обоснованы преимущества формирования личностных качеств студентов, формирования базовых компетенций, методов группового и кооперативного обучения.

Ключевые слова: *способность, ценность, культура, информация, анализ, умение, решение, команда.*

Annotation

The article discusses the development of basic competencies in students based on an integrative approach, increasing their interest and motivation to study, the formation of educational skills and the ability to implement an individual and differentiated approach in education, as well as the composition of these competencies. components of social activity based on the formation of national and general cultural and communicative competencies among students are highlighted. The advantages of developing students’ personal qualities, developing basic competencies, and methods of group and cooperative learning are also scientifically substantiated.

Keywords: *ability, value, culture, information, analysis, skill, decision, team.*

Мамлакатимизда илм-фанни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда, жорий йилда эса, ҳаммамизга маълум, йил номига муносиб равишда бундай эътибор кучайтирилади. Соҳадаги долзарб масалалар ҳал этилиб, илмий тадқиқот фаолияти қўллаб-қувватланади. Янги илмий муассасалар ва йўналишлар ташкил этилиши шулар жумласидандир.

Республикамизда талабаларнинг касбий фаолиятга тайёрлашда модулли-компетентли ёндашув асосида касбий тайёргарлигини ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Шу билан бирга, талабаларнинг ўқув-билиш фаоллигини жадаллаштириш асосида касбий ижодкорлигини ривожлантириш, ўқув-билиш фаолиятини изланишли-тадқиқотчилик компетенцияси билан уйғунлигини таъминлаш, билиш фаолиятини ривожлантиришнинг аксиологик асосларини такомиллаштириш долзарблик касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини

2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнига компетенцияларни ривожлантиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларни кенг жорий этиш [1] каби муҳим вазифалар белгилаб берилди. Бу эса, талабаларнинг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг амалий кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик тизим ва таълим жараёнларини рақамли технологиялар асосида индивидуаллаштириш, модулли таълим технологияларини амалиётга кенг жорий этиш механизмларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Интегратив ёндашувнинг таълим муаммоларини ҳал қилишда тизимларнинг бир хил ва ўхшаш таркибий қисмларини яхлит бирлаштириш (интеграциялаш)га йўналтиради. Таълимда интегратив ёндашув таълим мазмунининг фанлараро бўлиниши доирасида табақалаштириш камчиликларини бирор интеграцион асосни танлаш асосида юмшатиш имконини беради. Хусусан, фанлараро интеграция ўз мазмунининг маълум бир янги даражасидаги умумлаштирилган фанлараро тузилмаларни синтез қилиш ва турли фан соҳаларига ўтказилиши мумкин бўлган фаолият усулларини аниқлашдан иборат.

Интегратив ёндашув муаммоларини мамлакатимиз олимлари Х.Худойқулов [6], Ж.Йўлдошевлар [3], хусусан ташкилий, ташхислаш, ахборот ва бошқа интегратив кўникмаларни хорижий олимлар Н.В.Кузьмина [4] ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Талабаларда интегратив ёндашув асосида таянч компетенцияларни ривожлантириш уларнинг ўқишга қизиқиш ва мотивациясини ошириш, ўқув малакаларини шакллантириш ҳамда таълимда индивидуал ва табақалашган ёндашувни амалга ошириш имконини беради.

М.Н.Берулаванинг тадқиқотларида ўқув фанларини интеграциялаш таълим жараёни самарадорлигини оширишни таъминловчи дидактик шароитлар сифатида кўриб чиқилади. Унинг фикрига кўра, таълимнинг асосий таркибий қисмлари билан бир қаторда таълим методлари ҳам ўқув фанлари интеграциясининг етакчи йўналишларини белгилайди [2].

Шахснинг интегратив фаолияти маҳсули сифатида ижтимоий фаоллик ўзининг муайян мазмуни ва таркибий тузилишига эга. Биз қуйида ижтимоий фаолликнинг таркибий қисмлари устида тўхталишга ҳаракат қиламиз. Ижтимоий фаоллик қуйидаги таркибий қисмлардан иборат:

1. Мотивли-эмоционал компонент. Бунда ўқувчиларда атрофдагиларга нисбатан қадриятли муносабатда бўлиш тажрибаси ҳосил қилинади: раҳмдиллик, эътиборлилик, ғамхўрлик, ўзаро ёрдам ва меҳрибонлик сифатлари шакллантирилади.

2. Когнитив компонент доирасида ўқувчиларда атрофдагиларни билишга йўналтирилган фаолиятни шакллантириш назарда тутилиб, бунда ҳар бир шахснинг ўзига хослиги, қизиқишлари, эҳтиёжлари, кайфиятидаги ўзгаришларни сезиш, ҳиссий ҳолатини билиш тажрибаси ҳосил қилинади.

3. Хулқ-атворга асосланган компонент доирасида ўқувчиларда ўзаро мувофиқ келадиган вазиятларни танлаш, ўзаро мулоқотга киришиш, хулқ-атворнинг ахлоқий жиҳатдан аҳамиятли бўлган кўринишларини эгаллаш лаёқатлари шакллантирилади.

Ўқувчиларда ўз-ўзини ривожлантириш, миллий ва умуммаданий, коммуникатив компетенцияларни шакллантириш асосида ижтимоий фаолликнинг мазкур компонентлари таркиб топтирилади. Ушбу компонентлар нафақат мотивли-эмоционал компонентга тааллуқли, балки бошқа компонентларда ҳам ўз ифодасини топади. Иккинчи компонентнинг таркибига нафақат бошқаларнинг билимлари, ҳолати, балки ўзининг билимлари ҳам акс этади. Ҳамкорлик жараёнида ўқувчи ўз ҳолати, хусусиятлари, лаёқатларини идрок этган ҳолда ҳаракатланади. Ўз ҳаракатларини шеригининг кўзи билан қараган ҳолда идрок этади. Ҳар қандай нуқтаи назарнинг кучли ва кучсиз томонини кўра олади. Худди мана шундай муносабат доирасидагина ўқувчи ўз атрофидаги воқеликни аниқ баҳолаш имконига эга бўлади.

Электрон валюта муносабатлари Япония ва АҚШда тараққий этгани каби Финландияда ҳам ушбу соҳа жуда яхши ривожланган. Финландияда фиат валютасининг рақамли кўриниши билан крипто валюталар айрим соҳаларда бир хил хусусиятга эга бўлиб, баъзи хизматларда, яъни пул ўтказмаларида хизмат ҳаққининг ноль фоизда эканлигидан криптовалюта муносабатларининг қулайлигини билиш мумкин.

Финландияда ҳам Япония ва АҚШдаги каби электрон валюталарни Молиявий назорат органи тартибга солади ва лицензия беради. Молиявий назорат органи Финляндия банки билан ҳамкорликда ишлайди. Ҳукумат кенгашида тегишли масалаларни ҳал этиш бўйича Молия вазирлиги тасарруфидаги орган ҳисобланади.

Финландияда виртуал валюталар қонунда учинчи шахссиз, томонлар ўртасида peer-to-peer тармоғида қайд этилиши ва узатилиши мумкин бўлган рақамли қиймат сифатида тавсифланади.

Виртуал валюта провайдерлари ҳақида ҳаракат тўғрисидаги қонун (572/2019) виртуал валюталарни тартибга солади. Виртуал валюталар –марказий банк ёки бошқа орган томонидан чиқарилмаган ва қонуний тўлов воситаси бўлмаган рақамли қийматни ўз ичига олган актив тури бўлиб, электрон шаклда ўтказилиши, сақланиши ва алмаштирилиши мумкин [3] эканлиги белгиланган. Мулоҳаза қиладиган бўлсак, Виртуал валюталар шахс томонидан тўлов воситаси сифатида ишлатилиши мумкин ва электрон шаклда ўтказилиши, сақланиши ва алмаштирилиши мумкин. Бу ерда қонуний тўлов воситалари деганда марказий банк томонидан муомалага чиқарилган валюталар, масалан, эвро назарда тутилади.

Виртуал валюталар Финляндия қонунчилигида “Виртуал валюталарга солиқ солиш тўғрисида”ги йўриқномасида аниқ белгиланган. Солиқ маъмуриятининг сўнгги йўриқномасига кўра, барча виртуал, крипто ва пеэр-то-пеэр валюталари ёки бит пуллари, шунингдек, ўйин валюталари виртуал валюта деб аталади ва ўйин компаниялари томонидан ташкил этилган ҳақиқий қимор ўйинлари бундан мустасно [4] деб белгиланди. Бундан тушуниш мумкинки, миллий солиқ қонунчилигида криптовалюталар ҳам, ўйин валюталари ҳам битта виртуал валюта атамаси остида тенглаштирилган.

Виртуал валюталар Финляндия солиқ юриспруденциясида (KHO 2019:42) Даромад солиғи тўғрисидаги қонуннинг [5] (1535/1992) 45-бўлими, 1-кичик бўлими маъносига кўра мулк сифатида таснифланади, бунда даромад солиғи тўғрисидаги қонуннинг сармояга оид қоидалари қўлланилади. Уларнинг трансфери маълумотларига кўра, виртуал валюталар қимматли қоғозлар эмас. Бироқ, қонуннинг дастлабки лойиҳаларида виртуал валюта Қимматли қоғозлар бозори тўғрисидаги қонуннинг 2-боби, 2-бўлимида кўрсатилган молиявий восита таърифига жавоб бериши мумкинлиги таъкидланади [6].

Финландияда электрон валюталар, яъни фиат валютасининг рақамли кўриниши ва криптовалюталарни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солибгина қолмасдан, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида техник жиҳатдан шароит яратилган.

Соҳадаги операторларнинг катта қисми анонимдир ва ҳатто фойдаланувчи ҳамёнини бузган шахснинг кимлиги аниқланганда ҳам, уларнинг кўпчилиги чет элликлар бўлиб, уларни қонуний жавобгарликка тортиш жуда қийин бўлади. Бу бизнес ҳеч қандай ҳокимият томонидан тартибга солинмаган экан, қоидага истисно тариқасида - Финлар мисол бўлади. Бу ҳокимият томонидан тартибга солинадиган операторлар, Молиявий назорат органи томонидан назорат қилинадиган “LocalBitcoins” ва “Coinmotion”лар ҳокимият томонидан талаб қилинадиган рухсат бериш жараёнларидан ўтган ва Молиявий назорат органи томонидан доимий равишда уларнинг фаолияти назорат қилинади. Крипто-инвестиция дунёсида савдо томонлари ва учинчи томон воситачиларининг ишончлилигини баҳолаш муҳимлиги таъкидланган.

Сайтларни клонлаш учун манзилларни сохталаштириш хавфи айниқса қоронғу Интернет (Dark.net)да юқори, уларнинг энг машҳури Тор тармоғида бўлгани каби фойдаланувчи учун у ерда фойдаланилган манзиллар тасодифий ҳарфлар ва рақамларнинг узун жумбоқларига ўхшайди, уларни визуал равишда бошқа манзил билан таққослаб бўлмайди.

Финляндияда солиқчиларнинг кўрсатмалари Олий маъмурий суди ва Марказий солиқ кенгаши томонидан бир вақтнинг ўзида битта қарор билан такомиллаштирилди. Халқаро таққослашда Финляндиянинг крипто солиққа тортиш ва бошқа қонунчилиги кўплаб

мамлакатларда ноқонуний ёки қатъий тартибга солинганлиги билан солиштирганда, жуда оқилона ва ушбу соҳага рухсат берувчи ҳисобланади.

Финляндия Coinmotion криптовалюта алмашинуви ва сақлаш хизмати 2012 йилда ташкил этилган ва ҳозиргача фаолият юритаётган энг қадимги криптовалюта хизматларидан бири ҳисобланади [7].

Финландияда фойдаланувчилар учун бир қанча қўлланмалар, ҳаттоки, видеороликлар ҳам мавжуд. Жумладан, фойдаланувчи биринчи навбатда биткоинларга сармоя киритишга қизиқса “Биткоин фойдаланувчилари ва инвесторлари учун бошлаш учун қўлланма”, Агар фойдаланувчиларнинг қизиқиши биринчи навбатда тўлов учун биткоинлардан фойдаланиш бўлса, “Биткоин фойдаланувчи учун қўлланма”, “Биткоин бўйича кенг қамровли сармоя қўлланма” сида инвесторлар жорий бозорда дуч келадиган қийинчиликларни ва Биткоин инвестиция портфелининг рентабеллигини қандай ошириши мумкинлиги ҳақида қисқача маълумотлар берилган. Бундан ташқари, ушбу қўлланмада Биткоин асослари ва қиймати ривожланиши билан таништирилади ва Биткоиннинг келажакдаги истиқболларини ҳамда биткоинларга инвестиция қилиш амалда қандай содир бўлиши таҳлил қилинади [8].

Финландия банкларнинг электрон валюталарнинг турлари билан ишлашини кенгайтиришни режалаштираётгани ҳам бежиз эмас, чунки Финляндия Membrane Finance EUROe барқарор валютасини ишга туширди.

Европа Иттифоқи томонидан тартибга солинадиган, тўлиқ захирали Евро стабилкоин бўлиб, у фиат евро ликвидлигини занжирга олиб келади [9].

Бундан кўриниб турибдики, Мембране стабилкини евро билан боғланган бўлиб, бирор маҳсулотнинг нархи 1 евро этиб белгиланса, уни 2 стабилкоинга сотиб олиш мумкин бўлса, 1 йилдан кейин ўша маҳсулот нархи 2 еврога тенг бўлса, 4 стабилкоинга солиб олиш мумкин бўлади.

Мембране стабилкоини Etherium крипто валютаси асосида яратилган бўлиб, унинг блокчейнида ишлайди. Шу муносабат билан электр энергия сарфига тўхталадиган бўлсак, крипто экотизимнинг энергия сарфи оммавий ахборот воситаларининг бутун саноати ҳақида жуда салбий оҳангда хабар беришига сабаб бўлди. Хусусан, ўзларининг консенсус алгоритмини Proof of Work (PoW)га асослайдиган криптолар, масалан, биткоинлар, шубҳасиз, жуда катта энергия сарфлайди. Бу энергия истеъмоли кўпинча тизимнинг хатоси эмас, балки унинг хусусияти сифатида ҳам кўрилади. Биткоиннинг энергия истеъмолини ўрганган кўпчилик уни қазиб олишда ишлатиладиган энергия нисбатан яшил рангга эга деган фикрга келди. Биткоин қазиб олувчи компаниялар учун электр энергияси катта харажат бўлгани учун улар электр энергиясини иложи борича арзонроқ сотиб олишга интилишади.

J. Rantala, O. Korhonenларнинг “Блокчейн технологиялари жамияти. III қисм: Ноёб токенлар бўйича турли эслатмалар” номли мақоласида криптовалюталарнинг энергия сарфини қуйидагича таҳлил қилишган: Bitcoin ва Etherium энергия истеъмоли ҳисоб-китобларига кўра, 2021 йил июль ойида биткоиннинг энергия истеъмоли тахминан 141,83 тераватт соатни (йилига) ташкил этди, Украина истеъмолига тўғри келади. Бундан ташқари, битта Биткоин транзакцияси 1773,77 киловатт соат энергия истеъмол қилди, бу ўз навбатида АҚШ иқтисодиёти нуқтаи назаридан 60,8 кунлик энергия истеъмолига тўғри келди. Etherium тармоғининг эквивалентлари бироз кичикроқ эди. Йиллик истеъмол тахминан 58,87 тераватт соатни ташкил этди, бу сайт маълумотларига кўра, Ўзбекистон истеъмолига тўғри келади. Битта транзакция учун 133,21 киловатт соат сарфланган, бу ўртача АҚШ уй хўжалигининг тахминан 4,5 кунлик энергия истеъмолига тенг [10]. Албатта, Bitcoin ёки Etherium, масалан, Алекс де Вриес таъкидлаганидек, мамлакатлар эмас. Унинг сўзларига кўра, масалан, Биткоин истеъмолини 2019 йилда йилига 650 тераватт соат атрофида бўлган бутун банк сектори (шу жумладан, банкоматлар ва турли филиаллар) истеъмоли билан солиштириш мақсадга мувофиқдир. Бу ҳолда, Вриес маълумотларига кўра, Биткоин йилига тахминан 40-62,3 тераватт соат электр энергиясини истеъмол қилган. Лекин шунча электр энергия сарфига қарамасдан Финландияда бу борада ҳеч қандай чекловлар мавжуд эмас.

Хулоса ўрнида шуни ёдда тутиш керакки, Финляндиянинг Kryptovaluuttayhdistys Konsensus Ru бошқарув кенгаши аъзоси, криптовалюталар ва тегишли ҳуқуқий вазиятларни ҳал қилиш бўйича кўп йиллик тажрибага эга А.Вакивайниненнинг фикрига кўра, қонун чиқарувчи орган криптовалюталар ёки виртуал валюталар нима эканлигини ҳал қилмайди. Ёзма қонун фақат қонун чиқарувчининг криптовалюталарга ва тегишли ҳуқуқий вазиятларга муносабатидир [11] дея таъкидлайди.

Финляндияда миллий тартибга солиш чет элдан катта таъсир кўрсатади. Шу сабабли, келажакдаги тартибга солишни кутаётганда, чет элдаги шунга ўхшаш ҳуқуқий вазиятлар қандай ҳал қилинганига ҳам эътибор қаратиш яхшидир.

Бироқ бизнинг миллий виртуал валюта қонунчилигимиз яқин бир неча йил ичида сезиларли ислоҳотларга дучор бўлиши эҳтимолдан йироқ. Бутун криптовалюта ҳамжамияти, албатта, тартибга солиш барча операторлар учун тенг ва адолатли бўлишига умид қилади деган фикрларни ҳар бир давлатга тегишли қилиб айтиб ўтгани бежиз эмас. Европа иттифоқидаги энг биринчи бўлиб криптовалюталар билан муносабатларга киришган давлат ҳам, ҳаттоки, чет эл тажрибаси билан танишиш ғоясини илгари сурмоқда. Финландияда яна шуниси алоҳида аҳамиятга эгаки, бу

фойдаланувчилар ҳуқуқини ҳимоя қилиш, бу борадаги ишларнинг амалга оширилиши мазкур давлатда шу соҳадаги адолатли ва шаффоф тизимни таъминлашга хизмат қилади.

Марказий банк томонидан муомалага чиқариладиган рақамли валюта функциялари таҳлил этилди. Хусусан, технологик тараққиётнинг сўнгги қулайликларини ўзида мужассам этган рақамли кўринишдаги банкнотларнинг келгуси авлодларини эмиссия қилиш орқали самарадорлик ва хавфсизликнинг ошиши таъминланишига эътибор қаратиш зарур. Бу ўринда блокчейн экотизимида анонимликка барҳам бериш механизмлари, хусусан, назорат қилинадиган ёки бошқариладиган машинада ўрганиш (Supervised Machine Learning) кабиларни қўллаш талаб этилади.

Тадқиқотчи томонидан 740 нафар иштирокчилар ўртасида сўровнома [12] ўтказилган бўлиб, “Электрон валюталарнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини шакллантиришда хорижий мамлакатлар тажрибаси фойдалими?” деган саволга респондентларнинг *49,2%* Ҳа, албатта, *40,7 %* Қисман, *10,1 %* Билмайман деб жавоб беришган. Бундан кўриниб турибдики, юртимизда ушбу соҳани ривожлантириш учун хорижий тажрибадан фойдаланишимиз керак.

“Сизнингча, электрон пулни жорий этишда қайси мамлакатлар тажрибаси афзалроқ?” деган саволга эса, иштирокчиларнинг 37,9 % Япония, 37,4 % Америка, 24,7 % Финландия каби давлатларни белгилашган.

Таҳлиллар давомида қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

– технологик тараққиётнинг сўнгги қулайликларини ўзида мужассам этган рақамли кўринишдаги банкнотларнинг келгуси авлодларини эмиссия қилиш орқали самарадорлик ва хавфсизликнинг ошиши таъминланишига эътибор қаратиш зарур. Бу ўринда блокчейн экотизимида анонимликка барҳам бериш механизмлари, хусусан, назорат қилинадиган ёки бошқариладиган машинада ўрганиш (Supervised Machine Learning) кабиларни қўллаш талаб этилади;

– Ўзбекистон ҳам криптовалюталарни нақд пулга конвертация қилишни босқичма-босқич жорий этиш;

– Ўзбекистонда крипто валюталардан фойдаланиш бўйича қўлланмалар яратиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Thomas H. Lee, International Law, International Relations Theory, and Preemptive War: The Vitality Of Sovereign Equality Today / – 2004. – 147-167 p.

2. Matthew S. Erie, Chinese Law And Development / Forthcoming in Harvard International Law Journal. 62(1). 2021. https://www.law.nyu.edu/sites/default/files/Erie%20Chinese%20Law%20and%20Development%20Latest%20Draft.pdf

3. Maksulaitoslaki 30.4.2010/297 (Тўлов ташкилотлари тўғрисидаги қонун) https://www.finlex.fi/fi/laki/ajantasa/2010/20100297#a14.12.2017-890

4. Virtuaalivaluuttojen verotus (Виртуал валюталарга солиқ солиш йўриқномаси) (VX/5083/00.01.00/2019, 2020 йил 22 октябрь) https://www.vero.fi/syventavat-vero-ohjeet/ohje-hakusivu/48411/virtuaalivaluuttojen-verotus3/#2.2-virallisen-valuutan-ja-virtuaalivaluutan-vaihtotilanteet

5. Tuloverolaki 30.12.1992/1535 (Daromad solig‘i to‘g‘risidagi qonun) https://finlex.fi/fi/laki/ajantasa/1992/19921535

6. Väkeväinen A. Miten kryptovaluuttoja säännellään Suomen lainsäädännössä? Lehti Suomalaiselle sijoittajalle 2022. https://viisasraha.fi/N%C3%A4k%C3%B6kulma/Miten-kryptovaluuttoja-s%C3%A4%C3%A 4nnell%C3%A4%C3%A4n-Suomen-lains%C3%A4%C3%A4d%C3%A4nn%C3%B6ss%C3%A4

7. Финландия Bittiraha компаниясининг маълумотлари: https://bittiraha.fi/osta/

8. Taipale A. “Millä tulevaisuudessa maksetaan?” (Келажакда нима тўланади?). 2017. // https://valtioneuvosto.fi/-/10623/milla-tulevaisuudessa-maksetaan-

9. Membrane Finance // https://www.membrane.fi/company

10. Биткоин энергия истеъмоли индекси. https://digiconomist.net/bitcoin-energy-consumption

11. Väkeväinen A. Finlyandiya qonunchiligida kriptovalyutalar qanday tartibga solinadi? // Finlandiya investorlari uchun jurnal. https://forms.gle/u2pdKnvuM3uAYSTB9

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI UCHUN “PEDAGOGIK MAHORAT” DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Dilfuza Nosirova,
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida “Pedagogik mahorat”ni rivojlantirishning samaradorligini oshirishning shart-sharoitlari, “Pedagogik mahorat” atamasining turlicha talqini, ta’limning mazmuni, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar yoritilgan. Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanayotgan zamonda “Pedagogik mahorat”ning har qachongidan ham zarurligi, “Pedagogik mahorat” fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar berib borishi masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, innovatsion pedagogik texnologiya, talab, komponent.*

Аннотация

В данной статье выделены условия повышения эффективности развития “Педагогического мастерства” у будущих учителей начальных классов, различные трактовки термина “Педагогическое мастерство”, содержание образования, требования к будущим учителям начальных классов. . Сегодня, в эпоху развития технологий, “Педагогическое мастерство” как никогда необходимо, предмет “Педагогическое мастерство” предназначен для формирования профессиональных знаний и умений у будущих учителей, для воспитания творческих способностей, для приобретения ими навыков. Обсуждались навыки и квалификация, педагогическая техника, педагогические вопросы сотрудничества, педагогическая деликатность, предоставление информации о культуре речи.

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, будущий учитель начальных классов, компетентность, знания, умение, квалификация, инновационная педагогическая технология, потребность, компонент.*

Annotation

In this article, the conditions for increasing the effectiveness of the development of “Pedagogical skills” in the future primary school teachers, different interpretations of the term “Pedagogical skills”, the content of education, the future primary school teachers requirements are highlighted. Today, in the era of developing technologies, “Pedagogical skill” is more necessary than ever, the subject of “Pedagogical skill” is for the formation of professional knowledge and abilities in future teachers, for the education of creativity, for them to acquire skill, skill and qualification, pedagogical technique, pedagogical the issues of cooperation, pedagogic delicacy, providing information about speech culture were discussed.

Keywords: *pedagogical skill, future primary school teacher, competence, knowledge, skill, qualification, innovative pedagogical technology, demand, component.*

Bugungi kunda ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta’limi to‘g‘rida”gi konvensiyalarida, “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi bitimda dunyo miqyosida o‘qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilgan. Mazkur hujjatlarda ta’kidlanishicha, ta’lim muassasalari o‘qituvchilari hamda talaba — bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish sifatida nisbatan teng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning pedagogik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ko‘maklashish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e’tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti” Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi, oliy ta’lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “… bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”[1], – degan bir qator fikrlarni bildirib o‘tdi.

Xabaringiz bor 2024-yil 5-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilish o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda davlatimiz rahbari “Oliy ta’limda qamrov keskin oshdi, sohaga xususiy sektor kirib keldi. Lekin sifatga yetarli e’tibor qaratilmayapti. Masalan, talabalarning mustaqil ishlashi uchun muhit barcha oliygohlarda ham birdek namunali tashkil etilmagan. Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygohlar ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmaydi. Ayrimlarida darslik va adabiyotlar yetishmaydi, bori ham bugungi talablarga javob bermaydi” [4] deya

ta’kidladilar. Prezidentimiz 2024 yil 2 fevralda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilg‘or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–54-son qarorni qabul qildilar [2]. Ushbu qaror ham ta’lim tizimizning rivojlanishida muhim qadamalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”[3], — degan edilar.

Demak, umumta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari umumiy va maxsus kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatida kreativ qobiliyatlarini namoyon eta hamda pedagogik mahoratni egallagan bo‘lishi lozim.

Rivojlangan davlatlarning pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini shakllantirishda pedagogik mahoratga san’atning bir turi sifatida yondashiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalari yuzasidan B.Adizov, N.Azizxo‘jayeva, U.Begimqulov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, D.Sharipova, N.Egamberdiyeva va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Pedagogik mahoratning turli psixologik jihatlari, o‘qituvchining shaxs sifatida kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari L.Vigotskiy, P.Galperin, M.Davletshin, V.Davidov, B.Qodirov, E.G‘oziyev va boshqa tadqiqotlarda o‘rganilgan.

O‘qituvchilar Pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolari B.Abdukarimov, V.Andreyev, G.Bragina, L.Zanina kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan, pedagogik mahoratni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Association for educational Communications and Technology — AECT); pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tiziming samarali faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari takomillashtirilgan (Belfield pedagogikal university); o‘qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Centre of increasing to pedagogikal qualification on base Manchesters university); bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini egallash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan (University of Columbiya: AQSh); talabalarda pedagogik mahoratni rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari yaratilgan (University of Chunang: Janubiy Koreya).

“Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar avvalo o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilib, so‘ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o‘quvchilar ongiga tafakkuriga yetkaziladi” [9, 5], – deydi A.Xalikov.

Yildan yilga o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga nisbatan talablar kuchaymoqda. Bu hozirgi zamon talabi. Demak, o‘qituvchiga qo‘llaniladigan “pedagogik mahorat” termini hech qachon o‘z mavqeini yo‘qotmaydi, balki tobora takomillashib, boyib, zamon talablariga moslashib boraveradi. [5, 17] O‘qituvchining pedagogik mahoratiga hozirgi kungacha sayqallanib kelingan quydagi ta’riflarni keltiramiz va ularning asl mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz:

Pedagogik mahorat — kasbiy bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarning o‘qituvchi tomonidan egallanishi.

Pedagogik mahorat — pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beruvchi o‘qituvchining kasbiy xususiyatlari majmuasi.

Pedagogik mahorat — o‘qituvchi pedagogik faoliyatining mukammal va eng oliy darajasi.

Pedagogik mahorat — o‘qituvchining kasbkorlikka yo‘naltirilgan muhim sezgirlik xislati.

Pedagogik mahorat — ta’lim berish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalarni, o‘qitishning turli metodlarini o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilishi, tanlan olinishi va qo‘llanilishi.

Pedagogik mahorat — pedagogik va metodik bilimlarning barcha tarmoqlariga kirib kelayotgan integratsiya va modernizatsiyani tez o‘zlashtirilishi va unga moslashib pedagogik faoliyat olib borish.

Ularning farqlari bo‘yicha ta’riflar va tasniflarni tavsiya qilib, aytishimiz joizki, barcha holatlarda ham mualliflarning bu boradagi mulohazalarini ijobiy yoki salbiy toifaga kiritish mumkin emas, zero “pedagogik mahorat” tushunchasiga ta’riflar o‘z davriga monand darajada ifodalangan. Hozirgi zamon pedagogik va psixologik fanlarida “pedagogik mahorat” tushunchasiga turlicha izoh berilgan. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassisdir” [6, 87].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi.

Pedagogik mahorat komponentlari quyidagilardan iborat:

– o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;

– o‘z fanining o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;

– pedagogik qobiliyatlarini namoyon eta olishi;

– pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi.

ISSN 2181-8274

Shunga ko‘ra, “Pedagogik mahorat fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar berib boradi” [7, 55]. Bu maqsad bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaring quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar milliy urf-odat va an’analarimizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj v havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar.

6. O‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar. Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o‘qituvchilar zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi. Har bir o‘qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni tarbiyalaydi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta’lim muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o‘qituvchining shakllanishi, bo‘lajak o‘qituvchi umummilliy mavqeining o‘sib borishini ta’minlaydi.

Avvalo, o‘qituvchilar — ta’lim muassasasidagi ta’lim va tarbiya jarayonning asosiy tashkilotchilaridir. Yigit va qizlarning pedagogik jihatidan umumiy tayyorgarlik darajasi hamda mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiyoti, tarbiyalanganlik darajasi dastur va darsliklargagina emas, balki o‘qituvchilarga, ularning mahorati hamda shaxsiy fazilatlariga ham taalluqli bo‘ladi. Shu boisdan ham pedagogika oliy ta’lim muassasalariga o‘qituvchilik kasbmi sevgan, unga chin ko‘ngildan qiziqqan va moyilligi bo‘lgan iqtidorli yoshlargina qabul qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–54-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 5-fevraldagi “2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.

5. Xalikov A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish. Ped.fan. dok.diss. – T., 2018. – 258 b.

6. R.Safarova. Pedagogik ensiklopediya. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2015. – 377 b.

7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. – 420 b.

8. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok.diss. – T., 2003. – 276 b.

9. Mavlonova R., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009. – 176 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK-METODIK YONDASHUVLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Shaxnoza Umarova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitish orqali o‘qituvchilarda milliy g‘ururni rivojlantirishda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan usul va vositalardan foydalanish haqida muhim xulosaviy fikrlar bayon qilingan. Maqola mazmunini yoritish maqsadida tadqiqot mavzuimizga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, milliy g‘urur, interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash.*

Аннотация

В статье использование интерактивных методов и обучающих игр, современных информационно-коммуникативных технологий в развитии национальной гордости у учителей при преподавании педагогической науки в начальных классах позволяет учащимся мыслить самостоятельно, расширяя при этом объем творческих исследований и логических мышление, важные выводы об использовании методов и средств, которые помогают им связать изученное на занятиях с жизнью и повысить интерес. Для пояснения содержания статьи были использованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых, имеющие отношение к теме нашего исследования.

Ключевые слова: *начальная школа, национальная гордость, интерактивные методы, техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязательность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение.*

Annotation

In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games in primary school, the use of modern information in addition, communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative research and logical thinking. Along with the expansion, ideas articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest. In order to clarify the content of the article, scientific research works of foreign and local scientists related to our research topic were used.

Keywords: *technical, informational, audiovisual active civic position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep outlook.*

Boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda milliy g‘ururni rivojlantirish bugungi ta’limning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Har bir kishi odamlar orasida farovon yashashi uchun u yaxshi ta’lim-tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak. Zero, yurtboshimiz ham “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1, 16], deya ta’kidlaydilar. Ma’lumki, “Tarbiya” fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qitish,tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktika — ta’lim nazariyasi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar esa o‘quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi,shuningdek xotirani takomillashtiradi. Didaktik o‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zlari sezmagan holda juda ko‘p harakatlarni,mashqlarni bajaradilar,turli masalalarni yechadilar [2, 99]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “milliy” so‘zi (arabcha) biror millatning o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi, biror mamlakat va uning aholisi bilan bog‘liqligi ta’riflanadi [3, 56]. Demak, o‘zbek millatiga oid, O‘zbekistonni davlat, mamlakat sifatidagi tarixiga oid barcha moddiy va ma’naviy qadriyatlar milliy qadriyat sanaladi. Shu ma’noda me’moriy obidalar har ikki maqomdagi qadriyat sifatida ham ijtimoiy, ham pedagogik (tarbiyaviy) ahamiyat va mohiyat kasb etadi. “G‘urur” so‘zi ham arabcha so‘z bo‘lib, insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi, faxrlanish tuyg‘usi, faxr, iftixor, faxrlanishga asos bo‘ladigan narsa tariqasida talqin etilgan. Bolalarda faxrlanish tuyg‘usi, avvalo, o‘zi

ISSN 2181-8274

yashab turgan hudud, u yerda mavjud qadriyatlar asosida shakllanadi. Me’moriy obidadalar esa ham bevosita, ham bilvosita ta’sir etuvchi omil sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositadir [4, 78].

Milliy g‘urur tushunchasi “Mustaqillik: ilmiy-ommabop lug‘at”da “Milliy g‘urur – millatning o‘z-o‘zini anglashi natijasida sodir bo‘ladigan doimiy ichki ruhiy ko‘tarinkilik. U o‘z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulushlaridan, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissiyotidan iborat. Milliy g‘urur o‘z millatining chinakam fidoyisi bo‘lgan har bir insonga xos ichki ruhiy tuyg‘udir... milliy g‘urur har bir kishida o‘z millatining moddiy, ma’naviy meroslarini o‘zlashtirish, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini va tarixini mukammal bilish hamda uni o‘zga millatlarniki bilan qiyoslash natijasida shakllanadi” [5, 59].

Ota-bobolarimizdan qolgan moddiy va madaniy meros namunalari ham o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlikni oshiradi.

Quyidagi savollar milliy g‘urur haqidagi tasavvurlarni aniqlaydi:

Madaniy meros nima?

Madaniy meros qanday bo‘ladi?

O‘zbekiston va butun jahondagi madaniy meroslarni kim va nima uchun saqlaydi?

Madaniy meros nima sababdan odamlar uchun bunchalik muhim sanaladi?

“Bu uzuk menga buvimdan qolgan. U qimmatbaho emas, biroq men uchun qadrli inson haqidagi xotiralarni saqlaydi”.

“Mening buvam Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan. U o‘z otryadi bilan Berlingacha yetib borgan. U haqida xotira sifatida mehmonxonamizga uning suratini osib qo‘yganmiz. Mazkur portret uning xizmatlariga hurmat sifatida avloddan-avlodga o‘tib keladi”.

“Shahrimizda binolar ko‘p, biroq ulardan biri alohida ajralib turadi. Mazkur uyda o‘z davrida mashhur shoir Gulxaniy yashagan. Shahrimiz aholisi uning ijodiga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va shoir foydalangan turli buyumlarni quvonch bilan muzey kolleksiyasi sifatida ushbu uy-muzeyga taqdim etganlar”.

1. Insholar mualliflariga qanday buyumlar qadrli bo‘lib hisoblanadi? Nima uchun?

2. “Meros” va “merosxo‘rlik” so‘zlarining ma’nosini qanday tushunasiz? Venna diagrammasini tuzing va ushbu tushunchalarni qiyoslang.

3. Rasmga qarab, nimani his etayotganingizni tushuntirib bering.

“Merosxo‘rlik” so‘zi barchaga tanish — bu qarindoshlarimiz tomonidan bizga qoldiriladigan buyum va qimmatliklardir. Biroq butun avlodlarga qoldiriladigan qimmatliklar ham mavjud. Bunday osori-atiqalar “meros” deb ataladi.

Madaniy meros nafaqat qadimiy yodgorliklar, asriy obidalarni anglatadi. Bu ajdodlar tomonidan to‘plangan va avloddan-avlodga o‘tgan tajriba, tarix, urf-odatlar xazinasidir. Ushbu tajriba xalqlar va davlatlar madaniyatining asosini va noyob, o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Madaniy meros — bu madaniyat mavjudligining asosiy usulidir. Madaniy meros to‘laqonli hayot uchun zarur bo‘lgan fikrlar, qadriyatlar, g‘oyalar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli madaniy meros — bu saqlanishi zarur bo‘lgan barcha odamlar va millatlar, butun insoniyatning boyligidir.

Madaniy meros — bu o‘tmishni hozirgi zamon bilan bog‘lovchi nozik ipdir.

Milliy g‘ururni o‘stiruvchi madaniy meros — bu o‘tmishda yaratilgan va hozirgi davrda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlardir.

Madaniy meros moddiy meros barchasi insonlar tomonidan yaratilgan obidalar, haykallar va tasviriy san’at nomoddiy meros tajriba bilim, din, an’analar, urf-odatlar, marosimlar, musiqa, she’riyat va boshqalar.

1. Madaniy meros nima?

2. Nima sababli madaniy merosni o‘tmishni hozirgi zamon bilan bog‘lovchi nozik ip deb ataydilar?

3. Nima deb o‘ylaysiz, madaniy meros mamlakat va xalqlar kelajagiga ta’sir ko‘rsatadimi?

4. Zamonaviy inson madaniy merosni bilishi muhimmi? O‘z javobingizni izohlab bering.

5. Madaniy meros obyektlarini ustunlar bo‘yicha taqsimlab ko‘rsating: Navro‘z, sumalak, shashmaqom, oltin toj, olmos uzuk, qo‘lyozma kitob, choynak, to‘y marosimlari teatr binosi. Ro‘yxatni o‘z misollaringiz bilan to‘ldiring.

Yigitcha keksa cholbobo daraxt ekayotganini ko‘rib qolibdi. Yigitcha undan so‘rabdi:

— Bu daraxt o‘sib, meva berishi uchun necha yil kerak bo‘ladi?

Keksa bobo javob beribdi: “Bu daraxt faqat yetmish yildan keyingina meva beradi”.

Yigitcha yana so‘rabdi:

— Siz u vaqtgacha yashashingiz uchun o‘zingizni shu qadar sog‘lom va kuchli his qilyapsizmi?

Keksa bobo javob beribdi:

— Hayotim davomida men bobom tomonidan ekilgan daraxtlarning ko‘plab mevalaridan bahramand bo‘lganman. Endi, o‘z navbatida, farzandlarimga atab daraxt ekyapman.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Mazkur rivoyatdagi madaniy merosni nimaga qiyoslash mumkin?

2. Madaniy meros bizga nima uchun zarur?

3. Rivoyatda siz uchun qanday muhim qadriyat haqida so‘z yuritilgan?

Shashmaqom — vokal cholg‘u asboblari musiqiy asarlarining bir turi.

Katta ashula — Farg‘ona vodiysi an’anaviy ashulachiligi.

Ichanqal’a (Xiva).

Askiya — xalq hozirjavoblik san’ati.

Buxoro tarixiy markazi.

Navro‘z — Sharq Yangi yil bayrami.

Boysun tumani madaniy muhiti.

Shahrisabz tarixiy markaz.

To‘quvchilik — to‘qimachilik texnikasi.

Samarqand.

Dorbozlik — dorda yurish san’ati.

Qo‘l mehnati bilan ishlangan o‘zbek milliy idish-tovoqlari — butun jahonda ma’lum. Ular nima uchun shunday mashhurlikka ega? Keling, o‘ylab ko‘ramiz:

Idish-tovoqlari qo‘lda sharqning mohir ustalari tomonidan tayyorlangan.

Ikkita bir xil naqshlar umuman mavjud bo‘lmaydi.

Shakl va ranglar xilma-xilligi.

Ming yillik kulolchilik tajribalari, bilimlar avloddan-avlodga o‘tib keladi.

Bo‘yoqlarda tabiiy giyohlar va minerallardan foydalaniladi.

Idish-tovoqlarni o‘tda toblash o‘tinli (1000 yillar avvalgidek) amalga oshiriladi.

Bu ayni haqiqat, barcha mahsulotlar o‘z ishini juda yaxshi ko‘rgan va butun hayotini bu ishga bag‘ishlagan o‘zbekistonlik mohir ustalar tomonidan tayyorlangan. Nodir bezaklar, yorqin jonli ranglar, o‘nlab avlodlarning ming yillik tajribasi. Bularning barchasi afsonaviy o‘zbek idish-tovoqlaridir.

Topshiriq.

Keltirilgan misollardan nimalar moddiy, nimalar nomoddiy madaniy merosga taalluqligini aniqlang. Nima uchun o‘zbek idish-tovoqlari butun dunyoga mashhur? Sizningcha, nima sababli madaniy merosni saqlay kerak?

Bu qiziq:

1994-yilda Britaniyada mamlakatning madaniy merosini qo‘llab-quvvatlash uchun The Heritage Lottery Fund (HLF) tashkil etildi. Mamlakat olimlari tadqiqotlar o‘tkazib, quyidagi xulosalarga keldilar: 93% so‘ralganlar mahalliy madaniy meros mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, madaniy meros mahalliy hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 80% odamlar mahalliy diqqatga sazovor joylar yashash joylarini bezatadi deb sanaydilar. Bundan tashqari, 81% so‘ralganlar madaniy meros shaxsan o‘zlari uchun muhim ahamiyat kasb etishiga ishonadilar. Shunday qilib, so‘rovnomada ishtirok etgan (respondent)lar fikrga ko‘ra, madaniy meros: aholining o‘ziga bo‘lgan bahosi va g‘ururini oshiradi; joylarga jozibadorlik qo‘shib, o‘ziga jalb etadi; dam olish uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi; sayyohlarni jalb etib va yangi ish o‘rinlarini yaratib, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlaydi. Yakun yasaymiz.

Daftaringizga yozing va quyidagi jumlalarni yakunlang:

1. Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq: Quyidagi iboraning mazmunini tushuntiring: “Kelajakka qanchalik ko‘p nazar tashlasak, o‘tmishimizni shunchalik qadrlaymiz” (xalq hikmati).

2. Siz xalqimizning qanday madaniy va mehnat an’analarini bilasiz?

3. Sizning mintaqangizda qanday madaniy qadriyatlar mavjudligini aytib bering? Ular haqida nimalar bilasiz?

4. O‘zingiz uchun qadrli bo‘lgan ashyolar haqida so‘zlab bering. Nima uchun uni qadrlaysiz? Sizning qadriyatingiz ko‘plab asrlar davomida saqlanishi va avloddan-avlodga qoldirilishini xohlarmidingiz? O‘z javobingizni izohlab bering.

5. Ajdodlarimizdan bizga boy madaniy meros qolgan. Nima deb o‘ylaysiz, sizdan avlodlaringizga qanday madaniy meroslar qoladi?

Matn tahlili.

O‘zbekiston ko‘p millat va elatlarning vatani hisoblanadi. O‘zini haqiqiy vatanparvar deb bilgan har bir kishi o‘z vatanini sevadi va uni har doim himoya qilishga va muhofaza qilishga tayyor. Insonda har doim bitta vatan bor. Va agar u ikki yoki undan ko‘p Vatanga ega deb da’vo qilsa, unda umuman Vatan yo‘q va u vatanparvarlik ruhiga ega emas. “Vatanparvarlik” so‘zi har bir fuqaro o‘z vatanini himoya qilishi kerak bo‘lgan harbiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Baxtimizga, urushlar juda kam uchraydi va fuqarolar urushda vatanga bo‘lgan sevgisini isbotlashlari shart emas. Ammo bu tinchlik davrida vatanparvarlik kundalik hayotda o‘zini namoyon qilmaydi degani emas. Tinchlik davrida vatanparvarliksiz yashash shaxsiy manfaatlaringizni jamoat manfaatlaridan ustun qo‘yish, xudbinlik va faqat o‘zi haqida o‘ylashni, boshqalarni unutishni anglatadi.

Tinchlik davrida vatanparvarlik O‘zbekistonning manfaatlariga qaratilgan turli xil xatti-harakatlarda o‘zini namoyon qilishi mumkin, bu sportchilarning Olimpiadadagi g‘alabasi, bu fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash uchun vatanimiz chegaralarini himoya qilish, bu olimlarning katta daromad evaziga chet ellarda ishlashidan bosh tortishdir. Vatanni tashqi dushmandan himoya qilishga tayyorlik vatanparvarlik belgisidir; harbiy xizmatni tanlagan odam - vatanparvarlikni namoyish etadi. Vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, unga sodiqligi, uning manfaatlariga o‘z xatti-harakatlari bilan xizmat qilishga intilish. Amir Temur ibn amir Tarag‘ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo‘lgan. Amir Temurning yoshligi haqida ma’lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmlarini o‘rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning mu-

rakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodi ostida bo‘lib, Chingizxon va Botuxon bosib o‘tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o‘zining ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga suyurg‘ol sifatida in’om qilgan edi. Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi davri Movarounnahrni mo‘g‘ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o‘zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi. 1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurxon, uning o‘g‘li Ilyosxo‘jaga qarshi kurashlardan so‘ng, Amir Husayn ustidan g‘alaba qozongach, 1370 yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo‘ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi. Amir Temur taxtga o‘tirgach, Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga o‘zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg‘ona vodiysini, Xorazmni o‘z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga ketdi. Sohibqiron so‘nggi yillarda Eron, Iroq, Zakavkazye mamlakatlari, Hindiston, Oltin O‘rda va Turkiya bilan bo‘lgan janglarda g‘olib chiqib, saltanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g‘arbda — O‘rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi. Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo‘l — mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo‘llarida ustunlik qilib turgan Oltin O‘rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta’minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta’minlash yo‘lida qo‘shinning qudratini oshirish kabilarga katta e’tibor berdi.

Savollar

1. Vatanparvar bo‘lish nimani anglatadi?

2. Tinchlik davrida vatanparvar bo‘lish mumkinmi?

3. Amir Temurning vatanparvarligini nimada ko‘rdingiz? Javobingizni asoslang.

4. Nima deb o‘ylaysiz, Amir Temur bilan g‘ururlansa, maqtansa bo‘ladimi?

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, milliy g‘ururi baland, vatanparvar insonlardan biri haqida qisqacha yozib keling. Ayniqsa, milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirish — tarbiya darslarning asosiy vazifasi. Dars mashg‘ulotlarida jamoa bilan ishlash, hamkorlik, individual yondashish usullari samarador ekani aniqlandi. Boshlang‘ich sinflarda milliy g‘ururni rivojlantirish uchun mana shunday o‘quvchini fikrlashga undaydigan o‘quv topshiriqlar ustida ishlash yaxshi samara beradi. Bunday mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan tuyg‘ularni his etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. – 32 b.

2. M.Quronov, Y,Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov. 5-sinf “Tarbiya” darsligi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. – 2020. – 105 b.

3. M.Quronov, Y,Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov. 6-sinf “Tarbiya” darsligi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2020. – 108 b.

4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va unda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlar. Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi, 2022. – 77-78 b.

5. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – T.: Mehnat, 2001. – 195 b.

ANIMATSION ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VOSITASIDA CHIZMACHILIK FANIDA KO‘RGAZMALILIKNI TA’MINLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Alijon Niyozmetov,
Toshkent davlat pedagogika
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida chizmachilik fanini o‘qitishda asosiy omillardan biri bo‘lgan animatsion elektron ta’lim resursi vositasida ko‘rgazmalilik vositasida talabalar bilimini yanada oshirish, fazoviy tasavvurini shaklantirish haqida. Xususan, talabalarning bilim olish va mavzu mohiyatini to‘laqonli anglashlari uchun o‘quv mashg‘ulotlarida albatta ko‘rgazmali materiallardan unumli foydalanish zarur hisoblanadi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqola tadqiqotidan olingan natijalarni animatsion elektron ta’lim resurslari borasidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *standart, chizmalarni taxt qilish, ko‘rgazmalilik, grafika, samarali dars, tushuncha, zaruriyat, chizmachilik, mashg‘ulot, ketma-ketlik, uzviylik, didaktik talab.*

Аннотация

В данной статье речь идет о дальнейшем расширении знаний студентов и формировании пространственного воображения средствами анимационного электронного образовательного ресурса, что является одним из основных факторов в обучении рисованию в высших учебных заведениях. В частности, чтобы учащиеся получали знания и полностью понимали суть предмета, необходимо эффективно использовать наглядные материалы на учебных занятиях. Для раскрытия содержания статьи использованы научно-исследовательские работы зарубежных и отечественных учёных. Результаты, полученные в результате исследования статьи, могут быть использованы при исследовании анимированных электронных обучающих ресурсов.

Ключевые слова: *стандарт, закрепление рисунков, наглядность, графика, результативный урок, понимание, необходимость, рисование, обучение, последовательность, связность, дидактическое требование.*

Annotation

This article deals with the further expansion of students’ knowledge and the formation of spatial imagination by means of an animated electronic educational resource, which is one of the main factors in teaching drawing in higher educational institutions. In particular, in order for students to gain knowledge and fully understand the essence of the subject, it is necessary to effectively use visual materials in the classroom. In order to reveal the content of the article, the scientific research work of foreign and local scientists was used. The results obtained from the research of the article can be used in research on animated e-learning resources.

Keywords: *standard, drawing board, demonstration, graphics, effective lesson, concept, necessity, drawing, lesson, sequence, continuity, didactic requirement.*

Hozirgi rivojlangan ilm-fan va texnika taraqqiyoti oliy o‘quv yurtlari talabalarining grafik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni birmuncha o‘zgartirib yubordi. Grafik fanlarni o‘qitish texnologiyasi sezilarli darajada rivojlanishga yuz burdi. Zamonaviy ta’lim maskani eng yangi dasturiy va multimedia grafik paketlari va majmualari bilan to‘ldirilgan. O‘quv rejalarda talabalar kompetensiyalariga qo‘yilgan asosiy talablardan biri kompyuter grafikasini egallashdir. Shu sababli bugungi kunda grafik fanlarni ayniqsa chizmachilik fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati mavjud.

Y.F.Katxanova ta’kidlashicha: “Kompyuter texnologiyalaririvojlanishining yuqori sur’atlari, nafaqat mavjud bilimlar tizimiga, balki o‘qitishning an’anaviy usul va metodlarini takomillashtirishning yangi yo‘llarini izlashga bo‘lgan munosabatni tabiiy qayta baholashga olib keladi” [1, 38].

Metodika va texnologiyaning bir-biridan farqini shunday tushuntirish mumkin:

– metodika, bizning fikrimizcha, o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni, o‘qitishni tashkil etishning birgalikdagi majmuidir. Bir xil mazmunga ega bo‘lgan metodika, uslub va usullar yoki metodik tizim ikki o‘qituvchida ikki xil natija berishi mumkin;

– pedagogik texnologiya qo‘llanganda esa, turli o‘qituvchilar turli xil yondashuvda, turli xil vosita va usullardan foydalanishsa-da, bir xil natija olishlari mumkin.

Texnologiyalarni tanlashning eng samarali yo‘llaridan biri — bu multimediali yondashuvdir. O‘quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagi muhim omillarga ahamiyat berish kerak:

– o‘quv jarayonida yangi texnologiyalarning o‘zi emas, balki undan foydalanib ta’limning maqsadlariga erishishni ta’minlashning muhimligi;

– eng zamonaviy, qimmatbaho texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va an’anaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;

– o‘qitish natijalari axborot va kommunikatsiya yoki

ISSN 2181-8274

axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish, ularni uzatish sifatiga bog‘liqligi;

– texnologiyalarni tanlashda talabalarning shaxsiy xususiyatlariga, fan sohasi o‘ziga xos tomonlariga, o‘quv mashg‘ulotlari topshiriqlari va mashqlarining mazmuniga e’tibor qaratish lozimligini alohida ta’kidlash zarur.

Zamonaviy dars — o‘qitishning nostandart yo‘llari va usullarimajmuasi bo‘lib, o‘qituvchi barcha ko‘nikmalarini ma’lum o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun safarbar etib, talabalarni shu jarayonga jalb qiladi. Ularning qobiliyati, malakasini yangi ma’lumotlarni o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanishdir.

L.O.Mokresova fikriga ko‘ra, grafik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim shakllaridan foydalanish: talabalarni kompyutergrafikasi yordamida mahsulot chizmalarini bajarishga o‘rgatish, multimediali uskunalar yordamida video ma’ruzalar o‘qish, mustaqil o‘rganish uchun elektron tashuvchilarda fanlarning o‘quv-uslubiy fondini yaratish, kafedraning asosiy uslubiy ishlanmalarini elektron shaklga aylantirish orqali mavjud uslubiy zaxiralardan foydalanish va boshqalar bilan bog‘liq.

L.V.Pavlova innovatsion o‘qitish usullari tajribasini tahlil qilish asosida, chizmachilik va kompyuter grafikasida o‘quv materialini o‘rganish sifati turli o‘qitish usullariga bog‘liq, masalan, assotsiativ-kooperativ usul va tavsifiy analogiyalar usuli o‘qitishning muvaffaqiyatini oshiradi. Bu usullarning maqsadi fazoviy tasavvurni rivojlantirish, talabalarning ijodiy, kognitiv va injener-konstruktorlik yetukligini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotchi T.V.Chernyakova “Kompyuter grafikasi” fanini modelli o‘qitish metodikasini qo‘llagan holda, o‘qitish metodikasining darajasi, barcha tarkibiy qismlari, ya’ni ilmiy tavsiya berish, ularning o‘zaro aloqadorligi, tamoyillari, metodlari, vosita va shakllarini aniqlagan va fanni o‘qitish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Ushbu modelda OTM talabalariga “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda talabalarni psixologik-pedagogik tayyorlash, fanni o‘zlashtirish nima uchun kerakligini singdirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishni darajalar asosida belgilash, uslublar, vosita va shakllar orqali keltirilgan.

E.I.Ro‘ziyev o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida “Grafika” integrativ kursini yaratgan va uni o‘qitish metodikasini ishlab chiqqan. Unda “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitish muammolari va uning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, ushbu fanni olib boruvchi o‘qituvchi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan grafik talablarni bayon etgan [2, 18].

A.B.Puzankova o‘zining tadqiqotlarida umumtexnika fanlarini kompyuterlashtirish orqali ta’limning barcha bosqichlarida sust o‘zlashtiruvchi talabalarlar sonini sezilarli darajada kamaytirish uchun tegishli pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi, deb hisoblaydi.

J.J.Djanabayev fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonini jadallashtirish, aniq maqsadga qaratilgan informatsion tayyorgarlik va kompyuterlashtirishni talab etadi. O‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, kompyuterlashtirish, o‘quv jarayonini jadallashtirish asosini ta’minlaydi.

Barcha ta’lim metodlari o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlariga ega, shuning uchun maqsadga, sharoitlarga, mavjud vaqtga bog‘liq holda ulardan uyg‘unlikda foydalanish zarur. Ta’lim sifati o‘qitish va tarbiya sifatining yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Biz muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitishning shart-sharoitlarini, fanga ajratilgan vaqtni va grafik dasturlarning o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda Y.Y.Joxovaning fikrlariga qo‘shilamiz. Y.Y.Joxova o‘zining tadqiqot ishida kompyuterdan foydalanib o‘qitish metodlarining o‘ziga xosliklarini keltirgan. Muallifning ta’kidlashicha, kompyuter asosida o‘qitish amaliyotida ta’limning to‘rtta asosiy:

– ko‘rgazmali tushuntirish;

– reproduktiv;

– muammoli;

– tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin;

Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda, o‘qitishning reproduktiv metodi pedagog va kompyuter tomonidan talabaga yetkazilgan bilimlarni o‘zlashtirishni va o‘rganilayotgan materialni ko‘paytirish va uni shu kabi vaziyatlarda qo‘llashni, talabaning faoliyatini tashkil etishni ta’minlaydi. Kompyuter yordamida bu usuldan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etish sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, lekin u qo‘llanilayotgan an’anaviy sxemaga nisbatan (kompyutersiz) o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirishga imkon bermaydi. Bu borada muammo va tadqiqot usullaridan foydalanish yanada asosli.

Muammoli ta’lim metodi o‘quv jarayonini bayon qilib, tashkil etish vama’lum muammoni hal qilish yo‘llarini qidirish uchun kompyuterning imkoniyatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad, talabalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirishni maksimallashtirish. O‘quv jarayonida olingan bilimlar asosida turli toifadagi muammolarni hal qilish, shuningdek, muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bir qator qo‘shimcha bilimlarni chiqarish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va uzatish ko‘nikmalarini egallashga alohida ahamiyat beriladi [3, 60].

Bakalavrlarni tayyorlashda o‘quv vaqti qisqargan sharoitda o‘quv jarayoni maqsadlariga erishishni ta’minlash uchun auditoriya vaqtidan oqilona foydalanish zaruriyati tug‘iladi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim samaradorligini belgilovchi quyidagi omillarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

– mashg‘ulot shakli;

– o‘qitish va nazorat qilish metodlarining optimal kombinatsiyalarini tanlash;

– o‘qitish sur’ati;

– o‘rganishning hayot bilan ilmiy, tizimli va izchil aloqasi;

– ta’lim vositalarining optimal to‘plami.

Zamonaviy pedagogika o‘qitishning 20 dan ortiq tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi. Tarixan bilimlarni muloqot shakli orqali uzatish usuli sifatida ma’ruza hali ham uzviy intensiv va eng muhim didaktik tizimlardan biri bo‘lib, ta’limning dastlabki va asosiy bosqichlari maqsadlariga erishishga mo‘ljallangan. Ma’ruza individual mashg‘ulotdan guruhli mashg‘ulotga o‘tish bilan kelib chiqqan. Ma’ruzada diqqat, xotira, tasavvur, tafakkurning adekvat tizimi kabi bilim va bilish faoliyati asoslari yaratiladi. Ma’ruza, odatda, isbotlash va asoslash kabi o‘qitish usullarini talab qiladigan tushuntirish materialini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza hali ham o‘qitishning eng keng tarqalgan va muhim shaklidir.

Odatda bilishning ikki turiga ahamiyat beriladi: og‘zaki, nutqqa asoslangan va ko‘rish, tasvirlarga asoslangan. Talabalarning ayrimlarida og‘zaki yetkazilgan ma’lumotni qabul qilishga moyillik bo‘lsa, ayrimlariga esa ma’lumotni tasvirlar yordamida yetkazish talab qilinadi. Mana shunday vaqtlarda, ikkalasini mujassamlashtirib ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misollarni namoyish qilish usuli keksa avlod tajribasini yoshlarga uzatishning tarixan tashkil etilgan usulining davomibo‘lib, u “men kabi qil” qoidasidan iborat bo‘lgan. Bu usulning zamonaviy talqini hodisalar, jarayonlar, masalalar yechish usullari va turli vositalardan foydalanish yo‘llarini ko‘rgazmali tasvirlashni o‘z ichiga oladi. Misollarni namoyish qilish usuli kerakli natijaga olib keladigan muayyan harakatlarni ongsiz ravishda nusxalashni nazarda tutmaydi, aksincha, o‘rganilayotgan mavzu haqida o‘z fikringizni olishda tarkibiy qismlardan biridir. L.B.Grigorevskiy fikriga ko‘ra, muhandislik grafikasi fanlari qatoriga kiruvchi muhandislik kompyuter grafikasi fanidan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yetarli emas, shuning uchun, ma’ruza mashg‘ulotlari talabalarga ma’lumotni yetkazishning muhim va asosiy vositalaridan biridir. Bundan tashqari, o‘qituvchi yangi kursni o‘qish jarayonida, talaba turli manbalardan to‘plashi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni alohida mavzular va bo‘limlar ko‘rinishida beradi.

Yevropa va AQShda M.Sroka, Radovan B., Jelena T., H.Stachel va boshqalar, MDH davlatlarida V.V.Kondratova, J.J.Djanabaev, S.V.Panyukova va boshqalar, O‘zbekistonda A.K.Hamraqulov, Ch.T.Shokirova, N.D.Yadgarov, D.S.Saidaxmedova va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanidan oliy va kasb-hunar ta’limning turli bosqichlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berishgan. Bu tavsiyalar ichida ko‘rgazmalilik prinsipiga alohida e’tibor qaratilgan.

Chizmachilik fani o‘quv jarayonini ko‘rgazmali tashkil etish ham ko‘rsatish o‘quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o‘zlashtirishga olib keladi hamda diqqatni barqarorlashtiradi. Dars turi va mavzusiga mos ravishda ko‘rgazmali materiallar tayyorlash, ularni talabaning yoshi va bilish darajasiga muvofiqlashgan bo‘lishi, hamda ulardan foydalanishni samarali usul va vositalar yordamida tashkil etish lozim. “Chizmachilik” fanida ko‘rgazmali materiallar dars turi va mavzuga qarab turlituman bo‘lishi mumkin. Jumladan:

1. Bosma shakldagi materiallar(plakat, tarqatma materiallar va boshqalar).

2. Elektron ko‘rinishdagi materiallar (taqdimotlar, shakllar, rasmlar va boshqalar).

3. Animatsion ko‘rinishdagi materiallar(multimediali elektron kitob, elektron darslik va boshqalar).

4. Vitrual modellar (detallar, uy maketlar, mashina mexanizmlari va modellari).

“Qurilish chizmachiligi” fanidan ko‘rgazmali materiallarini zamonaviy ko‘rinishda yaratish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin. Talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish ko‘rgazmalilik darajasiga bevosita bog‘liq. Ko‘rgazmalilik darajasi yuqori bo‘lsa, talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirayotgan bilimi samarali bo‘ladi.

Virtual obyekt modellarini yaratishda ArchiCAD, AutoCAD, 3ds Max, Revit, Sketchup dasturlaridan foydalanish mumkin. Chunki bu dasturlar aynan kompyuterda modellashtirish ishlari uchun mo‘ljallangan. “Chizmachilik” fanida animatsion ta’lim resurslarini yaratishda o‘qituvchilar uchun, asosan AdobeFlash, Photoshop, Adobe Illustrator dasturida yaratish tavsiya etiladi. Birinchidan, yuqoridagi dasturlar xalqaro standartlarga moslashtirilgan bo‘lib, o‘qituvchi uchun har tomonlama qulaylik yaratadi [5, 210]. Ikkinchidan, bu dastur aynan animatsion elektron ta’lim resurslari sohasidagi qonun-qoidalari asosida ishlash uchun mo‘ljallangan.

Plakatlar tayyorlash uchun MS Word, PhotoShop, CorelDraw dasturlaridan foydalanish mumkin. Chizmachilik fani o‘qituvchilari MS Word va PhotoShop dasturlari imkoniyatlaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Matnlarni MS Word dasturi yordamida kiritish va unga dizayn berish o‘qituvchilar uchun qulay hisoblanadi. PhotoShop dasturida tasvirlarni qayta ishlash va dizayn berish imkoniyatlariga ega.

Tarqatma material tayyorlashda MS Word, ArchiCAD, Revit, Paint NET dasturlaridan foydalanish mumkin. Bu dasturlar yordamida o‘qituvchilar tarqatma material uchun kerakli bo‘lgan matn, grafik topshiriq va chizmalarni dizayni, sifatini zamon talabi asosida tayyorlash imkoniyatlari mavjud.

Multimediali dars ishlanmalari tayyorlashda Adobe Flash, ArchiCAD, Snagit dasturlari yordamida yaratish mumkin. Adobe Flash dasturi chizmachilik fanidagi turli xil chizmalar va topshiriqlarni animatsiyali ko‘rinishga o‘tkazish uchun eng qulay dasturlar turkumiga kiradi. Elektron darslik barcha o‘quv jarayonining didaktik sikli: nazariy ma’lumotlar, masalalarni yechish ketma-ket-

liklarini animatsion ko‘rinishda bo‘lishi, ta’lim jarayonida foydalanishi, olingan bilim darajasini nazorat qilish hamda ma’lumotlarni qidirish tizimining mavjudligi kabi ko‘rsatkichlariga ko‘ra boshqa darsliklardan ajralib turadi.

Multimediali elektron kitob quyidagi dars maqsadlarida foydalaniladi:

1. Ta’limiy maqsadi: talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni fazoviy tasavvur qilish orqali o‘rganishi va amaliy dars jarayonida shu bilimlar asosida grafik topshiriqlarni bajarishni tashkil etish.

2. Tarbiyaviy maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni fazoviy tasavvur qilish orqali egallash jarayonida ularning ketma-ketligini aniq tushunib olish hamda real hayotda zaruriy vosita sifatida qo‘llash, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish.

3.Rivojlantiruvchi maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha rivojlangan fazoviy tasavvur asosida bilimni ko‘nikmaga, ko‘nikmani esa malakaga aylantirish va mustaqil ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Videodarslar quyidagi turlarda bo‘ladi:

1-dars jarayonini bevosita kuzatish va unda bilim beruvchi (ma’ruzachi-o‘qituvchi) ishtirok etadi, unda ma’lumotlarni ko‘rish, eshitish, o‘rganish hamda o‘zlashtirish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

2-berilayotgan bilim beruvchi ishtirokisiz ovozli yoki ovozsiz faqat bajariladigan jarayon tasvirlanadi. Bu bo‘lim ko‘proq ma’ruza darslariga to‘g‘ri keladi. Ular agar talaba ma’ruza darsida tushunmagan joyi yoki ma’lumoti bo‘lsa, uni bemalol o‘qituvchi yordamisiz o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada o‘zlashtirilayotgan bilimni ko‘nikmaga aylanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. Biz aytayotgan videodars “Chizmachilik” fani bo‘yicha yaratilgan bo‘lib, unda tanlab olingan mavzular bo‘yicha bajarilgan. Shulardan kelib chiqib yuqorida ta’kidlanganidek, videodarslarni tashkil etish va o‘quv jarayoniga qo‘llash bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.Fan bo‘yicha o‘zbek tilida video ma’ruzalar mavjud. Lekin amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas. Ayniqsa, chizmani chizish ketma-ketligini, ya’ni algoritmi bilan tasvirlangan videodarslar yo‘qligi bugungi kun ehtiyojlarini qondirmaydi [4, 100].

Xulosa, talabalar texnika fanlarini o‘qishida, eng avvalo chizmalar, grafiklar, shakllarni chizish va ularni o‘qiy olishi lozim. Buning uchun topshiriqlar to‘plami sifatli bo‘lishi talab etiladi. Sifatli grafik topshiriqlar to‘plamini yangidan ishlab chiqish zarurligi o‘zining yechimini kutmoqda. Bu muammoni maqbul yechimini topish uchun fan bo‘yicha darajali grafik topshiriqlar to‘plamini elektron versiyasini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Катханова Ю.Ф. Компьютерные технологии на уроках изобразительного искусства / Ю.Ф.Катханова, О.В.Караваева // Научные исследования: от теории к практике. – 2016. – №1. – 36–40 с.

2. Рузиев Э.И. Научно–методические основы подготовки учителей графики в высших учебных заведениях: Автореф. дисс. док. …пед. наук. – Т., 2005. – 44 с.

3. Мокрецова, Л.О. Инновации графической подготовки в вузах / Л.О. Мокрецова, В.Б. Головина // Информационные технологии и технический дизайн в профессиональном образовании и промышленности: сб. Материалов. – 59-64 с.

4. Павлова Л.В. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов технического вуза с использованием комплекса занимательных заданий по инженерной и компьютерной графике: Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: РГБ, 2003. – 181 с.

5. Митин, В.С., Мануйлов В.Ф. Инженерное образование на пороге XXI века Текст. / В.С. Митин, В.Ф. Мануйлов. – М.: Издательский дом Русанова, 1996. – 224 с.

TA’LIMDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Umida Murtazayeva,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy ta’lim muhitida mobil texnologiyalarning roli va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada mobil texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi potensiali, o‘qituvchi hamda talabalarning mobil qurilmalar va ilovalardan foydalanish tajribalari hamda mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi keng qo‘llanilishini rag‘batlantirishdagi muammolar, mobil texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashtirishning afzalliklari, shuningdek, bu jarayonda duch kelinadigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari muhokama qilingan.Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, mobil texnologiyalar, ta’limda innovatsiya, ta’lim samaradorligi, texnologik integratsiya, interaktiv o‘quv jarayoni*

Аннотация

Данная статья посвящена изучению роли и значения мобильных технологий в современной образовательной среде. В статье обсуждается потенциал мобильных технологий в повышении эффективности обучения, опыт использования мобильных устройств и приложений учителем и учащимися, а также проблемы, способствующие широкому применению мобильных технологий в образовании, преимущества интеграции мобильных технологий в образовательный процесс, а также основные проблемы, с которыми сталкиваются в этом процессе, и пути их решения. Для раскрытия содержания статьи использованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова: *современное образование, мобильные технологии, инновации в образовании, эффективность обучения, технологическая интеграция, интерактивный процесс обучения*

Annotation

This article is devoted to the study of the role and importance of mobile technologies in the modern educational environment. The article discusses the potential of mobile technologies in improving learning efficiency, the experience of using mobile devices and applications by teachers and students, as well as the problems contributing to the widespread use of mobile technologies in education, the advantages of integrating mobile technologies into the educational process, as well as the main problems faced in this process and ways to solve them. In order to reveal the content of the article, scientific research works of foreign and local scientists were used.

Keywords: *modern education, mobile technologies, innovations in education, learning efficiency, technological integration, interactive learning process*

Zamonaviy ta’lim tizimida mobil texnologiyalarning ahamiyati shiddat bilan ortib bormoqda, bu esa o‘qituvchilar hamda talabalar uchun ta’lim olish va berish jarayonini ancha samarali va qulaylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur texnologiyalar ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikalarini yangilash va ta’lim mazmunini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, mobil ilovalar, onlayn platformalar va elektron kitoblar o‘qituvchi va talabalarga darslarni an’anaviy sinf xonalaridan tashqarida ham davom ettirish imkonini beradi. Bu esa o‘quv materiallariga o‘z vaqtida va oson kirish imkonini ta’minlab, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mobil qurilmalar va ilovalar ta’lim jarayonini individualizatsiya qilishga imkon beradi, ya’ni har bir talaba o‘ziga mos o‘quv materiallari va o‘qitish uslublarini tanlashi mumkin. Bu talabalarning turli o‘quv stillari va ehtiyojlariga mos keladi, shu bilan birga, ularning mavzularni chuqurroq tushunishlarini va o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Shuningdek, mobil texnologiyalar o‘qituvchilar uchun ham katta imkoniyatlar ochadi: ular o‘quv materiallarini oson yangilashi, talabalar bilan aloqani kuchaytirishi va o‘qitish samaradorligini oshirishi mumkin.

Mobil texnologiyalarning keng tarqalishi ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar oldida ba’zi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Bular orasida texnik ta’minot, ma’lumotlar xavfsizligi va o‘quvchilarning elektron qurilmalardan foydalanish madaniyatini oshirish masalalari mavjud. Shunday qilib, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi rolini to‘liq amalga oshirish uchun, ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalar ushbu imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalanishlari, shuningdek, mavjud qiyinchiliklarga mos yechimlarni topishlari zarur.

Mobil texnologiyalar geografik chegaralarni yengib o‘tishga, ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlarni kamaytirishga va ta’limning barcha darajalarida barcha talabalar uchun teng sharoit yaratishga qodir [1, 95]. Bugungi avlod talabalari turli darajadagi mobil texnologiyalarning har xil turlari bilan allaqachon tanish [2, 68]. Ushbu avlod oddiy foydalanuvchilar orasida kompyuterlardan foydalanish allaqachon keng tarqalgan va bugungi kunda mavjud bo‘lgan

ISSN 2181-8274

raqamli texnologiyalarning aksariyati allaqachon kundalik hayotning bir qismi bo‘lgan davrda tug‘ilgan [3, 79].

Olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy ta’lim muhitida mobil texnologiyalarning tobora ortib borayotgan rolini chuqur anglash va uning ta’lim sohasiga qo‘shayotgan hissasini batafsil tahlil etishdan iboratdir. Shu maqsadda, biz turli yosh va ixtisoslikdagi o‘qituvchilar va talabalarning fikrlari, tajribalari va mobil texnologiyalardan foydalanish darajalarini aniqlash uchun keng ko‘lamli anketa so‘rovlari, shaxsiy intervyular va mavjud ilmiy adabiyotlarni diqqat bilan o‘rganish usullaridan foydalandik. Tadqiqotda nafaqat mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi amaliy qo‘llanilishini, balki bu texnologiyalarning o‘qituvchilar va talabalarning o‘qitish va o‘rganish usullariga qanday ta’sir qilayotganini ham aniqlashga qaratilgan. Masalan, mobil ilovalar, elektron kitoblar, onlayn kurs materiallari va boshqa interaktiv resurslarning ta’lim sifati va samaradorligiga qo‘shayotgan hissasini baholash. Shuningdek, mobil texnologiyalarning ta’lim muassasalaridagi infrastruktura, o‘quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarga ta’siri ko‘rib chiqildi.

Mobil ta’limning asosiy tendensiyasi uning an’anaviy ta’lim tizimiga integratsiya bo‘lishidir. Ushbu jarayonda gap nafaqat mobil texnologiyalar orqali masofaviy va aralash ta’limni takomillashtirish, balki uning asosiy uslublarini saqlagan holda an’anaviy ta’limni optimallashtirish haqida bormoqda[2,69]. Mobil ta’lim tadqiqotining ushbu tasnifi mobil ta’limni rivojlantirishning texnik va uslubiy jihatlarini ochadi hamda ushbu yo‘nalishning jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga turtki bo‘ladi [4, 11].

Mobil texnologiyalarning o‘sishi smartfonlar va planshetlar orqali ma’lumot uzatish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Mobil qurilmalarning yangi avlodi talabalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda bir-birlari bilan o‘rganish, hamkorlik qilish va fikr almashish imkonini beradi va oliy ta’limda ta’lim texnologiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Raqamli mobil telefondan ta’lim maqsadlarida foydalanish mobil ta’lim deb nomlanadi [5, 95].

Tadqiqot jarayonida o‘qituvchilar va talabalarning mobil texnologiyalarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish orqali, ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayonida qanday qo‘llashlari va bu qo‘llanishning o‘quv natijalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Bunda, texnologiyaning o‘quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishlari va o‘qishga bo‘lgan munosabatlariga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi kabi jihatlar diqqat markazida bo‘ldi. Natijada, tadqiqot o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun mobil texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga va bu texnologiyalarning ta’lim sohasidagi potensialini to‘liq ishga solishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim muhitida mobil texnologiyalarning o‘rnini yanada aniqlashtirib, ularning ta’lim jarayonidagi muhim rolini tasdiqladi. Anketa so‘rovlari va shaxsiy intervyular orqali to‘plangan ma’lumotlarga tayanib, o‘qituvchi va talabalar mobil qurilmalar va ilovalarni qo‘llash orqali ta’lim materiallariga har qanday joydan va istalgan vaqtda oson kirish imkoniyatini qo‘lga kiritganliklarini bildirishdi. Bu imkoniyat, o‘z navbatida, o‘qitish va o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quv materiallarini tez va samarali o‘zlashtirishga yordam bergan.

Mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi yana bir muhim afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarni o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirishga va yangi mavzularni chuqurroq o‘rganishga rag‘batlantiradi. Bu holat, ayniqsa, interaktiv o‘quv ilovalari, onlayn kurs materiallari va elektron kitoblar orqali o‘z bilimlarini boyitishni istagan talabalar orasida keng tarqalgan. Mobil qurilmalarning portativligi va ilovalarning foydalanuvchi do‘stligi ta’lim jarayonini an’anaviy darsxonalar chegarasidan chiqarib, talabalarga o‘qish va o‘rganish uchun yangi va jozibali usullarni taqdim etadi. Natijada, talabalarning o‘quv materiallariga bo‘lgan qiziqishi oshadi va ular o‘z bilimlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha resurslardan foydalanishga undaladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mobil texnologiyalarning ta’lim sohasiga integratsiyasining muvaffaqiyati ularning qo‘llanilishini qo‘llab-quvvatlovchi infrastruktura, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalarning texnologik vositalardan foydalanish bo‘yicha tayyorgarligi kabi omillarga bog‘liq ekanligini ham ko‘rsatdi. Bunday yondashuv ta’lim muassasalariga o‘quv jarayonini yanada samarali va innovatsion qilish yo‘lida mobil texnologiyalarning afzalliklaridan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

Mobil texnologiyalarning ta’lim sohasiga joriy etilishi bir qator beqiyos afzalliklarni keltirib chiqarishi bilan birga, bir qator qiyinchiliklar va muammolarni ham yuzaga keltiradi, bularni hal qilish ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalarning kollektiv harakatlarini talab qiladi. Texnologiyaning keng tarqalishi bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri – texnik nosozliklar va ularning o‘quv jarayoniga ta’siridir. Bunday vaziyatlar, masalan, internet ulanishining uzilishi yoki mobil qurilmalarning ishdan chiqishi kabi holatlar, o‘quv materiallariga kirishni vaqtincha cheklashi mumkin.

Shuningdek, ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi hozirgi kunda ta’lim sohasida mobil texnologiyalardan foydalanishning eng muhim masalalaridan biridir. Talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, o‘quv materiallari va baholari kabi sezgir ma’lumotlarning noto‘g‘ri qo‘llarga tushib qolishi yoki suiiste’mol qilinishi, jiddiy xavfsizlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Biroq, bu muammolarga qaramay, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasiga integratsiyasi o‘quv jarayonini ancha samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali ta’lim materiallariga keng qamrovli kirish imkoniyati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini individualizat-

siya qilishga va o‘qituvchilarning ta’lim berish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasiga kiritilishi, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqotni yanada kuchaytirib, ta’lim jarayonini ko‘proq foydalanuvchi markazlashgan va qulay qiladi. Shu tariqa, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi ahamiyati va potensiali shubhasiz katta bo‘lib, ularning to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi kelajakdagi ta’lim muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

XXI asrda texnologiyaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi ta’lim sohasida ham o‘z aksini topdi. Mobil texnologiyalarning keng qo‘llanilishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirdi, bu esa o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Mobil texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlarini 1-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

1-jadval

Mobil texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari

Mobil texnologiyalarning ijobiy jihatlari	Mobil texnologiyalarning salbiy jihatlari
Samaradorlik va qulaylik: Mobil texnologiyalar o‘qituvchi va talabalarga ma’lumotga oson kirish imkonini beradi, bu esa o‘quv materiallarini o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.	Diqqatni chalg‘itish: Mobil qurilmalar ko‘pincha o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itadi, bu esa o‘qish samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi.
Moslashuvchanlik va egiluvchanlik: Talabalar o‘zlarining qulay vaqtlarida o‘qishlari mumkin, bu esa o‘qish va ish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi.	Texnologik muammolar: Internet ulanishi yoki texnologik nosozliklar o‘quv jarayonini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.
Interaktivlik: Mobil ilovalar va o‘quv platformalari o‘quv materiallarini yanada jonli va tushunarli qiladi.	Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi: Mobil qurilmalardan foydalanish shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki suiiste’mol qilinishi xavfini oshiradi.

Mobil texnologiyalarning o‘quv jarayonini ancha qulay va samarali qilishi mumkin bo‘lsa-da, ularning noto‘g‘ri yoki haddan tashqari qo‘llanilishi talabalarning diqqatini chalg‘itishi, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar o‘quvchilarga mobil texnologiyalardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanishlari uchun zarur bo‘lgan amaliyotlarni ishlab chiqishlari talab qilinadi.

Bu borada, ta’lim muassasalari talabalarga mobil texnologiyalardan foydalanishning asosiy qoidalari va yaxshi amaliyotlarini o‘rgatishi, shuningdek, ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar taqdim etishi kerak. Bundan tashqari, mobil qurilmalar va ilovalardan foydalanishda talabalarning shaxsiy ma’lumotlari va o‘quv materiallari xavfsizligini ta’minlash uchun kiberxavfsizlik choralarini ko‘rish zarur. Masalan, kuchli parollardan foydalanish, ma’lumotlarni shifrlash va viruslarga qarshi dasturlarni o‘rnatish kabi tadbirlar.

Shu bilan birga, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasiga integratsiyasi o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi va qiziqarli imkoniyatlarni ochib beradi. Masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali interaktiv o‘quv materiallariga kirish, videokonferensiyalar va virtual sinfxonalar orqali masofadan ta’lim olish, shuningdek, o‘quv jarayonida ishtirok etish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Bunday innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o‘qituvchilarga ta’lim berish jarayonini yanada samarali va ma’noli qilishga yordam beradi.

Dunyo bo‘ylab ta’limni raqamlashtirishning o‘sishi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayoniga kiritilgan raqamli texnologiyalar miqdori ta’lim sifatiga o‘tish jarayoniga olib keladi [6, 354]. Ta’limiy mobil ilovalar ishtirokidagi o‘quv jarayoni strukturasining alohida tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishda uni amalga oshirish haqida tasavvurga ega bo‘lish lozim. Bu holda ta’lim jarayonini tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tinglovchilarning o‘quv faoliyatining maqsad va vazifalarini aniqlash; tinglovchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojini va o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishni shakllantirish; tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv materialining mazmunini aniqlash; tinglovchilarning o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish; tinglovchilarning o‘quv faoliyatiga hissiy-irodaviy xususiyat berish; talabalarning o‘quv faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish; tinglovchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash [7, 995].

Natijada, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi ijobiy va salbiy jihatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqishlari va amaliyotlarni joriy etishlari zarur. Bu jarayonda texnologik vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda talabalarning shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligiga alohida e’tibor qaratish, o‘qituvchi va talabalar uchun mobil texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ta’lim va treninglar tashkil etish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi roli haqiqatdan ham inkor etib bo‘lmas darajada muhimdir. Bu texnologiyalar, ayniqsa smartfonlar va planshetlar kabi qurilmalar, o‘quv materiallariga istalgan vaqt va joydan kirish imkoniyati bilan o‘qituvchi va talabalar uchun yangi va noyob imkoniyatlar ochib beradi. Ta’limda mobil texnologiyalarni qo‘llashning kengayib borishi, bu sohada yangi tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalarning ta’lim sohasidagi potensialini to‘liq anglash va ulardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish, kelajakdagi ta’lim modellarini shakllantirish va ularni takomillashtirish uchun muhimdir. Shu tariqa, mobil texnologiyalarning ta’lim sohasidagi integratsi-

yasi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yangi darajaga ko‘tarishi mumkin, bu esa ularga zamonaviy dunyo talablariga mos kelish va unda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va bilimlarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Уваров, А.Ю. На пути к цифровой трансформации школы. – М.: Образование и Информатика, 2018. – 120 с.

2. Pegrum M., Faulkner R. Schools going mobile: A study of the adoption of mobile handheld technologies in western Australian independent schools. Australasian Journal of Educational Technology, 29(1), – 66-81 p.

3. Brantes Ferreira J., Zanela Klein A., Freitas A., Schlemmer E. (2013). Mobile learning: definition, uses and challenges. In Increasing student engagement and retention using mobile applications: Smartphones, Skype and texting technologies. – 47-82 p.

4. Абдуллаев М.К. Мобил технологияларни таълим тизимида қўллаш методлари. “Рақамли технологиялар: иқтисодиёт ва таълим тизимини ривожлантириш тенденциялари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т., 2022. – 10-13-б.

5. Шарифбаева Х.Я., Абдурашидов И.Ж., Алимарданов Р.А. Возможности и перспективы развития мобильных технологий в высшем техническом образовании. Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. – С. 94-98. URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12927

6. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизация и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. – 2019. – № 5 (78). – 353-355 с.

7. Zakirova F.M., Nafasov M.M. Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari // Multidisciplinary Scientific Journal “Academic Research in Educational Sciences”. Volume 3, Issue 4, 2022. – 917-925 p.

BOLANING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIMNING O‘RNI

Dildora Pulatova,
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti
“Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi mudiri

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolaning shaxs sifatida shakllanishida maktabdan tashqari ta’limning o‘rni, uning shakllari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatidagi ahamiyat, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif maqolada bolalarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, maktabdagi darslardan tashqari o‘zi mustaqil izlanib ilm olishi va uning natijalari, avvalo, o‘zi va jamiyat uchun foydali bo‘lishini tahliliy-nazariy izlanishlari natijasida ko‘rsatib beradi

Kalit so‘zlar: *maktab va maktabdan tashqari ta’lim, ijodiy faoliyat, beshta tashabbus, ommaviy shakllar, mustaqil ish, kutubxona, o‘qish, muzey, sayohat, ertaklar, ijodiy fikrlash.*

Аннотация

В данной статье описывается роль внешкольного образования в формировании ребенка как личности, его формы, значение в деятельности младших школьников, развитие теоретических знаний учащихся, создание условий для развития творческих способностей. Способности через производство. Также в статье автор показывает в результате своих аналитических и теоретических исследований, как эффективно организовать свободное время детей, как самостоятельно искать знания вне школьных занятий и чем его результаты будут полезны, в первую очередь. , для себя и для общества.

Ключевые слова: *школьное и внеклассное образование, творческая деятельность, пять инициатив, общественные формы, самостоятельная работа, библиотека, чтение, музей, путешествие, сказки, творческое мышление.*

Annotation

This article describes the role of out-of-school education in the formation of a child as a person, its forms, importance in the activities of primary school students, the development of students’ theoretical knowledge, creation of conditions for the development of creative abilities through production. Also, in the article, the author shows, as a result of his analytical and theoretical research, how to effectively organize children’s free time, how to independently search for knowledge outside of school classes, and how its results will be useful, first of all, for themselves and for society.

Keywords: *school and extracurricular education, creative activity, five initiatives, public forms, independent work, library, reading, museum, travel, fairy tales, creative thinking.*

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasida ta’lim faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan: siyosiy tizimning o‘zgarishi, yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda davr talabiga javob beradigan yangi tamoyillar, g‘oyalarni, ish uslublarini rivojlantirish, o‘qituvchining ijodini qayta qurish bugungi kunning dolzarb mavzusidir.

Davlatimiz rahbari yoshlarimizga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborotdan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari doim qayta takomillashtirish masalalari takrorlanadi. Yoshlarda texnologiyalar, mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Aytish kerakki, turli qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immuniteti ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarb ekanini davrning o‘zi ko‘rsatmoqda [1, 257].

Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, ularning darsdan tashqari vaqtlaridan unumli foydalanish borasida ilgari surilgan beshta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surdi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Individual va ommaviy tashkil etish shakllarida maktabdan tashqari ishlarni qo‘llash samarali natija beradi. Musiqa va rassomchilikka qiziqishini inobatga olib, “Dutorchi qizlar”, “Qalamqoshlar”, “Yosh rassom”, “Nihol” teatr studiyalari tashkil qilindi. Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, ularning darsdan tashqari vaqtlaridan unumli foydalanish borasida ilgari surilgan beshta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi tashabbus esa yoshlarning jismoniy chiniqishi, ularning sport sohasida salohiyatini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Bunda bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida “quvnoq startlar”, “chaqqon quyon”, shaxmat-shashka, sport gimnastikasi, stol tennisi, yugurish, badminton kabi sport to‘garaklarini tashkil etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Yosh o‘quvchilarga nafaqat kompyuter o‘yinlari, balki ularning savodxonligini oshirish maqsadida turli to‘garaklar tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Bunda o‘quvchilar dastlabki bilimlari bilan birga kompyuter savodxonligiga bo‘lgan qiziqishlari asosida turli dasturlarni o‘rganishlari mumkinligini aytdi.

Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, ularning darsdan tashqari vaqtlaridan unumli foydalanish borasida ilgari surilgan beshta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan. “Yosh kitob do‘koni” to‘garagi va dars jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda tanlab olingan adabiyotlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi. “Yosh jurnalistlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish, suhbatlar, bahs-munozaralar tashkil etish ko‘zda tutilib, tarixiy-nasriy asarlarni tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarimizni o‘rganish, ularni qunt bilan asrab-avaylash bo‘yicha zarur dasturlarni ishlab chiqish, kelajak avlodlar uchun yuksak ma’naviy meros namunalarining yangi variantlarini yaratuvchi ijodkorlarni kashf etish, tarbiya va ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish [3, 47].

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalariga qaratilgan. Talabalarning yoshlardan gender tengligini joriy etish, ayollar va qizlar bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni shakllantirish maqsadida turli kasb-hunarga yo‘naltirilgan tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, davlatimiz rahbarlari ta’lim tizimiga katta ahamiyat berishadi. O‘tgan davrda ta’lim sohasida darsdan tashqari ishlarni tashkil etish jarayoniga aynan e’tibor qaratilmagani yoshlar o‘rtasida qator salbiy oqibatlarga olib keldi. Bular turli ta’sirlarga tez sho‘ng‘ish, duch kelgan muammolarni bartaraf eta olmaslik, ishsizlik, oson pul topishga qiziqish, ommaviy madaniyatga sho‘ng‘ish, milliy qadriyatlarni birlashtirish, kitob o‘qishda asosiy narsa ijodkorlik mahoratiga e’tiborsizlik, loqaydlik kabi holatlardir.

Bolaning kichik maktab yoshidan boshlab maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Zero, “yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdek” bo‘lsa ajabmas. Maktabdan tashqari ishning o‘zi nima, yoshlar hayotida qanday ahamiyatga ega, u qanday tashkil etilgan?

Maktabdan tashqari ishlar umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biridir. Maktabdan tashqari ishlar o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maktabdan tashqari ishlar o‘quvchilar bilan olib boriladigan va ularga ta’lim va bilim berishga qaratilgan turli xil faoliyat tizimini o‘z ichiga oladi. Bunday mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtda pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari va bolalar o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari rahbariyati tomonidan tashkil etiladi. O‘quvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil etishda maktabdan tashqari talabalar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh turistlar klubi va boshqa muassasalar katta yordam bermoqda. Ommaviy ishlar maktabdan tashqari ishlarning asosiy shakl-

lari sifatida (maktab to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar, kechagi mashg‘ulotlar, bahs va bellashuvlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmali chiqishlar tashkil etish, tabiat qo‘ylari, maktab va muzeylarga kirish), to‘garak ishlari (o‘quvchilarning turli to‘garaklar, sport seksiyalarida ishtirok etishi, ansambllar), mustaqil ishlar (o‘quvchilarning maktabdan tashqari ta’limlari, to‘plamlar to‘plami, texnikalar, musiqa, tasviriy san’at, chizmachilik va boshqalar).

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishlari, istaklari va ehtiyojlariga tayangan holda darsdan bo‘sh vaqtlarida ta’lim jarayonini to‘ldiradi. Bu talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirish imkoniyatini beradi. Maktabdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak dasturlari rangbarangligi, mazmunidagi yangiliklar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxs sifatida shakllanishida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ta’lim jamiyatdagi hodisa sifatida o‘sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turg‘unlikda, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatida, ijodida va ma’naviyatida ishtirok etishining murakkab g‘ayriijtimoiy va tarixiy jarayonidir. Ular insonga aylanadi, rivojlanadi va individuallashadi, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining muhim elementlari, shaxsiy baxtining yaratuvchilari hisoblanadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar vorisligini ta’minlaydi.

Maktabdan tashqari ishlar jarayonida o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari, jamiyatda axloqiy fazilatlari shakllanadi. Bunda, shuningdek, o‘quvchilar bir-biriga munosabatda bo‘ladigan madaniyatni shakllantiradi. O‘quvchi o‘qituvchiga taqlid asosida yoki o‘z do‘stlari orasida o‘rgangan tarbiya muomalasiga ta’sir qilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish uchun birinchi navbatda o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan munosabatini, e’tiborini, qiziqishini o‘rganishi kerak [4, 189].

Ommaviy mashg‘ulotlar filmlar namoyish etish, tabiatga sayohat, ertaklar, o‘quvchilar mehnati tomoshasini tashkil etish, shuningdek tadbirlarni o‘tkazishni (hosil kuni, bog‘dorchilik, daraxt ekish haftasi, qushlar kuni va boshqalarni) o‘z ichiga oladi. Guruh mashg‘ulotlariga yosh shoirlar, yosh kitobxonlar ijodi kiradi. Individual sessiyalar Chiqarish afishalari, albomlar; Insholar tanlovi va turli badiiy tadbirlar; maktabdan tashqari o‘qish va ma’lumot burchagi, o‘qish faniga oid “Gulhan” jurnallari uchun adabiyotlar mazmunidan materiallar tanlash, o‘quvchilarning fan kitoblariga tahlil qilish kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini adabiyot sharafi ruhida tarbiyalashda maktabdan tashqari barcha turdagi mashg‘ulotlar bir-birini to‘ldirishi va takomillashtirishi kerak. Shaxsiy topshiriq yoki o‘qituvchining tavsiyasini bajarishga alohida qiziqish uyg‘otish kerak. Bir nechta o‘quvchilarda o‘xshash qiziqishlarni aniqlab, o‘qituvchi ularni doira ichiga birlashtiradi. Bunday uyushmalar maktabdan tashqari ommaviy tadbirlarning tashkiliy markazi bo‘lib qolishi kerak, ularning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun turli xil tayyorgarlik ishlari va ko‘plab ishtirokchilar kerak. O‘quvchilarni o‘qishga — adabiyotga mehr ruhida tarbiyalashda maktabdan tashqari ishlar tashkiliy shakli, mazmuni, o‘tkazish texnikasi jihatidan rang-barang bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarning tarkibi, yoshi, qiziqishi va ehtiyojlari, tanlangan asarlarning janrlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarni kitobxonlik ruhida tarbiyalashda o‘qituvchi maktabdan tashqari adabiy ishning metod va usullarini oldindan rejalashtiradi, o‘quvchilarni turli faoliyat turlariga jalb qiladi. Maktabdan tashqari ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan har bir mashg‘ulot uchun materialni to‘g‘ri tanlash, uni o‘tkazish rejasi va metodikasi, shuningdek, o‘quvchilarning mo‘ljallangan mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishiga bog‘liq.

Maktab va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning tarbiyaviy ta’siri ko‘p jihatdan o‘quv jarayonini tashkil etish darajasiga, shuningdek, talabalar jamoasi turli ishlarni qanday bajarishiga bog‘liq. Maktabdan tashqari mashg‘ulotlar majburiy dastur bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning ixtiyoriy yoshining har xil turlarini ham birlashtiradi. Ular o‘z tashabbuslari asosida ish olib boradi, fanga qiziqadi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi[5, 87]. Maktabdan tashqari ishlar insondagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong va axloqiy odatlar mazmunining eng muhim omilidir.

Maktabdan tashqari tashkil etilgan ishlar o‘quvchilar hayotidagi ta’lim faoliyatini to‘ldiradi. Ular dunyoqarashining to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamolotga erishishiga hissa qo‘shadilar. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lash uchun zamin yaratadi.

Maktab o‘quvchilarining nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirish, amaliy faoliyatga tayyorlash va kasbga yo‘naltirishda maktabdan tashqari ta’limning ahamiyati pedagogika fanida o‘z isbotini topdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish to‘g‘risida: “Bolalar va o‘smirlarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish maqsadida davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek chunki boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniyat, fan, texnika, sport va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin”. Bu vazifani hal etishda o‘quvchilar saroylari, undagi turli fan-klublar, tajovuzkorlik, ahamiyati. zamonaviy bilimlarni aks ettiruvchi krujkalar (robot-texnika, mental arifmetika, dizayn faoliyati, Milliy hunarmandchilik va boshqalar), botanika va hayvonot bog‘lari, kutubxonalar katta ahamiyatga ega. Bu maskanlarda o‘quvchilar o‘z bilimlarini to‘ldiradi, yangi bilim yaratadi, ijodiy qobiliyatlari shakllanadi, eng muhimi, bo‘sh vaqtlarini o‘zlari qiziqqan darslar bilan o‘tkazadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda quyidagilarga erishiladi:

– talabalar oson o‘zlashtiriladi, ongli, mustaqil ta’limning eng maqbul usullari o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirishni ta’minlaydigan bilimlar aniqlanadi;

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Муслимбек Абдирасулов,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ ходими
Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни
тайёрлаш институтининг мустақил изланувчиси

Аннотация
Мазкур мақолада Марказий Осиё давлатларида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари, давлат сиёсатининг устувор йўналишлари, уларнинг моҳияти, зарурати ва аҳамияти ҳақида фикр юритилган ва таҳлил қилинган. Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тутган ўрни ва ушбу йўналишда амалга оширилаётган ислоҳотлар қиёсий таҳлил қилинган, хамда амалга оширилаётган ислоҳотлар ҳақида сўз юритилган. Шуни таъкидлаш жоизки, ёшлар сиёсатининг ҳуқуқий асосларини баҳоловчи кўрсаткичлар шакиллантирилган.
Калит сўзлар: *норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, стратегия, қонцепция, давлат дастурлари, лойиҳалар, амалга оширилаётган ислоҳотлар ва бошқалар.*

Annotation
This article discusses and analyzes the legal basis for the implementation of state policy regarding youth in the countries of Central Asia, the priority directions of state policy, their essence, necessity and significance. A comparative analysis of the role of regulatory documents in the implementation of state policy in the field of youth and reforms implemented in this direction was carried out, and the reforms being implemented were also discussed. It should be noted that indicators for assessing the legal framework of youth policy have been formed.
Keywords: *law, regulatory documents, strategy, concept, state programs, projects, ongoing reforms.*

Аннотация
В данной статье рассматриваются и анализируются правовые основы реализации государственной политики в отношении молодежи в странах Центральной Азии, приоритетные направления государственной политики, их сущность, необходимость и значение. Проведен сравнительный анализ роли нормативно-правовых документов в реализации государственной политики в сфере молодежи и реформ, реализуемых в этом направлении, а также обсуждены реализуемые реформы. Следует отметить, что сформированы показатели оценки правовой основы молодежной политики.
Ключевые слова: *закон, нормативно-правовые документы, стратегия, концепция, государственные программы, проекты.*

2023 йилнинг 14-15 сентябрь кунлари Душанбе шаҳрида Тожикистон Республикаси Президенти Эмомали Раҳмон раислигида Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг “бешинчи юбилей Маслаҳатлашув учрашуви” бўлиб ўтди. Унда давлат раҳбарлари Марказий Осиё давлатларида Ёшларга оид давлат сиёсатини умумий йўналишда ҳамкорлик қилиш бўйича “Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистон Республикалари ўртасида ёшларга оид давлат сиёсатининг умумий йўналишлари тўғриси”да битим [1] имзоланди.

Шу билан бирга, давлатимиз раҳбари Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқ сўзлаб қуйидаги фикр ва таклифларни билдирди.

Аҳолисининг деярли ярими ёш авлод вакиллари бўлган Марказий Осиё учун ёшлар ва уларнинг салоҳиятини рўёбга чиқариш масаласи айниқса долзарб аҳамиятга эга. Ушбу соҳада ҳамкорликни кучайтириш мақсадида яқинда минтақамиз давлатлари томонидан Ёшлар сиёсатининг умумий йўналишлари ҳақидаги битим имзоланди. Айни пайтда, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ва унинг ихтисослашган тузилмалари билан самарали ҳамкорлик ўрнатиш, бошқа минтақаларнинг илғор тажриба ва ютуқларини ўрганишдан манфаатдормиз деб таъкидладилар.

Шу муносабат билан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ҳузурида Марказий Осиё ёшларини ривожлантиришга кўмаклашиш бўйича ишчи гуруҳ ташкил этиш керак экканлигини, унинг доирасида “Марказий Осиё ёшларининг кун тартиби — 2030” дастурини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқлигини алоҳида таъкидлаб ўтди[2].

Ҳар бир давлатнинг барқарор тараққиётини таъминлашда асосий пойдевор — инсон омили, унинг интеллектуал салоҳияти билан узвий боғлиқ.

Шу нуқтаи назардан, мамлакат аҳолисининг катта қисми замонавий билим ва кўникмаларга эга ёшлардан иборат экканлигини инобатга олган ҳолда, мазкур қатлам ижтимоий-иқтисодий ва бошқа соҳалардаги манфаатларини ҳимоя қилиш ва кузатилаётган долзарб масалаларнинг назарий ва амалий жиҳатдан ечимини топиш ҳар бир давлатнинг олдида турган муҳим вазифадир. Ёшларга оид давлат сиёсатини тадқиқ этишдан аввал, мазкур сиёсатнинг шаклланиши ва тарихига эътибор қаратиш жоиз. Ўтган XX асрнинг 60-80 йилларида БМТ томонидан ёшлар қатламига бўлган муносабатнинг янгича принциплари белгилаб берувчи бир қатор ҳужжатлар қабул қилинди. 1965 йилда БМТ Бош ассамблеясининг “Ёшлар ўртасида тинчлик ғоялари, миллатлараро ўзаро ҳурмат ва тушунишни тарғиб этиш тўғрисидаги Декларация”си эълон қилиниши билан ёшларнинг ижтимоий муаммолари ташкилот эътибор марказидаги вазифага айланди [3]. ЮНЕСКО йўналишида ёшлар муаммоларига дахлдор юздан ортиқ ҳужжат қабул қилинди. Айнан ЮНЕСКО ташаббуси билан 1985 йилда Ёшлар бутунжаҳон конгресси фаолият кўрсата бошлади ва шу йил БМТ томонидан “Халқаро ёшлар йили” деб эълон қилинган. БМТ бош ассамблеясининг 2000 йил ва ундан кейинги вақтга қадар бутун жаҳон ёшларга оид дастури қабул қилинган [4].

Бундан ташқари, БМТ ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан ёшлар сиёсатига дахлдор яна бир қанча ҳужжатлар ишлаб чиқилган ҳамда қабул қилинган. Халқаро миқёсда ёшлар муаммолари ва уларни бартараф этиш борасида Халқаро Меҳнат ташкилоти, БМТнинг ЮНИСЕФ фонди, Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти алоҳида ўрин тутади. Шу тариқа халқаро миқёсда ва алоҳида давлатлар даражасида расман ёшларга оид давлат сиёсати турли кўринишларда юритила бошланди.

Ўзбекистон Республикасида ҳам бу соҳада қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, улар ёшлар интилиши ва иқтидорларини қўллаб-қувватлаш, рағбатлантиришга оид, ёш раҳбар кадрларнинг бошқарув салоҳиятини юксалтириш бўйича мустаҳкам тизим ишлаб чиқилди.

Ўтган даврда мобайнида Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини таҳлил қилинганда 2-босқичда амалга оширилганини кўриш мумкин.

Биринчи босқич, 1991 йилдан 2016 йилга қадар бўлган босқич. Бу вақт оралиғида собиқ СССР парчаланиши, СССРдаги институционал ташкилотлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида иш фаолияти фалаж ҳолатга келиб қолиши ҳамда, ёшлар билан бевосита иш олиб борувчи ВЛКСМ ташкилоти собиқ СССР мафкурасига хизмат қилгани сабабли, бу борада қатор меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқиш зарурлиги туфайли биринчи президентимиз томонидан “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида” ги қонуни 1991 йил 20 ноябрь куни тасдиқлангани. Ушбу қонунга биноан Республикада олиб бориладиган ёшлар сиёсатини ташкил этиш, олиб бориш, ишлари ва давлат органларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, ёшларнинг таълим олишдаги ҳуқуқлари, ижтимоий ҳимоя ҳуқуқлари белгиланганлиги. Бироқ ушбу қонунда институционал ташкилотларнинг ёшларга оид давлат сиёсатини олиб боришдаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари тўлиқ белгиланмаганлиги сабабли ҳуқуқий бўшлиқлар мавжудлиги ҳамда конституцияда ёшларга берилган кафолатларнинг ижросини тўлиқ таъминлаш мақсадида, 2016 йил 16 сентябрь куни 406-сонли “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонун қабул қилинган. Ушбу қонун аввалги қонундан фарқли равишда вазирликлар, давлат органлари ва идоралари мажбуриятларини кўрсатиб берди[5].

Ёшларга оид давлат сиёсатини юритишда иккинчи босқич, 2016 йил сентябрь ойидан ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси ва амалий кўмаги асосида ёшлар ҳаётига бевосита тааллуқли бўлган 40 та қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг 3 та қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 та фармони, 8 та қарори, 2 та фармойиши; Вазирлар Маҳкамасининг 18 та қарори ва 4 та фармойиши имзоланди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сон Фармони, “Ўзбекистон Республикасининг жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги ва “Нодавлат, нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонунлари, 2018 йил 28 июндаги “Ёшлар — келажагимиз” Давлат дастури тўғрисидаги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги “Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3138-сон қарори.

Шу билан бирга, 2017-2023 йилларда ёшларга оид 50 дан ортиқ қонун ва қонуности ҳужжатлар қабул қилиниб, Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи давлат бошқарув органи Ўзбекистон Республи-

каси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги ташкил этилди. Шунингдек, барча туман (шаҳар)ларда “Ёшлар дастурлари”ни амалга ошириш йўлга қўйилди. Ҳар бир маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида ишсиз ёшлар киритиладиган “Ёшлар дафтари” тизими жорий этилди.

Шунингдек, 2021 йилга мўлжалланган давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармон имзоланди. Мазкур давлат дастури жами 274 та банддан иборат бўлиб, биринчи — давлат бошқарув йўналиши бўйича 20 та, иккинчи — суд-ҳуқуқ йўналиши бўйича-18 та, учинчи — иқтисодиёт йўналиши бўйича 113 та, тўртинчи-ижтимоий соҳа йўналиши бўйича 93 та, бешинчи — ташқи сиёсат ва хавфсизлик йўналиши бўйича 30 та банддан иборат вазифалар белгилаб берилди.

Шу билан бирга, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январидаги Қарорига асосан “Ўзбекистон Республикасининг ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилга ривожлантириш концепцияси” ишлаб чиқилди. Ушбу концепция Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари ва қарорлари, ҳукумат қарорлари, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2030 йилгача Барқарор ривожланиш мақсадлари, 2030 йилгача мўлжалланган “Ёшлар стратегияси”, Ёшлар манфаатлари бўйича бутунжаҳон ҳаракатлар дастури, 2020 йил декабрь ойида ташкил этилган “Ўзбекистон ёшлари” форумида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида ёшларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш бўйича белгиланган вазифалар асосида ишлаб чиқилган. Концепциянинг мақсади — ёшларни жисмонан соғлом, маънавий етук инсонлар этиб тарбиялаш, илмий ва ижодий салоҳиятини рўёбга чиқаришга кўмаклашиш, ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини самарали ҳимоя қилиш ҳамда мамлакатда амалга оширилаётган демократик, ижтимоий ва иқтисодий ислоҳотларга фаол жалб қилишдан иборатдир [6].

Мазкур олиб борилган ислоҳотларни тизимли олиб бориш мақсадида, Президентимиз ташаббуси билан 2024 йил юртимизда “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”, деб эълон қилиниши ҳам ана шу йўналишдаги ишлар давомийлигининг бир мисолидир.

Тожикистон Республикасида ёшлар сиёсати 2004 йил 15 июлда қабул қилинган “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонуни асосида амалга оширилади [7]. Ушбу қонундан келиб чиқиб Тожикистон ҳукумати ўз сиёсатида ёшларга суянишини, ижодкор ёш авлодни тарбиялашни биринчи даражали вазифаси деб билади.

Ушбу олий мақсадга эришиш учун Тожикистон ҳукумати ёшларни қўллаб-қувватлаш, унинг жамиятдаги ролини ошириш, ёшларнинг ижтимоий ҳолатини яхшилаш бўйича бир қатор давлат дастурларини қабул қилди.

Жумладан, Тожикистон миллий ёшлар дастури, беш босқичда (1999-2012), Тожикистон Республикасида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш давлат дастури, икки босқичда (2006-2013), Тожикистон Республикасида ёшлар саломатлигини ривожлантириш дастури икки босқичда (2006-2013), Тожикистон Республикасида 2016-2018 йилларда ёшларни ижтимоий ривожлантириш миллий дастури. Ёшларга оид давлат сиёсатини самарали амалга ошириш учун қулай замин яратадиган ва ёшларнинг жамиятдаги ўрнини янада мустаҳкамлайдиган “Ёшларга оид давлат сиёсатининг 2020 йилгача бўлган стратегияси” [8]. 2019-2021 йилларда Тожикистон Республикасида ёшларни ижтимоий ривожлантириш миллий дастури [9].

2021 йил 26 январь куни Тожикистон Республикаси Президенти Имомали Раҳмоннинг Мажлиси Олига навбатдаги мурожаатномасида Тожикистонни 2030 йилгача бўлган даврда ривожлантиришнинг миллий стратегиясига киритилган лойиҳасида, ёшларга оид давлат сиёсатига тегишли бўлган меъёрий-ҳуқуқий базасини мустаҳкамлаш ва ёшларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини янада ҳимоя қилиш учун “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунни янги таҳририни ишлаб чиқиш тўғрисида тегишли органларга топшириқлар берган эди.

Натижада, 2021 йил 21 декабрь куни янги таҳрирда “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” қонуни қабул қилинди [10].

Хулоса қиладиган бўлсак, ёшларга оид давлат сиёсати бу ёшларнинг эҳтиёжларини қондириш ва уларни замонавий жамиятга мослашишга қаратилган қонун чиқарувчи ва ижро этувчи чора-тадбирлар мажмуидир.

Ёшларнинг манфаатларини ифода етиш ва ҳимоя қилиш, уларга қарама-қарши эмас, балки уларни умумий жамоатчилик манфаатлари билан боғлаш давлат ёшлар сиёсатининг энг муҳим вазифасидир. Ҳар бир давлатда маълум бир йўналишда давлат сиёсати ва унинг амалга ошириш механизмларини ишлаб чиқишда биринчи навбатда норматив-ҳуқуқий асоси яратилади. Шунингдек, ушбу сиёсатни амалга ошириш босқичлари, вақти, ижрочиларини белгилаб олиш мақсадида дастурлар ишлаб чиқилади.

Шуларни ҳисобга олиб, ёшлар сиёсатининг ҳуқуқий асосларини баҳоловчи кўрсаткичлар сифатида қуйидагиларни кўрсатишимиз мумкин:

1. Ёшлар сиёсатига оид қабул қилинган қонун ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар сони.

2. Мақсадли дастурларнинг мавжудлиги ва уларнинг соҳалар кесимида сони.

Бугунги кунда Марказий Осиё давлатларининг ёшларга оид давлат сиёсатининг шаклланиши ва амалга оширилиши мамлакатлар мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошланиб, ҳозирги кунгача давом этиб

келинмоқда. Шу маълум қисқа вақт оралиғида минтақа давлатларининг ҳар бири ўзининг ёшларга оид давлат сиёсатига доир қонун ва норматив-ҳужжатларини яратишди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Қозоғистон Республикаси, Қирғиз Республикаси, Тожикистон Республикаси, Туркманистон ва Ўзбекистон Республикаси ўртасида ёшларга оид давлат сиёсатининг умумий йўналишлари тўғрисида битим. 2023 йил 14-15 сентябрь куни. https://lex.uz/acts/3026246.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. https://president.uz/uz/lists/view/6677

3. 1965 йилда БМТ Бош ассамблеясининг “Ёшлар ўртасида тинчлик ғоялари, миллатлараро ўзаро ҳурмат ва тушунишни тарғиб этиш тўғрисидаги Декларация”си, https://www.fayllar.org/zbekistonni-rivojlantirish-strategiyasi-fuarolik-jamiyati-v5.html

4. БМТ бош ассамблеясининг 1996 йил 13 мартдаги 50 сессия 105-банди асосида қабул қилинган “2000 йил ва ундан кейинги вақтга қадар бутунжаҳон ёшларга оид дастури”. https://undocs.org/ru/A/RES/50/81

5. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги қонун 9-20 моддалари. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 37-сон. https://lex.uz/docs/

6. Ўзбекистон Республикасининг ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилга ривожлантириш концепцияси. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги 23-сон қарори. https://lex.uz/docs/5234746

7. Тожикистон Республикасининг 2004 йил 15 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” ги қонуни.

8. Постановление Правительства Республики Таджикистан “Об утверждении Стратегии государственной молодежной политики в Республике Таджикистан до 2020 года” от 4 октября 2011 года № 480.

9. Постановление Правительства Республики Таджикистан “О Национальной программе социального развития молодежи в Республике Таджикистан на 2019–2021 годы” от 1 марта 2019 года № 94

10. О молодежи и государственной молодежной политике в Республики Таджикистан. Закон от 23 декабря 2021 года №1830.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING EVOLYUTSIYASI

Madina Nuriddinova,
Guliston davlat universiteti
o‘qituvchisi va tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chet tilini o‘qitishdagi roli va ilk foydalana boshlangan davrdanoq hozirgi kunga qadar bo‘lgan web-texnologiyalarining evolyutsiyasi yoritib berilgan. Shu bilan birga web-texnologiyalardan xorijiy tillarni o‘qitishda qay tarzda foydalanish, uning foydali va samarali jihatlari, mazmun-mohiyati ochib berilgan. Web-texnologiyalarga mansub bo‘lgan Web 1 va Web 2 texnologiyalarining aynan xorijiy tilni o‘rganuvchilar uchun qanchalik ahamiyat kasb etishi, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *texnologiya, web-texnologiya, til o‘qitish, talabalar, multimedia, kompyuter, kompetensiya, Web 1, Web 2.*

Аннотация

В данной статье описывается роль информационно-коммуникационных технологий в обучении иностранному языку и эволюция веб-технологий со времени их первого использования до настоящего времени. При этом раскрываются способы использования веб-технологий в обучении иностранным языкам, их полезные и эффективные стороны, суть содержания. Приведена информация о значении технологий Web 1 и Web 2, относящихся к веб-технологиям, для изучающих иностранный язык и их значении в развитии письменной речевой компетенции.

Ключевые слова: *технологии, веб-технологии, обучение языку, студенты, мультимедиа, компьютер, компетентность, Web 1, Web 2.*

Annotation

This article describes the role of information and communication technologies in foreign language teaching and the evolution of web technologies from the time of their first use to the present. At the same time, how to use web-technologies

in teaching foreign languages, its useful and effective aspects, and the essence of the content are revealed. Information is provided about the importance of Web 1 and Web 2 technologies, which belong to Web technologies, for foreign language learners and their importance in developing written speech competence.

Keywords: *technology, web technology, language teaching, students, multimedia, computer, competence, Web 1, Web 2.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi rivojlanayotgan davrda barcha fanlarning turli sohalariga keng ko‘lamda joriy etilmoqda. Ular texnika, tabiiy va gumanitar fanlarni o‘qitishda alohida o‘ringa va ahamiyatga ega bo‘ldi deya ayta olamiz. Shu munosabat bilan ingliz tilini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘rgatiladigan ma’lumotlarning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, darsliklardan farqli o‘laroq, talabalarda katta qiziqish uyg‘otuvchi va o‘rganilayotgan materiallarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga yordam beruvchi yuqori darajadagi interaktiv multimediyaga egadir.

Bugungi kunga qadar chet tillarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan, chunki ta’limni kompyuterlashtirish va o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari bilan ko‘plab olimlar shug‘ullangan [1, 17]. Shunga qaramasdan, amaliyot va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining nofilologik yo‘nalishlarida o‘tilayotgan ingliz tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish hali hamon keng tarqalmagan. Buning asosiy sabablari ingliz tilini o‘qitish sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatining yetarli darajada rivojlanmaganligi va axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘quv faoliyati turlarini tavsiflashning yagona vositasining yo‘qligidir.

O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari o‘quv jarayonini tezlashtiradi, talabalar ishini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi, o‘quv jarayonini individuallashtiradi, talabalarni yanada yaxshi natijalarga erishishga undaydi, maxfiylikni ta’minlash orqali qulay o‘quv muhitini yaratadi va talabalarning kommunikativ faoliyatini modellashtiradi.

Ta’limni axborotlashtirish g‘oyasi ilk kompyuterlarning paydo bo‘lishi bilanoq rivojlana boshladi, ularning rivojlanishi 1960-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu yillarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida chet tillarini o‘qitishning bixevioristik nazariyasi ustunlik qilgan va bu tizimli tilshunoslik g‘oyalari asosiga qurilgan kompyuter o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga yordam berdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, til o‘qitishda kompyuterlardan foydalanish G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “CALL — Computer Assisted Language Learning” deb nomlangan yangi ta’lim yo‘nalishini ochib berdi. M.Levi bu atamani shunday izohlaydi: “The search for and study of applications of the computer in language teaching and learning” (“Til o‘rgatish va o‘rganishda kompyuterning qo‘llanilishini izlash va o‘rganishdir.”). 1960-1970-yillarda CALL rivojlanishini hisobga olib, Mark Varshauer xorijiy ilmiy-metodik adabiyotlarda bu davrni “Behavioristic CALL” (Kompyuter yordamida bixevioristik tilni o‘qitish) deb ataydi. Ma’lumki, til o‘rganishning bixevioristik nazariyasi ko‘p marotaba takrorlanuvchi rag‘batlantirishlar natijasida shakllanadigan ko‘nikmalarga asoslanadi. Bixevioristik ta’lim nazariyasiga asoslanib, ushbu bosqichda kompyuter o‘qitish dasturlari faqat tilni o‘rgatish mashqlarini o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarga o‘zgartirish, bo‘sh joylarni to‘ldirish va matnlarni tarjima qilish bo‘yicha topshiriqlarni taklif qiluvchi o‘quv simulyatori vazifasini bajargan. [3, 20]

Biroq, bu simulyatorlardan foydalanish kompyuter o‘qitish dasturlarida bixeviorizm nazariyasi texnik imkoniyatlarining cheklanganligi, zerikarli o‘quv dasturlari, o‘quv materialini yozib olish va mavzulashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, o‘qitishni individuallashtirish samaradorligining pastligi kabi kamchiliklarni aniqladi. [3, 204]

Kompyuterning imkoniyatlarini kengaytirish, xususan: animatsiya, ovoz, video, matnni “multimedia” deb ataladigan yagona butunlikka birlashtirish aniqlik tamoyilini amalga oshirish va yangi didaktik tamoyilni qabul qilishda yangi bosqichni ochdi, bu “O‘quv ma’lumotlarini kompyuterda vizualizatsiya qilish tamoyili”dir. I.V.Rober tomonidan taklif etilgan ushbu tamoyil “obyektlar, jarayonlar, hodisalarning modellarini vizualizatsiya qilishning imkoniyatlarini amalga oshirish, ularni vaqtinchalik va fazoviy harakatda rivojlanish dinamikasida aks ettirish, shu bilan birga muloqot qilish imkoniyatini saqlab qolishni o‘z ichiga oladigan dasturdir”. [4, 23]

Chet tillari bo‘yicha multimedia o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda obyektlarni vizuallashtirish va interfaol muloqot tamoyili ustunlik qildi va shuningdek, fonetik, grammatik, leksik kompetensiyalarni shakllantirishga, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi, hamda ingliz tili o‘quv mashg‘ulotlarida motivatsion xususiyat kasb etdi. K.V.Aleksandrov, Bent B.Andersenning so‘zlariga ko‘ra, multimediali o‘quv dasturlari an’anaviy o‘quv-uslubiy vositalarga nisbatan mustaqil ta’lim olish uchun sharoit yaratish, o‘quv jarayonini faollashtirish, o‘rganishni individuallashtirish, o‘rganilayotgan tilshunoslikning virtual tasvirlari va modellari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish kabi qator afzalliklarga ega bo‘lgan obyektlar va jarayonlar hisoblanadi.

E.V.Fabrikantovning ta’kidlashicha, “inson eshitgan narsasining 5 foizini, ko‘rganining 20 foizini va ma’lumotni audiovizual tarzda taqdim etilganda 40-50 foizini eslab qoladi” [5. 52]. Bu fikr B.B. Andersen, S. Kramsh, S.M. Kashuk, A.N. Kolesnikova, Yu.V. Kochenderfer, A.A. Pribytkova, D.U.Xoshimovaning ishlarida o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, talabalarning

chet tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda, shuningdek, tillar (lug‘at, grammatika, fonetika) va nutq faoliyati turlarini (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) o‘qitish jarayonini optimallashtirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini isbotladilar. Multimedia texnologiyalari ixtirosi 1986-yilga borib taqalsa-da, ular boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) qatorida yetakchilik qilmoqda.

E.V.Voyevodovaning fikricha, foydalanuvchilar uchun eng rivojlangan va qulay multimedia muhiti bu — Internetdir. U ko‘p sonli kompyuterlar va foydalanuvchilarni yagona tarmoqqa birlashtirib, turli formatlarda ya’ni audio, video, matn, grafik, animatsiya ko‘rinishida taqdim etilgan ma’lumotlarning katta oqimlariga kirishlari uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

P.V.Sysoyev va M.N.Evstigneyevlarning fikricha, didaktik nuqtayi nazardan internet ikkita asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: telekommunikatsiya shakllari va axborot resurslari. Telekommunikatsiya shakllariga elektron pochta, chat forum, ICQ, video, web-konferensiya va boshqalar kiradi. Mualliflarning qayd etishicha, axborot resurslari turli mavzulardagi matn, audio va vizual materiallardan iborat. Bugungi kunda Internet resurslari faqat ta’lim maqsadlarida yaratilmoqda. Bular Hotlist, Tresuare Hunt, Subject Sample, Multimedia Screptbook, Webquest lardir. Ushbu Internet-resurslar boshqa resurslardan taqdim etilgan materiallarning autentivligi va o‘rganishga muammoli yondashuvni amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Autentivlik, xorijiy til muhiti, multimedia, erkin foydalanish, axborot almashish, xalqaro forumlar, loyihalar va videokonferensiyalarda qatnashish imkoniyati ingliz tilini o‘qitishda internetning asosiy afzalliklari hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotchilarning (Mariya Xose Luzon Marko, Mariya Isabel Gonsales Pueyo Universidad de Saragosa, N.V. Razdorskaya, E.M. Razinkina, P.V. Sisoyev, M.N.Evstigneyev) bayonotlariga ko‘ra, Internet ingliz tilini o‘rgatishda quyidagilarga hissa qo‘shadi:

– autentik muhit yaratish;

– onlayn materiallar asosida o‘qish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– onlayn materiallarni muammoli muhokama qilish asosida monolog va dialogik bayon qilish malakalarini oshirish;

– turli qiyinchilikdagi mashqlarni bajarish orqali grammatik ko‘nikmalarni takomillashtirish;

– zamonaviy chet tilining lug‘atini passiv va faol so‘zlar bilan to‘ldirish;

– ona tilisi chet tili bo‘lgan so‘zlashuvchilarning og‘zaki va yozma nutqini lingvistik tahlil qilish;

– barqaror motivatsiyani shakllantirish;

– “virtual hamjamiyat” yaratish, shu tariqa zamonaviy madaniyatni muloqot uchun chegaralarsiz “global qishloq” kabi yangi turga aylantirish.

Web-texnologiyalarning birinchi avlodi sifatida talqin qilingan Web 1.0 texnologiyalari faqat o‘qish uchun mo‘ljallangan va deyarli hech qanday interaktivlik elementlarisiz barcha statistik saytlarni qamrab oladi. Ushbu texnologiyalarda interaktivlikning yagona elementi onlayn testlarga xos bo‘lgan dialog oynasi funksiyasidir. M. Stivenson va M. Liu (Megan P. Stevenson, Min Liu) Web 1.0 texnologiyalaridan foydalanuvchilarni axborotning passiv iste’molchilari sifatida tavsiflaydi. Web 1.0 texnologiyalariga web-kvestlar, onlayn testlar, web-sahifalar kiradi, ular faqat sayt muallifi tomonidan ishlab chiqilgan va foydalanuvchilar tomonidan hech qanday o‘zgarishlarga duch kelmaydi. Yaxshi texnik ko‘nikmalarga ega, pullik serverga kirish huquqiga ega bo‘lgan cheklangan miqdordagi foydalanuvchilar o‘z ishlarini Internetda nashr etishlari mumkin. Aksariyat foydalanuvchilar faqat Internetda mavjud tarkibni ko‘rish imkoniyatiga ega. Chet tillarini o‘qitishda Web 1.0 texnologiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

– tilni o‘rgatish jihatlari (fonetika, grammatika, lug‘at);

– o‘qishni o‘rgatish (autentik matnlar asosida);

– tinglash mashg‘ulotlari.

Chet tillarini o‘qitishda Web 1.0 texnologiyalari axborot manbai bo‘lib, o‘qituvchilarga keyinchalik darslarda foydalanish uchun kontentni yuklab olish imkonini beradi.

Web 2.0 ning paydo bo‘lishi bilan virtual makon tushunchasi o‘zgardi. Web 1.0 texnologiyalaridan farqli o‘laroq, Web 2.0 texnologiyalari interaktiv bo‘ldi deyish mumkin. Kim Eastes ta’kidlaganidek, Web 2.0 texnologiyalari — bu individual ta’limdan jamoaviy bilimga, passiv qabul qilishdan faol yaratishga o‘tish demakdir. [6, 711] Web 2.0 xizmatlaridagi wiki, blog, podkast kabi kontent foydalanuvchilarning boshqa foydalanuvchilar bilan interaktiv muloqoti, video, audio va matnli fayllar almashinuvi orqali shakllanadi. “Web 2.0 — bu tarmoqning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, odamlar ulardan qanchalik ko‘p foydalansa, yaxshiroq bo‘ladigan, tizimlarni loyihalash metodologiyasidir.” A.A. Dragunova, shuningdek, Web 2.0 texnologiyalari inson omiliga asoslangan va insonning ijtimoiy, muloqot va shaxsiy imtiyozlari natijasidir deb hisoblaydi. Shu sababli, ikkinchi avlod texnologiyalarining asosiy vazifasi foydalanuvchilarni kontentga jalb qilishdir. “Kontent” tushunchasi (inglizcha content — kontent, kontent yaratish) resurslarning (saytlar, veb-sahifalar, bloglar, podkastlar va boshqalar) axborot mazmuni sifatida talqin etilishidir.

Shunday qilib, Web 1.0 texnologiyalari idrokka asoslangan, ya’ni foydalanuvchi o‘zini unga taqdim etilgan ma’lumotlarning passiv kuzatuvchisi kabi his qiladi. Bundan farqli o‘laroq, Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanganda foydalanuvchi o‘zini hamkorlik orqali kontent yaratish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi va erkin ma’lumot almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, Web 2.0 texnologiyalarining asosiy afzalliklari hamkorlik va axborot almashishdir. Ushbu afzalliklarga qo‘shimcha tarzda ingliz tilini o‘rgatish jarayonida Web 2.0 ning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– onlayn ta’lim kontentini yaratish;

– yuklab olingan audio, video, matnli materiallarga sharhlar va teglarni joylashtirish;

– interaktivlik;

– ko‘p kanallilik.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, talabalarning ona tilisini hisobga olgan holda, til o‘rganuvchilarning ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirib berishi mumkin. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chet tillarini o‘qitishga qaratilgan uslubiy majmualarni yaratish uchun birinchi navbatda axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan xabardor bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Shunga ko‘ra, Web 2.0 texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan o‘rganishning yangi tarmoq shakli paydo bo‘ldi, u hamkorlikda ishlashni o‘z ichiga oladi, muhokamalarda erkin ishtirok etish bilan tavsiflanadi. Hamkorlikning bu shakli umumiy manfaatlar, o‘zgaruvchan auditoriya, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan qoidalar va tuzilmalarga asoslanadi. Hozirgi kunda pedagogik amaliyotda o‘qitishning bu shakli tobora ommalashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Джамбаев Н. Методика использования компьютера при обучении доказательствам в геометрии (на материале курса планиметрии): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2001. – 17 с.

2. Mark Warschauer. Computer Assisted Language Learning: An Introduction//Multimedia language teaching. – Tokyo: Logos International, 1996. – 3-20 p.// http://www.ict4lt.org/en/warschauer.htm.

3. Шаталова Н.П. Азбука конструктивного обучения. Монография. – Красноярск: ООО “Научно-инновационный центр”, 2011. – 204 с.

4. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. – М.: ИИО РАО, 2010. – 24 с.

5. Фабрикантов Е.В. Интерактивные технологии и мультимедийные средства обучения. Учебное пособие для студентов факультета дошкольного и начального образования. – Оренбург: Изд-во ОГПУ, 2015. – 52 с.

6. John Thompson. Don’t Be Afraid to Explore Web 2.0 // The Phi Delta Kappan. – Vol.89, No.10 (June 2008), P. 711. – Https://Www.Jstor.Org/Stable/40792262.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sadoqat Xusanova,
Namangan davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim-tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalari yoritib berilgan. Qolaversa, ushbu maqolada inson rivojlanish xotiraga, aqlga, neyropsik tomonga, yashirin iste’dodlarga ta’sir qilinishi, tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma’lum maqsad asosidagi ta’sir etishlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Maktabgacha ta’lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo‘lib shakllanishida didaktik o‘yinlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Intellektual-psixologik o‘yinlarning barchasini bir nechta turga ajratish mumkinligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik, xulq-atvor, aqliy tarbiyalash.*

Аннотация

В данной статье освещены актуальные вопросы развития и совершенствования интеллектуального потенциала воспитанников дошкольного образования. Кроме того, в данной статье можно рассмотреть влияние развития человека на память, интеллект, нервно-психическую сторону, скрытые таланты, психическое воспитание детей воспитательного возраста на развитие мыслительной деятельности детей на основе определенных целевых воздействий взрослых. Дидактические игры служат основным инструментом в становлении ребенка в период дошкольного воспитания разносторонне совершенным человеком. Упоминалось, что все интеллектуально-психологические игры можно разделить на несколько типов.

Ключевые слова: *Дошкольное образование, духовно-нравственное, этическое, эстетическое, поведение, интеллектуальное воспитание.*

Annotation

This article covers the current issues of development and improvement of the intellectual potential of preschoolers. Moreover, in this article we can consider the influence of human development on memory, intelligence, neuropsychic side, hidden talents, mental education of children of educational age on the basis of a certain goal of adults, aimed at developing the thinking activity of children. Didactic games serve as the main tool in the formation of a child during preschool education as a comprehensively perfect person. It has been mentioned that all intellectual-psychological games can be classified into several types.

Keywords: *Pre-school education, spiritual and moral, ethical, aesthetic, behavior, intellectual education.*

Maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi deb ko‘rsatib o‘tilgan, Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan 3-modda 5-bandida. [1] Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi erta bosqichda rivojlanadi va shu sababli pedagogik imkoniyatlarini shaklantirish kerak. U atrofidagi dunyoga qiziqish bildira boshlaydi, ko‘p savollar beradi. Rivojlanish xotiraga, aqlga, neyropsik tomonga, yashirin iste’dodlarga ta’sir qiladi. Agar ota-onalar xususiyatlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘lishsa aqliy rivojlanish kiritsalar, keyin ular oilada uyg‘unlikni o‘rnatishi, chaqaloqni to‘g‘ri tarbiyalashi mumkin. Maktabgacha ta’lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo‘lib shakllanishida didaktik o‘yinlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Intellektual-psixologik o‘yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Buyumli o‘yinlar (o‘yinchoqlar, tabiiy materiallar)
2. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar
3. So‘z o‘yinlari Ta’lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. [2, 4]

Kichkintoy o‘yin shakli ijtimoiy xulq-atvor normalarini o‘rganadi, boshqalar bilan aloqa o‘rnatadi. U kattalardan uzoqlashishni xohlaydi, boshida sodir bo‘layotgan voqealarning xo‘jayini sifatida harakat qiladigan vaziyatni yaratadi. O‘zini muhim his qilish uchun bola murojaat qiladi, rolli o‘yin, unda u ma’lum bir uchastka quradi, shartlar: kattalardan keyin takrorlanadi; o‘yinchoqlar haqiqiy narsalar sifatida harakat qiladigan vaziyatni tasavvur qiladi; haqiqat ramziydir; o‘yin belgilangan qoidalarga, taqiqlarga rioya qilishni nazarda tutadi. Bunday holat psixologik salomatlik, hissiy va intellektual rivojlanishga yordam beradi. Bir nechta bor psixologik xususiyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan: tasviriy muammolarni hal qilish qobiliyati; aqliy jarayonlardan ataylab foydalanish, boshqarish, atrofdagi vaziyatga reaksiyani nazorat qilish, uni baholash, bashorat qilish qobiliyati; o‘z-o‘zini hurmat qilishni shakllantirish; nutq apparatining faol shakllanishi; o‘rnatilgan xulq-atvor va ijtimoiy normalarni ongli ravishda idrok etish; uchun tayyorgarlik ta’lim jarayoni maktabda psixologik darajada. 7 yoshga kelib, ko‘p yoki kamroq darajada siz ma’lum neoplazmalarning mavjudligini sezishingiz mumkin. Bog‘cha va maktablarda ishlash jarayonida samarali korreksion metodlarning yo‘qligi o‘qish bilan bog‘liq muammolarning ko‘payib borayotganligi va o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar sonining ortishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarning kelib chiqishi natijasida turli reabilitatsion va konsultatsion markazlarning sonini ortishiga turtki bo‘lmoqda. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogika va psixologik ta’sir ko‘rsatishdir. Demak, aql keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisi bo‘lib, u yosh avlodning insoniyat to‘plagan bilimlar, ko‘nikma va malakalar, me’yorlar, qoidalar va boshqalarda ro‘y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bolaning anglash va fikrlash rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo‘lsa, u o‘zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo‘ladi. Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1) ta’lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi;

2) o‘zlashtirilgan usullar qo‘llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi;

3) shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishi. [3, 50]

Ushbu mavzu yuzasidan davra suhbatlari o‘tkazildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari psixologlari bilan tajribalar almashildi. Ta’lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida SHarq va G‘arbning qomusiy olim va pedagoglarining o‘rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o‘zlarining qator asarlarida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor bilan qaraganlar. Faylasuf olim Forobiy o‘zining “Fozil shahar kishilarining qarashlari” asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi. Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g‘oyat ibratli fikrlarni bildiradi. “Pedagogika — Abdulla Avloniyning yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir”. “Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir”, “Dars oluvchi — biluvchi, tarbiya oluvchi — amal qiluvchidir” [4, 293]. Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo‘nda ta’rif berib, ta’lim bilan tarbiya-

ni esa jon bilan tanga o‘xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta’kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug‘ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma’lum maqsad asosidagi ta’sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o‘quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida [rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o‘zlashtirib olish, ularni jamg‘arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Agar yoshroq maktabgacha yoshda kichkina odam ko‘pincha o‘zini o‘zi o‘ynasa, besh yoki olti yoshida bola o‘zi bilan muloqot qilishni xohlaydigan tengdoshlarini tanlaydi. Bolalar ikki yoki uch kishidan iborat kichik guruhlarga yig‘ilib, o‘ynashadi. Bu yoshda bola rasm chizishga, modellashtirishga, ertak tinglashga qiziqa boshlaydi. U o‘qishga qiziqmaydi, garchi o‘yin shaklida ta’lim faoliyati elementlari to‘rt yoshdan boshlab kiritilishi mumkin. Bolani barcha harakatlarida qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. [5, 6] Har qanday faoliyat turlarini sinab ko‘ring: applikatsiya, modellashtirish, chizish va dizayn. Bola hamma narsani sinab ko‘rishga qiziqadi. Va buni qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Bu muvaffaqiyatli maktabda o‘qishning kaliti bo‘lgan kelajakdagi o‘rganishga bo‘lgan qiziqishdir. Yosh maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi qanday o‘zgaradi Bu yoshda fikrlash vizual va majoziydir. Buni ota-onalar bilishi muhim. Bola so‘zlarni eslay olmaydi, u uchun rasmni ko‘rish, obyektni teginish orqali tekshirish juda muhimdir. Vizualizatsiya va fantaziya bolaning bilimi bilan cheklangan. U hech qachon ko‘rmagan narsani tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun yangi his-tuyg‘ular, yangi his-tuyg‘ular berish muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun ota-onalar nima qilishi mumkin? Boshqa shaharlarga (mamlakatlarga) sayohatlar Muzeyga, ko‘rgazmalarga tashrif buyurish Teatrga borish Nafaqat spektaklni tomosha qilish, balki bola bilan u nimani o‘rganganini, unga nima qiziq bo‘lganini muhokama qilish muhimdir. Bu yoshda xotira jadal rivojlanmoqda. Bola hamma narsani eslaydi: televizordagi reklamadan tortib, ota-onasi aytgan tasodifiy iboralargacha. Maktabgacha yoshda xotirani rivojlantirish katta rol o‘ynaydi. Xotirani o‘ynoqi tarzda rivojlantirish uchun bir nechta tavsiyalar. 1. Kechqurun yotishdan oldin ota-ona ertak o‘qiydi. Ertalab u bola bilan bosh qahramon kimligini, qayerga ketganini, nima qilganini muhokama qiladi. Siz yetakchi savollarni berishingiz mumkin, lekin uning o‘zi eslashi muhim. 2. Stolga uchta yoki to‘rtta o‘yinchoq qo‘ying. Yarim daqiqa davomida chaqaloq o‘yinchoqlarning joylashishini eslab qolsin. Keyin ularni ro‘molcha bilan yoping va ikkita o‘yinchoqni almashtiring. Sharfni oching va boladan nima o‘zgarganini aytishini so‘rang. 3. Har qanday multfilmni tomosha qilgandan keyin muhokama qiling. Unda nima bo‘layotgan edi. Bosh qahramonlarning ismlari nima edi. 4. Kechqurun chaqaloq bilan kun davomida nima sodir bo‘lganini doimiy ravishda eslab turing (agar ota-ona hozir bo‘lsa va kun qanday o‘tganini bilsa). Biz maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari masalalarini ko‘rib chiqdik. Shuningdek, “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari” maqolasini o‘qishni tavsiya etamiz. Biz sizga yordamsizlik muammosini qanday hal qilishni va bolaning o‘zi qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni aytib beramiz. Bolalar kattalar tomonidan baholanadi, bu muvaffaqiyatga erishish motivlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. [6, 206]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy intellektual rivojlantirishda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishning pedagogik imkoniyatlari juda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda tarbiyachining vazifasi — bolalarning hissiyotlarga ta’sir etib, ularda o‘z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g‘ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir. Shunday qilib, bog‘cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019- yil 14-dekabrda ma’qullangan (1).

2. G.R To‘xtasinova, T.I. O‘rmonova, Bolalar bog‘chasida intellektual psixologik o‘yinlar. – T.; “Yangi asr avlodi”, 2005 (4-5). – 304 b.

3. N.M Aksarina, Go‘dak bolalar tarbiyasi. – T.: “Meditsina”, 1983 (50). – 262 b.

4. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. – T. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси: Fan, 1994. – 293 b.

5. R.G‘.Qodirov, yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: “O‘qituvchi”, 2005, (6-9). – 360 b.
6. Рахманова М.К. (2019). Ёшларнинг маънавий тарбиясида қадимги Ўрта Осиё маънавий-маданий меросининг аҳамияти. “Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари” республика илмий-амалий конференцияси. – 206-209-b.

INFORMATIKA O‘QITUVCHISINI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Alibek Abdullayev,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Informatika” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya
Ushbu maqolada informatika o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish o‘quv jarayonining shaxsiy yo‘nalishi va o‘zgaruvchanligini ta’minlash, o‘qitishning shaxsiy ahamiyati uchun sharoit yaratish, o‘qituvchilarning pedagogik ta’lim darajasini tanlash imkoniyatini yaratish, ularga ushbu ta’limni olishning zarurati, yo‘llari va vositalari, shuningdek, o‘z malakalarini oshirish, o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash imkonini berish bo‘yicha nazariy asoslangan yondashuvlarini umumiy tahlili bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: *innovatsion fikrlash, pedagogik kompetentlik, metod va vosita, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv, kreativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, motivatsion, ko‘nikmalar va malakalar, pedagogik faoliyat, kompetensiya*

Аннотация
В данной статье использование личностно-ориентированного подхода как методической основы развития профессиональной подготовки учителя информатики используется для обеспечения личностной направленности и вариативности учебного процесса, создания условий личностной значимости обучения. и педагогическое образование учителей, общий анализ теоретически обоснованных подходов для создания возможности выбора уровня, необходимости, способов и средств получения им этого образования, а также повышения их квалификации, обеспечения непрерывности педагогического образования.
Ключевые слова: *инновационное мышление, педагогическая компетентность, методы и инструменты, интегративный подход, синергетический подход, творческий подход, дидактические игры, мотивация, умения и компетенции, педагогическая деятельность, компетентность*

Annotation
In this article, the use of a person-oriented approach as a methodological basis for the development of the professional training of an informatics teacher is used to ensure the personal direction and variability of the educational process, to create conditions for the personal significance of teaching, and the pedagogical education of teachers. a general analysis of theoretically based approaches to create the opportunity to choose the level, the need, ways and means for them to receive this education, as well as to improve their skills, to ensure the continuity of education.
Keywords: *innovative thinking, pedagogical competence, methods and tools, integrative approach, synergetic approach, creative approach, didactic games, motivational, skills and competencies, pedagogical activity, competence*

Respublikamizda zamon talablari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, jumladan, ta’lim tizimida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini integrativ yondashuvlar asosida yuqori malakali kadrlar qilib tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish” vazifasi belgilangan. Bu borada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha kasbiy faoliyat obyektlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni innovatsion sharoitlarga mos ravishda kasbga tayyorlash metodikalari va didaktik ta’minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatika o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish o‘quv jarayonining shaxsiy yo‘nalishi va o‘zgaruvchanligini ta’minlaydi, o‘qitishning shaxsiy ahamiyati uchun sharoit yaratadi, o‘qituvchilarning pedagogik ta’lim darajasini tanlash imkoniyatini yaratadi, ularga ushbu ta’limni olishning zarurati, yo‘llari va vositalari, shuningdek, o‘z malakalarini oshirish, o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi.

Pedagogik nazariyada kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lgan shaxsga qo‘yiladigan shartli kasbiy talablar yig‘indisini

ISSN 2181-8274

tavsiflash uchun tadqiqotchilar turli atamalardan foydalanadilar: “kasbiy vazifalar”, “malakaviy xususiyatlar”, “kasbiy faoliyatga tayyorlik”, “shaxsning professiogrammasi”, “kasbiy yaroqlilik”, “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbga tayyorlash”, “kasbiy tayyorgarlik”. Darhaqiqat, bir xil hodisani bildirgan holda, bu pedagogik kategoriyalar o‘ziga xos mazmun mohiyatiga ega va ba’zan turli kontekstlarda qo‘llaniladi. N.V.Kuzmina, G.A.Kruchinin, V.A.Slastenin va boshqa tadqiqotchilar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini motivatsion, mazmunli va operatsion tarkibiy qismlarni integratsiyalovchi shaxsning yaxlit ta’limi sifatida ko‘rishadi.

Pedagogik faoliyatga tayyorlik muammosini ko‘rib chiqishda asosiy e’tiborni olimlar (A.A.Derkach, E.F.Zeer, Y.A.Klimov, N.V.Kuzmina, N.V.Nijegorodseva, Y.P.Povarenkov, V.A.Slastenin, V.D.Shadrikov va boshqalar) umumiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun va muayyan pedagogik kasb uchun zarur va yetarli bo‘lgan kasbiy bilimlar, pedagogik mahorat va shaxsiy fazilatlar miqdorini aniqlashga qaratadi.

I.F.Isayev, A.I.Mishchenko, V.A.Slastenin va boshqalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi uning kasbiy mahoratini tavsiflovchi kasbiy kompetentligi orqali namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydilar [5, 568].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar kasbiy tayyorgarlikni o‘qituvchining pedagogik faoliyat qobiliyatini ta’minlovchi turli xil, o‘zaro bog‘langan elementlar majmuasidan iborat murakkab, o‘zgaruvchan, integratsiyalashgan ta’lim deb hisoblaydi. Informatika o‘qituvchisining umumta’lim maktabida shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga kasbiy tayyorgarligi o‘qituvchining ushbu yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini ta’minlaydigan dinamik, integrativ shaxs xususiyati sifatida belgilanadi. Bu tegishli pedagogik yo‘nalish va pedagogik kompetentlik mavjudligini nazarda tutadi. Informatika o‘qituvchisining shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga pedagogik yo‘nalganligi — bu ijodiy potensial, o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga va atrof-muhitning sinergetik xususiyatlariga asoslangan ta’lim qobiliyatlari va uni ushbu yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha pedagogik faoliyatga undaydigan motivlarni belgilovchi qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan hissiy-qadriyatli munosabatlari tizimidir.

Shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanish bo‘yicha pedagogik faoliyat motivlari o‘quvchi ta’limning metodik tizimi markazida ekanligini tushunishni, o‘qituvchining roli esa yosh, individual va boshqa fan, kasbiy va boshqa qiziqish va moyilliklar kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda uni rivojlantirishdir; har bir alohida shaxsning xatti-harakatlari ijtimoiy muhitning makroijtimoiy jarayonlariga ta’sir qilishi mumkinligini va shaxs va yoki jamoadagi o‘zgarishlar o‘qitish, ta’lim va hatto butun jamiyatning o‘zgarishiga olib kelishi mumkinligini anglash; shuningdek, pedagogik faoliyatning barcha turlariga qiziqishni anglashni o‘z ichiga oladi. Tayyorlik kasbiy tayyorgarlik natijasida shakllanadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda “tayyorlash” tushunchasi turli jihatlarda ko‘rib chiqiladi. Aksariyat mualliflar singari biz ham kasbiy tayyorgarlikni umumiy, psixologik-pedagogik, maxsus (predmetli) va metodik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishning yaxlit jarayoni sifatida ko‘rib chiqamiz.

Tizim (yunoncha. systema — qismlardan tashkil topgan butun; bog‘lanish) — “bir-biri bilan munosabat va aloqada bo‘lgan, ma’lum bir yaxlitlik, birlikni tashkil etuvchi elementlar yig‘indisi”.

Tizimning quyidagi tavsifi alohida ko‘rsatiladi [8; 5]:

1) tizim murakkab tarkibga ega (elementlar, tarkibiy qismlar, komponentlar va boshqalardan iborat); 2) tizim elementlari bir-biri bilan muntazam tuzilmaviy (ya’ni barqaror) munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi; 3) tizim yaxlitlik, nisbiy avtonomlik sifatida birligi, ajratilganligi, atrof-muhitdan mustaqilligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik komponentni pedagogik tizim deb hisoblash mumkin, deb hisoblaydi, unda quyidagi elementlar guruhlarini ajratib ko‘rsatadi: maqsadlar; mazmun; ta’lim va tarbiya metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari; pedagoglar (o‘qituvchilar, ustozlar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, tarbiyachilar); ta’lim oluvchilar (o‘quvchilar, o‘quvchilar). Shu bilan birga, pedagogik tizimning asosiy tayanch elementi maqsadlar hisoblanadi.

Pedagogik tizimlar orasida: kasbiy tarbiya tizimlari, metodologik, metodik tizimlar va boshqalar ajratib ko‘rsatiladi. Metodik tizim pedagogik faoliyatning yaxlit modeli bo‘lib, u keyinchalik ushbu faoliyat loyihasida aniqlashtiriladi (agar o‘qitish haqida gapirilsa, bu aniq fanlarni o‘qitish dasturi va ushbu dastur o‘z ichiga olgan materiallar: darsliklar, topshiriqlar to‘plami, ko‘rgazmali qurollar, ta’limning texnik vositalari bo‘ladi). Metodik tizimda an’anaviy tarzda maqsadlar, mazmun, ta’lim metodlari, vositalari va shakllari kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan tuzilma ajralib turadi. Metodik tizimning rivojlanish jarayonini tizimdagi qarama-qarshiliklari tufayli sifatli, qaytarilmas, yo‘naltirilgan o‘zgarishlar majmui sifatida ko‘rib, N.I.Rijova tizim rivojlanishining tashqi va ichki tamoyillariga ajratadi. Rivojlanishning tashqi tamoyillari tizimning rivojlanishi har qanday metodik (yoki pedagogik) tizimning unga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan ma’lum bir ijtimoiy va madaniy fonda ishlashining natijasi ekanligiga asoslanadi. Rivojlanishning ichki tamoyillari metodologik tizimning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining o‘zgarishi butun tizimni bir butun sifatida o‘zgartirish zaruriyatiga olib kelishini aks ettiradi.

Turli mamlakatlarning ta’lim tizimidagi, pedagogik nazariya va amaliyotdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda informatika o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini rivojlantirishning muhim tashqi omi-

li zamonaviy ta’limda va informatika va AKTni o‘qitish konsepsiyasida tatbiq etilgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish, uni o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida qo‘llash asosida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillarini tizimlashtirish mumkin:

– o‘quvchi shaxsini ta’lim tizimining maqsadi, predmeti, natijasi va samaradorligining asosiy mezoni sifatida e’tirof etish;

– o‘quvchi shaxsini pedagogik tizim markaziga ko‘tarish;

– ta’limning o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;

– shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim sohasini rivojlantirishni tashkil etish;

– hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiriladigan o‘zaro ta’sirning subyekt-subyekt turini amalga oshirish.

Biz bu tamoyillardan informatika o‘qituvchisini shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishda foydalanamiz.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonining mazmunini tinglovchilarning ehtiyojlari, ularning qiziqishlari, subyektiv tajribasiga mos ravishda moslashtirishga, uni o‘zlashtirishni tashkil etishning eng maqbul usullarini ta’minlashga; o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, ularning o‘z kasbiy va fandan tashqari aqliy, ijodiy, reflektiv, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini egallashi uchun samarali sharoit yaratish; o‘quvchilarda bilim faolligini rivojlantirish asosida o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon qilish, yangi muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish; mustaqil kashfiyotlar usullari bilan qurollanish; ijodiy bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Informatika o‘qituvchilarini malakasini oshirish jarayonida uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning muhim tashqi omili o‘qituvchi faoliyatidagi noaniqlikning kuchayishi, ta’lim paradigmasining o‘zgarishi tufayli pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri bashorat qilish qobiliyatining pasayishi, o‘quvchilarning raqamli texnologiyalar sohasidagi qiziqishlari va xohishlarining o‘zgarishi va boshqalar) hisoblanadi. Shuning uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv sinergetik yondashuv bilan metodologik va amaliy jihatdan “qo‘llab-quvvatlanishi” kerak.

Informatika o‘qituvchisining shaxsi sinergetika qoidalariga ko‘ra murakkab o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi tizimdan iborat, uning informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini ishlab chiqish ichki tamoyili hisoblanadi, bu informatika o‘qituvchilarini malakasini oshirish jarayonida uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan bir qatorda sinergetik yondashuvdan ham metodologik asos sifatida foydalanish zaruriyatiga olib keladi.

Sinergetik yondashuv informatika o‘qituvchilarini malakasini oshirish jarayonida uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda turli barqaror kasbiy va shaxsiy rivojlanish yo‘llari (attraktorlar) bilan ta’minlanishi va ulardan eng yaxshisini tanlash imkoniyatini ta’minlaydi. Kerakli attraktorga eng tez chiqish yo‘li mexanizmi ba’zi noaniqlik, rivojlanish yo‘llaridagi (bifurkatsiya) ajralish nuqtasida sodir bo‘ladigan voqea bo‘lishi kerak.

Informatika o‘qituvchisi shaxsini sinergetik tizim sifatida ko‘rib chiqish tayyorgarlik jarayonida ta’lim metodlari, usullari, vositalari va shakllarining sinergiyasi amalga oshirilishi kerak, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu ta’limning an’anaviy paradigmasidan shaxsga yo‘naltirilgan paradigmaga optimal tarzda o‘tish, uning markazida o‘quvchi shaxsi joylashishi; o‘quvchi shaxsining o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini faollashtirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, o‘qituvchi shaxsini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish, ularni o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga tayyorlash imkonini beradi. Sinergetik yondashuv, shuningdek, ta’lim tizimining maqsadlari va mazmunining ochiqligini (tarkibni o‘rganish tezligiga, bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanish trayektoriyasiga qarab to‘ldirish va boshqalar); dasturlarning o‘zgarmas va o‘zgaruvchan bloklarining optimal kombinatsiyasi; o‘qituvchilar va o‘quvchilarning qiziqishlari va pozitsiyasiga qarab bloklarning murakkabligi; tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash, ta’lim va mustaqil ta’lim, o‘qitish va o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonlarini birlashtirgan holda, kadrlar tayyorlash tizimining elementlarini tarkibiy bir butunlikka uyg‘unlashtirish jarayonini ta’minlaydi.

Yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi, shuningdek, informatika kursini pedagogik vaziyatlarning noaniqligi va oldindan aytib bo‘lmaydiganligi sharoitida o‘qitishga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish o‘qituvchilarning samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirishning mazmuni va usullarini tanlashda o‘z o‘zini tashkil etish qobiliyatiga ega ekanligini nazarda tutadi. Ushbu qobiliyatlarni shakllantirish o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida sinergetik yondashuvdan maqsadli foydalanish orqali ta’minlanishi mumkin: shu bilan birga, sinergetik tizimlarning asosiy xususiyatlari tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash, ta’lim va mustaqil ta’lim kabi qarama-qarshi jarayonlarida ko‘p faktorli o‘zaro ta’sirlarning sintezi yuzaga keluvchi sharoitlarda yaratilayotgan ta’lim maydoni uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi; o‘quvchilarda pedagogik tajribani loyihalash, modellashtirish va tadqiq qilishda refleksiv o‘z-o‘zini tashkil etish qobiliyati rivojlanadi. Aynan shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlarni kompleks qo‘llash bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining umumta’lim maktabida ushbu yondashuvlardan foydalanishga kasbiy tayyorgarligini yanada samarali shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Informatika o‘qituvchilarini malakasini oshirish ja-

rayonida uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalarini amalga oshirishning asosi bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyalaridan kadrlar tayyorlash tizimini o‘rganish obyekti sifatida tahlil qilish bosqichlarida qo‘llanilishi; tayyorgarlikni tizimlashtirish; tayyorgarlik bosqichlarini hisobga olgan holda tayyorgarlikning metodik tizimini aniqlash va to‘ldirish; mazmun tarkibiy qismlarini tanlash, ustuvor shakllar, metodlar va ta’lim vositalarini tanlashda foydalanish mumkin.

Informatika o‘qituvchilarini malakasini oshirish jarayonida uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodik tizimini tuzish, uning qismlarining o‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun tizimli yondashuvdan ham foydalanish kerak.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlar informatika o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy tayyorgarligi jarayonini tartibga solish, o‘qituvchining o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini faollashtirish; ta’lim tizimining turlicha tarkibiy qismlarini birlashtirish; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yutuqlarini kengaytirish va umumlashtirish uchun qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabr, PF–5847-son Farmoni. www.lex.uz.

3. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi: ped.fan. bo‘y. dok. (DSc) diss. Avtoref. – T., 2018. – 74 b.

4. Зайсева О.Б. Формирование информатсионной компетентности будущих учителей средствами инновационных технологий: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Зайсева Олга Борисовна. – Армавир, 2002. – 39 с.

5. Энциклопедия профессионалного образования: в 3–х томах / под ред. С.Я. Батышева. – М.: АПО, 1998. – Т.1. А–Л. – 568 с.

6. Karimova N.N. Paradigmal yondashuv asosida professional ta’lim pedagog kadrlarini kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish: ped. bo‘y. fal. dok. (Phd) diss. avtoref. – T., 2018. – 78 b.

7. Qodiraliyevich, Abdullayev Alibek. “ISSUES OF PREPARING FUTURE TEACHERS IN US PRACTICE”. Gospodarka i Innowacje. 40 (2023). – 16-19 p.

8. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(7), 5.

ILMIY-PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH ISHLARI SIFATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Gulnoza Bekmuradova,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limdan keyingi ta’limni tashkil etish hamda uning sifat va samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Jumladan, doktorant va mustaqil tadqiqotchilarni raqobatbardosh ilmiy-pedagogik kadrlar sifatida tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir takliflar bayon etilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada Oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, undagi sifat va samaradorlikni davlat tomonidan boshqarish, mazkur yo‘nalishda qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar va ularni joriy etuvchi tashkilotlar orqali amalga oshirilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *sifat, samaradorlik, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, ilmiy-pedagogik kadrlar, ilmiy tadqiqot ishlari, doktorant.*

Аннотация

В статье анализируются вопросы организации послевузовского образования, повышения его качества и эффективности. В частности, представлены предложения по усовершенствованию механизмов обеспечения эффективности проводимой работы по подготовке докторантов и самостоятельных соискателей как конкурентоспособных научно-педагогических кадров. Кроме того, в данной статье говорится о государственном управлении послевузовским образованием, а также его качестве и эффективности через нормативно-правовые документы, принятые в этом направлении, и организации, их реализующие.

Ключевые слова: *качество, эффективность, послевузовское образование, научно-педагогические кадры, научно-исследовательская работа, докторант.*

Annotation

The article analyzes the issues of organizing postgraduate education, improving its quality and efficiency. In particular, proposals are presented to improve mechanisms for ensuring the effectiveness of the work being carried out to train doctoral students and independent applicants as competitive scientific and pedagogical personnel. In addition, this article talks about the state management of postgraduate education, as well as its quality and effectiveness through the regulatory documents adopted in this direction and the organizations that implement them.

Keywords: *quality, efficiency, postgraduate education, scientific and pedagogical personnel, research work, doctoral student.*

Ilm-fan — har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o‘rinli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo‘lidagi muhim omillardan biridir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fanga va tadqiqot olib borishga qiziqish ortdi. Boisi sohaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” qonunida oliy ta’limdan keyingi ta’lim – ilmiy tadqiqot olib borish bosqichlari va shakllari – tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik, ilmiy daraja va unvonlar berish masalalari qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash to‘g‘risida”gi qarori esa ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishdagi yangi bosqichni boshlab berdi.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi zamonaviy axborot muhitini shakllantirish”, shuningdek “Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash (tayanch doktorantura va doktorantura) institutini takomillashtirish va jahon andozalariga moslashtirish” vazifalari belgilandi.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashdagi jahon tajribasi mazkur ta’lim bosqichini bakalavriat va magistratura kabi oliy ta’limning ikki bosqichidan keyingi alohida ta’lim bosqichi deb qarashni, ushbu bosqichda kadrlar tayyorlashda ham sifat va samaradorlikni ta’minlash dolzarb masalaga aylanganini ko‘rsatmoqda. Zero, mazkur bosqichdagi ta’lim sifati va samaradorligi yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali ilmiy tadqiqotlar sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi alohida qayd etilgan. Mazkur bosqichdagi ta’limning samaradorligini o‘z muddatida tayyorlangan dissertatsiyadan tashqari tegishli ixtisoslik bo‘yicha magistrdan ancha yuqori daraja bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan mutaxassis – olimni tayyorlash natijadorligi bilan baholash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.



1-rasm. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni boshqarish sub’ektlari va ob’ektlari

Mamlakatimizda oliy ta’limdan keyingi ta’limni boshqarish, shu jumladan undagi sifatni boshqarish tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, mazkur vazirlik tarkibidagi Innovatsion rivojlanish agentligi va Oliy attestatsiya komissiyasi, tasarrufida oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalari bo‘lgan boshqa vazirlik va idoralar, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy ta’lim muassasalari, Ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlar, mutaxassislik kafedralari va ilmiy tadqiqot bo‘limlari, shuningdek doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilardan iborat (1-rasm).

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim orqali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash sifat va samaradorligini ta’minlashga doir me’yoriy hujjatlardan biri – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori [1] bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida Nizom”da mamlakatimizda oliy ta’limdan keyingi ta’limni turli shakllarda tashkil etish, oliy ta’limdan keyingi ta’limda o‘qish uchun talabgor-

larni qabul qilish, izlanuvchilar faoliyati samaradorligini monitoring qilish tartibi belgilangan. Mazkur nizom oliy ta’limdan keyingi ta’limda sifatni ta’minlashga ma’lum darajada o‘zining hissasini qo‘shib kelmoqda.

“Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida Nizom” asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 26-iyundagi 572-son buyrug‘i [2] bilan izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishini har chorakda monitoring qilish tartibi joriy qilingan.

Albatta, sifatga faqat monitoring qilish orqali erishib bo‘lmaydi. Kutilayotgan sifat va qo‘yilayotgan talablarga erishish uchun ilmiy izlanuvchilarga tadqiqot olib borishga zarur sharoitlarni yaratib berish lozim. Shu maqsadda, yuqorida qayd etilgan buyruq bilan “Doktorantlar maktabi to‘g‘risida nizom” ham tasdiqlangan bo‘lib, uning maqsadi dissertatsiyalarning o‘z vaqtida himoya qilinishi va ilmiy darajalarni olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirishda izlanuvchilarga uslubiy va texnikaviy yordam ko‘rsatish hisoblanadi.

Ta’limni tashkil etish va uning sifatini nazorat qiluvchi qator vazirlik va idoralarning “Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori [3] bilan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy tadqiqot muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari tasdiqlangan. Unga ko‘ra oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi ilmiy yoki ta’lim tashkilotlari faoliyatining sifat va samaradorligi tegishli mezonlarga binoan baholanishi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur hujjatda oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi ilmiy yoki ta’lim tashkilotini oxirgi uch yilda bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar dissertatsiyalarining ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashda himoya qilinganlari soni 10 foizdan kam bo‘lmasligi kerakligi talabi ham belgilab qo‘yilgan.

Shunday qilib mamlakatimizda oliy ta’limdan keyingi ta’limni boshqarish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini baholashning davlat darajasidagi tizimi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan oliy ta’limdan keyingi ta’lim tashkilotlaridagi uyg‘unlashgan mexanizmi shakllangan.

Biroq, oliy ta’limdan keyingi ta’lim va unda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga doir xorijiy tajribalar, shuningdek, mazkur ta’lim bosqichida o‘qiganlarga nisbatan dissertatsiyalarni o‘z muddatida himoya qilganlar salmog‘ining past ekanligi ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish vazifasini ilgari surmoqda.

R.Van de Schoot, M.A.Yerkes, J.M.Mouw, H.Sonneveldning [4] maqolasida Gollandiya mamlakati misolida doktoranturada PhD dissertatsiyasini tayyorlash jarayonining murakkabliklari, dissertatsiyani tayyorlash muddatlarining cho‘zilib ketishi va uning doktorantura samaradorligiga salbiy ta’siri, mazkur samaradorlikni ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasasi va doktorant tomonidan nimalar qilinishi yoki qilinmasligi lozimligi haqida mulohazalar bayon qilingan.

Rossiyalik olimlar B.Bedniy, A.Mironos va T.Serovaning [5] o‘quv-metodik qo‘llanmasida aniq va tabiiy fanlar sohalarida ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash samaradorligini baholash metodlari yoritib berilgan.

T.Serovaning [6] maqolasida zamonaviy aspirant (bizdagi tayanch doktorantga to‘g‘ri keladi) modelining tahlili asosida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi taklif qilingan. Muallif tomonidan xorijda (AQSh va ayrim Yevropa mamlakatlarida) doktorantlarni tayyorlash tizimi haqida ham ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

S.Reznik [7] tomonidan oliy ta’limdan keyingi ta’lim samaradorligini oshirish uchun talabgorlarni tanlash va doktorantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlarini takomillashtirish, ularga ilmiy rahbarlik sifatini oshirish ishlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Olimlarimiz B.Usmonov va O.Radjabovning [8] maqolasida Yevropa universitetlari va O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining xususiyatlari ko‘rib chiqilgan, o‘xshash va farq qiluvchi jihatlar tahlil qilingan.

Muammoni o‘rganish va tadqiq qilish jarayonida rivojlangan xorij mamlakatlarida oliy ta’limdan keyingi ta’limda sifat va samaradorlikni ta’minlash, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘yicha to‘plangan tajribalar, qo‘llanilayotgan yondashuvlar, erishilgan yutuq va mavjud muammolarga doir ilmiy mahsulotlar (maqola, qo‘llanma, monografiya va dissertatsiyalar), mazkur sohaga doir me’yoriy hujjatlar va tartib-qoidalarni, doktorant va mustaqil tadqiqotchilarning oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichida samaradorlikni ta’minlashga doir fikr-mulohazalarini (suhbat va savolnomalar orqali) o‘rganish va tahlil qilishning turli usullaridan foydalanildi. Mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish asosida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning faqat ilmiy darajaga ega mutaxassisni tayyorlashga emas, balki mazkur mutaxassis tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalarining amaliyotga joriy etilishi samaradorligini oshirishga yo‘naltirilganiga ham e’tibor qaratildi.

Har qanday faoliyatni boshqarishdagi kabi ilmiy faoliyatni boshqarish ham ilmiy tadqiqotlarning barcha tomonlari va bosqichlarini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Doktorantura samaradorligini oshirish uchun doktoranturaga talabgorlarni tanlab olish tizimini, doktorantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilish sifatini oshirish va doktoranturaning metodik ta’minlashni takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Tadqiqotlarimiz jarayonida faoliyati so‘rovnomalar orqali o‘rganilgan va tahlil qilingan 310 nafar 3-bosqich

doktorantlarining 48 foizi ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanishni talabalik davridayoq boshlagani tufayli dissertatsiya ishini o‘z vaqtida tugallashga erishayotganligini qayd etgan.

Doktoranturaga qabul qilish uchun xorijiy tilni bilish darajasi haqidagi sertifikatni talab qilinishining dastlabki yilida bunday sertifikatga ega bo‘lgan talabgorlar deyarli raqobatsiz muhitda doktoranturaga qabul qilindilar. Ushbu holat ularning keyingi faoliyatlarida o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Raqobatsiz sharoitda qabul qilingan doktorantlarning 61 foizi talabalik davrida ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanishni birinchi galdagi vazifa emas deb hisoblagani, biroq til sertifikati borligi tufayli mavjud imkoniyatdan foydalanib doktoranturaga kirganini qayd etgan. Ushbu doktorantlar talabalik davrida ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmasini yetarli darajada egallamaganliklari sababli dissertatsiya ustida ishlashlari jarayonida ma’lum darajada qiyinchiliklarni sezayotganliklarini ma’lum qilganlar.

Respondentlarning 82 foizi doktoranturagacha bo‘lgan davrda ularning ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalari darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib borish uchun doktorantlar maktabining faol ishlashi, ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha seminar va davra suhbatlarining ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaganlar.

So‘rovnomada ishtirok etgan 2 va 3-bosqich doktorantlarining 73 foizi ularning dissertatsiya ishi ustida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ishlashlarining asosiy sababi ilmiy rahbarlik saviyasi bilan bog‘liq bo‘lganini qayd etganlar. Ya’ni doktorantlarning aksariyati ilmiy rahbarlarning rolini muhim ekanligini ta’kidlaganlar.

Doktoranturada ta’lim olish va dissertatsiya ishi ustida ishlash jarayonida o‘tkazilgan monitoringlarning ahamiyatini baholashga doir berilgan savolga 55 foiz doktorantlar monitoringning muhimligi, biroq uni yuqori talabchanlik muhitida tashkil etilishi lozimligini ta’kidlaganlar.

So‘rovnomada ishtirok etgan doktorantlarning 78 foizi kafedra (ilmiy tadqiqot bo‘limi) tomonidan o‘tkaziladigan muhokamalar, tashkil qilinadigan seminar va mahorat darslari, ilmiy rahbarlar tomonidan beriladigan maslahatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaganlar.

Respondentlarning 12 foizi doktoranturada o‘qish jarayonida xorijiy stajirovkalarda bo‘lgani yoki ilmiy konferensiyalarda ishtirok etgani haqida ma’lum qilib, mazkur tadbirlardagi ishtirok etish tajribasi o‘zlarining ilmiy ishlarini kengroq va yuqoriroq saviyada olib borish uchun turtki bo‘lganini ta’kidlaganlar.

Doktoranturaning samaradorligi nafaqat o‘z vaqtida himoya qilingan dissertatsiya ishlari, balki, doktoranturani bitirib, o‘zining ilmiy-pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotgani darajasi bilan ham belgilanadi. Agar mazkur samaradorlik kutilganidan past bo‘ladigan bo‘lsa, tegishli ta’lim dasturi qayta ko‘rib chiqilar ekan. Afsuski, bizning mamlakatimizda bunday tajriba mavjud emas, ya’ni oliy ta’limdan keyingi ta’limda tegishli ixtisoslik bo‘yicha joriy etilgan alohida ta’lim dasturi bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan.

Bizda ham ana shunday doktorantura ta’lim dasturlarini joriy etish, ilmiy darajaga ega lekin, ilmiy-pedagogik faoliyatda uchraydigan ilmiy muammolarni hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan mutaxassislarning tayyorlanishi holatlariga barham bergan bo‘lar edi. Ilmiy nashrlar va tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqib, doktorantlarni mustaqil ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishning quyidagi mexanizmlarini va vositalarini taklif qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni sifatini boshqarish mexanizmlari

Yuqorida bayon etilgan Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni sifatini boshqarish mexanizmlarini magistratura talabalarini ilmiy faoliyatga jalb qilish tizimini va doktoranturaga qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari bilan to‘ldirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur mexanizmlar doktoranturaga talabgorlar tarkibini sifat jihatidan yaxshilashga, doktoranturaga haqiqatdan ham ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarni qabul qilish orqali ular tomonidan dissertatsiyalarni o‘z muddatida tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan xorij mamlakatlarining yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashdagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida joriy etish imkoniyatlarini o‘rganish, doktorantura va mustaqil ilmiy tadqiqotchilik orqali ilmiy darajali kadrlarni yetishtirish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2019-yil 26-iyundagi “Ilmiy tadqiqot faoliyatiga oid nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 572-son buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligining “Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 27-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3214]gi qo‘shma qarori.

4. R.Van de Schoot, M.A.Yerkes, J.M.Mouw, H.Sonneveld. What Took Them So Long? Explaining PhD Delays among Doctoral Candidates. PLOS ONE 8 (7): e68839. doi:10.1371/journal. Published: July 23, 2013. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0068839

5. Б.И.Бедный, А.А.Миронос, Т.В.Серова. Методы оценки эффективности аспирантуры в области точных и естественных наук. Учебно-методическое пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2010. – № 5 (1). – 11-19 с.

6. Т.В.Серова. Комплексная оценка эффективности аспирантуры в области точных и эстественных наук. – Инновации в образовании. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2011, № 3 (1). – 19-25 с.

7. С.Д.Резник. Аспирантура: как повысить ее эффективность. // Университетское управление: практика и анализ. – 2015. – № 4. – 106-116 с.

8. Б.Усманов, О.Раджабов. Сравнение систем подготовки научных и научно-педагогических кадров в Европе и Узбекистане. – Научное обозрение: электроный журнал. – 2018. – № 2. – 1-19 с.

TALABALARDA RUS TILI DARSLARI ORQALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Muslima Imamkulova,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish metodikasi haqida ilmiy ma’lumotlar berib o‘tilgan. Maqolada rus tili darslarida o‘qitish va o‘rganish tajribasini oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalar, yondashuvlar va usullarni o‘rganadi. Bundan tashqari, o‘quv muhitini yaratishda talabalarning turli ehtiyojlari va o‘rganish uslublarini qondirish uchun pedagogik usullarni moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Talabalarda pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish metodikasi rus tili darslari orqali amalga oshirish usullari yoritib berilgan va maqsad, vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiyalar, rus tilini o‘rgatish, metodologiyani ishlab chiqish, talabaga qaratilgan ta’lim, kommunikativ tilni o‘rgatish, vazifaga asoslangan ta’lim, texnologiya integratsiyasi.*

Аннотация

В данной статье представлена научная информация о методике развития педагогических технологий у учащихся на занятиях по русскому языку. В статье исследуются стратегии, подходы и методы, используемые учителями для повышения качества преподавания и обучения на уроках русского языка. В нем также подчеркивается важность адаптации педагогических методов для удовлетворения различных потребностей и стилей обучения учащихся при создании среды обучения. Объяснены методы реализации методики развития педагогической технологии у студентов на занятиях по русскому языку, обозначены цели и задачи.

Ключевые слова: *педагогические технологии, преподавание русского языка, разработка методологии, личностно-ориентированное образование, коммуникативное обучение языку, целенаправленное обучение, интеграция технологий.*

Annotation

This article provides scientific information about the methodology of developing pedagogical technologies in students through Russian language classes. The article explores strategies, approaches, and methods used by teachers to enhance the teaching and learning experience in Russian language classes. It also emphasizes the importance of adapting pedagogical methods to meet the different needs and learning styles of students when creating a learning environment. Methods of implementing the methodology of pedagogical technology development in students through Russian language classes are explained and the goals and tasks are indicated.

Keywords: *educational technologies, Russian language teaching, methodology development, learner-centered education, communicative language teaching, purposeful learning, technology integration.*

Zamonaviy ta’lim sharoitida samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash o‘quv jarayonida asosiy o‘rin tutadi. Xususan, talabalar, ayniqsa ona tili bo‘lmaganlar tomonidan rus tilini o‘rganish sharoitida ularning ehtiyojlari, o‘rganish uslublari va turli darajadagi tillarni bilish darajasini hisobga oladigan zamonaviy metodikalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Rus tili darslarida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasi talabalar o‘rtasida o‘rganish uslublarining xilma-xilligini va tilni bilish darajasini hisobga oladigan moslashuvchan yondashuvlarni o‘z ichiga olishi kerak. Individual ta’lim va tabaqalashtirilgan usullardan foydalanish har bir talaba uchun to‘g‘ri sharoit yaratishga yordam beradi.

Tilni muvaffaqiyatli o‘rganishning asosiy tamoyillaridan biri bu kommunikativ yondashuvdir. Rus tili darslarida talabalar til ko‘nikmalarini real muloqot sharoitida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Interfaol vazifalar, rolli o‘yinlar, muhokamalar va loyihalar rus tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. [1, 35]

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik usullarni ishlab chiqishning ajralmas qismidir. Rus tili darslarida talabalar til bo‘yicha bilim va amaliyotini chuqurlashtirish uchun onlayn resurslar, multimedia materiallari, til ilovalari va muloqot platformalari bilan o‘zaro muloqot qilishlari mumkin. Rus tilini samarali o‘rgatish uchun talabalar motivatsiyasini rag‘batlantirish muhimdir. Qiziqarli va dolzarb mavzularning kiritilishi, real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi o‘yinlar, keys va topshiriqlardan foydalanish talabalarning o‘quv jarayonida ishtiyoqi va faol ishtirokiga yordam beradi. Talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchilarning doimiy yordami va fikr-mulohazalari muhim o‘rin tutadi. Individual maslahatlashuvlar, xatolarni tuzatish va yutuqlarni muntazam baholash talabalarning til ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Talabalar uchun rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasi rag‘batlantiruvchi, interfaol va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Zamonaviy uslublar, texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish talabalarning til ko‘nikmalarini samarali o‘rganish va rivojlantirishga, shuningdek, rus tilidagi madaniy tushunish va kommunikativ kompetensiyaga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim ta’lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni faol ravishda joriy qilmoqda. Rus tilini o‘rganish ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ushbu fan bo‘yicha darslarga innovatsion texnikani joriy etish o‘quv amaliyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqolada talabalar uchun rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni o‘rganish metodologiyasi keltirilgan. [2, 79]

Ushbu tadqiqotning maqsadi rus tili darslarida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishning samarali usullari va ularning talabalarga ta’sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

– rus tili darslarida qo‘llaniladigan mavjud pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish;

– rus tilini o‘rganish jarayonida talabalarning afzalliklari va ehtiyojlarini o‘rganish;

– turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda eksperimental ta’limni o‘tkazish;

– turli usullar yordamida ta’lim natijalarini qiyosiy tahlil qilish.

Olingan natijalar asosida o‘quv jarayonini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalarni shakllantirish lozim. Talabalar o‘rtasida rus tili darslarida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni o‘rganish ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim qadamdir. Ushbu tadqiqot natijalari rus tilini o‘qitishning eng samarali usullarini aniqlash imkonini beradi, bu esa ta’lim sifatini oshirish va talabalar o‘rtasida til kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizni umuman olganda kundalik hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Qaysi soha haqida gapirmaylik bu vositalar bizni tark etmaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter dasturlari vositasida yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda keng foydalanilmoqda. Turli fanlardan o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilib, dars samaradorligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotining barcha sohalarida bo‘lganidek, ta’lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo‘lga qo‘yildiki, bunda ta’lim-tarbiya tizimiga, oliy ta’limning o‘quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini orttirish talab etilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi tobora murakkablashib bormoqda, shitob bilan o‘zgarib borayotgan olamda o‘qituvchi o‘ziga nisbatan qo‘yilayotgan talablar asosida faoliyat ko‘rsatishga to‘g‘ri kelmoqda. Ayni paytda pedagog faoliyati bilan bog‘liq ish usullari, sifat o‘zgarishlari uchun imkoniyat yaratuvchi pedagogik yangiliklar paydo bo‘lmoqda. Bularning hammasi pedagog faoliyati va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim sifatiga e’tibor qaratish masalalarini murakkablashuviga olib keladi va ularni hal qilishning yangi, ilmiy asoslangan usullariga ehtiyoj tug‘diradi. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda, o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. An’anaviy yo‘nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko‘ra: yangi bilimlarni o‘zlashtirish; o‘rganilgan bilimlarni amaliy tatbiq etish orqali mustahkamlash; o‘tilganlarni takrorlash; bilim va malakalarni mustahkamlash; talaba bilimini nazorat qilish va baholash; ularni bir sistemaga keltirish kabi turlarga ega ekanligi pedagogika fanidan

yaxshi ma’lum. Ammo iqtisodiy-ijtimoiy ravnaq, ilm-u fan sohalaridagi yangi-yangi yutuqlar ta’limning asosiy vositasi bo‘lgan dars (mashg‘ulot) va uning turlarining ko‘payishiga, takomillashuviga olib keldi. Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va suhbatlarni qo‘llash, talabaning ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta’minlash mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.[3,49]

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishni o‘qituvchisiz tasavvur etish mumkin emas. O‘qituvchi shaxsi-ta’lim jarayonining ham subyekti, ham tashkilotchisidir. Uzluksiz tarzda davom etadigan takomillashuv jarayonining samarali kechishi ma’lum darajada o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyasi mazmuni va metodikasiga bog‘liq. Shunday qilib, talabalarni faolligini oshirish o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa belgilashi va ana shu vazifani bajarish uchun izlanishi, zamonaviy texnologiyaning turli turlaridan foydalanib, talabani faolligini oshirish zarur.

Rus tili darslarida talabalarning faolligini oshirishi uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

– talabalar uchun dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratish;

– talabalarning o‘zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon berish;

– olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etish;

– har bir talaba o‘zini ta’lim mazmunini muallifidek his qiluvchi muhit yaratish kabi imkoniyatlar ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirishga erishishga asos bo‘ladi. [4,21]

Shu bilan birga fanni o‘qitishda “Har kim har kimni o‘qitadi” metodidan foydalanish mumkin. Bu metodni yangi mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Bu metod talabalarga dars jarayonida faol qatnashishlariga imkon beradi, talabalarning o‘zlashtirish darajasi ortadi, xotirasi mustahkamlanadi.

O‘tkazish tartibi:

1. Har bir talabaga dars mavzusiga oid dalil (fakt)lar yozilgan topshiriqlar tarqatiladi. 2. Bir necha daqiqada talabalar mavzuga doir ma’lumotlarni yozadilar. O‘qituvchi talabalar topshiriqni qanday tushunganliklarini kuzatadi.

3. Talabalar to‘plagan ma’lumotlarni o‘zaro muhokama qilishlari taklif etiladi. Mashq har bir talaba o‘z fikrini bildirmaguncha davom etadi.

4. Vazifa shunday qo‘yiladiki, talabalar yangi ma’lumotlarni bir-biridan bilib oladilar. Shuningdek zamonaviy innovatsion texnologiyalar rus tilini o‘qitish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ularning rivojlanishi tilni o‘rganishda yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Innovatsion yondashuvlar rus tili darslarini bataf-sil, qiziqarli va yorqinroq qiladi. Masalan dars jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun istiqbolli uslubiy metodlardan foydalanish kerak:

– klasterlar, insert (nazariy materialni mustaqil o‘rganayotganda);

– jadvallarni to‘ldirish, ikki qismli kundalik;

– to‘xtash bilan o‘qish, qo‘shma izlash;

– o‘zaro munozara, davra suhbati;

– ixtirochi muammolarni hal qilish texnologiyalari,

– “Xatoni topish”, klassik ma’ruza mashg‘ulotlari;

– audiovizual texnik vositalar yordamida o‘qitish,

– testlar, loyiha usuli kabilar.

Berilgan vazifa uchun materialni mustaqil izlash, talabalarning faol aqliy faoliyati o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga o‘qituvchining talabchanligi, haqqoniyligi, halolligi, mehribonligi, xushmuomalaligi talabalar tomonidan fanni yaxshi o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda ta’lim oluvchining bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik-pedagogik jihatdan o‘qitish (dars berish) va tarbiyalash mahorati ham ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilish, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarni o‘zlashtirishlarini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lish kerak. Shu kabi omillar ham nafaqat rus tili balki barcha fanlarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, rus tili o‘qitishda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar o‘zida zamonaviy o‘qituvchi imijini yaratib, ertaga zamonaviy maktabda ta’lim beradigan o‘qituvchilarni ham imijini yuqorida ko‘rsatilgan talablar asosida o‘zgartirishi, ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda katta ahamiyatga ega. [5, 34]

Zamonaviy dunyo ta’limida, ayniqsa, chet tillarini o‘qitish sharoitida samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash asosiy o‘rin tutadi. Rus tili o‘rganish uchun eng mashhur tillardan biri bo‘lib, uni ko‘pincha ona tili bo‘lmagan talabalarga o‘rgatish usullariga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Ushbu inshoda biz talabalar uchun rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biri bu kommunikativ yondashuvdir. Rus tilini sinfda real kommunikativ vaziyatlarni yaratish orqali o‘rgatish nafaqat til ko‘nikmalarini egallashga, balki ularni hayotda qo‘llashga ham hissa qo‘shadi. Bunday muhitda o‘qiyotgan talabalar rus tilida gapirish, tushunish va o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasining muhim elementi ham zamonaviy ta’lim texnologiyalarining integratsiyalashuvidir. Interfaol doskalar, onlayn resurslar, til o‘rganish ilovalari va boshqa texnologik vositalardan foydalanish talabalarning motivatsiyasi va o‘rganish samaradorligini oshirish uchun turli materiallar, mashqlar va topshiriqlardan foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilar uchun rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish moslashtirilgan o‘qitish usullarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bu

o‘qituvchilarga har bir talabaning individual ehtiyojlari va o‘quv uslublarini qondirish imkonini beradi, natijada har bir talaba bilan yanada samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalar uchun rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasi o‘rganish samaradorligini oshirish va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ yondashuvdan foydalanish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashuvi va moslashtirilgan o‘qitish usullarini qo‘llash rus tilini o‘rganayotgan talabalar uchun rag‘batlantiruvchi va samarali ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Turg‘unboyev, M.Ortiqova “Pedagogik innovatsiya asoslari”. – Andijon: “Andijon nashriyot-matbaa”, 2011. – 250 b.
2. Yoldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 140 b.
3. Xo‘jayev N.X., Xodiyeyv B.Y., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2002. – 212 b.
4. Hasanboyev, Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2006. – 198 b.
5. Qudratov R. O‘quv faoliyati-ijtimoiy hodisa. “Xalq ta’limi” jurnali. – 2002. – № 4. – 58-61-b.

ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ — ИЖРОИЯ ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИГА КЎМАКЛАШУВЧИ ИНСТИТУТ СИФАТИДА

Тўйчи Ахмедов,
Алфраганус университети доценти

Аннотация

Ушбу мақолада жамоатчилик кенгашларининг ижроия ҳокимияти тизимидаги ўрни ёритилган. Ўзбекистонда жамоатчилик кенгашлари ижроия ҳокимияти фаолиятига кўмаклашувчи институт сифатида қаралади. Жамоатчилик кенгашининг функционал вазифалари ва уларнинг амалдаги татбиқи ушбу тузилманинг ижроия ҳокимияти фаолияти самарасини оширишга хизмат қилишини кўрсатади. Ваҳоланки, жамоатчилик кенгашларининг ҳокимият ва халқ ўртасидаги муносабатларни ривожлантириш, ташкилотда ишчанлик муҳитини яхшилаш, фуқароларнинг мурожаатларини қаноатлантириш жараёнига кўмаклашиш ва самарали жамоатчилик назоратини ташкил этиш, соҳа ривожи учун таклифлар киритиш каби вазифалари бир вақтнинг ўзида ижроия идораларининг фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади.

Калит сўзлар: *жамоатчилик кенгаши, ижро этувчи ҳокимият, мажлис, қонун, қарор қабул қилиш, кенгаш, Солиқ қўмитаси, эксперт гуруҳлари.*

Аннотация

В данной статье будет обсуждаться роль совещательных органов в исполнительной власти. В Узбекистане общественные советы рассматриваются как вспомогательный институт деятельности исполнительной власти. Функциональные обязанности общественных советов и их реализация, по-видимому, помогают данной структуре повысить эффективность исполнительной власти. Между тем, роль общественных советов, таких как улучшение отношений между людьми и правительством, повышение производительности труда в организациях, содействие удовлетворению запросов граждан и установление эффективного общественного контроля, внесение полезных предложений по улучшению отраслей одновременно оказывает положительное влияние. на общественных советах.

Ключевые слова: *Общественные советы, исполнительная власть, собрание, закон, принятие решений, совет, Налоговый комитет, экспертные группы.*

Annotation.

In this article the role of consultative bodies in executive branch will be discussed. In Uzbekistan public councils are viewed as a assistive institute to the activties of executive branch. The functional responsibilities of public councils and its implementation appears to help this structure to increase the effectiveness of execituve branch. Meanwhile, the role of public councils, such as, improving the relationship between people and thr government, increasing productivity in organizations, helping to satisfy citizen’s requests, and establishing effective public control, introducing useful proposals to improve sectors at the same time exerts positive influence on public councils.

Keywords: *public councils, executive branch, assembly, law, decision-making, council, tax committe, expert groups.*

Жамоатчилик кенгашларини ташкил этиш кўзланган мақсад — биринчидан, демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, иккинчидан, давлат ва жамият ўртасида самарали мулоқот механизмини яратиш, учинчидан, давлат органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратининг мустаҳкам механизмларини татбиқ қилиш, тўртинчидан, давлат органлари фаолияти очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, бешинчидан, фуқаролик жамияти институтлари билан самарали ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш ҳисобланади. Айтиб ўтилганидек, жамоатчилик кенгашлари халқпарвар давлат барпо этиш билан боғлиқ принципларни татбиқ этишга қаратилган миссияни бажариши керак бўлди.

Жамоатчилик кенгашларининг вазифаларини таҳлил қилиш мазкур тузилмани ижроия ҳокимияти фаолияти самарасини оширишдаги ўрнини очиб беришга хизмат қилади.

Жамоатчилик кенгашлари норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ишлаб чиқилишида жамоатчилик фикри ва аҳоли манфаатларини ифода этилиши бўйича ташаббус кўрсатади. Бундай ташаббус коллегиал орган қарорлари, давлат, минтақавий ва соҳавий дастурлар учун ҳам тааллуқли. Биз бу борада Солиқ қўмитаси ҳузуридаги Жамоатчилик кенгашидан мисол келтирамиз. “2023 йилнинг I чорагида Жамоатчилик кенгаши томонидан солиқ маъмуриятчилигининг янги чоратадбирлари — “E-aktiv” ахборот тизими ва солиқ тўловчининг ишончлилик индекси жорий этилиши муҳокамаси бўйича учта мажлис ўтказилди. Натижада: 1. Давлат солиқ органларининг “E-aktiv” автоматлаштирилган ахборот тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилди. 2. Жамоатчилик кенгашининг Солиқ қўмитасига e-aktiv ахборот тизимидан мажбурий фойдаланиш муддатларини тест синовлари ўтказилиб, пухта тайёргарлик кўрилгандан сўнг 2024 йилга кўчириш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида мурожаати қабул қилинди. 3. Жамоатчилик кенгаши номидан “E-aktiv” ахборот тизимини жорий этиш бўйича чоралар тўғрисида ахборот хабари тасдиқланди. 4. Солиқ тўловчининг ишончлилик индексини аниқлашни назарда тутувчи Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳасини такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилди” [7].

Жамоатчилик кенгашлари фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги қонунда белгиланган талабларнинг ижросини ўрганади. Давлат органларининг жамият манфаатларига тааллуқли вазифаларини бажариш устидан жамоатчилик назоратини олиб боради. Бундай вазифалар жамоатчилик кенгашлари фаолиятида устувор масаладир. Хусусан, Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги жамоатчилик маслаҳат Кенгашининг асосий вазифалари — Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари билан белгиланган вазифалар мазмун-моҳиятини тадбиркорлик субъектларига етказиб бериш, тегишли ҳудудда яшовчи фуқароларга тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишда лицензия масалалари бўйича маслаҳат бериш, тадбиркорлик субъектлари фаолиятида юзага келадиган муаммоли масалаларни ҳал этишда ваколат доирасида кўмаклашиш, соҳада кўрсатилаётган хизматлар сифатини оширишдан иборат. Мазкур кенгаш рақамли технологиялар соҳасида тадбиркорлик субъектларига маслаҳатлар беради, улар фаолиятида юзага келадиган муаммоли масалаларни ҳал этишда ваколат доирасида кўмаклашади, соҳада кўрсатилаётган хизматлар сифатини оширишга хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектларининг эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда уларнинг таклифларини ўрганади ва умумлаштириб, қонун ва қонуности норматив ҳужжатларига ўзгартириш ёки қўшимчалар киритиш бўйича зарур таклифларни тайёрлайди [2] ва ҳоказо. Бевосита тадбиркорлар билан мурожаатларни олиб борилиши кенгаш орқали муқобил ечимларни муҳокама қилишда муҳим роль ўйнайди.

Жамоатчилик кенгашлари ижроия ҳокимияти идораларининг функционал вазифалари бажарилишини ўрганиш орқали ишчанлик муҳитини яхшилашга, ходимларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишга, фуқароларнинг ҳуқуқлари бузилишини олдини олишга масъул ташкилот сифатида ўз ўрнига эга бўлмоғи лозим эди. Биз бу борада Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Таълим-фан жамоатчилик кенгаши фаолиятидан мисол келтирамиз. Таълим-фан кенгаши олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнини ташкил этилиши устидан самарали жамоатчилик назоратини амалга оширишни бошлади. Таълим-фан кенгашининг 2023/2024-ўқув йилига тайёргарлик кўриш бўйича ўрганишларида олий таълим муассасаларининг барча йўналишда олиб борган ишлари таҳлил этилган ва камчиликлар юзасидан таклифлар берилган[4].

Жамоатчилик назорати жамоатчилик кенгашларининг бирламчи вазифаларидан бири. Масалан, Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Жамоатчилик кенгашининг жамоатчилик назоратини амалга оширишга доир фаолиятига кенг ўрин берилган. Ижроия органи ҳузуридаги жамоатчилик кенгаши ички ишлар органлари фаолиятини янги босқичга олиб чиқишнинг, жамоатчилик билан алоқаларни мустаҳкамлашнинг, тегишли муаммоларни муҳокама қилиб боришнинг механизми сифатида баҳоланди. Соҳада бундай кенгашга эҳтиёж юқорилиги туфайли Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар

тўғрисида”ги қарори билан алоҳида вазифалар юкланди. Жамоатчилик кенгаши таркибига соҳа олимлари, меҳнат фахрийлари ва оммавий ахборот воситалари вакиллари киритилди. Одатдагидек жамоатчилик кенгаши тизимда назоратни ташкил этиш, ижтимоий фикрни ўрганиш ва мониторинг қилиш, қонунчилик лойиҳаларини ишлаб чиқишда жамият манфаатларини ҳисобга олиш ва ходимларнинг фаолиятида коррупция ҳолатларини олдини олишга масъул ҳисобланади. Аммо бундай кенгашнинг нормал ишлаши ва фаолияти бўйича мустаҳкам жамоатчилик фикри шаклланиши керак. Жумладан, жамоатчилик кенгаши аҳоли томонидан туриб муҳим ташаббусларни илгари суриш орқали ўз позициясини кўрсатиши уларга нисбатан муносабатни ўзгартиради. Бундай масалалар, яъни жамоатчилик кенгашининг ижроия ҳокимияти фаолиятидаги самарадорлиги алоҳида муҳокамаларга сабаб бўлмоқда [5].

Жамоатчилик кенгашлари фуқаролик жамияти институтлари билан давлат ташкилоти ўртасида боғловчи восита бўлиши кутилмоқда. Шунинг учун “биргаликда мулоқот қилиш, давлат органининг нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан самарали ҳамкорлигини таъминлаш учун давлат органини фуқаролар билан боғлаб турадиган “кўприк” ролини бажариш; давлат бошқаруви органларига нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларидан келиб тушган социал ва ижтимоий аҳамиятга молик лойиҳаларни умумлаштириш ва баҳолаш; фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига дахл қилувчи энг муҳим масалалар юзасидан давлат органининг фаолияти ҳақидаги жамоатчилик фикрини тизимли мониторинг қилиш ва ҳар томонлама таҳлил қилиш, социологик сўровлар ўтказиш, жумладан уларни ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда ўтказиш”[1] асосий вазифалар сифатида белгиланган.

Бунинг учун жамоатчилик кенгашлари фуқароларнинг мурожаатлари билан фаол ишлашига тўғри келади. Бунга соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги Жамоатчилик кенгашидан мисол келтирамиз. Жамоатчилик кенгаши таклифи билан республикадаги “ҳар бир туғруқ комплексида коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида “Ишонч қути”лари ташкил этилди. Ушбу қутилар шахсан муассаса раҳбари томонидан ҳар бир палатага олиб кирилиб, беморлардан ўз фикрларини очиқ ва шаффоф тарзда ёзиб бериш ишлари амалга оширилмоқда. Мазкур қутилар ҳафта якунида муассаса тиббиёт ходимлари иштирокида очилиб, камчиликка йўл қўйган шифокор ёки ҳамшира ҳамда кичик тиббиёт ходимига нисбатан тегишли жазо тайинланади” [3]. Ҳақиқатда ҳам, мурожаатлар жамоатчилик кенгашлари учун жамоатчилик назоратининг асосли механизмини яратиб беради. Бунда фақат фуқароларнинг мурожаатларини ўрганишда умумий маълумотлар бериш билан чекланмаслик керак. Жамоатчилик кенгашлари фуқароларнинг мурожаатларини кўриб чиқиши ва унинг мониторинги ҳақидаги ахборотларни тарқатишга даврий равишда эътибор қаратиши лозим.

Жамоатчилик кенгашлари томонидан мониторинг ишларини самарали ташкил этиши зарур. “Юксалиш” умуммиллий ҳаракати ташаббуси билан жамоатчилик кенгашлари давлат дастурининг бажарилиши устидан назоратни ташкил этиш бўйича мониторинг ишларида қатнашмоқда. Хусусан, давлат дастурида белгиланган вазифалар ва уларнинг ўз муддатида сифатли бажарилиши бўйича ўрганишлар олиб борилган. Бундай ўрганишлар ижроия ҳокимият фаолиятига доир натижаларни оммалаштириш ва ижобий натижаларни сарҳисобига эмас, балки камчиликлар ва муаммоларни ҳам таҳлил этишга қаратилган. Масалан, 2022 йилда давлат дастуридаги 7 та йўналишдаги вазифалар ижроси ўз муддатларида бажарилмаганлиги бўйича жамоатчилик кенгашлари хулоса берган. Молия вазирлиги томонидан автоматлаштирилган мулоқот тизимини жорий этиш бўйича ишлар, Бухоро ва Хоразм вилоятлари ҳокимликлари томонидан ахборот технологиялари марказларини ташкил этиш бўйича Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳаси, Сув хўжалиги вазирлиги томонидан насос станциялари ва гидротехник иншоотларни барпо этиш ишлари кеч бажарилганлиги таҳлил этилган[6].

Уюшган жиноятчилик — коррупцияга қарши кураш билан боғлиқ фаолият, жумладан, коррупцияни олдини олиш бўйича дастурлар ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этиш жамоатчилик кенгашларининг энг асосий вазифаларидандир. Чунки коррупция, манфаатлар тўқнашуви, уруғ-аймоқчилик, маҳаллийчилик, таниш-билишчилик каби иллатларни барвақт аниқлаш ва профилактик чораларни таҳлил қилиш асосида раҳбариятга таклиф киритишда жамоатчилик кенгаши холис бўла олади. Ташкилотнинг ижтимоий-маънавий муҳитига салбий таъсир кўрсатадиган ҳар қандай ҳаракат ва ҳаракатсизлик устидан жамоатчилик назоратини ўрнатиш ижро тизимидаги ислоҳотларнинг амалдаги татбиғига ижобий таъсир кўрсатади. Коррупция иллати бир ташкилот доирасида узоқ вақт номаълумлигича қолиши мумкин эмас. Айниқса, ахборот технологиялари ривожланган даврда давлат органларининг фаолияти омма эътиборида бўлади. Шунинг учун жамоатчилик кенгаши ташкилотдаги вазиятни барчадан олдин таҳлил қилиши ва зарурий чоралар кўриш бўйича таклиф киритиб бориши давлат органининг имижига ҳам таъсир кўрсатади.

Жамоатчилик кенгашлари давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятини очиқлигини таъминлаш соҳасида ҳам тегишли вазифаларни бажара-

ди. Давлат органлари фаолияти бўйича амалга оширилаётган тадбирларни мониторинг қилиш асносида ахборот олиш имкониятларини таҳлил қилиш, фуқароларга қулайликлар яратиш ва шаффофликни таъминлаш борасидаги чор-тадбирларни ишлаб чиқиш бўйича таклифлар киритиши мумкин. Жамоатчилик кенгаши мазкур жараёнда фуқаролик жамияти институтлари ва фуқароларнинг хоҳиш-истакларини инобатга олади. Ахборот сиёсатини жамият учун мақбуллаштириш бўйича ўз нуқтаи назарини ифода этади. Ўз навбатида ташкилотнинг расмий веб-сайтида жамоатчилик кенгаши фаолиятига тааллуқли очиқ ахборотларни жойлаштириб бориши ва ҳар чоракда мавжуд ахборотларни янгиланишини таъминлаши зарур. Лекин жамоатчилик кенгаши ҳақидаги маълумотларни расмий веб-сайтларга жойлаштиришда ахборот хизматлари фаол роль ўйнаши керак. Чунки жамоатчилик кенгаши аъзолари ўз фаолиятида бунга етарли эътибор бера олмаслигини вазирлик ва идораларнинг расмий веб-сайтларидаги жамоатчилик кенгаши учун ажратилган рукнлар кўрсатиб турибди.

Шундай қилиб, жамоатчилик кенгашлари давлат бошқарувининг янада демократлаштириш, Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни рўёбга чиқариш, давлат органлари билан фуқаролар ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасида боғловчи тузилма сифатида шакллантирилди. Мустақиллик йилларида жамоатчилик кенгашлари айрим ижро идораларидагина бор эди. Бугунги кундаги талабга кўра давлат органлари, хусусан, вазирликлар, қўмиталар, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти идоралари жамоатчилик кенгашларини тузишлари шартлиги белгилаб қўйилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 04 июлдаги “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3837-сон қарори. https://lex.uz/docs/3808838

2. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi jamoatchilik maslahat Kengashi to‘g‘risida Nizom. 09.12.2016. https://mitc.uz/uz/pages/council_orders

3. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши томонидан 2022 йил II чорак давомида ўтказилган йиғилишлар ва кун тартибидаги асосий масалалар юзасидан маълумот. https://ssv.ssv.uz/uploads/pages/%D0%96

4. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Таълим-фан жамоатчилик кенгаши маълумотлари. 29.02.2024 йил.

5. Ички ишлар органларини халқчил тузилмага айлантириш йўлида. https://nuz.uz/uz/zhamoat/1216979-ichki-ishlar-organlarini-halkchil-tuzilmaga-ajlantirish-jўlida.html

6. 2022 йилги Давлат дастурининг 1 сентябрь ҳолатига бажарилиши бўйича маълумотнома. https://ymh.uz

7. Маълумот. https://soliq.uz/storage/files/January2024/000000008 c4470d3018cf359f451003d.pdf

ONA TILI TA’LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TATBIQI

Sanobar Kuldasheva,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Ona tili ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ona tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, til ta’limida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, metodik dasturlarning yaratilishi, darslik va o‘qituvchi kitoblarida giperhavolalarning berilishi va ushbu imkoniyatlar orqali o‘quvchilarni fanga qiziqtirish haqida fikr yuritilgan. Multimedia vositalari hamda multimedia dasturlari farqlangan. Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan multimedia turlari haqidagi ma’lumotlar ilmiy sharhlanib, asosan, darsning qaysi bosqichlarida tegishli turlaridan samarali foydalanish izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli yondashuv, multimedia vositalari, giperhavola, chiziqli multimedia, chiziqli bo‘lmagan multimedia, multimedia dasturlari, internet resurslar, jismoniy tashuvchilar.*

Аннотация

В статье рассматриваются современные подходы к обучению родному языку, эффективное использование мультимедийных средств в языковом обучении, создание методических программ, обеспечение гиперссылок в учебниках и учебниках учителя, а также использование этих возможностей для интереса учащихся к науке.

Различают мультимедийные инструменты и мультимедийные программы. Информация о линейных и нелинейных видах мультимедиа получила научное толкование, преимущественно на этапах урока объяснялось эффективное использование соответствующих видов.

Ключевые слова: *цифровой подход, средства мультимедиа, гиперссылка, линейное мультимедиа, нелинейное мультимедиа, мультимедийные программы, интернет-ресурсы, физические носители.*

Annotation

The article discusses modern approaches to teaching the mother tongue, the effective use of multimedia tools in language education, the creation of methodological programs, the provision of hyperlinks in textbooks and teacher’s books, and the use of these opportunities to interest students in science. Multimedia tools and multimedia programs are distinguished. Information about linear and non-linear types of multimedia has been scientifically interpreted, mainly in which stages of the lesson the effective use of the relevant types has been explained.

Keywords: *digital approach, multimedia tools, hyperlink, linear multimedia, non-linear multimedia, multimedia programs, Internet resources, physical carriers.*

Jamiyatimizda innovatsion axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonlarida samarali foydalanish va uni qo‘llashga bo‘lgan talab, unga bo‘lgan qiziqish va e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Albatta, buning muhim sabablaridan biri shuki, an’anaviy ta’limda e’tibor faqat tayyor hosil qilingan bilimlarni egallashga, grammatik qoidalarni yodlashga qaratilgan. Zamonaviy pedagogika esa o‘quvchilarning egallayotgan bilimlarini o‘zlari saralab topishga, mustaqil fikrlab tahlil qilishga, oxirgi yechim va xulosalarni erkin keltirib chiqarishga, hatto o‘z bilimlarini xolisona baholashga o‘rgatadi. Zamonaviy pedagogika talablari multimedia vositalari orqali qiyinchiliksiz amalga oshiriladi. “Ta’lim muassasalarida mediamadaniyatni ta’lim va medianing integratsiyasi asosida rivojlantirish faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mediabilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda” [1, 3]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim olishimiz, yashashimiz, hayot tarzimiz, jamiyatdagi o‘rnimiz — barchasi media bilan bog‘liqdek go‘yo. Mediarivojimiz, mediamadaniyatimiz jamiyatdagi o‘rnimizni belgilashda ham muhim rol o‘ynayapti. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha va maktabdagi ta’limni media bilan integratsiyalash o‘quvchiga ham qiziqish uyg‘otadi, ham hayot bilan yaqinlashtiradi. Shu jihatdan darslarni multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish tobora dolzarblik kasb etib bormoqda.

Multimedia vositalaridan foydalanishda bir qator imkoniyatlar yuzaga keladi. Bulardan biri ayni paytda yana bir qancha qo‘shimcha ma’lumotlar bilan tanishib chiqish uchun havolalarning mavjudligidir. Jumladan, ayrim giperhavolalar adabiy yoki musiqiy asarni ilk manba bilan, uning turli xildagi ko‘rinishi yoki ijrosi bilan (turli variantdagi tarjimalari bilan) bog‘lash imkonini beradi. “Assosiatsiv giperhavolalar musiqiy, tasviriy san’at va badiiy asarlarni assotsiatsiyalar, jismoniy tashuvchilar (cd, Dvd, flesh-karta) hamda onlayn-maydon orqali sayt sahifalari yoki turli portallardagi axborotlar bilan bog‘lash orqali foydalana oladi” [2, 188]. Bilamizki, ona tili darsliklarida “matn bilan ishlash”, “lug‘at bilan ishlash”ga doir mashq va topshiriqlar ko‘plab kiritilyapti. Bu hodisa o‘qituvchi va o‘quvchilarni lug‘at kitoblari bilan ishlashga majbur etadi. Ayni paytda multimedia vositalarini qo‘llash foydalanish o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham imkoniyat eshigini ochadi. Darsliklarning multimedia ilovalari yaratilganda, matnda berilgan so‘zning ustidagi tugmachani bosib, elektron lug‘atlar bilan ulanish, so‘zning mazmun-mohiyati mavjud manbalarda qanday ma’no kasb etib kelganligiga guvoh bo‘lish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

N.Moreva o‘quv videoroliklari bugun nisbatan kengroq qo‘llana boshlanganini, ular o‘zida kino, ovozli yozuv hamda televideniye imkoniyatlarini mujassamlashtirganini ta’kidlaydi va uning afzalliklarini e’tirof etadi. O.V.Shlikovaning ta’kidlashicha: “Multimedia an’anaviy statik vizual (matn va grafika) axborotni dinamik (nutq, musiqa, videolavhalar, animatsiya va boshqalar) axborot bilan qo‘shish texnologiyasidir” [3, 9]. Ya’ni aytish joiz bo‘lsa, multimedia texnologiyasida statik axborot ovoz va harakatlar yordamida “jonlantirib” taqdim etiladi. Matn ko‘rinishidagi ma’lumotni o‘quvchi o‘qiydi, ammo u qay darajada anglaydi? Ba’zi holatlarda bu masala ikkinchi darajali bo‘lib qolayotgandek. Multimedia vositalaridan foydalanilganda bolada anglash ko‘nikmalari rivojlanadi. Endi u faqat o‘qib tushunish bilan cheklanmaydi, balki o‘qigan axborotini ekrandagi harakatlar orqali ko‘radi, eshitadi. Olinadigan ma’lumot barcha qabul kanallari orqali miyaga yetib borganda, tez va to‘g‘ri anglash sodir bo‘ladi.

Berardi Simon o‘z tadqiqotida “multimedia o‘quv materiali o‘rganuvchining madaniyatlararo kompetensiyasini oshirish, nutq faoliyatining turlari, jumladan, o‘qish va tinglash bo‘yicha malakasini oshirish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon berishini”[4:9] ta’kidlaydi. Nutq me’yorlariga (ton, talaffuz, diksiya) amal qilingan holda yozilgan audiomatnlarni takror-takror tinglaydi va o‘z nutqining sofligi, aniqligi, ravonligi ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tajribalardan shu ayonki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimida joriy etish, dars mashg‘ulotlarida ushbu texnologiyalarning turli shakllaridan samarali foydalanish nafaqat mazkur sohadagi bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, vaholanki, o‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga, o‘z yo‘lini

mustaqil tanlashiga, shaxsiy fazilatlarining mukammallashuviga ta’sir ko‘rsatadi, bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, o‘rganishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, AKT o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, audio, video kabi turlicha usullarning kombinatsiyasidan yaratilgan yangi, zamonaviy mahsulotlardan ona tili mashg‘ulotlarida unumli va o‘rinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta’minlash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlashlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma’lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, ko‘rib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchi, talabalarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir” [5, 26]. Fikrlashning quyi bosqichlari (o‘qing, tushunganingizni gapirib bering, ko‘chirib oling kabi)dan fikrlashning yuqori bosqichlari (analiz, sintez qilish, kreativ fikrlash)ga chiqish multimedia vositalari orqali qulayroq amalga oshiriladi.

Zhen Wang va Jianbo He o‘z tadqiqotlarida kompyuter va tegishli texnik jihozlar, rasmlar, matnlar, tovushlar, tasvirlar va turli xil ommaviy axborot vositalari ma’lumotlarini raqamli ravishda olish, boshqarish, aloqa qilish va qayta ishlash uchun yangi avlod kompyuter integratsiyalashgan va foydalanuvchilarga interaktiv ma’lumotlarni taqdim etish hamda muloqot o‘rnatish muhiti ekanligini ta’kidlaydi. Multimediali axborot tasvir, tovush va animatsiya kombinatsiyasini birlashtiradi va foydalanuvchi terminaliga ko‘p o‘lchovli, ko‘p burchakli va ko‘p rejimda uzatish imkonini beradi. Multimedia texnologiyasi bir nechta axborot obyektlarini birlashib, qayta ishlanib, so‘ng o‘quvchiga har tomonlama ta’sir asosida taqdim etiladi. Ko‘rish, eshitish, bajarib ko‘rishning parallel holda bir vaqtning o‘zida amalga oshirish esa o‘quvchilarning muhokama qilishi, xulosa chiqarishi uchun kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan omilga aylanadi. Mana shu jarayonlarning nisbatan qisqa muddat (vaqt oralig‘i)da bajarish esa o‘quvchining ijodiy fikrlashi, mushohadasi, eng muhimi, natijani ko‘z oldida yuzaga kelishi asosida o‘ziga bo‘lgan ishonchning kuchayishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ona tili va adabiyot o‘qituvchilaridan multimedia vositalaridan qay darajada foydalanishlari to‘g‘risida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari 1-jadvalda aks ettirildi.

O‘qituvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari (100 nafar o‘qituvchi)

1-jadval

Javob variantlari	**Berilgan javoblar soni**	**Berilmagan javoblar soni**	**Foizda**	**Javob variantlari**	**Berilgan javoblar soni**	**Berilmagan javoblar soni**	**Foizda**
1.Ona tili ta’limida multimedia vositalaridan foydalanasizmi?				3. Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish uchun maktabda shart-sharoit yetarlimi?			
A)	81	–	81%	A)	78	–	78%
B)	9	–	9%	B)	9	–	9%
C)	8	–	8%	C)	11	–	11%
D)	–	–	0%	D)	2	–	2%
2.Multimediali texnologiya deganda nimani tushunasiz?				4. Dars jarayonida foydalanish uchun multimedia texnologiyasi yaratishga harakat qilib ko‘rganmisiz?			
A)	95	–	95%	A)	78	–	78%
B)	5	–	5%	B)	9	–	9%
C)	–	–	0%	C)	11	–	11%
D)	–	–	0%	D)	2	–	2%
3. Sizningcha, ona tili darslarining qaysi bosqichlarida multimedia vositalaridan unumli foydalansa bo‘ladi?				6. Qo‘lingizda tayyor holatdagi multimedia texnologiyalari mavjud bo‘lsa, dars jarayoniga tatbiq etarmidingiz?			
A)	67	–	67%	A)	85	–	85%
B)	21	–	21%	B)	15	–	15%
C)	6	–	6%	C)	–	–	0%
D)	6	–	6%	D)	–	–	0%

Quyida so‘rovnomaning ba’zi jihatlarini tahlilga tortamiz. “Ona tili ta’limida multimedia vositalaridan foydalanasizmi?” degan birinchi savolga 100 ta o‘qituvchining 83 nafari “ba’zan foydalanaman”, 9 nafari “o‘quvchilarni qiziqtira olmayman, sinfda tartib yo‘qoladi”, 8 nafari “an’anaviy usul menga ma’qulroq”, deb javob qaytargan. Respondentlardan hech kim D punktdagi “Kompyuter vositalaridan foydalanishni bilmayman” degan to‘xtamni tanlamagan. Demak, aksariyat o‘qituvchilar multimedia vositalari deganda AKTning barcha imtiyozlarini nazarda tutgan va foydalanib turishini ta’kidlagan. 9 nafari B punktni tanlaganining sababi bu jarayonda o‘quvchilarda erkinlik paydo bo‘lishi hamda boshqaruvchilik nazoratini qo‘ldan chiqarib yuborishini aytadi. AKTdan foydalana olmaydigan o‘qituvchi topilmaydi, ammo qay darajada foydalana olishi e’tiborga molik.

2-savol: “Multimediali texnologiya deganda nimani tushunasiz?”

95 nafar o‘qituvchi “Darsda video va audiolardan foydalanishni tushunaman” deb, 5 nafari “Harakatli animatsiyalardan foydalanishni tushunaman” deb javob bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki, aksariyat o‘qituvchilar multimedia vositalari (matn, nutq, tasvir, video, animatsiya)dan foydalanib, multimedia texnologiyalari yaratilishini hali to‘la-to‘kis tushunib yetmagan. Dars jarayonida audiolardan foydalanishni yoki videodarslardan parcha qo‘yib berishni multimedia texnologiyasidan foydalanish deb tushunishadi. To‘g‘ri, video, audio, animatsiyalar multimedia vositasi hisoblanadi, ammo biz savolda multimedia texnologiyasini nazarda tutgan edik.

4-savol: “Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish uchun maktabda shart-sharoit yetarlimi?”

78 nafar o‘qituvchi “Shaxsiy kompyuterimdan foydalanaman” deb, 9 nafari “Multimedia ishlanmalari yo‘q, shuning uchun foydalanmayman” deb, 11 nafari “Yetarli emas, shuning uchun har doim foydalana olmayman” deb, 2 nafari “Sinf xonasi barcha vositalar bilan jihozlangan” degan javob ustida to‘xtalganlar. Bundan kelib chiqadiki, maktablarda ona tili xonalari kompyuter vositalari bilan yetarlicha jihozlanmagan, internet tarmoqlari doimiy ravishda ishlamaydi yoki past tezlikda ishlaydi, WiFi tarmoqlari faqat informatika xonalarida mavjud. O‘rta umumta’lim maktablarida 2ta yo 3ta videoproyektorlar mavjud, ularning hammasi ham soz holatda emas. Kompyuter vositasida o‘quvchilar bilimini baholashga zarurat tug‘ilgandagina darslar kompyuter bilan jihozlangan informatika xonalarida tashkil etiladi. Aksariyat hollarda o‘qituvchi shaxsiy kompyuterini proyektorga ulab darsda foydalanish imkoniyatiga ega xolos.

5-savol: Dars jarayonida foydalanish uchun multimedia texnologiyasi yaratishga harakat qilib ko‘rganmisiz?

Mazkur savolga 75 nafar o‘qituvchi A punktdagi “Yo‘q, slaydlardan foydalanaman” degan javobni belgiladi. O‘qituvchilar har bir mavzuga oid slaydlar bazasiga ega, qolaversa, ko‘pgina o‘qituvchilar mavzu doirasida mustaqil slayd yaratish mahoratiga ham ega. Ammo yuqorida ta’kidlaganimizdek, slayd multimedia vositasi hisoblanmaydi. 25 nafar o‘qituvchi B punktdagi “Ha, darsning ba’zi bosqichlari uchun yaratganman” degan javobda to‘xtaldi. Bu toifadagi o‘qituvchilar ko‘rik-tanlovlarda talab yuzasidan yaratgan videodarslarini, yozma ish (diktant, bayon, ijodiy matn)larni tashkil etish uchun ovoz tasmasiga yozilgan audiolarni nazarda tutgan. Adabiyot darslarida adiblar haqidagi videoroliklar, asarlar asosida yaratilgan kinofilmlardan foydalanish mumkinligini, ammo ona tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda imkoniyat kamligini ro‘kach qilishdi. Adabiyot darslarida foydalanish uchun keng imkoniyat tug‘dirayotgan ijodkorning hayoti va ijodidan tayyorlangan 20-30 daqiqalik teleko‘rsatuv yoki o‘qituvchi tomonidan yaratilgan slaydlar asosida tayyorlangan videoroliklardan foydalanishni ba’zi o‘qituvchilar videodars deb hisoblashini ham guvohi bo‘ldik. S punktdagi “Yo‘q, tasavvurga ega emasman” hamda D punktdagi “Axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalana olmayman” degan javoblarni birorta o‘qituvchi belgilamagan. Aslida multimedia vositalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar ham mavjud, ammo ular bunday javob berishni o‘ziga loyiq ko‘rmagan.

So‘rovnomadan ma’lum bo‘ladiki, aksariyat ona tili o‘qituvchilarida kompyuter savodxonligi yetishmaydi. Darslikdagi mashq va topshiriqlar ustida ishlash jarayonida darslikning metodik strukturasiga tayangan holda faoliyat yuritadilar. Mashq va topshiriqlarga pedagogik ishlov berish jarayonlari kam kuzatiladi, an’anaviy “doska-bo‘r” uslubini ma’qul ko‘rishadi, yangiliklarga intiluvchanlik kam kuzatiladi, kompyuterning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanmaslikni maktablarning moddiy-texnik bazasi ta’minotiga yo‘yishadi. Darsning yangi bilim berish bosqichlarida slayd ko‘rinishidagi taqdimotlardan foydalanishadi va bu bilan go‘yo ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanilgandek. Lekin o‘zi slayd yaratish mahoratiga ega bo‘lgan bugungi kunning o‘quvchisi uchun bu eskirgan jarayon. Texnika shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda jadal qadam tashlamasak, o‘quvchidan orqada qolishimiz tayin.

O‘qituvchi multimedia vositalari yoki multimedia texnologiyalaridan kam foydalanishining bir nechta obyektiv va subyektiv sabablarini aniqladik:

1. Ona tili o‘qituvchisi AKT yuzasidan to‘liq bilimga ega emas. Past malakaga ega ekanligi uchun yordamga muhtojlik sezadi va bu ish unumdorligini pasaytiradi.
2. Multimedia vositalaridan foydalanish ko‘p izlanish (rejalashtirish, loyihalash) va vaqtni talab etadi. O‘qituvchi topshiriqlar uchun material topishi, yaratishi uchun kamida 8-10 soat vaqt sarflashi kerak.
3. Maktablardagi moddiy-texnik baza bilan bog‘liq muammolar o‘qituvchining ish samaradorligiga ta’sir o‘tkazadi.
4. Multimedia vositalari bilan ishlaganda an’anaviy

ISSN 2181-8274

o‘qitish jarayoniga nisbatan o‘qituvchining roli pasayadi, o‘quvchilar o‘zini erkin tutishi natijasida o‘qituvchi boshqaruvchilikni qo‘ldan chiqarib yuboradi, degan salbiy gumonga borishadi va bu fikrni o‘z psixologiyasiga singdiradi.

5. Ba’zi hollarda o‘quvchilarning AKT kompetensiyasi o‘qituvchi AKT kompetensiyasidan ustun kelib qolishidan qo‘rqishadi va o‘z yelkasiga mas’uliyat olishni xohlamaydi.

Ona tili darslarida multimedia vositalaridan o‘rinli foydalanish pedagogik muammo sifatida mavjud.

1. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra o‘qituvchilarning aksariyati darsning turli bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish me’yor va mezonlarini bilmasliklari, multimedia vositalari va multimediali texnologiya termini haqida biryoqlama tushunchaga ega ekanliklari ma’lum bo‘ldi.

2. O‘quvchilardan olingan so‘rovnoma natijalari multimedia vositalari va texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish va bilimlarini baholashga ehtiyoj yuqori ekanini ko‘rsatdi.

3. Ona tili o‘qituvchisi AKT yuzasidan to‘liq bilimga ega emas. Past malakaga ega ekanligi uchun yordamga muhtojlik sezadi va bu ish unumdorligini pasaytiradi.

4. Maktablardagi moddiy-texnik baza bilan bog‘liq muammolar o‘qituvchining ish samaradorligiga ta’sir o‘tkazadi.

Ta’lim sifatini yanada yaxshilash uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’limning bakalavr bosqichlarida AKT hamda multimedia vositalaridan foydalana olish malakasini rivojlantiruvchi kurslar (tanlov fanlar) qo‘yilishi lozim.

2. Texnika va texnologiya tez rivojlanib borayotgan davrda har yili fan o‘qituvchilari uchun multimedia vositalari bilan ishlash malakasini oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

3. Har bir sinf ona tili darsliklariga multimedia ilovalari yaratilishi kerak.

4. Geymifikatsiya (raqamli o‘yinlarga asoslangan ta’lim)ga asoslanib, ona tilini o‘rganishga mo‘ljallangan interaktiv multimediali o‘yin dasturlari yaratilishini yo‘lga qo‘yish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Пед.фан.б. фал.док...дис. – Т., 2019. – 156 б.

2. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – М., 2014. – 188 с.

3. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. пособие для студентов / МГУКИ. – М.: ФАИР-ПРЕСС. 2004. – 420 с.

4. Берарди Симон. Дистанционное обучение в практике преподавания русского языка в итальянской аудитории (на примере авторских мультимедийных курсов “Краски-А1” и “Краски-А2”). Дисс. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук. – М., 2011. – 210 с.

5. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гуруҳларида). Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 2004. – 147 б.

6. Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. ном. ... дисс. – Қарши, 2012. – 151 б.

THE CRUCIAL ROLE OF NEEDS ANALYSIS IN LEARNING LANGUAGES

Adolatkhon Ibodullayeva,
English teacher at Yangier branch
of Tashkent Chemical Technology Institute

Annotation

This article explains the profound importance of need analysis and its transformative impact. Needs analysis is a significant process in various fields. Especially in education, it serves as a guide for making decisions and taking actions. However, in every field, collecting and addressing the needs of individuals is vital for accomplishing intended outcomes. In particular, the levels and language learning purposes of each student should be similar. This is essential for ensuring the effectiveness of the language program.

Keywords: *significant, assessment, needs analysis, methodology, course design, challenge.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ehtiyojlarni tahlil qilishning chuqur ahamiyati va uning o‘zgaruvchan ta’siri haqida ma’lumot keltirilgan. Ehtiyojlarni tahlil qilish turli sohalarda muhim jarayondir. Ayniqsa, ta’lim sohasida qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, har bir sohada shaxslarning ehtiyojlarini to‘plash va hal qilish ko‘zlangan natijalarga erishish uchun juda muhimdir. Xususan, har bir talabaning til o‘rganish darajalari va maqsadlari o‘xshash bo‘lishi kerak. Bu til dasturining samaradorligini ta’minlash uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: *muhim, baholash, ehtiyojlarni tahlil qilish, metodologiya, dastur tashkil qilish, qiyinchilik.*

Аннотация

В этой статье объясняется глубокая важность анализа потребностей и его преобразующее воздействие. Анализ потребностей является важным процессом в различных областях. Особенно в сфере образования он служит руководством для принятия решений и действий. Однако в каждой области сбор и удовлетворение потребностей людей имеет жизненно важное значение для достижения намеченных результатов. В частности, уровни и цели изучения языка у каждого студента должны быть одинаковыми. Это важно для обеспечения эффективности языковой программы.

Ключевые слова: *значимость, оценка, анализ потребностей, методология, дизайн курса, сложная задача.*

In the educational system, it is important to effectively organize lessons and prepare methods and materials suitable for students’ levels. It is impossible to conduct successful lessons without knowing the students’ level, interests, and language learning goals. Choosing topics and materials that are lower or higher than the students’ level of knowledge will cause them to fail to achieve the intended goal in the lesson. It also causes students to get bored in class. They have already mastered the topic very well, or the chosen topics are too difficult for them. Ways to prevent and eliminate such problems have been developed. One of these needs analysis. This assessment, which is often overlooked by many educators and seems simple, is extremely important. It is important that students first know where they are going and the end point in order to achieve the desired result. This analysis is one of the practical methods for improving the quality of education and developing the education system based on the study of needs, requirements, and relationships between teachers in the field of education and other analyses. Based on the results, teaching methods, textbooks, teaching aids, and other educational materials are modified or new programs are created. This analysis helps in solving the main issues of making the educational system more effective, strengthening the educational processes of education, determining what the special needs and support for students and teachers are, and managing the educational process.

Needs analysis has an essential role in education, and it can be conducted for several reasons:

1. Before creating a course: for designing a language program (syllabus)

2. During the lesson process: for checking the student’s understanding

3. At the end of the course, for identifying if the course was effective or not and conducting remedial teaching courses

For conducting needs analysis, an appropriate plan should be made: how to conduct it and what should be detected. And then, after collecting data, it should be analyzed. This process is followed by finding solutions and making decisions. Needs analysis is not some kind of examination that someone fails; it is a guide that can lead educators to create relevant course materials.

First of all, needs analysis includes determining and assessing the needs of particular individuals to create efficient course design in learning languages (especially in ESP). In some articles, the term needs analysis is also called needs assessment [1, 12]. It is an initial stage for developing a new course for learners. With the help of the needs analysis, important details are collected to design a curriculum as well as materials. Since in needs analysis, it will be obvious what the learners’ needs are, what skills

they need, and also their learning preferences will be taken into consideration.

Needs analysis can be conducted through multiple approaches. Methods like surveys, interviews, and observations are commonly used to gather data from students, teachers, and other stakeholders. In the field of education, it is actually beneficial to be aware of learners' challenges and reasons for learning the language. The process itself seems time-consuming, but it is an essential item for designing a syllabus [6, 28]. Because without knowing who your learners are, it will be unsuccessful to teach them. Except for this, analysis can be conducted during the lessons. By observing class activities, the instructors will be aware of whether the students are learning effectively or not. If it seems challenging for some of them, the instructor should apply differentiation for them. Some students have difficulty coping with this issue. First, the student's level should be checked in order to align with their needs. By examining their knowledge, it is easier to establish a new course. Students' educational background also plays a crucial role in course design [3, 13]. Otherwise, it will be impossible to identify what their attitude is towards learning the language. Because in today's world, some students do not experience appropriate formal education while others receive comprehensive input. For those who did not have the opportunity to receive formal education, time should be allocated. After examining the students' knowledge, experiences, and preferences, the educators can create a curriculum that can motivate and interest students. The main purpose of designing a language program is to provide students with the necessary skills they need to achieve their academic goals. It is essential to take into consideration what skills the students need in order to be able to take part in the activities. Their English language demand plays an important role in conducting effective lessons. And also knowing for what purpose they are using that language.

As mentioned before, observation, interviews, tests, surveys, and questionnaires can be used to identify the students' needs [2, 41]. The collected data, which is gathered through these methods, is helpful for educators to choose meaningful tasks. One of the initial steps is conducting a survey. In this survey, the home language of the students is detected. If they are bilingual students, they are accepted into the specific language program. In this bilingual program, students are provided with an environment where they can continue to improve their first language skills in balance with the English language. Within the framework of the program, instructors apply a range of techniques to improve. That may involve instructing students in both English and their native language to support them. Linguistic diversity can encourage students to improve their cognitive abilities.

Conducting a needs analysis when designing a syllabus and language course is essential to ensuring the effectiveness of the lesson. There may be several steps in conducting this analysis:

Identifying objectives: identifying the objectives and initial levels expected from the teaching process of the lesson. These objectives include determining how well students will learn the language, what skills and abilities they will acquire, and how effective they will be at the end of the lesson.

Preparation of lesson text and materials: preparation of materials that support the stated objectives of the lesson and make the lesson effective. This can be critical to improving students' skills, learning processes, and knowledge levels.

Structuring the Lesson: learn about and structure the structure and layout of the lesson, the topics, the levels of the lesson, and the objectives of each lesson. This is important for how to target students and structure learning during the lesson.

Selection of teaching methods: Selection of teaching methods in accordance with the objectives of the lesson. These methods can help ensure active communication between teacher and students, increase skill acquisition, and attract student interest [5, 8].

Evaluation and delivery: Establishing the criteria and methods of delivery used to evaluate the effectiveness of the lesson. These evaluation systems are very important for the self-evaluation of students during the lesson, helping the lesson to be effective, and monitoring the progress of the students.

Resources and indicators: resources and indicators necessary for the success of the lesson, such as lesson materials, Internet resources, tools that can be used by the teacher and the student during the lesson, and structuring, such as the variety and indicators used by the teacher in teaching the lesson.

Monitoring and evaluation: establishing systematic and preliminary levels for monitoring the progress of students during the lesson and evaluating the effectiveness of the lesson. This includes determining the situation and student knowledge level that are critical to the reinforcement of the lesson and the achievement of the initial objectives.

When designing a syllabus and a language course, conducting a needs analysis, organizing teaching methods, and preparing lesson texts and materials are very important to improve the level of student knowledge and ensure the effectiveness of the lesson [4, 2].

In the teaching process, needs analysis is also conducted to check the effectiveness of the lesson and student understanding. The main purpose of conducting this is to collect information that helps to learn, evaluate, and strengthen the learning process, the goals set for the students, and the teaching methods of the teachers. There may be several stages to this analysis: The student is observed during the lesson; that is, the student's level of understanding of the lesson is analyzed through the assign-

ments and various activities. If the student continues to make mistakes, remedial teaching classes are organized. Remedial teaching is a lesson designed to help students who are failing in a lesson correct their mistakes by explaining the topic again.

Finally, there are reasons to conduct a needs analysis at the end of a language course:

1. To determine the successful completion of the program and students’ mastery of the lessons.

2. To determine the students’ final English level and to determine whether they have reached their intended goal.

3. To identify the weak points of students while learning.

4. To provide feedback to students.

In conclusion, needs analysis is one of the careful processes to ensure the success of a lesson, course, or training. Primarily, student analysis involves gathering information about students and how they learn. This is important for determining how to teach students. A needs analysis helps to determine the criteria used to evaluate the effectiveness of the lesson. This is important for studying and evaluating student progress during the lesson. It also helps determine the systems needed to monitor student progress during the lesson and evaluate the effectiveness of the lesson. This is very important in the development of the lesson. During the needs analysis process, the resources needed to teach the lesson, such as materials, technology, and the study of teacher positions, are also included, as well as financial needs. In addition, needs assessment can be helpful for determining language barriers and challenges that students are facing. Dealing with these obstacles before delivering a lesson can help educators tailor teaching methods to meet students’ needs.

REFERENCES:

1. Viana V., Bocorny A.E.P., & Sarmento S. Teaching English for Specific Purposes. TESOL Press. (2019). – 1-8 p.

2. Linse, C.T. Assessing student needs. In Italiano, G., & Rounds, P. (Eds). English as a Second Language curriculum resource handbook. A practical guide for K–12 ESL programs. Kraus International Publications. (1993). – 35-48 p.

3. Ellen J. Serafini, Julie B. Lake, Michael H. Long. Needs analysis for specialized learner populations: Essential methodological improvements. (2015). – 11-16 p.

4. Like Raskova Octaberlina, Muthmainnah. English For Specific Purposes: Need Analysis. Indonesia. (2021): 1-9 p.

5. Hutchinson, T., & Waters, A. English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press. (1987). – 1-11 p.

6. Long, M. H., & Crookes, G. Three approaches to task-based syllabus design. TESOL quarterly. (1992), 26(1). – 27-56 p.

YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGI

Abdusalim Kenjaboyev,
Termiz davlat universiteti “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti, p.f.n

Annotatsiya

Yoshlarni ma’naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Muallif tomonidan yoshlar ongiga ma’naviy tahdidlarning oldini olish tamoyillari hamda ular ustidan ijtimoiy nazoratni ijtimoiy institutlar orqali ma’naviyatni takomillashtirish yo‘lari ko‘rsatilgan. Maqolada oila, mahalla va uning asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan muqaddas qadriyatlar va an’analar orqali yoshlarga Vatanga muhabbat, mas’uliyat, insonparvarlik kabi tuyg‘ular shakllanishi haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, mahalla, ijtimoiy institutlar, mafkuraviy immunitet, ma’naviy tarbiya, yoshlar ma’naviyati.*

Аннотация

Делаются размышления о сотрудничестве семьи, соседства и образовательных учреждений в формировании морального и идеологического иммунитета молодежи. Автор показывает принципы предотвращения духовных угроз сознанию молодежи и пути повышения духовности через социальные институты, социальный контроль над ними. В статье говорится о формировании таких чувств, как любовь к Родине, ответственность, человечность у молодежи через семью, соседство и ее священные ценности и традиции, отточенные веками.

Ключевые слова: *семья, соседство, социальные институты, идеологический иммунитет, духовное воспитание, духовность молодежи.*

Annotation

The author shows the principles of prevention of spiritual threats to the minds of young people and ways of improving

spirituality through social institutions, social control over them. The article talks about the formation of feelings such as love for the Motherland, responsibility, and humanity in young people through the family, neighborhood and its sacred values and traditions that have been refined over the centuries.

Keywords: *family, neighborhood, social institutions, ideological immunity.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bir qator ma’ruzalarida yoshlar tarbiyasiga va ma’naviyatiga e’tibor berish ularga o‘zbek xalqining boy madaniy merosini singdirish lozimligi ta’kidlangan.

Bugungi kunda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va O‘zbekistonning 2030-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-mafkuraviy ishlar asosida yoshlarni kitobxonlikka, sportga jalb qilish asosida ularning bandligini ta’minlash lozimligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyatida besh ma’naviyat sektorining tashkil etilishi ushbu viloyat yoshlari o‘rtasida ma’naviy-mafkuraviy ishlarni tashkil ilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Biz farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz lozim, Toki ularning milliy ildizlari baquvvat dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan baravar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin” [1, 79]. Negaki ma’naviyat yuksak darajada rivojlangan xalq milliy taraqqiy etadi, kelajakka qarab izchillik bilan qadam bosadi. Dunyoda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy va siyosiy jarayonlarni teran his etib tahlil qila olish, milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlari va texnologiyalari puxta o‘zlashtirish lozim bo‘ladi.

Muhimi, yoshlar ongiga ma’naviy tahdidlarni olishdek asosiy tamoyillarni anglab olishdan iborat. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘rganilayotgan jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va bir butunligi;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi;

– demokratik taraqqiyot, milliy manfaatlar ustuvorligi;

– an’anaviy va zamonaviylikka asoslangan mafkuraviy erkinlik;

– burch va mas’uliyatning amaliy faoliyat bilan hamohangligi.

Ma’lumki inson jamiyatda maqsadsiz yashay olmaydi, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, u bo‘lmasa jamiyat, davlar va inson o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Qayerda mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi mumkin. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Ko‘rsatib o‘tganidek, mafkura sohasida muhim vazifalarni his qilishda quyidagi ijtimoiy tashkilotlarni ishga solishimiz lozim:

– keng jamoatchilik;

– ziyolilar;

– olim, shoir va yozuvchilar;

– san’at va madaniyat ahli;

– oila, mahalla va ta’lim maskanlari” [1, 84].

Mazkur asarda ma’naviyat sohasidagi xavf-xatarlarning oldini olish mafkuraviy immunitetni shakllantirish texnologiyalari haqida qator mulohazalar ilgari surilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib vaziyatga baho berilsa, bunday xurujlarni chetlab o‘tish mumkin emas.Globallashuv mohiyatidan kelib chiqib faqat tahdidlarga qarshi qat’iy iroda bilan kurashish, avvalambor, kishilarning maqsadiga aylanishi kerak.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamirida bugungi yoshlarning ertangi kuni va kelajagi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan “Yoshlar markazlarida uzluksiz ravishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi yozuvchilari, shoirlari va san’at arboblari bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlarda o‘z ifodasini topmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston 2030-taraqqiyot strategiyasi doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlarda “Kitobxonlik, yoshlar o‘rtasida marafonlar,yoshlar festivallari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oila, mahalla va uning asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan muqaddas qadriyatlar va an’analar orqali yoshlarga Vatanga muhabbat, mas’uliyat, insonparvarlik kabi tuyg‘ular shakllanadi. Tarbiya muammosiga e’tibor qaratsak tarbiya o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy dunyoqarashni, insoniy e’tiqodni burch va mas’uliyatni ifodalaydi [2, 264]. Demak, oilada ota-ona, jamiyat, mahalla va ta’lim muassasalari axloqiy fazilatlarni yoshlar ongiga ta’sir eta olsalar yoshlar shakllanadi. Demak, tarbiya inson tug‘ilgandan umrining oxirigacha davom etadigan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan strategik maqsad negizida oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi yotadi.

Bugungi kunda yoshlar faoliyati ustidan nazoratni olib borishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, jamiyatimizdagi davlat korxonalari va ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurash olib borish zarur. Ushbu ishlarga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar balki, keng jamoatchilik,ota-onalar va mahalla jamoatchiligi birgalikda kurashishi lozim.

Ikkinchidan, ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yoshlarni ta’lim muassasalarida har tomonlama zamonaviy bilim olishlari uchun katta islohotlar olib borilmoqda. Shu sababli ta’limning sifat bosqichiga o‘tish va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy ta’lim olish uchun sharoitlar yaratish lozim.

Uchinchidan: yoshlar ongini boshqarish va hayot tarzini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘plab tadbirlar tashkil etish, ularning qiziqishlarini e’tiborga olib yangi tadbirlarni tashkil etish kerak.

To‘rtinchidan: axborot vositalari asosida yoshlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini tashkil etish, yoshlar

ma’naviyatini yuksaltirish uchun turli tarbiya tadbirlarini tashkil etish, televideniye va matbuotda yoshlar hayotiga oid eshittirishlar va kinolavhalar tashkil etish.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlarni turli kasb-hunar egallashlari uchun sharoit yaratish va ularning bandligini ta’minlash maqsadida oila, mahalla va ta’lim muassasalarini jalb qilish zarurligini ta’kidlamoqda. Yuqoridagi fikrlar asosida ota-onalar,mahalla va ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos yoshlarni tarbiyalashdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zining o‘tmishi, tarixi va xalqimizning boy ma’naviy merosi urf-odatlari va qadriyatlarini davom ettirish asosida rivojlanmoqda. Yoshlarni mustaqil fikrlashi ustoz-shogird munosabatlarida fikrlash doirasida o‘tmish haqida boy madaniy merosimiz haqida to‘liqroq suhbatlar tashkil etsa, ko‘proq notiqlik san’atini rivojlanishiga omil bo‘ladi [5, 24].

Yoshlarimiz vatanparvarligini oiladagi tarbiya va mahalladagi ma’naviy muhitdan boshlanadi. O‘z oila va mahallasini qadrlamagan inson vatanini ham qadrlashi qiyin kechadi. Oila davrasida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning ikki jihati mavjud. Birinchidan, ota-ona tomonidan bolada shakllanayotgan ma’naviy tushunchalar va yuzga kelayotgan muammolarni kattalar tomonidan hal etish uslubi sifatida namoyon bo‘ladi. Oila va mahalla muhim shaxs g‘oyaviy barqarorligini shakllantiruvchi omil sifatida yetakchi o‘rinda turadi [3, 10]. Ular yetakchi murakkab tushuncha bo‘lib unga xos muhim kafolat er-xotinning xarakter xususiyati balki shu oila va mahallada bevosita ta’sirini o‘tkazuvchi qadriyatlar, yoshi katta avlodlar tomonidan singdirilgan an’analar asosida ham shakllanadi.

Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo‘lmish o‘sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish, ya’ni ularni turli xil yot va zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o‘zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog‘i kerak desak, bevosita ularni o‘z holiga tashlab qo‘ygan va ko‘ziga “yaltirab” ko‘ringan narsani o‘zlashtirishga sharoit yaratgan bo‘lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini o‘g‘rincha bilib olgan va ularning ezgu g‘oyalarini asta-sekinlik bilan yot g‘oyaga aylantirishga sabab bo‘layotgan, faqat sirtidangina jozibador, asli esa puch bo‘lgan g‘oyalar ta’siridan qutulishning birdan-bir yo‘li bu — ma’rifatdir [6, 1050]. Bundan tashqari har bir oila va mahalla jamiyat talablari asosida yashaydi va zamon, davr talablari asosida farzandlar tarbiyalashda ishtirok etadi. Oilaviy tarbiyaning maqsadi komil insonni tarbiyalash bo‘lib, buni amalga oshirish jismoniy, axloqiy tarbiyaviy mehnat va estetik tarbiyani o‘z ichiga oladi. Jismoniy va ruhiy qadriyatlarni yaxshi bilmay turib o‘z maqsadiga erishib bo‘lmaydi. Bu qonuniyatlarning mazmunini tushunmaslik oilaviy tarbiyadan kutilgan maqsaddan yuzga chiqmasligiga sabab bo‘ladi. Shu sababli biz ajdodlarimizdan omon qolgan qadriyatlarimizga tayanib oila muqaddasligini saqlab qolishimiz lozim.

Yoshlarni har tomonlama kamol toptirish uchun barcha mahallalarda oila, maktab va jamoatchilik kengashi tashkil qilingan. Bunday kengashlarning asosiy faoliyat yo‘nalishi yoshlarning o‘z hayotini yo‘lga qo‘yish uchun ularga amaliy ko‘mak berishdir. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiyani takomillashtirib borish asosiy masalalardan biri hisoblanib bu ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan ham ta’kidlanib kelingan.

Jamiyatimiz demokratik qadriyatlari oilada,mahallada va ta’lim muassasalarida o‘z ifodasini topadi. Darhaqiqat bag‘rikenglik, o‘zaro mehr oqibat singari noyob ijodiy faoliyatlar bizning demokratik jamiyatda oilalarda, mahallalarda shakllanadi. Ma’naviyat targ‘ibotchilari oila, mahalla va ta’lim muassasalarining zamonaviy o‘qituvchilarning muqaddas vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. – 104 b.

2. Kenjaboyev A.E. “Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik rahbarning kompetentligi”. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – № 1, jild 4. – 2024. – 261-265-b.

3. Kenjaboyev A.E. Kenjaboyeva D.A. Pedagogik deontologiya va o‘qituvchining kasbiy kompetentligi. Zamonaviy ta’lim. – 2021. – №4. – 10-11-b.

4. Kenjabayeva D.A. (2023). Proverbs and sayings are an inexhaustible wealth in the life. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(12), 184–189. Retrieved from https: //inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/27737.

5. Кенжабоев А.Э., and Ж.А.Кенжабоев. “Приемы, способы и средства активизации мыслительной деятельности на учебных занятиях”, Вопросы педагогики 5 (2017). – 25-27 с.

6. Tukhtasin Khudayberganovich Tashmetov. “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta’lim-tarbiyaning o‘rni”. Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 1, 2021, pp. 1047-1051. doi:10.24411/2181-1385-2021-00136.

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING O‘RNI

Dilrabo Kurbanova,
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Umida Jurayeva,
Buxoro innovatsiyalar universiteti
“Pedagogika nazariyasi va tarixi” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada xalq og‘zaki ijodi tushunchasiga batafsil to‘xtalib, unda xalq og‘zaki ijodiga kiruvchi turli janrlar haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari o‘quvchi yoshlarni axloqiy tarbiyalashda va ularni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruxida o‘stirishda ertaklar, yozma manbalar, latifalar orqali tariximizga bo‘lgan qiziqishni oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Qolaversa xalq og‘zaki ijodi namunalari yoshlarni qadriyatlarga, kitobga bo‘lgan munosabati haqida fikr yuritilgan. Qolaversa, maqolada jahon miqyosidagi shoirlar va adiblar asarlarida xalq og‘zaki ijodi xisoblanmish ertaklar tahlili keltirilib, ular orqali kichik yoshdagi kitobxonlarda axloq-odob tarbiyasini shakllantirish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, epos, donishmandlik, xalq pedagogikasi, axloq.*

Аннотация

В статье подробно обсуждается понятие устного народного творчества, в которой рассказывается о различных жанрах устного народного творчества. Кроме того, обсуждался вопрос об увеличении интереса к нашей истории через сказки, письменные источники и анекдоты, чтобы воспитывать молодых людей в духе преданности национальным ценностям и нравственности. Кроме того, на примерах народного творчества обсуждалось отношение молодежи к ценностям и книгам. Кроме того, в статье представлен анализ сказок, являющихся устным народным творчеством в произведениях поэтов и писателей мирового уровня, с помощью которых можно формировать нравственное воспитание у читателей младшего возраста.

Ключевые слова: *устное народное творчество, сказки, эпос, мудрость, народная педагогика, нравственность.*

Annotation

The article discusses in detail the concept of oral folk art, which tells about various genres of oral folk art. In addition, the issue of increasing interest in our history through fairy tales, written sources and anecdotes was discussed in order to educate young people in the spirit of devotion to national values and morality. In addition, the attitude of young people to values and books was discussed on the examples of folk art. In addition, the article presents an analysis of fairy tales, which are oral folk art in the works of world-class poets and writers, with the help of which it is possible to form moral education among younger readers.

Keywords: *oral folk art, fairy tales, epic, wisdom, folk pedagogy, morality.*

Inson dunyoda paydo bo‘lganidan buyon o‘zaro hamkorlikda yashashga bir biri bilan munosabatda bo‘lishga intilgan. Chunki, o‘zaro hamkorlik uni turli tabiiy ofatlardan saqlagan. Dunyodagi eng qadimiy kitoblardan biri “Avesto” hisoblanadi [3, 39]. Ushbu qadimgi yozma yodgorliklarning yaratilishida ham bizning ajdodlarimiz ishtirok etganlar. Bu kitob ajdodlarimizning olamning paydo bo‘lishi yorug‘lik va zulmatning o‘zaro kurashlari bilan bog‘liq tasavvurlari haqida hikoya qiladi. Shubhasiz xalqimiz og‘zaki ijodidan keng o‘rin olgan Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Muqbil toshotar, Ozoda chehra kabi xalq vakillari ham asar qahramonlariga aylanar ekanlar. Qadim qadim zamonlardagi badiiy ijod ta’siri o‘z hukmini o‘tkazgan.

O‘zbekiston mustaqil qo‘lga kiritgandan keyin ma’naviy va axloqiy tarbiya bir qator omillar ta’sirida olib borildi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi. O‘zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko‘tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining tarkibini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarining yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi. Yosh avlodni tarbiyalash, ularni Vatan koriga yaraydigan, yanada yuksaltiradigan intellektual jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, albatta, pedagog-xodimlar, o‘qituvchi-murabbiylarni vazifasidadir. Shu bilan birgalikda ota-ona bola tarbiyasiga mas’ul birinchi insonlardir. Ular farzandiga halol yedirishi, me’yorida kiydirishi, go‘zalliklarni ko‘rsatib, ezgu narsalarni eshittirishi darkor. Bu borada Imom G‘azzoliy fikrlari diqqatga sazovor: bolaga bugun berilgan ne’mat hech vaqt o‘tmay sayqallanib, tugal holda egasiga qaytadi [4, 98]. Demak, yoshlar — merosxo‘r hayotiy vazifalarni egallovchi o‘rinbosarlardir. Shu o‘rinda aytish mumkinki, ustoz — bu ota-onadan keyingi o‘rinda turadigan tarbiyaga mas’ul shaxs hisoblanadi. Hozirgi axborotlashgan texnologiyalarga boy zamonda farzandlarimiz,

o‘quvchi-shogirdlarimiz tarbiyasida juda ham ehtiyotkor bo‘lmog‘imiz shart va zarur.

Xalq pedagogikasi ko‘p qirrali tarixiy boy madaniyatimiz va ma’naviyatimizning bir qismi bo‘lsa, olis o‘tmishda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib bizgacha yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning ana shu boy madaniyat merosimizning durdonalaridir. Zero, xar bir avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda, axloqiy odobni singdirishda o‘zlikni shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu o‘rinda boy tarixiy merosga murojaat qilgan holda, tasavvurlarni kengaytirish vazifasi yotadi. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek “o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” [5, 568].

Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarni namuna qilib ko‘rsatish orqali o‘quvchilarni nafaqat ma’naviy-axloqiy tarbiyalaymiz, balki ilm-ma’rifatga mehr uyg‘otib, o‘z vatanidan, uning buyuk insonlaridan g‘ururlanish, ularga munosib voris bo‘lish hissini ham shakllantirib boramiz. Bunda ijtimoiy burch bilan belgilanadigan xatti-harakatning eng yuqori asoslari o‘z aksini topadi. Fuqarolik burchi inson hayotiy faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilishda, mehnatda, ijtimoiy faoliyatda o‘zining fuqarolik majburiyatlarini sidqidildan bajarishga rag‘batlantiradi [4, 98].

Shoir Ahmad Shavqiy aytganidek: “Millatlar axloqi bilan millat bo‘ladi, axloqi ketsa, millat ham ketadi” [6, 256]. Bilamizki xalqimizning uzoq yillik va noyob tarixi mavjud. Ushbu davrda qanchadan-qancha jahonga ma’lum va mashhur mutafakkirlar, olimlar, ulamolar, din peshvolari yetishib chiqqan.

Xalq og‘zaki ijodining o‘lmas namunalari xalqimizning ma’lum davrdagi turmush tarzi, urf odatlari, mehnat faoliyati xalqimiz qalbidagi orzu umidlari g‘am tashvishlari, armon quvonchlarini ifodalaydi, shu bilan birga har bir davrga hamnafas bo‘lib yashaydi. Xalq tomonidan yaratilib og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib kelgan badiiy asarlar xalq og‘zaki ijodi yoki folklor (ing. “folk” — xalq, “lore” — donolik) ya’ni, “xalq donoligi, donishmandligi” deb yuritiladi. Xalq og‘zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo‘shiqlar, maqol, matal, afsona, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqllar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va boshqalar.

Xalq og‘zaki ijodining yuqorida sanab o‘tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalash yo‘llari tarbiya usullari mehr muhabbat, saxiylik, oliy janoblik, qadr-vafo, sadoqat yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasb hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalik, insonparvarlik kabi xislatlar ulug‘lanadi, yomonlik, bevafolik, baxillik, xasislik, qo‘rqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushomadgo‘ylik, andishasizlik, ochko‘zlik, mas’uliyatsizlik, farosatsizlik, kabi illatlar qoralanadi. Shu o‘rinda og‘zaki ijod namunalari odob axloq ta’lim-tarbiya borasida o‘ta hayotiy xalqchil va ibratliligini shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini ta’kidlashimiz joizdir [7, 31].

Bugungi kunda O‘zbekistonda zavq bilan o‘qilayotgan, maroq bilan aytilayotgan doston, ertak, qo‘shiq, maqol, topishmoq, afsona va rivoyat, askiya va latifa, loflar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining janrlari hisoblanadi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma’naviy boyliklarimiz butun o‘zbek xalqi madaniy merosi qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Ilmda xalq og‘zaki ijodi folklor atamasi bilan yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Vilyam Toms taklif qilgan edi. Folklor deganda ma’lum millatga mansub, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan san’at namunalari: so‘zanalar, xalq kuylari, raqslar va boshqalar tushuniladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini ijro etishda ham an’anaviylik mavjuddir, avvalo aytish kerakki, O‘zbekistonda xalq dostonlarini ijro etish an’anasi 3 ko‘rinishga egadir. Ularni Samarqand, Xorazm, Farg‘ona dostonchilik an’analari deb ataydilar. Samarqand dostonchiligida baxshi dostonni yakka holda do‘mbira yorlig‘ida ichki ovozda aytadi. Xorazmda es doston tor, doira, garmon jo‘rligida aytiladi. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining salmoqli qismini tashkil etuvchi dostonlar ijrosi uzoq muddat davomida o‘ziga xos an’anada shakllangan.

Adabiyotshunoslikda shu jumladan folklorshunoslikda badiiy asarlarning janrlari masalasi hamisha muhim ahamiyatga ega. Nazariy ilmiy muammo sifatida baholanib kelgan. Xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlar, maqollar, askiya, lof va boshqa janrlar bir biridan qanday jihatlar bilan farqlanadi. Badiiy asarlarning janr jihatdan qaysi atamaga aloqadorligi faqat nazariy emas balki, amaliy ahamiyatga ham egadir. Qadim zamonlardanoq taniqli adabiyotshunos olimlar so‘z san’atining asosan uch jinsga bo‘linishini ta’kidlaganlar. Xususan, bu uch tur epos, lirika va dramadan iboratdir. Xalq og‘zaki ijodiga oid badiiy asarlarning ham ana shu tamoyil asosida uch turga bo‘lish mumkin bo‘ladi. Bu jins va turlarni bosh xususiyatini quyidagicha farqlash mumkin:

1. Epos — yunoncha “epos” — rivoyat, hikoya, qo‘shiq so‘zidan iborat bo‘lib so‘z san’atida biron hikoya voqeani bayon qilish yoki hayotiy lavhani ifodalash ma’nosini anglatadi.

2. Lirika — inson hayotida tabiatda ro‘y bergan hodisa, lavhadan ta’sirlanish natijasida unga nisbatan paydo bo‘lgan munosabatni ichki kechinmalar, his tuyg‘u vositasida ifodalashdir.

3. Drama. Bu so‘z harakat ma’nosini bildiradi. Dramatik asarlar sahna bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu asarlarning ijrochilari faqat gaplar bilangina emas nutqlaridagi intonatsiyalar, yuz, bosh, qo‘l harakatlari bilan obrazga kiradilar. Oqibatda tomoshabin tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko‘rinishi vujudga keladi. Xalqimiz og‘zaki ijodidagi xalq dramasi va askiya janrlarini ana shunday asarlar namunasi sifatida baholash mumkin [9].

ISSN 2181-8274

Xalq og‘zaki ijodi bevosita bu san’at namunalarini yaratgan xalqning ijtimoiy madaniy iqtisodiy hayoti bilan uzviy aloqadir. Xalqimiz tarixidagi muhim voqelar ayrim janrlarning rivojlanishiga, ayrimlarining yo‘qolib borishiga sabab bo‘lgan. Taxmin qilib aytish mumkinki, Chingizxon ixtilosi davrida xalqni ozodlikka da’vat etuvchi qo‘shiqlar, Amir Temur zamonida bunyodkorlik bilan bog‘liq rivoyatlar yaratilgan bo‘lishi mumkin. Binobarin o‘zbek xalq og‘zaki ijodi o‘rganish jarayonida mazkur asarlarning g‘oyasi, tarbiyaviy ahamiyati, estetik jihatlar bilan bir qatorda janr xususiyatlariga ham e’tibor berish maqsadga muvofiqdir [2, 32].

Har bir xalqning donishmandligi va qalb nazokatini o‘zida mujassamlashtirgan shoiri bo‘ladi. Rossiyada inson ma’naviy olaming musavviri shubhasiz, Pushkindir. U nurga intilib doim ozodlik uchun kurashuvchi shoir optimist bo‘lib yetishdi. A.S.Pushkin bolalikdan xalq og‘zaki ijodini berilib o‘rgandi. Buloqdek qaynab toshgan xalq og‘zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo‘shdi. U ayniqsa ertak dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

A.S.Pushkin o‘zining “Pop va uning xizmatkori Balda” haqida ertak, “Baliqchi ham baliq” haqida ertak [10], “O‘lik malika va yetti bahodir” haqida ertak, “Oltin xo‘roz” haqida ertak — dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi. A.S.Pushkin oddiy mehnatkash xalqni yaxshi ko‘radi, uni iloji boricha himoya qilishga, unga yon bosishga harakat qilardi. “Pop va uning xizmatkori Balda” haqida ertak obrazini shoir qattiq ishlaydi. Uning tekinxo‘r, och ko‘z, o‘zgalar hisobiga kun kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi.

Daniyaning jahonga mashhur ertakchisi Xans Anderson 1805-yilda Odens shahrida dunyoga keldi. Bolaning otasi kovushdosh, onasi esa kir yuvuvchi bo‘lib ishlar edi. Shuning uchun ham Xans kambag‘allar maktabiga o‘qishga kiradi.

Anderson juda ko‘p mamlakatlarni kezib chiqadi Fransiya, Shvetsariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarda bo‘ladi, sayohat qiladi. “Daniyalik Xolger”, “Qor malikasi” vatanparvar ruhi bilan yo‘g‘rilgan “Daniya mening vatanim” ozodlik g‘oyasi mujassamlashgan “Soqchi”, “Shilon qulfi” yaratgan eng sara asarlari sirasiga kiradi.

“Bolalar gurungi” asarida hech kim taqdirini, kichkintoy o‘sib ulg‘aygan kim bo‘lib yetishishini bilishi mumkin emasligini bu ko‘proq o‘sha bolaning o‘ziga intilishiga o‘qishiga kattalarning ibratomuz pand nasihatlariga qanchalik quloq solishiga bog‘liq ekanligini o‘qiymiz.

Bolalar odatda hayvonlar parrandalar, hasharotlar haqidagi ertaklarni sevib o‘qiydilar. Anderson yaratgan ertaklarning juda ko‘pchiligi ana shu mavzuni qamrab olish ham xarakterlidir. Uning “Dyumchaxon”, “Irkit o‘rdakcha”, “Botqoqlik shohining qizi”, “Baqa” singari ertaklari o‘zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib kelgan. Daniya ertakchisi Xans Andersonning ijodi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarga zavq shavq bag‘ishlab kelmoqda [1, 55].

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsligi ham “O‘qish va nutq o‘stirish” dasturi davlat ta’limi standarti talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g‘oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. Xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan og‘zaki so‘z san’ati bo‘lib, o‘zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi. Xalq og‘zaki ijodi materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlari, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quv dasturlari o‘qish darslari oldiga o‘quvchilarni yaxshi o‘qish sifatlariga ega etishdek murakkab vazifani qo‘yadi. Bunday vazifalarni to‘laroq amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi materiallari katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar tabiatan maqol, topishmoq va ertaklarni sevadilar, ularni zo‘r qiziqish bilan o‘qib o‘rganadilar. Ertaklar xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertak atamasi Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yozilgan “Devon-u lug‘ati turk” asarida “yetuk” shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Hozirgi folkloristik atama sifatida ertak so‘zi qabul etilgan bo‘lsada, Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona obyektlarida matal deb yuritiladi. Ertaklarning badiiy shakli va poetikasi o‘ziga xos bo‘ladi. Ertaklarning zamon va makon e’tibori bilan yuzaga kelgan o‘rni ham turlicha. Ularning tili va uslubi farq qiladi. Xullas, har bir ertakning xususiyat tarkibi, uning g‘oyaviy mazmuni, badiiy vositalari o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatib turadi. “Zumrad va Qimmat” yoki “Oltin tarvuz” kabilar asosan sehrli ertaklardir. Biroq asosiy qahramonlar qiyofasi, ularning xatti-harakatlari hajviy ertaklarning bosh qahramonlarini eslatadi. Lekin bu ertaklarda hajviy ertaklarda bo‘lganidek aql idrok, tadbirkorlik uchun emas, aksincha, fantastik uydirmalar, asar yechimida hal qiluvchi vazifalarni o‘taydi [8, 96].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, xalq og‘zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati milliy urf-odatlar, udumlar, an’analar, xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlari bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni xalq pedagogikasida oila tarbiyasi yoshlarni tarbiyalashning metod va vositalari milliy musiqa qo‘shiqchilik raqs san’ati va milliy teatrlarning axloqiy tarbiyadagi o‘rni, o‘zbek xalqining muomala madaniyati axloqiy me’yorlari masalalari o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 216 b.
2. O.Madayev, T. Sobitova. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq nashriyoti. 2010. – 208 b.
3. N.Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. To‘raboyeva B, Sobirov N. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni tarbiyalashda ajdodlar ibrat namunasi**.** TDPU ilmiy axborotlari /pedagogika/ 2019/2(19). – 98-103-b.
5. Курбонов Э.Э. Ўзбекнинг туркман уруғи (Зомин туркманлари мисолида). Ўтмишга назар, 2020. Махсус сон, 4-қисм. – 567-565-б.
6. D.Malikova. XXI asr — intellektual yoshlar asri. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. April, 2022. – 253-258-b.
7. M.J.Mutalipova. Xalq og‘zaki ijodi va dostonlar xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida // “Xalq pedagogikasi”. – T., – 2015. – 31-47-b.
8. N.Shamsiyeva, N.Ravshanova. Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganishning nazariy-metodik asoslari. “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar”. – T., 2020. 20-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konfrensiya materiallar to‘plami. – 96-98 b.
9. Эпос https://ru.wikipedia.org/wiki/Эпос.
10. A.S.Pushkin. “Baliqchi va baliq” haqidagi ertak. https://nashol.me/20220408142997/baliqchi-va-baliq-haqida-ertak-pushkin-a-2017.html.

KORXONALARNI INQIROZGA QARSHI BOSHQARISHDA STRATEGIYANING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Muhabbat Istamova,
Iqtisodiyot va servis instituti
“Servis” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya

Korxonalar boshqaruvida, umuman olganda menejment sohasida inqirozlarning oldini olish yoki ularning xavfi tug‘ilganda tegishli choralarni ko‘rish mazkur korxona yoki sanoat turini saqlab qolish uchun juda ham ahamiyatli hisoblanadi. Biznesning har qaysi turi o‘z ichiga albatta ma’lum ma’noda qiyinchiliklar, prognozlar va risklarni oladi. Aynan shunaqa keskin holatlarda esa korxona yoki kompaniyaning rejali strategiyalari tashkilotlarni qutqarib qolishlari mumkin. Ushbu maqolada ham ayni shu jihatlarni yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: *korxona, sanoat, boshqaruv sohalari, risklarni oldini olish, inqirozga qarshi chora-tadbirlar, mavjud resurslar va h.k.*

Аннотация

В управлении предприятиями, вообще в сфере менеджмента, очень важно предотвращать кризисы или принимать соответствующие меры при их риске, чтобы спасти данный тип предприятия или отрасли. Любой вид бизнеса обязательно включает в себя определенные сложности, прогнозы и риски. Именно в таких экстремальных ситуациях запланированные стратегии предприятия или компании могут спасти организации. В этой статье также была предпринята попытка охватить те же аспекты.

Ключевые слова: *предприятие, отрасль, сферы управления, предотвращение рисков, антикризисные меры, имеющиеся ресурсы и др.*

Annotation

In the management of enterprises, in general, in the field of management, it is very important to prevent crises or to take appropriate measures when there is a risk of them, in order to save this type of enterprise or industry. Any type of business necessarily includes certain difficulties, forecasts and risks. It is in such extreme situations that the planned strategies of the enterprise or the company can save the organizations. This article also tried to cover the same aspects.

Keywords: *enterprise, industry, areas of management, risk prevention, anti-crisis measures, available resources, etc.*

Inqiroz tashkilotning yuqori darajadagi maqsadlarini amalga oshirishga, moliyaviy resurslarga xavf tug‘diradi, shu bilan birga ijtimoiy manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarga putur etkazadi va bu munosabatlarning barchasini tuzatish uchun rejalashtirilgan harakatlarni talab qiladi. Iqtisodiy resurslarning jiddiy muammolarini boshdan kechirish cheklangan va bugungi dunyoda ulush, isrofgarchilik va yo‘qotishlarga nisbatan juda past bardoshlik biznes madaniyati va tushunchasi paydo bo‘ldi. Bunday sharoitda iqtisodiy o‘yinchilarning yangi davridan foydalanish yuqori imkoniyatlarga va resurslarni rejalashtirishga ega bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, inqiroz davrlarini yo‘qotgan aktivlarni oldindan ko‘rish va boshqarish ehtimoli, bu masala boshqaruvining tabiatidir. Agar zarur choralar ko‘rilmasa va kompaniyalar yetarlicha tez harakat qilmasa, kutilmaganda paydo bo‘ladigan inqirozlar kompaniyalar va jamiyatlarga va ular yashayotgan barcha tegishli tizimlarga jismoniy va psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yaqinlashib kelayotgan inqirozga tayyor bo‘lish va yetarlicha tez harakat qilish faqat kuchli tashkiliy yaxlitlikni saqlash orqali mumkin bo‘ladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi, inqirozni boshqarish strategiyasi va inqirozdan keyin qayta qurish masalalari haqida ma’lumot berishdir.

Iqtisodiy va tarmoq inqirozi kichik korxonalarga juda ko‘p salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik korxonalar nuqtayi nazaridan, inqirozga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri bu strategik rejalashtirish va voqealarni strategik tahlil qilishdir. Kichik korxonalarning tuzilishi tufayli; Inqiroz sharoitida qaror qabul qilish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi kerak bo‘lgan kichik korxonalarning egalari yoki menejerlari strategik rejalashtirish istiqboliga ega bo‘lishi va minimal yo‘qotish bilan yopish uchun atrof-muhitni tahlil qila olishi kerak. Inqiroz - bu xavf-xatar vaqti, lekin ayni paytda ulardan imkoniyatlar sifatida foydalanish mumkin. Tashkilotlar inqirozga tayyor bo‘lsalar va o‘z strategiyalarini imkon qadar tezroq qo‘llasalar, undan foyda olishlari mumkin. Tashkilotdagi muammolar va o‘zgarishlar va tashkilot atrofidagi keskin o‘zgarishlar inqirozga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [1]. Tashkilot ichidagi hodisalar va atrof-muhit omillari bir-biriga ta’sir qiladi. Tashkilotdagi inqiroz boshqaruvning samarasizligi, motivatsiyaning pastligi va xodimlarning muammolari kabi muammolarni bosqichma-bosqich boshqa to‘satdan inqirozga olib keladi. Tashkilotni strategik boshqarish - bu tashkilotni to‘liq boshqarish. Inqiroz - bu barcha tashkilotga ta’sir qiladigan o‘zgarishlar. Shuning uchun inqirozni boshqarish strategik menejment bilan birlashtirilishi kerak. Inqirozdan oldin, davomida va undan keyin yuzaga kelgan voqealar strategik yechimlar bilan hal qilinishi kerak. Inqiroz tushunchasi turli fanlar tomonidan aniq ta’riflanganligi sababli inqiroz haqida yaxlit ta’rif berish qiyin. Inqirozlar o‘zaro ta’sirda bo‘lgan insoniy, tashkiliy va texnik nosozliklar kabi elementlar to‘plami tomonidan qo‘zg‘atiladi. Lorens Barton inqirozni muhim va kutilmagan hodisalar sifatida belgilaydi, ularning potensiali salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Inqiroz umumiy ma’noda ta’riflanganda, agar uni tuzatishga urinish bo‘lmasa, bu shaxs yoki guruhni salbiy holatga olib keladigan hodisadir.

Inqiroz ko‘plab omillar natijasida paydo bo‘lishi mumkin. Inqirozga olib keladigan hodisalarni yettita guruhda to‘plash mumkin:

1. Iqtisodiy: ish muammolari, fond bozorlaridagi pasayish, iqtisodiy inqiroz, savdo siyosatidagi o‘zgarishlar, rentabellikning tez pasayishi.

2. Axborot: ma’lumotlarni yo‘qotish, ma’lumotlarni yo‘q qilish, yozuvlarni yo‘qotish va h.k.

3. Jismoniy: muhim zavod va zavodlarning yo‘qolishi, yo‘qotishlar va uzoq muddatli qulash, mahsulotning ishdan chiqishi, zavoddagi baxtsiz hodisalar, uzoq muddatli sifat muammolari.

4. Inson resurslari: muhim xodimlarning o‘limi, biznesdagi vandalizm, korrupsiya, iste’folar.

5. Obro‘: salbiy mish-mishlar, obro‘ni yo‘qotish, firma logotipi va veb-sayt bilan bog‘liq qalbakilashtirish va h.k

6. Psixopatik harakatlar: mahsulotni qalbakilashtirish, terrorizm, jinoiy hodisalar, odam o‘g‘irlash va boshqalar.

7. Tabiiy ofatlar: yong‘in, toshqin, kuchli bo‘ron, zilzilalar [2, 23].

Korxonalardagi inqirozlarni tashkiliy tuzilma, iqtisodiyot yoki texnologiyadan kelib chiqadigan va inson hayotiga, tabiiy va ijtimoiy hayotga zarar etkazadigan favqulodda holatlar sifatida baholash mumkin. Inqirozlar — bu tashkilot va jamiyatlar hayotida duch keladigan tartibsiz va murakkab holatlar bo‘lib, ular boshqaruv jarayonlarida funksional buzilishlarga olib keladi va asosan tashkiliy tartibni silkitadi. Inqiroz ehtimolini to‘liq oldini olishning hech qanday usuli yo‘q. Tabiiy ofat ko‘rib chiqilayotganda, uni oldindan aytish va uning oqibatlarini oldindan aytish hech bo‘lmaganda bugungi kunda imkonsizdir. Yustus inqirozi ta’siri va ko‘lamiga qarab qisqa vaqt ichida hal qilinishi mumkin, ularning hal qilinishi uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Korxonaning moddiy resurslari (bino, mashinalar, asbob-uskunalar, asbob-uskunalar, xom ashyo va boshqalar) inqiroz davrida odatdagi davrlarga nisbatan barqarorlik nuqtayi nazaridan ancha ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak [3, 34]. Shu maqsadda tadbirkorlik subyekti o‘zining manfaatdor resurslaridan iqtisodiy jihatdan foydalanishi kerak, shunda u inqiroz tufayli yuzaga kelgan matbuotni yumshata oladi. Moddiy resurslarni yo‘qotishning oldini olish uchun tejashning jiddiy choralarini ko‘rish kerak; shu bilan birga, shartlarga qarab, mavjud ajratiladigan elementlarning bir qismini naqd pulga aylantirishni ta’minlash kerak. Muvaffaqiyatning hal qiluvchi omillari orasida korxona moddiy resurslarining tarkibiy qismlari o‘rin egallaydi. Agar korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy qobiliyat moddiy resurslardan biri bo‘lsa, inqiroz sharoitida ushbu moddiy resurslarni tejash masalasiga hech qachon aylanmaslik va korxonaga zarar yetkazmaslik uchun zarur choralar ko‘rilishi kerak [6, 15].

Inqiroz davrida moliyaviy nuqtayi nazardan oldingi strategiya barqarorlikni ta’minlaydigan resurslarga ega bo‘lish va qisqa vaqt ichida naqd pul yaratish salohiyatini kuchaytirishdir. Strategik nuqtayi nazardan naqd pul pozitsiyasini saqlab qolish va likvidlik balansini ta’minlash asosiy afzallik sifatida belgilanishi kerak. Korxona moliyaviy nuqtayi nazardan amal qilishi kerak bo‘lgan yana bir strategiya qisqa muddatli uzoq muddatli balansni saqlash va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni uzoq muddatli majburiyatlarga o‘tkazish yo‘lidan borishdir. Inqirozni yengish jarayonida strategik harakatlarning asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektining erishish salohiyatini ta’minlashdan iborat [4, 47]. Shu nuqtayi nazardan, mahsulot bozori portfelini optimallashtirish, tashkiliy tuzilmani moslashtirish, qo‘llab-quvvatlash tizimini va xodimlarning salohiyatini yaratish zarurati tug‘iladi. Inqirozni yengib o‘tish inqiroz strategiyasini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash orqali mumkin, Inqirozni yengib chiqqandan so‘ng, korxona uchun yangi davr boshlanadi. Inqirozdan keyingi bosqichda xo‘jalik yurituvchi subyektlar inqirozdan oldingi davrga qaraganda sezilarli darajada yoki undan ko‘p, lekin mutlaqo ma’lum darajada farq qildi. Inqiroz — bu xodimlar va menejer uchun qimmat, ammo o‘qitish tajribasi.

Strategiya ilg‘or xorijiy tajribani, shu jumladan, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo‘yicha tamoyillarini hisobga olgan holda, davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarini boshqarish va isloh qilishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Zamonaviy boshqarishning sifati korxonalar samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababdan korxonalarga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog‘liq bo‘ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo‘lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo‘lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o‘rin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko‘pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o‘zgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o‘z yechimini topmaganligini ko‘rsatadi, bunday hol, birinchi navbatda, korxona rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq [5, 56].

Korxonalardagi strategik boshqaruv tizimini ko‘rib chiqishimiz uchun avvalambor biz strategik reja haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak. Strategik reja, bu tashkilotning maqsadli xulq-atvori konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, uning strategik majmuasini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Strategik reja murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lib, korxona faoliyatining ko‘p maqsadli xususiyatini aks ettiradi va reja va dasturlar tizimini shakllantirishni taqozo etadi. O‘z tarkibida strategik reja rasmiylashtirilgan rejalashtirish hujjati bo‘lib, u alohida rejalashtirish vazifalarida ko‘rsatilgan korxonaning strategik majmuasini ifodalaydi. Strategik rejaning zarur tarkibiy qismlari yordamchi rejalar, dasturlar, smetalar, byudjetlardir. Strategik rejalar va dasturlarni amalga oshirish vositalari joriy va operatsion rejalardir. O‘rta muddatli rejalashtirish tizimi strategik maqsadlarga erishish ketma-ketligini (strategik rejalarni amalga oshirish bosqichlari), bozor konyunkturasining rivojlanish istiqbollarini, iste’mol talabining prognoz qilinayotgan dinamikasini va mavjud resurs salohiyatini hisobga olgan holda belgilashni ta’minlaydi. Korxonaning tizimli rivojlanishi markazlashtirishdan nomarkazlashtirishgacha bo‘lgan bosqichlarni birin-ketinlik bilan bosib o‘tish orqali amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, korxonaning har bir elementi rejalashtirilganlik, tashkillashtirilganlik xususiyatiga ega bo‘lib boradi. Mohiyatiga ko‘ra, korxona tomonidan boshqarishning nomarkazlashtirilgan sxemasiga o‘tish obyektga, uni boshqa holatga o‘tkazish uchun maqsadga yo‘naltirilgan tashqi ta’sir sifatidagi boshqaruv tizimini ham o‘zgartiradi. Noma’lum bo‘lgan tashqi muhit sharoitida korxona elementlarini mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish darajasigacha rivojlantirish — korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashning zaruratidir. Boshqa tomondan, korxona tashqi muhitdagi yaxlitlik sifatida, maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanish sifatida muayyan belgilarga ega bo‘lishi kerak. Ularning asosiysi — boshqariluvchanlikdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020-yildagi PF-5953-son Farmoni https://lex.uz/docs/-3307879.

2. Ansoff I. Strategies for Diversification. Harvard Business Review, 1957. – 113-124 p.

3. Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (1996) Strategic Learning: The Balanced Scorecard. Strategy & Leadership, 24, 18-24. https://doi.org/10.1108/eb054566

4. Muratov R.S., Djalolova I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. – T., 2014. – 350 b.

5. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T., 2013. – 240 b.

6. Xonkeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2018. – 17 b.

YOSH FUTBOLCHILARNING TEZKOR-KUCH JISMONIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Baxtiyor Sultonov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti;
Aziza Mamanazarova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh futbolchilarda tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirishning dolzarb muammolari, mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish zarurati, bolalar va o‘smirlar sport maktabidagi mashg‘ulot yuklamalari samaradorligini oshirish hamda tezkor-kuchlilik qobiliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bayon qilingan. Mamlakatimizda ham futbolchilarining mahoratini oshirish ko‘p jihatdan bolalar va o‘smirlar futbolini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir va mutaxassislarning bir-birini to‘ldiruvchi tajribalaridagi ilmiy tadqiqot ma’lumotlariga asoslanadigan uzoq vaqtli va ko‘p tomonlama jarayondir. Bundan tashqari, boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik chaqqonlik bilan mustahkam bog‘liq ravishda tarbiyalanadi

Kalit so‘zlar: *sport, mashq, jismoniy tarbiya, futbol, jismoniy tayyorgarlik, o‘quv mashg‘ulot, sifatlar, yuklama, dastur, musobaqa, testlar, pedagogik nazorat.*

Аннотация

В статье описаны актуальные проблемы развития быстросиловых качеств у юных футболистов, необходимость совершенствования тренировочного процесса, повышения эффективности тренировочных нагрузок в детско-юношеских спортивных школах, даны рекомендации по совершенствованию быстросиловых качеств. Повышение квалификации игроков в нашей стране тесно связано с развитием детского и юношеского футбола и представляет собой длительный и многогранный процесс, основанный на научно-исследовательских данных и взаимодополняющем опыте специалистов. Кроме того, на этапах начальной спортивной специализации быстрота прочно связана с ловкостью.

Ключевые слова: *спорт, физические упражнения, физическое воспитание, футбол, физическая подготовка, тренировка, качества, нагрузка, программа, соревнования, зачеты, педагогический контроль.*

Annotation

The article describes the current problems of developing quick-strength qualities in young football players, the need to improve the training process, increasing the effectiveness of training loads in children’s and teenagers’ sports schools, and recommendations for improving quick-strength skills. Improving the skills of players in our country is closely related to the development of children’s and youth football and is a long-term and multifaceted process based on the scientific and research data of experts’ complementary experiences. In addition, in the stages of initial sports specialization, quickness is strongly associated with agility.

Keywords: *sport, exercise, physical education, football, physical training, training, qualities, loading, program, competition, tests, pedagogical control.*

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar mazmunida jismoniy tarbiya va sport ta’limi va tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda ta’lim tizmini isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020-yil 23-sentyabr) Qonun, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida’’gi (2015-yil 4-sentyabr) Qonun, 2020-yil 3-noyabrdagi PQ–4877-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 03.11.2022-yildagi PQ–414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining sohaga tegishli qarorlari muhim ahamiyatga ega [1, 85-86].

Yurtimizda futbol o‘yini hozirgi kunda “millionlar o‘yini” deb nomlanib, birinchi raqamli sport turiga aylangan. U dunyo xalqlari o‘rtasida do‘stlikni va hamkorlikni rivojlantirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. U ko‘p sonli bolalarning sevimli mashg‘uloti bo‘lib, hamma joyda xoh Afrika qit’asi bo‘lsin, xoh Amerika qit’asi bo‘lsin, xoh Yevropa yoki Osiyo qit’asi bo‘lsin, futbol bilan shug‘ullanuvchilar millionlab topiladi.[2, 58] Shu bilan birga, futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng hammabop va eng ommaviy vositasidir.

Mamlakatimizda ham futbolchilarining mahoratini oshirish ko‘p jihatdan bolalar va o‘smirlar futbolini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yuqori malakali jamoalarda o‘yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligidagi nuqsonlarini tuzatish ancha qiyin. Shuning uchun

bolalar va o‘smirlarni tayyorlash jarayoni qanchalik samarali bo‘lsa, jahon miqyosidagi yuksak natijalar uchun kurashlar ham shunchalik ko‘p muvaffaqiyat olib kelishi amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Shuning uchun yosh futbolchilar tayyorlashga yanada e’tiborni kuchaytirish lozim.

Yosh futbolchilarni tayyorlash — mutaxassislarning bir-birini to‘ldiruvchi tajribalaridagi ilmiy tadqiqot ma’lumotlariga asoslanadigan uzoq vaqtli va ko‘p tomonlama jarayondir [2, 59]. Yosh futbolchilarni tayyorlashning dolzarb vazifalarini ishlab chiqish bolalar va o‘smirlar sporti sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq. Yosh sportchilarning tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishning asoschilari — V.P.Filin, M.Ya.Nabatnikova, Y.D.Jeleznyak, N.J.Bulgakova, A.M.Shlemin, V.V.Balsevich va boshqalar hisoblanadi.

Yigirmanchi asrning 50-60 yillarida yosh futbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi xususiyatlarini psixofiziologik tushuntirish bilan bog‘liq ilk dissertatsiya ishlari va o‘quv mashg‘ulot jarayonini takomillashtirishning xususiy muammolarini o‘rganishni aks ettiradigan maqolalar yuzaga keldi.[3, 32-33]

O‘tgan asrning 50-60-yillarida yosh futbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi xususiyatlarini psixofiziologik tushuntirish bilan bog‘liq ilk dissertatsiya ishlari va o‘quv mashg‘ulot jarayonini takomillashtirishning xususiy muammolarini o‘rganishni aks ettiradigan maqolalar yuzaga keldi. 70-80-yillar ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, yosh futbolchilar tayyorgarligi tizimini tushuntirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, futbolchilar tayyorgarligini jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasiga bog‘liqligini aniqlashtirish bilan bog‘liq muhim savollarga javob topish, texnik usullarni egallashni mashq qildiruvchi va nazorat qiluvchi mashqlarni tanlash, taktik vazifani hal qilishning asosiy ruhiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini tadqiq etish yillari hisoblanadi [3, 34]. Yosh futbolchilarni tayyorlash amaliyotida epchillik, egiluvchanlik, chaqqonlik, tezkor-kuchlilik singari sifatlarni rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi.

Futbol o‘yini birinchi navbatda tezkor-kuchlilik sifatlarini talab qiladi, bu shu bilan bog‘liqki, o‘yinchilar to‘p va to‘psiz bajariladigan harakatlarda (zarbalar, startlar, sakrashlar, turtishlar) o‘zlarining kuchlilik qobiliyatlarini juda qisqa vaqt oralig‘ida namoyon qilishlari kerak. Kuchlilik sifatlarini tarbiyalashning asosiy metodlari – qaytarish va seriyali-intervalli metodlardir. Ko‘p mualliflarning fikriga ko‘ra, to‘ldirilib boriladigan amaliyot va sport o‘yinlaridagi bir qator ilmiy tadqiqotlar shuni qat’iy ko‘rsatmoqdaki, sport holatini takomillashtirish jarayonini boshqarishni optimallashtirish uchun sportchilarning musobaqa faoliyatini nazorat qilishning obyektiv pedagogik sistemasi zarurdir.

Sportchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash jarayonida tezkor-kuchlilik sifatlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tezkor-kuchlilik sifatlari nafaqat jismoniy kuch va harakatlarni muvofiqlashtirish hisobiga, balki doimiy kattalikdagi massani yengishda muskullarni qisqarish tezligi hisobiga minimal vaqt ichida ko‘p harakatlarni amalga oshirishni namoyon qilish bilan ham xarakterlanadi. Shundan kelib chiqadiki, sportchilarning tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirish birinchi navbatda o‘z og‘irligini yengishda (sakrashlar, yugurishlar) muskullarning qisqarish tezligini takomillashtirishni anglatadi.

Kompleksli tezkor-kuchlilik yuklamalari bir-biridan ajratilgan yuklamalarga qaraganda ancha ko‘ptomonlama va samaraliroq, ular nafaqat kuchni, balki harakat tezligini oshirish uchun ham asos yaratadi. Tezkor-kuchlilik xarakteridagi mashqlarni quyidagi rejimlarda bajarish tavsiya qilinadi:

Mashqlar davomiyligi 10 soniyagacha;

Intensivlik — maksimal;

Qaytarishlar soni — 6-7, birinchi seriyada 5-6 qaytarish;

Dam olish intervali — mashqlardan so‘ng 1-2 min, mashqlar orasida 3-5 min. [3, 35]

Matematika sinf bilan chegaralanib qolmaydi; u bizning kundalik hayotimizning barcha jabhalariga kirib boradi. Haqiqiy dunyo aloqalarini matematika darslariga birlashtirish o‘quvchilarga matematik tushunchalarning atrofdagi dunyoda dolzarbligi va qo‘llanilishini tan olishga yordam beradi. Retseptdagi ingrediyentlarni o‘lchash, xaritadagi masofalarni hisoblash yoki ilmiy tajriba ma’lumotlarini tahlil qilish bo‘ladimi, haqiqiy kontekstlar matematik ko‘nikmalarni qo‘llash uchun mazmunli imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, fanlararo aloqalarni birlashtirish matematikani va uning fan, texnologiya, muhandislik va san’at kabi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini yaxlit tushunishga yordam beradi [5, 176].

Zamonaviy matematik ta’limning Markaziy qismi o‘sish tafakkurini rivojlantirishdir. Aql va qobiliyatlarni kuch va qat’iyat bilan rivojlantirish mumkinligiga ishonish. O‘qituvchilar faqat natijalarga emas, balki o‘rganish jarayonini ta’kidlab, talabalarga qiyinchiliklarni qabul qilish va xatolarni o‘sish uchun imkoniyat sifatida ko‘rish imkoniyatini beradi. O‘sish tafakkurini rag‘batlantirish matematikani o‘rganishga chidamlilik, grit va ijobiy munosabatni rivojlantiradi. O‘qituvchilar konstruktiv mulohazalarni taqdim etish, harakat va taraqqiyotni maqtash va muvaffaqiyatsizliklar va muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishga tayyorlikni modellashtirish orqali o‘sish tafakkurini targ‘ib qilishlari mumkin [6, 176].

Matematika darsining o‘ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o‘quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o‘rganiladi.Matematika boshlang‘ich kursining boshqa o‘ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun xar bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o‘quv malakalar singdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o‘zining “Язык обучения математики” kitobida “Maktab o‘quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo‘linadi”,-deb ta’kidlaydi. Birinchi navbatda ular obyektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni — matematik reallikni aniqlab oladilar. Bunda obyektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini zamonaviy usullardan foydalangan holda tashkil etish matematikani o‘qitish va o‘rganishga transformatsion yondashuvni taklif etadi. Texnologiya ichiga olgan tomonidan, muammo asoslangan ta’lim ta’kidlab, tabaqalashtirilgan ta’lim qabul, tadqiqot asoslangan razvedka targ‘ib, real — jahon ulanishlarni integratsiya, va o‘sish kayfiyatini rivojlantirishga, o‘qituvchilar yosh o‘quvchilar uchun qiziqarli va boyitish matematik tajriba yaratishingiz mumkin. Ushbu innovatsion strategiyalar orqali biz qiziquvchan, o‘ziga ishongan va doimiy rivojlanayotgan dunyoda rivojlanish qobiliyatlari bilan jihozlangan matematiklarning yangi avlodini ilhomlantira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikbayeva N.I., Levenberg. L.Sh. “2-sinfda matematika”. – T.: “O‘qituvchi”, 1988. 343-b.

2. Babanskiy Y.K. “Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari”. – T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 227 b.

3. Jumayev M.E., Z.G. Tojiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi “Fan va texnologiya”, 2005. – 312 b.

4. M.S.Divanova, S.Q.Alimova, O.N.Alimov. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. – T .: “Fan va texnologiya”, 2013. – 48 b.

5. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 2. 2-sinflar uchun ilg‘or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti, 2015. – 176 b.

6. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 3. 3-sinflar uchun ilg‘or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti, 2016. – 176 b.

ISSN 2181-8274

IV SINFDA TABIIY FANLARNI O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANIB O‘QITISH METODIKASI

Zoxidaxon Djumayeva,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi “Boshlang‘ich ta’lim
metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni samarali amalga oshirish, fanlararo, mavzulararo bog‘lanishni amalga oshirish, tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda ekologik tafakkurni takomillashtirish, o‘quvchilarning faktlarni tahlil qilish, tabiiy fanlar bo‘yicha avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo‘llash, boshlang‘ich sinf xususan IV sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanib o‘qitish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tabiiy fanlar, O‘rta Osiyo mutafakkirlari, muammoli vaziyatlar, ekologik tafakkur, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya.*

Аннотация

В данной статье рассматривается эффективная реализация межпредметной связи при преподавании естественных наук в начальных классах, реализация межпредметной и межпредметной связи, выявление возможностей развития экологического мышления учащихся при преподавании естественных наук. , совершенствование экологического мышления учащихся, анализировать факты, применять ранее полученные знания, умения, навыки и компетенции по естественным наукам в новых ситуациях, используя наследие среднеазиатских мыслителей в области естественных наук для учащихся младших классов, особенно IV класса. Было мнение по этому вопросу.

Ключевые слова: *Естественные науки, мыслители Центральной Азии, проблемные ситуации, экологическое мышление, знания, умения, навыки и компетентность.*

Annotation

In this article, the effective implementation of interdisciplinary communication in the teaching of natural sciences in elementary grades, the implementation of interdisciplinary and inter-subject communication, the identification of opportunities for the development of students’ ecological thinking in the teaching of natural sciences, the improvement of students’ ecological thinking, to analyze the facts, apply the previously acquired knowledge, skills, skills and competences in natural sciences in new situations, using the heritage of Central Asian thinkers in natural sciences for primary grade students, especially IV grade There was an opinion on the issue.

Keywords: *Natural sciences, Central Asian thinkers, problematic situations, ecological thinking, knowledge, skills, skills and competence.*

Tabiiy fanlarni o‘qitishda har bir sinfdagi ma’lumotlar takrorlamaydi, lekin biri ikkinchisining uzviy davomi hisoblanadi. Har bir mavzudagi ma’lumotlar bir-birini to‘ldirib boradi. Darslikdagi mavzular esa yanada keng-roq, yanada chuqurroq bilimlar bilan boyitilib boriladi. Darslikdagi mavzularning berilishi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ko‘ra tavsiflanishi didaktik talablardan biri hisoblanadi. Tushuncha — narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks et-tiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko‘tarila borib, tushuncha-larni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Fanlarni turkumlarga ajratish va tabiiy fanlarni tushun-chada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning zarur shartidir [2, 38].

O‘quvchilarning bo‘lajak kasbiy sifatlarini shakl-lantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo‘lga kiritilgan. Atrof-muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o‘ynab kelgan va hamon muhim rol o‘ynab kelmoqda. Ma’lumki, tabiiy fanlar keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea-hodisalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi [3, 92]. Insoniyatning tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot — haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug‘iladi va ularning to‘g‘riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish uz-luksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ekologik bilimlarni o‘rganishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Mazkur jarayonda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanga oid qarash-laridan foydalanishning asosiy vazifalari quyidagilar-

dan iborat: umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ekologik bilimlarni O‘rta Osiyo mutafakkirlarining bu boradagi meroslari asosida o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik mazmundagi hikoya, o‘git, nasihat, hamda ilmiy xulosalari bilan tanishish asosida ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy bilimlarni berish borasidagi imkoniyatlarini aniqlash;

Boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fanlar” o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv rejalarini o‘rganish jarayonida uning mazmun mohiyatiga ko‘ra O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari bilan o‘quvchilarni tanishtirish uchun maqbul mavzularni belgilash;

Tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid g‘oyalaridan uzluksiz, izchil va tizimli foydalanishga erishish;

Tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarning tabiiy fanlarga oid meroslaridan foydalanishga qaratilgan didaktik jarayonni samarali shakl, metod va vositalar asosida tashkil etish loyihalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida muhim o‘rin tutadi [4, 25].

Shu sababli tadqiqot ishini olib borish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan tabiiy fanlarni o‘qitishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslaridan foydalanish darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslari majmui to‘g‘risida yetarli ma’lumotlarga egaliklari ularning tabiiy fanlar bo‘yicha tegishli mavzularni belgilash asosida o‘quv materiallari mazmuniga O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslarini singdira olishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslariga oid bilimlardan xabardorliklari. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘rganilayotgan mavzu mazmuniga muvofiq holda O‘rta Osiyo mutafakkirlari meroslaridan foydalanish o‘quvchilarda ekologik tushunchalarni tizimli va to‘laqonli tarkib toptiradi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berish jarayoni umumiy holda, maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlarining tabiiy fanlarga oid mazmuni imkoniyatlariga bog‘liq mavzular mohiyatiga tayangan holda, ikki yo‘nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq [1, 12].

Ekologik muammolarning tavsifiga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiiy fanlarni o‘qitishning o‘quv jarayonidagi tuzilishiga mos mantiqiy tabaqalanish bosqichlarini ifodalash mumkin. Yuqorida ekologik muammolarning insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mahsuli ekanligi va muammolarni bartaraf qilishga oid o‘quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (ekologik ta’lim-tarbiya) bilan bog‘liq ekologik bilimlarni berish bosqichlarining pedagogik jihatdan asoslangan taxminiy tuzilishi, mazmuni va ketma-ketligi keltirildi [7, 119]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga oid meroslari bilan tanishtirishning pedagogik shart-sharoitlari muammosi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda, umumiy holda qisman o‘z ifodasini topgan, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish hozirgi ijtimoiy vaziyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda [2, 137].

G‘arb va Sharq mutafakkirlari hamda dunyoqarashidagi tafovutlarning shakllanishi kishilik sivilizatsiyasi taraqqiyotiga borib taqaladi va bir-biriga zidligi haqida mulohaza yuritish mumkin. G‘arb insonlari ilohiy ijod harakatlarini davom ettirib, o‘zlarini tabiatning maxsus ma’naviylashgan qismi sifatida e’tirof etgan holda, atrofdagi olamni o‘zgartirishga va uning insonga bo‘ysundirilishiga doimiy harakatda bo‘lib, tabiiy jarayonlarga maksimal darajada aralashgan holda ta’sir o‘tkazib kelishga harakat qilingan. Sharqda tabiat va inson munosabati ratsional va axloq normalariga bo‘ysundirilgan bo‘lib “Ona tabiat” degan nom bilan ulug‘langan va qadriyat sifatida baholangan. Xususan, Hindlarning “Maxobhorat”, Xitoyning “Konfutsiy” ta’limoti, Markaziy Osiyoning qadimiy manbasi “Avesto”, islom olamining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”da, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning ilmiy ijodi va asarlarida tabiat insoniyatni eng oliy manbasi sifatida ulug‘lanib, uni qadrlash, avaylab-asrash, yashash va tiriklik asosi, sog‘lom turmush va fikr, yashnash va yosharishning manbai sifatida e’tirof etishgan [5, 280].

Ushbu masala yuzasidan o‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda atrof-muhitga bo‘lgan munosabatning-pedagogik asoslarini o‘rganayotganda, barcha tirik mavjudotlarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi tizimini shaklantirish jarayonining samaradorligi o‘quvchilar tomonidan hayotiy tajribalarini o‘zlashtirish, dunyoga hissiy munosabati, ijodiy tajriba, tabiat bilan munosabat amaliyoti, bu munosabat normalarini o‘zlashtirish unda ijtimoiylashuv bilan bir qatorda shaxs sifatida shakllanishi va individual munosabatni yuz berishiga olib keladi [6, 811].

Darhaqiqat, tabiiy fanlar deganda biz organizmlarning atrof-muhit bilan aloqasi haqidagi fanni tushunamiz va bu yerda biz mavjudlikning barcha shartlarini so‘zning keng ma’nosida nazarda tutamiz. Ular qisman organik va qisman noorganik tabiatdir. Ushbu konseptual yondashuv asosida olib borilgan ishlar tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarni qo‘shimcha ekologik ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi muammolarini klassifikatsiyalash mumkin. Mavjud yondashuvlarni ilmiy-amaliy jihat-

dan o‘rganish o‘quvchilarda qo‘shimcha ekologik ta’lim-tarbiya berish jarayonida aniqlangan dolzarb muammolarni bartaraf etishning quyidagi usullarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda atrof-muhitni muhofaza qilishning barcha xilma-xil jihatlaridan, ya’ni ekologik to‘garaklar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, maxsus jihozlangan ma’ruza zallari, innovatsion darslar, atrof-muhitni zamonaviy texnologiyalar orqali loyihalash, o‘quvchilar jamoatchiligining ekologik monitoring va nazoratini tashkil etish;

– o‘quvchilarga keng qamrovli ekologik ta’lim-tarbiya berishning ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash, har bir tadbirda ilmiy-nazariy va amaliy faoliyat elementlarini uyg‘unligini ta’minlash;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha tadbirlar zaif ta’lim komponentlaridan xoli bo‘lgan holda, ishtirokchi o‘quvchilar emotsional holatiga ijobiy ta’sirini oshirish;

– xalq ta’lim muassasalarining dasturiy va uslubiy ta’minoti zamon talablari darajasida ishlab chiqilmaganligi, dars ishlanmalari va o‘qitish usullarining zamonaviy ta’lim texnologiyalariga mos kelmasligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish hamda DTS va Milliy o‘quv dasturi talablariga javob beradigan umumiy ta’limning ekologik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

– o‘quvchilarning atrof-muhit va ekologik tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish va bu boradagi ilmiy-amaliy loyihalarda ishtirokini ta’minlagan holda, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va tajribalarni egallash uchun zarur bo‘lgan barcha omillardan maqsadli foydalanishdir.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni turli o‘quv predmetlari bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta’minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Yuqoridagi keltirilganlardan umumlashtiradigan bo‘lsak, buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy merosi ham buyukdir. Ushbu ilmiy merosdan hozirgi zamon bilan uyg‘unlashtirilgan holda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun muhimdir. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar, ayniqsa, o‘qimishli ota-onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib, kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov Y.G‘., Norbutayev X.B. Fanlararo ekologik mazmunda topishmoqli masala va savollar. Metodik qo‘llanma. – T.: “Fan”, 2018. – 280 b.

2. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinov. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi”. – T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018. – 210 b.

3. G.M.Sayfullayev. “Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish”. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “FAYZ PRINT”, 2020. – 360 b.

4. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 320 b.

5. Z.M.Djumayeva. Экономика и социум, IMPROVING THE SYSTEM OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN EDUCATING STUDENTS BASED ON UNIVERSAL VALUES. “Науки об образовании”, 2023. 1-tom. – 810-812-b.

6. Djumayeva Z.M. Archive of Conferences. “Yoshlarni milliy tarbiya asosida tarbiyalash”. 2023. – 280-283 b.

7. Мухтарова, Л.А. “Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni”. Научный поиск в современном мире. – 2017. – 2-tom. – 119-122-b.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО П РАВОВОГО ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ

Айгуль Халмуминова,
Старший преподаватель
Термезского государственного университета,
доктор философии по педагогическим наукам, PhD

Аннотация

В статье уделено внимание освещению педагогических особенностей экологического правового воспитания в семье. В процессе эколого-правового воспитания учащиеся получают больше знаний и понятий, связанных с экологическим правовым уровнем и другими критериями, а также раскрываются особенности экологического правового воспитания в семье и ряд его особенностей. Проанализированы обстоятельства, связанные с этим, и даны научно-практические предложения по ряду реформ, направленных на совершенствование решения проблемы, а также по вопросу организации педагогического процесса на основе новых педагогических форм и методов, направленных на развитие у учащихся духовно-нравственных качеств, основанных на общечеловеческих ценностях.

Ключевые слова: *экологическое правовое воспитание, экологическая безопасность, экологическая пропаганда, правовое воспитание, экологическое воспитание в семье, экологическое правовое воспитание в школе.*

Annotatsiya

Maqolada oilada ekologik huquqiy tarbiya berishning pedagogik xususiyatlarini yoritishga e’tibor berilgan. Ekologik-huquqiy tarbiya jarayonida o‘quvchilarimiz ko‘proq olingan bilim va tushunchalar, ekologik huquqiy saviya, hamda boshqa mezonlar bilan bog‘liqligi, hamda oilada ekologik huquqiy tarbiya va uning bir qator xususiyatlari ochib berilgan. Bu boradagi holatlar tahlil qilinib, muammoni hal etishning takomillashtirishga oid bir qator islohotlar, shuningdek, o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakl va usullar asosida tashkil etish masalasiga oid ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik huquqiy tarbiya, ekologik xavfsizlik, ekologik targ‘ibot, huquqiy ta’lim, oilada ekologik ta’lim, maktabda ekologik huquqiy ta’lim.*

Annotation

The article focuses on highlighting the pedagogical features of Environmental Legal Education in the family. In the process of environmental and legal education, our students are revealed more acquired knowledge and concepts, ecological legal level, as well as other norms, as well as environmental legal education in the family and a number of its features. The cases in this regard are analyzed and a number of reforms related to the improvement of the problem, as well as scientific and practical proposals on the issue of organizing the pedagogical process in students on the basis of new pedagogical forms and methods aimed at developing spiritual and moral qualities based on universal values.

Keywords: *environmental legal education, environmental safety, environmental advocacy, legal education, environmental education in the family, Environmental Legal Education in school.*

В настоящее время экологическое правовое воспитание молодежи на основе требований времени, применение новых инновационных и информационных технологий способствует максимально позитивному решению экологических проблем в будущем.

В статье 41 Конституции Республики Узбекистан“...в статье 50” граждане обязаны бережно относиться к окружающей среде “и в статье 55”земля, недра, вода, растительный и животный мир и другие природные ресурсы являются общенациональным достоянием, их необходимо рационально использовать и они находятся под охраной государства”, [1; 5]-правовая основа экологического образования и воспитания молодежи.

Как отдельно отметил Президент, “необходимо дальнейшее совершенствование науки, современной и непрерывной системы образования. В нашем народе есть мудрая поговорка: “образование и воспитание начинается с колыбели”. Только просвещение ведет человека к совершенству, общество-к прогрессу”. [2, 6]

Анализ и результат. 23 августа 2019 года под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева состоялось видеоселекторное совещание, посвященное вопросам развития системы народного образования, повышения квалификации и авторитета педагогов в обществе, духовности подрастающего поколения..

Глава государства отметил, что “безусловно, нам предстоит еще многое сделать для повышения содержания, качества и эффективности намеченных в этом отношении мер. Такие программы, как “процветающая деревня” и “процветающая махалля”, “молодежь-наше будущее”, “каждая семья-предприниматель”, которые последовательно реализуются сегодня, важны тем, что нацелены на эти же цели”[4, 2], концептуальные идеи которых являются основой для со-

вершенствования педагогических особенностей экологического правового воспитания.

В частности, Постановление Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2017 года "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах" [5, 3], "О мерах по коренному совершенствованию системы дошкольного образования", постановление Правительства Республики Узбекистан "О мерах по духовно-нравственному и физическому совершенствованию", в постановлении от 14 августа 2018 года "О мерах по продвижению системы образования и образования на качественно новый уровень" изложен ряд конкретных задач в этой области, выражающих основные направления ведения и совершенствования экологического правового воспитания учащихся на основе требований времени [6, 1].

В частности, указ Президента Республики Узбекистан "О мерах по коренному совершенствованию системы общего среднего, среднего специального и профессионального образования" от 25 января 2018 года направлен на воспитание молодежи в духе патриотизма и приверженности идеям национальной независимости, а также на сохранение у учащихся богатого научного, культурного и духовного наследия., особое внимание было уделено вопросу организации педагогического процесса на основе новых педагогических форм и методов,направленных на развитие духовно-нравственных качеств, основанных на национальных и общечеловеческих ценностях, что дало особый толчок современному развитию экологического правового воспитания молодежи [7, 2].

Как указано в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 января 2019 года № 29 Об утверждении Положения О Государственном комитете Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды "об организации экологического воспитания, пропаганды и образования, а также переподготовки и повышения квалификации специалистов в области экологии и охраны окружающей среды", министерство экологии и- охрана окружающей среды также была определена как основная задача государственного комитета [8, 3].

Из этого видно, что это требует применения министерствами высшего и среднего специального образования и народного образования Республики Узбекистан новых современных системных требований в проведении эколого-правового образования и воспитания молодежи в семье, школах и махаллях.

Вышеуказанные требования указывают на то, что процесс проведения первичного экологического правового воспитания происходит в семье. Вот почему тесное юридическое и экологическое образование и воспитание в наших семьях побуждают нашу молодежь изучать, уважать и соблюдать существующие экологические законы.

У нас в народе есть хорошая поговорка "экологическая чистота начинается на пороге дома". Желтизна, благоустроенность каждого дома известны на его пороге, в содержании улиц, дворов в чистоте и порядке. Как говорится, "птица делает то, что видит в своем гнезде", родители обязаны постоянно прививать детям учение о сохранении Земли и воды, подаренных природой, о предотвращении загрязнения почвы и воздуха, о сохранении растительно-зеленого мира и делать его критерием своей жизни. Особенно важным является формирование бережного отношения к нашим детям, к питьевой воде, которая становится все более ценной для нашей страны.

В раннем возрасте у детей формируется эмоционально-эмоциональный подход к осмыслению окружающей среды и происходящих в ней явлений, и в результате этого у них постепенно формируется личностное видение, качественное и самостоятельное отношение, выражающее сущность явлений и сохраняющееся в их психике.

Родители должны реагировать на негативное отношение молодежи к окружающей среде и, объясняя негативные последствия этого, старательно учить, что чистота природной среды, чистота воздуха в первую очередь обеспечивают стабильность нашего здоровья, жизни.

Необходимо преобразовать правило "чистая среда-это здоровая жизненная среда" в образ жизни и мировоззрение семьи, повседневную необходимость, практические навыки и жизненные потребности. При формировании первых правил здорового образа жизни у ребенка родители должны усердно обучаться, опираясь на реальные примеры того, что охрана окружающей среды, поддержание ее чистоты, отсутствие загрязнения воды, воздуха и почвы, их бережное использование-это законный и человеческий долг каждого из нас [9, 36].

В этом смысле, учитывая, что эколого-правовое образование и воспитание в основном осуществляется в семье, это означает, что наша молодежь, растущая в каждой семье, должна хорошо знать экологическую политику нашего независимого государства и ее содержание, правовые и экологические проблемы, а также правовые и экономические аспекты их решения, обладать глубокими юридическими и экологическими знаниями и уметь работать в экологической сфере деятельности общества. их активное участие будет необходимо.

В этом смысле, по нашему мнению, целесообразно, чтобы экологическое правовое воспитание в семье включало в себя требования, предъявляемые к воспитанию:

1) воспитывать в семье нашу молодежь в духе любви к эстетическому наслаждению красотами природы

и формировать представления о ней;

2) повышение эколого-правовой культуры и духовности нашей молодежи под опекой и непосредственными действиями родителей в семье;

3) формирование у нашей молодежи в семье понимания вопроса правовых отношений между природой и обществом и влияния человека на природу;

4) немаловажно и то, что наша молодежь постоянно осваивает экологически-правовые знания, объясняя, что человек-это сознательная ветвь природы и что все законы общества и природы должны соблюдаться.

В процессе эколого-правового воспитания наши воспитанники будут больше связаны с полученными знаниями и понятиями, экологическим правовым уровнем, а также другими критериями. С другой стороны, правовое экологическое воспитание в семье может выражаться в овцах:

1) разъяснение нашей молодежи необходимости рационального использования и охраны всех природных ресурсов-земли, недр, воды, животного и растительного мира, леса и воздуха (атмосферы;

2) формирование экологического правового мышления и экологического сознания нашей молодежи в семье, ответственное отношение к окружающей среде и проявление любви к природным ресурсам;

3)более широкое понимание того, что наша молодежь должна предвидеть экологические изменения, кризисы и угрозы (которые могут привести к негативным последствиям);

4) формирование родителями эколого-правовой духовности и культуры в сознании молодежи.Разъяснение наличия юридической ответственности за не причинение вреда природе, причиненный вред или совершенное правонарушение;

5) целесообразно также разъяснить, что необходимо бороться и предотвращать экологические правонарушения, совершенные или совершаемые нашими молодыми людьми в семье, родителями.

Поэтому мы должны признать, что в этом вопросе перед нашими педагогическими, природоведческими и юридическими кадрами еще стоит ряд задач.

В целом, близость к природе, любовь к родной земле, наслаждение красотами родного края духовно и духовно обогатили нашу молодежь, сформировали у нее изысканный вкус, и святая земля искренне чувствует свой долг и ответственность заботиться о благополучии и чистоте природы родного края. Экология и охрана окружающей среды, требуя от самой эпохи бережного отношения к своему богатству и рационального его использования, побуждают нашу молодежь быть более внимательными и ответственными за природу [10, 657].

Вывод. Также одной из важнейших задач, стоящих сегодня перед нами, является создание эффективной системы непрерывного экологического образования молодежи в образовательных учреждениях, семье, органах самоуправления граждан. Кроме того, важное значение в повышении экологической культуры школьников и молодежи имеет усиление пропагандистской работы за счет проведения в средствах массовой информации серии передач, посвященных экологии и охране окружающей среды, регулярной трансляции социально-экологических роликов, публикации статей в периодических изданиях.

Таким образом, в условиях глобализации,когда нынешние экологические проблемы становятся все более острыми, их решение, обеспечение экологической безопасности, оставление природных ресурсов нетронутыми для будущих поколений, их рациональное использование и охрана являются приоритетной задачей и побуждают воспитывать каждого молодого человека в духе патриотизма.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Конституция Республики Узбекистан. – Т.: Узбекистан, 2023. – Статья 68.

2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева Олий Мажлису.// Народное слово, 2018, 29 декабря.

3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева 23 августа 2019 года на видеоселекторном совещании, посвященном вопросам развития системы народного образования, повышения квалификации и авторитета педагогов в обществе, духовности подрастающего поколения. Необходимо, чтобы развитие школьного образования стало общенародным движением. // Народное слово, 24 августа 2019 г.

4. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева на торжественной церемонии, посвященной Международному женскому дню. Народное слово, 8 марта 2019 г.

5. Информационный бюллетень палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2017, № 9, ст. 555 www.lex.uz

6. Народное слово, выпуск 15 (6943). 24 января 2018 г. Страница 6,

7. Народное слово, выпуск 17 (6945). 26 января 2018 г. стр. 6,

8. Национальная база данных законодательных актов, 15.01.2019., 19.09.29. 2475-последний

9. Базарова N.Sh.научно-педагогические основы формирования экологической культуры у студентов: Автореф. diss. ... канд. пед. наук. – Т., 2006. – 130 с.

10. Мухтарова Л.А. Методологические основы формирования культуры экологической безопасности в начальном образовании // научно-теоретический журнал научный вестник Наманганского государственного университета. 2021, выпуск 12. – 657-662 с.

RAQAMLI TA’LIM RESURSLARNI MODELLASHTIRISHGA O‘RGATISHDA DASTURIY PAKETLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Saloxiddin Siradjev,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’limning didaktik va texnik vositalarini tanlashda ushbu vositalar u yoki bu bilim sohasida bilish uchun talabalar faoliyatini tashkil etishga qanday yordam berayotganiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ta’limga faoliyatli yondashuv doirasida “faoliyat” tushunchasi ko‘pincha “bilim” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘ladi, ya’ni bilimni shaxs ongining elementi sifatida shakllantirish uchun tegishli turdagi, darajadagi va hajmdagi kognitiv faoliyatni tashkil etish kerakligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, pedagogikada “ta’lim vositasi” tushunchasining izohi va ta’lim vositalarining yagona ko‘p qirrali klassifikatsiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot, vizuallashtirish modellashtirish, o‘qitish usullari, shakllari va vositalari, dasturiy paketlar va boshqalar.*

Аннотация

В данной статье особое внимание уделено тому, как эти средства помогают организовать деятельность учащихся по познанию в той или иной области знаний при выборе дидактико-технических средств обучения. Также в рамках деятельностного подхода к обучению понятие “деятельность” часто связывают с понятием “знание”, т. е. подчеркивается, что для формирования знания как элемента сознания личности необходимо организовать познавательную деятельность соответствующего вида, уровня и объема. Кроме того, в педагогике обсуждались трактовка понятия “средство обучения” и единая многоаспектная классификация средств обучения.

Ключевые слова: *информационное, наглядное моделирование, методы, формы и средства обучения, программные пакеты и др.*

Annotation

In this article, special attention is paid to how, when choosing didactic and technical means of education, these tools help to organize the activities of students in order to know in this or that field of knowledge. Also, within the framework of an active approach to education, the concept of “activity” is often associated with the concept of “knowledge”, that is, it is argued that in order to form knowledge as an element of the consciousness of an individual, it is necessary to organize cognitive activity of the appropriate type, level and size. In addition, the interpretation of the concept of “educational tool” and the unified multifaceted classification of educational tools were discussed in pedagogy.

Keywords: *information, visualization modeling, teaching methods, forms and tools, software packages, etc.*

Hozirgi kunda pedagogikada “ta’lim vositasi” tushunchasining bir ma’noli izohi va ta’lim vositalarining yagona ko‘p qirrali klassifikatsiyasi mavjud emas. Ta’lim vositasi deganda pedagog va talaba tomonidan yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun qo‘llaniladigan moddiy yoki ideal obyektni tushunish mumkin bo‘ladi. U holda o‘quv materiallari mazmunini o‘rganish, talabalarning rivojlanishi va tarbiyasi uchun ta’lim axborotining manbai va vositalari (aslida vositalar) sifatida xizmat qiluvchi barcha obyektlar va jarayonlar (moddiy va moddiylashtirilgan)ni ta’lim vositalari deb aytish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, moddiy va ideal ta’lim vositalari o‘quv jarayonining maqsadlariga birgalikda erishish uchun bir-birini to‘ldirish va qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanilganda ta’lim samarali bo‘ladi [1, 42].

Bundan tashqari, har bir darajada ta’limning mazmuni o‘sha darajaga xos xususiyatlarga egadir. Ammo agar har bir darajada o‘ziga xos tarkib mavjud bo‘lsa, ularni o‘zlashtirish vositalari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Ta’lim mazmuni modifikatsiyalashgani sari har bir darajada ta’lim vositalari ham o‘zgaradi. Ta’lim mazmunini shakllantirishning har bir darajasi muqarrar ravishda o‘ziga xos ta’lim vositalarini o‘z ichiga olishi kerak [2, 83].

Shunday qilib, bizni: bo‘lg‘usi mutaxassisni tayyorlashning ta’lim jarayoni; talabalarni ma’lum bir turdagi kasbiy faoliyatga, masalan, kompyuterni va maxsus dasturiy ta’minotni faol ravishda qo‘llashga mo‘ljallangan raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanishga o‘rgatish jarayoni qiziqtirayotgani sababli, ushbu predmet sohasidagi kasbiy muammolarni hal qilish va shu vaqtning o‘zida mutaxassisning kasbiy faoliyatini u tomonidan kasbiy vazifalarini hal qilishda avtomatlashtirish imkonini beradigan informatsion va instrumental tizimlar spektrini tavsiflash zarur bo‘ladi.

Hozirgi kunda ko‘p sonli adabiyotlarning mualliflari, A.Y.Garnayev, S.Y.Garnayev; M.Morgan; K.Xorstmann, G.Kornelp va boshqa keng doiradagi mutaxassislar uchun ta’limning yangi dasturiy paketlari va texnologiyalariga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, E.T.Vovk, K.P.Isaguliyev, P.Lapin, D.V.Leshchev, D.Y.Tumanov,

R.Reynxardt, S.Daud, D.Lott, B.Xoll, S.Vanlar shular jumlasidandir.

Axborotlarni modellashtirish deyilganda — predmetli sohalarda har xil turdagi axborot va instrumental tizimlarni qo‘llagan holda elektron-hisoblash tajribasini o‘tkazish texnologiyasi negizida axborotni qayta ishlashni boshqarish jarayonini tushunganimiz bois, bir qator kasbiy vazifalarni hal qilishda ushbu tizimlardan foydalanish texnologiyasiga o‘qitish va axborot tizimlarida axborotni qayta ishlashda qo‘llaniladigan asosiy funksiyalar, metod va vositalarga o‘qitish axborotlarni modellashtirib o‘qitishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vizual tarzda grafalarda axborotlarni modellashtirishni o‘rgatish vositasi sifatida kompyuter axborot modelini amalga oshirishni talab qiladigan keng turdagi dasturiy vositalar ko‘rib chiqilishi mumkin. Axborot modellashtirishni o‘rgatishda tanlagan hisoblash modellarining (vizual tarzda grafalarda) alohida turini, shuningdek, bo‘lajak mutaxassis tomonidan axborot-tahlil faoliyatini o‘zlashtirish ro‘y beradigan elektron-hisoblash tajribasini o‘tkazishning asosiy bosqichlariga mos keladigan, kasbiy vazifalarning hal etilishini hisobga olgan holda, ta’lim vositalari sifatida yarim formal va mavhum formal tizimlar — axborot tizimlarining bir turi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shunday qilib, formal va yarim formal tizimlarning, shuningdek, vizual tarzda grafalarda axborotlarni modellashtirishni o‘qitish vositasi sifatida kasbiy instrumental tizimlarni xarakteristikasini ko‘rib chiqamiz. Dasturiy mahsulotlarni tanlashda u yoki bu raqamli ta’lim resursi va o‘quv kompyuter modelini qondirishi kerak bo‘lgan talablar ta’rifidan kelib chiqamiz.

“Axborotlarni modellashtirish” o‘quv kursi shaklida bajarilgan vizual tarzda grafalarda axborotlarni modellashtirishni o‘qitishda turli darajadagi axborot modelining formallashgan tavsiflarini qurishdagi ta’lim vositalari sifatida formal tillar: mantiqiy-matematik tillar (to‘plamlarning formal nazariyasi tili) va dasturlash tillari (imperativ paradigma)ni ajratib ko‘rsatamiz.

Bundan tashqari, axborot-ta’lim resurslari(ATR) multimedia markazining veb-saytida keltirilgan klassifikatsiyaga ko‘ra, markaziy elektron ta’lim resurslari saqlanadigan joy ularni yaratish texnologiyasi bilan mos ravishda bo‘linadi va quyidagilar bilan ifodalanadi: 1. Ochiq multimedia tizimlarining elektron o‘quv modullari; 2. Virtual jamoaviy muhitlarning elektron o‘quv modullari; 3. Mahalliy tashuvchilarda elektron axborot-ta’lim resurslari(EATR); 4. Tekstografik tarmoqli EATRlar; 5.flash-texnologiyalar negizidagi EATRlar; 6. java-texnologiyalar negizidagi EATRlar.

Tekstografik tarmoqli, flash-texnologiyalar, java-texnologiyalarning elektron yoki raqamli ta’lim resurslarini rivojlantirish texnologiyasini amalga oshiradigan asosiy dasturiy vositalarning qisqacha tavsifini ko‘rib chiqamiz.

1. Java-texnologiyalar Java tiliga asoslangan bo‘lib, u platformadan mustaqil, obyektga yo‘naltirilgan dasturiy til hisoblanadi va birinchi navbatda, Internet tarmog‘ida foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Java platformasida mustaqil dastur-ilovalar (Applications); appletlar (Applets) — brauzer muhitida ishlaydigan dasturlar; servletlar (Servlets) — server tomonida ishlaydigan va server funksiyalarini kengaytiradigan kichik dasturlar; komponentlar (JavaBeans, Enterprise Java Beans) — grafik interfeysga yoki ilova va ma’lumotlarning kapsulali mantig‘iga ega katta bo‘lmagan funksional va alohida elementga ajratilgan dasturning bir qismi komponentli dasturlash texnologiyasida takroran foydalanish maqsadida ishlab chiqiladi.

Raqamli ta’lim resurslarini, birinchi navbatda, interaktiv multimediali o‘quv kompyuter modellari shaklida ishlab chiqish uchun Java platformasi sifatida an’anaviy veb-texnologiyalarni Java-appletlari texnologiyasi bilan birlashtiradigan kuchli imkoniyatlardan ifodalaniladi. Java-applet — Java dagi bayt-kod shaklidagi dastur hisoblanadi. Java-appletlar veb-brauzerda virtual Java mashinani (JVM — Java Virtual Machine) yoki appletlarni sinab ko‘rish uchun avtonom vosita hisoblangan Sun’s AppIetViewer yordamida bajariladi. Appletlar HTML tomonidan taqdim etilishi mumkin bo‘lmagan veb-ilovalarning interaktiv xususiyatlarini taqdim etish uchun ishlatiladi. Java bayt-kodi platforma jihatdan mustaqil bo‘lgani uchun, Java-appletlari Microsoft Windows, UNIX, Apple, Mac OS va GNU/Linux kabi ko‘plab platformalar brauzerlari tomonidan plaginlar yordamida amalga oshirilishi mumkin [3, 70].

Interfaol imkoniyatlarni appletda oshirish uchun sichqoncha, klaviaturani qayta ishlashni, foydalanuvchi interfeysi komponentlari (yozuvlar, tugmalar, matn kiritish maydonlari, bayroqchalar va boshqalar)ni appletga qo‘shishni ta’minlovchi sinflar kutubxonalari vositalari (AWT, JFC Swing paketlari) ishlatilishi mumkin. O‘quv kompyuter modelida vizual va grafik imkoniyatlardan foydalanish uchun geometrik sinflar va grafik usullar vositalari (Graphics, Graphics2D sinflari)dan foydalanish mumkin bo‘lib, ular dinamik va interaktiv tasvirlarni yaratish, grafik obyektlarning rangi, o‘lchami, joylashuvini boshqarish, grafik faylning URL-manzildagi to‘rli tasvirlarni appletga qo‘shish va audiokliplarni ijro etish imkonini beradi. Appletlar veb-hujjatga applet yoki obyektning tegi bilan kiritiladi, appletni brauzer oynasiga yuklash esa serverda joylashgan veb-hujjatni, xuddi applet-klass singari, yuklab olishda amalga oshiriladi.

2. Flash-texnologiyalari veb-ilovalarga osongina integratsiya qilinadigan va ishning tarmoq rejimida mavjud bo‘lgan interaktiv va multimedia o‘quv kompyuter modellarini ishlab chiqish uchun yanada jozibali imkoniyatlarni taqdim etadi. Flash interaktiv animatsiya, ovozli fayllari, effektlar va videolar, shuningdek, ActionScript dasturlash tili vositasi kabi turli multimedia vositalarini namoyish qilish va birlashtirish uchun ancha yaxshi tashkil etilgan muhitni anglatadi. Keng doiradagi mutaxassislar uchun

ISSN 2181-8274

flash-texnologiyalarga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida alohida e’tibor qaratilgan [4, 211].

Flash yordamida animatsiya, effektlar, vektorli grafikalar, interaktiv ilovalar, dasturlar, prezentatsiyalar va veb-saytlarni yaratish mumkin. Bunda barcha tarkibiy qismlar Flash muhitida kiritiladi va keyin FLA fayllarining shaxsiy formatida saqlanadi. FLA formatidagi faylda tasvirlar, videomateriallar, ovoz va dasturiy ta’minotni o‘z ichiga olgan zarur resurslarga ega bo‘lib, shunga mos ravishda tahrir qilinishi mumkin. Flash-tarkib keyinchalik Flash-proigrivatel yordamida turli platformalarda namoyish qilish uchun ixcham SWF fayllarida e’lon qilinadi. SWF formatidagi fayl FLA formatidagi faylning kompilatsiya qilingan variantidir. Xususan, FLA formatidagi hujjatga (Photoshop, Illustrator va FreeHand hujjatlaridan) matnni, to‘rli va vektorli grafikani, PDF formatidagi fayllarni va ovozli (masalan, WAV va MRZ formatdagi) fayllarni import qilish mumkin.

Vizual tarzda grafali modellarni vizuallashtirish uchun Flash- texnologiyasining o‘ziga xos afzalliklarini animatsiya vositalarini ifodalaydi. Flashda obyektlarni animatsiya qilishning uch xil mexanizmi ko‘zda tutilgan. Bular: 1) kadrlar bo‘yicha (“klassik”) animatsiya — unda muallif bo‘lajak “multfilm”ning har bir kadrini yaratadi yoki boshqa ilovalardan import qiladi va ularni tomosha qilishning izma-izligini o‘rnatadi; 2) avtomatik animatsiya (yana tweened-animatsiya deb ham ataladi) — uni yaratishda muallif multiplikatsiyaning faqat birinchi va oxirgi kadrlarini yaratadi, Flash esa avtomatik ravishda barcha oraliq kadrlarni ishlab chiqaradi; ikkita tweened-animatsiya turi mavjud bo‘lib, ular: obyektning harakatiga asoslangan animatsiya (motion animation) va obyektning transformatsiyasiga (shaklni o‘zgartirishga) asoslangan animatsiya (shape animation); 3) ssenariylar asosidagi animatsiya — obyektning ActionScript deb ataladigan o‘zining Flash tilidagi xulqi tavsifi bo‘lib, bu tilning sintaksisi veb-e’lonlar (masalan, JavaScript va VBScript)da ishlatiladigan boshqa ssenariylar tillarining sintaksisini eslatadi.

Flash-texnologiyalar, rivojlangan multimedia vositalaridan va ixcham swf-fayllarni veb-sahifalarga kiritish imkoniyatidan tashqari, standart interfeys elementlarini (UI-komponentlar: matn maydonlari, kalitlar, ochiladigan ro‘yxatlar va boshqalar) va o‘rnatilgan ActionSript dasturlash tili qo‘llash hisobiga foydalanuvchi bilan o‘zaro interaktiv aloqani ta’minlash vositalariga ega.

Tilning sintaksisi JavaScript sintaksisiga o‘xshaydi va bunda skript kodi animatsion vaqt shkalasi ichida amalga oshiriladi [5,64]. ActionSript qat’iy bo‘lmagan tiplashtirishga ega obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili sifatida tavsiflanib, unda voqealarni qayta ishlash amalga oshiriladi.

Texnologiyalar va dasturiy mahsulotlarni tanlashimiz uchun imkoniyatlarning keltirilgan qiyosiy tahliliga ko‘ra, tanlangan omillarga muvofiq, texnologik va iqtisodiy omillar guruhi eng qiyini hisoblanadi. Ishlab chiqilayotgan mahsulotda java-ilovasi, flash-rolik yoki VB-ilovalar shaklida didaktik va funksional imkoniyatlarning keng doirasini amalga oshirish imkonini beradigan, keltirilgan instrumental tizimlarning yuqori darajada rivojlangan dasturiy-texnik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda, tanlovga ta’sir etuvchi asosiy omillar - o‘rganishdagi osonlik va malaka talablari, shuningdek, sotib olish narxi va shartlaridir. J2SE mahsulotlari bepul tarqatiladi, ammo malakaga yuqori talablar qo‘yiladi.

Instrumental tizimlardan vizual tarzda grafalarda axborotlarni modellashtirishni o‘rgatish vositasi sifatida foydalanish va O‘MM shaklida vizual tarzda grafali modellar uchun raqamli ta’lim resurslarini yaratishdagi hal qiluvchi omil — talabalarning instrumental tizim bilan dastlabki tanishuvidir. Bunday holda informatika kursida tanishtiriladigan Visual Basic ning qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi [6, 88]. Ushbu dasturiy tizimni laboratoriya ishlarida qo‘llash mumkin.

Bundan tashqari, dasturiy vositalarini tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni tushunish uchun ishlab chiqilayotgan raqamli resursning turi va amalga oshiriladigan metodik xususiyatlarini aniqlab olish muhimdir. Bunda ta’lim resurslarining, shu jumladan, elektron ta’limni standartlashtirish muammolari bilan shug‘ullanadigan yetakchi tashkilotlarning rivojlanish tajribasi va spetsifikatsiyasini inobatga olish zarur.

Yuqorida aytib o‘tilgan instrumental ishlab chiqish tizimlarining har biri loyihalashtirishni o‘rganish vositasi sifatida tanlanishi mumkin (ularning O‘KMni ishlab chiqishda vizual tarzda grafalarda axborotlarni modellashtirishni qo‘llash darajasida), chunki u ta’lim vositalariga qo‘yiladigan talablarni qondiradi. Instrumental tizimlar (Java2 SE SDK, Macromedia Flash MX), boshqa kasbga yo‘naltirilgan dasturlar kabi, o‘z tiliga, shartli belgilariga ega bo‘lgan belgili-simvolli model bo‘lgan holda, belgili-simvolli vositalarga bo‘lgan talablarga javob beradi [7, 31].

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganlarga ko‘ra, Java2 SE SDK 5.0 va Macromedia Flash MX 6, 8 paketi (java-appletlar texnologiyasi va flesh-texnologiyalar) ushbu metodik tizim uchun vizual tarzda grafalarda axborot modellashtirishni o‘rgatish doirasida loyihalashtirishni asosiy vositasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Ushbu texnologiyalar va dasturiy vositalarni tanlash O‘KMni amalga oshirishning oddiyligi bilan emas, balki dasturlash tillari, tarmoqqa kirish va vizuallashtirish orqali yuqori darajadagi interaktivlikni ta’minlash imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lib, bunda obyektga yo‘naltirilgan dasturlash, dasturlash tillari sinflari kutubxonalari, foydalanuvchi interfeysini loyihalash sohasidagi maxsus bilimlar faollashtiriladi, qo‘llaniladi va chuqurlashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фомин, В.И. Развитие содержания подготовки к информационно-аналитической деятельности на основе семиотического подхода: автореф. дис. ... докт. пед. наук: 13.00.02 / Фомин Владимир Ильич. – Самара, 2009. – 52 с.

2. Мезинов, В.Н. Введение в педагогическую деятельность: Учебное пособие / В.Н. Мезинов. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2005. – 91 с.

3. Назаров, С.А. Педагогическое моделирование личностно-развивающей информационно-образовательной среды вуза / С.А. Назаров // Научная мысль Кавказа. – 2006. – Спецвыпуск № 2. – 69-71 с.
4. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / под ред. С.А. Смирнова. – М.: Изд-во “Академия”, 2003. – 512 с.
5. Роберт, И.В. Толкование слов и словосочетаний понятийного аппарата информатизации образования / И.В. Роберт // Информатика и образование. – 2004. – № 5. – С. 22-29; № 6. – 63-70 с.
6. Селевко, Г.К. Традиционная педагогическая технология и ее гуманистическая модернизация / Г.К.Селевко. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – 144 с.
7. Уваров, А.Ю. Педагогический дизайн / А.Ю. Уваров // Еженедельная газета Издательского дома “Первое сентября” Информатика. – 2003. – № 30. – 32 с.

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧИСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Нигора Хамидова,
Старший преподаватель, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами;
Ситора Хамидова,
Преподаватель Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация

В данной статье рассматриваются идеи и наблюдения относительно развития педагогических качеств студентов в процессе педагогического образования. Педагогическое образование играет ключевую роль в формировании будущего общества. Среди множества техник и добродетелей, которыми должен обладать учитель, особое внимание уделяется балансу или дисбалансу между мыслями, чувствами и действиями как значимому аспекту. В контексте начального образования этот баланс еще более важен, поскольку он напрямую влияет на развитие молодого ума. В данной статье в частности рассматривается методология улучшения когнитивных добродетелей студентов в рамках специализации начального образования.

Ключевые слова: *педагогическое образование, студенты, педагогические качества, методологии, развитие, начальное образование, воспитание, педагогические навыки.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada, pedagogik ta’lim jarayonlarida talabalarining pedagogik sifatlarini rivojlantirish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Pedagogik ta’lim jamiyatlar kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ko‘plab ko‘nikmalar va fazilatlar orasida fikrlar, his-tuyg‘ular va harakatlar o‘rtasidagi muvofiqlik yoki muvofiqlik muhim jihat sifatida ajralib turadi. Boshlang‘ich ta’lim kontekstida bu muvofiqlik yanada muhimroqdir, chunki u bevosita yosh ongning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ushbu maqolada, xususan, boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi doirasida o‘quvchilarning uyg‘unlik fazilatlarini oshirish metodologiyasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik ta’lim, talabalar, pedagogik sifatlar, metodikalar, rivojlantirish, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, pedagogik mahorat.*

Annotation

This article explores ideas and observations regarding the development of students’ pedagogical qualities in the process of pedagogical education. Pedagogical education plays a crucial role in shaping the future of societies. Among the many techniques and virtues that a teacher must possess, the balance or imbalance between thoughts, feelings, and actions is highlighted as a significant aspect. In the context of initial education, this balance is even more critical as it directly influences the development of the young mind. This article, specifically, examines the methodology for enhancing students’ cognitive virtues within the framework of initial education specialization.

Keywords: *pedagogical education, students, pedagogical qualities, methodologies, development, initial education, upbringing, pedagogical skills.*

Эффективность обучения в классе проявляется в том, как учитель воспринимает, думает и уравновешивает свои убеждения, видения и действия. Когда учителя созвучны друг другу, их подлинность и искренность усиливают доверие и уважение среди учеников [1, 1]. Для начинающих учителей подлинность считается основополагающей, поскольку она влияет на эмоциональное и когнитивное развитие детей.

Улучшение адаптивности в начальных стадиях образования довольно сложно. Учителя должны ориентироваться в различных классных обстановках, каждая из которых имеет свои уникальные стили обучения, динамику и способности учеников. Более того, социальные давления и институциональные требования иногда могут оказывать давление на способность учителя сохранять свою индивидуальность.

Для решения этих проблем необходимо использовать программы по развитию навыков преподавания, которые акцентируют внимание на эмоциональном интеллекте, обучении психологическим навыкам и развитии эмоционального интеллекта. Эти программы интегрируют в себя уроки психологического мышления и практические упражнения для развития интуиции и расширения эмпатии [2, 3-4].

Для будущих учителей создание глубокого понимания своих чувств и мотивации через обеспечение глубокого понимания своих чувств и мотивации позволяет им эффективно использовать эти программы для достижения согласованности в обучении.

Опытное обучение, совмещенное с ролевыми играми, может значительно повысить навыки согласованности. Путем привлечения студентов к симулированным сценариям классов учителя могут развивать свой эмоциональный интеллект и учить, как эффективно решать реальные ситуации в реальном времени. Эти упражнения создают безопасное пространство для тренировки наставников в распознавании своих сильных сторон и областей для улучшения в области согласованности.

Некоторые опытные наставники предлагают ценные идеи по программам наставничества, в которых опытные руководители руководят наставниками. Кроме того, сети поддержки коллег создают платформу для обмена опытом и взаимного обучения между членами обучающегося сообщества. Эти взаимодействия упрощают саморазвитие, помогая учителям согласовать свои убеждения, эмоции и действия [3, 118].

Упражнения по проведению обзоров и упражнения по обзору, такие как обзоры занятий и обзоры себя, могут быть мощным инструментом для развития навыков согласованности. Эти упражнения улучшают восприятие себя, помогают учителям распознавать свои чувства и действовать эффективно. Развитие осторожности позволяет учителям реагировать на ситуации в классе неспешно и в соответствии с предварительно продуманным планом, а также создавать благоприятное окружение для обучения и роста.

В особенности в концепции развития высшего образования до 2030 года установлены важные задачи, такие как формирование образовательных программ, ориентированных на индивидуальные учебные траектории, разработка методик и технологий для развития компетенций, а также направление образовательного процесса на формирование практических навыков студентов и их творческого мышления [4, 54].

С учетом этих целей предполагается создание образовательных программ, соответствующих интересам и потребностям студентов и работодателей, путем разработки учебных планов, основанных на практических навыках. Также важными являются методы и технологии, направленные на развитие компетенций в ходе учебного процесса, а также поэтапное внедрение модульной системы в высших учебных заведениях.

Это связано с улучшением профессиональной подготовленности будущих специалистов, развитием различных компетенций в студентах. В связи с этим вопрос развития когнитивных компетенций студентов в настоящее время обладает особой важностью.

Если предыдущая система образования ставила своей целью предоставить молодежи знания, позволяющие присоединиться к устойчивой профессиональной деятельности после завершения школы или университета, то в новом информационном обществе молодежи необходимы навыки, позволяющие им успешно функционировать в изменяющемся социальном окружении. Способность к высокой конкуренции, использование высоких технологий в производстве, независимое мышление, анализ, успешный выбор, адаптация к быстро меняющимся условиям жизни - все это требует подготовки специалистов, способных мыслить самостоятельно, принимать критические решения, эффективно взаимодействовать в личной и профессиональной сферах, умеющих обработать и повторно использовать большие объемы информации, готовых работать в нестандартных ситуациях [5, 73].

• Культурные различия и социальное положение могут влиять на способность студента адаптироваться к учебной среде. Это особенно актуально в многонациональных образовательных учреждениях.

• Эффективное обучение возможно при выявлении вызовов, таких как неэффективные методы преподавания, несправедливые системы оценок и недостаточное внимание к индивидуальным потребностям.

• Эмоциональное благополучие, борьба со стрессом и депрессией являются серьезными аспектами успешного обучения.

• Разработка адаптивных учебных программ, учитывающих индивидуальные потребности студентов, способствует поддержке академического прогресса.

• Создание условий для консультаций с психолога-

ми и тренингов по развитию психологической устойчивости помогает студентам преодолевать эмоциональные стрессы.

• Обучение преподавателей различным методам обучения и противостояние культурным различиям способствуют созданию инклюзивной образовательной среды.

Развитие согласованности между начинающими учителями имеет важное значение для всестороннего развития студентов. Совершенствование методологии развития компетенций учеников может быть достигнуто через эффективные программы обучения учителей, опытное обучение, наставничество, практические упражнения и культурные компетенции. Принятие этих подходов позволяет решать проблемы студентов с помощью обучения, что способствует развитию их навыков согласованности [6, 153].

Внедрение этих методологий обеспечивает, что будущие поколения учителей входят в классы, оснащенные реальностью и искренностью, что является необходимым для эффективного воспитания, обучения и формирования будущего общества в целом.

Образование учителей играет важную роль в формировании будущего общества, обеспечивая студентам необходимые знания и навыки для успешного освоения профессий, а также активного участия в общественной жизни. Однако в учебном процессе они сталкиваются с различными трудностями и препятствиями.

В учебном процессе учителя могут столкнуться с трудностями, начиная от академических проблем и заканчивая социальными и психологическими аспектами. Проблемы с нагрузкой, несоответствие методов обучения индивидуальным потребностям студентов и отсутствие мотивации могут привести к трудностям в обучении. Систематическое решение этих трудностей может быть достигнуто через организованное руководство в процессе воспитания учителей. Индивидуальное обучение, психологическая и социальная поддержка, а также подготовка учителей, учитывающая их индивидуальные характеристики и потребности, являются основными компонентами обеспечения успешного обучения для всех студентов. Развитие сложных навыков студентов требует усилий образовательных учреждений, учителей и всего общества.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. “Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, утвержденная указом президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года. – № ПФ–5847.

2. Гилев А.А. Структура кластера познавательных компетенций // вестник Самарского государственного технического университета. Серия “психолого-педагогические науки”. – 2010. – № 4 [73]. – 3-4 с.

3. Чуприкова Н.И. Психическое развитие и обучение (к обоснованию системно-структурного подхода). – М.: Издательство MSSI. Воронеж: издательство НПО “МОДЕК”, 2003. – 320 с.

4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. Ростов-на-Дону Финекс – М., 2018. – 256 с.

5. Эльконин Д.В. Избранные психологические работы. – М., 1989. –275 с.

6. Фридман Л.М. Логико-психологический анализ школьных воспитательных задач. – М., Педагогика, 1977. – 280 с.

KIMYONI MUAMMOLI O‘QITISH KIMYO DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Hakima Sharipova,
Navoiy shahar 7-umumta’lim
maktabi kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’limda kimyo fanini muammoli o‘qitish asosida o‘quvchilarda kimyoviy bilimlarni rivojlantirish kimyo fanini hayot bilan bog‘lash kabi fanning dolzarb masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, kimyo darslarida muammoli vaziyatlarni qo‘llash uchun o‘qituvchi hal qilishi kerak bo‘lgan masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, mantiqiylik, izchillik prinsiplariga amal qilishi, talabalarning bilish faoliyatini boshqarishni ta’minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish yo‘llari kimyo fani o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda muammoli vaziyatlar yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *muammoli ta’lim, avtomobil gaz balloni, yoritgich chiroqlar, sulfat kislota,*

Аннотация

В статье освещаются актуальные вопросы науки, такие как развитие химических знаний у учащихся и связь химии с жизнью на основе проблемного преподавания химии в общем среднем образовании. Также для

применения проблемных ситуаций на уроках химии учителю следует решить вопросы, вызывающие проблемную ситуацию, определить задачи, следовать принципам логики, последовательности, определить средства и методы, обеспечивающие управление познавательной деятельностью учащихся. деятельности., описаны способы их правильного и эффективного использования применительно к проблемным ситуациям в организации занятий учителей химии.

Ключевые слова: *проблемное обучение, автомобильный газовый баллон, лампы освещения, серная кислота,*

Annotation

The article highlights current issues of science, such as the development of chemical knowledge in students and the connection of chemistry with life based on the problem-based teaching of chemistry in general secondary education. Also, in order to apply problem situations in chemistry lessons, the teacher should solve the questions that cause the problem situation, determine the tasks, follow the principles of logic, consistency, and determine the tools and methods that ensure the management of students’ cognitive activities. , the ways of their proper and effective use are described in relation to problematic situations in the organization of classes of chemistry teachers.

Key words: *problem-based education, automobile gas cylinder, lighting lamps, sulfuric acid,*

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarining kimyo fanini o‘zlashtirish darajalari shu fanning mavzularini yoritishda qo‘llaniladigan metodlar, uslublar va texnologik ketma-ketliklar majmuasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Chunki ularning ayniqsa kimyo fani bo‘yicha kompetensiyalarni egallashlari uchun qiziqishlari yuqori darajada bo‘lib, oladigan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar darsni qanday olib borish, uning natijasida erishilgan ijobiy natijalar bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ta’limda yangicha yondashuvda pedagog va psixologlar muammoli o‘qitish usuliga katta qiziqish bildirmoqdalar. Bu o‘qitish usuliga ko‘ra bilimlarni o‘zlashtirish bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil amaliy va aqliy faoliyati orqali amalga oshiriladi. Muammoli ta’lim berish usulidan foydalanilganda o‘quvchilar eslab qolish uchun tayyor bilimlarni olibgina qolmay, balki, mazkur bilimlarni mustaqil ravishda egallashni ham o‘rganadilar. O‘quvchilar aqliy faoliyatning sinchkovlik bilan chiqarilgan xulosalarni isbot qila olishlik hamda ularning to‘g‘riligiga dalillar keltira bilishlik singari muhim xislatlari ham shakllanadi.

Muammoli ta’lim — talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.[1, 11]

O‘tgan asrning 60-yillarida muammoli ta’lim L.Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L. Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli o‘rganish — o‘quvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash va ularni yechish faoliyat usullarini – taxminlarni o‘rtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o‘zlashtirishi bo‘yicha ijodiy o‘quv faoliyatini maxsus tuzilishidir.[2]

Muammoli ta’lim berish usuli o‘quvchilarni darslardagi ziyrakligini faollashtirishning muhim shaklidir. Uning asosiy elementlari muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, ularni yuzaga keltirish usullarini izlash, muammoni hal etish jarayoni va xulosalarning to‘g‘riligini amaliy jihatdan tekshirish. O‘quvchilarning oldiga ularda qiziqish va uni hal etishga havas uyg‘otadigan vazifa qo‘yiladi, biroq ularning bilim va tajribalari yetarlicha emasligi ma’lum bo‘ladi. O‘quvchilar vujudga kelgan vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashga bo‘lgan ichki ehtiyojini his etadilar. Mavjud muammo ahvolni tahlil qilishga, izlanishga undaydi. Bilishga oid yoki amaliy vazifa bilan jadal fikrlash faoliyatiga sabab bo‘luvchi o‘quvchilarning bilim darajasi o‘rtasida qarama-qarshilik vujudga keladi.[5, 67]

Muammoli o‘qitish ayniqsa kimyo faniga juda qo‘l keladi. Sababi bir kundalik turmushda kimyoviy jarayonlarga juda ko‘p duch kelamiz biroq uning mohiyatini tushunmaymiz. Biz kimyo o‘qituvchilari shunday muammoli vaziyatlarni topib kimyo darslarida o‘quvchilar bilan birgalikda hal qilsak, o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga hamda, kimyo darslari samaradorligini oshirishga erishamiz.

“Siqilgan gazda ishlaydigan gaz ballonli uskunalar”

Darsda hal qilinadigan muammo: Avtomobilda gaz ballonli uskunalarning qo‘llanishi zaruratini, ularning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tahlil qilish. Keyingi bosqich rivojlanishlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish.

Siqilgan gazda ishlaydigan gaz ballonli uskunalar avtomobilni tabiiy gazdan olinadigan propan-butan yoki metan gazlari bilan motor yonilg‘isi sifatida ta’minlash uchun xizmat qiladi. Ayniqsa bu holat hozirgi jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki avtomobilda benzinning qo‘llanilishi uning tannarxi qimmatligi, neft zaxiralarining cheklanganligi, uni qayta ishlash jarayoni murakkabligi va benzinning tarkibiga inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan tetraetil qo‘rg‘oshinning qo‘shilganligi va boshqa shu kabilar bilan izohlanadi.

Darsda muammoni shakllantirishni o‘quvchilar ishtirokida ta’kidlanadi. Buning uchun o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

– Gaz ballonli uskunalar nima uchun xizmat qiladi?

– Tabiiy gazning qo‘llanilishi xavfli emasmi?

– Gaz avtomobilning zaruriy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ta’minlab bera oladimi?

– Gaz uskunalarini avtomobilga o‘rnatish avtomobilning tannarxiga ta’sir qilmaydimi?

O‘quvchilar keltirilgan savollarga o‘zlarining bilim darajalari va hayotda ko‘rgan eshitgan fikrlari orqali javob beradi. O‘quvchi javoblarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yondash-masalar-da umumiy holda o‘z fikrlariga ega bo‘lib ularni keltiradi.[3, 78]

Yoki javobni boshqacharoq ma’noda aytsinlar. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini va bildirgan barcha fikrlarini tartibga soladi va talabalarga murojaat qilgan holda quyidagi savollar va fikrlarni keltirishi mumkin:

“Shunday qilib, sizlar qo‘yidagilarni aytdingiz…”. Agar o‘quvchilar savollarning javoblarida to‘liqlikka erishmagan bo‘lsalar, yordamchi savol berib, oydinlashtirish mumkin. Darsda umumiy muammo qo‘yiladi.

Avtomobillarda gaz ballonli uskunalarning qo‘llanilishi va uning ishlashi prinsiplari muammosini hal etish uchun nimalarni aniqlash lozim, savolga taklif mulohazalar bildirilishi mumkin, ammo muammoning to‘liq ifodalanishiga umid bog‘lash kerak emas. O‘quvchilar diqqatini jalb etgan holda o‘qituvchi muammoni ifodalab berishi lozim.

Masalan: Siqilgan gazlarda ishlaydigan avtomobillarda qo‘llaniladigan uskunalarning qo‘llanilishi, tuzilishi, xavfsiz ishlash jarayoni va unga texnik xizmat ko‘rsatishni hal etish uchun qo‘yidagi muammolarni yechish zarur:

– gazdan motor yonilg‘isi sifatida foydalanish zaruratlari;

– gaz ballonli uskunalarning avtomobillarda qo‘llanilishi imkoniyatlari;

– uskunalarning tuzilishi va uni tashkil etuvchi qismlar, ularning avtomobilda joylashuvi tartiblari;

– uskunalarning qo‘llanilishi texnik-iqtisodiy ahamiyati;

– uskunalarning xavfsiz ishlashini ta’minlash jarayonlarining tashkil etilishi;

– uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularning standart avtomobillardan farqlari va shu kabilar.

Kimyoviy “Muammoli vaziyat”. Biz bilamizki, sulfat kislota kimyo sanoatining noni hisoblanadi.Sababi barcha sun’iy mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bu sulfat kislotadir. Ilgarilari sulfat kislota kimyo sanoati ehtiyoji uchun hamma joyi yopiq temir vagonlarda tashilgan. Vagonlar uzoq vaqt ishlatilishi natijasida yaroqsiz holga kelgan (teshilgan) va bir qancha vaqt davomida ishlatilmay qolgan. Vagonni ta’mirlash uchun payvandlovchi uni payvandlamoqchi bo‘lganda birdan vagon portlab ketgan. Usta buning sababini tushunmay, sizdan maslahat so‘raganda siz bu holatni qanday izohlagan bo‘lardingiz?

Eslatma: O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoning kelib chiqish sabablariga e’tiborli bo‘lish, ya’ni konsentrlangan sulfat kislotaning va temirning fizik-kimyoviy xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanishlari kerakligi orqali o‘quvchilarni yo‘naltiruvchi, yodga soluvchi va ma’lumot beruvchi savollar orqali masalani hal etishga yo‘llaydi.

Barcha o‘quvchining fikri eshitiladi. Dars oxirida o‘qituvchi to‘g‘ri javobni e’lon qiladi: Odatda konsentrlangan sulfat kislota temir bilan reaksiyaga kirishmaydi shuning uchun temir vagonda tashiladi. Lekin bir qancha vaqt mobaynida ishlatilmagan vagonning teshilgan joyidan unga qor va yomg‘ir suvlari kiradi va idishda qolgan sulfat kislotani suyultiradi.Natijada suyultirilgan sulfat kislota bilan temir reaksiyaga kirishib vodorod gazini chiqaradi.Vodorod uchqun ta’sirida portlab ketadi.

“Muammoli vaziyat”. XIX asrning birinchi yarmida London ko‘chalarini yoritish uchun toshko‘mirdan foydalanilgan. Havo soviganda chiroqlar xiralashib qolgan. Buning sababini aniqlash uchun M.Faradeyga murojaat qilishgan. M.Faradey buning sababini tezda aniqlab aytdi. Siz ham o‘ylab ko‘ring va javobni muhokama qiling?

Eslatma: O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoning kelib chiqish sabablariga e’tiborli bo‘lish, ya’ni toshko‘mirning fizik-kimyoviy xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanishlari kerakligi orqali o‘quvchilarni yo‘naltiruvchi, yodga soluvchi va ma’lumot beruvchi savollar orqali masalani hal etishga yo‘llaydi.

Barcha o‘quvchining fikri eshitiladi. Dars oxirida o‘qituvchi to‘g‘ri javobni e’lon qiladi: XIX asrning birinchi yarmida London ko‘chalarini yoritish uchun toshko‘mirni quruq haydashdan hosil bo‘lgan smoladan foydalanilgan. Havo soviganda chiroqlar xiralashgan. Sababini aniqlash uchun M.Faradeyga murojaat qilishgan. U toshko‘mir smolasidan +5,6^{0}C da muzlaydigan yonuvchi komponent-benzolni topgan. Yoritgichlar quvvati benzolning agregat holatiga bog‘liqligi toshko‘mirning eng yorug‘ va “oqishi” samarasini belgilagan.

Darsni muammoli vaziyat bilan boshlash:

Napoleon Bonapart o‘limidan so‘ng uning yaqinlari Bonapart oshpazlarini sudga berdilar Ularning da’vosi — Napoleon o‘z ajali bilan o‘lmagan, o‘ldirilgan. O‘ldirilganda ham zaharlab o‘ldirilgan.Unga ta’msiz zahar oz-ozdan berilgan. Napoleon o‘limidan taxminan 150-yil o‘tgach, bu da’vo o‘z isbotini topdi. Imperator soch tolasidan uning o‘limiga sabab bo‘lgan hidsiz, mazasiz zahar topildi. Uning miqdori inson soch tolasida bo‘lishi mumkin miqdoridan ko‘p edi. [4,291]

Napoleon o‘limiga sabab bo‘lgan zahar nima? Soch tarkibida qanday elementlar bor?

Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlaymizki, yuqorida keltirilgan innovatsiyalardan foydalangan holda kimyo ta’limini tashkillashtirilsa, o‘quvchilar fanga qiziqish bilan yondashadilar, hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga qiziqtirish juda qiyin ayniqsa kimyo faniga o‘quvchilarni qiziqtirish kimyo ta’limi oldidagi muammo hisoblanadi.Darslarni hayotiy vaziyatlar bilan tashkil qilsak ushbu muammoni hal qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ixtiyarova G, Bekchanov D, Ahadov M. // Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – Universitet nashriyoti, 2019. – 185 b.
2. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash”. – T.: “Sharq”, 2019. – 4-9-b.
3. Ahadov M.Sh. Kimyo ta’limidagi uzviylik va uzluksizlikni takomillashtirish metodikasi. Monografiya. – T.: “Imperss Media” 2023. – 207 b.
4. Ahadov M.Sh. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. Darslik. – Navoiy: “Navoiy” nashriyoti, 2022. – 350 b.
5. M.Primqulov, R.Ziyayev, B.Akbarov, U.Haydarov “Biz bilgan va bilmagan kimyo”. – T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 103 b.
6. N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik”. – T.: O‘zMU, 2016. – 215 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIK LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Dilshod Haydarov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., PhD
Mirjalol Haydarov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligini takomillashtirish zarurati va bu bo‘yicha takliflar berilgan. Texnologik jarayonlarni ajratish va abstraksiyalashda berilgan tamoyillar haqida qayd etilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligini takomillashtirishda talaba shaxsining ma’naviy-bilim orttirish va qadriyatlarga oid faolligiga e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, talabalarda ijodiy, evristik tafakkur shakllanishiga ko‘maklashadigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ham ajratib ko‘rsatish lozim

Kalit so‘zlar: *texnologiya, integratsiya, loyiha, kompetentlik, talaba, faollik, qadriyat, kompetensiya, faoliyat.*

Аннотация

В данной статье приведены необходимость совершенствования комплексной технологической конструкторской компетентности будущих учителей начальной школы и даны предложения. Отмечается принцип разделения и абстракции технологических процессов. В совершенствовании комплексной технологической конструкторской компетентности будущих учителей начальной школы уделяется внимание активности личности учащегося в приобретении духовных знаний и ценностей. Кроме того, необходимо выделить психолого-педагогические условия, способствующие формированию творческого, эвристического мышления у студентов.

Ключевые слова: *технология, интеграция, проект, компетентность, студент, активность, ценность, компетентность, активность.*

Annotation

In this article, the need to improve the integrated technological design competence of future elementary school teachers and suggestions are given. It is noted about the principles given in separation and abstraction of technological processes. In improving the integrated technological design competence of the future elementary school teachers, attention is paid to the activity of the student’s personality in the acquisition of spiritual knowledge and values. In addition, it is necessary to highlight the psychological and pedagogical conditions that contribute to the formation of creative, heuristic thinking in students.

Keywords: *technology, integration, project, competence, student, activity, value, competence, activity*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda texnologik loyihalash kompetentligi rivojlanayotgan ta’lim paradigmasi uzviylik va uzliksizlikni OTMlari bakalavrlarning malaka talablari, davlat ta’lim standartlaridan kelib chiqadigan talablar asosida fan mazmunini tanlashda nisbatan umumlashgan didaktik talablarga asoslanishi kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligi olamini

yaxlit texnologik jarayonlarni ajratish va abstraksiyalash orqali professional bilim, malaka va ko‘nikmalarini produktiv hamda reproduktiv faoliyatga tajribasini tashkil etish asosida faollashtirishni nazarda tutadi.

V.M.Kazakevichning fikriga ko‘ra, texnologik jarayonlarni ajratish va abstraksiyalashda quyida berilgan tamoyillar asosida bajarilishi lozim:

– bajariladigan texnologik jarayonlar ta’lim muassasasi sanitariyasi va gigiyenasi talablariga javob berishi kerak;

– vosita-texnologik jarayonlar hozirgi davr ta’lim muassasasining moddiy-texnikaviy imkoniyatlari bilan ta’minlangan bo‘lishi hamda ko‘p qo‘shimcha jihozlarni talab qilmasligi zarur;

– texnologik jarayonlar amaliy yo‘nalganlikka ega bo‘lishi, o‘quvchilar atrof-muhitda jismlar iste’mol qiymatlarini yaratishlarini yoki qayta tiklashlarini ta’minlashi lozim;

– o‘rganiladigan texnologiyalar ma’lum yoshdagi o‘quvchilar rivojlanishiga intellektual va funksional jihatdan ta’sirchan bo‘lishi kerak.[1, 144-145]

Texnologik jarayonlarni ajratish va abstraksiyalash inson faoliyatining beshta asosiy sohasini ifodalashi lozim: inson — texnika, inson — inson, inson — belgilar tizimi, inson — tabiat, inson — badiiy timsol.

Integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligi olamini yaxlit texnologik jarayonlar orqali texnologik madaniyat, texnologik loyihalash mahoratlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonlarni integrativ pedagogik loyihalashtiradi.

Texnologik ta’limning ijodiy mustaqillikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlovchi mazmunini loyihalashtirish — bo‘lajak mutaxassislarning umummilliy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligini yangilash va kuchaytirishning strategik yo‘nalishi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining texnologik loyihalash kompetentligi, oliy ta’lim malaka talabiga muvofiq vazifalarni o‘z ichiga oladi: bitiruvchining o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasini o‘qitiladigan fan xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishga, shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirishga tayyorligi; turli xil o‘qitish usullari, uslublari va vositalaridan foydalanishga; talabalarning malaka talablariga mos keluvchi darajasini ta’minlashga, o‘zining kasbiy malakasini tizimli ravishda oshirishga tayyorligi. [2, 92]

Bitiruvchi kurs talabalaridan pedagogika – psixologiyaga oid bilishlarni bilish talab etiladi. Texnologiya fanini metodlarini; yangi dastur va fanga tegishli zamonaviy darsliklarni; o‘quv xonalariga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda ta’minlashni; mehnat muhofazasining qoidalari hamda xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilishlari shart.

Pedagogik didaktikada texnologiya fanining ta’lim mazmuniga tizimli yondashuvlar turli xilda mavjud. Hozirgi kunda dars jarayonlarida ta’lim mazmuni deganda quyidagilar tushuniladi:

– pedagogik jihatdan moslashtirilgan fanlarning asoslari;

– olamga nisbatan hissiy-irodaviy hamda ijodiy faoliyatning asosida bilimlari va ko‘nikmalari, hayotiy tajribalari;

– pedagogik jihatdan insonning moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi. [3, 11]

Har bir fanning ta’lim mazmuni faqatgina o‘quv fanlariga tegishli bo‘lgan bilimlar hamda ko‘nikmalar ro‘yxatidangina iborat bo‘lishi mumkin emas. Pedagogik-ijtimoiy tadqiqotlar yuqoridagilar bilan birga quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

1) bilim orttirish faoliyatining natijalari — bilimlar shaklida mustahkamlangan tajribasi;

2) reproduktiv faoliyatning uni amalga oshirish usullari (malakalar va ko‘nikmalar) shaklida mustahkamlangan tajribasi;

3) ijodiy faoliyatning muammoli vaziyatlar, bilim orttirish masalalari va h.k. shaklida mustahkamlangan tajribasi;

4) emotsional-qadriyat munosabatlarini amalga oshirish tajribasi. [3, 45]

Mazmunni tanlash uchun asos sifatida mazmunni tuzishga nisbatan yondashuvni belgilab beruvchi umumiy tamoyillar xizmat qiladi:

– mazmunning zamonaviy ilm-fan darajasiga mosligi;

– ushbu mazmun yordamida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyati;

– ma’naviy va estetik qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyati;

– kreativ shaxsni shakllantirish;

– politexnikaviy tamoyilga rioya qilish;

– mazmun vositalari bilan turli xususiyatlarga ega mehnatga hozirlikni ta’minlash;

– barkamol shaxsni shakllantirish.

Shunday qilib, o‘qituvchining texnologik loyihalash kompetensiyasini ancha kengroq o‘rganadi. Bu loyihalash mazmuni o‘zida qadriyatlar hamda umuminsoniy g‘oyalarni shaxsning gumanistik intilishlari va xislatlari, bilishning universal usullari va pedagogik faoliyatning gumanistik texnologiyalari majmuini to‘plab, talaba shaxsining ma’naviy-bilim orttirish va qadriyatlarga oid faolligiga, uning ijtimoiy amallarga qodirligini kuchaytirishga, mohir pedagogning yaxlit shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu kasb bilan bog‘liq bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar yig‘indisidangina iborat emas, balki ijodiy faoliyat tajribasi va pedagogik voqelikka nisbatan sabab-qadriyatga oid munosabat tajribasi ham uning uyg‘un tarkibiy qismlari sanaladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligini takomillashtirishda talaba shaxsining ma’naviy-bilim orttirish va qadriyatlarga oid faolligiga, uning ijtimoiy amallarga qodirligini kuchaytirishga, mohir pedagogning yaxlit shaxsini shakllantirishga yo‘naltirish asoslanadi. Qadriyat tushunchasiga bir qator ta’riflar keltirilgan.

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”. [4, 8]

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha.

“Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”. [4, 9]

“Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”.

O‘qituvchilik kasbining shakllanishi davomida pedagogik mahorati takomillashib boradi. U turli psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o‘z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo‘llashga majbur etadi. Shuningdek, ziddiyatlarga nisbatan ta’sirchanlikni aniqlash va ularni maqsadga qaratilgan holda ifodalash mahoratini shakllantirishga ustuvorlik berishni talab qiladi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligini takomillashtirishda talaba shaxsining ma’naviy-bilim orttirish va qadriyatlarga oid faolligiga, uning ijtimoiy amallarga qodirligini kuchaytirishga, mohir pedagogning yaxlit shaxsini shakllantirish muhim.

Loyihalash kompetensiyasini rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, muammoni qo‘yish, axborotlarni to‘plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish, ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlantirishga yordam beradi. [3, 67]

Loyihalash kompetensiyasidan kuzatilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o‘quv fanlarini o‘rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni tushunish va qo‘llay olishdan iborat.

Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

– rejalashtirishga o‘rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

– axborot materiallarini qayta ishlash va saqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim;

– olgan bilimlarini tahlil qilish hamda taqqoslay olish ko‘nikmasi;

– yozma hisobot yoza bilishi;

– ishga ijobiy pedagogik munosabatda bo‘la olishini shakllantirish.

Shuningdek, talabalarda ijodiy, evristik tafakkur shakllanishiga ko‘maklashadigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ham ajratib ko‘rsatish lozim:

1) talabalar egallangan tarqoq xoldagi bilimlarini emas, balki ularning globallashgan zamonga mos amaliy hamda ilmiy bilimlarni o‘zida aks ettiradigan, amaliy jarayonlarni jamlagan bilimlarni o‘zlashtiradilar;

2) o‘zlashtirilgan tizimlar doimiy harakatda, boshqa tizimlar bilan bog‘lanishli munosabatda bo‘ladi, bilish vazifalariga va bilimlarni qo‘llash aniq sharoitlariga mos ravishda qayta tuziladi. Bunda o‘zlari egallagan bilimlarini hayot sharoitlariga keng ko‘chirish va amaliyotdan o‘tkazish yuz beradi;

3) talabalar faqat bilimlarni emas, bu bilimlardan foydalanish va yangilarini olish usullarini ham o‘zlashtiradilar. [5, 28-29]

Insonning kreativlik faoliyati ikki xil turdagi bilimlar asosida amalga oshiriladi: atrofdagi borliq haqidagi bilimlar (obyekt haqidagi bilimlar) va undagi faoliyat haqidagi, faoliyatning maqsadlari, jarayoni, usullari, vositalari va sharoitlari haqidagi bilimlar.

Birinchi, masalan, fizika, kimyo qonuniyatlari, mashinalar, qurilmalar tuzilishi va ishlash prinsiplari, materiallarning xossalari va boshqalar haqidagi bilimlar kiradi.

Ikkinchi turdagi bilimlar qatoriga texnologiyalarni, harakatlar va amallarni bajarish qoidalarini, xavfsizlik, hayot faoliyati qoidalarini va h.k. kiritish kerak. Bu bilimlarga didaktikada ham uzoq vaqt davomida yetarlicha e’tibor qaratilmadi. [5, 27]

Mehnat qilish va boshqa malakalarni bunday bilimlarsiz shakllantirish mumkin bo‘lmaganligi sababli, bu malakalar o‘quvchilarda, talabalarda amaliy (mehnat, ishlab chiqarish va h.k.) o‘qish jarayonida, o‘quvchilar o‘quv-amaliy ishlarni bajarishi davomida yo‘riq berish paytida, mehnat amallarini bajarishni namoyish qilish jarayonida va h.k. shakllantirilgan. Bunda harakatlar haqidagi bilimlar, odatda, nazariy darajasida emas, faqat aniq tasavvurlar darajasidagina shakllantirilgan.

Shu bilan birga, bu yerda o‘quvchilarda, talabalarda harakatlar va umuman faoliyat haqida yanada yuksakroq darajalarda umumlashgan bilimlarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bunday bilimlarga quyidagilarni kiritish mumkin: umuman texnologiyaning va u yoki bu ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy tamoyillari, faoliyat va harakatlar mazmuni va ketma-ketligini tuzishning umumiy psixologik algoritmlari va h.k.

Bizning fikrimizcha, texnologiyaning muhim xususiyati umumlashgan texnologik bilim va mahoratlarni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun maktab o‘quvchilarining ham, talabalarning ham texnologik loyihalash kompetentligi mazmunini texnologik bilim va mahoratlar umumlashuvi darajasini oshirish asosida qurish maqsadga muvofiqdir. Biz bu xulosaga oliy ta’lim muassasasidagi shaxsiy ish tajribamiz va texnologik sohasidagi yuqorida tilga olingan tadqiqotlarning tahlili asosida keldik. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalari texnologik loyihalash kompetentligining mazmuni maktab o‘quvchilari texnologik loyihalashning mazmuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Казакевич В.М., Марченко А.В. Оценка качества подготовки выпускников основной школы по технологии. – М.: Дрофа, 2000. – 256 с.
2. Холиқов А. Педагогнк маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisodmoliya” нашриёти, 2010. – 312 б.
3. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения. – М., 2006. – 72 с.
4. Farmonova M. Qadriyatlar — ma’naviy kamolot asosi / Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019. – 36 b.
5. Haydarov D.Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlari orqali dizaynerlik mahoratini tarkib toptirish usullari // “Yosh olimlar” respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. – Termiz, 2017. – 26-30-b.

PEDAGOGLAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KOMMUNIKATIV TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

O‘g‘ilshod Toshboyeva,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchida hissiy intellektning mavjudligi va rivojlanishi zarurati o‘zini o‘zi amalga oshirish va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Emotsional intellektning beshta asosiy komponenti ko‘rsatilgan. Shuningdek, ushbu tendensiya jamiyatning zamonaviy, postindustrial rivojlanishida, xususan, oliy ta’lim sohasida ayniqsa yaxshi kuzatilganligi ko‘rsatilgan. O‘qituvchining hissiy intellekti o‘qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish omili, pedagogika universitetida talabalarning ijtimoiy moslashuvi sharti, oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish hamda universitet muhitida hissiy intellektni shakllantirishning ijobiy amaliyotlari tahlil qilinib, bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish yo‘llari va xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *hissiy intellekt, zamonaviy o‘qituvchi, pedagogik mahorat, emotsional intellekt, samaradorlik, komponentlar, kompetensiya, oliy ta’lim.*

Аннотация

В статье рассматривается необходимость наличия и развития эмоционального интеллекта у педагога как один из основных факторов самореализации и успеха в профессиональной деятельности. Показаны пять основных компонентов эмоционального интеллекта. Также было показано, что эта тенденция особенно хорошо наблюдается в современном постиндустриальном развитии общества, особенно в сфере высшего образования. Эмоциональный интеллект учителя анализируется как фактор совершенствования системы подготовки учителей, условие социальной адаптации студентов в педагогическом университете, повышение качества образования в высшем образовании и позитивные практики формирования эмоционального интеллекта в университетской среде, выявляются пути и особенности развития эмоционального интеллекта будущих учителей.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, современный учитель, педагогическое мастерство, эмоциональный интеллект, эффективность, компоненты, компетентность, высшее образование.*

Annotation

The article considers the need for the presence and development of emotional intelligence in the teacher as one of the main factors of self-realization and success in professional activities. Five main components of emotional intelligence are shown. The trend has also been shown to be particularly well observed in the modern, postindustrial development of society, particularly in higher education. The emotional intelligence of the teacher is analyzed the factor of improving the teacher training system, the condition of the social adaptation of students at the Pedagogical University, the quality of education in higher education and the positive practices of the formation of emotional intelligence in the university environment, and the ways and features of the development of emotional intelligence of future teachers are revealed.

Keywords: *emotional intelligence, modern teacher, pedagogical skills, emotional intelligence, efficiency, components, competence, higher education.*

Mustaqil O‘zbekistonimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uni kuchi, idroki, salohiyati, psixologik va ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, sivilizatsiya va rivojlanish bilan uzviy bog‘ladi. Bundan esa har bir shaxsning o‘zmukammalligi, o‘zini

bilishi, boshqalarni anglashi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganidek, “Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”, – deb ta’kidladilar [1, 4].

Insonning hissiy emotsional intellektini o‘rganish mahalliy va jahon psixologiyasi va pedagogikasida nisbatan qisqa tarixga ega. Ushbu tadqiqot sohasida tasniflangan ko‘pgina muammolarning rivojlanish tarixi bir o‘n yildan sal ko‘proq vaqtga to‘g‘ri keladi . Biroq, so‘nggi paytlarda bunday mavzular sezilarli darajada dolzarb bo‘lib qoldi. Zamonaviy jamiyat o‘z a’zolariga quyidagi talablarni qo‘yganligini hisobga olsak, bu tendensiya ajablanarli emas:

– o‘z harakatlari va qarorlari uchun mas’uliyatni oshirish;

– jamiyatning boshqa a’zolari bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida tashabbus ko‘rsatish.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, jamiyatning shaxsga uning rivojlanishining hozirgi bosqichida qo‘yiladigan yana bir muhim talabi. Bu shuni anglatadiki, ikkinchisi jamiyatning boshqa a’zolarining huquq va erkinliklarini buzmasdan, ko‘zlangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish uchun o‘zining rivojlanish ehtiyojlarini maksimal darajada anglashi kerak. O‘z navbatida, bunday xatti-harakatlar zamonaviy odamning boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati bilan bog‘liq va shuning uchun o‘z hissiy tajribalarini tahlil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy jamiyatning, shu jumladan pedagog shaxsga qo‘yadigan asosiy talablaridan biri bu shakllangan hissiy emotsional intellektning mavjudligidir [7, 10].

Ushbu mavzu rivojlanishining hozirgi bosqichida hissiy intellektni shaxsiy his-tuyg‘ularni va boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish, shuningdek ularni boshqarish uchun mas’ul bo‘lgan intellekt turi sifatida ta’riflash mumkin [4, 46].

Bu muallifning ta’kidlashicha, hissiy qobiliyatlar tug‘ma iste’dodlar emas, balki inson hayoti davomida o‘rganishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalardir. Shunday qilib, ma’lum darajada ishonch bilan aytishimiz mumkinki, hissiy qobiliyatlar zamonaviy mutaxassis, xususan, o‘qituvchi amaliyot orqali maqsadli ravishda rivojlantira oladigan fazilatlardir. Hissiy intellekt besh sohaga bo‘lingan tuzilma sifatida tavsiflangan.

Bir qator xorijiy mualliflarning ta’kidlashicha, kasbiy faoliyatni amalga oshirishda hissiy intellektning yetarli darajada rivojlanishi mutaxassisga uchta muhim natijaga erishishga imkon beradi:

1. Yuqori mahsuldorlik.
2. Ajoyib yetakchilik fazilatlari.
3. Baxt uchun sharoit yarata olish.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, biz o‘qituvchida rivojlangan hissiy intellektning mavjudligi zamonaviy oliy ta’limni muvaffaqiyatli modernizatsiya qilishning muhim shartlaridan biri ekanligini ta’kidlashimiz mumkin. Masalan, yuqoridagi natijalarning birinchisiga — o‘qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, yuqori sifatli pedagogik faoliyatga erishish uchun hissiy qobiliyatlar ba’zi hollarda bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalardan kam emas. va o‘qituvchilik kasbiga bevosita bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar [8, 53]. Rivojlangan hissiy intellekt, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qituvchida yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga ham hissa qo‘shishi mumkin.

O‘qituvchining hissiy intellektini rivojlantirish uning hissiy madaniyati bilan bog‘liq. Ikkinchisi uning hissiy yetukligini, shuningdek, uning imijiga ta’sir qiladigan kasbiy mahorat darajasini aks ettiradi. Keyinchalik ma’lumki, o‘qituvchilik kasbi ta’lim tizimidagi o‘rni jihatidan o‘zgartiruvchi va boshqaruvchidir [8, 69].

Talabalar shaxsini rivojlantirishni samarali boshqarish uchun tegishli kompetensiyaga ega bo‘lish kerak. Shu sababli, ta’lim va tarbiyaga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga muvofiq, o‘qituvchilarning hissiy madaniyatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qituvchining hissiy madaniyati rivojlanishining eng muhim ko‘rsatkichi quyidagi fazilatlarning yuqori darajada rivojlanishi hisoblanadi:

– hamdardlik;

– hissiy barqarorlik;

– hissiy moslashuvchanlik.

O‘z navbatida, hissiy barqarorlik — bu shaxsning noqulay omillarga qarshi turish qobiliyati, hissiy qo‘zg‘alish holatini bartaraf etish va stressli vaziyatni boshdan kechirgandan so‘ng tezda ruhiy muvozanat holatiga qaytish. Bu so‘nggi fazilat zamonaviy o‘qituvchining normal ish faoliyatini ta’minlash va uning ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali o‘zaro munosabatlarini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Hissiy moslashuvchanlik o‘qituvchining o‘quvchilarning tajribasini to‘g‘ri tushunish, samimiy qabul qilish, ularga nisbatan iliqlik va ishtirok etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Empatiya boshqa odamning hissiy holatini aks ettirish va tushunishni, boshqalarga nisbatan hamdardlik yoki hamdardlik va faol yordam berish xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi. U aqlga, hissiy sezgirlikka va atrof-muhitni oqilona idrok etishga asoslanadi [9, 24].

Yangi psixologik, pedagogik va ta’lim standartlari zamonaviy o‘qituvchidan o‘quvchilarning o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va shaxsiy va ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash uchun aniqlanishi kerak bo‘lgan individual xususiyatlarini aniq aniqlashni talab qiladi. Ko‘pincha o‘qituvchilar intuitiv ravishda (o‘z tajribasi, fikrlash qobiliyatlari va tug‘ma hissiy-psixologik yo‘nalishlari asosida) o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlaydilar. Ushbu diagnos-

tika usuli materialni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolardan qochishga yordam beradi, lekin o‘quvchiga o‘z ta’lim strategiyalari va faoliyat usullarini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkon bermaydi. Bunday holda, o‘qituvchining “hissiy intellekti” haqida gapirish o‘rinlidir, bu ilmiy jamiyatda o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini tan olish va olingan ma’lumotlardan xatti-harakatlarni tartibga solish, fikrlash va nazorat qilish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi. hissiy soha. O‘qituvchining “hissiy intellekt” fenomenini o‘rganishning dolzarbligi kognitiv va ta’sirchan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga mahalliy va xorijiy kognitiv olimlarning qiziqishi ortishi bilan asoslanadi. o‘qituvchi talabalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan taqdirdagina mumkin bo‘lgan o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Olimlar hissiy intellektni insonning ijtimoiy intellektning bir qismi sifatida qabul qilishdi, bu uning muloqot qilish va ijtimoiy aloqa qilish qobiliyatini belgilaydi. Biroq insonning hissiy sohasini chuqur o‘rganish ancha oldinroq — 1986-yilda Ueyn Peyn tomonidan “Tuyg‘uni o‘rganish: hissiy intellektni rivojlantirish” nashri bilan boshlangan, u hissiy intellektni emotsionallik koeffitsiyenti yordamida sinab ko‘rishni taklif qilgan. Shu bilan birga, emotsionallikni aniqlash ko‘p jihatdan insonning aql-zakovatini tashxislash bilan o‘xshash edi [7, 38].

Hozirgi vaqtda Daniel Goleman va Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan taklif qilingan hissiy intellektning ikkita qabul qilingan modeli mavjud. Birinchi model hissiy intellektni tizimli ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa ushbu hodisaning protsessual tomonini ko‘rib chiqishga qaratilgan. D.Goleman modeli emotsional intellektning besh komponentini o‘z ichiga oladi, xususan:

1) o‘z his-tuyg‘ularini tushunish yoki anglash;

2) his-tuyg‘ularingizni boshqarish;

3) o‘z-o‘zini rag‘batlantirish;

4) boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish yoki anglash;

5) munosabatlarni boshqarish (ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish) [4, 315].

Jarayon modeli hissiy intellektning to‘rt jihatini, shu jumladan tegishli ijtimoiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: his-tuyg‘ularni farqlash, mavjud his-tuyg‘ularni anglash, hissiy sohani boshqarish, olingan bilimlardan foydalanish demakdir.

Demak, o‘qituvchining hissiy intellekti moslashish tizimining elementi bo‘lib, o‘qituvchi uchun asosiy moslashish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi: ya’ni vaziyatga qarab harakat qilish va ushbu vaziyatga adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyatini nazarda tutadi. O‘qituvchining hissiy aqli kontekstida uning ziddiyatga chidamliligi bilan bog‘liqligini ta’kidlash kerak. Shunday qilib, A.A. Bochaver zamonaviy o‘smirlarning axloqiy ko‘rsatmalarining o‘zgarishi va ularning keksa o‘qituvchilarning mafkuraviy tizimlariga zidligi tufayli maktablarda ziddiyatli vaziyatlarning ko‘payishini ta’kidlaydi. Bitta ziddiyatli vaziyatni ijobiy hal qilishni kafolatlaydigan o‘qituvchining xatti-harakati boshqa ziddiyatli vaziyatlarda har doim ham mos kelmaydi. O‘qituvchi uchun moslashuvchan psixikaga va rivojlangan hissiy intellektga ega bo‘lishi juda muhim, bu murakkab muloqot holatlariga yechim topishga yordam beradi. Biroq kasbiy tajriba ortib borishi bilan, bu ko‘nikma ko‘pincha deformatsiyalanadi va natijada pedagogik vaziyatlarni hal qilish uchun stereotip usullardan foydalanadigan o‘qituvchilar tomonidan butunlay xiralashadi [2, 151].

O‘qituvchining hissiy intellektining rivojlanmaganligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga nisbatan tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishiga yordam beradi. O‘qituvchining tajovuzkorligi o‘smirlarda psixologik travma yaratadigan psixologik zo‘ravonlik turlaridan biridir. O‘qituvchining tajovuzkor xatti-harakati qurboniga aylangan bolalar tajovuzkorlikning kuchayishi, o‘ta aybdorlik hissi, tengdoshlariga nisbatan o‘zini past baholash va kamdan-kam hollarda avtotajovuz shaklida namoyon bo‘ladigan o‘z joniga qasd qilish tendensiyalari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, o‘qituvchining tajovuzkorligi muammosi, o‘qituvchining o‘rnak bo‘lib, maktab jamoasini o‘qituvchi tomonidan zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan sinfdoshini bezorilikka qo‘zg‘atishi bilan yanada og‘irlashadi.

Maktab o‘quvchilarining tajovuzkor xatti-harakatlarini tahlil qilib, o‘qituvchining yoshi uning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatiga ta’sir etmaydi, balki hal qiluvchi omil uning jinsi va ish tajribasidir, degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, maktablarda uzoq vaqt ishlagan va katta pedagogik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlarini rad etishlari bilan ajralib turadi, yosh o‘qituvchilar esa o‘smirlarning ijodiy ko‘rinishlariga yuqori sodiqliklari bilan ajralib turadi [3, 78].

O‘qituvchining rivojlangan hissiy intellekti, aksincha, unga doimiy o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit sharoitida o‘zini barqaror va qulay his qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, rivojlangan hissiy intellekt yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir pedagogik ta’sirning muvaffaqiyatini bashorat qilishi va talabalar bilan etarli darajada aloqa chegaralarini qurishi mumkin, bu esa o‘quvchilar bilan haddan tashqari aralashmaslik, shuningdek, haddan tashqari sovuqqonlikdan qochish imkonini beradi [6, 109].

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining hissiy intellekti ko‘p jihatdan uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, shuningdek, ta’lim muammolarini hal qilish imkonini beradigan ma’lumotlarni mustaqil ravishda izlash qobiliyatini ta’minlaydi. Aytish mumkinki, o‘qituvchining hissiy intellekti, his-tuyg‘ularini tan olish, o‘quvchilarning ruhiy holati va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati o‘quvchilarning bilish faolligini rag‘batlantiradi va ta’lim

faoliyati uchun motivatsiya hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining hissiy reaksiyalari uning oqilona reaksiyalaridan oldin bo‘ladi, bu esa o‘qituvchining intellektual sohasi bilan birga hissiy sohasini rivojlantirishning katta ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi. Masalan, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchidan o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatishni talab qiladigan vaziyatlar yuzaga keladi: o‘quvchilar tengdoshlari tomonidan zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlikka jalb qilinganda, oilada noqulay hissiy muhit mavjud bo‘lganda yoki unga qarshi salbiy his-tuyg‘ular paydo bo‘lganda bolaning umumiy faoliyatining pasayishi foni yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar o‘qituvchilarning hissiy intellektini rivojlantirish, o‘qituvchilar va o‘smirlarning asabiy tarangligini kamaytirishga yordam beradigan samarali usullarni izlamoqda. O‘qituvchining hissiy intellektini rivojlantirishning asosiy usullariga dispozitsiyaviy yondashuvga rioya qiladigan olimlar muloqot qobiliyatlari va o‘z kasbiy mahoratiga ishonchni rivojlantirish, shuningdek, o‘quv jarayoni ishtirokchilariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini rivojlantirish zarurligi g‘oyasiga asoslanadi.

Vaqtinchalik yondashuv tarafdorlari asosiy e’tiborni o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarga o‘z vaqtida javob berish qobiliyatini rivojlantirish va yoshga bog‘liq inqiroz yoki qiyin hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirayotganda bolalarga psixologik yordamni tashkil etish zarurligiga qaratadi.

Kontekstual yondashuvning asosiy jihati shundaki, o‘qituvchilar har bir shaxsga, ularning intellektual xususiyatlaridan qat’i nazar, hurmat bilan munosabatda bo‘lish qadriyatlariga rioya qilishlari va o‘zlari talabalarga nisbatan bunday munosabat namunasi bo‘lishlari kerak [7, 64].

Shunday qilib, hissiy intellekt o‘qituvchi samaradorligining mazmunga xos jihati sifatida uning quyidagilarni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi:

1. Jamoada o‘zini o‘zi taqdim etish, bu o‘quvchilarning o‘quv jarayoni subyektlariga hurmatli munosabatda namuna sifatida hurmatli munosabatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan ma’lumotlarga (imo-ishoralar, mimikalar, bolalarning turishi) asoslangan bolaning his-tuyg‘ularini aniqlash va tanib olish, jamoada qulay psixologik muhitni ta’minlash uchun bolaning hissiy sohasini tartibga solish, ta’lim faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur. talabalar soni.

3. Bolaning hissiy beqarorligi holatlarida hissiy barqarorlik o‘quvchiga o‘z vaqtida psixologik yordam ko‘rsatishni tashkil etish va uning muammosini hal qilishga yordam beradi.

Yuqoridagi faktlar va muallifning mulohazalari o‘qituvchida mavjud pedagogik vaziyatlarga o‘z vaqtida javob berishga va talabalarning muvaffaqiyatli ta’lim faoliyatini rag‘batlantirishga imkon beruvchi o‘qituvchining moslashuvining samarali mexanizmi bo‘lgan hissiy intellektni rivojlantirish juda muhim degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz zamonaviy o‘qituvchining hissiy intellektining o‘ziga xos kompetensiyalarni o‘rgatish uchun o‘qituvchi ma’lum darajadagi hissiy intellektga erishishi kerak. O‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga qodir bo‘lgan o‘qituvchilar uchun stressli vaziyatlarda samarali bo‘lish va tashabbuskorlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish ancha osonlashadi. Ishdagi muvaffaqiyatni bashorat qilish uchun hissiy vakolatlarni shakllantirish ham zarur. O‘qituvchilarda hissiy intellektni rivojlantirish zamonaviy sharoitlarda, bu xususiyat har qanday yosh toifasidagi odamlarda rivojlanishi mumkinligini hisobga olsak, yanada muhimroq bo‘ladi. Shunday qilib, hissiy intellektni rivojlantirish orqali zamonaviy o‘qituvchi kasbiy sohada yuqori natijalarga erishishi va yuqori samarali mutaxassis bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036

2. Zununnov A. Pedagogika tarixi. – T.: “FAN”, 2010. – 300 b.

3. Галло Э., Герзон М., Kets de Vries M. Общение с трудными людьми: эмоциональный интеллект. / Перевод с английского Марии хомахидзе-Дорониной. 2-е изд. – М.: Манн, Иванов и Фербер: Harvard Business Review Press, 2021. – 149 с.

4. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. / Дэниел Гоулман; [с английского А.Р.Перевод Исаевой]. – М.: АСТ: Астрил, милиционер. 2011. – 478 с.

5. Сергиенко Е. А. Майер, П. Саловей, Д. Русская адаптация теста Карузо “Эмоциональный интеллект”. Е.А. Сергеенко, И. А. Ветрова. – М.: Sysl, 2017. – 139 с.

6. Солодкова Т.И. эмоциональный интеллект как личный ресурс преодоления синдрома выгорания у педагогов и его развитие: автореферат диссертации ... Д. В Психологии. – Иркутск, 2010. – 160 с.

7. Хлевная Е. Ежедневник. Развитие эмоционального интеллекта. Е.Хлевная, Т.Киселева. Св. – Санкт-Петербург: Peter, 2016. – 464 с.

8. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 320 b.

9. R.Movlonova.Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2018. – 380 b.

SONLI QATORLAR (MUSBAT HADLI QATORLARNING YAQINLASHISH TEOREMALARI. LEYBNIS TEOREMASI, ABSOLYUT VA SHARTLI YAQINLASHISH)

Sojida Ochilova,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Qarshi filiali o‘qituvchisi
Muzaffar Ochilov,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Qarshi filiali o‘qituvchisi
Farangiz Xuramova,
Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi
Maxsud Usmonov,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematikaning eng qiziq mavzularidan biri bo‘lgan Sonli qatorlar, (Musbat hadli qatorlarning yaqinlashish teoremalari, Leybnis teoremasi, absolyut va shartli yaqinlashish.) haqida ma’lumot berib o‘tildi va mavjud muammolarga ilmiy yondashildi. Matematik analizning ko‘p masalalarini yechishda qo‘shiluvchilar soni chekli yoki cheksiz bo‘lgan yig‘indilar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bu cheksiz qo‘shiluvchilar haqiqiy sonlardan tashqari funksiyalardan yoki vektorlardan yoki matritsalardan (yoki ma’lum bir chekli yoki cheksiz obyektlardan) iborat bo‘lgan hollarda ularning yig‘indisini topish ancha murakkab bo‘ladi. Bu hollarda qo‘yilgan masalalarni yechishda quyida biz o‘rganadigan qatorlar nazariyasi katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *qator haqida tushuncha, Qatorning yaqinlashishi va uzoqlashishi, Geometrik qatorlar, Musbat hadli qatorlar, Musbat hadli qator yaqinlashishining zaruriy sharti, Garmonik qator, Dalamber, Koshining radikal va Koshining integral alomatlari, Ishoralari almashinib keluvchi qatorlar, Leybnits alomati,Absolyut va shartli yaqinlashish.*

Annotation

In this article, one of the most interesting topics of mathematics, Numerical series, (Convergence theorems of positive series, Leibniz’s theorem, absolute and conditional convergence) was given information and a scientific approach to existing problems was given. When solving many problems of mathematical analysis, it is necessary to work with sums with a finite or infinite number of addends. When these infinite adders consist of functions other than real numbers, or vectors or matrices (or certain finite or infinite objects), finding their sum is more complicated. The theory of series, which we will study below, is of great importance in solving the problems posed in these cases.

Keywords: *Concept of series, Convergence and divergence of series, Geometric series, Positive series, Necessary condition of convergence of positive series, Harmonic series, Dalamber, Cauchy’s radical and Cauchy’s integral signs, Series with alternating signs, Leibniz’s sign, Absolute and conditional convergence.*

Аннотация

В данной статье была дана информация по одной из наиболее интересных тем математики, Числовые ряды, (Теоремы о сходимости положительных рядов, теорема Лейбница, абсолютная и условная сходимость) и дан научный подход к существующим проблемам. При решении многих задач математического анализа приходится работать с суммами с конечным или бесконечным числом слагаемых. Когда эти бесконечные сумматоры состоят из функций, отличных от действительных чисел, векторов или матриц (или определенных конечных или бесконечных объектов), найти их сумму становится сложнее. Большое значение в решении поставленных в этих случаях задач имеет теория рядов, которую мы будем изучать ниже.

Ключевые слова: *понятие ряда, Сходимость и расхождение рядов, Геометрический ряд, Положительный ряд, Необходимое условие сходимости положительного ряда, Гармонический ряд, Даламбер, Радикал Коши и знаки интеграла Коши, Ряды с чередующимися знаками, Знак Лейбница, Абсолютные и условные. конвергенция.*

Matematik analizning ko‘p masalalarini yechishda qo‘shiluvchilar soni chekli yoki cheksiz bo‘lgan yig‘indilar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Bu cheksiz qo‘shiluvchilar haqiqiy sonlardan tashqari funksiyalardan yoki vektorlardan yoki matrisalardan (yoki ma’lum bir chekli yoki cheksiz obyektlardan) iborat bo‘lgan hollarda ularning yig‘indisini topish ancha murakkab bo‘ladi. Bu hollarda qo‘yilgan masalalarni yechishda quyida biz o‘rganadigan qatorlar nazariyasi katta ahamiyatga ega [1, 282].

1-ta’rif. Agar $a_1, a_2, a_3, ..., a_n, ...$ cheksiz haqiqiy sonlar ketma-ketligi berilgan bo‘lsa, ulardan tuzilgan ushbu

$$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ... \qquad (1)$$

ifodaga cheksiz qator (qisqacha-qator) deyiladi.

Qator qisqacha $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ ko'rinishda ham yoziladi.

a_n $a_1, a_2, a_3, ..., a_n, ...$ -larga qatorning hadlari deyiladi. ga qatorning umumiy hadi yoki $n-$hadi deyiladi. Umumiy had yordamida qatorning ixtiyoriy hadini yozish mumkin.

Masalan, agar $a_n = \frac{1}{2^n}$ bo'lsa, u holda qator

$$\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+\frac{1}{8}+...+\frac{1}{2^n}+...$$

ko'rinishda bo'ladi.

Endi quyidagi yig'indilarni tuzaylik:

$$s_1 = a_1,\ s_2 = a_1 + a_2,\ s_3 = a_1 + a_2 + a_3, ...,\ s_n = a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n, ... \quad (2)$$

yig'indilarga qatorning xususiy (yoki qismiy) yig'indilari deyiladi.

2-ta'rif. Agar (1) qatorning $n-$xususiy yig'indisi s_n, $n \to \infty$ da $\lim_{n\to\infty} s_n = s$ chekli limitga ega bo'lsa, u holda (1) qatorga yaqinlashuvchi qator deyilib s ga esa uning yig'indisi deyiladi va s= $a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ... = \sum_{n=1}^{\infty} a_n$ ko'rinishda yoziladi.

3-ta'rif. Agar $n \to \infty$ da (1) qatorning $n-$ xususiy yig'indisi s_n ning limiti cheksiz bo'lsa yoki mavjud bo'lmasa, u holda (1) qator uzoqlashuvchi deyiladi.

Cheksiz qatorga misol sifatida kelajakda ko'p foydalaniladigan va o'rta maktab dasturidan ma'lum bo'lgan geometrik progressiyani ko'rib o'taylik[2, 229].

$$a + aq + aq^2 + ... + aq^{n-1} + ... \quad (3)$$

a geometrik progressiyaning (geometrik qatorning) birinchi hadi, $a \cdot q^{n-1}$ n-hadi, q esa mahraji bo'lib, birinchi n ta hadining yig'indisi $(|q| \neq 1)$ bo'lganda

$$s_n = a + aq + aq^2 + ... + aq^{n-1} = \frac{a(1-q^n)}{1-q}$$

bo'ladi.

$|q| < 1$ bo'lsa $n \to \infty$ da $q^n \to 0$ bo'lib $\lim_{n\to\infty} s_n = \lim_{n\to\infty}\left(\frac{a}{1-q} - \frac{aq^n}{1-q}\right) = \frac{a}{1-q}$ bo'ladi.

Demak (3) qator yaqinlashuvchi bo'lib yig'indisi $s = \frac{a}{1-q}$ bo'ladi.

$|q| > 1$ bo'lsa $n \to \infty$ da $q^n \to \infty$ bo'lib, (3) qator uzoqlashuvchi bo'ladi.

$q = 1$ bo'lsa, (3) qator $a + a + a + ... + a + ...$ ko'rinishda bo'lib

$s_n = a + a + a + ... + a = an$ bo'ladi.

$\lim_{n\to\infty} s_n = \lim_{n\to\infty}(an) = a\lim_{n\to\infty} n = \infty \quad (a \neq 0)$.

Demak, qator uzoqlashuvchi.

$q = -1, a \neq 0$ bo'lsa, (3) qator $a - a + a - a + ...$ ko'rinishda bo'lib,

n juft son bo'lganda s_n=0 va n toq son bo'lganda $s_n = a$ bo'ladi. Demak, $\lim_{n\to\infty} s_n$ mavjud emas va qator uzoqlashadi [7, 170].

Shunday qilib geometrik progressiya, ya'ni (3) qator faqat $|q| < 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi bo'lib, $|q| \geq 1$ bo'lganda uzoqlashuvchi bo'lar ekan.

Sonli qatorlarning ba'zi xossalari

$$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_m + a_{m+1} + ... + a_n + ... \quad (1)$$

Qatorning birinchi chekli m ta hadini tashlab yuborsak, natijada

$$a_{m+1} + a_{m+2} + ... + a_n + ... \quad (4)$$

qator hosil bo'ladi.

1-teorema. Agar (1) qator yaqinlashuvchi (uzoqlashuvchi) bo'lsa, uning istalgan chekli m sondagi hadlarini tashlab yuborishdan hosil bo'lgan (4) qator ham yaqinlashuvchi (uzoqlashuvchi) bo'ladi va aksincha (4) qator yaqinlashuvchi (uzoqlashuvchi) bo'lsa, u holda (1) qator ham yaqinlashuvchi (uzoqlashuvchi) bo'ladi [3, 174].

Isbot. (1) qatorning xususiy yig'indisi

$$s_n = (a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_m) + (a_{m+1} + a_{m+2} ... + a_n) = s_m + s_{n-m}$$

(4) qatorning xususiy yig'indisi

$$s_{n-m} = a_{m+1} + a_{m+2} ... + a_n$$

bo'lgani uchun $s_n = s_m + s_{n-m}$ dan ko'rinadiki:

a) Agar $\lim_{n\to\infty} s_n$ mavjud bo'lsa, $\lim_{n\to\infty} s_{n-m}$ ham mavjud bo'ladi, bu esa (1) qator yaqinlashuvchi bo'lsa, (4) qatorning ham yaqinlashuvchi ekanini ko'rsatadi s_m-chekli son n ga bog'liq emas).

b) Agar $\lim_{n\to\infty} s_n$ mavjud bo'lmasa yoki cheksiz bo'lsa $\lim_{n\to\infty} s_{n-m}$ ham mavjud emas yoki cheksiz bo'ladi. Bu esa (1) qator uzoqlashuvchi bo'lsa, (4) qator ham uzoqlashuvchi ekanini ko'rsatadi.

Teoremaning ikkinchi qismi ham xuddi shuningdek isbotlanadi.

2-teorema. Qator hadlariga chekli sondagi hadlar qo'shganda ham o'rinli bo'ladi.

3-Teorema. Agar

$$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ... \quad (1)$$

qator yaqinlashuvchi bo'lib, yig'indisi s bo'lsa, u holda

$$\lambda a_1 + \lambda a_2 + \lambda a_3 + ... + \lambda a_n + ... \quad (5)$$

qator ham yaqinlashuvchi bo'lib yig'indisi λs bo'ladi (λ -ixtiyoriy o'zgarmas).

Isboti. (1) Qator yaqinlashuvchi bo'lgani uchun

$$\lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n) = \lim_{n\to\infty} s_n = s$$

bo'ladi. (5) Qatorning $n-$xususiy yig'indisi

$$\lambda a_1 + \lambda a_2 + \lambda a_3 + ... + \lambda a_n$$

bo'lib, limiti esa

$$\lim_{n\to\infty}(\lambda a_1 + \lambda a_2 + \lambda a_3 + ... + \lambda a_n) = \lambda \lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n) = \lambda \lim_{n\to\infty} s_n = \lambda s$$

bundan (5) qatorning yaqinlashuvchi ekanligi kelib chiqadi.

4-teorema. Agar $a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ...$ va $b_1 + b_2 + b_3 + ... + b_n + ...$ qatorlar yaqinlashuvchi bo'lib, yig'indilari mos ravishda s' ва s'' bo'lsa

$$(a_1 + b_1) + (a_2 + b_2) + (a_3 + b_3) + ... + (a_n + b_n) + ... \quad (6)$$

qator ham yaqinlashuvchi bo'ladi va uning yig'indisi

$s = s' + s''$ bo‘ladi.

Isbot. Shartga ko‘ra

$\lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n) = \lim_{n\to\infty} s'_n = s'$

va

$\lim_{n\to\infty}(b_1 + b_2 + b_3 + ... + b_n) = \lim_{n\to\infty} s''_n = s''$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

(6) Qatorning $n-$xususiy yig‘indisini s_n desak

$s_n = (a_1 + b_1) + (a_2 + b_2) + (a_3 + b_3) + ... + (a_n + b_n)$

bo‘lib,

$\lim_{n\to\infty} s_n = \lim_{n\to\infty}(a_1 + b_1 + a_2 + b_2 + ... + a_n + b_n) =$

$= \lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n) +$

$\lim_{n\to\infty}(b_1 + b_2 + b_3 + ... + b_n) = s' + s'' = s$

Bu esa bundan (6) qatorning yaqinlashuvchi ekanligini ko‘rsatadi.

Qator yaqinlashishining zaruriy sharti

Qatorlar nazariyasining asosiy masalasi ularning yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi ekanligini ko‘rsatish.

5-Teorema. Agar $a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ...$ qator yaqinlashuvchi bo‘lsa, uning n-hadi n cheksizlikka intilganda nolga intiladi ya’ni[4, 320].

$\lim_{n\to\infty} a_n = 0$

Isboti. Teoremaning shartiga ko‘ra

$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ...$

qator yaqinlashuvchi bo‘lsa,

$\lim_{n\to\infty} s_n = \lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n) = s$

bo‘ladi. Bu holda

$\lim_{n\to\infty} s_{n-1} = \lim_{n\to\infty}(a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_{n-1}) = s$

ekanligi qatorning birinchi xossasiga ko‘ra ravshan.

$\lim_{n\to\infty}(s_n - s_{n-1}) = \lim_{n\to\infty} s_n - \lim_{n\to\infty} s_{n-1} = s - s = 0$

Ikkinchi tomondan $s_n - s_{n-1} = a_n$ bo‘lgani uchun

$\lim_{n\to\infty} a_n = \lim_{n\to\infty}(s_n - s_{n-1}) = 0$

Eslatma. Agar qator yaqinlashuvchi bo‘lsa, albatta $n\to\infty$ da uning n-hadi nolga intiladi ya’ni $a_n \to 0$ bo‘ladi. Agar $n\to\infty$ da qatorning n-hadi nolga intilmasa qator albatta uzoqlashuvchi bo‘ladi. Agar $n\to\infty$ da qatorning n-hadi nolga intilsa ya’ni $\lim_{n\to\infty} a_n = 0$ bo‘lsa, bu qatorning yaqinlashishining muqarrarligi kelib chiqmaydi. Boshqacha aytganda $\lim_{n\to\infty} a_n = 0$ dan qatorning albatta yaqinlashuvchi bo‘lishi kelib chiqmaydi u qator uzoqlashuvchi bo‘lishi ham mumkin.

Masalan. $1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \frac{1}{4} + ... + \frac{1}{n} + ...$ garmonik qator deb ataluvchi qatorning $\lim_{n\to\infty} a_n = \lim_{n\to\infty} \frac{1}{n} = 0$ bo‘lgani bilan bu qator uzoqlashuvchi. Buning uzoqlashuvchi ekanligini keyinroq Koshining integral alomati yordamida isbotlanadi[6, 151].

6-Teorema. (Koshining integral alomati). Bizga hadlari o‘smaydigan $(a_n \geq a_{n+1})$

$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n + ...$ (1)

musbat hadli qator va uzluksiz o‘smaydigan ($x \to \infty$ da $f(x) \to 0$) monoton kamayuvchi $f(x)$ funksiya berilgan bo‘lib[8, 119].

$f(1) = a_1,\ f(2) = a_2, ...,\ f(n) = a_n, ...$

bo‘lsa, u holda (1) qatorning yoki

$\sum_{n=1}^{\infty} f(n)$ (11)

qatorning yaqinlashuvchi bo‘lishi uchun

$\int_1^{\infty} f(x)dx$

xosmas integralning yaqinlashuvchi bo‘lishi zarur va kifoya.

Isbot. $\int_1^{\infty} f(x)dx$ xosmas integral yaqinlashuvchi degan so‘z $n\to\infty$ da $\int_1^{n} f(x)dx$ (12)

integralning limiti mavjud degan so‘z.

$n\to\infty$ da (12) integralning limiti mavjud degan so‘z, o‘z navbatida

$\int_1^2 f(x)dx + \int_2^3 f(x)dx + ... + \int_n^{n+1} f(x)dx + ...$ (13)

Qatorning yaqinlashishini bildiradi, chunki (12) integral (13) qator uchun n-hususiy yig‘indi ekanligini ko‘rish qiyin emas ((13) ning birinchi n-1 ta o‘adlarini qo‘shib chiqsak (12) kelib chiqadi). Shunday qilib (1) (yoki (11)) va (13) qatorlarning bir paytda yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi ekanligini ko‘rsatishimiz kerak[9, 185].

$f(x)$ funksiya o‘smaydigan monoton kamayuvchi bo‘lgani uchun har qanday $[n, n+1]$ kesmada

$f(n+1) \leq f(x) \leq f(n)$ $(n = \overline{1,\infty})$ tengsizlik o‘rinli.

Bu tengsizlikni $[n, n+1]$ da integrallasak

$$\int_n^{n+1} f(n+1)dx \leq \int_n^{n+1} f(x)dx \leq \int_n^{n+1} f(n)dx$$

$$\Rightarrow f(n+1) \leq \int_n^{n+1} f(x)dx \leq f(n) \quad (14)$$

Agar (11) qator yaqinlashuvchi bo‘lsa

$\int_n^{n+1} f(x)dx \leq f(n)$

dan ko‘rinadiki taqqoslash teoremasiga ko‘ra (13) qator yaqinlashadi.

Agar (13) qator yaqinlashuvchi bo‘lsa

$f(n+1) \leq \int_n^{n+1} f(x)dx$

dan ko‘rinadiki taqqoslash teoremasiga ko‘ra (11) yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Misol. Umumlashgan garmonik qator deb ataluvchi

$1 + \frac{1}{2^\alpha} + \frac{1}{3^\alpha} + \frac{1}{4^\alpha} + ... + \frac{1}{n^\alpha} + ...$

qatorni yaqinlashuvchanlikka tekshiring.

$a_1 = f(1) = 1, a_2 = f(2) = \frac{1}{2^\alpha}, ..., a_n = f(n) = \frac{1}{n^\alpha}, ...$

Yechish.

va $f(x) = \frac{1}{x^p}$ ekanligi

ravshan, bu yerda r-haqiqiy son.

Ushbu

$$\int_1^{\infty}\frac{1}{\tilde{o}^{\eth}}\,\text{d}\tilde{o}=\left.\frac{\tilde{o}^{-\eth+1}}{-\eth+1}\right|_1^{\infty}=\frac{1}{1-\eth}\lim_{n\to\infty}\tilde{o}^{-\eth+1}\Big|_1^{\infty}=\frac{1}{1-\eth}\lim_{n\to\infty}(n^{1-p}-1)\quad(p\neq 1)$$

xosmas integralni hisoblaymiz.

Agar r>1 bo‘lsa, u holda $\lim_{n\to\infty}n^{1-p}=0$ va $\int_1^{\infty}\frac{1}{\tilde{o}^{\eth}}\,\text{d}\tilde{o}=\frac{1}{1-\eth}$ yaqinlashuvchi;

Agar r<1 bo‘lsa, u holda $\lim_{n\to\infty}n^{1-p}=\infty$ va $\int_1^{\infty}\frac{1}{\tilde{o}^{\eth}}\,\text{d}\tilde{o}$ uzoqlashuvchi;

Agar r=1 bo‘lsa, u holda $\int_1^{\infty}\frac{1}{\tilde{o}}\,\text{d}\tilde{o}=\text{h}\,x\Big|_1^{\infty}=\infty$ uzoqlashuvchi.

Shu sababli umumlashgan garmonik qator

r>1 bo‘lsa yaqinlashuvchi,

r<1 bo‘lsa uzoqlashuvchi va

r=1 bo‘lsa uzoqlashuvchi bo‘ladi [10, 274].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Matritsa rangi. Matritsa rangini tuzatish usullari. Fan va ta’lim, 2(8), 280-291. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1758 dan olindi.
2. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Matritsalar va ular ustida amallar. Fan va ta’lim, 2(8), 226-238. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1752 dan olindi.
3. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Vektorlar. Fan va ta’lim, 2(8), 173-182. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1747 dan olindi.
4. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Chiziqli algebraik tenglamalar tizimini yechishning matritsa, Gauss va Gauss-Jordan usullari. Fan va ta’lim, 2(8), 312-322. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1761 dan olindi.
5. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Chiziqli operatorlar va komissiya xossalari. Fan va ta’lim, 2(8), 133-145. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1744 dan olindi.
6. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Chiziqli operatorlar va komissiya xossalari. Fan va ta’lim, 2(8), 146-152. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1744 dan olindi.
7. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Kvadratik forma va uni kanonik ko‘rinishga keltirish. Fan va ta’lim, 2(8), 153-172. https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1746 dan olindi.
8. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Arifmetik vektor fazo va unga misollar. Fan va ta’lim, 2(8), 109-120. https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1742 dan olindi.
9. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Vektorlarning skalyar ko‘paytmasi. Fan va ta’lim, 2(8), 183-191. https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1748 dan olindi.
10. Usmonov, M. T. o‘g‘li. (2021). Vektorlarning vektor va aralash ko‘paytmalari. Fan va ta’lim, 2(8), 271-279. http://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1757 dan olindi.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Oybek Jo‘lmurodov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlil qilingan. Rivojlanib kelayotgan insonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash fikri ko‘pgina pedagoglar va psixologlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Tadqiqotchilar o‘zlari ilgari surgan didaktik nazariyalarda bolalarning qiziqishlarini himoya qilish nuqtayi nazariga tayanadilar. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning pedagogik asoslari haqida qayd etilgan

Kalit so‘zlar: *ta’lim, jarayon, pedagog, o‘quv faoliyat, milliy-madaniyat, urf-odat, barkamol inson, ma’naviy, axloqiy.*

Annotation

This article is one of the topical issues of today, and the scientific theoretical literature devoted to the study of pedagogical and psychological aspects of pedagogical support of children in preschool educational organizations is analyzed. Many pedagogues and psychologists have emphasized the idea of providing comprehensive support to a developing person. Researchers put forward didactic theories of children they rely on the point of view of protecting their interests. It is also noted about the pedagogical foundations of pedagogical support of children in preschool educational organizations

Keywords: *Education, process, pedagogue, educational activity, national culture, tradition, perfect person, spiritual, moral.*

Аннотация

Данная статья является одним из актуальных вопросов современности, и анализируется научно-теоретическая литература, посвященная изучению педагогических и психологических аспектов педагогического сопровождения детей в дошкольных образовательных организациях. Многие педагоги и психологи подчеркивают идею оказания всесторонней поддержки развивающемуся человеку. Исследователи выдвинули дидактические теории детей они опираются на точку зрения защиты своих интересов. Также отмечено о педагогических основах педагогического сопровождения детей в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: *воспитание, процесс, педагог, образовательная деятельность, национальная культура, традиция, совершенный человек, духовный, нравственный.*

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va shaxsiy fazilatlarini yuksaltirish, ularning ongiga yaratuvchanlikni singdirish ota-ona, tarbiyachi va pedagoglarning muhim vazifasidir. Ana shunday mas’uliyatli vazifa hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasiga yuklatilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni shaxs sifatida shakllantirish va pedagogik faolliklarini oshirish muammolari pedagog va psixologlar tomonidan atroflicha talqin etilgan bo‘lsa-da, mazkur muammo nazariy va amaliy Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi va pedagogik bilish jarayonlari o‘zining ixtiyorsiz va beqaror xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Ularda turli faoliyat jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy ta’lim-tarbiyaning ta’siri natijasida ixtiyoriy jarayonlar shakllanadi. Lekin bu imkoniyat qulay ta’lim-tarbiyaviy sharoitni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik bilish faolligi tufayli o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Bu bolada faoliyat mayllarining rivojlanishi yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, til boyliklari, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, qobiliyatlarning o‘sishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda ularga oila a’zolari va tarbiyachilar yaqindan yordam beradilar, izlanishlarga zaruriyat sezadi. [1]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola tarbiyasida ko‘proq bolalarning tashqi xatti-harakatlariga e’tibor qaratiladi. Tarbiyachilar bolalarning xulq-atvorlariga tezgina yordam ko‘rsatishga intiladilar. Masalan, xulqida salbiy jihatlar mavjud bo‘lgan bolalarni tartibga chaqiradilar, ularning tashqi ko‘rinishlari, atrofdagilarga bo‘lgan muomalasiga nisbatan munosabat bildiradilar yoki ularning ota-onalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga chaqirib, tegishli tarbiyaviy choralarni qo‘llashga intiladilar.[2,45] Ushbu jarayonda tarbiyachilarning pedagogik faoliyatlari bir yoqlama xarakterga ega bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning pedagogik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir qaraganda tarbiyachining tutgan yo‘li to‘g‘ri hamda maqsadga muvofiq bo‘lib ko‘rinadi. Ular go‘yoki bolalarning salomatligi, hayoti, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, erkin rivojlanishi va yetuk inson bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilgandek bo‘lib ko‘rinadi.

Bolani pedagogik rivojlantirish muammosi XXI asrda pedagogikaning yetakchi muammolaridan biriga aylandi. Bu esa jamiyatda insonparvarlik g‘oyalarining yetakchiligi bilan belgilanadi.

“Pedagogika” ensiklopediyasida “Pedagogik qo‘llab-quvvatlash — ta’lim oluvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirish, hayoti va ta’limiy muammolarni yechish, ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni yengishda ko‘maklashishdan iborat pedagogik faoliyatning bir turi” sifatida talqin etilgan. [2, 73] Bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tushunchasi ostida yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagoglarning faoliyatlari tushuniladi. Avvalambor ular ta’lim oluvchilarga ogohlantiruvchi tezkor yordam ko‘rsata oladilar. Bolalarni pedagogik jihatdan rivojlantirish muammoning yechimi ularning ruhiy, jismoniy salomatliklari, muloqotlari, o‘quv faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari, o‘zlarining hayotdagi o‘rinlari va kasbiy yo‘nalishlarini aniqlashlari uchun juda ham muhimdir. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tushunchasining markazida ta’lim oluvchilar shaxsi turadi. Buning uchun eng dolzarb masala ta’lim oluvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositalarini izlab topishdan iborat. Bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashni maktabgacha ta’lim jarayonidan boshlab uzluksiz davom ettirish lozim. Pedagoglar ta’lim oluvchilarning har bir holatini e’tibordan chetda qoldirmasliklari zarur. Ular yordamga muhtoj bolalarni izlashlari va aniqlay olishlari lozimdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida bolaning individual muammolarini bevosita va bilvosita hal etishga qaratilgan individual va guruhli ishlar tashkil etilishi, ular muammolarni bartaraf qilishga qaratilishi va tezkorlik xarakteriga ega bo‘lishi lozim. [3, 267]

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasida ham bir qator o‘zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Mazkur bo‘g‘inda ham an’anaviy ta’limdan farqli tarzda yangi dasturlar, texnologiyalar amal qilina boshlandi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida bolaga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish ustuvor o‘rinni egallamoqda. Uning asosini bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, ularning o‘ziga xosligi, shaxsiy sifatlari va pedagogik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar o‘rtasida subyekt — subyekt munosabatlarini qaror toptirish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy, jismoniy, pedagogik rivojlanishlari uchun qulay pedagogik muhit vujudga keltirildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangi konseptual tamoyillarning joriy etilishi bir qator muammolarni ham yuzaga chiqardi. Bu muammolarni hal qilish uchun keng ko‘lamli pedagogik izlanish-

larni ro‘yobga chiqarish zaruriyati namoyon bo‘lmoqda. [5, 358] Yangi pedagogik paradigmaga asoslangan maktabgacha ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, bir qator holatlarda tarbiyachilar bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tajribasiga ega emasliklari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki tarbiyachilar bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni pedagogik rivojlantirishning nazariy asoslariga oid bilimlarga ega emaslar. Tarbiyachilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari dasturlariga bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashga oid mavzular kiritilmagan. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fani va ta’lim jarayoni amaliyotida.maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali.ularni rivojlantirish muammosi yaqqol ustuvorlik qilmoqda. Jumladan,.umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish asosida pedagogika fani shaxsga.yo‘naltirilgan insonparvar paradigmaga o‘tmoqda.

Bu jarayonni zamonaviy axborotlashgan jamiyat talablari asosida o‘rganish, birinchidan, umuminsoniy ijtimoiy, madaniy vaziyatlarni hisobga olish, alohida pedagogik tizimlar, shaxsni qo‘llab-quvvatlash omillarini hisobga olish va tahlil qilish; ikkinchidan, bolalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining mavjud belgilari, vazifalarini ajratish; uchinchidan, bolalarni qo‘llab-quvvatlash va himoyalashning o‘ziga xos usullari, sharoitlarini tadqiq etish, bolalar bilan ishlashning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning pedagogik quvvatlari oshishi globallashuv va rivojlanishning asosiy omilidir. Bolalarda pedagogik quvvatlarning rivojlanishi, ularni qo‘llab-quvvatlash va qadriyatlar sifatida hurmat qilish o‘ta muhim masalalardandir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida bolani pedagogik qo‘llab-quvvatlash izchil tarzda o‘zbek xalqining milliy an’analari, falsafasi, insoniylik va pedagogika nazariyasi bilan bog‘lanadi. Bu nazariyaning ildizlari o‘zbek xalqining insonparvarligi va madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogika fanini shaxs va uning rivojlanishiga yo‘naltirish, insoniylikka asoslangan an’analarga murojaat etish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, insoniylik falsafasi hamda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o‘z imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun qulaylikni yarata olishi, madaniy muhitni to‘laligicha o‘zlashtirishi va o‘zining barcha quvvatlarini ro‘yobga chiqarishi kerak. [4, 794]

Hozirda jamiyatimizda insoniylik tushunchasi yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida insonning nuqtayi nazarlari insoniy munosabatlar obyekti sifatida faollashmoqda. Bu o‘zaro kelishuv, bir-birini tushunish, hamkorlik hamda qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash va himoyalash shart-sharoitlari hamda mezonlari sifatida insoniylik falsafasi doirasida quyidagilar aniqlanadi: insonga bo‘lgan munosabat, bolaga qadriyat sifatida qarash, o‘z-o‘ziga insonning muhim potensial quvvati sifatida yondashish; bolalarning o‘z-o‘zlarini tashkil etish, tatbiq qilish va fidoiylik ko‘rsatishlarini o‘zliklari sifatida baholash; bolaning hayotiy faoliyatidagi faollik, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash; erkinlikka bo‘lgan ehtiyoj, ochiqlik, o‘z-o‘zini mustaqil boshqarishga layoqatlilik; o‘zining loyihachiligiga ishonish, kelajagini bashorat qilish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tarbiyalanuvchilarga ko‘rsatiladigan pedagogik yordam har bir bola va bolalar guruhi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak. Bu yordam bolalarga qaratilgan aniq pedagogik xizmat tarzida namoyon bo‘lib, ularning pedagogik rivojlanishlarini ta’minlashi kerak. Hozirgi vaqtda jahon ta’limi amaliyotida bolaga yangicha munosabat axloqi tarkib topmoqda. Mazkur axloq doirasida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni pedagogik rivojlantirish tashkilotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun quyidagi bir qator sifatlar xosdir: bolalarni pedagogik rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim beruvchi tashkilotlarning barqarorligi; bolalar ruhiy-fiziologik salomatligining muhofaza qilinganligi va ularning yuklamalardan himoyalanganligi; maktabgacha ta’lim dasturlaridagi mavzularning ketma-ketligi va bolani pedagogik rivojlantirish uchun qulaydir. [6, 53]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot natijalarini o‘rganish shuni aniqlashga imkon berdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish muammosi eng kam ishlangan. Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday tizim fanlararo asosda, falsafa, kibernetika, sinergetika, sistemologiya, boshqaruv nazariyasi, kvalimetriya, psixologiya, pedagogika kabi fanlar sohasidagi bilimlarni jalb qilgan ishlab chiqilishi kerak. Boshqaruv obyekti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari sifatining mohiyati va maktabgacha ta’lim muassasani uni shakllantirishning alohida sohasi haqidagi bilimlarsiz sifatga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish mumkin emas. Shu sababli, eng avvalo, maktabgacha ta’lim jarayoni sifatini tahlil qilish va sifatni ta’minlaydigan ta’lim tashkiloti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xosliklarini o‘rganish kerak.

Rivojlanib kelayotgan insonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash fikri ko‘pgina pedagoglar va psixologlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Tadqiqotchilar o‘zlari ilgari surgan didaktik nazariyalarda bolalarning qiziqishlarini

himoya qilish nuqtayi nazariga tayanadilar. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tushunchasi ostida pedagogning kasbiy faoliyati bolalarning shaxsiy muammolarini yechish maqsadida ko‘rsatadigan tezkor, kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan yordami tushuniladi. Bu yordam bolaning aqliy, jismoniy salomatligi, muloqoti, faol harakat qilishi, pedagogik rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi lozim. Shuning uchun ham pedagogik qo‘llab-quvvatlash tushunchasi markazida bolaning muammolari va pedagogik rivojlanish imkoniyatlari turadi. Tadqiqot yo‘nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e’tirof etish imkonini berdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim bo‘lgan jihatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori

2. Denyakina L.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishdagi yangi yondashuvlar. – M.: Yangi maktab, 2008. – 96 b.

3. Botirova, Z.A. (2019). THE THEORETICAL ANALYSIS OF THE APPICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDICATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11). – 266-269 p.

4. Ergashevna, K.M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9). – 792-796 p.

5. Khallokova, M.E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal, (2). – 357-361-b.

6. Khallokova, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. World Bulletin of Social Sciences, 5. – 52-55 p.

YENGIL ATLETIKA BILAN SHUG‘ULLANUVCHI 13-14 YOSHLI SPORTCHILARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Aziza Mamanova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi 13-14 yoshli sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish va takomillashtirish orqali yosh sportchilarning har qanday sharoitda o‘zini o‘zi boshqarishi, jismoniy ruhiy faolligini, sportchilarning xarakterida ijobiy xislatlarni tarkib toptirish, muayyan sport ko‘rsatkichiga erishish uchun sermahsul ruhiy va jismoniy faollik holatini vujudga keltirish ochib berilgan. Bundan tashqari, sportchilar ruhiyatiga sport faoliyatining ta’sirini o‘rganish va sportchilarda yuqori ishchanlikni vujudga keltirish hamda musobaqa jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish, chidamlilikni oshirish uslublarini ishlab chiqish kabilar qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *sport, mashq, jismoniy tarbiya, futbol, jismoniy tayyorgarlik, o‘quv-mashg‘ulot, sifatlar, yuklama, dastur, musobaqa, testlar, pedagogik nazorat.*

Аннотация

В данной статье путем изучения и совершенствования индивидуально-психологических особенностей спортсменов 13-14 лет, занимающихся легкой атлетикой, самоконтроля юных спортсменов в любых условиях физической и умственной деятельности, формирования положительных качеств в характере спортсменов, В конкретных видах спорта выявлено создание состояния продуктивной умственной и физической активности для достижения данного показателя. Кроме того, отмечено изучение влияния спортивной деятельности на психику спортсменов и создание у спортсменов высоких показателей, а также разработка методов самоконтроля и повышения выносливости во время соревнований.

Ключевые слова: *спорт, физические упражнения, физическое воспитание, футбол, физическая подготовка, тренировка, качества, нагрузка, программа, соревнования, зачеты, педагогический контроль.*

Annotation

In this article, by studying and improving the individual psychological characteristics of 13-14-year-old athletes engaged in athletics, self-control of young athletes in any conditions, physical and mental activity, formation of positive qualities in the character of athletes, specific sports It is revealed to create a state of productive mental and physical activity in order to achieve this indicator. In addition, the study of the impact of sports activities on the athletes’ psyche and the creation of high performance in athletes, as well as the development of methods of self-management and endurance improvement during the competition were noted.

Keywords: *sport, exercise, physical education, football, physical training, training, qualities, loading, program, competition, tests, pedagogical control.*

Yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk bo‘lib o‘sishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada qabul qilingan qonun va qarorlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo‘l ochib bermoqda. O‘quvchi yoshlarning rivojlanganlik darajasi, sog‘lig‘ini mustahkamlashda tayyorgarlik darajasini oshirishda va irodaviy fazilatlarini shakllantirishda yengil atletika mashqlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Yengil atletika mashqlari nafaqat jismoniy tarbiya va sportda, balki, ta’lim sohalarining barcha tarmoqlarida har bir soha xodimlarining kundalik hayot tarziga aylanib bormoqda. [1]

Ko‘p yillik o‘z tarixiga ega bo‘lgan yengil atletika sport turi “Sport qirolichasi” deb atalishi bejizga emas. [2, 13] Yengil atletika sport turi yillar davomida ommaviyligi oshib butun jahonda rivojlanib kelmoqda. Yengil atletika yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko‘pkurash turlarga bo‘linadi. Hozirgi vaqtda bunday sport turlari bilan bir qatorda sport psixologiyasi fani ham rivojlanib kelmoqda. Sport psixologiyasi — psixologiya sohasi; sport musobaqalari va mashqlar vaqtida inson psixikasining holati, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Sport psixologiyasi 20-asrning 60-70-yillaridan rivojlana boshladi. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta’sir o‘tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. [2, 24] Bundan tashqari, Sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, yutuqqa erishishlariga psixologik yordam ko‘rsatish bilan ham shug‘ullanadi.

Yosh yengil atletikachilarning texnik va taktik tayyorgarligida musobaqa faoliyatini sportchilar tomonidan shu sport turi uchun maxsus bo‘lgan harakat, ko‘nikma va malakalari turi bajara oladigan holatdagina amalga oshirishi mumkin. Shu sababli harakat texnikasini o‘rganishda harakat ko‘nikmasini malakaga aylanishi sport turi uchun eng kerakdir. Texnik jarayonni takomillashtirish, sportchi tomonidan axborotni qabul qilish va uni ishlab chiqish, harakatni samarali bajarish sifatini korreksiya va nazorat qilishga bog‘liq. Bu vaqtda analizatorlar orqali oldindan ishlab chiqilgan katta sondagi har xil axborotlar, harakat faoliyatiga samarali yoki uni chalg‘itadigan harakat faoliyatini ajratish vaqtida tushadigan axborotlar quyidagi komponentlarga bo‘lmadi: signal-motivli axborot; teskari-aloqali axborot; fondli axborot; farqlanmaydigan va yo‘ldan uradigan axborotlar. Sportchini texnik tayyorlashni vazifalari, bosqichlari va asosiy uslubiyati Sportchi texnik mahoratini takomillashtirish jarayonining asosiy vositalari quyidagilardan iborat. 1. Sport turi texnikasi asosida ixtisoslashgan harakatlarni uslublarni yuqori barqaror va aniq chegaradagi o‘zgaruvchan holatda bajarishga erishish 2. Musobaqa faoliyatini maqsadga muvofiq samarali holda amalga oshirishda o‘rganilgan uslublarni ketma-ket texnika negiziga aylantirish. 3. Sportchini individual xususiyatiga qarab, harakat ta’sirini oshirishini, uni dinamikasi, kinematika va ritmini takomillashtirish. 4. Sportchini ekstremal musobaqa sharoitida, texnikasini mukammalligi va natijaligini oshirish. 5. Sportchini texnik mahoratini, sport amaliyotining talabiga va ilmiy-texnik ko‘rsatkichlariga qarab takomillashtirish.[3, 96] Texnik takomillashtirish jarayonida, adabiyotlari, tez informatsiya vositalari, foto-kino-video materiallarining tahlili, so‘z, ko‘rgazmalilik va amaliy metodlardan, sur’at va ritmni fazaviy va dinamik tavsiflardan foydalangan holda o‘rgatish jarayonini tahrir qilib borish joiz. Sport bilan shug‘ullanish shaxsda irodaviy tirishqoqlik va zo‘r berishlik qobiliyatini oshiradi. Sport bilan shug‘ullanish jarayonida u zaruriy harakat ko‘nikmalarini egallaydi, tezlik va katta kuch talab qiladigan muskul zo‘riqishlarida irodaviy kuchlanishni namoyon etishi ongli ravishda charchoqlik hissini, qo‘rquv va o‘z kuchiga ishonmaslik bilan bog‘liq salbiy emotsiyalarni yengishi mumkin.

Sportlardagi emotsional harakatlar sport musobaqalari jarayonida vujudga keladi. Harakatning kuchlanish dinamikasi raqib bilan musobaqalashishda katta kuchlanish va qiyinchiliklarni yengishda paydo bo‘ladigan irodaviy faollik, sportchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘lida ko‘rinadi.[3, 53-54] Bularning hammasi sport faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi. Yuqori kuchlanish bilan emotsionallik holatning o‘zgarishi: xursandlik bilan xafagarchilikning almashinib turishi yoki aksincha, qarama-qarshi o‘zgarish, ya’ni xafagarchilik va g‘azablanish, yana ishonch, xursandchilik, g‘alaba, yaxshi kayfiyat va boshqa emotsional xususiyatlar egallashi tabiiy holatdir. Aynan shu holat sportchi ruhiy holatini boshqarish muammolarini keltirib chiqaradi.

Sportchilardan mashq va musobaqa jarayonidagi o‘zgarishlardan: yurak faoliyati, nafas olishdagi farqlar, har xil og‘riqlar chidamsizlik, noxush tuyg‘ular, ko‘p terlash alomatlari, muskullardagi biotoklar, endokrin reaksiyalar va boshqa emotsional o‘zgarishlar aniqlangan.

Sport insondagi faol ruhiy ko‘tarinkilik va xafagarchilikni, sportchining emotsional tayyorgarligini, butun organizmdagi bor imkoniyatlarni musobaqada ishlatish imkonini beradi. Sportchining emotsional holatini startdan oldin yuqori darajada ko‘tarish (masalan, uzoq va qisqa masofaga chopuvchilarda, bokschilarda). [4, 34-35] Muskullarining katta tezlikda ishlashi natijasida tomirlardagi qon urish tezligi oshadi. Shuningdek, aniq faoliyat jarayonida vujudga kelgan his-tuyg‘ular bajariladigan harakatlarning natijasiga katta ta’sir etadi. Bu sportchining ishchanligini oshiradi, organizmning faoliyat darajasini tezlashtiradi, sportchining xulq-atvorini yaxshilaydi, ichki harakat motivlarini o‘siradi, musobaqada g‘alabaga erishishini ta’minlaydi. Sportchining kuchlanishli emotsional holatini, ruhan tayyorgarligini, turli jismoniy o‘yinlar yoki mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishi, adolatli g‘azablanishi yoki mag‘rurlik va to‘g‘rilik kabi sifatlarining kamol topishi unda musobaqalashish ishtiyoqini oshiradi. [4, 110]

Sportchilar ruhiyatiga sport faoliyatining ta’sirini o‘rganish. Sportchilarda yuqori ishchanlikni vujudga keltirish hamda musobaqa jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish, chidamlilikni oshirish uslublarini ishlab chiqish. Sportchining musobaqada oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o‘rganish. noqulay ruhiy holatdan, vahimadan chiqib ketish uslublaridan foydalanishga odatlanish. Sportchilar o‘zlarining o‘tgan sport musobaqalarida qo‘lga kiritgan g‘alabalari bilan xotirjam bo‘lib qolmasdan, muntazam ravishda o‘tkaziladigan sport mashg‘uloti va musobaqalarida yuq ori ko‘rsatgichlarga erishish uchun o‘zini ruhiy tayyorlab borishlari lozim.

Yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi sportchilar uchun psixologik tayyorgarlik va yordam muhimdir. Bu turi sportchilarning qo‘llab-quvvatlashgan, motivatsiyalangan va o‘zlarini rivojlantirgan hislarga ega bo‘lishi kerak. Quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish sportchilarni yengil atletika bilan mukofotlantirish va ularning eng yuksak natijalarga yetishiga yordam berishi mumkin:

1. Sportchilar bilan muloqotlar olib borish va ularning maqsadlarini, istaklarini tushunish.

2. Har bir sportchining o‘ziga xos maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llarini belgilash.

3. Sportchilarning motivatsiyasini oshirish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash va ularning muvaffaqiyatlarini taqdim etish.

4. Sportchilarning o‘zlariga ishonchini oshirish uchun psixologik mashqlar va darslar tashkil etish.

5. Stress bilan muammolardan chiqib ketish uchun sportchilarga qanday taktikalar qo‘llash kerakligini o‘rgatish.

6. Sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarliklarini barqarorligini ta’minlash uchun uyqu, yem va faol dam olishga e’tibor berish.

7. Jamoaviy maslahatlarni olib borish va sportchilarning bir-birlariga qo‘llab-quvvatlashadi.

8. Sportchilarning muvaffaqiyatlarini taqdim etish, ularning yuksak natijalarga yetishi uchun ta’kidlash va ularni rag‘batlantirish.[5, 192-193]

Bu tavsiyalarni amalga oshirib, yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni psixologik ravishda takomillashtirish va ularning muvaffaqiyatlarini ko‘tarishda yordam berishingiz mumkin.

Yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi 13-14 yoshli sportchilar individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish va takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirishingiz mumkin:

1. Barcha sportchilarning o‘zlarini tushunishlari va qadriyatlarini aniqlash uchun muloqotlar olib borish.

2. Har bir sportchining o‘ziga xos maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llarini belgilash.

3. Sportchilarning o‘zlariga ishonchini oshirish uchun motivatsiyani oshirish.

4. O‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘ziga ishonchli bo‘lishni o‘rganish uchun samarali mashqlar tashkil etish.

5. Qo‘lga tushgan muammolarga qarshi turgan va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lish uchun psixologik qo‘llanmalarni o‘rgatish.

6. Sportchilarning stress bilan mukhalif muammolardan qanday chiqib ketishini o‘rganish va bunga qarshi taktikalarni o‘rgatish.

7. Sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarliklarini barqarorligini ta’minlash uchun to‘g‘ri yem, uyqu va faol dam olishga e’tibor berish.

8. O‘zaro aloqalarni kuchaytirish, jamoaviy maslahatlarni olib borish va sportchilarning bir-birlariga qo‘llab-quvvatlashadi.

9. Sportchilarning muvaffaqiyatlarini taqdim etish, ularning yuksak natijalarga yetishi uchun ta’kidlash va taxminan nima kiritishlari kerakligini ko‘rsatish.

Bu tavsiyalarni amalga oshirib, sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish va takomillashtirishda muvaffaqiyatli bo‘lishingiz mumkin.

Hozirgi sport amaliyotining natijalariga ilmiy qaralsa, sportchining oldingi musobaqalarida ko‘rsatgan natijalariga qarab, uning yaqin kunlarda bo‘ladigan musobaqalarda qanday ko‘rsatkichlarga erishishi haqida har qanday mutaxassis aniq xulosa chiqarishga ojizlik qiladi. Musobaqalarda yaxshi natijalarga erishib yurgan sportchilar odatda o‘zlarini kuchli sportchilar qatorida tavsiya qiladilar. Biroq, kutilmaganda shu kuchli sportchi bilan mashq qilib yurgan sportchi, ya’ni sport musobaqalarida biror marta ham yaxshi natijalarga erisha olmagan sportchi bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng sport musobaqalarining birida yuqori natijalarga erishib, kuchli sportchilar qatoridan joy oladi. Bunday hodisalar sport sohasida ko‘p uchrab turadi. Binobar, murabbiy har bir sportchi bilan bir xil munosabatda bo‘lishga odatlanishi va ularga ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘llari haqida to‘g‘ri ko‘rsatma, maslahat berib borishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 2020-y 23-sentyabr.
2. Бондарчук А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса. Библиотека легкоатлета. – М.: Олимпия ПРЕСС, 2007. – 272 с.
3. Буханцов К. Метание диска [под ред. В. Зеличенка]; Моск. регион. Сентр развития легкой атлетики ИААФ. – М.: [Олимпия], 2008. – 102 с.
4. Булатова М.М., Платонов В.Н. Спортсмен в сложных климатогео- графических условиях. – К.: Олимпийская литература, 1996. – 173 с.
5. Легкая атлетика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. А.И. Жилкин, В.С. Кузьмин, Е.В. Сидорчук. – М.: Издательский центр “Академия”, 2003. – 464 с.

ОСОБЕННОСТИ СЮЖЕТНО-РОЛЕВОЙ ИГРЫ В ГЕНДЕРНОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Дилфуза Очилдиева,
Преподаватель факультета русского языка и литературы
Джизакского государственного педагогического университета
Замира Сапарова,
Преподаватель факультета русского языка и литературы
Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость сюжетно-ролевой игры в гендерном воспитании детей старшего дошкольного возраста. Статья содержит обоснованные выводы, представляющие интерес для специалистов в области педагогики. В статье раскрывается сюжетно-ролевая игра как средство развития гендерных представлений у дошкольников. Рассматриваются сюжетно-ролевые игры соответствующие определенному гендеру ребенка. Обозначается актуальность воспитания культуры гендерных взаимоотношений детей как субъектов социальных отношений. В педагогической теории игры особое внимание уделяется изучению игры как средству воспитания. Игра довольно увлекательное занятие для ребенка, а также важнейшее средство его воспитания и развития.

Ключевые слова: *дошкольный возраст, эмоция, впечетление, среда, воспитание, пол, воспитание, гендер, гендерное воспитание, сюжетно-ролевая игра.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarni gender tarbiyalashda rolli o‘yinlarga ehtiyoj ko‘rib chiqiladi. Maqolada pedagogika sohasidagi mutaxassislarni qiziqtiradigan asosli xulosalar mavjud. Maqolada rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda gender g‘oyalarini rivojlantirish vositasi sifatida ochib berilgan. Bolaning ma’lum bir jinsiga mos keladigan tematik rolli o‘yinlar ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy munosabatlar subyektlari sifatida bolalar o‘rtasida gender munosabatlari madaniyatini tarbiyalashning dolzarbligi ko‘rsatilgan. O‘yinning pedagogik nazariyasida o‘yinni tarbiya vositasi sifatida o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. O‘yin bola uchun juda qiziqarli faoliyat, shuningdek, uni tarbiyalash va rivojlantirishning eng muhim vositasidir.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, hissiyot, taassurot, atrof-muhit, ta’lim, jins, gender, gender ta’limi, rolli o‘yin.*

Annotation

This article discusses the need for role-playing games in gender education of children of senior preschool age. The article contains substantiated conclusions that are of interest to specialists in the field of pedagogy. The article reveals role-playing games as a means of developing gender ideas in preschoolers. Thematic role-playing games corresponding to a certain gender of the child are considered.The relevance of educating a culture of gender relations among children as subjects of social relations is indicated. In the pedagogical theory of play, special attention is paid to the study of play as a means of education. The game is quite an exciting activity for a child, as well as the most important means of his education and development.

Keywords: *environment, upbringing, gender, upbringing, gender, gender upbringing, role-playing game, preschool age, emotion, impression.*

Воспитание мальчиков и девочек — это взаимодействия природных задатков и совокупности социальных и культурных норм, а также индивидуальные особенности каждого ребенка.

Гендерное воспитание детей с раннего детства является проблемой значимой и актуальной. Целью гендерного подхода является воспитание детей разного пола, одинаково способных к самореализации и раскрытию своих потенциалов и возможностей в современном обществе. Под “гендером” понимается социальная модель человека, которая определяет его положение в обществе. [1, 114]

Психологи доказали, в период с 4 до 7 лет дети осознают, что мальчики становятся мужчинами, а девочки — женщинами. Именно старший дошкольный возраст, является наиболее восприимчивым возрастом для гендерных взаимоотношений детей. В этом возрасте формируются задатки, способности и все важнейшие качества личности.

Исходя из этого, главной задачей в воспитании мальчиков и девочек является изучение гендерных взаимоотношений между мальчиками и девочками, формирование мужественности и женственности, искренности, взаимопонимании, воспитании человеческого в мужчине и женщине, уважение к себе и другим, милосердие [2, 220].

Организуя гендерное воспитание, важно понимать, что психические различия формируются под влиянием общественной среды и воспитания. В следствие этого вопросы воспитания детей с учетом их гендерных особенностей рассматриваются как результат сложного взаимодействия природных задатков и соответствующей социализации, а также с учётом индивидуальных особенностей каждого конкретного ребёнка. Одним из средств гендерного воспитания дошкольников является сюжетно-ролевая игра.

Поскольку игра является основным видом детской деятельности, то именно в ней происходит усвоение детьми гендерного поведения. Здесь есть возможность реализации своих интересов, фантазий, желаний, обретения опыта взаимодействия ребенка со взрослыми и с представителями обоего пола, самостоятельности, творчества и активности. [3, 45] Игра позволяет ребенку примерить самые разные социальные роли, получить положительные эмоции, впечатления и незабываемые радостные моменты.

Однако, наблюдения за игровой деятельностью детей показывает, что у мальчиков иногда отсутствует маскулинность (такие черты характера, как надежность, решительность и уважение к девочкам), а у девочек – феминность (доброта, нежность, заботливость). [3, 48]

Обусловлено это в первую очередь тем, что многие женщины в современном обществе занимают лидирующие положения среди мужчин, осваивают мужские профессии. А мужчины, в свою очередь, утрачивают понятия ответственности и мужественности.

Детям, с еще не сформированным представлением о половой принадлежности, трудно разобраться в поведении людей разного пола, как в семье, так и обществе, нет понимания того, как должна вести себя женщина и какими качествами должен обладать мужчина. Поэтому, гендерное воспитание через сюжетно-ролевую игру является важной задачей общего процесса воспитания.

В дошкольном возрасте в сюжетно-ролевой игре дети подражают взаимоотношениям взрослых. В играх мальчики подражают имеющимся в семье мужчинам: отцу, дедушке, девочки подражают маме и другим женщинам, которые вызывают у них восхищение. Играя, дети группируются по признаку пола. Для того, чтобы игра стала эффективным средством гендерного воспитания, необходимо проводить игру с учетом особенностей детей и включать ребенка в игровую деятельность, которая отражает его интересы и соответствует гендерным склонностям, с целью воспитания ребенка, как будущего мужчину или будущую женщину.

Содержание и стиль игры у мальчиков и у девочек отличаются друг от друга. Для мальчиков свойственны шумные и подвижные игры, отражающие мужские черты (интерес к машинам, оружию), для девочек – более тихие, отражающие женские интересы (мода, домашние дела, куклы, игра в дочки матери). [4, 115] Игры мальчиков более предметны, построены на зрительном восприятии, девочек более словесны, построены на основе слухового восприятия. Мальчики собирают конструктор, воюют на войне, водят машины, строят дома, играют в моряков и летчиков. Девочки ежедневно ухаживают за домом, заботятся о детях, выходят замуж. Кроме того, по утверждению О.О. Нагель, в игре закладываются основы нравственности: смелость, решительность, ответственность, великодушие, надежность, уважение к девочкам (женщинам) — у мальчиков; доброта, верность, терпеливость и уважение к мальчикам (мужчинам) — у девочек. Поэтому, при проведении работы по воспитанию детей с учетом их гендерных особенностей, необходимо обратить внимание на привлекательность игрового материала, на достаточность и полноту материала для игр, на наличие атрибутики для театрализованной деятельности. Так же для полноценного развития ребенка, необходимо участие родителей в игре детей.

В дошкольном возрасте ребенок при помощи игры открывает для себя мир человеческих взаимоотношений, разных видов деятельности и социальных функций людей. Игра, являясь ведущей деятельностью в дошкольном возрасте, выступает основным средством, которое обеспечивает гармоничное развитие подрастающей личности [4, 125]. Она облегчает осво-

ение знаний об окружающем мире и способах его познания, нормах общения, правовых нормах, принятых ценностях. Одним из эффективных способов развития положительных гендерных представлений является сюжетно-ролевая игра. Она позволяет сформировать у ребенка адекватную половую идентичность. Целью нашего исследования является выявление значимости сюжетно-ролевой игры в развитии гендерных представлений у дошкольников. Затронутая нами тема, по моему мнению, достаточно актуальна. Актуальной задачей современной системы дошкольного образования является воспитание культуры гендерных взаимоотношений детей как субъектов социальных отношений. Наиболее благоприятным периодом для формирования правильного отношения к своим гендерным предназначениям является старший дошкольный возраст. В последние десятилетия наблюдается активное развитие гендерной проблематики [3, 145]. Актуальными в современных науках выступают вопросы трансформации идентичности. С точки зрения представителей "новой психологии пола", основная роль в формировании гендерной идентичности принадлежит прежде всего социальным ожиданиям общества, отражающим гендерные стереотипы, что сказывается на процессе воспитания. Например, в отечественной науке до последнего времени единственным подходом к формированию гендерной идентичности была теория полоролевой социализации. Согласно которой в основе формирования гендерной идентичности лежит биологический пол, который в свою очередь задает программу воспитания, зависящую от возраста и пола детей [2, 100]. То есть гендер — это социальный пол, пол как продукт культуры. В результате, мы должны рассматривать вопросы воспитания мальчиков и девочек не как изначальную от рождения данность, а как явление, которое вырабатывается в процессе социализации личности ребенка и его индивидуальных особенностей. В результате множественных исследований было выявлено, что именно в дошкольном возрасте, происходит идентификация личности ребенка, происходит принятие гендерной роли ребенка [5, 34]. Посредством сюжетно-ролевой игры ребенок может освоить ряд необходимых социально-значимых качеств в определенных ячейках общества. Сюжетно-ролевая игра не требует от ребенка каких-либо значимых поступков, однако именно игра позволяет закрепить гендерные стереотипы, заложить положительное отношение к будущей социальной роли, женщины, мужчины, мамы, папы. Одной из основных целей педагогического сопровождения будет формирование умений, обеспечивающих самостоятельную игру детей, в которой и девочки и мальчики будут реализовывать свои поло-ролевые представления, свободно взаимодействуя со сверстниками. Также следует обращать внимания на подбор материала и оборудования для игровой деятельности мальчиков и девочек. При проведении работы по воспитанию детей с учётом гендерных особенностей нужно обратить своё внимание на следующее: на насыщенность и полноту материалов для игр, в процессе которой девочки воспроизводят модель социального поведения, присуще женскому полу; на достаточно привлекательный игровой материал и игровую атрибутику с целью привлечения детей к сюжетно-ролевой игре т.д. [5, 36] В ходе нашего исследования нам удалось выявить, что девочки чаще всего в играх осваивают роль мамы, из чего мы делаем вывод, что оптимальным выбором игровых сюжетов будут игровые сюжеты, отражающие быт, домашние обязанности женщины в семье.

Таким образом, сюжетно-ролевая игра детей способствует развитию интереса, мужского и женского поведения в семье и обществе, эмоционально-положительного отношения к противоположному полу, умений взаимодействовать с противоположным полом, строить длительные доброжелательные отношении, а также оказывает положительное влияние на ход общего развития детской личности, игровой деятельности в целом.

Сюжетно-ролевая игра в гендерном воспитании детей имеет несколько особенностей:

1. Развитие эмпатии и понимания: через игру дети могут более глубоко понять различия между мужчинами и женщинами, их роли в обществе и взаимодействие друг с другом.

2. Сознание равноправия: игра позволяет детям осознать, что мужчины и женщины имеют равные права и возможности, и что каждый человек уникален независимо от своего пола.

3. Развитие коммуникативных навыков: игра способствует развитию навыков общения, умения слушать других и выражать свои мысли и чувства.

4. Преодоление стереотипов: игра помогает детям осознать, что стереотипы о том, как должны вести себя мужчины и женщины, не всегда соответствуют реальности.

5. Формирование самооценки: игра в гендерное воспитание помогает детям лучше понять себя, свои интересы и способности, независимо от того, какого они пола.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Градусова Л.В. Гендерная педагогика. – М.: Флинта, Наука, 2011. – 175 с.

2. Эльконин, Д. Б. Пуэрская психология: артем. вилла про студии сорум академий. Д.Б.Эльконин. – 4-е изд. – М.: Academia, 2007. – 384 с.

3. Ильин Е.П. Пол и гендер. – СПб.: Лидер, 2005. – 321 с.

4. Коломинский Я.С. Мальчики и девочки. Знание сила. – М.: Владос, 2001. – 289 с.

5. Нагель О. О гендерном образовании дошкольников // Дошкольное воспитание. – 2008. – 33–38 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Salimjon Maxmudov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish malakalarini shakllantirish va individual yondashish yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinfda milliy qahramonlar haqidagi mavzularni o‘rganishda qator usullardan foydalaniladi. Savol-javob usuli — o‘quvchilarning vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tuyg‘usi haqidagi shaxsiy mulohaza va qarashlarini aniqlashga xizmat qiladi. Savollarning aniq, qisqa bo‘lishi va to‘g‘ri ifodalanishi bolalar uchun mantiqiy fikrlashga imkon beradi. O‘qish malakalarini shakllantirishning psixologik asoslari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, jarayon, pedagog, o‘quv faoliyat, milliy-madaniyat, urf-odat, barkamol inson, ma’naviy, axloqiy.*

Аннотация

В данной статье рассматривается один из актуальных вопросов современности формирования навыков чтения у учащихся начальных классов и проанализирована научно-теоретическая литература, посвященная изучению отдельных подходов. Для изучения тем о национальных героях в начальной школе используется ряд методов. Метод вопросов и ответов служит для выявления личного мнения и взглядов студентов на чувства патриотизма и национальной гордости. Четкая, краткая и правильная формулировка вопросов позволяет детям мыслить логически. Отмечены психологические основы формирования навыков чтения.

Ключевые слова: *воспитание, процесс, педагог, образовательная деятельность, национальная культура, традиция, совершенный человек, духовный, нравственный.*

Annotation

This article is one of the topical issues of today, the formation of reading skills of primary school students and the scientific theoretical literature devoted to the study of individual approaches was analyzed. A number of methods are used to study topics about national heroes in primary school. The question-and-answer method serves to determine the personal opinions and views of students about their feelings of patriotism and national pride. Clear, short and correct wording of questions allows children to think logically. The psychological foundations of the formation of reading skills are noted.

Keywords: *education, process, pedagogue, educational activity, national culture, tradition, perfect person, spiritual, moral.*

Boshlang‘ich ta’limning vazifasi bolalarni to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatishdir. Bunday vazifa dolzarbdir, chunki o‘qish ta’lim va inson rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. V.A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: “O‘qish-bu bolalar dunyoni va o‘zlarini ko‘radigan va biladigan oyna. U bolada faqatgina o‘qish bilan bir vaqtning o‘zida, va hatto undan ham oldin, birinchi marotaba kitob ochilganda shakllanadi va so‘z ustida mashaqqatli ish boshlanadi”. [1, 35]

O‘qish orqali bolalar dunyoni va o‘zligini ko‘rishni va tanishni boshladilar. O‘qish qobiliyatlari nafaqat nutq va aqliy faoliyatning eng muhim turi sifatida, balki o‘quvchilar tomonidan barcha o‘quv fanlarini o‘rganishda, sinfdan va maktabdan tashqari hayotning barcha holatlarida foydalanadigan o‘quv xarakteriga ega bo‘lgan murakkab ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plami sifatida ham shakllanadi. Shuning uchun o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha tizimli, maqsadga muvofiq ish olib borish zarur.

To‘liq o‘qish qobiliyati boshqa barcha maktab fanlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun fundament, asosiy ma’lumot manbai va hatto aloqa usulidir. O‘qish mahoratini muvaffaqiyatli egallash — bu bolaning bilim faoliyati rivojlanishining umumiy darajasining ko‘rsatkichlaridan biridir. [2, 24]

Boshlang‘ich sinfda shakllanadigan bu ko‘nikmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli janrdagi adabiyotlarni to‘liq o‘qiy olishlari, tushunishlari va estetik zavq olishlari uchun zarur bo‘ladi. Tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning har bir faoliyati o‘qishga asoslangan to‘g‘ri, ongli, tezkor, shuning uchun ular tomonidan yuqori o‘qish texnikasini o‘zlashtirish, yosh o‘quvchilarning adabiy rivojlanish darajasini oshirish tarbiyachi va o‘qituvchi oldida turgan muhim vazifadir.

O‘qituvchi xato o‘qish sabablarini tushunsagina va xatolar ustida ishlash metodikasini bilsagina o‘qishda xatolarni tuzatish va oldini olish ustida to‘g‘ri ishlashi mumkin. Masalan, Y.V.Zaika o‘zining “O‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mashqlar” to‘plamida quyidagi omillarni ta’kidlagan:

1) vizual idrokning nomukammalligi;

2) artikulyatsion apparatning rivojlanmaganligi (moslashuvchanligi yo‘qligi);

3) nafas yetishmasligi;

4) orfoepik me’yorlarni bilmaslik;

5) so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilmaslik;

6) o‘qishning subyektiv turidan kelib chiqqan “taxmin”. [3, 272]

ISSN 2181-8274

Mashqlar tizimi ushbu qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Vizual idrokni yaxshilash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin: grafik belgilar bilan so‘zlarni oldindan o‘qish yoki minimal o‘qish birliklari turli shriftlarda bosilgan so‘zlarni o‘qish. Artikulyatsion apparatni o‘rgatish uchun tez aytishlardan foydalanishingiz mumkin, bolalarga avval ularni juda sekin sur’atlarda, keyin so‘zlashuvda, keyin tez aytish paytida talaffuz qilish taklif etiladi. Nafas olish mashg‘ulotlarida quyidagi vazifalar yordam berishi mumkin:

Bir nafasda to‘rtlikni talaffuz qiling; iloji boricha bir nafasda hisoblang va hokazo. Bunday mashqlarni sinfda jismoniy daqiqalar shaklida o‘tkazish mumkin. Ular o‘qituvchi tomonidan bolalar o‘qishi kerak bo‘lgan matnni hisobga olgan holda tuzilishi va tanlanishi kerak. Shu bilan birga, tarbiyachi va o‘qituvchining yetakchi qoidasi bolaning o‘qish jarayoniga minimal aralashuvni o‘rnatish bo‘lishi kerak.

Xatolarni tuzatish uchun o‘qituvchi talabaning o‘qishini faqat ikkita holatda to‘xtatishi mumkin: orfoepik xatoni yo‘q qilish (darhol to‘g‘ri o‘qish namunasi beriladi) va o‘qilayotgan narsaning umumiy ma’nosini buzilishiga olib keladigan xatoni tuzatish (tarbiyachi va o‘qituvchi bolani qayta o‘qishga jalb qiladi), savol orqali so‘z yoki xatoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish. Boshqa barcha xatolar o‘qish tugagandan so‘ng tuzatiladi. Xatolarni tuzatishga guruh tarbiyalanuvchilari va sinf o‘quvchilarini jalb qilish foydalidir, ammo shu bilan birga pedagog ushbu ish paytida zarur bo‘lgan do‘stona va ishbilarmonlik muhiti haqida eslashi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy mustaqillikning nechog‘lik muhimligini anglatishda Shiroq, To‘maris, Najmiddin Kubro, Alpomish, Namoz botir kabi ko‘plab xalq qahramonlarining vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi jasoratlari haqida yaratilgan epik asarlar muhim ahamiyatga ega. [3, 273] Ular orqali yoshlar vatanini ardoqlagan kishini el-u yurt mangu ardoqlashni bilib oladilar. Bunday qahramon ota-bobolari bilan faxrlanib, ular qo‘riqlab, himoya qilib, kerak, bo‘lsa shirin jonidan kechib, asrab qolgan ona zaminni o‘zlari ko‘z qorachig‘iday asrab, turli dushmanlardan himoya qilishlari lozimligini anglab yetadilar.

Ma’lumki, mustaqillik tufayli, o‘zbek xalqining ko‘pgina milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari qayta tiklandi. Bu an’ana va urf-odatlar mehr-oqibat, yaxshilik, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, tinchlik, komil inson tarbiyasi kabi g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liqligi uchun XXI asrda ham bizning ehtiyojlarimizga xizmat qilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsligidagi har xir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o‘tmishi, xalqning hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi.

Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi.[4, 80] Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi. Bu xildagi asarlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o‘tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo‘lsada, tushuncha hosil qiladilar.

Bo‘limda Mirkarim Osimning “Jaloliddin Manguberdi” asari bilan boshlanishining o‘ziyoq bo‘lim oldida turgan vazifaning nechog‘ligi muhim ekanini anglashga qaratilgan. Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishlar tashkil qilinadi. Masalan, “Jaloliddin Manguberdi” tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tarixiy muzeylarga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o‘rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. [4, 81]

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib ona bitta — vatan yagona, vatan himoyachilari, ulug‘lardan o‘rganmoq — oqillik, xalq og‘zaki ijodi, o‘tmishni o‘rganish burchimiz, yil fasllari, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat, orzular qanotida kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. Masalan, hikoya janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o‘ziga tortadi. Hikoya janri ham hayotiyligi bilan o‘ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. o‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda “Jaloliddin Manguberdi” hikoyasida Chingizxon va uning qo‘shinlariga nisbatan nafrat uyg‘otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg‘otiladi, uning taqdiri orqali o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish kitobida “O‘tmishni o‘rganish burchimiz” bo‘limiga kiritilgan mavzularni o‘rganish

orqali o‘quvchilarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo‘lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi. 3-sinf darsligidan o‘rin olgan “Alpomishning bolaligi” ertagi tahlilida voqealar rivojiga, qahramonlar hayotiga alohida e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy mustaqillikning nechog‘lik muhimligini anglatishda Shiroq, To‘maris, Najmiddin Kubro, Alpomish, Muqanna, Namoz botir kabi ko‘plab xalq qahramonlarining Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi jasoratlari haqida yaratilgan epik asarlar muhim ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlar vatanini ardoqlagan kishini el-u yurt mangu ardoqlashni bilib oladilar. Bunday qahramon ota-bobolari bilan faxrlanib, ular qo‘riqlab, himoya qilib, kerak bo‘lsa shirin jonidan kechib, asrab qolgan ona zaminni o‘zlari ko‘z qorachig‘iday asrab, turli dushmanlardan himoya qilishlari lozimligini anglab etadilar. E’tiborli jihati shundaki, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelingan folklor asarlarning mazmun-mohiyati, ularda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy va ta’limiy qarashlar, hayotiy tajribalar tavsifi yangi, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi istiqlol davri g‘oyalari bilan ham mos keladi.

Boshlang‘ich sinfda milliy qahramonlar haqidagi mavzularni o‘rganishda qator usullardan foydalaniladi. Savol-javob usuli — o‘quvchilarning vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tuyg‘usi haqidagi shaxsiy mulohaza va qarashlarini aniqlashga xizmat qiladi. Savollarning aniq, qisqa bo‘lishi va to‘g‘ri ifodalanishi bolalar uchun mantiqiy fikrlashga imkon beradi.

Tushuntirish usuli — o‘quvchilarda vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tushunchasining nazariy mohiyati va unga ega bo‘lishning ijtimoiy ahamiyati, millat ravnaqi, yurt ozodligini ta’minlashdagi roli haqidagi tushunchalar hosil qilinadi. [5, 18]

Izohlash usuli — tajriba-sinov ishtirokchilariga vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tuyg‘usining mohiyatini anglatish, uning lug‘aviy ma’nosini to‘g‘ri tushuntirish, shaxsda so‘z yuritilayotgan tuyg‘uni shakllantirish omillari, shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berishga yo‘naltiriladi.

Ta’limiy o‘yinlar usuli — intellektual o‘yinlar asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tuyg‘usining shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi, o‘quvchilarni tadqiqot muammosi hamda uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar yuzasidan har tomonlama jiddiy fikr yuritish, muammoning yechimini topishda mavjud intellektual imkoniyatlardan foydalana olish ko‘nikmasining shakllanishini ta’minlaydi. [5, 19]

Interfaol usullar — o‘quvchilar tomonidan vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tushunchasi hamda shaxsda mazkur tuyg‘uning shakllanishi yuzasidan erkin, mustaqil fikr yuritish, bahs-munozarani tashkil etish ko‘nikma va malakasining tarbiyalanishi, o‘quvchilarning standart fikr yuritishdan ozod etish, shuningdek, muhokama etilayotgan muammoning yechimiga oid rang-barang g‘oyalarni to‘plashga imkon beradi.

Hikoya qilish usuli — vatanparvarlik hislari va milliy g‘ururning ijtimoiy ahamiyati, ana shunday tuyg‘uga ega bo‘lgan tarixiy shaxslar, bugungi kun qahramonlarining faoliyati, o‘quvchilarda so‘z yuritilayotgan tuyg‘uni tarbiyalash yuzasidan jonli nutq yordamida tushuntirishlarni olib borish hisoblanadi. Tushuntirish o‘quvchilar tomonidan muammoning mohiyatini to‘g‘ri anglanishiga imkon yaratadi.

Rolli o‘yinlar usuli — vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tushunchasi mohiyatining o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri va to‘laqonli anglanishi, ularning e’tiboriga havola etilayotgan savollar, muammoli vaziyatlar bo‘yicha kichik tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Ko‘rgazmalilik usuli — o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash, vatanparvarlik va milliy iftixor tushunchasining mohiyatini to‘laqonli anglanishi, bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarining tarbiyalanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi.[6, 45]

Ijodiy o‘yinlar usuli — o‘quvchilar e’tiboriga havola etilayotgan mavzularda mantiqiy fikr yuritish, shaxsiy fikr-mulohazalarini ilgari surish, o‘z qarashlarini dalillash, himoya qilish, tengdoshlarini ularga ishontirish ko‘nikma va malakalarining tarbiyalanishiga yordam berish bilan birga ular tomonidan muammo mohiyatini chuqur anglanishi uchun zarur shart-sharoitni yuzaga keltiradi. [6, 44]

Shunday qilib, o‘quvchilarda vatanparvarlik hislari va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishdek murakkab pedagogik jarayonda faoliyatni tashkil etishning samarali shakl, usul va vositalarini tanlay bilish, ulardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini berdi. O‘zbek xalq dostonlarida vatanparvarlik, milliy iftixor va g‘urur tuyg‘usini o‘zida ifoda etuvchi badiiy satrlar juda ko‘p uchraydi. Ayniqsa, bu jihatdan “Alpomish” dostoni alohida ajralib turadi. Unda o‘zbek xalq qahramoni Alpomish hamda uning go‘zal va iqbol, jasoratli va sadoqatli yori Barchinoyning xatti-harakatlari, fe’l atvori asosida millatimiz ruhiyatiga xos xarakter-xususiyatlar, fazilatlar ko‘rsatib berilgan. “Milliy qahramonlar” haqidagi ko‘rsatuvlar orqali o‘quvchilarning millat tarixiga qiziqishlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. O‘qish faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bilish jarayoniga bolaning bo‘lgan qiziqishi maktabda shunchalik yaxshi o‘qishiga sabab bo‘ladi. Psixologlar tomonidan ayniqsa bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaxshi o‘ynashi natijasida bolalar maktabda yaxshi o‘zlashtiradi degan fikrni ta’kidlab o‘tadilar.

Boshlang‘ich sinf va maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qish malakalarini shakllantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar o‘rganib chiqildi. Ushbu masala bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olingan bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga bormagan bolalarga nisbatan boshlang‘ich sinflarda

o‘qish malakalarini tez va oson o‘rganishi hamda bolalarning maktabdagi fanlarni o‘zlashtirishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘rni va ahamiyati juda katta ekanligi talqin qilinadi.

Shu sababdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan bolalarni sifatli maktab ta’limiga sifatli tayyorlash bo‘lib, eng avvalo, tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotida bola bilan ishlayotganda unda o‘qish malakalarining shakllanishiga e’tiborli bo‘lishlari lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сухомлинскии В.А. Ўқитувчига 100 тавсия. – М.: Удмуртия, 1981. – 286 с.

2. Бородина В. А. Ўқиш психологияси: учеб. пособие. – СПб.: СПбГАК, 1997. – 79 с.

3. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1). – 272-274 p.

4. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9). – 79-82 p.

5. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). – 16-22 p.

6. Заика Е.В. Ўқиш кўникмаларини шакллантириш учун машқлар. Вопросы психологии. – 1995. – №6. – 43-54 б.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ

Санобар Сиддиқова,
Жиззах давлат педагогика институти
“Умумий педагогика” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация

Ушбу мақолада таълим технологиясининг муҳим дидактик элементлари, таьлим жараёнида ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаоллигини ошириш хусусида қайд етилган. Бундан ташқари, ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси структуравий компонентларини, уни шакллантириш механизмларини ажратиш ва асослаш, узвий ўзаро таъсирда бўлади ва яхлит модели динамик тизимини ташкил этади. Ўқитувчи амалий фаолият тажрибаси, ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг психологик технологиясини билишлари ва уқувларни интеграциялаш усули билан эгаллаши кабилар таъкидланган.

Калит сўзлар: *таьлим, билиш, фаоллик, технология, меҳнат, интеграция, малака, компонент, структура*

Аннотация

В данной статье отмечены важные дидактические элементы образовательной технологии с точки зрения повышения знаний и творческой активности учащихся в образовательном процессе. Кроме того, дидактические условия и технологии активизации знаний, творческой деятельности учащихся, выделения и обоснования структурных компонентов, механизмов ее формирования находятся в органическом взаимодействии и образуют динамическую систему целостной модели. Подчеркивается, что преподаватель имеет опыт практической деятельности, студенты знают психологическую технологию активизации своих знаний, творческой деятельности и усваивают ее методом интеграционного обучения.

Ключевые слова: *образование, знание, государство, технология, труд, интеграция, компетентность, компонент, структура.*

Annotation

In this article, the important didactic elements of educational technology are noted in terms of increasing students’ knowledge and creative activity in the educational process. In addition, didactic conditions and technology for activating students’ knowledge, creative activity, separating and substantiating the structural components, mechanisms of its formation, are in organic interaction and form a dynamic system of a holistic model. It is emphasized that the teacher has practical activity experience, the students know the psychological technology of activating their knowledge, creative activity, and acquire it by the method of integrating studies.

Keywords: *education, knowledge, polity, technology, labor, integration, competence, component, structure.*

Таълим технологиясининг муҳим дидактик элементи ўқувчилар ўқув фаолиятида қўлланиладиган ўқув қуролларидир. Уларнинг асосий функциялари ўқувчилар ўзлаштириши самарадорлигини ошириш ва улар қобилиятлари даражасидаги фарқлар таъсирини пасайтиришдир.

Ўрта махсус касб-ҳунар таълимида ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси ўқув жараёни босқичидаги компоненти таълим стандартида кўрсатилган. [1, 12]

Педагогик меҳнатнинг субъектив томони ўқитувчининг касбий вазифаларни бажариши учун зарур бўладиган фаолиятли-ролли характеристикалари ва субъектив-фаолият сифатларида ўз ифодасини топади. Бу, энг аввало, қуйидагилардан иборат:

– касбий билимлар — педагог меҳнатининг ҳамма томонлари ҳақидаги объектив зарурий ва амалиёт томондан талаб этиладиган умумий ва касбий компонентларнинг қўшилишидан ҳосил бўладиган маълумотлардир. Улар педагогик меҳнат натижаларига эришишнинг танланган модели, алгоритми ва технологиясини амалга ошириш билан касбий укув, малакалар, ўзига хос психологик сифатлар, касбий позицияларни тарбиялаш учун асос бўлади;

– касбий уқув ва малакалар — педагогнинг таълимий жараёнда ўз мажбуриятлари ва вазифаларини амалга ошириш учун қўллайдиган ишлари ва услублари. Улар педагогик меҳнат технологияси яхлит тизимининг ва бошланғич элементлари бўлади;

– ўзига хос педагогик хусусиятлар (сифатлар) ўқитувчи психикасининг барча компонентлари — жараёнлар, хоссалар, тузилмалар, ҳолатлар шаклланганлигини ифодалайди;

– педагогнинг касбий позицияси — бу унинг турғун установка ва йўналиши; ички ва атрофдаги тажрибанинг, реаллик ва истиқболнинг муносабатлари, баҳолари, шунингдек, касбий фаолиятда амалга ошириладиган (амалга оширилмайдиган, қисман амалга ошириладиган) хусусий интилишларидир. Улар ўз ичига умумижтимоий ва касбий аспектларни олади. [2, 35-36]

Педагог меҳнатининг бу кўрсатиб ўтилган характеристикалари коллеж ўқувчилари фанлардан эгаллаши лозим бўлган билимга оид давлат стандартлари қўядиган талаб билан тўлдирилади.

Касб-ҳунар коллежларида амалга ошириладиган амалиёт, ўқув дастурлари, биринчи навбатда, талабаларда касбий муҳим уқувлар, малакалар ва шахсий сифатларни тарбиялашга эмас, балки уларни психолого-педагогик билимлар мажмуи билан қуроллантиришга йўналтирилган технология билан назарий тайёргарликнинг етарлича (яхши) даражасига эга бўлган, бироқ олинган билимларни амалиётда қўллашда анча қийинчиликларга дуч келадиган кичик мутахассисларга эга бўладилар.

Мустақил тайёргарлик ва дарс тайёрлаш мазмунига ўқув ва касбий фаолиятни психологик ва дидактик асосланган яқинлаштириш ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологиясига таъсир кўрсатади, бунда назарий билимлар мутахассис учун долзарб амалий масалалар ва ишларни ҳал қилиш воситаси бўлиб хизмат қилади.

Давлат таълим стандарти (ДТС), дастур ва адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, касб-ҳунар коллежи ўқувчилари ижодий фаоллигини ошириш мазмунидан ушбу компонентлар ўрин олиши лозим: ўқитиш мақсадлари ва вазифаларини қўйиш, ўқув материали мазмунини танлаш, ўқитиш воситалари, методлари ва шаклларидан фойдаланишни лойиҳалаш, методик талабнинг дидактик ўзаро таъсири, оралиқ ва охирги тескари алоқа уқув ва малакаларни ўқитиш шунингдек, ўз фаолиятини таҳлил қилиш ва рефлексия уқувларига ўргатиш ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ўқитиш технологиясига асос бўлиб хизмат қилади. [3, 14]

Мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялаш бўйича бугунги кунда таълим-тарбия тизимидаги ўрнига келганда, айрим анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирувчи, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ундовчи интерфаол таълим методлари билан бойитиш мақсадга мувофиқдир. Таълим олувчиларни мустақил фикрлашга ундовчи интерфаол таълим методларининг педагогик-психологик моҳияти шундаки, оддий мунозарада баҳслашувчилар кўпроқ онгли, асосли фикрларни баён этишга ҳаракат қиладилар ва мустақил фаолият юритиш натижасида таълим олувчи шахсида ижодкорлик хислатлари шаклланади. Умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида ижтимоий-гуманитар фанларини ўқитишда ўқувчиларнинг билиш ва ижодий фаоллигини оширишнинг педагогик-психологик усуллари ҳақидаги фикр-мулоҳазаларни ўз ичига олган.

Шунингдек, дарс жараёнини оқилона ташкил этиш, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнидаги фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда турли хил замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади. П.Я.Гальперин назариясига мувофиқ, ўқитувчининг роли тахминан қуйидагича бўлади: болалар ўзлаштириши керак бўлган материал порциясини ажратиб олиб, ўқитувчи, болаларнинг айнан қандай иши бу материалга мослигини ўйлаб олади. Дастлабки таништириш босқичининг асосий

мақсади — ўқувчиларни керакли ишни мустақил бажаришга тайёрлаш ва бундай ишни дарҳол ташкил этишдир. Анъанавий педагогика нуқтаи-назаридан вазият ғалати кўринади — болалар ҳали ҳеч нимани билишмайди, аммо янги билимлар билан ишлашлари керак. П.Я.Гальпериннинг ўзи бундай тавсифлайди: “Боланинг интеллектуал имкониятлари муаммоси масаласида ва саъй-ҳаракатлар методларида аниқ ва ишончли ориентирланиш ҳал қилувчи бўлмаса ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ориентирлаш карталарида ориентирлар аниқ ва барқарор ифодаланган бўлса, бола уларни уларни ишонч билан излайди”. Муваффақиятли ўзлаштиришнинг 80% и ориентирлашнинг қанчалик тўғри ва яхши амалга оширилишига боғлиқ.

Ўқувчини бир ҳолатдан бошқа ҳолатга ўтказиш лозим бўлганда ҳар доим юзага келадиган кўплаб педагогик масалаларни ҳал этиш жараёни сифатида қаралади: уни маълум билимга жалб қилиш, укув ва малакалар тизимини бошқа тизимга ўтказиш. Бу кўплаб ечимларни талаб этади ва керакли натижага эришишнинг афзалроқ усулини топишни талаб қилади. Шу муносабат билан ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси мазмунини ўқув фаолиятига қизиқишлари ва ташкил этишларини уйғотиш учун бу вазифаларни маълум кетма-кетликдаги масалалар тизими тилига ўтказишдан иборат.

Буларнинг ҳаммаси ўқувчиларнинг хусусий билимлари ва укувларини интеграциялашни талаб этади. Жумладан, ўқув машғулотини лойиҳалаш ва ўтказиш учун фақат фаннинг мазмунини билишгина эмас, балки билимларни ташкил этишнинг турли усулларини эгаллаганлик, уларни ҳал этилаётган ўқув вазифасига мувофиқ шаклини танлай билиш, ўқувчиларнинг билиш фаолликларини уйғотиш ва ушлаб туриш, машғулотларнинг боришини таҳлил қилиш ва улар натижаларини баҳолашни билиш лозим. Ҳар бир машғулотни ўтказиш педагогнинг фанга доир, педагогик, психологик, умуммаданий, физиологик билим ва укувларини интеграциялашувини (синтезлашни) талаб этади. [4, 78] Таълим мазмунини фанга оид структуралашда афсуски, кўпинча, керакли интеграциялашув рўй бермайди.

Бу вазифа ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштириш технологияси педагогик амалиётни ўтиш жараёнида ҳам бўш ҳал этилади. Ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси ишлаб чиқариш амалиётини ўтганларидан сўнг уларда қизиқиши бўйича бўйича ўтказилган психологик тест ёки анкета сўровининг кўрсатишича, ижодий фаолиятни юқори (ижодий) даражада амалга оширишга қодирдирлар; ўқувчиларнинг ярмидан кўпи бу фаолиятни ўртачадан паст даражада (танқидий) ўтказишга эришади.

Ишлаб чиқариш амалиётининг ташкил этилиши ўрта махсус касб-ҳунар таълими ўқувчилар фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси вазифалари ва унинг фаолият турлари очиб берилмайди, ўқитиш ва тарбиялаш жараёни жадал ҳаракатини таъминлайдиган дидактик қарорларнинг меъёрий характеристикалари белгиланмайди. [5, 66]

Демак, ўқитувчи амалий фаолият тажрибаси, ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг психологик технологиясини билишлари ва укувларни интеграциялаш усули билан эгаллаши, билимдон ва ижодий ишлайдиган, мавжуд шароитларни, ҳар томонлама баҳолашни назарда тутадиган қарорлар қабул қилишга ўргатиш, илмий билимларни трансляциялаш ва педагогик методлар тизимига киритиш учун таҳлил қилиш, шунингдек, ўқувчиларни билан коммуникация усулларига ўргатиш чоғида ўзлаштирилиши лозим. Айтилган фикрларга асосан, кўрсатилган вазифани ҳал этиш учун ўқитиш технологиясига тайёрлаш учун уни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бу хулоса шу билан асосланадики, ўқувчилар томонидан ўзлаштириладиган касбий фаолиятнинг шакллари, методлари ва воситалари, фанга оид ва ижтимоий мазмунининг бутун тизимини изчил моделлаштиришда, яъни ўқув фаолиятидан касбий фаолиятга ўтишда юқоридаги камчиликлар бартараф этилади. Биринчи навбатда, коллежда яхлит таълим жараёнини лойиҳалаш, конструкциялаш ва амалга ошириш укув ва малакаларни талаблари яратиладиган ва амалиётда ёки битирув малака ишини бажариш доирасида тарбиялашни назарда тутмоғи лозим. [6, 25]

Ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаолиятини фаоллаштиришнинг дидактик шароитлари ва технологияси структуравий компонентларини, уни шакллантириш механизмларини ажратиш ва асослаш, узвий ўзаро таъсирда бўлади ва яхлит модели динамик тизимини ташкил этади.

Юқорида баён қилинган фикрлардан шу нарса келиб чиқадики, билиш жараёнининг самарадорлигини таъминловчи зарурий омил назарий (психолого-педагогик) асослар ва уларнинг амалий рўёбга чиқарилишини ўқувчиларнинг фаол ва самарали билиш фаолиятини, уларнинг интеллектуал, касбий ва ижодий қобилиятларини ривожлантирилишини таъминловчи ўқитиш методлари ва шаклларининг бирлиги каби тушуниладиган ўқитиш технологиясидан фойдаланишдир. Янги технологиянинг назарий асоси бўлиб билимларни ўзлаштириш психологик назарияси ҳозирги замон ютуқларининг қоидалари, таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш ижодий қобилиятларни ривожлантириш психологияси хизмат қилиши мумкин.

Таълим жараёнидаги ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаоллигини ошириш учун кўп турли методлар ва амаллар қўлланилади. Бу ўқувчиларни иштирокига

тегишли фаолликларни амалга ошириш ва ишончли муҳит яратиш билан боғлиқ бўлиб туради. Муаллимлар учун муҳим бўлган чекловлар:

1. Интерактив дарсликлар: Ўқувчиларни тезкор иштирокига тегишли дарсликлар ёрдамида билим олишни тезлаштириш мумкин.

2. Ижодий саволлар: Ўқувчиларни фикрларни янада ўрганишга кўмаклашади. Уларни ижодий фаолиятга кўтаради ва янги идеяларни чоп этишга ҳамда муаммоларни ҳали ҳал қилишга ўз кучини кўрсатади.

3. Группа иштироки: Гуруҳ иштирокига асосланган фаолиятлар ўқувчиларнинг саволларни яхши ўрганиш ва жавоб бериш каби кўплаб ёзма масалаларни ёзиб бориш имкониятини беради.

4. Ташвиқот ва театр: Ташвиқот ва театр фаолиятлари орқали ўқувчиларга ижодий фаолиятни янгичасига чекиш ва уларни муаммоларни янада ҳал қилиш учун мотивация қилади.

5. Ўз-ўзининг ижодий манбаларини тезлаштириш: Ўқувчиларни ёзма ишлар ёрдамида ўз-ўзининг ижодий манбаларини ривожлантириш имкониятини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Муҳаммаджонов А. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX – начала XX в. – Т.: “ФАН”, 1978. – 44 б.

2. Каримова В.М., Суннатова Р.И., Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш: (Академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма) – Т.: Шарқ, 2000. – 112 б.

3. Аллаяров И.А. Дидактические основь активного обучения. Автореф. дис. дисс. докт-ра .пед .наук. – Т.: 1994. – 44 с.

4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

5. Сафаров Н.С. Народные идеи и опыть народной педагогики Ўзбекистана. – Т., 1989. – 98 с.

6. Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Theoretical & Applied Science, (2), – 24-26 p.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Nasiba Jumanova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, bolalarni maktabga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs qilib rivojlantirish, ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari, ahamiyati haqida ma’lumotlar berilish bilan bir qatorda bolalarning qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqlarini tarbiyalash, boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyalarni takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishning afzalliklari o‘rganilgan. Maqolada bolalarni maktabga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs qilib rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, uzluksiz ta’lim, o‘yin texnologiyasi, o‘yin, ijtimoiy faoliyat, syujetli o‘yin, pedagogik texnologiya, interfaol o‘yin.*

Аннотация

Данная статья является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня, наряду с подготовкой детей к школе, развитием ребенка как здоровой, развитой, самостоятельной личности, получением знаний в развивающих центрах образовательной организации, прогулками, наблюдением за природой, предоставлением информации о видах игр, их значении, раскрытием способностей детей,воспитанием их страсти к чтению, систематическому обучению, в начальном образовании изучаются преимущества повышения эффективности обучения за счет совершенствования игровых технологий. В статье проанализированы вопросы подготовки детей к школе, развития ребенка в здоровую, развитую, самостоятельную личность.

Ключевые слова: *Дошкольное образование, непрерывное образование, игровая технология, Игра, Социальная деятельность, сюжетная игра, педагогическая технология, интерактивная игра.*

Annotation

This article is one of the topical issues of today, along with preparing children for school, developing a child as a healthy, developed, independent person, gaining knowledge in the development centers of an educational organization, walking, observing nature, providing information about the types of games, their meaning, revealing children’s abilities, educating their passion for reading, systematic learning, and primary education study the benefits of improving the effectiveness of learning through the improvement of gaming technologies. The article analyzes the issues of preparing children for school, the development of a child into a healthy, developed, independent personality.

Keywords: *Preschool education, continuing education, game technology, Game, Social activity, story game, pedagogical technology, interactive game.*

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lishi bilan birga keyingi ta’lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta’lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilganligi barchaning e’tiboridadir.

Maktabgacha ta’limning bosh maqsadi ham aynan, bolalarni maktabga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs qilib rivojlantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqlarini tarbiyalashdan iboratdir. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni turli faoliyatlarga jalb qilishda o‘yin faoliyatlaridan foydalanish bolalarning yanada e’tiborlarini tortib, kun tartibini yanada qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyasini qo‘llashni takomillashtirish orqali ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari shakllanadi, maktabga tayyorlashda ta’lim-tarbiya berishda o‘yin faoliyatini tashkil etish va uni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3, 20].

Buyuk rus psixologi D.V.Elkonin o‘yinning kelib chiqishiga oid yangi g‘oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarni mehnat qilishlari uchun qulay o‘yinchoq mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O‘yinchoq-qurollar paydo bo‘lishi natijasida rolli o‘yinlar paydo bo‘ldi. D.V.Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha, o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi va kattalar mehnatida ishtirok etishi orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg‘otish zarurligi g‘oyasini ilgari surgan.

Maktabgacha ta’limda o‘yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi. Go‘dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. Bular N.L.Figurin, M.P.Denisova, A.Vallon, D.B.Elkonin, M.Y.Kistyakovskiy, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir. O‘yin har doim hayotni aks ettiradi. Shuning uchun, uning mazmuni ijtimoiy voqelikda doim o‘zgarib turadi [1, 35].

O‘yin maqsadga qaratilgan, aniq o‘ylangan murakkab jarayondir. O‘yin jarayoni asosida o‘quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko‘p o‘ynasa atrof-olam haqida shuncha tushunchalarga ega bo‘ladi, o‘yin jarayonida bolada dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlari, istaklari har xil turdagi faoliyatlarda rivojlanadi, mustaqil xatti-harakatlarida paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati o‘yin bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda bolada muhim bo‘lgan kompetensiyasilar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan kuzdan kechirib chiqish, shartlarni bajarilishini tahlil qilishni o‘rganadi. Bolalar o‘yinlari o‘zining xilma-xilligi, rangbarangligi bilan ajralib turadi.

O‘yinlar o‘z mazmuni va tashkil etilishi bolalarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, vositalarining turlari hamda kelib chiqishiga ko‘ra xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini D.B.Elkonin o‘z navbatida quyidagicha tasniflagan:

– Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;
– Ishlab chiqarish syujetiga oid o‘yinlar;
– Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar. [5, 489]

Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunidan ularning o‘yinlari asosan faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari ko‘payib boradi. Mana shu o‘yinlar orqali bog‘cha, oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog‘ida hayvonlar, bog‘ va polizda turli meva va sabzavotlar, turli xil kasblar haqida bilim ko‘nikma hosil bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar o‘yin jarayonida o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga bog‘liq psixologik muammoni o‘rgangan. O‘yin jarayonida alohida harakatlar emas balki, murakkab harakatlar (masalan, ish, xat, rasmlar) amalga oshiradi. O‘yin ham har bir faoliyat singari jamoatchilik xususiyatiga ega, shuning uchun ham bu odamlarning tarixiy yashash sharoitida o‘zgarishlar bilan o‘zgaradi, takomillashib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zaro tengdoshlari bilan muloqoti asosan o‘yin jarayonida yuzaga keladi. Birga o‘ynab bolalar bir-birlarini hurmat qilishini, boshqa bolalarni harakati va xohishlarini inobatga olishni, o‘yin imkoniyatlaridan kelib chiqib birga rejalar tuzishini o‘rganishadi. O‘yin texnologiyasini rivojlantirish orqali erta bolalik davrida kattalar bolani atrofdagi haqiqat bi-

lan tanishtirishadi, o‘zaro aloqa jarayonida unga harakatlar, narsalar va odamlar bilan munosabatlar to‘g‘risida ma’lum tajriba va bilimlar berishadi [2, 26].

Maktabgacha yoshdagi bola narsalarga teginish, sinash, boshdan kechirish orqali tajribalarga ega bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanganligi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. Interfaol usul:

1. Pedagogik texnologiyaning ajralmas bir qismi sifatida ta’lim-tarbiyaning umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir .

2. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi, optimallashtirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj.

3. Didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali mahorat tarzida tashkil etishdir.

4. Yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya’ni shaxsni rivojlantirish tarbiyalash shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5. Shaxsiylik xususiyatga ega bo‘lib muayyan ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashga nisbatan yagona, qat’iy, me’yorlar talab etilmaydigan jarayon. O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O‘yin texnologiyasi an’anaviy ta’limdagi o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlariga pedagogik texnologiya va interfaol usullarni maqsadli qo‘llash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta’lim shakllarini optimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o‘stirish va ta’lim samaradorligiga erishishga olib keladi. [5, 488]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyalar qo‘llashni takomillashtirishga bo‘lgan talab va e’tibor kuchaymoqda.

1. Bolalarni har tomonlama tarbiyalash hamda o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

2. O‘yin samarali davolash vositasi maktabgacha yoshdagi shaxsning shakllanishi, uning axloqiy va irodaviy fazilatlari, dunyoga ta’sir o‘tkazish zarurati o‘yinda amalga oshiriladi.

3. O‘yin texnologiyalari bolalarga ta’lim va tarbiya berishning metod va usulidir.

4. O‘yin — bu insonni uni o‘rab turgan dunyoga munosabatini aks ettiruvchi faoliyat.

5. O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi.

6. O‘yinda bolaning tafakkuri va tasavvurining o‘ziga xos xususiyatlari muloqotga bo‘lgan.

7. Bu bolalar uchun eng qulay faoliyat turi, atrofdagi olamdan olingan taassurotlarni qayta ishlash usuli.

Bolalarning o‘zlari tomonidan yaratilgan o‘yin texnologiyalari alohida o‘rin egallaydi — ular ijodiy yoki syujetli — rol o‘ynash deb nomlanadi. Ushbu o‘yinlarda bolalar kattalar hayoti va faoliyatida atrofda ko‘rgan barcha narsalarni rollarda ko‘paytiradilar. Ijodiy o‘yin bolaning shaxsiyatini to‘liq shakllantiradi, shuning uchun u ta’limning muhim vositasidir [4, 75].

O‘yin texnologiyalarining afzalliklari o‘yin bolalarning kognitiv jarayonlarini diqqat, idrok, fikrlash, yodlash va tasavvurni rag‘batlantiradi, rag‘batlantiradi va faollashtiradi; o‘yin, olingan bilimlarni talab qilib, ularning kuchini oshiradi; asosiy afzalliklardan biri — guruhdagi deyarli barcha bolalarda o‘rganilayotgan obyektga qiziqishning ortishi; o‘yin orqali o‘rganishda qisqa masofali istiqboldan foydalaniladi; o‘yin bolaga bilimlarni hissiy va mantiqiy o‘zlashtirishni uyg‘un ravishda birlashtirishga imkon beradi, buning natijasida bolalar kuchli, ongli va his qilingan bilimlarni oladilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishda o‘yin turlari va o‘yinchoqlar muhim o‘rin egallaydi. O‘yin faoliyati va unda foydalaniladigan o‘yinchoqlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarning fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, ayrim didaktik ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi

Maktabgacha va boshlang‘ich yosh davrida bolalar o‘yinqaroq bo‘lishadi va mana shu jarayonda tushuncha, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib borishadi. Shunda ekan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyalari qo‘llashni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega jarayon bo‘lib, o‘yin orqali bolalarda funksional xususiyatlari shakllanadi, bilish faoliyati o‘sadi, shaxsiy xususiyatlari rivojlanadi [4, 73].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yoshida bolalarning o‘yin texnologiyalari qo‘llashni takomillashtirishda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin texnologiyalarini rivojlanish darajalari, mazkur jarayon samaradorligining asosiy pedagogik sharoitlarini shakllantirish va asoslashga imkon beradi. O‘yin texnologiyasi rivojlanganligi o‘qitish texnologiyasining zamonaviy innovatsion xususiyatlarini, 6-7 yoshdagi bolalarning qiziqishlarini, qobiliyatlarini, jamoada o‘zini tutishi, dunyoqarashini kengaytirishga, bilim darajasini o‘sishiga, muomala madaniyati, turli xatti-harakatlarini o‘sishiga, psixik holatlarni boshqarishga asoslanadi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘yin texnologiyalarini qo‘llashni takomillashtirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilishi kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta’minotini takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 688 b.
2. Abdullayeva M.A. “O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 88-b.
3. Djurayeva R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. “Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. – T.: “Fan va texnologiya, 2015. – 120 b.
4. Turopova Ra’no Barat qizi. “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati”. “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендири” ilmiy-metodik jurnali. – 2021. – 5-son. – 72-77-b.
5. Turopova Ra’no Barat qizi. “Bolalarni o‘yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o‘yinlar” “Science and Education” Scientific Journal. April, 2021 / Volume 2. Issue 4. – 487-491-b.

МАЪНАВИЙ РИВОЖЛАНИШ МИЛЛИЙ СУВЕРЕНИТЕТНИ САҚЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Акбар Эшмуродов,
Ренессанс таълим университети
“Ижтимоий-сиёсий фанлар” кафедраси доценти,
с.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация

Ушбу мақолада жамиятнинг маънавий ривожланиши миллий суверенитетни сақлаш омили эканлиги баён этилган. Маълумки, жамиятнинг маънавий юксалиши, миллий суверенитетни сақлаш одамларнинг маънавий, ахлоқий, ижодий, интеллектуал ривожланиш даражаси, дунёқараши ва хатти-ҳаракатларига бевосита боғлиқ. Тадқиқотлар кўрсатмоқдаки, келажакда жамиятнинг равнақи ва фаровонлиги маънавий-ахлоқли одамлар жамоасининг кўплигига боғлиқ. Шунингдек, мақолада маънавий ривожланиш орқали миллий суверенитетни таъминлаш йўллари таҳлил этилган ҳамда бир қатор таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *маънавий ривожланиш, суверенитет, таълим, илм-фан, маънавият, шахс, жамият, зиёли, қадрият, миллий ғоя, ижтимоий тараққиёт, “оммавий маданият”.*

Аннотация

В статье говорится, что духовное развитие общества является фактором сохранения национального суверенитета. Известно, что духовный подъем общества, сохранение национального суверенитета напрямую зависят от уровня духовного, нравственного, творческого, интеллектуального развития людей, их мировоззрения и поведения. Исследования показывают, что процветание и благополучие общества в будущем зависит от духовно-нравственного сообщества людей. В статье также анализируются пути обеспечения национального суверенитета посредством духовного развития, а разработано ряд предложений.

Ключевые слова: *духовное развитие, суверенитет, образование, наука, духовность, личность, общество, интеллигенция, ценность, национальная идея, социальный прогресс, “массовая культура”.*

Annotation

The article says that the spiritual development of society is a factor in preserving national sovereignty. It is known that the spiritual uplift of society and the preservation of national sovereignty directly depend on the level of spiritual, moral, creative, and intellectual development of people, their worldview and behavior. Research shows that the prosperity and well-being of society in the future depends on the spiritual and moral community of people. The article also analyzes ways to ensure national sovereignty through spiritual development, and a number of proposals have been developed.

Keywords: *spiritual development, sovereignty, education, science, spirituality, personality, society, intelligentsia, value, national idea, social progress, “mass culture”.*

Ҳар қандай ижтимоий тараққиёт асосини жамият соҳаларининг бир-бирига бўлган ўзаро ва доимий таъсиридаги тадрижий муносабатлар ташкил этади. Айниқса, бугунги глобаллашаётган дунёда бу боғлиқлик ўта муҳим ҳисобланади. Жамиятнинг маънавий соҳаси тинчлик даврида ҳам, урушда ҳам бутун ижтимоий ҳаётнинг ҳар томонлама ривожланишининг асоси бўлиб хизмат қилади. Жумладан, иқтисодий тараққиёт учун маънавий соҳадаги барқарорликни ёки ҳарбий-мудофаа соҳасидаги хавфсизлик учун миллий руҳият, ватанпарварлик ва юксак маънавиятни таъминламасдан туриб эришиб бўлмайди.

Маълумки, суверенитет (франц. Souverainite — олий ҳокимият) сўзи давлатнинг ички ва ташқи сиёсатдаги тўла мустақиллигини англатувчи тушунча бўлиб, давлат суверенитети ҳақидаги ғоя XVI асрда француз

олими Жан Боден томонидан илгари сурилган. У суверен бўлмаган давлатни давлат деб ҳисобламаган [4, 516]. Миллий суверенитет деганда миллатнинг суверенитети, унинг бошқа миллатлар билан муносабатлар шаклини танлашда сиёсий эркинлиги тушунилади. Бугунги кун воқелиги шуни кўрсатмоқдаки, мустақил давлатлар суверенитетини писанд қилмай, уларнинг ички ишларига аралашаётган кучлар аслида дунёга ҳукмронлик қилишга, ўзга мамлакатлардаги ер усти ва ер ости бойликларини эгаллаб олиш, муайян минтақалардаги тинч-осуда ҳаётни издан чиқариш, ҳокимият тепасига айнан ўша давлатларнинг манфаатларига хизмат қиладиган кучларнинг келишига ёрдам беришга интилаётгани яққол намоён бўлмоқда. Бир сўз билан айтганда, бу жараёнлар янги кўринишдаги мустамлакачилик, гегемонизм ва буюк давлатчилик шовинизмига хизмат қиладиган ҳаракатдир.

Шу боисдан, жамиятнинг маънавий юксалиши, миллий суверенитетни сақлаш одамларнинг маънавий, ахлоқий, ижодий, интеллектуал ривожланиш даражаси, дунёқараши ва хатти-ҳаракатларига бевосита боғлиқ. Тадқиқотлар таҳлили кўрсатмоқдаки, келажакда жамиятнинг равнақи ва фаровонлиги маънавий-ахлоқли одамлар жамоасининг кўплигига боғлиқ бўлиб, ҳақиқатан ҳам бундай одамлардан ташкил топмаган жамият билан буюк давлат ҳам, суверен давлат ҳам қуриб бўлмайди.

Тараққий этган давлатлар — АҚШ, Хитой, Япония, Жанубий Корея ва Сингапур тажрибасига эътибор қаратадиган бўлсак, бу мамлакатлардаги маънавий муҳит, миллий ғоя ва мафкуранинг мавжудлиги, инсонларда ватанпарварлик туйғусининг кучлилиги, илмий тадқиқотлар ривожланишининг юқори суръатлари, аҳоли учун барча таълим турларига, айниқса, олий техник таълимга кенг йўл очилганлиги юксак тараққиётининг бош омили бўлиб хизмат қилган. Айни пайтда қулай маънавий муҳит, юрт равнақига йўналтирилган миллий ғоя, инновацион ва инвестицион иқлим ярата олмаган, фан ва таълимнинг издан чиқишига йўл қўйган қатор ривожланаётган мамлакатларда маънавий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг орқага кетиш даражалари чуқурлашиб кетди. Айниқса, ўтиш даврини бошидан кечираётган мамлакатларда, шу жумладан, Ўзбекистонда ҳам бу жараён оғир кечмоқда.

Тан олишимиз керак, жамиятимиз ҳаётининг барча соҳа ва тармоқлари қатори маънавий-маърифий ишларимизда ҳам ҳали ечимини кутиб турган, ўзгаришлар шамоли кириб бормаган масалалар оз эмас. Янги ҳаёт, янги жамият қуришга қаратилган ислоҳотлар жараёнида бу ишларимизнинг назарий асоси бўлган миллий ғояни ривожлантириш, айниқса, ғоят муҳим аҳамиятга эга. Жаҳон тарихига назар солсак, ҳар бир халқ, аввало, ўз миллий ғояси асосида бирлашиб, тараққий этгани, мураккаб синовлардан ўтиб келаётганига амин бўламиз [1, 5].

Жамиятнинг маънавий ривожланиши, миллий суверенитетни сақлашнинг муҳим йўналишларидан бири интеллектуал (таълим, илм-фан, маънавият ва маърифат) фаолият соҳаси бўлиб, бунда зиёлиларнинг сифат таркиби муҳим ҳисобланади. Айнан илмий-маънавий элита ижтимоий муносабатларнинг барча соҳаларида содир бўлаётган жараёнларга сезиларли таъсир кўрсатади, тарихий ривожланиш йўналишини яхши ёки ёмон томонга ўзгартиришга қодир. Дарҳақиқат, ҳақиқий зиёлилар жамиятнинг маънавий, мафкуравий элитаси бўлиб, уларнинг хатти-ҳаракатлари билан жамиятда янги маънавий дунёқараш шаклланади ва ривожланади. Сиёсатшунос олим Т.Алимардонов таъкидлаганидек: “бугунги ривожланган индустриал жамиятда зиёли ва салоҳиятли қатлам тушунчалари ўртасида маълум фарқлар ва тафовутлар вужудга келди. Бу масалага ҳам ойдинлик киритиш талаб этилади. Жумладан, салоҳиятли қатлам тушунчаси жамиятда ижтимоий соҳалар, йўналишлар, мутахассислик фаолияти билан боғлиқ муносабатларга нисбатан ишлатилади. Яъни, иқтисодчи, сиёсатчи, муҳандис, архитектор, композитор, ўқитувчи, шифокор, ёзувчи ва бошқалар. Улар ўз соҳаларида маълум бир даража ва эътирофга сазовор қатлам сифатида қаралади. Зиёли ва салоҳиятли элита вакилларининг фарқи уларнинг комиллик даражаси билан белгиланади. Агар салоҳиятли қатлам деб, маълум бир касбни маҳорат даражасида эгаллаган шахсларга нисбат берилса, зиёли касбдан ташқари юксак инсонийлик, юксак ақл-идрок, тафаккур, бой маърифат туйғулари билан ажралиб туради [6]. Шундай экан, жамиятнинг маънавий қудрати зиёлилар фаолияти билан амалда таъминланади. Зиёлилар жамият деб номланган тўғоннинг фильтри сифатида жамики, иллат ва қусурлардан инсон руҳини тозалайди ҳамда миллатнинг барқарор ривожланиши учун шароит яратади.

Ижтимоий тараққиётнинг муҳим таркибий қисмларидан бири маданият соҳасидаги тараққиётдир. Маданий тараққиётсиз баркамол шахс ва бус-бутун маънавий соғлом жамият бўлиши мумкин эмас. Инчунин, маданиятнинг мамлакатимизнинг ижтимоий-маънавий тараққиёти ва миллий суверенитетни сақлашда тутган ўрни беқиёсдир. Биринчи Президентимиз И.Каримов таъкидланганидек, “... маданият бизнинг умумий тафаккуримизнинг, миллий қадриятларимизнинг асосидир. Миллий ва жаҳон маданиятининг энг яхши намуналарини кенг тарғиб қилиш ва оммалаштириш ёш авлодни, ҳозирги ёшларимизни маънавий тарбиялашнинг асоси бўлмоғи керак” [4, 273].

Шу билан бирга ҳозирги вақтда ахлоқсизликни маданият (“оммавий маданият”) деб билиш, маънавий қадриятларни менсимасдан, эскилик сарқити деб қараш билан боғлиқ ҳолатлар бугунги тараққиётга, инсон ҳаёти, оила муқаддаслиги ва ёшлар тарбиясига катта хавф солмоқда. Кўпчилик бутун жаҳонда бами-

соли бало-қазодек тарқалиб бораётган бундай хуружларга қарши курашиш нақадар муҳим эканини англаб олмоқда. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев масаланинг долзарблигига алоҳида тўхталиб, “Биз бир нарсани ҳеч қачон эсимиздан чиқармаслигимиз зарур. Агар “оммавий маданият” таҳдиди фақат четдан — Ғарбдан кириб келади, десак, қаттиқ адашамиз. Бу бало, афсуски, ўзимиздан, ўз орамиздан ҳам чиқиши мумкин. Мен бу гапларни осмондан олиб айтаётганим йўқ. Юртимизда нашр этилаётган айрим газета журналлар, китобларни, суратга олинаётган баъзи клип ва киноларни, эфирга берилаётган қўшиқ ва рақсларни кузатиб, соғлом фикрлайдиган ҳар қандай одам шундай хулосага келиши табиий” деб таъкидлайди [2]. Шу сабабдан, бугун замон огоҳлик даври бўлиб, халқимизни, айниқса, ёшлар қалбини, руҳиятини, ақлидроки ва умуман маънавий дунёсини, маданий оламини “оммавий маданият” ниқоби остидаги хатарлар, турли сиёсий технологияларнинг зарарли таъсирларидан муҳофаза қилишимиз зарур.

Маълумки, таълим-тарбия жараёни маънавий ривожланиш ва миллий суверенитетни сақлашнинг таянч омилларидан бири. Боиси, дунёда содир бўлаётган ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-маданий, илмий-техникавий ва ижтимоий-психологик жараёнлар динамикасини кузатган ҳолда айтишимиз керакки, фақат замонавий таълим-тарбия тизими орқалигина ўзлигимизни, тараққиётимизни таъминлай оламиз. Шу сабаб, мамлакатимиз ўз тараққиётининг янги, юксак босқичига кираётган ҳозирги пайтда бизга жадид боболаримиз каби ғарб илм-фан ютуқлари билан бирга, миллий қадриятлар руҳида тарбия топган етук кадрлар сув билан ҳаводек зарур. Учинчи мингйилликнинг ижтимоий-маданий воқелиги, яъни глобаллашув, ахборотлашув, фан-техника тараққиёти, инсониятнинг маънавий-ахлоқий қадриятларини қайта кўриб чиқишга интилиши таълим-тарбия методологиясини ўзгартиришни, янгича эстетик дунёқарашни шакллантиришни талаб этмоқда. Замоннинг ушбу концептуал хусусиятларига жавоб бера олиши учун албатта миллий таълим тизимини шакллантириш ва шу асосда ёшларимизни тарбиялаш зарур.

Жамият тараққиётида инсон ҳаётининг моддий томони ҳам қушнинг икки қаноти каби муҳим ҳисобланади. Одамларнинг табиий физиологик эҳтиёжларини қондирмасдан туриб, уларнинг ҳар томонлама маънавий ривожланиши ҳақида гапириб бўлмайди. Замонавий дунёда маънавий ривожланишсиз, жумладан, иқтисодий соҳада ҳам ҳақиқий ривожланиш бўлиши мумкин эмас. Демак, маънавият ва иқтисод бир-бирини инкор этмайди, балки бир-бирини ўзаро қувватлаб, ривожланиб боради. Айтиш керакки, бугунги ўзгарувчан бозор иқтисодиёти шароитида рўй бераётган иқтисодий деградация жараёнлари маънавият соҳасида миллий қадриятлар ўрнига “оммавий маданият”нинг алмашишини юзага келтирмоқда.

Юқоридаги фикрлар асосида таъкидлаш керакки, жамият ўзининг маданий ва тарихий меросини, аҳолининг барча ижтимоий қатламлари маънавий ривожланишига асосланган барқарор ижтимоий тараққиётини сақлаб қолган тақдирдагина ўзининг миллий ўзига хослиги, суверенитетини ва давлатчилигини сақлаб қолиши мумкин. Маънавий ривожланиш кўп қиррали жараён бўлиб, таълим, илм-фан, маънавият, маданият, санъат ва диний соҳалардаги ривожланишни англатади. Ҳар бир фуқаро билиши зарурки, фақат мустақилликкина ҳақиқий маънавий ривожланиш учун йўл очади, бу соҳадаги барча қадриятларни безавол сақлаш, асраб қолиш ва келажак авлодларга етказиш имконини беради. Мамлакатнинг маънавий ривожланишини таъминлаш учун энг аввало, ўсиб келаётган ёш авлодни илмий билимлар билан қуроллантириш, уларда маънавий тафаккурни юксалтириш, ақлий салоҳият ва маънавий сифатларни ривожлантиришни йўлга қўйиш зарур.

Жамиятнинг маънавий ривожланишини таъминлаш учун қуйидаги йўналишларга эътибор қаратишни лозим деб ҳисоблаймиз:

– таълим тизимини ислоҳ қилиш: ўқитишнинг механик усулларидан воз кечиш ва ўқитиладиган фанларни ижодий ўрганишга ўтиш (барча таълим муассасаларида);

– миллий санъат ва маданиятнинг илғор анъаналарини асраб-авайлаш мақсадида етакчи театр ва кинокомпаниялар томонидан ишлаб чиқарилаётган маънавий маҳсулотлар устидан жамоатчилик назоратини ташкил этиш;

– ўзбек халқининг буюк тарихий ютуқлари, барча соҳалардаги таниқли шахслар ҳаёти ва ижодини тарғиб қилиш тизимини такомиллаштириш;

– жамиятда фундаментал фан ва тадқиқотлар соҳасидаги илмий фаолиятни оммалаштириш;

– барча ёшдаги иқтидорли шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш (шу жумладан, молиявий) ишларини такомиллаштириш, уларнинг ютуқларини мамлакат ичида ва халқаро миқёсда тарғиб қилиш;

– аҳоли ўртасида маълумот алмашиш имкониятини берувчи илмий-оммабоп, адабий-бадиий журналлар ва телевизион каналларни яратиш ҳамда давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;

– ёшларни ҳарбий-ватанпарварликка йўналтириш, шу жумладан ушбу йўналишдаги ҳаракатларни қўллаб-қувватлаш, уларни радиостанциялар ва телеканалларда эфир вақтлари билан таъминлаш.

Дарҳақиқат, давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Илгари ўз мақсад ва манфаатларини асосан дипломатия ва сиёсат билан ҳимоя қилиб келган дунёдаги қудратли марказлар энди очиқчасига босим ўтказиш, қарама-қаршилик ва тўқнашувлар йўлига ўтганига ҳаммамиз гувоҳмиз. Афсуски, бундай

кенг кўламли ва ўта зиддиятли жараёнларнинг таъсири Марказий Осиё минтақаси ва унинг таркибий қисми бўлган мамлакатимизни ҳам четлаб ўтмаяпти. Ана шундай ғоят мураккаб ва таҳликали вазиятда Ўзбекистоннинг миллий манфаатларига жавоб берадиган тўғри йўлни топиш албатта осон бўлмаяпти” [3].

Шу боисдан, сўнги сўз ўрнида айтишимиз лозимки, миллатнинг маънавий ривожланиши халқаро муносабатларда иштирок этувчи, жаҳон ҳамжамиятининг тенг ҳуқуқли мустақил субъекти сифатида давлатимизнинг маънавий яхлитлигини, шунингдек, мамлакатимизнинг ҳудудий яхлитлиги ва суверенитетини сақлашнинг асосий омилларидан бири. Замонавий дунёда мамлакатнинг ягона маънавий маконини сақлаб қолиш омилларини эътиборсиз қолдириш, муқаррар равишда жамиятнинг маънавий таназзулига олиб келади. Бугунги геосиёсий курашлар кучайган даврда мамлакатнинг суверенитетини, мақомини сақлаб қолиш учун нафақат ички жиҳатдан кучли бўлиш, балки фаол ташқи сиёсатни юритиш, шу жумладан геосиёсий маънавий маконда ҳам фаол бўлиш керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик — миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн]. – Т.: “Тасвир” нашриёт уйи, 2021. – 36 б.

2. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. “Халқ сўзи”, 04.08.2017.

3. Бугун жаҳон миқёсида тараққиёт суръатлари мисли кўрилмаган даражада шиддатли тус олмоқда. https://xs.uz/uzkr/108324

4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 760 б.

5. Зиёли ким ёхуд орифликнинг масъулияти нимада? https://xs.uz/uzkr/post/ziyoli-kim-yokhud-oriflikning-masuliyati-nimada.

PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYADAN TA’LIM JARAYONIDA FOYDALANISH

Lola Razikova,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya sohasida pedagogik va innovatsion texnologiyani qo‘llash haqida so‘z yuritiladi. Pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta’lim jarayonini sodda va samarali qilishda katta ahamiyatga ega. Bu esa ta’limning qiziqish va o‘zlashtirish darajasini oshiradi va o‘quvchilarni innovatsion g‘oyalar o‘rganishga rag‘batlantiradi. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarni murojaatga, o‘rganishning interaktiv usullariga va ko‘nikmalarini amalda oshirishga yordam beradi. Uning samaradorligi tahlil qilingan, natijalar va boshqa farqlar ko‘rsatilgan holda uning maqsad va vazifalari hamda ta’limdagi yutuqlarini ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta’lim islohotlari, o‘quv jarayoni, o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati, uzluksiz ta’lim.*

Аннотация

В данной статье говорится об использовании педагогики и инновационных технологий в сфере образования. Большое значение в обеспечении простоты и эффективности образовательного процесса имеет использование педагогических и инновационных технологий. Это повышает уровень интереса и усвоения образования и побуждает студентов изучать инновационные идеи. Эти технологии помогают учащимся получать доступ, учиться в интерактивном режиме и практиковать свои навыки. Анализируется ее эффективность, показаны результаты и другие отличия, делается попытка показать ее цели и задачи, образовательные достижения.

Ключевые слова: *педагогические технологии, инновации, образовательные реформы, образовательный процесс, деятельность студентов и преподавателей, непрерывное образование.*

Annotation

This article talks about the use of pedagogy and innovative technology in the field of education. The use of pedagogical and innovative technologies is of great importance in making the educational process simple and effective. This increases the level of interest and absorption of education and encourages students to learn innovative ideas. These technologies help

students to access, learn interactively and practice their skills. Its effectiveness is analyzed, results and other differences are shown, and an attempt is made to show its goals and tasks and educational achievements.

Keywords: *pedagogical technology, innovation, educational reforms, educational process, student and teacher activity, continuous education.*

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan, uni mustahkamlash yo‘lida chuqur islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy texnologiyani mukammal o‘zlashtirgan, xalq manfaati yo‘lida bor kuch va salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yosh kasb egalarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Maqolaning kirish qismida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish maqsadida pedagogik va innovatsion texnologiyalar sohasida juda katta ishlar amalga oshirilayotganiga to‘xtalingan, bu ishlar qanchalik zarur va dolzarb ekanligi asoslangan.

Maqolaning asosiy maqsadi jamiyatga kirib kelayotgan yosh mutaxassisni jamiyat talablariga javob beradigan, o‘z kasbini mohir ustasi sifatida hayotga tayyorlash va ilmiy salohiyati bilan zamondan orqada qolmagan yetuk va komil inson sifatida shakllanish imkoniyatidan bahramand etish bilan birga, ularga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish san’atini shakllantirishdir.

Davlatimiz siyosatida yoshlar tarbiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi[1]. Avval bu borada birlamchi vazifalar belgilab berilgan edi. Ularga asosan har bir yo‘nalish bo‘yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqildi. Yig‘ilishda mazkur dasturlarga kiritilgan takliflar, ularni amalga oshirish mexanizmlari muhokama qilindi.

Bugungi zamon talabi har bir ta’lim sohasida, u o‘qitish, kasb-hunar o‘rgatish yoki tarbiya berish bo‘ladimi, dunyo talablariga javob beradigan, yuqori sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va isloh qilishni talab etmoqda. Buning uchun esa ta’lim berishda yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uni amalda tatbiq etish zaruriyati tug‘ilmoqda. Bu borada juda ko‘p olimlar va yetuk pedagoglar katta ishlar qilmoqda.

AQShning mashhur olimlari B.Blum, L.Larsen, B.Skinner, D.Finn, D.Kratval, R.Gane, L.Brig “Pedagogik texnologiyalar”ning nazariy masalalarini yaratishga munosib hissa qo‘shganlar, ular pedagogik teriologiyalarning asoschilari hisoblanadilar.

Shuningdek, respublikamizning ko‘zga ko‘ringan olimlari N.Saidaxmedov, B.L.Farbermen, K.Ishmatov, M.Kamoldinov, B.Vaxobjonov, U.Tolipov, N.N.Azizxo‘jayeva o‘z asarlarida pedagogik texnologiyaning yutuqlari va samaradorligi haqida yaxshi fikrlar bildirganlar.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, har bir ijodkor o‘qituvchi bugun o‘z kasbini ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarsiz tashkil etmasligi lozim. Bu borada o‘ta dolzarb va zarur bo‘lgan hamda eng ko‘p samara beradigan, ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llar, metod va uslublar, o‘qitish shakllari, vositalarini o‘qituvchining o‘zi yaratadi, takomillashtiradi. Zero, o‘qituvchiga kuch-g‘ayrat beradigan asosiy manba — o‘quvchidir. Ularning qiziqishlari, intilishlari va faolligi o‘qituvchiga ruhiy madad, ilhom baxsh etadi. Natijada “Pedagogik texnologiya”, “Pedagogik innovatsiya” atamalari yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy o‘rinni, shubhasiz, ta’lim mazmuni egallaydi.

B.L.Farbermenning fikricha: “Ko‘p bosqichli ta’lim tizimi, yangi standart va o‘quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o‘qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak” [2, 13].

Bugungi kunda turli ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta’limning o‘rni va darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik texnologiyaning vazifalaridan kelib chiqib, uning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi.

Demak, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi prinsiplar va yangi mafkuraviy negizda, yangi ta’lim berish usullarida qayta qurish, ta’lim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin va bu zaruriy ehtiyojga aylanadi.

Pedagogik texnologiya — o‘qituvchining o‘quvchilarga o‘qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning 2-bosqich ta’limi mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda olib kirish vazifasi qo‘yilmoqda va o‘qituvchilarimiz ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar.

Pedagogikaga bag‘ishlangan adabiyotlarda “Pedagogik texnologiya”, “Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilg‘or pedagogik texnologiya” kabi tushunchalar keng qo‘llanmoqda va turlicha izohlanmoqda. Bular orasida YUNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta’rif e’tiborga loyiqdir: “Pedagogik texnologiya — butun o‘qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir” [2, 44].

“Texnologiya” so‘zi sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanadigan usul va metodlar yig‘indisini bildiradi. Ta’lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o‘qish va o‘qitishning o‘zaro uzviyligi, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta’lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning bosqichma-bosqichligini ta’minlash, rejalashtirilgan ishlarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim berish san’ati, ta’lim berish mahorati ma’nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda ta’lim berish san’atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish tushuniladi.

Masalan, N.Saidaxmedov “Pedagogik texnologiya” atamasini quyidagicha ifodalaydi: “Pedagogik texnologiya tushunchasi haqida to‘xtalar ekanmiz, eng avvalo, uning ma’nosini anglab olaylik. Ta’lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari, mohiyati xususida so‘z yuritish uchun “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasining tub ma’nosini anglash talab etiladi. “Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “Techne” — mahorat, san’at hamda “logos” — tushuncha, ta’limot so‘zlarining birlashmasidan hosil bo‘lgan. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi esa lug‘aviy jihatdan (inglizcha “an edicatioal technology”) ta’lim (o‘qitish) jarayonini yuksak mahorat san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi fan (yoki ta’limot) ma’nosini anglatadi” [3, 32].

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqib, pedagogik faoliyatda qo‘llanadigan barcha zamonaviy vositalar, ta’lim sifatini yuksaltirishda xizmat qiladigan va dars samaradorligini oshiradigan, o‘qituvchining yuksak mahoratli, san’at darajasidagi ijodiy faoliyati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatining yuksakligi va bunday darsdan o‘quvchining zavqlanib bahramand bo‘lishi, ta’limda pedagogik texnologiyalar to‘g‘ri tashkil etilganligidan dalolat beradi [4, 54].

Bunday jarayonni tashkil etishi uchun ta’lim tizimiga moslashgan, o‘quvchilar yoshini inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning quyidagi vazifalari va xususiyatlari mavjud:

– ta’lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish;

– ta’lim-tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;

– ta’lim-tarbiya jarayoni mohiyatini bashoratlash va uning mazmunini ishlab chiqish;

– ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shaxs, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash;

– ta’lim jarayonida talabaning erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma’lum ko‘nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o‘rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash;

– talabalarni faoliyatga yo‘naltirish va ularni faollashtirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.

Ana shu pedagogik texnologiya o‘z vazifalaridan kelib chiqib uch xil xususiyatga ega:

– ilmiylik: ilmiy-nazariy hamda amaliy g‘oyalar shakllanish jarayonining mohiyatini ifodalash, o‘quv-tarbiya maqsadi, mazmuni, shakl, uslublarini ilmiy jihatdan asoslash, pedagogik jarayonning umumiy loyihasini ishlab chiqish;

– amaliylik: amaliyotdagi tatbiqiy hamda samaradorlik darajasini aniqlash;

– tavsifiylik: rejalashtirilgan pedagogik faoliyat natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metod va vositalar yordamida algoritm jarayonini yoritish.

Shunga xos belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan tizimli yondashuvga asoslangan ta’lim jarayoni innovatsion yondashuv demakdir [5, 93].

Yangi pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti, ya’ni faol ishtirokchisi, o‘qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi obyekti sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o‘quvchi faol ishlovchi shaxs bo‘lib, u butun mashg‘ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirasida tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo‘llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg‘otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir. Pedagogik texnologiya ta’limida o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish, o‘quvchilarning o‘z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o‘tishda eng asosiy talab o‘quvchining hayotiy tajribasi, avval o‘zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko‘zda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o‘qitish usullari haqida so‘z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan o‘ndan ortiq metod mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Modulli ta’lim texnologiyasi. Bu o‘quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi. Modulli ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos jihati o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi. Uning asosiy g‘oyasi o‘quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o‘quvchilarni hamkorlikda o‘qishga o‘rgatish, ular o‘rtasida o‘zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo‘yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan

muhokamani uyushtirish va xulosalarning to‘g‘riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O‘quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug‘dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo‘linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o‘yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o‘yinlarni qo‘llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg‘otish.

6. Sinov darslari. O‘quvchilarning ma’lum bilim va ko‘nikmalarini sinash maqsadida o‘tkaziladigan darslar bo‘lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqalari orqali o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish o‘qituvchiga bog‘liq. O‘qituvchi ijodkor bo‘lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllari, usullarini yaratib borishi, ularni ta’lim jarayonida mahorat bilan qo‘llab borishi va undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish. https://president.uz/uz/lists/view/2471

2. Farbermen B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: “O‘qituvchi”, 2020. – 48 b.

3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya”, 2013. – 64 b.

4. Ишмуҳамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновatsion технологиялар. – Т.: “Ўқитувчи”, 2020. – 84 b.

5. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Navro‘z”, 2013. – 102 b.

HOFIZ XORAZMIY — DEVONNAVIS IJODKOR

Umida Zaripboyeva,
Namangan davlat universiteti
tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitida o‘zining tarixiy asarlari, noyob qasidalari bilan o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi va shoir, Xorazm musiqasining asoschilaridan biri Hofiz Xorazmiy va uning ijodi haqida batafsil ma’lumot beriladi. Ijodkorning g‘azal, qit’a, qasida, tarjeband, muxammas, marsiya, mustahzod hamda ruboiy kabi janrlarga mansub she’rlari bo‘lib, ularda Allohga hamd, payg‘ambarimiz va me’roj tuni tasviri, tabiat tasviri, falsafiy, tasavvufiy, ishqiy mavzular tarannum etilgan. Xorazmiy she’riyatining asosiy mavzularidan bO‘lgan tasavvufiy g‘oyalar tasviridagi badiiy mahorat o‘ziga xosdir.

Kalit so‘zlar: *Hofiz Sheroziy, Xorazm, Hofiz Xorazmiy, Amir Temur, Sulton Ibrohim, Hofiz devoni, Haydarabod, turkiy til, tasavvuf, mustaqillik.*

Аннотация

В данной статье представлена подробная информация о Хафизе Хорезми – одном из основоположников хорезмской музыки, писателе и поэте, оставившим неизгладимый след в литературной среде Хорезма своими историческими произведениями, уникальными одами и своим творчеством. Стихи автора относятся к таким жанрам, как газель, кита, касыда, тарджебанд, мухамас, марсия, мустазад и рубай, в которых присутствует восхваление Аллаха, образ нашего пророка и ночи Мираджа, образ природы, философский, мистический. , отмечаются романтические темы. Художественное мастерство в изображении мистических идей, одной из главных тем хорезмской поэзии, уникально.

Ключевые слова: *Хафиз Ширози, Хорезм, Хафиз Хорезми, Амир Темур, Султан Ибрагим, Хафиз Диван, Хайдарабад, турецкий язык, суфизм, независимость.*

Annotation

This article provides detailed information about Hafiz Khorazmi, one of the founders of Khorezm music, a writer and poet who left an indelible mark on the literary environment of Khorezm with his historical works, unique odes, and his work. The author’s poems belong to genres such as ghazal, qita, qasida, tarjeband, mukhamas, marsia, mustazad and rubai, in which there is praise to Allah, the image of our prophet and the night of Miraj, the image of nature, philosophical, mystical, romantic themes are celebrated. Artistic skill in depicting mystical ideas, one of the main themes of Khorezm’s poetry, is unique.

Keywords: *Hafiz Shirozi, Khorezm, Hafiz Khorezmi, Amir Temur, Sultan Ibrahim, Hafiz Divan, Hyderabad, Turkish language, Sufism, independence.*

O‘zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. O‘tmishda yaratilgan mo‘tabar og‘zaki va yozma adabiyotimiz namunalarini o‘rganish va bilish har bir o‘quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning burchidir. Bugungi kunda, yurtimiz ozodlikka, xalqimiz istiqlolga erishgandan so‘ng, o‘tmish merosimizga e’tibor yanada kuchaydi. Zero, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so‘nggina bizga noma’lum ko‘pgina ulug‘ shoirlarimiz, olimlarimiz, muhaddislarimiz haqida ma’lumotga ega bo‘ldik. Asarlarini o‘rgana boshladik.

Ma’lumki Xorazm adabiy muhiti o‘zbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan” [1, 241].

Xorazm adabiyoti sohasida minglab namoyandalarni uchratish mumkin. Hofiz nomi tilga olinar ekan, odatda, har bir kitobxon darhol jahonda o‘z davrining beqiyos lirik shoiri sifatida shuhrat qozongan fors adabiyoti klassigi, sehrli g‘azallar ijodkori Xoja Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziyni (1320–1389) xayoliga keltiradi. Haqiqatan ham Hofiz Sheroziyning benazir she’riy dahosi uni dunyo adabiyotining eng buyuk shoirlari qatoriga qo‘ydi. Oktyabr davlat to‘ntarishigacha Turkiston madrasa va maktab darsliklaridan Sa’diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil, qatori Hofiz Sheroziy ham joy olgan va ota-bobolarimiz shoir g‘azaliyotida tarbiya topgan edilar. Endilikda Hofiz taxallusi bilan o‘zbek tilida ijod etgan ikkinchi ikkinchi bir yirik san’atkorning to‘liq devoni Hindistonda topildi.

Hofiz Xorazmiy XIV asr oxiri — XV asr boshlarida yashab ijod etgan shoirdir. U haqida ma’lumotlar ayrim tazkiralarda, adabiyotshunoslikka oid asarlarda uchraydi. Hofiz Xorazmiy XIV asr oxirida Xorazmda tavallud topgan bo‘lib, uning asl ismi Abdurahimdir. Hofiz Xorazmiy eski o‘zbek tili rivojiga katta hissa qo‘shgan. Yoshligi Xorazmda kechgan. Bu yerdagi notinchliklar tufayli XIV asr oxirlarida o‘z vatanini tashlab ketishga majbur bo‘lgan. Temuriylardan Ibrohim Sulton saroyiga yaqin bo‘lgan. [3, 122]

Hofiz Xorazmiy fors shoiri Hofiz Sheroziy ijodiga hurmat bilan qarab, uning an’analarini o‘zbek she’riyatiga olib kirgan, o‘zbek xalqini Sheroziyniki kabi yetuk ishqiy-falsafiy she’riyatdan bahramand qilish niyatida “Hofiz” taxallusini tanlagan [2, 74]

Hofiz Xorazmiy 1390-yillardan so‘ng, ehtimol XV asr boshlarida o‘z vatanini tashlab ketishga majbur bo‘ldi, deb taxmin qilish mumkin, yoki 1414-yili Sheroz taxtiga o‘tirgan Ibrohim Sulton taklifi bilan Sherozga borgan bo‘lsa ajab emas. Dastlab u qaysi mamlakatlarda bo‘lganligi noma’lum. Garchi o‘z asarlarida Iroq, Ajam, Xuroson, Fors, Isfaxon, Kirmon, Sheroz, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Xo‘jand kabi chet elda asosiy istiqomatgohi fors o‘lkasining poytaxti Sheroz bo‘lgan.

1405-yili Amir Temur vafotidan so‘ng uning keng quloch otgan davlatini idora etish uchun merosxo‘rlari o‘rtasida kurash ketadi, natijada poytaxti Xirot hisoblangan Xuroson o‘lkasini Shohruxning o‘zi boshqargan. 1414-yil Sheroz taxtiga o‘tirgan Ibrohim 21 yil Fors o‘lkasini idora etib, 1435-yilda vafot etgan. Hofiz Xorazmiy Sherozga Sulton Ibrohim taxtga chiqmasdan avval borib qolganmi yoki so‘ng borganmi bizga noma’lum. Ammo uning yozgan misralarida Sherozda yashaganligini tasdiqlaydi. 1435-yili Sulton Ibrohim vafot etganida Hofiz Xorazmiy unga atab maxsus marsiya yozadi. Shu marsiya tufayligina biz shoirni 1435-yilda hali hayot ekanini aniqlay olamiz. Hofiz yana qancha umr ko‘rgan, qachon vafot etgan va qayerda dafn etilganligi hozircha noma’lum. Ammo Amir Temurning Xorazmga yurishi davrida, Xorazm ahli oldida qadrsizligidan shikoyat qilgan. Hofiz, shubhasiz, XIV asr oxiridayoq yetuk shoir bo‘lib, yoshi 30 — 40 atroflarida bo‘lgan bo‘lsa kerak. Agar biz unga XV asrdan yana 35 yilni qo‘shsak, u Sulton Ibrohim vafoti chog‘ida mo‘ysafid bo‘lib, yoshi 65 — 70 atrofida bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Shoir Sherozda turg‘un bo‘lib qolganidan o‘sha yerda vafot etib, o‘sha yerda dafn etilgan, deyish mumkin. [4, 45-46].

Hofiz o‘z she’riyatining dunyoviy mazmuni, gumanistik ruhi va falsafiy teranligi, yuksak badiiyati bilan boshqa zamondoshlari orasida o‘z davrining ilg‘or ideologi so‘z san’atining mumtoz va yetuk vakili sifatida qad ko‘tarib turadi. XIV – XV asr o‘rtasida o‘tgan, Hofiz Xorazmiyga yaqin davrda yashagan o‘zbek shoirlari Haydar Xorazmiy, Said Ahmad, Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Yaqininy, Amidiy, Ahmadiy, Xo‘jandiylardan bizgacha yetib kelgan adabiy meros Hofiz Xorazmiy devoni hajmidan kamdir. Binobarin qadimiy o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining ajoyib bebaho yodgorligi bo‘lmish Hofiz devonini har yoqlama o‘rganish, shoirning adabiyotimiz va madaniyatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini aniqlash endi boshlanajak ilmiy tadqiqotlarning biridir. Abdurahim Hofiz Xorazmiy devoni qo‘lyozma nusxasi Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyidan topilgani uchun, manbashunoslikda qabul qilingan an’anaga muvofiq, biz uni shartli ravishda Hofiz devonining Haydarobod nusxasi deb atashdi.

Hofiz Xorazmiyning XV asr birinchi yarmidagi shoirlar ijodidan farqli jihati shuki, arab-fors so‘zlari kam, xalq tiliga yaqin so‘zlardan ko‘proq foydalangan, Xorazm shevasiga xos so‘zlar ko‘p uchraydi. Uning butun merosi 37 ming misradan ortiq [5, 79].

Hofiz Xorazmiyni Alisher Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek g‘azaliyotining benazir ustozi desa arziydi. Badiiy mahorat, qofiya va radiflarni ustalik bilan tanlay bilishi,

ISSN 2181-8274

ajoyib lirik obrazlar yarata olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san’atkorligidan dalolat beradi.

Hofizni ko‘rung ushbu zamon turk tilinda,
Gar keldi esa forsda ul Hofizi Sheroz [5, 80].

Hofiz Xorazmiy asar tili va uslubining xilma-xilligini ta’minlash, badiiylikni oshirishda va his-hayajonni kuchaytirish maqsadida forscha poetik so‘zlardan unumli foydalangan. Hofiz Xorazmiy Devoni leksikasini genetik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shoir asaridagi so‘zlarni genetik tahlili o‘sha davrdagi o‘zbek tilining holatini, tilimizning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda yordam beradi. Ma’lumki, devonda turkiy qatlamdan boshqa fors va arab lug‘aviy qatlamga oid so‘zlar ham anchagina Hofiz Xorazmiy ham o‘z zamonasining insonparvar, ma’rifatparvar vakili sifatida Hofiz Sheroziy, Jomiy, Navoiylar singari diniy-tasavvufiy dunyoqarash vakilidir. She’rlarida Mansur Hallojni chuqur hurmat bilan tilga olgan.

Hofiz Xorazmiy turkiy tilda boy adabiy meros qoldirgan. She’rlaridan devon tuzgan. Devonida 1052 g‘azal, 9 qasida va qator muxammas, tarje’band, tarkibband, ruboiy, qit’alardan iborat 37264 misra she’r bor. Ularda inson baxt-saodati, erkinligi, dunyoviy sevgi-muhabbat madh etilgan, zamonasidagi turli ijtimoiy illatlar ochiq ko‘rsatilgan. She’rlari mazmun-mundarijasining kengligi, falsafiy teranligi, insonparvarlik ruhi, yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Tili sodda, ravon, xalq tiliga yaqin, Xorazm shevasiga xos unsurlar ko‘p uchraydi [5, 80]

Diniy obrazlarning talqinida har bir davrning g‘oyaviy motivlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Islom dini kirib kelgach, adabiyotda diniy obrazlarga murojaat qilish yangicha talqin yo‘sin kasb etdi. Adabiyotga Qur’oni Karimda zikr qilingan payg‘ambarlar, solih kishilar, islom olamida mashhur bo‘lgan mujtahid, mutasavvuf ulamolar obrazi kirib keldi. Hofiz Xorazmiy ijodini kuzatar ekanmiz, diniy obrazlarning turlicha talqiniga guvoh bo‘lamiz. Xuddi Yusuf *A.S.*ning qaytib kelishi Ya’qub *A.S.*ning g‘am uyini rohat-farog‘at maskaniga aylantirgani kabi ma’shuqning tashrifi oshiqning g‘am uyini ayshxonaga aylantiradi. Bunda Ya’qub a.s. Qur’oni Karimda zikr etilgan payg‘ambarlardandir. “Yusuf ”surasining 84-oyatida uning o‘z o‘g‘illari sabab eng suyukli farzandi Yusuf a.s. dan ayrilib qolgani uchun g‘am chekib, ko‘zlari ojiz bo‘lib qolganligi aytiladi: “Va ulardan yuz o‘girdi hamda: “Oh Yusuf” deb ko‘zlariga oq tushdi (Yusuf surasi, 84-oyat) [6, 1477].

Xulosa qilganda, Hofiz Xorazmiy Yusuf A.S. obrazi orqali betakror chiroy sohibi sifatida husnda tengsiz go‘zal mahbuba timsoliga ishora qilsa, quduqqa tashlanib, asirlikda qolishi e’tiboridan yorning zanaxdoniga tushib, uning asiriga aylangan oshiqqa ishora qiladi [6, 1479].

Hofiz Xorazmiyning merosi bugungi kunda mukammal o‘rganilmoqda. Mumtoz merosimiz namunalarini izlab dunyoning turli mamlakatlariga ilmiy safarlar uyushtirgan mashhur matnshunos olim Hamid Sulaymon 1975-yilda Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyiga boradi va Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida saqlanayotgan 4298-raqamli shoir devonini topadi. Bu 586 varaqdan iborat mukammal devon bo‘lib, 37264 misra yoki 18632 bayt she’rni o‘z ichiga jamlaydi. Qo‘lyozmaning so‘nggi varaqlari tushib qolganligi uchun uning qachon va kim tomonidan ko‘chirilganligi noma’lum. Mazkur devon turkiy va forsiyda ijod qilgan Hofiz Xorazmiy merosining yagona nusxasidir.

Hofiz Xorazmiy o‘zining asarlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan shoir ijodi, ilmiy merosini o‘rganish orqali bu merosni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Sulaymonov M.B. Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji: Filol. Fanlari nomzodi … dis. – T., 1996. – 160 b.

3. Horezmli Hafiz’in Divani. Inceleme-Metn-Tipkibasim. Prof. Dr. Recep Toparli. – Ankara, 1998. – 121-129 c.

4. Kurbanova Sh.Y. Hofiz Xorazmiy — devonnavis ijodkor // “Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari” mavzusida Respublika onlayn konferensiyasi. 2022-yil, 31-may. – B. 45-46.

5. Madaminova R. M. Hofiz Xorazmiy devonida turkiycha va forscha so‘zlar. “Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va yechimlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya / https://t.me/scienceboxofficial http://conf.sciencebox.uz/. 2023. 78-82.

6. Tairov Ixtiyor. Hofiz Xorazmiy ijodida Yusuf obrazining talqini. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842. June 2022 / Volume 3, Issue 6. – B. 1476-1479.

IN DIESEL ENGINE POWER SYSTEMS, OPTIMIZATION OF INJECTOR PARAMETERS FOR UNIFORM SPRAY OF DIMETHYL ETHER

Kamil Baltabaev,
Tashkent State Technical University, Department of Descriptive Geometry and Computer Graphics Associate Professor,
Husan Umarov,
Tashkent State Technical University, Department of Descriptive Geometry and Computer Graphics, Senior Lecturer-Assistant
Nafisa Tairova,
Tashkent State Technical University, Department of Descriptive Geometry and Computer Graphics, Senior Lecturer-Assistant

Annotation

The article presents the adaptation of the nozzle to ensure optimal atomization of dimethyl ether and improve mixing with air, increasing the efficiency of the diesel engine. A promising direction for the development of internal combustion engines and, in particular, automotive diesel engines is the use of new fuels that can significantly improve the environmental performance of internal combustion engines. Also select nozzles that provide optimal dimethyl ether atomization and improved air mixing. Determine the physical and chemical characteristics of dimethyl ether, such as flash point, boiling point, density, viscosity and the effect of dimethyl ether on materials used in the fuel system to prevent corrosion or degradation.

Keywords: *engine, diesel, injector, parameters, Dimethyl ether, oil, efficiency.*

Annotatsiya

Maqolada dimetil efirning optimal atomizatsiyasini ta'minlash va havo bilan aralashtirishni yaxshilash, dizel dvigatelining samaradorligini oshirish uchun nozulning moslashuvi keltirilgan. Ichki yonuv dvigatellarini va xususan, avtomobil dizel dvigatellarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi ichki yonuv dvigatellarining ekologik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydigan yangi yoqilg'idan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, optimal dimetil efir atomizatsiyasini va yaxshilangan havo aralashuvini ta'minlaydigan nozullar tanlangan. Dimetil efirning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini aniqlagan, masalan, chaqnash nuqtasi, qaynash nuqtasi, zichlik, yopishqoqlik va dimetil efirning korroziya yoki degradatsiyani oldini olish uchun yonilg'i tizimida ishlatiladigan materiallarga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *dvigatel, dizel, injektor, parametrlar, Dimetil efir, moy, samaradorlik.*

Аннотация

В статье представлена адаптация форсунки для обеспечения оптимального распыления диметилового эфира и улучшения смешивания с воздухом, повышения эффективности работы дизеля. Перспективным направлением развития двигателей внутреннего сгорания и, в частности, автомобильных дизелей является использование новых топлив, позволяющих существенно улучшить экологические показатели двигателей внутреннего сгорания. Также выбирайте форсунки, обеспечивающие оптимальное распыление диметилового эфира и улучшенное перемешивание воздуха.

Ключевые слова: *двигатель, дизель, инжектор, параметры, диметиловый эфир, масло, эффективность.*

Despite the fact that attempts to use dimethyl ether as a fuel began relatively recently, dimethyl ether is considered one of the promising fuels for automotive diesel engines. Determine the physical and chemical characteristics of dimethyl ether, such as flash point, boiling point, density, viscosity and the effect of dimethyl ether on materials used in the fuel system to prevent corrosion or degradation.

Careful adjustment or selection of suitable nozzles is required to ensure optimal dimethyl ether atomization and improved air mixing. Here are a few key aspects to consider when selecting or modifying nozzles for use with dimethyl ether; nozzles must have special geometry to ensure even atomization of dimethyl ether. Consider injectors with a specific spray angle that can be adjusted for optimal combustion chamber coverage, injector orifice sizes match the physical properties of dimethyl ether such as viscosity and density; too large orifices may result in under-atomization, while too small ones may cause clogging or uneven combustion. Materials resistant to the chemical effects of dimethyl ether. Ensure that the injectors do not corrode or deteriorate when exposed to dimethyl ether for a long time. Dimethyl ether may require higher pressure in the injection system to ensure effective atomization; use injectors specifically designed for high-pressure operation. It may be necessary to adjust the injection angle for

optimal mixing of dimethyl ether with air in the combustion chamber, the design features of the specific engine and injection system, consider the use of a multi-point injection system for a more uniform distribution of dimethyl ether in the engine cylinders. We check and thoroughly test injectors in real conditions to ensure their efficiency and reliability and optimize injector parameters based on the test results [3, 45].

In diesel engines with volumetric mixture formation, these parameters are chosen to ensure the most complete coverage of the combustion chamber by jets of atomized fuel, the required fineness of atomization, uniform distribution of fuel droplets throughout the volume of the air charge, and also to prevent fuel droplets from hitting the walls of the combustion chamber. The required orientation of the fuel jets in the space of the combustion chamber is achieved by the appropriate arrangement of the spray holes, and the parameters of the fuel jets are achieved by choosing the diameter and length of the spray holes.



Fig. 1. Diagram of an injector atomizer with the geometric characteristics of the jets of atomized fuel (a) and diagram of the fuel flow through the spray hole of the nozzle (b)

In this case, a very important design parameter is the ratio of the length of the spray hole l_p of the nozzle to its diameter d_p. This is explained by the peculiarities of fuel flow through the spray hole. In modern diesel fuel systems, during the fuel supply process, fuel from the pump under high pressure enters the nozzle, acts on needle 1 (Fig. 1, a), lifting it, flows through the annular gap 3 formed between needle 1 and body 2 and enters cavity 4 under needle 1, where the injection pressure p_v p_r is set. Under this pressure, fuel enters the spray hole 5 of the nozzle. Of particular interest is a comparative analysis of these indicators in a wide range of operating modes characteristic of transport diesel engines [2].

To assess the influence of the l_p/d_p ratio on the parameters of jets of atomized fuel under different operating modes of a diesel engine, experimental studies of the geometric parameters of jets of atomized fuel obtained in a divided fuel system of diesel engine 1, including a Motor pal high-pressure fuel pump (HPF) of dimension A (model 8PVA) were carried out), a fuel injection line with a length Lt = 500 mm with an internal diameter d_t = 1.6 mm and an injector 1 with two types of nozzles (No. 84 and No. 82). The design diagrams of these sprayers are shown in Fig. 2, a, b, and some characteristics of the nozzles are in table. 1. Both nozzles under study have two spray holes. In sprayer No. 84, the inlet edges 1 (see Fig. 2, a) of spray holes 2 are located in volume 3 of the cavity under the nozzle needle 4 (in the well of the sprayer), and in sprayer No. 82 - on the locking cone of seat 5 (see Fig. 2, b) needles 4 nozzles.[2, 34]

Table 1

Parameters of the studied nozzles

Characteristics	Sprayers			
	№834	№832		
	Sawing holes			
	№1	№2	№3	№4
Plane angle of fuel jets α, degrees	141,5	319,5	140,0	320,0
Angle of fuel jets in the tent β, degrees	26,5	26,5	28,0	28,5
Length of sawing hole lp, mm	1,252	0,580	1,516	0,640
lp/dp ratio	2,76	1,28	3,34	1,41
Diameter of sawing hole dp, mm	0,455		4,455	
Equivalent flow area of the atomizer assembly μp/ fp, mm2	1,176		0,184	
Maximum nozzle needle lift h and max, mm	0,24		0,24	

The equivalent flow sections of the nozzles assembled with a needle are $\mu_p f_p$ = 0.176 mm^2 for nozzle No. 84 and $\mu_p f_p$ = 0.184 mm^2 for nozzle No. 82 with a maximum needle lift hi_{max} = 0.24 mm. For the nozzles under study, the spray holes are made with different lengths l_p and the same diameter d_p = 0.455 mm. A number of other parameters of the nozzles are also the same: the diameter of the channel in front of the spray whole dκ = 1.2 mm, the diameter of the locking edge of the needle d_x = 3.0 mm, the angles of the locking cones of the needle and seat, respectively, β_i = 60◦ and β_c = 59. Fig. 2. Options for sprayers: a - sprayer No. 84; b - spray no. 82; c — spray no. 15. One of the important indicators of the quality of vehicle operation on DME is the stable residual pressure P0 at diesel operating modes. An important indicator is the minimization of fluctuations in the residual pressure ΔP0 when changing operating modes and temperature. Four variants of double-acting discharge valves with flat locking were investigated, the parameters of which are given in Table. 2.



Fig. 2. Options for sprayers: a - sprayer No. 84; b - spray no. 82; c — spray no. 15

From the table Figure 3 shows that the disadvantage of valves No. 1, 2, is the instability of the static adjustment of $R_{ko.rev}$, which is mainly eliminated in design No. 4. The residual pressure values were measured, and a comparison was made of the operation of a serial fungal valve and four variants of double-acting valve designs at different temperature conditions (14...35 °C) and operating modes of TA with injection pump 4 UTNI-T (three speed modes and two values of the active stroke of the plunger).

Table 2

Parameters of double acting injection valves

Valve no.	1	2	3	4
Opening pressure of the main valve Pko, MPa	~1	~1	~1	~1
Check valve opening pressure Rko. ob, MPa	3 ± 0,8	1,5 ± 0,5	-	1,5-1,7
Jet diameter, mm	0,62	0,8	1,95	1,95
Main valve diameter, mm	10	10	10	10
Diameter of sealing surface	3,3	4,5	4,5	4,8

As a result, rational ratios of the parameters of the double-acting injection valve were determined when the TA operates on DME d_j^2/d_{ok}^2=0.2…0.26, δ_{ok}/δ=0.25…0.35, F_{ok}/F=0.24 …0.33, where (d_f is the diameter of the nozzle in the main valve, d_{ok} is the diameter of the check valve, δ_{ok} is the stiffness of the check valve spring, δ is the stiffness of the main valve spring, F_{ok} is the pre-tightening force of the check valve spring, F is the pre-tightening force of the main valve. It was also shown that P_0 fluctuations when operating a TA with a double-acting valve are quite satisfactory (ΔP_0 = 0.25...0.28 MPa); when operating a TA with a standard valve, ΔP_0 increased (ΔP_0 = 3...3.4 MPa). With such ΔP_0, the formation of continuity discontinuities in the TA HP at P_{0min} and undesirable ones under injection at P_{0max} is possible, especially if we take into account the influence on the value of ΔP_0 of technological tolerances on the parameters of the serial valve. Due to the lower (compared to diesel fuel) combustion heat of DME, the mass cyclic supply of DME must be increased by approximately 1.5 times, which leads to an undesirable increase in the injection duration. In addition, it is important to note that with the same active stroke of the plunger, the mass supply of DME decreases. Experimental determination of the coefficient Km of change (decrease) in cyclic supply (in mg/cycle) when switching from diesel fuel (DF) to DME showed that in the range of operating modes of the diesel engine D 245 12 Km varies within 1.3...1.6, increasing with a decrease in the rotation speed of the injection pump shaft and the load, Km is especially high in the start mode (1.7…2). Consequently, when starting a diesel engine on DME, despite a higher cetin number (55...60), problems may arise that can be solved, for example, by reducing P_{f0} .



Fig. 3. Hydraulic characteristics of nozzles: 1-nozzle No. 84 with lp/dp = 1.28 ... 2.76; 2-nozzle No. 82 with lp/dp = 1.41 ... 3.34

The best solution to the problems of starting and improving the workflow of diesel engines at operating modes is to use a larger fuel injection pump when switching to DME (for example, for a diesel engine D 245 12 instead of a plunger diameter/stroke of 10/10 mm, use 11/12 mm or 12/14 mm) and plunger pair with a drainage groove.[1, 23]

The characteristics $\mu_p f_p$ and $\mu_к f_к$ obtained in this way are shown in Fig. 3, from which it can be seen that the bodies of the studied nozzles, when sprayed without a nozzle needle, are almost equivalent (i.e., the equivalent flow sections $\mu_к f_к$) are approximately equal. When installing needles into the body of the sprayer, its throughput is reduced. When flowing into a medium without backpressure, the equivalent flow sections $\mu_p f_p$ of nozzles No. 84 and 82 are respectively equal to 0.176 and 0.184 mm² (at maximum lift of the nozzle needle hi_{max} = 0.24 mm). With an increase in back pressure (a decrease in the cavitation number K_c), these sections increase and reach values of 0.21 and 0.216 mm², respectively, for values

of $K_c < 1$ (see Fig. 3). Thus, at the maximum lift of the nozzle needle, nozzle No. 84 had a slightly smaller effective area of the nozzle assembly with needle $\mu_p f_p$ than nozzle No. 82, which is partly due to additional hydraulic losses that arise when fuel flows into the sub-nozzle volume 3 of nozzle No. 84. With small needle lifts, on the contrary, sprayer No. 82 has lower $\mu_p f_p$ values, which is due to additional losses in the narrow gap between the locking cone and the seat when the flow sharply turns at the entrance to the spray holes. Because of development work and non-engine, tests of the dual-fuel power system, such key vehicle components as solenoid valves, fuel-priming pumps and the dual-fuel power system as a whole were modernized and prepared for road tests. An automatic control system, an algorithm and a corrector for converting the power system from one type of fuel were developed. On the other, they allow reliable operation of the diesel engine during periods of transition from diesel fuel to DME and vice versa.

The conducted studies confirmed the possibility of optimizing the geometric characteristics of fuel jets by changing the l_p/d_p ratio and matching them with the shape of the combustion chamber in a wide range of operating modes of a transport diesel engine. At the same time, a significant dependence of the economic and environmental indicators of a diesel engine on the design of the injector nozzle is shown. The possibility of improving fuel efficiency and significantly reducing light hydrocarbon emissions when using nozzles with a reduced length of nozzle holes has been confirmed. To achieve the required integral diesel exhaust gas toxicity indicators, it is necessary to comprehensively optimize the injection pressure, the parameters of the injector nozzle and the shape of the diesel combustion chamber.

REFERENCES:

1. Technological processes of passenger transportation organization: practicum. E.P. Barylnikova. – Naberezhnye Chelny: NCI K(P)FU, 2018. – 96 p.

2. N.S. Tairova, A.T. Azimov, K.K. Baltabaev. Efficiency of using alternative fuels in motor vehicles. – M.: Mashinostroenie, 2022. – 223 p.

3. Juraeva G., Mamasolieva M., Maxmudova N. Mathematical modeling of the theory of salt and salt dust //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1112. – №. 1. – 234 p.

5. Calculation of restrictions when opening public urban passenger transport routes: methodological recommendations comp. M.R. Yakimov. – Moscow: Institute of Transport Planning of the All-Russian Public Organization “Russian Academy of Transport”, 2016. – 36 p.

6. Ikramov U.A., Irgashev A. Analytical method of forecasting the durability of gears by the concentrations of wear products. Bulletin of Tashstu. – T., 1994. No.1-2. – 130 p.

XOR JAMOALARINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH

Maftuna Qarshiboyeva,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi;
Sevara Sunnatova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy, barkamol, estetik va badiiy dunyoqarashi shakllangan, madaniyatli insonlar qilib tarbiyalash bugungi kunda ta’lim-tarbiya muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardandir. Maqolada umumta’lim maktablarida olib boriladigan musiqiy ta’lim va tarbiya faqat bolalarni qo‘shiq kuylashga o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, ularda vokal-xor malakalarini shakllantirish yoki musiqa tinglash orqali musiqani ongli idrok etib, tinglash madaniyatini qaror toptirish yoxud nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish va shu jarayonda ularni vokal-xor kuylash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish bilan ularni g‘oyaviy, ma’naviy, estetik madaniyatini tarkib toptirishdan iboratligi haqidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, umumta’lim maktab musiqa darslari, vokal-xor malakalari, bolalar xor jamoalari, xor rahbari, o‘quv-tarbiyaviy jarayon.*

Аннотация

Воспитание подрастающего поколения зрелыми, духовно, гармоничными, эстетически и художественно сформированными, культурными людьми является одной из наиболее актуальных задач, стоящих сегодня перед образовательными учреждениями. В статье рассматривается значение музыкального образования в

общеобразовательной школе не только в обучении детей пению, но и в развитии вокально-хоровых навыков или прослушивания музыки. и представление о том, что формирование их умений заключается в формировании их идейной, духовной, эстетической культуры.

Ключевые слова: *музыкальное образование, уроки музыки в средней школе, вокально-хоровое мастерство, детский хор, руководитель хора, образовательный процесс.*

Annotation

Bringing up the younger generation as mature, spiritually, harmoniously, aesthetically and artistically formed, cultured people is one of the most pressing issues facing educational institutions today. The article discusses the importance of music education in secondary schools, not only in teaching children to sing, but also in developing vocal and choral skills or listening to music. and the idea that the formation of their skills consists in the formation of their ideological, spiritual, aesthetic culture.

Keywords: *music education, secondary school music lessons, vocal-choir skills, children’s choirs, choir leader, educational process.*

Xor san’ati — musiqa san’atining janrlari orasida o‘zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san’ati turiga aylangan. Bu san’at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [1, 45] Odamlarning bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan ma’naviy ongi, didiga, bir yagona g‘oya, yagona ijroni maqsad qilib, so‘z va musiqadagi tuyg‘uni jamoa bo‘lib ijro etish, ularni yanada jipslashtiradi. Bu san’at doimo xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, turli millatlar musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir [4, 36]

Fikrimizcha, xor san’ati to‘g‘risidagi nazariy bilimlar Xorshunoslik va xor jamoalarini tashkil etish haqidagi Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘rganadi. Shuningdek, xor ijrochisi bo‘lish uchun xor haqidagi bilimlarni ta’lim oluvchilar qolaversa, kelajakda “Xor dirijyori” malakasiga ega bo‘lish istagidagi o‘quvchi-yoshlarga xor san’ati haqida dastlabki nazariy bilimlarni, yakkaxon va xor ovozlarining tasnifi, ularning diapazoni va registrlarini, to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalarini, shuningdek, asosiy musiqa atamalari, musiqiy ifodaviylik vositalarini o‘rgatish lozim [1, 46].

Xor san’atining insoniyat madaniyatidagi o‘rnini yanada chuqurroq, mukammal o‘zlashtirib olishlariga katta yordam beriladi. Xor — yunoncha “choros” — yig‘ilish, to‘da ma’nosini bildirib, birlashgan jamoa sifatida turli inson ovozlaridan tashkil topadi. Xorlar asosan ikki turga bo‘linadi: – Bir turdagi xorlar; – Aralash xorlar. Bir turdagi xorlarga — bolalar xori (soprano yoki diskant va alt ovozlar), ayollar xori (soprano va alt ovozlar), erkaklar xori (tenor va bas ovozlar) kiradi. Aralash xorga esa ayollar va erkaklardan tuzilgan xorlar (soprano, alt, tenor va bas) kiradi [2, 87].

Bolalar xorlari quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

– 4–7 yoshdagi bog‘cha kichkintoylaridan tuziladigan xorlar;

– 7–10 yoshdagi bolalardan tuzilgan xor jamoasi;

– 11–15 yoshdagi bolalardan tuzilgan xor jamoasi;

– 16–18 yoshdagi o‘smir-yoshlar xori

Ayollar xor jamoasi birinchi va ikkinchi sopranolar va altlarni o‘z ichiga oladi, uch ovozda kuylaydi. Alt ovozlarni ham kezi kelganda ikkiga bo‘lib, ayollar xori uchun to‘rt ovozli asarlar yaratsa ham bo‘ladi.

Erkaklar xori jamoasi ham ko‘p ovozda kuylay oladi. Buning uchun ular ko‘rinish jihatidan birinchi va ikkinchi tenorlarga va baslarga bo‘linib, uch ovozda yoki tenor, bariton va bas sifatida ham uch ovozda kuylaydi. Kezi kelganda birinchi va ikkinchi tenorlar, birinchi va ikkinchi baslarga bo‘linib erkaklar xori ham to‘rt ovozda baralla kuylashi mumkin.

Aralash xor — boshqa xor turlariga nisbatan kengroq tarqalgan. O‘zining rang-barang tembriga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga boy bo‘lganligi tufayli eng takomillashgan badiiy jamoalar safidan o‘rin olgandir [3, 14].

Bizning fikrimizcha, xor, uning turlari va ko‘rinishlari haqida batafsil ma’lumotlarni nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida berib borish lozim. Amaliy mashg‘ulotlar vaqtida guruh sinf jamoasida xorlar tashkil etilganda ularning yosh xususiyatiga munosib asarlar ustida ishlash ham samarali natijalar beradi deb ta’kidlash mumkin. Shuningdek, bolalar ayollar, erkaklar va aralash xorlari to‘g‘risida tushunchalar berish bilan birga xor konsertlarga tashrif buyurish va bevosita ishtirok etish ham ta’lim oluvchilarni qiziqishini oshiradi deyish mumkin. Xorni tashkil etish jarayoni asosan ikki davrga bo‘linadi. Birinchi davrga xor jamoasini tashkil qilish uchun bajariladigan barcha tayyorgarlik ishlari kiradi. Ikkinchi davrga esa rahbarning jamoa bilan uchrashuvi, barcha vokal musiqiy qobiliyatlarni tekshirib, ovozlarni aniqlash kiradi [3, 20].

Xor jamoasini tashkil etish uchun xorning yetuk darajasiga yetkazish jarayonidan avval moddiy zamin tayyorlanadi. Malakali rahbar va jo‘rnavoz, repetitsiyalar o‘tkaziladigan xona (yorug‘, issiq, akustik jihatdan to‘g‘ri sharoitlar hisobga olingan) pianino yoki royal bilan ta’minlanishi darkor [2, 23]

Shuni aytish mumkinki, xor ikki davrga bo‘linadi. Bular:

Birinchi davrdagi tashkil etish jarayoniga quyidagilar kiradi:

– qatnashuvchilarni xorga jalb qilish;

– keng targ‘ibot ishlari;

– konsert va uchrashuvlar uyushtirish (biror taniqli xonanda yoki jamoalar bilan).

Ikkinchi davr. Xor rahbari qo‘yilgan maqsad va vazifalar haqida, qo‘shiq va xor san’ati haqida qisqa gapirib beradi. Yangi qo‘shiqlar bilan tanishtirib, ko‘pchilik biladigan qo‘shiqlarni birgalashib aytishga taklif qiladi. Birinchi marta qo‘shiq kuylagan insonlarning birgalikda kuylash ishtiyoqi yanada oshib, keyingi mashg‘ulotlarga katta xohish bilan keladi. Har bir ishtirokchining ovozini birma-bir eshitib ko‘rib, ularga tavsif berib, individual tushuntirish ishlarini olib boradi.

Xor jamoasining ijrochilik malakasi vokal-xor ijrochilik mahoratlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hamohanglik, soz, talaffuz, badiiy ifoda vositalari, nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun jamoa ijro paytida albatta tik turgan holatda bo‘lishlari lozim. Mashqlar paytida esa o‘tirib mashg‘ulotlar o‘tkazilsa ham bo‘laveradi. Bunday holatda xonandalardan gavdani to‘g‘ri tutish, yuz, bo‘yin, yelka mushaklari erkin bo‘lib, kuylayotgan paytda halqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, boshini erkin tutishi tavsiya etiladi [4, 56]

Ta’kidlash mumkinki, inson nafas olish organlari orqali nafas olib tovush hosil qiladi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi va nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish bir necha turga bo‘linadi:

– pastki qovurg‘alar kengayishi orqali nafas olish;
– yelka kengayishi orqali nafas olish;
– qorin bilan nafas olish;
– ko‘krak bilan nafas olish;
– zanjir uslubida nafas olish.

Tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi. Rezonatorlar: bosh rezonator — yuqorigi; ko‘krak rezonatori — pastki bo‘lib, o‘zining hajmini artikulyatsiya orqali o‘zgartirib turadi.

Ovoz qo‘yishning o‘ziga xos murakkab tomonlari mavjud: to‘g‘ri tovush hosil qilish va uni shakllantirish. Professional akademik xorda “ochiq” (oq tovush) bo‘lishiga xormeysterlar asosan yo‘l qo‘yishmaydi. Lekin milliy ijrochilik uslublari bilan yaqinlashtirilgan yarim ochiq tovush hosil qilish ayrim musiqiy badiiy jamoalarga xosdir. Ayniqsa, folklor bilan bog‘liq bo‘lgan qayta ishlangan asarlarni shu uslubda ijro etish keng tinglovchilar ommasiga ma’quldir.

Xor ijrochiligida legato, ya’ni ohangning bir tekis bog‘lanishi; nonlegato — alohida bog‘lanmasdan ijro etish (tovushlar orasida nafasni ushlash orqali hosil qilish); stakkato — tovushlarni uzib, qisqa ijro etish (tovushlar orasida nafas olmasdan) kabi ijro uslublari uchraydi.

Xor ijrochilik malakasining yetuk darajadagi ko‘rinishi uning sozi va hamohangligidadir. Xonandalarning vokal-xor tarbiyasida, ularning intonatsion tovush balandligini aniq o‘zlashtirishlari darkor. Xorning yaxshi sozlanganligi xonandalarning musiqaviy malakasi, musiqiy o‘quvi va xonandalik malakasini qanday darajada o‘zlashtirganligi, emotsional holati, hamda asarning murakkabligiga bog‘liqdir.

Xor sozi asosan ikki turli bo‘lib, ularga:

– melodik-gorizontal soz;
– garmonik-vertikal umumiy xorning sozi kiradi [5, 63].

Xor rahbari butun ish jarayonida xor ijrochilariga intervallarni o‘z ladida ushlagan holda tushunib ijro qilishi, nafasni to‘g‘ri olish va sarflashni tinimsiz o‘rgatib borishi lozim.

Jamoaviy ijrochilik ya’ni xor bo‘lib qo‘shiq kuylash o‘z o‘rnida bir qator vokal-xor malakalarini talab qiladiki, bu malakalarsiz xor bo‘lib kuylashni tasavvur etish qiyin. O‘quvchilarni xor bo‘lib kuylashga o‘rgatish uchun vokal-xor malakalarini qunt bilan, sabr-bardosh bilan egallab borishni va zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Jamoa bo‘lib — xor bo‘lib kuylash o‘quvchilarda bir qator jihatlarni jumladan, ularda ko‘pchilik bo‘lib kuylash davomida o‘zgalarni kuylashini eshitib, yagona organizmga birlashib, ansambllikni his etib kuylashga o‘rgatadi, o‘z navbatida bu ularni axloqiy va ma’naviy jihatdan shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunga kelib bolalar xor ijrochiligining yangi-yangi shakllari yuzaga kelmoqdaki, bulardan eng asosiylari quyidagilaridir:

1. Musiqa darslaridagi sinf-xor jamoasi. (Bular o‘z o‘rnida maktab madaniy tadbirlarida, sinf-konsert chiqishlarida o‘zlarini namoyish qilishadi).
2. Maktabda tashkil qilinadigan bolalar xor to‘garaklari.
3. Bolalar ijodiyot markazlarida tashkil etiladigan xorlar.
4. Bolalar xor studiyalari.
5. Bolalar musiqa va san’at maktablarida tashkil etiladigan xor jamoalari.
6. Madaniyat muassasalari qoshida tashkil etiladigan badiiy havaskorlik xor jamoalari. [5, 61]

Bularning barchasi Respublikamiz maktablarida tahsil olayotgan maktab o‘quvchilarini bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazish va ularni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va estetik tarbiyalash vazifalarini ko‘zda tutadi. Qolaversa bu davlatimiz tomonidan musiqa san’atiga, musiqaning yoshlar tarbiyasida tutadigan o‘rni va ahamiyatiga yuqori bahosining natijasidir. Umumta’lim maktablarida va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan xor jamoalari ishini yaxshi yo‘lga qo‘yish va ijodiy muvaffaqiyatlarga tayyorlash ancha mas’uliyatni va murakkab pedagogik jarayonni talab qiladigan ishdir.

Xor to‘garagi havaskor o‘quvchilarni yangicha musiqiy olamga olib kiruvchi havaskorlikning ommaviy turi bo‘lib, bu o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini va iste’dodlarini yuzaga chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

Musiqa va qo‘shiq aytishga ishtiyoqmand o‘quvchilarni bunday to‘garaklarga jalb qilish, faqat musiqa o‘qituvchisining ishi bo‘lmay, balki butun jamoatchilikning, qolaversa, maktab va maktabdan tashqari muassasa

rahbariyatining davlatimiz tomonidan bolalar ta’limi va tarbiyasiga berilayotgan katta g‘amxo‘rlikni, e’tiborni his etishlari va mas’uliyatli vazifani bajarish yo‘lidagi intilishlari natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, jamoaning muvaffaqiyatli ishlashida xor rahbari bo‘lmish o‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyati, bolalar bilan ishlash tajribasi, musiqa pedagogikasi bilan ishlash metodikasidan yaxshi bilim va malakaga egaligi katta rol o‘ynaydi. Uning o‘z ishini rejali, tizimli asosda ish olib borishi jamoada ijodiy va qulay muhitni barpo qilishi qo‘yilgan maqsadga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Kushaev N.A Estetik tarbiya asoslari tarixi ostida. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1988. – 232 b.
3. Solomonova T.E. O‘zbek musiqasi tarixi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1981. – 98 b.
4. Vaxromeev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980. – 120 b.
5. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash-musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim //. “Ilm ham jamiyat” jurnal. Nukus davlat pedagogika instituti, – 2019-yil, 1-son. – 61-63-b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA TUZILMASI

Dilnoza Kulboyeva,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada, boshlang‘ich ta’limning hozirgi holatining psixologik va pedagogik muammolarini o‘rganilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish tendensiyasi, hozirgi vaqtda ijtimoiy munosabatlar shakllarining o‘zgarishi sharoiti va mehnat faoliyatiga moslashish, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimi va “texnologiya”larini yanada rivojlantirish yo‘llari, shakllangan ko‘nikma va malakalarning amaliy faoliyatida sinovdan o‘tkazish imkoniyati, ijodiy mafkurani, o‘ziga, boshqa odamlarga nisbatan qarashlari, e’tiqodlar tizimini, ma’lum bir kasbiy faoliyatda kreativ qobiliyatlarning mazmuni va mohiyatini shakllantirish jarayoni sifatida belgilanishi haqida yoritilgan

Kalit so‘zlar: *kreativ qobiliyatlar, boshlang‘ich ta’lim, texnologiya, ijtimoiy munosabatlar, ijodiy mafkura, mehnat faoliyatiga moslashish.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются психолого-педагогические проблемы современного состояния начального профессионального образования, рассматриваются тенденции развития творческих способностей младших школьников, условия изменения форм общественных отношений в настоящее время и адаптации к трудовой деятельности, а также пути дальнейшего развития системы начального образования и “технологии”, возможность апробации в практической деятельности сформированных умений и навыков, вопросы творческой педагогики. освещается качество процесса формирования идеологии, взглядов на себя, других личностей, системы убеждений, содержания и сущности творческих способностей в конкретной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *творческие способности, начальное образование, технология, общественные отношения, творческая идеология, адаптация к трудовой деятельности*

Annotation

This article examines the psychological and pedagogical problems of the current state of primary vocational education, examines the trends in the development of creative abilities of younger schoolchildren, the conditions for changing forms of social relations at the present time and adaptation to work, as well as ways of further development of the primary education system and “technology”, the possibility of testing in practice the formed skills, questions of creative pedagogy. the quality of the process of forming ideology, views on oneself, other personalities, belief systems, the content and essence of creative abilities in a particular professional activity is highlighted.

Keywords: *creativity, primary education, technology, social relations, creative ideology, adaptation to work.*

Boshlang‘ich ta’limning hozirgi holatining psixologik va pedagogik muammolarini o‘rganib, tadqiqotchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish tendensiyasi hozirgi vaqtda ijtimoiy munosabatlar shakllarining o‘zgarishi sharoitida namoyon bo‘ladi degan fikrni bildirmoqdalar. Ushbu hodisaning sababi XXI asrning keyingi ikki-uch o‘n yilligida ta’lim tizimining jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlarini qondirishini ta’minlash zaruratidir. Undan tashqari, pedagogik tizimlar, atrofdagi ijtimoiy voqelik sharoitlari, ta’lim sohasi va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-madaniy vaziyat o‘rtasida ham nomuvofiqlik mavjud.

Texnologiya ta’limi sohasida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini nazariy tahlil qilish asosan ikkita asosiy masalani hal qilishni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, boshlang‘ich ta’lim mazmunida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini aks ettirish; ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun boshlang‘ich ta’limning ilmiy va pedagogik salohiyatidan foydalanish. Hozirgi bosqichda yuqoridagi muammolarni hal qilish xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Hozirgi vaqtda biz ta’lim rivojlanishining global tendensiyalari nuqtayi nazaridan pedagogik tizimlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo‘layotgan umumiy o‘rta ta’limning tarkibi va mazmunidagi o‘zgarishlarga guvoh bo‘lmoqdamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish sharoitida umumiy o‘rta-ta’lim muassasalari o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’lim tizimi va “texnologiya”larini yanada rivojlantirish yo‘llarini tanlash muammosiga duch kelmoqda. Bizning fikrimizcha, ilg‘or tajribalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ulardan shartli ravishda bir nechta, asosiy yo‘llarning integratsiyasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini ularning qiziqishlari, moyilliklari, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishni o‘z ichiga olgan ta’lim mazmunining shaxsiy yo‘nalishi;

– ta’lim mazmunining faoliyat komponentini kuchaytirish;

– o‘rganilayotgan fanlarning mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faolligini ta’minlash [2, 602].

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining intellektini har tomonlama rivojlantirish xizmat qiladi. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim bilan qurollantirish jarayonida ularning kreativ qobiliyatlari va insonparvarlik asoslarini shakllantirish ham zarur.

Shu jihatdan moddiy ta’limni takomillashtirish, ushbu ta’lim sohasini klassik ta’lim bilan birlashtirish zarur.

Moddiy ta’limni takomillashtirish o‘rganilayotgan maktab fanlarining hayotga amaliy muvofiqligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bunda amaliy yondashuvni og‘irligini, o‘quv fanlarini bilishning amaliy foydaliligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega [3, 36].

O‘quvchilarning ushbu xususiyatni o‘rganishini ta’minlashning asosiy usuli bu uning texnologik yo‘nalishini amalga oshirishdir.

Bu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqliy rivojlanishi ko‘proq darajada nafaqat ta’lim “texnologiya”siga, balki ta’lim olovchining o‘ziga, uning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga, o‘quv va kognitiv faoliyatning xususiyatiga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini aqliy rivojlanishining bu sifati kreativ qobiliyatlarning asoslarini ongli ravishda ta’minlashning hal qiluvchi imkoniyatlaridan biridir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mohiyati olingan bilimlarni keyinchalik amalda qo‘llay olishi bilan ularni idrok etishini obyektivlashtirishdan iborat.

Uning mazmuni va amalga oshirilishida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish har doim individualligi bilan farqlanadi. Ushbu tizimda mehnat ta’limi, ya’ni uning “texnologiya”lari maktab o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llaridan birini tashkil etadi, bu ularga asosiy yoki to‘liq umumiy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish jarayonida ta’limni takomillashtirish uchun sharoit yaratadi.

Yuqoridagi keltirilgan sharoitlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Binobarin, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogik hodisa bo‘lib, unda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinishi, ta’lim materialini o‘quv bosqichlari bo‘yicha oqilona qayta taqsimlanishi va ta’lim mazmuni tarkibiy qismlaridagi mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish, individual ta’lim uchun sharoit yaratish kerak. Shu sababli kelajakda ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligining ahamiyati sezilarli darajada kuchaytirilishi kutilmoqda. “Umumiy o‘rta-ta’lim maktablarining boshlang‘ich va yuqori sinflarda o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilmoqda” [1, 25].

Ta’limning yangi konsepsiyasi hamda tadqiqot muammosi nuqtayi nazaridan ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi qulay sharoit va imkoniyatlar yaratishni kerak:

– shaxsning aqliy, axloqiy, hissiy va jismoniy rivojlanishi;

– fanlarning asoslari, jamiyat va tabiat rivojlanishining asosiy qonunlari bo‘yicha elementar bilimlarni o‘zlashtirish, olingan bilimlarni turli xil amaliy shakllarda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishni ta’minlash;

– ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashish, shaxsiy muvaffaqiyatga va ijtimoiy taraqqiyotga erishish sharoitlariga barqaror motivlar va faol ta’sir munosabatlarini shakllantirish.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari-

ni shakllantirishni amalga oshirish shartlari, shakllarini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni ta’lim muassasasi tarkibidagi o‘zgarishlarni belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda intensiv aqliy rivojlanishni, ta’lim faoliyati usullarini shakllantirishni, bilimlarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatini va ularni kognitiv muammolarni hal qilishda qo‘llashni, shuningdek, bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlash kerak.

Psixologik rivojlanish nuqtayi nazaridan ushbu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchi shaxsini shakllantirish, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan; kognitiv ko‘nikmalarini, motivlarini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish ta’minlash.

Ushbu jarayonning asosiy ko‘rsatkichi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ta’lim olish jarayoniga tayyorligi bo‘lishi mumkin, bu esa umumiy ta’limda muvaffaqiyatli o‘qish imkonini beradi. Shunday qilib, 11 yillik ta’limning tuzilishi va mazmuni tahlili umumiy o‘rta ta’lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rsatadi:

Ta’lim faoliyatining asosiy turlari va usullari bo‘lgan faoliyat komponentini o‘qitish “texnologiya”lari tarkibida mustahkamlash, ularni o‘rganilayotgan ta’lim sohalari, alohida fanlar, ularning bo‘limlari va mavzulari bilan birlashtirish;

O‘quvchilar o‘rganilayotgan fanlarning asoslari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy o‘quv mahsulotlari shaklida shakllantiriladigan tarkibni ta’minlaydigan kreativlikni amalga oshirish.

O‘rta ta’limning mazmuni an’anaviy asosiy fanlar, shu jumladan, “Texnologiya” fanini o‘qitish bilan ta’minlanadi [5, 150].

Yaqin kelajakda o‘quv fanlarining mohiyati atrofdagi dunyodagi o‘zgarishlar va asosiy fanlarning yutuqlariga muvofiq o‘quv materialini yangilash nuqtayi nazaridan o‘zgaradi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ma’lum bir kasbga yo‘naltirilgan maxsus kurslarni joriy etish rejalashtirilgan.

O‘rta maktabda an’anaviy mehnat ta’limi kursi ilmiy, texnik, texnologik bilimlarni sintez qiladigan va ulardan inson faoliyatining turli sohalarida foydalanishning ahamiyatini ochib beradigan “Texnologiya” fani o‘rnini bosdi. Ushbu fanda loyihalash ta’lim usuli qo‘llaniladi. O‘quvchilar loyihalarni mustaqil ravishda, o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiradilar. Bu ularga kelajakdagi hayot uchun zarur bo‘lgan loyihalash, konstruktorlash, kreativ faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinflarda kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi jarayoni bilan olingan bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilar tomonidan “Texnologiya” fanini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun asos bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil hayot va mehnatga tarbiyalash, ta’lim berish va tayyorlashning zamonaviy xususiyatlariga xos. Biz o‘rganayotgan muammoning rivojlanishining tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishda o‘z-o‘zini anglash, o‘z taqdirini o‘zi qurish, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari falsafa va psixologiyaning yetakchi vazifasi hisoblanadi. Yaqin o‘tmishda pedagogika ushbu jarayonlarni uning e’tiboridan uzoq hodisa sifatida bilgan yoki pedagogikaning ta’lim amaliyoti bilan bog‘liq holda ishonchli tavsiyalar berishga tayyor emas edi [4, 144].

Xulosa qilib, so‘nggi pedagogik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, agar o‘quvchi shaxsining o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni faollashsa va kuchaysa, uning kreativ qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun, boshlang‘ich sinflarda allaqachon o‘quvchi shaxsni ijodiy rivojlantirish qoidalarini bilish va ulardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan pedagogik jarayonida ta’lim tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika ma’lum nazariy qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Tadqiqotimiz doirasida shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika g‘oyalarini faoliyat yondashuvi tamoyillari bilan birlashtirish juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni va tuzilmasi quyidagi jarayonlarga asoslangan bo‘lishi mumkin:

1. Ta’lim dasturlarida kreativlikni qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilarni ma’naviy va jismoniy mashqlar, savollar va vazifalar orqali kreativlikka yo‘l qo‘yish uchun ilg‘or usullar bilan ta’minlash.

2. Amaliy mashg‘ulotlar va proyektlar: O‘quvchilarga amaliy mashg‘ulotlar va proyektlar orqali o‘zlarini ifodalash, yangi yechimlar topish va muammolarni hal qilish imkoniyatini berish.

3. Fikr-mulohazalar va mantiqiy savollar: O‘quvchilarni fikr-mulohazalar bilan mashg‘ul qilish, savollar orqali o‘z fikrlarini ifodalash va mantiqiy yondashuvlar yaratishga yo‘l qo‘yish.

4. Kreativlikni oshirish uchun motivatsiya: O‘quvchilarni yangi g‘alaba va muvaffaqiyatlar uchun rag‘batlantirish, ularni o‘zlashtirish va o‘zlashtirishga o‘rgatish orqali kreativlik darajasini oshirish.

5. Kreativlikni qo‘llab-quvvatlash uchun texnologiyalardan foydalanish: O‘quvchilarga texnologiyalardan foydalanib, yangiliklarni o‘rganish, yangi mahsulotlar yaratish va innovatsion yechimlar topish imkoniyatlarini taqdim etish.

6. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchilar va maktab muhitining muhim roli bor. Ularning qo‘llab-quvvatlashi, ilg‘or

ISSN 2181-8274

usullar bilan ta’lim berishi va o‘quvchilarni kreativlikka yo‘l qo‘yishda yordam berishi muhimdir.

Bular bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar, fikr-mulohazalar, motivatsiya va texnologiyalardan foydalanishning birgalikda ishlatilishi ularning kreativlik darajasini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Usmonboyeva va A. To‘rayev “Kreativ pedagogika asoslari”. O‘quv uslubiy majmua. – T., 2016. – 196 b.
2. Ilyasovna T.G. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING ROLI. PEDAGOG, 5(6). – 599-604 b.
3. OTAMURODOVA S.Q. (2023). “KREATIVLIK” TUSHUNCHASI VA TALABANING KREATIVLIK POTENSIALINI NAMOYON QILUVCHI ALOMATLAR. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(10). – 35-39 b.
4. Тилакова М. А. Эшмурадов О. Э. Креатив кобилиятларни ривожлантириш механизмлари. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601 /Volume: 1, ISSUE: 6. – 143-149-б.
5. Guilford J.P. Traits of creativity in Creativity and its Cultivation. Harper and Row, 1959. – 142-161 p.

FURYE QATORI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR VA FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH USULLARI

Muzaffar Ochilov,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali o‘qituvchisi
Sojida Ochilova,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali o‘qituvchisi
Maxinur Xasanova,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Farg‘ona filiali o‘qituvchisi
Maxsud Usmonov,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya

Furye seriyasi davriy funksiyalarni sinus va kosinus to‘lqinlarining yig‘indisi sifatida ifodalash uchun ishlatiladigan matematik usuldir. Ushbu maqola Furye seriyasining umumiy tushunchalari va funksiyalarni Furye qatorlariga kengaytirish uchun ishlatiladigan usullar haqida umumiy ma’lumot beradi. Furye seriyali tasviri funksiyaning chastota tarkibini tahlil qilish imkonini beradi va signalni qayta ishlash va to‘lqin tahlili kabi turli sohalarda qo‘llaniladi. Bu hollarda qo‘yilgan masalalarni yechishda quyida biz o‘rganadigan qatorlar nazariyasi katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Furye qatori, Furye koeffitsiyentlari. Funksiyalarni Furye qatoriga yoyish.*

Аннотация

Ряд Фурье — это математический метод, используемый для представления периодических функций в виде суммы синусоидальных и косинусоидальных волн. В этой статье представлен обзор общих понятий рядов Фурье и методов, используемых для разложения функций в ряды Фурье. Представление ряда Фурье позволяет анализировать частотное содержание функции и используется в различных областях, таких как обработка сигналов и вейвлет-анализ. Большое значение в решении поставленных в этих случаях задач имеет теория рядов, которую мы будем изучать ниже.

Ключевые слова: *ряд Фурье, коэффициенты Фурье. Разложение функций в ряд Фурье.*

Annotation

Fourier series is a mathematical method used to represent periodic functions as sums of sine and cosine waves. This article provides an overview of the general concepts of Fourier series and the methods used to expand functions into Fourier series. The Fourier series representation allows the analysis of the frequency content of a function and is used in various fields such as signal processing and wavelet analysis. The theory of series, which we will study below, is of great importance in solving the problems posed in these cases.

Keywords: *Fourier series, Fourier coefficients. Fourier series expansion of functions.*

1. Furye qatori .

Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya $R=(-\infty,+\infty)$ da berilgan bo'lsin. Ma'lumki, shunday $T\in R\setminus\{0\}$ son topilsaki, $\forall x\in R$ da

$$f(x+T)=f(x)$$

tenglik bajarilsa, $f(x)$ davriy funksiya, $T\neq 0$ son esa uning davri deyiladi.

Agar $T\neq 0$ son $f(x)$ funksiyaning davri bo'lsa, u holda

$$kT\ \ (k=\pm1,\pm2,\ldots)$$

sonlar ham shu funksiyaning davri bo'ladi[1, 21].

Agar $f(x)$ va $g(x)$ davriy funksiyalar bo'lib, $T\neq 0$ ularning davri bo'lsa,

$$f(x)\pm g(x),\ \ f(x)\cdot g(x),\ \ \frac{f(x)}{g(x)}\ \ (g(x)\neq 0)$$

funksiyalar ham davriy bo'lib, ularning davri T ga teng bo'ladi.

$y=\sin x,\ y=\cos x$ funksiyalar $T=2\pi$ davrli funksiya bo'lgan holda ushbu

$$\varphi(x)=a\cos\alpha x+b\sin\alpha x\ \ (a,b,\alpha-\text{ o'zgarmas},\ \alpha\neq 0)$$

funksiya ham davriy funksiya bo'lib, uning davri $T=\dfrac{2\pi}{\alpha}$ bo'ladi. Haqiqatan ham,

$$\varphi\left(x+\frac{2\pi}{\alpha}\right)=a\cos\left[\alpha\left(x+\frac{2\pi}{\alpha}\right)\right]+b\sin\left[\alpha\left(x+\frac{2\pi}{\alpha}\right)\right]=$$
$$=a\cos(\alpha x+2\pi)+b\sin(\alpha x+2\pi)=a\cos\alpha x+b\sin\alpha x=\varphi(x)$$

bo'ladi[2, 31].

Bu $\varphi(x)=a\cos\alpha x+b\sin\alpha x$ sodda davriy funksiya bo'lib, u garmonika deb ataladi.

Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[-\pi,\pi]$ da uzluksiz bo'lsin. Unda

$$f(x)\cos nx,\ f(x)\sin nx\ \ (n=1,2,3,\ldots)$$

funksiyalar ham $[-\pi,\pi]$ da uzluksiz bo'lib, ular $[-\pi,\pi]$ da integrallanuvchi bo'ladi. Bu integrallarni quyidagicha belgilaymiz:

$$a_0=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)dx,$$
$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\cos nxdx,\ \ (n=1,2,\ldots)$$
$$b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\sin nxdx.\ \ (n=1,2,\ldots)\qquad(1)$$

Bu sonlardan foydalanib, ushbu

$$\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}(a_n\cos nx+b_n\sin nx)\qquad(2)$$

qatorni (uni trigonometrik qator deyiladi) hosil qilamiz[3, 26].

(2) qator funksional qator bo'lib, uning har bir hadi garmonikadan iborat.

Ta'rif. *(2) funksional qator $f(x)$ funksiyaning Furye qatori deyiladi. (1) munosabatlar bilan aniqlangan*

$$a_0,a_1,b_1,a_2,b_2,\ldots,a_n,b_n,\ldots$$

sonlar Furye koeffitsiyentlari deyiladi.

7.2. Funksiyalarni Furye qatoriga yoyish.

Demak, berilgan $f(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari shu funksiyaga bog'liq bo'lib, (2) formulalar yordamida aniqlanadi, qator esa quyidagicha:

$$f(x)\sim\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}(a_n\cos nx+b_n\sin nx).$$

belgilanadi.

1-misol. *Ushbu $f(x)=e^{\alpha x}\ \ (-\pi\le x\le\pi\ ,\alpha\neq 0)$ funksiyaning Furye qatori topilsin.*

◄ (1) formulalardan foydalanib, berilgan funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini hisoblaymiz:

$$a_0=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{\alpha x}dx=\frac{1}{\alpha\pi}\left(e^{\alpha\pi}-e^{-\alpha\pi}\right)=\frac{2}{\alpha\pi}sh\alpha\pi,$$
$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{\alpha x}\cos nxdx=\frac{1}{\pi}\frac{\alpha\cos nx+n\sin nx}{\alpha^2+n^2}e^{\alpha x}\Big|_{-\pi}^{\pi}=$$
$$=(-1)^n\frac{1}{\pi}\cdot\frac{2\alpha}{\alpha^2+n^2}sh\alpha\pi\quad(n=1,2,\ldots),$$
$$b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}e^{\alpha x}\sin nxdx=\frac{1}{\pi}\frac{\alpha\sin nx-n\cos nx}{\alpha^2+n^2}e^{\alpha x}\Big|_{-\pi}^{\pi}=$$
$$=(-1)^{n-1}\frac{1}{\pi}\cdot\frac{2n}{\alpha^2+n^2}sh\alpha\pi\quad(n=1,2,\ldots).$$

Demak,

$$f(x)=e^{\alpha x}$$

funksiyaning Furye qatori[4, 35].

$$f(x)=e^{\alpha x}\sim\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}(a_n\cos nx+b_n\sin nx)=$$
$$=\frac{2sh\alpha\pi}{\pi}\left[\frac{1}{2\alpha}+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^n}{\alpha^2+n^2}(\alpha\cos nx-n\sin nx)\right]$$

bo'ladi.►

Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[-\pi,\pi]$ da berilgan juft funksiya bo'lsin: $f(-x)=f(x)$. U holda

$f(x)\cdot\cos nx$ juft, $f(x)\cdot\sin nx$ toq $(n=1,2,3,\ldots)$ funksiya bo'ladi.

(1) formulalardan foydalanib, $f(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini topamiz:

$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\cos nxdx=\frac{1}{\pi}\left[\int_{-\pi}^{0}f(x)\cos nxdx+\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx\right]=$$
$$=\frac{1}{\pi}\left[\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx+\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx\right]=$$
$$\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx\quad(n=0,1,2,\ldots).$$

$$b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}f(x)\sin nxdx=\frac{1}{\pi}\left[\int_{-\pi}f(x)\sin nxdx+\int_{0}f(x)\sin nxdx\right]=$$
$$=\frac{1}{\pi}\left[-\int_{0}^{\pi}f(x)\sin nxdx+\int_{0}^{\pi}f(x)\sin nxdx\right]=0\qquad(n=1,2,\ldots).$$

Demak, juft $f(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari

$$a_n=\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx\quad(n=0,1,2,\ldots)$$
$$b_n=0\quad(n=1,2,\ldots)$$

bo'lib, Furye qatori

$$f(x)\sim\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}a_n\cos nx$$

bo'ladi[5, 66].

Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[-\pi,\pi]$ da berilgan toq funksiya bo'lsin:

$f(-x)=-f(x)$. U holda

$f(x)\cdot\cos nx$ toq, $f(x)\cdot\sin nx$ juft $(n=1,2,3,\ldots)$ funksiya bo'ladi.

(1) formulalardan foydalanib, $f(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini topamiz:

$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\cos nxdx=\frac{1}{\pi}\left[\int_{-\pi}^{0}f(x)\cos nxdx+\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx\right]=$$
$$=\frac{1}{\pi}\left[-\int_{0}^{\pi}f(x)\cos nxdx+f(x)\cos nxdx\right]=0\qquad(n=0,1,2,\ldots),$$

$$b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\sin nxdx=\frac{1}{\pi}\left[\int_{-\pi}^{0}f(x)\sin nxdx+\int_{0}^{\pi}f(x)\sin nxdx\right]=$$
$$=\frac{2}{\pi}\left[\int_{0}^{\pi}f(x)\sin nxdx\right]\qquad(n=1,2,\ldots).$$

Demak, toq $f(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari

$$a_n=0,\quad(n=0,1,2,\ldots),$$
$$b_n=\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}f(x)\sin nxdx,\ (n=1,2,\ldots)$$

bo'lib, Furye qatori

$$f(x)\sim\sum_{n=1}^{\infty}b_n\sin nx$$

bo'ladi.

2-misol. *Ushbu*

$$f(x)=x^2\quad(-\pi\le x\le\pi)$$

juft funksiyaning Furye qatori topilsin.

◄ Avvalo berilgan funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini topamiz:

Demak, $f(x)=x^2$ funksiyaning Furye qatori

$$f(x)=x^2\sim\frac{\pi^2}{3}+4\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n\frac{\cos nx}{n^2}$$

bo'ladi. ►

$$a_0=\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}x^2dx=\frac{2}{3}\pi^2,$$
$$a_n=\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}x^2\cos nxdx=\frac{2}{\pi}x^2\frac{\sin nx}{n}\Big|_0^{\pi}-\frac{4}{n\pi}\int_{0}^{\pi}x\sin nxdx=$$
$$=\frac{4}{\pi n}\left(\frac{x\cos nx}{n}\Big|_0^{\pi}-\frac{1}{n}\int_{0}^{\pi}\cos nxdx\right)=(-1)^n\cdot\frac{4}{n^2}.\ (n=1,2,\ldots)$$

3-misol. *Ushbu*

$$f(x)=x\quad(-\pi\le x\le\pi)$$

toq funksiyaning Furye qatori topilsin.

◄Berilgan funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini hisoblaymiz:

$$b_n=\frac{2}{\pi}\int_{0}^{\pi}x\sin nxdx=\frac{2}{\pi}\left(-\frac{x\cos nx}{n}\Big|_0^{\pi}+\frac{1}{n}\int_{0}^{\pi}\cos nxdx\right)=\frac{2(-1)^{n-1}}{n}\cdot$$

Demak, $f(x)=x$ funksiyaning Furye qatori

$$f(x)\sim\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n-1}\frac{2}{n}\sin nx$$

bo'ladi.►

Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya $[-p,p]$ $(p>0)$ segmentda uzluksiz bo'lsin. Ma'lumki, ushbu

$$t=\frac{\pi}{p}x$$

almashtirish $[-p,p]$ oraliqni $[-\pi,\pi]$ ga o'tkazadi, ya'ni x o'zgaruvchi $[-p,p]$ da o'zgarganda t o'zgaruvchi $[-\pi,\pi]$ da o'zgaradi. Endi

$$f(x)=f\left(\frac{p}{\pi}t\right)=\varphi(t).$$

deymiz. Unda $\varphi(t)$ funksiya $[-\pi,\pi]$ oraliqda berilgan uzluksiz funksiya bo'ladi. Bu funksiyaning Furye

koeffitsiyentlari[6, 84].

$$a_n = \frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} \varphi(t)\cos ntdt,\ \ (n = 0,1,2,\ldots)$$

$$b_n = \frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} \varphi(t)\sin ntdt \quad (n = 1,2,\ldots)$$

ni topib, Furye qatorini yozamiz:

$$\varphi(t) \sim \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty}\left(a_n \cos nt + b_n \sin nt\right).$$

Modomiki,

$$t = \frac{\pi}{p}x$$

ekan, unda

$$\varphi\left(\frac{\pi}{p}x\right) \sim \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty}\left(a_n \cos n\frac{\pi}{p}x + b_n \sin n\frac{\pi}{p}x\right),$$

bo'lib, uning koeffitsiyentlari

$$a_n = \frac{1}{p}\int_{-p}^{p} \varphi\left(\frac{\pi}{p}x\right)\cos n\frac{\pi}{p}xdx, \quad (n = 0,1,2\ldots)$$

$$b_n = \frac{1}{p}\int_{-p}^{p} \varphi\left(\frac{\pi}{p}x\right)\sin n\frac{\pi}{p}xdx\,. \quad (n = 1,2\ldots)$$

bo'ladi. Natijada $[-p,p]$ da berilgan $f(x)$ funksiyaning Furye qatorini quyidagicha

$$f(x) \sim \frac{a_0}{2} + \sum_{n=1}^{\infty}\left(a_n \cos\frac{n\pi x}{p} + b_n \sin\frac{n\pi x}{p}\right)$$

bo'lishini topamiz, bunda

$$a_n = \frac{1}{p}\int_{-p}^{p} f(x)\cos\frac{n\pi x}{p}dx \quad (n = 0,1,2\ldots)$$

$$b_n = \frac{1}{p}\int_{-p}^{p} f(x)\sin\frac{n\pi}{p}xdx \quad (n = 1,2\ldots)$$

4-misol. *Ushbu*

$$f(x) = e^x \quad (-1 \le x \le 1)$$

funksiyaning Furye qatori topilsin.

◄ Yuqoridagi formulalardan foydalanib, $f(x) = e^x$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlarini topamiz:

$$a_0 = \int_{-1}^{1} e^x dx = e - e^{-1},\ a_n = \int_{-1}^{1} e^x \cos n\pi x dx = \frac{n\pi \sin n\pi x - \cos n\pi x}{1+n^2\pi^2}e^x\Big|_{-1}^{1} =$$

$$= \frac{1}{1+n^2\pi^2}\left(e\cos n\pi - e^{-1}\cos n\pi\right) = (-1)^n\frac{e-e^{-1}}{1+n^2\pi^2}\ \ (n = 1,2,\ldots),$$

$$b_n = \int_{-1}^{1} e^x \cos n\pi x dx = \frac{\sin n\pi x - n\pi\cos n\pi x}{1+n^2\pi^2}e^x\Big|_{-1}^{1} =$$

$$= \frac{1}{1+n^2\pi^2}\left(en\pi\cos n\pi + n\pi e^{-1}\cos n\pi\right) =$$

$$= \frac{n\pi(-1)^n}{1+n^2\pi^2}\left(e^{-1} - e\right) = (-1)^{n+1}\frac{e-e^{-1}}{1+n^2\pi^2} \quad (n = 1,2,\ldots)$$

Demak,

$$f(x) = e^x \quad (-1 \le x \le 1)$$

funksiyaning Furye qatori

$$e^x \sim \frac{e-e^{-1}}{2} + \left(e-e^{-1}\right)\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{(-1)^n}{1+n^2\pi^2}\cos n\pi + \frac{(-1)^{n+1}}{1+n^2\pi^2}n\pi\sin n\pi x\right]$$

bo'ladi.►

Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[a,b]$ da berilgan bo'lsin. $[a,b]$ segment a_k nuqtalar yordamida bo'laklarga ajratilgan. $(a_0 = a,\ a_n = b)$.

Agar har bir (a_k, a_{k+1}) $(k = 0,1,2,\ldots,n-1)$ da $f(x)$ funksiya differensiallanuvchi bo'lib, $x = a_k$ nuqtalarda chekli o'ng

$$f'(a_k + 0) \quad (k = 0,1,2,\ldots,n-1),$$

va chap

$$f'(a_k - 0) \quad (k = 0,1,2,\ldots,n)$$

hosilalarga ega bo'lsa, $f(x)$ funksiya $[a,b]$ da bo'lakli-differensiallanuvchi deyiladi.

Endi Furye qatorining yaqinlashuvchi bo'lishi haqidagi teoremani isbotsiz keltiramiz[7, 93].

Teorema. *2π davrli $f(x)$ funksiya $[-\pi,\pi]$ oraliqda bo'lakli-differensiallanuvchi bo'lsa, u holda bu funksiyaning Furye qatori*

$$f(x) \sim \frac{a_0}{2} + \sum_{k=1}^{\infty}\left(a_k \cos kx + b_k \sin kx\right)$$

$[-\pi,\pi]$ da yaqinlashuvchi bo'lib, uning yig'indisi

$$\frac{f(x+0) + f(x-0)}{2}$$

ga teng bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni echishdagi ahamiyati. “Science and Education” Scientific Journal” Scientific Journal, Tom-3. – 19-23 b.
2. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Darajali qatorlarning taqribiy hisoblashlarga tatbiqi. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-3. – 29-32 b.
3. Usmonov, M.T. & Shokirov., Sh.H, (2022). Ishoralari almashinib keluvchi qatorlar. Leybnits alomati. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-3. – 24-28 b.
4. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor qatori va uning tadbiqlari. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-3. – 33-38 b.
5. Усмонов, М.Т. (2021). Вычисление центра тяжести плоской ограниченной фигуры с помощью двойного интеграла. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-2. – 64-71 с.
6. Усмонов, М.Т. (2021). Биномиальное распределение вероятностей. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-2. – 81-85 с.
7. Усмонов, М.Т. (2021). Вычисление предела функции с помощью ряда. “Science and Education” Scientific Journal, Tom-2. – 92-96 с.

KURASH SPORT TURI ORQALI TALABALARNI PEDAGOGIK JIHATDAN TARBIYALASH

Adiba O‘razboyeva,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Sport turi bilan shug‘ullangan har qanday talaba bolalar va qizlar chiroyli qad-qomatga ega bo‘lishadi va o‘z kasbiy faoliyatida ham shaxsiy hayotida ham katta yutuqlarga erishadi. Bundan tashqari, kurash milliy sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash kabi masalalar haqida qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *talaba, kurash, yengil atletika, sport, salomatlik, epchillik, kuch mashqlari, jarohat turlari, kurash, qoida, yonbosh, dzyudo, sport*

Аннотация

Борьба – вид спорта, в котором два спортсмена соревнуются индивидуально по установленным правилам. Искусство боя было известно у многих народов с древнейших времен. Особенно широкое распространение борьба получила в Греции и заняла постоянное место из древних олимпийских состязаний. Кроме того, были отмечены такие вопросы, как дальнейшее развитие и популяризация национального вида спорта среди населения, особенно среди молодежи, укрепление национальной гордости и патриотизма среди подрастающего поколения.

Ключевые слова: *студент, борьба, легкая атлетика, спорт, здоровье, ловкость, силовая тренировка, виды травм, борьба, правило, боковое, дзюдо, спорт.*

Annotation

Wrestling is a type of sport in which two athletes compete individually according to the established rules. The art of fighting has been known in many nations since ancient times. Wrestling was especially widespread in Greece, and it took a permanent place from the ancient Olympic competitions. Any student, boy or girl, who is engaged in sports, will have a beautiful figure and will achieve great success in their professional activities and in their personal life. In addition, issues such as the further development and popularization of the national sport of wrestling among the population, especially among the youth, and the strengthening of national pride and patriotism among the younger generation were noted.

Keywords: *student, wrestling, athletics, sports, health, agility, strength training, types of injuries, wrestling, rule, lateral, judo, sports*

Kurash, o‘zbek milliy sportining eng katta va ahamiyatli turlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixi uzun yillar davom etgan va o‘zining erkak va ayollar uchun ajralib turuvchi turlarini rivojlantirgan. Bu sportning tarixi, o‘zbek xalqining yashash hududlarida mazkur sport turi sifatida boshqarilganligini ko‘rsatadi. Kurash sporti tarixi, o‘zbek milliy sportining identitetini saqlashda va o‘ziga xosligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada, kurash sporti tarixi va o‘zbek milliy sportining rivojlanishi mavzusiga oid tafsilotlar keltiriladi. Tarixiy manbalar bilan ishlab chiqilgan maqola, kurashning rivojlanishiga uchragan o‘zgarishlarni va tarixiy shaxslarni tahlil qiladi. Bunda, kurashning tarixi asoslarida o‘zbek xalqi va boshqa millatlarning o‘zaro aloqalariga ham e’tibor qaratiladi.

Kurash, O‘rta Osiyoda o‘rtacha vaqt davomida o‘ynaluvchi bir necha qismli sport turlaridan biridir. Bu sport turi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiston, Afg‘oniston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda mashhurdir. Tarixiy ravishda, kurashning boshlang‘ich asri 3-4 ming yil oldin yashagan qishloq o‘ylariga qaytariladi. Kurashning asosiy ta’siri Orta Osiyo xalqlarining o‘zaro kurashishlari va urushlardan kelib chiqqan. Bu sport turi 20-asrning boshlarida yuritilgan kunlar tadbirlari va xalqaro urushlarda ham o‘ynalib kelgan.[1, 32]

Kurashning rasmiy jamiyati 1998 yilda tashkil etilgan “Kurash Federatsiyasi”dir. 2001 yildan buyon, Xalqaro Kurash Federatsiyasi (ICF) tomonidan xalqaro kurashning rivojlanishi va tashkil etilishi ustida ishlar olib borilmoqda. Kurashning asosiy maqsadi o‘yinchilarning qo‘llab-quvvatlanishini va adolatli kurashishlarini ta’minlashdir. Bu sport turi o‘yinchilar uchun fizikaviy va ruhiy tarbiya, strategiya, taktika va sporti muvaffaqiyatni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, kurash sport turi tarixi bog‘liq mamlakatlar va ularning milliy o‘yinlariga qarab farqli o‘zgarishlar ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, kurashning hozirgi kunda O‘zbekiston va Qozog‘iston kabi mamlakatlarda juda mashhur bo‘lganligi ham ma’lum.[2, 47]

Kurash, Orta Osiyoda o‘ynaluvchi bir sport turi hisoblanadi. Uning tarixi qishloq o‘ylariga qaytariladi va shu kunga kelib 20-asrning boshlarida yuritilgan kunlar tadbirlarida va urushlarda ham o‘ynalib kelgan. Kurashning maqsadi o‘yinchilarning qo‘llab-quvvatlanishini va adolatli kurashishlarini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Kurashning rasmiy jamiyati 1998-yilda “Kurash Federatsiyasi” tashkil etilgan va Xalqaro Kurash Federatsiyasi (ICF) tomonidan xalqaro kurashning rivojlanishi va tashkil etilishi ustida ishlar olib borilmoqda.[2, 55] Bu sport turi o‘yinchilar uchun fizikaviy va ruhiy tarbiya, strategiya, taktika va sportif muvaffaqiyatni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Kurashning hozirgi kunda O‘zbekiston va Qozog‘iston kabi mamlakatlarda mashhur bo‘lganligi bilan bilinadi. Bu mamlakatlarda kurash milliy o‘yinlarida ham o‘ynaladi va o‘yinchilar shu jihatdan qatnashishadi. Kurash Orta Osiyo xalqlarining mantiqiy mashg‘ulotlari va urushlaridan kelib chiqqan va uni rasmiy jamiyatlar tomonidan rivojlantirilib kelmoqda. Bu sport turi o‘yinchilar uchun rivojlanish, qo‘llab-quvvatlanish va sportif muvaffaqiyatni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Milliy Kurashning xilma-xil ko‘rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.[3, 71]

Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari 18-asr oxiri 19-asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a’zo).[3, 67] Xalqaro maydonda sport Kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek Kurashi ham alohida Kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug‘ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekiston janubiy) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (2-3-asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar.[3, 216] Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda Kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — “Alpomish”dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida yozgan: “Kurashning turlari ham bor Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...”. Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir.

Milliy kura ham belbog‘li kurash xam aslini olganda og‘ir sport turlari sanaladi shu bois ham sport psixologiyasi fani ham mana shu sport bilan shug‘ullanuvchi yosh o‘suvchan talaba bolalarni va qizlarni balog‘at yoshga kirgandan so‘ng, ya’ni 12 yoshdan yuqori bolalar va qizlarga tavsiya etadi.

Keyingi yillarda asrlar davomida mardlik, bag‘ri-

kenglik, oliyjanoblik va halollikning timsoli sifatida e’zozlanib kelingan, o‘zbek xalqining tarixiy merosi — Kurash milliy sport turini (keyingi o‘rinlarda kurash deb yuritiladi) qayta tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimizning bevosita qo‘llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e’tirof etildi, kurash‖, halol, ta’zim, to‘xta va yonbosh‖ kabi atamalar esa xalqaro sport lug‘ati tarkibidan mustahkam o‘rin egalladi. 1998-yil 6-sentyabrda ta’sis etilgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi bugungi kunda sayyoramizning beshta qit’asidagi 129 ta milliy federatsiyani birlashtirgan. 2010-yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishda muhim talab hisoblangan Jahon dopingga qarshi agentligining e’tirofiga sazovor bo‘ldi. [4, 44] 2017-yil 20-sentyabrda Ashxobod shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida kurash milliy sport turi tarixda ilk bor XVIII yozgi Osiyo o‘yinlari dasturiga rasman kiritildi. [4, 45]

Psixologik tayyorgarlik deganda, sportchilar faoliyatida psixologik-pedagogik tadbirlar va ularning hayotiga muvofiq sharoitlar yig‘indisi tushuniladi. Ular kurashchilarda mashg‘ulot va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta’minlaydigan psixologik funksiyalar, jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Kurashchining “psixologik tayyorgarligi” tushunchasi ikkita tushunchani o‘z ichiga oladi: umumiy psixologik tayyorgarlik va muayyan musobaqaga qatnashishiga psixologik tayyorgarlik.Umumiy psixologik tayyorgarlik butun sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi. Uning yordamida quyidagi o‘ziga xos vazifalar hal etiladi:

1. Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
2. Sport jamoasi va jamoadagi psixologik muhitni shakllantirish.
3. Iroda sifatlarini tarbiyalash.
4. Ilg‘ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, “raqibni his qilish”, “vaqt va makonni his qilish” kabi ilg‘ashning maxsus turlarini takomillashtirish va h.k.
5. Diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o‘tishini rivojlantirish.
6. Taktik fikrlashni rivojlantirish.
7 . O‘z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Kurash mashg‘ulotlarini haftasiga uch marta o‘tkazish mumkin. Lekin mashg‘ulot kunlariga o‘zgartirishlar ham kiritish mumkin. Biroq har qanday variantlarda ham mashg‘ulotlar orasidagi interval 1-2 kun bo‘lishi lozim. Har bir mashg‘ulot 1-2 soat davom etadi. Mashg‘ulotlarning davomiyligi bolalarning yoshi va jismoniy holatiga qarab belgilanadi. Kurashga o‘rgatish mashqlarida kuch va dinamik yuklamalar asta sekin oshib borishini esda tutish kerak. O‘smirning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalarni 12-14 yoshdan boshlab kurashga o‘rgatish mumkin. Bu yosh o‘tish yoshi bo‘lib, o‘sish sur’atining tezligi va bir tekisda bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Markaziy nerv tizimida katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Uning anatomik strukturasi o‘smirlarda deyarli butunlay shakllangan bo‘ladi, ammo uning funksional faoliyati intensiv rivojlanadi va takomillashadi. Markaziy nerv tizimi juda ham qo‘zg‘aluvchanligi va tormozlanish reaksiyalarining sustligi bilan ajralib turadi. O‘smirlar suyak muskul tizimi rivojlanadi, biroq muskul to‘qimalarining o‘sishi naychasimon suyaklarning o‘sishidan orqada qoladi. Suyaklarning tez o‘sishi hali tugallanmagan suyak bo‘lib, qotish jarayoni bilan birgalikda boradi. O‘smirlik yoshida ba’zan yurak urish ritmining buzilishi, yurakning notekis urishi kuzatiladi, chunki yurakning nerv apparati hali yetarlicha takomillashmagan bo‘lib, u o‘z vazifalarini uddalay olmaydi. O‘smirni kurash kurash bilan shug‘ullantirishga jalb qilishdan oldin vrachga murojaat qilish, vrach esa uni salomatligini va kurash bilan shug‘ullanishi mumkinligi haqida batafsil xulosa yozib berish kerak. Kurashning turlari juda ko‘p. bu turlarni kurashchilar birdaniga o‘rganisha olmaydi. Ta’lim tizimida ham talabalarga kurashning usullarini o‘rgatish uchun ularga nazariy ma’lumotlar beriladi va shu nazariyani amaliyotda o‘rgatiladi. Amaliyot kurash bo‘yicha ta’lim olayotganlarda albatta yetakchi o‘rinni egallashi kerak. [5, 2-3]

Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi kurashni xalqaro sport musobaqalari va turnirlari dasturlariga, kelgusida esa Olimpiya o‘yinlari dasturiga ham kiritish bo‘yicha faol tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ayrim kamchiliklar kurashni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda, xususan:

– birinchidan, Kurash milliy sport turini, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida, o‘sib kelayotgan avlodning milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar zamon talablariga javob bermayapti;

– ikkinchidan, mazkur sport turi bo‘yicha qobiliyatli kurashchilarni aniqlash va saralash hamda ularning mashq qilishi, shuningdek, murabbiy va hakamlarni tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish imkonini beradigan klub va seksiyalarning yaxlit tizimi shakllantirilmagan;

– uchinchidan, yoshlarni ushbu sport turi bilan shug‘ullanishga kengroq jalb etishga qaratilgan xalqaro musobaqalar g‘oliblari va sovrindorlarini rag‘batlantirishning samarali tizimi joriy etilmagan;

– to‘rtinchidan, zarur moddiy-texnik baza va sport infratuzilmasining yetarli emasligi, sport anjomlarini ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilmaganligi sportchilar mashg‘ulotlarini talab darajasida tashkil etishga hamda kurash bo‘yicha xalqaro musobaqalarni o‘tkazishga to‘sqinlik qilmoqda.

Kurash milliy sport turini aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jahon sport maydonida yuqori natijalarga erishishni ta’minlash maqsadida:

Xulosa qilib aytganda, bu sport turlari bilan xususan kurash va belbog‘li kurash sport turlari yosh talabalarni ruhiy va ma’naviy tarzida tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (milliy kurash). O‘quv qo‘llanma. – S.: SamDU nashri, 2021. – 232 b.
2. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015. – 328 b.
3. A.R.Taymuratov, S.J.F.Atajanov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017. – 272 b.
4. Верхошанский Ю.В. Горизонты научной теории и методологии спортивной тренировки. Теория и практика физкультуры. – №2. – 1998. – 41-54 с.
5. Вяткин Б.А. Спорт и развитие индивидуальности человека (опыт системного исследования), Теория и практика физкультуры. – М., 1993. – 1-5 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING TAHLILIY NATIJALARI

Zuxra Akramova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim “Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurini shakllantirishning tahliliy natijalari haqida qayd etilgan. Bundan tashqari, maktabda matematik mantiq masalalarini o‘qitishning dolzarbligi va uni samarali o‘qitish yo‘llari haqida bayon qilingan. Boshlang‘ich ta’lim matematika darslari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Mantiqiy savodxonlik va matematik savodxonlikning bog‘liqligi tadqiq qilingan va ushbu bilimlarni rivojlantirish metodlari keltirilgan. Matematika darslarida mantiqiy misol va masalalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, tafakkur jarayonlari, analiz, sintez, mantiqiy masala, sonli bog‘lanish, matematik boshqotirma, mantiqiy boshqotirma, test, yozma ish.*

Аннотация

Данная статья написана на тему: “практический подход к развитию логического мышления учащихся начальных классов”, в которой изложена актуальность преподавания вопросов математической логики в школе и пути ее эффективного преподавания. Изучены и проанализированы уроки математики начального образования. Была исследована взаимосвязь логической грамотности и математической грамотности и приведены методы развития этих знаний. На уроках математики анализировались методы формирования и развития навыков логического мышления младших школьников средствами логических примеров и задач.

Ключевые слова: *мышление, мыслительные процессы, анализ, синтез, логическая задача, числовая связь, математическая головоломка, логическая головоломка, тест, контрольная работа.*

Annotation

This article is written on the topic “practical approach to the development of logical thinking of Primary School students”, and this article describes the relevance of teaching mathematical logic issues at school and ways to teach it effectively. Elementary education mathematics classes have been studied and analyzed. The correlation of logical literacy and mathematical literacy has been researched and techniques for the development of this knowledge have been cited. In mathematics lessons, methods for the formation and development of logical thinking skills of elementary students are analyzed by means of logical examples and issues.

Keywords: *thinking, thought processes, analysis, synthesis, logical problem, numerical linkage, mathematical puzzle, logical puzzle, test, control work.*

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi. [1]

Zero, matematika bolalarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini o‘stirishi, ularning o‘z fikrlarini aniq, to‘g‘ri va tushunarli bayon eta olishi uchun zamin hozirlaydi. Shu nuqtayi nazardan bizning tadqiqot ishimizning mavzusi dolzarbdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkur-

larini shakllantiruvchi bilimlarni mustahkamlashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish metodikasini, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish yo‘llari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishga oid misol va masalalarni o‘rgatish metodikasini ko‘rsatish.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirishga oid ilmiy adabiyotlar tahlili psixologik, pedagogik tadqiqotlarda boshlang‘ich sinflarda va boshlang‘ich o‘qitish samaradorligini oshirishning ilmiy tahlili birinchidan, axborotlarni boyitib berish yordamida ta’lim mazmunini o‘zgartirish, didaktik elementlarni kattalashtirib o‘zlashtirish (B.P.Erdniyev, P.M.Erdniyev), har bir fanning muhim g‘oyasini ajratish (A.D.Zveryev, B.H.Maksimova, A.M.Markushevich, A.A.Abduqodirov, R.A.Mavlonova) nazariy bilimlarning rolini oshirish (B.B.Davidov, A.K.Marikova, Ye.Ikromov, A.M.Rishkalo, I.SH.Levenberg, N.U.Bikbayeva, M.Axmedov, Ye.Yangiboyeva) yo‘nalishlarida amalga oshirilgan. [2, 18]

Mantiqiy masalalardan o‘quv jarayonida foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida bir nechta boshlang‘ich sinflarda tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari tadqiqot o‘tkazish usullariga mos ravishda o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari respublikamizning Jizzax shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-sinf o‘quvchilarida olib borildi va 61 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Mazkur jarayonlarda quyidagi qator asosiy mezonlarga rioya qilindi:

– tajriba-sinov o‘tkazish jarayonida hisoblash natijalariga subyektiv ta’sirlarga yo‘l qo‘ymagan holda tadqiq etilayotgan jarayonning parametrlari tavsifi to‘g‘ri qayd etildi;

– tadqiqot natijalarining samaradorligini xolisona aniqlash uchun tajriba-sinov natijalari muntazam tahlil qilindi va statistik kriteriyalarga muvofiq ravishda tanlandi.

Tajriba-sinov ishlari yuqorida qayd etilgan mezonlar asosida taklif etilayotgan mantiqiy masalalarning o‘qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleksning samaradorligini aniqlash, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari o‘rtasida muntazam anketa va so‘rovlarni o‘tkazish, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini o‘zlashtirishi va amaliy topshiriqlarni bajarishini kuzatish, sinov guruhlarining matematika darslarida 5-7 daqiqa mantiqiy masalalar bilan shug‘ullanish, nazorat va sinov guruhlarida test va yozma ishlarni o‘tkazish hamda baholash va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatining o‘zgarishlarini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarida yozma ish shaklidagi variantlar 5 ta savoldan iborat bo‘lib, ular 5 balli tizimda baholandi:

1. Masalani to‘g‘ri yechib, matematik qoidalar asosida izohlab bera olgan o‘quvchiga 5 baho “a’lo”.

2. Masalaning javobini to‘g‘ri topgan, lekin asoslab bera olmagan, ayrim sistematik xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchiga 4 baho “yaxshi”.

3. Masalani to‘liq yechmagan, lekin qoidalardan to‘g‘ri foydalana olgan o‘quvchiga 3 baho “qoniqarli”.

4. Masalani xato yechgan yoki umuman yechmagan o‘quvchiga 2 baho “qoniqarsiz”.

Test topshiriqlarida o‘quvchilarga 10 ta test savollari berildi. Har bir savolga 1 ball ajratildi va umumiy natijalar 5 baholi tizimda ushbu baholash mezonida baholandi (1.1-jadvalga qarang).

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning matematika fanida mantiqiy masalalarni yechishga oid tasavvurni rivojlantirish va bu fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash uchun anketa, test va yozma ish variantlari vositasida dastlabki aniqlovchi tajriba-sinovlar o‘tkazildi. Natijalarning tahlili o‘quvchilarning matematikaga oid mantiqiy masalalarni bilishi yetarli darajada emasligi, jumladan sinov va nazorat guruhidagi o‘quvchilarning bilim darajasi va motivatsiyasi deyarli bir xil ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, matematikaga oid mantiqiy masalalarni o‘qitishni takomillashtirish va o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sinov guruhlarida o‘quv jarayoniga o‘qitishning samaradorligini oshirish va uni takomillashtirishga qaratilgan kompleksning o‘quv-metodik ta’minoti tatbiq qilindi va bunda samaradorlikka olib keluvchi didaktik vositalar va metodlarni qo‘llash ko‘zda tutildi.

1.1-jadval

Baholash mezoni

Baholar	**5 (a’lo)**	**4 (yaxshi)**	**3 (qoniqarli)**	**2 (qoniqarsiz)**
Ballar taqsimoti	9-10 (86% – 100%)	7-8 (71% – 85%)	5-6 (55% – 70%)	0-4 (0% – 54%)

O‘quvchilarning matematikaga oid mantiqiy masalalarni yechish bo‘yicha bilimlarini baholash hamda ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmasini aniqlash uchun biz bir necha bor nazorat ishi o‘tkazdik. Sinov guruhi matematika darslari tashkiliy qismining 5-7 daqiqasi mantiqiy masalalar yechish uchun sarflandi. Tajriba-sinov ishi yakunida nazorat va sinov guruhlari o‘quvchilariga nazorat ishi yozma ish, test va mustaqil ish shakllari taqdim etildi, quyida yozma ish variantlarining ba’zilarini keltiramiz.

Yozma ish

1-variant

1. Taqsimchada 9 ta olma bor edi. Lola 1 ta olmani yeb qo‘ydi. Taqsimchada nechta olma qoldi?

2. Qaysi son tushirib qoldirilgan? 11, 12,13, …,15

3. Taqqoslang:

4. 30?17 va 19 sonlari o‘rtasida joylashgan sonni toping.

5. Nuqtalar o‘rniga “+”, “–” belgilaridan birini qo‘ying:

50...20 = 70

2-variant

1. Taqsimchada 8 ta apelsin bor edi. Komila 1 ta apelsinni yeb qo‘ydi. Taqsimchada nechta apelsin qoldi?

2. Qaysi son tushirib qoldirilgan?

21, 22,23, …,25

3. Taqqoslang:

4. 27?14 va 16 sonlari o‘rtasida joylashgan sonni toping.

5. Nuqtalar o‘rniga “+”, “–” belgilaridan birini qo‘ying:

60...30 = 90

[5, 418]

Nazorat ishi natijalariga ko‘ra, sinov guruhi o‘quvchilari nazorat guruhi o‘quvchilariga qaraganda berilgan mavzularni nisbatan mustahkamroq o‘zlashtirganlari aniqlandi. Bu esa ishlab chiqilgan kompleksning turli komponentlarini o‘quv jarayoniga tatbiq qilinishi orqali o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi, matematik tasavvuri, mantiqiy fikrlashi, ijodiy fikrlashi rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Tadqiqotning yakunida tajriba-sinov ishlarining natijasini yanada aniqroq ko‘rish maqsadida test topshiriqlari yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi tekshirildi.Test uchun 30 daqiqa vaqt ajratilgan. Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning test sinovida erishgan natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (1.2-jadvalga qarang).

Test

1. Tushirib qoldirilgan sonni belgilang. 1 2 3 ... 5.

a) 2 b) 4 d) 3

2. 3 sonining oldi qo‘shni sonni belgilang.

a) 2 b) 4 d) 1

3. 5 sonining oldi qo‘shni sonini belgilang.

a) 3 b) 2 d) 4

4. 3 va 5 sonlar orasida joylashgan sonni belgilang.

a) 2 b) 4 d) 1

5. Ifoda to‘g‘ri bo‘lishni uchun katakcha o‘rniga mos sonni yozing.

... + 3 = 5

a) 4 b) 2 d) 8

6. Javobi to‘g‘ri bo‘lgan misolni belgilang.

a) 2 + 1 = 5

b) 3 + 2 = 5

d) 4 + 2 = 5

7. Sonlar tartibi to‘g‘ri yozilgan qatorni belgilang.

a) 1247689 10 35

b) 123456789 10

8. Ifoda to‘g‘ri bo‘lishi uchun katakcha o‘rniga mos son qo‘ying.

2 + … = 4

a) 1 b) 3 d) 2

9.



a) 56 b) 57 d)60

10.

a)39 b)40 d)41 **[3, 8]**

ISSN 2181-8274

1.2-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning yakuniy test sinovidagi natijalari

Tajriba-sinov o‘tkazilgan joylar	Sinov guruhi				O‘quvchilar soni	Nazorat guruhi				O‘quvchilar soni	Jami o‘quvchilar
	Baholash turi					Baholash turi					
	5(a’lo)	4(yaxshi)	3(qon-li)	2(qon-siz)		5(a’lo)	4(yaxshi)	3(qon-li)	2(qon-siz)		
Jizzax shahar 3-maktab	6	11	11	2	30	2	7	17	5	31	61
	20%	37%	37%	6%	100%	6%	22%	55%	17%	100%	100%

Tajriba-sinov ishlarida turli empirik metodlar orqali olingan natijalarning matematik-statistik tahlilini o‘tkazishda avval nazorat va sinov guruhlarining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi aniqlandi hamda ularning nisbiy o‘zlashtirish asosida tahlil qilindi hamda tegishli xulosalar chiqarildi.

Sinov va nazorat guruhlaridagi o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi.

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \cdot \sum_{n=1}^{N} n_i \cdot x_i, \quad \bar{y} = \frac{1}{m} \cdot \sum_{j=1}^{M} m_j \cdot y_j$$ [4, 135]

Bu yerda $N = 5$ va $M = 5$ uchun quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\bar{x} = \frac{5 \cdot 6 + 11 \cdot 4 + 11 \cdot 3 + 2 \cdot 2}{30} = 3.7.$$

$$\bar{y} = \frac{2 \cdot 5 + 7 \cdot 4 + 17 \cdot 3 + 5 \cdot 2}{31} = 3.2$$

O‘quvchilarning bajargan topshirig‘i bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirishi:

$$\overline{x_0} = \frac{3,7}{5} \cdot 100\% = 74\%; \quad \overline{y_0} = \frac{3,2}{5} \cdot 100\% = 64\%.$$

Nisbiy o‘zlashtirish koeffitsienti

$K = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} = \frac{3,7}{3.2} = 1,16$ hamda o‘rtacha ayirma koeffitsienti esa $L = \bar{x} - \bar{y} = 3,7 - 3,2 = 0,5$ qiymatga teng bo‘lib, o‘rtacha o‘zlashtirishlar bo‘yicha farq sezilarli. Bundan aniqki, sinov guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirish 10% dan yuqori. Bu esa sinov guruhlari o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 1,16 barobar yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Tadqiqot ishi Jizzax shahar 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabida olib borildi.

Ushbu maqolada 1-2-sinf matematika fanidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan yozma ish variantlari va testlar berilgan.

Matematika darsining tashkiliy qismida 5-7 daqiqasi mantiqiy misol va masalalar, fanga oid yozma ish va testlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘zgarishlar aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, sinov guruhi o‘quvchilari nazorat guruhi o‘quvchilariga qaraganda berilgan mavzularni mustahkamroq o‘zlashtirganliklari aniqlandi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqilgan kompleksning turli komponentlarini o‘quv jarayoniga tatbiq qilinishi o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi, matematik tasavvuri, mantiqiy fikrlashi, ijodiy fikrlashi rivojlanishidan dalolat beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning yakuniy test sinovidagi natijalariga ko‘ra sinov guruhlarida o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan 10% ga oshishiga erishildi.

Demak, bundan kelib chiqadiki, ushbu kompleksni o‘quv jarayoniga tatbiq etish yuqori natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020-y.

2. Akramova Z. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т., 2. №. 3. – 14-18 с.

3. Akramova Z. WAYS TO FORM STUDENTS’LOGICAL THINKING IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2022. – T., 1. – №. 9. – 6-9 c.
4. Rahmatova F. A., Akramova Z. B. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T., 3. – №. 4. – 133-137 c.
5. Akramova Z. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T., 2. – №. 13. – 417-422 c.

EFFECTIVE ENGLISH TEACHING METHODOLOGIES PRIORITIZE GENUINE COMMUNICATION AND INTERACTION

Saida Abdieva,
Teacher, Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi

Annotation

This article prioritizes real communication and interaction as the mainstays of language education, effective methodologies for teaching English. Emphasizing the use of real language and meaningful exchange, teachers create an interesting learning environment that increases student activity and language proficiency. This abstract examines the important role of real communication in teaching English and highlights its impact on the development of communicative competence and language fluency. The article outlines various foreign language developments and guidelines.

Erkin kurash. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, erkin kurash qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan. Chunki yunonlar yoshlarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga e’tibor qaratganlar [4, 171]. Shu bois erkin olishuvda kurashchi o‘z raqibini safdan chiqarib yuborishi mag‘lub bo‘lganligi tan oldirishi lozim bo‘lgan va bu hol g‘alaba mezoni bo‘lib xizmat qiladi. XVIII asrda erkin kurash Angliyada keng tarqalgan bunda kurashchilar hujum vositasini erkin tanlaganlar. Keyinchalik Shimoliy Amerikada erkin kurash bilan shug‘ullanuvchi to‘garaklar paydo bo‘lgan va, nihoyat, 1904-yilda AQShda o‘tkazilgan olimpiya o‘yinlarida erkin kurash musobaqalari Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan. F.A. Kerimovning yozishicha, VII Olimpiya o‘yinlaridan boshlab (Belgiya, 1920-y.) erkin kurash doimiy ravishda Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritdi. Bu Olimpiya o‘yinlari turli mamlakatlar erkin kurashchilarining o‘z kuchlarini sinab ko‘radigan yagona musobaqalar edi. Boshqa hech qanday xalqaro musobaqalar u vaqtda o‘tkazilmasdi. Erkin kurash bo‘yicha birinchi Yevropa chempionati 1929-yilda Parijda, birinchi jahon chempionati esa 1951-yilda Tokioda o‘tkazildi. O‘zbekistonlik kurashchilar xalqaro maydonda katta yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Bular ikki marta Olimpiya chempionlari, bir necha bor jahon chempionlari Arsen Fadzayev va Maharbek Xadarsev, shuningdek uch karra jahon chempioni Aslan Xadarsevlardir. Shular qatorida E.Abdurahmonov, E.Yusupov, L.Shepilov, A.Xaymovich, R.Ataulin, X.Zangiyev, R.Islamov, A.Ochilov, D.Zaharitdinov va R.Xinchagovlar ham katta yutuqlarga erishganlar. Mustaqillik yillarida ikki karra jahon chempioni D.Mansurov, uch karra Olimpiya o‘yinlari g‘olibi Artur Taymazov, Olimpiya o‘yinlari sovrindorlari M.Ibragimov, S.Tigiyev, Osiyo chempioni Ixtiyor Navro‘zov, Adham Ochilovlardir [5, 102].

Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida paydo bo‘la boshladi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat a’zo, Xususan, mamlakatimiz unga 1993-yilda a’zo bo‘lgan). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalovchi asosiy vositalardan biridir [6, 136]. Mutaxassislar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug‘ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan Bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon kurashi tasvirlangan. Yana bir artefaktda esa polvonlarning Kurash usullari namoyishi aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganini anglatadi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — “Alpomish”dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi”. Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy”, Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida kurash haqida qimmatli ma’lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o‘rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar dovrug‘i butun Sharqqa tanilgan [7, 114].

O‘zbek xalq yakka kurashining belbog‘li kurash deb nomlangan turi ham bor. Bunga taalluqli ko‘plab topilmalar va tarixiy qo‘lyozmalar mavjud. 5 ming yil ilgari Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog‘li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning “Tan-shu” qo‘lyozmasida Dovon davlati(Farg‘ona vodiysi) to‘ylar, sayllar kurash musobaqalarisiz o‘tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo‘ja pol-

von kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan (XIX asr oxiri — XX asr boshi). Chorizm va sho‘rolar davrida mafkuraviy harakatlar negizida o‘zbek milliy kurashini xalq turmush tarzidan sun’iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi [8, 217].

1992-yilda O‘zbekistonda kurash federatsiyasi tuzildi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA)ning 2003-yil Toshkentda o‘tgan Kongressi har bir uchrashuvning qizg‘in bo‘lishini ta’minlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 daqiqa qilib belgiladi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda “chala”, “yonbosh”, “halol” baholari, qoidaga zid harakatlarga esa “tanbeh”, “dakki”, “g‘in-om” jazolari beriladi. Kurashuvchi “halol” bahosini olsa (yoki raqibi “g‘in-om” bilan jazolansa) bu uning g‘alabasini bildiradi. Ikki bor “yonbosh” bahosini olish (yoki raqibining ikki bor “dakki” deya jazolanishi) ham g‘alabani anglatadi. “Chala” baholari hisobga olib boriladi... Ballar tengligida oxirgi baho olgan kurashchiga g‘alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo‘ladi, jazolar soni teng bo‘lsa oxirgi jazo olgan mag‘lub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo‘lsa, g‘olib hakamlarning ko‘pchilik ovoziga ko‘ra e’lon qilinadi [9, 37].

2001-yilda O‘zbekistonda belbog‘li kurash federatsiyasi tuzildi. 1998-yil sentyabrda Toshkentda 28 davlat (AQSh, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, O‘zbekiston, Yaponiya va b.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari bo‘lishdi va shu munosabat bilan bu yerga o‘zbekcha kurash bo‘yicha yirik xalqaro musobaqa o‘tkazildi. Prezidentning “Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni o‘zbek milliy kurashining yanada rivojlanishini ta’minladi. Shu yili Toshkentda o‘zbekcha kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk shahrida ayollar o‘rtasida xalqaro musobaqa bo‘lib o‘tdi. IKA qoshida Xalqaro kurash akademiyasi tashkil etildi [10, 93].

2000-yil O‘zbekistonda kurash oyligi o‘tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln.ga yaqin kishi kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an’anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-yildan Toshkentda Xalqaro kurash instituti faoliyat boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a’zo bo‘lib kirdi. Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya kurash konfederatsiyalari tuzildi. Hozirgi paytda o‘zbekcha kurash bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug‘ullanadi. Kurashning bu turi bo‘yicha jahon, qit’a va mamlakatlar chempionatlari hamda O‘zbekistonda at-Termiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan va boshqa ko‘plab xalqaro musobaqalar muntazam o‘tkaziladi. Osiyo olimpiya kengashi 2003-yilda kurashning bu turini Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritdi. Kurash bo‘yicha o‘tkaziladigan jahon chempionatlarida Bahrom Anazov, Isoq Axmedov, Maxtumquli Mahmudov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Akobir Qurbonov (O‘zbekiston), Kubashxonim Elknur, Selim Totar o‘g‘li (Tur-kiya), Aleksandr Katsuragi, Karlos Xonorato (Braziliya), Pavel Melananets (Polsha), Xiroyoshi Kashimoto (Yaponiya) va boshqa g‘olib chiqdilar va sovrindor bo‘ldilar [11, 122].

Kurash. O‘zbek kurashi o‘z ifodasini tarixiy yodgorliklarda topgan. Kurashda musobaqalar kurashchilar belbog‘idan yoki ustki kiyimining biror joyidan ushlab oyoqlarni chalish, yerga tashlash usulidan foydalanishgan. Musobaqadan oldin uloqtirish, sakrash, kuchni namoyish qilish kabi badan qizitish mashqlari bajarilgan. Hozirgi O‘zbekiston sarhadlarida qadimda “Milliy kurash” usuli, ya’ni raqibni belbog‘idan ushlab olish amal qilgan. “Milliy” usulda raqibni erkin ushlab olish amal qilgan. Bu kurash 1998-yilda xalqaro kurash assotsiatsiyasi Toshkentda tashkil qilingandan so‘ng, 1999-yilning 1-2-may kunlarida jahon chempionati o‘tkazildi. Akobir Qurbonov 73 kg vaznda, Kamol Murodov 90 kg vaznda, Toshtemir Muhammadiyev o‘ta og‘ir vaznda chempionlik unvonini qo‘lga kiritdilar [12, 686].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshmurodov O. E, Ashurov A.D. Milliy kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi. Leksiyalar kursi. – S.: SamDU nashriyoti, 2003. – 232 b.

2. Kerimov F. A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. – T.: O‘z DJTI nashriyot matbaa bo‘limi, 2012. – 13-20-b.

3. Xolmamatovich, J.B. (2024). Dzyudo mashg‘uloti bosqichlari. Synergy: Raqamli tergov intizomlararo jurnali (2995-4827) , 2 (2). – 5-8 b.

4. Xolmamatovich, J.B., & Bahodir o‘g‘li, AS (2023). Bolalarni yengil atletika bilan tarbiyalash uchun individual va guruhli jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil etish. Innovatsion tadqiqotlar samaraliligini orttirish uchun model va usullari, 3 (28). – 170-176 b.

5. Jumadurdiyev, B.X. (2023). Kurashish san’ati va rivojlanish bosqichlari. Zamonaviy fanlarda joriy yondashuvlar va yangi tadqiqotlar, 2 (2). – 101-105 b.

6. Jumadurdiyev, B.X. (2023). Milliy kurashning paydo bo‘lishi, kurash haqida buyuk allomalar, shoh va shoirlarning qarashlari. Экономика и социум, (2 (105). – 135-138 b.

7. Jumadurdiyev, B.X. (2023). Kurash sportining o‘rni va ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 2). – 113-119 b.

8. Furqat o‘g‘li, H.S. (2023). Yoshlarni basketbol sport turini mukammal egallashlarida texnik va taktik tayyorgarlikning o‘rni. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research, 2(24). – 215-218 b.

9. Furqat o‘g‘li, H. S., & Baxtiyor o‘g‘li, I. S. (2023, January). Professional basketbolchilarni tayyorlashda irodaviy sifatlarning ahamiyati (o‘g‘il bollar misolida). In international scientific research conference (vol. 1, no. 10, pp. 36-39).
10. Komilov, A. (2023). Kurashish qoidalari va xususiyatlari, kurashish tartibi. Research Focus International Scientific Journal , 2 (5). – 92-95 b.
11. Komilov, A. (2023). O‘zbek kurashi paydo bo‘lishi va qoidalari. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 2). – 120-126 b.
12. Komilov, A.X. (2022). O‘zbek milliy kurashi tarixining o‘ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 3(2). – 684-687 b.

THE DEVELOPMENT OF GASTRONOMIC TOURISM IN UZBEKISTAN

Shaxnoza Xashimova,
Tashkent State University of Economics, Base doctorant

Annotation

Uzbekistan, renowned for its rich cultural heritage, has been making strides in promoting gastronomic tourism to showcase its diverse culinary traditions. This paper explores the development of gastronomic tourism in Uzbekistan, highlighting its traditional cuisine, recent initiatives to attract food-loving travelers, and the cultural significance of culinary experiences. By blending tradition with innovation and leveraging food as a cultural ambassador, Uzbekistan aims to position itself as a premier destination for gastronomic enthusiasts worldwide.

Keywords: *Uzbekistan, gastronomic tourism, traditional cuisine, cultural heritage, food festivals, culinary tours, cultural significance*

Annotatsiya

Boy madaniy merosi bilan mashhur bo‘lgan O‘zbekiston o‘zining turli oshpazlik an’analarini namoyish etish uchun gastronomik turizmni rivojlantirishda yutuqlarga erishmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirish, uning an’anaviy taomlari, oziq-ovqatni yaxshi ko‘radigan sayohatchilarni jalb qilish bo‘yicha so‘nggi tashabbuslar va oshpazlik tajribalarining madaniy ahamiyati yoritilgan. An’analarni innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish va madaniy elchi sifatida oziq-ovqatdan foydalanish orqali O‘zbekiston o‘zini butun dunyo bo‘ylab gastronomik ishqibozlar uchun eng yaxshi manzil sifatida ko‘rsatishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, gastronomik turizm, an’anaviy oshxona, madaniy meros, oziq-ovqat festivallari, pazandalik sayohatlari, madaniy ahamiyat.*

Аннотация

Узбекистан, известный своим богатым культурным наследием, добивается успехов в продвижении гастрономического туризма, чтобы продемонстрировать свои разнообразные кулинарные традиции. В этой статье исследуется развитие гастрономического туризма в Узбекистане, освещается его традиционная кухня, недавние инициативы по привлечению путешественников, любящих вкусно поесть, и культурное значение кулинарных впечатлений. Сочетая традиции с инновациями и используя кухню в качестве культурного посла, Узбекистан стремится позиционировать себя как ведущее направление для любителей гастрономии по всему миру.

Ключевые слова: *Узбекистан, гастрономический туризм, традиционная кухня, культурное наследие, фестивали еды, кулинарные туры, культурное значение*

Uzbekistan’s culinary landscape, shaped by centuries of cultural exchange along the Silk Road, offers a tantalizing array of flavors and dishes that reflect the country’s vibrant heritage. In recent years, the government has been actively promoting gastronomic tourism as a means to showcase Uzbekistan’s unique food culture and attract tourists interested in experiencing the country’s authentic flavors. This paper delves into the evolution of gastronomic tourism in Uzbekistan, exploring the initiatives, cultural significance, and future prospects of this culinary journey.

Uzbekistan — a topic that tantalizes the taste buds and beckons travelers from far and wide to experience the culinary delights of this culturally rich country.[1,12]

Traditional Uzbek Cuisine:

Uzbek cuisine is a delightful blend of flavors, colors, and aromas influenced by centuries of Silk Road trade and cultural exchanges. Some iconic dishes that attract food enthusiasts include:

– Plov: This aromatic and savory rice dish cooked with meat, carrots, and spices is a staple of Uzbek cuisine.

– Shashlik: Succulent skewers of marinated and grilled

meat, usually lamb or beef.

– Lagman: A hearty noodle soup with vegetables and your choice of meat.

– Samsa: Flaky pastries filled with meat, onions, and spices, reminiscent of Central Asian dumplings.

The Rise of Gastronomic Tourism:

In recent years, Uzbekistan has been actively promoting gastronomic tourism to showcase its culinary heritage and attract food-loving travelers. The government's initiatives and investments in this sector have led to:

– Food Festivals: Events celebrating Uzbek cuisine, local ingredients, and traditional cooking methods.

– Cooking Classes: Opportunities for tourists to learn about and participate in the preparation of Uzbek dishes.

– Culinary Tours: Guided tours that take visitors to local markets, food workshops, and dining establishments to savor the diverse flavors of Uzbek cuisine.

Cultural Significance:

Gastronomic tourism not only offers a sensory experience but also provides insights into the cultural and social fabric of Uzbek society. Sharing meals with locals, understanding the symbolism behind certain dishes, and learning about traditional cooking techniques all contribute to a deeper appreciation of Uzbek culture. Future Prospects:

As Uzbekistan continues to invest in tourism infrastructure and promote its culinary traditions on the global stage, the future looks bright for gastronomic tourism in the country. By blending tradition with innovation and embracing food as a cultural ambassador, Uzbekistan is well-positioned to become a top destination for food-oriented travelers.

This study draws on a combination of primary sources, including government reports, culinary event documentation, and firsthand accounts from tourists and locals engaged in gastronomic experiences in Uzbekistan. Secondary sources such as academic articles, industry reports, and news sources are also utilized to provide a comprehensive overview of the development of gastronomic tourism in the country.

– Primary Sources:

– Government Reports: Analysis of official reports and publications from the Uzbek government related to the promotion of gastronomic tourism and cultural heritage.

– Culinary Event Documentation: Examination of documentation from food festivals, culinary workshops, and tourism events in Uzbekistan showcasing traditional cuisine.

– Interviews: Conducting interviews with local chefs, food industry professionals, tour guides, and tourists engaged in gastronomic experiences.

– Secondary Sources:

– Academic Articles: Reviewing scholarly articles on gastronomic tourism, culinary heritage, and destination marketing strategies.[2,10]

– Industry Reports: Consultation of reports from tourism organizations, culinary associations, and market research firms focusing on gastronomic tourism trends.

– News Sources: Analysis of news articles, press releases, and online publications reporting on developments in Uzbekistan's gastronomic tourism sector.

Data Analysis:

– Qualitative Analysis:

– Thematic analysis of qualitative data obtained from interviews, focusing on key themes such as cultural preservation, culinary innovation, tourist experiences, and community engagement.

– Content analysis of primary and secondary sources to identify recurring patterns, challenges, and opportunities in the development of gastronomic tourism in Uzbekistan.

– Quantitative Analysis:

– Statistical analysis of tourism data, such as visitor numbers, spending patterns, and satisfaction levels related to gastronomic experiences in Uzbekistan.

– Comparative analysis of gastronomic tourism trends in Uzbekistan with other destinations renowned for their culinary offerings.

Limitations:

– Scope: The study focuses primarily on the promotion of gastronomic tourism in Uzbekistan and may not encompass all aspects of the country's tourism industry.

– Availability of Data: Access to comprehensive data on visitor demographics, economic impact, and long-term sustainability of gastronomic tourism initiatives may be limited.

– Bias: Potential bias in the interpretation of qualitative data or reliance on certain sources could influence the study's findings.

By employing a combination of qualitative and quantitative methods and drawing insights from a diverse range of primary and secondary sources, this study aims to provide a comprehensive analysis of the materials and methods used to examine the development of gastronomic tourism in Uzbekistan.

The results of this study highlight the increasing popularity of gastronomic tourism in Uzbekistan, with a growing number of visitors seeking to explore the country's culinary traditions. Initiatives such as food festivals, cooking classes, and culinary tours have played a significant role in promoting Uzbek cuisine and enhancing the overall tourist experience. By offering tourists not only a taste of Uzbek dishes but also insights into the cultural significance of food practices, Uzbekistan is positioning itself as a top destination for food-oriented travelers. The blending of tradition with innovation in gastronomic tourism is expected to further elevate Uzbekistan's status as a culinary hotspot on the global tourism map.

In conclusion, the development of gastronomic tourism in Uzbekistan represents an exciting journey that blends

culinary traditions with cultural heritage to create a unique and immersive tourist experience. The initiatives undertaken by the Uzbek government to promote traditional cuisine, showcase local ingredients, and engage visitors in gastronomic adventures have contributed to the country’s growing reputation as a culinary hotspot. [3, 3]

Through a comprehensive analysis of primary and secondary sources, this study has highlighted the increasing popularity of gastronomic tourism in Uzbekistan and its significant impact on the tourism industry. By offering tourists not just a taste of Uzbek dishes but also a deeper understanding of the cultural significance of food practices, Uzbekistan has successfully positioned itself as a top destination for food enthusiasts seeking authentic culinary experiences.

Moving forward, continued investments in gastronomic tourism, innovative culinary events, and partnerships with local communities will be essential to sustaining the momentum and further enhancing Uzbekistan’s appeal as a gastronomic destination. The blending of tradition with innovation, coupled with a focus on cultural exchange through food, will undoubtedly continue to drive the success of gastronomic tourism in Uzbekistan and solidify its position on the global culinary map.

As Uzbekistan continues to celebrate its culinary heritage and invite visitors to savor the flavors of the Silk Road, the future looks promising for gastronomic tourism in the country. By embracing food as a cultural bridge and showcasing the rich tapestry of Uzbek cuisine, the country is poised to captivate the taste buds and hearts of travelers from around the world, offering them a truly unforgettable gastronomic journey through the flavors of Uzbekistan.

REFERENCES:

1. Botirovna O. S. THE IMPORTANCE OF CRITICAL READING FOR ACADEMIC PURPOSE OF THE LANGUAGE WITH ANALYZING PISA TESTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 181.

2. Botirovna O. S. THE IMPORTANCE OF THE PISA INTERNATIONAL PROGRAM IN TEACHING CRITICAL READING IN ENGLISH TO STUDENTS IN GRADES 8-9 //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 9. – №. 9. – C. 205.

3. Mardonov R. THE ROLE AND PLACE OF UNIVERSITIES IN THE” KNOWLEDGE SOCIETY” //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 9. – C. 325.

4. Mardonov R. Philosophy of education in modern conditions of society development //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 114.

5. Mardonov R. HUMANIZATION AND HUMANITARIZATION OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE INFORMATION SOCIETY //Conferencea. – 2021. – C. 211.

МУДДАТДАН ОЛДИН ТУХУМДОН ЕТИШМОВЧИЛИГИ: МУАММОНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ

Наргиз Шавази,
Самарқанд давлат тиббиёт университети
3-сон “Акушерлик ва гинекология” кафедраси мудири, доцент
Юлдуз Тангирова,
Самарқанд давлат тиббиёт университети
3-сон “Акушерлик ва гинекология” кафедраси ассистенти, Phd

Аннотация

Ҳозирги кунда гинекология амалиётига инновацион текшириш ва даволаш усулларини татбиқ этилишига қарамасдан муддатдан олдин тухумдон етишмовчилик (МОТЕ) кузатилган аёлларда эрта ташхислаш ва даволашда кузатиладиган муаммолар долзарблигича қолмоқда. Айни пайтда муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги кузатилган аёлларда юрак қон томир касалликлари ривожланиши хавфи юқори бўлиб, шу сабабли гемостаз тизими ва қон томирлар эндотелий ҳолатини таҳлил қилиш, аёллар гормонал статусини баҳолаш, МОТЕни даволаш мақсадида энг мақбул усулни танлаш, уларни қўллашнинг оптимал вақти ҳамда кўрсатмаларини аниқлаган ҳолда даволашнинг натижаларини баҳолаш замонавий тиббиёт амалиётида ечими топилиши зарур бўлган муаммо ҳисобланади.

Калит сўзлар: *муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги, тана масса индекси, асосий гуруҳ, эндотелиал функция.*

Аннотация

В настоящее время проблемы, наблюдаемые при ранней диагностике и лечении у женщин с недостаточностью яичников (Мот) раньше установленного срока, несмотря на внедрение инновационных методов обследования и лечения в гинекологическую практику, остаются актуальными. На данный момент женщины, у которых раньше срока произошла недостаточность яичников, имеют более высокий риск развития сердечно-сосудистых заболеваний, в связи с чем необходимо провести оценку системы гемостаза и состояния эндотелия кровеносных сосудов, оценить результаты лечения с определением оптимальных сроков их применения и показаний в современной медицинской практике,

Ключевые слова: *преждевременная недостаточность яичников, индекс массы тела, первичный стресс, состояние эндотелия.*

Annotation

Currently, the problems observed in early diagnosis and treatment in women with ovarian insufficiency (Mote) before the deadline, despite the introduction of innovative examination and treatment methods into gynecological practice, remain relevant. At the moment, women who have experienced ovarian failure before the deadline have a higher risk of developing cardiovascular diseases, due to which it is necessary to assess the hemostasis system and the endothelial state of the blood vessels, to assess the results of treatment with the determination of the optimal time for their use and indications in modern medical practice,

Keywords: *prematurely ovarian failure, body mass index, primary guru, endothelial Fundation.*

Ҳозирги вақтда дунё миқёсида ўтқазилган тадқиқотларнинг натижаси шуни курсатадики, муддатдан олдинги тухумдон етишмовчилиги (МОТЕ) биринчи марта 1942 йилда тасвирланган, шундан сўнг ушбу патологияга турли хил атамалар қўлланилган (эрта климакс, заифлашган тухумдон синдроми, резистент тухумдонлар синдроми, гипергонадотроп аменорея, аутоиммун оофорит ва бошқалар), уларнинг аксарияти бугунги кунда ҳам қўлланилмоқда [1, 4]. МОТЕ ва физиологик менопауза тубдан фарқ қилади ва синдромнинг клиник кўринишининг хусусиятлари адабиётда бир неча бор муҳокама қилинганига қарамай, унинг ташхиси шифокор учун катта қийинчиликларни келтириб чиқаради [2, 5].

Эрта менопаузанинг бошланишига олиб келадиган муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги фертил даврда фолликулаларнинг тез йўқолиши ва тухумдонлар функциясининг эрта тугаши билан тавсифланади [1, 11] Ушбу касалликнинг ёш жиҳатидан тарқалиши қуйидагича: 20 ёшгача бўлганлар орасида МОТЕ частотаси 1: 10 000, 30 ёшда — 1:1000, 35 ёшда — 1:250, 40 ёшда — 1:100 Шарқий Европа аёлларининг ва АҚШ аҳолисининг умумий МОТЕ билан аёлларнинг улуши 1, 0% ни ташкил қилади. МОТЕ афро-америкалик аёллар (1, 4%) ва испан этник гуруҳидаги аёллар (1, 4%) орасида кўпроқ учрайди, хитойлик аёллар (0, 5%) ва япон аёллари (0, 1%) орасида сезиларли даражада кам учрайди [7, 12]. Репродуктив соҳада ҳам, ундан ташқарида ҳам МОТЕ клиник кўринишларининг аксарияти асосан эстероген етишмовчилиги билан боғлиқлиги аниқланди. 40 ёшгача бўлган аёлларда жинсий гормонлар етишмовчилиги нафақат вазомотор ва эмоционал-вегетатив ўзгаришлар шаклланишига олиб келади, балки юрак-қон томир патологиясининг ривожланиши учун ҳам хавф омилидир, шунингдек суяк тўқималарининг сифатини пасайтиради ва остеопороз хавфининг ошишига олиб келади[2.12]. Қон томир эндотелийси патологик жараёнларда ва артериал гипертензия патогенезида иштирок этиши, иммунитет тизими билан ўзаро таъсир қилиши мумкин. Шу билан бирга, эндотелий антикоагулянт ва прокоагулянт хусусиятларини ҳам намойиш этади. Атеросклероз бўйича ўтказилган мульти-этник тадқиқот шуни кўрсатадики, юрак-қон томир касалликлари учун маълум хавф омилларидан қатъи назар, МОТЕ мустақил равишда юрак қон томирлари касаллиги ва инсультнинг башоратчиси ҳисобланади.

Тадқиқотнинг мақсади гемостаз тизими ҳолатини ва қон томир эндотелий функциясини баҳолаш орқали муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги синдроми мавжуд бўлган аёлларни олиб бориш тактикасини такомиллаштириш натижасида юрак қон томир тизими томонидан ривожланадиган асоратларни олдини олишдан иборат.

МОТЕ билан касалланган 105 бемор кузатув остида бўлиб, 2 гуруҳга бўлинди:

Асосий гуруҳ (АГ) — муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги билан 55 та аёл, улар 2 кичик гуруҳга бўлинган:

АГа — МОТЕ билан касалланган 25 аёл, касалланиш муддати — 3 йилгача.

АГб — МОТЕ билан касалланган 30 аёл, касалланиш муддати — 3 йилдан ортиқ.

Таққослаш гуруҳи (ТГ) — 40 ёшгача бўлган жарроҳлик менопаузасидан кейинги 50 нафар аёл.

Асосий гуруҳдаги аёлларда ҳайз кўришнинг ўртача ёши 13, 1±0, 2 йилни ташкил этди. МОТЕ бўлган барча беморларда (100%) касалликнинг ривожланишидан олдин нормал ҳайз йикли кузатилган.[2, 24]

Гинекологик анамнезни ўрганиш жараёнида асосий гуруҳдаги аёлларнинг аксарияти ўтмишда маълум гинекологик касалликларга дучор бўлганлиги аниқланди, хусусан, 14 (25, 4%) аёлларда анамнезида кичик чаноқ аъзоларининг яллиғланиш касаллик-

лари, 8 та (14, 5%) аёллар даврий даволанганлиги, 4 (7, 2%) аёлда киста ва кистомалар, шу сабабдан 2 (3, 6%) аёлда операция қилинганлиги, 1 (1, 8%) аёлда тухумдон ҳомиладорлиги, тухумдон апоплекцияси 1 (1, 8%) аёлда учради. Бундан ташқари, 2 (3, 6%) аёлда бачадон миомаси ва 1 нафар (1, 8%) аёлда эндометриоз аниқланиб, уларга тегишли даволаш чоралари кўрилди. МОТЕ бўлган беморлар 38% ҳолларда тартибсиз жинсий алоқада бўлган ёки уларнинг тўлиқ йўқлиги кузатилган.

Тадқиқотда умумий клиник ва замонавий тадқиқот усуллари қўлланилган: тана массаси индекси (ТМИ), гемостаз тизими ҳолатини ўрганиш учун қуйидаги параметрлар аниқланган: D-димер, ХННК, тромбоцитлар сони ва уларнинг агрегация функцияси, фибриноген даражаси; эндотелий функцияси АнгиоСкан-01П қурилмаси (қон томир тизимининг ёши, қон томирларининг қаттиқлиги, стресс индекси) ва эндотелин I концентрацияси ёрдамида томирларнинг эластиклигини аниқлаш орқали ўрганилди. Бундан ташқари, биз гормонлар даражасини ва тухумдонлар захирасини, баъзи биокимёвий кўрсаткичларни (қон липид спектри, HOMA индекси), шунингдек, бачадон бўйни ҳолатини (кенгайтирилган колпоскопия) ўрганиб чиқдик ва кичик чаноқ аъзоларининг ультратовуш текширувини ўтказдик. Барча натижалар ва тавсиялар статистик далилларга асосланган тиббиёт томонидан тасдиқланган.

Эндотелиал функция фотоплетизмография билан аниқланди. Реактив гиперемия билан синов ўтказишда қурилманинг ўзи 2 кўрсаткични – амплитуда окклюзия индексини ва каналлар орасидаги фаза силжишини ҳисоблаб чиқди. Ишнинг ушбу қисмининг натижалари 3-жадвалда келтирилган.[1, 21]

1-жадвал

Тадқиқот гуруҳларида реактив гиперемия билан синов кўрсаткичлари

Кўрсаткич	Асосий гуруҳ (n=55)	Таққослаш гуруҳи (n=50)	Назорат гуруҳи (n=50)
Амплитуда окклюзия индекси	1, 67±0, 06*	1, 72±0, 06*	2, 48±0, 03
Каналлар орасидаги фазали силжиш (мс)	7, 8±0, 32*	7, 04±0, 32*	11, 02±0, 4

Изоҳ: p(<0.001) – таққосланган кўрсаткичларни назорат гуруҳи кўрсаткичлари ўртасидаги фарқларнинг ишончлилиги*

1-жадвал асосида, реактив гиперемия билан тест яширин эндотелиал дисфункция мавжудлигини кўрсатди — биз иккала параметрда ҳам сезиларли фарқларни олдик, айниқса иккала тадқиқот гуруҳининг кўрсаткичларини назорат билан солиштирганда. 1-2-расмларда учта ўрганилган гуруҳ вакилларининг типик фотоплетизмограммалари кўрсатилган.



1-расм. Бемор С.нинг фотоплетисмограммаси, 29 ёш, назорат гуруҳи, карта №906, ташхиси Сурункали эндометрит. Бачадон бўйни паппиламатози.



2-расм. *Бемор У.нинг фотоплетизмограммаси, 30 ёш, асосий гуруҳ, карта №546, ташхис.МОТЕ касалликнинг давомийлиги 3 йилдан ортиқ.*



3-расм. *Бемор М.нинг фотоплетизмограммаси, 28 ёш, таққослаш гуруҳи, карта рақами №894. Чап ортиқлар билан бачадонни олиб ташлашдан кейинги ҳолат, касалликнинг давомийлиги 2 йил.*

4-расмда эндотелиал дисфункцияси бўлган асосий гуруҳдаги беморнинг фотоплетизмограммаси кўрсатилган.



4-расм. Бемор Р.нинг фотоплетизмограммаси, 31 ёш, МОТЕ, карта №985, касалликнинг давомийлиги 3 йилгача

Бемор Р.да (4-расм), окклюзия билан ўтқазилган тестдан сўнг сигнал амплитудаси бироз ошди. Бу томирларнинг вазодилатация функциясининг пасайишини кўрсатади. Чап қўлдан сигнал ёзиш (назорат, окклюзион синама бажарилмади). Оклюзия индекси 1, 8, каналлар орасидаги силжиш 5, 5 мс. Шундай қилиб, биз бу беморда эндотелиал дисфункцияга бор деган хулосага келдик.

Ўрта ва кичик артериялар ва артериолалардаги беморларнинг учта текширилган гуруҳида эндотелий функциясини тавсифловчи кўрсаткичларни ўрганиш МОТЕ (шу жумладан ятроген) бўлган аёлларда эндотелиал дисфункциясига эга эканлигини кўрсатди. Эндотелийнинг вазифаси бутун инсон танасида бир хил бўлишини ва қон томир артериал тўшагининг ҳар қандай қисми бутун организм эндотелийсининг функциясини кўрсатиши мумкинлигини ҳисобга олсак, бу усул жуда маълумотлидир. Эндотелиал дисфункция универсал жараён бўлиб, шу муносабат билан биз фотоплетизмография ёрдамида олинган маълумотларни текширилган беморларнинг бутун танасига ўтқаздик.

Хулоса қилиб айтсак, МОТЕ етишмовчилиги бўлган беморларнинг қон томир деворининг эластиклиги сақланиб қолади, аммо касалликнинг давомийлиги 3 йилдан ортиқ бўлса, у камаяди. Кўринишидан, бу эстроген етишмовчилигининг танага узоқ муддатли таъсири билан боғлиқ. Терапевтик даво муолажаларини тайинлашда менопауза давомийлигига ва қон томир эластиклиги параметрлари кўрсатгичларидаги ўзгаришларни эътиборга олиш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Набиева Д.Ю. Каюмова Д.Т., Мухитдинова Т.К. Клинико-патогенетические аспекты преждевременной и ранней менопаузы. пути коррекции //Медицинская наука Узбекистана. – 2022. – №. 1. – С. 115.
2. Найимова Н.С. и др. Коррекция измения гормонального дисбаланса у женщин с синдромом преждевременной недостаточности яичников //Печатается по решению редакционно-издательского совета ФГБОУ ВО КГМУ Минздрава России. – 2021. – С. 48.
3. Кумыкова З.Х., Батырова З.К., Уварова Е.В. Преждевременная недостаточность яичников в раннем репродуктивном возрасте: современные аспекты диагностики и ведения //Репродуктивное здоровье детей и подростков. – 2019. – Т. 15. – №. 4. – С. 60.
4. Canonico M. et al. Hormone replacement therapy and risk of venous thromboembolism in postmenopausal women: systematic review and meta-analysis //Bmj. – 2008. – Т. 336. – №. 7655. – С. 1231.
5. Davis S. R. et al. Efficacy and safety of a testosterone patch for the treatment of hypoactive sexual desire disorder in surgically menopausal women: a randomized, placebo-controlled trial //Menopause. – 2006. – Т. 13. – №. 3. – С. 396.
6. Chen C. et al. Protective effects of puerarin on premature ovarian failure via regulation of Wnt/β-catenin signaling pathway and oxidative stress //Reproductive Sciences. – 2021. – Т. 28. – №. 4. – С. 990.
7. Gunning M. N. et al. Coronary artery calcification in middle-aged women with premature ovarian insufficiency //Clinical endocrinology. – 2019. – Т. 91. – №. 2. – С. 322.
8. Ivell R., Anand-Ivell R. Insulin-like peptide 3 (INSL3) is a major regulator of female reproductive physiology // Human reproduction update. – 2018. – Т. 24. – №. 6. – С. 651.

MILLIY KURASH TURLARI VA UNI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI FANINING JISMONIY TARBIYA FANLARI TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Aziz Komilov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy kurash turlarining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o‘rni, ahamiyati haqida, milliy kurashining jahon arenasiga chiqib kelishi, Kurash orqali chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, tezlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlanishi, ma’naviy-axloqiy kamolotga erish yo‘llari, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, “Jismoniy tarbiya gigiyenasi”, “Jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi”, “Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi”, “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqligi haqida quyidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, tezlik, halollik, tana va ruh uyg‘unlashuvi, texnika, taktika, milliy qadriyatlar, vatanga sadoqat, oliyjanoblik, insoniylik, jasurlik, mag‘rurlik, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, insof-diyonat.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются роль и значение национальной борьбы в системе физического воспитания, вывод национальной борьбы на мировую арену, развитие посредством борьбы таких физических качеств, как ловкость, ловкость, сила, быстрота, способы духовной и моральная зрелость, “Физика” о ее неразрывной связи с такими дисциплинами, как “Теория и методика культуры”, “Гигиена физической культуры”, “Физиология и биомеханика физических упражнений”, “Спортивные игры и методика ее преподавания”, “Гимнастика и методика ее преподавания”, выделена следующая информация.

Ключевые слова: *ловкость, ловкость, сила, скорость, честность, гармония тела и души, техника, тактика, национальные ценности, верность Родине, благородство, человечность, мужество, гордость, доброта, вера, вера, честность.*

Annotation

In this article, the role and importance of national wrestling in the system of physical education, the introduction of national wrestling to the world arena, the development of physical qualities such as agility, dexterity, strength, speed through wrestling, the ways of spiritual and moral maturity, “Physical about its inextricable connection with disciplines such as “culture theory and methodology”, “Physical training hygiene”, “Physiology and biomechanics of physical exercises”, “Sports games and its teaching methodology”, “Gymnastics and its teaching methodology” the following information is highlighted.

Keywords: *Agility, dexterity, strength, speed, honesty, harmony of body and soul, technique, tactics, national values, loyalty to the motherland, nobility, humanity, courage, pride, kindness, faith. faith, honesty.*

O‘zbek milliy kurashining jahon arenasiga chiqib, milliy mustaqillik yillarida shiddat bilan bir xalqning ma’naviy-jismoniy qadriyatidagi turli xalqlar va millatlarning udumiga aylanganligi olamshumul hodisadir. Zero kurash o‘z jangovarligi, go‘zalligi, jozibadorligi, halolligi bilan barchaning mehrini uyg‘otgan, o‘ziga katta qiziqish uyg‘ota olgan sport turi hisoblanadi. Kurashda kurash tushuvchilar harom-harishdan, g‘irromlikdan, o‘g‘rilikdan, kashandalikdan yiroq bo‘lib, oliyjanoblik, insoniylik, hatto raqibiga nisbatan hurmat ko‘rsatadigan insonlar bo‘lishi talab etiladi [2, 8]. Kurash insonlarni chiniqtiradi, irodani mustahkamlaydi, xalqiga, Vataniga bo‘lgan muhabbatini uyg‘otadi va mustahkamlaydi. Shuning uchun ham kurashchilar qat’iy qarorga ega bo‘lib, hech qachon do‘stlariga, millatiga, Vataniga xiyonat qilmaydilar. Kurash irodani toblaydigan, aniq maqsad sari undaydigan, qiyinchiliklarni chidam va bardosh bilan yengishga o‘rgatadigan sport turi hisoblanadi. Shu ning uchun ham kurash insonni ma’naviy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolotga yetkazuvchi tarbiya maktabi rolini o‘taydi [3, 94]. Kurash tushuvchilar yakkama-yakka bellashuv natijasida o‘zlarida chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, tezlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantiradilar, ma’naviy-axloqiy kamolotga erishadilar.

Ma’lumki, o‘zbek milliy kurashi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududida keng tarqalgan sport turi bo‘lib, bu hududlarda kurashning “Buxorocha” va “Farg‘onacha” shakllari keng qo‘llaniladi.“Buxorocha” kurashda tik turgan holda, beldan pastni ushlamasdan, qalmoqi qilib yiqitish usuli mavjud. Bu kurashning asosiy usullari raqibni oshirib otish, qalmoqi, qoqma, ichki tomondan poypechak qilib ag‘darib, raqibning yelkasidan ushlab, tizza tomon bilan ilmoq qilib yelkadan oshirib tashlashdan iborat [4, 125]. Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida “Buxorocha” kurash rasm bo‘lgan. Farg‘onacha kurashda raqiblar tik turgan holda, oldinda belbog‘idan ushlanadi, bellashuv paytida ham qo‘yib yuborilmaydi. Raqibni yerdan ko‘tarib, oyoq harakatlari bilan yiqitiladi. Bu kurashning xarakterli usullari: irg‘itish, raqibni, avvalo, yerdan uzib irg‘itish, raqibni egib, aylantirib, boshini gilamga tegizmasdan irg‘itish, raqibni aylantirib yiqitish,

ISSN 2181-8274

raqibni sonidan ushlab, qayirib yelkadan oshirib yiqitish. Farg‘onacha kurash Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hududida rasm bo‘lgan Ha, kurash xalqimizning qadimiy, hammabop, keng tarqalgan, halollikni talab etadigan, g‘irromlikdan yiroq bo‘lgan qadriyatlardan biri. U milliy mustaqillik yillarida keng quloch yozdi, keng sarhadlarga ega bo‘ldi, u jahonni qamrab olmoqda. Yer kurrasining besh qit’asidagi 100 dan ortiq mamlakatlarida o‘zbek kurashining ixlosmandlari, muxlislari va ishtirokchilari mavjud [1, 21]. Milliy g‘urur, halollik, fidoiylik, mag‘rurlik, jasoratni o‘zida mujassamlashtirgan milliy o‘zbek kurashi 1992-yildan boshlab nufuzli musobaqalar sababchisi bo‘lmoqda. Qorako‘lda “Tursun ota”, Shahrisabzda “Amir Temur”, Surxondaryoda “at-Termiziy”, Buxoroda “Bahovuddin Naqshband”, Andijonda “Bobur Mirzo”, Xorazmda “Pahlavon Mahmud” xotirasiga bag‘ishlab Prezident sovrini uchun o‘tkazilgan xalqaro turnirlar o‘zbek kurashining yuksak darajaga ko‘tarilishida, jahon sport olamiga yangi tur bo‘lib kirishiga katta hissa qo‘shdi[5, 686]. Shu bois bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya fanlari tizimidan o‘rin olgan milliy kurash o‘quv predmeti yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi, ma’naviy-axloqiy salohiyati, irodaviy sifatlarini yuksaltiruvchi, ularni ijtimoiy mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlovchi muhim vosita sifatida keng targ‘ib qilinmoqda. Zero, bu fan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqib, o‘quvchi yoshlarimizni:

– jismoniy chiniqqan, barkamollik, baquvvat insonlar bo‘lib yetishishga;

– irodali, matonatli, dovyurak va jasoratli bo‘lishga;

– mutelik va jur’atsizlikdan xoli, har qanday xavf-xatarni bartaraf qilishga tayyor turuvchi mard o‘g‘lonlar bo‘lishiga;

– mustaqil fikr, erkin tafakkur, ijodkor, tashabbuskor bo‘lib yetishiga;

– o‘zligini chuqur anglagan, iymon-e’tiqodli, insof-diyonatli, sabr-qanoatli, mehr-oqibatli, insonlar bo‘lib, vatanimiz sarhadlarining daxlsizligini ta’minlashgan tayyor turishni o‘rgatishga;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy merosni asrab-avaylab, ko‘paytirishga, xalqini, millatini har qanday nosozliklardan mudofaa qilishga tayyor turishga yo‘lovchi fan bo‘lib xizmat qiladi.

Bu hol yoshlarimizni bugungi shiddatkor hayot va jamiyat talablariga javob bera oladigan insonlarga, yangi bunyod etiladigan jamiyatning faol ishtirokchilariga aylantirishi tabiiydir. Shu bois, ta’lim muassasalarida, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Milliy kurash turlari va o‘qitish texnologiyalari” fanining nufuzi yanada oshdi [6, 7]. Shuningdek, o‘zbek kurashining jahonni qamrab olayotgani, Xalqaro kurash Assotsiatsiyasining tuzilishi, kurash bo‘yicha xalqaro turnirlarning o‘tkazilayotgani, olimpiya o‘yinlariga kurash musobaqasining kiritilishi, mazkur fanning o‘qitilishiga e’tiborni yanada kuchaytirdi. E’tirof etib o‘tish joizki, “Milliy kurash turlari va o‘qitish texnologiyalari” fani o‘quvchi-yoshlarni chaqqonlik, epchillik, jasurlik, mag‘rurlik, jasoratga o‘rgatishga, ularda mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, insof-diyonat, halollikni tarbiyalashga xizmat qilar ekan, u jismoniy tarbiyaga oid fanlarning ma’lumotlariga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, “Jismoniy tarbiya gigiyenasi”, “Jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi”, “Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi”, “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” kabi fanlardagi ma’lumotlar yoshlarga milliy kurashni o‘rgatishi, ularni umumiy va maxsus jismoniy tayyorlash, harakatlar texnikasini singdirish, kurashchilarning kurash jarayonidagi irodaviy, ma’naviy, ruhiy tayyorgarligini ta’minlash, shuningdek kurash mashg‘ulotlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va o‘tkazish masalalarini loyihasida amaliy yordam ko‘rsatadi. Chunonchi, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fani kurashchilar jismoniy madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini, jismoniy harakat malakalari va ko‘nikmalari, ularni tarbiyalash prinsiplari, metodlari hamda usullarini insoniyat tamadduni erishgan yutuqlar asosida o‘zlashtirishga, jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish masalalarini yoritishga xizmat qilsa, “Jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi” fani yoshlar sog‘lom turmush tarzining fiziologik xususiyatlarini, o‘quvchi-yoshlar organizmining funksional imkoniyatlarini, jismoniy mashqlar tasniflarining fiziologik asoslari va harakat ko‘nikmalarining rivojlanishini, muskullar faoliyatini vegetativ ta’minlash, jismoniy yuklamalari, me’yoriy-fiziologik asoslari haqida tushunchalar berishini ta’minlaydi. Bu esa shu sohaga oid bilimlarni kurashchilarning barcha qatlalarini ma’rifatli qilish, o‘z jismoniy tayyorgarligini bosqichma-bosqich chiniqtirib borishga yordam berishi tabiiydir. Ma’lumki, kurash texnikasi va taktikasida kurashchining muvozanatni saqlash, uloqtirish, aylantirish, oyoq bilan ichkaridan ushlab uloqtirish, yon tomondan uloqtirish, oldindan chalib uloqtirish, qoqma, ilish, chalish, siltab yiqitish kabi usullar nihoyatda muhim. Mazkur usullarni mustahkam egallashda umumiy rivojlantiruvchi, muvozanatni saqlab olish, akrobatika, tayanib sakrashlar, bruslarda mashq qilish, turniklardagi mashqlar, uloqtirish, sakrash kabi gimnastik mashqlar nihoyatda zarur. Shu nuqtayi nazardan “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” fanidagi ma’lumotlar kurashchiga katta amaliy yordam ko‘rsata oladi[7, 173]. “Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi” fanining mazmunidan o‘rin olgan yengil atletika mashqlari texnikasi, saf mashqlari, bir joyda turib va harakat qilib bajariladigan umumiy va rivojlantiruvchi mashqlar kurashchiga taktik va texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, qisqa, o‘rta masofalarda yugurish, to‘siqli yugurish, balandlikka va uzunlikka sakrashlar, nayza, disk uloqtirish kabi mashqlar

kurashchining umumiy rivojlanishi va maxsus tayyorgarligini ta’minlashga yordam berib, uning ruhiy va irodaviy tayyorgarligini ta’minlashga xizmat qiladi. Gigiyenik nuqtayi nazardan chiniqish, jismoniy mashqlarni me’yorlashtirish, doimiy maxsus jismoniy harakatlar uchun gigiyenik talablar, dam olish, harakatni tiklash, ovqatlanishni me’yorlashtirish kabi masalalarni o‘rganishda “Jismoniy tarbiya gigiyenasi” fanidagi mashg‘ulotlar kurash tushuvchiga ham nazariy, ham amaliy yordam beradi. O‘zida halollik va poklikni mujassamlashtirgan, yoshlarimizning jismoniy, irodaviy, ma’naviy-axloqiy fazilatlarining tarkib topishiga katta ahamiyat kasb etgan davra kurashi asosida maydonga kelgan va yangi sport turi tarzida tan olingan “O‘zbek kurashi” uzoq tarixga ega. O‘tmishda ajdodlarimiz milliy udum va urf-odat sifatida to‘y-hashamlarda, bayramlarda, katta ma’rakalarda va hatto davlatlar, hukmronlar o‘rtasiga nizo tushgan paytlarda ham kurash tushishgan. Ikki raqib polvonlari o‘rtaga chiqib kurash tushishgan va nizo, qirg‘inbarotsiz, urushsiz, qon to‘kishsiz hal etilgan [8, 103]. Chunki xalq o‘z polvonining mardligiga adolatli ekanligiga, halolligiga ishonishgan va ularga tayanib ish tutishgan. Bu va shunga o‘xshash masalalarni kengroq va chuqurroq tahlil qilish, Amir Temur, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Husayn Boyqaro kabi sarkarda va amirlarning kurash o‘yiniga bo‘lgan behad hurmatlarini bilib olishda “Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish” fanidagi ma’lumotlarga tayanadilar. Mazkur fanni o‘rganish jarayonida mamlakatimiz va chet ellarda xalqaro sport harakatlari qatorida kurash turlari ning rivojlanishi, O‘zbekiston kurashchilari va sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o‘yinlarida ishtiroklarini bilib olish imkoniyati yaratiladi. Sportchini, murabbiyni va tashkilotni iqtisodiy-huquqiy statusi,jismoniy madaniyati va kurash sohasida mutaxassislarni tayyorlash istiqbollari, uzoqqa mo‘ljallangan maqsad va vazifalar tarzida (“Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimizdir”) muayyan sportchi-kurashchilar manfaatlarini himoya qilishning nazariy asosi sifatida qaraladi. Darhaqiqat, asrlar silsilasidan, davrlarning murakkab sinovlaridan mardona o‘tgan, chinakam mardlar, munosib raqiblar bahsi bo‘lgan o‘zbek milliy kurashi mustaqillik yillarida hayotbaxsh ruh kasb etib keng jahon bo‘ylab quloch yoyganligi bayramlar, sayllar,turli mahaldagi musobaqalar, Olimpiya o‘yinlarida, yana arenalarda paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar, mazkur fan orqali talabalar diqqatiga havola etiladi. Ushbu fan mavzulari o‘rganilganda I.A.Karimovning “Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanini nazarda tutishimiz kerak! Xotirasiz barkamol inson bo‘lmagani singari, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Tarix xotiralari insonni hushyorlikka o‘rgatib, mardlikka da’vat etadi, irodasini mustahkamlaydi” – degan nazariy qarashari kurashchi-sportchilarga singdiriladi. Shunday qilib, barcha jismoniy tarbiyaga oid fanlar yoshlarni jismoniy chiniqishga, sog‘lom turmush tarzini qurishga, ularda yengillik, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, irodaviylik fazilatlarini tarbiyalashga hamda yosh avlodni mehnat faoliyati va Vatan himoyasiga tayyorlaydigan muhim kuch hisoblanadi.Milliy istiqlol tufayli o‘zbek kurashi jahonga tanildi. U o‘zining jozibadorligi, go‘zal va nafis harakatlarga ega bo‘lganligi sababli jahon xalqlarida katta qiziqish uyg‘otdi [9, 137]. Bugungi kunda Lotin Amerikasi, Yevropa, Osiyo qit’asining ko‘plab mamlakatlari o‘zbek kurashiga katta e’tibor qaratib, kurash bo‘yicha tashkil etiladigan musobaqalarni, kongresslarni ishtiyoq bilan kuzatmoqdalar. O‘zbek xalqining qadimgi qadriyati, faxri, g‘ururi bo‘lgan o‘zbek kurashi bo‘yicha tuzilgan “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Respublika Prezidentining farmoni qabul qilingandan so‘ng (fevral, 1999-yil) Respublikada milliy kurashga e’tibor kuchaytirildi. Mamlakatda va chet ellarda milliy kurash bo‘yicha “Islom Karimov turnir”lari o‘tkazila boshlandi. Respublika ta’lim muassasalari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim maktablarida kurash bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazila boshlandi, seksiyalar tashkil qilindi, turli mavqedagi turnirlar o‘tkazilmoqda. Bu esa oliy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish, uni o‘rganishning samaradorligini oshirish yo‘llarini, qonunlarini, texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu talab bizga “Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasini yaratishga da’vat etdi. Qo‘llanmada zamonaviy o‘qitish texnologiyalari haqida qisqacha ma’lumot berilib, uni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qilindi [10, 115].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

